JAHON TARIXIDAN UNIVERSAL QO‘LLANMA

Toshkent
«Akademnashr»
2013

MAJBURIY NUSXA

UDK: 94(419)
KBK 63.3(0)
J39

J39 Jahon tarixidan universal qo'llanma / tuzuvchilar: D.O'roqov, A.Sharopov. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 640 b.

UDK: 94(419)
ISBN 978-9943-389-28-1 KBK 63.3(0)

Ushbu qo'llanmada eng qadimgi davrlardan to shu vaqtgacha jahon tarixida yuz bergan asosiy voqealar qamrab olingan. O'quvchiga qulaylik yaratish maqsadida muhim sanalar, joy va shaxs nomlari, e'tiborga molik nuqtalar ajratib ko'rsatilgan, yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan. Kitob tilining sodda va tushunarli bo'lishiga ahamiyat berilgan. Qo'llanma keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

To'plab nashrga tayyorlovchilar:

Dilshodbek O'ROQOV, Abdulla SHAROPOV

Mas'ul muharrir:

Y.G'AFFOROV, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

A.XOLLIYEV, tarix fanlari nomzodi, dotsent,
A.RAZZOQOV, katta o'qituvchi

O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi metodik markaz tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK
2015/215
A 8756

ISBN 978-9943-389-28-1

© «Akademnashr», 2013

I BO'LIM. QADIMGI DUNYO TARIXI

1-BOB. IBTIDOIY JAMOA TUZUMI

1.1. ENG QADIMGI ODAMLAR

Qadimgi davr bosqichlari. Tarixchilar insoniyatning eng qadimgi davrini turli bosqichlarga bo'lib o'rganadilar. Bunda mehnat qurollari qanday mahsulotdan yasalgani asos qilib olinadi. Insoniyat tarixidagi ilk bosqich **paleolit**, ya'ni tosh asri hisoblanadi. Paleolitning o'zi uchga bo'linadi: **ilk paleolit (miloddan 1 mln – 100 ming yil avval), o'rta paleolit (miloddan 100 ming – 40 ming yil avval), so'nggi paleolit (miloddan 40 ming – 12 ming yil avval)**. Paleolitdan keyingi davr **mezolit (miloddan 12 – 7 ming yil avval)**, ya'ni o'rta tosh asri deyiladi. Mezolitdan so'ng **neolit**, ya'ni yangi tosh asri (**miloddan 6 – 4 ming yil avval**), **eneolit**, ya'ni mis-tosh asri (**miloddan 3 – 2 ming yil avval**), **bronza davri (miloddan 2 – 1 ming yil avval), ilk temir davri (mil. av. 1-mingyillikning 1-yarmi)** keladi. Mazkur davrlashtirish shartli bo'lib, yer yuzining turli mintaqalarida turlicha kechgan.

Eng qadimgi odamlar. Eng qadimgi odam suyaklari qoldiqlari Janubiy Afrikadan – **avstralopitek**, Sharqiy Afrikadagi Zinj vodiysidan, Olduvay darasidan – **zinjantrop**, Yava orolidan (Indoneziya) – **pitekantrop**, Xitoy hududidan – **sinantrop** va Farg'ona vodiysidagi Selungur manzilgohidan, Germaniyadan – **neandertal** va Fransiyadagi Kromanyon g'oridan hozirgi qiyofadagi odam – **kromanyon** topib tekshirilgan.

Qadimgi odamlarning mashg'ulotlari. Qo'pol tosh qurollarning uchi bir tomonga qaratib o'tkirlangandi. Ular **chopperlar** deb atalgan. Mehnat qurollari odamlarga yegulik topish uchun kerak bo'lgan. Dastlabki mehnat qurollari ancha oddiy edi. Uchi o'tkirlangan tosh va tayoq bilan qurollangan odam hayvonlarni ovlagan, uchi o'tkir tayoq yordamida o'simliklarning iste'molga yaroqli ildizlari va ildizmevalarini kavlab olgan. Kishilarning eng qadimiy mashg'uloti termachilik va ovchilik o'zlashtiruvchi xo'jalik deb ataladi.

Diniy e'tiqodlarning vujudga kelishi. Mehnat faoliyati, olam haqida to'plangan bilimlar asta-sekin inson tafakkurini o'zgartirib bordi. Odam o'ziga tushunarsiz hodisalar haqida o'ylay boshladi: kun bilan tun, fasllar almashishi, vulqonlar otilishi, yer qimirlashi va boshqa tabiat hodisalari odam fikrini o'ziga tortgan. Ana shu hodisalarni tushuntirib berish qo'li-

dan kelmagan inson momaqaldiroq, yashin, shamol, yomg'ir kabi tabiat kuchlariga sig'ina boshlagan. Bora-bora qadimgi odamlarda inson vafot etganidan keyin yashashni davom ettiradigan o'zga bir olamga ketadi degan aqidaga ishonch paydo bo'ldi.

Odamni o'rab turgan muhitda jonlar va ruhlar mavjudligiga e'tiqod fanda **animizm** deyiladi. Yil fasllari almashinuvi, momaqaldiroq, bo'ronni qadimgi odamlar ruh mujassamlashgan tabiat kuchlari harakati deb tushunganlar. Eng qadimgi odamlar u yoki bu buyumlar omad keltirishiga yoxud balo-qazoni bartaraf etishiga ham e'tiqod qilganlar. Bu e'tiqod **fetishizm** nomini olgan. So'nggi paleolitga oid qoya rasmlari topilishi eng qadimgi odamlarda diniy e'tiqodlar bo'lgani to'g'risidagi isbotlardan biridir. Qoyatosh rasmlaridan eng qadimiylari Ispaniyadagi **Altamir** va Boshqirdistondagi **Kapovaya** g'orlaridan topilgan.

1.2. URUG'CHILIK JAMIYATI

So'nggi paleolit. **So'nggi paleolit** davrida (**mil. av. 40 – 12 ming yil avval**) toshga ishlov berish texnikasi va mehnat qurollari yasash usullari o'zgardi. Odamning o'zi ham, tashqi qiyofasi ham o'zgarib bordi. Mazkur davrda hozirgi qiyofadagi odam – **kromanyon** odami yashagan.

Taxminan **25 – 30 ming yil muqaddam** odamlar ancha takomillashgan **kesuvchi**, **arralovchi** va **parmalovchi** mehnat qurollari yasashni o'zlashtirgan. Inson endilikda taqinchoqlar – munchoqlar, tumorlar va uzuklar ham yasay boshladi. Odamlar qarindoshlardan tarkib topgan ixcham guruhlarga – **urug' jamoalari**ga ajralib chiqishdi. Urug'ga **oqsoqol** sardorlik qilgan, urug' a'zolari bitta manzilgohda yashagan. Bir joyda yashab turgan bir qancha urug'lar **qabila**ni tashkil etgan. **Turarjoylar** qurilishi so'nggi paleolit davri odamlarining muhim ixtirosi bo'ldi. Kiyim-kechak tayyorlashda hayvonlar terisi ishlatilardi. Inson bu davrda **sun'iy olov** (yog'ochni bir-biriga ishqalash, chaqmoqtoshni bir-biriga urish orqali) hosil qilishni ham o'rganib oldi.

Mezolit davri. **Mezolit** davri (o'rta tosh asri) taxminan **mil. av. 12 – 7-mingyilliklar**da davom etgan. Mezolit boshlanishi bilan muzlik davri poyoniga yetdi, bu narsa iqlim ancha ilishiga va odamlar turmushida o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Mezolit davrida inson **o'q-yoy** yasashni o'rganib oldi. O'q-yoy kashf etilishi bilan, odam ixtiyorida chopqir hayvonlar va qushlarni ovlash imkoniyati vujudga keldi. Mezolit davri oxirida inson hayvonlarni qo'lga o'rgata boshladi. Ovchilar itni qo'lga o'rgatishdi, itlar bilan birga ov qilinganda o'lja oldingisiga qaraganda mo'l-ko'l bo'ldi.

Tiriklayin tutib olingan hayvonlarni endi odamlar yegulik zaxirasi sifatida saqlab qo'yadigan bo'lishdi. Mezolit davri oxirida **Old Osiyo**da xo'jalikning yangi tarmoqlari – **ibtidoiy ziroatchilik** va **chorvachilik** vujudga keldi. Shunday bo'lsa-da, xo'jalikning aytib o'tilgan tarmoqlari neolit davrida keng tarqaldi.

Dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi. **Neolit** davrida o'zlashtiruvchi xo'jalikda tub o'zgarishlar sodir bo'ldi, tabiatdan barcha tayyor narsalarni ola boshlagan inson endi **ishlab chiqaruvchi xo'jalik** – ziroatchilik va chorvachilikka o'tdi. Arxeologlar neolit davri boshlanishini sopol idishlar yasashning kashf etilishi bilan belgilaydilar. Mezolit va neolit davrida odam toshdan kichik mehnat qurollari – **mikrolitlar** yasashni, toshga ishlov berishning odamga tanish bo'lmagan usullari: **silliqlash, arralash, sirlash** va **teshikchalar** parmalashni qo'llay boshladi.

Neolit davrida qabilalar o'troq turmush tarziga o'tib, **doimiy turarjoylar** qurganlar. **Paxsa imoratlar** qurish boshlangan. Asta-sekin urug' jamoalarining o'troq manzilgohlari shakllanib bordi. O'troq turmush tarziga o'tilishi **hunarmandchilik** rivojiga zamin yaratdi. **Kulolchilik, to'quvchilik** neolit davrining muhim kashfiyot va ixtirolaridir.

1.3. ENEOLIT VA BRONZA ASRI

Metall davrining boshlanishi. Neolit davri oxirida odamlar **mis**dan foydalanish, undan mehnat qurollari va qurol-yarog'lar yasashga o'tdilar. Misdan yasalgan qurollar toshdan yasalganlari bilan barobar ishlatilgan davrni **eneolit** – mis-tosh asri deb atashadi. Bu davr **mil. av. 4 – 3-ming-yilliklar**ga to'g'ri keladi. Mis qurollar unchalik keng tarqalmadi. Odamlar misni qalay, qo'rg'oshin bilan birga qo'shib eritib bronza hosil qilganlaridan so'ng, misga nisbatan mustahkam sun'iy metall yuzaga keldi.

Mil. av. 4-mingyillikda Qadimgi Sharqda **ilk shaharlar** va **davlatlar** vujudga kela boshladi. Sopol idishlar **hayvonlar, qushlar va o'simliksimon naqshlar (yaproqlar, gullar)** bilan bezatiladigan bo'ldi. **Bronza mil. av. 3-mingyillik o'rtalari**dan mehnat qurollari, qurol-yarog'lar va zeb-ziynatlar tayyorlashda asosiy materialga aylandi.

Odamlar mis va bronzadan mehnat qurollari yasashni o'rgangan kezlardan beri oradan ko'p asrlar o'tdi. Faqat **mil. av. 1-mingyillik boshlari**dagina **temir**dan mehnat qurollari yasash imkoniyati paydo bo'ldi. Bu jarayon ancha sermehnat bo'lgan, negaki temir misga qaraganda ancha yuqori haroratda eriydi (**1500°C**). Ammo temir mis va bronzaga nisbatan olganda ulkan afzalliklarga egadir: temir ulardan qattiqroq edi.

Temirdan birinchi bo'lib **Kichik Osiyo**da **xettlar** (**mil. av. XIV – XIII asrlar**), so'ngra qo'shni mamlakatlar (**Mesopotamiya, Eron, Kavkazorti**) xalqlari foydalana boshladi. Temir buyumlarning tarqalishi sekinlik bilan borgan. Temir kamyob va qimmatbaho metall bo'lgani uchun, undan dastlab **zeb-ziynat buyumlari** yasashda foydalanishgan. Shunday bezaklar Misr fir'avni **Tutanxamon maqbarasi**dan va Kavkazdagi **Maykop qo'rg'oni** yodgorligidan topilgan.

Patriarxat haqida. Ayol kishi urug'ni oziq-ovqat bilan ta'minlashda yetakchilik qilarkan, **matriarxat** davom etib keldi. Ziroatchilik, chorvachilik, hunarmandchilik vujudga kelishi bilan, urug'ni yetarli mahsulotlar bilan ta'minlash erkaklar qo'liga o'tdi. Endi oilada erkaklar muhim o'rin tuta boshladi. Qarindoshchilik erkak nomi bilan belgilanadigan bo'ldi. **Mil. av. 3-mingyillik**ka kelib **patriarxat** davri boshlandi.

1.4. ILK SIVILIZATSIYALARNING VUJUDGA KELISHI

Ibtidoiy tarixdagi o'zgarishlar. Dehqonchilik va chorvachilik bundan **10 – 11 ming yil muqaddam Old Osiyo**ning ayrim o'lkalarida vujudga kelganini bilamiz. **Falastin** hududida joylashgan **Iyerixon** dehqonchilik manzilgohi eng qadimiylaridan biri hisoblanadi. Old Osiyoning o'troq aholisi tez sur'atda ko'payib bordi. Qurg'oqchilik mahalida ziroatchilar muqim yashaydigan yerlarini tark etib, boshqa hududlarga ketishardi. Shu taxlit yangi suv manbalari va serhosil yerlarni izlash zarurati Sharqning turli o'lkalarida – **Kichik Osiyo, Misr, Bobil, Kavkazorti, Eron** va **O'rta Osiyo**da dehqonchilik tarqalishiga zamin hozirladi.

Ilk to'qnashuvlar – kichik urushlar. Barcha qabilalar ham yetarlicha yegulik zaxirasiga ega bo'lmagan. Ba'zilarining yerlari unumdor bo'lmasa, boshqalari faqat chorvachilik va ovchilik bilan shug'ullanishni afzal ko'rishardi. Cho'ponlar va dehqonlar o'rtasida suv manbalari va soz yerlar ustida tez-tez janjallar bo'lib turardi. Qabilalar bir-biriga hujum qila boshladilar. Manzilgohlar **mudofaa devorlari** bilan o'rab olindi. Dehqon, chorvador va ovchilar o'z sardorlari rahnamoligida jangchilarga aylanishardi. Dushmanlardan himoyalanish zarurati aholini ittifoqlarga uyushishga majbur qildi. O'zgalar hududini egallab olish uchun ham avvalgisiga qaraganda ko'proq kuch talab etilardi. Bu aholi aralashib, qorishib ketishiga olib keldi.

Ilk sivilizatsiyalar. Ko'plab odamlar anhorlar va boshqa sug'orish inshootlari qurilishiga jalb etilardi. Endi odamlar bitta urug' yoki qabilaga mansub bo'lmay qoldilar. Tug'ishganlik munosabatlari ularning

hayotida belgilovchi omili bo'lmay qoldi. Ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllari, qurilish va hunarmandchilik rivojlanishi, kichik urushlar bo'lishi va har xil tumanlar aholisi birlashishi boshlanishi odamlar hayotini sezilarli darajada o'zgartirdi. Jamiyatda harbiy sarkardalar – **sardorlar** va **jangchilar** – xo'jalik hayotiga rahbarlik qiluvchi **oqsoqollar** ajralib chiqishdi. Diniy marosimlar **kohinlar** tomonidan ado etilardi. Ayrim dehqonchilik hududlarida dastlabki **davlatlar** tashkil topdi. Harbiy sardorlar va zodagonlar sug'orish tarmoqlarini barpo etish ishlariga rahbarlik qildilar. Pirovardida aynan ular bunday davlatlarning **hukmdorlari**ga aylandilar. Shu tariqa tarixda dastlabki **sivilizatsiyalar** davri boshlandi.

2-BOB. QADIMGI SHARQ MAMLAKATLARI

2.1. QADIMGI MISR

Misr – Nil in'omi. Nil vodiysi har ikkala qirg'oq bo'ylab **3** dan to **22 km** gacha kenglikdagi va 6 ming km uzunlikdagi sug'oriladigan yerlardir. Misrliklar Nil daryosini ilohiylashtirishgan, yangi yil uning toshqinidan boshlangan. Misr atrofini o'rab turgan cho'llar tabiiy himoya to'sig'i bo'lgan, qolaversa, cho'ldan qimmatbaho metallar, toshlar qazib olingan. Vodiyliklar yurtga **«Misr»** – **«Qora tuproq»** deb nom berganlar. **Mil. av. 4-mingyillik boshlari**da odamlar Nil daryosi qirg'oqlaridagi yerlarni o'zlashtirishga kirishdilar.

Misrliklar xo'jaligi. Misrlik dehqonlar bug'doy va arpa ekishar, yetishtirilgan kanopdan esa gazlama to'qilardi. Nil vodiysida uzum, qovun, anor, xurmo, piyoz, bodring, loviya kabi meva va sabzavot yetishtirilardi. Misr dehqonlari yoz oylarida dam olishar, urug'likni ekishga hozirlashardi, bu davrda barcha dalalarni suv bosgan bo'lardi. Kuzda dalalarga urug' sochishar, sug'orish uchun kanallar va ariqlarni tozalashardi. Qishda esa hosil yig'im-terimi boshlangan.

Qadimgi Misr hunarmandlarining **30 dan ziyod** kasb-kori bo'lgan. Mischilar misni eritsa, temirchilar undan mehnat quroli quyishardi. Kulollar loydan turli-tuman idish-tovoqlar yasashar, mustahkamlanishi uchun xumdonda pishirishardi. Quruvchilar saroylar, ibodatxonalar va uylar bunyod etishardi. *Oddiy misrliklarning uyi loy suvalgan papirus poyalaridan, zodagonlar uylari esa somon qo'shib qorilgan loydan yasalgan, oftobda quritilgan xom g'ishtdan qurilgan. Fir'avn saroylari va*

ibodatxonalar toshdan barpo etilgan. Ustalar va duradgorlar deraza va eshiklar, har xil ro'zg'orbop mebellar yasashardi. Kemasozlar qamishdan qayiqlar, yog'ochdan esa kemalar qurishardi. Ko'nchilar va to'quvchilar kiyim-kechak uchun materiallar tayyorlashar, tikuvchilar liboslar tikishardi.

Misr davlatining tashkil topishi. **Mil. av. 4-mingyillik oxiri**da tarqoq manzilgohlar **«nom»** deb atalgan ilk davlatlarga birlashdi. Olimlar Misr tarixini **Ilk (taxm. mil. av. 3000 – 2800), Qadimgi (mil. av. 2658 – 2150), O'rta (mil. av. 2100 – 1750), Yangi (mil. av. 1550 – 1076)** va **So'nggi podsholik (mil. av. 1070 – 332)**davrlariga ajratishgan. Bu vaqt davomida Misrda **30 ta sulola** hukmronlik qildi, fir'avnlarning soni esa **200 dan** ortadi. Dastlab Misrda **ikkita podsho** hukmdorlik qilgan: bittasi **Quyi Misrda**, boshqasi esa **Yuqori (Janubiy) Misrda** davlatni boshqargan. **Mil. av. 3000-yili** ikkala davlat o'rtasida boshlangan urushda Yuqori Misr podshosi **Menes** g'alaba qozondi. Menes birlashgan mamlakatning birinchi hukmdori, ya'ni **fir'avn** bo'ldi. Yagona va birlashgan davlat uchun yangi poytaxt – **Memfis shahri** barpo etildi. Menesdan keyingi barcha fir'avnlar yoki **oq toj** (Yuqori Misr ramzi), yoki **qizil toj** (Quyi Misr ramzi) yoxud **ikkala rangdagi toj** (ikki hudud birligi ramzi) kiyishgan.

Vaqt o'tishi bilan «nom»lar hukmdorlari o'z mol-mulkini ko'paytirib oldi. Misr tag'in mustaqil davlatlarga aylangan alohida «nom»larga parchalanib ketdi. 200 yildan so'ngra mamlakatning qayta birlashuvi ro'y berdi. Shu tariqa **O'rta podsholik** hukmronligi davri boshlandi. Bu davlatning poytaxti **Fiva shahri** edi.

2.2. MISR VA QO'SHNI XALQLAR

Qadimgi misrliklarning qo'shnilari. Misr janubdan **Nubiya** bilan chegaradosh bo'lgan. Bu mamlakatga misrliklar Nil bo'ylab **oltin, smola (qatron), fil suyagi, nodir navli yog'ochlar**ni ayirboshlash uchun borishardi. Misr g'arbida **Liviya** joylashgandi. Sahro aholisi ko'chmanchi chorvadorlar bo'lgan. Arabiston sahrosida hech kim istiqomat qilmas, ammo u orqali o'tadigan yo'l **Sinay yarimorol**iga borar, bu yerda esa mis qazib olinardi. Sinay yarimorolidan shimolroqda **Falastin**, uning yonboshida **Suriya** joylashgandi. Bu mamlakatlar mis va temir rudasiga hamda boshqa foydali qazilmalarga boy edi. Falastin va Suriyadan misrliklar **hunarmandlar yasagan buyumlar** va **qimmatbaho toshlar**ni ham olib kelishardi.

Misrliklar istilolari. O'rta podsholik davrida **Sinay yarimoroli** bosib olindi, mahalliy qabilalar Misrga soliq to'lay boshlashdi. Fir'avnlar **Nubiya** va **Liviya**ga ham hujum qilib shaharlarni taladilar, asirlar, chorva mollari

va boshqa boyliklarni egallab oldilar. O'rta podsholik fir'avnlari **Janubiy Falastin** yerlari va **Nubiya shimoli**ni Misrga qo'shib olishga erishdilar. **Mil. av. XVIII asr oxirida** ko'chmanchi **giksos qabilalari** Misrga hujum qildi. Giksoslarning asosiy kuchi **yengil aravalar – ot qo'shilgan aravalar** hisoblangan. Quyi Misrni bosib olgan giksoslar misrliklar shahar va qishloqlariga hujum qildi, ularni ayovsiz taladi va odamlarni asirlikka olib ketdi. Bu paytda O'rta podsholik ko'plab mayda «nom»larga bo'linib ketgandi, ular giksoslarga soliq to'lardi. Faqat Fiva shahri hukmdorlarigina giksoslarga itoat qilmadilar. Bosqinchilar istibdodidan xalos bo'lish taraddudiga tushgan «nom»lar hukmdorlari Fiva shahri tevaragida birlasha boshlashdi. Ko'p o'tmasdan Yuqori Misrning barcha «nom»lari Fiva «nom»i fir'avni tevaragida birlashdi. Bir qancha janglarda fir'avn **Yaxmos** giksoslarni mag'lub etib, bosqinchilarni Misrdan quvib chiqardi. Itoatsiz hukmdorlarni o'ziga bo'ysundirgan Yaxmos yangi fir'avnlar sulolasi asoschisiga aylandi, ana shu davrdan Yangi podsholik davri boshlandi.

Yurishlar natijalari. Mamlakatni ozod qilgan Yangi podsholik hukmdorlari qo'shni davlatlar bilan urushni endi bosqinchi sifatida davom ettirishdi. O'z armiyasini **qilichlar** va **tabarzinlar** – dastasi uzun jangovar oyboltalar, **jangovar aravalar** bilan qurollantirgan fir'avnlar **Nubiya** va **Old Osiyo** mamlakatlariga hujumni boshlab yubordilar. Bir necha yurishlardan keyin deyarli butun Nubiya Misrga qo'shib olindi, Liviya qabilalari soliq to'lashga majbur etildi. **Mil. av. 1500-yillar atrofi**da fir'avn **Tutmos II** katta yurishlar tashkillashtirishga erishdi. Falastin va Suriyani istilo qilish boshlandi, bir necha o'n yil davom etgan urushlarda erksevar qabilalarni uzil-kesil bo'ysundira olishmadi. Faqatgina **Tutmos III** Falastinni bosib oldi. Bo'ysundirilgan xalqlar ozodlik yo'lida kurashardilar. Misr fir'avnlari bir necha yil mahalliy qabilalar bilan urushdilar. Natijada davlat zaiflashdi, Yangi podsholik ham alohida «nom»larga parchalanib ketdi.

Mil. av. VII asrda Misr yana yagona davlatga birlashdi, mamlakat iqtisodiyoti va madaniyati yuksala boshladi. Ammo **mil. av. VI asr**da Misrga yangi bir dushman bostirib kirdi. Ahamoniylar shohi **Kambiz mil. av. 525-yil**i Misrni bosib oldi. Keyinchalik Misr makedoniyalik Aleksandr saltanati (**mil. av. 332-yil**) tarkibiga kirdi. Uning vafotidan so'ng Misrda poytaxti **Aleksandriya** bo'lgan **Ptolemeylar davlati** tashkil topdi. Misrning so'nggi hukmdori **Kleopatra** bo'ldi (**mil. av. 51 – 30-yillar**). Keyinchalik Misr Rim imperiyasiga qo'shib olindi va uning *provinsiyasiga aylantirildi*.

2.3. QADIMGI MISR DINI

Misrliklarning xudolari. Misr aholisi uchun din kundalik turmushning ajralmas bir bo'lagi bo'lgan. Misrliklar xudolarning bir necha joni mavjud: ularning biri hayvon tanasida, boshqasi esa hayvon haykalida yashaydi deb bilishardi. Misrliklar xonadonidagi mehrobda xudolarning haykalchalari o'rnatilgan. Kohinlar, ibodatxona ruhoniylari xudolarni dindorlar in'om tariqasida keltirgan narsalar bilan boqishadi deb hisoblashgan. Misrliklar o'z xudolariga butunlay ishonishar, har bir ishni bajarishga kirishishdan avval ulardan maslahat, madad yoki rozilik so'rashardi.

Qadimgi Misr podsholigining poytaxti Memfisda o'z xudosi – **Ptax** bo'lgan. Ptax, misrliklar e'tiqodicha, olamni yaratayotganida har bir narsaning nomini odamga o'rgatgan. Xudo shunchalik qudratliki, uni asl qiyofasida ko'rishning iloji yo'q. Shuning uchun Ptaxning Yer yuzidagi qiyofasi **Apis**, u peshanasi va belida oq qashqasi bo'lgan qora ho'kiz timsolida tasavvur etilgan.

Mil. av. 2000-yildan Quyosh xudosi **Amon-Ra** degan iloh esa fir'avnlarning bosh ilohi va homiysi hisoblangan. Dastavval ikkita xudo: Fiva shahri homiysi **Amon** va Quyosh xudosi **Ra** bo'lgan, so'ngra ikkalasi yagona xudoga birlashgan. **Geliopol**da Quyosh xudosi Raning ibodatxonasi joylashgan.

Xapi Nil xudosi – Misrdagi hayotning birlamchi manbayi va posboni, **Osiris** yer osti saltanati xudosi hisoblangan. Rivoyatda aytilishicha, Osiris Misrning ilk podsholaridan biri bo'lib, o'z xalqini dehqonchilikka o'rgatgan ekan. Birodari **Set** esa Osirisni o'ldiradi. Ammo Osirisning singlisi **Isida** uni mumiyolagan va qayta tiriltirgan. O'shandan boshlab jon qaytib keladigan joy bo'lishi uchun barcha marhumlar mumiyolanadi. Osiris ibodatxonasi xarobalari **Abidos** shahrida hozirgacha saqlanib qolgan. Shoqol yoki shoqol boshli inson qiyofasida tasavvur qilingan **Anubis** marhumlar saltanati hukmdori, mushuk qiyofasiga ega **Bastet** quvonch, musiqa va raqs ilohi, qiyshiq oyoqli dumli mitti odam qiyofasida tasvirlangan **Bes** esa oila va onalik homiysi hisoblangan.

Kohinlar va ibodatxonalar. Kohinlar xudolar va insonlar o'rtasidagi vositachi bo'lishgan. Misrliklar e'tiqodicha, mabodo yer yuzida maxsus marosimlar ado etilmasa, xudolar odamlarga madad bermay qo'yadilar. Kohinlar diniy marosimlarni bilar, qurbonlik bag'ishlardilar. Kohinlar Nil toshqini vaqtini, qachon urug'lik sochish va yig'ishtirib olish muddatini aniq bilishardi. *Bosh kohin lavozimi avloddan avlodga meros bo'lib o'tardi.* Asosiy xudolarga atab qurilgan ibodatxonalar ulkan yer-mulklarga egalik

qilardi. Har bir zafarli bosqinchilik yurishidan keyin fir'avnlar o'ljaning bir qismini ibodatxonalarga hadya etardilar. Ibodatxonalarda xudolarning haykalchalari turar, iloh yoki ilohaning ruhi ular orqali odamlarga murojaat qilardi. Ibodatxona ichkarisiga faqat kohinlar kira olardi. Oddiy odamlarning ko'pchiligi faqat hadyalar berish va xudolarga munojot qilish uchun ibodatxona darvozasiga yaqinroq kela olishardi, xolos. Ibodatxonadagi **kotiblar** esa xudolarga **o'tinchnomalar**ni yozib berishardi. Har kuni **tongda, peshinda va kun botayotganda** kohinlar xudolarga qurbonliklar bag'ishlardilar.

2.4. PIRAMIDALAR VA MAQBARALAR

Fir'avnlar. Misrliklar e'tiqodicha, fir'avn yer yuzida ham, o'lganidan keyin ham iloh hisoblangan. Fir'avnlar Quyosh xudosi Raning o'g'illari sanalgan, mamlakatdagi barcha hosildor yerlar, tilla va mis konlari ularga tegishli edi. Davlat boshlig'i sifatida fir'avn sudlov tizimi va qo'shinni boshqargan, xorijiy elchilarni qabul qilgan. Fir'avn odamlar oldida yalangbosh ko'rinishi mumkin emasdi. U Yuqori Misr toji, Quyi Misr toji, qo'shaloq toj, harbiy sarkarda dubulg'asi yoki bosh kiyim kiyishi mumkin edi. Fir'avn hokimiyat ramzlari – **aso** va **qamchi**ni olib yurgan.

Piramidalar qurilishi. Qadimgi va O'rta podsholiklar davrida misrliklar barpo etgan ulkan piramidalar fir'avnlar dafn etiladigan joy – maqbaralar bo'lgan. Eng mashhur piramidalar **Giza shahri** atrofida uch fir'avn – **Xufu, Xafra** va **Menkaura** uchun barpo etilgan. Bu piramidalar jahonning yetti mo'jizasidan biri, ular orasida ham hozirga qadar saqlanib qolgan yagona inshootlardir. Eng katta piramida **Xufu** (yunonlar **Xeops** deb atagan) uchun **mil. av. 2600-yili** qurilgan. Uning balandligi **147 m.** Piramida har biri ikki tonnadan og'irroq **2,5 mln dona** tosh bloklardan tashkil topgan. Toshlar shunchalik aniq kesilgan va taroshlanganki, ular o'rtasidagi yoriq **0,5 mm** dan ham oshmaydi. Piramidalarda fir'avnning mumiyolangan jasadi solingan toshtobut – **sarkofag** joylashgandi. Misrliklar inson vafot etganidan so'ng o'zga bir olamga yo'l oladi, bu hayotda foydalangan narsalarning hammasi narigi dunyoda ham kerak deb hisoblashgan. Dahmalar ichi esa munojotlar va qarg'ishlardan iborat bitiklar bilan qoplangan, ular fir'avnni himoya qilishi va o'zga hayotga o'tayotganida unga yordam berishi mo'ljallangan.

Yirik piramidalarni o'rtacha **20 yil davomi**da qurishgan. Piramidalarni **sfinkslar** – tanasi arslon va boshi odamnikisimon ulkan haykallar qo'riqlardi. Yangi podsholik davrida piramida qurmay qo'yishdi. Fir'avnlar-

ni tog'larga o'yilgan tosh **maqbaralar**ga dafn etadigan bo'lishdi. Eng mashhur maqbara fir'avn **Tutanxamon**ga tegishli bo'lgan.

Mumiyolash. Qadimgi misrliklar inson vafot etganidan keyin marhumlar saltanatiga ketadi, o'sha yerda umrini davom ettiradi deb hisoblashgan. Ammo marhumlar saltanatidagi hayot, misrliklar fikricha, Osiris sudining natijalariga bog'liq. Tarozining bir pallasiga marhumning yuragi, boshqasiga esa qush patlari qo'yiladi. Mabodo tarozi pallalari tenglashsa, demak, inson bu dunyodagi hayotida faqat ezgu ishlar qilgan bo'ladi, u vafot etganidan so'ng ajoyib bir sharoitda umrini davom ettiradi. Agar yurak og'irroq kelsa, inson bir talay yomon ishlarni qilgan bo'lib chiqadi, badbashara maxluqlarga yemish bo'ladi. Osiris qarshisida go'zal qiyofada qad rostlash uchun misrliklar marhumni **mumiyolash**gan. Odatda, mumiyolash **70 kun** davom etgan. Jasadga maxsus ishlov berilgandan keyin ko'pdan ko'p matolar bilan o'rab-chirmashgan, qimmatbaho taqinchoqlar bilan bezatishgan. Matolar qati orasiga omad keltiruvchi tumorlar qo'yilgan. Shu taxlit ishlov berilgan inson mayiti **mumiyo** deyilgan. Hayvonlar ham mumiyolangan, chunki misrliklar xudolar Yer yuzida hayvon qiyofasiga kirishiga ishonishgan. Mumiyolash boy-badavlat insonlargagina nasib etardi, xolos.

Misrliklar diniy e'tiqodiga ko'ra, xudolar ko'pincha **muqaddas hayvonlar** qiyofasida gavdalangan. Misrliklar xudolari bir talay bo'lgani tufayli, deyarli barcha hayvonlar xudo deb hisoblangan. **Mushuk, ho'kiz, sigir, arslon, lochin, ilon** va boshqalarni muqaddas hayvonlar deb bilishgan.

Hasharotlar orasida **qo'ng'iz** alohida hurmat-e'tiborga sazovor edi. Misrliklar Yer shari ham qo'ng'iz dumalatib borayotgan sharcha singari osmon kengliklarida aylanib, kezib yuradi deb hisoblashgan. Shuning uchun *qo'ng'izlar Quyoshning yordamchilari hisoblangan*. Jismida **Bastet** degan iloha gavdalangan **mushuk** sharafiga uyushtirilgan bayramlarda Misrning jami aholisi ishtirok etgan. Muqaddas hayvonlarni ham xuddi vafot etgan odamlar singari mumiyolashgan, izzat-ikrom bilan dafn etishgan.

2.5. QADIMGI MISR MADANIYATI

Yozuv. Qadimgi misrliklar **yozuvi** ilk yozuvlardan biri sanaladi. Avvaliga har bir so'z **rasm** ko'rinishida yozilgan. Yozuvdan qarg'ishlar va marosimlarni yozib borishda foydalanishgan, shuning uchun uni **«muqaddas»** yoki **«xudolar kalomi»** deb atashgan. Yozuvlar maq-

baralar devorlari va xudolar haykallariga chekib yozilgan. Qadimgi yunonlar ularni **«iyeroglifiar»** deyishgan (**«toshga chekilgan muqaddas bitiklar»** ma'nosini anglatadi). Misrliklar alifbosi **750 iyeroglif**dan iborat. Har bir so'z o'zida bir qancha ramz va timsollarni ifoda etgan. Iyerogliflarni qamish qilqalam bilan **papirus**ga, ya'ni papirus poyasidan ishlangan qog'ozga yozishgan. Turli rangdagi mineral bo'yoqlar siyoh vazifasini o'tagan. Ta'lim olayotganda sopol buyumlar parchasiga yoki ohaktoshga yozardilar. Husnixat san'atini egallagan kishilar yuksak saviyadagi ma'lumotli va savodxon kishilar sanalganlar, katta imtiyozlarga ega bo'lib, izzat-hurmat ko'rganlar.

Iyerogliflar sirining kashf etilishi. Taniqli fransuz olimi **Jak Fransua Shampolyon 1822-yili** Misr iyerogliflarini o'qish kalitini topdi. Bu kashfiyotga **1799-yili Qohira** shahridan uncha uzoq bo'lmagan **Rozett** shahri yaqinidan topilgan qadimgi misr va yunon tillaridagi bir xil ma'nodagi bitik sababchi bo'ldi. Olim matnlarni taqqoslab ko'rib har bir iyeroglif anglatgan ma'noni tushuntirib berish imkoniga ega bo'ldi. Bugungi kunda Rozett bitiktoshi **Londondagi Britaniya muzeyida** saqlanmoqda.

Nazariy bilimlar. Misrlik ziroatchilar qachon urug'likni yerga qadash, qay mahalda hosilni yig'ishtirib olishni bilishlari zarur edi. Bu muddatlarni misrliklar yulduzlarga qarab aniqlaganlar. Shu tariqa **astronomiya** dunyoga keldi. Misrliklar yil davomiyligini **365 kun** etib belgilashdi, birinchi **taqvim**ni tuzishdi, 365 kunni **30 kundan 12 oyga** taqsimlashdi, ortib qolgan **5 kun**ni esa bayram kunlari sanab hisobga kiritishmadi. Misrliklar tomonidan tuzilgan osmonda yulduzlar joylashuvi xaritasi hozirga qadar saqlangan. Misrliklar dengizlar va sahrolarda yulduzlarga qarab mo'ljal olishgan, yo'lni belgilashgan. Anhorlar qazilayotganda, istalgan imorat va inshootni barpo etayotganda maydon, hajmni o'lchash zarur edi, shu tariqa **geometriya** fani yuzaga keldi. Misrliklar nafaqat oddiy arifmetik hisoblashni, balki kasrlar, maxrajlar va murakkab hisob-kitoblarni ham bilishgan. **Matematika** fani ham ana shu asosda taraqqiy etdi. Misrliklarga **tibbiyot** yaxshigina tanish bo'lgan. Mumiyolangan mayitlarni tayyorlay turib misrliklar odamning ichki tuzilishini ham yaxshi o'rganganlar. Tomir urishiga qarab inson kasalliklari sabablarini aniqlashgan. Davolash muolajasida **ko'katlar damlamasi, mineral suvlar** va **tuzdan** keng foydalanganlar. Misr shaharlarida tabiblarga ta'lim beruvchi maxsus maktablar bo'lgan.

Misrliklarning tarixga oid ma'lumotlari ibodatxonalar devorlariga, papirusga va charmga yozgan bitiklarida saqlanib qolgan. **Turin papirusi** bizga qadar saqlangan, unda podsholar sulolasi xronologik izchillikda

keltirilgan. **Megido shahri**dagi ibodatxona devorida podsho **Tutmos III** ning yurishi to'g'risidagi kitoblar saqlangan.

Misrda asosiy o'lchov birligi **«tirsak»** bo'lib, u tirsakdan barmoqlar uchigacha bo'lgan uzunlikka teng edi. Qo'llar uzunligi turlichaligi bois, **«podsho tirsagi»** degan yagona o'lchov joriy etilgan, u **52,5 sm** ga teng bo'lgan. Bundan ham qisqa uzunliklarni o'lchashda kaft yoki barmoqlardan foydalanilgan. **28 ta barmoq** yoki **7 ta kaft** o'lchami **bir «tirsak»**ni tashkil etgan. Misrda vaqt **suv soatlari** yordamida o'lchangan, u **24 ta bo'lmaga** ajratilgan maxsus idish bo'lgan. Bir bo'lmadan ikkinchisiga oqib o'tadigan suvning hajmi **bir soat** deb hisoblangan. Misrliklarning ko'plab kashfiyotlaridan hozir ham foydalanilmoqda: **kalendar, bir qancha osmon burjlari nomi** va hokazo.

Adabiyot. Xattotlar mehnati tufayli misrliklarning badiiy asarlari bizgacha yetib kelgan. Ertaklar, afsonalar, asotirlar, xudolar va podsholarga madhiya va qasidalar keng tarqalgandi. Aksariyat asarlarda real hodisalar to'qima voqealar bilan qorishib ketgan. Odamlar xatti-harakatiga xudolar aralashadi, ezgulik yovuzlik ustidan g'alaba qozonadi. Masalan, **«Haqiqat va Qing'irlik haqida ertak»**da Qing'irlik Haqiqat ustidan sud o'tkazgani, ko'zlarini ko'r qilgani to'g'risida hikoya qilinadi. Ertak Adolatsizlik ustidan Haqiqatning tantana qilishi bilan yakunlanadi. **«Og'a-inilar»** degan ertakda aka-uka dehqonlar turmushi tasvirlanadi, zolim fir'avn timsoli yoritiladi.

2.6. MESOPOTAMIYA

Tabiiy sharoit. **Dajla** va **Frot** daryolari oralig'idagi vodiyni yunonlar **Mesopotamiya** deb nomlashgan, bu atama tarjimasi **Ikkidaryolik** yoki **Ikki daryo oralig'i** degan ma'noni anglatadi. Mesopotamiyada jahondagi eng qadimiy miflardan biri – Yer yuzini suv bosishi to'g'risidagi **To'fon rivoyati** dunyoga keldi. **Xurmo** daraxtini Mesopotamiya ahli **«hayot daraxti»** deyishgan. Bir tup daraxt **50 kg** gacha hosil bergan. Xurmo danagidan qoramollarni boqish uchun yem tayyorlangan. Xurmo danaklarini temirchilik ustaxonalarida o'tin o'rnida ham ishlatishgan. Yog'och beradigan o'rmonlar yo'qligi uchun, uylarni **tuproq** va **toshdan** qurishgan.

Mesopotamiyaning qadimiy aholisi bo'lgan **shumerlar, bobilliklar, suriyaliklar, forslar va akkadlar** shaharlarda yashashgan, yuksak madaniyatga ega bo'lishgan. **Mil. av. 4-mingyillik**da Mesopotamiyada **shumerlar** manzilgohlari vujudga kela boshladi. Ular Janubiy Mesopotamiyaga joylashib, bu yurtni **Shumer** deb atadilar. Mamlakatning **Akkad** deb nomlangan shimoliy qismiga akkadlar o'rnashdi. **Mil.**

av. 3-mingyillik oxirida shumerlarga singishib ketgan akkadlar butun Mesopotamiyani egallab oldilar.

Mesopotamiya aholisining mashg'ulotlari. Mesopotamiya aholisining asosiy mashg'uloti **dehqonchilik** bo'lgan. Mesopotamiya aholisining eng katta yutuqlaridan biri **irrigatsiya** edi. Ziroatkorlar ekin maydonlarini sug'orish uchun kanallar qazishgan, qurg'oqchilik paytida foydalanish maqsadida **suv omborlari**ga daryo suvini to'plashgan. Mesopotamiyada yog'och, tosh, metall singari xo'jalik uchun zarur materiallar bo'lmagan, ammo don mo'l-ko'l yetishtirilar, chorva mollari ko'p edi. Shuning uchun Mesopotamiya aholisi **savdo-sotiq** bilan ham shug'ullanardi. Qo'shni **Kavkazorti** va **Eron** o'lkalaridan donga ayirboshlab oltin, kumush, qalay va noyob toshlarni keltirishardi. **Suriya**dan esa kedr (sidra) yog'ochi keltirilardi. **Metall buyumlar, zeb-ziynatlar, qurol-yarog'** va **kulolchilik buyumlari**, ayniqsa, qadrlangan. Savdo-sotiqda kumush quymasi ko'rinishidagi metall tangalar ishlatilgan. Mesopotamiyadagi og'irlik o'lchovi **«mino» 550 g kumush**ga barobar edi. Shumerlar eng qadimgi yozuv – **mixxat**ni ixtiro qilishgan. Uchi o'tkirlangan tayoqchalar bilan loy taxtalarga yozishgan.

Shahar-davlatlar. Asta-sekin manzilgohlar kengaya bordi, **mil. av. 4-mingyillik oxiri**da Mesopotamiyada **Uruk, Umma, Lagash, Ur** va boshqa shaharlar vujudga keldi. Ular shahar-davlatlar deb nomlangan, shaharning o'zi va unga tutash dehqonchilik tumanlaridan iborat bo'lgan. Xudo nomidan kohinlar hukmdorlik qilar, xudolar ibodatxonasi esa davlatdagi hokimiyat markazi edi. Mesopotamiyadagi **zikkuratlar** xom g'ishtdan terib chiqilgan zinapoyali muhtasham inshoot ko'rinishida bo'lgan. Uning yuqorisida **ibodatxona** joylashar, zikkuratdan yulduzlarni kuzatishardi.

Shahar-davlatlar tepasida hukmdorlar turardi. Bundan **5000 yil muqaddam** Shumer shahar-davlatlari orasida eng qudratlisi **Ur shahri** edi. Mesopotamiyadagi katta-katta yer mulklari hukmdorlar va kohinlar qo'l ostida bo'lgan. Dalalarga qullar va erkin yollanma mehnatkashlar ishlov berishgan. Shaharlar tevaragida istiqomat qiluvchi aholi kichik-kichik yer ulushlariga egalik qilishardi. O'z oilasini boqish uchun kambag'allar podsho va ibodatxona mulklarida mehnat qilardilar. **Mil. av. 3-mingyillik o'rtalari**da **Lagash davlati** yuksala boshladi, Shumer va Akkadning ko'pgina shaharlari Lagashga qo'shib olindi.

Shumer shaharlari mudofaa devorlari bilan o'rab olingandi. Shaharning bosh darvozasidan boshlangan ko'chalar **markaziy maydonga, ibodatxona** va **hukmdor saroyi**ga borardi. Qurilish tosh, xom va pish-

gan g'isht bilan amalga oshirilgan. Lagashdagi ibodatxona xudolar va qahramonlar haykallari bilan bezatilgandi. Urush paytida shahar aholisi sardorni saylagan. Bora-bora ularning nufuzi ortdi, sardorlar muntazam hukmronlik qila boshladilar. Ularni **podsholar** deb atashgan. Podsho shahar-davlatni **aslzodalar, kohinlar** va **qo'shin**ga tayangan holda amaldorlar yordamida idora qilardi.

Gilgamesh haqidagi rivoyat. Mesopotamiyaning eng sevimli qahramoni **Gilgamesh mil. av. XXVII – XXVI asrlarda Uruk** shahri podshosi bo'lgan. Afsonada aytilishicha, Gilgamesh dunyoga kelgandan keyin, bobosi nevarasi undan taxtni tortib olishidan tashvishlangani sababli Gilgameshni jarga tashlab yuborishga farmoyish beradi. Jarga uchib borayotgan Gilgameshni burgut tutib olib, bir bog'bonga eltib beradi, bog'bon Gilgameshni mehr bilan parvarishlaydi. Balog'atga yetgan Gilgamesh bobosidan hokimiyatni tortib oladi, o'zi Uruk shahrini boshqarishga kirishadi. Xudolar Gilgameshga qarshi unga teng kuchli bo'lgan jangchi **Enkidu** degan pahlavonni yaratishadi. Ikki o'rtadagi jangda g'olib aniqlanmagach, sobiq raqiblar do'stga aylanishadi. Ikkalasi bir bo'lib yovuz maxluqotlarga qarshi kurashadilar, buning uchun xudolar Enkiduni jazolashadi va qahramon qazo qiladi. Boqiy hayotga erishish uchun Gilgamesh dengiz tubida o'sadigan sehrli giyohni izlab topadi, uni o'z xalqi bilan baham ko'rishga qaror qiladi. Ammo iziga qaytayotganida bir ko'lda cho'milib turganida, gulning isini ilon sezib qoladi va mehrigiyoni o'g'irlab ketadi. O'shandan beri ilonlar po'stini tashlab yosharar kan. Gilgamesh esa jonajon shahri devorlari uni xalos etishini, ezgu ishlari o'zini umrboqiy qilishini tushunib yetadi.

Akkadning yuksalishi. Shahar-davlatlar bir-biri bilan tinimsiz urushardi. Ana shu urushlar natijasida **Sargon I** butun Shumer podshosi bo'lib oladi. **Mil. av. 3-mingyillik o'rtalar**ida u Akkadni o'z hokimiyati ostiga birlashtiradi. Savdo-sotiqni rivojlantirish maqsadida Sargon I barcha shaharlar uchun yagona **uzunlik, maydon** va **og'irlik** o'lchovini joriy etadi. Jahon tarixida birinchi bo'lib muntazam qo'shin tuzadi. Bu lashkar **5400 nafar jangchi**dan iborat bo'lgan, keyin esa Sargonga ko'plab shaharlar va mamlakatlarni zabt etishga imkoniyat yaratgan katta armiyaning asosiga aylandi. Sargon Mesopotamiyadan Arabiston, Eron va Hindistonga boradigan dengiz savdo yo'llarini egallab oldi. O'z hukmronligining so'ngida Sargon I **«to'rt iqlim podshosi»** unvonini oldi. Yagona davlat uzoq yashamadi. Sargon vafotidan keyin bir-biri bilan kurashni davom ettirgan ko'plab shahar-davlatlarga bo'linib ketdi. **Mil. av. 2-mingyillik**da Shumer-Akkad davlati ko'chmanchi qabilalar zarbasidan parchalandi.

2.7. BOBIL PODSHOLIGI

Bobil. **Mil. av. 2-mingyillik**da **Bobil podsholigi** Mesopotamiya janubidagi eng qudratli davlatga aylandi. Bobil qulay geografik o'ringa ega bo'lib, Frot va Dajla daryolari o'zanlari deyarli bir-biriga qo'shilib ketadigan makonda joylashgandi. Kemalarda suzib kelgan aksariyat savdogarlar bu shaharga qo'nib o'tishardi. **«Bobil»** so'zining o'zi esa **«xudolar darvozasi»** degan ma'noni anglatadi. Bobil shahrida ajoyib saroylar, muhtasham ibodatxonalar bo'lgan. Bobilning bosh ko'chasi g'alaba ilohasi Ishtar darvozasi bilan tugallangan. **Mil. av. XVIII asr**da Bobil podshosi **Xammurapi (mil. av. 1792 – 1750)** butun Mesopotamiyani yagona davlatga birlashtirishga erishdi. Uning hukmronligi davrida Bobil eng qudratli davlatga aylandi.

Xammurapi qonunlari. Xammurapi qonunlari hamma uchun birdek bo'lgan. Qonunlar matnlari mamlakatning barcha shaharlarida o'rnatilgan tosh ustunlarga yozib qo'yiladi. *Basharti shifokor amalga oshirgan operatsiya natijasida bemor bevaqt vafot etsa, shifokorning panjalari kesib tashlanishi shart bo'lgan. Mabodo arxitektor qurgan uy to'satdan yiqilib biror kishini bosib qolsa, arxitektor qatl etilishi lozim bo'lgan. Qarzni vaqtida qaytarmagan kishi o'z oila a'zolarini qarz bergan kishiga uch yil muddatga qullikka berishi shart edi. Mabodo ayblanuvchi jabrlanuvchining ko'zlariga jarohat yetkazgan bo'lsa, o'zi ham shunday jazolanishi, ko'zlariga jarohat yetkazilishi shart edi. Yong'in mahalida o'g'irlik ustida qo'lga tushgan kimsa o'sha zahoti olovga otilgan. Qulfbuzar o'g'ri esa o'zganing mulkiga suqilib kirgan joyida o'ldirilar, o'sha yerning o'zida ko'mib yuborilardi.*

Xammurapi qonunlari xudolar xohish-irodasi sifatida talqin etilgan, shuning uchun ularni og'ishmasdan bajarish talab qilinardi. Qat'iyligi va ayovsizligiga qaramay, Xammurapi qonunlari jamiyat rivojiga imkoniyat yaratib berdi, negaki talon-toroj, o'g'irlik va davlat mulkini o'marish kabi jinoyatlar deyarli sodir etilmasdi. Xammurapi deyarli **o'ttiz yil davomi**da qo'shni mamlakatlarni o'ziga bo'ysundirish uchun tinimsiz urush olib bordi. Uning vafotidan keyin Bobil tag'in **150 yil** davomida poytaxt bo'lib qoldi, keyin tog'lik **kassitlar qabilasi** shaharni bosib oladi. Kassitlar bosqini Bobil zavolga yuzlanishiga zamin hozirladi, uzoq davom etgan yemirilish **mil. av. VII asr**da Yangi Bobil podsholigi vujudga kelishi bilan yakunlandi.

Yangi Bobil podsholigi. **Navoxudonosor II** hukmronligi davrida Bobil o'z ravnaqining cho'qqisiga erishadi. Bu hukmdor Misrni Yangi Bobil podsholigiga qo'shib oladi. **Iyerusalim** (Quddus)ni vayron qilib tashlaydi.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK
2015/III-1
A 8756

Bobil shahri qalinligi 6 m, uzunligi 18 km li devor bilan o'raladi. Shaharning **sakkiz darvoza**dan iborat ichki devori ham barpo etildi, darvozalar hayvonlar va qushlar tasviri tushirilgan niliy naqshinkor tosh taxtachalar bilan bezatilgan. Ayniqsa, tantanalar o'tkazishga mo'ljallangan **Ishtar darvozasi** mahobatli edi, unga **575 ta buqa** tasviri tushirilgan. Navoxudonosor II turarjoy binolari va mudofaa devorlari qurilishida **pishgan g'isht** ishlatish to'g'risida farmon beradi.

Eronliklar lashkari **539-yili** Bobilni zabt etadi. Shu paytdan Yangi Bobil podsholigi **Ahamoniylar davlati** tarkibiga kiradi. Forslarni Bobildan **makedoniyalik Aleksandr** haydab chiqardi. Aleksandr vafotidan so'ng Bobil **Salavkiylar davlati** tarkibiga kirdi.

Bobil madaniyati. Shumer va Akkad Bobil madaniyatining eng qadimiy o'choqlari edi. Jahondagi eng qadimiy yozuvlardan biri – **Shumer mixxati mil. av. 4-mingyillik**da vujudga kelgan. Bu yozuv dastavval **«suv», «quyosh»** va boshqa alohida so'zlarni anglatgan rasmlardan iborat bo'lgan. Hukmdorlar saroylari va ibodatxonalarda zodagonlar va badavlat odamlar oilalari farzandlari ta'lim oladigan **maktablar** tashkil etilgandi. O'quvchilar qotmagan loy taxtachalarga suyak va yog'ochdan yasalgan tayoqchalar bilan yozganlar. Loy taxtachalar avval oftobda quritilgan, so'ngra xumdonlarda pishirilgan. Bu taxtachalar **ilk kitoblar** bo'lib, o'quvchilar asotirlar va afsonalarni ko'chirib yozishgan, o'simliklar, qushlar, hayvonlar va qurt-qumursqalar nomlari qayd etilgan ro'yxatlar tuzishgan. Loy taxtachalarda **mamlakatlar, shaharlar** va **qishloqlar** nomlari ham sanab o'tilgan.

Shumerlar **sanoq tizimi, quyosh** va **oy taqvimlar**ini ham yaratganlar. **Quyosh yili** davomiyligi shumerliklar tomonidan **365 kun**, **oy yili** esa **354 kun** etib belgilangan. Shumerlik va bobillik kohinlar – munajjimlar astronomiyaga oid bilimlarga ega bo'lganlar. Eng qadimgi rasadxonalar zikkuratlar yuqorisidagi maydonchada barpo etilgan. Mesopotamiyada **zoologiya, biologiya, kimyo** va **tibbiyot**ga oid bilimlar ham ravnaq topdi. **Mil. av. 3-mingyillik**dayoq bu yerda turli-tuman dori-darmonlarni tayyorlash bo'yicha dasturilamal tuzilgandi. **Geografiya** sohasidagi bilimlar shumerliklar va bobilliklarga kemalarda **Fors ko'rfazi** va **Arabiston dengizi** bo'ylab suzish imkonini bergan, olam yaratilishi haqidagi eng qadimiy asotirlardan biri Mesopotamiyada yaratilgandi.

Diniy e'tiqod. Shumerlar ko'plab xudolarga e'tiqod qilganlar. Dastlab har bir shaharning o'z xudosi bor edi. **Mil. av. 3-mingyillik**da shaharlarning birlashishi bilan xudolarning umumiy panteoni vujudga keldi. Xudolar otasi va osmon xudosi **An** bosh ilohga aylandi. Uning o'g'li **Enlil** yer va

havo xudosi hisoblangan. Xammurapi davrida **Marduk** bosh xudoga aylangan. Suvlar hukmdori bo'lgan **Enki** insonni yaratgan va unga homiylik qiladi deb tushunishgan. Quyosh xudosi **Shamash** alohida ehtiromga sazovor bo'lgan. Shamash oliy hakam hisoblangan, yomon ishlari uchun odamlarni sud qilgan. Shuningdek, Oy xudosi **Sina**, suv xudosi **Ea** qadrlangan, hosildorlik va sevgi, urush va g'alaba ilohasi **Ishtar** ikki yuzli bo'lgan.

Mesopotamiyaliklar yer yuzidagi barcha voqea-hodisalar xudolar irodasi bilan yuz berishiga ishonishgan. Xudolarning marhamatiga erishish uchun ibodatxonalar qurish, qurbonliklar keltirish, ibodat qilish kerak deb hisoblashgan. Kohinlar xudolar va insonlar o'rtasida vositachi bo'lgan.

Xett podsholigi. **Mil. av. 2-mingyillik**da **Old Osiyo** hududida yashagan xalqlarni birlashtirgan ilk davlatlar vujudga kela boshladi, jumladan, **Xett, Mitanni, Ossuriya, Urartu, Finikiya shahar-davlatlari.** Bu davlatlar doimiy bosqinchilik va mudofaa urushlarida kun kechirishgan.

Taxminan **mil. av. XVIII asr**da Kichik Osiyo markazida (hozirgi Turkiya hududida) **xettlar** degan shimollik xalq o'z davlatiga asos soladi. **Xattusa shahri** ana shu davlatning poytaxti bo'lgan. Aholining asosiy mashg'uloti **dehqonchilik** va **chorvachilik** edi. Xettlar qo'shni mamlakatlar bilan tinimsiz urushlar olib borishgan. **Jangovar aravalar** va qoq o'rtasiga temir uchlik o'rnatilgan **qalqonlar**dan foydalanishgan. Xettlar Suriyaning anchagina shaharlarini bosib olib, Bobilni talon-toroj qilganlar. Hozirgi Suriya hududida vujudga kelgan **Mitanni davlati** xettlarning eng xavfli raqibiga aylangan. Urushlarda mitanniliklar **otliq qo'shin**dan foydalanishgan, xettlar poytaxti Xattusani bosib olish chog'ida otliq qo'shin hal qiluvchi rol o'ynagandi. Shunga qaramay, **mil. av. XIV asr boshlari**da **Xett podsholigi** tag'in kuchaya boshlaydi. Xettlar O'rta yer dengizi sohilini qaytarib oladilar, Mitanni podsholigini zabt etadilar. Faqat **Ossuriya tahdidi** xavfi ostida xettlar Misr hukmdori bilan sulh tuzishga majbur bo'ladilar. Ossuriyaliklar Bobilni bosib oladilar, ammo xettlar ularning tazyiqini to'xtatishga erishadilar. **Mil. av. XIII asr oxiri**da tarixda nomlari noma'lum xalqlar (ularni **«dengiz xalqlari»** deb atashgan) xettlar poytaxtini bosib olib, butunlay vayronaga aylantirdi. Davlat nuradi, xettlar esa boshqa xalqlarga singishib ketdi.

Ossuriya podsholigi. Qadim zamonlarda **ossuriyaliklar** Dajla daryosi yuqori oqimidagi kichikroq hududni egallashgan. Avval **Oshshur shahri**, keyin esa **Nineviya shahri** poytaxt bo'lgan. Aholining asosiy mashg'uloti **dehqonchilik** va **savdo-sotiq** edi. Ossuriyaliklar davlati **mil. av. XX asr atroflari**da vujudga keldi. Ossuriyaliklar jangari xalq bo'lgan. Ular qo'shni

hududlarga tez-tez hujum qilib turardilar. Ossuriyaliklarning qudratli lashkari har yili yangi yerlarni zabt etishga otlanardi. Bo'ysundirilgan xalqlar Ossuriya hukmdoriga katta miqdorda soliq to'lardi. **Mil. av. XIII asr**da podsho **Salmanasar** hukmronligi davrida Ossuriya podsholigi o'z ravnaqining cho'qqisiga erishadi. **Mil. av. VIII – VII asrlar**da Ossuriya podsholigi qayta yuksalgan davrda **Bobil, Bibl, Tir, Sidon** va **Falastinning bir qismi** ham bosib olinadi. **Quddus** shahrini bosib olgan ossuriyaliklar qal'a devorlarini, uylar va ibodatxonalarni buzib tashlab, aholini asirlikka haydab ketadilar.

Hukmdorlarining haddan tashqari shafqatsizligi sababli Ossuriya poytaxti Nineviyani **«qonga botgan shahar»** yoki **«sherlar darasi»** deya ta'riflashgan. Yurishlarda talab tortib olingan hamma narsa poytaxtga oqib kelardi. Ulug'vor saroylar va ibodatxonalar boylikka to'lib ketgandi. **Oshshurbanipal** hukmronligi yillarida Nineviyada Old Osiyodagi eng yirik sopol taxtachalardan iborat bo'lgan **kutubxona** jamlangandi. Asta-sekin Ossuriya davlati zaiflashib bordi. **Mil. av. 627-yili** dastlab **Bobil**, so'ngra **Midiya** Ossuriyadan ajralib chiqdi. Keyin Bobil va Midiya birlashib, bir hamla bilan Oshshur va Nineviyani **mil. av. 612-yil**i zabt etishdi. **Mil. av. 605-yili** Ossuriya armiyasi batamom qirib tashlangandan keyin, bu davlat ham zavolga yuz tutdi.

Urartu podsholigi. **Urartu davlati Kavkazorti**da, **Van, Urmiya** va **Sevan ko'llari** oralig'ida joylashgandi. Aholisini **urartlar** deyishgan. Yagona davlat tashkil topishi Ossuriya hujumlaridan mudofaa qilish zarurati tufayli yanada tezlashdi. Ossuriyaliklarni tor-mor etish imkoniyati bo'lmagan Urartu qo'shinlari to'g'ridan to'g'ri janglarga kirmaslik taktikasiga amal qilardilar. **Mil. av. IX asr**da **Sardur** hukmronligi davrida Urartu davlati gullab-yashnadi. **Tushpa** shahri mamlakat poytaxtiga aylanadi. Urartlar bir necha bosqinchilik yurishlariga chiqadilar, ossuriyaliklar ustidan g'alaba qozonadilar. Ammo **mil. av. 704-yili** ossuriyaliklar qo'shinlari urartlar armiyasini tor-mor etib tashladi. Bir qancha Urartu hukmdorlari davrida jamlangan xazina g'oliblar qo'liga o'tdi. **Teyshebani shahri**dagi qal'a ishg'ol etildi va vayron qilib tashlandi. Shundan keyin Urartu ancha zaiflashib qoldi, uni ko'chmanchi **skif qabilalari** va **Midiya podsholigi** o'ziga tobe ayladi. **Mil. av. 590-yili** Urartu podsholigi ham tarix sahnasidan ketdi.

Finikiya va Falastin. Qadim zamonlarda **Finikiya** O'rta yer dengizining sharqiy qirg'og'i bo'ylab, hozirgi Livan hududida va Suriyaning bir qismida joylashgandi. Finikiyaliklar **dehqonchilik** bilan shug'ullanganlar, **bog'lar** va **uzumzorlar**ni parvarishlaganlar. Finikiya ninabargli daraxt –

kedrli o'rmonlarga kon edi. Kedr yog'ochidan kemalar yasashardi. Kedr qatroni (smolasi) mumiyo tayyorlash uchun Misrga keltirilardi. **Savdo-sotiq** finikiyaliklarning asosiy mashg'ulotlaridan biri bo'lgan. Finikiyaliklar qo'shnilariga **yog'och, metallar** va **gazlamalar** sotardilar. O'rta yer dengizi sohilida **Tir, Sidon, Ugarit** singari yirik dengizbo'yi shaharlari vujudga keldi. Finikiyaliklar **dengizchilik** ishini a'lo darajada bilishgan. **Mil. av. 2-mingyillikdayoq** ular **Kipr oroli** va **Kichik Osiyo** sohillarida **koloniyalar**ga asos soldilar. Shundan keyin finikiyaliklar **Afrika, Ispaniya sohillari, Sardiniya** va **Sitsiliya** orollarida ham paydo bo'lishdi.

Mil. av. X – IX asrlarda Finikiyada **Tir-Sidon podsholigi** vujudga keldi. **Mil. av. VII asr**da bu davlatni Ossuriya bosib oldi. **Mil. av. X asr**da Finikiyada **22 undosh harf**dan iborat bo'lgan **alifbo** yaratildi. Yunonlar ana shu alifboni o'zlashtirdilar, ularga unli harflarni ham qo'shib qo'ydilar. **Mil. av. 2-mingyillik o'rtalari**da Falastinga **yahudiy qabilalari** ko'chib joylashdilar. **Mil. av. IX asr**da Falastin hududida **Isroil podsholigi** vujudga keldi, keyinchalik u **Yahudiya podsholigi**ga birlashtirildi. Isroil podsholigi ossuriyaliklar zarbasidan parchalanib ketdi. **Mil. av. 586-yil** Yahudiya Bobil podsholigi tomonidan bosib olindi. Qadimiy yahudiylarning afsonalari diniy kitoblarga yozib borilgan. Bu kitoblar to'plami **«Bibliya»**ga jamlangan, bu so'z yunonchada **«kitob»** degan ma'noni anglatadi. «Bibliya»da Olam, Yer yuzidagi ilk odamlar – Odam Ato va Momo Havo yaratilishi, Yer yuzini to'fon bosganligi haqida va boshqa rivoyatlar keltirilgan.

2.8. AHAMONIYLAR DAVLATI

Qadimgi Eron aholisi. **Mil. av. VI asr**da hozirgi Eron hududida **ahamoniylar sulolasi**ga mansub shohlar asos solgan **Fors podsholigi** vujudga keldi. Ahamoniylar podsholigi jahondagi eng yirik davlatlardan biri bo'lgan. Eron hududida qadim zamonlarda **kassiylar, elamiylar** singari turli qabilalar yashab kelardi. **Mil. av. IX asr**da bu mamlakatga **midiyaliklar** va **forslar** ko'chib o'rnashadi. Eron **Kichik Osiyo, Mesopotamiya, Kavkazorti, O'rta Osiyo** va **Hindiston** mamlakatlarini bog'lab turgan **karvon yo'llari** chorrahasida joylashgandi.

Qadimgi davlatlar. **Mil. av. 3-mingyillik**da Eronning g'arbiy qismida – Mesopotamiya bilan chegarada **Elam davlati** vujudga keldi. Bu davlatning poytaxti **Suza shahri** bo'lgan. Elamda jahondagi eng qadimiy yozuvlardan biri yaratilgandi. **Mil. av. IX asr**da Kaspiy dengizidan janubi-g'arbda joylashgan **Midiya podsholigi** vujudga keldi. **Mil. av. VII asr**da podsho

Kiaksar hukmronligi davrida Midiya qudratli davlatga aylandi. **Mil. av. 612 – 605-yillar**da Midiya davlati Bobil bilan ittifoq bo'lib Ossuriyani bosib oldi.

Fors podsholigining vujudga kelishi. Eron janubida, Fors ko'rfaziga tutashib ketgan yerlarda **Fors viloyati** – qadimgi forslar o'rnashgan o'lka joylashgandi. **Mil. av. 558-yili** ahamoniylar sulolasidan bo'lmish podsho **Kir II** barcha forslarni o'z hokimiyati ostida birlashtirdi. Midiya podsholigini bo'ysundirgach Kir II ulkan lashkar tuzdi va bosqinchilik yurishlarini davom ettirdi. **Armaniston, Midiya** va **Bobil** zabt etildi (**mil. av. 539-yil**). Finikiyani itoatga kirgazdilar. Kir II ning **O'rta Osiyo**ga, **saklar** va **massagetlar** ustiga yurishi muvaffaqiyatsiz tugadi. Kir II ning istilochilik siyosatini vorislari **Kambiz** va **Doro I** ham davom ettirdi. Kambiz Misrni zabt etish orqali Eron davlati hududini nihoyatda kengaytirdi.

Doro I islohotlari. **Mil. av. 522-yili** shoh **Doro I** (**mil. av. 522 – 486**) Qadimgi Eron davlati taxtiga chiqdi. Bu paytda bosib olingan barcha mamlakatlarda **qo'zg'olonlar** alangalanib ketdi. Doro I ularni bostirishga kirishdi. U butun mamlakat uchun **«doroyi»** deb nomlangan yagona **oltin tanga**ni muomalaga kiritdi. **Persepoldan O'rta yer dengiz**iga qadar **«Shoh yo'li»** degan podsho savdo yo'li qurilgandi. Doro I armiyani qaytadan tuzdi, saltanatni **«satraplik»** deb nomlangan alohida harbiy o'lkalarga taqsimladi. Doro I **Qora dengiz** bo'ylarida yashovchi **skiflar** ustiga yurish qildi. Doro I ning **Kichik Osiyodagi yunon koloniyalari** va **Frakiya**ni bosib olishi yunon-fors urushlari boshlanib ketishiga sabab bo'ldi. Doro I hukmronligi davrida **Hindiston shimolidan O'rta yer dengiziga qadar** yastangan ulkan imperiya barpo etildi.

Qadimgi forslar madaniyati. **Suza, Ekbatana** va boshqa shaharlar Ahamoniylar davlatidagi muhim savdo markazlari edi. **Persepol shahr**ida Doro I va Kserksning muazzam xonalar va yuz ustunli zalli saroyning qoldiqlari saqlanib qolgan. Saroy afsonaviy va xayoliy qushlar tasviri bilan bezatilgandi. Persepol bo'rtma naqshlarida ahamoniylar itoatga kiritgan ko'pgina xalqlar va elatlarning nomlari saqlanib qolgan. Ular, asosan, Eron shohlariga peshkash va o'lpon keltirayotgan holatda tasvirlangan. Qadimgi forslar **mixxatsimon belgilar** bilan yozishgan. Fors shohlarining bitiklari **Behistun** va **Naqshi Rustam** qoyalariga, **Persepol saroyi** devorlariga chekib yozilgan. Ular yurishlar, qo'zg'olonlar va davlat hayotidagi muhim voqealar haqida ma'lumot beradi. Makedoniyalik Aleksandr **mil. av. 330-yili** Fors davlatini bosib oldi. Ahamoniylar davlati **ikki yuz yildan ziyod** yashagan.

2.9. HINDISTON

Hindiston sivilizatsiyasi. **Mil. av. 3-mingyillik**da Hind daryosi vodiysida yagona davlatga birlashgan katta shaharlar vujudga kela boshladi. **Moxenjodaro** va **Xarappa shaharlari** Hind daryosi havzasining eng yirik sivilizatsiyasi edi. Ikkala shahar ham mustahkam mudofaa devorlari bilan himoyalangan, ichki qasri bo'lgan. Ko'chalar bilan bir-biridan ajratilgan mavzelarda pishgan g'ishtdan qurilgan uylar topildi. Katta va chiroyli shahar Moxenjodaro aholisi mohir kulol, zargar va sangtarosh edi. Aholining asosiy mashg'uloti **dehqonchilik** va **chorvachilik** bo'lgan. Biroq **mil. av. XVIII asrdan keyin** Hind daryosi vodiysi manzilgohlari tez-tez ro'y berib turuvchi toshqinlar, o'rmonlar va changalzorlar kengayishi hamda tuproq oriqlab ketishi tufayli zavolga yuz tutadi.

Mil. av. 1500-yillarda Hindiston hududiga istilochilar bostirib kiradi. Olimlar farazicha, bosqinchi **oriylar – Sharqiy Yevropa** va **Ural**da yashagan **ko'chmanchi qabilalar** bo'lgan. Oriylar hujumidan keyin Moxenjodaro va Xarappa butunlay vayronaga aylanadi, bu shaharlar qayta tiklanmadi.

Diniy e'tiqodlar. Qadimgi hindlar tabiatning ko'pdan ko'p hodisalari qarshisida ojiz edilar: tropik jalalar, suv toshqinlari, qurg'oqchilikdan qo'rqardilar. Hindlar tasavvurida tabiatni xudolar boshqarayotgandek tuyulardi. Qadimgi hind rivoyatlarida aytilishicha, **Quyosh xudosi** har tongda oltin aravada osmon bo'ylab yo'lga tushadi. Quyosh tungi zulmatni parokanda qilib tashlab, odamlarga harorat va yorug'lik ulashish niyatida ufqdan bosh ko'taradi. Momaqaldiroq xudosi **Indra** osmondagi suvni tutqunlikdan xalos aylagach, Yer yuzida qurg'oqchilik poyoniga yetibdi. Hindlar ayrim xudolarni yovvoyi hayvonlar timsolida tasavvur etishgan. Masalan, **fil**ga sig'inishgan: bosh xudolardan biri boshi filnikiga o'xshash donishmand **Ganesha** bo'lgan. **Sigir** esa hindlar orasida alohida ehtiromga sazovor edi. Sigir muqaddas hayvon hisoblangan. Sigirni o'ldirgan kishi jinoyatchi deb e'lon qilingan: bunday kimsa jamiyatdan haydab yuborilgan, hech kimning u bilan muloqot qilishga haqqi yo'q edi. Hindlar jon bir tanadan boshqasiga ko'chib o'tishiga ishonishgan. Ular vafot etganidan keyin odam baribir o'lmaydi, balki boshqa bir mavjudotga evrilib, o'z tashqi qiyofasini o'zgartiradi, hayvonga, qumursqaga va o'simlikka aylanadi deb hisoblashgan. Inson vafot etganidan keyin kimga va nimaga aylanishi esa uning bu hayotdagi sa'y-harakatlari va amallariga bog'liq.

Hind tabaqalari. Qadimgi hindlar qanday yumushlar bilan shug'ullanishiga qarab **to'rt guruh**ga ajratilgandi. Bu tabaqalar **kasta** yoki **varna** deb atalgan. Kohinlar – **braxmanlar**, jangchilar – **kshatriyalar**, dehqon, hunarmand va savdogarlar – **vayshilar**, xizmatkorlar va qullar – **shudralar**. Hindlar e'tiqodicha, tabaqalardan har birini oliy xudo **Braxma** o'z jismining qandaydir bir qismidan dunyoga keltirgan. Masalan, kohinlar uning **dahani**dan, jangchilar **qo'llari**dan, dehqonlar **quymichlari**dan, xizmatkorlar esa **tovoni**dan yaratilgan. Bolalar hamisha ota-onalari tabaqasiga mansub deb topilgan. Bir tabaqadan boshqasiga o'tishning iloji bo'lmagan. Turli kastaga mansub insonlar o'rtasida nikohga ham yo'l qo'yilmagan. Tabaqalardan birortasiga ham mansub bo'lmaganlar esa alohida maqomga ega bo'lishgan. Bundaylarni **«chandal»**, ya'ni **«hazar qilinadiganlar»** deb atashgan. «Chandallar» kastalarga mansub odamlar bilan birga bir uyda yashay olmasdi, ular bilan bir dasturxonga o'tirish taqiqlangandi. Uzoqdan ko'rinib ajralib turishlari, kimdir tasodifan ularga tegib ketmasligi uchun «chandallar» maxsus libos kiyib yurishlari kerak bo'lgan. Ular qishloqlardan tashqarida yashashga majbur edilar.

2.10. MIL. AV. 1-MINGYILLIKDA HINDISTON

Hindiston davlati. Dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivoj topishi bilan, Hindistonda **harbiy aslzodalar** va **ruhoniylar** ancha kuchayadi. Harbiy sardorlar va oqsoqollar orasidan ajralib chiqqan hokimlar hokimiyatni vorislik yo'li bilan farzandiga qoldiruvchi **podshola**rga aylandilar. Shu taxlit **mil. av. 1-mingyillik**da Hindistonda bir necha davlatlar vujudga keladi, jumladan, **Magadxa, Koshala, Malla** va boshqalar.

Makedoniyalik Aleksandr O'rta Osiyoni zabt etganidan keyin **mil. av. 327-yili Panjob o'lkasi** hududiga bostirib kiradi. Katta qiyinchiliklar bilan Hind vodiysigacha yetib boradi, **mil. av. 325-yili** Bobilga qaytib ketadi. **Mil. av. 318-yili** yunon-makedon qo'shinlari Hindistondan butunlay quvib yuboriladi. Yunon-makedon qo'shinlariga qarshi kurashga mashhur hind sarkardasi **Chandragupta** sardorlik qiladi. Dushman quvib yuborilganidan keyin Chandragupta Shimoliy Hindistondagi barcha davlatlarni o'z ichiga olgan **Maurya davlati** asoschisi bo'ldi. **Pataliputra shahri** poytaxtga aylandi. **Mil. av. III asr**da podsho **Ashoka** hukmronligi davrida Maurya rivojlanishda yuksak pog'onalarga erishdi. Ammo podsho Ashoka vafot etganidan so'ng, o'zaro urushlar avj oldi, Hindiston tag'in mayda-mayda davlatlarga parchalanib ketdi. Sal o'tmasdan ularning ko'pchiligini **Kushon podsholigi**, keyin esa **Eftaliylar podsholigi** bosib oldi.

Fan va madaniyat. **Mil. av. 1-mingyillik**da Hindiston ilm-fan, xususan, **astronomiya** va **matematika** sohasida yuksak darajaga erishadi. Hindlar **360 kun**dan tarkib topgan **quyosh kalendari** tuzadilar. Bu davrda sanash va hisoblashning **o'nlik sistemasi** keng tarqaladi: hindlar **«nol»**ni ifodalovchi maxsus belgini o'ylab topishadi, raqamlarni esa bugungi kunda butun dunyo qo'llaydigan bir tartibda yozadigan bo'ldilar. Biz bu raqamlarni **arab raqamlari** deb ataymiz, negaki ular hindlardan qabul qilgan arablar orqali butun dunyoga keng tarqalgandi. Ushbu mamlakatda ixtiro qilingan, hindlarning o'zi **«qo'shinlarning to'rt turi»** deb ataydigan o'yin bugungi kunda butun jahonda **«shaxmat»** nomi bilan ma'lum va mashhurdir. Hindlar birinchi bo'lib shakarqamishdan shakar olgandi. Metallarga ishlov berish sohasida ham hindlar kishini lol qoldiradigan natijalarga erishganlar. Hozirgi kunga qadar **Dehli**da saqlangan toza temirdan quyilgan minora ustuni zanglamagan, korroziya hodisasi unga asrlar davomida ta'sir o'tkazolmagan.

Qadimiy hind tillari asosida yangi adabiy til bo'lmish **sanskrit** ishlab chiqildi. **«Mahabxorat», «Ramayana», «Panchatantra»** eposlari hamda boshqa asarlar ana shu tilda yozilgan, bizga qadar yetib kelgan. Xususan, «Mahabxorat» dostoni **200 ming satr**dan tashkil topgan, unda mamlakat shimolida yashagan qabilalar hayoti aks ettirilgan, qolaversa, har bir kastaning odob-axloq qoidalari va majburiyatlarini o'zida aks ettirgan.

Buddaviylik. Yangi din **Budda (Nurlangan)** taxallusini olgan shahzoda **Siddhartha Gautama** nomi bilan bog'liq. Rivoyatda naql qilinishicha, shahzoda Siddhartha Gautama **20 yoshgacha** hukmdor otasi saroyida betashvish, farog'atli umr kechirgan. Kunlardan bir kuni sayr qilib yurgan chog'ida munkillagan cholga o'xshab qolgan, bedavo dardga yo'liqqan navqiron bir kishiga, keyin esa dafn marosimiga ko'zi tushadi. Bu to'qnashuvlar shahzoda hayotini butunlay o'zgartirib yubordi. U saroydagi farog'atli turmushdan voz kechdi, hayot mazmunini izlab topish maqsadida dunyo bo'ylab sayohatga otlandi. Bir kuni ma'rifatga erishgan orif Budda inson son-sanoqsiz marotaba tug'ilishi va vafot etishini tushunib yetadi. Keyingi hayotda odamning kim bo'lib tug'ilishi ham uning sa'y-harakatlari va amallariga bog'liqdir. Budda va uning izdoshlari – buddaviylar inson yolg'on so'zlamasligi, mol-davlat to'plamasligi, tirik mavjudotlar qonini to'kmasligi lozim deb hisoblaydilar. Inson har qanday mayllardan voz kechishi zarur, negaki har qanday xohish-istak azob-uqubatga olib keladi. Buddaviylar Yer yuzida o'rmalab borayotgan qurt-qumursqalarni tasodifan bosib olib ozor yetkazmaslik uchun hatto qishda ham oyoqyalang yurishgan.

Avvaliga buddaviylarda xudo bo'lmagan, chunki ular xudolar inson azob-uqubatlarini yengillashtirolmaydilar deb hisoblashgan. Ammo ko'p o'tmay Buddaning o'zi xudoga aylandi. Bugun ham buddaviylik ibodatxonalarida Buddaning haykallarini ko'rish mumkin. Budda nilufar gulida teran o'ylarga cho'mgancha qilt etmas yuz ifodasi bilan qovoqlarini tushirgancha chordana qurib o'tirgan holatda tasvirlanadi. Yangi din oldingilaridan inson mavqeyi tabaqalarga ham, jamiyatdagi maqomiga ham bog'liq bo'lmasligi bilan farqlanadi. Buddaviylar fikricha, hamma narsa insonning o'ziga bog'liq: uning mukammallikka intilishi, ortiqcha narsalardan voz kechishi ma'naviy yuksalish zaminidir. **Mil. av. III asr**da buddaviylik jahon diniga aylandi.

2.11. XITOY

Xitoy sivilizatsiyasi. Xitoyda ham ilk sivilizatsiyalar **Xuanxe** va **Yanszi** degan katta daryolar bo'ylarida **mil. av. 3 – 2-mingyilliklar**da kurtak yoza boshladi. Qadimgi Xitoy davlati Xuanxe daryosining o'rta oqimida vujudga keladi (xitoycha **«Xuanxe» «Sariq daryo»** ma'nosini anglatadi). Xitoyliklar **«beqaror daryo», «minglab ofatlar daryosi»** deb ham ta'riflagan Xuanxe o'zanini tez-tez o'zgartirib turardi. O'rtacha har ikki-uch yilda bir marotaba kuchli va sertalafot suv toshqinlari bo'lardi.

Mil. av. 3-mingyillikda Xitoyda **qabilalar ittifoqlari** yuzaga kela boshladi. **Mil. av. 2-mingyillik oxiri**da ittifoq-shaharlar **yagona davlat**ga birlashdi, bu davlat nomi ham uning bosh shahri nomi bilan **Shan** deb atalgan. **Mil. av. 2-mingyillik oxiri**da Shanga qo'shni **chjou** qabilasi bostirib kiradi, uning hukmdori Shan yerlarini o'zinikiga qo'shib oldi va **Chjou** degan katta davlatni bunyod etdi. Davlat ulkanligi bois, hukmdorlar uni **«Zafaryor»** yoki **«O'rta podsholik»** deb, o'zlarini esa **«Osmon o'g'illari»** deb atashadi. Butun Markaziy Xitoy ana shu davlat tarkibiga kirgandi.

Aholining mashg'ulotlari. **Dehqonchilik** Xitoyda azaldan e'tiborli va faxrli kasb hisoblangan. Asosiy dehqonchilik ekinlari **javdar** va **bug'doy** bo'lgan. Keyinchalik xitoyliklar **sholi** yetishtira boshladilar, sholi urug'i **Hindiston**dan keltirilgan. Ko'kargan urug' ko'chati yerga o'tqaziladi. Xitoy aholisi keyinchalik **«choy» daraxti**ni ham yetishtira boshladi, uning barglaridan shifobaxsh ichimlik bo'lmish **choy** tayyorlanadi. Choy tez orada butun jahonga tarqaldi. **Tut daraxti** yetishtirish Xitoy aholisining asosiy mashg'ulotlaridan biri bo'lgan. Tut bargi bilan ipak qurti boqiladi. Ipak qurtlari pillalarga tolalarni o'raydi, pilladan esa nihoyatda yengil va tiniq mato – **ipak** tayyorlanadi.

«Gala podsholiklar» davri. **Mil. av. VIII – VII asrlar**da Chjou davlatida markaziy hokimiyat zaiflasha boshladi. Ayrim viloyatlar noiblari podsho hokimiyatidan ozod bo'lishga intilardilar. Xitoyga ko'chmanchi qabilalar hujum qila boshlaganidan foydalanib qolgan chekka viloyatlar aholisi ajralib chiqib, o'z davlatini tashkil eta boshladi. Shu taxlit **mil. av. VII – V asrlar**dagi katta davr tarixda **«gala podsholiklar»** davri nomini olgan. Xitoyda, ayni mahalda, **«Kurashayotgan podsholiklar»** davri ham boshlanadi. «Zafaryor» imperiyaning oliy hukmdorlari bilan ajralib chiqqan davlat hukmdorlari o'rtasida boshlangan urushlar **200 yildan uzoqroq** davom etdi. Bu davr **Sin davlati** hukmdori o'zining barcha raqiblarini yo'q qilib, **mil. av. III asr**da yagona davlat tuzishi bilan yakunlandi.

2.12. MIL. AV. III – II ASRLARDA XITOY

Markazlashgan davlatning tashkil topishi. Xitoyni yagona davlatga birlashtirish jarayoniga Xitoy davlatlaridan biri **Sin davlati** hukmdori boshchilik qiladi. Sin davlati hukmdori raqiblarini tor-mor etdi, Xitoyni o'z hokimiyati ostida birlashtirdi. Shundan keyin u **Sin Shixuandi (mil. av. 246 – 210)** nomini qabul qilgan, bu nom **«Sinning birinchi hukmdori»** degan ma'noni bildiradi. O'z davlati hududini **36 viloyat**ga taqsimlagan hukmdor har biriga imperator **noiblari**ni rahbar etib tayinladi. Sin Shixuandi hali tirikligidayoq o'ziga atab maqbara qurishga farmon bergandi. Hashamati va bezaklari jihatidan bu maqbara Misr piramidalari bilan bellasha oladi. Maqbarani **720 ming** odam **37 yil** davomida bunyod etgan. Maqbara tubi bir necha kvadrat kilometr maydonni egallagan. Sin Shixuandi qabridan imperatorni **«qo'riqlash»** uchun o'rnatilgan **6 ming**ta sopol askarlar haykalchalari ham topilgan.

Buyuk Xitoy devori. Sin Shixuandi hukmronligi davrida Xitoyda ko'chmanchi xunlar hujumidan himoyalanish uchun **Buyuk devor**ni bunyod etish boshlab yuborildi. Devorning balandligi **12 m**, kengligi **5 m**, uzunligi esa qariyb **4000 km** ni tashkil etadi. Turli oraliqlarda **25 ming**ta soqchilar turadigan minora qurilgan. Podsho va amaldorlari yuz minglab dehqonlarni devor qurilishiga tekindan tekin ishlab berishga majbur qiladilar. Buyuk devorni belkuraklar, cho'kichlar va zambilg'altaklar yordamida barpo etadilar. O'sha kezlar dehqon oilasida **o'g'il bola** tug'ilishi musibat o'rnida ko'rilgan: voyaga yetganidan keyin uni baribir devor qurilishiga jo'natadilar, u yoqdan tirik qaytib kelish esa har kimga nasib etavermagan. Minglab qullar va asirlar devor qurilishidagi haddan tashqari og'ir mehnatdan halok bo'lishdi. O'lib qolganlarni shu yerning o'zida ko'tarma-

larga ko'mib yuborishardi. Devor qurilishi nihoyasiga yetganidan keyin (**ming yildan ziyod** davrda qurilgan), hukmdorlarda uni mudofaa qilish uchun yetarli qo'shin yo'qligi ham ma'lum bo'ldi. Lekin u inson qo'li bilan yaratilgan eng ajoyib mo'jizalardan biri va koinotdan ko'rinib turadigan yagona inshoot. Devor **XV asr**da rekonstruksiya qilingan.

Xitoyda xalq qo'zg'olonlari. **Mil. av. 206-yili** sin sulolasiga qarshi **dehqonlar qo'zg'oloni** alangalanib ketdi. Isyonga **Lyu Ban** degan kishi boshchilik qilgandi. Qo'zg'olonchilar poytaxtni egallab oldilar. Imperiya vayronalarida **xan sulolasi** boshchiligida yangi davlat barpo etildi. Bu davlat imperator **U Di** hukmronligi davrida (**mil. av. 140 – 87**) eng qudratli davlatga aylangan, **milodiy 220-yil**ga qadar mavjud bo'lgan.

Xitoyda ham mavjud yerlar hukmdorniki hisoblanar, aholi natural soliqlar to'lar, turli mehnat majburiyatlarini bajarardi. Bordi-yu dehqon soliqlarni vaqtida to'lay olmasa yoki qarzni qaytarib berolmasa qarzlari evaziga o'z bolalaridan birini berib yuborardi. Tushgan pulga esa u oilaning qolgan a'zolarini yangi hosil yig'imigacha boqib turish imkoniga ega bo'lardi. Og'ir ahvoldan norozilik tariqasida keyinchalik dehqonlar qo'zg'olonlariga aylanib ketuvchi uyushmagan g'alayonlar vujudga kelardi. Ulardan biri **«Qizil qoshlilar qo'zg'oloni»** nomini olgan, chunki qo'zg'olon ko'targanlar o'z odamlarini chalkashtirib qo'ymaslik uchun qoshlarini qizil rangga bo'yab olgandilar.

«Sariq ro'mollilar qo'zg'oloni» – mil. av. II asrdagi eng yirik isyon. Bu qo'zg'olonga yaxshi tayyorgarlik ko'rilgan, qo'zg'olon ko'targanlar orasida harbiy san'at bilimdonlari ham bo'lgan. Qo'zg'olon butun mamlakatni qamrab oldi. Faqat hukmdorning yaxshi qurollangan va durust harbiy ta'lim ko'rgan qo'shinlarigina uni bostirishning uddasidan chiqdi. Biroq xalq qo'zg'olonlari mamlakatning boshqa joylarida davom etaverdi. **Xunlar hujumlari** zo'rayishi bilan, davlat ham kuchsizlanib qoldi, **mil. III asr**da Xitoy imperiyasi **uchta** podsholikka parchalanib ketdi.

Qadimgi Xitoy madaniyati. Qadimgi Xitoyda **miloddan 1500 yillar avval iyeroglif yozuvi** yuzaga kelgan va hozirgacha ishlatib kelinadi. Avvaliga xitoyliklar **bambuk**ka yozishgan. Xitoyliklar bambukni uzun-uzun taxtachalarga bo'laklab, uchi o'tkirlangan yog'och tayoqcha yordamida daraxt sharbatidan tayyorlangan siyoh bilan yozishardi. Ingichka va uzun taxtachalarga faqat ustun tariqasida yozish imkoni bo'lgan, shuning uchun **yuqoridan pastga qarab yozish** shakli keyinchalik ham saqlanib qoldi. Bambuk taxtachalarining yuqori qismida teshik parmalanib, ularni bir dasta qilib bog'lashgan. Bambuk taxtachalar bog'lami, ayni mahalda, eng qadimgi Xitoy kitoblari ham edi. Bundan **2,5 ming yil muqaddam**

bambuk o'rnida **ipak**dan foydalanishga o'tildi. Ipakka tayoqcha bilanmas, mo'yqalam bilan yozilardi. Endi kitob uzun ipak parchasiga o'xshar, uni o'rama tarzida tayoqchaga o'rashardi. **Mil. av. 105-yili Say Lun qog'ozni** ixtiro qiladi. Ilk qog'ozlar nasha o'simligi tolasidan qilingan, keyinchalik **tut daraxti po'stlog'i, bambuk, sholi poxoli**dan foydalanishgan.

Xitoyliklarning eng ajoyib kashfiyotlaridan biri **kompas** bo'lgan. U magnitlangan temirdan yasalgan uzun dastali kattakon qoshiqni eslatardi. Bu moslamani kataklarga ajratilgan zarhallangan yog'ochga o'rnatishgan, uning dastasi esa hamma vaqt **janub**ni ko'rsatib turgan. Xitoyliklar kompasdan tegishli ishlarda, quruqlik va dengizda foydalanishgan. Xitoyda zilzilani oldindan aytib beruvchi **seysmograf** ham ixtiro qilingandi. Xitoy olimlari **tarix, astronomiya** va **tibbiyot**ga oid ko'plab asarlar yaratishgan.

3-BOB. QADIMGI YUNONISTON

3.1. ANTIK TARIXNING BOSHLANISHI

Eng qadimgi shahar-davlatlar. **Qadimgi Yunoniston** – Bolqon yarimoroli va O'rta yer dengizi orollaridagi qadimgi yunon davlatlarining umumiy nomi. Qadimgi yunonlar bu mamlakatni **Ellada**, o'zlarini **ellinlar** deb atashgan. **Mil. av. 2-mingyillik**da **ilk shahar-davlatlar** vujudga kela boshladi, jumladan, **Knoss, Mikena, Tirinf, Pilos. Mil. av. 2-mingyillik**da **Krit orolida** sivilizatsiya vujudga keladi. Afsonaviy podsho **Minos** nomi bilan uni **Minoy sivilizatsiyasi** deb atashgan. Krit orolidagi Minoy sivilizatsiyasi kuchli zilzila va suv toshqiniga sabab bo'lgan vulqon otilishi natijasida vayron bo'ldi. Ko'p o'tmay qayta tiklangan. **Mil. av. 1450-yil**larda Yunoniston hududidan **mikena qabilalari** bostirib kiradi, uning muqim aholisini **axeylar** deyishgan. Aynan axeylar Minoy sivilizatsiyasi barbod bo'lishini nihoyasiga yetkazdilar.

Yunonlarning dengiz sayohatlari. Egey dengizidagi ko'p sonli katta-kichik orollar, qulay gavanlar va buxtalar yunonlar orasida dengizchilik rivoj topishiga imkon yaratib berdi. Biroq yunonlarda katta kemalar bo'lmagan, kichkina eshkakli qayiqlarda esa sohildan yiroqqa suzib borish ancha xatarli edi. Bundan tashqari, yunonlarda hali kompas yo'q edi, adashib qolishdan xavfsirab ular ko'z ilg'aydigan qisqa masofalarga – oroldan orolga yoki sohil yaqinida suzishardi. Tajribali dengizchilar esa yelkanlardan foydalanib olis sayohatlarga – Misrga hamda O'rta

yer va Qora dengiz sohillaridagi shaharlarga suzib borishgan. Odamlar yashaydigan hududlarni yunonlar **Oykumena** deb atashgan.

3.2. QADIMGI YUNONISTON RAVNAQI

Yunon shaharlari. **Mil. av. IX – VII asrlarda dehqonchilik** va **hunarmandchilik** rivoj topishi bilan, manzilgohlar va shaharlar soni ham ortib boradi. Yunon shaharlarining ko'pchiligi bir qancha manzilgohlar birlashishi orqali tashkil topadi. Bunday shaharlar va ularning tevaragida joylashgan qishloqlar **shahar-davlatlar**ni vujudga keltiradi. Ular orasida **Afina** va **Sparta** eng yiriklari edi. **«Polis»** deb atalgan barcha shahar-davlatlar o'z armiyasiga ega bo'lgan (yunoncha **«polis»** so'zi **«shahar»** ma'nosini anglatadi). Polislar bir-biri bilan tez-tez jang qilib turar, shuning uchun askarlarga ta'lim-tarbiya berish va durust qurollantirishga intilardi. Armiyaning asosini og'ir qurollangan askarlar – **goplitlar** tashkil etgan. Ular **to'rtburchak** shaklini yuzaga keltiruvchi bir-biriga tiqilib olgan qatorlar bilan jang qilishgan. Jangovar safga shu tariqa tizilish esa **falanga** deb atalgan. Askarlar **qilichlar** va **nayzalar** bilan qurollangan, ularni **bronza** va **teri**dan yasalgan **qalqon** himoya qilardi. Boshni esa bronzadan yasalgan qattiq **dubulg'a** muhofaza qilgan.

Afina davlati. O'rta Yunonistonning janubi-sharqiy qismida tog'lik **Attika** viloyati joylashgan yarimorol mavjud edi. **Mil. av. 2-mingyillik**da Attikaning g'arbiy qismida yunonlar **«Akropol»**, ya'ni **«Yuqori shahar»** deb atalgan qal'a quradilar. Bora-bora Akropol tevaragiga odamlar ko'chib kelib o'rnasha boshladi, shu tariqa **Afina shahri** dunyoga keldi. Attika aholisi **uch katta guruh**ga bo'lingandi, jumladan, **qullar**, **ajnabiylar** (**meteklar**) va **fuqarolar**. Otasi va onasi ozod afinalik bo'lgan erkaklargina Afina fuqarosi bo'la olardi. Afina davlati fuqarosi bo'lish nafaqat faxrli, qolaversa, foydali edi, negaki **mil. av. V asr**dan davlat organlarida ishlashga muayyan haq to'lana boshladi. Faqat fuqarolar barcha huquqlardan foydalanardilar. Ular og'ir mehnat va salomatlikka zarar yetkazuvchi ishlardan ozod qilingandilar. Forslar ustidan g'alaba qozonilganidan keyin quldorlar qullar hayotini qadrlamay qo'yishdi, chunki ular shu qadar ko'payib ketgandiki, arzimas pulga sotilardi.

Kumush konlari va tuz qazib olish Afina davlatiga katta daromad keltirardi. Bundan tashqari, Afina dengiz ittifoqi mustahkamlanishi bilan, **dengiz savdosi** ham rivoj topdi. Afinaning asosiy dengiz portiga aylangan **Pirey bandargoh**idan mamlakatga minglab qullar va xilma-xil tovarlar

keltirilardi. Afina dengiz ittifoqi g'aznasi Afina shahrida joylashgan, shahar hukmdorlari undan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanardi.

Afinada ta'lim. Afinada davlat maktablari bo'lmagan. Ota-onalar o'z bolalarini o'qitish uchun **pedagog**ga haq to'lashardi (yunonchada **«pedagog»** so'zi **«bolani yo'lda kuzatib boruvchi»** ma'nosini anglatadi). Qonun bo'yicha, faqat **o'g'il bolalar** uchun ta'lim olish majburiy edi. **Yetti yoshdan** boshlab bolalarga **yozuv** va **hisob** o'rgatilgan. Metall tayoqcha – **stil** bilan mum surkalgan taxtachalarga harflarni yozishardi. Aksariyat fuqarolar uchun ta'lim shundangina iborat edi. Puldor ota-onalarning farzandlari esa **palestrlar**da tahsilni davom ettirishardi. Palestrda **adabiyot** o'qitilar, **she'r yozish** va **musiqa** o'rgatilardi. O'g'il bolalar **14 yoshdan gimnastika** bilan shug'ullanardilar. Ayni mahalda, ularga **kurash**, **nayza** va **disk uloqtirish**, **uzunlikka** va **balandlikka sakrash** hamda **yugurish** ham o'rgatilardi. O'spirinlar, shuningdek, **mushtlashuv janglari**, **harbiy ishlar** va **otda salt yurish**ni o'rganishgan.

Palestrlarda mashhur haykaltaroshlar ishlagan haykallar turgan. Masalan, palestrlardan birida **Mironning «Diskobol»** (Disk irg'ituvchi) va **Polikletning «Nayzabardor»** degan haykallari o'rnatilgan. Haykal vositasida yigit kishi qanday bo'lishi – kuchli, jismonan barkamol va o'z vatani himoyasiga shay turishi kerakligi uqtirilgan. Afinada **oliy ma'lumot beradigan o'quv yurtlari** ham bo'lgan. Ammo ularda faqat o'ta boy ota-onalar farzandlarigina o'qish imkoniga ega edi. Bunday ta'lim muassasalarida **astronomiya, geometriya, geografiya, tarix** o'qitilardi. Ta'lim olish muddati **3 – 4 yil** davom etgan. Ana shundan keyin davlatda ma'lum bir lavozimni egallash imkoni vujudga kelgan.

Sparta. **Mil. av. XII asr**da **Janubiy Yuniston** (**Lakonika**) hududiga ko'chmanchi **doriylar qabilasi** bostirib kirdi. Ular mahalliy qabilalarni bo'ysundirib **Sparta davlati**ga asos soldilar. **Mil. av. VIII asrda** ular **Messeniyani** ham bo'ysundirdilar. Sparta eng yirik yunon davlatlaridan biriga aylandi. Spartaliklar qulga aylantirgan **ilotlar** ham, aslida, yunonlar, ular bilan bir tilda so'zlashardilar. Ilotlar qo'ldan ketgan ozodlik va yerlari uchun kurashni to'xtatmadilar. **Mil. av. VIII – VII asrlar**da, qullar soni uncha ko'p bo'lmagan Afinadan farqli o'laroq, Spartada qulga aylantirilgan aholi ko'pchilikni tashkil etar, ular ham spartaliklardan qattiq nafratlanardi.

Ilotlar alohida spartaliklar oilasi yeriga ishlov berar, chorvani boqar va boshqa ko'plab majburiyatlarni bajarardilar. Spartaliklar esa faqat **jangchi** edilar. Ular dehqonchilik bilan ham, chorvachilik bilan ham shug'ullanmasdi. Ular hech qachon quroldan yiroqlashmasdilar. Ilotlardan tashqari

Spartada to'la-to'kis huquqlarga ega bo'lmagan fuqarolar – **periyeklar** ham yashardi. Ular shaxsan ozod kishilar bo'lsa-da, xalq kengashida ishtirok etolmas, armiyada xizmat qilolmasdilar. Ajnabiylar Spartaga kiritilmagani bois, savdo-sotiq bilan shug'ullangan periyeklargina ular bilan muloqotda bo'lardi.

Qadimgi Spartada kuchli va chidamli odamlar qadrlanardi. Oqsoqollar kengashi yangi tug'ilgan chaqaloqlarni kuzatib borar, nimjon va kasalvand bolalar qoyadan uloqtirilardi. Bolalar ancha qattiq sharoitda voyaga yetishgan. Ular **7 yoshi**dan oilani tark etar, tarbiyachi nazorati ostida guruhlarga birlashib yashardilar. Boshidan mustaqillikka o'rgatish maqsadida ularni deyarli boqishmasdi. Bolalar o'zlariga yegulikni topishga majbur etilgandilar. Bunday sharoitda bolalarning o'g'irlik qilishdan boshqa chorasi qolmasdi. Sparta maktablarida bolalarni harbiy ishlarga o'rgatishar, ularni kuchli va chidamli etib tarbiyalashardi. Kelajakda sog'lom va baquvvat bolalarni voyaga yetkazishi uchun ayollarning jismoniy tayyorgarligiga ham katta e'tibor berishgan.

Yunon koloniyalari. Yunon manzilgohlari **Sitsiliya oroli sohili** va **Apennin yarimoroli janubi, O'rta yer dengizi** va **Qora dengiz bo'yla**rida vujudga keldi. Asta-sekin bu manzilgohlar Yunoniston shahar-davlatlariga o'xshab ketadigan doimiy maskanlarga aylana bordi. Bu shaharlarda savdo-sotiq va hunarmandchilik ravnaq topdi. Ko'chib kelgan yunonlar o'z hukumatini tuzdilar, lashkar tashkil qildilar va qonunlar chiqardilar. Deyarli barcha koloniyalar **mustaqil quldorlik davlati** edi. Ularning aholisi Yunoniston shaharlari bilan doimiy aloqada bo'lgan. Yunonlar o'zini yagona xalq – **ellinlar** deya his etishar, o'zlarini **«varvarlar»**ga qarshi qo'yishardi, ular o'zlashtirilgan yerlar tevaragida yashovchi yunon bo'lmagan xalqlarni shunday atashardi.

Ommaviy ko'chib joylashish va koloniyalar tashkil etish **mil. av. VII asrdan VI asrlargacha** davom etdi. Bu davr tarixda **Buyuk yunon koloniyalashtirishi** nomini olgan. Qora dengiz sohillarida **Olviya, Xersones, Pantikapey, Tanais, Fasis, Trapezund** va boshqa yirik koloniyalar vujudga keldi. O'rta yer dengizi sohillarida **yuzdan ortiq** yunon koloniyalari tashkil topdi.

Yangi davlatlar bilan tanishuv yunon madaniyatini boyitdi. Masalan, **mil. av. VIII asr**da Yunonistonda **Finikiya alifbosiga asoslangan yangi yozuv** vujudga keldi. Alifbo **24 harf**dan iborat bo'lgan. Ular orasida **unli harflar** paydo bo'ldi. Koloniyalar va yunon shaharlari o'rtasidagi mahsulot ayirboshlash savdo-sotiq va hunarmandchilik ravnaq topishiga asos yaratdi. Elladaga **g'alla, metallar** va **qullar** keltirilardi. Koloniyalarga esa

sotish uchun **vino, zaytun yog'i, kulolchilik buyumlari, temirchilar** va **zargarlar yasagan buyumlar**ni keltirardilar.

3.3. AFINA DEMOKRATIYASI

Demokratiyaning shakllanishi. **Mil. av. VIII – VI asrlar**da Yunonistonda kichik-kichik **quldorlik davlatlari** vujudga kela boshladi. Ular orasida eng kattasi esa poytaxti Afina shahri bo'lgan **Afina davlati** edi. Afina shahrida markaziy maydon bo'lib, uning tevaragini turli-tuman imoratlar qurshab turardi. Maydon **agora** deb yuritilgan. Shahar aholisining ko'pchiligini **hunarmandlar** va **savdogarlar** tashkil etardi. Afina shahrida barcha erkak fuqarolar davlatni qanday boshqarish kerakligi xususida o'z fikr-mulohazalarini bayon eta olardi. Ular yuzaga kelgan muammolar va yangi qonunlarni muhokama qilish uchun **har oyda to'rt marta** Akropolga yig'ilardilar. Barcha qarorlar ovoz berish yo'li bilan qabul qilingan. Boshqaruvning bu shakli demokratiya deb ataladi, mazkur atama **«xalq hokimiyati»** degan ma'noni anglatadi.

Drakont qonunlari. Yunonistonning barcha shaharlaridagi singari Afinada ham aholining bir qismi – **zodagonlar (aristokratiya)** mol-mulk va boylikning deyarli hammasiga egalik qilar, boshqa bir qismi – **«xalq» (demos)** ularning foydasiga ishlashga majbur edi. Aynan shu narsa mamlakat aholisi o'rtasidagi doimiy kelishmovchilik va nizolar manbayi bo'lgan. Adolat qaror topishini xohlagan har ikkala tomon **Drakont** degan hukmdorga murojaat etishadi. Ular Drakontdan huquq va majburiyatlar borasida hammani tenglashtiruvchi qonunlar yozishni iltimos qilishgan. **Mil. av. 621-yili** Drakont xalq boshqaruvini bekor qilgan qonunlarni yozadi va amalga kiritadi. Bu qonunlar shu qadar qattiq va ayovsiz ediki, afinaliklar ularga **«slyoh qolib qon bilan yozilgan»** deya ta'rif berishgan. Qonunni arzimas darajada buzganlik uchun ham Drakont bitta – **o'lim jazosi** belgilagan. Masalan, Drakont qonunlariga ko'ra, o'zga kishining bog'idan olma o'g'irlagan odam qatl etilishi shart bo'lgan. Avvaliga afinaliklar bu qonunlarga itoat etishgan, so'ngra norozi bo'la boshlashgan va qonunchi Drakontni shahardan haydab yuborishgan.

Solon islohotlari. Xalqning ahvoli tobora yomonlashaverdi, shunda odamlar o'z haq-huquqlari uchun kurashga bel bog'ladilar. Tayoqlar, gavronlar, cho'kichlar va omoch bilan qurollangan eng qashshoqlar taniqli zodagonlar qo'rg'onchalariga hamla qila boshladilar. O'z yeri va jonidan xavotirlangan zodagonlar yon berishga va xalq talablarining bir qismini bajarishga qaror qilishdi. **Solon** degan aqlli va tajribali zodagon,

ayniqsa, yon berishlarga qattiq tarafdor edi. Solon aslzodalarga shunday degan: «*Yunonistonning ko'pgina shaharlarida bo'ldim, xalq zodagonlarga qarshi chiqayotganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Kambag'allarga qullar kelib qo'shilmasdan turib, xalq talablarining bir qismini bajarish kerak*».

Zodagonlar Solonga ishonishdi va uni Afina hukmdori etib saylashdi. **Mil. av. 594-yili** Solon davlatni idora qilishning oldingi tizimini o'zgartirdi. Avvalgi boshqaruv tizimi – **aristokratiya (eng yaxshi odamlar hokimiyati)**ni Solon **demokratiya**ga almashtirdi. Davlatni boshqarishda faqat fuqarolar ishtirok eta olardilar. **Ayollar** va **ajnabiylar** qabul qilinayotgan qonunlar muhokamasida va ovoz berishda qatnashmasdi. Solon islohotlarining barchasi **dehqonlar qarzlari** va **qarzdorlikdan qullikni bekor qilish** hamda **davlat boshqaruvi islohoti**dan iborat bo'lgan. Zodagonlar xonadonidan bo'lgan Solon aslzodalarni xafa qilishni istamas, faqat xalq qo'zg'olonlari oldini olishga intilardi. *Davlat boshqaruvidagi islohotlar xalq majlisi faoliyati tiklanishi va nasl-nasabidan qat'i nazar afinaliklar uchun davlat mansablarini egallash imkoniyatini ko'zda tutardi.* Solon islohotlaridan keyin Attika aholisi **fuqarolar** va **qullar**ga ajratiladigan bo'ldi.

Afinada demokratiya ravnaqi. Afinada hokimiyatning oliy organi **ekklesiya** deb nomlangan **xalq majlisi** edi. Erkak jinsiga mansub barcha fuqarolar 20 yoshdan boshlab **xalq majlisi**da ishtirok etardilar. Xalq majlisining katta qismi **badavlat bo'lmagan hunarmandlar, savdogarlar, kunbay ishchilar, dehqonlar**dan iborat edi. Xalq majlisida omma uchun foydali qarorlar qabul qilinardi. Navbatdagi majlis o'tkaziladigan kun oldindan e'lon qilinardi. Majlis ertalab barvaqt tayinlanar, negaki mehnatkash odamlar kunduz kuni majlisga kela olishmasdi. Qorinni to'yg'azishga yegulik ishlab topish kerak edi. Majlisda shahar kengashi (**Beshyuzlar kengashi**) tomonidan tayyorlangan qonunlar qabul qilingan, urush e'lon qilingan, sulh tuzilgan, **30 yosh**dan kichik bo'lmaganlar orasidan amaldorlar saylangan. Afinada **mansabdor shaxslar** xalq majlisi tomonidan muayyan muddatga saylanar va majlisga hisobot berishardi. Mabodo mansabdor shaxs o'z majburiyatlarini uddalay olmasa, xalq majlisi bu odamni muddatidan oldin lavozimidan bo'shatardi. Xalq majlisi yangi qonunlarni tasdiqlar, eski qonunlarni bekor qilar, boshqa qarorlar, masalan, yangi inshootlar qurilishiga, armiyaga va boshqalarga mablag' ajratish to'g'risida qaror qabul qilardi. Har yili saylanadigan **Beshyuzlar kengashi** kundalik joriy masalalarni hal etardi. Uning qarorlari xalq majlisida tasdiqlanardi. Beshyuzlar kengashiga **strateg** rahbarlik qilgan. Beshyuzlar kengashining vakolatiga **sudlov hokimiyati va qo'shinni boshqarish** ham kirgan. Kengash a'zolari qur'a tashlash yo'li bilan **1**

yil muddatga saylangan. **Xalq sudi** ham Afinada muhim davlat organi bo'lgan. **70 yosh**ga to'lgan fuqarolar uning faoliyatida ishtirok etardilar. Sudda ayblanuvchi shaxs o'zini o'zi himoya qila bilishi yoki chiroyli so'zlay oladigan va qonunlarni biladigan odamni yollashi shart edi.

Perikl asri. **Mil. av. 443 – 429-yillar**da strateg lavozimiga saylangan **Perikl** hukmronligi davrida Afina eng qudratli davlat bo'ldi, mamlakatda demokratiya ravnaq topdi. Bu davr shuning uchun **«Perikl asri»** deb atalgan. Ajoyib yunon yozuvchilari, olimlari va rassomlari Periklning do'stlari edi. Perikl tarixchi **Gerodot**, haykaltarosh **Fidiy** bilan do'st tutingandi. Perikl hech qachon xalqni o'ziga kerakli qaror qabul qilishga majbur etmadi, balki ishontirish orqali ish yuritdi. Perikl hech mahal o'zining siyosiy muxoliflarini va uning xatti-harakatlarini tanqid qilgan kishilarni ta'qib etmagan. *Perikl xalq majlisidagi lavozimlarga ish haqi to'lashni joriy qildi.* Endi kambag'al fuqarolar ham davlat ishlari bilan shug'ullana oladigan bo'ldi. Perikl hukmronligi davrida Afinada katta qurilish ishlari amalga oshirildi. Akropoldagi **Parfenon** – iloha **Afina ibodatxonasi** eng mashhur inshoot edi. Forslar tor-mor etilganidan keyin, **Sparta** Afinaning asosiy raqibiga aylandi. Shaharni xavf-xatardan asrash uchun Perikl **Afinadan Pirey dengiz portigacha** mudofaa devorlari qurish to'g'risida buyruq berdi. Periklning faoliyati badavlat shaharliklarga yoqmasdi, u zodagonlarning hamlalarini qaytarib turishga majbur bo'lardi. Vaboga chalingan Perikl vafot etganidan keyin, u joriy etgan ko'pgina yangiliklar bekor qilindi.

3.4. YUNON – FORS URUSHLARI

Yunonlar va forslar. **Mil. av. V asr**da Yunonistonga **forslar** tahdid sola boshladilar. **Doro I** hukmronligi davrida Fors davlati yangi-yangi mamlakatlarni bosib olishga intilardi. Forslarning Yunonistonga harbiy yurishlari **yunon – fors urushlari** nomini olgan, ular **mil. av. 490-yildan 449-yilgacha** davom etgan. Yunonistondagi ayrim shaharlar aholisi forslarga qarshilik ko'rsatishning sira iloji yo'q deb hisoblashar, shahanshoh Doro I ning shartlarini qabul qilishga rozi edilar. **Afina** va **Sparta** bosqinchilarga itoat etmaslikka ahd qildi. Fors elchilari Afinaga kelganda, shahar aholisi g'azabdan ularni o'ldirib, qoyadan tashlab yubordilar. Elchilarni chuqur quduqqa tashlab yuborgan spartaliklar: *«Yetarlicha suvni ham, yerni ham quduq tubidan topasiz-da!»* – deyishgan ekan. **Mil. av. VI asr oxir**ida fors shohlari Kichik Osiyodagi yunon shahar-davlatlarini bosib oldilar. Afina hukmdori yunon polislariga yordam qo'lini cho'zdi. Bundan g'azablangan Doro I Afinadan shafqatsiz qasos olishga ahd qildi.

Marafon jangi. **Mil. av. 490-yil sentyabr**da fors harbiy floti Egey dengizini kesib o'tdi va Attika sohilida langar tashladi. Forslarning kemalari beso'naqay va burilishi qiyin edi. **Marafon tekisligi**da o'q-yoylar bilan qurollangan fors suvoriylari kemadan tusha boshladilar. Bu tekislik otliq lashkar harakatlanishi uchun qulay edi, forslar aynan shu yerda jang olib borishga qaror qilishdi. Yunonlar forslarga qaraganda ancha oz edi, shuning uchun fors suvoriylari yetib borolmaydigan qoyalarga o'rnashib oldilar. Yunonlar lashkari forslarning Attika ichkarisiga boradigan yo'llarini to'sib qo'ydi. Ammo ochiq jangga kirishdan cho'chir edilar. Bir hafta o'tdi. Forslar ayyorlik qilishdi. Tunda ular otliq qo'shinlarni kemalarga yukladilar, Attikani aylanib o'tdilar, kutilmagan zarba bilan Afinani bosib olishga qaror qildilar. Yunon qo'shinlariga sarkardalik qilgan **Miltiad** ertalab bo'lib o'tgan voqeadan xabar topganidan so'ng Marafon vodiysida qolgan fors qo'shinlarini tor-mor keltirishga ahd qildi. Yunon piyoda jangchilari falanga bo'lib safga tizildilar. Forslar uning o'rtasini yorib o'tdi. Biroq yunon falangalarining ikkala chekkasida joylashgan kuchli otryadlar forslarni tumtaraqay qochishga majbur etdi. Ayni mahalda, yunonlar tekislikda qolgan fors qo'shinlarining orqasidan ichkarisiga kirib bordilar. Asir tushishdan cho'chib ketgan forslar o'z kemalariga qarab yugurishga tutindi. Yunonlar hal qiluvchi jangda forslarning yettita kemasini egallab oldilar. Forslarning qolgan qo'shinlarini esa tor-mor etdilar yoki asirga oldilar. Miltiadning buyrug'iga ko'ra, bir jangchi forslar ustidan qozonilgan g'alaba haqida xabarni yetkazish uchun Afina shahriga qarab yugurdi. Naq **42 km** yo'lni bosib o'tgan jangchi «g'alaba! g'alaba!» deya hayqirdi-da, nafasi yetmasdan o'lar holatda yiqilib tushdi. Keyinchalik olis masofaga yugurish **Marafon yugurishi** deb atala boshladi.

Fermopil jangi. O'z qo'shinlari mag'lubiyati to'g'risidagi xabarni eshitgan Doro I buni tasodifiy bir hodisa deb bildi, yangi urushga tayyorgarlik ketayotganida Doro I vafot etdi. Qo'shinlarni Yunonistonga uning o'g'li **Kserks** boshlab keldi. Bu voqea **mil. av. 480-yili**, ya'ni Marafon jangidan roppa-rosa o'n yil keyin ro'y berdi. Forslar qo'shinlari turli-tuman qabilalardan tashkil topgan, qurol-aslaha va jang qilish usullari bir xil emasdi, muhimi, ko'pchilik jangchilarda urushdan manfaatdorlik hissi bo'lmagan. Kserks qo'shinlari **Gellespont** bo'g'oziga yetib keldi. Podsho buyrug'i bilan bir kilometrdan uzun ko'prik qurildi. Ammo ko'prik qurib bo'linganida, qattiq bo'ron qo'zg'alib uni buzib tashladi. Quruvchilar boshqa ko'prik qurishdi. Yunoniston sarhadiga kechib o'tgan Kserks lashkari shaharlarni birma-bir bosib ola boshladi. Tog'lardagi **Fermopil** darasi Yunoniston shimolidan janubiga olib boradigan birdan bir yo'l edi. Yunonlar o'sha

joyda pistirma qo'yishga qaror qilishdi, ammo forslarga tog'lar orqali yo'lni ko'rsatib bergan bir sotqin chiqib qoldi. Yunonlar qo'shinlariga Sparta podshosi **Leonid** boshchilik qilgan. U **300 spartalik**dan boshqa barcha yunon jangchilariga chekinishni buyurgan. *Sparta qonunlariga ko'ra, spartalik askarlar jang maydonidan chekinishi mumkin emasdi. Ularning barchasi qahramonlarcha halok bo'ldi.* Ushbu voqea **«Uch yuz spartaliklar jasorati»** deb tarixda mashhur bo'ldi. Kserks qo'shinlari **Janubiy Yunoniston**ga yetib bordi. Endi Afina yo'li ochiq edi. Aholining ko'pchiligi shaharni tashlab ketadi, **Salamin orol**iga o'rnashib oladi. Forslar Afinaga kirgach, shahar shoh Kserks amri bilan yondirildi.

Salamin jangi. **Femistokl**ning maslahati bilan yunonlar **200 ta** harbiy kema – **triyera** qurishdi. Bu harbiy kemalar qoyalar orasidan va sayoz joylardan oson suzib o'tar, **soatiga 18 km tezlik**da suza olardi. Hal qiluvchi dengiz jangi **mil. av. 480-yili** tor **Salamin bo'g'oz**ida bo'lib o'tdi. Yunon davlatlarining birlashgan floti forslarning harbiy flotidan kuchli ekani ma'lum bo'ldi. Yengilganidan keyin Kserks flotining qoldiqlari bilan Yunonistonni tark etishga majbur bo'ldi.

Mil. av. 479-yili forslar tag'in Afinani bosib olishga urinib ko'rdilar. Biroq yunonlarning birlashgan lashkari **Plateya shahri** yaqinida fors qo'shinlarini tor-mor etdi. Bu yunon – fors urushlaridagi **oxirgi jang** edi. *Fors shohi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq, u Old Osiyodagi barcha yunon polislari mustaqilligini e'tirof etdi, yunonlarga qarshi harbiy harakat olib bormaslikka va'da berdi.* Shunday qilib, yunon shaharlari ko'pchiligining birligi va ozodlik uchun kurashgan yunonlarning qahramonligi nihoyatda kuchli raqib ustidan g'alaba qozonish imkonini berdi. **40 yildan ko'proq** davom etgan yunon – fors urushlari yunonlarning to'liq g'alabasi bilan yakunlandi. **Afina** esa O'rta yer dengizidagi **eng qudratli davlat**ga aylandi.

3.5. YUNONISTONNING MAKEDONIYA TOMONIDAN BOSIB OLINISHI

Yunoniston mag'lubiyatining sabablari. Yunonlar bir-biri bilan urushayotgan mahalda, **Makedoniya podshosi Filipp II** Elladani bosib olish maqsadida jang taktikasini takomillashtirdi va qo'shin yig'di. Uning qo'shinlari **suvoriylar** va **piyodalar**dan tashkil topgandi. Piyoda qo'shinlar **16 qator**dan iborat falangada saflanardi. Falanganing oltinchi qatoridagi nayza birinchi qatordagi jangchini muhofaza etardi. Jang mahalida butun falanga zirhlangan temir maxluqqa o'xshab qolardi. Falanga qanotlarini

otliqlar himoya qilardilar. O'zaro urushlar Yunoniston xo'jaligini izdan chiqarib, mamlakat aholisini xonavayron qildi. Kambag'allar va qullarning birgalikdagi qo'zg'olonlari ham tez-tez ko'tariladigan bo'ldi. Yunonlar Filipp II tartib o'rnatadi va polislar o'rtasida tinchlikni barqarorlashtiradi deb umid qilardi. Faqat mashhur notiq **Demosfen** Ellada shaharlarini kezib, ularning aholisini birlashish va makedonlarga qarshi kurashishga da'vat etadi. Ammo faqat **Fiva shahri** aholisi Filipp II qo'shinlariga qarshi Afina shaharlari ittifoqiga qo'shiladi, xolos.

Xeroneya ostonasidagi jang. Demosfen Filipp II ni istilochi sifatida baholashni davom ettiradi va yunon davlatlari boshliqlarini dushmanga qarshi kurashish uchun hamjamiyat bo'lishga chaqiradi. Demosfen yunon shahar-davlatlari hukmdorlarining bir qismini ishontirish va ko'ndirishga erishadi, ular bir ittifoqqa uyushadilar. Qattiq qarshilik ko'rsatilishiga qaramay, Filipp II yunon shaharlarini birma-bir zabt eta boshladi. **Mil. av. 338-yil avgust**da yunonlar va makedoniyaliklarning asosiy kuchlari **Xeroneya shahri yaqinidagi Beotiya**da to'qnashdi. Harbiy hiyla qo'llagan makedonlar chekina boshlaydilar. G'alabaga ishona boshlagan yunonlar ularni quvishga tushadilar. Yunonlarning qo'shinlari shunda ikki bo'lakka ajraladi. Ana shu bo'laklardan biriga Filipp II ning o'g'li **Aleksandr** qo'mondonlik qilayotgan suvoriy qo'shinlar qaqshatqich zarba beradi. Yunon qo'shinlarining boshqa bir bo'lagi chekina boshlaydi va tormor etiladi. Jangda yunonlarning aksariyati halok bo'lgandi. *«Xeroneya yonidagi jangda, – deb yozadi o'sha zamonda yashagan muallif, – halok bo'lganlarning jasadlari bilan birga yunonlarning ozodligi va erki ham dafn etilgan edi»*. Mag'lubiyat oqibatida Yunoniston Makedoniyaga qaram bo'lib qoldi.

Yunoniston Makedoniya tarkibida. Filipp II o'zini yunonlar podshosi deb e'lon qilmaydi. Filipp II yunonlar bilan forslarga qarshi ittifoq tuzadi. U o'zini **birlashgan qo'shinlar bosh qo'mondoni** deb e'lon qiladi. Yunon shaharlariga esa Filipp II ozod ekanliklarini va o'z davlatining keyingi taqdiri xususida bir-biri bilan shartnoma tuzishlari lozimligini e'lon qiladi. **Mil. av. 337-yili Spartadan tashqari** barcha yunon shahar-davlatlarining vakillari **Korinfga** yig'ildilar va Makedoniya hokimiyati ostida **yunon davlatlari ittifoqi**ni tuzdilar. Ular murosada tinch-totuv yashash, o'zaro urushlar olib bormaslik va bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik to'g'risida shartlashadilar. Barcha ixtiloflarni **Yunon shahar-davlatlari kengashi** hal etishi lozimligi e'lon qilinadi.

Fors davlatini bosib olishni rejalashtirgan qo'shinlar asosini Yunoniston lashkari tashkil etishi mo'ljallangandi. Filipp II hatto yunonlarni qanoatlan-

tiradigan urush uchun bahona ham o'ylab topadi: **yunon – fors urushlari davrida yetkazilgan zarar uchun qasos olish va shoh Kserks Eronga olib ketgan yunon xudolari haykallarini asirlikdan qutqarish.**

3.6. QADIMGI YUNONISTON MADANIYATI

Olimpiada o'yinlari. Sport barcha yunonlar uchun umumiy ermak edi. Ilk marotaba **mil. av. 776-yili** o'tkazilgan **Olimpiada o'yinlari** turli-tuman sport musobaqalari orasida eng asosiysi hisoblangan. Ana shu sanadan boshlab har **to'rt yil**da bir marta **Olimp tog'**ida muqaddas olov quyosh nurlaridan yondirilar, Yunonistonning to'rt tarafidan kelgan sportchilar **beshkurash**da bellashardilar. Beshkurash esa **uzunlikka sakrash, disk uloqtirish, nayza uloqtirish, yugurish** va **kurash**dan iborat bo'lgan. Otchoparda esa aravalarda va otlarda **poyga** uyushtirilardi. *Odamlar va sportchilar Olimpiadaga eson-omon yetib kelishlari uchun o'yinlar o'tkazilayotgan paytda urushlar to'xtatilardi.*

Yunonistondagi Olimpiada o'yinlari Olimp xudosi **Zevs** sharafiga bag'ishlab o'tkazilgan. O'yinlar asoschisi **Gerakl** hisoblangan. Olimpiada o'yinlarida faqat jinoyat sodir etmagan, sha'niga dog' tushirmagan ozod yunon ishtirok etishga haqli edi. Musobaqalarda **uch karra** g'alaba qozongan sportchi Olimp tog'ida o'z haykalini o'rnattirishga haqli bo'lgan. Yunonlar yil hisobini Olimpiada o'yinlariga qarab yuritganlar. G'oliblar muqaddas **zaytun daraxti** novdalaridan to'qilgan gulchambar bilan taqdirlangan. *Ayollar Olimpiada o'yinlarida ishtirok etolmasdi. Ayollar o'yinlar paytida hatto Olimp tog'i yaqiniga ham kela olmasdilar. Ular uchun yugurish bo'yicha alohida musobaqalar o'tkazilardi.*

Mil. av. 394-yili ustma-ust sodir bo'lgan zilzila oqibatida Olimpiya vayron bo'lib ketgani sababli, qadimgi Olimpiada o'yinlari ham o'tkazilmasdan qoldi. Nihoyat, **1896-yili** Olimpiada o'yinlari qayta tiklandi.

«Iliada» va «Odisseya». **Mil. av. XII asr boshlari**da yunonlar Kichik Osiyoda joylashgan **Troya**ga yurish qilishgan. Mo'l-ko'l o'lja ustida urush olib borilgan. Biroq yunon rivoyatlari boshqa bir sababni ham bayon qiladi. Eng chiroyli ayol Sparta podshosining rafiqasi sohibjamol **Yelena** edi. Troya podshosi **Paris** Sparta podshosinikiga keladi va sohibjamol Yelenani Troyaga o'g'irlab ketadi. Voqeadan xabar topgan Sparta podshosi Parisdan qasos olishga ahd qiladi va barcha spartaliklarni Troya bilan urushga chaqiradi. Yunonlar **to'qqiz yil** Troyani behuda qamal qiladilar. **«Iliada»** degan mashhur yunon dostoni ana shu urushning oxirgi o'ninchi yili haqida. **Odisseyning** maslahati bilan yunonlar ayyorlikni ishga soladilar:

ichi bo'm-bo'sh ulkan **yog'och ot** yasashadi. Ana shu yog'och ot ichida yunon qo'shinlarining bir qismi yashiringan, boshqa bir qismi esa yaqindagi orollardan biriga o'rnashib olgandi. Troyaliklar yunonlar qamal qilishni to'xtatishdi va Troya homiysi Afina Palladaga xush kelishi uchun bizga ot sovg'a qilishdi degan to'xtamga kelishdi. Kohin **Laokoon** Troyaga yog'och ot olib bormaslikka yunonlarni ishontirdi. Ammo asotirlardan birida hikoya qilinishicha, dengiz ostidan suzib chiqqan ikki ulkan ilon Laokoon va uning ikki o'g'liga hamla qilgan. Troya yunonlari Laokoonga quloq osishmadi va yog'och otni Troyaga sudrab kelishdi. Kechasi otning ichidan chiqqan jangchilar darvozalarni ochdilar, Troya bosib olindi. Hozirda **«Troya oti»** iborasi xosiyatsiz sovg'a-salom ma'nosini anglatadi.

«Iliada» dostonining bosh qahramoni **Axillesdir.** O'g'lining mangu barhayot bo'lishini istagan ona chaqalog'ini **Stiks daryosi**ga botirib oladi. Ayni mahalda, Axillesning onasi ushlagan tovoniga suv tegmasdan qoladi. Janglardan birida Axilles tovoniga tekkan o'qdan halok bo'lgan. O'sha kezlardan beri **«Axilles tovoni»** iborasi nozik joyni anglatadi. **XIX asr oxir**ida nemis olimi **Genrix Shlimann** Gomer hikoyalarini tadqiq qilib Troya joylashgan yerni hisoblab chiqdi. **1870-yili** olim **Turkiyadagi Hisorlik tepaligi** xarobalari hududida qazishma ishlarini boshlab yubordi va Troya qoldiqlarini topdi.

Troya urushi nihoyasiga yetdi. Yunonlar Troyani taladilar va mo'l-ko'l o'ljalar bilan uyga qaytmoqchi bo'lishdi. Ular Egey dengizi orqali uzoq va xatarli yo'llardan o'tishlari kerak edi. Ammo eng ko'p mashaqqat va sarguzashtlar **Odissey** va uning hamrohlari chekiga tushadi. Odissey jonajon **Itaka o'lkasi**ga yetib kelguniga qadar dengiz va begona yurtlarda sarson bo'ladi.

Yunonistonda teatr. Bundan **ikki yarim ming yil muqaddam** Yunonistonda **teatr** dunyoga keldi. **«Teatr»** so'zi yunonchada **«tomoshalar uchun joy»**, **«tomoshaxona»** degan ma'nolarni anglatadi. Qadimgi yunon teatrlari maydoni o'lchamlari kattaligi bilan ajralib turgan. Afina teatri **17 ming** tomoshabinga mo'ljallangandi. Tomoshalar faqat bayramlarda uyushtirilgan. Erta tongdan boshlangan tomoshalar kun bo'yi davom etardi. Tomoshabinlarga bir necha **pyesalar** namoyish qilinardi. **Xor** barcha teatr tomoshalarining majburiy ishtirokchisi edi.

Teatr tomoshalarida faqat **uchta aktyor** qatnashgan. Pyesada qatnashuvchi shaxslar kamchilik bo'lgani tufayli, aktyorlardan har biri bitta spektaklda bir necha rolni ijro etardi. Barcha rollarni **erkaklar maskalarda** ijro etgan. Ayollar teatrda rol o'ynashiga ijozat berilma-

gan. Tomoshabinlar bilan aktyorlar o'rtasidagi masofa uzoq bo'lgani sababli, aktyorlar bo'yalgan katta-katta niqoblar bilan nafaqat yuzlarini, balki boshlarini ham to'sib olishardi. Niqoblar personajlar xarakterini aks ettirardi. Niqoblarga qarab aktyor kimlarni tasvirlayotganini ajratib olsa bo'lardi.

Teatrga kirish uchun arzimas tomosha haqi yig'ilgan. Qashshoq fuqarolarga teatrga borish uchun pul berilardi. Oldingi qatorlardagi o'rinlar tekin bo'lib, kohinlar, strateglar, davlatga muhim xizmat qilgan fuqarolar kabi faxriy tomoshabinlarga mo'ljallangandi. O'zaro kurash namoyish etilgan, odatda, qatnashuvchi kishilar halok bo'lishi bilan tugaydigan pyesalar **tragediya** deyilgan. **«Sofokl»** va **«Evripid»** singari eng mashhur tragediyalarni **Esxil** yozgandi. Ajoyib qochiriqlar, quvnoq sahnalar, nozik yumorga boy **komediyalar** esa inson nuqsonlari ustidan kuladi. **Aristofan** komediyalar ustasi edi. **«Arilar», «Qushlar», «Baqalar»** degan mashhur komediyalarni ana shu muallif yozgan. Teatr tomoshabinga salmoqli tarbiyaviy ta'sir o'tkazgani sababli, uni **«kattalar uchun maktab»** deya ta'riflashgan.

Haykaltaroshlik va me'morchilik. **Mil. av. VII asr**dan ibodatxonalar va boshqa jamoat binolari **toshdan** barpo etila boshladi, ayni paytda, xususiy uylar **g'ishtdan** va **paxsa**dan qurilardi. Ustunlar jamoat binolari va ibodatxonalarning alohida bezagi va ko'rki edi. Ustunlar metall o'qlar yordamida bir-biriga mustahkamlangan bir necha tosh bo'laklaridan yasalgan. Qadimgi Misrda haykallar fir'avnlarni tasvirlagan bo'lsa, Yunoniston haykaltaroshlari o'z zamondoshlari haykallarini yasashgan. Ular haykallarda epchillik, kuch-qudrat, salomatlik va go'zallik singari har bir fuqaroni tarbiyalashda zarur bo'lgan fazilatlarni alohida bo'rttirib ko'rsatishga intilishgan. Bu narsa, ayniqsa, **Mironning «Disk uloqtiruvchi»** degan haykaltaroshlik asarida yorqin ifoda etilgan. Yunon haykaltaroshlari **qahramonlar**, **Olimpiada o'yinlari g'oliblari** yoki **jangda zafar quchganlar** sharafiga yodgorliklar tiklashgan. *Haykallar shu qadar ko'p ediki, tarixchilar Afinada tirik odamlarga qaraganda jonsiz haykallar ko'proq deb yozishgan.*

Eng buyuk yunon haykaltaroshlaridan biri **Fidiy** edi. U Afinada **Parfenon** barpo etilishi va **Akropol** qayta qurilishiga boshchilik qilgan. Uning mashhur asarlaridan biri Yer yuzidagi yetti mo'jizaning biri hisoblangan, bu yodgorlik olimpiyalik **Zevs haykali** bo'lgan. Arxitektor va haykaltarosh **Dedal Minos** degan podsho uchun mashhur **Labirint saroyi**ni barpo etgan. Akropol markazida **Parfenon** barpo etildi.

3.7. OLIMLAR VA MUTAFAKKIRLAR

Fan. Qadimgi Yunonistonda faylasuflarni istalgan savolga javob olish imkoni bo'lgan **donishmandlar**, **hayot murabbiylari** sifatida bilishgan. Mashhur yunon faylasufi **Geraklit** *Yer yuzidagi hamma narsa olovdan kelib chiqqan* deya uqtirardi. *«Bir daryoga ikkinchi marta sho'ng'iy olmaysan», «Hamma narsa oqadi, hech narsa bir joyda turmaydi»* degan mashhur hikmatlar unga tegishlidir.

Frakiyalik Demokrit degan faylasuf Geraklit fikriga e'tiroz bildirgan, *bizni qurshab turgan hamma narsa ko'zga ko'rinmaydigan mayda-mayda zarralar – atomlardan tashkil topgan* degan ma'nodagi fikrni bayon etgandi. Yunon faylasufi ***Diogen*** *insonda hech qanday ehtiyojlar bo'lmasligi shart* degan fikrni o'z ta'limotiga asos qilib oldi. Hayotdagi barcha qulayliklardan voz kechgan Diogen **bochka**da kun kechirgan. Makedoniyalik Aleksandr undan: *«Senga qanday yordam berishim mumkin?»* – deb so'raganida, Diogen: *«Nariroq tursang-chi, quyoshni to'sib qo'yding!»* – deya kinoya qilgan ekan.

Mil. av. V asrda yashagan **Gerodot «Tarix»** deb nomlangan kitob yozgan. **Misr, Mesopotamiya** va **Shimoliy Qora dengizbo'yi koloniyalari** bo'ylab sayohatini nihoyasiga yetkazganda, Gerodotni hali Yunonistonda birov tanimasdi. O'z vatandoshlarini **«Yunon – fors urushlari to'g'risidagi tarix»** asari bilan tanishtirganidan so'ng birdaniga mashhur kishiga aylandi. Tirikligidayoq Gerodotga **«tarixning otasi»** degan unvon berilgandi.

Qadimgi yunon olimi **Aristotel** to'plangan bilimlarni alohida tarmoqlarga ajratdi va ularni mustaqil fanlar sifatida ta'riflab berdi. Aristotelni Sharqda **Arastu** deya aytish keyinchalik odatga aylangan. Barcha zamonlarda olimlar ilmiy masala yechimini topgan yunon fizigi va matematigi **Arximedning** *«Evrika!» (Topdim, topdim!)* hayqirig'ini takrorlab yurishadi. Arximed ko'zgular tizimidan foydalanib yorug'likni bitta yo'nalishga jamlagani va yunonlar ustiga hujum qilib kelayotgan rimliklarning kemalarini yondirib yuborgani haqida hikoya qilib berishadi. Arximed **richag qonuni**ni ishlab chiqdi va mashhur bo'lib ketgan bir iborani aytdi: *«Menga tayanch nuqtasini topib bering, Yerni o'z o'qidan chiqarib yuboraman!»* Arximed boshi bilan ilm dengiziga sho'ng'igan olim timsoliga aylangan. Rimliklar uning jonajon shahri **Sirakuz**ni bosib olganlarida, qumda chizmalar chizgancha matematikaga oid bir masalani yechishga urinib o'tirgan ekan. Rimlik askar yetib kelganida: *«Mening chizmalarimga qo'l tekkizmagin!»* – deyishga ulgurdi, xolos. Arximedga nayza sanchilgandi.

Afinalik donishmandlar. Afinalik mashhur faylasuf **Sokrat** (O'rta Osiyoda keyinchalik **Suqrot** tarzida aytilgan) o'zining dono hikmatlari tufayli shaharning eng aqlli kishisi deb e'lon qilingandi. Bunga javoban Sokrat quyidagicha javob qaytaribdi: *«Mening donishmandligim shundaki, kamina faqat hech nimani bilmasligimni bilaman, xolos!»* Sokrat hech mahal o'z asarlarini qog'ozga tushirmagan. Sokratning g'oyalari **Atlantida** degan xayoliy (ideal) davlat to'g'risida ta'limot yaratgan **Platon** (Sharqda **Aflotun** deb atashgan) ismli yunon faylasufining muloqotlari tarzida bizgacha yetib kelgan. Darvoqe, bizgacha Sokratning mashhur bir hikmati yetib kelgan: *«Xudo bizning o'zimizdadir!»* Sokrat fuqarolarning axloqiy-ma'naviy tarbiyasiga alohida ahamiyat bergan. **Delfiya ibodatxonasi**dagi bitik uning sevimli hikmati ekan: *«O'z-o'zingni anglagin va bilgin!»* Muxoliflari bilan dialoglarida Sokrat Yaxshilik va Yomonlik nima degan masalaga javob berishga harakat qilib ko'rgan. *Yomon, aldoqchi va shafqatsiz bo'lishga qaraganda yaxshi, halol, rahmdil bo'lish ancha yaxshiroq* deb uqtirgan faylasuf. Sokrat, ayniqsa, ochko'zlik va molparastlik singari nuqsonlarni qattiq tanqid qilgan. Bozor bo'ylab sayr qilib yurganida shunday degan ekan: *«Bularsiz ham kun kechirish mumkin bo'lgan shuncha narsalar borligi qandoq yaxshi!»* Sokrat dunyoda Ezgulik qonunlari mavjudligini, faqat ularni bilish va ularga rioya qilib yashash kerakligini isbotlagan. Afinadagi ba'zi tartibotlarni qo'rqmasdan tanqid qilgani sababli, uni o'lim jazosiga mahkum etishgan. Sokratning boshqa bir davlatga qochib ketish imkoniyati bo'lsa-da rad etgan. Olim tarixda odamiylik, sabr-matonat va jasurlik timsoli bo'lib qoldi.

3.8. QADIMGI YUNONISTON ASOTIRLARI

Asotirlar: haqiqat va uydirma. Yunon asotirlari (miflari) – xudolar va bahodirlar haqidagi rivoyatlar qahramonlari har xil **titanlar** (xudolardan tug'ilgan qudratli pahlavonlar), **yovuz maxluqotlar**, **sirenalar** (yarim qush, yarim ayollar), **kentavrlar** (yarim otlar, yarim odamlar), **sikloplar** (peshanasida bitta dumaloq ko'zi bo'lgan afsonaviy mavjudotlar)dir. *Asotirlar mamlakat tarixidagi qadimgi davr haqida ko'p narsalarni bilishga imkon beradi. Ular Olamning yaratilishi, Yer yuzida hayot va odamning paydo bo'lishi, qahramonlar jasorati va dengiz sayohatlari haqida hikoya qiladi.* Yunon asotirlari rang-barang va qiziqarlidir. Olam va xudolarning kelib chiqishi haqidagi asotir ham maroqli. Avvalboshda **Yer** va **Osmon** – **Geya** va **Uran** bunyod etilgan. Ular Olamni boshqaruv-

chi titanlarni dunyoga keltirdilar, Olimp tog'ida yashovchi xudolar ularni taxtdan ag'darmaguncha, hukmronlik qildilar.

Asotirlarda aytilishicha, azalda **Yer** hamma tomonidan dengizlar bilan o'ralgandi. Dastlab ularning hukmdori **Okean** degan titan bo'lgan. Ulkan osmon gumbazi Yerning bir chekkasida turguvchi **Atlas** degan titan yelkalariga suyanib turardi. Yunonlarning rivoyatlari **Gerakl, Axilles, Tetsey** va **Ayaks** singari bahodir qahramonlar jasorati haqida naql etadi. Ularning barchasi matonat, kuch-qudrat va aql-zakovat kabi fazilatlarga ega bo'lgan ekan.

Qadimgi yunonlar xudolari. Qadimgi yunonlarning uch xudosi olamga hukmronlik qilardi: Zevs osmonda, Poseydon dengizda, Aid marhumlar saltanatida. Qolgan xudolar esa **dehqonchilik** va **hunarmandchilik, san'at** va **she'riyat, ishq-muhabbat** va **go'zallik** homiylari hisoblangan. **Urush** va **g'alaba, adliya, uyqu** va **tonggi shafaq xudolari** ham bo'lgan. **Satiralar** va **nimfalar** degan **tuban xudolar** ham mavjud edi. *Ular o'rmonlar, daryolar va tog'larda yashaydi deb tasavvur etilgan.* Yunonlar e'tiqodicha, xudolar **Makedoniya** va **Fessaliya** chegarasidagi bir tog'da, Yunoniston viloyatlaridan biri **Elidada, Olimp tog'ida** yashagan. Qadimgi yunonlarning xudolari va ilohalari ham odamlarga ancha o'xshaydi. *Olimp tog'i xudolari timsolini tasvirlarkan, yunonlar xudolarni qizg'anchiq va shafqatsiz, kunni bazmi jamshid va ermak-bozlikda o'tkazadi, bir-biri bilan tortishadi deb hisoblashgan.* Xudolar qattiqqo'l va qasoskor. Yunonlarning xudolari xohish-irodasiga qarshi borganlarni qattiq jazolaydi. Shuning uchun yunonlar xudolardan qo'rqishar, ularga qurbonliklar qilar va ko'plab ibodatxonalarni ularga bag'ishlab barpo etardilar.

4-BOB. QADIMGI RIM

4.1. ITALIYA VA UNING AHOLISI

Hududi va tabiiy sharoiti. Apennin yarimorolida iqlim iliq bo'lib, yil bo'yi yomg'ir kam yog'ardi, qurg'oqchilik ham, qattiq sovuq ham bo'lmasdi. Yegulik mahsulotlar mo'l-ko'lligi va tuproq unumdorligi tufayli, ko'p asrlar davomida Qadimgi Italiya aholisining asosiy mashg'uloti **dehqonchilik** va **chorvachilik** bo'lgan. Tog'lar mamlakat o'lkalarini bir-biridan ajratmas, shuning uchun Italiyada joylashgan turli-tuman qabilalar birga yashashardi. **«Italiya»** so'zining o'zi esa yunonchadan **«buzoqchalar o'lkasi»**

tarzida tarjima qilinadi. Koloniya qurgan yunonlar bu mamlakatda sigirlarni o'tlatish uchun ajoyib o'tloqlarni birinchi topgandilar.

Apennin yarimorolining eng yirik oqar suv manbayi **Po** daryosidir. Yarimorolning barcha qabilalari **italiklar** deb nomlangan. Ular orasida **lotinlar, samniylar** va **sabiniylar** ko'pchilikni tashkil etgan. Kelib chiqishi borasida ular yunonlarga yaqin qarindosh bo'lishgan. Italiyaning g'arbiy qismida Kichik Osiyodan bu mamlakatga ko'chib kelgan **etrusklar** yashagan. Ularning asosiy mashg'uloti **dehqonchilik** edi. **Mil. av. VIII asr**ga kelib etrusklar Italiyada **12 ta shahar-davlat** tuzishadi. **Mil. av. VII asr**da Sharq mamlakatlari bilan erkin savdo-sotiq qilish uchun yunon koloniyalari bilan urush boshladilar. **Karfagen mamlakati** ham ularga qo'shildi. Avvaliga karfagenlar va etrusklar g'alaba qozonishdi, ammo ko'p o'tmay yunon qo'shinlari ularni quruqlik va dengizda tor-mor etdi. Shunday qilib, Italiya hududida mavjud bo'lgan **etrusk sivilizatsiyasi** zavolga yuz tutdi, ammo uning ko'plab yutuqlariga **Rim aholisi** munosib voris bo'ldi.

Rimga asos solinishi. **Rim shahri Tibr daryosi** bo'yidagi shinamgina dehqonchilik manzilgohlaridan boshlangan. Tibr daryosi bo'ylab joylashgan kichik manzilgohlar birlashib katta shaharga aylandi. Rim **yettita tepalik**da joylashgan. Ular **Aventin, Viminal, Kvirinal, Kapitoliy, Palatin, Eskvilin, Seliy** deb atalgan. Tibr toshgan kezlarda, tepaliklar o'rtasidagi vodiy odam o'tolmaydigan botqoqlikka aylanib qolardi. Shahar joylashishi harbiy nuqtayi nazardan juda ham qulay bo'lgan. Daryo va botqoqlik **lotinlar**ni qo'shni qabilalar hujumlaridan himoya qilardi. Rivoyatga qaraganda, Rim shahriga **mil. av. 753-yili** aka-uka **Romul** va **Rem** tomonidan asos solingan. Dunyoga kelganlaridan keyin chaqaloqlarni Tibr daryosi bo'yida o'lsin deb tashlab ketishadi. Daryo bo'yida ularni **Ona bo'ri** topib oladi, bir cho'pon kelib olib ketmaguncha, aka-ukalarni emizadi va boqadi. Voyaga yetganlarida esa Tibr bo'yida shahar barpo etishga ahd qilishadi. Aka-ukalar janjallashib qolib, Romul o'z inisini o'ldirib qo'yadi, shaharga esa o'z nomini beradi. Bugun ham, afsonada aytilganidek, egizaklarni emizgan Ona bo'ri Rimning timsoli hisoblanadi. **Mil. av. VI asr**da Rim aholisi ko'p shaharga aylanadi. **Kapitoliy tepaligi**da esa dushmanlardan himoyalanish uchun **qal'a** bunyod etiladi.

Qadimgi Rimda boshqaruv. Ilgari rimliklar o'z hukmdorlarini **saylashardi**. Hukmdorlar ham **harbiy boshliq**, ham **sudya**, ham **kohin** bo'lishgan. **Mil. av. 509-yil**gacha shu taxlit davom etdi, faqat **«Mag'rur»** bo'lgan **Tarkviniy** degan kishi saylab qo'yilgan hukmdorni o'ldirib hokimiyatni egallab oldi. Darg'azab bo'lgan aholi qo'zg'olon

ko'tarib Tarkviniyni shahardan haydab yubordi. Shahar ahli butun hokimiyat bir kishi qo'lida jamlanishiga yo'l qo'ymaydigan boshqaruv shakliga o'tishga qaror qilishdi. Podsho hokimiyatining ag'darilishi **Rim respublikasi** asosini yaratdi.

4.2. RIM RESPUBLIKASI

Respublikani boshqarish. Rim podsholari muhim masalalarni muhokama qilish uchun **xalq majlisini** chaqirardi. Xalq majlisi urush e'lon qilar, sulh tuzar, qonunlarni qabul qilar va bekor etar, barcha muhim mansabdor shaxslarni saylab tayinlardi. Bu majlisning qarorini **Senat** tasdiqlardi, lotinchadan tarjima qilganda **«senat»** so'zi **«oqsoqollar kengashi»** degan ma'noni anglatadi. Senatorlarning avlodlari **patritsiylar**, Rimning oddiy xalqi esa **plebeylar** deb nomlangan. Rim boshqaruvida faqat patritsiylar ishtirok eta olardi. **Mil. av. VI asr oxiri**da Rim davlati **respublika** deb yuritila boshladi. **«Respublika»** so'zi **«xalq ishi, umumiy ish»** degan ma'nolarni anglatadi (**«res» – ish, «publika» – xalq**). Aslida, Rim respublikasi boshqaruvida faqat **zodagon quldorlar** ishtirok eta olardi. Davlatga xizmat qilish evaziga haq to'lanmagani sababli, qashshoq kishi, masalan, **konsul** bo'la olmasdi. Saylovlarni tashkillashtirish uchun katta pul talab etilardi. Badavlat quldorlar turli yo'llar bilan saylovchilarni o'z tarafiga og'dirib olar, masalan, bepul tushlik uyushtirar, sovg'a-salom tarqatar va shunga o'xshash ishlarni amalga oshirardi. Saylov kuni konsullikka o'z nomzodini qo'ygan badavlat quldorlar **«kandida»** deb ataluvchi oq harir libos kiyib olishgan. Hozirgi **«kandidat»**, ya'ni qandaydir lavozimni egallashga harakat qiluvchi nomzod shaxs ma'nosini beruvchi so'z ham «kandida»dan kelib chiqqan. **Oq rang** nomzodning vijdoni ham uning libosi kabi beg'ubor va pokiza ekanini bildirib turardi.

Senat mamlakatda katta hokimiyatga ega bo'lgan. Birorta ham qonun Senatda muhokama etilmasdan Xalq majlisi tomonidan qabul qilinmasdi. Asosiy mansabdor shaxslar – konsullar esa bevosita davlatni boshqarardilar. Mabodo qadim zamonlarda eng tajribali va hurmatli kishilar Senatda o'rin egallagan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan konsullar hech bir saylovsiz Senatda o'rin egallab oladigan va uning umrbod a'zosiga – senatorga aylanadigan mavqega erishdilar. Urush boshlangan taqdirda yoki xalq qo'zg'oloni ro'y berganda, **diktator** va **uning o'rinbosari – otliq qo'shinlar boshlig'i** tayinlanardi. Diktator cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan. Ammo u hokimiyatda **olti oydan ko'p** turolmasdi.

Har bir konsulni **12 kishidan iborat faxriy qorovul – liktorlar** qo'riqlab

yurardi. Konsul jinoyatchilarni jazolash imkoniga egaligi alomati sifatida liktorlar yelkalariga **o'rtasiga boltacha sanchilgan qayishqoq arqoncha-lardan bog'lama** taqib yurishardi. Konsullar **ikki nafar** bo'lib, ular muhim masalalarni hal etayotganda bir-birlari bilan maslahatlashib olishi kerak edi. *Konsullar yil davomida Rim respublikasini boshqarib, rimliklarni sud qilardilar. Harbiy davrlarda esa ular qo'shinlarga qo'mondonlik qilishgan.* Har yili ular xalq majlisiga hisobot berardilar. Rim respublikasida **xalq tribuni** lavozimi ham ta'sis etilgandi. Xalq tribunlari **qashshoq rimliklar** manfaatlarini ifoda etardilar. Ular majlislarda barcha fuqarolarning **teng** va **yashirin ovozi** bilan saylanardi. Xalq tribuni **«veto» (taqiqlayman)** so'zini aytishi mumkin bo'lgan, bunday holda qonun qabul qilinmasdi.

«12 jadval qonunlari». Qadimgi Rim qonunchiligi **og'zaki qonun-lar**ga asoslangandi. Sudlarda ko'pincha adolatsiz qarorlar chiqaruvchi patritsiylar majlis tuzardilar. Plebeylar talabiga ko'ra uzoq davom etgan muhokamalardan keyin Senat tomonidan qonunlar yoziladi. Ularni **o'nta mis plastina**ga chekib yozishgan va hamma ko'rishi uchun osib qo'yish-gan. Patritsiylarni bu qonunlar qanoatlantirmasdi, negaki ular Yunoniston hukmdori Solonning qonunlariga asoslangan bo'lib, kambag'al aholi manfaatlarini himoya qilardi. Tabiiyki, qonunlar bekor qilinadi. O'shanda, asosan, plebeylardan iborat bo'lgan Rim qo'shinlari isyon ko'taradi. Ular Rim atrofidagi **Muqaddas tog'ga** kelib qoladi, o'z qonunlariga ega bo'lgan **yangi shahar** tashkil qilamiz deb ogohlantiradi. Shu tariqa patritsiylar **12 jadval**dan tashkil topgan yangi qonunlarni qabul qilishga majbur bo'ladilar. Qonunlar **xususiy mulkni daxlsiz** deb e'lon qildi. Ko'pgina qonunlar plebeylar va patritsiylar tengsizligini qonuniylashtirgan, ammo plebeylarni patritsiylar zo'ravonligidan xalos etgandi. Faqat **mil. av. IV asr o'rtalari**ga kelib Rimning barcha fuqarolari mavqeyidan qat'i nazar qonun oldida teng deb hisoblanadigan qonunlar qabul qilindi.

4.3. RIM RESPUBLIKASI HAYOTI

Shaharlardagi hayot. Imperiya hududi kengayib borgani sayin, shaharlar ham ko'paydi. Rim shaharlari oldindan puxta ishlangan **reja asosida** barpo etilgan. Shaharlarda ko'plab chiroyli **jamoat** va **turarjoy binolari, ibodatxonalar, hammomlar, savdo rastalari** va **dorixonalar** bo'lgan. Ko'pchilik odamlar **2 – 3 qavatli** binolarda istiqomat qilgan. Badavlat odamlar esa o'zlariga **koshona** qurib olardi. Bunday uylarda **markaziy isitish tizimi** bo'lgan: pollar isitilar, quvurlar orqali uylarga suv oqib kelardi. Uy **mozaikalar** – shisha yoki tosh parchalaridan ish-

langan suratlar bilan bezatilgan. Shohona uy-joylar – **villalar** devorlarini **freskalar** – selgimagan suvoqqa ishlangan rasmlar bezatib turardi. Har bir shahar markazidagi **Forum**da bozor maydoni, xalq yig'ilishlari uchun joy va markaziy ibodatxona bo'lgan. Suv shaharga bir necha qavatli ko'prikka o'xshab ketuvchi **akveduk** orqali oqib kelardi. Ovqat pishirish va isitish uchun yog'och ko'miri yonib turuvchi o'txonalardan (o'choqlar) foydalanilgan.

Rim bozorlarida eng bozori chaqqon tovar **qullar** edi. Har bir shaharda qullar savdoga chiqariladigan bozor bo'lgan. Odamlar kiyib yuradigan liboslar ularning jamiyatdagi o'rnini bildirib turardi. Masalan, o'g'il bolalar **14 yosh**ga to'lgunga qadar **pushti yo'llik «togu»** kiyishgan. 14 yoshga kirganlarida ular voyaga yetgan shaxs hisoblanar va **oppoq togu** kiya boshlardi. Xuddi shunday harir toguni senatorlar ham kiyishardi. Rimlik ayollar turli rangdagi ko'ylaklar kiyishar, bosh va yelkalariga ro'mol yopinardilar.

Qadimgi rimliklar xudolari. Xudolar uchun ulug'vor ibodatxonalar barpo etilgan. Bundan tashqari, har bir rimlik xonadonida o'z xudosi bo'lgan. *Rimliklar xudolarining ko'pchiligi yunonlar xudolarini esga soladi.* Muhim ishni boshlashdan oldin rimliklar bu ishda madad berishi uchun xudolarga qurbonliklar bag'ishlardilar. Turfa xudolar hayotning turli jihatlarini boshqarardi. Masalan, jangda mag'lubiyatga uchragudek bo'lishsa, demak, qaysidir ish bilan urush xudosi **Mars**ning jahlini chiqardik degan xayolga borishgan (yunonlarda urush xudosi **Ares** bo'lgan).

Rimning bosh xudosi osmon, momaqaldiroq va yashin podshosi **Yupiter** sanalgan. Yupiter Rim davlati homiysi, xalqlar va davlatlar taqdirini boshqarib turadi deb hisoblangan. **Neptun** dengiz xudosi, uyqu xudosi **Morfey**, ov xudosi **Diana** edi. Rimliklar **Vulkanni** olov va temirchilar xudosi deb bilishgan. **Venera** bahor va sevgi xudosi, **Baxus** may xudosi bo'lgan. Rimning odil sudlov ilohasi esa **Yustitsiya** hisoblangan. Bu iloha, odatda, ko'zlari bog'langan ayol ko'rinishida tasvirlangan. Yustitsiyaning o'ng qo'lidagi **qilich** jazo timsoli sanalgan, chap qo'lidagi **tarozi** bilan iloha aybdorlik va aybsizlikni taqqoslab o'lchagan. Rimning taqdir ilohasi esa **Fortuna** bo'lgan. Fortuna ko'pincha taqdirlar peshvosi sifatida gohida **gul** bilan, ba'zan esa taqdir qo'nimsizligi ramzi sifatidagi **shar** bilan birga tasvirlangan. Rimning qasos va intiqom ilohalari bo'lmish **furiyalar** yovuz, qasoskor ayollar siymosida tasvirlangan.

Ibodatxonada Rimning bosh xudosi Yupiterning ulkan haykali o'rnatilgan. Ibodatxona yonida **altar** – qurbonlik baxshida etiladigan ko'tarma joy bo'lgan. Odatda, ho'kizlar, qo'ylar, cho'chqalar yoki ech-

kilarni qurbon qilishgan. *Qurbonlik bag'ishlash marosimini faqat kohinlar o'tkazishga haqli edi.* Hayvonlar go'shtining bir qismi xudo qovurilgan go'sht isini hidlashi uchun altarlarda kuydirilgan. Ammo, rimliklar fikricha, xudolarning asosiy yeguligi **nektar** bo'lib, ularning navqironligi va manguligini ta'minlarkan.

Diniy marosimlar. Diniy marosimlar qat'iy belgilangan qoidalar bo'yicha o'tkazilgan. Diniy marosimlar o'tkazilishi ustidan kohinlar – **pontifiklar** – Rim ruhoniylari nazorat qilgan. Pontifiklar bayramlar taqvimi, marosimlar tantanalari tartibini tuzishardi. **5 nafardan 15 nafargacha** ruhoniylarni ifoda etuvchi pontifiklar hay'atiga **Buyuk pontifik** rahbarlik qilardi. Buyuk pontifik xudolar bilan maslahatlashib olib uzil-kesil xulosa beradi deb bilingan.

Rimliklar barcha muhim ishlarni fol ochishdan boshlashgan. **Fol ochish** kohinlar – **avgurlar** yordamida amalga oshirilgan. Avgurlar **qushlar parvoziga, momaqaldiroq, chaqmoq, muqaddas qushlarga sepilgan donlar, aks sadoga** va hokazolarga qarab fol ochardi. Mabodo alomatlar ko'ngildagidek bo'lmasa, ishlar ma'lum muddatga kechiktirilardi. Biroq keyinchalik avgurlar ta'siri pasayib ketdi va hatto *«avgurning tabassumi»*, ya'ni *«aldoqchining ayyorlarcha jilmayishi»* degan qochiriq ham dunyoga keldi.

Xonadon o'chog'i ilohasi **Vesta** ibodatxonasida muqaddas olov saqlanardi. Muqaddas olovni saqlash **ayol kohinalar** majburiyatlari sirasiga kirardi. *Olov yonib turarkan, davlat mavjuddir* deb hisoblashgan. Vestachi kohinalar ta'siri va nufuzi katta edi. Ularga hatto qatlga hukm etilganlarni avf etish huquqi ham berilgandi. Vestachi kohinalar safiga o'tgan ayollar nikohlanlanmaslik to'g'risida qasam ichishardi. Bu qasamyodni buzgan kohinalar tiriklayin yerga ko'mib tashlangan.

4.4. O'RTA YER DENGIZIDA HUKMRONLIK UCHUN KURASH

Rim armiyasi. Armiyada **17 yoshdan 46 yoshgacha** bo'lgan erkak fuqarolar xizmat qila olardi. **80 kishidan** iborat jangchilar guruhi **senturiylar** deb atalgan. Bir necha senturiylar **kogorta**ni, **10 ta** kogorta **legion**ni tashkil etardi. Jangchilarning ko'pchiligi yaxshi ta'lim olgan askarlar bo'lib, ular uchun armiyada xizmat qilish **bir umrlik** ishga aylangandi. Xizmat muddati **25 yil** bo'lgan. Shuncha muddatdagi xizmati evaziga legioner uy-joy, durustgina oylik maosh olish va boshqa o'lkalarni ko'rish imkoniga ham ega bo'lardi.

Rimliklar o'ziga xos jang olib borish **taktikasi**ni ishlab chiqishgan: avvaliga shahar qurshab olinar, so'ngra esa **katapulta**dan foydalanib devorlarni teshishar va shaharga bostirib kirardilar. Pishiq metall taxtachalardan tiklangan uzun qamal ko'tarma minoralari yordamida baland devorlardan oshib o'tardilar.

G'alabadan so'ng, Senat qaroriga ko'ra, Rim qo'shinlari **triumf**ni tantanali nishonlardi. Qo'shinlar oldida to'rtta oq arg'umoq qo'shilgan aravada boshiga lavr gulchambari qadab olgan g'olib sarkarda borardi. Sarkardaning izidan o'ljalarni olib borishardi. **Kapitoliy** tepaligida qo'lga kiritilgan g'alaba uchun minnatdorlik tariqasida xudolarga qurbonliklar bag'ishlanardi.

Puni urushlari. Rim davlatining hududi tinimsiz kengayib boraverdi. **Mil. av. III asr o'rtalari**ga kelib Rim sarkardalari mamlakatning shimoliy qismidan tashqari butun Italiyani zabt etishga erishdilar. Tez orada ularning istilochilik rejalari chegaradosh hududlarga ham yoyila boshladi. Bu paytda Sitsiliya orolining g'arbiy qismini boshqa bir qudratli davlat – **Karfagen** quldorlari egallab olgandilar. Aynan Sitsiliya masalasi Rim va Karfagen o'rtasidagi urushlar sababiga aylandi. Karfagenning katta va kuchli floti bo'lgani bois Rimga qaraganda ustunlikka ega edi. Ammo unda **yollanma askarlar** xizmat qilardi. Yollanma askarlarning birdan bir maqsadi harbiy o'lja bo'lib, istalgan paytda dushman tarafiga o'tib ketardilar.

Rimliklar Karfagen bilan **uch marotaba** urushdilar. Bu urushlar tarixga **Puni urushlari** nomi bilan kirdi, negaki rimliklar Karfagenni **Puni** deb atashardi. *Birinchi urushda rimliklar g'alaba qozondi, Sitsiliyani bosib olib, karfagenliklarni xiroj to'lashga majbur qildilar. Ikki yildan keyin rimliklar Korsika va Sardiniya orollarini bosib oldilar. Rim O'rta yer dengizi mintaqasida eng kuchli davlatga aylandi.* Biroq Karfagen O'rta yer dengizidagi orollar ustidagi urushda Rimning xavfli raqibi bo'lib qolaverdi. Sitsiliyadagi yo'qotishlar uchun o'zlarini taqdirlash va qanoatlantirish uchun Karfagen quldorlari **Ispaniyaning katta qism**ini bosib oldilar. Karfagen armiyasiga tajribali sarkarda **Gannibal** boshchilik qilardi. Ispaniyada yollanma qo'shinlarga qo'mondonlik qilganida Gannibal biror marta ham mag'lubiyatga uchramadi.

Karfagenning vayron etilishi. G'arbiy O'rta yer dengizida yagona xo'jayinga aylanish uchun rimliklar Karfagen bilan janglarga tayyorgarlik ko'ra boshladilar. Ular karfagenliklarga **ikki tomondan** zarba berishga qaror qilishdi. *Bitta armiya Ispaniyada Gannibal armiyasini tor-mor etishi, boshqasi esa Karfagenni bosib olishi kerak edi.* Biroq Gannibal barcha

rejalarni chalkashtirib yubordi. O'tib bo'lmasdek tuyulgan tog'lardan oshgan Gannibal Italiya hududiga bostirib kirdi va **mil. av. 216-yili Kann shahri** yaqinidagi jangda rimliklar armiyasini tor-mor etib tashladi. Bu jangda **70 ming** rimlik legioner halok bo'ldi. Mag'lubiyatdan keyin rimliklar hal qiluvchi janglardan o'zini tiya boshladi. Italiya aholisi Gannibalni qo'llab-quvvatlamadi, chunki Karfagen yollanma qo'shinlari mamlakatni talon-toroj qilib tashlagandi. Urush **15 yilga yaqin** davom etdi, rimlik sarkarda **Ssipion** kutilmaganda qo'shinlari bilan Afrika qirg'og'iga kelib tushganda, Gannibal Karfagenni himoya qilishga oshiqdi, ammo **mil. av. 202-yili** uning lashkari rimliklar tomonidan tor-mor etildi. **Mil. av. 183-yili,** uzoq surgunda yurganida rimliklarga topshirish uchun qo'lga olishga urinishganida, Gannibal zahar ichadi. Rim G'arbiy O'rta yer dengizida mutlaq hokimga aylanadi. **Suriya va Makedoniya**ni bosib olgandan keyin rimliklar Karfagenni ham bosib olishga qaror qiladilar.

Mil. av. II asr o'rtalarida **uchinchi Puni urushi** bo'ldi. Rimliklar Karfagenni qamal qildilar, ammo aholi uning himoyasiga qo'zg'aldi. Karfagen shahri aholisi **ikki yil** o'z shahrini mudofaa qildi, shaharda ochlik boshlandi. Rimlik legionerlar bir hamla bilan uylarni birma-bir bosib olishar, yo'lda uchragan narsani talashar va o't qo'yishardi. Karfagen **o'n yetti kun** o't-olov girdobida qoldi. Xalq tajribalari va donishmandligini asrab kelgan xonadonlar va kutubxonalar kuli ko'kka sovurildi. Karfagen bunyod etilgan joy esa, Senat qaroriga ko'ra, qarg'ish tekkan maskan deb e'lon qilindi. Bu yerda uy-joy qurish va dehqonchilik bilan shug'ullanish taqiqlangan. Shunday qilib, **mil. av. 146-yili** Karfagen butunlay vayronaga aylantirildi. Rim qo'shinlari g'alaba sururi, talangan o'lja va minglab qullar bilan Italiyaga qaytib keldi.

Rim tomonidan bosib olingan hududlar. Puni urushlaridan keyin Italiya sarhadidan ancha uzoqda bo'lgan katta-katta hududlar ham Rim hokimiyati tasarrufiga o'tdi. Bosib olingan yerlarni rimliklar **provinsiya** deyishgan. **Sitsiliya**, **Korsika, Sardiniya, Ispaniya, Yunoniston, Kichik** va **Old Osiyo, Misr** va boshqa hududlar ana shular sirasiga kirardi. Provinsiyalarni boshqarishga noiblar – **prokonsullar** tayinlanardi. Prokonsullar, odatda, **bir yil**ga saylanar va ular qo'l ostidagi mamlakatni ayovsiz talardi.

4.5. QULLAR VA GLADIATORLAR

Kolonlar va «kulbali qullar». Rim davlatidagi qullarda mehnatdan manfaatdorlik hissi umuman bo'lmagan. Savalash va qattiqqo'l muomala bilan ularni durust ishlashga, xo'jalik mollari va mehnat mahsulotlarini

asrashga undashning ham iloji yo'q edi. **Milodiy I – II asrlar**da qullar mehnati quldorlar uchun foydali emasligi ma'lum bo'ldi. Ko'plab quldorlar qullarni yer ijarachilariga aylantira boshladi. Qullar qo'zg'olonidan qo'rqqan, hosildorlikni oshirishga intilgan zamindorlar o'z yerlarini kichik-kichik mulklarga bo'lib tashladilar, erkin kambag'allarga ijaraga tarqatib bera boshladilar. Ana shu yerlarda ijarachilar dehqonchilik bilan shug'ullandilar. Ular yerga qancha yaxshi ishlov bersalar, hosilning shuncha ko'p ulushi o'zlariga nasib etardi. Mayda yer ijarachilari **kolonlar** deb atalgan. Yerdan foydalanganlik uchun ular yer egasiga o'zlari yetishtirgan mahsulotlar bilan to'lov berishardi. Bora-bora mutlaq qaram qullarning soni kamaydi. Ayrim yer egalari xo'jaliklarni yuritish uchun qullarga kichik yerlarni mustaqil yuritishga mehnat qurollari, urug'lik va oilasi bilan birga yashashga ruxsat berishardi. Bunday qullar **«kulbali qullar»**, ya'ni uy-joyli qullar deb nomlangan. Ular ham yerdan foydalanganlik uchun haq to'lashardi, ammo o'zlarining taqdiri xo'jayinlarining qo'lida edi. Qullar va kolonlar Rim imperiyasining eng mazlum aholisi bo'lib qolaverishdi, ular birgalikda quldorlarga qarshi kurash boshladilar.

Gladiatorlar janglari. Rimliklarning sevimli tomoshalaridan biri **gladiatorlar jangi** bo'lgan. Aksariyat gladiatorlar **qullar** yoki **jinoyatchilar** bo'lishgan. Ularga maxsus yopiq maktablarda ta'lim berishar, so'ngra bir-birlari bilan olishishga, tomoshabinlar ko'nglini xushlashga majbur qilishardi. Janglar ulkan **tosh stadionlar** yoki **amfiteatrlar**da bo'lib o'tardi. **50 ming** tomoshabin sig'adigan **Kolizey** eng katta amfiteatr bo'lgan. Ba'zida gladiatorlar katta-katta guruhlarda jang qilishgan, shunda sahna jang maydoniga o'xshab qolardi: o'ldirilgan, yaralangan va jon berayotgan gladiatorlar hamma yoqda sochilib yotardi. Yanada qiziqarliroq bo'lishi uchun gladiatorlar janglari kuchi teng raqiblar o'rtasida o'tkazilgan. Gladiatorlarning yovvoyi arslonlar, qoplonlar, darg'azab ho'kizlar bilan janglari ham tashkillashtirilgan.

Spartak qo'zg'oloni. Mazlum qullar o'z zolim ezuvchilaridan nafratlanar, turli yo'llar bilan ularga ziyon-zahmat yetkazishga intilardi. Rimlik quldorlar behudaga: *«Qullar qancha bo'lsa, dushmanlar shuncha»*, – deyishmagan. **Spartak** boshchiligidagi **qullar qo'zg'oloni** qadimgi dunyoda eng ommaviy va uyushgan qo'zg'olonlardan biri bo'lgan. Rim armiyasidagi a'lo xizmatlari uchun **Kapuya shahri**dagi gladiatorlik maktabiga sotib yuborilgan **frakiyalik** qul **Spartak mil. av. 74-yili** boshlangan qo'zg'olonga rahbarlik qildi. U qullarni qo'zg'olon ko'tarishga tayyorladi. Ammo kimdir bu haqda rimliklarga xabar yetkazadi. Shunda Spartak va uning **200 ga yaqin** tarafdorlari qorovullarga hujum qiladilar va turmadan qochib chiqib ketadilar. Shaharda yashirinish imkoniyati bo'lmagani sa-

babli ular **Vezuviy tog'i**dagi qoyalarga chiqib oladilar. Asta-sekin egasidan qochgan boshqa qullar ularga kelib qo'shila boshladi, qo'zg'olonchilar safi kengayib bordi. Ko'p o'tmay ular **10 ming kishi**ga yetdi.

Qo'zg'olonni bostirish uchun jo'natilgan **uch ming** askarlik qo'shin Vezuviy tog'lari yaqinida harbiy lager tikladi. Qamal boshlandi. Ammo Spartak kutilmagan va dadil rejani amalga oshirdi. Qullar uzum novdalaridan narvon to'qib, ko'rinmaydigan tarafdan cho'qqidan pastga tushib oldilar. Rimliklar guruhining orqasidan zarba bergan Spartak ularni tor-mor etdi. Qo'zg'olon ko'targanlar orasida ixtilof paydo bo'ldi. Ko'pgina qullar mamlakatdan chiqib ketmaslikka, Rimni tor-mor etishga va quldorlardan qasos olishga ahd qildi. Spartakka qarshi tajribali sarkarda **Mark Krass** boshchiligida ko'p ming sonli qo'shin jo'natildi. **Mil. av. 71-yil bahori**da ro'y bergan hal qiluvchi jangda Spartak lashkari tor-mor etildi, uning o'zi esa ana shu jangda halok bo'ldi. Bir necha ming asirlar xochlarga mixlab o'ldirildi. Qo'zg'olon ko'targanlarning alohida to'dalari esa tag'in **10 yil** kurashni davom ettirgan.

4.6. RIM RESPUBLIKASINING QULASHI

Sabablari. Qullar qo'zg'olonlari quldorlarni qattiq qo'rquvga solib qo'ydi. Quldorlar qarshisida kuchli hokimiyat bo'lmish **harbiy diktatura** o'rnatilishi zarurligi to'g'risidagi masala ko'ndalang turardi. Senatorlar va kam sonli mansabdor shaxslar ulkan davlatni risoladagidek boshqarishni ta'minlay olmasdilar. **Mil. av. I asr**da muntazam yollanma qo'shinlarga tayanuvchi **harbiy boshliqlar** real kuchga aylanadilar. Yollanma askarlarni Rimning harbiy kuch-qudrati va davlatning kuchayishi emas, balki faqat o'lja qiziqtirardi. Yollanma askarlar uchun kimlar bilan jang qilish yoki kimlarni talashning farqi bo'lmagan. Rimda esa davlat boshliqlari bo'lishni xohlovchi bir qancha **sarkardalar** bor edi.

Sezar hokimiyatining qaror topishi. Spartak qo'zg'oloni bostirilgandan keyin, **Krass** va **Pompey** hokimiyat uchun ancha payt kurash olib bordilar, ammo Rim imperiyasi olib borayotgan urushlardan birida Krass halok bo'ladi. Endi Pompey uchun **Sezar** birdan bir xavfli raqib bo'lib qoldi. **Galliya urushlari**dagi g'alabalar tufayli Sezarning nufuzi va obro'yi ancha ortdi. **Yollanma askarlar** uning ajoyib sarkardalik iste'dodiga ishonar, Sezarning ortidan to'g'ri kelgan tomonga borishga shay edilar. Bundan tashqari, Senat majlisida qatnashsa bizga yer ajratib beradi va qarzlarimizni bekor etadi deb umid qilgan **kambag'allar** ham Sezarni qo'llab-quvvatlardi.

Galliyadagi muzaffar urushdan keyin Rimga boruvchi yo'ldagi **Rubikon daryosidan** kechib o'tarkan, **mil. av. 49-yili** Yuliy Sezar yakkahokimlik uchun oshkora kurashni boshlab yubordi. Sezar o'shanda shunday degan: *«Qur'a tashlandi!»* Rim aholisi qo'llab-quvvatlashi hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Pompeyning qo'shinlari **Ispaniya**da turardi, Sezar g'alaba qozondi. Sezarning xohish-irodasi Rim uchun qonun kuchiga ega edi. *U hech qanday saylovlarsiz mansabdor shaxslarni tayinladi, Senat va xalq majlisiga hisobot bermay qo'ydi.* Bu hol uzoq davom etmadi. Sezarning cheklanmagan hokimiyatidan norozi bo'lgan senatorlar fitna uyushtirdilar. Ular Sezarni o'ldirishga va Senatga avvalgi mavqeyini qaytarishga ahd qildilar. Fitnaga Sezarning yaqin do'stlaridan biri **Brut** boshchilik qiladi. Senatdagi majlis paytida fitnachilar Sezarni qurshab oldilar va uni xanjar bilan o'ldirdilar.

Shu tariqa **mil. av. 44-yili** Yuliy Sezar hukmronligi tugadi. Ammo uning o'ldirilishi respublika qayta tiklanishiga olib kelmadi. Sarkardalar o'rtasida fuqarolar urushi boshlanib ketdi, bu kurashda g'olib chiqqan **Oktavian Avgust** Sezarning vorisi bo'ldi. U Rim imperiyasi asoschisiga aylandi.

Hokimiyat uchun kurash oqibatlari. Sezar o'ldirilganidan keyin, **Brut** respublikani qayta tiklashga urinib ko'radi. Biroq senatorlar avvalgi tartibotlarga qaytishni istamasdilar. Ularning ko'pchiligi o'z boyligini Sezar hukmronligi davrida qo'lga kiritgandi. Brut va uning tarafdorlari **Yunoniston**ga qochib ketishga majbur bo'ladilar. Ayni paytda, Rimda Sezarning nevarasi bo'lmish, imperator uni asrab olganida **Gay Yuliy Sezar Oktavian** deb nom bergan **Oktaviy** paydo bo'ladi. Oktavian mamlakat hukmdoriga aylandi. Sezarning yaqin yordamchisi **Mark Antoniy** bunga qarshi chiqadi. Buning uchun Senat Mark Antoniyni **respublika dushmani** deb e'lon qiladi.

Yunonistonda esa Rim respublikasi tarafdorlarini qo'llab-quvvatlash kuchayib boradi. Oktavian Mark Antoniy bilan ittifoq tuzadi va respublikachilarni tor-mor etadi. Shundan keyin Oktavian Rim davlatining **g'arbiy qismi**ni, Antoniy esa **sharqiy qismi**ni boshqarishni o'z qo'liga oladi. Misrga kelgan Antoniy Misr malikasi **Kleopatra**ga Rimning sharqiy provinsiyalarini beradi. Bu Oktavianning noroziligiga sabab bo'ldi, **mil. av. 31-yili** Yunoniston qirg'oqlarida Oktavian va Antoniy flotlari o'rtasida jang bo'ldi. Jang qizigan bir pallada Kleopatra va Antoniy **Aleksandriya** shahriga qochadilar. Armiya va flot Oktavianga taslim bo'ladi. Keyingi yili Oktavian qo'shinlar bilan Misrga yetib keladi. *Antoniy va Kleopatra o'z-o'zini o'ldiradi, Misr esa Rim provinsiyasiga aylanadi. Shunday qilib, Oktavian butun Rim imperiyasining yakka hukmdori bo'lib oladi.*

Mil. av. 29-yili Oktavian Senatdan **imperator** unvoni va **Avgust** laqabini oldi. Oktavian Rim imperiyasining asoschisi edi. Oktavian Avgust senatorlar sonini qisqartirdi, **75 legiondan 28 tasini** qoldirdi. Jangchilarning xizmat muddati **20 yil** etib belgilandi. Oktavian Avgust zamonida Rim armiyasining umumiy soni **300 ming**ga yetdi. Imperator keng ko'lamda qurilish ishlari olib bordi. Uning davrida Rimda ko'plab saroylar va ibodatxonalar barpo etildi. Oktavian Avgust **milodiy 14-yili** vafot etdi. Uning vorislari bo'lmish **Tiberiy, Kaligula** va **Neron** hukmronligi davrida imperiya inqirozi boshlandi. Faqat **milodiy II asr o'rtalari**da Rimning kuch-qudrati qayta tiklandi. Bu davr Rim imperiyasining **«oltin asri»** degan nom olgan.

Milodiy 98-yili Trayan imperator taxtini egalladi. Trayan zamonida **Dunay daryosi** bo'ylarida yashovchi **daklar** bilan urush olib borildi. **Ossuriya** va **Mesopotamiya** hududlari Rim imperiyasi tarkibiga kirdi. Trayan Parfiya bilan urushlarda muvaffaqiyatga erishdi, uning hukmronligi davrida yolg'onchi chaqimchilikka asoslanib qatl etish bekor qilindi.

4.7. RIM VA PARFIYA

Parfiya davlati. Hozirgi Turkmaniston janubida, Eronning shimoli-sharqida joylashgan mamlakat **Parfiya** deb atalgan. **Mil. av. VI asr**da Parfiyani **midiyaliklar** bosib oladilar, keyin esa u **Ahamoniylar saltanati** tarkibiga kiradi. **Mil. av. IV asr**da Parfiya **Salavkiylar davlati**ning bir qismiga aylanadi. Viloyat shaharlarida yunon-makedonlarning garnizonlari joylashtiriladi. **Mil. av. III asr o'rtalari**da **Arshak** boshchiligida **parnlar** ko'chmanchi qabilalari Parfiyani bosib oladilar. Salavkiylar noibi **Andragorning** armiyasi tor-mor etiladi. Parnlar tomonidan Parfiyaning bosib olinishidan ana shu davlat tarixi ham boshlanadi. Parfiyaning dastlabki podsholari keng bosqinchilik siyosatini yuritdilar. Parfiyaliklar **Eron** va **Mesopotamiya**ni bosib oldilar. Sharq tomonda esa parfiyaliklar dastlab **Yunon-Baqtriya davlati**, keyin esa **Kushon davlati** bilan raqobat qildilar.

Rim bilan urushlar. G'arb tomonda Parfiya davlati sarhadlari kengayib borishi uzluksiz urushlarga bog'liq bo'lgan. Parfiya sarhadida, asosan, Mesopotamiyada salavkiylarning shaharlari ko'p edi. Mahalliy aholi bilan ittifoqda yunonlar parfiyaliklarga qarshi kurashadi va rimliklarni yordamga chaqiradi. **Mil. av. 55-yili** Rim sarkardasi **Krass** parfiyaliklar bosib olgan yerlarni Rim imperiyasiga qo'shib olish uchun Sharqqa yurish qildi. Krassning **7 legion** va **4 ming nafar suvoriy**dan iborat kuchli armiyasi bo'lgan. Krass armiyasi **Dajla daryosi**ga yetib keladi, daryo sohili bo'ylab quyiga qarab

yurish qiladi. **Karra shahr**idan uncha uzoq bo'lmagan joyda parfiyaliklar rimliklarga hamla qilishdi. Jang chinakam qirg'inga aylanib ketdi. Rimlik **40 ming jangchi**dan atigi **10 ming nafari** tirik qolgandi. Krassning o'zi esa parfiyaliklar sardori **Surena** bilan muzokaralar paytida xoinlarcha o'ldiriladi.

Shunday qilib, Parfiya Rimning Sharqqa yurishlari yo'lini to'sdi. Qadimgi tarixchi **Pompey Trog** shunday yozadi: *«Go'yo butun dunyoni rimliklar va o'zlari orasida taqsimlab olgandek hozirgi kunda parfiyaliklar Sharq ustida hukm surmoqdalar»*. Parfiyaliklar va rimliklar tag'in ancha vaqt urushdilar. **Mil. av. 36-yili** Rim sarkardasi **Antoniy** Parfiya podsholigi ustiga muvaffaqiyatsiz yurish qiladi. Antoniy chekinishga majbur bo'ladi, Rim armiyasi esa og'ir talafotlarga uchraydi. Imperator **Avgust** zamonida Parfiya bilan tinchlik sulhi tuziladi. Faqat imperator **Trayan** zamonida, **milodiy II asr**da, Rimning Parfiya bilan urushlari ancha muvaffaqiyatli bo'ldi. **226-yili** Parfiyani sosoniylar hukmdori **Ardasher** bosib oldi.

Parfiya madaniyati. Parfiya davlatida o'ziga xos yuksak madaniyat taraqqiy etgandi. **Marv, Niso, Ktesifon** shaharlari xarobalari qazib o'rganilganda ibodatxonalar va saroylar, turli-tuman hunarmandchilik buyumlari – sopol idishlar, qurol-yarog'lar, zeb-ziynatlar topilgan. Tasviriy san'at – **rassomlik** va **haykaltaroshlik** yuksak darajaga erishgan. Parfiya podsholari o'z **tangalari**ni zarb etishgan. **Parfiya yozuvi** ham keng tarqalgandi. Parfiyaliklar qo'shni xalqlar – **xorazmiylar, so'g'diylar, baqtriyaliklar** va **hindlar** bilan uzviy madaniy va iqtisodiy munosabatlarni yo'lga qo'yishgandi.

4.8. RIM IMPERIYASINING YEMIRILISHI

G'arbiy va Sharqiy Rim imperiyalari. Imperator **Konstantin** zamonida, **milodiy 330-yili,** Rim imperiyasining poytaxti deb Bosfor bo'g'ozidagi **Vizantiy shahri** e'lon qilindi. Imperatorning buyrug'i bilan shahardagi barcha eski binolar buzib tashlandi va yangi shahar qurildi, Rim, Afina va Korinfdan keltirilgan haykallar va kolonnalar o'rnatildi. Shahar imperator sharafiga **Konstantinopol** deb atala boshladi. Ulkan imperiyani Konstantinopoldan turib boshqarish mushkul edi. Imperator **Feodosiy** zamonida, **milodiy 395-yili,** Rim imperiyasi uning ikki o'g'li (**Gonoriy** va **Arkadiy**) o'rtasida G'arbiy va Sharqiy qismlarga taqsimlandi. Sharqiy Rim imperiyasida imperatorning yagona hokimiyati saqlandi, G'arbiy Rim imperiyasi alohida davlatlarga parchalana boshladi.

Imperiyaning qulashi. **Milodiy III asr**da Rim imperiyasining kuch-qudrati zaiflasha boshladi. *Imperatorni endilikda armiya saylar, armiyaning o'zida ham turli guruhlar o'rtasida kurash borardi.* Ayni paytda, imperiya

chegaralarining **shimoli-g'arb** tarafidan ko'chmanchi qabilalar paydo bo'ldi. Rimliklar ularga **varvarlar** degan laqab qo'yishgan va chegarada katta armiya saqlab turishga majbur edilar. Avval yunonlar tillari o'zlariga tushunarli bo'lmagan barcha qabilalar va xalqlarni **«varvarlar»** deb atashgan. Rimliklar esa, ularning fikricha, madaniy taraqqiyotning ancha quyi bosqichlarida turgan xalqlarni shunday nomlashgan.

Gotlar Rimda. **Milodiy IV – V asrlar**da butun Rim imperiyasini **qullar** va **kolonlar qo'zg'olonlari** qamrab oldi. Yerlarni va mo'l-ko'l o'ljalarni qo'lga kiritish maqsadini ko'zlagan «varvarlar»ning imperiyaga hujumlari ham kuchayib bordi. Bu davr **150 yildan ko'proq** davom etdi. **Milodiy 410-yili Alarix** boshchiligidagi **gotlar** Rimni qurshab oldilar. Rimliklar ular bilan muzokara boshlashdi, ammo tunda qullar darvozalarni ochib berdilar, bosqinchilar shaharga yopirilib kirdi. Gotlar haykallarni yo'q qilib, bebaho kitoblarni yondirgancha roppa-rosa **uch kun** Rimni taladilar. Talon-toroj qilingan shahar huvillab qoldi.

G'arbiy Rim imperiyasining qulashi. Keyinroq **Attila** boshchiligida **xun qabilalari** paydo bo'ldi. Attila Sharqiy Rim imperiyasiga hujum uyushtira boshladi. **Milodiy 452-yili** xunlar **Italiya**ga bostirib kirdilar. **Milodiy 455-yili** Rimga germanlarning **vandal qabilalari** hujum qildi, ular **ikki hafta** davomida shaharni taladilar, o'zlari bilan olib ketolmaydigan hamma narsani nest-nobud qildilar. **Milodiy 476-yili** imperator saroyi qo'riqchilari qo'mondoni so'nggi imperator **Romul Avgustul**ni saroydan haydab yubordi, hukmdor tojini Konstantinopolga jo'natdi. Sobiq G'arbiy Rim imperiyasi sarhadlarini german qabilalari egallab oldilar. Rim qulashi haqida o'sha zamon tarixchisi nadomat bilan shunday yozgandi: *«Butun Yer yuzini bo'ysundirgan jahon shamchirog'i ham so'ndi»*. Shu tariqa milodiy 476-yil G'arbiy Rim imperiyasining qulashi va qadimgi dunyo tarixi yakunlanishi sanasi sifatida tarixga kirdi.

4.9. QADIMGI RIM MADANIYATI

Rimda quldorlar va qullar turmushi. Qadim zamonlarda rimliklar turmushi o'ta oddiy bo'lgan. Patritsiylar **bir qavatli** oddiy uylarda yashar, xo'jalikda qullar ham unchalik ko'p emasdi. **Milodiy I asr**ga kelib rimliklar turmushida keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Badavlat kishilar yashaydigan tepaliklar bag'rida tomoshabog'lar va chorbog'lar ko'p, havo esa tep-tekis joylardagiga qaraganda sog'lomroq va tozaroq bo'lgan. Imperatorning yaqin kishilari muhtasham koshonalarga egalik qilardilar. Rimlik qashshoqlar mehrini qozonishga intilgan imperatorlar poytaxt aholisi uchun

«termlar» deb atalgan ko'rkam hammomlar qurdirgandilar (yunoncha **«issiq»** so'zidan). Arzimas to'lov evaziga har bir rimlik termlarga tushish imkoniyatiga ega bo'lgan. *Bu yerda suzish uchun basseynlar, boks, kurash, qilichbozlik, koptok o'yini bilan shug'ullanish zallari bo'lgan.*

Ta'lim. Bolalarning maktabda ta'lim olishi ota-onalarning tahsil uchun haq to'lash imkoniyatiga bog'liq bo'lgan. Kambag'al rimliklarning farzandlari xo'jalik ishlarida ota-onalariga yordam berganliklari sababli maktabda o'qimasdilar. Badavlat xonadon farzandlari esa **6 yosh**dan maktabga qatnardilar. Yozuvni o'rganayotgan bolalar **stil** degan metall ruchka bilan harflarni **mum qoplangan taxtachalar**ga qitirlatib o'yib yozardilar. Yozishni o'rganganlaridan keyin xat yozish uchun **Misr papirusidan** foydalanib **suv va qurum aralashmasi** bilan yozardilar. O'qish, yozish va hisoblashni o'rgangach ko'pchilik ta'lim olishni yakunlardi. Ayrimlar **grammatika**da (o'rta maktabda) tahsilni davom ettirgan. **Tarix, geografiya, geometriya, musiqa** va **astronomiya** o'qitilardi. **Yunon tili**ni o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan, chunki fanning turli tarmoqlariga oid kitoblarning aksariyati yunon tilida yozilgandi. Siyosiy arbob bo'lishni istagan har bir kishi **notiqlik** va **ritorika**ni – chiroyli so'zlashni o'zlashtirgan.

Me'morchilik va haykaltaroshlik. Rim imperiyasida qurilish ishlari, ayniqsa, taraqqiy etgandi. Amfiteatrlar, sirklar, teatrlar, ibodatxonalar, saroylar, triumfal arklar va ko'p qavatli uylar barpo etildi. Shaharni baland devorlar o'rab turardi. *Rim me'morchiligi yunon me'morchiligidan imoratlar rang-barangligi va muhtashamligi bilan ajralib turardi.* **Milodiy I asr**da Rim eng yirik va aholisi ko'p shahar edi. O'sha kezlarda hatto shunday bir maqol to'qilgandi: *«Barcha yo'llar Rimga boradi»*. Minglab qullar o'rmonlar, tog'lar va botqoqlar orqali yo'llar o'tkazardilar. Yo'llar bilan bir qatorda Rim **vodoprovod – suv quvurlari** qoldiqlari ham hozirga qadar saqlanib qolgan. Vodoprovodlar nishablik asosida qurilgan bo'lib, tog'dagi buloqlardan suvning o'zi oqib kelardi. Vodoprovod quvurlarini jarlar, daralar va vodiylardan o'tkazish uchun **akveduklar** – yuqori qismidan anhorlar o'tkazilgan ko'priklar qurilgan. Ulkan ko'priklarni butunlay toshdan qurish qimmatga tushar va uzoq davom etardi. Rimliklar yangi qurilish materiali bo'lmish **beton**ni ixtiro qilishadi. Quruvchilar g'ishtdan ikkita ingichka devor tiklashgan, ular o'rtasidagi bo'shliqni esa beton bilan to'ldirishgan. Qotganidan keyin u toshdan ham qattiq bo'lib qolgan. *Beton ishlatilishi rimliklarga tez va pishiq inshootlar qurishga imkon berdi.*

O'n minglab tomoshabinlarni sig'dira oladigan **amfiteatr** Rimdagi eng katta inshoot bo'lgan. Bu yerda **gladiatorlar olishuvi** va **harbiy kemalar jangi** uyushtirilgan. Yer ostida chuqur bir joyda sahnani suvga to'ldi-

rish imkonini beruvchi moslama qurilgan. Rimning eng katta amfiteatri bo'lmish **Kolizey** hozirgacha saqlangan. Beton ixtiro qilingach, shiftlar gumbaz shaklida ustunlarsiz quriladigan bo'ldi. Rimdagi **Panteon** shu taxlitda qurilgan (yunonchada **«barcha xudolar ibodatxonasi»** ma'nosini anglatadi). Rim imperiyasida yashayotgan har bir kishi Panteonga kelib o'zi e'tiqod qo'ygan xudoga sig'inish imkoniga ega bo'lgan: **misrlik Osirisga, yunon Zevsga, rimlik Yupiterga** ibodat qilardi. Buyuk g'alabalarni nishonlash uchun muhtasham **triumfal arklar** barpo etilgan.

Xristianlikning vujudga kelishi. **Ikki ming yil muqaddam** Rim hokimiyati ostida bo'lgan Kichik Osiyo va Falastin yerlaridagi **Nazaret** shahrida duradgor **Iosif** va uning rafiqasi **Mariya** xonadonida «Xudoning o'g'li» nomini olmish **Iso** tug'ilgani haqida rivoyatlar tarqala boshladi. **30 yoshida** Iso sahroda yashovchi voiz **Cho'qintiruvchi Ioann** qo'lida **Iordan** daryosida cho'qintiriladi. Yovuzlikni sodir etganlar Ioannga tavba qilish uchun kelishardi. Iso begunoh bo'lsa-da, Yaratganga yo'l poklovchi tavba-tazarrudan boshlanishini ko'rsatib berish uchun cho'qinadi.

O'n ikki nafar **havoriylari (apostollar)** bilan Falastin bo'ylab sayohat qilib, Xudo oyatlari haqida hikoya qilib beradi va ularni amalda ko'rsatadi – *o'liklarni tiriltiradi, yashashdan umidini uzgan, tuzalmas xastalarni sog'aytiradi.* Yahudiy ruhoniylari Iso payg'ambarni mavjud diniy haqiqatlarni buzib talqin etishda ayblab uni o'lim jazosiga mahkum etadilar. Rim noibi **Pontiy Pilat** bu hukmni tasdiqlashi shart edi. Avvaliga Pontiy Pilat bu ishni qilishdan bosh tortgan, ammo ruhoniylar tazyiqi ostida rozilik beradi. Isoni yer yuzidagi ilk inson – Odam Ato dafn etilgan **Golgof tog'ida** xochga tortganlar. Iso payg'ambar **3 kunda**, dahshatli azoblar girdobida jon beradi. Vafotidan keyin murdasini bir g'orga qo'yishadi. Uchinchi kuni dafn etish uchun kelishganda Iso jasadi qo'yilgan joyida yo'qligini ko'rishadi.

Iso Masih haqidagi rivoyatlar **Yevangeliye (Injil)** nomini olgan, yunonchadan tarjima qilganda bu so'z **«Xushxabar»** ma'nosini anglatadi. Iso payg'ambar ta'limoti izdoshlari **xristianlar**dir. Shogirdlari apostollar (hovariylar). Xristianlar jamoalariga **yepiskoplar** peshvolik qiladi. **Milodiy I asr** xristianlik vujudga kelgan sana hisoblanadi. Rim hukmdorlari xristianlarni ta'qib etadilar, yirtqich hayvonlar changaliga tashlaydilar, turli qiynoqlarga soladilar. **Milodiy 313-yili** imperator **Konstantin** xristianlik boshqa dinlar bilan teng bir din deb e'lon qilingan farmon chiqardi. Farmon xristianlarga ibodatxonalar qurish va oshkora ibodat qilish imkonini berdi.

II BO'LIM. O'RTA ASRLAR TARIXI

5-BOB. YEVROPA ILK O'RTA ASRLARDA

5.1. XALQLARNING BUYUK KO'CHISHI. UNING OQIBATLARI

Xalqlarning buyuk ko'chishlari. **Milodiy IV – VI asrlar**da Yevropani **xun qabilalari** boshlab bergan **«Xalqlarning buyuk ko'chishlari»** jarayoni qamrab oldi. Ushbu jarayonning qator sabablari bo'lgan. Avvalo, german qabilalarida aholi sonining ko'payib borishi natijasida yangi yerlarga bo'lgan talabning oshishi va mulkiy tabaqalanishning kuchayishi ularni yangi hududlarni egallashga undaydi. Bundan tashqari, xunlarning **IV asr**dan Sharqdan hujumlari ko'plab **varvar qabilalari**ni o'z makonlaridan siljishga majbur etadi. Yevropada **II asr**dan iqlimning soviy boshlashi **V asr**ga kelib ekinzorlarni qo'riqqa, suv havzalari va ularga yaqin yerlarni esa botqoqliklarga aylantiradi. Ushbu omillar yashash va xo'jalik yuritish uchun yangi qulay hududlarni izlashga turtki bo'ladi.

German qabilalari. Rim imperiyasining shimoliy chegaralari bo'ylab joylashgan **varvar qabilalari II – IV asrlar**da ham urug'chilik jamoasi darajasida yashardilar. Qadimgi german qabilalari (**franklar, vestgotlar, ostgotlar, vandallar, burgundlar, langobardlar**) **Reyn va Elba daryolari** havzasida joylashganlar. Germanlar urug' jamoalari oilalarga bo'linib, har bir oila yog'ochlardan yasalgan uylarda yashaganlar. Uylarining tomi poxol bilan yopilgan. Qishloq tevaragi himoyalanish uchun tuproqdan uyib yasalgan to'siq va xandaqlar bilan o'rab olingan.

Germanlar mashg'ulotlari. Asosiy mashg'ulotlari **chorvachilik** bo'lgan. Germanlar chorvadan tashqari parranda boqqanlar, ov va baliqchilik bilan shug'ullanganlar. Milod boshlaridan aholi sonining ko'payishi xo'jalikda **dehqonchilik**ning ahamiyatini oshiradi. Lekin germanlarda yer xususiy mulkka aylanmagan. Qabila oqsoqollari har yili ekin maydonlarini urug' va yirik oilalarga qur'a bilan taqsimlab bergan. Erkaklarning asosiy mashg'uloti **urush** bo'lganidan, yerga ishlov berish **ayollar** va **qariyalar**ning yumushi sanalgan. Ularga **bolalar** ham yordam berishgan. Jangdan bo'sh paytlarda erkaklar ov qilganlar.

Urug' jamoalari hamkorlikda o'rmondagi daraxtlarni kesib yangi yerlar ochganlar. Yerga oddiy **yog'och so'qa** bilan ishlov berilishi, yerning o'g'itlanmasligi ekinzorlar kuchsizlanib, 2 – 3 yildan so'ng hosilning keskin kamayishiga olib kelgan. Germanlarda keyinchalik omochdan **temir**

plugga o'tilishi mehnat unumdorligini va olinadigan hosilni oshirgan. Asrlar o'tib dehqonchilikda **almashlab ekish** qo'llanila boshlandi. **Milodiy IV asr**dan **bahorgi** va **kuzgi bug'doy** o'rniga **dukkakli ekinlar** ekish, haydalgan yerni **ikki dalaga bo'lib** (shuning uchun bu uslub **ikki dalali almashlab ekish** deyiladi), biriga don sepish, ikkinchisini shudgor qilib dam berish hamda ularni har yili almashtirib turish yo'lga qo'yiladi. Bu hosildorlikni oshiradi, ekinzorlarni tez-tez almashtirishdan xalos etadi. Germanlar don va dukkakli ekinlardan tashqari **poliz mahsulotlari, sabzavotlar,** jumladan, **karam** yetishtirganlar.

Tarixchi **Tatsit**ning yozishicha, germanlar temir va boshqa ma'danlarni qazib olish, eritishni bilganlar. Ularda **II – IV asrlar**da hunarmandchilikning **to'qimachilik, yog'ochsozlik** (xususan, **qayiq yasash**), **zargarlik, teri-ko'nchilik** sohalari taraqqiy etgan. Ichki savdoda eng muhim ashyo **temir buyumlar** hisoblangan. German qabilalari qo'shnilari rimliklarga **qullar, chorva mollari, teri, qahrabo** yetkazib berib, ulardan **nafis gazlamalar, sopol idishlar, zeb-ziynat buyumlari, vino** olishgan. Savdo **mol ayirboshlash** shaklida bo'lib, faqat imperiya bilan chegara hududlarda **Rim puli** ishlatilgan.

Germanlarning ijtimoiy tuzumi. Germanlar jamoasi davlat vujudga kelgunga qadar urug'chilik bosqichini boshdan kechirgan. Germanlar hayotida milodning dastlabki asrlarida urug' jamoasi tartiblari ustun bo'lsa-da, yillar o'tib uning ahamiyati pasaya boradi. Bu paytga kelib yirik **patrlarxal oilalar** tashkil topgan. Ular ilgari jamoa bajaradigan o'rmon kesib yer ochishni ham o'zlari bemalol uddalaydigan bo'ladi. *Natijada V – VI asrlarda urug'chilik jamoasi qo'shnichilik jamoasiga aylanishi uchun sharoit yetiladi.*

Milodiy I asrdan germanlar jamoalarida boshlangan ijtimoiy va mulkiy tengsizlik dastlab unchalik ko'zga tashlanmagan. Oila boshliqlari jamoaning erkin vakili hisoblangan. Ular dehqonchilik va chorvachilik yumushlarini bajarishdan tashqari jangchi, xalq yig'ini a'zosi hamda urug'-qabila udumlari, an'analarini yosh avlodga yetkazish uchun mas'ul ham edilar.

IV asrda germanlarda mulkiy tengsizlik kuchayib, jamoalar boylar va kambag'allarga ajrala boshlaydi, jamoalarda zodagonlar, erkin kishilar va yarim ozod kishilar toifalari shakllanadi.

Ijtimoiy munosabatlar. Mulkiy tabaqalanishning keyingi bosqichida germanlarda **konung,** ya'ni zodagonlar yo'lboshchisi shakllanib, uning mavqeyi kuchaya boradi. Dastlab konunglar hokimiyati kuchli bo'lmagan. Konung qabiladoshlarini shaxsiy namuna, ishonch, hurmat asosida boshqargan. Ularni qabilaning eng boy, obro'-e'tiborli kishilaridan say-

lab qo'yishgan. Konung saylanganidan so'ng **qalqon ustida** ko'tarilib olqishlangan.

Germanlar hayotida qabila **harbiy qo'shin boshliqlari** o'rni ham muhim bo'lgan. Qo'shin jangchilari turli toifa vakillaridan, jumladan, zodagonlar farzandlaridan ham tashkil topgan. Harbiy o'ljaning katta qismi **yo'lboshchi**ga tegishli bo'lgan. Sababi, u bo'linmasi jangchilarini ot, qurol-aslaha, turarjoy, oziq-ovqat bilan ta'minlagan.

German qabilalari **IV – V asrlar**dan keng hududlarni nazorat qiluvchi **qabila ittifoqlari**ga birlasha boshlaydi. **Alemann, got, frank** qabila ittifoqlari bir necha **yuz ming kish**idan iborat bo'lgan. Yillar o'tib qabilalarning oliy organi hisoblangan **xalq yig'inlari** sekin-asta o'z ahamiyatini yo'qota boshlaydi. Ular, asosan, **urush** va **tinchlik, konunglarni saylash** vazifasini bajargan. Harbiy bo'linmalar va ularning yo'lboshchilari ahamiyati o'sgan.

Milodiy IV asrdan chegara hududlaridagi ayrim qabila boshliqlari Rim noiblariga **yollanma harbiy xizmat**ga o'ta boshlaydilar. Bu harbiy bo'linmalar Rim qo'shinlari yurishlari paytida alohida jangovar birlik sifatida qatnashgan. Ba'zida german qabilalari imperiya chegaralarini tashqi dushmanlardan himoyalash vazifasini zimmasiga olgan. Xristianlik dini tarqala boshlashi natijasida ularning ijtimoiy taraqqiyoti yanada tezlashgan.

Rim imperiyasiga bosqinlar. Zaiflashib qolgan Rim qo'shni varvarlar hujumini to'xtatolmaydi. Qulchilik zulmidan aziyat chekkan mahalliy aholi esa german qabilalariga qarshi chiqmay, ba'zida ularning tomoniga o'tib ketadi. **V asr boshlari**da Pireney yarimoroli va Galliyaning bir qismida dastlabki varvarlar davlati – **Vestgot qirolligi** tashkil topdi. German qabilalari keyinchalik bosib olingan yerlarda **vandallar (Shimoliy Afrikada), ostgotlar (Italiyada), franklar (Galliyada), anglo-sakslar (Britaniyada)** o'z davlatlarini tuzganlar.

Germanlar istilosi **476-yili** G'arbiy Rim imperiyasining qulashiga olib keldi. Yevropada yangi – **feodal jamiyati**ga o'tish davri boshlandi.

5.2. FRANKLAR IJTIMOIY TUZUMI VA DAVLATINING VUJUDGA KELISHI

Frank qabilalari. Buyuk ko'chishlar boshlanishiga qadar german qabilalariga mansub **franklar Reyn daryosi** quyi oqimidagi hududlarda yashaganlar. Franklarda urug'chilik tuzumi bo'lib, qabila yo'lboshchilari alohida jasorat ko'rsatgan kishilardan saylab qo'yilgan. Rim-gallar bilan

yaqin qo'shnichilik munosabatlarida bo'lgan franklarning ko'rinishi ham boshqa german qabilalaridan ancha farqlangan. Franklar **gotlar** va **langobardlar** kabi hayvon terisidanmas, matodan kiyim-bosh kiyishgan va soch-soqollarini olib yurishgan. *Ularda faqat qirol oilasiga mansub kishilargina uzun soch bilan yurishi mumkin bo'lgan.* G'arbiy Rim imperiyasining inqirozidan keyin franklarga qo'shni bo'lgan **Galliya**da Rim noibi **Egidiy** mustaqil knyazlik tuzadi. Xuddi shu davrdan franklarning Galliyaga hujumlari yanada kuchayadi. Ularga frank qabilalaridan biri – **merovinglar** sardori **Xlodvig** boshchilik qiladi. Uddaburon va shafqatsiz Xlodvig tez orada o'z raqiblarini yengib, barcha frank qabilalari ustidan hukmronligini o'rnatadi. Egidiyning vorisi **Siagriy** qo'shinlarini **486-yili Suasson shahri** yaqinidagi jangda mag'lub etgan Xlodvig **Franklar davlati**ga asos soladi.

Franklarning xristianlikni qabul qilishi. Rim cherkovi uning sodiq ittifoqchisi bo'lishi mumkinligini anglagan Xlodvig varvar qabilalari yo'lboshchilari ichida birinchi bo'lib **xristianlik**ni Rimdan qabul qiladi. Uning ketidan sekin-asta boshqa franklar ham xristianlikka o'tadi. Franklarning ko'pchiligi Xlodvigning bu qarorini yoqlamagan, ammo ular o'z qirollaridan qo'rqqanlar. Lekin rimliklar bu ishdan xursand bo'lishgan. Ulardan biri: *«Sizning yangi diningiz – bu bizning g'alabamiz!»* – deb bejiz yozmagandi. Amalga oshirilgan tadbir natijasida franklar va rimliklar asta-sekin yaqinlashib, yagona xalqqa aylana boshlaydi. Endi ularni din ajratmas, xristianlik bilan tanishuv esa franklarga Rim madaniyatining turli sohalarini o'zlashtirish imkonini beradi.

Xlodvigning xristianlikka o'tishi esa unga aholi orasida ta'siri kuchli gall yepiskopligi qo'llashini ta'minlaydi. Xristianlikning *«har qanday hokimiyat xudodan»* deb uqtirishi Xlodvig va uning vorislariga mos kelardi. Qadimgi germanlar diniy e'tiqodlarida esa bu kabi fikrlar bo'lmagan. Shu tariqa xristianlikning qabul qilinishi qirolni kuchaytirib, o'z qabiladoshlari orasida yangi cho'qqilarga ko'taradi.

Franklarda ijtimoiy munosabatlar. Franklar istilo qilgan hududlarda rimlik quldorlarning hashamatli saroylari-yu ulkan yer-mulklari saqlanib qolgan. Mahalliy aholining asosiy qismini **rim-gallar** tashkil qilgan. Franklar qullikni bekor etmaydilar. Mamlakatda asosiy ishchi kuchi **qullar** va **kolonlar** bo'lib qolaveradi. Dastlabki paytda franklar gallardan alohida yashaganlar. **Luara daryosi**dan shimoldagi german qabilalari esa yana uzoq yillar urug' jamoa bo'lib yashashda davom etadi. Mamlakat janubidagi **gallar** esa son jihatidan german qabilalari: **burgundlar, vestgotlar,** keyinchalik hukmronlikni o'rnatgan **franklar**dan ham ko'proq bo'lgan.

Davlat hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Xlodvigning vorislari boshqaruvi paytida **qirollar** alohida xizmatlari evaziga jangchilar va yaqin hamkorlariga yirik yer mulklar – **benefitsiylar** taqdim etganlar. Shu tariqa qirol va uning jangchilari, ruhoniylar, qirol saroyiga yaqin rim-gall zodagonlari, quldorlardan yangi yirik yer egalari – **feodallar toifasi** vujudga keladi. Ularning yerlarida **VI asr oxiri**dan qullar, kolonlardan tashqari o'z erkinligini yo'qotgan franklar ham ishlaganlar. Natijada yangi jamiyatning asosiy toifalari: **feodallar** va **qaram dehqonlar** tashkil topadi. Feodal jamiyatiga o'tish Yevropa, Osiyo va Afrikaning deyarli barcha mamlakatlarida ham shu taxlitda ro'y bergan.

Davlatning paydo bo'lishi. **Shimoliy Galliya**da tashkil topgan **Frank qirolligi** Xlodvigning vorislari davrida **534-yili Burgundiya**ni, **536-yili Provans**ni istilo qiladi. Franklar germanlarning **tyuring, alemann, bavar** qabilalarini ham bo'ysundirib, ularni har yili o'lpon to'lashga majbur etadilar.

Qirollar hokimiyati kuchayib borishi bilan muhim qonunlar, qarorlar qabul qilish uchun **xalq yig'inlari**ni chaqirmay qo'yadilar. Qirol tomonidan qabul qilingan yangi qonunlar esa **xususiy mulkchilik** va **tengsizlik**ni mustahkamlab borgan. Qirol hokimiyatning barcha sohalarini o'z qo'liga olib, davlatni o'zining **shaxsiy mulki** sifatida boshqargan. *Ilgari jamoa mulki hisoblangan ekinzorlarni va boshqa yerlarni xohlagan kishisiga in'om etar, davlat xazinasidagi mablag'larni ham istaganicha sarflardi. Yirik yer egalari – feodallar toifasi esa qirol hokimiyatining tayanchiga aylanadi.* Davlat qirol boshchiligida yirik mulk egalarining yangi yerlarni istilo qilishini qo'llab-quvvatlardi.

Franklarda Xlodvig davridayoq mamlakat **viloyatlarga** bo'linib, ularni qirol tayinlagan **graflar** boshqara boshlaydi. *U o'z hududlarini qirol nomidan boshqarib, aholidan soliqlarni yig'ib olish, harbiy qo'shinga boshchilik qilish, sud qilish kabi ishlarni bajargan.* Sudning qarori bilan yig'ilgan jarimalarning **1/3 qismi** qirol xazinasiga yuborilardi. Franklar soliq tartiblarini rimliklardan qabul qilganlar. Urug' jamoachilik an'analari esa har yili o'tkaziladigan **harbiy ko'rik** (mart maydoni) tarzida va **mahalliy boshqaruv**da saqlanib qoladi. Mahalliy boshqaruv asosini erkin franklarning **yuzlik yig'inlari** tashkil etib, uning boshlig'i, yuzboshisi **tungin** deb nomlangan.

Yirik yer egaligining shakllanishi. **VI asr oxiri**dan franklarning **chek yerlari** dehqon oilasining sotishi yoki in'om etishi mumkin bo'lgan mulki – **allod**ga aylanadi. Qirollar tomonidan chiqarilgan yangi qonunlar yerning **xususiy mulk**ka aylanishini tezlashtiradi. Qirol **Xilperik (561 – 584)**

davrida yangi qonun chiqarilib, u o'g'il voris bo'lmasa, yerning avvalgidek jamoagamas, marhumning qizi, singlisi yoki ukasiga o'tish huquqini tasdiqlaydi. Yerning xususiy mulkka aylanishi **mulkiy tabaqalanish**ni tezlashtirib, **yirik yer egaligi**ning o'sishiga olib keladi. Galliyadagi Rim imperatoriga tegishli yerlarni o'z mulkiga aylantirgan frank qirollari uning bir qismini o'z yaqinlari va cherkovga ham in'om etganlar.

Yirik yer egaligi **jamoa yerlari hisobi**ga ham kengaya boradi. Tabiiy ofatlar, qurg'oqchilik, hosilsizlikning tez-tez takrorlanib turishi dehqonlarning o'z yerlaridan ajralishiga, so'ng feodaldan ijaraga yer olib ishlashga majbur etadi. Soliq to'lashdan tashqari yirik yer egasi ekinzorlarida ishlab berishga majbur bo'lgan dehqon sekin-asta qaram kishiga aylana borgan.

«Sali haqiqati». Xlodvig buyrug'iga binoan yozilgan franklarning an'anaviy odatlari to'plami Yevropadagi eng mashhur odat huquqlari yodgorligiga aylanadi. U **«Sali haqiqati»** deb nomlangan, to'plamning nomi unga faqat franklarning **sali qabilasi** qonunlari kiritilganini anglatadi. Qirolning maqsadi barcha franklar qirol qo'llagan «Sali haqiqati» bo'yicha **sudlanishi** kerak edi. Bu qoidalarda biror narsa izohtalab bo'lsa, qirolga murojaat qilinishi, u esa o'z manfaatlari yuzasidan javob berishi mo'ljallangan. Qirol «Sali haqiqati»ga qadimgi odatlardan o'ziga foyda keltiradiganlarini kiritgan, qirolni qoniqtirmaganlari unutilib, foydalilari to'plamda batafsil yoritiladi.

«Sali haqiqati» frank qiroli hokimiyatining kuchayganini ko'rsatadi. To'plamda franklar hayoti, xo'jaligi, urf-odatlari, diniy tasavvurlari haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. Xususan, franklar biror oldi-sotdida, jumladan, yerning bir xo'jayindan boshqa xo'jayinga o'tishida hujjat tuzmaganlar. Ushbu holatda franklar guvohlar huzurida ma'lum udum – **marosim** o'tkazganlar. Masalan, **«sotuvchi»**ning yeridagi daraxt shoxidan bir bo'lagi **«oluvchi»** maydoniga berilgan. Shartnomani buzish hech kimning xayoliga ham kelmagan. Farzandlar ham, nabiralar ham mazkur yer maydoni boshqa xo'jayinga **«qonuniy»** tartibda o'tganini bilganlar.

5.3. FRANKLAR IMPERIYASI

Buyuk Karl (742 – 814). Karl sulola asoschisi **Pipin Pakana (714–768)**ning o'g'li bo'lib, Franklar qirolligini (**800-yil**dan imperiyasini) **46 yil (768 – 814)** boshqargan. **«Buyuk»** nomi unga tarixchilar tomonidan **53 harbiy yurish**ga boshchilik qilib, yirik saltanat tuzgani, bu davlatda yangi qonunlar, maorif va madaniyatga asos solgani uchun berilgan.

Karl haqida ko'plab tarixiy asarlar, afsonalar, rivoyatlar va qo'shiqlar yaratilgan. Uning ismidan **«korol»**, ya'ni **«qirol»** unvoni kelib chiqqan.

Italiya va Ispaniya urushlari. Karl taxtga kelishi bilan istilochilik urushlari olib borgan. Uning dastlabki harbiy yurishlari germanlarning **langobard** qabilasi Italiyada tuzgan davlatiga qarshi **773-yili** boshlanadi. Langobardlar qiroli **Dezideriy** mag'lub etilganidan so'ng, sochi olinib **Korvey monastiri**ga jo'natiladi. Italiya yerlari esa grafliklarga bo'linib, Frank qirolligiga qo'shib olinadi.

Arab xalifaligi istilo qilgan **Ispaniya**ga qarshi **778-yili** Karl dastlabki muvaffaqiyatsiz yurish qiladi. Karlning jiyani graf **Roland** jangda halok bo'ladi. Asrlar o'tib Roland fransuz xalq og'zaki ijodining sevimli qahramoniga aylanib, u haqda **«Roland haqida qo'shiq»** dostoni yaratiladi. Keyingi yurishlar davomida **Pireney** yarimorolining arablardan tortib olingan hududlarida tuzilgan **Ispan markasi** Franklar davlatining chegara viloyatiga aylantiriladi.

Sakslarga qarshi urushlar. Reyn daryosining o'ng sohilida yashagan **saks qabilalari**ga qarshi urushlar **30 yildan ortiq (772–804)** davom etadi. Bu urush Karl uchun ancha murakkab kechdi. Sakslar germanlarning Karlga bo'ysunmagan so'nggi yirik qabilasi bo'lgan. Istilo qilingan sakslar franklar qo'shini ketgan zahoti yana qo'zg'olon ko'targanlar. Karl ortga qaytib minglab garovga olinganlarni qatl ettirgan, yuzlab saks oilalarini mamlakatning boshqa hududlariga ko'chirgan, sakslarni qanday bo'lmasin **xristian din**iga o'tkazishga intilgan. Sakslar qattiq qarshilik ko'rsatib, imkon bo'ldi deguncha majusiylikka qaytishgan. Uzoq kurashdan so'ng Karl sakslarni yangi dinga o'tkazishga erishgan. Shu tariqa **Saksoniya** ham Buyuk Karl davlatiga qo'shib olinadi.

Franklar imperiyasi. Buyuk Karl davlati Yevropaning katta qismini egallaydi. Uning hududini G'arbiy Rim imperiyasi bilan bemalol taqqoslasa bo'lardi. Lekin Karlning hokimiyati so'nggi Rim imperatorlarinikidan ancha yuksak ekani shubhasiz. Ayni paytda, so'ngan imperiya haqidagi xotiralar **VIII asr**da ham rimliklar, G'arbiy Yevropaning turli xalqlari va qabilalari xotirasida saqlanib qolgan. Tabiiy, Karlning maslahatchilarida uni qadimgi rimliklarga taqlidan **imperator** deb e'lon qilish g'oyasi tug'iladi. Bunday imkoniyat **800-yili** Rim mahalliy zodagonlarining papa **Lev III** ga qarshi isyon ko'tarishi orqali vujudga keladi. Karl qo'shin yuborib isyonni bostiradi. Bu yordam evaziga Rim papasi **800-yil dekabr**ida **Avliyo Pyotr ibodatxonasi**da Karlga imperatorlik tojini kiydiradi. Shu tariqa G'arbda yangidan imperiya paydo bo'ladi. Karlning muhrida *«Yangi Rim imperiyasi»* so'zlari zarb qilinadi. Aslida, Franklar imperiyasi faqat nomi bilangina Rim imperiyasini eslatardi.

Buyuk Karl Franklar imperiyasining mutlaq hukmdoriga aylanib, uning farmonlari faqat yirik zodagonlar, yer egalarining **yilda ikki marta** chaqiriladigan **yig'ini**da qabul qilingan. Buyuk Karlning **doimiy poytaxti** ham yo'q edi. U o'z amaldorlari bilan mamlakat bo'ylab harakatlanib, turli shaharlardagi saroylarida to'xtagan, mahalliy aholiga og'irligi tushmasligi uchun uzoq vaqt o'tmay yana boshqa shaharga yo'l olgan.

Buyuk Karl davrida franklarda an'anaviy **xalq lashkari** o'rnida otliq **ritsarlar qo'shini** vujudga keladi. **Ritsarlar** (nemischa ritter – otliq) bo'linmalarida faqat boy zamindorlar, ya'ni jangovar ot va qurol-aslahalar sotib olishga imkoniyati bo'lgan kishilar xizmat qilgan. Bir necha oila birgalashib bitta ritsarni qo'shinga jo'natish hollari ham uchrab turgan. Hukmdorlar ritsarlarga ot, qurol-aslahasini tartibda saqlashi, urushlar paytida oilasini ta'minlashi uchun yer-mulk in'om etgan. Bu yer-mulk – **feod** (nem. qo'rg'on, mulk) harbiy xizmat evaziga taqdim etilib, keyinchalik merosiy mulkka aylangan. Feodning egasi **feodal** deb atalgan. Zamonlar o'tib harbiy ish faqat feodallar mashg'uloti bo'lib qoladi. Yirik feodallar viloyatlarga egalik qilsalar, mayda feodalga ma'lum qishloq yoki uning bir qismi taqdim etilishi ham mumkin edi.

Davlat boshqaruvi. Buyuk Karlning **saroy xizmatkorlari,** ayni paytda, **vazirlar** vazifasini ham bajargan. Qirol saroyida **moliya, soliq, harbiy a'yonlari, dasturxonchi, otxona boshlig'i** va boshqalar Franklar davlatidagi muhim lavozimlar bo'lgan. Yirik qabilalarni **gersoglar** (nem. saylangan harbiy yo'lboshchi, keyinchalik merosiy qabila boshlig'i) boshqargan. Davrlar o'tib gersog eng yuksak unvonlardan biriga aylandi. Yirik bo'lmagan hududlarni imperator tayinlagan **graflar** (nem. qirol tayinlagan amaldor) boshqaradi. Gersog unvoni avvaldan merosiy bo'lsa, graflarni imperator tayinlagan. Buyuk Karl o'z davlati chegaralarini mustahkamlash maqsadida **markalar** (nem. chegara harbiy viloyati) tuzib, ularni **markgraflar** (nem. chegara viloyati hokimi) boshqargan.

Yepiskoplar, yirik monastirlar **abbatlari** imperatorning joylardagi vakillari sifatida uning buyruqlarini bajargan. Safarlari paytida Buyuk Karl yepiskoplar va graflarning ishlari qanday ketayotganini tekshirgan. Agar suiiste'molliklar aniqlansa, javobgar darhol lavozimidan ozod etilgan. Imperatorning o'zi barcha graflik va yepiskopliklarni aylanib chiqishi qiyin ekanligidan u o'zi ishongan davlat vakillarini mamlakat bo'ylab jo'natardi. Ularga mahalliy hokimlarni **jazolash, almashtirish** huquqlari berilgan. Franklar mamlakati hududlari behad katta bo'lishi nazoratni murakkablashtirgan. Barcha grafliklarni nazoratda saqlash mushkul edi. Bundan

tashqari, graflar bor kuchi bilan graflikda o'rnashishga, uni o'z avlodlariga meros qilib qoldirishga intilgan. Bu esa Franklar imperiyasining kelajakda zaiflashuvi va parchalanishiga yo'l ochdi.

Yevropa hukmdorlari orasida katta hurmatga ega bo'lgan Karl saroyiga ko'plab elchilar kelib turishgan. Yilnomalarda yozilishicha, arab xalifasi **Horun ar-Rashid** o'z elchilari orqali Karlga qimmatbaho sovg'alar bilan birga **Quddusdagi Iso payg'ambar qabri joylashgan yer**ni ham taqdim etgan.

Franklar imperiyasi inqirozi. Yillar o'tib mamlakatda graflar davlat amaldorlaridan yirik yer egasi, o'z viloyatining xo'jayiniga aylana bordi. Graflikdagi erkin dehqonlar qaramlikka tushdi. Qirolning sud ishlarini boshqarishni graflarga topshirishi ham ularning hokimiyatini kuchaytiradi. Buyuk Karlning vafotidan ko'p o'tmay u tuzgan imperiyaning inqirozi boshlandi. Uning nabiralari davrida mamlakat parchalanib ketdi.

Verden shahrida **843-yil** tuzilgan shartnomaga binoan vujudga kelgan qirolliklar o'rnida keyinchalik **Fransiya, Germaniya** va **Italiya** davlatlari tashkil topadi. Bu qirolliklarning har biri gersoglik va grafliklarga, ular esa yirik va o'rta feodal mulklariga bo'lingan. Shu tariqa Yevropada feodal tarqoqlik davri boshlanadi.

5.4. MUQADDAS RIM IMPERIYASI

Yangi qirollik. Franklar imperiyasi **843-yili** uchga bo'linib ketganida, dastlab ularning hammasini Buyuk Karlning avlodlari boshqargan. Lekin **919-yili Sharqiy Frank qirolligida** (bo'lajak Germaniya) mahalliy zodagonlar knyazlardan eng qudratlisi bo'lgan **Saksoniya gersogi Genrix**ni qirollikka saylaydilar. Shu tariqa franklarning **karolinglar sulolasi** o'rniga mahalliy **saksoniyaliklar sulolasi** hokimiyatga keladi. Yevropa xaritasida yangi davlat – **Germaniya qirolligi** vujudga keladi. **Genrix I** uzoqni ko'zlab, aql bilan ish boshlab mamlakatni kuchaytirish yo'lini tutadi. **Vengerlar** bilan **9 yil**ga tinchlik sulhi tuzgan qirol mamlakat mudofaa qudratini yuksaltirish maqsadida qator tadbirlarni amalga oshiradi. Genrix qishloqda yashaydigan har **9 kishidan bittasi**ni tanlab, uni **burg**ga ko'chiradi. To'planganlar burgda o'z birodarlari uchun ham uy-joy qurishga kirishadilar. Qishloqda qolgan **sakkiz kishi** o'zlarining jangchilikka tayinlangan sheriklari uchun ham dehqonchilik qilganlar. Genrix barcha yig'inlar, cherkov soborlarini, bazmlarni **burg**da o'tkazishni buyuradi. Qirol burglar qurilishida kecha-yu kunduz mehnat qilib sulh muddati tugaguniga qadar aholining asosiy mulki qal'alarda bo'lishini ta'minlash zarurligini ta'kidlardi.

Vengerlar bilan kurash. **Genrix I** ning o'g'li **Otton I (936 – 973)** davrida kuchli nemis **otliq qo'shini** vujudga keldi. Yevropaning boshqa mamlakatlaridagi kabi uning asosini og'ir qurollangan ritsarlar otliq qo'shini tashkil etgan. Bitta otliq jangchini qurol-aslaha bilan ta'minlash uchun bir necha dehqon, ba'zida hatto bir necha qishloq ishlashiga to'g'ri kelgan. Burglarga tayangan yangi otliq qo'shin ko'magida Otton I vengerlar bilan hal qiluvchi jangga shaylanadi. **955-yili Bavariyaning Lex daryosi** bo'yida bo'lib o'tgan og'ir jangda vengerlar mag'lub etiladi. Shundan so'ng ularning Germaniyaga bosqinlari to'xtaydi.

Yangi imperiya. O'zidan avval hech kim yengolmagan dushmanni mag'lub etgan Otton I o'zini Yevropadagi eng kuchli qirol deb hisoblay boshlaydi. Ushbu g'alaba unda Buyuk Karl singari Rimda imperatorlik tojini kiyish hamda imperator unvonini olish istagini uyg'otadi. Bu tadbir barchani yangi qirollikning qudratiga va Otton I ni Rim va Buyuk Karl imperiyalarining vorisi ekanligiga ishontirishi lozim edi.

O'z rejasini amalga oshirishda Ottonga hech kim qarshilik ko'rsatolmaydi. Sababi, bu paytda Buyuk Karlning haqiqiy vorislari bo'lgan **G'arbiy Frank davlati** qirollari shu darajada zaiflashib qolgandilarki, ularga hatto o'z gersog va graflari ham bo'ysunmagan. **962-yili** o'z qo'shini bilan Rimga kelgan Otton I ga papa **Ioann XII** imperatorlik tojini kiydiradi. Shu tariqa yangi imperiya – **Muqaddas Rim imperiyasi** vujudga keladi. Bu davlat 1806-yilgacha yashadi. Uning tarkibiga German yerlaridan tashqari Italiyaning shimoliy hududlari ham kirgan, lekin bu yerdagi shaharlar german imperatorlariga hech qachon to'liq bo'ysunmagan. Shunga qaramay, har bir german qiroli taxtga kelganidan so'ng o'z qo'shini bilan Alp tog'lari orqali Italiyaga yurish qilib, Rimda imperatorlik tojini kiyardi.

German imperatorlari o'z davlatlarini Qadimgi Rimning davomchisi deb hisoblaganlar. Zamondoshlari **«dunyo mo'jizasi»** deb nomlagan Otton I ning nabirasi **Otton III** Rimni ulkan davlatning **poytaxti**ga aylantirish orzusida bo'lgan. U butun xristian dunyosi Rim imperatori hukmida birlashishi lozim deb hisoblagan. Tabiiyki, butun dunyo xristian imperiyasi haqidagi orzularning amalga oshishi mushkul ish edi. Shunga qaramay, german monarxlari o'z davlatlarini **Rim imperiyasi**, keyinroq **Muqaddas Rim imperiyasi** deb atashda davom etadilar. Bu davlat 1806-yilgacha hukm surgan.

German imperatorlari va cherkov. Otton I Germaniyadagi yepiskop va abbatlarga yer-mulk, boyliklardan tashqari ko'plab huquq va imtiyozlar beradi. Natijada cherkov zodagonlari o'z imkoniyatlari, hokimyatlari

bo'yicha gersog va graflardan kam bo'lmagan. Ular har qanday kishini monarx irodasiga bo'ysundirishga qodir edilar. Imperatorning o'zi esa kerakli odamni cherkov lavozimiga tayinlagan, zarur bo'lsa, yepiskoplarni va hatto Rim papalarini hech qiyinchiliksiz almashtirgan. Xususan, Otton I Rimda ko'plab yepiskoplar ishtirokida o'zi yoqtirmagan papalardan birining ustidan sud jarayonini uyushtirib, uni tahqirli holatda vazifasidan chetlatgan. Uning vorisi Otton III esa o'zining ustozi **Gerbert**ning **Silvester III (999 – 1003)** nomi bilan Rim papaligiga saylanishiga erishgan.

Manbalarda yozilishicha, Gerbert kambag'al oiladan bo'lgan. Uning bilimga chanqoqligi shu qadar ulkan ediki, u o'qish uchun o'z davrining mashhur ilm-fan markazlari – arablar Ispaniyasidagi **Kordova** va **Sevilya** shaharlariga yo'l oladi. Keyinchalik uning g'animlari Gerbertni arablardan sehrgarlik sirlarini o'rganishga borgan deb gap tarqatganlar. Imperator xonadoniga yaqinlik Gerbertga arxiyepiskoplikdan Rim papasi lavozimiga erishishiga yo'l ochadi. Uning bilimdonligi haqida afsonalar tarqalgan. Zamonasining eng taniqli kishilari, jumladan, imperatorlar uning shogirdi bo'lishni orzu qilishgan.

5.5. ANGLIYA V – XI ASRLARDA

Britaniyadagi ahvol. Rim legionlari **407-yili** Britaniyani tashlab Italiyaga qaytadi. Ularning ketidan Rim kolonistlari ham Yevropaga keta boshlaydi. Shu tariqa orolning **kelt** aholisi o'z holicha qoldiriladi. Kelt qabila boshliqlari esa o'zaro urushlarga zo'r beradi. Ayni paytda, shimoldan **pikt** va **skott** qabilalari hujumlari boshlanadi.

Piktlardan himoyalanish uchun **brittlar** ilk marotaba germanlarning **yut, angl** va **saks** qabilalaridan yollanma drujinalarni taklif etgani ehtimol. Bu qabilalar esa **Germaniyaning shimoli** va **Yutlandiya yarimorol**ida yashardi. Dastlab germanlar **uchta** kemada kelishadi. Lekin ko'p o'tmay ularning ortidan o'nlab, yuzlab va minglab qabiladoshlari yo'lga chiqadi. Germanlarning keltlardan tobora yuqori to'lov talab qilishi, doimiy isyonlari, mamlakatni talashlari va tahdidlari kuchayib boradi. **Yutlar V asr o'rtalar**ida **Kent** viloyatini bosib oladi. Ularning izidan **angl-sakslar** ham keltlarga hujum boshlab, qattiq qarshilik bo'lmaganidan, mamlakatni istilo qilishga kirishadilar. Angl-sakslar mahalliy aholining bir qismini qirib, ayrimlarini qullik asoratiga soladilar. Shaharlar katta talafot ko'radi, majusiy germanlar ibodatxona va monastirlarni talab, yondirib yuboradilar. Istilo dahshatidan ko'pgina keltlar qit'aga, **Armorika viloyat**iga ko'chib o'tadi. Fransiyaning shimoli-g'arbidagi bu hudud brittlarning ommaviy

ko'chishidan so'ng **Bretan** nomini olib, bu nomni hozirga qadar saqlab qolgan.

Qirol Artur. Oroldagi so'nggi rimliklardan **Amvrosiy Avreilan VI asr boshlari**da brittlarni birlashtirib, germanlarga qarshilik ko'rsata boshlaydi. U qator yorqin g'alabalarga erishib, angl-sakslar tazyiqini deyarli yarim asrga to'xtatadi. Kelt qabilalari xotirasida bu g'alabalar haqidagi ma'lumotlar asrlar davomida saqlanadi. Lekin rivoyatlarda bosqinchilarga zarba bergan qahramonning ismi o'zgargan. Dostonchilar uni **Artorius** yoki **Artur** deb atay boshlashgan. Vaqt o'tishi bilan **Artur** siymosi atrofida **VI asr**ga aloqasi bo'lmagan ko'plab tarixiy afsonalar to'planadi. Oradan besh asr o'tib ham Yevropaning turli mamlakatlari yozuvchilari qirol **Artur** va uning ritsarlari **Lanselot,** qirolicha **Jinevra,** sehrgar **Merlin** haqida asarlarni yaratishda davom etishadi. Bu asarlar kitobxonlar orasida keng tarqaladi.

Kurashning yakuni. Amvrosiy Avreliandan so'ng brittlarda munosib yo'lboshchi bo'lmasligi **600-yillar**da angl-sakslar tomonidan orolning katta qismi bosib olinishiga imkon beradi. Bosqinga uchramagan kelt qabilalari **Irlandiya** va **Shotlandiya**da, qisman **Britaniyaning g'arbiy chekkasi**da saqlanib qoladi. Istilochilar Britaniya yerlarida **yettita** qirollik tuzishadi. Orolning shimoliy va markaziy qismida joylashgan angllar **Nortumbriya, Mersiya va Sharqiy Angliya** qirolliklarini tashkil etgan. Sakslarning janubdagi qirolliklari: **Uesseks** (G'arbiy sakson), **Sasseks** (Janubiy sakson) va **Esseks** (Sharqiy sakson) deb nomlangan. Yettinchi **Kent** qirolligiga yutlar asos solgan. Istilochilar turli lahjalarda so'zlashgan, lekin yillar o'tib angllar yashagan **Mersiya shevasi** tobora keng qo'llana boshlaydi. Shu tufayli keyinchalik istilochilar muomalasidagi til **ingliz**, mamlakat esa **Angliya** nomini oladi. Bosqinchilarning ko'plab qabilalari va bo'ysundirilgan aholining qolgan qismi yagona xalqqa birlasha boshlaydi. Tarixda ular **angl-saks** nomini oladi.

Yangi bosqin. Daniyaliklar har yili hujum qilib Angliya xalqining mol-mulkini talagan. Rohiblari o'z bilimlari bilan tanilgan, lotin va yunon tillarida asarlar bitgan, ajoyib xattotlik san'ati markazlari bo'lgan mashhur irland monastirlari **normannlar** tomonidan yondirilib, kuli ko'kka sovurilgan.

Angl-saks qirolliklaridagi ichki nizolar, ularga istilochilar xurujini qaytarish imkonini bermagan. Normannlar **842-yili Londonn**i bosib olib talaydilar va yondirib yuboradilar. Yana **20 yillar** chamasi o'tib daniyaliklar talonchilik hujumlaridan so'ng uylariga qaytmasdan, Angliyada bosib olgan yerlarida qishlab qoladigan bo'ladilar. Deyarli barcha angl-saks

qirolliklari **daniyaliklar** tomonidan bo'ysundiriladi. Qarshilikni faqat orolning janubi-g'arbidagi **Uesseks qirolligi** davom ettiradi.

Qirol Buyuk Alfred. **Buyuk Alfred (871 – 900)** Uesseksda taxtga kelgunicha daniyaliklarni hech kim to'xtatishga qodir bo'lmagan. Buyuk Alfred butun Angliyadan bosqinchilarni jazolash orzusidagi jangchilarni yig'adi. U bu qo'shin bilan daniyaliklarni bir necha bor mag'lub etadi. Buyuk Alfred **879-yili** daniyaliklar bilan tinchlik sulhini tuzadi. Unga binoan, butun orol ikki qismga bo'linib, janubi-g'arbiy hududlar Alfredga, shimoli-sharqiy hududlar esa daniyaliklarga beriladi. Chegara **London** va **Chester** oralig'idagi qadimgi rimliklar qurdirgan tosh yo'l bo'ylab o'tadi. Skandinavlarda qoldirilgan yerlar Daniya qonunlari viloyati yoki inglizcha **Denlo** nomini oladi.

Buyuk Alfred tinchlik sulhidan yangi kuchli qo'shin tuzish uchun foydalandi. Ma'lumki, avvallari dushman xavfi tug'ilganda xalq lashkari to'planardi. Endi har beshta angl-saks oltinchini boqishi va qurollantirishi majburiy etib qo'yiladi. Natijada, birinchidan, tinimsiz urushlar davrida qishloqning ko'pchilik aholisi o'z ishidan ajratilmagan. Uyda qolganlar yerni haydash, hosilni yig'ish bilan shug'ullangan. Ikkinchidan, bitta xo'jalik daromadi yaxshi qurol-aslaha uchun yetarli bo'lmasdi. Agar urushga olti kishining barchasi jo'nasa, ularning har birida qimmatbaho po'lat qilich bo'lishi gumon edi. Yangi qoidaga binoan, besh kishi oltinchisini **dubulg'a, qilich** va **jang boltasi** bilan ta'minlab, vikingdan yomon qurollantirmagan. Qolaversa, bu oltinchi kishi doimo mashq qilishi, jangga tayyorlanishi shart edi. Uning uchun qolgan beshta qo'shnisining ishlashi oilasi haqida o'ylamasligi uchun ham imkon beradi. Shu tariqa son jihatidan qisqargan Buyuk Alferd qo'shini sifati bo'yicha avvalgiga qaraganda bir necha bor kuchaydi. Yangi qo'shinning paydo bo'lishi bilan, jamiyatda ham muhim o'zgarishlar yuz beradi. Jamiyat professional jangchilar va dalada ishlovchi dehqonlarga bo'linadi.

Buyuk Alfred daniyaliklar qal'alarini qamal qilishni unchalik xush ko'rmasligini anglab o'z mulklari chegaralarida ko'plab qal'alar – **burglar** barpo ettiradi. Qirol kema yasaydigan ustalarni topib, daniyaliklarnikidan qolishmaydigan kemalarni yasattiradi. Qirol Alfred faqat qo'shin haqida qayg'urmagan. U o'z davrining o'ta ma'lumotli kishisi bo'lgan. Uesseksda esa daniyaliklar hujumlaridan keyin lotin tilini biladigan odamlar deyarli qolmagandi. U eski angl-saks qonunlarini yozishni va Angliya tarixiga oid ma'lumotlar to'plashni buyuradi. Buyuk Alfred davrida **«Anglosakson solnomasi»** tuzilib, unda yilma-yil muhim voqealar qayd etila boshlanadi.

250 yil davom ettirilgan ushbu solnoma bo'lmaganida, tarixchilar o'rta asrlar Angliyasi haqida juda kam ma'lumotga ega bo'lardilar.

Denloning qaytarilishi. Qirol Buyuk Alfredning o'limidan so'ng uning vorislari **Denlo**ga hujum boshlaydi. Yangi qo'shin muvaffaqiyatli harakat qilib **X asrning so'nggi choragi**ga kelganda Angliya qirolligi (bu paytda avvalgi Britaniya nomi yangi Angliya atamasi tomonidan uzil-kesil surib chiqarilgan) Daniya qonunlari viloyatini qo'shib oladi. Bu davrga kelib Denloga o'rnashgan daniyaliklar mahalliy aholi bilan ancha yaqinlashib, aralasha boshlagandi.

Denloning Angliya qirolligiga qo'shib olinishi o'zida ma'lum xavfni ham yashirgan – g'oliblar aksariyat holatlarda beparvolikka berilgan. Angliyada yana ichki nizolar boshlanib, davlat zaiflashadi. Ayni paytda, Daniya tez yuksala boshlaydi. Yagona Daniya qiroilligi **VIII asr oxiri**da Angliyaga hujum qilgan daniyalik vikinglarga nisbatan xavfliroq edi. Ayni paytda, Angliya qirolligi ichki nizolardan batamom holsizlangandi. Daniya qiroli **1013-yili** ingliz sohiliga o'z qo'shinini tushiradi. Urush uzoq cho'zilmaydi. Faqat **London shahri** daniyaliklarga ma'lum vaqt qarshilik ko'rsatadi.

5.6. VIZANTIYA IMPERIYASI

Imperiyaning tashkil topishi. Imperator Feodosiyning o'g'illari **395-yili** Rim imperiyasini ikki mustaqil davlatga: **G'arbiy Rim imperiyasi** (poytaxti **Rim**) va **Sharqiy Rim imperiyasi** (Vizantiya, poytaxti **Konstantinopol**)ga bo'lib olishgandi. Konstantinopol shahri o'rnidagi **Vizantiy** (Megara koloniyasi) nomidan Sharqiy Rimni ko'pincha **Vizantiya** deb ham nomlashadi.

IV asrda Vizantiya tarkibiga **Bolqon yarimoroli, Kichik Osiyo, Kavkaz, Suriya, Falastin, Misr, Krit va Kipr orollari** kirgan. Sharqiy Rim imperiyasida **ellinlar, suriyaliklar, armanlar, gruzinlar, yahudiylar** va boshqa xalqlar yashagan. Ulardan yunonlar son jihatidan ko'p bo'lganidan, davrlar o'tib yunon tili lotin tilini surib chiqaradi va davlat tiliga aylanadi. Yevropada Sharqiy Rim imperiyasi aholisini **yunonlar** deyishgan. Lekin imperiya fuqarolari o'zlarini **rimliklar** (yunoncha romeylar), davlatlarini esa Rim (Romey) imperiyasi deb hisoblashgan. Ularni **Sharq** xalqlari ham rimliklar deb bilishgan.

Vizantiyada qulchilik saqlanib qolsa-da, aholining katta qismini erkin dehqonlar tashkil etishi, sun'iy sug'orishga asoslangan sermahsul ziroatchilikning bo'lishi uning iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi. Shuning uchun imperiyada **VI asr**da ham **Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Edessa** shaharlari yirik savdo va hunarmandchilik markazlari sifa-

tida gullab-yashnagan. Konstantinopol va Aleksandriyalarni muhtasham binolar, ko'p qavatli uylar, haykallar va favvoralar o'rnatilgan maydonlar bezab turgan. Shaharlarda hunarmandchilikning shishasozlik, movut, shoyi gazlamalar to'qish, zargarlik sohalari, ayniqsa, yuksalgan.

Ispaniyadan Xitoyga qadar dunyoning turli mamlakatlari savdogarlari romeylar bozoriga shoshilganlar. Konstantinopol Osiyo va Yevropani bog'laydigan **«Oltin ko'prik»**ka aylanadi. Vizantiya savdogarlari G'arbning siyraklashib qolgan bozorlariga hashamatli kiyimlar-u zeb-ziynatlar, ziravorlar va qimmatbaho vinolar, qurol-yarog'lar-u idishlar, cherkov anjomlari-yu buyumlarni olib borishgan. Vizantiya oltin puli **(nomisma)** ko'p asrlar davomida eng ishonchli xalqaro pul hisoblangan.

Vasilevs hokimiyati. Vizantiya imperiyasini **vasilevs** (yunoncha podsho) boshqargan. U xudoning irodasi bilan saylangan butun xristian dunyosi hukmdori sanalgan. Vasilevslar Yevropa, Old Osiyo va Shimoliy Afrika mamlakatlarini boshqarish huquqini rimliklardan o'tgan meros hisoblashgan. Boshqa xristian davlatlari hukmdorlari (og'izda bo'lsa-da) uzoq payt o'zlarini Vizantiya imperatorlarining vassallari deb hisoblashgan.

Vizantiya imperatori saroyi o'zining boyligi, hashami va tantanavorligi bilan ajralib turgan. Bayramlar va qabullar paytida vasilevs oltin iplardan kashtalangan, marjon va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kiyimlarda chiqqan. Hukmdor kiyimi **to'q qizil** rangda bo'lgan. *An'anaga binoan, to'q qizil rangli etikni faqat imperator kiyishi mumkin edi.* Qimmatbaho kiyimlar, hukmdor toji, oltin zeb-ziynatlar juda og'ir bo'lgan. Imperatorlardan biri toj kiyish marosimida kiyim-bosh, zeb-ziynatlar og'irligidan hushidan ketgani ma'lum.

Vasilevsga ko'p sonli sud, harbiy va soliq muassasalari, davlat amaldorlari, shuningdek, maslahat organiga aylangan **sinklit** (lotincha senat) bo'ysungan. Vizantiyada amaldor va senatorlar faqat zodagonlardan bo'lmagan. Iqtidorli va bilimli oddiy xalq farzandlari ham yuqori lavozimlarga erishishi mumkin edi. Ulardan hatto imperatorlar ham chiqqan. Bu holat romeylarni umuman ajablantirmagan ham, sababi ular qadimgi rimliklar singari imperiyaning barcha fuqarolari tug'ilishidan teng, mansublik esa har bir insonning shaxsiy ishi deb hisoblashgan.

Vizantiyaliklarning ellinligi. G'arbiy Rim imperiyasi taqdirini takrorlamagan Vizantiya hayotida ko'p narsalar odatiy tusda qolgan. Vizantiyaliklar hayotida ellinlik mustahkam o'rin olgan. Ippodromlarda xalq avvalgidek chavandozlar, kurashchilar, gimnastlar musobaqalari, mimlar (aktyorlar) chiqishlarini tomosha qilgan. Shahar aholisi ilgarigidek ma'muriyatdan

maosh oladigan tabiblarda davolanishgan, jamoa hammomlariga borib turishgan. Eng muhimi, Vizantiya antik davr yunon ilmini saqlab qolgan. Ko'pchilik bolalar qatnaydigan boshlang'ich maktablardayoq ular Gomer dostonlari, Ezop masallarini o'qib bilim olishgan. Bolalar avval harflarni o'rgangan, so'ng bo'g'inlarni, undan keyin so'zlarni o'qib qadimgi she'riyatdan yuzlab misralarni yod olishgan. Boshlang'ich va o'rta maktablarning ko'pchiligi, G'arbiy Yevropadagi cherkov va monastir o'quv muassasalaridan farqli o'laroq, xususiy yoki davlatniki bo'lgan. Vizantiyalik olimlar o'z nutqlari va asarlarida **ellin** she'riyati, afsonalari hamda fanidan boxabar ekanligini namoyish etish maqsadida qadimgi mualliflar asarlaridan ko'plab misollar keltirganlar.

Vizantiyaning oltin asri. Vizantiya imperiyasi o'z qudrati cho'qqisiga **Yustinian I (527 – 565)** imperatorligi davrida erishadi. U kambag'al dehqon oilasida tug'ilgan. Amakisi **Yustin** oddiy askardan sarkarda darajasigacha ko'tarilib, imperatorlik taxtini egallaydi. Yustin jiyanini saroyga yaqinlashtirib, unga yaxshi ta'lim berdiradi. Amakisining vafotidan so'ng Yustinian taxtga o'tiradi.

Yangi imperator siyosiy donolik va jasorat sohibi edi. U imperiya hayotini islohotlar orqali ancha yangilab, xalqaro savdoni jonlantirib, davlat xazinasini to'ldiribgina qolmay, xalq farovonligini ham ta'minlaydi. Yustinian I siymosida harakatchanlik, qat'iyat, uzoqni ko'ra bilish, ayni paytda, buyuk siyosatdonlarga xos ikkiyuzlamachilik, mug'ombirlik, zolimlik xususiyatlari ham mujassamlashgan.

Yustinianning rafiqasi malika **Feodora** ham mashhur edi. Yoshligida Feodora aktrisa bo'lgan. U davrda aktyorlik yaxshi kasb hisoblanmasa-da, Feodoraning chiroyiga mahliyo bo'lgan Yustinian I, jamoatchilikning salbiy fikriga qaramasdan, unga uylanadi. Feodora aqli, shuhratparastligi, qo'rqmasligi bilan ajralib turgan.

Yustinian yurishlari. Yustinian I ning maqsadi Rim imperiyasining avvalgi hududlarini tiklash edi. U **534-yili** sarkarda **Velisariy**ni **Shimoliy Afrika**da joylashib davlat tuzgan va o'rta dengizda savdo kemalarini talash bilan shug'ullangan vandallarga qarshi yuboradi. Yaxshi qurollangan vizantiyaliklar qo'shini **vandallar** qirolligini bo'ysundirib, Shimoliy Afrika Karfagen shahri bilan Vizantiya viloyatiga aylanadi.

Shundan so'ng Velisariy Italiyaga yo'l oladi. Vizantiyaliklar **Sitsiliya** orolini qiyinchiliksiz qo'lga kiritadilar. Lekin Italiyada ular **ostgotlar**ning qattiq qarshiligiga uchraydi. Velisariyga qarshi ostgotlar qochoq qullarga ozodlik berib ulardan foydalanishgan. Vizantiyaliklar esa, aksincha, qulchilikni saqlab qolishgan, har qanday aybi uchun qulni qattiq

jazolashgan. Shunga qaramay, vizantiyaliklar Italiyaning katta qismini bo'ysundirib, poytaxti **Ravenna** bo'lgan alohida noiblik (**ekzarxat**) tuzishadi. Italiyadagi urush so'ngida Yustinian I Ispaniyaga ham qo'shin yuboradi. Ispaniyada **vestgotlar** hukmronlik qilardi. Vestgotlar **Gibraltar bo'g'ozi** ustidan nazorat o'rnatadi.

Vizantiya VI – XI asrlarda. Vizantiyaning zaiflashuvi **VI asr o'rtalari**dan **slavyan qabilalari** istilolariga yo'l ochadi. **VII asr**dan **Arab xalifaligi** hujumlari natijasida **Suriya** va **Misr** ham qo'ldan ketadi. Vizantiya qishloq xo'jaligida erkin dehqonlar **VII – X asrlar**da qashshoqlashib, qaramlikka tushishi davom etadi. Qishloqda mulkiy tabaqalanish jarayoni kuchayib, yirik yer egalari – feodallar hamda yersiz dehqonlar toifalari paydo bo'ladi. **X – XI asrlar**da imperatorlar amaldorlar, ibodatxonalar, monastirlarga ko'plab yer-mulklar in'om etadilar. Ma'lum vaqt o'tib Vizantiyada ham feodallar qal'alar qurib, harbiy bo'linmalar tuzadilar. Feodallar hokimiyatining kuchayishi va markaziy hokimiyatning zaiflashuvi **IX – XI asrlar**da feodal munosabatlarning uzil-kesil o'rnatilishiga olib keladi.

5.7. SLAVYAN DAVLATLARINING TASHKIL TOPISHI

Slavyanlar. Yozma manbalarda vizantiyalik tarixchilar tomonidan **«slavyanlar»** atamasi **VI asr**dan ishlatilgan. Lekin slavyan qabilalari haqida dastlabki ma'lumotlar yunon-rim tarixchilari asarlarida germanlar bilan bir paytda – **miloddan avvalgi II – I asrlar**dan tilga olinadi. Slavyan qabilalari **VI – VII asrlar**dan g'arbda Elba daryosidan sharqda Visla daryosiga qadar, shimolda Boltiq dengizidan janubda Dunay daryosiga qadar cho'zilgan hududlarda yashaganlar. Keyingi asrlarda ular uch guruhga: **g'arbiy, janubiy** va **sharqiy slavyanlar**ga bo'lingan. **G'arbiy slavyanlar** chexlar, polyaklar, lujichanlar va slovaklar, **janubiy slavyanlar** bolgarlar, serblar, xorvatlar, slovenlar, chernogorlar, makedonlar va bosniyaliklar. **sharqiy slavyanlar** ruslar, ukrainlar, beloruslardan tashkil topgan.

Slavyanlarning mashg'ulotlari. Slavyanlar qadimdan dehqonchilik bilan shug'ullangan. Ular yig'ilgan g'allani alohida omborlar (zaxira)da saqlaganlar. Vizantiya tarixchisi **Mavrikiy**ning yozishicha, dehqonlar boshoqli ekinlardan ko'proq arpa va tariq ekkanlar. Milodiy asr boshlaridan slavyanlar uy chorvachiligi va hunarmandchilik bilan ham shug'ullana boshlaganlar. **Visla, Dnepr, Dunay, Elba** daryolari bo'ylarida yashagan aholi xo'jaligida baliqchilik ham muhim o'rin tutgan.

Ijtimoiy tuzum va din. Slavyanlarning ijtimoiy tuzumi germanlarnikiga o'xshash. Ular qabila va urug'larga bo'linib yashagan. Urug', o'z navbati-

da, katta patriarxal oilalardan tashkil topgan. Yozma manbalarda xalq yig'inlari (slavyanlar **«veche»si**), knyazlar, harbiy drujinalar, slavyanlarning olib borgan urushlari haqida ma'lumotlar uchraydi.

Slavyanlarning diniy tasavvurlari tabiat kuchlari va o'z ajdodlari ruhlariga sig'inish ko'rinishida bo'lgan. Ularda osmon xudosi **Svarog**, momoqaldiroq va yashin xudosi **Perun**, hosildorlik xudosi **Jiva** asosiy ilohlar hisoblangan. Aholi orasida jinlar, suv parilari va boshqa afsonaviy siymolarga e'tiqod ham saqlanib qolgan.

Slavyan davlatlarining tashkil topishi. Dastlabki slavyan davlati Bolqon yarimorolining shimoliy qismida **VII asr oxirlari**da tuzilgan **Bolgariya podsholigi** bo'lgan. **IX asr boshlari**ga kelib Bolgariya yirik davlatga aylanadi. **Simeon (893 – 927)** davrida u o'z qudratining cho'qqisiga erishadi. Shundan so'ng Bolgariya zaiflashib, **X asr oxiri**da qo'shni Vizantiya tomonidan bosib olinadi.

Chexiya. Buyuk ko'chishlar davrida shimolda Rudni tog'lari, janubda esa Shunava tog'lari bilan chegaralangan yerlarda joylashgan slavyan qabilalari doim kuchli qo'shnilar qurshovida yashaganlar. Bular dastlab **Franklar davlati** va **Avar xoqonligi**, so'ng **Sharqiy Frank qirolligi** va **Buyuk Moraviya**, goh **Germaniya imperiyasi, Vengriya** va **Polsha** bo'lgan. Buyuk Moraviya qulaganidan keyin, mahalliy slavyan qabilalari **Vltava daryosi** havzasida yashagan chex qabilalariga bo'ysungan (rivoyatlarga qaraganda, ularning qadimgi yo'lboshchisini **Chex** deb nomlaganlar). Qabila ittifoqi boshida **Prjemislovichlar** xonadonidan bo'lgan **knyazlar** turgan.

Knyaz Vatslav (920 – 935) yoshligidan xristian aqidalari bo'yicha tarbiyalangan, keyinchalik bor kuchi bilan dinning Chexiyada yoyilishiga harakat qiladi. U Pragada mamlakatning bosh ibodatxonasi – **Avliyo Vitn**i bunyod ettirgan. Lekin knyazning xristianlikka nisbatan bunday hurmat-ehtiromi ko'pgina chexlarga xush kelmagan. Vatslavning tug'ishgan ukasi uni xoinona o'ldiradi. Tez orada Vatslavni chexlarning asosiy milliy avliyosi, Chex davlatining homiysi sifatida e'zozlay boshlashadi.

Xristianlikni to'xtatishning iloji yo'q edi. **973-yili Praga**da alohida **yepiskoplik** tashkil qilinadi. Shu paytdan Chexiyada bir paytlar Moraviyaga Vizantiyadan **Kirill** va **Mefodiy** olib kelgan sharqiy xristianlik izlari o'chib boradi.

Butun **XI asr Germaniya, Polsha va Chexiya** orasida urushlar va yarash bitimlari tuzish bilan o'tadi. Goh Polsha hukmdori **Boleslav I** Chexiyani bo'ysundiradi, goh chex knyazi **Bratislav I** Krakov va Gneznoni egallab, u yerdan avliyo Adalbert-Boytex xokini Chexiyaga olib ketadi.

Goh Chexiya Muqaddas Rim imperiyasi bilan mustahkam ittifoqda bo'lgan, goh urush holatida. Chexiya **XI asr**dan qo'shni, qachonlardir kuchli va yirik mamlakat markazi bo'lgan Moraviyani uzil-kesil o'ziga qo'shib oladi. German imperatori **Genrix IV 1085-yili** Rim papasiga qarshi og'ir kurashda unga yordam bergan chex knyazi **Bratislav II** ga qirol unvonini taqdim etadi. Chexiya qirollari german imperatorlari hokimiyatini tan olsa-da, o'z mamlakatlarida deyarli to'la mustaqil bo'lganlar. Ularning qirolligi imperiyaning bir bo'lagi hisoblansa ham, Yevropa ishlarida o'z mavqelariga ega edilar.

Polsha. Bo'lajak Polshaning asosi **Gnezno rayonida** yashagan **polyan** slavyan qabilalari bo'ladi. Ushbu qabilalar ittifoqi nomida **VIII – IX asrlar**da vujudga kelgan knyazlik, so'ng uning atrofida birlashgan barcha hududlar **Polsha** deb atala boshlaydi. Polyan knyazlik sulolasining afsonaviy asoschisi, solnomachining yozishicha, kambag'al kishi **Piast** bo'lgan, lekin hujjatlarda nomi qayd etilgan birinchi **piastlar** sulolasi knyazi **Meshko I** edi. U **966-yili** xristianlikni qabul qilgan. Meshko I ning o'g'li **Boleslav Jasur** (yoki Buyuk) nomini olgan. U qo'l ostida polyak qabilalari yerlarini birlashtirib, so'ng Moraviya va Chexiyani egallaydi. **1018-yili** esa Rus knyazi **Yaroslav Mudriy** (Donishmand) qo'shinini tor-mor etib Kiyevga kiradi.

Knyaz **Meshko X asr o'rtalari**da **Visla** havzasida polyak qabilalarini birlashtirib **Polsha davlati**ga asos soladi. Qabilalarni birlashtirish **Boleslav Jasur** davrida ham davom etadi. **Boleslav** qo'shinlari Polsha mustaqilligini saqlab qolish uchun german imperatorlariga qarshi kurash olib boradi.

5.8. KIYEV RUSI

Davlatning tashkil topishi. Yilnomalarda yozilishicha, sharqiy slavyan qabilalari **varyaglar**ga (skandinaviyalik normannlarga) elchilik jo'natib o'zlariga knyaz yuborishlarini so'raydi. Bu taklifga binoan uch aka-uka: **Ryurik, Sineus va Truvor** Rusga kelib, Ryurik Novgorodda, Sineus Beloozeroda, Truvor Izborskda knyazlik qiladilar. Ko'p o'tmay ukalari vafot etib, Ryurik yakka hukmronlik qila boshlaydi.

Ryurik **879-yili** vafot etib, o'g'li **Igor** yosh bo'lganidan, hokimiyat uning qarindoshi **Oleg**ga o'tadi. Uning boshqaruvi paytida **Kiyev Rusi** tarixining boshlanishi bilan bog'liq muhim voqea bo'ladi. Oleg **882-yili** o'z lashkari bilan Kiyevni egallab ayni paytdan yozma manbalarda Kiyev Rusi nomini olgan **davlat**ga asos soladi.

Oleg va keyingi knyazlarning asosiy vazifalari Xazar xoqonligi hukmidan ozod bo'lish, sharqiy slavyan qabilalarini birlashtirishni davom ettirish, tashqi dushmanlardan davlat chegaralarini asrash, Vizantiya bilan manfaatli savdo munosabatlarini o'rnatish bo'ladi. Slavyan qabilalarini birlashtirish siyosati Olegning qo'lida shimolda **Ladoga ko'lidan janubda Dneprning quyilishigacha** yerlarning to'planishiga imkon beradi. Knyazning qo'shini **907-yili** Konstantinopolga hujum qilib vizantiyaliklardan katta to'lov olishga erishadi. So'ng shartnoma tuzilib, unga ko'ra, rus savdogarlariga Vizantiyada bojsiz savdo qilishga ruxsat beriladi.

Igor (912 – 945) knyazligini ko'chmanchi **bijanak** qabilalariga qarshi urushdan boshlaydi. **Konstantinopol**da tuzilgan shartnomani bajarmagani tufayli Igor **X asrning 40-yillari**da Vizantiyaga qarshi ikki marta yurish tashkil qiladi. Dastlabki yurishda ruslar qo'shini mag'lub bo'ladi. Keyingi yurishda esa Vizantiya jangsiz tinchlik shartnomasini tuzib, katta o'lpon to'laydi.

Igor **945-yili drevlyan** qabilalari bilan to'qnashuvda halok bo'lganidan so'ng, uning rafiqasi **Olga** o'g'li **Svyatoslav** balog'at yoshiga yetgunga qadar Kiyev knyazligini boshqargan. U Rus mavqeyini harbiy yurishlar, istilolar bilanmas, mohirona diplomatiya orqali yuksaltirishga intilgan. Yilnomada yozilishicha, Olga **X asrning 50-yillari o'rtalarida** Konstantinopolga tashrif buyurib, xristianlikni qabul qiladi. Lekin Olganing o'g'li Svyatoslav yangi dinni qabul qilishdan bosh tortadi. U: *«Agar men bir o'zim boshqa dinga o'tsam, drujinam ustimdan kuladi»*, – degandi.

Xazarlarga qarshi kurash. Svyatoslav **964-yili 22 yoshida** knyazlikni olgandan so'ng qo'shini bilan sharqqa yurish boshlagan. Ayni paytda, Turk xoqonligining parchalanishidan Itil (Volga) va Don daryolari oralig'ida tashkil topgan **Xazar xoqonligi** qudratli davlat edi. Uning hududidan ko'plab karvon yo'llari o'tib, Xazarning boy shaharlarida musulmonlar, xristianlar, majusiylar yonma-yon yashardilar. Ko'chmanchi xazarlar o'z xoqonlarini ilohiy kuchga ega deb hisoblashgan. Mamlakatda ishlar ko'ngildagiday ketsa, xoqonni olqishlashgan, aks holda, uni o'ldirishlari ham mumkin bo'lgan.

Svyatoslav xazarlarning asosiy kuchlarini mag'lub etib, ularning poytaxti **Itil shahri**ni egallaydi. Keyinchalik Svyatoslav **Bolgariya**ga, ko'chmanchi **bijanaklar**ga, **Vizantiya**ga qarshi urushlar olib boradi. Uzoq davom etgan yurishlarda muvaffaqiyatsizliklarga uchragan knyaz Svyatoslav Kiyevga qaytishida Dnepr bo'ylarida ko'chmanchi bijanaklar bilan jangda halok bo'ladi.

Xristianlikning qabul qilinishi. Svyatoslavning vorislari orasidagi kurash **972 – 980-yillari** bo'lib, uning so'ngida **Vladimir** taxtni egallaydi. Endilikda

yosh knyaz oldida mamlakatdagi boshboshdoqlikni bartaraf etish vazifasi turardi. Dastlab u slavyan qabilalarining isyonini bostirib, Kiyev Rusi chegaralarida yangi mudofaa qal'alarini qurdiradi. Shundan so'ng knyaz Dunay bo'ylarida yashagan bulg'orlarga qarshi harbiy yurish uyushtiradi. Ammo rus tarixida Vladimir istilochi emas, balki **988-yili** ruslarni xristian dinini qabul qildirgan hukmdor sifatida qadrlanadi. Qolaversa, uning boshqaruvi davrida mahalliy knyazlar sulolalari tugatilib, ularning o'rniga Vladimirning o'g'illari noiblikka tayinlanadi. Lekin boshqaruvning bu shakli ham muammolarsiz kechmaydi. Knyazning katta o'g'li, Novgorod noibi **Yaroslav** Kiyevga boj to'lashdan bosh tortadi. Vladimir unga qarshi yurishga tayyorgarlik paytida **1015-yili** vafot etadi.

Uning vorislari orasidagi taxt uchun kurashlarda g'olib chiqqan **Yaroslav (1019 – 1054)** boshqaruvi Kiyev Rusining gullab-yashnagan davri hisoblanadi. Yangi knyaz davrida, **1036-yili,** Kiyev ostonalarida paydo bo'lgan bijanak qabilalari uzil-kesil mag'lub etiladi. G'alaba sharafiga Kiyevda **Avliyo Sofiya** ibodatxonasi bunyod etiladi. Keyinchalik ushbu nomdagi cherkovlar **Polosk** va **Novgorod**da ham quriladi. Novgorodliklar uchun Avliyo Sofiya ibodatxonasi shaharning eng muqaddas ziyoratgohiga aylanadi. Yaroslav davrida Kiyev xristian dunyosining eng yirik shaharlaridan biriga aylanadi.

Madanivat. Yaroslav davrida Rusda maorif yuksaladi. Agar **Vladimir** davrida xristian ruhoniylari tayyorlaydigan o'quv yurti **Kiyev**da tashkil etilgan bo'lsa, Yaroslav **Novgorod**da ham **uch yuz** ruhoniy tayyorlaydigan bilim yurtini ochadi. Knyaz davrida avval Kiyevda, so'ng Novgorodda (**1050-yil**) yilnomalar tuzila boshlanadi. Poytaxt Kiyevda Vizantiyadan keltirilgan yunon tilidagi kitoblarni ruschaga tarjima qilish yo'lga qo'yiladi.

Yaroslav davrida Rusning Yevropa mamlakatlari bilan munosabatlari muvaffaqiyatli rivojlangan. Knyazning o'g'illaridan biri Vizantiya imperatori **Konstantin IX** ning qiziga uylansa, qizlari – **Anna, Anastasiya va Yelizavetalar** Fransiya, Vengriya va Norvegiya qirollariga turmushga berilgan.

Qonunchilik. Donishmand nomini olgan Yaroslav davrida rus yerlarining dastlabki yozma qonunlari to'plami **(«Rus haqiqati»)** tuzilib, uning vorislari davrida u yangi moddalar bilan to'ldirib boriladi. «Rus haqiqati»ga fuqarolik va jinoiy ishlar bo'yicha qonunlar kiritilgan. Undan faqat jinoyat va jazo haqidamas, o'sha zamon rus jamiyati ijtimoiy munosabatlari, odat, udum va an'analari bo'yicha ma'lumotlarni ham olish mumkin. Eng og'ir jinoyatlar uchun o'lim jazosi belgilangan bo'lsa-da, «Rus haqiqati»dagi ko'pchilik moddalarda jarima to'lash ko'zda tutilgan. **Varoslav Donish-**

mand vafotidan oldinroq vorislariga turli knyazliklar noibligini berarkan, hokimiyat uchun kurashning oldini olishga intiladi.

Kiyev Rusi va qipchoqlar. Ko'chmanchi qipchoq qabilalari **XI asr o'rtalarida Yoyiq daryosidan Dunaygacha** hududlarni egallab, ularning ayrimlari harbiy ittifoqlarga birlashgan. Qipchoq xonlari zarur paytda o'n minglab jangchilarni safga tizib, rus knyazlari yerlariga talonchilik bosqinlari uyushtirganlar. Ularning dastlabki yurishlari **XI asr 60-yillarida** boshlangan bo'lsa, **90-yillarda** Dnepr havzasidagi qipchoqlar birlashib Rus yerlariga yangi hujum boshlaydilar. Rus knyazi **Vladimir Monomax 1095-yili** ilk bor qipchoq xonlaridan ikkitasining qo'shinini yengadi. Keyingi davrda ham qipchoqlar bilan kurash goh g'alaba, goh mag'lubiyat bilan davom etadi.

Faqat **Vladimir Monomax (1113 – 1125)** Kiyev knyazi bo'lgan yillari urushlar qipchoqlar yashaydigan hududlarga ko'chadi. Lekin muvaffaqiyat uzoq davom etmasdan, Monomaxning vafotidan so'ng qipchoqlar hujumi qaytadan boshlanadi. Kiyev Rusi esa siyosiy tarqoqlik bosqichiga kiradi.

5.9. VI – XI ASRLARDA YEVROPA MADANIYATI

Franklar imperiyasida madaniyat. Buyuk Karl o'z davlatida yangi maorif tizimini yaratadi. Qirol tomonidan **789-yili** xalq maktablari joriy etiladi. Qonunga binoan, maktablar ibodatxonalar qoshida tashkil etilib, ruhoniylarga oddiy xalq farzandlarini bepul o'qitish buyurilgan. Saroyda ham maktab tashkil etilib, unda Karlning yaqin do'stlari, olimlar – saroy akademiyasi a'zolari dars berishgan. Qirol yunoncha **akademiya** deb nomlagan saroy olimlari birlashmasi antik davr mualliflari asarlarini o'rganish, she'rlar bitish bilan mashg'ul bo'lishgan. Ulardan biri tarixchi-rohib **Eyngard** asaridan biz Buyuk Karl hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlarni olamiz. Eyngardni ilmga chanqoqligi va tirishqoqligi tufayli zamondoshlari **«mehnatsevar chumoli»** deb ataganlar. Saroy akademiyasining yana bir a'zosi **Alkuin** va uning shogirdlari maorifni yoyishda katta xizmat qilgan. Aytishlaricha, Karlning o'zi ham lotin va yunon tillarini mukammal bilgan. U **Italiya**dan ikki mashhur qo'shiqchini taklif etib, saroyda qo'shiqchilar xori (dastasi)ni tuzdirgan.

Vizantiya madaniyati. O'rta asrlarda Vizantiya o'ziga xos yuksak madaniyati bilan Yevropaning eng ilg'or mamlakati bo'lib qoladi. Sababi, german qabilalari istilosi natijasida inqirozga uchragan G'arbiy Rimdan farqli o'laroq, Vizantiyada antik madaniyat an'analari saqlangan, vizantiyaliklar hayotida yunon hamda Sharq madaniyatlari qorishmasi – **ellinizm** muhim o'rin tutgan.

Ilm-fan eng rivojlangan shahar **«fanlar onasi» Afina** edi. **Platon (mil. av. IV asrda)** asos solgan **Afina akademiyasi**da mashhur faylasuflar ta'lim berardi. Afinada o'qigan talabalar o'z bilimlari chuqurligi va kengligi bilan faxrlanganlar. Bu haqda **V asr**da yashagan tarixchi: *«Ular o'zlarini yarim xudo, o'zgalarni esa yarim eshak deb hisoblaydilar»*, – deya kinoya bilan yozgandi. Keyinchalik imperator **Yustinian** o'z siyosatiga qarshi bo'lgan Afina akademiyasini yopish haqida farmon chiqaradi. Vizantiyaning iqtisodiy taraqqiyoti ehtiyojlari yangi o'quv va ilmiy markazlarni vujudga keltiradi. Konstantinopolda **IX asr**da **Magnavr oliy maktabi, 1045-yili** huquqshunoslik va falsafa fakultetlaridan iborat **universitet** ochiladi. Poytaxtda **oliy tibbiyot maktabi** ham faoliyat yuritardi.

O'rta asrlarda Vizantiyaga shuhrat keltirgan shishasozlik, kulolchilik, bo'yoqlar tayyorlash sirlari antik davrdan saqlanib kelgan. **VII asr**da ixtiro qilingan **«grek olovi»** Vizantiyaning dengiz janglaridagi muvaffaqiyatlarini ta'minlagan.

Tasviriy san'at va me'morchilik. Vizantiya madaniyatining eng mashhur sohasi tasviriy san'at: **mozaika, freska** va **ikonalar** yasash bo'lgan. Tasvirning vizantiyacha uslubi suratlar uyg'unligi, bo'yoqlar serjiloligi bilan ajralib turadi. Rassomlar cherkov qonunlari, talablari doirasidan kelib chiqib mavhum emas, jonli kishilarni tasvirlashga intilganlar. Mozaika va freskalari bilan **Xori monastiri** (hozirgi **Istanbul**dagi **Qahriya masjidi**) o'z davrining ajoyib me'morchilik yodgorliklaridan hisoblanadi. Yustinian I davrida Konstantinopolda barpo etilgan **Avliyo Sofiya** ibodatxonasini, shubhasiz, ilk o'rta asrlarning eng mahobatli me'morchilik inshooti deb atash mumkin. Uning ulkan gumbazi (**diametri 31,5 m**) bo'lib, **40 ta** deraza gulchambari bilan qurshalgan. Osmon gumbazi kabi ushbu gumbaz go'yo havoda muallaq turgandek tuyuladi. Turli xil toshlar va oyna parchalaridan yasalgan juda ajoyib mozaikalar ibodatxona devorlarini bezagan. **X – XI asrlar**da to'g'ri burchakli ibodatxonalar o'rniga ko'rinishidan xochsifat, o'rtasi xoch gumbazli ibodatxonalar barpo qilingan.

G'arbiy Yevropada ham ilk o'rta asrlarda ibodatxonalar, monastirlar qurilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Me'morchilikda **roman uslubi**, ayniqsa, yuksalib, unda ibodatxonalar ulkan, salobatli devorlari, gumbazlari, qalin ustunlari, unchalik katta bo'lmagan derazalari, darvoza va eshiklari arkali qilib qurilgani bilan ajralib turadi. Roman uslubida qurilgan eng mashhur binolar Fransiyadagi **Puatye, Klyuni, Arl** ibodatxonalari; Germaniyadagi **Shpeyer, Vorms, Mayns, Axen**dagi cherkovlar hisoblanadi.

Cherkov va maorif. G'arbiy Yevropada ilk o'rta asrlar madaniyati xristian cherkovi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Cherkov ilm, maorif,

adabiyot va san'atga bevosita ta'sir o'tkazgan. Shuning uchun kishilarning dunyo haqidagi tasavvurlari cherkov hamda din ta'limotiga asoslangandi. Zarurat bo'lmaganidan faqat dehqonlar emas, hatto feodallar orasida ham savodli kishilar kam edi. Ritsarlar imzo o'rniga ko'pincha ikki chiziq tortib qo'yishgan.

Ibodatxona va monastirlar qoshidagi **boshlang'ich maktablar** quyi martabadagi ruhoniylarni tayyorlagan. Bu kabi maktablarda lotin tilidan tashqari ibodat qilish va duolar o'qish tartiblari ham o'rgatilgan. Katta ibodatxonalar qoshida tashkil etilgan **o'rta maktablar**da esa dunyoviy ilmlar ham o'qitilgan. Buyuk Karl davlatida keng tarqalgan shu turdagi maktablar asrlar o'tib **universitetlar** uchun asos bo'ldi.

Ibodatxona maktablarida turli yoshdagi bolalar bo'lgan. *Ularni yoshiga qarab sinflarga bo'lmasdan, aralash o'qitishgan. Aksariyat maktablarda bittagina kitob bo'lib, o'qituvchi uni navbat bilan bolalarga berib parchalar o'qitgan.* Darslar **lotin tili**da olib borilgan. O'quvchilarning qiziqishi deyarli hisobga olinmagan. Intizomsiz o'quvchilar qattiq jazolangan. Maktablarda antik davrdan mavjud **«yetti erkin san'at»** deb nomlangan fanlar o'rgatilgan. O'quvchilar dastlab **trivium – grammatika, dialektika va ritorika**ni o'zlashtirganlar. Nisbatan murakkab fanlar tarkibi – **kvadrium**da o'quvchilar **arifmetika, geometriya, musiqa va astronomiya asoslar**ini o'zlashtirganlar. Astronomiyaga o'rta asrlarda mashhur bo'lgan astrologiya – munajjimlikka oid ma'lumotlar kiritilgan. Munajjimlar sayyoralar va yulduzlarga qarab odamlar taqdirini aytib berishga intilganlar.

6-BOB. OSIYO XALQLARI ILK O'RTA ASRLARDA

6.1. YANGI DINNING YUZAGA KELISHI

Arabiston. Arab qabilalari Arabiston yarimoroli va unga tutash hududlarda yashaganlar. Ular **somiy** (semit) xalqlaridan bo'lib, somiylarga **arablar**dan tashqari **yahudiylar, ossuriylar, finikiyaliklar va oromiylar** ham mansub bo'lishgan. Bu xalqlar Qadimgi Sharqning mashhur davlatlari: **Akkad, Bobil, Isroil** podsholiklarini tuzishgan.

Ko'chmanchi arablar – **badaviylar** (sahroyilar) boshqa chorvador qabilalar singari tuyachilik, qo'ychilik va yilqichilik bilan shug'ullanib kelganlar. Arabistonning janubi va g'arbidagi o'troq dehqonchilik aholisi soy va jilg'alar, quduqlar bo'ylarida xurmo bog'lari va uzumzorlar barpo etganlar. Xuddi shu yerlardan Vizantiyadan janubga, Afrikaga va Hindis-

tonga boradigan karvon yo'li o'tardi. Buyuk ipak yo'li mamlakatlarida notinchlik paytlarida karvon yo'llari Arabistonga siljirdi. Zamonlar o'tib bu karvon yo'llari bo'yida aholi qo'rg'onlari va shaharlar vujudga keladi. Ularda yashagan aholi esa karvon yo'llaridagi savdogarlar, sayyohlarga xizmat qilish bilan mashg'ul bo'lgan. Bu qo'rg'onlardan eng yirigi **Makka shahri** bo'lgan. Ko'chmanchilar mollarini shaharlarga keltirib, mahalliy aholidan don, gazlama, qurollarga ayirboshlagan.

Arabistonning eng taraqqiy etgan viloyatlari **Yaman** va **Hijoz** edi. Yaman yerlari unumdorligi bilan nom chiqargan, unda suv yetarli bo'lganidan, mevali daraxtlar, xurmozorlar bunyod etilgan. **«Yaman»** arabcha **«haq», «baxtli»** ma'nosini bergan. Arablarga taqlid qilgan rim tarixchilari Yamanni **«Baxtli Arabiston»** (Arabia felix) deb nomlaganlar.

Hijoz va **Yaman** Hindistondan Vizantiyaga ziravorlar, ipak gazlamalar, marvarid olib boradigan yo'lda joylashganidan, dengiz sohili bo'ylab shaharlar vujudga keladi. Cho'l aholisi badaviylar ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligi uchun iqlim noqulay kelgan yillari qo'shni mamlakatlar, xususan, Hijoz va Yamanga talonchilik bosqinlari ham uyushtirib turganlar.

Ijtimoiy tengsizlikning paydo bo'lishi. Ko'chmanchi badaviylar ko'plab urug'-qabilalardan tashkil topgan. Qabila yer, yaylov, suvga birgalikda egalik qilar, mollar ayrim oilalarga tegishli edi. **VI – VII asrlar**da aholi soni ortib qabilalar orasida suv manbalari va yaylovlar uchun kurash kuchayadi. Ularda turli ilohlarga sig'inilgani qabilalar orasidagi ziddiyatlarni yanada keskinlashtirgan. Urushlarda olingan harbiy o'ljalar qabila sardorlari, harbiy yo'lboshchilarning boyib borishi, natijada urug'-qabila zodagonlari – **shayxlar**ning paydo bo'lishiga olib keldi va bu jarayon **VII asr boshlari**da urug'chilik tuzumining inqirozini tezlashtiradi.

Eron shohi **Xusrav I 570-yili** Yamanni istilo qilishi bilan, karvon yo'li eronliklarga qarashli ikki daryo oralig'iga siljiydi. Savdoning inqirozi uning hisobidan yashovchi Hijoz va Yaman shaharlaridan boshlab ko'chmanchi-badaviylargacha, barcha aholining, hayotini mushkullashtirgan. Bu holat markazi Makka shahri bo'lgan, asosan, quraysh qabilasi yashaydigan Hijozda ravshan namoyon bo'ladi.

Islom dini va arablarning birlashuvi. Iqtisodiy inqiroz ko'chmanchilarni yangi yerlarni istilo qilishga, yaylovlarni kengaytirishga undaydi. Bu paytda arablarga qo'shni Vizantiya, Eron kabi davlatlarda iqtisodiy kuchli qo'shinning bo'lmasligi ham arablarga qo'l keladi. Vujudga kelgan vaziyatda arablarning birlashuviga **islom dini** xizmat qiladi.

Islom tarixchilari uning asoschisi – bo'lajak payg'ambar **Muhammad** alayhissalomning **570-yili Makka**da tavallud topganini yozadilar. Otalari

Abdulloh bu paytda savdo ishlari bilan **Suriya**da bo'lib, Makkaga qaytishida qo'qqisdan vafot etadi. *Ikki oylik chaqaloq Muhammad (s.a.v.)ga otasidan 5 ta tuya, bir necha qo'y va habashistonlik Barakat ismli cho'ri ayol meros qoladi.* An'anaga binoan, makkaliklar jaziramadan asrash uchun har yili yosh bolalarni tog'dagi yaylovlarda yashovchi **banu sa'd** qabilasiga mansub ayollarga berib yuborganlar. Muhammad (s.a.v.) ham **6 oyligi**dan banu sa'dlik **Halima** ismli ayol tarbiyasiga o'tib, ko'chmanchilar orasida **4 yil** yashaydi. Uning keyingi hayoti bobosi **Abdulmutallib** homiyligi ostida kechdi. Onasi va bobosining o'limidan so'ng amakisi **Abu Tolib** tarbiyasida qoladi.

Islom dini manbalarida yozilishicha, Muhammad alayhissalomga **610-yil**dan Alloh taolodan ilohiy oyatlar nozil bo'la boshlaydi. U qudratli yakka-yu yagona xudodan, ya'ni Alloh taolodan o'zga hech qanday xudo yo'q deb, o'zini **rasulullo**h – xudoning elchisi, payg'ambari deb e'lon qildi.

Dastlab Makka qurayshlari tomonidan yangi din yaxshi qarshilanmaydi. Natijada **622-yili** Muhammad (s.a.v.) o'z tarafdorlari bilan **Yasrib** (Madina)ga keladi. Bu voqea **hijrat** (ko'chish) nomini olib, musulmon yil hisobining boshlanish sanasi hisoblanadi.

Yasrib Muhammad (s.a.v.)ni yaxshi kutib oladi. Musulmon bo'lgan madinaliklar va ularga qo'shilgan ko'plab arab qabilalarining **Makka** uchun kurashi muvaffaqiyatli tugaydi. Shahar jangsiz olinib, muqaddas dargohlar qabila diniy sanamlari, ma'budlaridan tozalanadi. Makkadagi **Ka'ba** musulmonlarning asosiy ziyoratgohiga aylantiriladi. Muhammad (s.a.v.) arab qabilalarining o'zaro urushlariga chek qo'yib, islom dinini qabul qilishga chaqiradi. Keyingi **10 – 12 yil** davomida Arabiston shaharlari va ko'chmanchi qabilalar birin-ketin Muhammad payg'ambarga itoat etadi.

630-yilga kelib arablarning katta qismi musulmon bo'ladi. Makka islom dinining markazi, barcha musulmonlar uchun muqaddas shaharga aylanadi. Islom dini asosida Arabiston yarimorolida ko'chmanchi va o'troq qabilalarni birlashtirgan **yagona davlat** vujudga keladi.

6.2. ARAB XALIFALIGI. UNUNG ICHKI VA TASHQI SIYOSATI

Xalifalikning vujudga kelishi. Muhammad payg'ambar vafotidan keyin uning yaqin safdoshi **Abu Bakr (632 – 634) xalifalik**ka («o'rinbosar») saylanadi. Uning boshqaruvi paytida Arabiston yarimoroli aholisi islomni to'liq qabul qildi. Keyingi xalifa **Umar (634 – 644)** islom dunyosida o'zining saxiyligi, adolatparvarligi va din masalalarida qat'iyligi bilan shuhrat

qozongan. Uning davrida arablar **Falastin, Suriya, Misr va Liviya**ni, **Eronning katta qismi**ni istilo qilgan. Manbalarda yozilishicha, xalifa Umar **637-yili Quddus**ga tuyada yetib keladi. Tuya ustidagi xurjunning bir tomonida arpa uni, ikkinchi tomonida xurmo va ko'zachada suv solingandi. Quddusga yaqinlashgan Umarni qarshilash uchun shahar hokimlari, ulardan biri arab **Xuaydod,** ikkinchisi yepiskop **Safroniy** chiqishadi. Sulh tuzilib, qasamyod qilinadi. Xalifa hokimlar so'ragan va ularning odatlari hamda qonunlariga asoslangan yorliqni topshiradi. Ma'lumki, **135-yili** rimliklar yahudiylarni Quddusdan haydagan. Xalifa Umar keyinchalik yahudiylarning shaharga qaytishiga ruxsat beradi. Shartnoma imzolanganidan so'ng, Umar shaharga kiradi. U **Sulaymon ibodatxonasi** xarobalari o'rnida arablar uchun masjid qurishni buyuradi.

Usmon (644 – 656) xalifaligida **Eron** to'liq bosib olingan. Arab qo'shinlari **Dog'iston**ni egallab, **Amudaryo** sohillariga chiqadi. Usmon davrida Qur'on oyatlari to'planib yagona kitob holiga keltirilgan. Payg'ambarimiz sahobalaridan so'nggi xalifa **Ali (656 – 661)** hukmronligi o'z raqiblari bilan to'xtovsiz urushlarda o'tadi. Xalifalik qo'shinlari **VIII asr boshlari**da **Shimoliy Afrika**ni to'liq bo'ysundiradi. **Toriq ibn Said** boshchiligida arablar qo'shini **711-yili** keyinchilik uning nomi bilan atalgan **Gibraltar** (Jabal at-Tariq – «Toriq tog'i» so'zidan) bo'g'ozidan o'tib, **Ispaniya**ni bosib oladi. Yevropaga yurishlar **Bordo** shahri bo'sag'alariga qadar davom etadi. **Puatye jangida 732-yili** franklar hukmdori **Karl Martell** arablarni yengib ularning Fransiyaga yurishlariga chek qo'yadi.

Sharqda arablar **Kavkazorti va O'rta Osiyo**ni bosib olib, aholini islom diniga o'tkazadi. Xalifalikning Sharqqa yurishlari O'rta Osiyoda **Talas**, Hindistonda **Mo'lton**ga qadar davom etadi. Natijada **VII – VIII asr birinchi yarm**ida ulkan hududlarni egallagan davlat – **Arab xalifaligi** tashkil topadi. Bu davlatning poytaxti **Damashq** shahri bo'lgan.

Xalifalikda yer-mulk munosabatlari. Arablar istilo qilgan barcha mamlakatlardagi yerlar davlatniki deb e'lon qilinsa-da, amalda avvalgi egalari qo'lida qoladi. **Suriya va Eron** istilo etilgach, arab zodagonlari xalifaga bosib olingan yerlarni taqsimlash taklifi bilan murojaat qiladilar. Lekin xalifa **Umar** yerni egalarida qoldirishni buyuradi.

Istilo qilingan mamlakatlar hukmdorlari, janglarda halok bo'lgan amaldorlar, hokimiyat vakillari yerlari xalifalik xazinasiga o'tardi. Bunday yerlar nihoyatda katta maydonni tashkil etgan. Xalifalik **Iroq** yerlarining o'zidan har yili **7 mln dirham** daromad olgan. Arablar joriy etgan yer solig'i – **xiroj** hosilning **1/3 qismi**ni tashkil etgan. Islomni qabul qilmagan boylardan **48**, o'rtahollardan **24**, kambag'al dehqon va hunarmandlardan **12 dirham**dan

jizya solig'i olingan. Chorva mollari va savdodan olingan **zakot 1/40** ni tashkil etgan. Xalifalikda qullar mehnatidan ham foydalanilgan.

Arablarga qarshi xalq qo'zg'olonlari. **VIII – IX asrlar**da istilo qilingan mamlakatlarda qator xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tgan. Iroqning **Kufa shahri**da **685-yili** ko'tarilgan qo'zg'olonda arab va forslar – shahar kambag'allari va hunarmandlar qatnashgan. Bu qo'zg'olon **687-yil**ga qadar davom etgan.

O'rta Osiyoning janubi – Marv vohasida **747-yili Abu Muslim** boshchiligidagi qo'zg'olonda aholining barcha toifalari: dehqonlar, savdogarlar, hunarmandlar, kadivarlar, qullar keng ishtirok etadi. Qo'zg'olon Movarounnahr va Xurosonni qamrab oladi. **Abu Muslim** boshchiligidagi qo'zg'olon natijasida **umaviylar (661 – 750)** hukmronligi tugatilib, xalifalikda boshqaruv yangi sulola – **abbosiylar (750 – 1258)**ga o'tadi.

Movarounnahr markazi **So'g'diyona**da **769 – 783-yillari Muqanna** boshchiligida yirik xalq qo'zg'oloni bo'lib o'tadi. Qo'zg'olonchilar uzoq yillar arab qo'shinlari hujumlarini muvaffaqiyatli qaytaradilar. **Ozarbayjon**da **815-yili Bobek** boshchiligidagi qo'zg'olon ham **20 yildan ortiq** davom etadi. Tarixda **«qizil ko'ylaklilar»** nomini olgan mazkur qo'zg'olon qatnashchilari shiori *«Qirq yil qul bo'lib yashagandan bir kun ozod bo'lib yashagan ma'qul!»* edi.

Xalq qo'zg'olonlari, urushlar, hokimiyat uchun kurashlar xalifalikning siyosiy inqirozini tezlashtirdi. Xalifalikdan birinchi mustaqil amirlik **756-yili Ispaniya**da tashkil topdi. U **X asr**dan **Qurdoba (Kordova) amirligi** nomini oldi. **IX asr**dan **Misr, Eron, Movarounnahr va Xuroson** mustaqillikka erishadi. Abbosiylar qo'lida **Yaqin Sharq va Arabiston yarimoroli** qoladi, xolos. Mo'g'ul xoni **Xuloku 1258-yili Bag'dod**ni olib Arab xalifaligiga to'liq barham beradi.

6.3. XALIFALIK MAMLAKATLARI MADANIYATI

Ilm-fan. Arab qabilalari tomonidan istilo etilgan mamlakatlarda yangi – **arab sivilizatsiyasi** vujudga keldi. Uning paydo bo'lishida islom dinining ahamiyati nihoyatda kattadir. Xalifa **Horun ar-Rashid** saroyida **IX asr boshlari**da **«Bayt ul-hikma»** – **«Donishmandlik uyi»** tashkil etiladi.

Bu davrda aniq fanlar – matematika, astronomiya taraqqiyoti kuzatiladi, mazkur jarayon hunarmandchilik va savdoning yuksalishi natijasi edi. Zamonlar o'tib xalifalikda ixtiro qilingan **globus** va **usturlob** (astrolyabiya)dan barcha mamlakatlarda foydalana boshlanadi. Matematikada foydalana boshlangan hind raqamlari keyinchalik Yevropaga ham arab

raqamlari nomi bilan tarqaladi. **Bag'dod va Damashq**da rasadxonalar barpo etilib, ularda murakkab o'lchovlardan foydalangan astronomlar Yer sharining meridianini hisoblab chiqadilar. Arab sayyohlari yevropaliklardan bir necha asr avval **Hindiston va Xitoy**da, **Afrika va Sharqiy Yevropaning eng chekka rayonlari**da bo'lib qaytadilar. **Al-Mas'udiy, Ibn Dast, Ibn Fadlan, Ibn Battuta** kabi sayyohlar ushbu o'lkalar haqida asarlar yozib, xaritalarini tuzganlar.

Adabiyot. Musulmon adabiyoti dastlab arab tilida yaratiladi. Keyinchalik **X asr**dan u fors tiliga tarjima qilina boshlaydi. Musulmon she'riyati yuksak darajaga erishib, uning ko'plab turlari shakllanadi. Savdogar va sayyohlar uzoq o'lkalardan faqat g'aroyib buyumlarnigina emas, ajoyib sarguzashtlar haqida hikoyalar, o'zga xalqlar afsonalari, ertaklarini ham olib kelganlar. Ular bu haqda xalifa saroyida, zodagonlar bazmlarida, bozor va ko'cha-ko'ylarda so'zlab berganlar. Ushbu sarguzashtlar, afsona va ertaklar asosida arab adabiyotining ajoyib durdonasi – **«Ming bir kecha»** yaratiladi.

Me'morchilik. Xalifalikda san'atning barcha sohalariga nisbatan **me'morchilik** yuksak taraqqiy etgan. Xalifalik tarkibidagi mamlakatlarda muhtasham saroylar, masjid-u madrasalar, qal'alar bunyod etilgan. **Granada** (Ispaniya)dagi **Al-Humro saroyi, Kordova** (Ispaniya)dagi masjid, **Qohira**dagi **Hasan masjidi, Buxoro**dagi **Ismoil Somoniy maqbarasi** arablar davri me'morchiligi durdonalari hisoblanadi. Binolarning peshtoqlari, minoralari toshga o'yilgan naqshlar, rangli sopol plitkalar, arab yozuviga o'xshash, jimjimador **arabeska** naqshlari bilan bezatilgan.

Xalifalik madaniyati asosiy sohalaridan yana biri **xattotlik** – husnixat san'ati bo'lgan. Xattotlar yozish uchun zarur bo'lgan matn mazmuniga monand yozuvning turli uslublarini ixtiro qilganlar. Qur'oni Karimdan olingan oyatlar islom me'morchiligi durdonalari bo'lgan binolarning ichki va tashqi tomonlarini bezashda keng qo'llanilgan.

San'at. Musulmon tasviriy san'ati kitoblarni bezash sohasida o'zining yuksak cho'qqisiga erishadi. Kitoblarga ko'p sonli odamlar va hayvonlarni tasvirlagan bezaklar tayyorlangan. Matn murakkab naqshlar bilan o'rab olingan. Lekin musulmonlar san'atining asosi tasvir emas, xattotlik, ya'ni chiroyli yozish san'ati bo'lgan. Agar xristianlar uchun eng muqaddas tasvir xochdagi xudo siymosi bo'lsa, musulmonlar uni xudoning so'zida tasvirlaganlar. So'zni muqaddas bilganlar. Arab yozuvi Suriyada **VI asr**da oromiylar yoki arab xristianlari ixtiro qilgan **oromiy alifbosi** asosida yaratilgan. U **28 ta** harfdan iborat, arab yozuvi o'ngdan chapga tomon bitiladi.

Turmush tarzi. Musulmonlar turmush madaniyati o'zining nafisligi, yuksak didliligi bilan ajralib turgan. Ularning ayrim jihatlari keyinchalik yevropaliklar tomonidan qabul qilingan. Musiqachi va qo'shiqchi **Ziriyab IX** asrda yashagan. U **Bag'dodda** xalifa **Horun ar-Rashid** saroyida xizmat qilgan. Yillar o'tib u **Ispaniya**ga ko'chib keladi. Ziriyab hayotga yangi kiyimlar, tartiblar kiritishda beqiyos shaxs bo'lgan. U turli fasllarda mavsumga qarab kiyinish tartibini joriy etgan. Ziriyab oltin va kumush idishlarga nisbatan yupqa shishadan yasalgan buyumlarning nafisligi va qulayligiga bazm tashkilotchilarini ishontira oladi. Bazmda dastlab suyuq sho'rvalar, so'ng go'shtli taomlar, undan keyin qush go'shti va eng oxirida shirinliklarni tortish tartibini joriy etadi.

Rim va Vizantiya davridan Yaqin Sharqda aholining hammomlarda yuvinishga havasi katta bo'lgan. Musulmonlar bu odatni o'zlashtirib, o'z hukmronliklarini o'rnatgan barcha o'lkalarga tarqatganlar. Yirik shaharlarda yuzlab hammomlar qurilgan. Ular marmardan ishlangan, devorlari mozaika va naqshlar bilan bezatilgan, tozalik, pokizalikka katta e'tibor qaratilgan.

6.4. HINDISTON ILK O'RTA ASRLARDA

Mamlakatdagi ichki vaziyat. Kushonlar imperiyasi inqirozidan so'ng Hindistonda hokimiyatni egallagan **Chandragupta I (320 – 340) guptalar** sulolasiga asos soladi. Guptalar davlatining poytaxti **Pataliputra** shahri bo'lgan. **IV asr oxiri – V asr boshlari**da Guptalar imperiyasi gullab-yashnaydi. Ayni shu paytdan Hindistonda mulkchilik munosabatlari vujudga keladi.

Hukmdorlar o'z yaqinlari – amaldorlari, harbiy boshliqlariga yer-mulklar in'om etganlar. Natijada **IV – V asrlar** davomida **yirik yer egalari** tabaqasi shakllanadi. Ular dehqonlarga soliqlar to'lash, mehnat majburiyatlari o'tash tartibini ham joriy etadi. Ilk o'rta asrlarda mamlakat aholisining **kasta-varna** (toifa)larga bo'linishi: **braxmanlar, kshatriyalar, vayshilar va shudralar** saqlanib qoladi. Braxmanlar mayit, hatto o'lgan hayvonlarga ham tegishi mumkin emasdi. Hayvon terisini esa maxsus ko'nchi – shudralar shilishgan. Braxman kohinlarga soqolini o'zi olishi, kirlarini yuvishi ham taqiqlangan, ular uchun bu yumushlarni shudra – xizmatkorlar bajargan. Supurish-sidirish ishlarini ham faqat shudralardan bo'lgan xizmatkorlar, farroshlar qilganlar.

Ilk o'rta asrlarda Hindistonda shakllangan ijtimoiy munosabatlar sof feodal ko'rinishda bo'lmasdan, qulchilik udumlari ham ma'lum darajada saqlanib qolgan. Ammo qullar mehnatidan ishlab chiqarishda emas,

ko'pincha uy yumushlarida foydalanishgan. Xo'jayin qulni yegulik bilan ta'minlashdan tashqari unga yilda bir marta kiyim ham olib bergan.

Mamlakatda siyosiy tarqoqlik. Hindistonning shimoli-g'arbidan **VI asr**da bostirib kirgan **eftaliylar** hujumlari ostida Guptalar imperiyasi parchalanib, mamlakatning katta qismi istilochilar qo'liga o'tadi. **VII asr**da Hindistonda bo'lgan Xitoy tarixchisi **Syuan Szyanning** yozishicha, unda **70 ga yaqin** katta-kichik knyazliklar bo'lgan. Knyaz – rojalar o'zlarining ko'p sonli yaqinlari va xizmatkorlari bilan hashamatli saroylarda yashaganlar. Rojalar qarindoshlari, a'yon va amaldorlariga yer-mulk hamda ularda yashagan aholini taqdim etganlar. Davlat yerlarining qolgan qismi dehqonlarga ijaraga berilgan. Braxman – kohinlar qo'lida ham ko'plab ekin maydonlari to'plangan. Manbalarda yozilishicha, o'ta taqvodor rojalardan biri knyazligidagi **1400 qishloq**ni ibodatxonalarga in'om etgan ekan.

Rojalar o'rtasida tinimsiz urushlar bo'lib turgan. Qo'lga kiritilgan o'ljalar, yerlar g'oliblar orasida taqsimlangan. Rojaning yaqin o'rindoshlari, a'yonlari o'nlab, ba'zida yuzlab qishloqlar va unda yashagan aholisi bilan; amaldorlar esa bitta yoki bir qishloqning yarmi bilan taqdirlanishi ham mumkin edi. In'om etilgan yer maydoni **grass** (**«bo'lak»** yoki **«qultum»**) deb nomlanib, uni olgan shaxs harbiy xizmat o'tab berishi lozim bo'lgan. O'z xonadoniga mansub bo'lmagan amaldorlarga rojalar yerni ma'lum muddatga foydalanishga berganlar. Bunday yerlar **patta** (**«yorliq»** yoki **«yorliqqa olingan yer»**) deb nomlangan. Pattadan alohida xizmat ko'rsatgan kishilarni taqdirlash uchun ham foydalanishgan. Mulkchilik munosabatlari mustahkamlanib borishi bilan, patta yerlari ham avloddan avlodga o'tadigan **merosiy mulk**ka aylana boshlagan.

O'zaro urushlardan kuchsizlanib borgan Hindistonni chet ellik bosqinchilar ham talaganlar. Xususan, Arab xalifaligining parchalanishidan vujudga kelgan musulmon davlatlari hukmdorlari **XI asr**dan Hindistonga hujum boshlaydilar. G'azna hukmdori **Mahmud**ning qo'shinlari **XI asr boshlari**da mamlakat shimoliga **17 marta** bosqinchilik yurishlari uyushtirgan. Ma'lum muddat o'tib Hindistonning shimoliy qismi musulmon hukmdorlari tomonidan to'liq bosib olinadi.

Aholining mashg'ulotlari. Sharq xalqlari ertaklarida Hindiston afsonaviy boyliklar mamlakati sifatida tasvirlangan. Yevropada hind rojalarining boyliklari haqida turli afsonalar tarqalgan. Aslida, ushbu boyliklar xalqning mashaqqatli mehnati evaziga yaratilgan. Dehqonlar daryolardan kanal va ariqlar chiqarib yangi yerlarni o'zlashtirganlar va undan yiliga **2 – 3 marta** hosil olganlar. Serunum maydonlarda sholi,

paxta, shakarqamish, ziravorlar va choy yetishtirilgan. Asrlar o'tib bu ekinlar qo'shni mamlakatlarga ham tarqalgan.

Hind hunarmandlari o'z mahoratlari bilan shuhrat qozonganlar. Ular tomonidan tayyorlangan zargarlik buyumlari, oltin va kumushdan yasalgan idishlar Hindistondan chetda ham yuksak baholangan. Fil suyagi, yog'ochning qattiq navlaridan yasalgan odam va hayvonlar haykalchalari faqat hind rojalari emas, xorijiy davlatlar hukmdorlari saroylarini ham bezagan. *Yog'ochdan yasalgan oddiy dastgohlarda to'quvchilar nafis* gazlamalar tayyorlaganlar.

Savdo-sotiq. Hindistonning g'arbida ko'plab port shaharlar bo'lib, ularga chet o'lkalardan turli buyumlar keltirilar, o'z navbatida, hind hunarmandlari tayyorlagan xilma-xil buyumlar dunyoning turli burchaklariga olib ketilardi. Eng yirik port-shahar **Kalikut** hokimini **«dengiz xo'jayini»** deb atashardi. Shaharlardagi gavjum bozorlarda mahalliy va boshqa mamlakatlardan keltirilgan buyumlar sotilardi. **Xitoy, Afrika, Arabiston, O'rta Osiyo**dan ko'plab savdogarlar gazmol, zargarlik buyumlari, atir-upalar, ziravorlar olish maqsadida hind shaharlariga kelishardi. Hindiston bilan savdoda yetakchi o'rin tutgan **arab savdogarlari** port-shaharlarda hatto o'z mavzelariga ham ega edilar.

Hind madanivati. Hind olimlari matematika, astronomiya, tibbiyot sohalarida katta yutuqlarga erishgan. Ayrim hind shaharlarida osmon jismlarini kuzatish uchun rasadxonalar qurilgan. Hind astronomlari tadqiqotlari ularga Yerning aylana shaklda ekanligi va o'z o'qi atrofida aylanishi farazini yaratishga imkon beradi. Tabiblar murakkab jarrohlik asboblari va og'riqni bosadigan dori-darmonlar ko'magida jarrohlik muolajalarini o'tkazganlar. Davolashda maxsus tayyorlangan suyuq va quyuq dorilardan foydalanilgan.

Hind me'morchiligi o'zining rang-barangligi bilan ajralib turgan. O'rta asrlarda qurilgan ko'plab ibodatxonalar, saroylar hozirga qadar saqlanib qolgan. Hindistonda katta qoyatoshlar yoki g'orlar ichida o'yib ishlangan ibodatxonalar ham bo'lgan. Ulardan eng mashhuri **mil. av. II asrdan milodiy VII asrga qadar** g'or ichida o'yib ishlangan **Ajanta** (Markaziy Hindiston) ibodatxonalari majmuasidir. Qadimgi me'morlar qoyalarga o'yib ishlangan **29 ta** xonadan iborat ibodatxonalarni turli haykallar, o'yma naqshlar bilan bezashgan. Ibodatxonalarda xudolar, odamlar va hayvonlarning tosh va jezdan ajoyib haykallari o'rnatilgan.

6.5. XITOY V – XI ASRLARDA

Xitoyning birlashishi. Qadimgi **Xan** quldorlik imperiyasi **III asr**da inqirozga uchrab, uning o'rnida **3 ta** mustaqil: **Vey**, **Shu** va **U** davlatlari vujudga keladi. Ayni shu paytdan Xitoyda yerga egalik munosabatlari shakllana boshlaydi. Xitoyning birlashuviga **VI asr 2-yarmi**da Turk xoqonligi istilosi xavfi turtki bo'ladi. Mamlakatni cheklanmagan hokimiyatga ega imperator, **suy sulolasi (589 – 618)** vakili boshqargan. Uning ixtiyorida kuchli qo'shindan tashqari ko'p sonli sodiq amaldorlar ham bor edi. Mamlakatning markazlashuvi **to'rt asr** davom etgan o'zaro urushlarga chek qo'yib, iqtisod va madaniyatning rivojlanishiga olib keladi. Ekin maydonlari kengayib, aholi soni ko'payadi, savdo-sotiq jonlanib, shaharlar yuksala boshlaydi. Yangi hokimiyat soliqlarni tartibga solib, pul islohoti o'tkazadi.

Mamlakat viloyatlari orasidagi iqtisodiy aloqalarni **mustahkamlash**, Xuanxe va Yanszi daryolari oralig'idagi hududlarni savdo-sotiq munosabatlariga tortish maqsadida **Buyuk kanal** quriladi. Bu tadbir mamlakat miqyosida yagona suv yo'lining barpo etilishidan tashqari sharqiy viloyatlarning dengizga chiqishiga sharoit yaratadi. Lekin suy sulolasining boshqaruvi uzoq davom etmaydi. Xitoyning shimoli-g'arbidagi mahalliy hokimlardan biri **Li Yuan 618-yili** taxtni egallab, **tan sulolasiga (618 – 907)** asos soladi.

Yer egaligi. Tan imperiyasi boshqaruvi davrida Xitoydagi barcha yerlar **davlatniki** deb e'lon qilinadi. Mamlakatning barcha hududlarida dehqonlarga kichik-kichik yer maydonlari ijaraga beriladi. **624-yili** qabul qilingan qonunga ko'ra, har bir xo'jalik uy-hovlisi o'rnidan tashqari **80 mu**gacha (**1 mu – 6 sotix**) haydaladigan yerni ijaraga olish huquqiga ega bo'ladi. Har bir xonadonga o'z bog'ida mevali daraxtlardan tashqari tut daraxtini o'stirish majburiy etib qo'yiladi. Yangi qonunga binoan, dehqon o'z hovlisi va tomorqasini sotishi, garovga qo'yishi mumkin edi. Ammo davlat tomonidan ajratilgan yerni sotish taqiqlangan. Davlatdan olingan yer hisobiga dehqon turli soliqlar to'lar, mehnat majburiyatini ham o'tardi. Xususan, manbalarda **Loyan Buyuk kanali** qurilishiga **2 mln**, Buyuk Xitoy devorini qurish va ta'mirlashga **1 mln dan ortiq** kishi jalb etilgani haqida yozilgan.

Imperator o'z a'yonlari, lashkarboshilari, amaldorlari va zodagonlarga yirik yer maydonlarini taqdim etgan. Jumladan, ayrim a'yonlar mavqelari: unvon va lavozimlariga qarab **500 dan 10 ming mugacha** yer bilan taqdirlanganlar. Manbalarda alohida xizmatlari uchun harbiy yoki amaldorga **300 dan 6 ming mugacha** yer berilgani qayd etilgan. *Imperator taqdim etgan yerlar soliqlardan ozod qilingan.*

Shaharlar, hunarmandchilik va savdo. Xitoyda **VI asr**danoq shaharlar birmuncha yuksaladi. Chegara hududlarida yangi shahar-qal'alar bunyod etila boshlaydi. Dengiz va daryo portlarida, xomashyo serob joylarda savdo-hunarmandchilik yuksalib, yangi shaharlar vujudga keladi. Buyuk kanal hamda dengiz sohillari bo'ylab **VII asr**dan **Xanchjou, Kayfin, Yanchjou** shaharlarining yuksalishi ham savdo-sotiq va hunarmandchilik rivoji bilan bog'liq edi. Ushbu jarayon qonunlarni kuchaytirishni taqozo etib, tan imperatorlari shaharlarda kechasi ko'chaga chiqishni taqiqlaydi. Shahar darvozalari kechasi yopib qo'yilgan. Shahar devoridan kim-da-kim kechasi oshib o'tsa, **70 darra** kaltaklanishi joriy etilgan. Albatta, bu tadbirlar shaharlarda tinchlik-osoyishtalikni, mol-mulk daxlsizligini saqlashga qaratilgan.

VII – VIII asrlarda Xitoyda tog'-konchilik sohasi, chinni va sopol buyumlar ishlab chiqarish ham yuksaldi. Ayni paytdan shahar hunarmandlari kasb uyushmalari (**sexlar**) tuzib, ma'lum kasbdagi hunarmandlar alohida ko'cha va mavzelarda joylasha boshlagan.

Xitoyning markazlashuvi va iqtisodiy taraqqiyot savdo-sotiqning ham yuksalishini ta'minlaydi. Eng yirik bozor **Yanchjou**da bo'lib, bu shahar suv va quruqlik savdo yo'llari kesishgan joyda joylashgandi. Ushbu davrda vujudga kelgan **yarmarkalar** ham ichki savdoning kengayishiga xizmat qilgan. Xitoyda **VII asr**dan yagona pul – **syan**ning joriy etilishi ham iqtisodiy yuksalishga xizmat qiladi. Zarb qilingan tangalar o'rtasida **to'rtburchak teshigi** bo'lib, u pulni ipga tizishga mo'ljallangandi.

Tashqi siyosat. Tan sulolasi hukmronligi davrida Xitoy Turk xoqonligiga qarshi katta urushlar olib boradi. Imperator qo'shinlari **640-yili** Buyuk ipak yo'li ustida joylashgan **Gaochan davlati**ni mag'lub etadi. Shundan so'ng uyg'urlarga qarshi uzoq yillar davom etgan urushlar boshlanadi. G'arbiy Turk xoqonligiga qarshi **657 – 679-yillar**dagi urushlar ham Xitoy g'alabasi bilan tugaydi. Koreyaga qarshi **668-yili** boshlangan urush uning poytaxti **Pxenyan**ning olinishi bilan yakunlanadi. Xitoy **VII – VIII asrlar**da faol tashqi siyosat olib borib, **Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, Vizantiya, Yaponiya va Hindiston** bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan.

Yangi **sun sulolasi** davrida **(960 – 1279)** Xitoyning xalqaro aloqalari yanada kengayadi. Bu paytda **O'rta Osiyo, Hindiston, Hindixitoy,** dengiz orqali **Yaponiya va Indoneziya** bilan savdo olib boriladi.

Xitoy madaniyati. Xitoyda tabiiy fanlar: matematika, astronomiyadan tashqari geografiya, tarix fanlari yuksak rivojlangan. **VIII asr**dayoq eng qadimgi ilmiy muassasalardan biri – **Xanlin akademiyasi** tashkil qilingan. Xitoyliklar **X asr**da selitradan **porox** olishni kashf qiladilar. Dastlab

mushakbozlikda ishlatilgan poroxdan keyinchalik (**XI asr boshi**dan) harbiy maqsadlarda foydalana boshlanadi.

Xitoyda tarixiy solnomalar tuzishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, **sun sulolasi** davriga oid **500 jildlik** solnomalar bizga qadar saqlanib qolgan. Yirik shaharlarda **maktablar** tashkil etilib, ularda bo'lajak **amaldorlar**ni tayyorlashgan. O'quvchilardan matematika, grammatikadan tashqari falsafa va adabiyotni bilish talab etilgan.

Xitoy me'morlari toshdan, yog'ochdan, marmar va temirdan foydalanib ajoyib saroylar, ibodatxonalar, minoralar va ko'priklar bunyod etishgan. Xitoy rassomlari ipak, qog'oz, yog'och va toshda o'zlarining ajoyib san'at asarlarini yaratganlar. Rassomchilikning **devoriy rasmlar chizish** sohasi, ayniqsa, rivoj topgan.

Pekinda **VIII asr**dan **«Poytaxt axboroti»** nomli gazeta chiqarilgan. Unda imperator farmonlari va eng muhim voqealar haqida xabarlar berib borilgan. Gazetani yog'ochda o'yib yozilgan matndan ko'paytirishgan.

Xitoy tabiblari murakkab jarrohlik muolajalarini o'tkazib, turli o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlarini aniqlab, ulardan dori-darmonlar tayyorlaganlar. Xitoyda dastlabki **pantomima** – imo teatri tashkil etilgan. **Buddizm**ning tarqalishi nafaqat xitoyliklar hayotiga, balki ularning me'morchiligiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

7-BOB. DUNYO XALQLARI O'RTA ASRLARNING RIVOJLANGAN DAVRIDA (XI – XV ASRLAR)

7.1. YEVROPADA O'RTA ASR SHAHARLARINING SHAKLLANISHI

Xo'jalik taraqqiyoti. Yevropada **X – XI asrlar**da ishlab chiqarish yuksaldi. Mehnat qurollarining takomillashuvi, ustalar mahoratining oshishi hunarmandchilikni dehqonchilikdan alohida sohaga aylantiradi. Mehnat qurollari, ritsarlarning qurol-aslahalari, himoya anjomlari tayyorlash uchun ko'plab metall zarur edi. Ehtiyojning oshishi Yevropada temir rudasini kavlab olish, eritish va ishlov berishning tezlashishiga olib keladi. Zig'irpoyadan to'qilgan gazlamalar odamlarni qoniqtirmay, jundan mato – **movut** to'qiy boshlaydilar. Gazlama to'qishda **yotiq dastgohlar**dan foydalanish ishning unumdorligi va mahsulot sifatini oshiradi.

Dehqonchilikda ikki dalali almashlab ekish o'rnini **uch dalali almashlab ekish** egallaydi. Unda ekinzor uchga bo'linib, birinchi qismiga kuzgi,

ikkinchisiga bahorgi g'alla ekilsa, uchinchi maydon shudgor holida qoldirilib, yerga dam berilgan. Bu usulda yerning yarmi emas, **2/3 qismi** band bo'lishi mahsulot yetishtirishni ko'paytirish imkonini yaratadi.

Og'ir g'ildirakli **plug**ning tarqalishi g'allani ekishdan oldin yerni 2 – 3 marta haydash uchun imkoniyat yaratadi. **Bo'yinturuq**ning kashf etilishi esa plugni otga qo'shib yerni haydashni tezlashtiradi. Hosildorlikning oshishi dehqon xo'jaligida ortiqcha mahsulotning ko'payishiga va uni hunarmandchilik buyumlariga ayirboshlashga yo'l ochadi.

Hunarmandlar tayyorlaydigan buyumlar turi, soni, sifati oshib boradi. Lekin qishloqda feodal hokimiyatning bo'lishi hunarmandning erkinligini cheklagan. Natijada ular qishloqlardan qochib, o'z buyumlarini tayyorlash va sotish imkoniyati bo'lgan joylarga keta boshlaydi.

O'rta asr shaharlari. Yevropada shaharlarning paydo bo'lishi va yuksalishi turli mamlakatlarda turlicha kechdi. **Venetsiya, Genuya, Florensiya, Marsel, Tuluza IX – X asrlar**dayoq yuksala boshlaydi. Vizantiya va Sharq mamlakatlari bilan O'rta yer dengizi orqali savdo yo'lida joylashgani bu shaharlarga qo'l keladi. **Fransiyaning shimoli**da, **Niderlandiya, Angliya va Germaniya**da yangi shaharlar **X – XI asrlar**dan vujudga keladi. **Vengriya, Boltiqbo'yi, Rus yerlari**da esa shaharlar **XII – XIII asrlar**dan ko'payadi. Yevropa shaharlari turli asrlarda vujudga kelishining asosiy sababi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi farqlardir. Shaharlar, eng avvalo, xavfsizlik, dushman hujumidan himoyalanishga qulay, qolaversa, hunarmandlar o'zlari yasagan buyumlarni sota olish imkoniyati bo'lgan joylarda quriladi.

Shaharlar havoti. Shaharlar ko'pincha feodallar yerida vujudga kelgan. Dastlab feodallar o'z yerlaridagi shaharlarga homiylik qilib, ko'chib kelgan hunarmandlarni soliqlardan ozod etgan. Ammo shaharlar o'sib, boyib borishi bilan, xo'jayinlar ulardan ko'proq daromad olishga intilganlar. Feodallarning jabri hunarmandchilik va savdoning yuksalishiga to'sqinlik qila boshlaydi. Natijada shaharliklar **senyor** hukmidan ozodlikka chiqishga intilganlar. Ko'pincha shaharlar o'z erkinligini to'lov, pul evaziga qo'lga kiritgan. Bunday imkoniyat bo'lmaganda, ozodlik uchun qo'zg'olon yo'li tutilgan. Fransiyaning qator shaharlarida **XII – XIII asrlar**da senyorlarga qarshi kurash bo'lib o'tadi.

Monastir va qasrlarda yashovchilar hunarmandlarga buyurtmalar bergani, dushman xavf solganida yashirinish imkoniyati bo'lishi ularning atrofida shaharlar shakllanishiga sabab bo'lgan. Yevropadagi **Myunster, Sen-Gallen, Sen-Dene** shaharlari monastirlar, **Strasburg, Gamburg, Augsburg** feodallar qal'alari atrofida, **Padeborn, Bremen,**

Sverbryukken, Bryugge daryo sohillari bo'ylarida, ko'priklar yonida barpo qilingan.

Shaharlarning ko'rinishi. Dastlab shaharlar qishloqlardan **aholisining ko'pligi** bilangina farq qilgan, xolos. Shaharlar atrofi minorali mudofaa devori, suv to'ldirilgan xandaqlar bilan o'ralgan. Qo'riqchi-soqchilar minoralarda tun-u kun almashib turgan. Dushmandan himoyalanish maqsadida shahar darvozalari va ko'priklari mustahkam temirdan yasalgan. Darvozalar ichidan mahkam tambalangan. Kechasi xandaqlar ustidagi ko'priklar ko'tarib qo'yilgan va shahar darvozasi yopilgan.

Shahar markazida bozor maydoni, uning yonida ibodatxona joylashgan. Shahar kengashi binosi – **ratusha** ham shu yerda qurilgan. Shahar mavzelari alohida dahalarga bo'lingan. Dahalarning har birida ma'lum kasb-kordagi hunarmandlar yashashgan.

Shahar aholisi. Shaharlar aholisining aksariyat qismini hunarmandlar, savdogarlar, hammol, aravakash, sartaroshlar tashkil qilgan. Yirik shaharlarda boy zodagonlar, feodallar, amaldorlar, tabiblar, ruhoniylar ham talaygina bo'lgan. Shahar aholisining katta qismi dehqonchilik bilan shug'ullanishda davom etgan. Qal'a devori ortida ekinzorlar, bog'lar, poliz hamda qo'y, qoramol, otlar o'tlab yurgan yaylovlar joylashgan.

Yevropa o'rta asr shaharlari aholisi ko'p bo'lmagan. Ko'pchilik shaharlar aholisi **3 – 5 ming**dan ortmasdi, **XIV – XV asrlar**da ham **20 – 30 ming** kishi yashagan shaharlar yirik hisoblangan. Eng yirik shaharlar **Parij, Konstantinopol, Milan, Florensiya, Kordova, Sevilya**da **80 – 100 ming** aholi yashagan.

Shahar boylari o'z uylarini bir necha qavatli qilib tosh va marmardan qurgan. Ularning atrofida oddiy xalqning poxol yoki cherepitsa bilan yopilgan pastqam kulbalari joylashgan. Yil sayin shaharlarda kambag'allar soni oshib borgan. Ular boy savdogarlar va hunarmandlarning eng og'ir yumushlarini bajarganlar. Urushlar, turli yuqumli kasalliklarning tarqalishi shaharlarda tilanchilik va o'g'rilik bilan shug'ullanadigan ko'plab mayib-majruh, nogiron kishilarning to'planishiga olib kelgan. Epidemiyalar paytida boylar o'zlarining dala hovlilarida jon saqlaganlar. Ular shaharga qaytishlaridan avval uylariga kambag'allardan yashashga qo'yib, u kasallikka chalinmasagina, ko'chib kelganlar. Qurg'oqchilik-ocharchilik yillarida shaharlar tevarak-atrofdan kelgan minglab och, kambag'allarga to'lib ketardi. Shahar hokimlari ularni shahardan haydab yuborish haqida buyruqlar chiqargan.

Hunarmandchilik va sexlar. Shaharlar xo'jaligi asosi hunarmandchilik bo'lgan. Hunarmand ishlab chiqaruvchi ish qurollari egasi bo'lib, xo'jali-

gini mustaqil yuritgan. Ular bozorlarni o'z buyumlari bilan ta'minlaganlar. Ustaning mehnati, barcha ishlar qo'lda bajarilgani uchun, nihoyatda mashaqqatli bo'lgan. Xususan, temirchi omoch tishini tayyorlash uchun qip-qizil cho'g' bo'lib turgan temirni qo'rdan ombir bilan olib, sandon ustiga qo'ygan va kerakli shaklga keltirguncha uni bolg'alagan. Ma'lum kasb ustalari o'z uyushmalari – **sexlar**ga birlashganlar.

Ustalarning umumiy yig'ilishida hamma bajarishi majburiy bo'lgan **sex nizomi** qabul qilingan. Nizom talabiga binoan, buyumlar faqat ma'lum namuna bo'yicha yasalgan. Sexni boshqarish uchun saylangan **oqsoqol** hunarmandlarning nizomga rioya qilishini, tayyorlangan buyumlarning sifati va sonini nazorat qilgan. Nizomda ustaning dastgohlari, o'quvchi-shogirdlari, xalfalari soni belgilab qo'yilgan. Bu xildagi tadbirlar ustalar uchun bir xil sharoit yaratish, raqobatga yo'l qo'ymaslik maqsadida qo'llanilgan. Tayyor buyumlar narxi ham sex oqsoqoli tomonidan belgilangan.

Aksariyat hollarda ustaning 1 – 2 ta xalfasi, bir nechta shogird-o'quvchisi bo'lgan. Ularning o'zaro munosabatlari ham sex tomonidan nazoratda tutilgan. Xalfalik muddati kasbning murakkabligiga qarab **2 – 7 yil** bo'lib, nodir buyum (shedevr) yasash va uni sex oqsoqoli sinovidan o'tkazish bilan tugagan. **Germaniya**da xalfa ziyofat uyushtirib, so'ng ustalikka ruxsat olgan.

Shaharlar hayotida sexlarning o'rni. Sex o'z a'zolarining bayramlarini tashkil qilgan. Vafot etgan ustaning oilasini qo'llagan. Sexlar shaharni qo'riqlashda, urushlar paytida mudofaada alohida bo'linma tarzida qatnashgan. Sexlarning o'z gerbi, bayrog'i, ibodatxonasi, ba'zida alohida qabristoni ham bo'lgan. Dastlab ishlab chiqarishning rivojlanishiga xizmat qilgan sexlar **XIV – XV asrlar**dan unga to'sqinlik qila boshladi. Shaharlarda ustalarning ko'payib borishi ular o'rtasida raqobatni kuchaytirdi. Hunarmandlar va savdogarlar orasidan badavlat sex boshliqlari ajralib chiqdi. Yevropada sexlarning ham tabaqalanishi ro'y berib, zargarlik, movutchilik va boshqa boy sexlar vujudga keladi. Bu jarayonlar **Florensiya, London, Bristol, Parij, Bazel** kabi yirik shaharlarda boshlanadi.

Hunarmandlar xalfalarning o'sib ustalikka o'tishiga to'sqinlik qila boshlaydi. Natijada **10 – 12 yillab** ustachilikka o'tolmagan xalfalar tabaqasi vujudga keladi. Bu hol xalfalarning birodarlik jamiyatlarini tuzib, o'z haq-huquqlari, **14 – 16 soat** davom etadigan ish vaqtini qisqartirib, mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun kurashini kuchaytiradi. Manbalarda yozilishicha, **XIV – XV asrlar**da **Florensiya, Perudja, Siyena, Kyoln**da shahar kambag'allari qo'zg'olonlari bo'lib o'tadi.

7.2. O'RTA ASRLARDA TOVAR ISHLAB CHIQARISHNING YUKSALISHI. BOZORLAR VA YARMARKALAR

Tovar xo'jaligining paydo bo'lishi. Sexlar nazoratiga qaramasdan, hunarmandlar savdo uchun tayyorlagan buyumlari soni ko'paygan. Natijada xomashyoga va qishloq xo'jalik mahsulotlariga talab ham oshib boradi. O'z navbatida, yirik yer egalari va dehqonlarning yetishtiradigan mahsulotlari ko'payishidan manfaatdorligi oshib boradi. O'z mahsulotlarini sotib, hunarmandchilik buyumlarini xarid qiluvchilar ko'paya boshlaydi. Yirik shaharlar faqat atrofdagi viloyatlargina emas, chet mamlakatlar bilan ham savdo aloqalarini o'rnatadi. Ilk o'rta asrlardagi **natural xo'jalik** o'rnini **tovar xo'jaligi**ga bo'shata boshlaydi. Savdoning jonlanishi yo'llarni yaxshilashni talab etadi. Fransiyada, qirol farmoniga binoan, asosiy yo'llarga tosh yotqizila boshlanadi. Daryolar ustida yog'och va toshdan ko'priklar qurish ishlari yo'lga qo'yiladi. Savdoning yuksalishi kemasozlik va dengizchilik san'atining o'sishiga omil bo'ladi.

Sharq mamlakatlari bilan savdo. **Suriya, Misr, Eron va O'rta Osiyo**gacha borgan yevropalik savdogarlar Sharq bozorlaridan shoyi gazlamalar, zeb-ziynat buyumlari, ziravorlar xarid qilardilar. G'arb va Sharq mamlakatlari orasidagi aloqalar yuksalishida Xitoydan boshlangan Buyuk ipak yo'lining ahamiyati beqiyos edi. Bu karvon yo'li O'rta yer dengizining sharqiy sohiliga qadar davom etgan.

G'arbiy Yevropada **XIII – XV asrlar**da **Ispaniya, Italiya, Janubiy Fransiya**ni dengiz orqali **Vizantiya hamda Osiyo mamlakatlari** bilan bog'laydigan **Levant,** shimolda Boltiq dengizi orqali **London, Bryugge, Lyubek, Novgorod** shaharlarini bog'laydigan **Shimoliy savdo yo'llari** harakatda bo'lgan. Shimoliy savdo yo'li bo'ylab joylashgan Germaniyaning **70 dan** ziyod katta-kichik shaharlari **Ganza shaharlar ittifoqi**ga kirgan. Levant yo'lida joylashgan **Venetsiya va Genuya** kuchli dengiz floti tuzishgan, ularning savdodagi raqobati ba'zida urushlarga ham aylangan.

Savdogarlar va bozorlar. Shaharliklar hayoti faqat to'qnashuv, isyonlardan iborat bo'lmagan. Ularda harakatchan, ishbilarmon odamlar yashagan. Shaharliklar o'z foydasiga mol sotishni, kimga qarzga pul berishni, aql bilan nimaga pul sarflashni yaxshi bilganlar. Tinib-tinchimas savdogarlar boyib ketish maqsadida uzoq va xatarli sayohatlarga chiqishgan.

O'rta yer dengizi sohillari bo'ylab italiyalik savdogarlar o'zlarining savdo manzilgohlari – **faktoriyalar** tizimini yaratishgan. Ularning ko'pchiligi genuyalik va venetsiyaliklar bo'lishgan. Bu dengiz respublikalari ajoyib savdo va harbiy flotlariga ega bo'lishgan. Ularning kemalari Yaqin Sharq-

dan Yevropaga qimmatbaho mollar: shoyi matolar, chinni idishlar va boshqa narsalarni olib o'tardi.

Venetsiyalik savdogarlar **Pololar** oilasi vakillari **XIII asr**da mo'g'ullar xonining Osiyoning ichkarisidagi qarorgohiga yetib boradi. **Marko Polo 25 yil** davom etgan sayohatining **17 yil**ini Xitoyni egallagan mo'g'ullar xoni **Xubilay** saroyida xizmatda o'tkazib, yevropaliklardan birinchi bo'lib bu sirli o'lkalarni o'z kitobida tavsiflaydi.

Yevropaliklar faqat **XIX asr**dagina **XIII asr**da Marko Polo sayohat qilgan o'lkalarni o'z ko'zlari bilan ko'radilar. Marko Poloning kitobidagi Sharq mamlakatlarining afsonaviy boyliklari **200 yil**dan so'ng genuyalik dengizchi **Xristofor Kolumb**da shunchalik katta taassurot qoldiradiki, u nima bo'lganda ham Hindistonning boy sohillariga yetishga qaror qiladi.

Yevropaning aksariyat shaharlarida dastlab bozorlar haftaning **bir-ikki kun**ida bo'lgan. Doimiy bozorlar faqat yirik shaharlarda uchragan. Mol ayirboshlash va savdoning o'sishi shaharlarda bozorlar qurilishiga ehtiyoj tug'diradi. Jumladan, Londondagi birinchi **yopiq bozor – Blekuelxoll 1397-yili** qurib bitkazilgan. Bozorlar ma'lum buyumlar yoki mahsulotlarni sotishga ixtisoslasha borgan. **Tuluza** (Fransiya)da **1203-yili g'alla bozori** ishga tushadi. Shaharda boshqa bozorlar ham bo'lib, birida vino, boshqasida mo'yna, teri, poyabzallar sotilgan.

Banklar, yarmarkalar va birjalar. Dastlabki **banklar XIV – XV asrlar**da Italiyaning yirik shaharlarida paydo bo'ladi. Yarmarkalar mol ayirboshlashning kengayishiga xizmat qilgan. Yarmarkalarni yuksaltirish maqsadida hukmdorlar turli imtiyozlar (xususan, yo'l solig'ini vaqtinchalik bekor qilish) berishgan. Yarmarkalar savdo-sotiqdan tashqari xalq sayi llari, bayramlari markaziga ham aylangan. Unda sayyor artistlar tomonidan musiqa, qo'shiqlar, sahna tomoshalari ko'rsatilgan. Atrof qishloqlardan kelgan aholi uchun bu tomoshalar, mushakbozliklar yilda bir marta bo'ladigan ko'ngilochar tadbir hisoblangan.

Sen-Jermen (Parij) yarmarkasida spektakllar qo'yilgan. **Venetsiya** yarmarkasida ikki hafta davomida **100 ming** kishi qatnashgan. Manbalarda **lionlik** qahvaxona egalaridan birining yarmarkaga kelgan bitta boy yaxshi xonada yashashni istagan savdogarga o'nta eng arzon xona yoki bepul tunash istagidagi kishilar to'g'ri kelishi haqidagi xotiralari saqlanib qolgan. O'rta asrlar Yevropasining eng mashhur yarmarkasi Fransiyaning shimoli-sharqidagi **Shampan grafligi**da (markazi **Reyms shahri**) bo'lgan.

Savdoning yuksalib borishi natijasida Yevropada turli mamlakatlar savdogarlari to'planib pullarini almashtiradigan joylar – **birjalar** vujudga

keldi. Birjalar **Bryuggeda 1409 yili, Antverpenda 1460 yili, Lionda 1462-yili** tashkil topgan. Shu tariqa **XI – XV asrlarda** Yevropada hunarmandchilik va savdoning yuksalishi natijasida bozor, banklar, birjalar vujudga keldi.

7.3. OSIYO MAMLAKATLARINING O'RTA ASR SHAHARLARI. HUNARMANDCHILIK VA SAVDO

O'rta asr shaharlari. Sharq mamlakatlari o'rta asrlarning rivojlangan davriga turli paytda: Xitoy, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada **VIII asrning ikkinchi yarmida**, Yaponiya **IX – X asrlarda**, Hindiston **XI – XIII asrlarda** o'tgan. Bu hol har bir mamlakatda ishlab chiqarish taraqqiyoti turli darajada bo'lgani bilan izohlanadi.

Dastlab ma'muriy markaz yoki harbiy qal'alar sifatida tashkil topgan o'rta asr shaharlari hunarmandchilik va savdoning yuksala borishi bilan juda tez rivojlangan. Osiyoning eng yirik shaharlari **Chanan, Loyan, Xanchjou, Kamakura, Kioto, Osaka, Dehli, Bag'dod, Buxoro** va **Samarqand** edi. Ularda maktablar, kutubxonalar tashkil qilingan, olimlar, shoirlar, rassomlar, musiqachilar yashab ijod qilganlar. Osiyo shaharlari davlat yerlarida vujudga kelganidan, Yevropa shaharlaridan farqli o'laroq, yirik zamindorlarga qarshi kurash olib bormaganlar.

Osiyoning yirik davlatlaridan biri Xitoyda o'rta asr shaharlarining vujudga kelishi va rivojlanishi **IX – XIII asrlarga** to'g'ri keladi. Shaharlar Xitoyda imperatorga bo'ysungan. Shaharlar taraqqiyotiga istilochilik urushlari to'sqinlik qiladi. Jumladan, Hindiston va uning shaharlari o'rta asrlarda juda ko'p marotaba chet el bosqinchilari hujumlariga uchragan. Xususan, **Pratilar** rojasi qo'shinlari **1018-yili Mahmud G'aznaviy** qo'shinidan mag'lub bo'lganida, poytaxt **Kanuja** talanib, vayron etiladi. Tinimsiz urushlar Hindiston shaharlari yuksalishiga to'sqinlik qiladi.

Yaponiyaning o'rta asr shaharlari turli joylarda: **Nara, Xeyyan** budda ibodatxonalari atrofida; **Otsu** aloqa bekati va yo'l ustida; **Xyogo, Sakai** dengiz bo'yida; **Nagoya** qal'a atrofida vujudga keladi. **Xeyyan** shahri **1177-yili** yong'in natijasida vayron bo'ladi. Bu shahar qayta tiklanganidan so'ng **Kioto** nomini olib mamlakat poytaxtiga aylanadi. **Kioto** ko'p asrlar davomida Yaponiyaning iqtisodiy, diniy va madaniy markazi bo'lib qoladi.

Shaharlar hayoti. Osiyo shaharlari ham o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Jumladan, Xitoyda **XI asrdayoq** shaharsozlik yuksak darajaga ko'tariladi. Imperator va zodagonlar hashamatli saroylar qurdirgan. Mamlakatda yog'och tanqis bo'lganidan, qurilishda g'isht, sopol va

toshdan keng foydalanilgan. Ayni shu davrda *«tog'ga yog'ochga ketgan ming kishidan faqat besh yuzi qaytib keladi»* naqli paydo bo'ladi. Natijada imperator yangi saroy qurishini e'lon qilishi dehqonlar uchun og'ir sinovlar boshlanishidan darak bergan.

Xitoyning yirik shaharlarida, G'arbiy Yevropadan farqli o'laroq, maishiy xizmat ko'rsatish yaxshi yo'lga qo'yilgandi. Aholi sopol quvurlar orqali toza suv bilan ta'minlangan, shaharni axlat va chiqindilardan tozalash, o't o'chirish ishlari yo'lga qo'yilgan. Osiyo shaharlari aholisi Yevropanikiga nisbatan ko'proq bo'lgan. Xususan, Xitoyda o'rta asrlardayoq aholi zich yashagan. **XVI asr**da **Pekinda 1 mln, Nankin**da undan ham ko'p aholi bo'lgan. Eronning **Isfahon, Sheroz** shaharlarida **200 mingdan ortiq** kishi yashagan.

Osiyoning musulmon davlatlari shaharlari umumiy reja bo'yicha: markazda **ark**, shahar hokimi **qal'asi**, uning atrofida **shahriston**, asosiy aholi yashaydigan guzarlari bilan qurilgan. Shahar atrofida **rabod** bo'lib, unda hunarmandlar guzar va mahallalari joylashgan. Sharq shaharsozligida asosiy qurilish ashyolari tosh va g'isht edi. Hukmdorlar, boylar o'z saroylari, hovli-joylarini pishiq g'isht va marmardan, kambag'allar esa paxsa, guvaladan qurganlar. Kambag'allarning uylari pishiq, mustahkam bo'lmay, tez-tez ta'mirlashni talab qilgan. Bunday uylar merosga qoldirilganda, odatda, buzilib, o'rniga yangisi qurilgan.

Hunarmandchilik. Sharq hunarmandlari ipak gazlamalari, zeb-ziynat buyumlarining katta qismini chet mamlakatlarga sotish uchun ishlab chiqarganlar. Xitoylik ustalar qog'ozi, ipak gazlamalari, chinnisi bilan shuhrat qozongan. Savdogarlar **Eron va Misr**da tayyorlangan zig'ir-poya, paxta va jundan to'qilgan gazlamalarni ham yuksak baholaganlar. **Damashq** po'latidan yasalgan qurol-aslahalar esa Sharq va G'arbda bir xilda shuhrat topgan. Kitoblar uchun eng sifatli muqovalarni **Shimoliy Afrika** shaharlari ko'nchi-ustalari yasagan.

Osiyo va Shimoliy Afrika shaharlarida ham hunarmandchilik sexlari shaharlar bilan bir paytda vujudga kelgan. Sharqda dastlab shahar aholisi soliqlardan ozod qilingan. Vaqt o'tib savdogar va hunarmandlardan ham turli soliqlar olina boshladi. **Arab xalifaligi, Yaponiya, Xitoy**da usta va savdogarlardan soliqlarni sex oqsoqollari yig'ib bergan. *Xitoyda barcha ustalar sex a'zosi bo'lishlari majburiy etib qo'yilgan.* Hunarmandchilikning eng muhim sohalari Xitoyda yuksak taraqqiyotga erishgan. Xususan, faqat xitoyliklar **600 – 700 kishi** va yana ko'plab yuk sig'adigan yirik kemalar – **jonkalar**ni qurishgan.

O'rta Osiyo shaharlarida ham hunarmandchilik sexlari bo'lgan. Turli

sexlar ustalarining nizomlari bizgacha yetib kelgan. Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan O'rta Osiyo shaharlari tranzit savdo markazlari ham edi. Chet ellik savdogarlar **Samarqand** qog'ozi va gazlamalarini, **G'ijduvon** kulolchiligi buyumlari-yu **marvlik** ustalar gazlamalari, kiyimlarini yuqori baholaganlar.

O'rta asrlarda eronlik ustalar parcha va ipak gazlamalari, jun gilamlari bilan shuhrat qozonganlar. Erondan savdogarlar po'latdan yasalgan qurol-aslahalar, mis va kumushdan ishlangan idishlarni xarid qilganlar. Xalifalikka kirgan Yaqin Sharq mamlakatlarida ham savdo va hunarmandchilik yuksak taraqqiy etgan. Geograf olim **Al-Muqaddasiy Suriya**dagi bozor va savdo yaxshi daromad keltirgani haqida yozadi.

Savdo. Arab xalifaligi, Tan imperiyasi va Dehli sultonligi singari yirik markazlashgan davlatlarning paydo bo'lishi savdoni yuqori daromad manbayiga aylantirdi. Uzoq Sharqdan o'rta dengizga qadar hududlarda faqat karvon yo'llari orqali savdo olib borilmagan. Fors ko'rfazi va Qizil dengiz orqali arab, hind, xitoy savdogarlarining o'nlab kemalari suzgan. Osiyodan farqli o'laroq, Afrikaning iqtisodiy qoloqligi, undagi uzluksiz urushlar qit'aning xomashyo, tuz, oltin, fil suyagi, ziravorlar, qisman qullar manbayiga aylanishiga sabab bo'ladi.

Osiyo bozorlari o'zining gavjum va sershovqinligi bilan ajralib turgan. O'rta asr bozorlari ko'pincha shahar darvozalari yaqinida joylashgan. *Shahar ichida kichkina bozorlar bo'lib ular ma'lum mahsulotlarni sotishga ixtisoslashgan.* O'rta Osiyo va Erondagi yirik bozorlar bir qancha rastalarga bo'lingan. Har bir rasta ma'lum xildagi mol bilan shug'ullanadigan savdogarlarni yoki muayyan kasb bilan shug'ullanuvchi hunarmandlarni birlashtirgan. Ilk o'rta asrlardayoq **Bag'dod**da, **Ishbiliya** (Sevilya) va **G'arnota** (Granada, Ispaniya)da mardikor bozorlari bo'lgan. Sharq bozorlarida hunarmandchilik ustaxonalari, do'konlari ham joylashgan. Ayrim hollarda ko'chma bozorlar ham tashkil qilingan. Unga sayyor savdogarlar va atrofdagi qishloqlarning mahsulotlarini sotish ehtiyoji bo'lgan aholisi to'plangan.

7.4. XRISTIAN CHERKOVI O'RTA ASRLARDA

Dinning Yevropada tarqalishi. Xristian dini **IV asr**dan german qabilalari orasida ham tarqala boshlaydi. Franklar qiroli **Xlodvig** xristianlikni **V asr oxiri**da qabul qiladi. Keyingi asrda yangi dinga **vestgotlar**, **Pireney yarimorolining tub aholisi** ham o'tadi. Angliya va Irlandiya monastirlaridan yetishib chiqqan serg'ayrat rohiblar **VI – VIII asrlar**da

Yevropaning eng chekka joylariga ham borib aholini xristianlikka o'tkazganlar. **Skandinaviya** aholisi (**shvedlar, norveglar, finlar**) bu diniy ta'limotni **IX asr**dan qabul qiladi.

Vengerlar **IX asr**da, polyaklar **X asr**da xristianlikka o'tsalar, Kiyev Rusi va Bolgariya **X asr oxirlari**da xristianlikning pravoslav mazhabini Vizantiyadan qabul qilgan. Eng oxirida Yevropaning shimoli-sharqidagi **polab slavyanlari** (**XII asr**da), **pruss va litva qabilalari** (**XIII – XIV asrlar**da) cho'qintirilgan.

Cherkovning bo'linishi. Rim imperiyasining **395-yili** G'arbiy va Sharqiy Rimga bo'linishi cherkovning ham ajralishiga olib keldi. Frank qiroli ko'magida **756-yili** Italiyada Rim papalari davlati – **Papa viloyati** tashkil topadi. Vizantiya cherkovi esa avvaldan davlatga bo'ysunuvchi, Konstantinopol patriarxi boshqaradigan diniy tashkilotga aylanadi.

Sharqiy Yevropada bolgarlarni cho'qintirishdagi raqobat **1054-yili** xristian cherkovining rasman **g'arbiy – katolik («jahon») va sharqiy – pravoslav («sof din», «chin e'tiqod»)** cherkovlariga bo'linishiga olib keldi. **XI asr o'rtalari**dan rim-katolik va yunon-pravoslav cherkovlari mustaqil faoliyat olib bormoqda. Mazhablar orasidagi tafovutlar udum-marosimlarda ham mavjud. Xususan, katoliklarda ibodatdan avval faqat ruhoniylar bir chimdim non va bir ho'plam vino bilan poklansalar, pravoslavlarda barcha dindorlar bunday huquqqa ega bo'lishgan. Katoliklar **beshta**, pravoslavlar **uchta** barmoqlari bilan cho'qinganlar. G'arbda cherkov va'zlari **lotincha**, Sharqda esa **yunon** tilida olib borilgan. Katolik cherkovi barcha ruhoniylarga uylanishni taqiqlasa **(«selebat»)**, pravoslavlarda faqat rohiblar oila qurmagan.

Cherkov va davlat. Yevropada **V asr**da boshlangan feodal munosabatlardan cherkov ham chetda qolmadi. Ekinzorlaming **1/3 qismi** ibodatxona va monastirlar qo'lida to'planadi. Davlat soliqlaridan ozod etilgan bu yerlarda cherkovdan ijaraga yer olgan 100 minglab qaram dehqonlar mehnat qilgan. Bundan tashqari, xristian cherkovi aholidan **ushr** (**hosilning 1/10**) solig'ini undirgan. Aholi, shuningdek, bolani cho'qintirish, nikohdan o'tganida, marhumga ta'ziya marosimi o'tkazilganda va boshqa udumlar uchun ham pul to'lagan. Cherkovga tushadigan daromadning talay qismi Rim papasi xazinasiga yuborilgan. Katolik cherkovi, shuningdek, **indulgensiya** (lotincha **«afv»**) – gunohlardan kechish yorliqlarini sotish hisobiga ham boyigan. Cherkovning badnafsligi insonning faqat qilgan gunohlari emas, balki qilishi mumkin bo'lgan gunohlarini ham avvaldan ma'lum pul evaziga kechishida ko'rinadi.

Yevropada cherkov davlatning muhim tashkilotiga aylanib, uning

siyosiy va iqtisodiy faoliyatiga aralashgan, sud vazifasini bajargan. Cherkov qo'llagan jazoning eng og'iri **interdikt** – mamlakatda ibodat va marosimlarning vaqtinchalik taqiqlanishi bo'lgan. Katolik cherkovi o'z qudrati cho'qqisiga **Innokentiy III (1198 – 1216)** papaligi davrida erishdi. Uning: *«Oy o'z yog'dusini Quyoshdan olganidek, qirol hokimiyati o'z jilosini papalikdan oladi»*, – degan so'zlari amalda qo'llaniladi. Rim papasi german, fransuz va ingliz hukmdorlarini **interdikt** orqali tavba-tazarru qildiradi. Papaning hukmini aholiga o'tkazishdagi tayanchlardan yana biri rohiblar bo'lgan. Dastlabki monastirlar **IV asr**dan tashkil etilgan. Rohiblar toat-ibodatdan bo'sh paytlarida xattotlik bilan shug'ullanganlar. Ayrimlari esa monastir qoshidagi maktablarda bolalarni o'qitishgan.

Dahriylarga qarshi kurash. Cherkov va uning ta'limotiga qarshi kishilar **yeretiklar** (yunoncha **«dahriylar»**) deb nomlangan. Bunday kishilar cherkovning boyliklari, hashamatli udum, marosimlariga qarshi chiqib, sodda cherkov g'oyasi tarafdorlari bo'lishgan. Yeretiklarga qarshi kurashish uchun cherkov sudi – **inkvizitsiya** (lotincha **«qidiruv»**) tuziladi. Xristian cherkovi dushmanlarini izlab topish va jazolash bilan shug'ullangan inkvizitsiya o'z qudrati cho'qqisiga papa **Grigoriy IX (1227 – 1241)** davrida erishadi.

Inkvizitsiya faoliyati **Ispaniya**da, ayniqsa, keng tus oladi. Unda mahkum etilganlarni gulxanda yondirish – **«autodafe»** (portugalcha **«e'tiqod yoki din ishi»**) ham qo'llaniladi. Qatl jarayonini cherkov bayram tomoshasiga aylantirib, unda qirol va saroy amaldorlari, zodagonlar va minglab oddiy xalq vakillari qatnashgan.

7.5. SALIB YURISHLARI VA UNING MAQSADLARI

Salib yurishlari. Salib yurishlari G'arbiy Yevropa feodallarining Yaqin Sharqdagi bosqinchilik va talonchilik urushlari edi. Bu yurishlar **1096 – 1270-yillar** oralig'ida bo'lib o'tgan. Salib yurishlari katolik cherkovi tomonidan **sakkiz marta (1. 1096 – 1099. 2. 1147 – 1149. 3. 1189 – 1192. 4. 1202 – 1204. 5. 1217 – 1221. 6. 1228 – 1229. 7. 1248 – 1245. 8.1269 – 1270)** tashkil qilingan. Sharqdagi yerlarni egallash orqali cherkov o'zining ta'sirini kuchaytirishni maqsad qilgan.

Sharqda **XI asr oxiri**da vujudga kelgan sharoit salib yurishlari uchun qulay bo'lgan. Kichik Osiyo yarimorolini **saljuqiy turklar** deyarli to'liq qo'lga kiritgan. Bu hududdan G'arb mamlakatlari ziyoratchilari Falastinning muqaddas joylariga, rivoyatlarga ko'ra, Iso payg'ambar dafn etilgan Quddusga boradigan yo'llar o'tardi. **Quddus** esa deyarli besh asrdan

buyon musulmonlar qo'lida edi. Mahalliy hukmdorlar va aholining ziyoratchilarga munosabati yomon bo'lmasa-da, **XI asr oxiri**dan boshlangan musulmon hukmdorlarining o'zaro urushlari xristianlar ziyoratlarini tobora xavfli tadbirga aylantira borardi.

Vizantiya imperatori Rim papasi bilan kelishmasa-da, xristianlar dushmanlari bilan kurashish uchun jangchilar yuborishini so'rab G'arbga murojaat qiladi. Papa **Urban II 1095-yili** Fransiya janubidagi **Klermon** shahrida cherkov yig'ini soborga to'plangan minglab ruhoniylar, ritsarlar va oddiy xalq vakillari huzurida nutq so'zlaydi. U Quddusdagi **«payg'ambar qabri»**ni musulmonlardan ozod etishga chaqiradi. Papa yurishda ishtirok etganlarga ularning gunohlari kechirilishini, halok bo'lganlar jannatga – **«arshi a'lo»**ga tushishini va'da qiladi. **Urban II** «muqaddas yer»ning boyliklari va hosildor ekanligini ham eslatib o'tadi. *Falastinda sut va asal daryo bo'lib oqishi, Quddus yerning kindigi, jannatmakon hosildor yerli o'lka* ekanligini ta'kidlaydi.

Bu so'zlarni xaloyiq *«Xudoning irodasi shu!»*, *«Xudoning xohishi shu!»* kabi hayqiriqlar bilan qarshilab, gazlamadan **«but»**, ya'ni **«salib»**ning aksini qirqib o'z kiyimlariga tika boshlaydilar. Ayni shu sababli yurish qatnashchilari **«salibchilar»**, yurishlarning o'zi esa **salib yurishlari** nomini oladi. Katolik cherkovi yurish ishtirokchilariga ayrim yengilliklar, jumladan, dehqonlarga qarzlari kechilishini, ularning oilalari cherkov himoyasiga o'tishini e'lon qiladi.

Salib yurishlari ishtirokchilarining maqsad va vazifalari. **Dehqonlar** *salib yurishlarida qatnashish orqali o'zlarining og'ir hayotidan qutulib,* Sharqda mulkka va baxtli hayotga erishishga umid qilganlar. Salibchilarning ko'pchiligini **ritsarlar** tashkil etib, ular ko'pincha boy bo'lmagan xonadonlardan edilar. Oilaning kichik o'g'illari, **mayorat** tizimi bo'lganidan, ya'ni meros katta o'g'ilga qoldirilgani sababli, ota-onalari merosining katta qismiga umid qilmasalar ham bo'lardi. Bu holatdagi ritsarlar o'zlariga shon-shuhrat va boylik istab yo'lga chiqqanlar. Sharqqa **gersoglar, graflar**, hatto ayrim **qirollar** hamda **imperatorlar** ham jo'naydilar. Ular o'zlariga yangi hududlar va fuqarolarni bo'ysundirishni maqsad qilganlar. Qolaversa, salib yurishlarida ishtirok ularga Yevropada hurmat-e'tiborni oshirardi.

Qo'shin bilan **savdogarlar** ham yo'lga chiqqanlar, ular Sharq mollari bilan savdo qilish orqali tez boyib ketishni orzu qilganlar. Salib yurishi ishtirokchilari faqat foydani o'ylagan deyish xato. **Moddiy manfaat** ularda **«payg'ambar qabri»**ni musulmonlardan xalos etish muqaddas ish ekanligiga ishonch bilan mujassamlashgan.

7.6. DASTLABKI SALIB YURISHLARI

Birinchi salib yurishi. Birinchi salib yurishini rohib **Pyotr Amenskiy** va ritsar **Valter Golyak** tashkil qilishadi. Unda dehqonlar ishtirok etadi. Rohib **Pyotr Amenskiy Fransiya va Germaniya** qishloqlarida yurib aytgan va'zlari minglab dehqonlarning yo'lga chiqishiga sabab bo'ladi. Dehqonlar olomoni yaxshi qurollanmagan, ular yo'l-yo'lakay **Reyn daryosi** sohilidagi shaharlarda yahudiylarga qarshi qirg'inlar uyushtiradi. Salibchilar Konstantinopolga yetib kelganida, Vizantiya imperatori ularni Kichik Osiyoga o'tkazib yuboradi. Bu yerda dehqonlar lashkari turklar pistirmasiga uchrab qirilib ketadi.

Feodallar yurishi. Birinchi salib yurishlariga Fransiya, Italiya va Germaniyaning turli viloyatlaridan ritsarlar to'plangan. Ular yaxshi qurollangan, zarur ozuqa va pul bilan ta'minlangandilar. Vizantiya poytaxti Konstantinopolda **1096-yil kuz**idan to'plana boshlagan ritsarlarni imperator **Aleksey I** vassallik qasamyodini qabul qildirishga erishadi. Uning ma'nosi Yaqin Sharqda tuzilajak xristian davlatlari Vizantiyaga siyosiy qaram bo'lishi lozim edi.

Yurishlar **1097-yil bahoridan 1099-yil yozigacha** davom etib, **Edessa** va **Tripoli grafliklari, Antioxiya knyazligi** va **Quddus qirolligi** tuzilishi bilan yakunlanadi. Salibchilar **Quddus**ni egallashda birgina jome' masjidida **10 ming** musulmonni o'ldiradilar. Yahudiylar o'z sinagogasi (ibodatxona)da yondirib yuboriladi. Qirg'in paytida ko'plab ayollar va bolalar ham halok bo'ladi. *Shaharliklar uyiga bostirib kirgan ritsar eshikka qalqonni osib qo'yar va bu uy barcha jihozlari bilan xo'jayinga o'tganini anglatardi.*

Salibchilar Yaqin Sharqda. Salibchilar tuzgan davlatlarning eng yirigi **Quddus qirolligi** bo'lgan. Yevropadan kelayotgan ritsarlar oqimi xristianlarga istilo qilingan hududlarni **200 yilcha** qo'lda saqlash imkonini beradi. Yaqin Sharqda salibchilar mahalliy dehqonlarni qaramlikka tushiradilar. Yangi xo'jayinlar hosilning **1/3 qism**ini soliqqa ola boshlaydi. Qolaversa, aholi qirolga, xristian cherkoviga ham soliq to'lashga majbur etiladi. Natijada mahalliy aholida salibchilarga nisbatan nafrat kuchayib, qo'zg'olonlar ham bo'lib turadi. Salibchilar orasidagi o'zaro ziddiyatlar, atrofdagi musulmon hukmdorlari tazyiqi ham tobora kuchayib boradi. Yillar o'tib salibchilarning asosiy kuchlari yangi harbiy tashkilotlar – **diniy-ritsarlik ordenlari** bo'lib qoladi.

Diniy-ritsarlik ordenlari. **Falastin**da tashkil etilgan diniy-ritsarlik ordenlari odatdagi rohiblar ordenlaridan tubdan farq qilgan. G'arbda od-

diy rohiblarning asosiy ishi ibodat va mehnat qilish bo'lsa, diniy-ritsarlik ordeni a'zolarining asosiy vazifasi urush edi. Ular nikohga kirmaslikka, kambag'allikda yashashga, cherkovga so'zsiz bo'ysunishga va umrining oxirigacha qo'lida quroli bilan xristian dini dushmanlariga qarshi kurashishga qasamyod qilishgan.

Dastlabki diniy-ritsarlik ordeni **Gospitalyerlar ordeni** bo'lgan. Quddusda salib yurishlari boshlanmasidan oldin avliyo **Ioann Iyerusalimskiy** nomli gospital (**«g'aribxona»**) bo'lib, unda kasal va kambag'al ziyoratchilarga yordam ko'rsatilgan. Gospitalda xizmat qilayotgan rohib-birodarlardan keyinchalik orden tashkil etiladi. Uni ba'zida **Ioanniylar ordeni** ham deyishadi. Musulmonlar Falastinni qaytadan egallaganidan so'ng, orden dastlab **Rodos orol**iga, bir necha asr o'tib **Malta**ga ko'chib joylashadi. Ioanniylar ordeni salib yurishlaridan ancha keyin ham o'z faoliyatini davom ettirgan. Ayrim Yevropa mamlakatlarida orden a'zolari hozirga qadar ehtiyojmandlarga tibbiy yordam ko'rsatib keladilar, lekin hozirgi kunda oddiy xayriya tashkilotidir.

Ikkinchi ritsarlik ordeni dastlab Quddusga kelayotgan ziyoratchilarni himoya qilish uchun tuzilgan **Tampliyerlar** (xramovniklar, **«xram»** – ibodatxona so'zidan) deb nomlangan. U Quddusdagi ritsarlar joylashgan tepalik nomi bilan atalgan. Salib yurishlari paytida bu tepalikda xalifa Umar buyrug'i bilan dastlab qurilgan musulmonlar masjidi joylashgandi. Orden a'zolari harbiy jasoratlari va ishbilarmonligi bilan ajralib turgan. Tampliyerlar xayriya va in'omlar olishdan tashqari sudxo'rlik bilan ham shug'ullangan. Yevropada ularning boyliklari haqida afsonalar to'qilgan. Boylik ordenning **XIV asr boshlari**da taqiqlanishiga olib keladi.

Uchinchi yirik diniy-ritsarlik ordeni Muqaddas Bibi Maryamga bag'ishlangan. Undagi ko'pchilik ritsarlar Germaniyadan bo'lgani uchun uni **Nemis** (lotincha **Tevton**) ordeni deyishgan. Orden Falastinda uzoq qolmagan. Uni **XIII asr boshi**da **venger** zodagonlari qipchoqlar bilan kurashga jalb qilganlar. Keyinchalik tevtonlar **Boltiqbo'yi**ga o'tadilar. U yerda yarim asr davomida orden **prusslar** yurtini to'liq egallab, o'z davlatlarini tuzadilar.

Salib yurishlari katolik cherkovining G'arbiy Yevropada ta'sirli kuchga aylanganini ko'rsatadi. Yurishlar Yaqin Sharqda bir necha xristian davlatlari tuzilishiga olib keladi.

Ikkinchi salib yurishi **1147 – 1149-yillar**i bo'lgan. Unda Fransiya qiroli **Lyudovik VII** o'z qo'shini bilan ishtirok etgan. Qirol yaqinda uylanganiga qaramay, **Klervo** monastiri abbati **Bernar**ning yangi salib yurishlariga otashin chaqiriqlariga javoban yo'lga chiqadi. Qirol o'zi bilan rafiqasi

Eleonorani ham olib ketgan. Lekin bu yurishlar muvaffaqiyatsiz yakun topgan.

Misr sultoni Salohiddin Ayubiy **1187-yili** jihod e'lon qilib salibchilardan Quddusni tortib oladi. Bu voqea Yevropada **3-salib yurishlari (1189 – 1192)** tashkil qilinishiga olib keladi. Ammo german imperatori **Fridrix I Barbarossa**, Fransiya qiroli **Filipp II Avgust** va Angliya qiroli **Richard I Sheryurak** ishtirokidagi mazkur yurishlar ham muvaffaqiyatsiz tugaydi.

7.7. KEYINGI SALIB YURISHLARI: NATIJALAR, OQIBAT VA YAKUN

To'rtinchi salib yurishi (1202 – 1204). **XII asr oxiri**dan papa **Innokentiy III** yangi salib yurishlarini tashkil etishga kirishadi. Salibchilar **Venetsiya** bilan dengiz orqali qo'shinni kemalarda Falastinga olib o'tishga kelishib, **85 ming kumush marka** pul to'lashni zimmalariga oladilar. Kelishilgan pulning deyarli **1/3 qismi**ni to'lay olmagan salibchilar yurishlar boshlanishidanoq Venetsiyaning savdodagi asosiy raqibi **Vizantiya**ga qarshi urush boshlashga majbur bo'ladi. Urushga bahona ukasi tomonidan taxtdan tushirilib, ko'ziga mil tortilgan **Isaak II Angel**ga toj-u taxtni qaytarish bo'ladi.

To'rtinchi salib yurishi qatnashchilari qo'shini Konstantinopol devorlari ostiga kelib tushadi. Salibchilar qo'shini **1204-yil 9 – 13-apre**lda Konstantinopolga hujum boshlaydi. **Yigirma minglik** qo'shin **yarim million** aholisi bo'lgan shaharni egallaydi. Asos solinganidan buyon ilk bor Konstantinopol shahri dushman o'ljasiga aylanadi.

Lotin imperiyasi (1204 – 1261). Lotinlar (vizantiyaliklar salibchilarni shunday nomlaganlar) Vizantiya xarobalarida, zamondoshlari Sharqdagi **Romaniya**, hozirgi tarixchilar **Lotin imperiyasi** deb atagan davlatni tuzadilar. Romaniyaning birinchi imperatori etib salibchilar yo'lboshchilaridan biri – **Flandriya** grafi **Bolduin** saylanadi. Qizig'i, Bolduin o'zini Vizantiya imperatorlari hokimiyatining qonuniy davomchisi, Romaniyani Vizantiyaning davomi deb hisoblagan.

Mahalliy yunonlarning mardonavor qarshiligi tufayli lotinlar Vizantiya yerlarini to'liq bo'ysundirolmadilar. Lotin imperiyasining o'zi ham tez orada bir necha mayda knyazliklarga bo'linib ketadi. **Fessalonika qirolligi, Afina gersogligi, Axeyya knyazligi** va boshqalar Konstantinopol hokimiyatini nomigagina tan olganlar.

Lotinlar bosib olingan hududlarda o'z tartiblarini o'rnata boshlaydilar. Bu davlatda ham G'arbiy Yevropadagi kabi ritsarlar qasrlari qad ko'tardi.

Konstantinopol patriarxi taxtini katolik ruhoniysi egallaydi, dehqonlar ritsarlarga shaxsiy qaramlikka tushadilar. Vizantiyani zabt etgan ritsarlarning ko'pchiligi tez orada vataniga qaytib ketadi. Lotin imperiyasida qolgan ritsarlar hokimiyatni faqat o'zlarining temir intizomi va uyushganligi bilan ushlab turadi.

Vizantiyaning tiklanishi. Bo'ysundirilgan aholi salibchilarni yoqtirmagan, lotinlar esa o'zaro kelishishmagan. Kunlardan birida **nikeyaliklar** harbiy bo'linmasi lotinlarni «qo'rqitish» maqsadida Konstantinopolga keladi. Ayni paytda, lotinlar qo'shini nikeyalarga qarshi dengizdan hujum qilishga ketgan va shaharni himoyasiz qoldirgandilar. Konstantinopol yunonlari nikeyaliklar qo'shini yaqinlashganini eshitib xursandchiliklarini yashirmaydilar. Ularning yordami bilan nikeyaliklar shaharga kirib, poytaxtni osongina egallashgan. Tez orada ortga qaytgan lotinlar shahar qo'ldan ketganiga guvoh bo'ladilar. Nikeyaliklar bilan jangda mag'lubiyatga uchragan lotinlarga kemalarga o'tirib Yevropaga qaytishdan boshqa chora qolmaydi. Nikeya imperatori, Vizantiya vasilevslari so'nggi sulolasi asoschisi **Mixail VIII Paleolog 1261-yil 15-avgust**da Konstantinopolga tantanali kirib keladi. Vizantiya imperiyasi shu tariqa tiklanadi.

Yuqorida qayd etilgan omillar tufayli Vizantiya dunyoning qudratli mamlakatidan **Bolqon yarimorolining bir qismi, Kichik Osiyodagi ayrim hududlar va Egey dengizidagi ba'zi orollar**ni egallagan unchalik katta bo'lmagan yunon davlatiga aylanadi.

Salib yurishlarining tugashi va oqibatlari. **XIII asr**da tashkil qilingan qator salib yurishlari Yaqin Sharqdagi vaziyatni o'zgartirolmaydi. Fransiya qiroli **Lyudovik IX** ning **1269 – 1270-yillar**dagi **sakkizinchi salib yurishlari** so'nggi salib yurishlari bo'ladi. Ko'p o'tmay salibchilarning Sharqdagi mulklari birin-ketin musulmonlar qo'liga qaytadi.

Salib yurishlari yakun topishining asosiy sababi **XIII asr oxiri**dan G'arbiy Yevropa mamlakatlarida boshlangan o'zgarishlar edi. Ishlab chiqarish kuchlari o'sadi. O'rmonlar kesilib ekinzorlarga aylantirila boshlanadi. Qishloq aholisining yersiz bir qismi tobora yuksala borayotgan shaharlarga ketadi. Qirol hokimiyatining kuchaya boshlashi va mamlakatni markazlashtirish siyosati ritsarlarga qirol qo'shinida xizmat qilish imkonini yaratadi. Savdogarlar tinch yo'l bilan savdo-sotiq olib borishning afzalligiga yana bir bor ishonch hosil qiladilar.

Sharqning yuksak madaniyati bilan tanishish Yevropa feodallari turmush tarzini keskin o'zgartirdi. Ularda dabdabali hayotga havas, pulga – boylikka erishish uchun intilish kuchaydi. Natijada Yevropa mamlakatlarida soliqlarni **mahsulot** bilan emas, **pul** bilan olish o'sib

boradi. Ayrim feodallar qaram dehqonlarni to'lov evaziga ozodlikka chiqara boshlaydilar. **XII – XIII asrlar**dan Yevropada **sholi, grechixa, tarvuz, o'rik va limonlar** o'stirila boshlanadi. **Damashq**dan keltirilgan **atirgul**ning «shoh» navlari ko'plab mamlakatlarga tarqaladi. Yevropaning janubida **shakarqamish** yetishtirila boshlanadi. **XII asr**dan Yevropada **shamol tegirmonlari** quriladi. G'arbga nafis gazlamalar: **muslin** (yupqa gazlama), **atlas**, Damashq **shoyilari** keltiriladi. Ulardan ajoyib nafis kiyim-kechaklar tikila boshlanadi. **Aloqa kaptarlari** yordamida xatlarni tashish arablardan o'zlashtirilib, **XII asr**dan yevropaliklar tomonidan ham qo'llanila boshlanadi. Yevropada salib yurishlaridan so'ng **hammomlar** qurish, **hashamatli liboslar** kiyish keng urf bo'ladi.

8-BOB. G'ARBIY YEVROPADA MARKAZLASHGAN DAVLATLARNING TASHKIL TOPISHI

8.1. FRANSIYANING MARKAZLASHUVI

Ijtimoiy munosabatlar. Feodal jamiyatda hukmron toifa vakillarining shaxsiy erkinliklari amalda **cheksiz** bo'lgan. Feodal tarqoqlik davrida Fransiyada qirol o'z xonadoniga tegishli bo'lgan yer-mulklar, ya'ni **domenida** ham to'la xo'jayin emasdi. Qirol hukmida hisoblangan gersog va graflar xalqni uning nomidan boshqarar, zarur paytda sud qilar va jazolardi. Qirolning feodal tarqoqligi sharoitida na qo'shini va na ishonchli amaldorlari bo'lgan.

Fransiyada mulklari yonma-yon joylashgan feodallar o'rtasida uzluksiz urushlar bo'lib turardi. Agar mojaro bitta senyorning vassallari orasida bo'lsa, uni **toifa sudi** ko'rib chiqqan. Lekin sudning qarori feodal manfaatiga mos kelmasa, uni bajarmaslikka harakat qilgan. Natijada ko'pchilik muammolarning yagona yechimi urush bo'lib qolgan.

Qirol hokimiyati. Salibchilar **Suriya** cho'lida musulmonlar bilan jang qilayotganida, Fransiya og'ir davrlarni boshdan kechirayotgandi. Avvalgi G'arbiy Frank qirolligi bir-biridan mustaqil katta-kichik o'nlab knyazliklarga bo'linib ketadi. Bu knyazliklar merosga qoldirilganida yana bo'linar, sulolaviy nikohlar natijasida qo'ldan qo'lga o'tardi. Fransiyaning janubi shu qadar mustaqil ediki, u yerda qirol haqida eshitishni ham istamaganlar. Shimolda **Gugo Kapet** avlodlari Parij graflari hokimiyatini tilda tan olsalar-da, amalda ularga deyarli hech kim bo'ysunmagan. Qirolning shaxsiy yer-mulklari (domeni) shimolda **Parijdan janubda Orleanga qadar** ensiz

tasma shaklida joylashgandi. **Normandiya, Burgundiya, Bretan, Akvitaniya** gersoglarining har biri qirolga nisbatan ko'proq hudud va aholiga ega edilar. Qiroldan **Anju, Tuluza, Blua** graflari ham kuch-qudrat bobida kam bo'lishmagan. Qirol domenida esa unga bo'ysunmagan feodallar mustahkam qal'alar qurib joylashib olgandilar.

Qirol **Lyudovik VI (1108 – 1137)** o'zining ishonchli yordamchisi, ilgari **Sen-Deni** monastiri abbati bo'lgan **Sugeriy** ko'magida domenida tartib o'rnatishga harakat boshlaydi. U **Burj** va **Sans** shaharlarini o'z domeniga qo'shib oladi. Qirol o'zboshimcha baronlar qal'alarini buzib, ularni bo'ysundiradi. **Lyudovik VI** ning omadi yurishib, **17 yoshli** o'g'li – bo'lajak qirol **Lyudovik VII (1137 – 1180)**ni **Akvitaniya** gersogining yagona merosxo'ri **15 yoshli Eleonora**ga uylantirishga muvaffaq bo'ladi.

Mamlakatni birlashtirish uchun kurash. Fransiyada **X – XI asrlar**dan qishloq xo'jaligining, hunarmandchilik va savdoning o'sishi boshlanadi, **XII asr**dan yangi o'zlashtirilgan yerlarda dehqonlar qaramligi bekor qilinib, soliqlarning bir qismi pul bilan to'lanadigan bo'ladi. Natijada dehqonlar yetishtirgan mahsulotlarning ma'lum qismini bozorga sotish uchun chiqara boshlaydi. Fransiyada feodallar **XII – XIII asrlar**dan o'z yerlarini dehqonlarga merosiy ijaraga bera boshlaydilar. Bu tadbir dehqonning yerga munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi.

Viloyatlar orasida mehnat taqsimoti kuchayadi, **Normandiya** temir, tuz ishlab chiqarish, ot va qoramol yetishtirishga; **Shampan** va **Burgundiya** vinochilik, zig'ir tolasi va jundan gazlamalar to'qishga ixtisoslashgan. *Viloyatlar orasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish ehtiyojlari feodal tarqoqlikni tugatishni taqozo etardi.*

Shaharlar yuksalishi bilan, yangi ijtimoiy tabaqa – **shaharliklar** soni ko'paya boradi. Shaharliklar tabaqasi esa feodallar o'zboshimchaligini cheklaydigan kuchli qirol hokimiyati tarafdori edi. Qirolni, shuningdek, mayda va o'rta feodallar qo'llagan. Ular kuchli qirol hokimiyati o'zlarini graflar, gersoglar tazyiqidan xalos etishiga umid bog'laganlar. Ushbu vaziyatda markazlashtirish jarayoniga faqat yirik diniy va dunyoviy feodallargina qarshi bo'ladi.

Filipp II (1180 – 1223) Angliya qiroli **Ioann** bilan inglizlarning **Normandiya**dagi mulklari uchun kurash boshlaydi. **«Ingliz tojining marvaridi»** hisoblangan Normandiya **1202 – 1214-yillari** tortib olinadi. Tez orada qirol mulklariga mamlakat janubidagi **Tuluza grafligi** ham qaytariladi. Natijada qirol Fransiyadagi eng kuchli feodalga aylanadi. Qirol mulklarining kengayishi umumdavlat boshqaruv tashkilotlari: **Qirol kengashi, Oliy sud** va **Moliya boshqarmasi** tuzilishi bilan yakunlandi. **Lyudovik**

IX (1226 – 1270) qirol yerlaridagi feodal urushlarini taqiqlaydi. Qirol zarb ettirgan oltin va kumush tangalar Fransiyaning barcha viloyatlarida o'tishi belgilanadi. Natijada mamlakatda gersog va graflar zarb etadigan **40 xil pul** asta-sekin surib qo'yiladi.

8.2. GENERAL SHTATLAR. TOIFAVIY MONARXIYANING VUJUDGA KELISHI

Filipp IV va papa. Fransiyani markazlashtirishni davom ettirgan **Filipp IV (1285 – 1314)** o'z qirolligining boshlarida **Shampan grafligi, Lion viloyati** va **shahri**ni qirol domeniga qo'shib oladi. Uning keyingi harakatlari mamlakat shimoli-g'arbidagi yirik savdo-hunarmandchilik shaharlarini birlashtirgan **Flandriya**ni egallashga qaratiladi.

Urushlar, saroy bazmlari katta mablag'larni talab qilgan. Qirol vaziyatdan chiqish uchun turli usullarni qo'llardi. Filipp IV shaharlardan qarz olib, ularni qaytarmas, yahudiylarni mamlakatdan chiqarib yuborib, so'ng ularni katta to'lovlar evaziga qaytarar, tanga puldagi kumush miqdorini pasaytirib, uni buzar, qirollikdagi dehqonlarning erkinlikka chiqishi uchun katta to'lov talab qilardi. Filipp IV o'z nigohini eng boy tashkilot – katolik cherkoviga ham qaratadi. *U Yevropa hukmdorlaridan birinchi bo'lib katta yer mulklarga egalik qilayotgan cherkovdan soliq talab qiladi.*

Rim papasi **Bonifatsiy VIII (1294 – 1303)** o'zining mashhur o'tmishdoshlari **Grigoriy VII** va **Innokentiv III** qabilida ish tutadi. U ruhoniylarga Fransiya qiroliga soliq to'lashni man etishdan tashqari, Filipp IV dan Flandriyaga qarshi urushni to'xtatishni talab qiladi. Fransiya qirolining papa xohish-irodasiga bo'ysunmaganligiga javoban **Bonifatsiy VIII** Filipp IV ni cherkovdan xoliligini tantanali e'lon qilish uchun tayyorgarlikka kirishadi.

General shtatlar. Bunga javoban Fransiya qiroli **1302-yili** uch toifa vakillari: **ruhoniylar, dvoryanlar** va **shaharliklar**ni chaqirib, ularga papa bilan mojaroni muhokama qilishni taklif etadi. General shtatlar papaning Fransiya ichki ishlariga aralashishini qoralaydi.

Keng jamoatchilik ko'magiga tayangan Filipp IV papaga qarshi harakat boshlaydi. Qirolga **anafema** (la'nat) e'lon qilish tayinlangan kun arafasida Italiya shimolidagi **Anani** shahrida joylashgan papa saroyiga Filippning bir guruh askarlari bostirib kiradi. Ular esankirab qolgan papaga qamoqqa olingani va sud oldida javob berishi uchun Fransiyaga jo'natilishini e'lon qilishadi. Rivoyatga qaraganda, fransuzlar yetakchisi ko'z ko'rib quloq eshitmagan narsa – papaga tarsaki tushirishga jazm etadi. Chorasiz Bonifatsiy VIII faqat: *«Mana mening bo'ynim, mana mening boshim!»* – deya

oladi, xolos. Papani osishmaydi, boshini ham olishmaydi, Fransiyaga olib ketishga ham ulgurishmaydi. Ananiliklar Bonifatsiy VIII ni qutqaradilar. Lekin papa tahqirni ko'tarolmasdan, ko'p o'tmay aqldan ozib vafot etadi.

Tez orada Filipp IV ning g'alabasi to'liq tus oladi. Kardinallar Fransiya arxiyepiskopini papalikka saylashadi. U esa Italiyadan Fransiyaning janubiga – **Avinyon shahri**ga ko'chib o'tishga qaror qiladi. Avinyon fransuz qiroli mulkiga kirmasa-da, albatta, uning bu yerdagi ta'siri katta edi. Zamondoshlari xristian dunyosi boshlig'i fransuz qirolining sodiq xizmatchisiga aylanganidan shikoyat qilganlar. Papalarning Rimga qaytishi uchun deyarli **70 yil** kerak bo'ldi. Bu yillar **(1309 – 1377)** Rim cherkovi tarixida **«papalarning Avinyon tutquni»** nomini oladi.

Buyuk magistr qarg'ishi. Papalarning *«Boqiy shahardan fransuz qiroli himoyasiga»* o'tishi Filipp IV ning zamondoshlariga tayyorlagan so'nggi kutilmagan «sovg'a»si emasdi. U boshlagan **«Tampliyerlar ishi»** ham Yevropada katta shov-shuvga sabab bo'ladi. Qirol kutilmaganda Tampliyerlar ordenini dahriylikka yo'liqib, gunohlarga botganligiga «ishonadi». Bu orden Yaqin Sharqda **1291-yil**gacha qolib, so'nggi janglarda qatnashgan va katta talafotlarni boshidan kechirgandi. **1307-yil** tunlaridan birida ordenning ko'pchilik a'zolari va buyuk magistri qamoqqa olinadi. Ordenning bitmas-tuganmas boyliklari haqidagi mishmishlar ularning boshiga balo bo'ladi. «Avinyon papa»sidan rozilik olib, tampliyerlarning mol-mulklari musodara qilina boshlanadi. Ko'plari qiynoqqa solinib, gulxanlarga tashlanadi. Buyuk magistr **1314-yili** o'limga mahkum etiladi. Uning o'limidan bir oy o'tib papa, o'n oydan so'ng Filipp IV vafot etadilar. Mamlakatda Filipp IV qarg'ishga uchragani, uning vorislarini yanada dahshatliroq fojialar kutayotgani haqida mishmishlar tarqaladi.

General shtatlar doimiy faoliyat ko'rsatmay, zarur paytda qirol tomonidan chaqirilardi. Dastlab u soliqlar bilan bog'liq muammolarni yechgan, xolos. Shu tariqa **XIV asr**da Fransiyada **toifaviy monarxiya**, ya'ni toifa vakillari yig'iniga suyanadigan markazlashgan davlat shakllana boshladi.

8.3. YUZ YILLIK URUSH

Yuz yillik urush va uning bosqichlari. Urushning sabablari. Angliya va Fransiya o'rtasida **XIV asrning 30-yillari** boshlangan urushlar **(1337 – 1453)** tanaffuslar bilan yuz yildan ortiq davom etib, tarixda **«Yuz yillik urush»** nomini olgan.

Filipp IV ning o'limidan ko'p o'tmay taxtga da'vogar erkak zurriyot qolmaydi. **X asr**dan buyon davom etayotgan **kapetinglar** vorisi deb **Valualar** oilasi tan olinadi. Ammo inglizlar qiroli **Eduard III** – Filipp IV ning qizidan nabirasi o'zini taxtga haqliroq deb e'lon qiladi. Ingliz qiroli talabini rad etish uchun fransuz huquqshunoslari **Lyudovik** davridagi **«Sali haqiqati»**dan yerning meros bo'yicha ayol kishiga o'tishi mumkinmasligi haqidagi qonunni topishadi. Huquqshunoslar bu qonunni qirollik ham yer-mulk ekanligi, demak, Eduard III ning onasi Filipp IV ning qizi o'g'liga Fransiya taxtiga o'tirish huquqini berishi mumkin emasligi haqida qaror chiqarishadi. Vorislik haqidagi bahs qurol yordamida yechila boshlanadi, Fransiya qiroli **1337-yili** inglizlarning mamlakat janubi-g'arbidagi **Akvitaniya** yerlarini o'z tasarrufiga olganini e'lon qiladi. Bunga javoban Eduard III Fransiyaga qarshi urush boshlaydi.

Urushning borishi. Angliya va Fransiya urushi tez orada Umumyevropa mojarosiga aylanadi. *Shotlandiya va Kastiliya Fransiyani, Portugaliya esa Angliyani qo'llaydi.* Yevropaning barcha hududlaridan ritsarlar kelib yo inglizlar, yo fransuzlar xizmatiga o'ta boshlaydilar. Inglizlar **1340-yili** Fransiya dengiz flotini yengib, quruqlikda hujumga o'tadilar. Dastlabki yirik jang **1346-yili Kresi** yaqinida bo'lib, unda fransiyaliklar qo'shini mag'lubiyatga uchraydi. Ingliz qo'shinlarining intizomi, son jihatidan ustun bo'lishi, puxta tayyorgarligi urushning dastlabki davridayoq Angliya ustunligini ta'minlaydi. Erkin dehqonlardan tuzilgan **kamonchilar bo'linmasi** ham g'alaba omillaridan biri bo'ladi. Inglizlar qo'shini qiroldan maosh olgan harbiy boshliqlar buyrug'ini so'zsiz bajargan. Fransiya qo'shini alohida ritsarlik bo'linmalaridan tashkil topgan bo'lib, har bir ritsar mustaqil harakat qilgan. Qo'shinda yagona boshqaruv va harbiy intizom yo'q edi.

Kale portini olgan ingliz qo'shinlari **1347-yili Akvitaniya**ga yurish boshlaydi. **1356-yili** Fransiyaning son jihatdan ikki baravar katta qo'shini shahzoda Eduard bo'linmasini ta'qib etib unga **Puatye** yaqinida yetib oladi. Eduard fransuzlar uni o'tkazib yuborishi hisobiga barcha o'lja va asirlarni, qo'lga kiritgan hamma qal'a va qasrlarini berishga tayyor ekanligini bildiradi. Lekin Fransiya qiroli shahzodaning o'z a'yonlari bilan asirlikka tushib qamoqqa olinishiga rozi bo'lishini talab qiladi. Natijada Eduard jang qilishdan boshqa chora qolmaganiga ishonch hosil qiladi. Jang davomida fransuzlar yana birikmay harakat qilishi ularning eng sara ritsarlari halokatiga sabab bo'ladi. Fransiya qiroli **Ioann Saxiy** va o'g'li **Filipp** asirga tushadi. Jangdan so'ng inglizlarga ularning Fransiyadagi ko'plab yer-mulklari qaytariladi. Urush esa fransuzlar uchun xavfli tus ola boshlaydi.

Jakeriya qo'zg'oloni. Yuz yillik urush davomida soliqlardan, ayniqsa, dehqonlar aziyat chekkanlar. Yevropa, jumladan, Fransiyada **XIV asr o'rtalar**ida tarqalgan vabo – «qora o'lat»dan aholining deyarli yarmi qirilib ketgan. Ammo xo'jayinlar: *«Sodda Jakning yelkasi keng, u hamma og'irlikni ko'taradi»,* – deyishgan. Oddiy dehqonga nisbatan ishlatiladigan laqab – **«jak»** keyinchalik qo'zg'olonning nomiga aylanadi.

Fransiyaning **Bove okrug**ida **1358-yil may oy**ida boshlangan dehqonlar qo'zg'oloni tarixda **Jakeriya** nomini oladi. Qo'shni viloyatlarga ham tarqalgan qo'zg'olonda **yuz mingga yaqin** kishi qatnashgan. Qo'zg'olonchilarning shiori *«Barcha zodagonlarni bitta ham qoldirmay qirib tashlash»* edi. Bunga ularning dehqonlarga o'tkazgan og'ir zulmi sabab bo'lgan. Qo'zg'olonchilar feodallar qal'alarini talab, soliq hujjatlarini, ro'yxatlarini yondirib yuboradilar. Ammo odil qirolga ishongan dehqonlar bayroqlariga qirol gerbidagi **oq nilufar** tasviri tushirilgan. Ko'p o'tmay feodallar birlashib **Gilom Kal** boshchiligidagi qo'zg'olonni bostiradi. Qo'zg'olonning yana takrorlanishidan qo'rqqan feodallar dehqonlarni to'lov evaziga shaxsiy qaramlikdan ozod etishni tezlatadilar, ular qo'zg'olondan keyin o'z xo'jaliklarini nisbatan muvaffaqiyatliroq rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar.

8.4. URUSHNING KEYINGI DAVRLARI. FRANSIYA MARKAZLASHUVI YAKUNLARI

Yuz yillik urushning davomi. Angliya Fransiyaga **1360-yili** taklif etgan tinchlik sulhi bo'yicha mamlakat hududlarining **1/3 qismi** inglizlarga o'tadi. Fransiya qiroli **Karl V** harbiy islohotlar o'tkazib, kuchli to'pchilar qo'shini va flot tuzishga kirishadi. Yagona qo'mondonlik joriy etilib, uning vakolatlari kengaytiriladi. Ushbu lavozimga tayinlangan **Dyugeklan** yirik janglarga kirmasdan, kichik janglar orqali deyarli barcha hududlarini inglizlardan ozod qiladi. Lekin urushdagi g'alabalar uzoqqa cho'zilmaydi. Qirol saroyidagi kelishmovchiliklardan foydalangan inglizlar **1415-yil kuzi**da **Normandiya**ga qo'shin tushiradi. **Azenkur jangi**da yana fransuzlar qo'shini tor-mor etiladi. Mamlakatning yarmi Angliya qo'liga o'tib, cherkov va ruhoniylar ingliz qirolini tan oladi. **Burgundiya** gersogi ham inglizlar tomoniga o'tadi. Uning ko'magida inglizlar **Parij**ni egallaydi.

1420-yilgi shartnomaga ko'ra, Angliya qiroli **Genrix V** ning o'g'li taxtga kelganda birlashgan Angliya va Fransiyaning qiroli bo'lishi ko'rsatiladi. Ammo **36 yoshli Genrix V 1422-yili** vafot etganida, uning **10 oylik** o'g'li **Genrix VI** taxtda qoladi. Fransiya qiroli **Karl VI** ning vafot etishi hokimiyat uning o'g'li **dofin** (shahzoda, taxt vorisi) **Karl**ga o'tishini ta'minlaydi.

Yuz yillik urushning xususiyati o'zgarib, ingliz qo'shinlariga qarshi oddiy xalq ko'tariladi. Dofin **Karl** uchun muhim bo'lgan mamlakat janubiga yo'l ochuvchi **Orlean shahri** himoyachilari inglizlarga qarshi **200 kunlik** qamalda taslim bo'lishmaydi.

Orlean qizi. Ingliz qo'shinlari Orleanga hal qiluvchi hujumga tayyorgarlik ko'rayotgan bir paytda Karl huzuriga **16 yoshli** oddiy dehqon qizi **Janna d'Ark** kelib, uni fransuzlar g'alabasi muqarrar ekanligiga ishontiradi. Jannaga ritsarlar bo'linmasi berilib, Orleanni ozod qilish uchun yo'llangan qo'shin tarkibiga kiritiladi. Bir necha kun davomida inglizlar qurgan istehkomlar yanchib tashlanib, shahar qamaldan ozod qilinadi. Bu voqeadan so'ng Jannani **«Orlean qizi»** deb atay boshlaydilar. Jannaning qahramonligidan ilhomlangan fransuzlar barcha hududlarda bosqinchilarga qarshi urush boshlaydilar.

Reymsda – Fransiya qirollarining an'anaviy toj kiyadigan shahrida Karlning toj kiyish imkoniyati paydo bo'ladi. **Karl VII (1422 – 1461)** Fransiya qiroli bo'lgach, uning mamlakat va Yevropadagi nufuzi keskin oshadi.

Janna d'Arkning shuhrati oshib borishi qirol saroyi a'yonlarining hasadini kuchaytiradi. **1430-yili Kompen** qal'asi uchun janglarda Janna burgundlar tomonidan asirga olinib, inglizlarga topshiriladi. Fransiya qiroli qahramon qizni qutqarishga urinib ham ko'rmaydi. Cherkov sudi Jannani o'limga hukm etib, **1431-yil 30-may**da **Ruan shahri** maydonida gulxanda yondiradi.

Urush yakunlari. Jannaning qahramonligi fransuzlarning vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirib, ozodlik urushida keskin burilish yasaydi. Inglizlarning ketma-ket mag'lubiyatlari **1453-yili** sulh tuzilishi bilan tugaydi. Ular ixtiyorida faqat **Kale porti** qoladi. G'alaba qirol hokimiyatining kuchayishiga olib keldi. Qirolning muntazam qo'shini tuzila boshlangan. Soliqlarning muntazam yig'ilishi orqali davlat daromadlari oshirilgan. **1451-yili** urush bo'lgan hududlardagi dehqonlar **8 yilga** soliqlardan ozod qilinadi. Bu dehqonlarni o'z xo'jaligini tiklashiga yo'l ochgan.

Markazlashtirish yakunlari. Qirolning mustaqil gersog va graflarga qarshi kurashi yanada kuchayadi. Xususan, Burgundiya gersoglari qirol vassallari hisoblansa-da, amalda mustaqil siyosat olib borganlar. Karl VII o'limidan so'ng taxtga o'tirgan o'g'li **Lyudovik XI (1461 – 1483)** o'z siyosatini **Bretan** va **Anju** gersoglarini bo'ysundirishdan boshlaydi. Bunga javoban **1465-yili** yirik feodallar **«Jamiyat baxt-saodati ittifoqi»**ni tuzadilar. Uning rahbari **Karl Burgundskiy**ga qarshi **Lyudovik Lotaringiya** gersogi va shveytsariyalik yollanma qo'shinni jalb etadi. **Karl Jasur 1477-yili** shveytsariyaliklar bilan jangda halok bo'lgach, Burgundiyaning g'arbiy qismi Fransiyaga qo'shib olingan.

Fransiyaning janubidagi **Provans viloyati** Marsel porti bilan **1481-yili** qirol hukmiga o'tadi. Lyudovikning vorisi **Karl VIII** ning **1491-yili Bretan** gersogining qizi **Anna**ga uylanishi bilan Fransiyaning markazlashuvi yakunlanadi.

8.5. ANGLIYADA MARKAZLASHGAN DAVLATNING TASHKIL TOPISHI

Normandlar istilosi. Angliyada qirol hokimiyatining zaifligi mamlakatni daniyaliklarning talonchilik maydoniga aylantiradi. Angl-sakslar bunga qarshi **XI asrning 40-yillari**da qo'zg'olon ko'targanida, ularga Fransiyaning shimolidagi **Normandiya** gersogi yordamga keladi. Ammo ko'p o'tmay bu ko'mak beg'araz bo'lmagani tasdiqlanadi.

Normandiya gersogi **Vilgelm** qo'shinlari **1066-yili** Angliyaga kelib tushadi. **Gastings jangi**da normandlarning otliq ritsarlari inglizlar piyoda qo'shinini qurshab oladi. Angliya qiroli **Garold** va uning qo'shini tengsiz jangda halok bo'ladi. Normandiya gersogi qirollik taxtini egallab, **Vilgelm I** nomini oladi.

Feodal jamiyatning uzil-kesil o'rnatilishi. Vilgelm mahalliy feodallar – angl-sakslar yerlarini tortib olib, o'z ritsarlariga bo'lib beradi. Ayni paytda, kichik va o'rta yer egalari o'z mulklarini saqlab qolishadi. Mamlakatni itoatda saqlash uchun kuchli qirol hokimiyati zarur edi. Vilgelm barcha feodallarni qirolga sodiqlikka qasamyod qildiradi. Mamlakat yerlarining **1/7 qismi** qirol mulkiga aylanadi.

Qirolning eng yirik mulkdor bo'lishi, baronlarga esa yer mulklarining turli viloyatlardan taqdim etilishi Fransiyadagi kabi mustaqil grafliklarning tashkil topishiga to'sqinlik qiladi. Normandlar istilosi natijasida Angliya dehqonlariga zulm o'tkazish kuchayadi.

O'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida normandlar Angliya bo'ylab ko'plab qal'alar qurdirgan. Ulardan eng mashhuri **London**dagi **Tauer** bo'lib, u hozirgacha mavjud. Angl-sakslarning doimiy qo'zg'olon ko'tarish xavfi baronlarni qirol tevaragida yanada jipslashuviga olib keladi. *Istilo qilingan mamlakat iqtisodiy imkoniyatlarini bilish maqsadida Vilgelm Yevropada ilk marotaba yer-mulk va aholi ro'yxatini o'tkazdi.* Ro'yxatga oluvchilar savollariga faqat haqiqatni aytib javob berish haqida qasamyod qildirilishi xalq orasida ro'yxat varaqalarining **«Dahshatli sud kitobi»** nomini olishiga sabab bo'ladi.

Baronlarning aholiga zulmini cheklash uchun grafliklardagi angl-saks mahalliy sudlari saqlab qolinadi. Mamlakat grafliklarga bo'linib, ularning har biriga qirol vakili – **sherif** tayinlanadi.

Angliyada dehqonlar kurashi **XII – XIII asrlar**dan kuchayadi. Ularning bir qismi o'z xo'jayinlaridan qochib o'rmonlarda yashaganlar. Qochoqlar birlashib feodallar, yepiskoplar, amaldorlarga hujumlar uyushtirganlar. Ularni aholi qo'llab-quvvatlagan. **XIV asr**da xalq og'zaki ijodining sevimli qahramoniga aylangan **Robin Gud** siymosi ana shu boylarning dushmani, ezilgan mehnatkash xalqning himoyachisi sifatida tasvirlanadi.

Genrix II (1154 – 1189) qirolligida Angliyada moliya va harbiy islohotlar o'tkazildi. Baronlar harbiy xizmat o'rniga xazinaga **«qalqon puli»** solig'i to'lashiga ruxsat etildi. Bu qirolga muntazam yollanma **qo'shin** tuzish imkonini berdi. Normandlarning mahalliy angl-sakslar bilan aralashishi ma'lum muddatni talab etgan. Qirollar **XII asr** davomida xalqqa **«fransuzlar va feoglizlar»** deb murojaat qilganlar. Etnik va til borasidagi farqlar **XII asr oxir**idan yo'qola boshlaydi.

«Buyuk ozodlik xartiyasi». **Genrix II** ning vorislari davrida mamlakatda qirol siyosatidan norozi zodagonlar, hukmdorning o'g'illari boshchiligida qo'zg'olonlar bo'lib turgan. Bunday kurashlar **Ioann (1199 – 1216)** qirolligi paytida yanada kuchayadi. O'z kuchiga ishongan qirol gunohkor hisoblangan baronlarning mulklarini tortib olgan, vassallaridan katta to'lovlar talab etgan. Natijada bu siyosat barchani qirolga qarshi qilib qo'yadi.

Baronlar, ritsarlar va shaharliklar ko'magida **1215-yil bahor**ida isyon ko'taradilar. Poytaxt London aholisi qo'zg'olonchilarga darvozalarni ochib beradi. Qirol **«Buyuk ozodlik xartiyasi»** nomini olgan hujjatni imzolashga majbur boladi. Uning asosiy moddalari baronlar va ruhoniylar manfaatini ifodalagan. *Qirol cherkovning erkin saylovlariga rioya qilishni, vassallardan odatdagidan ko'p to'lovlar olmaslikni, baronlarni qamamaslik, ularni mol-mulkidan mahrum etmaslik shartlarini qabul qiladi.*

Yorliq **63 modda**dan iborat bo'lib, ritsarlar va erkin dehqonlarga ham ayrim yengilliklar beradi. Xususan, ulardan belgilanganidan ko'p xizmat va tovonlar olish taqiqlanadi. Hujjatda erkin kishilarga qirol amaldorlari o'zboshimchaliklari va qo'shimcha jarimalardan himoya va'da qilingan. Lekin unga amalda to'liq rioya etilmagan.

Angliya parlamenti. Angliyada birinchi parlament **1265-yili** chaqiriladi. Unga o'xshash qirolga yaqin feodallar yig'ini **Vilgelm** davridan, **XI asr oxir**ida ham chaqirilib turgan. Lekin undan farqli o'laroq, bu parlament tarkibida baronlardan tashqari ruhoniylar, har bir graflikdan ikki ritsar hamda yirik shaharlardan ikkitadan vakillar to'plangan. Parlament **XIV asr**dan **lordlar palatasi va umumpalata**ga bo'linadi. Lordlar palatasida qirol taklif etgan **zodagonlar, yepiskoplar, abbatlar** majlis o'tkazganlar. Umumpalatada esa **ritsarlar va shaharliklar vakillari** qatnashgan.

XIV asrdan parlament soliqlar tayinlashdan tashqari qonunlar ishlab chiqish va qabul qilishda qatnashish huquqiga ham erishadi.

8.6. ANGLIYA XIV – XV ASRLARDA

Angliya yuz yillik urush davrida. Yuz yillik urush Angliya iqtisodiyotiga ham katta zarar yetkazdi. Qirol **Richard II (1377 – 1399)** mamlakatda **1377-yil**i qo'shimcha jon solig'i joriy etadi. **1380-yili** jon boshi solig'i **3 baravar**ga oshiriladi. Soliqni yig'ishdagi suiiste'molliklar, nohaqliklar Angliyada xalq qo'zg'oloniga sabab bo'ladi.

Kambag'al ruhoniylar va rohiblardan xalq voizlari yetishib chiqadi. Xalq orasida katta obro'ga erishgan **Jon Boll** o'z va'zlarida: *«Odam Ato yer haydab, Momo Havo charx yigirganda, kim dvoryan bo 'lgan?»* – deb aytgan kinoyali so'zlari qishloqlarda tez-tez takrorlangan. **Kenterberi arxiyepiskopi** buyrug'i bilan Jon Boll qamoqqa olinadi.

Uot Tayler qo'zg'oloni. Qo'zg'olon **1381-yil may**ida soliq yig'uvchilar bedodligidan boshlanib, tez orada Angliyaning katta qismini qamrab oladi. Qo'zg'olonchilar dehqonlaridan iborat qo'zg'olonchilar **tunukasoz Uot Tayler** boshchiligida poytaxtga yo'l oladi. Londonliklar qo'zg'olonchilarga shahar darvozalarini ochib berishadi. Qirol a'yonlari, taniqli amaldorlar uylariga o't qo'yiladi. Aybdor deb topilgan amaldorlar qatl etila boshlanadi. Birinchilardan bo'lib **Kenterberi arxiyepiskopi** o'ldiriladi.

Yosh qirol **Richard II** qo'zg'olonchilar bilan muzokaralar boshlaydi. U o'zini xalqqa do'st qilib ko'rsatishga intiladi. Bu orqali qirol qo'shinining Londonga yetib kelishi uchun vaqtdan yutiladi.

Uchrashuvda qabul qilingan **«Mayl End»** dasturiga binoan: *dehqonlarning qaramligini bekor qilish, erkin savdoga ruxsat etish, yer solig'ini kamaytirishga rozilik beriladi*. Qirol bilan uchrashuvdan so'ng qo'zg'olonchilarning o'ziga to'q qismi uylariga tarqalishadi. Lekin qo'zg'olonchilarning kambag'al qismi bunga qoniqmaydi va Londonda qoladi, qirol bilan yangi uchrashuv **Smitfild**da bo'ladi. Yangi ishlab chiqilgan dasturda *feodallar tortib olgan yaylov va o'rmonlarni qaytarish, ibodatxona yerlarini musodara qilib dehqonlarga bo'lib berish, aholining teng huquqli bo'lishini taminlash* kabi talablar bor edi. Uchrashuv paytida qirol a'yonlaridan biri bilan janjallashib qolgan Uot Tayler to'qnashuvda yaralanib halok bo'ladi. Sarosimada qolgan dehqonlarga ularning barcha talablari bajarilishi va'da qilinib, shaharni tark etishga ko'ndiradilar. Lekin qo'zg'olonchilar izidan yuborilgan qo'shin ulardan ayovsiz o'ch oladi.

Qo'zg'olon mag'lubiyatga uchrasa-da, uning ta'sirida Angliyada dehqonlarning mehnat majburiyatlaridan **(barshchina)** voz kechiladi. Qaram dehqonlar **XV asr** davomida to'lov evaziga ozodlikka erishadi. Soliqlar tartibga solinadi.

Angliya XV asrda. Yuz yillik urush tugaganidan keyin, Angliya tarixida **«Qizil va oq gullar» (1455 – 1485)** urushi nomini olgan urushlar bo'lib o'tadi. Unda aholining **1/4 qismi**, nomdor feodal zodagonlar – baronlarning deyarli barchasi qirilib bitadi. Urushlar paytida taxtda bo'lgan **yorklar**ga qarshi hal qiluvchi **Bosvort** yaqinidagi jangda **(1485-yil)** g'olib chiqqan **Lankasterlar xonadoni** qo'llagan **Genrix Tyudor** Angliya taxtiga keladi.

Genrix VII Tyudor (1485 – 1509) davrida qirol hokimiyati kuchayib boradi. Urushlarda qirilib bitgan normand zodagonlari o'rniga qirol lordlar palatasiga kiritgan yangi angl-saks zodagonlari uning ishonchini qozonishga intilgan. Umumpalataga taklif qilingan ritsarlar va shaharliklar ham qirol kiritgan qonunlarni tasdiqlar, unga yangi soliqlar yig'ishga ruxsat berardi.

8.7. YEVROPA MADANIYATI XI – XV ASRLARDA

O'rta asrlarda dunyo haqidagi tasavvurlar. O'rta asr kishilarining umri uzoq bo'lmasdan, odamlar **40 yosh**dan so'ng qari hisoblangan. Bolalar o'limi ko'p bo'lgan. Shaharlar va savdoning rivojlanishi bilan odamlarda dunyoni ko'rish imkoniyati tug'iladi. Salib yurishlari esa yevropaliklar uchun dunyoga darcha ochadi. Sayohatchilar uzoq mamlakatlarda yashovchi xalqlarning urf-odatlari va madaniyati haqida qiziqarli ma'lumotlar olib kela boshlaydilar. Ulardan biri venetsiyalik savdogar va sayyoh **Marko Polo** edi. O'zining **«Marko Polo kitobi»**da sayyoh **Uzoq Sharq va Xitoy**da **1271 – 1295-yillar** davomida ko'rgan-kechirganlarini tasvirlaydi.

Maorifning taraqqiyoti. O'rta asr maktablari antik davr an'analari davomchisi bo'lgan. Uning asosi avvalgidek **«yetti erkin san'at»** deb atalgan. Boshlang'ich maktabda **grammatika, falsafa asoslari va ritorika** o'rganilgan. Yuqori bosqichda **arifmetika, matematika, musiqa, geometriya va astronomiya**dan bilim berilgan.

G'arbiy Yevropa madaniyati **XII – XIII asrlar**dan yuksala boshlaydi. Shaharlarning yuksalishi, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi, Vizantiya va Arab xalifaligi madaniyatlari bilan tanishuv yevropaliklar dunyoqarashi, bilim doirasini kengaytiradi. Shaharlarda xususiy va shahar kengashlari boshqaruvidagi maktablar soni oshib boradi. Bunday maktab o'quvchilari dunyoviy bilimlarni cherkov maktablaridagiga nisbatan

kengroq va chuqurroq olishgan. **XII asr**dan yirik shaharlarda dastlabki oliy maktablar – **universitetlar** ochila boshladi. Jumladan, **Bolonya** va **Parij**da ilk universitetlar tashkil topib, ular o'z davri uchun yuksak ma'lumot berishgan. Eng yirik universitet Parijda edi. Uning asoschisi qirol xonadoni ruhoniysi **Rober de Sorbon** bo'lgan. *Qiroldan maxsus* yorliq olgan universitetlar to'la mustaqil bo'lganlar.

XIII – XV asrlarda Yevropaning deyarli barcha mamlakatlari o'z universitetlariga ega bo'lishadi. Ularni papa va yepiskoplar, imperator va qirollar, knyazlar va shaharlar tashkil etgan. Angliyaning eng keksa universitetlari **Oksford** va **Kembrij** bo'lgan. *Manbalarda yozilishicha, Kembrij universiteti Fransiyadan kelgan to'rtta o'qituvchi tomonidan dastlab oddiy bostirmada tashkil qilingan.* Italiyada **Bolonyadan** tashqari **Neapol** universiteti bo'lib, unga **Fridrix II** asos solgan. **Salamanka Ispaniya**dagi eng e'tiborli universitet edi. Muqaddas Rim imperiyasidagi ilk universitet **Chexiya**da – **Praga** (1348), so'ng **Avstriya**da – **Vena** (1365), nihoyat, **Germaniya**da – **Geydelberg, Kyoln va Erfurt**da ochiladi. **Polsha**ning birinchi universiteti **Krakov**da **1364-yil**i tashkil topgan.

Magistr va shkolyarlar hamjamiyatlari. Universitet o'qituvchi va o'quvchilar jamiyatidir. U ko'p jihatdan o'rta asr sexlarini eslatadi. Sexni ustalar boshqarganidek, universitetni o'qituvchilar – **magistrlar** boshqarishgan. Universitetlar ko'plab imtiyozlarga ega bo'lgan va mahalliy hukmdorlarga bo'ysunmagan. Agar ular bilan mojaro chiqib, hal etilishi qiyin bo'lsa, **magistr va shkolyarlar** (talaba) boshqa joyga ketardilar. Ko'p hollarda ulardan uzr so'rab qaytishlarini iltimos qilishgan: sababi bu davrda o'z universiteti bo'lishi har qanday shahar uchun sharaf hisoblangan.

Taniqli o'qituvchilar ma'ruzalariga shkolyarlar Yevropaning turli burchaklaridan kelishgan. Ba'zida Parijda **30 minggacha** talaba baravariga to'plangan. Talabalar hayoti, bir xil tabaqaga mansub shkolyarlar jamoalari birlashmalar tomonidan boshqarilgan. Omadli talabalar hozirgi yotoqxonalarga o'xshash **kollegiyalar**da joylashishga muvaffaq bo'lardilar. Eng qadimgi Parij kollegiyalaridan biri – Sorbonning nomi keyinchalik butun universitetga o'tadi. Angliya va Fransiyada kollegiyalar yangi o'quv muassasalari – **kollejlar**ga asos bo'ladi.

O'qitish **fakultetlar**da olib borilgan, ularning har birini **dekan** boshqargan. Hamjamiyat tepasida esa saylangan **rektor** yoki hokimiyat tomonidan tayinlangan **kansler** turgan. Parij universitetida **to'rtta**: biri quyi – tayyorlov va uchtasi oliy fakultet bo'lgan. Quyi fakultetda **yetti erkin san'at** o'rgatilgan.

San'at lotinchada **«artes»** deyilgan, shuning uchun fakultetni **artistlik,** uning talabalarini **artistlar** deyishgan. Albatta, bu artistlarning teatrga umuman daxli bo'lmagan. San'at fakultetida bir necha yil tahsil olgan shkolyar birinchi ilmiy daraja – **bakalavr**ga imtihon topshirib ko'rishi mumkin edi. Bakalavr nimasi bilandir xalfani eslatardi: u o'qishni davom ettirar, ayni damda, o'zi ham o'qita boshlardi. Artistlik fakultetida o'qishni to'liq yakunlagan bakalavr nisbatan murakkab – **erkin san'atlar magistri** unvoniga imtihon topshirishi mumkin edi. Faqat magistrlar Parij universititetining uch oliy fakulteti: **ilohiyot, huquqshunoslik yoki tibbiyot**da o'qishlari mumkin edi. Ularning har birida yana bakalavrlikdan boshlab hamma bosqichdan o'tgandan so'ng oliy daraja – **doktorlik** unvonini olish mumkin edi. O'rta asr Yevropasi ilm dunyosida ilohiyot, tibbiyot yoki huquqshunoslik doktorlari eng e'tiborli kishilar hisoblangan.

Maktab va universitetlarning taraqqiyoti davomida kitobga talab kuchayib boradi. Ilk o'rta asrlarda kitob juda kamyob, qimmatbaho narsa hisoblangan. Kitob varaqlari **pergament**ga (maxsus ishlov berilgan buzoq terisi) bitilgan. Kitoblarni **XII asr**dan rohiblar emas, shaharlarda maxsus ochilgan ustaxonalarda hunarmandlar tayyorlashi bilan ular arzonlasha boshlaydi. **XIV asr**dan qog'ozdan keng foydalanish kitob ishlab chiqarishni yanada ko'paytiradi. Dastlab qog'oz Sharq mamlakatlaridan keltirilgan. **XII asr**dan **Ispaniya**da Yevropadagi dastlabki qog'oz ishlab chiqarish ustaxonalari quriladi. **XIV asr**dan **Italiya**da ham qog'oz ishlab chiqarish keng tarqaladi.

Dastlab qog'ozni eski lattalardan tayyorlashgan. Nemis injeneri **Iogann Gutenberg 1445-yili** kitob bosish dastgohini kashf qiladi. Uning ixtirosi kitobning ommaviy tarqalishiga olib keldi.

Fan taraqqiyoti. Oksford universiteti professori **Rojer Bekon** (**XIII asr**) fandagi yutuqlarga faqat ilmiy kuzatishlar va tajribalar yo'li bilan erishish mumkinligini isbotladi. Uning o'zi optika, fizika, kimyo fanlariga oid tajribalar o'tkazadi. Bekon o'zi suzadigan kema, suvosti kemasi va havoda uchadigan apparatlar qurish mumkinligini aytgan. Bekonning hayoti qiyinchilik va xavf-xatar ichida, cherkov ta'qibida o'tgan. U uzoq yillar qamoqda ham bo'lgan.

Cherkov: *«Har qanday bilim o'z maqsadi bo'yicha xudoni anglashga yo'llangan bo'lmasa gunoh»,* – deya ta'kidlardi. Lekin xo'jalik taraqqiyoti ko'r-ko'rona e'tiqodga asoslangan bo'lmay, balki fanning rivojlanishini taqozo etgan. O'rta asrlarda astrologiya, alkimyo fanlari yuksak rivojlangan. Munajjim-astrologlar osmon jismlari harakatlarini o'rganib, kelajakni oldindan aytib berishga intilganlar. Qirollar, sarkardalar, savdogar va

sayyohlar biror tadbirni boshlashdan avval, albatta, ular bilan maslahatlashganlar. **Alkimyogarlar** har qanday ma'danni oltinga aylantiruvchi **«sehrli tosh»**ni izlaganlar. Tajribalar yangi kimyoviy birikmalar, kislotalar, mineral bo'yoqlar olish imkonini beradi. Munajjim va alkimyogarlar o'z izlanishlari davomida **kimyoviy pech, tozalash, haydash, filtrlash asbob-uskunalar**ini ixtiro qilganlar.

8.8. G'ARBIY YEVROPADA SAN'AT VA ADABIYOT. GUMANIZM G'OYASINING SHAKLLANISHI

Me'morchilik. Dastlab bino va hatto qasrlar yog'ochlardan qurilgan. **XI asr**dan G'arbiy Yevropada qurilish sohasi ham taraqqiy eta boshlaydi. Qurilishda **tosh**dan keng foydalanishga o'tiladi. Undan dastlabki ibodatxona va monastirlar barpo etiladi. Qurilish toshlari bo'lmagan **Angliya** va **Polsha**da saroylar, ibodatxonalar **pishiq g'isht**dan qurila boshlaydi.

Fransiya, Italiya va Germaniya me'morchiligida dastlab **roman uslubi** hukmron edi. Roman ibodatxonasi qalin devorli, baland minorali va tor derazali, salobatli uzun binodir. Tashqi tomondan u qal'ani eslatadi. Uning o'ziga xos tomonlari shundan iboratki, deraza tepasi, ibodatxonaga kiraverish ichki gumbazlar yarimdoira shaklidagi ravoq (ark)lar bilan bezatilgan. Germaniyadagi **Laax** monastiridagi cherkov **(XI asr)** roman uslubining yorqin namunasidir.

An'anaga ko'ra, shahar markazida eng ko'rkam va ulug'vor bino – cherkov qurilgan. Bu maydon tevaragidagi binolar **gotika uslub**ida bunyod etilib, u me'morchilikdagi roman uslubini surib chiqaradi. Bu uslubda qurilgan imoratlar balandligi bilan xususiyatlangan. Salobatli, og'ir gumbaz o'rnini uchli, baland gumbazlar egallaydi. Gotika uslubida bunyod etilgan eng mashhur inshootlar **Parij**dagi **Bibi Maryam** ibodatxonasi, **Ruan, Reyms** va **Shartr** (Fransiya), **Milan** (Italiya) ibodatxonalaridir.

O'rta asrlarda **Vizantiya** va **arab me'morchiligi** ham o'zidan ajoyib inshootlar qoldirgan. Venetsiyadagi **Avliyo Mark** ibodatxonasi va **Dojlar** saroyi Vizantiya uslubida bunyod etilgan. Ispaniyaning **Sevilya** shahrida masjid va **Al-Qasar** qasri, **Granada**dagi **Al-Humro** saroylari arab me'morchiligi durdonalari hisoblanadi.

Haykaltaroshlik. Uning rivojlanishi bevosita me'morchilik bilan bog'liq bo'lgan. Cherkov va monastirlar binolari, xudo, avliyolar va qirollar haykallari bilan bezatilgan. Haykallarning asosiy buyurtmachilari cherkov bo'lgani sababli, ularda diniy mavzu yuqori turgan. Lekin haykaltaroshlarning o'zlari oddiy xalq orasidan yetishib chiqqanligi bois, ularning

asarlarida insonning eng yaxshi fazilatlari ifodalangan. Xususan, eng ko'p uchraydigan Bibi Maryam haykallari (Yevropada **«Madonna»** deb nomlanadi) o'zida onaning farzandga mehr-muhabbatini mujassamlagan.

Antik davr haykallarida inson tanasining go'zalligi ulug'langan bo'lsa, o'rta asr haykaltaroshlari tashqi go'zallik orqali o'z qahramonlarining o'y-xayollari, hislarini ifodalashga intilganlar. Ularda insonlar nimjon, ozg'in, xunuk ko'rsatilgan va bu ularning iloh, avliyo-anbiyolar oldidagi ojizligini ifodalashi mumkin. Zamonlar o'tib yangi gotika haykaltaroshligi vujudga keladi. Endilikda insonning qiyofasi, tanasi birmuncha tabiiyroq tasvirlanadigan bo'ladi. Yuksak iste'dodli haykaltaroshlar odamlarni haqqoniy tasvirlashga erishganlar.

Tasviriy san'at. Roman uslubida qurilgan ibodatxonalar devorlari va shiplarini diniy mavzudagi suratlar bezab turgan. Gotika me'morchiligidagi cherkovlarda derazalar orasida rasmlar chizish uchun joy ham bo'lgan. Shu sababli derazalarga oddiy oynalar o'rniga **vitrajlar** – tiniq rangli shishalardan yasalgan surat yoki alohida bezaklar solingan.

Kitoblarni bezash uchun tasviriy san'atning yangi yo'nalishi – **miniatyuralar** ixtiro qilinadi. Ularda o'rta asr kishilari hayotining turli manzaralari tasvirlangan. Vitrajlar va miniatyuralarda dehqonlar va hunarmandlarning mehnat faoliyati ifodalangan.

Adabiyot. **VIII – IX asrlar**dan ritsarlar hayoti, harbiy yurishlari va jasoratlarini ifodalovchi xalq qo'shiqlari hamda qissalari shakllana boshlaydi. Keyinchalik ular to'planib, ritsarlik jangnomalariga aylantiriladi. Dostonlardan eng mashhuri **«Roland haqida qo'shiq»** bo'lib, u **XII asr**da yaratilgan. Jangnoma Buyuk Karlning Ispaniyaga yurishlari va franklar qahramonligini madh etadi.

Ispan xalq og'zaki ijodi durdonasi – **«Sid haqida qo'shiq»** ham **XII asr**da yaratilgan. Unda ispan xalqining arablarga qarshi ozodlik uchun kurashi tasvirlangan. Germaniyada **«Nibelunglar haqida qo'shiq»** dostoni vujudga keladi. Unda xunlarning Burgundlar (nibelunglar) davlatini tor-mor etishi voqealari tasvirlanadi. Dostonda o'rta asr folklori ertaklar, afsonalar, rivoyatlar bilan qorishib ketgan.

Ritsarlarning Sharqqa salib yurishlari davomida to'plagan boy taassurotlari asosida **XII asr**dan adabiyotning yangi sohasi – **ritsarlar romanlari** vujudga keladi. Ushbu romanlar orasida eng mashhuri qadimgi britan qiroli **Artur** haqidagi asarlar turkumidir. Yana bir mashhur roman – **«Tristan va Izolda»**da asar bosh qahramonlarining fojiali sevgisi hikoya qilinadi.

Shaharlarda **XII – XIII asrlar**da yaratilgan hajviy asarlarda xalq ichidan chiqqan epchil va hozirjavob qahramonlar ulug'lanib, rohiblar ochko'zligi,

ritsarlar takabburligi haqida hikoya qilinadi. Fransiyada yaratilgan **«Tulki haqida roman»** asari Yevropada shuhrat qozongan. Undagi qahramonlar hayvonlar: feodal ahmoq **Ayiq**, ritsar ochko'z **Bo'ri** qiyofasida tasvirlanadi. Ishbilarmon va oqil shaharlik siymosidagi topqir va dovyurak **Tulki** raqiblari Ayiq va Bo'ri ustidan doim g'olib chiqqani hikoya qilinadi. Tulki, shuningdek, **Sher** qiyofasidagi qirol hamda **Eshak** siymosidagi ruhoniylarni ham masxara qilib yuradi.

Tabiat va insonga qiziqishning paydo bo'lishi. Yangi madaniyat arboblari insonni o'rganishni o'zlarining asosiy vazifalari deb bilganlar. Shu sababdan ularni **gumanistlar** deb ataydilar. Yangi uyg'onish yoki gumanizm madaniyati namoyandalari insonni olamning markaziga qo'yib, uning yaratuvchilik dahosini tan olishga chaqirdilar. Uyg'onish atamasi esa (fransuzcha **«renessans»**) yangi madaniyatning antik davr bilan aloqadorligini ko'rsatadi. Sharqqa salib yurishlari va undan keyingi Levant bilan savdo-madaniyat borasidagi doimiy aloqalar italiyaliklarning qadimgi yunon qo'lyozmalari, antik san'at va me'morchilik yodgorliklari bilan tanishishiga imkon beradi.

Uyg'onish davri yozuvchi va shoirlarini afsonalar va ertaklar emas, jonli kishilar, insonlarning quvonch va tashvishlari qiziqtira boshlaydi. Gumanistlar yashash va mehnat qilish imkoniyatini yuksak baxt deb tushunadilar. Har tomonlama barkamol, fikrlovchi, ichki dunyosi va tashqi ko'rinishi jihatidan ko'rkam inson gumanistlar diqqat markazida bo'lgan.

Qadimgi madaniyatga qiziqish. Gumanistlar yunon va rim madaniyatini o'rganishga katta e'tibor berishgan. Insonning go'zalligini tarannum etuvchi antik davr asarlari o'rta asrlarning cherkov ta'siridagi san'ati va adabiyotidan tubdan farq qilardi. Gumanistlar sa'y-harakatlari bilan antik, qisman unutilgan, katolik cherkovi taqiqlagan madaniyat qayta tiklanadi. Gumanistlar antik va uyg'onish davrlari orasidagi **(V – XV asrlar)** davrni **nodonlik, jaholat asri,** *gumanizm davrini* **(XVI asr) «yangi zamon»** deb ataganlar.

Uyg'onish madaniyati markazlari. Bu davrda Italiyada **Florensiya** alohida o'rin tutadi. Savdodan kelgan daromad uni Yevropaning eng boy shaharlaridan biriga aylantirdi. Shahar hokimlari to'plangan boyliklar hisobidan me'morchilik obidalari bunyod ettirgan, haykaltaroshlik va rassomchilikni yuksaltirgan. Shu tariqa Florensiya **XV asr**da Italiyaning yirik madaniyat markaziga aylanadi. Eng mashhur rassomlar, haykaltaroshlar, me'morlar Florensiyadan bo'lib, shahar-respublika hokimlari ularning barakali ijodi uchun sharoit yaratib berganlar. Yevropadagi birinchi **Kruska akademiyasi** ham **1582-yili** Florensiyada ochilgan. U italyan tilidagi dastlabki katta lug'atni nashr qilgan.

Madaniyat markazlaridan yana biri **Venetsiya** edi. Shaharda **XV asr**dan kitob chop etish yuksaldi. **Aldo Manutsiya** bosmaxonasida nashr qilingan antik davr mualliflari va gumanistlar asarlari butun Yevropada keng tarqalgan.

Ilk gumanizm; yangi madaniyat dasturi. Ilk uyg'onish va gumanizmning Yevropadagi dastlabki vakili shoir **Franchesko Petrarka (1304 – 1374)** bo'lgan. O'zining lirik she'rlar to'plami – **«Qo'shiqlar kitobi»** va **«She'riy maktublari»** bilan shoir yangi Yevropa madaniyati yaratilishi asoschilaridan biri bo'ldi.

Uning do'stlari va davomchilari **Bokachcho va Salyutati** ijodi XV asr boshlarida Italiyada *ilk gumanizm* davrini yakunladi. **Jovanni Bokachcho (1313 – 1375)**ning butun umri **Florensiya** va **Neapol** shaharlari bilan bog'liq kechadi. **«Dekameron»** asari muallifi sifatida Bokachcho yangi uslub novellalarni yozishni boshlab beradi. Uning kitobi katta muvaffaqiyat qozonib, ko'plab tillarga tarjima qilinadi. Gumanistik g'oyalarni umumlashtirgan **«Dekameron»** asarida insonning yuksak fazilatlari o'z ifodasini topgan.

Kolyuchcho Salyutati (1331 – 1406) Florensiyada yashagan, yuqori davlat lavozimida ishlagan. O'zining ko'p sonli xatlari va nutqlarida Petrarka va Bokachchoning gumanistik g'oyalarini yanada rivojlantiradi. Salyutati yuksak g'oyali, o'qimishli kishini tarbiyalashda ijtimoiy fanlar: **filologiya, ritorika, tarix, pedagogika, etika**ning o'ta muhim ekanini ta'kidlagan.

8.9. GERMANIYA XII – XV ASRLARDA

Mamlakat xo'jaligi. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti shaharlarning vujudga kelishi, yuksalishi bilan bevosita bog'liq edi. Reyn daryosi bo'ylaridagi **Kyoln**, **Vorms**, Mayn daryosi sohilidagi **Frankfurt**, Dunay bo'ylaridagi **Ulm**, **Nyurnberg**, **Augsburg** yirik hunarmandchilik va savdo markazlariga aylanadi. Germaniya shaharlari qo'shni Fransiya, Niderlandiya, Italiya, Vengriya, Bolqon yarimorolidagi mamlakatlar bilan qizg'in savdo-sotiq olib borgan. Nemis hunarmandlari ishlab chiqargan movut, surp, metalldan ishlangan qurol-aslahalar, buyumlar boshqa o'lkalarda ham yuksak qadrlangan.

Siyosiy taraqqiyot. Frankoniyaliklar sulolasining so'nggi vakili **Genrix V** ning farzandi bo'lmagan. Taxtga **Saksoniya** gersogi **Lotar (1125 – 1137)** qo'yiladi. Uning vafotidan so'ng, o'g'il vorisi yo'qligi tufayli, taxt **shtaufenlar** sulolasiga o'tib, ular Germaniyani **1138 – 1254-yillar**da boshqaradilar. Sulolaning eng mashhur vakillaridan biri **Fridrix I Bar-**

barossa (1152 – 1190) edi. Dastlab Fridrix o'z istilolarini salib yurishlari tufayli boyib ketgan Italiya shaharlariga qaratadi. Imperator shu maqsadda avval Rim papasini qo'llaydi. Keyinchalik papaning o'zini imperator hokimiyatidan ustun qo'yishi ular orasiga nifoq soladi. Barbarossaning maqsadi Italiyani o'z viloyatlaridan biriga aylantirish edi.

Bunga faqat **Milan** va **Lombardiya**ning bir necha shaharlari qarshi chiqadi. **1158-yil Ronkal vodiysi**da chaqirilgan seym imperatorning Italiyada hokimiyatini cheklanmagan deb e'tirof qiladi. Fridrix I ning **Bolonya**dan taklif etgan eng bilimdon huquqshunoslari uning xizmatiga kirib, qonunlar majmualarini tuzib beradilar. Jinoiy ishlar, sud qilish, tanga-chaqa zarb etish, shahar hokimlarini tayinlash imperator tasarrufiga o'tadi. Bu qonun to'plamlarida Fridrix I **«yerdagi jonli qonun»** deb e'tirof etiladi.

Mavjud vaziyatda **1162-yili Milan** boshchiligida **Lombardiya** shaharlari bosqinchilarga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olonni bostirish davomida Milan aholisiga **sakkiz kun**da shaharni tashlab ketish sharti qo'yiladi. Milan **XII asr 60 – 70-yillar**ida qayta tiklanib, yangi jangga hozirlik ko'ra boshlaydi. **1176-yili Lenyano jang**ida Liga qo'shini imperator ritsarlarini tor-mor qiladi. **Fridrix I** Shimoliy Italiya shaharlariga **kommuna** – erkinlik huquqini berishga majbur bo'ladi.

Keyinchalik Fridrix I o'g'li **Genrix VI** ni Sitsiliya malikasi **Konstansiya**ga uylantirish orqali Italiyaning janubini qo'lga kiritgan bo'lsa-da, papalarni va Lombardiya shaharlarini Germaniyaga qarshi qilib qo'ydi. **Innokentiy III** Germaniya siyosatiga kuchli ta'sir o'tkazgan papa bo'ldi.

Shlaufenlar qudratiga ma'lum qo'rqinch bilan qaragan Innokentiy III deyarli barcha tomonidan unutilgan Barbarossaning **18 yoshli** nabirasini dastlab german knyazlari qirol deb tan olishiga erishadi. Uning sodiq xizmatkor bo'lishiga umid qilgan papa **Fridrix II** ni oradan **sakkiz yil** o'tib imperator deb e'lon qiladi.

«G'alati» imperator. Fridrix II boshqaruvi paytida german knyazlari mustaqillikka shunchalik o'rganib qoladiki, keyinchalik biror hukmdorga Fridrix I Barbarossa singari o'zini erkin his qilishiga yo'l qo'ymaydilar. Fridrix II imperatorligining **yigirma yilidan ko'pini Italiyad**a, **Sitsiliya qirolligi**da o'tkazadi. Uning saroyida arab, vizantiyalik va yahudiy olimlari to'plangan. Fridrixning o'zi arab va yunon tillarini bilgan, lotin tilida asarlar, italyan tilida she'rlar yozgan. Uning **Palermo**dagi saroyi arab xalifalarining saroylarini eslatardi. Imperator Sharq musiqasi, raqslari, adabiyoti va she'riyati, me'morchiligining havaskori bo'lgan. Sharq hukmdorlarining ayrimlari bilan do'st tutingan.

Imperator mamlakat bo'ylab harakatlanganida, uni filbonlar va jangchilar o'tirgan fillar kuzatib borgan. Fillar ortidan tuyalar, yo'lbarslar, sherlar, qoplonlar yetaklab yurilgan. Fuqarolarda bu jarayon kuchli taassurot qoldirgan. Fridrix II devonxonasida lotin tilining nozik jihatlaridan foydalanilib maktublar, hujjatlar bitilganki, unga butun Yevropa taqlid qilgan. Fridrix II yozgan **«Qushlar bilan ov qilish»** haqidagi asar hozirgacha saqlanib qolgan, asar muallifning sohadan yaxshi xabardorligidan dalolat beradi. Imperator qator maktablar va **Neapol universiteti** asoschisidir. *U cherkov yoki shahar kengashi emas, hukmdor tomonidan tashkil etilgan birinchi universitet bo'lgan.* Zamondoshlari Fridrix II ning g'ayritabiiy qobiliyati va qudratiga qoyil qolib, unga **«Jahon hayrati»** deb nom berishgan.

Fridrix II: g'alaba va mag'lubiyatlarsiz salibchi. Fridrix imperatorlik tojini kiyish marosimida Falastinga salib yurishini tashkil etishga qasamyod qilgan. Lekin va'da qilingan yurishlar muddati orqaga surilaveradi. Nihoyat, kemalar dengizga chiqib, imperator betob ekanligini e'lon qilib ortiga qaytganida, papa **Grigoriy IX (1227 – 1241)** uni cherkovdan xoli deb farmon chiqaradi.

Fridrix II papaning qaroriga qarshi borib **1228-yili Suriya**ga yo'l oladi. Oltinchi salib yurishlarida og'ir janglar bo'lmasdan, imperator Misr sultoni bilan muvaffaqiyatli muzokaralar olib boradi. Natijada **Quddus, Vifliyem, Nazaret** va boshqa shahar hamda viloyatlar Fridrix II ga tinch yo'l bilan topshiriladi. Quddusdagi asosiy masjidlar faoliyati davom etadi. Imperator sultonga uning qanday dushmani bo'lmasin, nasroniy yoki musulmonligidan qat'i nazar, yordam berajagini izhor etadi. Rim papasi **«salibchi emas, qaroqchi»**ning yurishlari natijalaridan g'azablanib **Quddus** shahriga interdikt qo'yadi. Fridrix II esa yepiskop yordamisiz payg'ambar qabri joylashgan ibodatxona mehrobidan Quddus qiroli tojini olib, o'zi tantanali ravishda boshiga kiyadi.

Italiyaga qaytgan Fridrix II papa qo'shinini mag'lub etib **Grigoriy IX** ni o'ziga qo'yilgan jazoni bekor qilishga majbur etadi. Keyingi Rim papasi Fridrix II ni **1245-yili** yana bir bor cherkovdan xoli deb e'lon qiladi. Imperator bu safar qarg'ishdan o'limiga qadar qutulolmaydi. U uzoq yillar goh Shimoliy, goh Janubiy Italiyada janglar olib boradi. Lekin ularda hal qiluvchi g'alabaga erishmaydi.

Fridrix II ning vafotidan so'ng papalar tarafdorlari shtaufenlar sulolasining barcha vakillarini yo'qotishga tushadilar. Uning **16 yoshli** nabirasi **Konradin**ni ritsarlik taomiliga qarshi jallod kundasida qatl etadilar. Quddus imperator hayotligidayoq musulmonlar tomonidan qo'lga olinib, xristianlar qirg'in qilinadi.

Germaniyada **1254 – 1273-yillari** umuman imperator saylanmaydi. Knyazlar **1273-yili** to'planib **Rudolf Gabsburg**ni taxtga o'tqazadilar. Ammo gabsburglar taxtni uzoq davrlarga egallashi uchun hali ancha yillar **lyuksemburglar** sulolasiga qarshi kurash olib borishiga to'g'ri keladi. Faqat **1437-yil**igina gabsburglarning **369 yillik** imperatorliklari boshlanadi.

German shaharlari XIV – XV asrlarda. Nemis knyazlari, salibchi ritsarlarining Boltiqbo'yidagi istilolari Germaniyaning shimolidagi shaharlar yuksalishiga yo'l ochadi. Bu shaharlar **XIV asr o'rtalari**ga kelib **Ganza ittifoqi**ga birlashadilar. Bu faqat iqtisodiy masalalar, savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan ittifoq bo'libgina qolmasdan, **XIV asr 70-yillari**da Shimoliy dengizda savdodagi raqobatchisi **Daniya qirol**iga jiddiy zarba beradi.

Ganza ittifoqidan tashqari **XIII – XV asrlar**da Germaniyaning janubiy va g'arbiy qismidagi shaharlar ham yuksaladi. Dunay sohili bo'ylab joylashgan **90 ta** shaharni birlashtirgan **Shvabiya ittifoqi** Italiya shaharlari bilan bevosita bog'liq edi. **Augsburg, Ulm va Nyurnberg** shaharlari movut, surp, ip-gazlamalar ishlab chiqarishda, metall buyumlar, qurol-aslahalar yasashda yetakchi mavqe tutgan. Reyn daryosi bo'ylab joylashgan g'arbdagi shaharlar: **Kyoln, Vorms, Strasburg**da metall ishlab chiqarish va movut to'qish rivojlangan. Bu shaharlar Niderlandiya, Fransiya va Italiya bilan savdo-sotiq olib borgan.

8.10. RUSDA FEODAL TARQOQLIK, UNING OQIBATLARI

Feodal tarqoqlik. Rus yerlarining fojiasi o'zaro qonli urushlarda edi. Bundan foydalangan qipchoqlar hujumlari vaziyatni yanada murakkablashtirardi. Ayrim knyazlar qipchoqlar bilan ittifoq tuzib qo'shni knyazliklarga qarshi yurishlar qilishi ham uchrab turardi. Asta-sekin ko'pgina knyazlar bu vaziyatdan chiqishni, nizolarga chek qo'yishni o'ylay boshlaydilar. Kiyev knyazi **Yaroslav Donishmand**ning o'g'li **Vladimir Monomax**ning **1097-yili Lyubech shahr**ida knyazlarning birinchi syezdini chaqirishi ham, asosan, o'zaro urushlarga chek qo'yishga mo'ljallandi. Syezdning muhim qarori *«har kim o'z yeriga egalik qilsin»* deyilishidan maqsad o'zga knyazliklarga qarshi bosqinlarni to'xtatish ko'zda tutilgandi.

Ayni paytda, Kiyev knyazining mavqeyi pasayadi. U ilgarigidek rus yerlarini o'g'illariga istaganicha bo'lib berish huquqidan voz kechishga majbur bo'ladi. Kiyev Rusi o'z tarixining muhim bosqichi – siyosiy tarqoqlik davriga kiradi.

Rus qipchoqlarga **Vladimir Monomax (1113 – 1125)** va uning o'g'li **Mstislav (1125 – 1132)** davrida katta talafotlar yetkazadi. Lekin Monomax va Mstislavning vafotidan so'ng nizolar kuchayib boradi. Rusda bu paytda **15 ta** mustaqil knyazlik bo'lsa, keyingi asrda, Botuxon bosqinlari arafasida, ularning soni **50 ta**ga yetadi.

Novgorod respublikasi. Novgorod Kiyev bilan aloqasini uzgan dastlabki knyazlik bo'lgan. **XI asr**da vujudga kelgan Novgorod keyinchalik faqat Rusninggina emas, Yevropaning ham yirik hunarmandchilik va savdo markaziga aylandi.

An'anaga ko'ra, **XI asr**da Novgorod knyazligiga Kiyev knyazining to'ng'ich o'g'li qo'yilgan. Lekin yillar o'tib mahalliy boyarlar ta'siri kuchayib, ular knyaz hokimiyatini cheklay boshlaydilar. Shu tariqa Novgorod boyarlar respublikasiga aylana boradi.

1136-yili novgorodliklar vechesi Monomaxning nabirasi **Vsevolod Mstislavich**ni knyazlik taxtidan chetlatib, zindonga tashlashga qaror qiladi. Xuddi shu paytdan shahar uzil-kesil feodal respublikaga aylanadi. Novgorod siyosiy hayotida asosiy o'rin xalq vechesida saylangan **shahar hokimi**, saylanadigan **«shahar dumasi»** va **yepiskop** qo'liga o'tadi.

Vladimir-Suzdal knyazligi. Moskva. Mahalliy boyarlarning markaziy hokimiyatga qarshi kurashi **XII – XIII asrlar**da **Kiyev, Galich-Volin, Vladimir-Suzdal** knyazliklarida ham kuzatiladi. Vladimir Monomaxning o'g'li **Yuriy Dolgorukiy XII asr**da Volga va Oka daryolari havzasidagi yerlarni boshqarardi. Knyazlikda **XI – XIII asrlar**da **Rostov, Suzdal, Yaroslavl, Vladimir, Yurev** kabi shaharlarga asos solinadi. Knyaz Dolgorukiyning Kiyev ustidan **1147-yil**gi g'alabasini nishonlash sharafiga asos solgan **Kuchkovo** qo'rg'oni keyinchalik **Moskva** nomini oladi. Yuriy Dolgorukiyning avlodlari Vladimir knyazligini **Ivan Grozniy**ga **(1547)** qadar boshqaradi. Vladimir-Suzdal knyazligi va Moskva shahri **XIV asr**dan Rus yerlarining birlashuviga asos bo'ladi.

8.11. RUS YERLARINING CHET EL BOSQINCHILARIGA QARSHI KURASHI

Mo'g'ullarning Rus yerlarini istilo qilishi. **Chingizxon** O'rta Osiyo va Eronning shimolini istilo qilganidan so'ng, **1223-yili** mo'g'ul qo'shinlari rus yerlariga ham bostirib kiradi. Mo'g'ullar harbiy hiyla ishlatib rus askarlarini otliq qo'shin harakati uchun qulay maydonga chiqarib, so'ng hujumda tor-mor qiladi.

Chingizxonning nabirasi **Botuxon 1237 – 1242-yillari** Sharqiy Yevropada istilochilik urushlari olib boradi. Uning qo'shinlari avval Rus knyazliklarini, keyinchalik Polsha, qisman Serbiya va Bolgariyani istilo qiladi.

Rusdagi feodal tarqoqlik mo'g'ullarga qo'l keladi, uzoq qamaldan so'ng **1240-yili Kiyev** olinadi. Botuxon yangi bosib olingan hududlarda **Oltin O'rda** xonligini tuzadi. Uning poytaxti **Saroy Botu** (keyinchalik **Saroy Berka**) Volga daryosining quyi oqimida, hozirgi **Astraxan shahri** yaqinida bo'lgan.

Botuxon bo'ysundirilgan aholidan soliq va to'lovlarni tezroq to'lay boshlashi uchun rus knyazlariga nisbatan himmat ko'rsatadi. **Yaroslav «knyazlar oqsoqoli»** deb tan olinib, Vladimir knyazligini boshqarishga yorliq oladi.

Knyazlardan bosqinchilar talabini qabul qilishni istamaganlari, ularning joriy etgan tartiblarini bajarishdan bosh tortganlari ham uchragan. Jumladan, o'rdada **Chernigov** knyazi **Mixail Vsevolodovich** bilan bog'liq fojia ma'lum. U mo'g'ullarning gukanlar orasidan o'tib tozalanish va sanamlarga ta'zim etish udumlarini bajarishdan bosh tortadi. Bunga javoban mo'g'ullar knyazni kaltaklab o'ldirishadi. Keyinchalik pravoslav cherkovi Mixailni avliyo deb e'lon qilib, uning xokini Moskva Kremlidagi **Arxangelsk ibodatxonasi**da dafn etadi.

Ruslarning nemis va shved bosqinchilariga qarshi kurashi. Nemis feodallari **XIII asr boshlari**da Boltiqbo'yida yashovchi **est** va **liv** qabilalariga qarshi urush olib boradi. Rim papasi salib yurishlari deb e'lon qilgan bu urushlardan maqsad mahalliy aholini katolik diniga o'tkazish ham edi. **Livoniya ordeni** ritsarlari estlar yerlarini egallagach **Novgorod-Pskov** chegaralariga yaqinlashadi. Nemis ritsarlaridan so'ng shved feodallari ham faollashadi. Ular **1240-yili** Neva daryosi bo'ylab Novgorod yerlariga bostirib kiradilar. Ushbu sharoitda Novgorod knyazi **Aleksandr Yaroslavich 1240-yil 15-iyul**da Neva daryosi sohilidagi jangda shvedlar ustidan g'alaba qozonadi. Bu g'alaba sharafiga knyaz Aleksandrga **Nevskiy** nomi beriladi.

Novgorod-Pskov knyazligining mo'g'ullar istilo qilmagan boy yerlari nemis ritsarlarini ham o'ziga jalb etardi. Nemislar qo'shini **1240-yili** Pskov yaqinidagi **Izborsk** qal'asini egallaydi. Shahar hokimi **Tverdila**ning xoinligi tufayli Pskov ham nemislarga o'tadi. O'sha yilning qishida nemis ritsarlari Novgorod chegaralariga yaqinlashadi. Bu sharoitda Novgorod himoyasiga yana Aleksandr Nevskiy boshchilik qiladi. Knyaz **Suzdal** qo'shinlari ko'magida Pskov va uning atrofidagi yerlarni ozod etadi. Hal qiluvchi jang **1242-yil 5-apreli**da **Chud** ko'lida bo'lib, Aleksandr Nevskiy

boshchiligidagi rus qo'shinlari nemis ritsarlari ustidan porloq g'alabaga erishadi. Bu jang **«Muz ustidagi jang»** nomi bilan ataladi.

8.12. RUSNING MO'G'ULLAR ZULMIDAN OZOD BO'LISHI

Rus yerlarining birlashuvi. **XIV asr boshlari**da bir asr avval Vladimir knyazligi chekkasi hisoblangan **Tver** va **Moskva** qo'rg'onlari shaharlarga aylanib, rus yerlarining yangi markazlari sifatida yuksala boshlaydi. Rus yerlaridan Oltin O'rda xoni yorlig'i bilan soliq yig'ish uchun kurashi davomida Tver knyazlaridan bir nechtasi mo'g'ullar qo'lida o'lim topadi. Knyazlar o'zaro kurashda hech qanday usuldan jirkanmaydi, xususan, Moskva knyazi **Yuriy Danilovich**ning **O'zbekxon**ga o'z sadoqatini ko'rsatishi Tver knyazi Mixailning halokati bilan tugaydi. Bu kurash faqat knyaz **Ivan Kalita (1325 – 1340)** davrida uzil-kesil Moskva foydasiga hal bo'ladi.

Moskva knyazlari **XIV asr o'rtalari**ga kelib ancha kuch to'playdi. Bu kuch bilan Oltin O'rdaga qarshi kurashish ham mumkin edi. Knyaz **Dmitriy Ivanovich** taxtga kelganida **10 yosh**da edi. U balog'at yoshiga yetguncha, Moskva knyazligi siyosatini mitropolit **Aleksiy** boshchiligidagi boyarlar kengashi oqilona olib boradi. Oltin O'rda ham **XIV asr o'rtalari**dan siyosiy nizolar davriga kiradi, u deyarli **20 yil** davom etadi.

Moskva knyazi **Dmitriy Ivanovich (1359 – 1389) 1378-yili Vele daryosi** bo'yida mo'g'ullarga qarshi kurashdagi dastlabki g'alabaga erishadi. Knyaz Dmitriy qo'shinlari **1380-yil sentyabr**da Don daryosi sohilidagi **Kulikovo maydon**ida Oltin O'rda tumanboshisi **Mamay** boshchiligidagi qo'shin ustidan yana g'alaba qozonadi. Bu g'alaba sharafiga Moskva knyazi **Donskoy** faxriy nomini oladi. Ammo oradan ikki yil o'tib **To'xtamishxon** yana Moskva ustidan hukmini o'rnatib, rus knyazlarini boj-yasoq to'lashga majbur etadi.

Sohibqiron Amir Temurning Oltin O'rda ustidan **1391-yili Qunduzcha, 1395-yili Tarak daryosi** bo'yidagi janglarda g'alabalari Rus yerlari va Sharqiy Yevropa xalqlarining mo'g'ullar zulmidan ozod etilishida hal qiluvchi omillardan bo'ladi.

Nihoyat, **1480-yili** knyaz **Ivan III** davrida Moskva Oltin O'rdaga boj-yasoq to'lashdan bosh tortadi. Shu tariqa Rus yerlarida deyarli **250 yil** davom etgan mo'g'ullar hukmronligi tugaydi.

9-BOB. OSIYO, AMERIKA VA AFRIKA XALQLARI RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA

9.1. SALJUQIYLAR VA USMONLI TURKLAR DAVLATLARI

Saljuqiylar davlati. O'rta Osiyoda **Saljuqbek** asos solgan sulola boshchiligidagi o'g'uz qabilalarining Old Osiyoga yirik harbiy yurishlari **XI asr**dan kuchayadi. Ko'p o'tmay Vizantiya va unga qo'shni Eron, Iroq, Ozarbayjon, Sharqiy Armaniston hududlarida Saljuqiylar davlati shakllanadi. Ichki ziddiyatlardan zaiflashgan Sharqiy Rim imperiyasi ko'chmanchi turk qabilalari hujumlariga qarshilik ko'rsatolmaydi. Vizantiyaning yollanma qo'shini esa **1071-yili** saljuqiylar sultoni **Alp Arslon** lashkari tomonidan **Mansikert jangi**da tor-mor etiladi. Imperator **Roman IV Diogen** jangda halok bo'ladi. Bu mag'lubiyatdan so'ng vizantiyaliklar deyarli qarshilik ko'rsatolmaganidan, ko'p sonli turkiy qabilalar Kichik Osiyoga yo'l oladi.

Ijtimoiy tuzum. O'g'uzlar bu paytda urug'-jamoachilikning inqirozi va yangi ijtimoiy munosabatlarning paydo bo'lishi bosqichida yashaganlar. Chorvaning asosiy qismi va yaylovlarga egalik qilish huquqlari yangi shakllanayotgan boylar tabaqasi qo'lida to'planib boradi. **XI asr oxiri**da Kichik Osiyoni deyarli to'liq bosib olgan o'g'uzlar o'zlarining qator amirliklarini tuzadilar. Amirliklar rasman saljuqiylar sulolasi hukmini tan olsalar-da, amalda o'z mulklarini mustaqil boshqarganlar.

Ko'chmanchi turkiy qabilalarning o'troq hayotga o'tishi ayni shu paytdan boshlanadi. O'troqlashayotgan turklar o'lkaning tub aholisi – yunonlar va armanlar kabi dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullana boshlashi kuzatiladi. Bu jarayonlar **XII – XIII asrlar**da saljuqiylarda ham feodal davlatning uzil-kesil shakllanishiga olib keladi.

Mamlakatda shakllangan yirik yer egaligi va soliqlar tizimi Sharqdagi islom davlatlarinikidan deyarli farq qilmagan. Ahamiyatli jihati saljuqiylarda davlat yerlarining xususiy yerlarga nisbatan ko'p bo'lishida edi. Davlat yerlarining katta qismi **iqto** tarzida harbiylar va amaldorlarga xizmatlari evaziga in'om etilgan. Iqto dastlab merosiy mulk bo'lmasdan, faqat xizmat muddati davomida foydalanish sharti bilan berilgan.

Shaharlar taraqqiyoti. Saljuqiylar davrida Kichik Osiyodagi **Ko'nya, Sivas, Qaysariya** eng yirik shaharlar qatorida bo'lib, ularda o'n minglab aholi yashagan. Turklar istilosidan so'ng shaharlar qiyofasi ham o'zgarib, sharqona tus ola boshlaydi. Sulton devoni hujjatlari va yozishmalar **fors** tilida olib borilgan. Sharqning buyuk mutafakkiri **Jaloliddin Rumiy (1207 – 1273)** o'z ijodining asosiy qismini Ko'nyada o'tkazgan.

Asta-sekin turkiy qabilalarning mahalliy aholi bilan aralashishi yangi etnos – **turk xalqi**ning shakllanishiga asos bo'ladi. Bu jarayon **XIII asr 20 – 30-yillar**ida kuchayadi. Lekin **1243-yil**gi mo'g'ullar bosqini davlatning keyingi taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. **XIV asr boshlari**ga kelib Kichik Osiyodagi Saljuqiylar davlati butunlay parchalanib ketdi.

Usmonivlar davlatining tashkil topishi. Saljuqiylar davlatining o'rnida ko'plab beyliklar tashkil topadi. Ulardan biri – **Usmon beyligi** Kichik Osiyoning shimoli-g'arbiy hududida, **Eskishahar**ga yaqin joyda edi. Uning keyingi taraqqiyotida beylikning Vizantiya bilan qo'shni bo'lgani qo'l keladi. Tobora zaiflashib borayotgan imperiyaga qarshi harbiy harakatlar beylik yerlarining kengayib borishini ta'minlaydi. Keng istilolar usmoniylar qo'shiniga boshqa qabilalardan ham jangchilarning kelib qo'shilishini ta'minlaydi.

Sulola asoschisi **Usmon (1299 – 1326)** davrida qator yurishlar uyushtirilib, **Bursa shahri** va uning atroflari bosib olinadi. Uning o'g'li **O'rxon** Vizantiya shaharlari **Nikeya** va **Nikomediya**ni olib, Qora dengiz sohiliga chiqadi. Dastlab beylikning boshqaruv tizimi juda sodda bo'lgan. Xususan, bey unvoni Usmon va O'rxonga qabila boshliqlari yig'inida berilgan. *Beylarning asosiy vazifasi esa turkiy qabilalar harbiy kuchlarini, qo'shni hududlarni istilo qilishni ta'minlash bo'lgan.* Beylikning kuchayib borishi uning boshqaruvida ham o'zgarishlarga olib keladi. Natijada **O'rxon**ning boshqaruvi paytida ilk bor **vazir** lavozimi ta'sis etiladi. Tanga pul zarb qilinib, davlat yerlari ma'muriy birliklarga bo'linadi. O'rxon harbiy islohot o'tkazib, qo'shinni piyoda va otliq qismlarga **(«mosallam»)**, alohida harbiy birliklarga aylantiradi.

Bolqon yarimorolidagi istilolar. Usmoniylar istilosiga qadar Bolqon yarimorolida **Vizantiya, Serbiya, Bolgariya, Bosniya** kabi yirik davlatlar mavjud edi. Ammo siyosiy tarqoqlik va ichki ziddiyatlar bu davlatlarning turklar istilosiga qarshi birlashuviga imkon bermaydi. Bolqondagi dastlabki bosqinlar **1353 – 1357-yillari** bo'lgan. Uning asosiy qismini turklar keyingi **o'ttiz yil** davomida egallaydilar. Usmoniylar poytaxti Bolqondagi **Edirne** (Adrianopol)ga ko'chiriladi. **XIV asr 80-yillar**idan Serbiyaga hujum boshlanadi. **1389-yili Kosovo maydonida**gi jangda turk qo'shinlarining g'alabasi serblarning o'z mustaqilligini yo'qotishiga olib keladi. Usmoniylar **1393-yili** Bolgariya poytaxti **Tirnovo** shahrini egallaydi, **1396-yili Nikopol** yonidagi jangda venger, valax, bolgarlardan tuzilgan **60 minglik** ritsarlar qo'shinini yengadi.

Turk sultoni **Boyazid (1389 – 1402)** bu janglarda o'zining tezkor g'alabalari bilan shuhrat qozonib **Yildirim** (Shiddatli) nomini oladi. Sultonning **Konstantinopol**ni qamal qilishi Yevropani sarosimaga solgan.

Ayni paytda, **Amir Temur**ning Boyazidga qarshi Kichik Osiyo yurishi boshlanadi. **1402-yil yozi**da **Anqara** yaqinidagi jangda Sohibqiron qo'shinlari Boyazid lashkarini yengadi. Bu voqea turklar tomonidan Konstantinopolning olinishiga yo'l qo'ymay, Vizantiyaning yana **50 yil** yashashiga imkon yaratadi.

Konstantinopolning qulashi. Usmoniylar sultoni **Mexmet II (1451 – 1481) yuz minglik** qo'shini bilan Konstantinopolni qamal qiladi. **1453-yil 29-may**da Konstantinopol turklar tomonidan olinadi. Vizantiyaning so'nggi imperatori jangda halok bo'ladi. Usmoniylar shaharni **Istanbul** deb nomlab, unga o'z poytaxtlarini ko'chiradi.

Usmonli turklar g'alabalarining omillari. Usmoniy turklar qudrati yaxshi tashkil etilgan otliq va piyoda qo'shin, lashkarboshilik xususiyatlariga ega sultonlarning, hukmdorga sadoqatli yanicharlar piyoda qo'shinining bo'lishida edi. Usmoniylar otliq qo'shinni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratdilar. Qo'shinning har bir suvoriysiga **3 – 5 ming piastr** daromad keltiradigan yer-mulk – **tumori** berilgan. Bu yerlar faqat turklarga va harbiylarga xizmatda bo'lgan paytida taqdim etilgan. Natijada otliq qo'shin soni **150 ming** suvoriygacha yetgan.

Sulton Yevropadagi eng yaxshi piyoda qo'shinga ham ega edi. **XIV asr o'rtalari**dan asirga olingan eng sog'lom va baquvvat xristian bolalaridan sultonning shaxsiy gvardiyasi jangchilari tarbiyalangan. Yillar o'tib bolalar o'z tilini va dinini unutib, sultonning sodiq **yanicharlari**ga aylangan. Usmoniy turklar sultoni jangga hamisha o'zining sodiq yanicharlari bilan kirgan. Oilasi, boyligi, mol-mulki bo'lmagan yanicharlar sulton uchun jonini ham ayamagan. Ular **Varna, Kosovo, Konstantinopol** janglaridagi g'alabalarga katta hissa qo'shganlar. Turk qo'shiniga shuhrat keltirgan lashkarboshi va jangchilarning aksariyati yanicharlardan chiqqan.

Usmoniylarning keyingi istilolari. Yevropa va Osiyoni bog'lab turgan savdo yo'llari ustidan nazorat Vizantiya poytaxti olinishi bilan turklar qo'liga o'tadi. **XV asr 2-yarmi**da Usmoniylar davlati o'z istilolarini davom ettiradi. **1475-yili Qrim yarimoroli** bo'ysundiriladi. Ko'p o'tmay **Moldaviya** va **Valaxiya** turklar, vassalligini tan olishadi. Old Osiyoda turklar **Mesopotamiya**, **Armaniston** va **Gruziyaning g'arbiy qismi**ni, keyinroq **Suriya** va **Arabiston**ni bosib oladilar. Keng istilochilik yurishlari **Usmoniylar imperiyasi**ning tashkil topishi bilan yakunlandi.

Madaniyat. Usmoniylar jamiyatida **XV asr oxiri**da madaniyatning turli sohalari: adabiyot, tasviriy san'at, me'morchilik ravnaq topdi. Geografik bilimlar va tarixshunoshlik ham yaxshi rivojlandi. Shoira **Mehri xotun** va shoir **Mulla Mahmud** kabi qator iqtidorli shoirlar yetishib chiqdi. Turk

me'morchiligi turli mamlakatlardan keltirilgan usta-quruvchilar tajribasidan foydalanib yuksala borgan. Millati grek **Xoja Sinon (1490 – 1588)** qurgan ajoyib me'morchilik durdonalari uni butun jahonga tanitdi. U faoliyati davrida **300 dan ortiq** inshootlar: masjidlar, madrasalar, saroylar, favvoralar, hammom va ko'priklar qurilishiga boshchilik qilgan.

Fanning turli sohalari ichida geografiyaning taraqqiyoti, ayniqsa, e'tiborga molikdir. Turkiyalik dengiz sayyohi **Piri Rais** asarlari, uning O'rta, Qora va Egey dengizlari atlasi – **«Bahriya»** dunyo fanidagi katta yutuq edi. **Evliya Chalabiy**ning **«Sayohatnoma»** ko'p jildli asari, **Xoja Xalifa**ning **«Jahonnoma»** asarlarida arab va Yevropa manbalari asosida jahonning turli mamlakatlari tasvirlangan.

9.2. MO'G'ULLAR DAVLATI VA UNING BOSQINI

Ijtimoiy tuzum. Mo'g'ul qabilalari qadimdan Janubiy Sibir, Manjuriya va Mo'g'uliston hududlarida yashab kelgan. Ularning ko'pchiligi ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullangan, o'rmonda yashagan ayrim urug'lar ovchilik va baliqchilik bilan kun kechirgan. **XII asr 2-yarmi**dan mo'g'ullar ijtimoiy munosabatlarida yangi xususiyat – mulkiy tabaqalanish kuchaya boshlaydi. Urug'chilik jamoalari alohida ko'chmanchi xo'jalik – **aylar**ga bo'linib, har bir ayl endilikda o'z xo'jaligi – mollarining egasiga aylanadi. Urug'-qabilalarda boy xonadonlar, bo'lajak mo'g'ul zodagonlari: **no'yonlar, bahodirlar, botirlar** shakllana boradi. Aksariyat urug' boshliqlari no'yonlar o'z urug'doshlaridan navkarlar olib harbiy bo'linmalar tuzadilar. Mulkiy tabaqalanish sharoitida hayotning o'zi ularni harbiy **qabila ittifoqlari** tuzishga majbur etadi. Ularni **xonlar** boshqargan. Kuchli qabila ittifoqlari o'zlariga tobe etilgan qo'shnilardan boj-to'lovlar olib turganlar.

Bu qabila ittifoqlari, «harbiy demokratiya» bosqichidagi an'anaga binoan, o'z yig'inlari, qurultoylarida eng muhim: urush, sulh, ittifoq tuzish, xonni saylash kabi masalalarni hal etardilar.

Chingizxon davlati. Mo'g'ul qabilalari orasidagi o'zaro urushlarda **XIII asr boshlar**ida **Temuchin (1155 – 1227)** g'olib chiqadi. **1206-yili Onon daryosi** bo'yidagi qurultoyda u ulug' xon deb e'lon qilinadi. Bosh shomon butun xalq oldida Temuchinga **Chingizxon** unvonini beradi. Chingizxon so'zi **«kuchli»**, **«qudratli»**, **«toza»** ma'nolarini bildiradi. Mamlakatni markazlashtirish maqsadida Chingizxon **Qoraqurum qal'asi**ni o'z davlati poytaxtiga aylantiradi.

Mo'g'ullar qo'shinini kuchaytirishga katta e'tibor qaratilgan. Tinch

paytda chorvachilik bilan shug'ullangan mo'g'ullar urush boshlanishi bilan **o'nlik tizim**dan iborat muntazam qo'shinga aylanardi. Qo'shin **yuzboshi, mingboshi, tumanboshilar** tomonidan boshqarilgan. **Bahodir, botir, mergan, sechan, no'yonlar** mo'g'ul harbiy zodagonlarini tashkil etgan. Talonchilik bosqinlari ko'chmanchilar uchun asosiy mashg'ulotga aylana boradi.

Mo'g'ullar tez orada Janubiy Sibirda yashagan ko'pgina xalqlarni bo'ysundiradi. Ular qatorida **buryatlar, yoqutlar, qirg'izlar** va boshqalar bor edi.

Mo'g'ullar qo'shini. Mo'g'ullarning sevimli quroli kamon edi, jangchi raqibini yuzlab metrdan nishonga ola bilgan. Jangchilarning ko'pchiligi **nayza** va **qilich** bilan qurollangan. Har bir ko'chmanchining kundalik hayotida ham, jang paytida ham, albatta, **arqoni** bo'lishi lozim edi. Qo'shni mamlakatlarni istilo qilish jarayonida Chingizxon qo'shini devorni buzishda maxsus moslama – **palaxmonlar**dan foydalanishni o'zlashtiradilar.

Ko'chmanchilar qo'shini, odatda, **uchta** qismga bo'lingan: **markaz** va **ikki qanot**. Jang boshlanganda markaz yolg'ondan chekingan, dushman uni ta'qib eta boshlasa, qanotlardan hujumga uchrar, chekinayotganlar ham to'xtab jangga kirishardi. Asosiy qo'shindan tashqari Chingizxon ixtiyorida **«keshik»** deb yuritilgan maxsus gvardiya ham tashkil etiladi. Keshik favqulodda holatlar uchun doimo jangovar holatda tutib turilardi. Jangni mohirona boshqarish, kuchli va intizomli otliq qo'shinning bo'lishi, qo'shni mamlakatlardagi siyosiy tarqoqlik mo'g'ullarga g'alaba keltirgan.

Mo'g'ullar udumlari. Mo'g'ullar xoni qarorgohiga kelgan elchilar qator kutilmagan sinovlardan o'tkazilgan. Xon huzuriga kirish istagidagi barcha kishilarning o'zlarigina emas, ularning sovg'a-in'omlari ham turli duo, yovuzliklardan **«tozalanishi»** lozim edi. Bunga, ma'lum udumga ko'ra, shomonlarning qattiq nazoratida ikki katta gulxan orasidan o'tish orqali erishilgan.

Mo'g'ullarda **olov** ularning o'zlarini va hukmdorlarni asrovchi omillarni mujassamlashtirgan qudratli kuch hisoblangan. Elchilar ortidan turli sovg'alar ortilgan aravalar ham olib o'tilgan. Shomonlar aravadagi buyumlardan ayrimlarini olib olovga – ilohlarga qurbonlik sifatida tashlaganlar. Shundan so'ng yog'och va jundan yasalgan qator qilib qo'yilgan but va sanamlar orasidan o'tayotib ularga ham ta'zim qilib hurmat bajo keltirish lozim edi.

Istilolar. Chingizxon **1211-yil**dan **Shimoliy Xitoy**ga qarshi urush boshlaydi. Mamlakatning batamom istilo qilinishi uning vorislari davrida tugatiladi. **Yettisuv** va **Sharqiy Turkiston**ga qarshi **1218-yili** boshlan-

gan bosqinlar **Xorazmshohlar davlat**iga **1219 – 1221-yillari** yoyiladi. **Afg'oniston, Sharqiy Eron** egallanib, **Kavkaz** orqali **1223-yili Dashti Qipchoq**qa chiqiladi. **Kalka daryosi** bo'yida qipchoqlarning ittifoqchisi sifatida ularga yordamga kelgan ruslar qo'shini mag'lub etiladi. **1224-yili** Chingizxon zabt etilgan hududlarni o'g'illari: **Jo'ji, Chig'atoy, O'qtoy** va **Tulu**ga taqsimlab beradi. **O'qtoy**ni taxt vorisi etib tayinlaydi.

9.3. OLTIN O'RDA XONLIGI

Yangi bosqin. Mo'g'ullarning **1235-yil**gi qurultoyida **O'qtoy qoon** (xon) Chingizxonning Rus va Shimoliy Kavkaz yerlarini bosib olish haqidagi vasiyatini eslatib, to'planadigan qo'shinga **Botuxon** yetakchilik qilishini e'lon qiladi. Uluslardan **o'nta askardan bittasi**ning ajratilishi, Botuxonga yordamga Chingizxon sarkardalaridan **Subutoy bahodir**ning berilishiga kelishiladi. Botu va Subutoy **1237-yil kuzi**da Rus yerlariga hujum boshlab dastlab **Ryazan**ni olishadi. Rusdagi siyosiy tarqoqlik mo'g'ullarga yetarlicha qarshilik ko'rsatish imkonini bermaydi. **1238 – 1240-yillari Vladimir Suzdal, Kiyev, Galich, Volin** va boshqa shaharlar bosib olinadi. Mo'g'ullar tomonidan **1241 – 1242-yillari Chexiya, Vengriya, Polshaning bir qismi** ham egallanadi. Lekin **1243-yili** O'qtoyning vafot etishi munosabati bilan Botuxon Volgabo'yi dashtlariga qaytadi. Shu tariqa Botuxon istilo qilgan **Volgabo'yi, Shimoliy Qora dengiz sohillari, Shimoliy Kavkaz, Moldaviya** hududlarida rus yozma manbalarida **Oltin O'rda** nomini olgan **Jo'ji ulusi** shakllanadi.

Boshqaruv tizimi. Oltin O'rdani Botuxon va uning avlodlari boshqargan. Muhim masalalarni hal etish uchun qurultoy chaqirilgan. Ijro hokimiyati boshlig'i **beklarbegi** bo'lib, devon ishlarini **vazir** boshqargan. Mahalliy boshqaruv **dorug'a** va **bosqoqlar** qo'lida bo'lgan. Rus knyazlari va aholisiga oliy hukmdor mo'g'ullar hokimi ekanligi e'lon qilinadi. Har bir knyazlik, eng avvalo, xon ulusi, so'ng knyaz yurti ekanligi uqtiriladi. Rusda barcha knyazlar Oltin O'rdadan boshqaruv yorlig'i oladi. Vladimir knyazi **Yaroslav** ularning **«ulug'i»** deb tan olinadi.

Istilo qilingan hududlar **10 ming suvoriy** saqlay oladigan **tuman**larga bo'linadi. Knyazliklar qo'shini zarur paytda harbiy xizmat o'tash uchun uzoq o'lkalarga yo'l olishga, Chingizxon vorislarining manfaatlari uchun jang qilishlariga to'g'ri kelgan. Dastlab mo'g'ullar bo'ysundirgan hududlarda o'zlarining an'anaviy boshqaruv tizimini joriy etadi. Bosib olingan dashtlar Botuning ukalariga berilib, ularning **suyurg'ol** mulkiga aylanadi. Suyurg'ol egalari xon qo'shiniga ma'lum belgilangan sondagi

jangchilarni jo'natishdan tashqari aholidan to'plangan soliqlarning bir qismini ham yuborgan.

Oltin O'rda **XIV asr**dan **to'rt** katta viloyatga bo'linib, ular **ulus** nomini oladi. **Ulusbegisi** qo'shin boshlig'i bo'lishidan tashqari o'ziga tegishli hududdagi boshqaruvga oid barcha masalalarni ham hal etgan. Oltin O'rda qo'shinini **beklarbegi** boshqargan. U ko'chmanchilar zodagonlari yetakchisi hisoblanib, ba'zida xondan ham ko'proq mavqega erishgan. Bu hol ayrim paytlarda qonli mojarolarga ham sabab bo'lgan. **No'g'ay, Mamay, Edigey** kabi beklarbegilar hatto xonlarni ham o'z xohishlariga qarab tayinlaganlar.

Oltin O'rda xonligida davlat boshqaruvining taraqqiyoti amaldorlarning kuchayishiga olib keladi. Mo'g'ullar imperiyasining bu qismidagi boshqarma namunasi sifatida O'rta Osiyodagi musulmon davlatlari ma'muriyati olinadi. Natijada xon yonida **vazir** lavozimi joriy etiladi, u mamlakatda harbiy bo'lmagan barcha sohaga mutasaddi edi. Vazir va uning yetakchiligidagi **devon soliqlar, moliya, savdo ishlari**ni boshqargan. Devonxonada soliq daftarlari ham saqlangan.

Soliqlar. Mo'g'ullar aholini o'nlik tizimiga bo'lish maqsadida aholini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazadi. Bu tadbir **1248-yili** janubiy knyazliklardan boshlanib, **1257-yili** shimoliy knyazliklarga ham yetib boradi. Aholi ro'yxatga olinishining yakunida mamlakat aholisi **«chiqim»** deb nomlangan katta to'lovga tortiladi. Bundan tashqari, aholidan shoshilinch yig'iladigan soliq – **talab** ham olingan. Xonga urush boshlash uchun mablag' zarur bo'lsa, u rus knyazlariga talab yuborgan. Xon va uning yaqinlari, elchilar uchun sovg'a-salomga, o'rda amaldorlariga poraga ham katta mablag'lar sarflangan. Soliq va bojlar to'lanishini **bosqoqlar** – maxsus tayinlangan mo'g'ul noiblari nazorat etishgan.

Holsizlangan knyazliklardan dashtga mo'yna, kumush ortilgan karvonlar, qullikka mahkum etilganlar yo'l olgan. Qullikka soliqlarni to'lay olmaganlar mahkum etilgan.

Rus yerlari, bundan tashqari, Mo'g'ullar imperiyasi bo'ylab tashkil etilgan **yomlar** – yo'l bekatlariga xizmat ko'rsatishda ham qatnashganlar. Xitoydan qabul qilingan bu tizim istilo qilingan barcha o'lkalarda joriy etilgan. Yom xizmatini atrofdagi aholi bajargan, bekatlarda elchilar, choparlar, amaldorlar uchun doim otlardan tashqari oziq-ovqat ham tayyor bo'lishi ko'zda tutilgan.

Rus yerlarini qaramlikda saqlashning yana bir usuli mo'g'ullarning bir necha martalab bosqinlar uyushtirishi ham edi. Tarixchilarning hisobicha, **XIII asr 2-yarmi**da dushman rus yerlariga **o'n to'rt marta** talonchilik hujumlarini tashkil qilgan.

Rus knyazlari Oltin O'rda qudratini to'g'ri anglab, bosqinchilar bilan tinch yashashga harakat qilishgan. Bu tadbir mavjud sharoitda knyazlar o'z xalqini saqlab qolishi, ularni qullikka olib ketmasligining yagona yo'li edi. Tinchlik siyosatini Vladimir knyazi **Yaroslav** boshlab, uning o'g'li **Aleksandr Nevskiy** davom ettirgan. Knyaz Aleksandr Oltin O'rdaga bir necha bor tashrif buyurgan. Mo'g'ulistonda ham bo'lib, mahalliy amaldorlarning hurmat-e'tiboriga erishadi. Bu tadbirlarning barchasi keyinchalik mo'g'ullar bosqoqlarni tasdiqlamasdan rus yerlaridan boj yig'ishni knyazlardan biriga topshirishiga olib keladi.

Tashqi siyosat. Tashqi siyosat masalalari bilan xon, uning yaqin maslahatchilari, shuningdek, beklarbegi shug'ullangan. Oltin O'rda uzoq vaqt Sharqiy Yevropaning eng kuchli davlati bo'lganidan, ko'pgina mamlakatlar taqdiri unga bog'liq edi. Shu sababdan Yevropa qirollari, Rim papalari, Vizantiya imperatorlari va turk sultonlari xon saroyi bilan do'stona munosabatda bo'lishga intilganlar.

Eronda mustaqil davlat tuzgan **Xuloku** va uning vorislari esa Oltin O'rda bilan **Kavkazort**iga egalik qilish masalasida raqobat qila boshlaydi. Bu ikki mo'g'ul davlati qo'shinlari qator janglarda to'qnashib, goh u tomon, goh bu tomonning qo'li baland kelgan. Bu janglardan birida **1266-yili** Botuxonning ukasi **Berkaxon** ham halok bo'ladi. Xuloku ulusiga qarshi kurashda Oltin O'rda **Misr sultonlari** bilan ittifoq tuzadi.

Oltin O'rda lashkari **Bolqon yarimoroli, Litva va Polsha**ga bosqinlar uyushtirardi. Ulardan maqsad istilo emas, qo'shni hududlarni talash va O'rdani boshqarayotgan zodagonlarni boyitishga qaratilgandi.

XIV asr 1-yarmida Oltin O'rda davlati o'z qudratining cho'qqisiga erishadi. Bu jarayon **O'zbekxon (1312 – 1342)** va uning og'li **Jonibek (1342 – 1357)** nomi bilan bog'liq. Oltin O'rda qudratini mustahkamlagan omillardan biri islom dinining qabul qilinishi bo'ldi. Mo'g'ullar imperiyasi asoschisi Chingizxon barcha diniy e'tiqodlarga birday munosabatda bo'lishni vasiyat qilgandi. Uning avlodlari bu vasiyatni bajarishga harakat qilganlar. Oltin O'rda poytaxti **Saroy shahri**da turli diniy ibodatxonalar qurilgan. Ammo mo'g'ullarning ko'pchiligi majusiy-shomonlikka mansub bo'lib qolganlar.

XIV asr boshida Oltin O'rdada vaziyat o'zgaradi. Hukmron doiralarning uzoqni ko'ra biladigan vakillari ulkan mamlakat hayotini eski mo'g'ul an'analari asosida boshqarish mumkinmasligini tushunib yetadilar. Davlatni boshqarish tobora murakkablashib boradi. Iqtisod va moliyani tushunadigan, savodli kishilarga talab oshib boradi. Bu borada eng ma'qul keladigan amaldorlar o'rta osiyoliklar edi. Qolaversa, Oltin O'rda

savdo-sotig'i avvaldan musulmon savdogarlari qo'lida bo'lgan. Eron va Misr bilan uzluksiz munosabatlarning o'rnatilishi ham arab va fors tili bilimdonlarini jalb qilishni taqozo etardi. Bundan tashqari, barcha uchun yagona din hukmdor atrofida fuqarolarni mujassamlagan bo'lardi. O'zbekxon **1314-yili islomni davlat dini** deb e'lon qiladi. Unga qarshilik ko'rsatmoqchi bo'lgan zodagonlar va hatto qarindoshlari shafqatsiz qirib tashlanadi.

Shaharlar. O'zbekxon davri shaharsozlikning yuksalishi bilan ham xususiyatlanadi. **XIV asr o'rtalarida** Oltin O'rdada **yuzdan ortiq** shaharlar bo'lgan. Ularning ba'zilari eski, mo'g'ullar istilosidan avvalgi qo'rg'onlar edi. Bosqinchilar ularni avval vayron qilganlar, so'ng savdo yo'llari ustidagi ko'plab shaharlar qayta tiklanadi. O'rda hukumati savdo-sotiqning rivojlanishidan manfaatdor bo'lgan.

Ayrim shaharlarga mo'g'ullarning o'zi asos solgan. Bunga sabab o'rdada amaldorlar soni oshib borar, ular xon bilan u joydan bu joyga ko'chib yurolmasdi. Moliya ishlarini bajarishi uchun ko'chma **o'tov** yaxshi moslashmagan, qolaversa, moliya hujjatlarini saqlash ham talab etilgan. Odatda, bunday shahar uchun xon yoki ulusbegi qishlaydigan joy tanlanardi. Oltin O'rdaning har ikki poytaxti: **Saroy Botu** va **Berkaxon** qurgan **Saroy Berka** shu tariqa paydo bo'lgan. O'rda davrida Rossiyada vujudga kelgan ayrim shaharlar: **Tula, Tyumen, Azov, Astraxan** hozirga qadar mavjud.

O'zbekxon va Jonibek davrida Oltin O'rda shaharlari gullab-yashnagan. Ular iqtisodiy va madaniy hayot markazlariga aylangan. **Saroy** va **Yangi Saroy** dunyoning eng katta shaharlari qatorida bo'lgan.

Jonibekning vafotidan so'ng Oltin O'rda taxti uchun kurash boshlangan. Chekka o'lkalar mustaqillikka erisha boshlaydilar. **XIV asr oxirida To'xtamishxon** uni **o'n besh yilga** yana birlashtiradi. Lekin davlat tarixining fojiali sahifalari aynan uning hukmdorligi bilan bog'liqdir. Bunga To'xtamishning Movarounnahr hukmdori Amir Temur bilan raqobati sabab bo'ladi. Amir Temur Jo'ji ulusiga qarshi **uch marta** yurish qiladi. Shimoliy Kavkazdagi **1395-yilgi** To'xtamishning Amir Temurdan mag'lubiyati **Saroy, Saroy Berka, Astraxan shaharlari** vayron etilishiga sabab bo'ladi. Shundan keyin savdo yo'llari janub tomonga siljiydi. Amir Temurning yurishlari Oltin O'rdani uzil-kesil zaiflashtiradi. Oltin O'rda **XV asr 1-yarmida** qator xonliklarga bo'linib ketadi. Ulardan eng yiriklari **Qrim, Qozon, Sibir, Qozoq** xonliklari va **No'g'ay o'rdasi** bo'lgan.

9.4. XITOY XIII – XV ASRLARDA

Iqtisodiy taraqqiyot. Xitoyda uzoq davom etgan siyosiy tarqoqlik va o'zaro urushlarga **sun** sulolasining **(960 – 1279)** hokimiyatga kelishi chek qo'ydi. Natijada mamlakat xo'jaligining yuksalishiga zamin yaratildi. **X asr**dan suvni nisbatan baland joylarga chiqaruvchi moslamalardan keng foydalana boshlandi. *Chig'ir idishlari sopol ko'zachalar yoki yog'ochdan cho'michlar shaklida yasalgan bo'lib, ulardan foydalanish ekin maydonlarini ko'paytirish imkonini beradi.* Suv tegirmonlari yordamida sholini tozalash, moy olish, un chiqarish tobora keng qo'llana boshlaydi.

Dehqonchilikda almashlab ekishni Xitoyda ilk o'rta asrlardan qo'llay boshlaganlar. Ertapishar ekinlardan **ikki marta** hosil olingan. Asosiy ekin – **sholi**ning urug'ini tanlashga, unib chiqqan sholi ko'chatlarini yaganalab ishlov berishga alohida e'tibor qaratilgan. Mamlakat janubida **shakarqamish** yetishtirish, shimoliy viloyatlarda esa **pilla qurti** boqish tobora keng tus ola boshlaydi.

Xitoyda qishloq xo'jaligidagi yumushlarning deyarli barchasi sodda mehnat qurollari ko'magida qo'lda bajarilgan. Mamlakatda otlar kam bo'lib, borlaridan ham, asosan, harbiy maqsadlarda foydalanilgani buning asosiy sabablaridan biri edi.

Rivojlangan o'rta asrlarda Xitoyda imperator, harbiy zodagonlar, amaldorlarga qarashli davlat yerlari kamayib, zamindorlarning xususiy yerlari tobora ko'payib boradi. Xususiy yerlar, shuningdek, yangi o'zlashtirilayotgan qo'riq va tog'oldi hududlari hisobiga ham kengayib borgan. Yirik mulkdorlar yerlari ko'payishiga kambag'allarning qarzlari evaziga yerlari tortib olinishi ham xizmat qilgan. Shu tariqa **XI asr boshlari**da ekin maydonlarining **yarmi** yirik zamindorlar qo'liga o'tadi. Bu yerlarda, asosan, ijarachi dehqonlar ishlaganlar.

Xitoyda erkin dehqonlarning aksar qismida **30 – 40 mu** yer bo'lib, davlat bu tabaqani qo'llashga intilgan. Xitoy dehqonlari o'zlari yetishtirgan mahsulotlaridan davlatga har yili **ikki marta** soliq to'laganlar. *Yer solig'i sholi yoki bug'doy bilan to'lansa, pilla boqqan xonadonlar soliqni gazlama bilan ham to'lagan.*

Shaharlar va hunarmandchilik. Xitoyda shaharlarning vujudga kelishi **X – XII asrlar**da ham davom etadi. **Kayfin**, **Chendu** va **Uchan** shaharlari Xitoyning yirik savdo va hunarmandchilik markazlari edi. Xitoy savdosida suv yo'llari alohida ahamiyat kasb etgan. Ko'pchilik shaharlar dengiz yoki daryo bo'ylarida, suv va quruqlikdagi savdo yo'llari kesishgan joylarda vujudga kelgan.

Shaharlarning o'sishi hunarmandchilikning jadal rivojlanishini ta'minlaydi. Temir, mis qazib olish va eritish ko'payib boradi. Jumladan, IX asrdagiga nisbatan mis ishlab chiqarish **30 marta**, temir eritish **12 marta** ko'payadi. Shuningdek, qo'rg'oshin, simob, qalay, oltin, kumush qazib olish ham yuksalib borgan. Xitoyliklar ma'danlarni eritish va ularga ishlov berishda maxsus kimyoviy moddalar, kokslovchi toshko'mirdan keng foydalanishgan. Bu esa temirchilikni yuksaltirib, undan qurol-aslaha, pichoqlar, mixlar, turli idishlar tayyorlashning kengayishini ta'minlagan.

Xitoyning janubiy viloyatlarida hunarmand-to'quvchilar shoyi gazlamalarning o'nlab xillarini tayyorlaganlar. Ipakdan shoyi so'zana – **panno** to'qish **XII asr**da ixtiro qilinib keng tarqaladi. Xitoyda paxtachilik ham tobora keng yoyilib, **XIV asr**dan undan gazlama tayyorlash ham rivojlana boradi.

Xitoy shaharlarida kiyim tikish, poyabzal, ro'zg'or buyumlari, yelpig'ichlar, soyabonlar, zeb-ziynat buyumlari ishlab chiqaradigan ko'plab do'kon va ustaxonalar joylashgandi. Ustaxonalarda mehnat taqsimoti shakllanmagan, hunarmand har bir buyumni tayyorlashda boshidan oxiriga qadar o'zi qatnashgan. Xitoyda bo'lgan Marko Poloning yozishicha, ustaxonalarda **10 tadan 40 tagacha** kishi ishlatilgan.

Sex a'zosi bo'lish Xitoy hunarmandlari uchun **majburiy** edi. Yevropadagi kabi undagi sexlar ham xalfa, shogirdlar sonini, ularning ish sharoitini, tayyor hunarmandchilik buyumlarini sotishni, hunar sirlarini saqlashni nazorat qilgan.

Savdo. Yevropadan farqli o'laroq, Xitoy shaharlarining hunarmandlar yashaydigan qismida ham qizg'in savdo olib borilgan. Shaharlarda hatto **tungi bozorlar** ham joriy etilgan. Katta bayram kunlari yarmarkalar tashkil qilingan. Mamlakatda pul munosabatlari yuksalgan, mis va temir pullardan tashqari kumush va oltin, hatto qog'oz pullar ham tayyorlangan.

Xitoy qo'shni mamlakatlar bilan keng ko'lamda savdo-sotiq olib borgan. Buyuk ipak yo'li Xitoyning O'rta Osiyo orqali **Eron va Vizantiya** bilan savdo olib borishiga imkoniyat yaratgan. Dengiz sohilidagi port shaharlar: **Ninbo, Xanchjou** va **Guanchjou** Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan faol savdo olib borishgan. Yozma manbalarda o'rta asrlarda Xitoyning port shaharlarida bir paytning o'zida **200 mingga yaqin** hind, arab, fors, arman, yahudiy savdogarlari bo'lgani qayd etilgan.

Mo'g'ullar istilosi. Dastlab Xitoyning shimolida tuzilgan mo'g'ullar davlati **Xubilay xonligi** davrida **(1259 – 1294)** o'z ta'sirini mamlakatning markaziy va janubiy hududlariga ham o'tkazadi. Xitoy **1279-yili** to'liq bo'ysundirilib, yangi mo'g'ullar sulolasi **yuan (1279 – 1368)** nomini oladi.

Mo'g'ullar Xitoydagi yerlarni unda yashaydigan dehqonlari bilan birga bo'lib olishadi. Ammo dehqonchilikda xo'jalik yuritish usullari va soliqlar avvalgicha qoladi.

Xubilay mamlakatni boshqarishning xitoycha usulini qo'llasa-da, mahalliy amaldorlar xizmatidan voz kechadi. Natijada davlat moliyasi o'zbek **Ahmad**ga topshirilsa, **Nasriddin** va **Masarly** lashkarboshilikka tayinlangan. Davlat amaldorlari orasida turli xalq vakillarini uchratish mumkin edi. Xususan, venetsiyalik sayyoh va savdogar **Marko Polo** Xubilayxon saroyida yuksak lavozimni egallagan.

Min sulolasi boshqaruvi. Mo'g'ullar imperiyasining inqirozi boshlanishi bilan **XIV asr o'rtalari**dan Xitoyda ham xalq ozodlik harakati kuchayadi. **Xenan** va **Shandun** viloyatlarida **1351-yili** boshlangan dehqonlar qo'zg'oloni tez orada butun mamlakatni qamrab oladi. Qo'zg'olonga rohib **Chju Yuan-Chjan** boshchilik qiladi. **1368-yili** mo'g'ullardan ozod bo'lgan Xitoyda **Yuan Chjan** asos solgan **Min imperiyasi** faoliyati boshlanadi.

Min qo'shinlari mo'g'ullar poytaxti **Qoraqurum**ni egallab yondirib yuboradi. Shu tariqa ko'chmanchilarning Xitoyga hujumlariga chek qo'yiladi. Bunda xitoyliklarga **o'q-dori (porox) va zambaraklar**dan keng foydalanish qo'l keladi.

Mamlakat xo'jaligini tiklash uchun hunarmand va savdogarlardan olinadigan to'lovlar kamaytirilib, qullarni ozod etish haqida qonun qabul qilinadi. Sun'iy sug'orish inshootlari, kanallar, to'g'onlar va suv omborlari tiklanadi. Ekin maydonlari kengayib, mamlakat aholisi soni ham osha boradi. Lekin **1380-yili** Xitoy janubida shimoldagiga nisbatan **2,5 barobar ko'p** aholi yashardi. Buning asosiy sababi janubda sholining ertapishar navlaridan **2 – 3 marta** hosil olinishi bo'lgan. Xitoyga **XI asr**da qo'shni **Tailand**dan sholining ertapishar navlari keltirilishi yuqorida ko'rsatilgan jarayonlarga omil bo'ladi.

Xitoy XV asrda. Mamlakatda yirik zamindorlar hokimiyati mustahkamlanishi bilan, mo'g'ullar bosqini asoratlarini tugatish uchun dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlarga berilgan imtiyoz hamda yengilliklar bekor qilinadi. Dehqonlarga bo'lib berilgan davlat yerlari tortib olinib, hunarmand va savdogarlardan olinadigan soliqlar ko'paytiriladi.

XV asr boshlaridan min sulolasining Amir Temur saltanati bilan munosabati buziladi. Faqat Amir Temurning qo'qqisdan vafot etishi Xitoyga qarshi yurishning amalga oshmasligiga sabab bo'ladi. Bu esa Xitoyga **1406-yili Vyetnam**ni, keyinchalik **Mo'g'uliston**ni istilo qilishga yo'l ochadi.

Mamlakatning iqtisodiy yuksalishi **Chjan Xe** boshchiligidagi harbiy-dengiz floti faoliyatida namoyon bo'ladi. Tarkibida **62 ta kema, 30**

ming jangchisi bo'lgan harbiy ekspeditsiya **1405 – 1433-yillari Zond arxipelagi, Shri-Lanka va Hindiston**ga **7 marta** yurishlar tashkil qiladi. Uning kemalari **Ormuz** (Fors) ko'rfazi va **Sharqiy Afrika** sohillariga qadar suzib borgan. Musulmon bo'lgan Chjan Xe **Makka**ni ziyorat qiladi. Bu ekspeditsiyalar Xitoyning mavqeyini oshirib, tashqi savdoni kengaytirish imkonini beradi. Xitoy imperatorlari **1415 – 1420-yillari** Samarqandga **Ulug'bek** saroyiga ham elchilar yuboradi. Lekin Temuriylar davlati mavqeyi balandligidan unga Xitoyning tazyiqi ta'sir etmaydi. **XV asr o'rtalari**dan iqtisodiy inqirozning boshlanishi Xitoyning ichki taraqqiyoti va tashqi siyosatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

9.5. O'RTA ASRLARDA YAPONIYA

Ijtimoiy munosabatlar. Yaponiyada mulkchilik munosabatlari **XI – XII asrlar**da uzil-kesil shakllanadi. Bu paytga kelib yer egalari mulklari – **syoenlar** vujudga keladi. Bunday yerlar merosiy bo'lib, syoenlar barcha soliqlardan ozod etilgan. Zamindorlar o'z yerlarini kambag'al dehqonlarga ijaraga berishgan.

Yaponiyada yirik yer egalari ma'lum toifalarga bo'lingan. Ulardan eng nufuzlilari **xanke** deb nomlangan. Ularning vassallari **ryokalar** bo'lgan. Harbiy bo'linmalar jangchilari esa **samuraylar** deb nomlangan. Ularga xo'jayinlari harbiy xizmat evaziga yer-mulk berganlar. Yillar o'tib Yaponiya samuraylarining bir qismi Yevropa ritsarlari kabi alohida toifa, mayda dvoryanlarga aylanadi. O'z yerlariga ega bo'lmagan jangchilar harbiy o'ljalar hisobiga yoki o'z senyorlari hisobidan kun kechirganlar.

Mamlakat siyosiy tuzumi. Mamlakatni **XII asr**dan **ido** – imperator boshqargan. U mamlakatdagi barcha yerlarning egasi hisoblangan. Viloyat noiblarining mustaqillikka intilishi aksariyat vaqtlarda mamlakatni siyosiy tarqoqlikka olib kelgan. Imperator hokimiyati zaiflana borib, ko'p o'tmay real hokimiyat mamlakatdagi eng kuchli mulkdor, harbiy qo'mondon – **syogun** qo'liga o'tadi. Dastlab syogunlik **XII asr oxiri**dan mahalliy mulkdorlardan biri **Minamoto** tomonidan o'rnatilgan. U samuraylardan tuzilgan qo'shini bilan raqiblarini yengib imperator poytaxti **Kioto**ni qo'lga kiritadi. Davlatni o'zining **Kamakura**dagi qal'a-saroyidan turib boshqaradi. Shu tariqa Yaponiyada qo'shhokimiyatchilik paydo bo'ladi.

Mamlakatda dehqonlarning ahvoli nihoyatda og'ir edi. Soliqlarning ko'payib borishi xalqni, ayniqsa, qiynagan. Manbalarda yozilishicha, **XIV – XV asrlar**da yapon qishloqlarida ocharchiliklar tez-tez takrorlanib turgan.

Yaponiya shaharlari taraqqiyoti. Yaponiyada o'rta asrlarda shaharlar o'sib, ularda hunarmandchilik va savdo rivojlangan. Yaponlar xitoyliklardan shoyi ipak, metallar, lak ishlab chiqarishni o'zlashtirib olganlar. Mamlakatda qadim zamonlardan temir, mis, oltin va kumush qazib olingan. Yapon ustalari bu ma'danlardan ajoyib qurollar tayyorlaganlar. Qurolsozlar yasagan qilichlar o'zining sifati bilan shuhrat qozongan. Manbalarda yozilishicha, **1483-yili** savdogarlar chet mamlakatlarga **67 ming** dona qilich olib ketganlar. Yapon chinnisi, yelpig'ichlari, suyakdan, qimmatbaho toshlardan yasalib laklangan san'at buyumlari, paxtadan va ipakdan to'qilgan gazlamalari ham xorijda yuqori baholangan. Yaponlar **Koreya, Xitoy, Vyetnam, Tailand, Filippin** bilan qizg'in savdo olib borganlar. Mamlakatda **Sakai, Xyogo, Xakata, Nagasaki** kabi yirik, aholi zich yashaydigan port shaharlar bor edi.

9.6. HINDISTON RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA

Dehli sultonligining tashkil topishi. Hindistonning shimoliy hududlariga turk va afg'on qabilalarining hujumlari va joylashuvi **XI – XII asrlar**da kuchaygan. Musulmonlar bosib olgan viloyatlarda **1206-yili** poytaxti **Dehli** bo'lgan sultonlik vujudga keladi. Dehli sultonligining ilk hukmdori **Qutbiddin Oyboq** qo'shini asosini turkiy qabilalardan tuzilgan **suvoriylar** tashkil qilgan. Sulton viloyatlar noibligiga harbiylar, qo'shin boshliqlarini tayinlagan.

Hindistonni istilo qilish davomida mahalliy mulkdorlarning ma'lum qismi yakson qilinsa, boshqalari yer-mulklarini tashlab mamlakatdan chiqib ketadilar. Yirik zamindorlarning yana bir qismi esa sulton hokimiyatini tan olib uning xizmatiga o'tadilar. Sulton ularning ko'magida mahalliy aholidan soliqlar yig'gan, xalqni itoatda tutishda ham zamindorlar yordamiga tayangan. **XII – XIII asrlar** davomida Dehli sultonligining barcha hududlarida musulmonlar hokimiyati uzil-kesil o'rnatiladi. Sulton Qutbiddin Oyboq vafotidan so'ng taxtga **Shamsiddin Eltutmish (1211 – 1236)** keladi. Uning boshqaruvi paytida **Panjob, Sind** va **Bengaliya** bo'ysundiriladi.

Yer egaligi. Dehli sultonligida barcha yerlar hukmdorniki hisoblangan. Davlatga dastlab dehqonlar hosilning **1/5 qismi**ni to'lagan bo'lsa, **XIII asr oxiri**dan soliq oshib, mahsulotning **1/4** qismiga tenglashadi.

Mamlakatda yer egaligining asosiy turi **iqto** hisoblangan. Viloyat noiblari to'plangan soliqlarning **10 – 20% ni** o'ziga qoldirishi, evaziga zarur bo'lganda sultonga o'z qo'shinini berishi lozim edi. Xususan, Eltutmish

Dehli shahri atrofidagi qishloqlarni shaxsiy gvardiyasining **2000 suvoriysi**ga iqtoga bo'lib bergani manbalarda yozilgan.

Xolisa davlat ixtiyoridagi yerlar bo'lib, undan olinadigan soliqlar xazinaga tushgan, davlat xarajatlari va maxsus qo'shinni ta'minlash uchun ishlatilgan. Yer-mulklarning ma'lum qismi mahalliy hind feodallari – zamindorlarga tegishli edi. Dehli sultonligida **vaqf** yerlari va sulton hadya etgan yerlar ham bo'lgan. Sulton saroy amaldorlari, shoirlar, din peshvolariga in'om etgan yer-mulklar keyinchalik merosiy mulkka aylana borgan. Xususiy yer egalari olingan hosil hisobidan soliq to'laganlar. Vaqf yerlari masjid va madrasalarga umrbod foydalanishga taqdim etilgan va ulardan soliq olinmagan.

Dehli sultonligi XIV – XV asrlarda. Eltutmish vafotidan so'ng mamlakatda taxt uchun kurash kuchayib ketadi. Bu urushlarda g'olib chiqqan va taxtni egallagan **Alouddin Xiljiy** islohotlar o'tkazib davlat xazinasi daromadlarini oshiradi. Kuchli qo'shin tuzib o'zboshimcha feodallarni bo'ysundiradi. Bu davlatning, vaqtinchalik bo'lsa-da, o'zining avvalgi qudratini tiklashiga yordam beradi. Dehli sultonligining kuchli va intizomli qo'shini bo'lishi shimoldan mo'g'ullar hujumlarini qaytarish imkonini beradi.

Xiljiyning o'g'li **Muhammad Tug'luq 1325-yili** taxtga keladi. U o'z hukmdorligini otasi paytida mustaqillik yo'lini tutgan knyazliklarni bo'ysundirishdan boshlaydi. O'zini **«Iskandar Zulqarnaynning davomchisi»** deb nomlagan sulton davrida Hindiston yarimoroli to'liq birlashtirildi. Harbiy yurishlarda omadli sultonning soliq islohoti natijasiz tugaydi. Qatorasiga **7 yil** davom etgan qurg'oqchilik aholining katta qismi qirilib ketishiga sabab bo'ladi.

Sulton poytaxtni **Davlatobod** (avvalgi **Devagiri**)ga o'tkazib, unga saroy amaldorlaridan tashqari hunarmandlar va savdogarlarni ham ko'chiradi. Tug'luqning oltin va kumush pullar bilan teng muomalada bo'lishi mo'ljallangan mis tangalarni zarb ettirishi uning ko'p o'tmay qadrsizlanib ketishiga, har ikki islohotning natijasiz tugashiga olib keladi.

Keyingi hukmdor **Feruzshoh Tug'luq** davrida soliqlar kamaytirilib, davlat yerlari dehqonlarga ijaraga bo'lib beriladi. Uning boshqaruvi paytida qishloq xo'jaligi, hunarmandchilikning yuksalishi, oqilona boshqaruv sultonga **xalq homiysi** sifatida shuhrat keltiradi. Ammo mamlakatda **XIV asr**da boshlangan siyosiy tarqoqlik davrida ayrim knyazlarning mustaqillikka intilish jarayoni kuchayib boradi.

Dehlining keyingi sultoni **Mahmud 1398 – 1399-yillari** Amir Temur qo'shinlariga qarshi kurashadi. Lekin tajribali sarkarda **Mahmud** qo'shin-

larini yengib Dehlini zabt qiladi. Sohibqiron Samarqandga ko'plab hind hunarmandlari, me'morlarini olib qaytgan. Shundan so'ng Hindiston mayda knyazliklarga bo'linib ketadi. Oradan **o'n yilcha** o'tib **sayyidlar sulolasi (1414 – 1451)** taxtga keladi. Sayyidlar sulolasini afg'on qabilalari sardori **Bahlul Lo'diy (1451 – 1489)** taxtdan tushiradi. Uning nabirasi **Ibrohim Lo'diy Zahiriddin Bobur**ga qarshi kurashadi.

9.7. O'RTA ASRLARDA AMERIKA

Xo'jalik taraqqiyoti. Olimlarning fikricha, Amerika qit'asiga dastlabki odamlar Shimoliy Osiyodan hozirgi **Bering bo'g'ozi** orqali buyuk muzlik davrida, bundan 40 ming yil avval, o'ta boshlagan va bu jarayon uzoq vaqt davom etgan. Natijada bu yerlarga yevropaliklar kelguniga qadar ham ko'p sonli qabila va elatlar shakllangan. Bu qabilalarning asosiy qismi ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullangan. Ammo Markaziy va Janubiy Amerikaning tog' va tog'oldi hududlarida dehqonchilik xo'jaligi vujudga kelib, keng taraqqiy etgan. Bu hududlarda **kechua, raayya, astek, olmek** va **tolteklar** yashaganlar. Ular tosh boltalar bilan o'rmondagi daraxtlarni kesib, shox-shabbalarni yondirib, kulidan o'g'it sifatida foydalanishgan. Bu yerlarda yevropaliklarga ma'lum bo'lmagan **makkajo'xori, kartoshka, kungaboqar, pomidor, kakao, tamaki** o'stirilgan.

Amerikaning katta qismida xonakilashtirilgan hayvonlar bo'lmagan. Ot, sigir, qo'y va echkilar qit'aga keyinchalik Yevropadan olib kelingan. Ular uy hayvonlaridan shimolda **it**ni, janubda tuyasimon **lama**ni boqishgan. Parrandalardan **kurka va o'rdak** saqlangan.

Temir, omoch, g'ildirak, o'tochar qurollarni amerikalik hindular bilishmagan. Ularning mehnat va ov qurollari tosh, jez va yog'ochdan yasalgan. Aholining katta qismi urug'chilik jamoasida yashagan. Faqat dehqonchilik bilan shug'ullangan **mayya, astek va kechualar** o'z davlatlarini barpo qilganlar.

Mayyalar davlati. Markaziy Amerikaning **Yukatan yarimoroli**da (hozirgi Meksika) chakalakzorlar bilan qoplangan tog'oldi hududlarida qadimdan **mayya** xalqlari yashab kelgan. Mayyalarda yer jamoa mulki hisoblangan. Qishloq jamoasi ekin maydonlari har bir oilaga taqsimlangan. Jamoa a'zolari yetishtirgan hosilning bir qismi zodagonlar va kohinlarga berilgan. Dehqonlar soliq to'lashdan tashqari zodagonlarning yerlarini ishlab berishda, ibodatxonalar va yo'llar qurilishida qatnashganlar. Eng og'ir ishlarni **qullar** bajargan. Qullar tabaqasi esa asir olingan jangchilar, jinoyatchilar, qarzdorlar va yetimlardan tashkil topgan. Mayyalarda

davlat vujudga kelsa-da, jamiyatda urug'chilik tuzumiga xos xususiyatlar saqlanib qolgan.

Dehqonlar makkajo'xori, qovoq, kakao, paxta, qalampir, tamaki, dukkakli ekinlar yetishtirganlar. Aholi mevali daraxtlarni parvarishlash, asalari boqish bilan ham shug'ullangan.

Milodiy 1-mingyillikda mayyalarda shahar-davlatlar vujudga keladi. Ularning har birini **«buyuk kishi»** – hukmdor boshqarib, uning hokimiyati merosiy bo'lgan. Hukmdorlar va zodagonlar shahar markazida bunyod etilgan saroy-qasrlarda yashaganlar. Shahar cheti va atroflarida esa dehqonlar va hunarmandlarning tomi qamish bilan yopilgan, polsiz kulbalari joylashgan.

Mayyalarning iqtisodiy-madaniy taraqqiyoti milodiy asr boshlarida **yozuv**ni yaratish imkonini beradi. Kohinlar qilqalam bilan iyerogliflarni bitgan, u rasmlar bilan bezatilgan. Ibodatxonalar devorlarida va baland tosh ustunlarda duolar, afsonalar, rivoyatlar, jangnomalar, tarixiy yilnomalar o'yib yozilgan. Kohinlar jamoa a'zolariga dehqonchilik ishlarini bajarish muddatlarini belgilab bergan. Mayyalar eng aniq taqvimlardan birini yaratganlar. **Taqvim** ixtirosi qishloq xo'jalik ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lib, matematika sohasidagi muvaffaqiyatlarga asoslangandi. Matematikaga **«nol»**ni anglatuvchi belgi ham mayyalar tomonidan hindlardan ham avval kiritilgan. Mamlakat poytaxti **Chichen-Itsa**da **rasadxona** ham qurilgan. Unda kohinlar sayyoralarning Quyosh tevaragida aylanish vaqtini hisoblab chiqqanlar, Quyosh va Oyning tutilishini oldindan aytib berolganlar.

Asteklar davlati. Markaziy Amerikaga shimoldan kelgan **asteklar** katta ko'l o'rtasidagi orollarda **XII asr**da **Tenochtitlan** shahriga asos soladilar, sun'iy to'g'onlar bunyod etilgan, ibodatxonalar va saroylar qad ko'taradi. Asteklarda yer taqchil bo'lganidan ko'l tagidan suv o'simliklari va unumdor loyni ko'tarib, sollarda **«suzuvchi dalalar»** ham yaratganlar. Bu o'ziga xos ekinzorlardan yiliga bir necha marta hosil olingan.

Asteklar qo'shni qabilalarni bo'ysundirib, ulardan soliq olishdan tashqari ularni har yili ma'lum miqdordagi qullarni ham yuborib turishga majbur etishgan. Asteklar urug'-jamoa bo'lib yashaganlar. Jamoa boshliqlari saylab qo'yilgan. Ekin maydonlari jamoaniki bo'lib, u jamoa a'zolariga taqsimlab berilgan. Hukmron qabila vakillaridan **tlatoani** – lashkarboshi saylanib, u oliy hukmdor bo'lishdan tashqari bosh kohin vazifasini ham bajargan.

Yuqori lavozimlarni egallagan zodagonlar xizmatlari uchun **maosh** olganlar. Urushlar paytida asteklar **150 ming kishilik** qudratli qo'shin

tuzish imkoniga ega edi. Urushlarning tez-tez bo'lib turishi asteklar jamiyatida mulkiy tabaqalanishni tezlashtiradi. Urushlarda asir olinganlarning ma'lum qismi qullarga aylantirilgan. Davrlar o'tib asteklarda ham urug' zodagonlari mavqeyi kuchayib boradi. Bularning barchasi urug'chilik tuzumining inqirozi va davlatning kuchayib borishidan darak beradi.

Asteklar xo'jaligining asosi **sug'orma dehqonchilik** edi. Eng muhim ekin **makkajo'xori** bo'lib, undan mo'l hosil olingan. Xo'jalikda dukkakli ekinlar, qovoq, pomidor, kakao, tamaki, paxta ham yetishtirilgan. Aholi uy hayvonlaridan **it**, parrandalardan **kurka, tovuq va o'rdak** boqish bilan ham shug'ullangan.

Asteklarda hunarmandchilikning kulolchilik, to'qimachilik, mis va oltindan zargarlik buyumlari yasash sohalari yaxshi rivojlangan. Zargarlar qimmatbaho toshlarga ishlov berib, qadalma naqshlar (mozaika) yasab, saroy va ibodatxona devorlarini bezashgan. Astek hunarmandlari, ayniqsa, naqshin idishlar, ajoyib gazlamalar, qush patlaridan tovus kabi tovlanadigan kashtalar tikishda mohir bo'lganlar.

Quruvchilar to'g'onlar, kanallar, xom g'ishtdan yoki toshdan ustunlar ustida uylar bunyod etganlar. Bozorlarda mol ayirboshlash orqali savdo yaxshi rivojlangan.

Asteklar qo'shni mayyalar ixtirosi asosida o'z **quyosh taqvimi**ni yaratganlar. **Piktografik yozuv** shakllangan. Asteklar dini ko'pxudolikka asoslangandi. *Xudolar orasida eng e'tiborlisi urush xudosi sharafiga hatto odamlar ham qurbonlik qilingan.* Ibodatxona kohinlari xalq orasida alohida hurmat-e'tiborga ega bo'lgan.

Poytaxt Tenochtitlanda zodagonlarning farzandlari va oddiy xalq bolalari uchun alohida-alohida **maktablar** bo'lgan. Xalq bolalari uchun maktablarda dehqonchilik, hunarmandchilik va harbiy ish o'rgatilgan. Zodagonlarning farzandlari esa tarix, husnixat, o'qish, hisoblash, astronomiya, she'riyat, notiqlik san'atlari asoslarini o'rganishgan. Tenochtitlanda har yili madhiya, qissalar yozadigan shoir-qo'shiqchilar ko'rik-musobaqalari o'tkazilib, g'oliblar mukofotlangan.

Inklar davlati. Janubiy Amerikaning And tog'lari yonbag'rida minglab kilometrga cho'zilgan vohalarda **Inklar davlati** vujudga kelgan. Kechua tillariga mansub inklar **XII – XIII asrlarda Urubamba** daryosi havzasida **Kusko shahri**ga asos soladilar. Qo'shni qabilalar Kuskoga xavf solgan bir paytda, **1438-yili,** kechualar birlashib bosqinchilarga zarba beradi. Ushbu g'alabadan so'ng **Tauan Tinsuyyu** (kechua tilida **«dunyoning to'rt tomoni»**) **davlati** shakllana boshlaydi.

Inklar **aymara, chimu** va boshqa qabilalar yerlarini bosib olib And tog'laridan Tinch okeaniga qadar ulkan masofada o'z hokimiyatini o'rnatadilar. Bu davlatni oliy hukmdor – **Sapa Inka** (Oliy Inka) boshqargan. U **«Quyoshning o'g'li»**, uning yerdagi ramzi sanalgan. Aholi turli tabiat kuchlari, yer va suv ilohlariga ham e'tiqod qilgan. Bosib olingan hududlar aholisiga inklar o'z tartiblarini, madaniyatlarini o'tkazganlar. Natijada dastlab qabila nomi bo'lgan **«ink»** atamasi imtiyozlarga ega hukmron toifa – zodagonlarning umumiy nomiga aylandi. Inklardan bo'lmagan aholi jamoa bo'lib yashab hukmron toifa uchun ishlagan. Jamoa dehqonlar oilalaridan tashkil topgan, ularning har biriga ma'lum yer, ekin maydoni biriktirib qo'yilgan. Jamoalar yetishtirgan hosilning **2/3 qismini** davlat va ibodatxonalarga topshirganlar. Mamlakatda rasman qulchilik bo'lmasa-da, jamoa a'zolari shafqatsiz ishlatilgan va deyarli huquqsiz bo'lgan.

Tog'lik hududlar dehqonchilik uchun noqulay edi. Jamoa erkaklari tik qoyalar yonbag'rini o'yib toshlarning ustiga unumli tuproq yoyishgan. Bunday ekinzorlar tuprog'ini yomg'ir yuvib ketmasligi uchun atrofi tosh devorlar bilan o'rab chiqilgan. Inklarda asosiy ekinlar **kartoshka va makkajo'xori** bo'lgan. Dehqonlar qovoq, paxta, ananas, banan yetishtirganlar.

Yetishtirilgan hosil uchga bo'lingan: bir qismi ibodatxona kohinlari, ikkinchi qismi Oliy Inkaga berilgan, uchinchi qismi esa jamoaga qoldirilgan. Davlat omborlaridan to'plangan oziq mahsulotlaridan qo'shin va amaldorlarga berilgan. Urushlar, hosilsizlik yillari yoki turli tabiiy ofatlar paytida barcha jabrlanganlarga davlat zaxirasidan makka doni va quritilgan kartoshka tarqatilgan.

Poytaxt **Kusko**ni viloyatlar bilan bog'laydigan, umumiy uzunligi **15 ming km** bo'lgan tosh yo'llar barpo etilgan, viloyatlar orasida **pochta xizmati** o'rnatilgan. Maxsus choparlar yugurgan holda bir-biriga xabarni yetkazib uni uzoq masofalarga eltishgan.

Zodagonlarning bolalari **maxsus maktablar**da o'qigan. Yozuv bo'lmagani sababli, bolalar inklarning dini, boshqaruv tartibi, qonunlari va udumlariga oid ma'lumotlarni yodlaganlar. Inklarning o'ziga xos **«tugunli xati» (kipu)** bo'lib, uning sirlari faqat ruhoniylarga ma'lum edi. Inklarning matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot, botanika va boshqa ilm-fan sohalarida chuqur bilimlari bo'lgan. Ularning aniq taqvimi **12 oy**ga bo'lingan. *Tabiblar insonning bosh suyagida jarrohlik muolajalarini amalga oshirishni bilganlar.*

9.8. O'RTA ASRLARDA AFRIKA

Afrika aholisi va xo'jaligi. Aholining aksari qismi **1-mingyillik oxiri**ga qadar tashqi dunyodan ajralgan holda yashagan. Qit'aning tropik o'rmonlarida, sahrolarda ovchi va terimchi qabilalar joylashgan. Afrikaning Misrdan boshqa hududlarida yashagan ba'zi dehqonlar ildizmevali ekinlarni yetishtirganlar. Savanna hududlarida yerga unumdor tuprog'i bo'lgan joylarga moslashgan temir tishli chopqilar bilan ishlov berilgan. Sahroyi Kabir atroflarida ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi va o'troq qabilalar ham aksar chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Sahroning janubida **barbar** va **tuareglar,** G'arbiy Afrikada **fulbe,** Sharqda **masai, galla, sidamo, tigrelar** chorvachilik bilan shug'ullanganlar.

Afrikaning dastlabki davlatlari. Gana. Afrikaning sharqida Misr, Arabiston va Hindiston bilan savdo aloqalari ta'sirida qadim zamonlardan **Nubiya** va **Aksum** (hozirgi Efiopiya) davlatlari tashkil topgandi. Arab savdogarlari **VII asr**dan G'arbiy Sudan yerlariga, O'rta yer dengizi sohillaridan Afrikaga yuksak qadrlanuvchi tuz va boshqa mollarni keltirganlar. Savdo yo'llari kesishgan joylarda yirik qasaba-qo'rg'onlar: **Aukar, Gana, Tombuktu, Gao, Mali** vujudga kelgan. Qo'rg'onlarda musulmon savdogarlaridan tashqari mahalliy zodagonlar ham yashaganlar. Ular keyinchalik vujudga kelgan davlatlardagi boshqaruvni qo'lga oladilar. O'rta asrlarda Niger va Senegal daryolari havzasida dastlabki davlatlar: **Gana, Mali, Songailar** tashkil topadi.

Ularning dastlabkisi G'arbiy Sudandagi **Gana** bo'lgan. U **VIII asr**da vujudga kelib, **X asr**da o'z taraqqiyotining cho'qqisiga erishadi. Gananing daromad manbalaridan biri savdodan keladigan **boj to'lovlari** edi. Bojning asosiy qismini chetdan keladigan savdogarlar: arablar, barbarlar, yahudiylar to'laganlar. Lekin mamlakatning katta boyligi **oltin** bo'lgan. Gana podshosi va zodagonlari oltin va tuz savdosidan katta foyda olgan.

Podshoning kuchli qo'shini bo'lib, undagi **200 ming** askarning deyarli **40 ming**ini kamonchilar, ma'lum qismini esa otliq jangchilar tashkil etgan. O'tmishda arab savdogarlari va Gana podshosining katta xazinasi haqida ko'plab afsonalar yaratilgan. Bu esa qo'shni jangari qabilalar diqqatini tortardi. Marokash sultoni **Abu Bakr 1076-yili** katta qo'shin bilan Ganani istilo qilib uni talagan. Bu voqealardan so'ng **Gana** podshosi Marokashga qaram bo'lib, boj-yasoq to'lashdan tashqari o'z zodagonlari bilan islom dinini qabul qilishga ham majbur bo'ladi. **1087-yil**gi xalq qo'zg'oloni marokashliklar hukmronligiga chek qo'ysa-da, Gana parchalanib ketadi. Ko'p o'tmay uning o'rnidagi Mali davlati yuksaladi.

Mali davlati. **Mali** davlat sifatida **VIII – IX asrlar**dayoq vujudga keladi. Gana davlati qudrati uning keyingi rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. **XI asr**dan Mali aholisi islomni qabul qiladi. Bu esa mamlakatga musulmon savdogarlarining ko'chib kelishini tezlashtiradi. Xo'jalikda hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanishi natijasida **XIII asr**da Mali o'z taraqqiyotining cho'qqisiga erishadi. Uning hukmdori **Sundiata Keyt (1230 – 1255)** ko'p sonli kuchli qo'shin tuzadi. Bu qo'shin yordamida Sundiata karvon yo'llari o'tadigan hududlarni, oltin konlarini, qolaversa, qadimgi Gana yerlarini bosib oladi. Mali hukmdori istilo etilgan viloyatlar noibligiga o'z qarindoshlari va yaqinlarini tayinlaydi. Noiblar esa, o'z navbatida, lashkarboshi, amaldorlariga yer-mulklar in'om etishgan. Mahalliy aholidan soliqlar undirish ham noibning zimmasiga tushgan. Ko'p o'tmay Mali butun arab dunyosida mashhur bo'lib ketadi. Uning hukmdori **Muso I 1324-yili** Makkaga haj safari uyushtiradi. Muso I o'zi bilan safarga ko'p oltin olib yo'lda ularni saxiylik bilan tarqatib boradi. Hukmdorga **8 ming jangchi** va **500 ta qul** hamroh bo'ladi, bu katta karvon **10 – 12 tonna oltin**ni o'zi bilan olib ketgani taxminan qilinadi. Bu voqeadan so'ng uzoq yillar davomida arab dunyosida oltinning narxi past bo'lgan.

Mali poytaxti **Niara** va boshqa shaharlarda hashamatli saroylar, masjidlar quriladi, hunarmandchilik va savdo rivojlanadi. Biroq ijtimoiy hayotda qabila zodagonlari mavqeyi saqlanib qoladi. Mali hukmdorlari o'z yaqinlarining toj-u taxtga tajovuzidan cho'chib ko'pincha saroy amaldorlarini, lashkarboshilar va hatto jangchilarni ham qo'shni qabilalar vakillaridan olishgan. Hukmdorning **shaxsiy gvardiyasi** esa **qullardan** tuzilgan.

Mali aholisining asosiy qismi qishloqlarda yashab jamoalardan, jamoalar, o'z navbatida, yirik patriarxal oilalardan tashkil topgan. Jamiyatda qullarga munosabat o'ziga xos bo'lib, *xorijdan keltirilgan qullar xo'jaliklarda oila a'zolaridek yashaganlar. Bu qullarning farzandlari esa erkin kishilarga aylangan.*

Feodal tarqoqlik, sulolaviy nizolar **XIV asr oxiri**dan Malining zaiflashishiga sabab bo'ladi. Mali **XV asr**da butunlay inqirozga uchrab, parchalanib ketadi.

Songai davlati. Songai qabilalari Gana va Malining shimoli-sharqida yirik savdo markazlaridan biri **Gao** atroflarida yashagan. Dastlab **1-mingyillik boshlari**da songailar tuzgan davlat birlashmasi Mali ta'sirida bo'ladi. Malining zaiflashuvi esa islomni qabul qilgan songailar hukmdori **Alm**iga **XIV asr oxiri**da ularni yengib poytaxti Gao bo'lgan mustaqil davlat tuzish imkonini beradi. **Songai XIV – XV asr** chegaralarida kuchaygan. U Niger daryosi havzasida o'z hukmronligini to'liq o'rnatadi.

Mamlakat viloyatlarga bo'linib, ularni hukmdorning yaqin kishilari boshqargan. Songaining asosiy daromad manbayi **tranzit savdosi va oltin konlari** edi. Aholidan undirilgan soliqlar ham muntazam oshib borgan va xazinani to'ldirish omillaridan biri bo'lgan. Amaldorlarga taqdim etilgan katta yer-mulklarda qullar ishlagan. Davrlar o'tishi bilan qullar qaram dehqonlarga aylanib boradi. Ularning avlodlari esa kichik yer-mulkning erkin egalariga aylanib, davlatga faqat soliq to'laganlar, xolos. Songaida maxsus **yollanma qo'shin** ham tuzilgandi.

Aksum davlati. Hozirgi Efiopiyaning shimolida qadimdan **Aksum** davlati vujudga kelgan, uning yuksalishi **IV – V asrlar**ga to'g'ri keladi. Aksum hukmdorlari karvon yo'llari joylashgan Arabistonning janubiy sohillarini, Sharqiy Sudanning bir qismini egallaydilar. Bu davlat Rim imperiyasi, keyinchalik Vizantiya bilan yaqin iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lgan. Shu sababdan Aksum hukmdori va uning a'yonlari **xristian din**ini qabul qiladilar.

VII asrda Aksum qo'shinini Arab xalifaligi lashkari mag'lubiyatga uchratib Arabiston yarimorolining janubidagi yerlaridan mahrum qilgan. Aksumdagi vaziyat murakkablashib, **X asr**dan hokimiyat yangi sulola qo'liga o'tadi.

Efioplarning xristian davlati **XII asr**da qayta tiklanib, **XIII asr**dan taxtga kelgan **solomonlar sulolasi 1974-yil**ga qadar Efiopiyada imperator bo'lib qoladi. Rivoyatlarga ko'ra, Aksumning birinchi hukmdori **Manelik** podsho **Sulaymon**ning Arabiston malikasidan tug'ilgan o'g'li bo'lgan. Bu Aksumning Arabiston bilan aloqalari qadimdan yaxshi bo'lganini, sulolaning nomi tarixiy asosga egaligini ko'rsatadi. Arablarning Sharqiy Afrikadagi dastlabki savdo qo'rg'onlari **VIII – IX asrlar**da shakllangan. Arab savdogarlari bu hududlardan negr qullar – **zanjilar**ni turli mamlakatlarga olib borib sotganlar. Arablar ta'siridagi Sharqiy Afrika sohillarida **XII – XIV asrlar**da savdo-sotiq, ayniqsa, yuksaladi. Asrlar davomida bu hududlarda arab-afrikaliklar jamoasi va **suaxili** tilida so'zlashadigan aralash aholi vujudga keladi. Arab savdogarlari **Mogadisho, Malindi, Mombasa, Kilva, Zanzibar** va boshqa shaharlarga asos soladilar. Bu shaharlarga arab, fors, hind savdogarlari va hunarmandlari kelib joylashadi.

Afrika madaniyati. Afrika xalqlarida avloddan avlodga o'tib kelgan ajoyib afsona va ertaklar ko'p edi. Ular biz uchun qimmatli tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi. Afrika xalqlari ichida o'z yozuviga ega bo'lganlari ham bor edi. *Jumladan, Aksumda IV asrdayoq mahalliy yozuv islohoti o'tkaziladi. Bu alifbo Efiopiyada hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan.* Aksumda qurilish sohasida, ayniqsa, katta yutuqlarga erishilgan. Bu

davrda qurilgan saroylar, xristian ibodatxonalari va yerosti daxmalari bugunga qadar saqlangan.

G'arbiy Sudan xalqlari madaniyatining yuksak taraqqiyotida arablarning ta'siri kattadir. Islom dini qabul qilinganidan keyin bu yerlarda arab mamlakatlaridan kelgan usta va me'morlar masjidlar, saroylar, qasrlar, jamoat binolari, kasalxonalar, hammom, istirohat bog'lari qurdilar. Musulmon maktab va madrasalari ochildi. Jumladan, **Tombuktu** madrasasida **ilohiyot**dan tashqari **tarix, fiqh, matematika, astronomiya** kabi fanlar o'qitilardi.

Afrikaliklar san'atning turli sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishganlar. Yog'och va jezdan yasalgan haykallar va niqoblar nafisligi bilan odamlarni hozirgi kungacha hayratlantirib kelmoqda. Benindagi shoh saroyida jezdan ishlangan podsho va a'yonlari bo'rtma rasmlari topilgan. Ularda ov va urushlar, saroy hayoti sahnalari aks ettirilgan.

III BO'LIM. DUNYO MAMLAKATLARI XVI ASRDAN XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA BO'LGAN DAVRDA

10-BOB. YANGI DAVRNING BOSHLANISHI

10.1. BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR

«Buyuk geografik kashfiyotlar» atamasi haqida. Buyuk geografik kashfiyotlar atamasi **XV asr oxiri – XVII asr o'rtalari**da yevropalik sayyohlar tomonidan amalga oshirilgan yirik geografik kashfiyotlarga nisbatan ishlatiladi. Bu holatning yuzaga kelishiga bir qator omillar sabab bo'ldi: a) **XV asr oxiri – XVI asr boshlari**ga kelganda Yevropada tovar ishlab chiqarish yuqori sur'atlarda o'sa boshladi. Bu esa xomashyoga bo'lgan talabni oshirib yubordi. Yevropaning o'zida xomashyo kam bo'lganligi uchun, uni faqat boshqa o'lkalardan olib kelish zaruratga aylandi; b) yangi davr hukmron tabaqalarning boylikka, pulga bo'lgan ehtiyojini yanada orttirib yubordi. Endi ularning ongini o'zga yurtlarning oltin-kumushlarini va boshqa qimmatbaho boyliklarini egallab olish ishtiyoqi chulg'ab oldi; c) quruqlikdan va O'rta yer dengizidan o'tadigan savdo yo'llari, shu jumladan, Buyuk ipak yo'li ham xavfli bo'lib qoldi. Bu yo'llar ustidan nazorat **usmonli turklar** qo'liga o'tib ketdi. Endi yevropaliklar oldida yangi dengiz savdo yo'llarini ochish tarixiy zaruratga aylandi. Dengiz savdo yo'llarini ochishga imkon beruvchi zamonaviy kemalar va harbiy qurollar mavjud edi. Bundan tashqari, dengizda **kompas**dan foydalanish, **astrolyabiya** ixtiro qilingani ham katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Buyuk geografik kashfiyotlarning boshlanishi. Buyuk geografik kashfiyotlarning tashabbuskorlari **Portugaliya** va **Ispaniya** dengiz sayyohlari bo'lishdi. Shunday dengiz sayyohlaridan biri admiral **Xristofor Kolumb (1451 – 1506)** o'z oldiga Hindistonga Atlantika okeani orqali boradigan yo'l ochishni maqsad qilib qo'ydi. Bu o'rinda italiyalik olim **P.Toskanelli** Yerning dumaloqligi haqidagi ta'limotdan kelib chiqib dunyo xaritasini yaratgani katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu xaritada Osiyo qit'asi qirg'oqlari Atlantika okeanining g'arbiy sohillarida ekani belgilangandi. Shu tufayli P.Toskanelli Yevropa qirg'oqlaridan G'arb tomonga suzib Hindistonga borish mumkin deb ishonardi.

Nihoyat, **1492-yili** X.Kolumb Ispaniya qirollik oilasi bilan Hindiston sari suv yo'li ochishga xizmat qiluvchi ekspeditsiyani boshlash haqida shartnoma tuzishga erishdi. Shartnomaga ko'ra, qirol ekspeditsiyaning

pul ta'minotini o'z bo'yniga oldi. Ayni paytda, X.Kolumb yangi ochiladigan yerlarning **vitse-qiroli** etib tayinlanadigan bo'ldi. Shuningdek, X.Kolumb yangi ochiladigan yerlardan olinadigan daromadning **1/10 qismi**ga, yangi yerlar bilan olib boriladigan savdodan tushadigan daromadning esa **1/8 qismi**ga egalik ham qilardi. X.Kolumb **1492-yil 6-avgust** kuni **3 ta (Ninya, Pintu, Santa Mariya)** kemada **90 dengizchi** bilan birinchi ekspeditsiyasini boshladi.

Amerikaning kashf etilishi. X.Kolumb ekspeditsiyasi **12-oktyabr** kuni Amerika qit'asidagi **San-Salvador** («Muqaddas xaloskor») oroli (hozirgi Bagam orollari davlati hududida)ga kelib tushdi. Shu tariqa Hindistonga olib boradigan suv yo'li ochish maqsadida uyushtirilgan ekspeditsiya Amerikaning kashf etilishiga olib keldi. Bu dunyo xaritasini tuzgan XV asr olimlarining, xususan, P.Toskanellining xatosi oqibati edi. Chunki P.Toskanelli Yerning ekvator bo'ylab uzunligini aniqlashda **12 ming km** ga adashgandi. Keyinchalik olimlar bu xatoni buyuk kashfiyotga olib kelgan buyuk xato deb atadilar.

Biroq X.Kolumb Hindistonga emas, Amerikaga kelib qolganini anglamagan. U Hindistonga keldim deb hisoblardi. Shu bois X.Kolumb Amerikaning mahalliy aholisini hindular deb atagan. X.Kolumb Hindistonga (aslida, Amerikaga) **4 marta** ekspeditsiya uyushtirgan. Bu ekspeditsiyalar natijasida juda katta hududlar ochilgan va bu hududlar Ispaniya mulkiga aylangan. X.Kolumb esa o'sha yerlarning vitse-qiroli etib tayinlangan. X.Kolumbning kashfiyotlari yangi yerlarni Ispaniya mustamlakalariga aylantirish bilan birgalikda amalga oshirilgan. Yangi qit'aning Kolumbiya deb emas, **Amerika** deb atalishi **italiyalik** dengizchisi va astronom **Amerigo Vespuchchi (1454 – 1512)** nomi bilan bog'liq. A.Vespuchchi Ispaniya va Portugaliya flotida xizmat qilgan. U **1499 – 1501-yillari** portugaliyaliklar ekspeditsiyasi tarkibida **Braziliya** qirg'oqlarini tadqiq etdi. Buning natijasida Kolumb ochgan yerlar Hindiston emas, yangi qit'a degan xulosaga keldi. U keyinchalik o'zining nomi bilan atalgan qit'aga **«Yangi Dunyo»** deb nom berdi. **1507-yili** xaritashunos olim **M.Valdzemyuller** Kolumb kashf etgan yangi qit'ani Amerigo Vespuchchi sharafiga **Amerika** deb atashni taklif etgan. Bu nom hammaga manzur bo'lgan. **1515-yili** Yangi Dunyo «Amerika» deb atalgan birinchi **globus Germaniya**da yaratildi. **1569-yil**dan esa boshqa xaritalarda ham Kolumb kashf etgan yerlar «Amerika» deb yoziladigan bo'ldi.

Keyingi kashfiyotlar. Atlantika okeani orqali Hindistonga boriladigan dengiz yo'li **1498-yili** kashf etildi. Bu kashfiyotni portugaliyalik dengiz sayyohi **Vasko da Gama** amalga oshirdi. **1519-yili** yana bir portugaliyalik

dengizchi **F.Magellan** Amerika qit'asini aylanib o'tib, Hindistonga boradigan dengiz yo'lini ochdi. Dunyoni aylanib suzish **1522-yili** nihoyasiga yetkazildi. Bu ekspeditsiya Yerning dumaloqligini, uning katta qismi suv bilan qoplanganini isbotladi. **L.V.Torres** boshchiligidagi ekspeditsiya esa **1605-yili Avstraliya**ni kashf etdi.

Buyuk geografik kashfiyotlarning ahamiyati. Buyuk geografik kashfiyotlar ilm-fan uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Uning natijasida geografiya, tarix, etnografiya va okeanshunoslik fanlari yangi xulosalar, ma'lumotlar bilan boyidi. Qolaversa, mazkur kashfiyotlar tufayli yangi dengiz savdo yo'llari ochildi. Bu yo'llar O'rta yer dengizidan **Atlantika okeani**ga ko'chdi va **jahon savdosi**ni vujudga keltirdi.

Amerika qit'asi **Xristofor Kolumb**ning jasorati tufayli kashf etilgan bo'lsa-da, g'arbiy yarimsharda qit'a mavjudligini buyuk bobomiz **Abu Rayhon Beruniy** bu kashfiyotdan deyarli **4,5 asr avval** faraz qilgandi.

Alloma o'zining **«Hindiston»** asarida bunday deb yozib qoldirgan: *«Yerning choragi ma'muradir. Ma'murani G'arb va Sharq tomondan Muhit okeani (Atlantika va Tinch okeanlari) o'rab turibdi. Bu Muhit okeani, yerning obod qismini dengizlarning narigi tomonida bo'lishi mumkin bo'lgan quruqlik yoki odam yashaydigan orollardan ikkala yoqdan (G'arb va Sharqdan) ajratib turadi».*

10.2. YEVROPALIKLARNING MUSTAMLAKALAR UCHUN KURASHI

Ispaniya mustamlakalari. Ispaniya bayrog'i himoyasi ostida yangi ochilgan yerlar Ispaniya qiroli mulki deb e'lon qilindi. Shu tariqa Yevropa davlatlarining mustamlakachilik siyosati boshlandi. Mustamlakachilar bosib olgan hududlarda **paxta va shakarqamish** ekinzorlari barpo etildi.

Ispaniya qiroli **1512-yili** mahalliy hindularni qulga aylantirishni taqiqlab qo'yuvchi qonun chiqargan bo'lsa-da, u mahalliy aholini shafqatsiz ekspluatatsiya qilishga xalaqit bermagan. Shafqatsiz ekspluatatsiya va yevropaliklar olib kelgan turli yuqumli kasalliklar tufayli ularning soni keskin kamayib ketdi. Mustamlakachilar **XVI asr o'rtalari**dan endi Afrikada yashovchi aholini qullarga aylantirib Amerikaga olib kela boshlaganlar. Tekin ishchi kuchiga ega bo'lgan mustamlakachilar **1510-yil**dan **konkista** siyosatini yuritishga kirishdilar. Bu jarayon **XVII asr o'rtalari**gacha davom etdi. XVI asrning dastlabki 50 yili ichida Ispaniya mustamlakalarida aholi soni keskin kamayib ketdi.

XVI asr 1-yarmida **Kolumbiya, Ekvador, Peru va Boliviya**, keyin-

chalik esa **Chili va Argentina** hududlari zabt etildi. **1679-yili** Ispaniya Amerika sivilizatsiyasi markazi bo'lgan **Mayya davlati** (bugungi Meksika) hududlarini to'la bo'ysundirdi.

1503-yildan 1565-yilgacha Amerikadan Ispaniyaga **181 tonna oltin va salkam 17 000 tonna kumush** tashib ketildi. Bosib olingan mustamlakalarni boshqarish uchun **ikkita vitse-qirollik** tashkil etildi. Ulardan biri **Yangi Ispaniya vitse-qirolligi** (Meksika, Markaziy Amerika, Venesuela va Karib dengizi orollarini o'z ichiga olgan), ikkinchisi esa **Peru vitse-qirolligi** (Braziliyadan tashqari deyarli butun Janubiy Amerika hududi) edi. *Vitse-qirollarga o'z hududlarida to'liq harbiy va sud hokimiyatini amalga oshirish huquqi berilgan.*

Vitse-qirollar oliy tabaqa vakillari orasidan **3 yil** muddatga tayinlangan. *Ularga o'zi bilan oila a'zolarini olib ketish, u yerda ko'chmas mulk sotib olish va tadbirkorlik bilan shug'ullanish taqiqlangan.*

Vitse-qirollar faoliyati Ispaniyaning o'zida faoliyat ko'rsatuvchi **«Hindiston kengashi»** deb ataladigan kengash tomonidan nazorat qilingan. Kengashning vitse-qirolliklar bo'yicha qabul qilgan qarorlari qonun kuchiga ega bo'lgan. Mustamlakalar bilan olib boriladigan savdo esa **«Sevilya savdo palatasi»** tomonidan nazorat qilingan.

Mustamlakachilik sekinlik bilan bo'lsa-da hindu etnik guruhlari va qabila ittifoqlarining barham topishiga olib kelgan. Mahalliy xalq tili esa ispan tili bilan almasha boshlagan. Ispaniya faqat Amerikadagi mustamlakalari bilan cheklanib qolgani yo'q. U **1529-yili Filippin orollari** ustidan ham o'z hokimiyatini o'rnatdi. Bu orollar taxt vorisi, shahzoda **Filipp** sharafiga Filippin deb atala boshlandi.

Portugaliya mustamlakalari. Portugaliya dengiz sayyohi **Kabral 1500-yili Braziliya**ni kashf etdi va uni Portugaliya qiroli mulki deb e'lon qildi. Hali urug'chilik tuzumi sharoitida yashayotgan mahalliy hindu xalqlari mamlakatning ichkari hududlariga quvib yuborildi. Braziliyani xo'jalik uchun o'zlashtirish, asosan, Afrikadan keltirilgan qullar mehnati hisobiga amalga oshirildi. Asr oxirida Braziliyada yashovchi oq tanli ko'chmanchilar soni **25 000 nafar**ni tashkil etdi. Ular minglab qullarni ekspluatatsiya qilardilar.

Mustamlakalar uchun kurash. Tez orada Yevropa davlatlari o'rtasida mustamlakalar uchun kurash boshlandi. Bunga Angliyada manufaktura ishlab chiqarishining tobora rivojlanishi sabab bo'ldi.

Buyuk geografik kashfiyotlar geografik jihatdan qulay hududda joylashgan **Angliya**ni eng muhim dengiz savdo yo'llaridagi davlatga aylantirdi. **London** esa yirik port-shaharga aylandi. Aholisi tez orada

200 ming kishiga yetdi. Manufaktura ishlab chiqarishining rivojlanishi Angliyaning chetga katta miqdorda tovar chiqarishiga sabab bo'ldi va u endi dengiz savdosida Ispaniyaning asosiy raqibiga aylandi. Bu hol Angliya – Ispaniya munosabatlari keskinlashuviga olib keldi. Boz ustiga, Ispaniya boshqa davlatlar savdogarlarining ispan mustamlakalari bilan savdo qilishini taqiqlab qo'ydi. Bu taqiq oxir-oqibatda Angliya va Ispaniya o'rtasidagi urushga olib kelishi muqarrar edi. **1588-yili** ikki davlat harbiy-dengiz floti o'rtasida hal qiluvchi jang bo'lib o'tdi. Unda Ispaniyaning **«Yengilmas armada»** deb nom berilgan harbiy floti tormor etildi. «Yengilmas armada»ning halokati Ispaniyaning dengizdagi qudratiga putur yetkazdi. Shu davrdan boshlab Angliya eng qudratli dengiz davlatiga aylana bordi.

Angliyaning dastlabki mustamlakalari. Qudratli dengiz davlatiga aylangan Angliya endi mustamlakalar bosib olishga kirishdi. Bu davlat mustamlakachilari Shimoliy Amerikani egallay boshladilar. **XVII asr boshlari**da bu yerda birinchi mustamlaka – **Virginiya**ga asos solindi. Mahalliy hindu aholisi o'rmonlar ichkarisiga surib chiqarildi. Angliya hukumati tashqi savdoni chet davlatlar bilan savdo ishlarini olib boruvchi boy savdogarlar tuzgan turli kompaniyalar ixtiyoriga topshirib qo'ydi. Bunday kompaniyalardan biri **1600-yili** tuzilgan **«Ost-Indiya»** kompaniyasi edi. Eng boy bo'lgan bu kompaniyaga Hind va Tinch okeanlari sohilida joylashgan mamlakatlar bilan savdo qilish huquqi berildi. Boshqa kompaniyalar qatori «Ost-Indiya» kompaniyasi ham davlat xazinasiga juda katta miqdorda daromad keltirardi. Angliya savdogarlari tez orada portugallarni Osiyodan siqib chiqara boshladi. «Ost-Indiya» kompaniyasi keyinchalik boburiy hukmdorlardan Hindistonda boj to'lamay savdo qilish huquqini qo'lga kiritdi.

10.3. YANGI DAVR BOSHLARIDA G'ARBIY YEVROPA MAMLAKATLARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

Aholi tarkibidagi o'zgarishlar. Yangi davr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ruhoniylar va dvoryanlar jamiyatning hukmron tabaqalari bo'lib qolaverdilar. Ayni paytda, dvoryanlar tarkibida o'zgarish yuz berdi. Endilikda ular ichida savdo-sotiq va tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar ham shakllandi. Dvoryanlarning ba'zilari savdo kompaniyalarining aksiyadorlariga aylandilar. Ayrimlari esa hukumatdan turli soliq yig'imlarini yig'ib olish huquqini sotib oldilar. Dvoryanlarning katta qismi endi ishlab chiqarishda yollanma mehnatdan foydalanar-

dilar. Ular o'z qo'rg'onlarida sanoat korxonalari ham tashkil etganlar va savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanganlar. Bunday dvoryanlar **yangi dvoryanlar** deb atalgan.

Jamiyat ijtimoiy hayotidagi eng muhim o'zgarishlardan yana biri **burjuaziya**ning soni va jamiyat hayotidagi o'rni ortib borishi bo'ldi. Bu hodisa ichki va tashqi savdoda shaharlar mavqeyining tobora yuksalib borganligi oqibati edi.

XVII asr o'rtalariga kelganda **savdogar (negosiant) va bankirlar** burjuaziyaning yuqori qatlamiga aylandilar. Jamiyat rivojlanishi bilan, yollanib ishlovchilar qatlami ham shakllanib bordi. **XVI – XVII asrlar**da butun aholining **88 foizi**ni **dehqonlar** tashkil etardi. Jamiyatda yollanib ishlovchilar soni ortib bordi. Ayni paytda, aholi sonining asta-sekin ko'payish jarayoni boshlandi. Chunonchi, Yevropa aholisi **1650-yili 100 mln** atrofida edi.

Savdoning rivojlanishi. **XVI – XVII asrlar**da savdo va tadbirkorlikning markazi bo'lgan shaharlarning o'sishi davom etdi. Bu esa shaharda bozor savdosining o'sishiga olib keldi. Odatda, bozorlarda savdo haftasiga bir yoki ikki kun bo'lardi. Shaharlarning o'sib borishi bilan bozorlar har kuni ishlay boshladi. **XVII asr**dan usti yopiq bozorlar qurilishi keng avj oldi. Bunday bozorlarning eng yirigi **Parij** va **London**da qurilgan.

Shu asr oxiriga kelib bozor savdosi bilan do'kon savdosi o'rtasida raqobat vujudga keldi. Yangi davr bozorlarining yana bir o'ziga xos tomoni – bu tovarlarni uni ishlab chiqarganlarning o'zlari emas, savdogarlikni kasb qilib olgan kishilar tomonidan sotishning vujudga kelgani edi. O'sha davr manbalarida: *«Do'konlar dunyoni egalladilar. Ular shaharlarni yutib yubormoqdalar»*, – degan ibora yozilgandi. O'rta asr yarmarkalari o'z ahamiyatini yo'qotdi. Shahar aholisining ehtiyojini har kuni savdo qiluvchi bozorgina qondira boshladi. Savdogarlar hayotiga, mol-mulkiga solinayotgan doimiy xavf-xatar ularni birlashishga majbur etgan. Bu omil, o'z navbatida, **savdo kompaniyalari** soni ko'payishiga olib kelgan. Kompaniya a'zolari uning faoliyati uchun o'z mol-mulklari bilan javobgar edilar. Shu tariqa dastlabki aksionerlik jamiyatlari tashkil topgan. Savdo-sotiqning rivojlanishi, kompaniyalar qudrati oshishi oqibatida **savdo monopoliyalari** vujudga keldi.

Jahon savdosi. **Gollandiya va Angliya** jahon savdo-sotig'i markazlariga aylandi. Angliyada chetdan **qalampir** olib kelish huquqi faqat **«Ost-Indiya»** kompaniyasiga berilgan. Kompaniya o'z aksiyadorlariga hatto **500% gacha** miqdorda dividend ham to'lay boshladi. Angliyaga **paxta** olib kelish huquqi esa **«Levantiy»** kompaniyasiga berilgan. Bu

kompaniya, ayni paytda, O'rta yer dengizi mamlakatlari bilan savdo qilish huquqini ham qo'lga kiritgan. Rossiya bilan savdo aloqasi olib borishga **«Moskva»** kompaniyasi haqli edi. Savdo kompaniyalari o'zlariga uzoq mamlakatlarda Angliya manfaatlarini himoya qilish majburiyatini ham olardilar. **XVII asr boshlari**da Angliya savdo kompaniyalari **Erondan Shimoliy Amerikagacha, Shvetsiyadan Hindistongacha** bo'lgan juda katta hududni o'z ta'sirida tutgan. Hindiston va Amerikaga tobora ko'proq kirib borgan.

Manufaktura ishlab chiqarishi. Ortib borayotgan talab yirikroq korxonalar qurishni zaruratga aylantirib qo'ydi, bu esa yangi tipdagi korxona – *mehnat taqsimoti asosida faoliyat ko'rsatuvchi* ***manufaktura****ning* paydo bo'lishiga olib keldi. U yerda turli xil mutaxassislikdagi yollanma ishchilar mehnat qilardilar. Ularning har biri faqat bitta ishni bajarardi. Bu esa ishning tez va sifatli bajarilishini ta'minlardi. Manufaktura ishlab chiqarishi mahsulot tannarxining arzonlashuviga ham sabab bo'ldi. **XVII asr**ga kelib manufaktura ishlab chiqarishi **Angliya va Gollandiya**da xo'jalikning asosiy shakliga aylandi. **Fransiya**da esa rivojlanish bosqichiga kirdi.

Qurolsozlikdagi ixtirolar. **XVII asr**gacha artilleriya qal'a devorlarini bemalol qulata olganligi tufayli shaharlar devor bilan emas, balki ulkan tuproq uyumlari bilan himoya qilina boshlagandi. Chunki artilleriya yadrosi (artilleriya o'qi) tuproq uyumini yorib o'tolmagan. Endi esa artilleriyaning yangi turi – **mortira** ixtiro qilindi. U artilleriyaning qisqa masofaga balandlatib o'q otadigan turi edi. Bu qurol tuproq uyumlarini ham qo'porib tashlash imkonini yaratdi. **XVI asr o'rtalari**da qo'lda o'q otadigan qurollar ixtiro qilishda ham katta yutuqlarga erishildi. Chunonchi, **mushket** deb ataluvchi miltiq ixtiro qilindi. **XVII asr 1-yarmi**da miltiqqa qo'ndoq, to'pponcha, qo'l granatalari yasash boshlandi. Qurolsozlik sohasidagi ixtirolar ritsarlar mavqeyiga putur yetkazdi.

10.4. YEVROPADA REFORMATSIYA. GERMANIYADA DEHQONLAR URUSHI

Reformatsiya haqida. **Reformatsiya XVI asr**da katolik ta'limotini isloh qilish maqsadida Germaniyada bo'lib o'tgan va **XVII asr 1-yarmi**da G'arbiy Yevropaning qator davlatlariga ham yoyilgan ijtimoiy harakatdir. Bu harakat oqibatida katolik cherkovida bo'linish yuz berdi. Zamon ruhiga mos, mutaassiblik va aqidaparastlikdan xoli, isloh qilingan yangi oqim – **protestantlik** vujudga keldi.

XVI asr boshlarida ham katolik cherkovi qudratli edi. Hamma – oddiy

dehqondan tortib to qudratli knyazlargacha o'z daromadining **1/10 qismini** cherkovga tortiq qilardi. Ayni paytda, cherkovning o'zi ham katta yer-mulk egasi edi. Bundan tashqari, **indulgensiya** savdosi ham cherkovga katta daromad keltirardi. Bu savdo orqali cherkov faqat sodir etilgan gunohnigina emas, kelajakda qilinishi mumkin bo'lgan gunohni ham kechirardi.

Reformatsiyaning shart-sharoiti. **XVI asr**da Angliya va Fransiya qirollari mutlaq hokimiyatga ega bo'lib olgan bo'lsalar, Germaniyada siyosiy tarqoqlik hukm surardi. Shu sababli Germaniya imperatori amalda real hokimiyatga ega bo'lmagan. Shuning uchun katolik cherkovining ta'siri hamon qudratliligicha qolayotgan Germaniya aholisi ham o'z hukmdorlariga, ham cherkovga tinka-madorni qurituvchi soliq to'lardi. Bundan tashqari, katolik cherkovi Germaniyada katta mol-mulkka ham ega edi. Arxiyepiskop va yepiskoplar esa amalda mustaqil knyazlar sanalardi. Germaniya imperatorini saylab qo'yadigan **7 nafar** eng qudratli knyazning **3 nafari** arxiyepiskop edi. Bu omillar Germaniyada umumiy norozilikni keltirib chiqargan. Umumiy norozilikning yuzaga kelishiga, shuningdek, katolik marosimlarini bajarishning og'irlashtirib yuborilgani ham sabab bo'lgan.

Martin Lyuter. Reformatsiya **1517-yili** Germaniya aholisining katolik cherkovini isloh (reforma) qilishni talab etib chiqishidan boshlandi. Reformatsiyani knyazlarning bir qismi, shaharliklar va dehqonlar qo'llab-quvvatladilar. Reformatsiya to'lqinining kuchayishiga **Vittenberg** universitetida ilohiyotdan dars beruvchi **Martin Lyuter** ta'limoti katta ta'sir ko'rsatdi. U **1517-yili** cherkov eshigiga o'zining dindorlarga qarata yozgan mashhur **«95 tezis»** deb atalgan xitobnomasini yopishtirib qo'ydi. *Xitobnomada indulgensiya savdosi qattiq qoralangan, Germaniyadagi cherkovni Rim papasi qaramog'idan ozod qilish talab etilgan, cherkovning esa «kamchiqim cherkov» bo'lishi yoqlangandi.*

Ko'p o'tmay u cherkov papasiz ham yashashi mumkin deb baralla aytdi va bundan keyin Rimga soliqdan tushgan pullarni yubormaslikni taklif etdi. Bu «qilmishlari» uchun Rim papasi Lyuterni shakkoklikda aybladi va Germaniyaga uni la'natlovchi yorliq yubordi. Biroq xalq Lyuterni qo'llab-quvvatlayotgani uchun, bu yorliqni Germaniya bo'ylab tarqatishning iloji bo'lmadi. Aksincha, M.Lyuter papaning uni cherkovdan chetlashtirilganligi to'g'risidagi qarorini talabalar ko'z o'ngida yoqib yubordi. Bu uning katolik cherkovi bilan aloqani butunlay uzganini anglatardi.

M.Lyuter imperatorlik sudiga chaqirildi. Imperator undan o'z ta'limotidan voz kechishini talab qildi. Biroq Lyuter imperator talabini bajarmadi. Aksincha, papaga bo'ysunishdan va indulgensiya savdosini ma'qullashdan bosh tortdi.

Katolik cherkovidagi bo'linish. Tez orada Germaniyada katolik cherkovi zulmi va zo'ravonligiga qarshi boshlangan harakat ommaviy tus oldi. **1524-yili** bu harakat hatto dehqonlarning krepostnoylik zulmiga qarshi urushiga aylanib ketdi. Qo'zg'olonning yetakchisi ruhoniy **Tomas Myunser** edi. Garchand dehqonlar urushda yengilgan bo'lsalar-da, u Germaniyada katolik cherkovi hukmronligiga barham berilishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1526-yili Germaniya reyxstagi lyuterchi-knyazlar talabi bilan har bir nemis knyazi o'zi va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to'g'risida qaror qabul qildi. Biroq **1529-yili** reyxstag bu qarorni bekor qildi. Bunga qarshi imperiyaning bir qancha shaharlari va 5 knyazi protest (norozilik) bildirishgan. Ular **«Protestatsiya»** deb atalgan hujjatga, ya'ni ruhoniy va dunyoviy feodallarning umumgerman yig'ilishi lyuterchilikning tarqalishini cheklash haqidagi qaroriga qarshi protestga imzo qo'yganlar. Shu tariqa 5 nafar knyaz **protestant** (norozi) deb atalgan. Protestant knyazlar **1555-yili** Rim papasi bilan bitim tuzishga muvaffaq bo'ldilar. Unga ko'ra, endi har bir knyaz o'z fuqarolari uchun istagan dinni, ya'ni yo protestantlikni, yo katoliklikni tanlash huquqiga ega bo'lgan. Shu davrdan reformatsiyaning barcha tarafdorlari **protestantlar**, yangi cherkov esa **protestant cherkovi** deb atala boshlandi. Shunday qilib, xristianlikda uchinchi oqim – protestantlik vujudga keldi.

Reformatsiya natijasida faqat yangi diniy ta'limot vujudga kelibgina qolmadi. Endi *knyazlarga bo'ysunadigan cherkov* ham vujudga keldi. Uzoq yillar davomidagi kurashlardan so'ng Germaniya imperatori **Karl V** ham knyazlarga o'zlari e'tiqod qilgan diniy ta'limotni o'z knyazliklari hududlarida joriy etish huquqini beradigan qonun chiqarishga majbur bo'ldi.

10.5. ANGLIYADA QIROL HOKIMIYATINING KUCHAYISHI

Mutlaq monarxiya. **Mutlaq monarxiya** (absolyutizm) oliy hokimiyatning huquqi hech qanday qonun bilan cheklanmagan yagona bir shaxs – **monarx** qo'lida to'planishidir. Boshqaruvning mutlaq monarxiya shakli siyosiy tarqoq mamlakatni yagona markaziy hokimiyat qo'l ostida birlashtirish natijasida vujudga keldi. Chunonchi, qirol **Genrix VIII Tyudor (1509 – 1547)** butun mamlakatni yagona markaz – Londonga bo'ysundirdi.

Mutlaq monarxiya feodallarning o'zaro ichki urushlariga barham bergan. Tyudorlar sulolasidan chiqqan yangi qirollar feodallar qo'shinlarini

tarqatib yubordi. Bo'ysunishni istamagan feodallarning qo'rg'onlarini yer bilan yakson qildi. Isyonchilarning yerlari tortib olindi va qirollik mulkiga qo'shib yuborildi. Shaharlarning huquqlari cheklab qo'yildi. Toifaviy-vakillik organi bo'lmish parlament, butunlay bo'lmasa-da, o'z ahamiyatini yo'qotdi. Yangi soliqlar joriy etish masalasidagina parlament roziligi shartligi belgilab qo'yildi. Angliya qirollari **veto** huquqiga ega edilar. Bu huquq ularga parlamentning har qanday qarorini taqiqlay olish imkonini berardi. Mamlakat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishini parlament emas, tarkibini qirol tuzadigan **Maxfiy Kengash** belgilardi.

XVI asrning Angliya tarixidagi o'rni. **XVI asr tyudorlar sulolasi** asri bo'ldi. Bu yuz yillik Angliya tarixida chuqur iz qoldirgan uch yirik tarixiy hodisa bilan ajralib turadi: **reformatsiya, mutlaq monarxiyaning kuchayishi va dengizda Angliya hukmronligining o'rnatilishi.**

Angliyada reformatsiya qirol **Genrix VIII** hukmronligi davriga to'g'ri keldi. Angliyada reformatsiya xalqning talabi bilan emas, balki qirolning xohish-irodasi bilan amalga oshirildi. Genrix VIII qirol hokimiyatini yanada mustahkamlash uchun cherkovni yerdan va boshqa mol-mulklardan mahrum etish haqida farmon chiqardi. Ularga qarashli yerlarning **2/3 qismi** sotib yuborildi.

Angliyada protestantlik ta'limotiga amal qiluvchi cherkov **anglikan cherkovi** deb ataldi. Qirol cherkov boshlig'i deb e'lon qilindi. Rim papasi hokimiyati inkor etildi. Katolik cherkovining boyliklari tortib olindi.

Kontrreformatsiya. Genrix VIII ning qizi **Mariya (1553 – 1558)** kontrreformatsiya o'tkazishga urindi. U o'zining cherkov boshlig'i ekanidan foydalanib protestantlikni shakkoklik deb e'lon qildi va katolik cherkovini tiklashga kirishdi. Mariya parlamentning Angliyada Rim papasi hokimiyatini qayta tiklash haqidagi qarori chiqarilishiga erishdi. Ayni paytda, shakkoklika qarshi o'rta asrlar qonunlari qayta tiklandi. Mamlakatda qatag'on boshlandi, katolik dushmanlari olovda yondirildi. Shunday sharoitda ko'pchilik protestantlar **Germaniya** va **Shveytsariya**ga qochib ketib jon saqladilar. Mariyaning qatag'on siyosati mamlakatda norozilikni kuchaytirib yubordi. Hukmron tabaqalar endi Genrix VIII ning boshqa qizi Yelizavetani qirollik taxtiga o'tqazishga qaror qildilar va Mariya vafotidan so'nggina bunga erishdilar.

Angliya Yelizaveta hukmronligi davrida (1558 – 1603). Yangi qirolicha ajoyib shaxsiy sifatlarga, kuchli irodaga va qobiliyatga ega edi. **Yelizaveta I** protestantlikni davlat dini deb e'lon qildi. Qirolichaning o'zi **«Cherkov va dunyoviy ishlarning oliy hukmdori»** unvonini oldi. Cherkov ibodatlari endi lotin tilida emas, balki ingliz tilida o'tkaziladigan bo'ldi.

Dengiz hukmronligi uchun kurash. Ispaniya qiroli **Filipp II** «shakkok» Angliya qirolichasi Yelizaveta I ga nafrat bilan qarardi. Bu davrda Gollandiyada Ispaniya zulmiga qarshi harakat boshlanganda Yelizaveta I Gollandiya tarafida turdi. Oxir-oqibatda bu ikki davlat o'rtasida **1588-yili** urush kelib chiqdi. Unda Angliya g'alaba qozondi. Angliya Yevropaning buyuk davlatiga va dengiz hukmdoriga aylandi. Angliya uchun XVI asr ana shunday yakunlandi. Reformatsiya nihoyasiga yetdi. Yelizavetaning o'limi bilan tyudorlar sulolasining hukmronligi ham barham topdi. Taxtga sulolaga qarindosh Shotlandiya qiroli **Yakov VI Styuart** o'tqazildi. Shu tariqa Angliyada **styuartlar sulolasi** hukmronligi boshlandi.

10.6. FRANSIYADA MUTLAQ MONARXIYA

Fransiya mutlaq monarxiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Fransiyada mutlaq monarxiya qaror topishi bilan, **General shtatlar** o'zining avvalgi ahamiyatini yo'qotdi. Angliya parlamentidan farqli o'laroq, Fansiyada General shtatlar doimiy faoliyat ko'rsatuvchi davlat organiga aylanolmadi. Keyinchalik faqat kuchli zarurat tug'ilgandagina chaqiriladigan bo'ldi. **1614-yildan boshlab butun XVII asr davomida** esa biror marta ham chaqirilmadi. Qirol, ayni paytda, hukumat boshlig'i ham edi. Uning huzurida **Hukumat kengashi** tashkil etilgan. Kengash a'zolari qirol tomonidan tayinlangan. Ichki va tashqi siyosatga doir barcha masalalarni shaxsan o'zi hal etgan. Shunday bo'lsa-da, parlament butunlay tugatilmagan. Fransiya viloyatlarida ham parlament mavjud edi. *Mamlakat fuqarolariga bu parlamentlarga viloyatlar sudlari ustidan shikoyat qilish huquqi berilgan*. Ayniqsa, **Parij parlamenti** katta ta'sirga ega bo'lgan. Uning vakolati mamlakat hududining **1/3 qismi**da amal qilgan. Parij parlamenti taxt vorisi yosh bo'lsa, **regent** tayinlash huquqiga ham ega bo'lgan.

Fransiya qiroli **Lyudovik XIV** bekorga: *«Davlat – bu men!»* – demagandi. Qirol qarorgohidagi bog'larga o'rnatilgan haykallar ham uning buyukligini eslatib turishi lozim bo'lgan. Hatto **Yupiter haykali** Lyudovik XIV ning yuziga o'xshatib ishlangan.

Fransiyada protestantlikning tarqalishi. Fransiya qirolligida har ikki cherkov ham faoliyat ko'rsata boshladi. **XVI asr boshlari**da M.Lyuter ta'limotiga mos g'oya tarqaldi. Mamlakatda «Injil»ning fransuzcha tarjimalari paydo bo'ldi. Ibodatxonalarda duolar ona tilida o'qila boshlandi. Shu tariqa vaqtlar o'tishi bilan Fransiya ikki dushman lagerga – katoliklar va protestantlar lageriga bo'linib qoldi. Fransiyada protestantlar **gugenotlar**

deb atalgan. *Mamlakat shimoli va qirol xonadoni katoliklar tomonida, Janubiy Fransiya esa gugenotlarniki bo'lib qoldi.*

Diniy urushlar. **1562-yili** qirolning qarindoshi, katoliklar rahnamosi **gersog Giz** o'zining ko'p sonli qo'riqchilari bilan **Vassi**da protestant gimnini ijro etayotgan protestantlarga hujum qildi. Oqibatda **20 dan ortiq** protestant o'ldirildi, **100 dan ortig'i** esa yarador qilindi. Bu voqea Fransiyada **36 yil** davom etgan diniy urushlarning boshlanishiga turtki bo'ldi.

Gugenotlarga juda katta talafot yetkazildi. Shunday bo'lsa-da, gugenotlar qirolni yon berishga majbur etdilar. Urushning oldini olish uchun qirol **Karl IX** gugenotlar yetakchisi **Genrix Burbon**ga o'z singlisi **Margarita**ni turmushga berishga qaror qildi. To'y marosimi **1572-yil avgust**ga belgilandi. Biroq katolik mutaassiblari shu voqeadan foydalanib gugenotlarning barcha rahbarlarini qirib tashlashni zimdan rejalashtirdilar. **24-avgust** kechasi gugenotlar qirg'ini uyushtirildi. **3 kunlik** qotillik davomida **30 mingga yaqin** kishi qurbon bo'ldi. Bu voqea Fransiya tarixiga **«Varfolomey kechasi»** nomi bilan kirdi. Mazkur voqealardan keyin Fransiyada protestantlik taqiqlandi. Rim papasi bu xabarni quvonch bilan kutib oldi.

Urushning davom etishi. «Varfolomey kechasi» mamlakatdagi diniy urushlarga chek qo'ymadi. Gugenotlar Fransiyani bo'lib tashlashga qaror qildilar va mamlakat janubida o'z davlatlarini tuzdilar. Bu davlatni qirol xonadonining qarindoshi, gugenotlar yetakchisi **Genrix Burbon** (u **Genrix Navarrskiy** deb ham atalardi) boshqardi. Gugenotlar yaxshi qurollangan qo'shin tuzishdi. Genrix Giz esa qattiq harbiy intizom o'rnatilgan **katolik liga** tuzdi. Katoliklar fitna tayyorlay boshladilar. Unga ko'ra, yangi qirol **Genrix III** olib qochilar va majburan monax qilinardi. Taxtni esa Genrix Giz egallashi lozim edi. Biroq qirol Genrix III fanat Genrix Gizni o'ldirtirishga erishdi.

O'ldirilganlar **«azob chekkan avliyolar»** deb e'lon qilindi. Cherkov dindorlarga qirol sog'lig'i uchun duo o'qishni taqiqladi. Ayni paytda, barcha fuqarolarning Genrix III ga sodiqlik qasamyodidan ozod etilganini e'lon qildi. **1589-yili** Genrix III katoliklar tomonidan o'ldirilgach, qirol xonadonining qarindoshlari gugenotlar rahbari Genrix Burbon (Genrix Navarrskiy) **Genrix IV** nomi bilan taxtni egalladi. U protestantlikdan chiqib, katoliklikni qabul qildi. Genrix IV o'zining kuchi, qobiliyati va ta'siridan har ikki cherkov qavmlarini murosaga erishtirish yo'lida foydalandi. U katolik amaldorlarini ehsonga ko'mib tashladi. Diniy urushlarni to'xtatish va mamlakat yaxlitligiga erishish uchun **1598-yili Nant ediktini** imzoladi. Ediktda katoliklik davlat dini deb e'lon qilingan bo'lsa-da, gugenotlar quvg'in qilinmaydigan bo'ldi. Mamlakatda diniy murosasozlikka erishildi.

10.7. XVI – XVII ASRLARDA ROSSIYA

Rusni birlashtirishning tugallanishi. Rusning Oltin O'rdaga qaramligi **1480-yili** barham topgan. **Moskva knyazligi** rahbarligida mustaqillikdan so'ng ham Rusni birlashtirish jarayoni davom ettirildi. **1485-yil**dan Moskva knyazi **Ivan III** butun Rus hukmdori unvonini qabul qildi. Bu davlat bora-bora **Rossiya** deb ataladigan bo'ldi. Nihoyat, **1521-yili** yagona, markazlashgan, poytaxti **Moskva shahri** bo'lgan Rusni birlashtirish to'la nihoyasiga yetkazildi.

Rossiya podshosi Ivan IV. **1547-yili** Rossiyada ichki nizolar, boshboshdoqliklar kuchayib ketgan bir davrda Rus pravoslav cherkovining boshlig'i mitropolit **Makariy** vafot etgan buyuk knyaz **Vasiliy III** ning o'g'li **Ivan IV** ga Rossiya tarixida birinchi bor **podsholik toji**ni kiydirdi. Bu voqea juda katta xalqaro ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki Rusda uzoq yillar davomida faqat Oltin O'rda xonlari podsho deb atab kelingan. Rus davlati hukmdorlari esa bu davrgacha **buyuk knyaz** deb kelingan. Ivan IV ga podsholik unvonining berilishi uni G'arbiy Yevropa davlatlari qirollari bilan bir qatorga qo'ydi. Yosh podsho Ivan IV o'z huzurida **«Saylanma rada»** deb ataluvchi maslahat kengashini tuzdi. *Ivan IV ichki siyosatining vazifasi dvoryanlar tabaqasini kuchaytirish orqali boyarlar mavqeyini zaiflashtirishdan iborat edi.* Shu maqsadda **1549-yili** Ivan IV feodallar turli qatlamlari vakillarining birinchi yig'ilishini – **Zemstvo sobori**ni chaqirdi. Keyinchalik bu sobor ishida shaharlarning savdogar (**posad kishilar**), shuningdek, davlatga qaram dehqonlardan (**chernosot**) ham saylangan vakillar qatnashadigan bo'ldi.

Shu tariqa Rossiya toifaviy vakillik monarxiyasiga aylana bordi. Ivan IV Zemstvo soborida boyarlar hokimiyatini keskin qoraladi. Sobor yangi **Sudebnik** tuzish haqida qaror qabul qildi. *Unga ko'ra, dvoryanlarning bundan buyon ayblari va nojo'ya qilmishlari uchun boyar-noiblar sudiga borishlari taqiqlandi. Dvoryanlardan ming nafariga Moskva uyezdidan yer-mulk ajratib beriladigan bo'ldi. Davlat lavozimlarini kelib chiqishining zodagonligiga qarab egallash tartibiga chek qo'yildi. Boyar-noiblarning o'zlari uchun aholidan yig'adigan soliqlari bekor qilindi. Joylarda boyar-noiblar boshqaruvi o'rniga zemstvo (mahalliy o'zini o'zi boshqarish) organlari tuzildi. Ularga dvoryanlar, posad va chernosotlar vakillari ham saylanishi huquqi berildi. Podsho hokimiyati endilikda ana shu tabaqa vakillariga tayanadigan bo'ldi.* Sudebnik krepostnoy dehqonlarning bir yer egasidan boshqasiga o'tishini yiliga bir kun – **Yurev kuni** (**26-noyabr**) bilan chekladi.

Oprichnina. **1565-yili** Ivan IV davlat yerlaridan katta qismini ajratib oldi. Bu yerlar **oprichnina** deb ataldi. Boyarlarning yerlari ham oprichninaga qo'shib yuborila boshlandi. Oprichnina **podsho yerlari** deb ham atalib, ularga dvoryanlar joylashtirildi. Oprichnina yerlari ularga bo'lib berildi. Endi ular **dvoryan-oprichniklar** deb atala boshlandi. Ivan IV bundan buyon boyarlarni Boyarlar dumasisiz o'zi sud qilishini va ularga o'zi jazo belgilashini e'lon qildi. Davlat yerlarining oprichninaga tortilmagan qismiga katta miqdorda soliq joriy etdi. Oprichnina o'z qo'shiniga ega edi. U podshoning o'z raqiblarini jazolash quroliga aylantirildi.

Oprichniklar otlarining egarlariga it kallasi va supurgini osib olardilar. It kallasi ularning podshoga itdek sadoqatli ekanlarini, supurgi esa har qanday sotqinlikni davlatdan supurib tashlashga ahd qilganliklarini anglatishini ko'z-ko'z qilishi kerak edi. Shu tariqa mamlakatda shafqatsiz terror, qatl va surgun davri boshlandi. Shuning uchun Ivan IV **«Grozniy» («Dahshatli», «Qo'rqinchli»)** laqabi bilan ataldi.

Oprichnina boyarlarga va feodal tarqoqlik qoldiqlariga kuchli zarba berdi. Ayni paytda, u mamlakat xo'jaligiga katta talafot yetkazdi. O'n minglab dehqonlar va hunarmandlarni xarob qildi. Bu esa jamiyatning turli qatlamlarida oprichninadan norozilikni kuchaytirdi. Natijada Ivan IV oprichninani bekor qilishga majbur bo'ldi. Biroq mamlakatda terror, ayovsiz qatl davom etaverdi. Krepostnoylik tartiblari kuchaygandan kuchaydi.

Tashqi siyosat. **XVI asr ikkinchi yarmi**da **Qozon, Astraxan (Ashtarxon)** va **Sibir xonliklari** bosib olindi. Shu tariqa **1533-yili 2,8 mln km²** ni tashkil etgan Rossiya hududi **XVI asr oxiri**ga kelib **5,4 mln km²** ga yetdi.

Notinch, alg'ov-dalg'ovli yillar. **1584-yili** Ivan IV Grozniy vafot etdi. Taxtga uning o'g'li **Fyodor Ivanovich** o'tqazildi. U kasalmand bo'lganligi uchun, amalda hokimiyatni qaynisi – boyar Boris Godunov boshqardi. Fyodor **1598-yili** vafot etdi. Lekin Ivan IV o'g'illaridan taxt vorisi qolmadi. Shu tariqa Rossiyani **700 yil** boshqargan **ryurikovlar sulolasi** hukmronligi barham topdi. Shunday sharoitda Zemstvo sobori Boris Godunovni podsho etib sayladi.

Boris Godunov **1605-yili** vafot etgach, Rossiya tarixida notinch, alg'ov-dalg'ovli yillar boshlandi. Qisqa vaqt ichida bir nechta podsho almashdi. Ayni paytda, Rossiyada boyarlar ta'siri yana kuchaydi. Bundan tashqari, chet davlatlar – **Polsha va Shvetsiya** Rossiya ichki ishlariga zo'r berib aralasha boshladilar. Polsha hatto **1609-yili Moskva**ni bosib oldi. Hokimiyat boyarlar guruhi qo'liga o'tdi. Ular Rossiya taxtiga Polsha qirolining o'g'lini o'tqazishga urindilar. Shu orqali o'z imtiyozlarini saqlab

qolmoqchi bo'ldilar. Ana shunday og'ir sharoitda Rossiyaning asl vatanparvar kuchlari yetakchilari – posad oqsoqoli **Kuzma Minin** va sarkarda **Dmitriy Pojarskiy** xalq lashkari to'plashga kirishdilar.

1612-yili Moskva uchun bo'lgan janglarda Polsha qo'shini mag'lubiyatga uchratildi. Shu tariqa Moskva chet el bosqinchilaridan tamomila ozod qilindi. **1613-yili** Moskvada chaqirilgan Zemstvo sobori Ivan IV Grozniy xotinining qarindoshi **Mixail Fyodorovich Romanov**ni Rossiya podshosi etib sayladi. Shu tariqa Rossiyada yangi sulola – **romanovlar sulolasi** hukmronligi davri boshlandi. Bu sulola vakillari **1917-yil**gacha hokimiyatni qo'llarida saqlab turdilar.

10.8. NIDERLANDIYA INQILOBI

Niderlandiya haqida. Niderlandiya **XVI asr**da hozirgi **Belgiya, Lyuksemburg, Gollandiya** hududlaridan hamda **Fransiyaning bir qismi**dan iborat bo'lgan. **Antverpen shahri** (hozirgi Belgiya) Niderlandiyaning iqtisodiy va savdo markazi edi. U, ayni paytda, jahon savdosi markazi ham bo'lgan. Antverpen Niderlandiyani daryo orqali **Germaniya va Fransiya** bilan, dengiz orqali esa **Angliya hamda Skandinaviya mamlakatlari** bilan bog'lardi. Antverpen ko'chalaridan har kuni kamida **2 mingta** savdo furgonlari o'tgan. Turli mamlakatlardan yuzlab kemalar shahar portiga kirib kelardi. Bir so'z bilan aytganda, Niderlandiya sanoati, qishloq xo'jaligi rivojlangan boy mamlakat edi. Biroq mustaqil bo'lmagan. Ispaniya uni o'z mulkiga aylantirgandi.

Qaramlik oqibatlari. Ispaniya monarxiyasi bu yerda o'zining qoloq boshqaruv tartibini o'rnatdi. Aholi juda katta miqdorda soliq to'lashga majbur etildi. Ispaniya qiroli xazinasiga Niderlandiyadan yig'iladigan soliq miqdori uning Amerikadagi mustamlakalaridan keladigan daromaddan **4 marta** ortiq bo'lgan. Niderlandiyada **«isloh qilingan din»** (protestantlik) tarqala boshlagach, qirol yuqori diniy lavozimlarga ispanlarni tayinlashga kirishdi. Bu yerda ham inkvizitsiyani va qonli qonunlarni joriy etdi. Ommaviy qirg'inlar uyushtirdi. Bu omillar Niderlandiya xalqining keskin g'azab-nafratini qo'zg'atdi.

Ispaniya zulmiga qarshi harakatda aholining keng qatlamlari – **burjuaziya, hunarmandlar, dehqonlar, savdogarlar, dvoryanlarning bir qismi** qatnashdi. Burjuaziya qo'zg'olonga rahbarlik qildi. Ispaniya zulmiga qarshi kurash **1566-yili** qo'zg'olonga aylandi. Qo'zg'olonchilar qisqa vaqt ichida Ispaniya zulmining tayanchi bo'lgan cherkov va monastirlarni vayron qildilar. Katolik ruhoniylar va ispan amaldorlari quvib yuborildi.

Terror tartibining o'rnatilishi. Qo'zg'olonni bostirish uchun Ispaniya qiroli Filipp II **gersog Alba** boshchiligida saralangan qo'shin yubordi. Alba Niderlandiya hukmdori etib tayinlandi. Alba boshqaruv ishida ter*rorni, jallod qilichini va inkvizitsiyani qo'lladi. Barcha masalalar* **Isyonlar bo'yicha kengash**da hal etilardi. Niderland xalqi bu kengashni **«Qonli kengash»** deb atadi. Alba shafqatsiz jazo choralari bilangina cheklanib qolmadi. U **«o'ndan bir»** deb ataluvchi yangi soliq ham joriy etdi. Unga ko'ra, savdogarlar har qanday savdo bitimidan keladigan daromadning **1/10 qism**ini qirol xazinasiga to'lashga majbur edi.

Biroq Albaning dahshatli jazo choralari ham ozodlik harakatini to'xtatolmadi. Niderlandiyani partizanlar kurashi chulg'ab oldi. Tez orada qo'zg'olonga Niderlandiya savdo flotining dengizchilari ham *qo'shilishdi. Ular Ispaniyaga qarshi dengiz urushi olib bordilar.* Niderlandiya xalqining qo'zg'oloni mamlakat shimoliy qismining mustaqillikka erishishi bilan yakunlandi. Burjuaziya **1572-yili** Niderlandiyaning eng boy va obro'li katta yer egasi **Vilgelm Oranskiy**ni shimoliy hududlar hukmdori deb e'lon qildi. Ispaniyaning Niderlandiyadagi mavqeyi tobora zaiflashib bordi. Natijada **1573-yili** Alba Niderlandiyani tark etishga majbur bo'ldi. Filipp II faqat **Janubiy Niderlandiya**ni o'z qo'lida saqlab qololdi.

Gollandiya respublikasining tashkil topishi. Mamlakat shimolidagi viloyatlar **1579-yili** ittifoq tuzdilar. Bu ittifoq **«Utrext uniyasi»** deb ataldi. Uniya a'zolari xuddi yagona viloyat kabi abadiy birlashishga va Ispaniyaga qarshi birgalikda ozodlik uchun kurshishga va'da berdilar. Uniya Filipp II ni taxtdan tushirilgan deb e'lon qildi.

Bu haqda uniya qabul qilgan hujjatda, jumladan, shunday deyilgandi: *«Xudo odamlarni hukmdor uchun emas, aksincha, hukmdorni odamlar manfaatlari uchun yaratadi. O'z fuqarolari manfaati uchun qayg'urmagan hukmdor endi hukmdor emas. U bo'ysunish lozim bo'lmagan zolimdir».* Uniya a'zolari ichida eng aholisi ko'pi va eng badavlati **Gollandiya** edi. Mustaqillikka erishgan shimol shu viloyat nomi bilan **Gollandiya respublikasi** deb atala boshlandi. Faqat **1609-yil**dagina Ispaniya Gollandiyaning mustaqilligini tan oldi. Gollandiya respublikasining tashkil topishi inqilobiy hodisa bo'ldi. Bu Gollandiyada feodal tuzum butunlay barham topdi degani edi. Endi hokimiyat burjuaziya qo'liga o'tdi. Gollandiyada kapitalizm gurkirab rivojlana boshladi. **Amsterdam shahri** esa Antverpen o'rniga jahon savdosi markaziga aylandi.

10.9. YEVROPADA UYG'ONISH DAVRI MADANIYATI

Uyg'onish davri haqida. Uyg'onish davri deganda ilm-fan, madaniyat, ma'naviyat va tafakkur yuksalgan davr tushuniladi. **XIV – XVII asrlar**da G'arbiy Yevropada ham bu hodisa yuz bergan va u **renessans** deb atalgan. Uyg'onish davrining vatani **Italiya** bo'ldi. Bu bejiz emasdi. Chunki G'arbiy Yevropaning boshqa davlatlariga nisbatan Italiyada kapitalizm ertaroq vujudga kelgan va tezroq rivojlana boshlagan. Boy savdogarlar, manufaktura egalari, bank egalari bo'sh vaqtlarini sayohatlar, savdo kelishuvlari, o'qish va ilm o'rganish bilan o'tkazganlar. Kundalik hayotlarini foydali va chiroyli qilishga, narigi dunyo emas, bu yorug' dunyoning hayotiy ne'matlaridan bahramand bo'lishga intilganlar. Burjuaziyaning ma'lumoti tobora ortib bordi. U nafaqat pulni, balki ilmni ham qadrlardi, san'atni tushunardi. Ayni paytda, ular ilm-fan va san'at ravnaqiga homiylik ham qilardi. Badavlat kishilar kiyinishi ularning **asketizm**dan voz kechganini namoyish etadigan bo'ldi.

Adabiyot. Uyg'onish davri adabiyoti va san'atida o'z davrining buyuk kishilari ijod qildilar. Bunday noyob qobiliyat egalaridan biri **Uilyam Shekspir (1564 – 1616)** bo'lgan. U *«Inson – tabiatning ajoyib mo'jizasi»* deb hisoblardi. U.Shekspir teatrga muhabbat qo'ydi. Ham aktyor, ham dramaturg sifatida ijod qildi. U.Shekspir insonlarni o'rab turgan olamni sahna, odamlarni esa aktyorlar deb tasavvur qilardi.

«Otello» tragediyasida tuhmatga ishongan Otello o'z sevgilisi **Dezdemona**ni bo'g'ib o'ldiradi. **«Gamlet»** tragediyasida esa zaharlangan xanjar Gamletni halok qiladi. **«Qirol Lir»** asari qahramoni qirol Lir esa o'z qizlari tomonidan daydib yurishga va gadolikka mahkum etiladi. **«Romeo va Julyetta»** asarida esa o'rta asr jaholati oqibatida sevishganlar halok bo'ladi. Lekin hech narsa U.Shekspir qahramonlarini erkinlikdek yuksak va yorug' tuyg'ulardan voz kechishga majbur etolmaydi. Shu tariqa mag'lubiyat va o'limga qaramay, Shekspirning *«Inson – tabiatning ajoyib mo'jizasi!»* degan fikri uning asarlarida o'z tasdig'ni topadi.

Bu davr madaniyatining yana bir yirik arbobi, ispan yozuvchisi **Migel de Servantes (1547 – 1616)**. Uning mashhur **«Don Kixot»** asari qahramoni, jahongashta Don Kixot – adolatsizlik olamidagi so'nggi olijanob ritsar. U odamlar hayoti biroz bo'lsa-da yaxshilanishiga yordamlashish yo'lida qo'lidan kelganicha harakat qiladi. Bu ish uning hayotdagi *«Erkinlik uchun, xuddi shon-sharaf uchun qilinganidek, jonni xavfga qo'yish kerak»* shiorining amaldagi ifodasi edi.

Tasviriy san'at. Uyg'onish davri madaniyatining yana bir buyuk na-

moyandasi italiyalik **Leonardo da Vinchi (1452 – 1519)** sanaladi. U ham rassom, ham shoir, ham me'mor, ham haykaltarosh, ham musiqachi, ham ixtirochi edi. Leonardo rasm chizish san'atini **«san'atlar malikasi»** deb atagan. Uning asarlari qahramonlari xudolar va avliyolar emas, balki oddiy odamlar edi. **«Chaqaloq tutgan Madonna»** rasmi buning yorqin dalilidir. Leonardoning **«Maxfiy kecha»** deb nomlangan devoriy rasmi ham mashhur. Injildagi rivoyatga ko'ra, Iso payg'ambar o'limidan oldin shogirdlarini oxirgi marta to'plagan. Isoning shogirdlariga hozirgina aytgan *«Sizlardan biringiz meni sotasiz»* degan bashorati tasviri. Shogirdlar uning bu so'zidan qotib qolishgan. Ularning yuzida hayrat, qo'rquv, g'azab va ishonchsizlik. Iso esa xotirjam, ayni paytda, qayg'uli. Faqat uning holsiz qo'llari taqdirga bo'ysunganini, so'zsiz halokat muqarrarligini ifodalab turibdi.

Bu davrning buyuk italiyalik rassomlaridan yana biri **Rafael Santi (1483 – 1520)** edi. U atigi **37 yil** umr ko'rdi, xolos. Lekin shu qisqa davr ichida o'z nomini abadiylikka muhrlagan asarlar yaratoldi. U yaratgan asarlar ichida **«Sikstin Madonnasi»** mashhurdir. Zamondoshlari «Sikstin Madonnasi» asariga *«shu xildagilarning yagonasi»* deb baho berishgandi. Unda oyoqyalang Bibi Maryam go'yo bulutlarni bosmaganday, ohista ularning ustida uchib yurganday. U o'z qismatiga peshvoz chiqmoqda. Hali go'dak Isoning nigohlari kattalarnikidek jiddiy. U go'yo kelajakdagi azoblar va o'limni oldindan sezayotganday. Onaning qarashlarida ham qayg'u va xavotir bor. U oldindan nima bo'lishini biladi. Shunga qaramay, o'g'lining hayoti evaziga haq yo'llari ochiladigan odamlar tomon oldinga yuradi.

Gollandiyalik mashhur rassom **Rembrandt (1606 – 1669)** yaratgan asarlar ichida eng mashhuri **«Adashgan o'g'ilning qaytishi»** rasmi edi. Bu asarni muallif hayotining eng og'ir damlarida – **o'g'lining o'limidan so'ng** yaratgan. Injilda oilasini tashlab ketib uzoq vaqt sang'ib yurgan, barcha boyliklari tugagach, ortga qaytgan o'g'lini ota kechiradi va uyiga qabul qiladi. Rembrandt o'z asarida ota va o'g'ilning uchrashuv paytini aks ettirgan. Adashgan o'g'il uy ostonasi oldiga tiz cho'kib turibdi. Yirtiq kiyim va sochsiz bosh o'tgan umr kulfatlarining guvohi. Ko'r, keksa otaning barmoqlari o'g'lining yelkasiga tegayapti. Qo'l harakati bu dunyodan qariyb umidini uzgan odamning yorqin quvonchini, cheksiz muhabbatini anglatadi.

Haykaltaroshlik. Bu davr haykaltaroshlari haykaltaroshlik san'atini san'atlarning birinchisi, u insonni, uning go'zalligini boshqa san'at turlaridan yaxshiroq sharaflaydi deb hisoblaganlar. Ularning eng mashhuri italiyalik **Mikelanjelo (1475 – 1564)** edi. U o'zining o'lmas asarlari bilan

tarixda abadiy iz qoldirdi. Ijodkor san'at haqidagi bir she'rida quyidagilarni bitgan: *«Tiriklikdan, borliqdan ko'ra san'atning qismati buyukdir har dam, uni yenga olmas vaqt ham, o'lim ham»*. San'atkor yaratgan **«David»** haykali asari uning nomini abadiylikka muhrladi. Injil rivoyatlariga ko'ra, yosh cho'pon yigit David dahshatli devsifat Goliaf bilan jangga tushishga jur'at qiladi va uni tosh bilan urib o'ldiradi. Haykaltarosh Mikelanjelo esa jang oldida turgan Davidni tasvirlagan. Uning yuzi g'azabga to'la. Bu haykal o'zining balandligi va go'zalligi bilan o'zigacha yaratilgan barcha asarlarni ortda qoldirdi. **Pyotr sobori** Rimning va Yevropaning bosh katolik ibodatxonasidir. Yuz yildan ortiq davr mobaynida bunyod etilgan bu sobor qurilishini Mikelanjelo nihoyasiga yetkazdi.

10.10. ILM-FAN TARAQQIYOTI

Tabiat fanlari sohasidagi buyuk o'zgarishlar. Bu davrda fizika va astronomiya fanlari taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk olimlar **Nikolay Kopernik (1473 – 1543), Jordano Bruno (1548 – 1600), Galileo Galiley (1564 – 1642)** yashab ijod qildi.

Nikolay Kopernik o'z davri uchun har tomonlama chuqur bilim oldi. **Krakov** (Polsha) va **Italiya** universitetlarida o'qidi. Tasviriy san'at, matematika, falsafa, huquqshunoslik va tibbiyot kabi fanlarni o'rgandi. Maxsus moslamalar yordamida **30 yil** davomida osmon jismlarini kuzatdi. N.Kopernik o'z tadqiqotlariga suyanib ming yillardan beri davom etib kelayotgan Yerning harakatsizligi haqidagi ta'limotdan voz kechdi. Yerning Quyosh va o'z o'qi atrofida aylanishini isbotlab berdi. U o'z xulosalarini **1543-yil** chop etilgan **«Osmon jismlarining aylanishi haqida»** deb atagan kitobida bayon etdi. N.Kopernikning xulosalari cherkovni g'azablantirdi. Kitob chop etilgan davrda u o'lim to'shagida yotardi. Faqat o'limgina uni inkvizitsiyadan asrab qoldi. Keyinchalik, **1616-yili,** cherkov Kopernik ta'limotini rasman taqiqladi.

Jordano Bruno. **1600-yil 17-fevral** kuni Rim shahrida erkinlik va hurfikrlik dushmani inkvizitsiya hukmi bilan italiyalik faylasuf, astronom va shoir **Jordano Bruno** gulxanda kuydirildi. Jordano Bruno dunyoqarashiga ko'ra panteizm tarafdori edi. Yoshligidan xristian dini asoslari bilan birgalikda N.Kopernik ta'limotini o'rgandi. J.Bruno o'z qarashini **«Nola falsafasi»** deb atadi. Unda olamning cheksizligi to'g'risidagi ta'limot ilgari surildi. Mutafakkir bunday deb yozgandi: *«Olam cheksiz, o'lchovsiz, uning oxiri yo'q. Olam markazga ega emas. Yer ham, quyosh ham olamning markazi emas. Olam son-sanoqsiz yulduzlardir va har bir*

yulduz yiroqdagi bir quyoshdir. Ularning har biri atrofida o'z yo'ldoshlari aylanadi. Olam abadiy mavjud va u yo'q bo'lmaydi».

Inkvizitsiya uni gulxanda yoqib o'ldirishga hukm qildi. Keyingi avlod unga haykal o'rnatdi. Haykal ostiga esa: *«U barcha xalqlar uchun fikr erkinligini talab qildi va shu talabi uchun qatl etildi»*, – deb yozib qo'yildi.

Galileo Galiley. **Galiley (1564 – 1642)** ham italiyalik buyuk astronom edi. U osmon jismlarini kuzatuvchi asbob – **teleskop**ni yaratdi va shu teleskop bilan osmonni kuzatgan Yevropaning birinchi olimi edi. Uning tadqiqot ishlari Kopernikning ta'limotini tasdiqladi. G.Galiley oyda ham yerdagi kabi tog'lar borligini, quyoshda dog'lar mavjudligini qayd etdi.

G.Galiley o'z qarashlarini **«Yulduzlar axboroti»** kitobida bayon etgan. Cherkov bu kitobni taqiqlangan adabiyotlar ro'yxatiga kiritdi. Inkvizitsiya esa uning kashfiyotlarini qoraladi. Keksa, kasalmand Galiley **besh oy** davomida tergov qilindi. Tergov uning tinka-madorini quritdi. Manbalarda bunday deb yozilgandi: *«Bu xo'rliklar olimning buyuk g'oyalaridan voz kechishi va uqubatlardan yengilgan odamning azoblanishiga olib keldi»*. Oxir-oqibatda inkvizitsiya uni o'z g'oyalaridan voz kechishga majbur etdi.

1992-yili papa Ioann Pavel II (marhum) G.Galileyga nisbatan inkvizitsiya sudi qarori bekor qilinganligini va G.Galileyning oqlanganligini e'lon qildi. Ayni paytda, u inkvizitsiyaning buyuk olimga nisbatan o'tkazgan zulmi uchun kechirim so'radi.

«Yashash, erkinlik va mulkka egalik huquqi». Bu davrda falsafa fani ham rivojlandi. Bu borada Angliyada katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Ayniqsa, **XVII asr**da ijod qilgan **Jon Lokk** ilgari surgan g'oyalar keyingi asr faylasuflariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. *Uning asosiy xizmati insonning yashash, erkinlik va mulkka egalik qilish huquqlari haqidagi ta'limotni yaratganligi bilan belgilanadi.* Lokk, shuningdek, davlat hokimiyatini bo'lish, ya'ni ijro etuvchi hokimiyatni qonun chiqaruvchi hokimiyatdan ajratish haqidagi ta'limotni ham ilgari surdi.

Yangi ixtirolar. **XVI asr**dan odamlar suv va shamoldan energiyaning yangi manbayi sifatida foydalanishni o'rganib oldilar. Shamol tegirmon g'ildiragi beradigan energiya yordamida teriga ishlov berildi va ruda maydalandi. Bu davrda tokarlik dastgohining ixtiro qilinishi katta ahamyatga ega bo'ldi. Shaxta konlari chuqurligi **200 metrdan 800 metrgacha** yetgandi. Bu esa shaxtalardagi suvni chiqarib tashlash ishini dolzarb muammoga aylantirib qo'ydi. Shaxtalardagi suvni tortib oladigan **pompa** deb ataluvchi nasos ixtiro qilindi. Bu ixtiro shaxtadan suvni qo'l kuchi bilan chiqarishga jalb etilayotgan **600 kishi**ning o'rnini bosdi.

XVII asrda ruda portlatish yo'li bilan olina boshladi. Bu davrning yana bir yangiligi **toshko'mirdan foydalanish** bo'ldi. Tog'-kon sanoati va metallurgiya rivojlangan hududlarda o'rmonlar maydoni tobora qisqarib bordi. Bu omil toshko'mirdan foydalanishning o'ylab topilishiga olib keldi. Angliya ko'mir qazib chiqarish markaziga aylandi. **1540-yildan 1640-yilgacha** ko'mir qazib chiqarish **250 ming tonnadan 1,5 mln tonnaga** yetdi. Yangi-yangi ixtirolar kitob chop qilish borasida ham yangilik yaratilishiga olib keldi. Chunonchi, endi **suratli kitoblar** chop etila boshlandi.

11-BOB. YEVROPA MAMLAKATLARI XVI – XVIII ASRLARDA

11.1. ANGLIYADA BURJUA INQILOBINING BOSHLANISHI

Angliya inqilob arafasida. Dengizdagi yakkahukmronlik Angliyaning chet ellar bilan savdo-sotiq ishlarini tobora kengaytirib bordi. London tashqi savdoda monopol huquqni qo'lga kiritdi. Natijada bu shaharda badavlat savdogarlar guruhi vujudga keldi. Ichki savdo ham rivojlandi. **1600-yili** dastlabki **birja** ochildi. Qishloq xo'jaligida ham bozor munosabatlari qaror topishi tezlashdi. Bu omillarning barchasi katta mavqega ega bo'lgan o'rta tabaqa shakllanishiga olib keldi. Ular, asosan, «isloh qilingan din»ga e'tiqod qilardilar. O'rta tabaqa vakillari qirol hokimiyatini inkor etmagan. Aksincha, uning parlament bilan hisoblashishi tarafdori bo'lganlar.

Inqilob sabablari. Angliya qiroli mamlakat parlamenti va «isloh qilingan din» cherkoviga qarshi kurash boshladi. Buning oqibatida vujudga kelgan qarama-qarshilik inqilobning siyosiy sababiga aylandi. Qirol **Yakov I** ning maqsadi parlament mavqeyini yo'qqa chiqarish va eski feodal tartiblarni saqlab qolish edi. *Qirol mahsulot sifati yomonlashadi degan bahona bilan yangi ixtirolarni qo'llashni taqiqlab qo'ydi.* Bu esa manufaktura ishlab chiqarishi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Hukmron tabaqa, davlat amaldorlari o'rtasida davlat xazinasini talon-toroj qilish kuchaydi. Qirol hatto ba'zi tovarlarni ishlab chiqarish va sotish uchun ruxsatnomani tadbirkor va savdogarlarga xohlagan narxda o'zi sotardi. Oqibatda savdogarlar xarajatlarni qoplash uchun narx-navoni oshirishga majbur bo'lardilar. Yakov I ning tashqi siyosatidan ham burjuaziyaning noroziligi kuchayib bordi. Bunga bosh raqib Ispaniya bilan murosasozlik qilinayotgani asosiy sabab bo'ldi.

Karl I (1625 – 1649) davrida ham vaziyat o'zgarmadi. Karl I Fransiya monarxi kabi cheklanmagan huquqqa ega bo'lishga intildi. Ayni paytda, yangi – **kapitalistik jamiyat** tarafdorlari ham qo'l qovushtirib o'tirmadi. Parlament amalda ularning qo'lida edi. **1628-yili** parlament qirolning **«Huquqlar tog'risidagi bill»** va **«Huquqlar to'g'risidagi petitsiya»**ni imzolashiga erishdi. Bu ikki hujjat qirolga parlament roziligisiz birorta yangi soliq joriy etmaslik va sudning ruxsatisiz qamoqqa olishlarni taqiqlash majburiyatini yukladi. Bunga javoban qirol parlamentni tarqatib yubordi. Shu tariqa mamlakatda qirolning yakkahukmronligi o'rnatildi. Boz ustiga, shu orada **Shotlandiya** Angliyaga hujum qildi. Bu esa vaziyatni yanada og'irlashtirib yubordi. Yuqorida qayd etilgan barcha omillar Angliyada inqilob yuz berishini muqarrar qilib qo'ydi.

Inqilobning boshlanishi. Shunday sharoitda qirol muxolifatning talabi bilan parlamentni chaqirishga majbur bo'ldi. **1640-yil 3-noyabrda** parlament ish boshladi. Bu sana Angliya burjua inqilobining boshlanish kuni bo'ldi. Jamoalar palatasining katta qismini eski tuzumga qarshi tabaqa vakillari tashkil etdi. Parlament, birinchi navbatda, favqulodda sudlarni tarqatib yubordi. Cherkov sudini ruhoniy bo'lmagan shaxslarni sud qilish huquqidan mahrum etdi. Qirol huzuridagi **«Maxfiy kengash»**ning oliy sudni amalga oshirish vakolati bekor qilindi. Siyosiy mahbuslar ozodlikka chiqarildi. Matbuot mustaqilligi e'lon qilindi. Qonunsiz to'lovlar va jarimalar bekor qilindi. Qirol parlamentning jamoalar palatasini shu palata roziligisiz tarqatmaslik to'g'risidagi qonunni imzolashga majbur etildi.

1641-yili parlamentning **«Buyuk remonstratsiya»** deb nomlangan hujjatni qabul qilishi qirol va parlament munosabatlarini yanada keskinlashtirib yubordi. Hujjatda, jumladan, shunday yozilgandi: *«Barcha kulfatlarning ildizi asosiy qonunlarni yo'qqa chiqarish maqsadida qilinayotgan yovuz niyatli badkirdor urinishlar va ingliz qirolligining dinni hamda adolatni ko'mib tashlagan boshqaruvi asoslaridir»*. Bu hujjat qirol oldiga juda muhim talablarni qo'ydi. Lekin Karl I mazkur talablarni bajarmadi. Shu tariqa **1642-yil boshlar**iga kelib Karl I bilan parlament o'rtasida uzil-kesil ajralish ro'y berdi. Endi qirol isyonkor parlamentni jazolashga va muxolifat rahbarlarini hibsga olishga qaror qildi. Shunday sharoitda Londonning **yuz ming** aholisi parlamentni himoya qilib ko'chaga chiqdi. Yangi dvoryanlarning **5 ming kishilik** qurollangan guruhi Londonga yuborildi. Bu omillar qirolni chekinishga va Londondan qochib ketishga majbur etdi. Shu tariqa Angliya ikki dushman lageriga bo'lindi.

11.2. ANGLIYADA FUQAROLAR URUSHI

Fuqarolar urushining boshlanishi. **1642-yil yozi**da fuqarolar urushi boshlandi. **1643-yili** burjuaziya qo'lida bo'lgan **parlament** bilan **Shotlandiya** o'rtasida ittifoq tuzildi. Ikki tomonning birlashgan qo'shini qirol qo'shini ustidan g'alaba qozondi. Bu g'alabada **Oliver Kromvel**ning qo'mondonlik mahorati katta rol o'ynadi. **1645-yil 14-iyun**da **Neyzbi qishlog'i** yaqinidagi hal qiluvchi jangda qirol qo'shini tor-mor etildi. Qirolning o'zi qochib ketdi. **1646-yili** qirol yashiringan **Oksford**ning taslim bo'lishi bilan fuqarolar urushi tugadi. Bu urushda parlament to'la g'alaba qozondi. Parlament hokimiyatni qo'lga olgach qator islohotlar o'tkazdi. Chunonchi, yangi dvoryanlar feodal to'lovlardan ozod etildi. Ularning *qo'lidagi yer-mulklar o'zlariga xususiy mulk qilib berildi. Savdogarlar* savdo ishlarini yuritish uchun ruxsatnoma olib o'tirmaydigan bo'ldi. Qirol, qirol tarafdorlari va yepiskoplarning yerlari musodara qilindi. Cherkov parlamentga bo'ysundirildi.

Respublikaning tashkil etilishi. **1649-yili** parlament qirollik hokimiyatini *«keraksiz, xalq farovonligi uchun zararli va xavfli»* bo'lgani uchun bekor qildi. Lordlar palatasi ham tarqatib yuborildi. **19-may** kuni esa Angliya **respublika** deb e'lon qilindi. Barcha hokimiyat to'laligicha o'zini *«ingliz ozodligining asrovchisi»* deb hisoblovchi **bir palatali parlament** qo'liga o'tdi. Ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi **Kengash** tuzildi. Oliver Kromvel Kengash rahbari etib tayinlandi. Kromvel Angliya hududini kengaytirish siyosatini yuritdi. Chunonchi, **1649-yili Irlandiya**ni, biroz fursatdan so'ng **Shotlandiya**ni bosib oldi. **1653-yili** hukmron tabaqaning xohish-istagi bilan Kromvel parlamentni tarqatib yubordi va butun hokimiyatni o'z qo'liga oldi. U **«Ozod davlat Angliya, Shotlandiya va Irlandiyaning lord-protektori»** deb e'lon qilindi. Shu tariqa mamlakatda harbiy diktatura o'rnatildi. Bu esa amalda davlat to'ntarishi edi. Kromvel avvalgi parlamentning yangi dvoryanlar va burjuaziya manfaatlarini himoya qiluvchi barcha qarorlarini tasdiqladi, vijdon erkinligini e'lon qildi.

Kromvelning tashqi siyosati ham hukmron tabaqa manfaatiga to'la mos keldi. **1654-yili** dengiz savdosidagi asosiy raqib – **Gollandiya**ning mag'lubiyatga uchratilishi, keyinchalik **Ispaniya** ustidan ham g'alaba qozonish buning yorqin dalili bo'ldi. Mazkur g'alabalardan keyin Kromvel haqida manbalarda: *«Qit'aning kalitlari uning belida osig'liq»*, – degan jumlalar ham qayd etildi.

1688-yilgi sarov to'ntarishi. **1658-yili** Kromvel vafot etdi. **1660-yili** monarxiya tiklandi. Taxtga qatl etilgan qirol Karl I ning o'g'li **Karl II**

o'tqazildi. **1685-yili** uning ukasi **Yakov II** taxtni egalladi. U mamlakatda katolik dinini tiklashga kirishdi. Bu esa aholi o'rtasida keskin norozilik tug'dirdi. Burjuaziya va yangi dvoryanlar shunday sharoitda Yanov II ni taxtdan mahrum qilishga, uning kuyovi – Gollandiya hukmdori **Vilgelm III Oranskiy**ni taxtga o'tqazishga qaror qildilar. U protestant edi. Uning taxtga o'tirishi mamlakatda katoliklikning kuchayishi xavfini butunlay bartaraf etardi.

1688-yili Vilgelm III Oranskiy o'z qo'shini bilan **London**ga kirib keldi. Shu tariqa Angliya tarixida navbatdagi saroy to'ntarishi amalga oshirildi. Bu to'ntarish **«Sharafli inqilob»** deb ataldi. «Sharafli inqilob» uzoq davom etgan qirol va parlament o'rtasidagi o'zaro kurashga chek qo'ydi. Vilgelm III Oranskiy parlament shartlariga rozi bo'lgani tufayligina taxtni egallay oldi. Parlament qirolga parlamentning, qirolning hamda hukumatning huquq va majburiyatlari yozilgan **«Huquqlar deklaratsiyasi»** deb nomlangan hujjatni taqdim etdi. Qirol bu hujjatni imzoladi. *Unga ko'ra, qirol qo'shin, sud, mamlakat ustidan bo'lgan hukmronlikdan mahrum bo'ldi.*

Angliya burjua inqilobining tarixiy ahamiyati. Inqilob mutlaq monarxiyani yo'q qildi. Angliyada bozor munosabatlariga asoslangan yangi jamiyat – **kapitalizm**ning to'la qaror topishi uchun sharoit yaratdi. Natijada sanoat ishlab chiqarishining gurkirab rivojlanishiga to'siq bo'lib turgan hunarmandlarning sex birlashmalari yo'q qilindi. Sanoat inqilobi uchun qulay sharoit yuzaga keldi. Aholi tarkibida yangi qatlam – **sanoat burjuaziyasi** va **yollanma ishchilar** sinfining shakllanishiga yo'l ochdi. Inqilob qishloq xo'jaligida ham bozor munosabatlarining tez rivojlanishini ta'minladi. Inqilob natijasida parlamentning yetakchi o'rin egallashi lozimligi, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligi g'oyasi Yevropaning boshqa mamlakatlari aholisining ilg'or qismini ham to'lqinlantira boshladi.

11.3. ANGLIYANING DUNYODA BIRINCHI SANOAT MAMLAKATIGA AYLANISHI

Davlat tuzumi. **XVIII asr**da Angliya **cheklangan monarxiya** davlati edi. Davlat boshlig'i qirol bo'lib, hukumatni parlament saylovida g'olib chiqqan **ikki siyosiy partiya**dan biri tuzgan. Yangi saylangan parlamentning vakolat muddati **3 yil** edi. Parlamentning Jamoalar palatasida **torilar** va **vigilar** partiyalari faoliyat ko'rsatgan. *Torilar qirolning huquq va manfaatlarini himoya qilar hamda mavjud tartiblar buzilmasligi uchun kurashardi. Vigilar esa parlament huquqlarini himoya qilardi. Mamlakatda muhim iqtisodiy va siyosiy islohotlar o'tkazilishi tarafdori edi.*

1707-yili parlament **Angliya va Shotlandiya** o'rtasidagi uniyani qonunlashtirdi. Endi mamlakat **Buyuk Britaniya** deb ataladigan bo'ldi. **1716-yili** parlament vakolati **6 yillik** qilib belgilandi. Shu tariqa **professional parlament**ga asos solindi.

Tashqi siyosat. Bu davrda Buyuk Britaniya tashqi siyosatini ikki bosh yo'nalish belgilab bergan. *Birinchisi – Yevropa qit'asida hech qaysi davlatning kuchayib ketishiga yo'l qo'ymaslik, ikkinchisi – yangi-yangi mustamlakalar egallash.* **XVIII asr**da Buyuk Britaniyaning asosiy raqibi **Fransiya** bo'ldi. Ikki davlat o'rtasida ispan taxti tufayli kelib chiqqan urush **(1701 – 1714)** Buyuk Britaniya uchun foydali sulh tuzilishi bilan yakunlandi. Unga ko'ra, **Gibraltar** Buyuk Britaniyaga o'tdi. Butun **XVIII asr** Buyuk Britaniya va Fransiyaning qizg'in kurashi ostida kechdi. Bu kurash hatto **«Ikkinchi yuz yillik urush»** deb ham ataldi. **1763-yili** Fransiya **Kanada**dan ham siqib chiqarildi. **Hindiston**ni egallash borasida katta muvaffaqiyatlarga erishildi. **XVIII asr 60-yillari** davomida **Shimoliy Amerika**da **13 ta shtat, Kanada, Karib dengizi orollari, Hindistonning bir qismi** Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylandi. Shu tariqa **Britaniya mustamlakachilik imperiyasi**ga asos solindi.

Qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar. Buyuk Britaniya qishloq xo'jaligida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, barcha yerlar yirik mulkdorlar qo'lida to'plandi. Qishloq xo'jaligida faqat yollanma mehnat qo'llaniladigan bo'ldi. Feodallar va dehqonlar sinf sifatida butunlay barham topdi. Bu haqiqiy **agrar inqilob** edi. Yer egalari (**lendlordlar**) yerlarini yirik tadbirkor (**fermer**)larga ijaraga berardi. Butun xo'jalikni ular yuritishardi. Yerga ishlov berish uchun yollanma ishchilar yollashardi.

Sanoat to'ntarishi uchun shart-sharoitning yetilishi. Sanoat to'ntarishi deganda qo'l mehnatiga asoslangan manufaktura ishlab chiqarishdan mashinalar keng qo'llaniladigan fabrika ishlab chiqarishiga o'tish tushuniladi. **XVIII asr**da Buyuk Britaniyada shunday to'ntarish yuz berishi uchun barcha shart-sharoitlar mavjud edi: *a) agrar islohot ortiqcha ishchi kuchini vujudga keltirdi. O'z navbatida, ortiqcha ishchi kuchi sanoatda yollanib ishlashga tayyor edi; b) tovar sotish bozori shakllandi. Qolaversa, mamlakat aholisining nufuzi va shaharlar soni tobora o'sib bordi; c) mamlakatda yer oldi-sotdisi, mustamlakalardan kelayotgan boylik hisobiga katta sarmoyaga ega bo'lib olgan burjuaziyaga fabrikalar qurish va ularda texnikani qo'llash imkonini berdi.* Shu tariqa mashina ixtiro qilish hayotiy zaruratga aylandi. **1761-yili «Sanoat va sanoatni rivojlantirish jamiyati»**ning **yigiruv mashinasi**ni kashf etgan kishiga katta mukofot va'da qilgani bejiz emasdi.

Sanoat to'ntarishining yuz berishi. Sanoat to'ntarishi dastlab

to'qimachilik sohasida yuz berdi. Bunga sex ishlab chiqarishining barham topgani va sifatli matolarga talabning tobora ortib borishi sabab bo'ldi. Mazkur talabni faqat mashinalar yordamidagina qondirish mumkin edi. **1733-yili** mexanik va to'quvchi **Jon Keyning to'quv dastgohi** ixtiro qilishi bu talabning birinchi aks sadosi bo'ldi. Ungacha to'quvchi g'altak iplari orasidan o'rmakni o'zi o'tkazib turishga majbur bo'lgan esa, endi bu ish oyoq qurilmasini bosib turish orqali bajariladigan bo'ldi. Ixtiro mehnat unumdorligini **ikki** marta oshirishga imkon berdi. Jamiyatda endi yigirilgan ip tanqisligi ham yuzaga keldi. Bu muammoni **1765-yili Jeyms Xargrivs** hal etdi. U bir yo'la **15 – 18 yigirgich** ishlaydigan **mexanik urchuq** ixtiro qildi. Bu ixtironi qizining nomi bilan **«Jenni»** deb atadi. **1767-yili** charxpalak bilan harakatga keltiriladigan **yigiruv mashinasi** yaratildi. Yigiruvdagi yutuqlar **mexanik to'quv dastgohi** yaratilishiga turtki bo'ldi. **Edmund Kartrayt** tez orada bunday dastgohni yaratishga erishdi. Bu dastgoh mehnat unumdorligining **40 marta** oshishiga imkon berdi. Shu tariqa mashinali ishlab chiqarishning butun bir tizimi – **fabrikalar** paydo bo'ldi. **1775-yili Jeyms Uatt** tomonidan **bug' mashinasi**ning yaratilishi fabrika ishlab chiqarishining yanada rivojlanishiga olib keldi.

1784-yili T.Modslining **tokarlik dastgohi**ni ixtiro qilishi nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Tez orada cho'yan olish va uni quyishning yangi usullari yaratildi. Bu ixtiro **Abraxam Darbi**ning **toshko'mirdan koks olishni** ixtiro qilishi bilan bevosita bog'liq edi. Uning o'g'li **Abraxam Darbi II** shaxtalardan suvni chiqarishda ishlatiladigan **bug' mashinasi**ni yaratdi. Uning yordamida domna pechining parraklarini harakatga keltiruvchi suv charxi zavod hovuziga suv chiqardi. Bu ixtiro hatto ariqlar qurib qolganda ham pechga doimiy havo berilishini ta'minladi. Darbilar oilasi vakillari **1779-yili** dunyoda birinchi **cho'yan ko'prik** ixtiro qildilar. Ko'prikning qismlari bir-biriga birinchi marta boltlar bilan ulandi. Bunday ko'priklar daryolar ustiga qurila boshlandi.

1774-yili Jon Uilkinson cho'yan bo'lagi markazidan o'q chiqadigan teshik ochishga imkon beruvchi **tokarlik dastgohi** ixtiro qildi. Bu zamonaviy to'p yasash imkonini berdi. **1788-yili** dastlabki cho'yan quvurlar yasashga erishildi.

11.4. AMERIKA QO'SHMA SHTATLARINING TASHKIL TOPISHI

Shimoliy Amerikadagi ingliz mustamlakalari. **XVIII asr o'rtalari**dan Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan Shimoliy Amerikada yagona ichki bozor shakllana boshladi, savdo aloqalari rivojlandi. Buyuk Britaniya

qirollik hukumati mustamlakalardan olinadigan daromadni tobora ko'paytirishga urindi. Bu esa metropoliya va mustamlaka shtatlar o'rtasidagi nizoni tobora kuchaytira boshladi. **1763-yili** qirol mustamlakalardagi yevropaliklarning Amerika g'arbiga siljishini taqiqlovchi qaror chiqardi. Bu qaror mahalliy hindular bilan urush kelib chiqishining oldini olishi kerak edi.

Metropoliyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashish maqsadida **1765-yili** amerikalik inglizlar **«Ozodlik farzandlari»** deb ataluvchi tashkilot tuzdilar. *Mazkur tashkilot metropoliyadan olib kelinayotgan ingliz tovarlarini boykot qilish harakatini boshqarib turdi.* Bunga javoban metropoliya hukumati mustamlakalar savdo portlarini yopib tashladi. Oqibatda mustamlaka shtatlar iqtisodiy ahvoli yomonlashdi.

Mustaqillik uchun urushning boshlanishi. **1774-yili** 13 shtat vakillari **Filadelfiya shahrida I Kontinental Kongress**ga yig'ilishdi. Kongress metropoliyaning majburlovchi qonunlariga itoat etish majburiymasligi haqida qaror qabul qildi. Qirol hukumati mustamlaka shtatlar hukumatlari bilan kelishuv yo'lini izlash o'rniga mustamlakalarni taslim etish siyosatini yuritdi va **1775-yil aprel**da qirol qo'shinlari ularga qarshi urush harakatlari boshladi. Shunday sharoitda Filadelfiya shahrida **II Kontinental Kongress** chaqirildi. Kongress qatnashchilari urush boshlashga ovoz berdilar va virginiyalik polkovnik **Jorj Vashington (1732 – 1799)** ni **Amerika Qurolli Kuchlari Bosh qo'mondoni** etib tayinladilar. Shu tariqa mustaqillik uchun urush boshlandi.

Mustaqillik Deklaratsiyasi. **1776-yili** Kongress Buyuk Britaniyadan ajralishga va mustaqil davlat tuzishga chaqiruvchi qaror qabul qildi. Bu qarorni rasman e'lon qiluvchi bayonotnoma ham tayyorlandi. **1776-yil 4-iyul**da e'lon qilingan bu hujjat **«Mustaqillik Deklaratsiyasi»** deb ataldi. Deklaratsiya yangi davlat – **Amerika Qo'shma Shtatlari**ni dunyoga ma'lum qildi.

1776-yildan **4-iyul** Amerika Qo'shma Shtatlarining Mustaqillik kuni sifatida nishonlanib kelmoqda.

Bu inqilob, birinchidan, milliy mustaqillikni ta'minladi. Ikkinchidan, bozor munosabatlarining rivojlanishiga g'ov bo'layotgan barcha to'siqlarni yo'q qildi. Inqilobga burjuaziya va plantator-quldorlar boshchilik qildi. Xalq ommasi esa uning harakatlantiruvchi kuchi bo'ldi. *Amerika burjua inqilobining o'ziga xos xususiyati uning milliy ozodlik urushi shaklida o'tganligida edi.*

Mustaqillik urushi davrida AQSh chet el davlatlari madadiga ham

tayandi. **1776-yili Benjamin Franklin Fransiya**ga elchi sifatida jo'natildi. Fransiyaning asosiy maqsadi o'zining azaliy va xavfli dushmani – Buyuk Britaniyani zaiflashtirish edi. Shu tufayli Fransiya vaqtni boy bermay AQShga yordam ko'rsata boshladi. Hatto bu ikki davlat o'rtasida **«Do'stlik va tijorat bitimi»**, keyinroq esa **«Ittifoq shartnomasi»** ham imzolandi. Buyuk Britaniyaning zaiflashuvidan **Ispaniya** va **Rossiya** ham manfaatdor edi. Shuning uchun ular AQShga nisbatan do'stona yo'l tutishdi. Bu esa AQShga ham harbiy, ham moddiy, ham ma'naviy madad bo'ldi.

1782-yili Amerika va Fransiya qo'shinlari Buyuk Britaniya asosiy kuchlarini taslim etdi. Natijada Buyuk Britaniya qiroli hukumati muzokaralar boshlashga majbur bo'ldi. Shu tariqa urush tugadi. Tinchlik muzokaralari **Parij** shahrida o'tkazildi. Nihoyat, *1783-yili AQSh va Buyuk Britaniya o'rtasida tinchlik shartnomasi imzolandi. Shartnomaga ko'ra, Buyuk Britaniya AQSh davlatining tuzilganligini, uning mustaqilligini va suverenitetini tan oldi.*

1787-yili Filadelfiya shahrida mamlakat shtatlari vakillarining **Ta'sis Konventi** chaqirildi. Uning ishida barcha shtatlardan saylangan **55 nafar** vakil qatnashdi. Ular AQSh Konstitutsiyasini tayyorlash ishini nihoyasiga yetkazishlari lozim edi. *1787-yili AQSh Konstitutsiyasi qabul qilindi.*

Konstitutsiya AQShda respublika tuzumini o'rnatdi. Ijro etuvchi hokimiyatni **4 yil** muddatga saylanadigan **Prezident** boshqaradigan bo'ldi. Prezident keng vakolatlar (*armiya va flotning Oliy bosh qo'mondoni, xalqaro shartnomalar tuzish, barcha vazirlarni lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod qilish va h.k.*)ga ega bo'ldi. **1789-yili Jorj Vashington** birinchi prezident etib saylandi. Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyatning **ikki palatali Kongress** tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Yuqori palata **Senat**, quyi palata esa **Vakillar palatasi** deb ataldi. Senatga har bir shtatdan **ikki kishi**, Vakillar palatasiga esa deputatlar shtatlar aholisining soniga mos ravishda saylanardi. **Oliy Sud**ga katta vakolatlar berildi. Chunonchi, unga AQSh qonunlarining va prezident farmonlarining Konstitutsiyaga mos kelishini nazorat qilib borish huquqi ham berilganligi buning tasdig'i bo'ldi. Mazkur inqilob tufayli yangi mustaqil davlat – **Amerika Qo'shma Shtatlari** tashkil topdi. Inqilob mamlakatda erkin raqobatga, iqtisodiy hayotda tashabbusga, faollikka va ishbilarmonlikka keng yo'l ochib berdi.

11.5. BUYUK FRANSUZ BURJUA INQILOBI VA MONARXIYANING TUGATILISHI

Inqilob sabablari. **XVIII asr oxiri**da ham Fransiyada hali sanoat inqilobi yuz bermagandi. Manufaktura ishchilariga faqat **yakshanba** kunigina korxona tashqarisiga chiqishga ruxsat berilardi, xolos. Ichki savdo bojxona chegara siquvi va har bir viloyatning o'zlari o'rnatgan yo'l solig'idan aziyat chekardi. Boz ustiga, burjuaziya qanchalik boy bo'lmasin, u siyosiy huquqqa ega emasdi. Davlatni boshqarish amalda mamlakat aholisining atigi **4 foiz**ini tashkil etuvchi **ruhoniylar va dvoryanlar** qo'lida edi.

Fransiya **XVIII asr oxirlari**da tashqi siyosatda ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Bu esa uning xalqaro obro'sini pasaytirib yubordi. Mazkur hodisa mamlakat sarmoyasining katta qismi ulkan qo'shin va flotni saqlab turishga sarflanayotgan bir davrda yuz berdi. Urush va soliqlardan qiynalib ketgan xalqning ahvoli tobora og'irlashib bordi. Yuqorida qayd etilgan omillar Fransiyada inqilob ro'y berishini muqarrar qilib qo'ydi.

Inqilobning boshlanishi. Vaziyat inqilob yuz berishining oldini olishni talab etardi. Shunday sharoitda **Lyudovik XVI 1789-yili** General shtatlarni chaqirdi. Barcha toifalarga General shtatlarga o'z talablarini yozma ravishda topshirish huquqi ham berildi. Qirol bo'shab qolgan mamlakat xazinasini to'ldirish uchun yangi soliqlar joriy etilishini va General shtatlar uni tasdiqlashi zarurligini ma'lum qildi. Biroq uchinchi toifa yuqori imtiyozli toifalarning mol-mulkini soliqqa tortishni talab qildi. Oqibatda parlamentda bo'linish yuz berdi. Parij aholisi uchinchi toifa talabini qo'llab-quvvatladi. **1789-yil 17-iyun**da uchinchi toifa deputatlari o'zlarini butun millat vakillari deb e'lon qildilar. Shuningdek, yangi parlament – **Milliy Kengash** tuzdilar.

9-iyulda Milliy Kengash o'zini **Ta'sis majlisi** deb e'lon qildi. Xalq qurollana boshladi. **14-iyul** kuni Fransiya mutlaq monarxiyasining tayanchi **Bastiliya** (davlat qamoqxonasi) egallandi. Qattiq qo'rqib ketgan Lyudovik XVI yon berishga majbur bo'ldi. U Ta'sis majlisining qonuniyligini tan oldi. Poytaxtda hokimiyat inqilobchilar vakillaridan tuzilgan **Parij Kommunasi** (Parij Kengashi) qo'liga o'tdi. Shu tariqa Fransiyada mutlaq monarxiya quladi. Hokimiyat tepasiga yirik burjuaziya, savdo-sanoat burjuaziyasi keldi. Bu burjuaziya Buyuk Britaniyadagidek cheklangan monarxiya tarafdori edi.

Feodal tartiblarning bekor qilinishi. Mutlaq monarxiyaning qulashi mamlakatda tinchlik o'rnatilishiga olib kelmadi. Aksincha, butun mamlakatni endi dehqonlar qo'zg'oloni qamrab oldi. Ular feodal majburiyat-

larini bajarishdan bosh tortdilar. Oziq-ovqat omborlarini egallab oldilar, feodallarning qo'rg'onlariga o't qo'yib yoqib yubordilar. Natijada Ta'sis Majlisi **«Imtiyozlarni tugatish haqida dekret»** chiqarishga majbur bo'ldi. Unnga ko'ra, feodal tartiblar bekor qilindi.

Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi. **1789-yili** Ta'sis majlisi yana bir muhim hujjat – **«Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi»**ni qabul qildi. U *«barcha odamlar ozod va teng huquqli bo'lib tug'iladilar»* degan so'zlar bilan boshlanardi. Deklaratsiya xalqni *«hokimiyatning manbayi»* deb e'lon qildi. Shuningdek, feodal va toifa imtiyozlarini bekor qildi. So'z, matbuot erkinligini e'lon qildi. Fuqarolarning qonun qabul qilishda ishtirok etishi erkinligini hamda xususiy mulkning daxlsiz va muqaddasligini belgilab qo'ydi. Ayni paytda, qirol huquqlari cheklandi.

Konstitutsiyaning qabul qilinishi. **1791-yili** Fransiya tarixida birinchi marta mamlakat **Konstitutsiyasi** qabul qilindi. *Konstitutsiya 25 yoshga to'lgan barcha erkak kishilarga saylash huquqini e'lon qildi.* Konstitutsiyaga ko'ra, parlament – Qonun chiqaruvchi majlis tuzildi. Shu davrdan parlamentda siyosiy partiyalar faoliyat ko'rsata boshladi. Ularning ichida eng yetakchilari **jirondachilar** va **yakobinchilar** partiyalari edi. Parlamentga o'tkazilgan saylovda jirondachilar partiyasi g'alaba qozondi va parlamentda ko'pchilik o'rinni egalladi. Partiya qirol bilan murosa yo'lini tanladi. Bu paytga kelib ichki og'ir vaziyatga tashqi xavf ham qo'shildi. Qo'shni monarxiya davlatlari Fransiyaga hujum uyushtirdilar. Bular **Avstriya, Ispaniya va Buyuk Britaniya** edi. **1792-yili** Qonun chiqaruvchi majlis *«Vatan xavf ostida»* chaqirig'i bilan xalqqa murojaat etdi. Jirondachilar mamlakatda mudofaa uyushtirolmadilar. Bu esa mamlakatda keskin norozilik keltirib chiqardi. **1792-yil 10-avgust** kuni esa **Parij**da qurolli qo'zg'olon boshlandi. Bunday sharoitda parlament qirolni hokimiyatdan mahrum etish va yangi parlament – **Milliy Konvent**ga saylov o'tkazish haqida qaror qabul qilishga majbur bo'ldi. **Lyudovik XVI** esa hibsga olindi. Shu tariqa **1792-yil 10-avgust**da Fransiyada monarxiya ag'darib tashlandi. Yakobinchilar qirolni darhol sud va qatl qilishni, respublika e'lon qilinishini, feodal qaramlikni butunlay tugatishni va chet ellik bosqinchilarga qarshi inqilobiy urush olib borishni talab etdilar. Yakobinchilarning ko'zga ko'ringan arboblari **M.Robespyer, J.P.Marat, J.Danton, Eber** va **Shomett edi. 21-sentyabr**da Fransiya respublika deb e'lon qilindi. Lyudovik XVI esa qatl etildi. Respublika feodal-toifaviy tengsizlikni bekor qildi. Mamlakat shiori erkinlik, tenglik, birodarlik bo'lib qoldi.

11.6. BUYUK FRANSUZ BURJUA INQILOBI YAKUNLARI. TARIXIY AHAMIYATI

Yakobinchilarning hokimiyat tepasiga kelishi. Lyudovik XVI qatl etilgach, Ispaniya, Angliya va Avstriya monarxlarining bosqinchilik hujumi kuchaydi. Jirondachilar mamlakat mudofaasini yetarli darajada tashkil etolmadilar. Boz ustiga, mamlakat janubiy yerlarining shahar burjuaziyasiga sotilayotganligidan norozi bo'lgan dehqonlar isyoni boshlandi. Isyonchilar qirolning qatl etilishini jinoyat deb hisoblardilar. Yakobinchilar mamlakatdagi bu og'ir vaziyat uchun jirondachilarni aybladi. Ular Parij aholisini qo'zg'olonga chaqirdi. Boshlangan qo'zg'olon **1793-yil 2-iyun** kuni jirondachilar hokimiyatining ag'darilishi bilan yakunlandi. Hokimiyat yakobinchilar qo'liga o'ldi. M.Robespyer boshchiligida yangi hukumat – **Jamoat qutqaruv qo'mitasi** tuzildi. Favqulodda sudlar yangi kuch bilan ishlay boshladi.

Yakobinchilarning ichki siyosati. **1793-yili** Fransiyada yangi konstitutsiya qabul qilindi. Feodal to'lovlar butunlay bekor qilindi. Dehqonlar endilikda o'z yerlarining ozod egalariga aylandilar. Feodallarning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar yoqib yuborildi. Chet ellarga qochib ketgan dvoryanlarning yerlari mayda bo'laklarga bo'linib sotildi. Cherkov davlatdan ajratildi. Birinchi iste'mol buyumlariga qat'iy narxlar o'rnatildi. Biroq savdogarlar hukumat belgilagan narxda tovarlarini sotmay qo'ydi. Endi ular yashirincha savdo qilishga o'tdilar. Oqibatda narx-navo ko'tarilib ketdi. Hukumat ish haqining eng yuqori darajasini ham belgilab qo'ydi. Biroq bu tadbir yaxshilikka olib kelmadi. Natijada ishchilarning ish tashlashi boshlandi. Hukumat esa uni shafqatsizlik bilan bostirdi. Chet el bosqinchilarining hujumi va birinchi iste'mol mahsulotlarining yetishmasligi sharoitida ahvolning g'oyatda og'irlashuvi yakobinchilarni diktatura o'rnatishga majbur etdi.

1793-yil sentyabrda Konvent **«Shubhali kishilar to'g'risida»** qonun qabul qildi. Bu qonun, yakobinchilar fikricha, *«shubhali»* deb hisoblangan barcha kishilarni to tinchlik o'rnatilgunicha qamoqqa olish va saqlashni ko'zda tutardi. Aslida, yakobinchilar o'z raqiblaridan terror yo'li bilan qutulmoqchi edi. Buning tasdig'i o'laroq Konventdagi barcha jirondachi-deputatlar qamoqqa olindi va qatl qilindi. Mamlakat ichkarisidagi isyonlar ham o'ta rahmsizlik bilan bostirildi. Yakobinchilarning shafqatsizligi chegarasiz, ayovsiz va ma'nosiz edi. Yakobinchilar, ayni paytda, qo'shinni mustahkamlash choralarini ko'rdilar. **1794-yili** bosqinchilar mamlakat hududidan surib chiqarildi. Bu ozodlik urushlarida yosh kapitan **Napoleon Bonapart** shuhrat qozondi.

Yakobinchilar partiyasi. Yakobinchilar ichida ichki siyosatda yagona

birlik yo'q edi. Ular turli guruhlarga bo'linib ketgandilar. *Yakobinchilarni birlashtirib turgan omil chet el bosqinchilariga qarshi kurash va mamlakat ichkarisidagi isyonlarni bostirish zarurati edi, xolos.* Bu ikki xavf bartaraf etilgach, guruhlar o'rtasida kurash boshlanib ketdi. **Eber** va **Shomet** rahbarligidagi yakobinchilar *«hech kim boy ham, hech kim o'ta kambag'al ham bo'lmaydigan, hamma barcha narsaga yetarlicha ega bo'lishini ta'minlaydigan»* jamiyat tarafdori edilar.

1794-yili M.Robespyer tarafdorlari ularni qamoqqa oldilar va o'lim jazosiga hukm etdilar. M.Robespyer tarafdorlari yakobinchilarning **Danton** boshchiligidagi **«shafqatlilar» guruhini** ham xavfli deb hisoblaganlar. Danton mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan guruhlarning o'zaro murosasi tarafdori edi. U barcha partiyadagi yaxshi niyatli kishilarning ittifoqini tuzish yo'li bilan o'zaro ziddiyatlarni bartaraf qilishni taklif etdi. Danton inqilobiy diktaturani to'xtatishni, konstitutsiyaviy tartibga qaytishni, terrordan voz kechishni talab qila boshladi. M.Robespyer guruhi Danton talablarini rad etdi. Danton hamda uning tarafdorlari qamoqqa olindilar va qatl etildilar. Mamlakatda o'rnatilgan terror siyosati dahshatlari hammaning tinka-madorini quritdi. Bu esa Robespyerning obro'sini tushirib yubordi. M.Robespyer siyosiy kurashda qonli usul bilan raqiblarini yo'qotish orqali o'z shaxsiy halokatini ham tayyorlab bordi. Xalq qonli boshqaruvga asoslangan respublikani yomon ko'rib qoldi. Endi M.Robespyerning barcha dushmanlari yagona ittifoqqa birlashdilar.

Yakobinchilar diktaturasining ag'darilishi. Konventda M.Robespyer va uning tarafdorlariga qarshi fitna tayyorlandi. **1794-yil 27-iyul**da Konvent unga qarshi ayblov e'lon qildi va M.Robespyerni qamoqqa oldi. Shuningdek, Konvent uni qonundan tashqari deb e'lon qildi. Bu sudsiz qatl etish degani edi. Hammasi bo'lib **yuzga yaqin kishi** qatl etildi.

Hokimiyat tepasiga inqilob yillarida boyib ketgan **yangi boylar** deb ataluvchi yirik burjuaziya keldi. Hokimiyat tepasiga kelgan kuchlar **termidorchilar** deb nom olganlar. Ular mulkni va erkinlikni, tadbirkorlikni himoya qiladigan respublika tarafdori edilar. **1795-yili** Konvent yangi konstitutsiya qabul qildi. U mamlakatda respublika tuzumini mustahkamladi. Inqilobning feodal tartiblarni tugatish haqidagi barcha qarorlarini tasdiqladi. Mamlakatda **ikki palatali parlament** tashkil etildi. Ijroiya hokimiyat besh kishidan iborat **Direktoriya**ga topshirildi. U **1795 – 1799-yillar** mobaynida mamlakatni boshqardi. Bu davrda monarxiya tarafdorlari isyon ko'tardilar. Ularning maqsadi monarxiyani qayta tiklash edi. Biroq general Napoleon Bonapart Konventning xaloskori bo'ldi. U isyonchilar kuchini tor-mor etdi.

1799-yil 9-noyabrdagi davlat to'ntarishi. Direktoriya Shimoliy Italiyani Avstriya qo'shinidan ozod qilish uchun **Napoleon Bonapart**ga umid bog'ladi. **26 yoshli** general bu vazifasini sharaf bilan uddaladi. U Avstriyani tinchlik shartnomasi tuzishga va Fransiyaning g'alabasini tan olishga majbur qildi. Shu tariqa Napoleon Italiyadan Parijga shon-shuhratga ko'milgan holda qaytib keldi. Endi hukmron tabaqalar Fransiyada Napoleondek qattiqqo'l siyosatchining hokimiyatini o'rnatishga fursat yetdi degan xulosaga keldilar va davlat to'ntarishi tayyorladilar. Napoleon Bonapart bunga rozi bo'ldi.

1799-yil 9-noyabrda davlat to'ntarishi amalga oshirildi. Parlament **Konsullik** deb ataluvchi hukumat tuzishga majbur etildi. Uning tarkibi **3 kishi**dan iborat bo'ldi va ularning har biri **«Fransiya Respublikasining konsuli»** unvoniga ega bo'ldi. Uch konsuldan biri Napoleon Bonapart edi. Aslida, butun hokimyat uning qo'lida to'plandi.

Gap fransuz burjua inqilobi haqida ketganida unga nisbatan **«Buyuk»** so'zi qo'shib ishlatiladi. Chunki bu *inqilob o'rta asr feodal tartiblarini to'la bekor qilgandi. Insonning insonga shaxsan qaramligini tugatdi. Monarxiyaning hech qanday ko'rinishi bilan murosa qilmadi.*

11.7. XVI – XVIII ASRLARDA GERMANIYA IMPERIYASI

Iqtisodiy ahvol. Germaniya iqtisodiy taraqqiyotda Angliya, Gollandiya va Fransiya kabi davlatlardan orqada qoldi. Hatto **XVI asr 2-yarmi**dan iqtisodiy tushkunlik ham boshlandi. Bu, avvalo, Germaniyaning **300 dan ortiq** mayda-mayda knyazlik (davlat)larga bo'linib ketganligi oqibati edi. Siyosiy tarqoqlik yagona ichki bozorning vujudga kelishiga imkon bermadi.

Bundan tashqari, mazkur davrda dengiz savdo yo'llarining Atlantika okeaniga ko'chgani oqibatida Germaniya orqali o'tadigan dengiz savdo yo'llari o'z ahamiyatini yo'qotdi. Vaholanki, **XVI asr o'rtalari**gacha Shimoliy Italiya va uning vositachiligida butun Sharqning G'arbiy Yevropa bozorlari bilan aloqalari Germaniya yerlaridan o'tgan.

Germaniyanng xalqaro miqyosdagi iqtisodiy roli uning mis ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallab kelgani bilan belgilanardi. Mis savdoda asosiy vosita hisoblanardi. Biroq Amerikadan Yevropaga oltin va kumushning katta miqdorda keltirilishi Germaniya misinng ahamiyatiga jiddiy putur yetkazdi. Shuningdek, nemis sanoat mahsulotlari chet davlatlar sanoat mahsulotlari bilan raqobat qilolmadi. Chunki Germaniyada manufaktura ishlab chiqarishi faqat shahar bilan

cheklanib qolgandi. Natural xo'jalik munosabatlari hukm surgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sanoat mahsulotlariga nisbatan talabni qondirolmadi.

1524 – 1526-yillari bo'lib o'tgan **Buyuk dehqonlar urushi** va bu urushda dehqonlarning yengilishi o'rta asr feodal munosabatlarining uzoq vaqt saqlanib qolishiga olib keldi. Qo'zg'olonning mag'lubiyatga uchrashi siyosiy tarqoqlikning davom etishiga ham sabab bo'ldi. Germaniyaning **O'ttiz yillik urush (1618 – 1648)**da mag'lubiyatga uchrashi ham uning qoloqlik botqog'iga botib qolaverishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

O'ttiz yillik urush Yevropaning ikki ittifoqqa bo'lingan davlatlari (**1-ittifoq: Avstriya, Ispaniya va Germaniyaning katolik knyazliklari; 2-ittifoq: Germaniyaning protestant knyazliklari, Fransiya, Daniya va Shvetsiya**) o'rtasida bo'lib o'tdi. Bu urush **1648-yili Vestfaliya** tinchlik shartnomasining imzolanishi bilan tugadi. Urushda ikkinchi ittifoq g'alaba qozondi. Mazkur g'alaba tufayli Yevropada siyosiy gegemonlik **Fransiya**ga o'tdi. **Shvetsiya** esa Yevropaning buyuk davlatlaridan biriga aylandi. Boltiqbo'yida hukmronlik o'rnatish borasida katta imkoniyatni qo'lga kiritdi. Gollandiya respubikasining davlat mustaqilligi tan olindi.

Siyosiy tuzum. Germaniya rasman yagona imperiya hisoblanar, uni nomiga bo'lsa-da imperator boshqarardi. Aslida, uning birligi faqat qog'ozda edi. **1806-yil**gacha **«Germaniya millatining Muqaddas Rim imperiyasi»** deb ataladigan bu davlat, aslida, muqaddas emasdi. Hatto imperiyada yagona fuqarolik ham yo'q edi. Nemislar imperiyaning emas, balki knyazliklarning fuqarolari edilar. Germaniya imperatori amalda hokimiyatsiz imperator ham bo'lgan. **Gabsburglar sulolasi**dan bo'lgan imperator o'zining Avstriyadagi yerlaridan tashqarida hech qanday real hokimiyatga ega emasdi. Imperiya Reyxstagi esa amalda barcha knyazliklarga majburiy bo'lgan yakuniy qarorlar qabul qilolmagan. Qabul qilgan taqdirda ham, amalda bajarilmagan. Imperator saroyi **Vena** (hozirgi Avstriya davlati poytaxti), Reyxstag (parlament) binosi **Regensburg**, imperiya sudi binosi esa **Vetslar** shaharlarida joylashgan. Bunday sharoitda har bir knyazlik nafaqat ichki ishlarda, balki tashqi siyosatda ham mustaqillikka intilardi.

Germaniyaning xalqaro ahvoli. Ichki siyosiy tarqoqlik **XVII asr 2-yarmi**da Germaniyani Yevropaning buyuk davlatlari qo'lida qo'g'irchoqqa aylantirib qo'ydi. Bu davrda **Shvetsiya, Fransiya va Turkiya** Germaniyaga dushmanlik kayfiyati bilan qarovchi davlatlar edi. Fransiya oxir-oqibatda Strasburg va Reyn daryosining chap qirg'oq yerlariga ega bo'lib oldi. Germaniya knyazliklari **1683-yili** Turkiya bosqiniga qarshi

kurashish uchun tarixda birinchi marta yakdil qaror qabul qildilar va milliy ozodlik qo'shinini tuzdilar. Shu yili **Vena** ostonalarida turklarning qo'shini tor-mor keltirildi. Germaniyaning bu g'alabasi Markaziy Yevropani turklar bosqinidan saqlab qoldi.

Prussiya qirolligining tashkil topishi. Germaniya knyazliklari ichida **Avstriya** va **Brandenburg** eng kuchlilari edi. **XVII – XVIII asrlar** shu ikki knyazlikning Germaniyada gegemonlik uchun kurashi ostida o'tdi. Avstriyani **gabsburglar sulolasi**, Brandenburgni esa **gogensollernlar sulolasi** boshqarardi. Birining poytaxti **Vena**, ikkinchisiniki esa **Berlin** edi. **XVII asr**da Brandenburg knyazligida **Prussiya gersogligi** yetakchi mavqega ega bo'lib oldi.

1701-yili Brandenburg knyazligi o'rnida **Prussiya qirolligi** tashkil topdi. Brandenburg knyazi Fridrix III **Fridrix I** nomi bilan Prussiya qiroli deb e'lon qilindi. Shu davrdan qulay xalqaro sharoit va boshqa nemis knyazliklarining kuchsizligidan foydalangan Prussiya qudratli davlatga aylana bordi. Prussiya qudratli qo'shin ham tuzoldi. **XVIII asr oxir**ida Prussiya maydoni jihatidan Yevropada **uchinchi**, qo'shini soni jihatidan esa **to'rtinchi** o'rinni egalladi. **Fridrix II** hukmronligi davrida **(1740 – 1786)** Prussiya mutlaq monarxiyaga aylandi. Prussiya keyinchalik hatto Germaniyani yagona davlatga birlashtirishga erishdi.

11.8. ROSSIYA IMPERIYASINING TASHKIL TOPISHI

XVII asrda Rossiya iqtisodiyoti. Rossiyada **XVII asr**da shaharlarning rivojlanishi boshlangan. Shaharlar tobora mamlakatning savdo-sanoat markazlariga aylana bordi. Ular orasida **Novgorod, Yaroslav, Pskov, Qozon, Nijniy Novgorod** va boshqalar ajralib turardi. Eng katta shahar **Moskva** bo'lib, aholi hunarmandchilikning **250 turi** bilan shug'ullanardi. Hunarmandchilikning rivojlanishi mamlakatning rivojlanishi, o'z navbatida, turli viloyatlar o'rtasida xo'jalik aloqalarining kengayishiga olib keldi. Bu esa oxir-oqibatda hunarmandlarning bozorga qaramligini oshirdi. **XVII asr**da Rossiyada manufakturalar ham paydo bo'ldi. Ular birinchi o'rinda **qora metallurgiya** sohasida paydo bo'lgan manufakturalar edi. Manufaktura ishlab chiqarishi mehnat unumdorligining o'sishiga olib keldi. Savdogar, davlat, podsho xonadoni va ayrim yirik pomeshiklar ham manufaktura egalari edilar.

XVII asrda tashqi savdo ham rivojlana boshladi. **Astraxan** (Ashtarxon) va **Arxangelsk** shaharlari mamlakat tashqi savdosida muhim rol o'ynadi. Boltiq va Qora dengizga chiqish imkoni bo'lmagan Rossiya

dengiz savdo flotiga ega emasdi. Shuning uchun G'arbiy Yevropa davlatlari bilan savdo-sotiq ishlari Buyuk Britaniya va Gollandiya savdogarlari vositachiligida amalga oshirilardi. Shunga qaramay, davlat Rossiya savdogarlarining manfaatini chet el savdogarlaridan himoya qilishga qaratilgan qator choralarni ko'rdi. Chunonchi, **1667-yili «Yangi savdo nizomi»** joriy etildi. Unga ko'ra, chet el savdogarlarining rus bozorlarida chakana savdo qilishi taqiqlandi.

Shu tariqa Rossiya iqtisodiyotida ham asta-sekinlik bilan kapitalistik munosabatlar shakllana bordi. Ichki savdoning rivojlanishi oxir-oqibatda butun Rossiyada yagona ichki bozor tarkib topishiga olib keldi. Biroq Rossiya iqtisodiy taraqqiyotda G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan orqada edi. Bunga krepostnoylik tartiblarining tobora mustahkamlanishi asosiy sabab bo'lgan.

Sobor nizomi. Buning yorqin isboti **1649-yili** Zemstvo sobori qabul qilgan yangi nizom edi. Nizomga ko'ra, dvoryanlar o'zlari egalik qilayotgan yer-mulklarini **votchina**ga aylantirish va meros qoldirish huququga ega bo'ldilar. Dehqonlar dvoryanlarga uzil-kesil biriktirib qo'yildi. Ularning xo'jayindan xo'jayinga o'tishi taqiqlandi. Krepostnoylik nasldan naslga o'tadigan bo'ldi. Shu tariqa Rossiyada krepostnoy huquqning shakllanish jarayoni tugallandi.

Mutlaq monarxiyaning qaror topishi. Rossiyada mutlaq monarxiyaning to'la qaror topishi Aleksey Mixaylovichning o'g'li **Pyotr I** nomi bilan bog'liq. U **1689-yili** taxtga o'tirdi. *Pyotr I tashqi siyosatining asosiy maqsadlaridan biri Rossiyani kuchli harbiy-dengiz flotiga ega davlatga aylantirish edi.* U bu vazifani muvaffaqiyat bilan uddaladi. Pyotr I **Polsha va Daniya** bilan Shvetsiyaga qarshi kurash uchun ittifoq tuzishga erishdi. Shundan so'ng Pyotr I Boltiq dengiziga chiqish uchun **Shvetsiya**ga qarshi urush boshlashga qaror qildi.

1700-yili Rossiya – Shvetsiya urushi boshlandi. Bu urush tarixga **«Shimoliy urush»** nomi bilan kirdi. Urushgacha Rossiya kuchli harbiy-dengiz floti yaratishga erishgandi. Urush taqdirini **Poltava** (hozirgi Ukrainada) jangi hal etdi. **1709-yili** bo'lib o'tgan jangda rus qo'shini Shvetsiya qo'shinini tor-mor etdi. Bu mag'lubiyat Shvetsiya qudratiga o'nglanmas putur yetkazdi. U endi buyuk davlat maqomini yo'qotdi. Nihoyat, Shimoliy urush **1721-yili** Rossiyaning g'alabasi bilan tugadi. Shu yili Finlyandiyaning **Nishtadt** shahrida Rossiya – Shvetsiya tinchlik shartnomasi imzolandi. Rossiya Boltiq dengiziga chiqish yo'liga ega bo'ldi. Ayni paytda, u Yevropaning qudratli davlatlaridan biriga aylandi. **1721-yili** Pyotr I **imperator** deb e'lon qilindi. Rossiya imperiyaga aylandi va Rossiyada mutlaq monarxiya ham to'la qaror topdi.

Pyotr I islohotlari. Rossiya ma'muriy boshqaruv jihatidan **guberniya-lar**ga bo'lindi. Ular podsho tomonidan tayinlanadigan **general-gubernator** tomonidan boshqarilardi. Podsho huzuridagi **Boyarlar dumasi** tugatildi. Uning o'rniga **Senat** tuzildi. Senatga qonun chiqarish va hukumatni boshqarish vakolati yuklatildi. Pyotr I zamonaviy qo'shin ham tuzdi. Qo'shinda harbiy xizmat umrbod o'taladigan bo'ldi. Qo'shin **rekrutlik**ka olish yo'li bilan shakllantirildi va zamon ruhiga mos ravishda qurollantirildi.

Pyotr I vafotidan so'ng, XVIII asr oxirigacha **(1725 – 1800)** yana **8 nafar** romanovlar sulolasi vakillari imperatorlik qilishdi. O'tgan **75 yillik** davr islohotlarning mustahkamlanishi davri bo'ldi. Ayniqsa, **Yekaterina II (1762 – 1796)** hukmronligi davri Rossiya tarixida alohida iz qoldirdi. Biroq Rossiyada krepostnoy tuzum hukmron bo'lib qolaverdi. Dehqonlar og'ir hayot kechirardilar. Oxir-oqibatda ular bir necha marta qo'zg'olon ko'tarishga majbur bo'lganlar. Ularning ichida eng mashhuri **Y.Pugachyov** boshchiligidagi qo'zg'olon edi **(1773 – 1775).** Qo'zg'olon Yekaterina II tomonidan shafqatsizlik bilan bostirilgan. Y.Pugachyov esa qatl etilgan.

Rossiyaning tashqi siyosati. **XVII – XVIII asrlar**da ham Rossiya tashqi siyosatining asosini unga tutash bo'lgan yerlar hisobiga kengaytirish uchun kurash tashkil etgan. **1654-yili Ukraina** va **Sharqiy Belorussiya** Rossiyaga qo'shib olindi. **XVII asr** davomida Rossiya **G'arbiy Sibirdan Tinch okeani qirg'oqlariga, Kamchatka va Kuril orollariga** qarab siljishni davom ettirdi.

XVII asr oxiridan Rossiyani kuchli dengiz davlatiga aylantirish uchun kurash boshlandi. Bu vazifa ham bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Pyotr I tashqi siyosatining tig'ini O'rta Osiyoga ham qaratdi. O'rta Osiyo oltiniga ega bo'lish maqsadida **1714-yili** Xiva xonligiga harbiy ekspeditsiya yubordi.

1768-yili Rossiya – Turkiya urushi kelib chiqdi. **1774-yili** Rossiya Turkiyani o'ziga qulay **Kuchukqaynarji** shartnomasini imzolashga majbur etdi. Unga ko'ra, *Rossiya Qora dengiz bo'yida harbiy flot qurish huquqini qo'lga kiritdi. Uning savdo kemalari O'rta yer dengiziga olib chiquvchi Qora dengiz bo'g'ozlaridan hech qanday to'siqsiz o'ta olish huquqiga ega bo'ldi.* **1783-yili Qrim xonligi** qo'shini tor-mor etildi va u Rossiya tarkibiga qo'shib olindi.

12-BOB. XVI – XVIII ASRLARDA OSIYO MAMLAKATLARI

12.1. XVI – XVIII ASRLARDA HINDISTON

Boburiylar imperiyasining tashkil topishi. Bu davrda Shimoliy Hindistondagi Dehli sultonligida Hindistondagi afg'on qabilalaridan chiqqan **lo'diylar sulolasi** hukmronlik qilardi. Bobur mirzo **1526-yil 21-aprel**da **Panipat jangi**da **Ibrohim Lo'diy** qo'shinini tor-mor keltirdi. **27-aprel** kuni esa Dehli shahrida Bobur podshoh nomiga xutba o'qildi. Shu tariqa tarixda **332 yil** yashagan yangi imperiya – **Boburiylar imperiyasi**ga asos solindi. Bobur Hindistonda o'zi bilan qolgan qo'shinga **jogir** tarqatdi. Bu yerlarda xo'jalik yuritish ishlariga rahbarlik qilish mahalliy urf-odatlarni yaxshi biladigan hindlarga topshirildi. Bobur imperiya taxtida **besh yil** o'tirdi. **1530-yili** Boburning o'limidan so'ng imperiya taxti katta o'g'li **Humoyun**ga o'tdi.

Imperiyadagi siyosiy ahvol. Humoyun imperiya sarhadlarini yanada kengaytirishga intildi. Bu kurashda uning asosiy raqibi **Bixor** va **Bengaliya**da joylashib olgan afg'on qabilalari yetakchisi **Sherxon Sur** bo'ldi. Ikki sarkarda qo'shinlari o'rtasidagi jangda Sherxon Surning qo'li baland keldi. Mag'lubiyatga uchragan Humoyun Eronga qochib ketdi. Sherxon Sur Hindiston taxtini egalladi va shoh deb e'lon qilindi. Bu hodisa **1540-yili** yuz berdi. Surlar davri shiddatli va shafqatsiz ichki kurashlar bilan o'tdi. Oqibatda Hindistonda og'ir siyosiy vaziyat vujudga keldi. Bundan Humoyun ustalik bilan foydalandi. Taxtdan ayrilgan yillarda u turk, fors, turkman va o'zbeklardan iborat kuchli qo'shin tuzolgandi. **1555-yili** Humoyun Hindiston taxtining da'vogarlarini tor-mor etib yana hokimiyatni qaytarib oldi. Unga taxtda uzoq o'tirish nasib qilmadi. Oradan ko'p vaqt o'tmay Humoyun tasodifiy falokat tufayli vafot etdi.

Imperiya Akbarshoh davrida. Humoyunning o'g'li Akbarshoh **1556-yili** otasi taxtini egalladi. **Akbarshoh** uzoqni ko'zlab siyosat yuritdi. Shu tufayli u Hindistonda o'z hukmronligini to'la va uzil-kesil o'rnatoldi. Shuning uchun uni Hindistondagi boburiy hukmdorlar ichida eng ulug'i – **«Buyuk Akbar»** deb atashgan. Akbarshoh qo'shini 1556-yili afg'on qabilalari qo'shinini tor-mor etdi. **1559-yil**ga kelib taxt uchun boburiylarga qarshi kurashning yetakchi kuchlari – afg'onlarning **sur sulolasi** butunlay yanchib tashlandi.

Akbarshoh kambag'al, beva-bechoralarga muntazam moddiy yordam ko'rsatgan. U boshqa din vakillariga nisbatan ham adolatli siyosat yuritgan. Hindlarning ziyoratgohlaridan olinadigan soliqni man etgan.

Imperiya hududida yagona savdo solig'i joriy etilgan. Ham xolisa, ham jogirdorlar yerlaridan teng miqdorda soliq undirilgan. Davlat idoralaridagi lavozimlar, dini va mazhabidan qat'i nazar, shaxsning salohiyatiga qarab taqsimlangan. Akbarshoh Hindistonda yuritgan adolatli siyosati evaziga **«Milliy podshoh», «Xalq hukmdori»** nomlariga ham sazovor bo'lgan. U **1605-yili** vafot etgan.

XVII asr 2-yarmidan imperiyada toj-u taxt uchun kurash avj oldi. Oxir-oqibatda bu kurashda **1627 – 1658-yillar**da hukmronlik qilgan **Shoh Jahon** (Akbarshohning nabirasi)ning o'g'li **Avrangzeb** g'alaba qozondi. U **1658-yili Dehli shahri**ni egalladi va o'zini shoh deb e'lon qildi. Avrangzeb **(1658 – 1707)** hukmronligi davrida imperiya hududi yanada kengaydi. Ayni paytda, imperiya inqirozi uchun zamin ham yetila bordi. Ikkinchidan, u o'zini faqat mamlakatni idora etish uchungina emas, balki islom dinini himoya qilish va uning ko'lamini yanada kengaytirish uchun ham taxtga chiqqan hukmdor deb hisoblardi. Shu tufayli musulmon bo'lmagan fuqarolarni islom diniga o'tkazish uchun hech narsadan qaytmadi.

1679-yildan hindlar qaytadan **«jizya»** solig'ini to'lashga majbur etildi. Hatto hindlarning muqaddas ziyoratgohlarga boruvchilaridan ham soliq olinadigan bo'ldi. Musulmon savdogarlari soliqdan ozod qilingani holda, hind savdogarlariga tovarning **besh foizi** miqdorida soliq joriy etildi. Soliq yig'uvchi idoralardagi mansabdor hindlar asta-sekinlik bilan lavozimlaridan bo'shatila boshlandi. Avrangzebning bu siyosati oxir-oqibatda Boburiylar imperiyasining chok-chokidan so'kilib ketishiga olib keldi.

Buyuk Britaniya va Hindiston. Avrangzebning vafotidan so'ng imperiyada ichki nizolar yanada kuchaydi. Shunday sharoitda Hindistonga yevropaliklarning kirib kelishi kuchaydi. **1757-yili** Buyuk Britaniya **Bengaliya**ni bosib oldi. Bu boy hudud Buyuk Britaniyaning keyingi bosqinchilik rejalarini amalga oshirishda tayanch vazifasini o'tadi. Shu tariqa Buyuk Britaniya Hindistonni asta-sekin o'z mustamlakasiga aylantirishga kirishdi.

12.2. XVI – XVIII ASRLARDA XITOY

Siyosiy hayot. **XVI asr**da ham Xitoyda **min sulolasi** hukmronlik qilardi. Ayni shu asrda mamlakatda siyosiy ahvol keskinlashdi. Avvalo, jamiyat hayotini o'rta asr ishlab chiqarish munosabatlari chuqur qamrab olgan. Bu jamiyat hayotida natural xo'jalikning ustunligida yaqqol namoyon bo'lmoqda edi. Qolaversa, asosiy ishlab chiqaruvchi kuch – dehqonlarni holdan toydiruvchi ijaraga yer olib ishlash tartibi hamon chuqur ildiz

otganligicha qolavergandi. Ijara haqi hosilning **50 foizi**ni tashkil etardi. Despotik davlat hokimiyati esa barcha eski tartiblarning bosh tayanchiga aylanib qolgan.

Ichki siyosiy kurash. Dehqonlar qo'zg'olonining keng quloch yoyishi Min imperiyasining siyosiy parchalanish jarayonini kuchaytirdi. Davlat idoralari amaldorlari o'rtasida o'zboshimchalik, korrupsiya hamda davlat mansablarini sotish avj oldi. Imperator xonadoni turli xil ko'ngilochar tadbirlar va zeb-u ziynat buyumlari uchun davlat xazinasini sovurdi. Bu omillar mamlakat aholisining turli qatlamlarida keskin norozilik uyg'otdi. Natijada min sulolasi va uning tayanchlariga qarshi muxolifat kuchaya bordi. *Muxolifatning asosiy kuchini o'rta va mayda yer egalari, shahar aholisining o'ziga to'q qismi, shuningdek, mamlakat ziyolilari tashkil etdi.* Muxolifat imperatordan davlat mansablariga amaldorlarning qobiliyatiga qarab tanlanishini, eskirib qolgan qonunlarni o'zgartirishni talab qildi. Biroq saroy a'yonlari muxolifat talablariga quloq ham solmadi, aksincha, ularni ta'qib etishga kirishdi. Muxolifat kurashni to'xtatmadi. Boz ustiga, dehqonlar qo'zg'oloni ham tobora keskin tus ola boshladi.

Manjurlar hukmronligi. **XVI asr oxiri – XVII asr boshlari**da Xitoy uchun o'ta xavfli tashqi raqib ham paydo bo'ldi. Bu imperiyaga chegaradosh hududlarda tashkil etilgan **Manjuriya davlati** edi. Hukmdor **Abaxay (1626 – 1643)** davrida Xitoy hududlarini bosib olishda katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Kuchsizlanib, holdan toygan min sulolasi manjurlarga jiddiy qarshilik ko'rsatolmadi. Manjurlar imperiyaning katta qismini bosib oldilar. **1636-yili** Abaxay o'zini imperator deb e'lon qildi. O'z sulolasini **sin** (toza, tiniq) nomi bilan atadi.

Min sulolasining halokati. Sulolaning tashqi bosqinchi kuchlar oldidagi taslimchilik siyosati mamlakatda keskin norozilikni keltirib chiqardi. Mamlakatni dehqonlar qo'zg'oloni qamrab oldi. Dehqonlar qo'shinlarining yetakchilari barcha harbiy kuchlarni birlashtirdilar. Ularga **Li Szi-chen** qo'mondonlik qildi. **1643-yili** qo'zg'olonchilar harbiy kengashi **Peking**a hujum boshlash haqida qaror qabul qildi. Li Szi-chen imperator deb e'lon qilindi.

Xitoyning janubi-g'arbiy qismida esa dehqonlar qo'zg'olonining yana bir qo'mondoni **Chjan Syan-chjun** ham o'z davlatini tuzganini e'lon qildi.

1644-yili qo'zg'olonchilar **Pekin**ni ishg'ol qildilar. Buning natijasida min sulolasi taxtdan ag'darildi. Bu davrda mamlakat shimolida hukumat qo'shinlari general **U San-guy** qo'mondonligida manjurlarga qarshi kurash olib borayotgandi. U San-guy Pekindagi yangi hukumatga katta tashvish keltirishi mumkin edi. Shuning uchun Li Szi-chen u bilan til

topishishga qaror qildi. Biroq U San-guy dehqonlar hokimiyatini tan olmadi. U dehqonlar hukumatini o'z ixtiyoridagi qo'shin bilan ag'darishni ham bilardi. **1644-yili** manjurlar Pekinni ishg'ol qildilar. **Abaxay**ning o'g'li Xitoy imperatori deb e'lon qilindi. Shu tariqa Xitoy tarixida manjurlarning **sin sulolasi** hukmronligi boshlandi va u **1911-yil**gacha davom etdi. Shu tufayli u xoinlik yo'liga o'tdi. Dehqonlar qo'zg'olonlari shafqatsizlik bilan bostirildi. Li Szi-chen va Chjan Syan-chjun janglarda halok bo'ldi.

Tashqi siyosat. Sin sulolasi bosqinchilik siyosati yuritdi. Dastlab **1637-yili Koreya** vassal davlatga aylantirildi. **1757-yil**dan boshlab **Guanchjou** portidan boshqa barcha portlar Yevropa kemalari uchun yopib qo'yildi. **1758-yili** esa **Shimoliy va G'arbiy Mo'g'uliston**da tashkil topgan **Jung'oriya (Oyrat) xonligi** butunlay bosib olindi. Tez orada butun **Mo'g'uliston va Qashqar** ham egallandi. **1792-yili Nepal davlati**ga sin sulolasining vassali ekanligi majburan tan oldirildi.

12.3. XVI – XVIII ASRLARDA YAPONIYA

Siyosiy ahvol. **XVI asr boshlari**da Yaponiya o'zaro ichki urushlar oqibatida qator mayda-mayda davlatlarga bo'linib ketgan. **1507-yil**dan Yaponiya tarixida notinch davr boshlandi. Bu davr Yaponiya tarixiga **«Kurashuvchi viloyatlar davri»** nomi bilan kirgan. Ichki urushlar faqat **1573-yili** ikkinchi **asikaga sulolasi** hokimiyatining ag'darilishi bilan nihoyasiga yetdi. Shiddatli va shafqatsiz kurashlardan so'ng **Oda Nobunaga 1573-yili** Asikagani syogunlikdan mahrum etdi. **XVI asr oxirlari**ga kelib u mamlakat viloyatlarining deyarli yarmini birlashtirishga erishdi.

Oda Nobunaga mamlakatda qator islohotlar o'tkazdi. *Iqtisodiy taraqqiyotga to'sqinlik qilayotgan mahalliy soliq va bojxona to'lovlarini bekor qildi. Savdo yo'llari va ko'priklar ta'mirlandi. Shaharlarga bozorlar ochish huquqi berildi. Shaharlarning tashqi savdo faoliyati rag'batlantirildi. Ayni paytda, tilla va kumush tangalarni muomalaga kiritdi.* Oda Nobunaga o'tkazgan islohotlar Yaponiyaning siyosiy birlashuvi va iqtisodiy taraqqiyotiga yordam berdi.

Yevropaliklarning kirib kelishi. **XVI asr 40-yillari**dan Yaponiyaga birinchi bo'lib **Portugaliya** savdogarlari kirib keldilar. **1543-yili** portugaliyalik **Mendish Pintu Bungo** viloyati hukmdori bilan Yaponiyaga turli tovarlar qatori qurol-aslaha, porox olib kelish va ularni oltin hamda kumushga ayirboshlash to'g'risida shartnoma imzoladi. *Yevropaliklarning Yaponiyaga kirib kelishining eng ahamiyatli jihati o'qotar qurolning Yaponiyaga keltirilishi hamda shu yerda ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishi bo'ldi.*

Mendish Pintu yaponlarga o'qotar qurollar yasash san'atini o'rgatdi. Yaponiyaga yevropalik savdogarlar ortidan katolik cherkovi ruhoniylari ham kela boshladilar.

Ular orasida xristian dinini targ'ib etishga kirishdilar. Ulardan so'ng esa ispan katolik ruhoniylari ham bu mamlakatga kirib kela boshladilar. Syogun Oda Nobunaga Yaponiyada xristian dinining tarqalishiga homiylik qildi. Chunki bu davrda budda dini peshvolari Oda Nobunagaga dushman bo'lgan kuchlarni qo'llab-quvvatlamoqda edi. Ular Yaponiyani yagona davlatga birlashtirishga qarshi kuchlarning tayanchiga aylangandilar. Bundan tashqari, Oda tezlik bilan qo'shinini Yevropa qurol-aslahasi bilan to'la qurollantirish maqsadida ham shunday qilgandi.

Yaponiyani birlashtirish uchun kurashning davom etishi. **1582-yili** Oda Nobunaga fitna qurboni bo'ldi, Yaponiyani birlashtirish yo'lidagi ishni uning yaqin yordamchisi **Toyotomi Xidayosi** davom ettirdi. U Odaga qarshi til biriktirgan guruhni tor-mor etdi. Xidayosi **1587-yili** barcha xristian ruhoniylarining Yaponiyani tark etishi haqida qonun chiqardi. Mamlakatda faqat **Portugaliya** savdogarlari qolishiga ruxsat etildi. Buning sababi har ikki tomonning o'zaro manfaatdorlikka asoslangan savdo munosabatlari o'rnatgani edi. **1598-yili** Xidayosi vafot etdi. Uzoq kurashlardan so'ng syogunlik hokimiyatini **Tokugava layasu** egalladi.

Shu tariqa **1603-yili** Yaponiyada uchinchi syogun sulolasi – **Tokugava xonadoni** hukmronligi boshlandi. Bu sulola Yaponiyada **1867-yil**gacha hukmronlik qildi va Yaponiyani birlashtirish ishini tugalladi.

Mamlakatda tokugava sulolasining mutlaq hokimiyati o'rnatildi.

O'zini o'zi ajratib qo'yish. Tokugava Xidayosining xristianlikni ta'qib etish siyosatini davom ettirdi. **1614-yili** syogun xristian dinini taqiqlovchi qonun chiqardi. Qonun xristian dinini imperiya dushmani deb e'lon qildi. Budda dinini hurmat qilmaydigan barcha shaxslarning Yaponiyadan chiqib ketishi talab etildi. Shu tariqa Yevropa mustamlakachilari Yaponiyadan quvib yuborildi. Bu hol Yaponiyaning Yevropa bilan munosabatlariga ta'sir etmay qolmadi. Natijada Yaponiya tashqi dunyodan o'zini o'zi ajratib qo'ydi.

Yosimune islohotlari. **Yosimune** tokugava sulolasining eng mashhur davlat arbobi sifatida tanildi. U bu suloladan chiqqan **sakkizinchi** syogun bo'lib, **1716 – 1745-yillari** hukmronlik qildi. U qo'riq yerlarni o'zlashtirish hisobiga dehqonchilik qiluvchilarni rag'batlantirish siyosatini yuritdi. Sug'orish inshootlari tizimini takomillashtirdi. Yerni sotish, sotib olish yoki garovga qo'yishni taqiqlovchi qonun chiqardi. Mamlakat va jamiyat hayotini tartibga solishda u joriy etgan **«100 moddali Farmon»** deb ataluvchi qonunlar to'plami katta ahamiyatga ega bo'ldi.

12.4. XVI – XVIII ASRLARDA USMONLI TURKLAR IMPERIYASI

Imperiyaning yuksalishi. **XVI asr boshlari**da butun imperiya **viloyat**larga, viloyatlar esa **sanjoqlar** (tuman)ga bo'lingandi. Viloyatlarni **vali**, sanjoqlarni esa **sanjoqbey** boshqarardi. Imperiya bosib olgan hududlardagi yerlar ham davlat mulki deb e'lon qilingan. Sulton bu yerlarni o'z sipohlariga (otliq askar) harbiy majburiyat evaziga taqsimlab bergan. Ularning miqdori har xil bo'lgan. Sipohilar shu tariqa o'z xo'jaliklariga ega bo'lganlar. Sipohlar yerni dehqonlarga ijaraga berganlar.

Imperiyaning doimiy qo'shini – **yanicharlar** (yangi qo'shin), shuningdek, kuchli harbiy dengiz floti ham bo'lgan. Bu omillar Usmonli turklar imperiyasiga keng ko'lamda bosqinchilik urushlari olib borish imkonini berdi. Imperiya **XVI asr**da ham bosqinchilik urushlarini davom ettirdi. **Eron** imperiyaning Osiyodagi eng yirik raqibiga aylangandi.

Sulton Salim I 1514-yili Eron shohi **Ismoil Safaviy** qo'shinini tor-mor etdi. Bu g'alaba sultonga shohning ittifoqchisi Misr sultonligiga qarshi yurish boshlashga yo'l ochdi. Sulton Salim I dastlab **Suriya** va **Falastin**ni bosib oldi. **1517-yili** esa Misr poytaxti **Qohira** shahri egallandi. Imperiya hududining kengayishi yirik savdo yo'llarining ham Turkiya qo'liga o'tishiga olib keldi. Bu omillar imperiya markaziy hokimiyatining hamda harbiy qudratining yanada kuchayishini ta'minladi.

Ichki ahvol. Ekspluatatsiyaning tobora kuchayishidan tinka-madori qurigan dehqonlar shaharlarga, tog'larga qochib keta boshladilar. Sulton buning oldini olish maqsadida yer egalariga qochib ketgan dehqonlarni majburan qaytarib olib kelish huquqini beruvchi maxsus farmon chiqarishga majbur bo'ldi. Unga ko'ra, qochib borgan joyida **15**, shaharlarda esa **20 yildan kam** yashagan dehqonlar avvalgi joylariga majburan qaytariladigan bo'ldi. Bu, aslida, Yevropada hukm surgan krepostnoy huquqning Turkiyadagi o'ziga xos ko'rinishi edi.

Yer egalarining zulmidan tinka-madori qurigan dehqonlar **1519-yili** qo'zg'olon ko'tardilar. Unga **shayx Jalol** rahbarlik qildi. Sulton Salim I qo'zg'olonni katta kuch bilangina bostiroldi. Keyinchalik **Qalandar** boshchiligida ko'tarilgan qo'zg'olon ham katta qiyinchilik bilan bostirilgan. Dehqonlarning xonavayron bo'lishi va ko'plab qochib ketishi **XVI asr o'rtalari**dan boshlab qishloq xo'jaligining inqirozga yuz tutishiga sabab bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, ocharchilik ro'y berishiga olib keldi.

Sulton **1610-yili** maxsus farmon chiqarishga majbur bo'ldi. **«Adolat farmoni»** deb nomlangan bu farmon ocharchilik davrida tashlab ketilgan yerlarni dehqonlarga arzon haq evaziga qaytarishni ko'zda tutardi. Ayni

paytda, harbiy majburiyat uchun beriladigan yer-mulk tizimining yemirilishi ham kuchaydi. Buning asosiy sababi davlat xazinasi taqchilligini to'ldirish maqsadida bunday yerlarni mayda-mayda bo'laklarga bo'lib sotishga majbur bo'lingani edi. Shu tariqa Turkiya harbiy qudratining pasayish davri boshlandi. **1684-yili** Yevropa davlatlari Turkiyaga qarshi **«Muqaddas Liga»** tuzdilar. G'arbiy Yevropada markazlashgan davlatlar, kuchli markaziy hokimiyat qaror topgan bir sharoitda Turkiya kuchsizlana boshladi. **XVI asr oxiri – XVII asr boshlari**da Turkiya avvalgidek hujumkor qudratga ega bo'lmay qoldi.

Yevropa davlatlariga qaramlikning boshlanishi. **XVII asr o'rtalari**dan Turkiyadagi ichki ahvol yana keskinlasha boshladi. Davlat byudjetida muntazam ravishda taqchillik holati yuz berdi. Endi Turkiyaning kuchsizlanish jarayonini to'xtatishning oldini olish mumkin bo'lmay qoldi.

Og'ir ahvolda qolgan hukumat Yevropa madadiga tayanishni lozim ko'rdi. Yevropa davlatlari savdogarlariga juda katta yengillik va imtiyozlar berila boshlandi. Masalan, Fransiya savdogarlari uchun atigi **uch foiz** miqdorida bojxona to'lovi joriy etildi. Natijada Turkiya bozorlari Yevropa tovarlariga to'ldirib tashlandi. Bu esa mahalliy sanoatga o'nglanmas zarba bo'lib tushdi.

Turkiya tashqi siyosatda borgan sari **Angliya va Fransiya** bilan yaqinlasha boshladi. Sultonlar nazdida ular Turkiyaning Rossiyaga qarshi kurashida ittifoqchilari bo'lishlari kerak edi. Angliya va Fransiya hukumatlari ham mavjud vaziyatdan o'z manfaatlari yo'lida foydalanib qolish ishtiyoqi bilan yondilar. Ularning madadidan umidvor bo'lgan Turkiya **XVIII asr**da Rossiya bilan bir necha bor urushga kirdi, biroq bu urushlarda Turkiya yengildi. Mag'lubiyat Turkiyada hukm surayotgan o'rta asrlarga xos munosabatlarning butunlay chiriyotgani namoyishi bo'ldi.

12.5. XVI – XVIII ASRLARDA ERON

Safaviylar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi. **XV asr oxiri**da Eron markaziy hokimiyatga bo'ysunmaydigan bir qancha mustaqil hududlarga bo'linib ketgandi. Oqibatda o'zaro ichki urushlar tobora avj oldi. Bu esa mamlakat taraqqiyotiga katta salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Mamlakat zaiflashdi. Eronning bu zaiflashuvi Turkiya bosqini xavfini tobora kuchaytira bordi. Bu tarixiy vazifa sarkarda, Eronda katta siyosiy nufuzga ega bo'lgan **Adabiy** shahri hukmdori, diniy rahnomalardan biri **Ismoil Safaviy** tomonidan amalga oshirildi.

Ismoil I Safaviy 1500 – 1501-yillari olib borgan urushlari natijasida katta-katta hududlarni egalladi. **1502-yili** esa **Tabriz shahri**ni ishg'ol etgach o'zini **shahanshoh** deb e'lon qildi **(1502 – 1524).** Shu tariqa **Safaviylar davlati** vujudga keldi. Bu davlat tarkibiga Erondan tashqari **Ozarbayjon, Armanistonning bir qismi, Afg'oniston, Janubi-Sharqiy Iroq** va boshqa hududlar kirgan. **Tabriz** poytaxt etib belgilandi.

Ismoil I Safaviy markaziy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida yer egaligining **suyurg'ol** shaklini deyarli butunlay bekor qildi. Uning o'rniga **tiyul**ni joriy etdi. Biroq bu tadbir yirik yer-mulk egalarining markazga bo'ysunmaslikka intilishini to'xtatolmagan. Safaviy hukmdorlar tinimsiz bosqinchilik urushlari olib borganlar. Shohlik tarkibiga kiruvchi qaram o'lkalar xalqlarining ozodlik kurashini shafqatsizlik bilan bostirganlar.

Shoh Abbos I hukmronlik davri. **Abbos I (1587 – 1629)** davrida Safaviylar davlati o'z qudratining cho'qqisiga erishdi. U bunga Eronga qaram bo'lgan chekka o'lkalardagi eng yirik yer-mulk egalarining mustaqilligini tugatish hisobiga erishdi. Bu yer-mulk egalari bir vaqtlar safaviylarga katta yordam bergan, evaziga keyingi shohlar davrida ularning oliy hokimiyati ostida amalda mustaqil bo'lgan katta-katta hududlarga egalik qilib kelishardi. Ular amalda bu mustaqil hududlarning xonlari edi.

Abbos I mamlakat poytaxtini Tabriz shahridan **Isfahon**ga ko'chirdi. Mamlakat soliq tizimida tartib o'rnatildi va soliqlar miqdori kamaytirildi. Savdo-sotiq va hunarmandchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor berdi. Yangi-yangi karvonsaroylar va savdo yo'llari qurildi. Savdo karvonlari qaroqchilarga qarshi shafqatsiz kurashdi. **Rossiya, Turkiya, Angliya, Niderlandiya, Fransiya va Venetsiya** bilan keng ko'lamli savdo-sotiq yo'lga qo'yildi. Bu esa Eronning ichki va tashqi savdosi o'sishiga olib keldi. Yangi-yangi sug'orish inshootlari ham bunyod etildi.

Abbos I muntazam qo'shin barpo etdi. Angliya harbiy mutaxassislari yordamida qo'shinda o'q otuvchi qurol va to'p joriy etildi. Bu islohot tezda o'z samarasini ko'rsatdi. **1602-yili** boshlangan **Eron – Turkiya urushi**da Eron g'alaba qozondi. Oqibatda Eron **Kavkazorti**da mustahkamlanib oldi. Tez orada Angliya yordamida Portugaliyani Fors ko'rfazidagi **Ormuz** orolidan quvib chiqarishga erishdi. Bu orol Eron uchun Yevropaga **ipak eksport qilish**da zarur edi. Ko'rsatilgan bu yordam evaziga Angliyaning **«Ost-Indiya»** kompaniyasi Eron bilan savdo ishlarida katta imtiyozlarga ega bo'lib oldi.

Safaviylar davlatining barham topishi. **XVIII asr**dan Safaviylar davlatida iqtisodiy tushkunlik boshlandi. Buning asosiy sababi yer egaligining tiyul shakli miqdori ortib borgani oqibatida davlatga qarashli yer miqdorining kamayishi edi. Bu hol davlat xazinasiga tushadigan daromadning

kamayishiga olib kelgan. Buning oldini olish uchun keyingi hukmdorlar dehqonlar to'laydigan soliq miqdorini oshirganlar. Boz ustiga, jon solig'i (jizya) miqdori ham oshirilgan. Natijada dehqonlar uchun ijaraga olib tirikchilik qilishdan manfaat qolmagandi. Tirikchilik ilinjida boshqa joylarga ketishdan boshqa ilojlari yo'q edi. Biroq shoh **Sulton Husayn** bunga yo'l qo'ymaslik uchun **1710-yili** dehqonlarning yerni tashlab ketishlarini taqiqlovchi farmon chiqargan. Dehqon xo'jaligining xonavayron bo'lishi savdoning keskin kamayishiga olib keldi. Boz ustiga, yevropaliklarlarning Hindistonga boruvchi dengiz savdo yo'lidan tobora ko'proq foydalanishi Eronning tashqi va vositachilik savdosiga katta zarar keltirdi.

Afo'onlar istilosi. Aholi turli tabaqalari orasida safaviylardan norozilik kuchayib bordi. Yirik yer-mulk egalarining markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslik harakati va bosib olingan o'lka xalqlarining ozodlik uchun kurashi kuchaydi. Ulardan biri afg'onlarning **1709-yili** ko'targan qo'zg'oloni bo'ldi. **1722-yili** afg'onlar o'z yetakchilari **Mir Mahmud** boshchiligida Eronga hujum qildi. Eron shohi Sulton Husayn hokimiyatni Mir Mahmudga topshirishga majbur bo'ldi. Shu tariqa Eron tarixida afg'on istilosi davri boshlandi.

Nodirshohning hokimiyat tepasiga kelishi. Bu davrda safaviylar sulolasi hukmronligi nomiga bo'lsa-da hamon davom etardi. So'nggi hukmdor **Taxmasp II** amalda hech qanday hokimiyatga ega emasdi. Shunday sharoitda **afshor qabilasi**ning (turkman urug'idan bo'lgan) yetakchisi, shijoatkor, katta lashkarboshchilik qobiliyatiga ega **Nodir Quli** kurash maydoniga chiqdi. U **1730-yili** afg'on qo'shinini butunlay tor-mor etib, Eronni afg'on bosqinidan ozod etdi. **1736-yi**lga qadar Nodir Quli Safaviylar davlati tarkibiga kiruvchi barcha hududlarda o'z hokimiyatini o'rnatdi. Nihoyat, **1736-yili** barcha qabilalar aslzodalarining qurultoyida o'zini Eron shohi deb e'lon qilishga erishdi. Shu tariqa safaviylar sulolasi hukmronligi butunlay barham topdi. Nodirshoh katta bosqinchilik urushlarida ulkan imperiya tuzdi. Biroq uning hukmronligi uzoq davom etmadi. **1747-yili** o'zaro ichki nizolar natijasida Nodirshoh o'ldirildi.

Qojarlar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi. Nodirshohdan keyin imperiya bir necha qismlarga bo'linib ketdi. Eronda turli qabilalar o'rtasida toj-u taxt uchun kurash avj oldi. Bu kurashda asosiy rolni **zend** va **qojar** qabilalari o'ynadi. Ular o'rtasidagi toj-u taxt kurashi **1758-yili** zend qabilasi g'alabasi bilan tugadi. Bu qabila boshliqlari **1796-yi**lgacha hukmronlik qildilar.

Butun o'tgan davr turli qabilalar toj-u taxt uchun kurashi davri bo'ldi. Bu kurashda zendlarning asosiy raqibi qojarlar g'alaba qozondi. Qabila rahnamosi **Og'a Muhammadxon 1796-yili** o'zini Eron shohi deb e'lon

qildi. Shu tariqa Eronda yangi sulola – **qojarlar sulolasi** hukmronligi o'rnatildi. Mamlakat poytaxti **Tehron** shahriga ko'chirildi. Og'a Muhammad o'zini shahanshoh deb e'lon qildi. Yangi sulola Eronda **1925-yil**gacha hukmronlik qildi.

13-BOB. XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA YEVROPA DAVLATLARI

13.1. XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA BUYUK BRITANIYA

Sanoatning rivojlanishi. Mashinalashgan ishlab chiqarish oqibatida **1816-yili** Buyuk Britaniyada mashinalar **150 mln odam**ning qo'l mehnatiga teng ishni bajardi. Vaholanki, bu davrda Buyuk Britaniya aholisi **12 mln kish**ini tashkil etardi. Bu davrda Buyuk Britaniyada sanoat gurkirab rivojlandi. To'qimachilik, metallurgiya, mashinasozlik, kon sanoati yetakchi o'rinni egalladi. **1825-yil**i Buyuk Britaniyada dunyoda birinchi **temir yo'l** qurildi. Bu hodisa mamlakatning turli mintaqalarini bir-biri bilan tutashtirilish hamda yuk tashishni arzonlashtirish imkonini berdi. Ayni paytda, ichki bozor kengaydi. Zavod va fabrika egalari imkon qadar ko'proq mahsulot ishlab chiqara boshladilar.

Temir yo'l qurilishining boshlanishi, o'z navbatida, cho'yan, temir va po'latga bo'lgan ehtiyojni oshirib yubordi. Sanoatning yangi tarmog'i – **parovozsozlik** paydo bo'ldi. Bu esa qudratli savdo va harbiy dengiz floti yaratishga imkon berdi.

XIX asr insoniyat tarixiga bug' asri bo'lib kirgan. Mamlakat hayotidagi mazkur o'zgarishlar Buyuk Britaniyaning **«dengizlar hukmdori»** mavqeyini yanada mustahkamladi. Tuproq yo'llar o'rnini **asfalt yo'llar** egallay boshladi. Bu esa savdo ekipajlari qatnoviga sarflanadigan vaqtni **ikki marta** qisqartirishga imkon berdi. **XIX asr 40-yillari**ga kelib qishloq xo'jaligida mashinalar va kimyoviy o'g'itlar ishlatish boshlandi. Katta-katta sanoat korxonalarini qurish davom etdi. Temir yo'llar va yirik sanoat korxonalari qurilishi katta mablag' ham talab etgan. Bu esa tijorat banklarining qudratini yanada orttirgan. U endi xalqaro miqyos kasb eta boshlagan. *Mamlakatda sanoat ishlab chiqarishining konsentratsiyalashuvi ro'y berdi. Jahon tarixida birinchi marta mamlakat iqtisodiyotida yetakchilik qishloq xo'jaligidan sanoatga o'tdi.* Buyuk Britaniya **dunyoning birinchi industrial davlati** bo'lib qoldi.

Sanoat to'ntarishining tugallanishi. **XIX asr 60-yillari oxirlar**igacha

sanoatning gurkirab rivojlanishi va ilm-fan taraqqiyoti yangi bir hodisa – **sanoat to'ntarishi** tugallanishining ro'y berishiga olib keldi. Buyuk Britaniyada esa bu hodisa **XIX asr 50-yillari**da yuz berdi. Sanoatda bug' mashinasi asosiy kuch bo'lib qoldi. Toshko'mir yoqilg'ining eng muhim turiga aylandi.

Parlament islohoti. Buyuk Britaniya parlamenti **1825-yili** ish tashlashda qatnashishni taqiqlovchi qonun qabul qildi. Bu qonun ishchilar o'rtasida keskin norozilik keltirib chiqargan. Natijada parlament islohoti o'tkazish masalasi zaruratga aylandi. Bu jamiyatda yetilgan muammolarni tinch yo'l bilan hal qilish degani edi. Oxir-oqibatda **1832-yili** parlament islohoti o'tkazildi. Islohot parlamentga saylov tartibini o'zgartirdi. Unga ko'ra, yirik sanoat markazlariga parlamentdan **144 o'rin** ajratib berildi. Shu tariqa sanoat burjuaziyasi endi siyosiy jihatdan ham hukmronligini mustahkamladi. Quyi palataning mamlakat siyosiy hayotidagi o'rni oshirildi. U mamlakat byudjetini nazorat qilish huquqini saqlab qoldi. Buyuk Britaniya hukumatining faqat quyi palata oldida javobgarligi belgilandi. Quyi palata hukumatga ishonchsizlik bildirgan taqdirda, hukumat iste'fo berishga majbur bo'ladigan tartib o'rnatildi. 1832-yilgi islohotdan so'ng saylangan yangi parlament **1833-yili 13 yosh**gacha bo'lgan bolalar uchun **8 soatlik** ish vaqti belgiladi. **9 yosh**gacha bo'lgan bolalar mehnati taqiqlandi.

Parlament islohoti mamlakatda saylov huquqi uchun kurashni batamom to'xtatolmadi. **1836-yili London**da ishchilarning **«Umumiy saylov huquqi uchun kurash ishchi Assotsiatsiyasi»** tuzildi. U saylov huquqini kengaytirish masalasida parlamentga **uch marta xartiya** (chartiya) – yorliq topshirdi. Umumiy saylov huquqi uchun boshlangan bu harakat tarixga **chartistlar harakati** nomi bilan kirdi. Harakat yengilgan bo'lsa-da, keyingi parlament islohotlariga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi.

1867-yili ikkinchi parlament islohoti o'tkazildi. Unga ko'ra, shaharlarda o'z uyiga ega hamda alohida kvartirada turadigan barcha erkaklarga saylov huquqi berildi. Buning natijasida saylovchilar soni **1832-yil**gi **600 ming kishidan 2 mln ga** yetdi.

Tashqi siyosat. **XIX asr 50-yillari**da Buyuk Britaniya sanoatning rivojlanish darajasi, savdoning ko'lami va dengizdagi qudrati jihatidan dunyoda o'z ustunligining cho'qqisiga yetdi. **XVIII asr – XIX asr birinchi yarmi** mobaynida dengiz va okeanlar orqali o'tadigan jahon yo'llarida tayanch punktlarni: **Gibraltar** (O'rta yer dengizidan Atlantika okeaniga chiqish), **Adan** (Qizil dengizdan Hind okeaniga chiqish), **Keyptaun** (Ezgu umid burnida – Afrkaning janubiy qismi), **Singapur** (Hindiston bo'sag'asi),

Gonkong (Xitoy bo'sag'asi)ni bosib oldi. Ana shu harbiy bazalar va o'z harbiy flotining juda katta ustunliklariga tayanib Buyuk Britaniya **XIX asr o'rtalari**da eng yirik mustamlakachi davlatga aylandi. Angliya mustamlakalaridan eng yirigi bo'lgan Hindistonning bir o'zida **300 mln dan ko'proq**, ya'ni Buyuk Britaniyaning o'zidagiga nisbatan taxminan **10 baravar ko'p** aholi yashardi. Buyuk Britaniya tashqi siyosatda *«nifoq solib hukmronlik qil»* qoidasini ustalik bilan qo'lladi.

«Oq» koloniyalar. Buyuk Britaniya o'z mustamlakachilik siyosatida **«oq» koloniya**larga katta e'tibor berdi. Amerika, Afrika va Avstraliyaga Buyuk Britaniyadan va qisman Yevropadagi ingliz tojiga bo'ysunuvchi boshqa mamlakatlardan ko'chib borgan kishilar o'zlashtirgan hududlar shunday atalardi. **Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya** ana shunday mustamlakalar edi. **1861-yil**ga kelib Avstraliyadagi oq tanli aholi **1 mln 200 ming** kishiga yetdi. Ayni paytda, mustamlakalar o'zini o'zi boshqarish uchun kurash olib bordilar. Bu kurash, ayniqsa, **Kanada**da shiddatli tus oldi. Natijada Buyuk Britaniya **1867-yili** Kanadaga **dominion** maqomini berishga majbur bo'ldi.

13.2. FRANSIYADA BIRINCHI IMPERIYA

Siyosiy vaziyat. **1799-yil**gi davlat to'ntarishidan so'ng Fransiyaning birinchi konsuliga aylangan Napoleon Bonapart endi yakkahokimlikka intila boshladi. **1802-yili** u o'zining umrbod konsul deb e'lon qilinishiga erishdi. **1804-yili** esa Senatdan o'zining **«Fransuzlar imperatori Napoleon I»** deb e'lon qilinishini talab etdi va bunga erishdi. Shu tariqa Fransiya monarxiya dvoryanlarga emas, yirik burjuaziyaga, qo'shin va davlat amaldorlariga tayanuvchi **harbiy monarxiya** edi.

Istilochilik urushlari. N.Bonapart katta istilochilik urushlari olib bordi. Chunonchi, **1805-yili** Avstriya poytaxti **Vena** ishg'ol etildi. **1806-yili** Prussiya poytaxti **Berlin**ni egalladi. O'z g'alabalaridan ruhlangan Napoleon endi Buyuk Britaniyaga nisbatan **qit'a qamali** e'lon qilingani haqidagi dekretni imzoladi. Unga ko'ra, Napoleonga qaram barcha davlatlarning Buyuk Britaniya bilan savdo-sotiq qilishi taqiqlandi. Napoleonning maqsadi shu yo'l bilan Buyuk Britaniyani bo'g'ib tashlash edi. Qit'a qamali Fransiyani Yevropa va jahon hukmronligi uchun o'z tinkasini quritadigan urushga duchor etdi. Rossiya Fransiyaning Yevropadagi barcha g'alabalarini tan olishga va **1807-yili** Napoleon bilan tinchlik hamda ittifoq to'g'risida shartnoma imzolashga majbur bo'ldi. Bu shartnoma tarixga **«Tilzit shartnomasi»** nomi bilan kirdi. *Shartnomaga ko'ra, Rossiya Buyuk Britaniya bilan aloqani uzish va qit'a qamaliga qo'shilish majburiyatini oldi.*

Ming-minglab navqiron yigitlarning halok bo'lishi, soliqlarning ortishi, qit'a qamalidan ko'rilayotgan iqtisodiy zarar Napoleon siyosatidan norozilikni kuchaytirib bordi. Ayni paytda, bosib olingan mamlakatlarda bosqinchilarga qarshi milliy ozodlik kurashi kuchaydi. Napoleonga bunday norozilikni bostirish uchun katta bir g'olibona urush kerak edi. Shuning uchun u Rossiyaga qarshi urush qilishni va unda ga'laba qozonishni rejalashtirdi.

Rossiya – Fransiya o'rtasidagi 1812-yil urushi. **1812-yil 24-iyun**da Napoleon armiyasi Rossiyaga hujum boshladi. Bu urush Rossiya uchun milliy mustaqillik urushi edi. Ikki davlat qo'shini o'rtasidagi hal qiluvchi jang **1812-yil 7-sentyabr**da Moskva yaqinidagi **Borodino** qishlog'ida bo'lib o'tdi. Har ikki tomon ham ko'plab qurbonlar berdi. Rossiya – Fransiya urushida Fransiya mag'lubiyatga uchradi. Rus qo'shini matonati, qahraton sovuq va ochlik bosqinchi qo'shinning halokatini muqarrar qilib qo'ydi. Oqibatda Napoleonning «Buyuk qo'shini» bu talafotdan so'ng o'zini qayta tiklab ololmadi. Endi Napoleon imperiyasining halokati aniq bo'lib qoldi.

Imperiyaning qulashi. **Rossiya, Buyuk Britaniya, Prussiya, Avstriya** va boshqa davlatlardan iborat Yevropaning ittifoqchi davlatlari hamda Fransiya o'rtasidagi hal qiluvchi jang **1813-yil oktyabr**da **Leypsig** ostonasida bo'lib o'tdi va bu jang tarixga **«Xalqlar jangi»** nomi bilan kirdi. **Leypsig** jangida Napoleonning qo'shini tor-mor etildi. **1814-yili** ittifoqchi davlatlar armiyasi **Parij**ga kirib keldi. Napoleon taxtdan voz kechishga majbur bo'ldi. Ittifoqchilar uni **Elba orol**iga surgun qildilar. Shu tariqa imperiya quladi.

Burbonlar sulolasi hokimiyatining tiklanishi. Ittifoqchi davlatlar Fransiyada **burbonlar sulolasi** hokimiyatini tiklashga qaror qildilar. Inqilob yillari qatl etilgan qirol **Lyudovik XVI** ning ukasi **Lyudovik XVIII** Senatning qarori bilan taxtga o'tqazildi. Lekin endi bu monarxiya avvalgidek mutlaq monarxiya emasdi, uni tiklashning iloji yo'q edi. Chunki jamiyat hayotida kapitalistik munosabatlar chuqur ildiz otib ulgurgandi. Shuning uchun qirol konstitutsiya e'lon qilishga majbur bo'ldi. Ittifoqchilar Fransiya bilan sulh shartnomasini imzoladilar. *Unga ko'ra, Fransiya Napoleon davrida bosib olgan barcha hududlardan mahrum etildi.* Ayni paytda, ichki vaziyat ham murakkablashib bordi. Bunga eski feodal tartiblar tarafdorlarining mutlaq monarxiyani tiklashni, shuningdek, qo'llaridan ketgan mol-mulklarni qaytarib berishni talab qilishlari sabab bo'ldi.

Bu, o'z navbatida, burjuaziya va dehqonlarni tashvishga solib qo'ydi. Qolaversa, Napoleon davrida xizmat qilgan zobitlar va davlat xizmatchi-

sining ishdan bo'shatilishi qo'shinda va butun mamlakatda norozilik keltirib chiqardi. Vaziyatdan surgundagi Napoleon foydalanib qolishga qaror qildi. Eski gvardiya va o'zi tug'ilib o'sgan korsikaliklardan tuzilgan harbiy qism hamon uning tarafida edi. Napoleon **1815-yil mart oyi**da Elbadan Fransiyaning janubiga yetib keldi. Qirol Lyudovik XVIII ning Napoleonga qarshi yuborgan **30 ming kishilik** qo'shini ham Napoleon tomoniga o'tib ketdi. Napoleon **20-mart** kuni **Parij**ni egallab, yana imperatorlik taxtiga o'tirdi. Biroq u bu safar hokimiyatni atigi **100 kun** egallab turdi, xolos.

Napoleonga qarshi ittifoqchi davlatlar (Buyuk Britaniya, Prussiya va boshqalar) juda katta armiya qo'yoldi. Ikki o'rtada **1815-yil 18-iyun**da bo'lib o'tgan hal qiluvchi jang **Vaterloo qishlog'i** (hozirgi Belgiya) da bo'lib o'tdi. Jangda Napoleon qo'shini butunlay tor-mor etildi. Asir olingan Napoleon endi uzoq **Muqaddas Yelena oro**liga surgun qilindi va u shu yerda **1821-yil** vafot etdi. Fransiyada burbonlar hokimiyati yana tiklandi.

Vena Kongressi. G'olib davlatlar Kongress chaqirdilar. Bu Kongress **1814-yil**i Avstriya poytaxti **Vena**da bo'lib o'tdi. Kongressning asosiy maqsadi Yevropani g'oliblar manfaati yo'lida qayta taqsimlash edi. **1815-yil**i Yevropaning **8 davlati: Buyuk Britaniya, Avstriya, Prussiya, Rossiya, Ispaniya, Shvetsiya, Portugaliya va Fransiya** Kongressning yakunlovchi hujjatini imzoladilar. *Buyuk Britaniyaning asosiy maqsadi Fransiyaning zaiflashuviga erishish, o'zining dengizdagi va mustamlakalar bosib olishdagi ustunligini saqlab qolish edi.* U bunga erishdi. Ayni paytda, **Malta, Seylon orollari, Afrikaning janubidagi Kapa yeri**ga ega bo'lib oldi.

Rossiya **Polshaning katta qismi**ga ega bo'ldi. **300 dan ortiq** mayda davlatlarga bo'linib ketgan **Germaniya** o'rnida **39 ta** davlatdan iborat **Germaniya ittifoqi** tuzildi. Bu ittifoqda **Avstriya**ning yetakchi roli e'tirof etildi. **Reyn viloyati, Vestfaliya** Prussiyaga qo'shib berildi. **Polshaning g'arbiy yerlari** ham Prussiya mulki deb tan olindi.

Avstriya **Shimoliy Italiya**da mustahkamlanib oldi. **Belgiya** Gollandiyaga qo'shib berildi. **Shveytsariya**ning mustaqilligi tiklandi va u **abadiy betaraf davlat** maqomiga ega bo'ldi. Fransiya hududi o'zining avvalgi chegarasigacha qisqartirildi. Unga **700 mln frank oltin** hisobida kontributsiya to'lash majburiyati yuklandi. Fransiya bu kontributsiyani to'lagunga qadar, uning shimoliy qismi ittifoqchilar qo'shini tomonidan ishg'ol qilinadigan bo'ldi. Ayni paytda, Vena Kongressida **qora tanli qullar savdosini taqiqlovchi deklaratsiya** ham qabul qilindi.

Yevropada kelgusida ro'y berishi mumkin bo'lgan inqiloblarga qarshi birgalikda kurashish maqsadida uch davlat – **Rossiya, Avstriya va**

Prussiya monarxlari ittifoq tuzdilar. U tarixga **«Muqaddas Ittifoq»** nomi bilan kirdi.

13.3. FRANSIYADA IKKINCHI IMPERIYA

Iyul monarxiyasi. **1815-yili** hokimiyati qayta tiklangan burbonlar sulolasining vakili **Lyudovik XVIII** Napoleon tarafdorlaridan o'ch ola boshladi. Ko'plab harbiylar otib tashlandi. Butun hokimiyat eski o'rta asr feodal tuzumi tarafdorlari qo'lida to'plandi. Aholining atigi **bir foizga yaqini** saylov huquqiga ega bo'ldi. Burjuaziya, hunarmandlar, ishchi va dehqonlarga saylov huquqi berilmadi.

1824-yili Lyudovik XVIII vafot etdi. Taxtni ukasi **Karl X** egalladi. U o'z hokimiyatini yanada mustahkamlashga urinib **1830-yili** mamlakat parlamentini tarqatib yubordi. Parlamentda o'tkaziladigan yangi saylovda saylov huquqi yanada ko'proq cheklanishini ma'lum qildi. Bu esa **Parij**da inqilob boshlanishiga olib keldi. Uning harakatlantiruvchi kuchi **burjuaziya, ishchilar, hunarmandlar va studentlar** bo'ldi. Inqilobning maqsadi Fransiyada respublika tuzumini o'rnatish edi.

Fransiya qiroli Karl X inqilobdan qo'rqqanidan chet elga qochib ketdi. Hokimiyat yirik burjuaziya – bank, yirik sanoat korxonalari, birjalar, yollanma mehnatdan foydalanuvchi katta yer egalari qo'liga o'tdi. Ular hukumat tuzdilar. Ayni paytda, monarxiyani saqlab qolishga urindilar. Buning asosida monarxiya va respublika tarafdorlarining bir-biriga o'zaro yon berib, o'zaro murosada yashashlariga erishish maqsadi yotardi. Shu maqsadda taxtga burbonlarga qarindosh bo'lgan **Lui Filipp Orleanskiy** o'tqazildi. Shu yo'l bilan monarxiya saqlab qolindi. Mazkur hodisa iyul oyida ro'y bergani tufayli tarixga **«Iyul monarxiyasi»** nomi bilan kirdi. Lui Filipp yirik o'rmon xo'jaligi egasi va moliyachi edi. Uning davrida mamlakat yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Yangi konstitutsiyada so'z, matbuot, yig'inlar o'tkazish erkinliklari e'lon qilindi. Saylovchilar uchun yosh va mulk senzlari kamaytirildi. Konstitutsiya qirol hokimiyatini cheklади, parlamentning rolini oshirishni ko'zda tutuvchi moddalar kiritildi.

Iyul monarxiyasi inqirozi. Yangi qirol va konstitutsiya xalq ommasining ahvolini yengillashtirolmadi. Aksincha, davom etayotgan sanoat to'ntarishi aholining qashshoqlashishini yanada kuchaytirdi. Ishchilarning ish vaqti **12 – 16 soat** davom etardi. Ishchini korxona egasi istagan paytda ko'chaga haydashi mumkin edi. Ayniqsa, to'qimachilik sanoati ishchilarining ahvoli og'ir edi. Birgina **Lion shahr**ining o'zida **o'ttiz mingga yaqin** to'quvchi qashshoqlikda yashardi. Korxona egalari ish haqini

oshirish haqidagi talabini rad etishi **1831-yil**l qo'zg'olon ko'tarilishiga olib keldi. Qo'zg'olonchi to'quvchi ishchilar o'z bayroqlariga *«Ishlab yashaylik yoki jang qilib o'laylik»* deb yozib olgandilar. Qo'zg'olonchilar Lionni egalladilar. Biroq poytaxt Parijdan Lionga yuborilgan **20 ming kishilik** qo'shin qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostirdi. Hukumat to'qimachilar qo'zg'olonidan tegishli xulosa chiqarmadi. Aksincha, ta'qib etish siyosati bilan ishchilarni itoatda tutishga urindi.

Oqibatda **1834-yili** Lion to'quvchilari yana qo'zg'olon ko'tardilar. *Bu safar qo'zg'olonchilar faqat ish haqini oshirish to'g'risidagi talab bilan cheklanib qolmadilar. Ular endi respublika tuzumi o'rnatilishini ham talab qildilar.* Shaharda ishchilarning hukumat qo'shini bilan shiddatli janglari **olti kun** davom etdi. Oxir-oqibatda bu qo'zg'olon ham shafqatsizlik bilan bostirildi. Qirol siyosatidan o'rta va mayda burjuaziya ham norozi edi. Ular ham respublika tuzumi o'rnatilishini, saylov huquqini kengaytirishni talab qila boshladilar. Bosh vazir **Gizo** bu talabga: *«Mehnat va tejamkorlik orqali boying, ana shundagina sizlar saylovchi bo'lasizlar»*, – degan haqoratomuz javob qildi.

1848-yil inqilobi. **1845-** va **1847-yil**larda Fransiyada qurg'oqchilik ro'y berdi. Natijada oziq-ovqat mahsulotlarining, birinchi navbatda, nonning narxi oshib ketdi. Boz ustiga, **1847-yili** Yevropa davlatlari iqtisodiyotini inqiroz qamrab oldi. Bu esa ishlab chiqarishning keskin kamayishiga, pulning qadrsizlanishiga olib keldi. Korxonalarning yopilishi yoki ishchi o'rinlarining qisqartirilishi natijasida ishsizlik oshib bordi. Bularning barchasi inqilobning yuzaga kelishiga sharoit yaratdi. Shunday vaziyatda burjuaziya inqilobning oldini olish uchun hukumat oldiga islohotlar o'tkazish talabini qo'ydi. Uning asosini saylov huquqini kengaytirish to'g'risidagi masala tashkil etardi. Burjuaziya shu yo'l bilan lyul monarxiyasini yon berishga undamoqchi bo'ldi. Ishchilar esa respublika tuzumining eng qat'iyatli tarafdori bo'ldilar. Ayni paytda, ular bo'lajak respublikaning mamlakatdagi ishsizlikni tugatadigan, barcha fuqarolar uchun mehnat huquqini kafolatlovchi qonun qabul qiladigan, ish kunini qisqartiradigan va mehnat sharoitini yaxshilaydigan respublika bo'lishi talabini ham qo'ydilar. Bu talab yirik mulkdorlar tabaqasini cho'chitib yubordi.

Iqtisodiy inqiroz tobora chuqurlashib bordi. Oqibatda ommaviy ishsizlik vujudga keldi. Ishchilarning ish haqi **ikki barobardan ortiq**qa kamaydi. O'z navbatida, bu hodisalar inqilobiy vaziyatni vujudga keltirdi. Aholi qurollana boshladi. Nihoyat, **1848-yil 23-fevral**da Fransiya tarixida yana bir inqilob boshlandi. Qisqa vaqt ichida **Parij**dagi barcha muhim joylar, muassasalar qo'zg'olonchilar qo'liga o'tdi. Shunday sharoitda Lui Filipp

taxtdan voz kechishga va **Angliya**ga qochib ketishga majbur bo'ldi. Qo'zg'olonchilar qirol saroyini egallab, uning taxtini yoqib yubordilar.

1848-yil fevral inqilobi natijasida Iyul monarxiyasi quladi. **25-fevral** kuni Fransiya respublika deb e'lon qilindi. Fransiya parlamenti vaqtinchalik hukumat tuzdi. Yangi hukumat matbuot, namoyishlar o'tkazish erkinligini e'lon qildi. **21 yosh**ga to'lgan barcha erkaklarga saylov huquqi berildi.

Barcha fuqarolarni ish bilan ta'minlash to'g'risida dekret qabul qilindi. Ishsizlar uchun **«Milliy ustaxona»** deb ataluvchi jamoatchilik ishlari tashkil etildi. Ish vaqti **10 – 11 soat** bilan cheklab qo'yildi. Biroq yangi hukumat mablag' yo'qligi uchun tez orada milliy ustaxonalarni yopib tashladi. Ularda ishlayotgan **115 mingga yaqin** ishchi ishsiz qoldi. Bunga javoban ishchilar **1848-yil iyun**da yana qo'zg'olon ko'tardilar. Biroq hukumat qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostirdi.

Ikkinchi imperiya. Mamlakatga tartib o'rnatishga qodir hokimiyat zarur edi. Shu tufayli hukmron tabaqalar qirol hokimiyati o'rniga katta vakolatlarga ega prezidentlik lavozimini joriy etishga qaror qildilar. Unga hukumat tuzish va iste'foga chiqarish huquqi ham beriladigan bo'ldi.

1848-yil dekabrda hukmron tabaqalar Napoleon I Bonapartning jiyani **Lui Napoleon Bonapart**ning Fransiya Prezidenti etib saylanishiga erishdilar. Uning asl maqsadi Fransiya imperiyasini tiklash edi. U o'z niyatini amalga oshirishga zimdan tayyorgarlik ko'rdi. Nihoyat, **1851-yil 2-dekabr**da davlat to'ntarishi o'tkazdi va o'zi uchun xavfli bo'lgan kishilarning barchasini qamoqqa tashladi. Endi unga o'zini imperator deb e'lon qilishga barcha yo'llar ochiq edi. **1852-yil 2-dekabr**da u o'zini **Napoleon III** nomi bilan **Fransiya imperatori** deb e'lon qildi. Shu tariqa Fransiyada **ikkinchi imperiya** o'rnatildi.

13.4. XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA GERMANIYA VA ITALIYA

Germaniyada inqilobning sabablari va maqsadlari. Germaniya inqilobining asosiy sababi o'rta asr feodal tartiblarining kapitalizm taraqqiyotiga hamon to'siq bo'lib kelayotgani edi. Buning natijasida Germaniyada siyosiy tarqoqlik hukm surdi. Oqibatda yagona umumiy bozor vujudga kelmadi. Sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi boshqa ilg'or davlatlardan orqada qoldi. Zo'ravonlikka asoslangan davlat apparati har qanday hur fikrni qatag'on qilardi. Bu omillar Germaniyada ham inqilobning yetilishiga olib keldi. *Inqilobning asosiy maqsadi Germaniyaning siyosiy tarqoqligiga barham berish va feodal tartiblarni tugatish edi.* Inqilobga burjuaziyaning konstitutsiyaviy monarxiya tarafdori bo'lgan qismi rahbarlik qildi. **Mayda**

va o'rta burjuaziya, ishchilar, ziyolilar inqilobning harakatlantiruvchi kuchini tashkil etdi.

1848-yil fevral inqilobi. Yevropaning boshqa davlatlarida **1847-yili** yuz bergan iqtisodiy inqiroz Germaniyani ham chetlab o'tmadi. Bu inqiroz ishsizlikning ko'payishiga, ish haqining pasayishiga olib keldi. Barcha tovarlar, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari narxi ko'tarilib ketdi. Oqibatda och qolgan aholi ko'chaga chiqdi. Hukumat, davlat xazinasi bankrot yoqasiga kelib qolgani uchun, keskinlikni yumshatishga zarur mablag' ajratolmasdi. Natijada siyosiy vaziyat yanada keskinlashdi. Fransiyada boshlangan 1848-yilgi fevral inqilobi Germaniyada ham inqilob boshlanishida uchqun vazifasini o'tadi. **18-mart** kuni **Berlin**da qo'zg'olon boshlandi. Berlin ko'chalari barrikadalar bilan qamrab olindi. Tun bo'yi shiddatli ko'cha janglari davom etdi. Prussiya qiroli qo'zg'olonchilarga qarshi kurashayotgan harbiy qismni olib chiqish haqida buyruq berishga majbur bo'ldi. U endi murosa yo'lini izlay boshladi.

Qirol burjuaziyaning talabi bilan **Millat majlisi**ga (parlament) saylov belgilashga va konstitutsiya ishlab chiqishga va'da berdi. Millat majlisi amalda hech qanday tub islohotlarni amalga oshirolmadi. Joriy etilgan konstitutsiya ham amalda hukmron tabaqalar manfaatiga xizmat qildi. Germaniya burjuaziyasi qirol hokimiyati va katta yer egalari bilan kelishish yo'lini tutganligi buning asosiy sababi edi. Siyosiy vaziyatning biroz bo'lsada yumshashiga erishgan qirol hokimiyati inqilobni bostirishga erishdi. **Prussiya qirolligi** Germaniyada eng kuchli qo'shinga ega bo'lganligi uchun boshqa mayda german davlatlaridagi inqilobiy harakatni ham bostirishda qatnashdi. **1848-yili Prussiya** qirolligida **konstitutsiya** joriy etilishining o'zi katta siyosiy yutuq edi.

Italiyaning birlashtirilishi. Kapitalizmni yanada rivojlantirish zarurati mamlakatning birlashuvini nihoyasiga yetkazishni taqozo etardi. Busiz Italiya Yevropada o'z o'rniga ega davlatga aylanolmasdi. Til va madaniyat birligi Italiyani yagona davlatga birlashtirishga yordam berdi. Italiyani birlashtirishdek tarixiy vazifani ro'yobga chiqarish **Sardiniya qirolligi** zimmasiga tushdi. Uning bosh vaziri **K.Kavur** uzoqni ko'ra oluvchi siyosatchi edi. U mo'tadil islohotlar va konstitutsiyaviy monarxiya tarafdori edi. K.Kavur Avstriya zulmiga qarshi kurashda Fransiya bilan shartnoma tuzishga erishdi. Avstriya qo'shini mag'lubiyatga uchratilib, u bilan sulh tuzildi. Biroq **Sitsiliya va Neapol qirolligi** Italiya siyosiy tarqoqligining tayanchi bo'lib qolayotgandi.

1860-yili Italiyani birlashtirishning qizg'in tarafdori, xalq qahramoni **Juzeppe Garibaldi** o'z harbiy kuchi bilan **Sitsiliya orol**iga kelib tushdi.

Xalq ommasi uni xaloskor sifatida kutib oldi. Sitsiliyaning asosiy shahri **Palermo** egallandi. Shundan so'ng J.Garibaldi qo'shini **Neapol**ga yurish qildi. Neapol qo'shini tor-mor etildi va Neapol qirolligi tugatildi. J.Garibaldi Italiyani birlashtirish ishida yetakchilik qilayotgan **Sardiniya** qiroli **Viktor Emmanuil II** hokimiyatini tan oldi. **1861-yil** yagona **Italiya qirolligi** tuzilgani e'lon qilindi.

Mamlakatda **konstitutsiyaviy monarxiya** qaror topdi hamda **ikki palatali** (Senat va Deputatlar palatasi) **parlament** joriy etildi. Oradan bir necha yil o'tgach Avstriya qo'l ostida qolgan **Venetsiya viloyati** ham, **1870-yili** esa Fransiya ta'sirida bo'lgan **Rim shahri** ham Italiya qirolligiga qo'shib olindi. Shu tariqa Italiyani yagona davlatga birlashtirish yakunlandi.

Germaniyaning birlashuvi. Germaniyada ham jamiyatning ilg'or qatlami milliy birlashuv uchun kurashayotgandi. Bu yerda ham butun mas'uliyatni Germaniyada mavjud **23 davlat**dan biri o'z zimmasiga olishi zaruratga aylandi. **Prussiya** bu davrdagi imperiyadagi qudratli davlat edi. Qirollikda o'z davrining mashhur davlat arbobi **Otto fon Bismark** bosh vazirlik qilardi.

U **1864-yil**dan boshlab Germaniyani yagona davlatga birlashtirishga rahbarlik qildi. **1866-yili** bosh vazir Otto fon Bismark rahbarligi ostida **22 nemis davlati** Prussiya bilan **«Shimoliy Germaniya Ittifoqi»**ni tuzish haqida shartnoma imzoladilar. Germaniyani birlashtirish yo'lidagi asosiy tashqi to'siq **Fransiya** edi. Prussiya unga qarshi urushga jiddiy tayyorgarlik ko'ra boshladi. **1870 – 1871-yillar**dagi **Fransiya – Prussiya urushi**da Fransiyaning mag'lubiyati Germaniyani birlashtirish yo'lidagi so'nggi to'siqni ham olib tashladi. Shu tariqa Germaniyani yagona davlatga birlashtirish nihoyasiga yetkazildi.

13.5. XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA ROSSIYA

Iqtisodiy hayot. Podsho Rossiyasida krepostnoylik tartiblari jamiyat taraqqiyotiga katta g'ov bo'lib qoldi. G'arbiy Yevropa davlatlari va AQSh-da mashinalashgan sanoat ishlab chiqarishi rivojlanayotgan bir davrda Rossiyada hamon manufaktura ishlab chiqarishi hukmron edi. Faqat **XIX asrning 30-yillari**dan mashinalar ishlab chiqarishga joriy etila boshlandi. Qo'l mehnatiga asoslangan manufaktura mashinalar ishlatishga asoslangan fabrikaga aylana bordi. Shu tariqa podsho Rossiyasida ham sanoat to'ntarishi boshlandi. **XIX asr 40-yillari oxirlari**ga kelib **Peterburg va Moskva**da mashinasozlik zavodlari qurildi. **XIX asr 30-yillari**da esa **temir yo'l** qurilishi boshlandi.

Sanoat to'ntarishi **XIX asr 90-yillari**dagina tugallandi. Iqtisodiy qoloq podsho Rossiyasi mashinalashgan ishlab chiqarishni keng rivojlantirish uchun yetarli kapitalga ega emasdi. Aholining xarid quvvati ham juda pastligi uchun, sanoat mollari sotiladigan ichki bozor doirasi torligicha qolaverdi. Shu tufayli natural xo'jalik hamon kuchli edi. **XIX asr o'rtalari**ga kelganda Rossiya aholisining atigi **8 foizi** shaharlarda yashagani ham buning dalilidir.

Samoderjaviye va krepostnoylikka qarshi kurash. 1812-yilgi Fransiya – Rossiya urushida erishilgan g'alabadan keyin ham podsho Rossiyasida mavjud boshqaruv tartibi va krepostnoylik huquqi saqlanib qolaverdi. Mavjud holat podsho Rossiyasining ilg'or fikrli kishilarini qayg'uga soldi. Ular samoderjaviye va krepostnoylikka qarshi aniq dastur bilan kurash boshlaganlar. Bu kurash podsho Rossiyasi tarixiga **«Dekabristlar harakati»** nomi bilan kirgan. Dekabristlar dvoryanlarning farzandlari edilar. Ular mavjud tuzumni qurolli qo'zgolon yordamida ag'darish rejasini tuzganlar. Ularning bir guruhi Rossiyada respublika o'rnatish tarafdorlari bo'lgan, ikkinchisi konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatish tarafdori edi.

Dekabristlar **1821 – 1822-yillari** ikkita maxfiy jamiyat tuzdilar. Ulardan biri **«Janubiy jamiyat»**, ikkinchisi **«Shimoliy jamiyat»** deb ataldi. Har ikki jamiyat ham Rossiya konstitutsiyasining loyihasini yaratdilar. «Janubiy jamiyat»ning ko'zga ko'ringan arbobi, Borodino jangida ko'rsatgan jasorati uchun oltin dastali qilich bilan mukofotlangan **Pavel Pestel (1793 – 1826)** edi. U yaratgan konstitutsiya loyihasi **«Rus haqiqati»** deb ataldi. Loyihada samoderjaviyeni (podsho hokimiyatini), krepostnoylik huquqini yo'q qilish va Rossiyada respublika idora usuli joriy etish ko'zda tutildi. Hamma fuqarolar uchun teng saylov huquqi asosida saylanadigan **Xalq Vechesi**ning Rossiya parlamenti bo'lishi belgilandi.

«Shimoliy jamiyat»da **Nikita Muravyov** tayyorlagan konstitutsiya loyihasi Rossiyani konstitutsiyaviy monarxiya deb e'lon qilishni ko'zda tutardi. Mulk senzi asosida saylanadigan ikki palatali Xalq Vechesi oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat organi (parlament) bo'lishi kerak edi. Dekabristlar qo'zg'olonga tayyorlana boshladilar. Qo'zg'olon vafot etgan podsho **Aleksandr I** o'rniga ukasi **Nikolay I** ni taxtga o'tqazish marosimi o'tkaziladigan kunga belgilandi. Qo'zg'olon dekabristlarga sodiq harbiy qism tomonidan amalga oshirilishi lozim edi. Aslida, bu davlat to'ntarishi degani edi.

Qo'zg'olon **1825-yil 14-dekabr** kuni boshlandi, biroq qo'zg'olon muvaffaqiyatsizlikka uchradi. U podshoga sodiq harbiy kuchlar tomonidan bostirildi. Dekabristlar harakatining rahbarlaridan besh kishi, shu jum-

ladan, **P.Pestel** va **N.Muravyov** ham osib o'ldirildi. Ko'pchiligi katorgaga yuborildi va Sibirga surgun qilindi. Biroq dekabristlar harakati behuda ketmadi.

Reaksiya kuchlarining hujumi. Dekabristlar qo'zg'oloni bostirilgach, mamlakatda reaksiya kuchlari yanada faollashdi. Yangi podsho **Nikolay I** butun kuch-g'ayratini samoderjaviye tuzumini mustahkamlashga qaratdi. U butun mamlakatni ulkan bir kazarmaga aylantirishni istardi. Nikolay I ga hamma yoqda inqilob sharpasi ko'ringanday tuyulardi. U bunday degandi: *«Inqilob Rossiya ostonasida turibdi. Ammo qasamyod qilib aytamanki, tanamda jonim bor ekan, inqilob Rossiyaga kira olmaydi».* U umrining oxirigacha shu qasamiga sodiq qoldi va zo'ravonlikka asoslangan hokimiyat apparatini kuchaytirdi. Hatto inqilobiy harakatga qarshi kurash olib boruvchi maxsus bo'lim ham tuzildi.

Krepostnoylik huquqining yemirilishi. Rossiya **1853 – 1856-yillar**dagi Turkiya – Rossiya urushida mag'lubiyatga uchradi. Bu mag'lubiyat Rossiyaning iqtisodiy qoloqligi oqibati edi. Rossiyada krepostnoylik tuzumi allaqachon taraqqiyotning asosiy to'sig'iga aylangandi. Mag'lubiyat krepostnoylik huquqi bekor qilinmas ekan, Rossiyada kapitalizm tez sur'atlar bilan taraqqiy etishi mumkin emasligini ham ko'rsatib berdi. Ayni paytda, inqilobiy harakatning o'sishiga ham turtki bo'ldi.

Mamlakatda vujudga kelgan kuchli norozilik to'lqinini bostirish maqsadida Rossiya podshosi **Aleksandr II 1861-yil 19-fevral**da krepostnoylik huquqining bekor qilinishi to'g'risidagi qonunni imzoladi. Bu qishloqda tub islohot amalga oshirilishini anglatardi. Qonunga ko'ra, krepostnoy dehqonlar shaxsan ozod bo'ldilar. Pomeshik bundan buyon dehqonlarni sotib olishga, sotishga yoki boshqa birovga hadya qilishga haqqi yo'q edi. Dehqon endi pomeshikning ruxsatisiz oila qurish, mustaqil sur'atda shartnoma, savdo bitimlari tuzish, ko'chmas mulk sotib olish va uni meros qoldirish huquqiga ega bo'ldi.

Hukumat dehqonlarni ozod qilib, yer berishga majbur bo'ldi. Shunday qilinmasa, xalq yalpi g'azabga kelishi mumkin edi. Qolaversa, dehqonlarning asosiy soliq to'lovchilar bo'lib qolishi ham hisobga olindi. Dehqonlarga berilgan yer **chek yerlar** deb ataldi. Hukumat pomeshikning manfaatini ham hisobga oldi. Dehqonlarga beriladigan chek yerlarning miqdori pomeshik bilan dehqon o'rtasidagi o'zaro kelishuv asosida belgilanardi.

Pomeshik o'z ixtiyorida bo'lib kelgan yerning **1/3 qism**ini, cho'l hududlarda **1/2 qism**ini saqlab qolish huquqiga ega bo'ldi. Qolaversa, dehqon shu vaqtgacha hukumat qarorida belgilanganidan ko'proq miqdordagi

yerdan foydalanib kelgan bo'lsa, uning ortiqchasi pomeshikka o'tkazilardi. Bunday yerlar **otrezkalar** deb atalgan.

Dehqon uchun eng noqulayi uning yer egasi bo'lishi uchun **vikup** to'lashi shartligi bo'ldi. Biroq dehqonda vikup uchun pul bo'lmagan. Qonun buni ham hisobga olgandi. Unga ko'ra, dehqon vikup tuzilayotganda yer uchun qo'yilgan bahoning **20 foizi**ni o'sha zahoti to'lashi shart edi. Qolgan **80 foizi**ni esa davlat dehqonlarga beradigan qarz sifatida pomeshiklarga to'lardi. Dehqonlar bu qarzni **49 yil** davomida davlatga foizi bilan to'lab borishi lozim edi. Dehqonlarning vikup bitimlari tuzilgunga qadar avvalgi majburiyatlarini **(barshchina va obrok)** bajarib turishlari belgilab qo'yildi.

Islohotning tarixiy ahamiyati. **1861-yil**gi islohot natijasida krepostnoylik huquqi yemirildi. Islohot dehqonlarni birdaniga ozod etmadi. Krepostnoylik sarqitlari uzoq yashadi. Podsho Rossiyasi qishloq xo'jaligida kapitalizm juda sekinlik bilan rivojlana boshladi. Biroq, baribir, islohot muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Dehqonlar shaxsiy erkinlik va fuqarolik huquqiga ega bo'ldilar. Iqtisodiyotda kapitalistik munosabatlarning mustahkamlanishi uchun keng yo'l ochildi.

Tashqi siyosat. Podsho Rossiyasi **XIX asr**da ham boshqa buyuk davlatlar qatori bosqinchilik urushlarini davom ettirdi. Dastlab **Bessarabiya va Kavkazorti** bosib olindi. **Shimoliy Kavkaz**ni to'la bo'ysundirish uchun **30 yil** urush olib borishga majbur bo'ldi. **Dog'iston, Chechenistan va Adigey**ning tog'lik xalqlari Rossiya qo'shiniga qattiq qarshilik ko'rsatdi. Tog'liklarning podsho Rossiyasiga qarshi mustaqillik uchun kurashiga **25 yil** davomida **Shomil** rahbarlik qildi. U aqlli va jasur hukmdor edi. Biroq kuchlar teng bo'lmaganidan, Shomil qo'shini tor-mor etildi.

1864-yilga kelib oxir-oqibat butun Kavkaz podsho Rossiyasi tarkibiga kiritildi. Shu yili Markaziy Osiyoni bosib olish uchun harbiy harakatlar boshlab yuborildi. **1867-yili** Qo'qon xonligi va Buxoro amirligining bosib olingan hududlarida **Turkiston general-gubernatorligi** tashkil etildi.

1867-yili Rossiya tabiiy boyliklarga boy bo'lgan **Alyaska**ni AQShga arzimagan pulga sotib yubordi. *Bu oldi-sotdidan Rossiya Buyuk Britaniya bilan sovuq munosabatlarda AQShga tayanishni rejalashtirgandi.* **1868-yili** Markaziy Osiyoning ikki davlati – **Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi** podsho Rossiyasiga qaramligini tan oldilar.

14-BOB. XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA AMERIKA, OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI

14.1. XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI

AQSh iqtisodiy taraqqiyoti. Mustaqillik yillarida AQShda sanoat tez sur'atlar bilan rivojlandi. **XIX asr 30-yillari**da AQShda sanoat inqilobi boshlandi. **XIX asr o'rtalari**gacha AQSh qishloq xo'jalik mamlakati edi. Mamlakat shimolidagi qishloq xo'jaligida kapitalistik munosabatlar tez rivojlandi. Uning asosini **fermer xo'jaligi** tashkil etdi.

Abolitsionistlar. Oq tanli ko'pgina kishilar – ishchilar, fermerlar, ziyolilarning ilg'or qatlamlari qulchilikning bekor qilinishi uchun kurash olib bordilar. Shu tariqa abolitsionistlar harakati vujudga keldi. AQShda qulchilikka nafrat bilan qarovchi kishilar soni tobora ortib bordi. **50-yillar oxirlari**da atoqli abolitsionist, oq tanli fermer **Jon Braun Virginiya**da qullar qo'zg'olonini ko'tarishga urinib ko'rdi. U **Allegan tog'i**da mustahkamlanib olib, bu yerdan qo'zg'olonni plantatsiyalarga yoyishni umid qilgandi. Braun tuzgan qurolli guruh **22 kishi**dan iborat bo'lgan. Guruhda **5 nafar** qora tanli kishi ham bor edi. Yomg'irli tunda u qurol-yarog'lar saqlanadigan kichik omborni bosib olishga erishdi. So'ngra Braun qo'shni plantatsiyalardagi qullarni ozod qilish va quldorlarni garov sifatida qo'lga olish uchun o'z odamlarini yubordi. Ammo umumiy qo'zg'olon ko'tarishga erishilmadi. Tez orada hukumat qo'shini Braunning qurolli guruhini qirib tashladi. Og'ir yarador bo'lgan Braun esa qamoqqa olindi va osib o'ldirishga hukm qilindi.

Quldorlar isyoni. Bu davrda AQShda **ikki partiyaviy tizim** ham to'la shakllanib bo'lgandi. Respublikachilar partiyasining xalq orasida eng obro'li arbobi **Avraam Linkoln (1809 – 1865)** edi. Linkolnning qulchilikka qarshi chiqishlarini ishchilar, fermerlar, burjuaziyaning ilg'or qismi qo'llab-quvvatladi. **Respublikachilar partiyasi** Linkolnni prezidentlikka nomzod etib ko'rsatdi va u **1860-yil**gi saylovda g'alaba qozondi. Uning prezidentlikka saylanishi bilan hukumatda quldorlar hukmronligiga barham berildi. Bu esa qulchilik dushmanlarining juda katta, ayni vaqtda, tinch yo'l bilan erishgan siyosiy g'alabasi edi. Ular birinchi marta hukumatda hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar. Janub plantatorlari saylovda mag'lubiyatga uchragan **Demokratlar partiyasi**ning asosiy tayanchi edi. Ular endi qonuniy yo'llar bilan qulchilikni saqlab qolishga erishol-masliklariga ishonch hosil qildilar. Shuning uchun o'zlarining qulchilikka

asoslangan alohida davlatlarini tuzishga kirishdilar. Qulchilik shtatlari AQSh tarkibidan chiqqanliklarini, janubiy shtatlarning o'z prezidentiga ega bo'lgan konfederatsiyasi tuzilganini e'lon qildilar. O'zlarining alohida qo'shinini ham tuzdilar.

Fuqarolar urushi (1861 – 1865). **1861-yil aprel**da shimol bilan janub o'rtasida fuqarolar urushi boshlandi. Kuchlar nisbati jihatidan shimol ustun edi. **1863-yili** qullik bekor qilindi. Fuqarolar urushi **1865-yil aprel**da shimolning g'alabasi bilan tugadi. Biroq reaksion kuchlar **A.Linkoln**-ni yollanma qotil qo'li bilan otib o'ldirishga erishdilar. Biroq bu qotillik qulchilikni bekor qilishga to'sqinlik qilolmadi. **1865-yili** AQSh Kongressi tomonidan konstitutsiyaga tuzatish kiritildi. Unga muvofiq, oq tanlilar qanday fuqarolik va siyosiy huquqlarga ega bo'lsalar, qora tanlilarga ham shunday huquqlar berildi.

Fuqarolar urushi natijalari. Urushda shimolning erishgan g'alabasi katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. G'alaba mamlakat yaxlitligini saqlab qoldi. Qulchilik bekor qilindi va **gomstedlar** to'g'risida qonun qabul qilindi. AQShda g'arbiy yerlardagi qishloq xo'jaligida kapitalizm rivojlanishi uchun imkoniyat ochildi. G'alaba g'arbiy yerlarning qulchilik tarafdorlari tomonidan bosib olinishi xavfiga barham berdi. Janubda ham fermer xo'jaligi rivojlanishi uchun keng yo'l ochildi. Tarixiy g'alaba sanoat to'ntarishini tezroq tugallash va Amerika sanoatining o'sishi uchun sharoit yaratdi.

14.2. LOTIN AMERIKASI XALQLARINING MILLIY OZODLIK KURASHI

Mustaqillik uchun kurashning boshlanishi. Lotin Amerikasi mamlakatlari hamon Ispaniya mustamlakasi edilar. Ispaniya hukmron tabaqalari mustamlakachilik zulmini tobora kuchaytirganlar. Chunonchi, Ispaniyadan yuborilgan amaldorlar, generallar va boshqa zobitlar mustamlakalarda katta boylik jamg'ardilar. Ular **kreollar**ga mensimay qaraganlar. Kreollar orasida pomeshiklar, savdogarlar, monaxlar va ruhoniylar tabaqalari mavjud edi. Kreollar Ispaniya xazinasiga to'lanadigan og'ir soliqlardan, mustamlakachi amaldorlarning beboshligidan va Ispaniya ma'murlarining mustamlakalarning boshqa davlatlar bilan savdosini taqiqlab qo'yganidan aziyat chekkanlar.

Mustamlakachilik zulmi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiqni yanada rivojlantirish uchun asosiy to'siq bo'lib qoldi. Mazkur omillar Ispaniyaning mustamlakachilik zulmiga qarshi ozodlik harakatini vujudga keltirdi.

Bu harakatning asosiy maqsadi mustaqil davlat tuzish edi. Kreollardan chiqqan o'qimishli kishilar, pomeshiklar, ayniqsa, zobitlar orasida ozodlik g'oyalari keng tarqaldi. *Ozodlik harakati arboblari xalq ommasi: hindular, metislar va mulatlardan chiqqan dehqonlar bilan hunarmandlarning, hatto Ispaniya hukmronligidan xalos bo'lish o'z qismatining yengillashuviga olib kelishiga umid bog'lagan qora tanli qullarning ham madadiga tayandi.*

Meksikada mustaqillik urushi. **1810-yili** mustamlakalarda ommaviy qo'zg'olon boshlandi. Lotin Amerikasi xalqlari o'zining ozodlik kurashida ko'pgina ajoyib vatanparvarlarni yetishtirib berdi. Meksikadagi ozodlik kurashining shonli qahramonlari, kambag'al dehqonlar qo'zg'olonlari yo'lboshchilari **Migel Idalgo** va **Xose Morelos** edi.

Qishloq ruhoniysi Idalgoni mahalliy aholi, ayniqsa, hindular sevardi. U hindularning tillarini bilardi. **1810-yili** Idalgo dehqonlarning eng kambag'al tabaqalariga mansub hindular bilan mulatlarni mustaqillik uchun kurashga va o'zlaridan tortib olingan yerlarni qaytarib olishga chaqirdi. Qo'zg'olon ko'targan hindular va mulatlardan butun bir qo'shin tuzildi. Idalgo quldorlarga o'zlarining hamma qullarini **o'n kunlik** muddatda ozod qilib yuborishni buyurdi va hindu jamoalari mustamlakachi ma'murlarga to'lab kelgan o'lponni bekor qildi.

Ispaniya qo'shini qo'zg'olonni bostirdi. Asir olingan Idalgo esa **1811-yili** otib o'ldirildi. Idalgoning eng yaqin safdoshi **Morelos** uning ishini davom ettirdi. Biroq Ispaniyaning muntazam qo'shini bu safar ham qo'zg'olonchilardan ustun keldi. Morelos ham otib tashlandi. Keyinchalik ozodlik harakatiga rahbarlikni badavlat pomeshiklar qo'lga oldilar. Nihoyat, **1821-yili** Meksika mustaqillikka erishdi. Qullik bekor qilindi. **1824-yil**i esa mamlakat pespublika deb e'lon qilindi.

Venesuela mustaqilligi. Venesuelada mustaqillik urushiga **Simon Bolivar** rahbarlik qildi. U Janubiy Amerika xalqlarining eng mashhur qahramoni bo'lib qoldi. Bolivar venesuelalik badavlat kreol – pomeshik va savdogar oilasida tug'ildi. Juda yaxshi ilm olgan Bolivar Yevropa bo'ylab safar qildi. *«Ispaniya mening mamlakatimni bandi qilgan zanjirlarni parchalab tashlamagunimcha xotirjam bo'lmayman»*, – derdi u. Bolivar Venesuela ozodlik qo'shinini tuzdi. U ispan qo'shinlariga qarshi olib borgan muvaffaqiyatli janglari uchun general unvoni va **«Xaloskor»** degan faxriy nom oldi. Bolivar faqat zamindor kreollargagina tayanib qolmay, qora tanlilar bilan hindularni ham kurashga otlantirdi. Qullik bekor etilganini e'lon qildi va shu tariqa qora tanli qullarning bir qismini o'z qo'shiniga jalb etdi. Hindu dehqonlarga esa urush tamom bo'lishi bilanoq ular o'z yerlariga ega bo'lishiga va'da berdi.

Bolivar Yevropaning ilg'or jamoatchiligiga murojaat etib yordam so'raganida, uning da'vatiga ko'plab ko'ngillilar javob berib, asoratga soluvchi mustamlakachilarga qarshi kurashayotgan Lotin Amerikasi xalqlariga ko'maklashishga qaror qildilar. **Irlandiyaliklar, inglizlar, nemislar, italyanlar, polyaklar, ruslar** Venesuelaga keldilar.

1811-yili Venesuela mustaqil deb e'lon qilindi. Bolivar Venesueladan And tog'ining qorli cho'qqilari orqali o'tib, **Yangi Granada**ning Ispaniyadan ozod bo'lishiga yordam berishga qaror qildi. Mashaqqatli And tog'i yo'llaridan mardonavor o'tildi. Bolivar qo'mondonligidagi qo'shin ispan qo'shinlari ustidan g'alaba qozondi. **1819-yili** Yangi Granada Venesuela bilan birlashdi. Birlashgan davlatga X.Kolumb sharafiga **Buyuk Kolumbiya** deb nom berildi. Bolivar Buyuk Kolumbiya prezidenti lavozimini egalladi. *Bolivar hindularga solinadigan o'lponni bekor qildi. Yirik pomeshiklarning yerlarini musodara qilish to'g'risidagi qonun loyihasini ishlab chiqdi.* Ammo tadbir pomeshiklarning qarshiligiga duch kelib, amalga oshmay qoldi. Bolivar Ispaniyadan ozod etilgan barcha Amerika respublikalari konfederatsiyasini tuzishni orzu qilardi. Inqilobning eng qiyin, hal qiluvchi davrida Bolivar xalq bilan birga bo'ldi va unga fidokorona xizmat qildi. Shuning uchun u yirik pomeshiklarga yoqmadi. Ular Bolivarni jismonan yo'q qilishga qaror qildilar. Oxir-oqibatda u **1830-yili** iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. U afsus bilan sunday yozgandi: *«Inqilobga xizmat qilish dengizni shudgor qilish bilan barobardir».*

Mustaqillik yo'lidagi urushlarning tugashi. **Argentina**da mustaqillik uchun qurolli kurash **1810-yili** boshlandi. Kurash boshlangan **25-may** kuni Argentina xalqining milliy bayram kuni bo'lib qoldi. Argentinani **Xose San-Martin** qo'mondonligidagi inqilobiy qo'shin ozod qildi. So'ngra uning qo'shini **Chili** va **Peru**ning ozod bo'lishiga yordam berdi. **1822-yili Braziliya** Portugaliyadan mustaqil deb e'lon qilindi. Ispaniya mustamlakachiligiga qarshi o'z mustaqilligi uchun kurashayotgan **Yuqori Peru** vatanparvarlari qo'shini **1824-yil dekabr**da Bolivarning safdoshi **general Sukre** boshchiligida ispan qo'shinini tor-mor etdi. **1825-yili** Yuqori Peru Ispaniya zulmidan uzil-kesil ozod bo'ldi.

Yuqori Peru S.Bolivar sharafiga **Boliviya** deb ataldi. **1826-yili Argentina, 1830-yili Urugvay, 1869-yil**i esa **Kuba** mustaqil respublika deb e'lon qilindi. Lotin Amerikasidagi mustaqillik uchun urushlar yakunida Ispaniya zulmi ag'darib tashlandi va bir qancha yangi mustaqil milliy davlatlar barpo etildi. Braziliyadan tashqari ularning hammasida respublika tuzumi o'rnatildi. Lotin Amerikasidagi mustaqillik uchun urushlar mustamlakachilikka qarshi milliy ozodlik urushi hamda burjua inqiloblari ham edi.

14.3. XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA HINDISTON

Buyuk Britaniya mustamlakachilik tartibi. Buyuk Britaniya hukmron tabaqalari yangi asrda ham Hindistonni butunlay o'z mustamlakasiga aylantirish siyosatini davom ettirdilar. Chunonchi, hukumat **«Hindiston ishlari bo'yicha nazorat kengashi»** tashkil etdi. Bu kengash Buyuk Britaniyaning Hindistondagi mustamlakachilik siyosati yo'nalishlarini belgilab borardi.

Qolaversa, Buyuk Britaniya parlamenti Hindistonni boshqarish to'g'risida qonun qabul qildi. Unga ko'ra, «Ost-Indiya» kompaniyasining **Kalkutta shahr**idagi gubernatori Buyuk Britaniyaning Hindistondagi barcha mulklari general-gubernatori etib tayinlandi. Shu tariqa kompaniya amalda Hindistonni boshqaruvchi mustamlakachi ma'muriyat apparatiga aylantirildi. Hindistonda Buyuk Britaniya ma'muriyatining **Oliy sudi** joriy etildi. Hindistonning mustamlakaga aylantirilgan hududlari ma'muriy jihatdan general-gubernatorga itoat etuvchi **gubernatorlar** tomonidan boshqarildi.

«Ost-Indiya» kompaniyasi katta harbiy kuchga tayanardi. U hindlarning o'zidan ham yollanma qo'shin tuzgan. Bu qo'shin askari **sipohi** deb atalardi. Qo'shinga ingliz zobitlari qo'mondonlik qilishardi. Hindistonda faqat shu qo'shingina hindlarning birdan bir uyushgan tashkiloti edi, xolos. Kompaniya sipohilarining Buyuk Britaniyaga so'zsiz itoat etib, xizmat qilishini istardi.

Sipohilar qo'zg'oloni. Sipohilar qo'zg'olonining boshlanishiga bevosita turtki qo'shinda patron bilan o'qlanadigan miltiqning joriy etilishi bo'ldi. Yangi patronning usti qog'oz po'stlog'i bilan qoplangan bo'lib, patronni miltiq stvoliga solishdan oldin po'stloqni tish bilan yirtib tashlash kerak edi. Bu qog'oz po'stloq ustiga esa yog' surtilgandi. Sipohilar orasida shu yog' sigir va cho'chqa yog'ining aralashmasidan tayyorlangan degan gap tarqalib ketgan. Hind sipohi sigir yog'i ishlatilgan patronni tishi bilan tishlashni o'z dinining qattiq tahqirlanishi, musulmon sipohi esa cho'chqa yog'i ishlatilgan patronni tishi bilan tishlashni ongli ravishda qattiq tahqirlanish deb qabul qildilar. Oqibatda ular yangi patronni olishdan bosh tortdilar. Oxiri bu hodisa qo'zg'olon ko'tarilishiga olib keldi. Qo'zg'olon **1857-yili** boshlandi. Sipohilar tez orada **Dehli**ni egallashdi. Shoh saroyiga bostirib kirishib, boburiy hukmdor **Bahodirshoh II** ni hind xalqini mustamlakachilarga qarshi qo'zg'olon ko'tarish haqidagi chaqiriqqa imzo qo'yishga majbur etdilar.

Qo'zg'olonning bostirilishi. Buyuk Britaniya Hindistonga qo'shimcha harbiy kuchlarni yuborishga majbur bo'ldi. Shundan so'ng harbiy kuch

ustunligi bosqinchilar tomoniga o'tdi. Britaniya qo'shini qo'zg'olonchilar egallagan shaharlarni qamal qilib, ularni shturm bilan egalladilar. Aholi o'zini qahramonona himoya qildi. Mustamlakachilar to'plarni fillarga ortib Dehliga olib kirdilar va bu tadbir jang taqdirini hal qildi. Ammo qo'zg'olonchilar kurashni davom ettirdilar, partizan otryadlari tuzdilar. Partizanlar harakatiga **Tantiya Topi** boshchilik qildi. Qo'zg'olon qatnashchilari orasida hind xalqining jasur va mard qizi, aslzoda **Lakshmi Bay** alohida o'rin egallaydi. Dushman **Jxansi shahri**ga bostirib kirganida, u oxirgi o'qi qolguncha jang qildi. So'ng arqondan yasalgan narvonda shahar minorasidan pastga tushib, dushman qo'liga tushmay qochib ketdi. Keyinchalik u partizanlar otryadida kurashni davom ettirdi va janglarning birida halok bo'ldi.

Qo'zg'olonchilar boshlig'i Tantiya Topini xoinlar bosqinchilarga ushlab berishdi. Dunyoning ilg'or fikrli kishilari Hindiston xalqiga qizg'in xayrxohlik bilan qaradilar. Ular mustamlakachilarning vahshiyligini g'azab bilan fosh etdilar. **1858-yili** Hindiston **Buyuk Britaniya mulki** deb e'lon qilindi. Qo'zg'olonchilar tor-mor keltirilgan bo'lsa-da, mustamlakachilar o'z hukmronliklarini mustahkamlash uchun ba'zi islohotlarni o'tkazishga majbur bo'ldilar. Chunonchi, yer egalarining soliqlarni oshirishi taqiqlab qo'yildi. Mahalliy knyazlarning o'z yerlariga egaligi daxlsiz deb e'lon qilindi. **«Ost-Indiya»** kompaniyasi esa tugatildi. Hindistonni boshqarish Britaniya ma'murlari qo'liga o'tdi.

14.4. XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA XITOY

Sin imperiyasi qudratining zaiflashuvi. **XVIII asr oxirlari**ga kelganda imperiyaning istilochilik qudrati zaiflashdi. Iqtisodiy turg'unlik va mamlakat aholisi asosiy qismini tashkil etuvchi dehqonlarning qashshoqlashuvi dehqonlar qo'zg'olonini keltirib chiqardi. Hukmron sulola umri tugayotgan tuzumni butun choralar bilan saqlab qolishga urindi. Hukmron tabaqalar siyosatiga qarshi har qanday bosh ko'tarish shafqatsizlik bilan bostirildi. Bu ham yetmagandek, Xitoy xalqi ongiga *«Imperator yorug' dunyoning xudosi va boshqa barcha davlatlar uning soliq to'lovchilaridir»* degan chirkin g'oya zo'r berib singdirilmoqda edi. Imperator **1757-yili** Xitoyni chet davlatlardan, birinchi navbatda, G'arbiy Yevropa davlatlaridan ajratish siyosatini joriy etdi.

Tashqi savdo faqat imperator amaldorlari nazorati ostida olib boriladigan bo'ldi. Shunda ham tashqi savdo faqat **Guanjchou porti** orqaligina olib borilardi. Xitoyning o'zini o'zi yakkalab qo'yish siyosati feodal

tartiblarning saqlanishiga xizmat qildi. Uning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga katta zarar yetkazdi. Imperator ma'lumotlari fan va texnika sohasida boshqa xalqlarning yutuqlarini rad etdilar. Mamlakat qoloqlik botqog'iga botib qoldi. Buyuk Britaniya hukumati Xitoyni o'z savdogarlari uchun ochishga butun choralar bilan urindi.

Birinchi afyun urushi. Buyuk Britaniya savdogarlari Hindistondan g'ayriqonuniy ravishda Xitoyga afyun kirita boshladilar. Mahalliy Xitoy ma'murlari afyun ortilgan karvonlarni musodara qilganiga javoban Britaniya hukumati afyunni va britan tovarlarini olib kirishni qonuniylashtirish uchun **1840-yili** Xitoyga qarshi urush boshladi. Urush tarixga **Birinchi afyun urushi** nomi bilan kirgan. Bu urush **1842-yil**gacha davom etdi. Buyuk Britaniya floti va qo'shini Sin qo'shinini tor-mor keltirdi. Xitoyning iqtisodiy va harbiy texnika jihatdan qoloqligi mag'lubiyatga sabab bo'ldi. Oqibatda Buyuk Britaniya **Gonkong orol**ini bosib oldi va Xitoyni chet el savdogarlari uchun bir nechta portlarni ochib qo'yish haqidagi shartnomani imzolashga majbur etdi. Lekin Xitoy afyun olib kirilishining qonuniy ekanini tan olmadi.

Ikkinchi afyun urushi. **1856-yili Ikkinchi afyun urushi** ro'y berdi. Bu safar Xitoy **Buyuk Britaniya va Fransiya**ning birlashgan qo'shinlaridan qaqshatqich zarbaga uchradi. Ular **Pekin** bo'sag'alarida juda boy xazinalarga ega yozgi imperator saroyini taladilar va vayron qildilar. Mustamlakachilar Xitoyni yangi noteng shartnomalar tuzishga majbur etdilar. Chet elliklarga yana boshqa portlarda ham savdo olib borishga ruxsat etildi va yangi imtiyozlar berildi. Ingliz va fransuz fuqarolari Xitoy hududida Xitoy qonunlari va sudiga bo'ysunishdan ozod qilindilar. Agar jinoyat qilsalar, ularni tegishli mamlakatning elchisi tegishli mamlakatning qonunlariga binoan sud qilardi. Dengiz savdosida ustunlikni egallagan Buyuk Britaniya Xitoyda hammadan ko'proq imtiyozlarga ega bo'ldi.

Dehqonlar urushi va Taypinlar davlati (1850 – 1864). Hukumatning taslimchilik siyosati oqibatida Xitoyning Yevropa davlatlari va AQShning yarim mustamlakasiga aylanib borishi hamda feodal zulmning kengayishi xalq ommasining keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Mamlakatda qudratli dehqonlar urushi alanga oldi. Bu urush **1850-yili** mamlakat janubida boshlandi. Sin sulolasiga va feodallarga qarshi kurash mustamlakachilarga qarshi kurash bilan qo'shilib ketdi.

Qo'zg'olonchilarga dehqonning o'g'li, maktab o'qituvchisi **Xun Syutsuan** boshchilik qildi. Qo'zg'olonchilar **Yanszi viloyati**da **«Samoviy mo'l-ko'lchilik davlati»** («Taypin tyango») barpo etganlar. Uning

markazi **Nankin shahri** bo'lgan. Xun Syutsuan fikricha, bunday davlatlarda dehqonlar jamoa bo'lib yashashlari, jamoada *«hech bir narsada tengsizlik bo'lmasligi, hammaning to'q va kiyimi but bo'lishi uchun yerga ega bo'lgan holda uni birgalikda ishlash, oziq-ovqat bo'lganida birgalikda tanovul qilish, kiyim-kechak bo'lganida ularni baravar taqsimlash, pul bo'lganida uni birgalikda sarflash lozim»* edi. Aholi turmushi harbiy tartib asosida qurilgan. Har bir oilaning qo'shinga bitta askar yetkazib berishi belgilab qo'yilgan. Harbiy qism boshlig'i esa, ayni paytda, qism joylashgan hududda davlat hokimiyatini ham amalga oshirgan. Shaharlarda turmushni harbiylashtirish yanada ildamlab ketdi. Barcha erkaklar bitta mehnat lageriga, xotin-qizlar va bolalar boshqa lagerlarga joylashtirildi.

Taypinlar mag'lubiyati. Qo'zg'olon rahbarlarining orzu-umidlari xayoliy hodisa edi, xolos. Ularning yerni har bir oilaga oila a'zolari soniga qarab teng bo'lib berish haqidagi rejalari qo'zg'olonda ishtirok etayotgan mulkdor tabaqalarning qo'zg'olondan uzoqlashishiga olib kelgan. Taypinlar rahbarlari orasida nizolar ham kelib chiqqan. Qolaversa, yer ololmagan dehqonlar umidsizlikka tushganlar. Bu esa davlat ma'murlariga taypinlarni tor-mor keltirishda yordam berdi. Hukumat kuch to'plab hujumga o'tdi. Unga **Buyuk Britaniya va Fransiya, Amerika Qo'shma Shtatlari** yordam ko'rsatdi. Buyuk davlatlar Xitoyda inqirozga yuz tutgan sin sulolasi hukmronligi saqlanib qolishidan manfaatdor edilar. **1864-yili** hukumat qo'shinlari qo'zg'olon rahbarlari joylashgan Nankinni ishg'ol qildilar. Xun Syutsuan o'zini o'zi o'ldirdi. Taypinlar qo'zg'oloni bostirilgach, chet el mustamlakachilari sin sulolasini qo'llab-quvvatlashni davom ettirdilar va uning yangi-yangi yon berishlariga erishdilar.

Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. Afyun urushlari va taypinlar qo'zg'oloni Xitoyni zaiflashtirgan bo'lsa-da, feodal jamiyat asoslarini o'zgartirolmadi. Xitoy iqtisodining asosini hamon qishloq xo'jaligi tashkil etardi. Aholining **3/4 qismi** qishloq xo'jaligi bilan band edi. Dehqonlar kamyerlilikdan aziyat chekardilar, iqtisodiy jihatdan feodallarga to'la qaram edilar. Ijara haqi hosilning **50 foizdan 70 foizgacha** qismini tashkil etardi.

1861-yili imperatorlik taxtiga **malika Sisi** o'tirdi. U o'ta shafqatsiz hukmdor edi. O'zini *«butun mamlakatning onasi»* deb hisoblar va hatto Buddaga tenglashtirardi. Hukmdor mamlakatda yalpi nazorat tartibini o'rnatdi. Shunday bo'lsa-da, u Xitoyni qudratli davlatga aylantirish harakatini boshlagan hukmdordir. Bu maqsad yo'lida **1861-yili** maxsus dastur e'lon qilindi. Mamlakatda zamonaviy harbiy sanoat korxonalari qurilishi boshlandi. Telegrafchilar, artilleriyachilar, zobitlar, dengizchilar va kemasozlik mutaxassislari tayyorlovchi o'quv yurtlari ochildi. G'arb

tipidagi o'quv yurtlarining ochilishi Yevropa ilm-fan yutuqlarining Xitoyda ham tarqalishiga yo'l ochdi. Xitoy ziyolilarining yangi avlodi shakllanishiga asos solindi.

14.5. XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA YAPONIYA

Yaponiyaning kuch bilan «ochilishi». **XVI asr**dayoq Yaponiyada xristian dinining tarqalishi taqiqlangandi. Hukmdorlar xristian dini yapon xalqi milliy an'analarini buzuvchi, xristian missionerlarini bosqinchilarning dastlabki guruhi deb hisoblaganlar. Shu tufayli **XVII asr**da Yaponiya hukmdorlari mamlakatni chet elliklar uchun yopib qo'ydilar, barcha yevropaliklarni quvib yubordilar. Syogun farmonida bunday deyilgandi: *«Shu davrdan boshlab Yaponiyaga chet ellardan hech kim, hatto elchilar ham kiritilmaydi. Hatto o'lim xavfi ham bu farmonni bekor qila olmasligi lozim».*

Nihoyat, **1854-yili** AQSh harbiy-dengiz floti Yaponiyani ochilishga majbur etdi. Shu yili AQSh bilan Yaponiya o'rtasida **«Tinchlik va do'stlik to'g'risida»** shartnoma imzolandi, unga ko'ra, Yaponiya AQShga **ikkita** portini ochdi va AQSh konsulini qabul qildi. AQShdan so'ng Yevropa davlatlari ham birin-ketin kirib kela boshladilar. Ularning maqsadi Yaponiya bozorlarini egallash edi.

1858-yili amerikaliklarga yana bir nechta port ochib qo'yildi. AQSh fuqarolariga Yaponiyada eksterritorial huquq berildi. Ayni paytda, AQSh tovarlariga juda past boj to'lovlari belgilandi. Tez orada xuddi shu mazmundagi shartnomalar Yevropa davlatlari bilan ham imzolandi.

«Ma'rifatli boshqaruv» davri. Imperator tarafdorlari Yaponiyani modernizatsiyalash uchun kurashuvchilar harakatidan syogun hokimiyatini tugatish va imperator hokimiyatini qayta tiklash uchun foydalanishga qaror qildilar. Shu tariqa mamlakatning kuch bilan ochilishi va syogun hukumatining chet davlatlar bilan imzolagan noteng shartnomalari mamlakatda fuqarolar urushi boshlanishiga turtki bo'ldi. Syogun hokimiyatini ag'darish uchun ommaviy harakatning asosiy kuchini **samuraylar** tashkil etdi. Ularga **qishloq va shaharlarning boy hamda o'rta tabaqalari** qo'shilishdi. Fuqarolar urushi natijasida syogun hokimiyati ag'darildi.

1867-yili tokugava sulolasining oxirgi syoguni imperator **Musuxito** foydasiga oliy hokimiyatdan voz kechdi. Shu yili unga imperator **Meydzi** («ma'rifatli boshqaruv») nomi bilan toj kiydirildi.

Meydzi islohotlarining boshlanishi. Yaponiya uchun modernizatsiya davri boshlandi. Hukumat o'z oldiga milliy an'analardan voz kechmagan, mustaqillikni to'la saqlagan holatda G'arb namunasida Yaponiyani

zamonaviylashtirish vazifasini qo'ydi. Dastlab **agrar islohot** o'tkazildi. *Bu islohot yerni sotish va sotib olishga, uni xususiy mulkka aylantirishga ruxsat berdi.* Natijada asrlar davomida katta yer egalari uchun mehnat qilib kelgan dehqonlar chek yerga ega bo'ldilar. To'g'ri, yer uchun katta soliq belgilandi. Bu soliq qiymati hosildan olinadigan daromadning **50 foiz**iga teng edi. Shuning uchun islohotdan **10 yil** o'tgach yer olgan dehqonlarning atigi **1/3 qismi** o'zlariga berilgan yerni qo'llarida saqlab qololdilar. Qolganlari esa ijarachilarga aylandilar. Shunga qaramay, islohot qishloq xo'jaligida kapitalizmning rivojlanishini ta'minladi. **Ma'muriy islohot** mahalliy knyazlar hokimiyatini tugatdi. Knyazlar qudratini sindirish uchun dastlab yerlarining bir qismi musodara qilindi. So'ng ular boshqaruv huquqidan ham mahrum etildi. Joylarda hokimiyat imperator tayinlaydigan **gubernatorlar** qo'liga o'tdi.

Harbiy islohotga ko'ra, Yaponiyada **umumiy harbiy majburiyat** joriy etildi. Samuraylar avvalgi qiyofasini yo'qotdi. Endi ular doimiy harbiy xizmatda bo'lish imtiyozidan ajradilar. Yevropacha nusxadagi yangi qo'shinning shakllantirilishi belgilandi. **Fransiya**dan harbiy mutaxassislar taklif etildi. Qo'shin Yevropadan sotib olingan zamonaviy qurollar bilan qayta qurollantirildi. Garchand qo'shin yevropacha andaza asosida tuzilgan esa-da, uning mafkurasi yaponcha bo'lib qolaverdi. Chunonchi, qurolli kuchlarda xizmat qiluvchilar ongiga o'z davlati manfaatlariga sodiqlik, imperatorga muhabbat va o'limni nazar-pisand qilmaslik g'oyalari singdirildi.

Iqtisodiy taraqqiyotning yangi xususiyatlari. Meydzi islohotlari mamlakatda feodal tarqoqlikka chek qo'ydi. Natijada yagona yapon ichki bozori vujudga keldi. Mamlakatda yagona pul birligi – **iyen** joriy etildi. Hukumat ishlab chiqarishni industrlashtirish masalasiga chet davlatlarning Yaponiya ichki ishlariga aralashuvi xavfidan himoya qiluvchi asosiy omil deb qaradi. Shuning uchun davlat sanoat korxonalari qurilishlariga homiylik qildi. Asosiy sanoat korxonalari davlat mablag'i hisobiga qurildi, keyinchalik ular imtiyozli asoslarda turli firmalarga sotildi yoki ijaraga berildi. Davlat tadbirkorlikni har tomonlama rag'batlantirdi va qo'llab-quvvatladi. Meydzi islohotlari tarixga **«Meydzi inqilobi»** nomi bilan kirgan.

14.6. XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA USMONLI TURKLAR IMPERIYASI

«Sharq masalasi». **XVIII asr oxiri**ga kelib Yevropaning buyuk davlatlari Turkiya imperiyasining zaiflashib qolganidan foydalanib uning mustamlaka hududlariga ko'z olaytirishni kuchaytirdilar. Bu hududlar

geografik va siyosiy jihatdan katta ahamiyatga ega, tabiiy boyliklarga, xomashyoga boy o'lkalar edi. Buyuk Britaniya, Fransiya, Avstriya va Rossiya hukmron tabaqalarining har biri bu o'lkalardan imkon qadar ko'proq o'ljani qo'lga kiritishga intildilar. Buyuk davlatlarning Turkiya imperiyasiga qaram o'lkalarga ega bo'lish uchun olib borgan o'zaro kurashlari **«Sharq masalasi»** nomini olgan.

Buyuk Britaniya va Fransiya imperiyani saqlab qolishga ham harakat qilganlar. Ular, bir tomondan, imperiya xalqlarining milliy ozodlik harakatini bostirishda sulton hukumatiga yordam ko'rsatganlar, ikkinchi tomondan, imperiyani o'z ta'sirlarida tutishga uringanlar. Rossiya esa imperiyaga qaram bo'lgan **Bolqon yarimorol**ida mustahkam o'rnashib olishga va Qora dengizning **Bosfor va Dardanell bo'g'ozlari**ni, shuningdek, **Istanbul**ni qo'lga kiritishga intilgan.

Avstriya gabsburglari esa Bolqonning Rossiya ta'sirida qolishiga toqat qilolmasdi. Aksincha, uning o'zi ham **Bolqon**da mustahkam mavqega ega bo'lib olishga intilgan. Bu davlatlar Turkiyada o'rta asr feodal jamiyatining saqlanib qolishidan manfaatdor edilar. Chunki shunday bo'lsagina imperiya iqtisodiy tanazzul holatida qolaverardi. Bu esa Turkiyaga bosqinchilikdan iborat rejalarini o'tkazishlarini ta'minlardi.

Sharq masalasining keskinlashuvi. **1827-yili Londonda Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya** o'rtasida **Gretsiya**ga muxtoriyat huquqi berilishini ko'zda tutuvchi bitim imzolandi. **1828-yili** Rossiya Turkiyaga urush e'lon qildi. Urushda Turkiya armiyasi tor-mor keltirildi. Bu urush **1829-yili Adrionopol** tinchlik shartnomasi imzolanishi bilan tugallandi. Shartnomaga ko'ra **Qora dengizning sharqiy qismi** Rossiyaga berildi.

Fransiya esa **1830-yili** Jazoirni bosib oldi. Sulton hukumatining bunday ketma-ket muvaffaqiyatsizligi Misr hukmdori **Muhammad Ali**ning bosh ko'tarishiga sabab bo'ldi. U **1832-yili** sulton qo'shinini tor-mor etgach, Istanbulga yo'l ochildi. Sultonni halokatdan Rossiya saqlab qoldi. Birinchidan, maqsadi Qora dengiz bo'g'ozlarini qo'lga kiritish bo'lgan Rossiya uchun kuchli Muhammad Alidan kuchsiz sulton hokimiyati ma'qul edi. Ikkinchidan, Muhammad Alining g'alabasi uni qo'llab-quvvatlayotgan Fransiyaning ham g'alabasiga teng edi. Bunga yo'l qo'yishni istamagan Rossiya Turkiya sultoniga o'z yordamini taklif qildi.

1833-yili Rossiya floti Bosfor bo'g'oziga kirdi. Oqibatda Muhammad Ali o'z qo'shinini Misrga qaytarib olib ketdi. Isyonning bostirilishida ko'rsatgan yordami uchun Rossiya Turkiya bilan ittifoqchilik shartnomasi tuzishga erishdi. Bu Rossiyaning katta yutug'i edi.

Buyuk Britaniya va Fransiya, tabiiyki, bunga toqat qilolmasdi. Endi ular Muhammad Alini qo'llab-quvvatlay boshladilar. Muhammad Ali **1839-yili** sultondan o'z qo'l ostidagi hududlarni boshqarish huquqini meros qoldirishga ruxsat berilishini talab etdi. Bu talab yangi urush boshlanishiga bahona bo'ldi. Urushda sulton qo'shini tor-mor etildi. Bundan buyuk davlatlar **Turkiya – Misr** munosabatlariga aralashish uchun foydalandilar. **1840-yili** ular Usmonli turk imperiyasining *«hududiy yaxlitligi va mustaqilligini ta'minlash ustidan nazorat o'rnatish»* to'g'risida bitim imzoladilar. Natijada Muhammad Ali chekinishga va yon berishga majbur bo'ldi. Ayni paytda, u **Misr va Sudan**ni boshqarishni meros qoldirish huquqini qo'lga kiritdi.

Imperiyaning yarim mustamlakaga aylanishi. Rossiyaning Turkiyaga qaram o'lkalarda mustahkamlanib olishga urinishlari **1853-yili Sharq urushi**ni keltirib chiqardi. Bu urush Rossiya tarixiga **Qrim urushi** nomi bilan kirgan. Rossiya podshosi **Nikolay I** sultondan Rossiyani Turkiya imperiyasiga qaram o'lkalarda yashovchi barcha pravoslav xalqlarining homiysi ekanini tan olishini talab etdi. Buyuk Britaniya va Fransiya sultonni bu talabni rad etishga undadilar. Oqibatda Rossiya – Turkiya urushi boshlandi. Urushda **Buyuk Britaniya, Fransiya va Turkiya** ittifoqi g'alaba qozondi. Biroq bu g'alaba Turkiyaning Buyuk Britaniya va Fransiyaga qaramligini yanada kuchaytirdi. Urush natijasida imzolangan **Parij** tinchlik shartnomasi Turkiya ustidan amalda G'arb davlatlarining «homiyligi»ni ta'minladi. Chet elliklarga Turkiyada yer va boshqa ko'chmas mulklar sotib olishga ruxsat etildi. Chet davlatlarga berilgan **konsessiyalar** kafolatlandi. Shu tariqa Turkiyaning yarim mustamlakaga aylanishiga yo'l ochildi.

G'arb davlatlarining Turkiyaga nisbatan tutgan siyosatlari qoloq feodal tartiblarni yanada mustahkamladi. **XIX asr 60-yillari**ga kelib mustamlakachi buyuk davlatlar Turkiyada uning siyosatini belgilashga imkon beruvchi iqtisodiy va siyosiy mavqega ega bo'lib oldilar. Ayni paytda, Turkiya moliyaviy qaramlik botqog'iga ham bota boshladi. **70-yillar**da uning chet davlatlardan qarzi **2,4 mlrd frank**ni tashkil etdi.

14.7. XVI – XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA AFG'ONISTON

Mustaqillik uchun kurash. **XVI asr**dan afg'onlar Eron safaviylariga qarshi uzoq yillar davomida kurash olib borganlar. Asosiy savdo yo'llarini **1649-yili** Eron safaviylari egallab oldi va bu holat **1709-yil**gacha davom etdi. Eron bosib olgan hududlarda, bir tomondan, afg'on qabilalarini bir-biriga gijgijlash yo'li bilan ularni kuchsizlantirishga urindi, ikkinchi tomondan,

qabilalar hukmdorlariga turli xil unvonlar va yer-mulklar berish evaziga ular bilan kelishish siyosatini yuritdi. Biroq bu siyosatdan ko'zlangan maqsadga erishilmagan. Aksincha, afg'on qabilalari o'z mustaqilliklari uchun qattiq kurash olib bordilar.

Bu davrda Eronda hukmron sulola chuqur tushkunlik davrini boshdan kechirayotgandi. **1709-yili Qandahor viloyati**da Eron bosqinchiligiga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olonga afg'onlarning **gilza qabilasi** xoni **Mir Vaysxon** rahbarlik qildi. Uning harbiy qismi tez orada Qandahorni bosib oldi.

Afg'oniston – Eron munosabatlari. Qisqa vaqt ichida Qandahor qudratli xonlikka aylandi. U **1722-yili** Eron poytaxti **Isfahon**ni ham egalladi va Mir Vaysxonning o'g'li **Mir Mahmud** o'zini Eron shohi deb e'lon qildi. Endi Eron mustaqillik uchun kurash boshladi. Bu kurashni Eron qo'shini qo'mondonlaridan biri **Nodir Quli** boshqardi. **1730-yili** Eron afg'on bosqinchilaridan to'la ozod etildi.

1736-yili Nodir Quli Eron shohi deb e'lon qilindi. U katta bosqinchilik urushlari ham olib bordi. Chunonchi, **1738-yili** Afg'onistonni ham bo'ysundirdi. Afg'onistonni itoatda tutish uchun Erondan **12 ming jangchi**ni oilalari bilan **Kobul** va boshqa shaharlarga ko'chirib keltirdi.

Afg'oniston davlatining tashkil topishi. **1741-yili** Nodirshoh vafot etgach, zulmga asoslangan imperiya ham parchalandi. Bu davrda Boburiylar imperiyasi yashayotgan bo'lsa-da, amalda hech qanday kuch-qudratga ega emasdi. Shu tariqa Afg'oniston davlatining tashkil topishi uchun qulay sharoit yetildi.

1747-yili afg'onlarning **abdali qabilasi** boshlig'i **Ahmadxon**ni qabila xonlarining jirg'asi (kengashi) Afg'oniston shohi deb e'lon qildi. Ahmadshoh qisqa vaqt ichida mamlakat hududini bosib olingan o'lkalar hisobiga kengaytiroldi. Bu g'alabalar evaziga u o'ziga **«Durri-Durron»** unvonini qabul qildi va abdali qabilasining nomini durroniy nomi bilan o'zgartirdi. Markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslik harakati va bosib olingan o'lka xalqlarining doimiy qo'zg'olonlari oqibatida durroniylar sulolasi hukmronligi zaiflashdi. Ahmadshohning vorislari bu ikki omilga qarshi qanchalik kurashmasinlar, ularni bartaraf etolmadilar. Ahmadshohning nabirasi **Zamonshoh (1793 – 1801)** bobosining harbiy yurishlarini davom ettirishga urinib ko'rdi.

Durroniylar sulolasi hukmronligining barham topishi. Biroq Zamonshoh ham ichki nizolarni bostirolmadi. Aksincha, uning o'zi fitna qurboni bo'ldi. Bu davrda vorislar o'rtasidagi toj-u taxt kurashi ham avj oldi. Bundan boshqa qabilalar xonlari foydalanishga urindilar. Chunonchi, **barakzaylar** yetakchisi **Fathxon** taxt uchun kurashda hali u vorisni, hali bu vorisni

qo'llab, davlatda bosh vazir lavozimini egallab oldi. **1809-yil**dan butun davlat ishlarini amalda o'z qo'lida to'plashga erishdi. U yirik harbiy sardorlardan biri, ukasi **Do'st Muhammadxon** yordamiga tayanardi. Ular Afg'onistonning deyarli barcha yirik viloyatlari hokimlarining o'zlariga qarashli kishilardan tayinlanishiga erishdilar.

Uzoq davom etgan ichki kurashlardan so'ng **1826-yili** Do'st Muhammadxon Afg'oniston taxtini egalladi va o'zini amir deb e'lon qildi. Shu tariqa durroniylar sulolasi hukmronligi barham topdi. Mamlakatda **barakzaylar sulolasi** hukmronligi o'rnatildi. Bu sulola hukmdori **Amir Do'st Muhammadxon** butun Afg'onistonni yagona davlatga birlashtirishga va uni kuchli davlatga aylantirishga harakat qildi.

Afg'on – Buyuk Britaniya urushi. Afg'oniston geografik jihatdan muhim strategik mintaqada joylashgani uchun, bu davlat hududida Buyuk Britaniya va Rossiya manfaatlari to'qnashdi. Buyuk Britaniya Afg'onistonni o'z ta'sir doirasiga olish maqsadida **1838-yili** unga hujum qildi. Qisqa vaqt ichida **Kobul**ni egalladi. Taxtga durroniylar sulolasi vakili **Shuju** o'tqazildi. Biroq erksevar afg'on xalqini bo'ysundirish oson emasdi. **1841-yili** Kobul aholisi qo'zg'olon ko'tardi. Bu qo'zg'olonda Do'st Muhammadxonning o'g'li **Akbarshoh** katta rol o'ynadi. Buyuk Britaniya qo'shini qo'mondonligi barcha harbiy qismlarini Afg'onistondan olib chiqib ketish to'g'risidagi shartnomani imzolashga majbur bo'ldi. **1842-yili** Buyuk Britaniya qo'shini Afg'onistondan chiqib ketdi. Shu tariqa Birinchi afg'on – ingliz urushi Buyuk Britaniya mag'lubiyati bilan tugadi. Do'st Muhammadxonning amirlik hokimiyati qayta tiklandi.

1842 – 1870-yillarda xalqaro munosabatlar. **1843-yili** «Ost-Indiya» kompaniyasi Hindistonning **Sind viloyati**ni ham bo'ysundirdi. Shu tariqa Britaniya mustamlakalari chegarasi Afg'onistonga tutashdi. Buyuk Britaniya bilan qayta urushni istamagan Do'st Muhammadxon **1855-yili** ingliz – afg'on do'stlik shartnomasini imzoladi. **1857-yili** Buyuk Britaniya bilan Afg'oniston o'rtasida harbiy shartnoma ham tuzildi. Bu shartnoma Buyuk Britaniya uchun Afg'onistonni vassal davlatga aylantirish yo'lidagi birinchi qadam bo'ldi.

1863-yili Do'st Muhammadxon vafot etgach, uning o'g'illari o'rtasida toj-u taxt uchun kurash avj oldi. Hindistonda bo'lib o'tgan sipohilar qo'zg'olonidan cho'chib qolgan Buyuk Britaniya Afg'oniston ichki ishlariga aralashmasligini bildirdi. Ikkinchi tomondan, O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinishi boshlangani ham Afg'oniston uchun xalqaro qulay vaziyat yaratdi. Shunday bir sharoitda Buyuk Britaniya Rossiya bilan kelishuv yo'lini izladi. Ularning fikricha, Afg'oniston bu ikki

mustamlakachi davlatlarning Osiyodagi mustamlakalarini ajratib turuvchi hudud vazifasini o'tashi kerak edi.

14.8. XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA ERON

Eronning xalqaro ahvoli. **XIX asr boshlari**ga kelib Eron xalqaro siyosatda muhim o'rin tuta boshladi. Bunga Buyuk Britaniya va Fransiyaning Sharqda hukmronlikni o'z qo'liga olish uchun boshlagan kurashlari hamda Rossiyaning Kavkazni qo'lga kiritishga intilayotgani sabab bo'ldi. Buyuk Britaniya va Fransiya Rossiyaning Kavkazda mustahkamlanib olishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bu o'lkada katta hududlarni bosib olgan Eronni qo'llab-quvvatlay boshladi. Biroq bu hol Rossiyaning Kavkazga nisbatan siyosatini o'zgartirolmagan. Aksincha, Rossiya Eron bilan urushda birin-ketin g'alaba qozonib, o'zi uchun qulay shartnomalar tuzilishiga erishgan. Chunonchi, **1813-yili** bu ikki davlat o'rtasida imzolangan shartnoma Rossiyaga **Kavkaz**da yanada mustahkamlanib olishga imkon berdi. **1826 – 1828-yillari** bo'lib o'tgan **Eron – Rossiya** urushida Eron yana yengildi. Ikki davlat o'rtasida imzolangan **Turkmanchoy** shartnomasiga ko'ra Rossiyaning Kavkazdagi mavqeyi yanada mustahkamlandi. Eron esa Kavkazorti hududlariga bo'lgan da'vosidan voz kechdi.

Eronning Buyuk Britaniya bozoriga aylanishi. Rossiya bilan urushdagi mag'lubiyat va uning oqibatlari Eron hukmron tabaqalari o'rtasida keskin norozilik keltirib chiqardi. Oqibatda Eronning qator viloyatlarida yirik yer-mulk egalari boshchiligida shohga qarshi isyon ko'tarildi. Buyuk Britaniya Eronning og'ir ahvolidan foydalanib **1841-yili** uni noteng shartnomani imzolashga majbur etdi. Unga ko'ra, Buyuk Britaniya Eron bilan savdo-sotiq ishlarida katta imtiyozlarga ega bo'lib oldi. Oqibatda Eron bozorlarini yengil sanoat mahsulotlari bilan to'ldirib tashladi. Shu tariqa Eron yirik mustamlakachi Buyuk Britaniyaning sanoat mahsulotlari sotiladigan bozoriga aylanib qoldi. Bu mamlakatda pulga bo'lgan ehtiyojni oshirib yubordi. Natijada davlat apparatidagi mansablarni sotish va sotib olish kuchaydi. Viloyat hokimlari, katta-katta yer-mulk egalari davlat xazinasiga soliq to'lamay qo'ydi. Bu omillar mehnatkashlar orasida keskin norozilikka sabab bo'ldi. Bu esa **Bobiylar qo'zg'oloni**ni keltirib chiqardi.

Bobiylar qo'zg'oloni. Qo'zg'olon shoh tuzumi zulmiga va yer egaligiga qarshi qaratilgandi. Qo'zg'olon ishtirokchilari, asosan, hunarmandlar, mayda savdogarlar, shahar kambag'allari va shahar atrofida yashovchi dehqonlar edi. Qo'zg'olonga quyi tabaqadagi **nahoniylar** va bobiylik tarafdori bo'lgan **savdogarlar** boshchilik qilgan. **1848-yili** boshlan-

gan qo'zg'olon tarixga Bobiylar qo'zg'oloni nomi bilan kirgan. Chunki qo'zg'olonchilar bobiylik ta'limoti tarafdorlari bo'lgan. Ta'limot asoschisi **Sayid Ali Muhammad** o'ziga **Bob** taxallusini qabul qilgandi.

Sayid Ali Muhammad **1819-yili Sheroz**da tug'ilgan, mayda savdogarning o'g'li edi. **1844-yili** o'zini Bob (arabcha eshik, darvoza), ya'ni *«haqiqat va adolat yo'liga olib boruvchi eshik»* deb atay boshlaydi. Bobiylik ta'limoti asosida ilohiy xaloskor (Mahdiy)ning kelishi yaqinlashgani g'oyasi yotadi. Shu tufayli Bob Mahdiyning xohish-irodasi, ko'rsatmalari, yo'l-yo'riqlari xalqqa men orqali yuboriladi deb targ'ib qilgan. U **«Bayon»** nomli kitob yozgan. Kitobda bobiylar harakatining asoslari yoritib berilgan. Bob kitobida o'zini Muhammad (s.a.v.) o'rniga kelgan payg'ambar deb, «Bayon» kitobini esa Qur'oni Karim o'rnini bosuvchi kitob deb e'lon qilgan.

Bobiylar shaxsni himoya qilish, kambag'allardan olinadigan soliqlarni bekor qilish, yirik yer egaligini tugatish, barcha mol-mulklarni odamlarga teng taqsimlash kabilarni talab etganlar. Ayni paytda, ular mavjud dinni bekor qilish va davlat tuzumini ag'darib tashlash tarafdorlari bo'lganlar. Bobiylar qo'zg'oloni **1850-yil o'rtalari**gacha davom etdi. Oxir-oqibatda shoh qo'shini qo'zg'olonni bostirishga erishdi. Sayid Ali Muhammad esa qatl etildi.

Eron – Buyuk Britaniya urushi. Buyuk Britaniya Eronning kuchsizlanib qolganidan foydalanishga qaror qildi. O'rta Osiyodagi bosqinchilik maqsadlarida **Hirot shahri**ning katta ahamiyatga egaligini bilgan Buyuk Britaniya **1853-yili Eron**ni rasman Hirotga da'vosidan voz kechishga majbur etdi. Biroq **1856-yili** Eron Hirotni bosib oldi. Bunga javoban Buyuk Britaniya Eronga urush e'lon qildi. Ikki davlat o'rtasida boshlangan harbiy harakatda Eron mag'lubiyatga uchradi.

1857-yili Buyuk Britaniya va Eron o'rtasida **Parij** tinchlik shartnomasi imzolandi. Shartnomaga ko'ra, Eron Hirotga va Afg'onistonning boshqa hududlariga da'vosidan butunlay voz kechdi. Eron – Afg'oniston o'rtasida nizo kelib chiqqudek bo'lsa, bu nizo Buyuk Britaniya vositachiligida hal etiladigan bo'ldi. Parij tinchlik shartnomasi Buyuk Britaniyaning Erondagi ta'siri sezilarli darajada o'sishiga xizmat qildi.

14.9. XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA AFRIKA XALQLARI

«Qora qit'a». Afrika xalqlari **XIX asr**da ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida yashashardi. Chunonchi, **Efiopiya, Misr, Tunis, Marokash, Sudan** va **Madagaskar** kabi davlatlarda monarxiya tuzumi

qaror topgan bo'lsa-da, ba'zi qabilalar ibtidoiy jamoa tuzumida yashardilar. Qabilalaming turmush tarzi daydilikdan iborat edi. Ularning kichik-kichik guruhlari o'zlari uchun qat'iy belgilangan hudud chegarasidagina ovchilik va termachilik bilan shug'ullanishgan. **Angola**da yashovchi **bushmenlar** esa tosh davri odamlari kabi hayot kechirishgan. G'arbiy Afrikadagi **Gana** va **Mali** davlatlari eng qadimgi davlatlar hisoblangan. Afrikada qishloq xo'jaligi yuksak taraqqiy etgan xalqlar, asosan, qahva, yeryong'oq va kakao yetishtirganlar.

Afrikaning bo'lib olinishi. Bitmas-tuganmas boyliklarga ega Afrika Yevropaning buyuk davlatlari e'tiborini tortmay qolmasdi. Yevropa davlatlarining bosqinchiligi Afrika xalqlari hayotini keskin o'zgartirib yubordi. An'anaviy savdo aloqalari uzildi. Mahalliy ishlab chiqarish vayron bo'ldi. Qul savdosi uchun odam ovlash **XIX asr o'rtalari**gacha davom etdi. Portugaliya mustamlakalari – **Angola** va **Mozambik** eng muhim qul savdosi bazalari edi. **XIX asr 70-yillari**dan qit'aning ichkari qismini ham mustamlakaga aylantirish boshlandi. **XIX asr oxiri**ga kelib qit'a hududining **90 foizi** mustamlakachilar qo'liga o'tdi. Faqat ikki davlat – **Liberiya va Efiopiya** o'z mustaqilligini saqlab qololdi, xolos.

Liberiya. Uning tashkil topishi AQShda qulchilikka qarshi kurash bilan bog'liqdir. **1816-yili** AQShda erkinlikka erishgan qora tanli qullarni Afrikaga joylashtirish harakati boshlandi. Natijada **1821-yili Gvineya** qirg'oqlarida **13 ming km** yer maydoni sotib olindi. U yerda **Monroviya** (AQSh Prezidenti **Monro** nomidan) manzilgohi tashkil etildi va Amerikaning sobiq qul negrlaridan bir qismi bu yerga joylashtirildi. Joylashib olgan sobiq qul negrlar manzilgoh hududini kengaytira bordilar. **1847-yili Liberiya** (erkin) davlati tuzilganini e'lon qildilar. O'z davlatlarida G'arbiy Yevropa va Shimoiy Amerikaning ilg'or andazalaridagi tartib-qoidalarni joriy etdilar. Mamlakat konstitutsiyasi barcha fuqarolaming qonun oldida tengligini, yashash, erkinlik, xavfsizlik va baxt har bir fuqaro huquqi ekani e'lon qilindi. Liberiya Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasidagi raqobat munosabatlaridan ustalik bilan foydalanib o'z mustaqilligini saqlab qololdi.

Efiopiya. Mamlakatni chet ellik dushmanlar bosib olish xavfi tobora kuchayib bordi. Shunday bir sharoitda Efiopiya siyosiy maydonida kichik yer egasining o'g'li **Kasa** paydo bo'ldi. U Efiopiyani yagona davlatga birlashtirdi va **1855-yili** o'zini imperator deb e'lon qildi. U yaxshi harbiy tayyorgarlik ko'rgan qo'shin tuzoldi. Yirik feodallarni o'z qurolli kuchlariga ega bo'lish huquqidan mahrum etdi. Mamlakatda iqtisodiyotni ko'tarishga qaratilgan qator islohotlar o'tkazdi. Imperator har bir

fuqaroni o'zlari oldin shug'ullangan mehnat faoliyatini davom ettirishga chaqirdi. Biroq uning islohotlari yirik feodallar va cherkov qarshiligiga uchradi. Buyuk Britaniya aralashuvi bilan **1867-yili** Kasa hokimiyati ag'darildi. Biroq Buyuk Britaniya Efiopiyada mustahkamlanib ololmadi. Efiopiya xalqining o'zgalarga qaram bo'lmaslik yo'lidagi irodasi Buyuk Britaniyaning harakatlarini yo'qqa chiqardi. Shu tariqa Efiopiya ham o'z mustaqilligini saqlab qoldi.

Janubiy Afrikaning mustamlakaga aylantirilishi. **XIX asr boshlari**da Buyuk Britaniya Janubiy Afrikadagi gollandlarga qarashli **Kap koloniyasi**ni bosib oldi. Koloniya aholisi **burlar** deb atalardi. Burlar Janubiy Afrikadagi **golland, fransuz, nemis mustamlakachilari avlodi** edi. Burlar endi u yerdan ko'chishga majbur bo'ldilar. Ular yangi joyda ikkita davlat tuzdilar. Ulardan biri **Erkin Oranj Respublikasi**, ikkinchisi esa **Transvaal** deb ataldi. Burlar mahalliy aholiga nisbatan o'ta shafqatsiz munosabatda bo'ldilar. Buyuk Britaniya bu ikki davlatning paydo bo'lishini istamasa-da, **1852-yili** Transvaalni, **1854-yili** esa Erkin Oranj Respublikasini vaqtincha bo'lsa-da tan oldi.

Fransiya mustamlakalari. Misrda **XVIII – XIX asrlar** chegarasida **mamluk** jangchilar (asosan, qullikka tushirilgan **Gruziya** va **Shimoliy Kavkaz** aholisi) va mahalliy aholi mamlakatga bostirib kirgan Napoleon Bonapart boshchiligidagi fransuz qo'shiniga qarshi kurashda qatnashdi. Fransuz qo'shinlarining qolgan-qutgani taslim bo'lgach, misrliklar Buyuk Britaniya qo'shinini haydab chiqarish uchun kurashdilar. Rasman Misr Usmonli turklar imperiyasining oliy hokimiyati ostida bo'lsa-da, amalda deyarli to'la mustaqillikni saqlab qolgandi. Fransiya **1830-yili** Jazoirni bosib oldi. Jazoir aholisi fransuz mustamlakachilariga shiddatli qarshilik ko'rsatdi. Istilochilarga qarshi milliy ozodlik kurashini olib bordi. Kurashda jazoirliklar yo'lboshchisi **Abdulqodir** alohida rol o'ynadi.

1847-yili Abdulqodir qo'shini qurshab olindi va tor-mor etildi. Abdulqodirning o'zi halok bo'ldi. Biroq milliy ozodlik kurashi to'xtab qolmadi. Jazoirliklar o'n yillar davomida istilochilarga qarshi partizanlar urushi olib bordilar. Marokash aholisi mamlakat ichkarisiga kirib borgan portugal, ispan va fransuz mustamlakachilariga muvaffaqiyatli ravishda qarshilik ko'rsatdi. Hind okeanida Fransiya **Madagaskar orol**ini bosib olishga bir necha bor urinib ko'rdi, lekin muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

15-BOB. IJTIMOIY HARAKATLAR, ILM-FAN VA MADANIYAT RAVNAQI

15.1. YEVROPADA XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA IJTIMOIY HARAKATLAR

G'arbiy Yevropada ijtimoiy harakat. Ijtimoiy harakat deganda jamiyatning mehnatkash aholisi katta qismining ehtiyojlari va manfaatlari yo'lida ixtiyoriy ravishda xizmat qilish tushuniladi. Bunday harakat barcha zamonlarda mavjud bo'lgan. Ular bir-biridan mazmun va maqsadiga ko'ra farq qilgan. Ana shunday harakatlardan biri **sotsialistik harakat** edi. Mazkur harakat tarafdorlari sotsialistlar, ular orzu qilgan va kurashgan kishilik jamiyati esa **sotsializm** yoki **sotsialistik jamiyat** deb atalgan.

Sotsialistlar jamiyatdagi xususiy mulkni umumxalq mulkiga aylantirish orqali kishilarga erkinlik, tenglik, farovonlik va baxt-saodat beradigan jamiyatni sotsialistik jamiyat deb hisoblaganlar. «Sotsializm» atamasi **XIX asr 30-yillar**ida **Fransiya**da paydo bo'lgan.

Fabrika, zavod, shaxta va ruda konlarida kunlik ish vaqti **12 – 15 soat**ni tashkil etgan. Ularning egalari – kapitalistlar ishchilarni ekspluatatsiya qilishni tobora kuchaytirganlar. Ishchilarga juda kam ish haqi to'laganlar. Xotin-qizlar, hatto yosh bolalar mehnatidan ham keng foydalanganlar. Ish haqini esa katta yoshdagi erkak ishchilarga nisbatan juda kam to'laganlar. Mehnatni muhofaza qilish choralari ko'rilmagan. Natijada ishchilarning ishlab chiqarish jarayonida mayib-majruh bo'lib qolish holatlari borgan sari ko'payib borgan. Bu hodisalar ilg'or kishilarni xususiy mulkdan, yollanma mehnatga asoslangan ishlab chiqarishdan va uni vujudga keltirgan jamiyatdan hafsalalarini pir qilgan. Mehnatkash xalqning og'ir ahvoli ularni tashvishlantirgan, qayg'uga solgan va adolatli jamiyat haqida o'ylashga majbur etgan. O'zlari adolatli deb hisoblagan jamiyatning belgilari va unga erishish yo'llari haqidagi qarashlarini ilgari surganlar. Yevropada bunday g'oyalarni ilgari surgan kishilar **utopik sotsialistlar** deb, ularning ta'limoti esa **utopik sotsializm** deb atalgan.

Utopik sotsializm. Utopik sotsializmning G'arbiy Yevropadagi yirik vakillari fransiyalik **Sen-Simon, Sharl Furye** va buyuk britaniyalik **Robert Ouen** edi. Ular o'zlari yashayotgan jamiyat illatlarini va adolatsizligini ayovsiz tanqid qildilar. Utopik sotsialistlar badavlat tabaqalarning hokimiyatini, ularning shafqatsizligini va ochko'zligini hamda bosqinchilik urushlarini qoraladilar. Hukmron tabaqalarni xususiy mulkchilik o'rniga umumiy mulkchilikni joriy etishga, jamiyat boyliklarini adolatli taqsimlash-

ga, bosqinchilik urushlariga chek qo'yishga va shular orqali mehnatkash xalqning kulfatlariga barham berishga da'vat etdilar.

Sh.Furye mavjud adolatsiz jamiyat o'rniga mehnat jamoalariga asoslangan jamiyat qurishni taklif etdi. U bunday jamoani **falanga** deb atadi. Falangada mehnatga yaroqli barcha kishilar mehnat qilishi shart edi. Ular birgalikda sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishlari hamda umumiy uyda yashashlari zarur edi. Shunday qilingandagina mehnat quvonch va zavq manbayiga aylanardi.

R.Ouen katta mulkdor bo'lgani uchun o'z fabrikasida ishlayotgan ishchilarning ish vaqtini qisqartirdi,ularga yaxshi mehnat sharoiti yaratib berdi hamda yaxshi ish haqi to'ladi. Ishchilarning bolalari uchun yasli va bog'chalar ochdi. Keksalarga esa pensiya tayinladi. U boshqa mulkdorlar ham mendan namuna oladi deb o'ylagandi. Biroq uning o'ylari puch bo'lib chiqdi. Sen-Simon, Sh.Furye va R.Ouen orzu qilgan adolatli jamiyatni ular taklif etgan yo'l, ya'ni mulkdor tabaqalarni insofga chaqirish yo'li bilan qurib bo'lmasdi. Shuning uchun ularni **utopistlar**, ya'ni xayolparastlar, ular orzu qilgan adolatli jamiyat esa utopik (xayoliy) sotsializm deb atalgan.

Germaniya utopik sotsialistlari. Germaniya utopik sotsializmi namoyandalari **Karl Marks** va **Fridrix Engels** edi. O'z o'tmishdoshlaridan farqli o'laroq, ular kapitalizmni kuch bilan ag'darib tashlash g'oyasini ilgari surganlar. Bu vazifani kapitalistik korxonalarda yollanib ishlayotgan proletariat-ishchilar sinfi bajarishi kerak edi. K.Marks va F.Engels ta'limoti o'z o'tmishdoshlari ta'limotidan qanchalik farq qilmasin, baribir, u ham utopik ta'limot edi.

Rossiyada ijtimoiy harakat. Rossiya imperiyasidagi ijtimoiy harakatning yetakchi arboblari **V.Belinskiy** va **A.Gersen** edi. Ular **XIX asr 40 – 50-yillari**da ijod qildilar. V.Belinskiy podsho hokimiyati va krepostnoylikni tugatish lozim deb hisobladi. Jamiyatga aql-idrokka va adolatga mos keluvchi qonunlar kerakligi to'g'risidagi g'oyalarni ilgari surdi. Podsholik hokimiyatiga va krepostnoylikka qarshi kurash xalq orasida ma'rifat tarqatishdan boshlanishi kerak deb hisobladi.

A.Gersen ham barcha mehnat qiladigan jamiyatning tarafdori bo'lgan. Uning fikricha, Rossiyadagi dehqonlar jamoasi sotsializmning asosi bo'lishi lozim edi. Dehqonlarga ajratib berilgan yer o'sha qishloq jami aholisining mulki hisoblanardi. Bu yer vaqti-vaqti bilan dehqon xonadonlari o'rtasida oiladagi erkaklar soniga qarab qayta taqsimlanishi, o'rmon, yaylov, suv jamoaning umumiy mulki bo'lishi lozim edi.

15.2. ILM-FAN TARAQQIYOTI

Aniq fanlar daholari. **XVII – XVIII asr boshlari**da aniq fanlar sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Bu muvaffaqiyatlar, birinchi navbatda, ingliz olimi **I.Nyuton (1642 – 1727)** va nemis olimi **G.V.Leybnis (1646 – 1716)** nomlari bilan bog'liq. I.Nyuton **14 yosh**ga kirganida fan uning asosiy mashg'ulotiga aylandi. Uning fizika fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasi **butun olam tortishish, mexanik harakat va nurning tarqalish qonunlari**ni kashf etgani bilan belgilanadi.

I.Nyuton **1671-yili** shisha linza, eng katta teleskoplardan ko'ra osmon jismlarini yaxshiroq ko'rsatadigan kichkina oynali teleskop ham ixtiro qildi. Shu tariqa olim yulduzlar olamini odamlarga yanada «yaqinlashtirdi». Fan sohasida erishgan katta muvaffaqiyatlari uchun **30 yosh**ga ham to'lmagan I.Nyuton Qirollik jamiyati a'zosi (akademik) etib saylandi.

G.V.Leybnis **15 yoshi**da universitet talabasi bo'ldi. U **faylasuf, matematik va tarixchi olim** bo'lib yetishdi. **1700-yili** Berlin Fanlar akademiyasiga asos soldi va uning birinchi prezidenti etib saylandi. U: *«Umumiy, zaruriy bilimning asosi faqat aql bo'lishi mumkin»*, – deb yozgandi. Fizikada **«yetarli asos qonuni»**ni birinchi bo'lib izohlab berdi. Matematikada esa **differensial va integral hisoblash**ni kashf etdi. **Katta sonlarni hisoblash mashinasi**ni, **mayatnikli soat**ni yaratdi.

M.V.Lomonosov. Buyuk rus shoiri A.S.Pushkin M.Lomonosov haqda shunday yozgandi: *«Tarixchi, notiq, mexanik, kimyochi, minerolog, rassom va shoir. U hamma narsani sinab ko'rgan va hamma narsani o'rgangan»*.

M.Lomonosov Moskvadagi Slavyan-yunon-lotin akademiyasida o'qidi. So'ng Germaniya universitetlarida kimyo va metallurgiya fanlaridan ta'lim oldi. Vatanga qaytgach Peterburg Fanlar akademiyasida ishlay boshladi. M.Lomonosov yangi fan – **fizik kimyo**ga asos soldi. Mamlakatda birinchi kimyo laboratoriyasini tashkil etdi. Ilmiy kashfiyotlari uni butun Yevropaga tanitdi. M.Lomonosov Shvetsiya va Bolonya Fanlar akademiyalarining faxriy a'zoligiga saylangandi.

Fanning boshqa sohalaridagi kashfiyotlar. Yerosti foydali qazilmalariga talabning tobora ortib borishi yer qobig'i xossalarini o'rganish zaruratini vujudga keltirdi. Natijada qator tog' jinslarining vujudga kelish jarayoni aniqlandi. Bu esa Yer haqidagi fan – **geologiya**ni rivojlantirishga imkon berdi.

Meditsina (tibbiyot) sohasida ham muhim kashfiyotlar amalga oshirildi. Chunonchi, **XVII asr**da golland olimi **A.Levenguk 300 marta**

kattalashtirib ko'rsatadigan **mikroskop** yaratdi. Bu esa inson tanasi, o'simliklar, hayvon dunyosi tuzilishini batafsil o'rganish va bakteriyalarni aniqlash imkonini berdi. Keyinchalik mikroskop yordamida ko'pgina bakteriyalarning kasalliklarga sababchi ekani isbotlandi.

XVIII asrda ingliz shifokori **E.Jenner** odamga chechak kasali sigirdan yuqsa, uning yengil o'tishini, so'ngra bu kasalni yuqtirgan kishida chechakka qarshi immunitet paydo bo'lishini, ya'ni unga chechak kasali boshqa yuqmasligini aniqladi. Ana shu kuzatishlarga asoslanib Jenner **chechakka qarshi emlash usuli**ni kashf etdi. Bu esa millionlab kishilarning hayotini saqlab qoldi.

Matematikaning muvaffaqiyatlari, Nyuton kashfiyotlari va teleskopning takomillashtirilishi **XIX asr**da **astronomiya**ni rivojlantirishga qudratli turtki berdi. Minglab ilgari ma'lum bo'lmagan yulduzlar kashf etildi. **1846-yili** osmonni teleskop orqali kuzatish yordamida **Neptun sayyorasi** kashf etildi. Quyosh va Oy tutilishlarining muddatlarini aniqroq hisoblab chiqish va oldindan aytib berish imkoni tug'ildi. Astronomiya ma'lumotlaridan kalendar (taqvim), geografik xaritalar tuzishda, dengiz kema qatnovida foydalanildi.

1842-yili ingliz fizigi **D.Joul** va nemis fizigi **Y.Mayer** tajriba yo'li bilan **energiyaning saqlanish qonuni**ni asoslab berdilar. Kimyoviy elementlar atom og'irligining ortib borishi tartibida joylashtirilsa, ularning xossalari davriy tarzda takrorlanishi aniqlandi. Shu qonunga asoslanib buyuk rus olimi **D.I.Mendeleyev 1869-yili elementlarning davriy sistemasi**ni yaratdi.

Transport va aloqa. **XIX asr** transport sohasida **temir** va **bug'** asri bo'lib qoldi. **1840-yili** jahon mamlakatlarida barcha temir yo'llarning uzunligi **7700 km ni** tashkil etardi. Uning katta qismi **Buyuk Britaniya va AQSh** hissasiga to'g'ri kelardi. **XIX asr 40-yillari**dan temir yo'l qurilishi **Germaniya va Fransiya**da ham boshlandi. **1870-yil**ga kelib jami **200 ming km** temir yo'l qurilgandi.

XIX asr 20-yillaridan bug' mashinalari bilan harakatga keltiriladigan **g'ildirakli daryo paroxodlari**dan keng foydalanila boshlandi. Keyinroq, **30-yillar oxirlari**dan, g'ildirakli paroxodlar okean orqali Hindiston va Amerikaga qatnay boshladi. Bora-bora g'ildiraklar o'rnini **eshkak vintlar** egalladi. **50 – 60-yillar**da G'arb mamlakatlarida yelkanli dengiz floti o'z o'rnini **paroxodlar**ga bo'shatib bera boshladi. Aloqa vositalari ham takomillashtirildi. Elektr simli **telegraf** kashf etildi. **Morze alifbosi** ixtiro qilindi va harf bosuvchi qurilmalar yaratildi. **XIX asr o'rtalari**da quruqlikdagi telegraf liniyalardan tashqari suvosti kabellari ham yotqizila

boshlandi. Buyuk Britaniyadan Amerikaga Atlantika okeani tubi orqali dastlabki telegraf kabeli **60-yillar oxiri**da o'tkazildi. Texnika muvaffaqiyatlari mehnat unumdorligini oshirish imkonini berdi.

15.3. ADABIYOT VA SAN'AT

Adabiyot. Bu davrning ko'zga ko'ringan ma'rifatchi yozuvchilaridan biri **Daniyel Defo (1660 – 1731)** edi. Uning **«Robinzon Kruzoning hayoti va g'aroyib sarguzashtlari»** asari hamon sevib o'qiladi. Shotlandiyalik dengizchi **A.Selkrik**ning kimsasiz oroldagi **4 oyga yaqin** sarguzashtlari yozuvchining qalamida **28 yillik** g'aroyib sarguzasht bayoniga aylangan.

Robinzon Kruzo – ishbilarmon, mehnatsevar, o'z kuchiga ishonuvchi inson. U kimsasiz orolda tirishqoqlik bilan uy quradi, idish-tovoq tayyorlaydi. Mebel yasaydi, hayvonlarni o'ziga o'rgatadi va ularni ko'paytiradi. Robinzon boshqalarni ham ishlashga majbur qila oladi. Bunga o'limdan qutqarib qolingan yovvoyi **Jumavoy** obrazi misoldir. Robinzon yangi shakllanayotgan qatlam – burjuaziya vakili obrazidir. Unda uchinchi tabaqa vakilining uddaburonligi va sog'lom fikri aks etgan.

Bu davrning yana bir mashhur yozuvchisi **J.Svift (1667 – 1745)** edi. **1726-yili** uning **«Gulliverning sayohatlari»** nomli romani bosmadan chiqdi. Romanda Liliputlar mamlakatini **«Olamning quvonchi va dahshati»** deb ataluvchi ushoqdekkina bir maxluq boshqaradi. Liliput, aslida, ingliz cheklangan (konstitutsiyaviy) monarxiyasining, «Olamning quvonchi va dahshati» esa ingliz qirolining karikaturasi edi. Asardagi Ulkanlar mamlakatining ma'rifatli monarxi dono, saxiy. U olim, urushni qoralovchi, san'atni sevuvchi, ilm-fanga homiylik qiluvchi, ayni paytda, aqlli tartib o'rnatishga intiluvchi hamdir.

Fransuz yozuvchisi **P.Bomarshe (1732 – 1799)** ma'rifat asrining so'nmas vakillaridan biri edi. U mashhur **«Figaroning uylanishi»** komediyasi muallifi. Asar qahramoni Figaro chaqqon, yoqimtoy va hazilkash xizmatkor. U «dunyo zo'rlari»ning kirdikorlarini masxara qilib hazillashadi. Jahldorlardan qo'rqmaydi. Qashshoq bo'lsa-da, o'zining insoniy qadrini sotmaydi. Komediya Parij teatrlarida katta shuhrat qozondi. Figaroning mavjud tuzum kirdikorlarini fosh qiluvchi o'tkir so'zlari hech kimni befarq qoldirmagan. Hatto qirol **Lyudovik XVI** bu asar haqida g'azab bilan: *«Buni sahnada qo'yish uchun Bastiliyani vayron qilish kerak!»* – deb xitob etgandi.

Yana bir ajoyib yozuvchi **F.Shiller (1759 – 1805) Germaniya**da ijod qildi. Bu davrda Germaniya **300 ga yaqin** mayda-mayda knyazliklarga

bo'linib ketgandi. U yozgan pyesalar nemis xalqi uchun o'ziga xos ma'rifat alifbosi vazifasini o'tadi. Teatr o'rindiqlarini to'ldirib o'tirgan tomoshabinlar yoqib qolgan qahramonlari bilan birga zulmdan ozod bo'lishni orzu qilganlar. Tomoshabinlar obro'li aslzodalarning, aslida, muttahamlarning ayyorligidan g'azablanganlar. Oshiq qalblarning halokatiga esa achchiq-achchiq yig'laganlar. Asar qahramonlaridan biri **Karl Moor** o'zi yashayotgan dunyoning bezagi va pastkashligiga qarshi urush e'lon qilib deydi: *«Menga xuddi o'zimdek bir necha shoir kishilarni beringlar va Germaniya respublika bo'ladi».*

Bu davrda yana bir mashhur nemis shoiri **I.Gyote (1749 – 1832)** yashadi va ijod qildi. Uning **«Faust»** asari jahon adabiyotidagi shoh asarlardan hisoblanadi. Shoir bu falsafiy asarni **60 yil** davomida yaratdi. Asar inson kurashining buyukligini tasdiqlaydi va ma'rifat asrini yakunlaydi.

Onore de Balzak. **XIX asr 1-yarmi**da ijod qilgan yozuvchilardan biri fransiyalik **Onore de Balzak (1799 – 1850)** edi. U burjuaziya jamiyatini haqqoniy tasvirlashda beqiyos yozuvchi bo'lgan. Balzak o'z asarlarini **«Insoniy komediya»** degan umumiy nom ostida yaratdi. Uning maqsadi badiiy obrazlar orqali jamiyatning ma'naviy qiyofasini ochib berish, jamiyatdagi barcha tabaqalarning tipik vakillarini ko'rsatishdan iborat edi. Balzak romanlari qahramonlari jinoyatlar evaziga o'z boyliklarini ko'paytirayotgan bankirlar va savdogarlar, berahm va shafqatsiz sudxo'rlar, o'z hayotini behuda o'tkazayotgan mansabparast va shuhratparast kishilar– o'z maqsadlariga har qanday vositalar bilan erishadigan kishilardir. Balzak asarlari burjuaziya jamiyatiga qarshi o'ziga xos aybnoma edi.

Aleksandr Sergeyevich Pushkin. **XIX asr**ning yana bir yirik ijodkori rossiyalik **A.S.Pushkin (1799 – 1837)** edi. U **Moskva shahri**da tug'ildi. Peterburg litseyida ta'lim oldi. Pushkin – rus adabiy tilining shakllanishiga ulkan hissa qo'shgan shoir. U Rossiyada krepostnoylik zulmi kuchaygan, erkin fikrli kishilarni ta'qib etish avj olgan davrda yashadi. A.S.Pushkin podshoning mustabid hokimiyatini ag'darish uchun kurashgan dekabristlarga xayrxohlik bildirdi. O'z she'rlarida zulm va krepostnoylikni qoraladi. Bu esa podsho va hukmron tabaqalarda norozilik uyg'otdi. Shu tufayli u bir necha marta surgun qilindi. Pushkinning rus adabiyoti oldidagi xizmatlari buyuklashgan va ijodiy faoliyati yangi-yangi qirralar kasb etib borgan sari, uning atrofidagi qora kuchlar bir-birlari bilan birlasha va faollasha boshladilar. Ular turli ig'volar tarqatib, oxir-oqibatda u bilan Fransiya elchisining o'g'li **J.Dantes** o'rtasida duel uyushtirishga erishdilar. Ulug' shoir duelda halok bo'ldi.

Yevropaning mashhur musiqachilari. Bu davrning mashhur musiqachilari nemis kompozitorlari **I.Bax (1685 – 1750), V.Motsart (1756 – 1791)** va **L.Betxoven (1770 – 1828)** edi. Baxning xor, solistlar va orkestr uchun yozgan ulkan asari **«Matveyning uqubatlari»** deb ataladi. Unda Isoning shogirdi Matvey hikoya qilib bergan Isoning uqubatlari tarannum etilgan. Injildagi rivoyat asosida Bax odamlarni qutqarish uchun o'zini qurbon qilgan qahramon dramasini bayon etgan.

V.Motsartni zamondoshlari **«XVIII asrning haqiqiy mo'jizasi»** deb atashgan. Haqiqatan ham shunday. Chunonchi, u **3 yoshi**dan musiqa o'rgana boshlagan. **5 yoshi**da o'zining birinchi konsertini yozgan. **12 yoshi**da yozgan operasi **Milan** (Italiya) teatrida qo'yilgan. **14 yoshi**da esa Italiyadagi eng obro'li musiqa akademiyasi a'zosi etib saylangan.

1786-yili P.Bomarshening «Figaroning uylanishi» komediyasiga bastalangan opera qo'shiqlari va musiqasi mashhur bo'lib ketdi. Uning so'nggi asari **«Rekviyem»** (Sokinlik) edi. U cherkovlarda marhumning xotirasiga bag'ishlab ijro etiladigan hayot va o'lim, inson qismati haqidagi asardir.

Betxoven ayanchli hayot kechirdi. U eshitish qobiliyatini deyarli yo'qotgandi. Shunga qaramay, kompozitor taslim bo'lmadi. U mashaqqatli ijod yo'lida o'zi bilan o'zi kurash olib bordi. Natijida Betxoven barchani hayratga soladigan musiqalar yaratdi.

Ular ichida **«Fantaziya yo'lida sonata»** va **«Qahramonnoma simfoniya»**si kabi asarlari, ayniqsa, mashhurdir. Simfoniya markazida bo'ysunmas, isyonkor, taqdirning hech qanday zarbasi sindira olmaydigan jasur, qo'rqmas inson obrazi turadi.

IV BO'LIM. JAHON XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA

16-BOB. DUNYONING IJTIMOIY-IQTISODIY VA SIYOSIY MANZARASI

16.1. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA KAPITALIZM TARAQQIYOTIDA YUZ BERGAN TUB O'ZGARISHLAR

Monopolistik kapitalizm. **XIX asr oxiri – XX asr boshlari**da kapitalizm taraqqiyotida yangi bosqich – **monopolistik kapitalizm** deb ataluvchi bosqich qaror topdi. Monopolistik kapitalizm kapitalizmning iqtisodiy hayotida monopoliyalar vujudga kelgan, moliya oligarxiyasi shakllangan, siyosiy hayotda esa ularning davlat va xalq ustidan hukmronligi o'rnatilgan bosqichidir.

Kapitalizmning bu bosqichi erkin kapitalizm bosqichidan quyidagi asosiy belgilari bilan ajralib turadi:

a) ishlab chiqarish sohasida monopoliyalar vujudga keldi. **Monopoliya ishlab chiqarish yoki savdoning bir sohasida yakka hukmronlikni egallab olgan ulkan korxona yoki shunday korxonalar birlashmasidir.** Ular **kartel, sindikat, trest va konsern** shaklida mamlakat xo'jaligining u yoki bu sohasida hukmron edilar. Masalan, **1893-yili Germaniya**da tashkil topgan **Reyn-Vestfaliya** ko'mir sindikati mamlakatda qazib olinadigan va sotiladigan ko'mirning **86,7% ni** o'z qo'lida to'plagan. **1896-yili** Germaniyada monopoliyalar soni **250 tadan ortiq** edi. AQShda esa **1900-yili 185 ta** monopoliya faoliyat ko'rsatgan;

b) moliya oligarxiyasi vujudga keldi. Bu hodisa sanoat va bank kapitalining qo'shilishi natijasida sodir bo'lgan. Ishlab chiqarishning markazlashuvi va sanoatning monopoliyalashuvi jarayoni bank faoliyatida kapitalning markazlashuviga olib keldi. Kuchli raqobat tufayli kichik banklar xonavayron bo'lib, yirik banklar tarkibiga qo'shilib ketdi. Natijada juda katta moliyaviy qudratga va o'z mamlakatida ulkan siyosiy ta'sirga ham ega moliyaviy markazlar – **bank gigantlar** (yirik banklar) vujudga keldi. **XX asr boshlari**da shunday banklar **Fransiya**da **uchta**, **AQSh**da esa **ikkita** edi.

Bank kapitali bilan sanoat kapitalining birlashib ketishi kapitalning yangi shakli – **moliya kapitali**ni vujudga keltirdi. Po'lat, neft, gazeta va boshqa soha «qirollari»ning juda katta bank-sanoat imperiyalari vujudga keldi.

AQShda mamlakatning iqtisodiy hayotini nazorat qilib turgan **60 ta** oilaning shunday imperiyalari mavjud edi. **XIX asr oxiri**da bu oilalardan «katta uchlik» – **Rokfeller (neft), Morgan (moliya), Karnegi (po'lat)** ajralib turardi. **XX asr boshlari**da **Karnegi** o'zining ko'p millionli mulkini sotgach, amerikaliklar nigohida tadbirkorlikdagi omad va boylikning qudrati ikki kishida – **Morgan va Rokfeller**da mujassamlashdi. Chunonchi, Rokfellerning neft tresti mamlakatdagi neft mahsulotlarining **90 foiz**ini ishlab chiqarardi. Morganning po'lat tresti esa po'latning **66 foiz**ini berardi. **Fransiya**da esa moliyaviy qudratning timsoli fransuz bankining yirik omonatchilari bo'lgan **«200 oila»** edi;

c) chetga kapital chiqarish muhim ahamiyat kasb etdi. Monopoliyalar, moliya oligarxiyasi foydani ko'paytirishga harakat qilib chetga endi tovarlarni emas, balki kapital chiqarishga alohida ahamiyat bera boshladilar. Chunki endilikda tovar chiqarishdan ko'ra chet mamlakatlarga kapital chiqarish, ya'ni ularga yuqori foiz evaziga kreditlar berish; tabiiy boyliklarni arzonga sotib olish, u yerlarda eng arzon ishchi kuchi hisobiga boylik orttirish imkonini beruvchi korxonalar qurish foydali bo'lib qoldi. Shu tufayli **1900 – 1913-yillari** industrial (rivojlangan) davlatlar chetga chiqargan kapitalning hajmi ikki barobar oshgan. Chunonchi, **1875 – 1900-yillari Buyuk Britaniya**ning chet ellarda joylashtirgan kapitali **2 barobar, Fransiya**niki **2,25 barobar, Germaniya**niki esa **7,5 barobar** oshgan;

d) xalqaro monopoliyalar dunyoni bo'lib oldi. Eng yirik monopoliyalar, moliya oligarxiyasining turli guruhlari bozorlar, xomashyo manbalari ustidan nazorat o'rnatishga intilganlar. Shu tariqa xalqaro monopoliyalar vujudga kelgan. **1910-yili** ularning soni **100 ta**ga yetgan. Natijada yangi bir hodisa – xalqaro monopoliyalar o'rtasida jahon xo'jaligi va boyligini nazorat qilish uchun kurash boshlangan. Chunonchi, ikki moliya guruhi – **Rokfeller (AQSh)** va **Rotshildlar (Buyuk Britaniya)** guruhi jahonning **kerosin bozori**ni bo'lib olgan.

1907-yili esa g'oyat ulkan monopoliyalar – **«Umumiy elektr kompaniyasi» (AQSh)** bilan **«Umumiy elektr jamiyati» (Germaniya)** o'rtasida ham jahon elektr bozorini bo'lib olish va o'zaro hamkorlik qilish to'g'risida shartnoma tuzilgan;

e) dunyoni industrial davlatlar tomonidan hududiy jihatdan taqsimlab olish tugallandi. **XIX asr oxiri – XX asr boshlari**gacha ular o'rtasida **72,9 mln km²** o'zga xalqlar hududlari (butun yer yuzining **54,9%**) bo'lib olingandi. **Buyuk Britaniya, Fransiya** va **Rossiya** juda katta mustamlakalarga ega bo'lib oldi. **Germaniya, Italiya** va **Yaponiya** uncha katta bo'lmagan hududlar bilan kifoyalandi.

AQSh juda katta hudud, boy xomashyo zaxiralari, keng ichki bozorga ega bo'lgani uchun mustamlakalar zabt etishga ishtiyoq bildirmadi. Boz ustiga, iqtisodiy jihatdan dunyoning yetakchi davlatiga aylanib olgan AQSh ochiq qurolli ekspansiyadan ko'ra boshqa davlatlarga, birinchi navbatda, Lotin Amerikasi mamlakatlari iqtisodiga kirib borishni afzal ko'rdi. Iqtisodiy jihatdan qudratli AQSh raqiblarini harbiy kuch ishlatmasdan ham siqib chiqarishi mumkin edi. Biroq bu AQShning yangi hududlarni bosib olishdan butunlay voz kechganini anglatmasdi. **XIX asr oxiri**ga kelib AQSh **Gavayi orollari**ni anneksiya qildi. **Filippin**ni bosib oldi, **Puerto-Riko** va **Guam orollari**ni o'zining yarim mustamlakasiga aylantirdi.

Mustamlakachilik siyosati natijasida **XIX asr oxiri**ga kelib «egallanmagan yerlar»ni bosib olish yakunlandi. Iqtisodiy jihatdan qudratli davlatlarning Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi kam taraqqiy etgan mamlakatlarga ta'siri tobora kuchaydi. Kun tartibida mustamlakalarni va ta'sir doiralarni qayta bo'lish masalasi paydo bo'ldi. Ko'plab davlatlar muammoni hal qilishning vositasi sifatida kuchga tayanishni lozim topdilar. Oqibatda qurollanish poygasi boshlanib, hayotni harbiylashtirish borgan sari avj oldi.

Qurollanish poygasiga katta ta'sir ko'rsatayotgan omillardan biri Yevropa davlatlari o'rtasidagi hududiy nizolar ham edi. Yevropa davlatlari o'rtasida munosabatlarni keskinlashtirgan yana boshqa bir sabab ularning bir-biridan iqtisodiy va harbiy-strategik ustunlikka erishish uchun kurashi bo'ldi. Ayni paytda, **XIX asr oxiri**ga kelib iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha Yevropada **birinchi**, dunyoda AQShdan keyingi **ikkinchi o'rin**ni muqim egallab olgan **Germaniya** Buyuk Britaniya va Fransiyaning g'azabini keltirardi. Rossiya esa Germaniyaning xotirjamligiga putur yetkazayotgandi. Shu tariqa dunyoning rivojlangan buyuk davlatlar o'rtasida bo'lib olinishi, iqtisodiy va siyosiy raqobat, harbiy-strategik ziddiyat va qurollanish poygasi jahon urushiga olib kelmasligi mumkin emasdi.

Monopoliyalarning vujudga kelishi, birinchidan, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalarni yanada kengroq joriy etishga imkoniyat yaratdi. Bu esa mehnat unumdorligining keskin oshishini ta'minladi. Ikkinchidan, jamiyatning juda ozchilik guruhi qo'lida ulkan hokimiyat to'planishiga olib keldi. Shuning uchun AQSh monopoliyachilarini bekorga **«Amerikaning tojsiz qirollari»** deb atashmagandi. Ular AQSh hukumatining ichki va tashqi siyosatiga katta ta'sir ko'rsatolganlar. Yoki Germaniyada: *«Kruppga nima yaxshi bo'lsa, u Germaniya uchun ham yaxshi»*, – deyishardi. Chunki ular ulkan miqdordagi boylikka egalik qilar-

di. Uchinchidan, monopolistik kapitalizm qirg'inbarot mustamlakachilik urushlarini kuchaytirgani bilan ham ajralib turadi. Bunday urushlarning XIX asr oxirida kuchayishi **«imperializm»** atamasining keng ishlatilishiga olib keldi. Bu atama dastlab industrial davlatlarning mustamlakachilikdan iborat tashqi siyosatlariga nisbatan ishlatildi.

16.2. INDUSTRIAL SIVILIZATSIYA

Industrial sivilizatsiya haqida. **XIX asr 50 – 60-yillari**da G'arbiy Yevropa va AQShda sanoat to'ntarishi nihoyasiga yetgan. Shu tariqa industrial sivilizatsiya uzil-kesil qaror topdi. Bu asosiy qadriyati texnika taraqqiyoti bo'lgan sivilizatsiya edi. **«Industrial sivilizatsiya»** atamasi o'rnida **«industrial jamiyat»** atamasi ham ishlatiladi va ular bir xil ma'noni anglatadi.

Industrial sivilizatsiyaning belgilaridan biri **shaharlarning juda tez o'sishi** bo'ldi. Bu, birinchidan, qishloq xo'jaligida texnikani qo'llash natijasida *bir qism qishloq aholisining ortiqcha kuch bo'lib ishsiz qolishi, ular*ning ish izlab shaharlarga kelishi hisobiga yuz berdi. Ikkinchidan, kichik shaharlarda mayda savdogarlar va hunarmandchilik ishlab chiqarishining pasayib ketishi, shuningdek, transportdagi o'zgarishlar, temir yo'llar qurilishi, sanoat markazlarining yirik shaharlarga ko'chishi hisobiga yuz berdi. Odamlar ish axtarish va kun ko'rish uchun turarjoylarini o'zgartirishga majbur bo'ldi. Yuz yillar davomida o'z yerlarida yashab kelgan aholi harakatga keldi. Endi ular o'z yerlarini tashlab shaharlarga keta boshladi. Qishloqdan ketish immigratsiyani ham vujudga keltirdi. Endi odamlar boshqa mamlakatlarga ham keta boshladi.

Shaharlarning rivojlanishi. Shaharlar juda katta tezlik bilan o'sdi. **XIX asr o'rtalari**ga kelib industrial davlatlarda aholining qariyb **50 foizi** shaharlarda to'plandi. Shaharlarning shitob bilan rivojlanishi industrlashning asosini yaratgan sanoat to'ntarishi, fabrika-zavod ishlab chiqarishi oqibati edi. **Buyuk Britaniya**da bu jarayon ertaroq boshlandi. Boshqa joylarda kechroq, masalan, **Germaniya**da **XIX asr 70-yillari**da avj oldi. **AQSh**da jadal urbanizatsiya jarayoni ham taxminan shu davrga to'g'ri keldi.

Eski shaharlarning o'sishi, yangilarining rivojlanishi sanoatning joylashishi bilan bog'liq edi. Ko'pchilik aholi shaharlarga ish topish umidida kelardi. Ayniqsa, *poytaxt, katta shaharlar tez o'sdi*. Masalan, **Parij** aholisi **1850-yili 1 mln** bo'lsa, **1880-yili 2 mln kishi**dan iborat bo'ldi. **XIX asr o'rtalari**dan shaharlar qurilishida ham o'zgarish yuz beradi. Masalan, Parij **1853-yil**dan **20 yil** davomida qurilish maydoniga aylandi.

U zamonaviy qilib qaytadan qurildi: keng ko'chalar, katta maydonlar, xiyobonlar va bog'lar yaratildi. XIX asr oxiriga kelib ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, tramvay va metroga ega bo'ldi.

Eski va yangi aristokratiya. **XIX asr**da ham jamiyatda aristokratiya mavqeyini saqlagan, ular boyligining asosini avvalgiday yer mulklari tashkil qilardi. Aristokratlarning hayoti hali ham shaharlardan ko'ra ko'proq qishloq bilan bog'liq edi. **XIX asr o'rtalari**da Buyuk Britaniya parlamenti jamoa palatasining **652 a'zosidan 489 tasi** yer mulkdorlari edi. **1906 – 1916-yillari** Buyuk Britaniya vazirlarining **2/3 qismi** elita bilim yurti bitiruvchilari edi. Biroq industrial sivilizatsiya rivojlanishi bilan aristokratiya o'zining hukmronlik holatini yo'qota bordi. Yerning bir qismi shaharlar qurilishiga berildi, o'rmon mulklari qisqardi.

XIX asrda davlatning iqtisodiy va siyosiy hayotida burjuaziya tobora kattaroq rol o'ynay boshladi. Yirik sanoat korxonalari va banklar tepasida millionlab boylik to'plagan burjuaziya vakillari turardi. Burjuaziyaning eng yorqin vakillari katta siyosiy mavqega ham erisha boshladi.

O'rta qatlam. XIX asrda jamiyat hayotining muhim voqealaridan biri **«o'rta qatlam»**ning shakllanishi bo'ldi. «Erkin kasb» egalari bo'lgan shaxslar: **injenerlar, ixtirochilar, shifokorlar, o'qituvchilar, ofitserlar, huquqshunoslar** va shu kabilar jamiyatning o'rta qatlamini tashkil etgan. Bu qatlamga taalluqlilikning asosiy belgilaridan biri moddiy ahvolning har holda to'kisligi bo'lgan. **XIX asr 2-yarmi**da o'rta qatlam vakillari orasida, ayniqsa, huquqshunoslar toifasi ajralib turardi. Huquqiy davlatning shakllanishi, fuqarolik jamiyatining barpo bo'lishi, iqtisodiy hayotning rivojlanishi tufayli huquqshunoslarga ehtiyoj ortib bordi. Ko'pgina siyosiy arboblar ham ma'lumotiga ko'ra huquqshunos edi. O'rta qatlam jamiyatga barqarorlik baxsh etdi. Chunki o'rta qatlam ijtimoiy buhronlarni ma'qullamaydi, inqiloblardan islohotlarni afzal ko'radi.

Ishchilar sinfi. XIX asrda yangi **ishchilar sinfi** shakllandi. Sanoat to'ntarishi yuz bergan uchta yirik mamlakat – **Buyuk Britaniya, Fransiya va AQSh**da **70-yillar**ga kelib sanoat ishchilari **12 – 13 mln kishi**ni, qishloq xo'jaligidagi ishchilar bilan birgalikda esa **20 mln kishi**ni tashkil qilardi. Ishchilarning ahvoli bir xil emasdi. Ularning yarmidan ko'prog'i qashshoqlik bo'sag'asida yashasa, malakali mutaxassis ishchilar ko'proq haq olib, «ishchi aristokratiyasi»ni tashkil qilardi. **XX asr boshlari**da «ishchi aristokratiyasi» Buyuk Britaniyada umumiy ishchilar sonining **1/3 qismi**ni tashkil qilib, juda yaxshi yashardi.

XX asr boshida **AQSh** sanoat ishchilari soni jihatidan birinchi o'rinni egalladi. Bu yerda **10,4 mln nafar** sanoat ishchisi mavjud edi. Yevropa

va Shimoliy Amerikadagi ishchilar soni **40 mln kishi**ni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohasi, transport va boshqa sohalardagi ishchilar birgalikda **80 mln kishi**ga yaqinlashdi.

Malakali ishchilar salmog'i Buyuk Britaniya mashinasozligida ishchilar umumiy sonining **70 – 75,** kemasozlikda esa **50 – 60 foizini** tashkil qilardi. AQShda umumiy sanoat ishchilarining **2/3 qismi**, Germaniyada **56 foizi** malakali ishchilar edi.

XIX asr 70-yillarigacha ish kuni uzunligi Buyuk Britaniya va AQShda 10 soat, Germaniya va Fransiyada 10 – 12 soat, Rossiya va Yaponiyada 10 – 16 soatni tashkil qilardi.

Ayollar va bolalar mehnatiga ish haqi kam to'lanardi. **«Fabrika ayollari»,** asosan, **13 – 14 yoshli** qizlardan iborat bo'lgan. **10 – 12 yoshli** bolalar tamaki fabrikalaridan tortib toshko'mir shaxtalarida ham mehnat qilishardi.

17-BOB. G'ARBIY YEVROPA DAVLATLARI XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA

17.1. FRANSIYA XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA

Fransiya – Prussiya urushi sabablari. **XIX asr 60-yillari 2-yarmi**dan Fransiya imperatori **Napoleon III** mavqeyiga putur yetdi. Bunga sabab Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyot bo'yicha Buyuk Britaniya va Germaniyadan tobora orqada qolayotgani edi. Ayni paytda, Fransiya tashqi siyosatda ham muvaffaqiyatsizlikka uchray boshladi. Chunonchi, Prussiyaning Germaniyani birlashtirishiga to'sqinlik qilolmadi.

Fransiya hukmron doiralari **1860-yil**dagi Buyuk Britaniya – Fransiya savdo shartnomasidan ham norozi edi. Chunki ingliz tovarlarining Fransiyaga ko'plab kiritilishi fransuz tovarlari bilan raqobatni kuchaytirmoqda edi. Qolaversa, mamlakatda ishsizlik, qimmatchilik mehnatkashlarning doimiy yo'ldoshi bo'lib qolgandi. Bunday sharoitda Prussiyaga qarshi g'olibona urush zarur edi. Bu urush Fransiyaning, shuningdek, Napoleon III ning ham mavqeyini tiklagan bo'lardi.

Urushning boshlanishi. Ispaniya taxtiga kimni o'tqizish masalasi urushning boshlanishi uchun bahona bo'ldi. Ispaniyada **1868-yili** inqilob yuz berdi. Qirolicha **Izabella II Fransiya**ga qochib ketishga majbur bo'ldi. Fransiya imperatori xotini (millati ispan edi) Izabellaga taxtni qaytarib olishda yordam berishga qaror qildi. Biroq tez orada Yevropaning buyuk

davlatlari o'rtasida Ispaniya taxti uchun boshlanib ketgan kurash bunga imkon bermadi. Bunga Germaniyaning ham Ispaniya taxtiga o'z nomzodini qo'yishga intilgani sabab bo'ldi. Fransiya hukumati Germaniyadan o'z nomzodidan voz kechishini talab etdi. Imperator **Vilgelm I** bunga rozi bo'ldi. Bu vaqtda u **Ems shahri** (kurort shahar)da davolanayotgandi. Biroq bu rozilik Fransiyani qanoatlantirmadi. Endi Fransiya Germaniyadan kelgusida ham ispan taxti uchun nomzod ko'rsatmasligini, hozir ko'rsatgan nomzodi taxt da'vosidan butunlay voz kechishiga erishishni talab etdi. Imperator Fransiya elchisiga bu masala xususida **Berlin**ga qaytgach javob qaytarishini ma'lum qildi.

Urushga shoshilayotgan Prussiya kansleri **Bismark** esa gazetada imperator va Fransiya elchisi o'rtasidagi suhbat tafsilotini atayin buzib talqin etdi. Gazetadagi xabarga ko'ra, go'yo imperator Fransiya elchisi bilan gaplashishni xohlamagan va elchiga orqasini o'girib olgan (bu hodisa tarixga **«Ems depeshasi»** nomi bilan kirgan). Mazkur xabarni Fransiya o'z sha'ni uchun haqorat deb hisobladi va Germaniyadagi elchisini chaqirib oldi.

1870-yil 17-iyulda Prussiyaga urush e'lon qilindi. Shu tariqa Fransiya – Prussiya urushi boshlandi. Biroq tezda Fransiya harbiy kuchlarining urushga tayyormasligi, Fransiyaning Prussiya qudratini yetarli baholamagani ma'lum bo'lib qoldi.

Imperiya halokati. Buni **1-sentyabr**da Napoleon III ham tarkibida bo'lgan Fransiya qo'shinining **Sedan qal'asi** yonida qurshab olingani isbotladi. Fransiya qo'shini nemislarning **140 minglik** qo'shini orasidan qurshovni yorib o'tolmadi. Noiloj qolgan Napoleon III 2-sentyabrda oq bayroq ko'tarishga buyruq berishga, o'zining qilichini esa Prussiya qiroliga jo'natishga majbur bo'ldi. Shu tariqa bu yerdagi **80 ming kishilik** qo'shin Napoleon boshchiligida taslim bo'ldi. **100 ming kishilik** ikkinchi qo'shin ham **Mets qal'asi**da qurshovga tushib qoldi. Bu mag'lubiyat ikkinchi imperiya hokimiyatining halokati ham bo'ldi.

Fransiyada Uchinchi respublika va 1871-yil 18-mart davlat to'ntarishi. Mag'lubiyat haqidagi xabarni eshitgan Parij aholisi **3-sentyabr** kuni qo'zg'olon ko'tardi. Ular respublika e'lon qilinishini va Vatanni himoya qilishni talab etdilar. Xalq talabi bilan **4-sentyabr** kuni Fransiyaning qonun chiqaruvchi korpusi imperator ag'darilganini e'lon qilishga majbur bo'ldi. Ayni paytda, Fransiya respublika deb e'lon qilindi. Bu mamlakat tarixidagi **Uchinchi respublika** edi.

Qonun chiqaruvchi Korpus general **Troshyu** boshchiligida Muvaqqat milliy-mudofaa hukumatini tuzdi. Prussiya hukmron doiralari Fransiyani

iloji boricha ko'proq holdan toydirishni xohlardi. Ular Fransiyadan katta tovon undirishga hamda **Elzas** va **Lotaringiya**ni tortib olishga intildi. Endi urush Prussiya uchun bosqinchilik urushiga aylandi.

19-sentyabr kuni **Parij** Prussiya qo'shini tomonidan qurshab olindi. Muvaqqat hukumat noiloj taslim bo'ldi. Urushdagi g'alaba butun Germaniyani yagona davlatga birlashtirish imkonini berdi. **1871-yil 18-yanvar** kuni Fransiyaning **Versal saroyi**da Germaniya imperiya, Prussiya qiroli Vilgelm I esa Germaniya imperatori deb e'lon qilindi. Otto fon Bismark imperiya kansleri lavozimini egalladi.

1871-yil fevralda Fransiyada Milliy Majlisga shoshilinch saylov o'tkazildi va **Tyer** boshchiligida yangi hukumat tuzildi. **26-fevral**da Fransiya – Germaniya tinchlik shartnomasi imzolandi.

1871-yil 18-mart. Prussiyaga qarshi urushdagi mag'lubiyat, ayanchli shartlar asosida vaqtincha imzolangan tinchlik shartnomasi parijliklarning hukumatga qarshi qahr-g'azabini kuchaytirib yubordi. Boz ustiga, **Parij**da muhtojlik, ishsizlik, oziq-ovqat mahsulotlari narxining keskin oshib ketishi yuz berdi. Hatto o'rta tabaqa vakillari ham xonavayron bo'la boshladi. Parijliklarda hukumatga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'ldi. Bunga qamaldan so'ng aholining qarzlari bo'yicha to'lovlar to'lashga majbur bo'la boshlangani hamda hukumat qarorgohi etib **Versal shahri** tanlangani sabab bo'ldi.

Qolaversa, bosh vazir **Tyer** Milliy gvardiyani qurolsizlantirishni buyurdi. **18-mart** kechasi hukumat qo'shini Milliy gvardiyaga hujum qildi. Bu hodisa Parij aholisini oyoqqa turg'azdi. Ular hukumat qo'shinini chekinishga majbur etdilar. Tyer hukumatni Versalga ko'chirish haqida ko'rsatma berdi. Bunga javoban Parij mehnatkashlari qo'zg'olon ko'tardilar. Ular Milliy gvardiya bilan birgalikda harakat qilib shaharning muhim ahamiyatga ega joylarini qo'lga kiritdilar. Ko'p o'tmay hukumat binosi, harbiy kazarmalar va barcha davlat muassasalarini ham qo'zg'olonchilar qo'lga oldi.

Parijda hokimiyat Milliy gvardiya markaziy qo'mitasi qo'liga o'tdi. Bu qo'mita muvaqqat hukumat vazifasini bajardi. Davlat organlariga ishchilar, ziyolilar va qo'zg'olonning boshqa qatnashchilari vakillari boshchilik qila boshladi. **26-mart**da Parij Kommunasiga saylov o'tkazildi va **Kommuna Kengashi** tuzildi. Bu kengash o'z a'zolaridan **10 ta komissiya** (vazirlik) tashkil etdi. Shu tariqa Parij shahri o'ziga xos kichik bir davlatga aylandi. Bu davlat Parij mehnatkashlari davlati edi.

Parij Kommunasi (*kommuna* lot. umumiy degan ma'noni beradi, ya'ni xususiy mulkka qarshidir) qator tub ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni amalga

oshirdi. Jumladan, egalari tashlab ketgan korxonalar shu korxona ishchilariga topshirildi. Majburiy va bepul ta'lim joriy etildi. Cherkov davlatdan, maktab cherkovdan ajratildi. Mehnatkashlarning uy-joy haqini to'lash muddatlari kechiktirildi. Ishsizlarni ish bilan ta'minlash idorasi tuzildi. Xususiy mulk bo'lib kelgan temir yo'l idoralarini Kommuna o'z ixtiyoriga oldi va ishlab chiqarish ustidan nazorat o'rnatdi.

Biroq Kommuna faoliyatida qator xatolarga ham yo'l qo'ydi: birinchidan, Parijdan qochib ketgan Tyer hukumatini ta'qib qilmadi. Bu esa Tyerga Kommunaga qarshi kurash uchun zarur kuch to'plab olishga imkon berdi. Natijada hukumat qo'shini Parijni qamalga olishga erishdi; ikkinchidan, mamlakatning qolgan qismi Kommunani qo'llab-quvvatlamadi. Bu hukumatning kommunachilarni mamlakatni dushman ishg'ol qilib turgan paytda bosh ko'targan isyonchilar deb yuritgan nafratli tashviqoti natijasi edi. Dehqonlarni Kommuna to'la g'alaba qozonsa, mol-mulkidan ajralib qolishi mumkinligi bilan qo'rqitishga erisholdi; uchinchidan, Kommuna davlat xazinasini, banklarni to'la o'z qo'liga olmadi; to'rtinchidan, Kommuna kengashi ichida Kommuna ichki siyosati xususida birlikka erishib bo'lmadi.

Kommunani tor-mor etishda Germaniya Tyer hukumatiga yordam berdi. Chunonchi, Bismark **40 ming** fransuz askar va zobitlarni asirlikdan bo'shatib, ularni Tyer hukumati ixtiyoriga yubordi. Hukumat qo'shini **21-may**da hujumga o'tdi va shu kuni **Parij**ga kirib keldi. Kommunachilar mardona jang qildilar. Biroq kuchlar noteng edi. **28-may**da Kommuna to'la tor-mor etildi. Asir olingan **30 mingga yaqin** kommunachi otib tashlandi. **50 mingga yaqini** qamoqqa olindi. Shu tariqa **72 kun** yashagan Kommunaga xotima berildi.

1871-yil 10-mayda Germaniyaning **Frankfurt shahr**ida Fransiya – Germaniya shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra, Fransiya Germaniyaga **5 mlrd frank** tovon to'laydigan bo'ldi. Bu tovon to'lab bo'linguncha Germaniya o'z qurolli kuchlarining bir qismini Fransiya hududida saqlab turadigan bo'ldi. Fransiyaning **Elzas** va **Lotaringiya viloyatlari** Germaniyaga berildi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Fransiyada iqtisodiy va siyosiy havot. **XIX asr so'nggi choragi**da Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyoti sekinlashdi. Chunonchi, dunyoda sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha **2-o'rindan 4-o'ringa** tushib qoldi. Avvalo, Fransiyaning hamon mayda tovar ishlab chiqaruvchilar davlati bo'lib qolayotgani import hajmining eksportdan ortiq bo'lishiga olib kelgan. Bu esa, o'z navbatida, ichki bozorning cheklanishiga sabab bo'lgan. Ikkinchidan, Fransiya tabiiy

boyliklari kam davlat edi. Uchinchidan, Prussiya bilan bo'lgan urush Fransiyaga juda katta moddiy talafot yetkazdi. Urushda Fransiya **13 mlrd frank** zarar ko'rdi. To'rtinchidan, ichki siyosiy vaziyatning beqarorligi mamlakat iqtisodiy ahvoliga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Beshinchidan, dehqonlar xarid quvvati pastligi sanoat ishlab chiqarishi o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgandi. Oltinchidan, Fransiya chetga ko'p kapital chiqarib yuborgandi. Bu sarmoyadorlarga katta foyda keltirardi. Shuning uchun sarmoyadorlar (kapitalistlar) o'z sarmoyalarini (kapitalini) mamlakat ishlab chiqarishigamas, balki chetga chiqarishni afzal ko'rgan.

Prussiya bilan urush tugagach, hokimiyat uchun kurash kuchayib ketdi. Ularni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin edi. Birinchisi – ***monarxiya tarafdorlari***, ikkinchisi – ***respublika tarafdorlari***. **1873-yili** Germaniyaga tovon to'lab bo'lindi. Nihoyat, Germaniya o'z qo'shinlarini Fransiyadan olib chiqib ketdi.

Respublikachilar mamlakat parlamentida (Milliy majlis) ozchilikni tashkil etganlar. Milliy Majlisda ko'pchilikni tashkil etgan monarxiyachilar o'z nomzodlarini ikki bor prezidentlikka saylagan bo'lsalar-da, monarxiyani tiklashga urinish natijasiz tugadi. Keskin ichki siyosiy kurashda oxir-oqibat respublikachilar g'alaba qozondi.

1875-yilri Uchinchi respublika **konstitutsiyasi** qabul qilindi. Unga ko'ra, prezidentlik lavozimi saqlab qolindi. Ayni paytda, ikki palatali (Deputatlar palatasi va Senat) parlament (Milliy Majlis) tashkil etildi. Uning vakolat muddati **4 yil** etib belgilandi.

Parlament har ikki palatasining qo'shma yig'ilishi **7 yil** muddatga mamlakat prezidentini saylardi. Ijroiya hokimiyati prezidentga va hukumatga tegishli edi. Prezident **vazirlarni tayinlash, respublika nomidan tashqi siyosat yuritish, shuningdek, urush e'lon qilish va sulh tuzish, umumiy afv e'lon qilish** kabi vakolatlarga ega edi. Hukumat a'zolarini prezident tayinlasa-da, ular parlament oldida javobgar edi.

«Marselyeza» qo'shig'i mamlakat madhiyasi etib belgilandi. Buyuk fransuz inqilobi boshlangan kun (**1789-yil 14-iyul**) fransuz xalqining milliy bayram kuni deb e'lon qilindi. O'sha davr uchun katta ahamiyatga ega qator huquq va erkinliklar e'lon qilindi. Xususan, matbuot va yig'ilish o'tkazish, siyosiy tashviqot bilan shug'ullanish kabi erkinlik va huquqlar shular jumlasidandir. Lekin xotin-qizlarga saylov huquqi berilmagan.

Fransiyaning ichki siyosati. Hukumat tadbirlari. Respublika hukumati ichki siyosatda bir qator muhim tadbirlarni amalga oshirdi. 1882 – 1883-yillarda ta'lim to'g'risida qonunlar qabul qilindi. *Unga ko'ra, maktab*

cherkovdan ajratildi. Ta'limning dunyoviyligi ta'minlandi. 13 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun majburiy bepul ta'lim joriy etildi. Maktablarda ta'lim maxsus davlat dasturlari asosida olib boriladigan bo'ldi.

Oliy pedagogik bilim yurtlarida o'qituvchi kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Majburiy ta'lim dasturida o'g'il bolalar uchun **gimnastika** predmeti majburiy deb belgilandi. *Bundan o'smirlarni bo'lajak harbiy xizmatga jismonan yetuk qilib tayyorlash maqsadi ko'zda tutilgandi.* Qiz bolalar uchun litseylar ochildi. Maxsus oliy o'quv yurtlarida ayol o'qituvchilar ham tayyorlana boshlandi. **1884-yili** kasaba uyushmalarining erkin faoliyatiga hamda ish tashlashga ruxsat etuvchi qonun qabul qilindi. Ishchilar o'z kasaba uyushmalari va mehnat birjalarini tuzdi. Bu birjalar ishsizlar haqida, ularning turmushi haqida g'amxo'rlik qila boshladi.

Munitsipal kengashlarga o'z merlarini saylash huquqi berildi. Bungacha ular markaziy hokimiyat tomonidan tayinlanardi. Mamlakatda respublikani mustahkamlash tobora chuqur qaror topa bordi. **1876-yil**gi Senatga bo'lgan saylovlarda respublikachilarning qo'li baland keldi. Bungacha davlatni boshqargan monarxiya tarafdori bo'lgan prezident **Mak-Magon** iste'fo berishga majbur bo'ldi.

Siyosiy ahvol. Mamlakatda ichki siyosiy hayotning o'ziga xos xususiyati **ko'ppartiyaviylik**ning qaror topgani bo'ldi. Ularning ichida **radikallar, sotsialistlar va respublikachilar** partiyalari yetakchi nufuzga ega edi.

1887 – 1894-yillari Fransiya siyosiy hayotida demokratiyaga qarshi kuchlar ta'siri ham o'sib bordi. Chunonchi, mamlakatda millatchilik, shovinizm g'oyalari keng tarqala boshladi. Bu g'oyalar tarafdorlari qudratli qo'shingina Elzas va Lotaringiyani qaytarib olishi mumkinligiga ishonardi. Fransiya ichki siyosiy hayotida anarxistlar va monarxiyachilar faoliyati ham kuchaydi. Ularning maqsadi mavjud tuzumni ag'darish edi. Bu maqsadga erishish uchun anarxistlar kurashning terror usulini qo'lladi. Chunonchi, ular **1893-yili** parlament binosiga bomba tashladi. Oqibatda **80 kishi** yarador bo'ldi.

1894-yili hatto mamlakatprezidenti **Sadi Karno** ham o'ldirildi. Fransiya kontrrazvedkasi mamlakat harbiy kuchlari haqida josus tomonidan Germaniyaga maxfiy ma'lumotlar yetkazib berilayotganini aniqladi. Maxsus xizmat bu masalada Fransiya qo'shini Bosh shtabida xizmat qiluvchi yahudiy millatiga mansub kapitan **A.Dreyfus**dan shubha qila boshladi. Tez orada u josuslikda ayblanib jinoiy javobgarlikka tortildi. Aslida, A.Dreyfus josus emasdi. Biroq soxta hujjatlar va soxta guvohlar yordamida uning «josusligi» fosh etildi. Harbiy sud uni umrbod surgun jazosiga hukm qildi.

Siyosiy reaksiya «Dreyfus ishi»dan mamlakatda demokratiyaga qarshi tashviqotni kuchaytirish, millatchilik, shovinistik kayfiyatni yanada avj oldirish uchun foydalandi. Mamlakatda A.Dreyfusning josusmasligiga, hali haqiqiy josus fosh etilmaganiga ishonuvchilar bor edi. Ular haqiqiy josusni fosh etish uchun tekshiruvni davom ettirdi. Nihoyat, haqiqiy josus aniqlandi. U Bosh shtab mayori **Estergazi** bo'lib chiqdi. Biroq Bosh shtab va u bilan mustahkam bog'langan kuchlar bu haqiqatni oshkor etishni o'zlari uchun katta sharmandalik deb hisobladi. Lekin haqiqat sirligicha qolib ketmadi. **1897-yili** u matbuot yuzini ko'rdi.

Fransiyaning barcha demokratik kuchlari A.Dreyfus ishini qayta ko'rib chiqishni talab eta boshladi. Sharmanda bo'lishni istamagan kuchlar soxta guvohning o'ldirilishini uyushtirdi. Estergazi esa Fransiyadan qochib ketishga erishdi. «Dreyfus ishi» atrofidagi kurash uzoq davom etdi. Oxir-oqibatda hukmron doiralar uni ozodlikka chiqarishga majbur bo'ldi. Biroq u aybsizligi uchunmas, *«sog'ligi yomonlashgani uchun»* ozod qilindi. A.Dreyfus **1906-yili** to'la oqlandi.

Iqtisodiy ahvol. XX asr boshlariga kelib mamlakatda mo'tadil siyosiy barqarorlik ta'minlandi. Bunga **XIX asr 90-yillari o'rtalari**dan boshlangan iqtisodiy yuksalish tufayli erishildi. **1913-yili 1900-yil**dagi **5,4 mln tonna o'rniga 22 mln tonna temir rudasi** qazib chiqarila boshlandi. Bu sohada Fransiya AQSh va Germaniyani ortda qoldirdi. Sanoatda yangi tarmoqlar (**elektrotexnika, avtomobilsozlik va kimyo**) tez rivojlana boshladi. Natijada sanoatda xizmat qilayotgan aholi soni **36 foiz**ga yetdi. **40 foiz** aholi qishloq xo'jaligida band edi.

Fransiya eksportida **jun birinchi, ip-gazlama ikkinchi, shoyi gazlama uchinchi, fransuz vinolari to'rtinchi o'rin**ni egalladi. Fransiyaning chetga kapital chiqarish quvvati yanada ortdi. Bu borada u dunyoda Buyuk Britaniyadan so'ng **ikkinchi o'rin**ga chiqdi. **1914-yil**ga kelganda Rossiyaga **13 mlrd**, Buyuk Britaniya va AQShga **5 mlrd**, Janubiy Amerika davlatlariga **6 mlrd** frank miqdorida kapital chiqardi. Bu kapitallar foiz hisobida Fransiyaga juda katta miqdorda daromad keltiribgina qolmay, siyosiy ittifoqchilarni ham vujudga keltirdi.

Fransiya mehnatkashlari ahvoli esa og'ir edi. Ular kuniga **10 – 12 soat**, ba'zan **14 – 16 soat** ishlashga majbur edi. Mehnatkashlar o'z haq-huquqlari uchun kurasha boshladi. **1880-yili** ishchi tashkilotlari vakillari **«Fransiya ishchi partiyasi»**ni tuzdi.

1910-yili esa pensiya haqida qonun qabul qilindi. Unda pensiya yoshi **65 yosh** deb belgilandi (bu ko'rsatkich Germaniya va Buyuk Britaniyada

70 yosh edi). Ijtimoiy harakatda **ikki asosiy oqim** mavjud edi. *Ularning biri – jamiyatni parlament yo'li bilan (islohotlar orqali) qayta qurish, ikkinchisi esa noqonuniy yo'l bilan (qurolli qo'zg'olon) qayta qurish yo'li edi.* Ikkinchi yo'l bora-bora o'z ta'sirini butunlay yo'qotdi.

Fransiyaning tashqi siyosati. **XIX asr 70-yillari**dan Fransiyaning xalqaro maydondagi ahvoli zaiflashdi. Prussiya bilan urushdagi qaqshatqich mag'lubiyatdan so'ng Fransiyaning Yevropadagi yetakchi davlat mavqeyi yo'qqa chiqdi. Endi Fransiya Germaniya hujumidan xavfsirab yashaydigan davlatga aylandi.

Ayniqsa, **1879-yili** Germaniya va Avstriya-Vengriya o'rtasida tuzilgan ittifoqchilik shartnomasi Fransiyaning xalqaro mavqeyini yanada yomonlashtirib yubordi. Shunday bo'lsa-da, Fransiya boshqa buyuk davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlardan ustalik bilan foydalanib o'z mustamlakachilik imperiyasini tobora kengaytirish imkoniga ega bo'ldi. **1881-yili** Shimoliy Afrikada joylashgan **Tunis**ning bosib olinishi yangi mustamlakalar bosib olish yo'lidagi dastlabki qadam bo'ldi. Germaniya Fransiyaning Tunisni bosib olishiga atayin qarshilik ko'rsatmadi. Uning maqsadi Fransiya va Italiya munosabatlarini keskinlashtirish edi. Chunki Germaniya Italiyaning ham Tunisga da'vogarligini yaxshi bilardi.

Fransiya bilan munosabatlari keskinlashgan **Italiya** endi Germaniya bilan yaqinlasha boshladi. Oxir-oqibatda bu yaqinlashuv **1882-yili** Italiyaning **1879-yili** Germaniya va Avsrtiya-Vengriya imperiyalari o'rtasida tuzilgan harbiy-siyosiy ittifoqqa qo'shilishiga olib keldi. Shu tariqa Yevropada tarixga **«Uchlar ittifoqi»** nomi bilan kirgan harbiy-siyosiy ittifoq qaror topdi.

Fransiyaning Afrikadagi bosqinchilik siyosati Tunis bilangina cheklanib qolgani yo'q. Aksincha, **1891 – 1896-yillar** davomida **Gvineya**, **Senegal**, **Madagaskar** va **Mavritaniya**ni ham bosib oldi. **1912-yili** esa **Marokash** ustidan protektorat o'rnatdi. Fransiya Osiyoda ham o'z mustamlakalarini ko'paytirib bordi. Chunonchi, **1883-yili Vyetnam**ga hujum qildi. Oradan **o'n yil** o'tgach **Laos** ustidan protektorat o'rnatdi. Shu tariqa **20 mln** aholi yashaydigan mustamlakachilik imperiyasi tuzildi. Bu mustamlakachilik imperiyasi tufayli Fransiya katta daromad manbalariga ega bo'ldi.

Fransiya uchun shu vaqtgacha xalqaro miqyosda siyosiy raqibi bo'lib kelgan Buyuk Britaniya bilan yaqinlashish yo'llarini izlashdan boshqa yo'l yo'q edi. Ayni paytda, Fransiya bilan yaqinlashish Buyuk Britaniya manfaatlariga ham mos kelardi. Chunki bu davrda xalqaro maydonda Germaniya uning birinchi raqibiga aylanib qolgandi. **1904-yili** ular o'rtasida bitim imzolandi. Bitim ularning mustamlakalar masalasi yuzasidagi

kelishuvlarini o'zida aks ettirgandi. Xususan, Fransiya Buyuk Britaniyaning **Misr**dagi harakatlariga bundan buyon to'sqinlik qilmasligini, Misrning Buyuk Britaniya ta'sir doirasida ekanini tan oldi. O'z navbatida, Buyuk Britaniya Fransiyaning **Marokash**dagi manfaatlarini tan oldi. Marokash sultoni o'z vazifasini bajarolmasligi ehtimoli borligi va shunday bo'lib qolsa, Marokash hududining Gibraltar bo'g'oziga bevosita tutash qismini **Ispaniya**ga berish belgilab qo'yildi. Marokashning qolgan qismini Fransiya o'z qo'liga olishi ko'zda tutildi. Buyuk Britaniya uchun Gibraltar bo'g'ozining Fransiya emas, o'zi uchun xavfsizroq Ispaniya tasarrufida bo'lish ma'qul edi. **1904-yil**gi bitim Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasida harbiy-siyosiy ittifoq to'g'risida shartnoma tuzilganini ham anglatardi.

Rossiya bilan yaqinlashuv. **1882-yili** «Uchlar ittifoqi»ning tashkil etilgani Fransiya bilan Rossiyani yaqinlashishga majbur etdi. Nihoyat, **1891-yili** bu ikki davlat o'rtasida ittifoq bitimi tuzildi. Bitimga ko'ra, ikki davlatdan biriga tashqi hujum sodir etilganda, har ikki tomon bir vaqtning o'zida harbiy safarbarlik e'lon qilishi ko'zda tutildi. **1907-yili** esa Rossiya **1904-yili** Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasida tuzilgan harbiy-siyosiy ittifoqqa qo'shildi. Shu tariqa Yevropaning buyuk davlatlari ikki harbiy-siyosiy ittifoqqa bo'linib ketdi.

17.2. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA GERMANIYA

Imperiyaning tashkil topishi. Siyosiy hayot. **1871-yil 18-yanvar**da barcha german davlatlari monarxlari **Versal**da to'planib, Prussiya qiroli **Vilgelm I** ni Germaniya imperatori deb e'lon qildilar. Bu Germaniyaning **ikkinchi marta imperiya** deb e'lon qilinishi edi. Shunday qilib, butun Germaniya hududining **2/3 qism**ida joylashgan, aholisining esa **60%** yashayotgan Prussiya monarxiyasi yetakchiligida Germaniyaning birlashuvi tugallandi.

1871-yil aprelda imperiya Reyxstagi umumgerman konstitutsiyasini qabul qildi. Germaniya imperiyasi ittifoqchilar davlati bo'lib qoldi. **Elzas-Lotaringiya** imperiya tarkibiga hokim (**shtatgalter**) tomonidan idora qilinadigan **«maxsus imperiya viloyati»** bo'lib kirdi. Hokimni imperator tayinlardi. Imperiyaga kirgan ayrim davlatlar o'z konstitutsiyalari, vakillik muassasalarini (**landtaglar**) saqlab qoldi.

Konstitutsiyaga ko'ra, imperiyaning oliy vakolatli muassasalari **Ittifoq Kengashi (Bundesrat)** bilan **Reyxstag** edi. Konstitutsiyada birlashgan Germaniyada Prussiya gegemonligi mustahkamlab qo'yildi. *Imperator urush e'lon qilar, sulh tuzar, xalqaro munosabatlarda imperiya nomidan*

ish ko'rardi. Ayni paytda, u imperiya qurolli kuchlari bosh qo'mondoni ham edi. Imperator o'z ixtiyori bilan Reyxstag va Ittifoq Kengashi sessiyalarini chaqirish, ochish, tarqatib yuborish yoki muddatini cho'zish, imperiya kanslerini tayinlash, vazifasidan ozod etish huquqlariga ega edi. Imperator bir vaqtning o'zida **Prussiya qiroli** ham hisoblanardi.

Germaniyaning birinchi imperiya kansleri lavozimiga **Otto fon Bismark** tayinlandi. U davlat boshqaruvida katta tajribaga ega bo'lib, deyarli **20 yil (1871 – 1890)** davomida mamlakat hukumatini boshqardi. Bismark Germaniya tarixida **«Temir kansler»** laqabi bilan nom qoldirdi.

Reyxstag, konstitutsiyada ko'rsatilganidek, umumiy saylov huquqi asosida **besh yil** muddatga saylanardi. Lekin amalda saylov huquqi faqat nomigagina umumiy edi. Harbiy xizmatchilardan tashqari **25 yosh**ga to'lgan erkaklargina saylov huquqidan foydalanardi.

Mamlakat iqtisodi. **70 – 80-yillar**da Germaniya iqtisodi gurkirab rivojlandi. Uning sanoat mahsulotlari barcha qit'a davlatlari bozorlariga kirib bordi. *Bosh omil Germaniyaning birlashtirilganligi edi.* Bu birlashuv tufayli yagona ichki bozor vujudga keldi. Ya'ni bojxona to'siqlari olib tashlandi. *Yagona pul, o'lchov va og'irlik birliklari joriy etildi.* Ikkinchi omil Fransiyaning talanishi bo'ldi. Fransiya **3 yil** ichida **5 mlrd frank** tovon to'lashga majbur etildi. Undan tortib olingan temir rudasiga boy **Lotaringiya bilan Saar toshko'mir koni** birgalikda Germaniya og'ir sanoati rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uchinchi omil Germaniya tadbirkorlari boshqa davlatlar tajribalaridan muvaffaqiyatli foydalandi. Ishlab chiqarishga eng ilg'or texnologiya hamda fan-texnika yutuqlarini joriy etdi. Ayniqsa, **Tomson** tomonidan **fosfor olish jarayoni soddalashtirilishi** Germaniya sanoatining gurkirab rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Chunki Germaniya fosfor rudalarining asosiy makoni edi. To'rtinchi omil sanoatning tez sur'atlar bilan militarlashtirilishi ishlab chiqarish rivojlanishiga ta'sir etmay qolmadi. Fransiyadan undirilgan tovonning ma'lum qismi harbiy buyurtmalar uchun to'landi.

Temir yo'llar uzunligi **1890-yildagi 43 ming km dan 1914-yilga kelib 68 ming km ga** yetdi. Temir va po'lat ishlab chiqarishda esa AQShdan so'ng **ikkinchi o'rin**ga chiqdi. Cho'yan ishlab chiqarish **1892 – 1912-yillar** orasida **4,9 mln tonnadan 17,6 mln tonnaga** o'sdi.

Sanoat rivojlanishi bilan, ishlab chiqarish tobora yirikroq korxonalarda to'plana bordi. Bu davrda har birida **1000 dan ortiq ishchi** ishlaydigan korxonalar soni **600 ta**ga yaqinlashgandi. Ayni paytda, sanoatda ishlab chiqarishning markazlashuvi kuchaydi. Masalan, ko'mir qazib chiqarish, cho'yan va po'lat eritish, asosan, **4 ta** monopoliya qo'liga o'tdi.

1914-yilga kelib Germaniyada sanoat ishlab chiqarishi **1871-yil**ga **nisbatan 7 marta** ko'paydi. Sanoat korxonalarida **1907-yili** qariyb **10,4 mln nafar ishchi** ishlardi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi jihatidan Germaniya dunyoda AQShdan keyin ikkinchi o'rinni egalladi. Mehnat unumdorligi **40 yilda** deyarli **ikki baravar** oshdi. Qishloq xo'jaligi ham tez sur'atlar bilan taraqqiy eta boshladi.

Imperiyaning ichki siyosati. Ichki siyosatda Germaniyani prusslashtirish masalasiga alohida e'tibor berildi. Imperiya konstitutsiyasida Prussiya qirollarigina Germaniya imperatori bo'la olishining qayd etilgani buning yorqin dalili edi. **Polsha va Fransiya**ning Germaniyaga o'tgan hududlarida ham prusslashtirish siyosati yuritildi. Polyak tilida o'qitiladigan maktablar yopib qo'yildi. Bunga javoban **1906-yili 100 mingdan ortiq** polyak bolalari maktabga borishdan bosh tortdi.

1872-yili qabul qilingan maxsus qonunga ko'ra, maktab cherkovdan ajratildi. Ruhoniylarning siyosiy tashviqot olib borishi taqiqlandi. Ruhoniy kadrlar tayyorlash, ularni vazifalariga tayinlash ishlarini davlat o'z qo'liga oldi. Fuqarolik holati aktlarini qayd etish ishlari ham (tug'ilish, nikoh, vafot etganlik) dunyoviy idoralar ixtiyoriga o'tkazildi. Bismarkning katolik cherkovi ta'siriga qarshi qo'llagan tadbirlari **«Kultur kampf»** (Madaniyat uchun kurash) degan nom oldi.

Bismark hukumati, ayni paytda, ishchilar va sotsialistik harakatni ayovsiz bostirish siyosatini yuritdi. Bu davrda **1875-yili** tashkil etilgan **Germaniya sotsial-demokratik partiyasi**ning (GSDP) ta'siri o'sib borayotgandi. **1877-yil**gi parlament saylovida bu partiya **12 ta** deputatlik o'rniga ega bo'ldi.

1878-yili sotsialistlarga qarshi favqulodda qonun (**«Sotsial-demokratlarning xavfli intilishlariga qarshi qonun»** deb atalgan) qabul qilindi. Uning qabul qilinishiga imperator Vilgelm I ga nisbatan ikki bor uyushtirilgan suiqasd bahona bo'ldi. Suiqasdni sotsialistlar uyushtirmagandi. Shunday bo'lsa-da, Bismark ularni jamoat tartibini buzuvchilar deb hisoblardi. Qonun partiya faoliyatini amalda taqiqlab qo'ydi, u **2,5 yil** muddatga qabul qilingan bo'lsa-da, **12 yil** davomida amal qildi.

1888-yili Vilgelm I vafot etdi. Taxtni **28 yoshli Vilgelm II (1888 – 1918)** egalladi. U hokimiyatni hech kim bilan, hatto Bismark bilan ham bo'lishishni istamadi va yakkahukmronlikka intildi. **1889-yili** Bismark Reyxstag oldiga sotsialistlarga qarshi qonunga doimiy tus berish masalasini qo'ydi. Biroq Reyxstag buni rad etdi. Imperator ham Bismarkni qo'llab-quvvatlamadi. Bismark buni o'z sha'niga o'ta haqorat deb qabul qildi va **1890-yili** iste'fo berdi. Yangi hukumat favqulodda qonunni bekor qildi.

GSDP ochiq holatda ishlash sharoitiga o'tdi. Partiya mehnatkashlar manfaatini himoya qilish siyosatini davom ettirdi. U eng kuchli va ommaviy partiyalardan biriga aylandi. Natijada **1891-yil**dan **yakshanba dam olish kuni** deb belgilandi. **13 yoshdan kichik** bolalar mehnati taqiqlandi. Xotin-qizlar uchun **11 soatlik** ish kuni joriy qilindi.

Qishloq xo'jaligida barcha haydaladigan yerlarning **25% ga yaqini yunkerlar** (katta yer egalari) qo'lida to'plangandi. Yunkerlar xo'jalik yuritishda yollanma mehnatdan foydalanishga o'tdilar. Ayni paytda, qishloq xo'jaligida qo'llash uchun yaratilgan texnikalardan unumli foydalanishga alohida e'tibor berildi. Keng miqyosda mineral o'g'itlardan foydalanishga o'tildi. Qishloq xo'jaligida texnikaning keng qo'llanilishi ortiqcha ishchi kuchining ish izlab shaharga ko'chishiga olib keldi. Bu esa gurkirab rivojlanayotgan sanoatni ishchi kuchi bilan ta'minladi.

Germaniya ishchilari AQSh va Buyuk Britaniya Ishchilariga nisbatan kam ish haqi olardi. **1900 – 1903-yillar**dagi jahon iqtisodiy inqirozi ishsizlikning ortishiga, ish haqining yanada kamayishiga olib keldi. Oqibatda ishchilarning moddiy ahvoli og'irlashdi. Shunday sharoitda GSDP ishchilar manfaatini **parlament yo'li bilan** himoya qila boshladi. **1912-yil**gi parlament saylovida bu partiya **34,8%** ovoz olishga erishdi. Bu muvaffaqiyat hukumatni ham yon berishga majbur etdi. Natijada ish haqi qisman bo'lsa-da oshirildi, ish kuni **9,5 soat**ga tushirildi. Biroq ishchilar sinfi bu bilan kurashni to'xtatgani yo'q. Ular endi **8 soatlik** ish kuni talabi bilan chiqa boshladi.

Imperiyaning tashqi siyosati. Germaniya hukmron doiralari *«quyoshning hammaning yelkasiga birday nur sochishi»* talabi bilan chiqdilar. Bismark Germaniyaning xalqaro maydondagi ta'sirini kuchaytirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. **1873-yil**i Germaniya Rossiya va Avstriya-Vengriya bilan ittifoq to'g'risida shartnoma – **«Uch imperator shartnomasi»**ni tuzdi. Bismark yangidan tashkil etilgan fransuz qo'shinini **qasos oluvchi qo'shin** deb hisoblay boshladi. Shu tufayli Fransiya hali batamom mustahkamlanib olmasdan, u bilan urush qilishga shoshilmoqda edi. Biroq Rossiya bilan Buyuk Britaniya Germaniyaning kuchayib ketishini istamasdi.

Bismark esa ikki frontda urush qilishdan qo'rqardi. **1879-yil**i Germaniya Avstriya-Vengriya bilan ittifoq tuzdi. **1882-yil**i Avstriya-Vengriya-Germaniya ittifoqiga **Italiya** qo'shildi. Bunga Italiyaning Fransiya bilan munosabati keskinlashishi sabab bo'ldi. Chunonchi, Fransiya **1881-yil**i Italiya da'vo qilib yurgan **Tunis**ni bosib olgandi. Avstriya-Vengriya imperiyasi esa bu vaqtda **Bolqon yarimorol**ida Rossiya bilan raqobatlashmoqda

edi. Uchta maslakdosh kuchlar birlashib **1882-yili** harbiy ittifoq – **«Uchlar ittifoqi»**ni tuzishga erishdi. Bismark **Rossiya**ni o'z siyosiy rejalarini amalga oshirish yo'lidagi **asosiy g'ov** deb bilardi.

1891-yili shovinistik tashkilot – **«German ittifoqi»** tuzildi. *«Qirol Prussiya ustida, Prussiya Germaniya ustida, Germaniya dunyo ustida»* shiori ilgari surildi.

1882-yili Bremen savdogarlari Afrikaning janubi-g'arbiy sohilidagi **Angra-Peken** buxtasiga keldilar. Ular **200 ta eski miltiq** va **2000 marka** badaliga yerli qabila boshlig'idan anchagina hududni sotib oldilar. Tez orada Germaniya bu yerni o'z protektorati deb e'lon qildi. Afrikaga amaldorlar va soldatlar yuborildi. Ularning yangi yerlarni bosib olishga urinishi mahalliy xalqning qattiq qarshiligiga uchradi.

1884-yili Germaniya Afrikaning o'rta qismidagi **Togo** va **Kamerun hududlari**ni, **Gvineyaning shimoliy qismi**ni va unga yondosh orollarni ishg'ol qildi. **1885-yili** esa **Afrikaning sharqiy qismidagi hududlar** va **Zanzibar**ni zabt etdi. Bu hudud **«Germaniya Sharqiy Afrikasi»** degan nom oldi.

Vilgelm II Germaniya hukmron doiralari bosqinchilik siyosatining «jarchisi» va faol amalga oshiruvchisi bo'lib chiqdi. **90-yillar oxir**ida **Shandun** (Xitoy) provinsiyasining bir qismi bosib olindi. O'sha vaqtdayoq Germaniya Tinch okeanidagi **Karolina, Mariana orollari**ni va **Samoa orolining bir qismi**ni egallagandi. **1885-yili** u **Marshall orollari**ni qo'lga kiritdi.

Shimoliy dengizni Boltiq dengizi bilan tutashtirgan **Kil kanali** ochildi. Reyxstag harbiy flot qurishning ulkan dasturini qabul qildi. Bu narsa Buyuk Britaniya bilan munosabatni yanada keskinlashtirdi. Marokashga da'vosi esa Fransiya bilan munosabatlarni yanada yomonlashtirdi. **1900-yili** Germaniya boshqa G'arb davlatlari bilan birga Xitoyda milliy ozodlik harakatini bostirishda ishtirok etdi.

Afrikada *«bizni quruq qoldirishdi»* deb hisoblagan german hukmron doiralari *«qo'ldan ketganlarning»* o'rnini **Yaqin Sharq**da to'ldirmoqchi bo'ldi. Ular **Kichik Osiyo, Suriya, Mesopotamiya** va **Falastin**da joylashib olmoqchi edilar. Chunki bu yerlarda dunyodagi eng yirik neft konlari, g'alla va paxta bor edi. Nemis bankiri **Simens** tashabbusi bilan **Berlinni Fors qo'ltig'i bilan bog'lovchi temir yo'l** qurish rejasi tuzildi. **1889-yili** Vilgelm II **«hazrati Iso qabri»ni ziyorat qilish** bahonasi bilan **Falastin**ga bordi. U safar vaqtida Turkiya sultoni bilan uchrashib, reja bo'yicha Bosfordan Kichik Osiyo orqali Bag'dodga va undan Fors qo'ltig'igacha temir yo'l qurish to'g'risida kelishib oldi. Bu yo'l **«Bag'dod temir yo'li»** nomini oldi.

Nemislarning Fors qo'ltig'iga chiqishi Buyuk Britaniyaning bu hududdagi manfaatlariga putur yetkazardi. Shu sababli Buyuk Britaniya «Bag'dod temir yo'li»ning Fors qo'ltig'iga chiqishiga yo'l qo'ymaslik uchun **1899-yili Quvayt**da o'z protektoratini o'rnatdi. Shunga qaramay, **1902-yili** Turkiya bilan Germaniya o'rtasida temir yo'l masalasida yakunlovchi bitim imzolandi.

Germaniya zo'r berib qurollanishga kirishdi. Qurolli kuchlar soni keskin ko'paytirildi. Reyxstag katta harbiy kemalar qurishga va suvosti floti uchun katta-katta mablag' ajratdi. **1907-yili** tuzilgan Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya ittifoqi Germaniyaning tashqi ahvolini murakkablashtirdi.

Germaniya – Turkiya munosabatlari. **XIX asr oxiri**dan Germaniya – Turkiya munosabatlari tobora yaqinlashib bordi. Buyuk Britaniya ham, Fransiya va Rossiya ham Turkiya uchun imperiya hududlariga ko'z olaytirayotgan yoki birin-ketin ularni bosib olayotgan umumiy dushman davlatlarga aylangandi. Masalan, Turkiyaga rasman qaram bo'lgan **Misr**ni **Buyuk Britaniya** egalladi, **Tunis va Marokash**ga **Fransiya** da'vogarlik qildi. Qora dengizni O'rta yer dengizi bilan bog'lashga imkon beruvchi Turkiyaga qarashli **Bosfor va Dardanell bo'g'ozlari**ga, **Istanbul shahri**ga **Rossiya** da'vogar edi. Faqatgina Germaniya bunday da'volardan yiroq edi.

Xalqaro keskinlikning ortishi. **XIX asrning 90-yillari**da Germaniya egallagan mustamlakalar hududi o'z hududidan deyarli **besh baravar ortiq** edi. Ayni paytda, Germaniyaning Yevropada hukmron bo'lish haqidagi da'volari kuchaydi; ikkinchidan, jahon bozorlarida Germaniya Buyuk Britaniyaning asosiy raqibiga aylandi; uchinchidan, Afrikani qayta taqsimlashni talab etayotgani uning ham Fransiya, ham Buyuk Britaniya bilan munosabatlarini yanada keskinlashtirib yubordi; to'rtinchidan, Germaniyaning Bolqon, Yaqin, O'rta va Uzoq Sharqqa suqulib kirishi shu darajada faollashdiki, bu faollik tarixga **«Sharqqa hujum»** nomi bilan kirdi; Podsho Rossiyasining Bolqon yarimorolidagi manfaatlarini mensimay Avstriya-Vengriyaning Bolqon siyosatini qo'llab-quvvatladi. Dunyoning barcha nuqtalarida Germaniya ekspansiyasi Buyuk Britaniya manfaatlariga daxl qildi va uning qarshiligiga duch keldi.

Germaniya imperatori Vilgelm II *«Germaniyaning kelajagi dengizda»* degan shiorni e'lon qildi. Bu shior dengiz hukmdori – Buyuk Britaniya harbiy flotiga teng keladigan flot tashkil etish zarurligini anglatardi. Ayni paytda, Germaniya harbiy dengiz floti qudrat jihatidan **ikkinchi o'rin**ga chiqib olgandi. Imperator maqsadini ro'yobga chiqarish uchun yangi harbiy kemalar qurish ishi jadallashtirib yuborildi.

1905-yili Germaniya qurolli kuchlari Bosh shtabi ikki frontda, ya'ni ham G'arbda, ham Sharqda (Rossiyaga qarshi) urush olib borish rejasini ishlab chiqdi. Germaniya harbiy, iqtisodiy va mafkuraviy jihatdan urushga tayyorlanishda o'z raqiblaridan o'zib ketdi.

17.3. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUYUK BRITANIYANING SIYOSIY VA IQTISODIY AHVOLI

Mamlakat siyosiy tuzumi. Buyuk Britaniyada qaysi partiya parlament saylovida g'olib chiqsa, shu partiya hukumat tuzardi. Mamlakatda kuchli ikki partiyaviy tizim qaror topgan bo'lib, ularning biri **Konservatorlar**, ikkinchisi esa **Liberallar partiyasi** deb atalardi. Konservatorlar partiyasining asosiy tayanchi yirik zamindorlar va anglikan cherkovi, Liberallar partiyasiniki esa o'rta sinf vakillari edi.

XIX asr o'rtalariga kelib Buyuk Britaniyada fuqarolik jamiyati asoslari qaror topdi. Bular so'z, namoyishlar o'tkazish, matbuot erkinligi kabilarda o'z ifodasini topdi. Tabaqaviy imtiyozlar tugatildi. Birinchi o'ringa insonning qaysi tabaqaga mansubligimas, shaxsning erkinligi, qobiliyati, mustaqilligi, individualligi qo'yildi.

1867-yili o'tkazilgan parlament islohoti tufayli saylovda qatnashuvchilarga mulk senzi kamaytirildi. Natijada erkak aholining **50 foizi** saylov huquqiga ega bo'ldi.

Liberallar partiyasidan **U.Gladston 4 marta** bosh vazirlik lavozimini egallagan. **1864 – 1874-yillari** bosh vazirlik davrida uning hukumati qator islohotlar o'tkazdi. *Chunonchi, tred-yunionlarga o'z manfaatlarini sudda himoya qilish huquqi berildi. Ish tashlashlar o'tkazilishiga ruxsat etildi. Parlamentga saylovlarning yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilishi joriy etildi. Maktab islohoti o'tkazildi.*

B.Dizraeli (1874 – 1880) bosh vazirligi davrida ham qator muhim tadbirlar amalga oshirildi. Chunonchi, **1875-yili** haftada **54 soatlik** ish vaqti belgilandi. **10 yoshdan kichik** bolalarni ishga qabul qilish taqiqlandi. **1911-yili** yana bir marta parlament islohoti o'tkazildi. Bu islohot Buyuk Britaniyada fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatchilik taraqqiyoti yo'lida muhim bosqich bo'ldi.

Iqtisodiy taraqqiyotda ortda qolish. **XIX asr so'nggi choragi**da Buyuk Britaniya iqtisodiy jihatdan orqada qola boshladi. **«Jahon ustaxonasi»** deb nom olgan Buyuk Britaniyaning **XIX asr oxiri – XX asr boshlari**da sanoat ishlab chiqarish hajmi **2 marta**, tashqi savdodagi ulushi esa **70 foiz**ga qisqardi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha **3-o'rin**ga

tushib ketdi. Mamlakatning jahon ustaxonasi maqomi o'tmishga aylandi. Buning asosiy sababi kapitalning, asosan, chetga chiqarilishi edi. Ingliz sarmoyadorlari mustamlakalarda zavod, fabrika va boshqa korxonalar qurishni afzal ko'rganlar. Chunki mustamlakalar xomashyo va arzon ishchi kuchi manbayi edi. Chetga kapital chiqarishning keltirgan foydasi tashqi savdo keltirgan foydadan **5 marta ko'p** bo'lgan. Foyda ketidan quvish oqibatida Buyuk Britaniyaning o'zidagi korxonalar vaqtida zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qayta jihozlanmadi. Oqibatda Buyuk Britaniya sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshlik quvvati pasaydi. Germaniya va AQSh tovarlari jahonning barcha bozorlarida Buyuk Britaniya tovarlarini ta'qib eta boshladi. Chunki Germaniya va AQSh tovarlari ham sifatli, ham arzon edi. Shu sababli **20 yil** mobaynida, ya'ni **80-yillardan XX asr boshlarigacha** Germaniyaning Buyuk Britaniyaga eksporti **41 foiz**, AQShdan eksport qilish esa **ikki martadan ziyodroq** oshgani holda, bu davlatlarga ingliz eksporti bor-yo'g'i **8 foiz**ga ko'paygan, xolos.

Qolaversa, yosh rivojlanayotgan davlatlar ingliz tovarlariga katta boj to'lovlari joriy etgandilar. Buyuk Britaniya esa bojsiz savdo an'anasiga sodiq qolaverdi. Buyuk Britaniya harbiy xarajatlarni ko'paytirishga majbur bo'ldi. **1900 – 1914-yillar** oralig'ida bu xarajat **3 marta** ortdi. Shunday bo'lsa-da, Buyuk Britaniya iqtisodiy jihatdan hamon qudratli edi. **London** hanuz jahon moliya markazi edi. Jahon savdosida hisob-kitob Buyuk Britaniya pul birligi (**funt sterling**) asosida amalga oshirilardi.

Buyuk Britaniyaning sanoat ustunligi asta-sekin qo'ldan ketgani bilan, jahon vositachilik savdosidan, sug'urta, bank, kemasozlik sohasidagi monopol hukmronligidan mahrum bo'lganicha yo'q edi. Buyuk Britaniya burjuaziyasi bu monopol hukmronlikni, avvalo, o'zining mustamlaka imperiyasi tufayli uzoq vaqt saqlab qololdi.

Buyuk Britaniya kapital eksport qilishni davom ettirdi. **1910-yili** uning chetga chiqargan kapitali **3,7 mlrd funt-sterling**ni tashkil etdi. Bu kapital mamlakatga juda katta foyda keltirardi. Chetdan kelayotgan daromadlar **1912-yili 176 mln funt-sterling**ni tashkil etdi.

Buyuk Britaniyaning ichki siyosati. Buyuk Britaniya ichki siyosatidagi keskin muammolardan biri **Irlandiya muammosi** edi. Irlandiyaning ijaraga yer olib kun ko'ruvchi dehqonlari nihoyatda muhtojlikda yashardilar. Chunki yerlarni Britaniya lendlordlari o'ziniki qilib olgandi. Ko'pchilik irlandiyaliklar tirikchilik ko'yida Amerikaga ko'chib ketdilar. Ochlik, o'lim va ko'chib ketish natijasida aholi **1851-yildagi 6,5 mln kishidan 1900-yili 4,5 mln kishiga** kamayib ketdi.

60-yillar oxirida Irlandiya masalasi yana siyosiy inqirozga aylandi.

1875-yili Buyuk Britaniya parlamenti deputati, olsterlik protestant, yer egasi **Parnell** Irlandiyaga muxtoriyat huquqi berilishi haqida qonun qabul qilishni (**gomrul**) talab etdi. Shuningdek, u ijaraning qat'iy bo'lishi, ijara haqining insof bilan olinishi va ijaraga olingan yerning qo'ldan qo'lga erkin o'tishini ko'zda tutuvchi **agrar islohot**ni amalga oshirishni talab qilgan hamjamiyat – **irland muxolifat guruhi**ni o'z atrofiga birlashtirdi. Parnell rahbarlik qilgan muxolifat **70-yillar oxiri**da nufuzli kuchga aylandi. Irland dehqonlarining **«Yer-suv ligasi» (1879-yil)** nomli ommaviy tashkiloti shu muxolifat tayanchi bo'ldi. Ijarachilarning yerdan haydalishiga javoban «Yer-suv ligasi» Irlandiyadagi britaniyalik katta yer egalariga qarshi ommaviy terror boshlab yubordi. Ayni paytda, Britaniya tovarlariga boykot kuchaydi.

Gladston (1880 – 1885) hukumati irlandlarga gomrul o'rniga **«Yer-suv akti»ni (1881-yil)** taklif qildi. Unda **15 yil** muhlatga ijara miqdorini adolat bilan belgilaydigan va ijarachiga o'z yer maydonini boshqa bir shaxsga o'tkazish huquqini beradigan komissiya tuzilishi ko'zda tutilgandi.

Irland «Yer-suv ligasi» bu tartibga qarshi chiqdi va boykotni kuchaytirdi, britaniyalik pomeshiklarni qo'rqitish kampaniyasini boshlab yubordi va gomrulni talab qildi. Bunga javoban hukumat ta'qibni kuchaytirdi. Parnellni qamoqqa oldi. «Yer-suv ligasi» taqiqlab qo'yildi. Irland dehqonlari Parnellning da'vati bilan britaniyalik lendlordlarga ijara haqi to'lashdan bosh tortdilar. Taqiqlangan «Yer-suv ligasi» o'rniga **«Xotin-qizlar yer ligasi»** tuzildi. **«Oy yog'dusi bahodirlari», «Oq o'g'lonlar», «Yengilmas botirlar»** kabi millatchi jangovar tashkilotlar paydo bo'ldi.

Irlandiyada ochiqdan ochiq fuqarolar urushi xavfi kuchaydi. Shundan keyin Buyuk Britaniya hukumati Parnell va uning tarafdorlariga kelishishni taklif qildi. **1881-yili** Parnell bilan tuzilgan bitimga muvofiq, irland ijarachi dehqonlari ijara haqi to'lashni davom ettirishlari va boykotni to'xtatishlari, katta yer egalari esa ijarachilarning qarzini «kechib yuborishlari» lozim edi. Biroq Parnell tutgan kelishuvchilik yo'li Irlandiyadagi mayda terrorchi guruhlarni faollashtirdi. Chunonchi, **1882-yili Dublin**da Irlandiya ishlari bo'yicha stats-sekretar va Irlandiya lord-hokimi o'ldirildi. Britaniya tomonidan ta'qib va politsiya terrori boshlandi. Bu hodisaga javoban irland qishlog'ida yangi **«agrar terror»** to'lqini ko'tarildi.

Oxir-oqibatda **1886-yili** hukumat gomrul berishga qaror qildi. Biroq parlament uni rad etdi. Shunday sharoitda Irlandiya burjuaziyasining bir qismi Irlandiyaga muxtoriyat berilishi talabi bilan chiqdi. Irlandiya burjuaziyasining savdo-sanoat doiralari manfaatini ko'zlovchi qismi esa Irlandiyaning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan birmuncha

keskin talabni o'rtaga qo'ydi. Ushbu guruh rahbari **A.Griffit 1905-yili «Shinfeyn» (Biz o'zimiz)** partiyasini tuzdi. U Irlandiya mustaqil parlamenti tuzish tashviqotini olib bordi. Britaniya tovarlarini boykot qilish kuchaytirildi.

Hukumat **1912-yili** parlamentga yana gomrul haqidagi qonun loyihasini taqdim etishga majbur bo'ldi. Biroq parlament yana uni tasdiqlamadi. Oqibatda Irlandiyada siyosiy ahvol nihoyatda keskinlashdi. **1914-yili** boshlangan jahon urushi parlamentni gomrul haqidagi qonunni tasdiqlashga majbur etdi. Chunki urush davrida ichki siyosiy barqarorlik havodek zarur edi.

1911-yili Buyuk Britaniyada parlament islohoti to'g'risida qonun qabul qilindi. Bu qonun Lordlar palatasining veto huquqlarini chekladi. Chunonchi, endi parlamentning Jamoa palatasi bir qonun loyihasini **3 marta** ma'qullasa, Lordlar palatasi tomonidan tasdiqlanmasa ham, qonun kuchiga ega bo'ladigan bo'ldi. Lordlar palatasi moliya masalalarini ham hal etishdan chetlatib qo'yildi. Parlamentning vakolat muddati **5 yil** etib belgilandi. Deputatlarga **maosh** joriy etildi.

Ishchilar harakati. Buyuk Britaniya ishchilar harakatida **tred-yunionlar** (kasaba uyushmalari) katta rol o'ynagan. Tred-yunionlarga a'zo bo'lganlar soni ham yildan yilga oshib borgan. Chunonchi, **1888-yili** ularning soni **750 ming kishi** bo'lgan esa, **1892-yili 1,5 mln** ga yetdi. Buyuk Britaniya tred-yunionlari kurashning parlament yo'lini tanlaganlar. Qonun ishchilarga ish tashlash huquqini bergan. Biroq ish tashlash davom etgan kunlarda korxonalar ko'rgan zarar tred-yunionlar hisobidan undirilardi. Bu amalda ish tashlashni kurash usuli sifatida yo'qqa chiqarardi. Tred-yunionlar o'z partiyalarini tuzishga qaror qildilar. Bu partiya **1900-yili** tuzilgan va **1906-yil**dan **Leyboristlar partiyasi** deb atala boshlandi.

Leyboristlar partiyasi parlament yo'li bilan ishchilar manfaatini himoya qilishni o'z maqsadi deb e'lon qildi. Liberallar hukumati rahbari **L.Jorj:** *«Leyboristlar partiyasining tuzilishi Liberallar hukumatining xatosi»*, – deb afsus bilan qayd etgandi. Leyboristlar partiyasi birinchi parlament saylovidayoq **29 ta** deputatlik o'rnini egalladi.

Iqtisodiy taraqqiyot sur'atining pasayishi zarur iste'mol mahsulotlari narxi ko'tarilishiga olib keldi. Bu esa ishchilarni ish tashlashga majbur etdi. Eng yirik ish tashlash **1911-yili** yuz berdi. Ko'mir qazuvchilarning **6 hafta** davom etgan ish tashlashi hukumatni zarur choralar ko'rishga majbur etdi. Chunonchi, **«Ish haqi minimumi to'g'risida»**gi qonun qabul qilindi. Unga ko'ra, ish tashlashlar vaqtida korxonalar ko'rgan zararning tred-yunionlardan undirilishi taqiqlandi. Ishlab chiqarish jarayonida

baxtsiz hodisa tufayli jabrlanganlarga korxona egalari hisobidan nafaqa to'lash belgilandi. **70 yosh**ga to'lganlarga pensiya tayinlandi. Konchilar uchun **8 soatlik** ish kuni belgilandi. Kasallik va ishsizlik sababli sug'urta to'lovi joriy etildi.

Buyuk Britaniyaning tashqi siyosati. Buyuk Britaniya harbiy jihatdan hamon dunyoning eng qudratli davlati bo'lib qolayotgandi. Qudratli harbiy dengiz floti Buyuk Britaniyani dengizda tanho hukmron davlatga aylantirgan. Shu qudrat tufayli Buyuk Britaniya XIX asrdan dunyoning barcha qit'alarida juda katta hududlarni bosib oldi. **XIX asr oxiri**ga kelganda mustamlakalarga aylantirilgan hududlar **33 mln km²** ni tashkil etdi. Ularda qariyb **370 mln** aholi yashardi.

O'sha davr tarixchilari Buyuk Britaniya uchun mustamlakalarning ahamiyati haqida obrazli qilib shunday deganlar: «*Hindiston Buyuk Britaniyani boquvchi enaga. Misr esa Britaniya imperiyasi boshiga kiydirilgan tojdir*». Britaniyaning dengizdagi tanho hukmronligi mamlakat madhiyasida ham o'z ifodasini topgandi. Unda «*Britaniya, dengizlarni boshqar, hukmronlik qil!*» degan satrlar mavjud edi.

1875-yili dastlab Misr hukumatidan O'rta yer dengizidan Hind okeaniga chiqishga imkon beruvchi **Suvaysh kanali**ning **45% aksiyasi**ni sotib oldi. Tez orada kanalning boshqa, xususiy kishilar qo'lida to'plangan aksiyalarini ham qo'lga kiritdi. Shu orqali Hindistonga chiqadigan dengiz yo'llari nazorati to'la Britaniya qo'liga o'tdi. **1876-yili** esa Britaniya o'z qirolichasi **Viktoriya**ni **Hindiston imperatori** deb e'lon qildi. Shu tariqa Buyuk Britaniya imperiyasi tashkil etildi. Endilikda Buyuk Britaniya imperiya deb, parlamenti esa imperiya parlamenti deb yuritiladigan bo'ldi.

Podsho Rossiyasining Bolqonda mustahkam o'rnashib olishga intilishi, Turkiyaning esa Bolqondagi slavyan xalqlarini o'z zulmi ostida saqlab turishga urinishi **1877-yili** Rossiya – Turkiya urushini keltirib chiqardi. Bu urushda qo'li baland kelgan Rossiya Turkiyani o'zi uchun qulay **San-Stefano** sulh shartnomasini imzolashga majbur etdi. Biroq Rossiyaning kuchayib ketishini istamagan Buyuk Britaniya Rossiyani San-Stefano shartnomasini buyuk davlatlarning **Berlin kongressi**da qayta ko'rib chiqishga majbur etdi. Kongressda slavyan xalqlari manfaatlariga zid qarorlar qabul qilindi. Turkiya manfaatlari qattiq himoya etildi. Bu xizmat evaziga Turkiya Buyuk Britaniya foydasiga **Kipr oro**lidan voz kechdi. Biroq bora-bora Buyuk Britaniya podsho Rossiyasiga nisbatan dushmanlik munosabatini o'zgartirishga majbur bo'ldi. Bunga Germaniya harbiy qudratining tobora o'sib borayotgani, Buyuk Britaniya mustamlakalariga da'vo qilayotgani sabab bo'ldi.

Buyuk Britaniya Afrika qit'asida ham katta mustamlakalar bosib olishga kirishdi. Chunonchi, **1877-yili** oltin va olmosga boy **Transvaal** va **Oranj Respublikalari**ni bosib oldi. **1882-yili** esa **Misr**ni egalladi. Keyingi yillarda **Nigeriya, Somali, Keniya, Uganda**ni zabt etdi. **1899-yili Bur Respublikasi**ga qarshi urush harakatlarini boshladi. **1902-yili** u taslim bo'ldi. Buyuk Britaniya Janubiy Afrikada bosib olgan barcha hududlarni **Janubiy Afrika Ittifoqi**ga birlashtirdi.

Britaniya Germaniyaga qarshi boshqa davlatlar bilan «til topish» yo'lini izlashga majbur bo'ldi. **1901-yili Panama kanali** masalasida AQShga «yon berdi» va AQSh – Kanada chegara masalalarini hal etdi. **1902-yil**ga kelib Yaponiya bilan shartnoma imzoladi va unga katta moliyaviy yordam ko'rsatdi. **1904-yili** Buyuk Britaniya bilan Fransiya o'rtasida shartnoma tuzilib, u **Antanta** nomini oldi. **1907-yili** Buyuk Britaniya – Rossiya bitimi tuzildi.

1906-yili Hindiston Milliy Kongressi partiyasi Hindistonga o'z-o'zini boshqarish huquqini berishni talab qilib chiqa boshladi. Uning da'vati bilan Britaniya tovarlariga boykot e'lon qilindi. Hind xalqiga qarshi terror siyosati kuchaytirildi. **1907-yili** Hindistonda yig'ilishlar va matbuotga qarshi qat'iy qonunlar qabul qilindi. **Bengaliya** ikkiga bo'lib tashlandi. Biroq Buyuk Britaniya hukumati jazolashlar bilan maqsadiga erisholmadi. Endi «yon berish» siyosatini qo'llashga majbur bo'ldi. Chunonchi, **1909-yili** Hindistondagi qonun chiqaruvchi kengashning tarkibi kengaytirildi. Hind burjuaziyasining vakillari ham kengash tarkibiga kiritildi.

Buyuk Britaniya hukumati, ayni paytda, o'zga davlatlarning ichki ishlariga ham aralashishni davom ettirdi. Chunonchi, Erondagi (**1905 – 1911**) inqilobni bostirdi. Xitoyda **1911-yil**gi inqilobga qarshi chiqqan kuchlarni qo'llab-quvvatladi.

18-BOB. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA AMERIKA DAVLATLARI

18.1. AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI

Iqtisodiy taraqqiyot. AQShga qo'shni davlatlar (**Kanada** va **Meksika**) kuchsiz edi. Bu hol AQShni ortiqcha harbiy xarajatlardan xalos etdi. AQShga yashash uchun kelganlarning katta qismi amalda yuqori malakali mutaxassis kishilar edi.

1870 – 1914-yillarda AQShga **25 mln** kishi ko'chib keldi. Bu ham AQSh taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. Shuningdek, ishchi kuchiga

doimiy muhtojlik yangi texnika va texnologiyalarning ishlab chiqarishga keng joriy etilishiga yo'l ochdi. Qo'lida biror hunarning yo'qligi uyat hisoblanadigan hodisaga aylandi. Bu omillar ham AQShning gurkirab rivojlanishiga olib keldi. **XIX asrning oxirgi o'ttiz yili** AQSh tarixida taraqqiyotning yuksakligi va juda muhim iqtisodiy va siyosiy voqealar bilan xarakterlanadi. Agar **1860-yili** AQSh sanoat mahsuloti hajmi jihatidan dunyoda **4-o'rin**da turgan bo'lsa, **1894-yil**ga kelganda **1-o'rin**ga chiqib oldi. **1894-yili** AQShning sanoat mahsuloti G'arbiy Yevropadagi hamma mamlakatlar mahsulotining yarmiga teng va Buyuk Britaniya mahsulotidan **ikki baravar ortiq** edi.

AQShda keng ichki bozorning vujudga keltirilishi kapitalizm taraqqiyoti uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bunga qishloq xo'jaligida kapitalizm taraqqiyotining **«amerikacha yo'li»** (ekin maydonlarini kengaytirish hisobiga mahsulotni ko'paytirish, **«prusscha yo'l»** esa yerga ishlov berishni kuchaytirib hosildorlikni oshirish) g'alaba qilgani, g'arbiy hududlarning tezlik bilan o'zlashtirilgani, katta tezlik bilan temir yo'llar qurilgani va immigratsiya natijasida aholining tez ko'payishi ham yordam berdi.

AQSh sanoati o'sishida Yevropa kapitali ham muhim ro'l o'ynadi. **1880-yili** Yevropa davlatlari AQShga **2 mlrd dollar** kapital kiritgan bo'lsalar, bu ko'rsatkich **1890-yili 3 mlrd** dollarga yetdi. AQSh chetga kapital chiqarish bo'yicha Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniyadan orqada edi.

XX asr boshlarida mamlakatda ishlab chiqarishning markazlashuvi hamda bank kapitali bilan sanoat kapitalining qo'shilib ketishi davom etdi. Sanoat mahsulotining qiymati **1909-yili 20 mlrd** dollardan oshdi. Bu Buyuk Britaniya sanoat mahsulotlari qiymatidan **2,5 baravar**, Germaniyadagidan **2 baravar** ortiq edi.

1901-yili Morgan 1 mlrd dollarlik kapitalga ega **«Po'lat korporatsiyasi»** *deb atalgan katta trestni tashkil etdi. Eng yaxshi kokslanadigan ko'mir* konlari joylashgan *5000 gektardan ko'proq yer, ming milyadan uzunroq temir yo'l, 100 dan ortiq savdo kemalari shu trestning qo'lida edi.*

Rokfellerning **«Standart oyl» tresti** jami neft mahsulotining **90 foiz**ini, **70 000 km** neft quvurini, okeanlarda qatnaydigan yuzlab paroxodlarni o'z qo'liga oldi. Trest neftdan so'ng gaz, elektr sanoatini, **«Anakonda»** mis konsernini, rux-qo'rg'oshin zavodlarini bo'ysundirishga kirishdi.

1903-yili Morgan va Rokfellerning ikkita eng katta banki temir yo'l, sug'urta kompaniyasi va boshqa kompaniyalarning **22 mlrd dollardan**

ortiq kapitali bo'lgan **112 ta** bankni nazorat qiladigan bo'ldi. **1914-yil**ga kelib aholining **2 foizi** milliy boylikning **60 foiz**iga egalik qila boshladi.

1860 – 1910-yillar oralig'ida AQShda fermerlar soni **3 marta** ko'paydi. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer esa **160 mln gektardan 352 mln gektar**ga yetdi. Qishloq xo'jaligida ilm-fan yutuqlari ham keng qo'llanila boshlandi.

Janubda fuqarolar urushidan keyin katta o'zgarishlar yuz berdi. Qulchilik tugatildi. Aholi faollashdi. **1870-yili** AQSh konstitutsiyasiga tuzatish kiritildi. Unga ko'ra, *«irqi, terisining rangi yoki ilgarigi qullik holatini bahona qilib»* saylovlarda ishtirok qilishni har qanaqasiga cheklash bekor qilindi. Janubdagi shtatlarning yangi hukumatlari tarkibida qora tanli aholi vakillari ham qatnasha boshladi. Davlat maktablari tizimi vujudga keltirildi. Adolatli soliq tizimi joriy etildi.

Kongress **1872-yili** janubdagi sobiq isyonchilarga umumiy avf berish to'g'risida qonun qabul qildi. Ayni paytda, isyon boshliqlaridan **500 ga yaqin kish**ining davlat vazifalarida ishlashi taqiqlandi. Bu hol plantatorlarning eski tartiblarni tiklash uchun kurash olib borishiga bahona bo'ldi. Janubda **«Ku-kluks-klan»** singari irqiy-terrorchi tashkilot yana bosh ko'tardi. Taraqqiyparvar ziyoli xodimlardan o'ch olish va **«Linch sudlari»** yana oddiy hodisaga aylandi. Janub qora tanli aholi uchun «turma» bo'lib qoldi. Prezident saylovlari oldidan faqat ikki janubiy shtat (**Janubiy Karolina va Luiziana**) respublikachilar qo'li ostida qoldi, xolos.

AQShda kuchli prezidentlik respublikasi qaror topdi. Ayni paytda, kuchli ikki partiyaviy tizim ham chuqur ildiz otdi. **1828-yili** tashkil topgan **Demokratik partiya** yirik yer egalari, boy fermerlar, janub burjuaziyasi va shimol sanoatchilari, moliyachilar manfaatini himoya qiluvchi partiya bo'lib qoldi. **1854-yili** tashkil topgan **Respublikachilar partiyasi** yirik sanoatchilar va moliyachilar partiyasiga aylandi.

AQShning ichki siyosati. AQShda ham ishchilar sinfi o'z haq-huquqlari uchun qattiq kurash olib borishga majbur bo'lgan. Ishchilar harakatining asosiy maqsadi **8 soatlik** ish kuni joriy etilishiga erishish edi. **1886-yil 1-may** kuni umumiy ish tashlashlarda **350 mingdan ortiq ishchi** ishtirok etdi. Buning natijasida **200 mingga yaqin** ishchi **8 soatlik** ish kuni joriy etilishiga erishdi. Biroq keyingi **2 yil**da muvaffaqiyat deyarli yo'qqa chiqdi.

8 soatlik ish kuni uchun boshlangan harakat **Chikago**da juda ham keskin tus oldi. Shaharning **Senno maydoni**da bo'lgan ommaviy miting vaqtida politsiya ish tashlaganlarga o'q uzdi. Natijada **6 kishi** oldirildi va ko'plab ishchilar yarador bo'ldi. Darg'azab bo'lgan Chikago ishchilari bu

xunrezlikka qarshi norozilik bildirib ommaviy miting tashkil qildilar. Qurolli politsiyachilar guruhi ishchilarga qarshi yuborildi. Sudning qaroriga muvofiq ommaviy harakat rahbarlaridan **4 kishi** dorga osildi. Ular o'limga tik qaradilar. Osib o'ldirishga hukm qilinganlardan biri – **Shpis** oxirgi so'zida: *«Shunday zamon keladiki, bizning sukunatimiz nutqlarimizdan ham o'tkirroq bo'ladi»*, – degandi.

XIX asr oxiriga kelib ijtimoiy harakatga rahbarlik **1881-yili** tuzilgan **«Qo'shma Shtatlar va Kanada uyushgan tred-yunionlari va ishchi ittifoqi federatsiyasi»**ga o'tdi. **1886-yili** u **Amerika Mehnat Federatsiyasi** degan nom oldi. AMF, asosan, yuqori malakali ishchilar manfaatini himoya qilardi. **1914-yili** uning a'zolari soni **2 mln kishi**ni tashkil etdi. Tashkilot ishchilar manfaati yo'lidagi kurashda Kongress a'zolari hamda korxona egalariga ta'sir o'tkazishga alohida e'tibor berdi. Hukumat **1894-yili sentyabrning birinchi dushanbasi**ni **«Mehnat kuni»** bayrami deb e'lon qilishga majbur bo'ldi. Bu bayram hozirgacha nishonlab kelinmoqda.

1913-yil sentyabrda 12 000 korxonada kon ishchilari chidab bo'lmaydigan og'ir mehnat sharoitiga qarshi ish tashladilar. Ular **8 soatlik** ish kuni joriy etilishini va ish haqini **10 foiz**ga oshirishni talab etdilar. Hukumat ishchilarga qarshi kuch ishlatdi. Butun **Kolorado shtati**da harbiy holat e'lon qilindi. Ishchi lagerlari o'qqa tutildi. Ko'plab ishchilar halok bo'ldi va yarador qilindi. Ish tashlovchilarning rahbarlari esa otib tashlandi. Ishchilar majburan konlarga qaytarildi.

Hindular ahvoli. AQShning tub yerli aholisi – hindular qattiq azob-uqubatlarga duchor etildi. Hindular o'z haq-huquqlari uchun kuchlari yetgancha kurashdilar. Biroq kuchlar nihoyatda noteng bo'lgan bu kurashda yengildilar. **1880-yil**gi oxirgi jangda yengilgan hindular alohida rezervatsiyalarga surib chiqarildi. Ular eng unumsiz tashlandiq yerlar edi. Bu yerda ular hukumat «vasiyligi»ga olindilar. Hindular masalasi ana shunday yo'l bilan hal etildi.

AQSh Kongressi hindularga fermerlik faoliyati bilan shug'ullanishga imkon beruvchi qonun qabul qildi. Biroq qonun amalga oshmay qolaverdi. *Bunga, birinchidan, hindularga ajratilgan yer maydonlarining unumsizligi, ikkinchidan, fermerlik faoliyati bilan shug'ullanish hindularning jamoaviy turmush tarziga zid kelishi sabab bo'ldi.*

T.Ruzvelt va V.Vilsonlar davrida ichki siyosat. **1900 – 1914-yillar** AQSh tarixiga **«taraqqiyparvar davr»** nomi bilan kirgan. Bunga AQSh prezidentlarining monopoliyalarga qarshi kurash olib borganliklari sabab bo'lgan. Monopoliyalarga qarshi kurashdan maqsad – o'rta tabaqalar manfaatini himoya qilish edi. Monopoliyalarga qarshi kurash tarafdorlari

taraqqiyparvarlar deb ataldi. Ularning safida **1901-yili** AQSh prezidenti lavozimini egallagan **Teodor Ruzvelt** ham bor edi. U Amerika – Ispaniya urushida shaxsan qatnashib shuhrat qozongandi. T.Ruzveltning monopoliyalarga qarshi kurash siyosati **«Adolatli yo'l»** deb nom oldi. Uning hukumati, ayni paytda, ishchilar bilan ish beruvchilar o'rtasidagi mojarolarda hakamlik vazifasini ham bajara boshladi. Hukumat trestlarga qarshi **20 dan ortiq** sud jarayonini tashkil etdi. Bular ma'lum natijalar ham berdi. Xususan, sud qarori bilan Morgan nazorat qiladigan temir yo'l kompaniyasi ikkiga bo'lindi. **1906-yili temir yo'llar faoliyatini tartibga soluvchi** qonun qabul qilindi.

1912-yilgi prezident saylovlarida demokrat **Vudro Vilson** g'alaba qozondi. U Birinchi jahon urushi arafasida **bojxona tariflari to'g'risida** yangi qonun qabul qilinishiga erishdi. Qonunga ko'ra, tarif stavkasi **10 foiz**ga kamaytirildi. Daromadning oshib borishiga qarab qo'shimcha soliq solinadigan bo'ldi. Saylov tizimida ham islohot o'tkazildi. Unga ko'ra, oldin ayrim shtatlarning qonun chiqaruvchi organlari tomonidan saylanadigan senatorlar endi xalqning ovoz berishi bilan saylanadigan bo'ldi. **1914-yili** AQSh Kongressi **trestlarga qarshi qonun** qabul qildi. Qonun ish tashlash davrida trestlarga yetkazilgan zararni kasaba uyushmalaridan undirib olish tartibini bekor qildi.

AQShning tashqi siyosati. AQSh mustamlakalar va o'z ta'sir doiralarini qo'lga kiritishga Yevropa mamlakatlaridan kechroq kirishdi. Uning e'tibori dastlab Lotin Amerikasi, Karib havzasi va Tinch okeani bo'yida joylashgan mamlakatlarga qaratildi. AQSh Lotin Amerikasida hukmron bo'lib olish uchun kurashib, riyokorlik bilan *«Hamma Amerika mamlakatlarining manfaatlari bitta»* degan g'oyani targ'ib qilib keldi. **1889-yili** AQSh Davlat departamenti tashabbusi bilan **Vashington**da birinchi **Panamerika konferensiyasi** chaqirildi. Birinchi Panamerika konferensiyasining yagona natijasi xalqaro **«Amerika respublikalari syezdi»** degan assotsiatsiya tuzishdan iborat bo'ldi. AQShning g'arbiy yarimshardagi mamlakatlar ustidan tanho hukmronlik qilishga qaratilgan **panamerikanizm** siyosati shu tariqa vujudga keldi. **«Monro doktrinasi»**ga tayanib ko'p o'tmay **Samoa orollari** qo'lga kiritildi. **1893-yili** Tinch okeanining eng markazida, Osiyoga olib boradigan strategik jihatdan muhim dengiz yo'llari kesishgan joydagi **Gavayi orollari** bosib olindi.

Ispaniyaga qarashli **Kuba oroli** Amerika hukmron doiralarining havasini keltirardi. AQSh Ispaniyaga qarshi urushga tayyorlana boshladi. AQSh o'z fuqarolari manfaatini himoya qilish bahonasi ostida **1898-yili** Kuba sohillariga harbiy kemasini yubordi. Bu harbiy kema **Gavana rey-**

dida turgan joyida noma'lum sababga ko'ra portlab ketdi. Natijada **268 kishi** halok bo'ldi, **100 ga yaqin** kishi esa yaralandi. AQSh bu qo'poruvchilikda Ispaniyani aybladi. Kongress esa Ispaniyaga qarshi urush harakatlarini boshlash haqida qaror qabul qildi.

Bu dunyoni qayta bo'lib olish yo'lidagi birinchi urush edi. **3 oy** davom etgan urushda Ispaniya yengildi va sulh so'rashga majbur bo'ldi. **1898-yil 10-dekabr**da **Parij shahr**ida AQSh – Ispaniya tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra, AQSh **Puerto-Riko** va **Guam orollar**iga, Ispaniyaga **20 mln dollar** to'lab **Filippin**ga ega bo'lib oldi. **1898-yili Kuba** nomiga mustaqillik oldi. Amalda esa AQShga qaram bo'lib qoldi.

Panama kanali. AQSh Karib dengizi havzasida ham tajovuzkor siyosat olib bordi. **1903-yili** Kubaga majburan shartnoma qabul qildirdi. Unga ko'ra, AQShning ruxsatisiz bironta davlat bilan ittifoq tuzish yoki o'zining ichki siyosatiga birorta o'zgarish kiritish huquqidan mahrum etildi. AQShning Meksikaga kiritgan kapitali **1911-yil oxir**ida **1,5 mlrd dollar**ga yetdi. Shaxtalarning **78 foizi**, metallurgiya korxonalarining **72 foizi**, neftning **58 foizi**, kauchuk ishlab chiqaruvchi korxonalarning **68 foizi** AQSh monopolistlari qo'liga o'tdi. AQSh **Gvatemala**, **Kosta-Rika** va **Nikaragua**ga asoratli shartlar asosida qarzlar berdi.

Panama kanalini qurayotgan va kasodga uchragan **Fransiya**dan aksionerlik jamiyatining hamma aksiyalarini arzon-garovga sotib oldi. Kanal **Kolumbiya** hududida edi. Endilikda kanal qurish va undan foydalanish huquqiga Amerikaning to'la ega bo'lishiga Kolumbiya Senati qarshilik qildi. Shundan so'ng **1903-yil 3-noyabr**da AQSh Panamada Kolumbiyaga qarshi isyon tashkil etdi va u yerda qo'g'irchoq davlat tuzdi. Panama «mustaqil» respublika deb e'lon qilindi. AQSh Panama Respublikasining «mustaqilligi»ni tan oldi. Panama hukumati AQSh bilan kanal qazish, temir yo'llar va Panama kanali bo'yida istehkomlar qurish uchun Amerikaga juda keng huquqlar bergan shartnomani imzoladi. Buning evaziga Panama **10 mln dollar** oldi va yiliga **250 ming dollar** renta olib turadigan bo'ldi. AQSh Panama kanali qurilishiga e'tiborini kuchaytirdi. Qurilish **10 yil** davom etib, **1914-yili** tugallandi. Kanal AQShning Atlantika okeani sohillaridan Tinch okeani sohillariga boradigan dengiz yo'lini ancha qisqartirib, AQSh uchun strategik va iqtisodiy jihatdan juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Panamerika ittifoqi. **1910-yili Buenos-Ayres shahr**ida o'tkazilgan **IV Panamerika konferensiyasi**da Amerika Respublikalari ittifoqi tashkiloti **«Panamerika ittifoqi»** deb nomlandi va AQSh manfaati uchun niqob bo'ldi. **1912-yili** prezident **Taft «dollar diplomatiyasi»** siyosatini e'lon qildi. Bu siyosat, asosan, iqtisodi nochor bo'lgan Lotin Amerikasiga

nisbatan qo'llandi. «Yordam berish» niqobi ostida sotib olish, davlat to'ntarishlari uyushtirish oddiy holga aylanib qoldi.

Lotin Amerikasini bo'ysundirish uchun boshqa davlatlarga qarshi kurashda AQSh «Monro doktrinasi»ga tayanib ish olib bordi. Bu doktrinani Teodor Ruzvelt AQShga moslab talqin etdi. Unga ko'ra, Amerika mamlakatlaridan birontasida tartibsizliklar doimiy tus olgan taqdirda xalqaro politsiya rolini bajarish AQShning burchi bo'lishi kerak edi. Shu tariqa «yo'g'on kaltak» atamasi vujudga keldi. **«Yo'g'on kaltak»** siyosati AQShni g'arbiy yarimsharning politsiyasiga aylantirdi.

1899-yili AQSh davlat kotibi **Xey Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Fransiya va Italiya**ga ayni bir mazmunda noma yubordi. Unda tarixga **«Ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar»** nomi bilan kirgan doktrina o'z ifodasini topgandi. Unga ko'ra, AQSh **Xitoy**dagi mavjud «ta'sir doiralar»ni tan olardi. Ayni paytda, Amerika tovarlari uchun shu «ta'sir doiralar»ni ochib qo'yishni, ya'ni savdo-sotiq erkinligini talab qilardi. Biror-bir davlat Xitoyda savdo qilish uchun hech qanday imtiyoz olmasligi zarur edi. *AQSh Xitoyning boshqa davlatlarga bergan imtiyozlarini Amerika kapitalining Xitoyga kirib kelishiga va Osiyoda o'zining cheksiz hukmronligini o'rnatish rejasi amalga oshirilishi yo'lidagi asosiy g'ov deb hisoblardi.*

Prezident **V.Vilson** tashqi siyosatda o'zining yaqin o'tmishdoshlari qatori AQShning dunyoda eng qudratli ta'sirga ega bo'lishi uchun kurashdi. Chunonchi, u bunday deb yozgandi: *«Yangi davr arafasida turibmiz. Bu davrda biz amerikaliklar dunyoni boshqarishimiz kerak».*

18.2. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA LOTIN AMERIKASI DAVLATLARI

Umumiy tavsif. Shimoliy va Janubiy Amerikaning taraqqiyoti bir xil darajada kechgani yo'q. Shimoliy Amerikada joylashgan AQSh dunyoning birinchi davlatiga aylangan bo'lsa, Lotin Amerikasi taraqqiyotda orqada qolib ketdi. Lotin Amerikasida siyosiy jihatdan mustaqil davlatlarning tashkil topish jarayoni **1870-yil**ga kelib deyarli tugallandi. **Argentina, Meksika, Chili, Urugvay, Venesuela** va **Kolumbiya** mamlakatlari Ispaniya zulmiga qarshi uzoq vaqt kurashdilar. Lotin Amerikasi mamlakatlarining ko'pchiligida **XIX asr oxirgi chorag**ida sanoat taraqqiyoti endigina boshlangandi. Ularning iqtisodiyotida kapitalistik munosabatlar bilan bir qatorda feodal munosabatlar, qulchilik qoldiqlari va hindularning sodda urug'-qabilachilik jamoalari ham mavjud edi. Bu mamlakatlarning

asriy qoloqligidan Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSh va Germaniya kabi buyuk davlatlar monopolistlari foydalanib qoldilar. **XIX asr oxirlari**ga kelib Lotin Amerikasi mamlakatlari amalda Buyuk Britaniya va AQShning yarim mustamlakalariga aylandi.

Lotin Amerikasi davlatlarida kapitalizmning qaror topishi uzoq va o'ta mashaqqatli yo'ldan bordi. Bu mintaqaga eng ko'p kapital kiritgan davlat **Buyuk Britaniya** edi. Asosiy mablag'lar bandargohlarga, temir yo'llar qurilishiga, banklarga hamda tropik o'simliklarni o'stirishga va go'sht sanoatiga sarflanardi.

XIX asr oxirida Lotin Amerikasiga AQSh kapitali ham kirib kela boshladi. **1897-yili** AQSh Lotin Amerikasiga **250 – 300 mln dollar** kapital qo'ygan bo'lsa, **1913-yili** bu ko'rsatkich **1,5 mlrd dollar**ga yetdi.

1868 – 1878-yillari Kuba xalqi ispan mustamlakachilariga qarshi ozodlik kurashi olib bordi (Ispaniya Kubani **1510-yili** bosib olgandi). Biroq Ispaniya qaramligidan ozod bo'lishga erishilmadi. Shunday bo'lsa-da, **1880-yili** qulchilikning bekor qilinishiga erishdi. Tez orada Kubaga AQSh da'vo qila boshladi. U Kubani sotib olish niyatida Ispaniyaga murojaat etdi. Biroq Ispaniya rozi bo'lmadi. **1895-yili** Kuba xalqi **Xose Marti** hamda **Maksimo Gomes** boshchiligida qo'zg'olon ko'tardi. **1898-yili Parij**da imzolangan Ispaniya – AQSh sulh shartnomasiga ko'ra Kuba «mustaqil» deb e'lon qilingan bo'lsa-da, amalda AQShga qaram bo'lib qoldi.

XIX asr 70-yillarida AQSh – Meksika munosabatlari keskinlasha bordi. Bunga AQShning Meksikani o'ziga siyosiy va iqtisodiy qaram qilishga intilishi sabab bo'ldi. Chunonchi, **1876-yili** AQSh o'ziga chegaradosh Meksikaning shimoliy tumanlarida Amerika korxonalari va temir yo'llar qurish uchun Meksika hukumatidan «ruxsat» so'radi. Hukumat bu murojaatni rad etgach, davlat to'ntarishi uyushtirdi. AQSh va mahalliy pomeshiklar reaksiyasiga tayangan **Porfirio Dias 1876-yili** prezident deb e'lon qilindi va bu lavozimda ozgina tanaffus bilan **1911-yil**gacha turdi.

Dias diktaturasi davri Meksikani chet el monopoliyalarining yarim mustamlakasiga aylantirish davri bo'ldi. Dias idora qilgan davr oxiriga borib AQShning Meksikaga qo'ygan kapitali **1 mlrd dollar**dan oshdi. Holbuki, bu vaqtda Buyuk Britaniya kapitali **350 mln dollar**dan oshmasdi. AQSh Meksikaning neft konlarini o'z qo'liga oldi. Tashqi savdoning **90 foiz**ini o'z nazoratiga bo'ysundirdi.

1909-yili esa Meksikada hosil bo'lmadi. Oqibatda dehqonlar g'alayoni boshlandi. Dehqonlar harakatiga **Emiliano Sapata** rahbarlik qildi. Sapata **«Dehqonlarni himoya qilish xuntasi»**ni tuzdi. Uning shiori *«Yer va ozodlik»* degan chaqiriqdan iborat edi.

Diktaturadan norozilik burjuaziya orasida ham o'sib bordi. Cho'yan quyuvchi zavod va paxta plantatsiyalari egasi bo'lgan **Fransisko Madero** muxolifatga bosh bo'ldi. **1908-yili** u siyosiy broshyura nashr qilib, unda konstitutsiyaga muvofiq qonuniy saylovlar yo'li bilan hokimiyatni almashtirish zarurligi haqidagi fikrlarni ilgari surdi.

1910-yil iyulda Meksikada prezidentlik saylovi o'tkazildi. Diktator Diasni prezidentlikka qayta saylashga qarshi turgan ko'pchilik Madero atrofida birlashdi. Prezidentlikka saylovda Madero o'z nomzodini qo'ydi. Saylov oqibatlaridan qo'rqqan Dias Maderoni turmaga tashlatdi. Saylovlar «tinch» o'tib, odatdagidek, Dias yana «g'alaba qozondi». Oradan ancha vaqt o'tgach turmadan bo'shatilgan Madero AQShga ketishga majbur bo'ldi va **1910-yili** u yerda **«San-Luis-Potosi rejasi»** deb atalgan o'z dasturini e'lon qildi. U saylovlarning soxtaligini oshkor qilib, o'zini esa qonuniy prezident deb atadi. Diktatura davrida hindulardan g'ayriqonuniy tortib olingan yerlarini qaytarib berish, pomeshiklarga qarashli yerlarning bir qismini haq to'lash evaziga dehqonlarga berishni va'da qildi. Xalqni qo'zg'olonga chaqirdi. **1911-yili** ko'tarilgan xalq qo'zg'olonidan qo'rqib ketgan Dias Meksikadan qochishga majbur bo'ldi.

1911-yil 7-iyunda Madero poytaxtga kirib keldi va prezidentlik lavozimini egalladi. Biroq Meksikadagi og'ir ichki siyosiy vaziyat tufayli u biror jiddiy o'zgarish qilolmadi. Shunday bo'lsa-da, ish kunini **10 soat**gacha cheklab qo'ydi va ishlab chiqarishda jarima tizimini bekor qildi. Chet el kapitalini cheklashga va milliy iqtisodni himoya qilishga intildi. AQSh Maderoning milliy siyosatiga dushmanlik ko'zi bilan qaradi va diktator Diasning maslakdoshi, general **Uerta**ni Maderoga qarshi gijgijlay boshladi. AQShning qo'llashidan ruhlangan Uerta **1913-yili** davlat to'ntarishi o'tkazdi. Madero otib tashlandi.

Uerta diktaturasi Meksikadagi ahvolni yanada og'irlashtirdi. Faqat oddiy xalq emas, balki milliy burjuaziya va burjualashgan pomeshiklarning bir qismi ham Uertaga qarshi chiqdilar. Mamlakatda fuqarolar urushi boshlandi. Milliy vatanparvar kuchlar general Uerta diktaturasini ag'darib tashladilar.

XX asr boshlarida Meksikada qudratli dehqonlar harakati boshlandi. Buning sababi **dehqonlarning yersizligi** edi. Dehqonlar harakati inqilobga aylandi. Bu inqilob **(1910 – 1917)** Meksika tarixiga **«burjua inqilobi»** nomi bilan kirgan. Mamlakat janubidagi dehqonlar harakati rahbari **Emiliano Sapata 1911-yili** o'z agrar dasturini elon qildi. Bu dastur hindulardan tortib olingan yerlarni ularga qaytarish, qolgan barcha yerlarni musodara qilish, ularni yersiz dehqonlarga bo'lib berish kabi

talablardan iborat edi.

Mamlakat shimolidagi dehqonlar harakati rahbari **Fransisko Vilya** bayrog'iga *«Yer va ozodlik»* shiori yozilgandi. E.Sapata va F.Vilya qurolli kuchlari **1914-yili** mamlakat poytaxti **Mexiko shahr**ini egalladi. Lekin ko'p o'tmay hukumat qo'shini ularni chekinishga majbur etdi. **1917-yil**ga kelibgina dehqonlar qo'zg'oloni bostirildi. E.Sapata va F.Vilya turli yillarda yollangan qotillar tomonidan o'ldirildi.

Dehqonlar qo'zg'oloni yengilgan bo'lsa-da, izsiz ketmadi. Hukumat agrar masalani qisman bo'lsa-da hal etdi. Latifundistlar tomonidan noqonuniy bosib olingan yerlar dehqonlarga qaytarildi. Qolaversa, **1917-yili** demokratik ruhdagi konstitutsiya qabul qilindi.

18.3. LOTIN AMERIKASINING BOSHQA DAVLATLARI

Braziliyada qulchilikning bekor qilinishi. **Braziliya** Lotin Amerikasidagi yirik davlatlardan biri bo'lib, unda **15 mln** aholi yashagan. Braziliya, ayni paytda, qoloq davlat ham edi. Braziliyada qulchilik, qashshoqlik, jaholat, huquqsizlik keng avj olgandi. Shunday bir sharoitda qullar ham o'z insoniy huquqlarini himoya qilishga majbur bo'lganlar. Chunonchi, qullarning **Bonifatsio** boshchiligida shakarqamish plantatsiyalarida ko'tarilgan qo'zg'oloni buning dalilidir. Qullar o'zlarining **qora tanlilar respublikasi**ni e'lon qildilar va Bonifatsioni prezident etib sayladilar. Bonifatsio qurolli kurash orqali barcha qullarni ozod qilish zarur deb hisoblardi. Buroq hukumat qo'shinlari Bonifatsio qo'shinini tor-mor etgan.

Qullikka qarshi kuchlar **1883-yili** qullarni qullikdan ozod etishga chaqiruvchi **«Ozodlik manifesti»**ni e'lon qildilar. Qulchilikka qarshi bo'lgan ayrim plantatorlar ham **abolitsionistik** harakatni quvvatladilar. Masalan, ulardan biri plantator **Antonio** o'z qullarini ozod qilib yubordi. U saroy vaziri bo'lgach qullarni ozod qilish haqida taklif kiritdi. Kasalligi uchun vazifasini bajarolmayotgan imperator **Pedru II** o'rniga vaqtincha davlatni boshqarib turgan malika **Izabel 1888-yili** Braziliyada qullarni ozod qilish haqidagi **«Oltin qonun»** nomi bilan mashhur qonunga qo'l qo'ydi. Mamlakatda bu paytda **750 ming qul** bor edi.

Respublika e'lon qilinishi. Qulchilik bekor qilingach, respublika uchun kurash kuchayib ketdi. **1889-yili Rio-de-Janeyro**da respublika tarafdorlarining katta namoyishi bo'lib o'tdi. Namoyishda talabalar, hunarmandlar, savdogarlar qatnashdi. Politsiya namoyishni tarqatishga urinib ko'rdi va boshliqlarini qamoqqa tashladi. Bu namoyishdan marshal **Deodoru de Fonseko** rahbarligida isyon ko'targan respublikachilar foydalandi. **1889-yil**

19-noyabrda Pedru II *taxtdan voz kechib, Britaniya kemasida Portugaliya*ga jo'nab ketdi. Hokimiyat harbiylar qo'liga o'tdi. Yangi hukumat mamlakatni respublika deb e'lon qildi. **1891-yili** qabul qilingan konstitutsiyasiga binoan mamlakat **Braziliya Qo'shma Shtatlari** deb ataladigan bo'ldi. Barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi e'lon qilindi. Yozish va o'qishni biluvchi fuqarolarga umumiy saylov e'lon qilindi (aholining **90 foizi** savodsiz edi).

Mamlakatning iqtisodiy ahvoli og'ir edi. Bundan ingliz, fransuz, german va Shimoliy Amerika monopoliyalari foydalandi. Ular hal qiluvchi tarmoqlarni egallab oldilar. **1910-yili** mamlakatga keltirilgan chet el kapitali **3 mlrd dollar**ni tashkil etdi.

Argentinadagi ahvol. **1870-yili** *mamlakatda* **2 mln aholi** *yashardi.* Uzoq davom etgan ichki kurash, **Paragvay** bilan olib borilgan urush oqibatida Argentinada iqtisodiy hayot deyarli to'xtab qoldi. Mamlakat hukumati ichki ahvolni barqarorlashtirish borasida juda katta ishlarni amalga oshirdi. Chunonchi, **1872-yili Buenos-Ayres**da milliy bank ochildi. Immigratsiya rag'batlantirila boshlandi. Natijada qisqa davr ichida Argentinaga **300 000 kishi** ko'chib keldi. Yevropadan kelganlar imtiyozli shartlar bilan davlatdan yer oldilar. Ko'plab shaharlar, yo'llar qurildi, kengaytirildi. Maorif va ilm-fan tez rivojlana boshladi. Buenos-Ayresda piyoda askarlar va harbiy dengiz maktabi ochilib, harbiy ta'limga asos solindi.

1876-yili *immigratsiya va kolonizatsiya to'g'risida qonun qabul qilindi.* Qonunga ko'ra, hali aholi band qilmagan davlat yerlari **80 gektar**dan oshmaydigan maydonlarga bo'linib sotildi. Hindularning hosildor yerlari tortib olinib, zobitlar va askarlarga bepul bo'lib berildi. Hukumat, ayni paytda, chet el kapitali kiritilishini ham rag'batlantirib bordi. Birgina Buyuk Britaniyaning kiritgan kapitali **1914-yili 1,5 mln dollar**ni tashkil etgan.

Biroq mehnatkashlarning ahvoli hamon yomonligicha qolmoqda edi. Oqibatda ishchilar sinfi o'z haq-huquqlari uchun kurash boshladi. Ular **8 soatlik** ish kunini talab qildilar. **1895-yili Sotsialistik partiya** tuzildi. Partiya diniy ta'limni bekor qilish, yagona soliq joriy etish, *kasaba uyushmalarini birlashtirish va namoyishlarga ruxsat uchun* kurash olib bordi. **18 yosh**ga to'lgan erkak fuqarolarga (ruhoniy va harbiylardan tashqari) umumiy saylov huquqini berish to'g'risida qonun chiqarilishiga erishildi.

Markaziy Amerika davlatlari. Markaziy Amerikada AQShning ta'siri tez sur'atlar bilan kuchayib bordi. Buning oqibatida ichki kurashlar natijasida «holdan toygan» **Gvatemala** AQShga qaram bo'lib qoldi.

Gonduras, Salvador va **Nikaragua 1895 – 1896-yillar**da yagona davlat – **Buyuk Markaziy Amerika Respublikasi**ga birlashdilar. Aynan

shu birlik AQShni tashvishga solib qo'ydi. Chunki AQShga Markaziy Amerikada uning siyosatiga to'g'onoq bo'lishi mumkin bo'lgan davlatlar ittifoqi kerak emasdi. AQSh monopoliyalari bu mamlakatlardagi hukumatga muxolifatdagi guruhlarga tayanib Buyuk Markaziy Amerika Respublikasini tarqatib yuborishga erishdi.

1914-yil avgustda Panama kanali ochilgach, kanal zonasida Amerika gubernatori o'ziga bo'ysunadigan yirik harbiy kuchlar bilan Markaziy Amerika mamlakatlariga xavf solib turdi.

19-BOB. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA VA BOSHQA YEVROPA DAVLATLARI

19.1. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA PODSHO ROSSIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY VA IQTISODIY AHVOLI

Rossiyaning siyosiy tuzumi. Rossiya bu davrda cheklanmagan monarxiya bo'lib, butun hokimiyat podsho qo'lida to'plangandi. Podsho hokimiyatining asosiy tayanchi **pomeshiklar** hamda **pravoslav cherkovi** edi. Podsho xonadonining o'zi eng katta pomeshik bo'lib, **7 mln desyatina (1 desyatina 1,1 gektar)** yerga egalik qilardi.

Rossiyada burjuaziya sinfi ham bor edi. Ularning sarmoyalari hajmi tobora o'sib bordi. Biroq burjuaziyaning siyosiy nufuzi past, davlatni boshqarishdagi ishtiroki deyarli sezilmasdi.

Iqtisodiy ahvol. Rossiya agrar-industrial davlat edi. Mamlakat aholisining **85%** qishloqlarda yashardi. Shunday bo'lsa-da, podsho Rossiyasida kapitalizm shiddat bilan rivojlandi. Chet el kapitalining kirib kelishi tufayli og'ir sanoat tezlik bilan ilgariladi. Uning metallurgiya, mashinasozlik, neft va ko'mir qazib olish kabi tarmoqlari yuksala boshladi. Rossiya qisqa vaqt ichida **(1898 – 1901) neft qazib chiqarish** bo'yicha AQShni ham ortda qoldirdi va dunyoda **1-o'rin**ga chiqdi. Chetga, asosan, kerosin eksport qilindi. Metall eritish bo'yicha dunyoda **4-o'rin**ni egalladi.

1905-yili ishchilar soni **500 dan ortiq** bo'lgan korxonalarda butun ishchilarning deyarli **50 foizi** ishlardi. Shu davr Rossiya iqtisodiy taraqqiyotiga xos yana bir xususiyat **monopoliyalarning vujudga kelgani** bo'ldi. Chunonchi, Rossiya qora metallurgiyasida **«Prodmet»**, ko'mir sanoatida **«Produgol»** degan yirik monopolistik tashkilotlar qaror topdi. Rangli metallurgiyada mis prokati zavodlari sindikatlari bilan **«Med»** jamiyati hal qiluvchi mavqeni egallab oldi.

Mamlakat sanoatiga qo'yilgan chet el kapitalining asosiy qismi **Fransiya (24%)** kapitali edi. **Buyuk Britaniya** va **Germaniya** kapitali **2 – 3-o'rinlar**ni egalladi. Ayni paytda, Rossiya chet el davlatlaridan tez-tez qarz ham olib turdi. **1914-yil**ga kelganda bu qarzlar **5,4 mlrd rubl**ni tashkil etdi.

Rossiya qishloq xo'jaligi ham sekinlik bilan bo'lsa-da taraqqiy etdi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish ham o'sdi. Asosiy eksport mahsuloti **g'alla** edi. Agar **1876 – 1880-yillari 277 mln pud g'alla** eksport qilingan bo'lsa, bu ko'rsatkich **1886 – 1900-yillari 444 mln pud**ga yetdi.

Rossiyada kapitalizm taraqqiy etishi bilan, moliya kapital ham vujudga keldi. **«Peterburg xalqaro banki», «Azov – Don»** va **«Rus – Osiyo» banklari** mamlakat hayotida yetakchi rol o'ynay boshladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya iqtisodiy taraqqiyotda boshqa buyuk davlatlarga nisbatan orqada qoldi. Chunonchi, sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyoda **5-o'rin**da edi. Aholi jon boshiga hisoblaganda esa Germaniyaga nisbatan **13 marta**, Buyuk Britaniyaga nisbatan **14 marta**, AQShga nisbatan esa **21,5 marta** kam sanoat mahsuloti ishlab chiqardi.

Ichki siyosat. **1904-yil**dagi **Rossiya – Yaponiya urushida** Rossiyaning yengilishi xalq ommasining turmush darajasini yanada og'irlashtirib yubordi. Oxir-oqibat bu **1905-yili inqilob** yuz berishiga olib keldi. To'g'ri, inqilob yengildi. Hukmron tabaqalar bu inqilobdan zarur saboqlar ham chiqardi. Uning asosiysi dehqonlarni inqilobiy harakatdan chetlatish haqidagi saboq, ikkinchisi qishloqlarda podsho hokimiyatining kuchli ijtimoiy tayanchini vujudga keltirish muammosi edi.

Bu maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun **agrar islohot** o'tkazishga qaror qilindi. Podsho **1906-yili** agrar islohot va dehqonlarni ko'chirish to'g'risida farmon chiqardi. Islohot bosh vazir **Stolipin** tashabbusi bilan bog'liq bo'lgani uchun tarixga **«Stolipin agrar islohoti»** nomi bilan kirgan. Unga ko'ra, dehqonlarning o'z xususiy yeriga ega bo'lishi masalasi quyidagi **3 usul** orqali amalga oshirilishi mo'ljallandi: *a) jamoa yer egaligini bekor qilish va dehqonlarga ular sotib olgan jamoa yerini xususiy mulkka aylantirish hamda dehqonga o'z yerini sotish huquqini ham berish; b) dehqonlarning davlat va pomeshiklarga qarashli yerlarni sotib olishlari uchun ularga «Dehqonlar banki» orqali yordam berish; c) yer tanqisligi kuchli bo'lgan markaziy mintaqalardagi dehqonlarning bir qismini Sibir, Uzoq Sharq va imperiyaning milliy: chekka o'lkalariga ko'chirish.*

Stolipin agrar islohoti qishloq aholisining tabaqalanishini va ichki bo-

zoming o'sishini kuchaytirdi. Badavlat dehqonlar (quloqlar)ning mavqeyini mustahkamladi. Biroq agrar islohot pomeshik yer egaligini tugatolmadi. Qolaversa, ko'chib ketganlar yana avvalgi joylariga qayta ko'chib kelishga majbur bo'ldilar. Chunki ko'chirish moddiy jihatdan yetarli ta'minlanmadi. Oqibatda **1911-yili** ko'chib ketganlarning (ular **3,5 mln dan ortiq** edi) yarmidan ko'pi qayta ko'chib keldi.

Shu tariqa Stolipin mamlakatni «tinchlantira» olmadi. Hukmron tabaqalar uning iste'fo berishini talab eta boshladilar. Bunga erishilmagach, **1911-yili** Stolipin otib o'ldirildi. Lekin, barcha nuqsonlariga qaramay, Stolipin agrar siyosati qishloqda kapitalizmning taraqqiy etishiga yo'l ochdi.

19.2. ROSSIYANING TASHQI VA ICHKI SIYOSATIDAGI O'ZGARISHLAR

Tashqi siyosat. Rossiya mustamlakachilik imperiyasi Buyuk Britaniya yoki Fransiya mustamlakachilik imperiyasidan farq qilardi. *Bu farq Rossiya bosib olgan hududlarning imperiya tarkibiga bevosita qo'shib olinishida edi.* Shu tufayli Rossiyaning okean yoki dengizorti mustamlakalari yo'q edi. Rossiya bosqinchilik siyosatining asosiy yo'nalishlari **Bolqon, Uzoq Sharq,** Turkiyaga qarashli Qora dengiz bilan O'rta yer dengizini bog'lovchi **Dardanell** va **Bosfor bo'g'ozlari** hamda **O'rta Osiyo**ga qaratildi.

Rossiya – Turkiya urushi. **1875-yili Gersegovina** va **Bosniya**da Turkiya mustamlakachiligiga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Ular milliy mustaqillik talab qildilar. **Bolgariya**da ham shunday qo'zg'olon ko'tarildi. Biroq qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostirildi. **Bolqon inqirozi** buyuk davlatlar *manfaatini yana bir bor to'qnashtirdi.*

1876-yil Serbiya – Turkiya urushida Turkiyaning qo'li baland kela boshladi. Shunday sharoitda Rossiya Turkiyadan Serbiya bilan yarash bitimi imzolashni va armiyasini demobilizatsiya qilishni talab etdi. Biroq Turkiya bu talabning bajarilishini paysalga soldi. Nihoyat, Rossiya Turkiyaga ultimatum topshirdi. Shu tariqa Serbiya halokatdan saqlab qolindi. Turkiya Serbiya bilan tinchlik shartnomasi tuzgan bo'lsa-da, o'z armiyasini demobilizatsiya qilmadi. Bu Rossiya uchun ayni muddao bo'ldi. Rossiya **1877-yil 24-apre**lda Turkiyaga urush e'lon qildi. **Serbiya** va **Chernogoriya** ham urush harakatlarida qatnashdi. Rossiya Turkiyaga katta talafot yetkazdi. **1878-yil yanvar**da Rossiya armiyasi **Adrianopol**ni ishg'ol qildi.

Rossiyaning muvaffaqiyatlari Buyuk Britaniyani tashvishga solib qo'ydi va u o'z harbiy kemalarini **Marmar dengiz**iga kiritdi. Rossiya armiyasi

Konstantinopolga bostirib kirsa, Rossiya bilan diplomatik aloqasini uzishini ma'lum qildi.

San-Stefano shartnomasi. **1878-yili San-Stefano**da Rossiya – Turkiya shartnomasi imzolandi. Shartnoma Bolqon yarimorolining siyosiy xaritasini tubdan o'zgartirib yubordi. Chunonchi, **Bolgariya** Turkiyaga nomigagina qaram, amalda esa mustaqil davlatga aylandi. **Chernogoriya, Serbiya** va **Ruminiya** to'la mustaqil davlatlar deb tan olindi. Turkiyaning Rossiyaga **1 mlrd 410 mln rubl** tovon to'lashi belgilandi. Biroq San-Stefano shartnomasini Buyuk Britaniya tan olmadi. U bu shartnomani qayta ko'rib chiqishni talab etdi. Germaniya va Avstriya-Vengriya ham bu talabga qo'shildilar. Yakkalanib qolgan Rossiya xalqaro kongress – **Berlin kongressi** chaqirilishiga noiloj rozi bo'ldi.

Berlin kongressi. Kongress **1878-yil 13-iyun**da ochildi. Unda **Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Avstriya-Vengriya, Italiya va Turkiya** delegatsiyalari qatnashdi. Kongressda **«Berlin traktati»** deb nomlangan hujjat imzolandi. Bu hujjat Rossiyaning San-Stefano shartnomasi natijasida qo'lga kiritgan katta muvaffaqiyatlari ahamiyatini kamaytirib yubordi. Chunonchi, Buyuk Britaniya harbiy kemalari **Qora dengiz**ga kirish huquqiga ega bo'ldi. **Kipr oroli** Buyuk Britaniyaga, **Bosniya** va **Gersegovina** Avstriya-Vengriyaga in'om etildi. Bolgariya ikkiga bo'lib yuborildi. Ayni paytda, Turkiya to'lashi lozim bo'lgan tovonning katta qismi evaziga Rossiyaga Kavkazning **Botumi**, **Kars** va **Ardaxan** hududlari berildi. **Chernogoriya, Serbiya va Ruminiya**ning davlat mustaqilligi tan olindi.

Uzoq Sharq siyosati. Rossiya savdo-sanoat doiralari Uzoq Sharqning qo'lga kiritilishidan manfaatdor edilar. Shuning uchun **Amurbo'yi** va **Primorye** o'lkasini bosib oldi. Shu sababli Rossiya Yaponiya bilan yaxshi munosabatda bo'lishga intildi. Chunonchi, AQSh, Buyuk Britaniya va Fransiyaning Yaponiyaga qarshi qaratilgan harbiy ekspeditsiyalarida ishtirok etmadi. **1872-yil**i Yaponiyaga **doimiy vaki**l ham tayinladi. **1875-yili** Yaponiya hukumati **Janubiy Saxalin**ga bo'lgan da'vosidan voz kechish sharti bilan **Kuril orollari shimoliy qismi**ning Yaponiyaga berilishi to'g'risida shartnoma tuzishga erishdi.

O'rta Osiyo masalasida qarama-qarshiliklar: **70-yillar**da podsho hukumati bilan Britaniya hukumati o'rtasida O'rta Osiyodagi ta'sir doiralarini aniqlash uchun muzokaralar boshlandi va bu **1873-yili** bitim tuzish bilan yakunlandi. Unga ko'ra, Rossiya Afg'onistonni o'z ta'siridan tashqari deb tan oldi. Buyuk Britaniya esa Xivaga da'vo qilmaydigan bo'ldi.

1878-yili Buyuk Britaniya Afg'onistonga qarshi bosqinchilik harakatlarini boshladi. Biroq afg'on xalqi bosqinchilarga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Qo'zg'olonga Afg'onistonning Rossiya ta'sirida bo'lgan siyosiy arbobi **Abdurahmon** boshchilik qildi. Qo'zg'olonchilar tez orada inglizlar ustidan g'alaba qozondilar. Bu mag'lubiyatdan so'ng Buyuk Britaniya hukumati Abdurahmonni Afg'oniston amiri deb tan olishga majbur bo'ldi.

O'zining strategik maqsadiga erishgan Rossiya hozirgi Turkmaniston hududlarini bosib olishga kirishdi. **1880-yili** Rossiya qo'shinlari general **Skobelev** boshchiligida yurish boshladi. **1881-yili** shiddatli janglardan keyin **Ko'ktepa** qal'asi egallandi. Ayni paytda, turkman qabilalari o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar, ularning yagona kuch sifatida birlasholmagani ham Rossiyaga qo'l keldi. Natijada **1885-yili Kushka shahri**ni bosib oldi. Shundan so'ng Buyuk Britaniya va Rossiya o'rtasida Afg'onistonning taqdiri va uning chegarasini belgilash masalasi hal etildi. **1891-yili** Rossiya bosib olgan O'rta Osiyo hududi va Afg'oniston o'rtasidagi chegaraning **Pomir**dan o'tishi haqidagi shartnoma imzolandi.

Rus – yapon urushi. Rossiya – Yaponiya munosabatlari Xitoy va Manjuriya tufayli keskinlashdi. Yaponiya endi buyuk davlatlar bilan yaqinlashish yo'llarini izlay boshladi. Nihoyat, **1902-yili Yaponiya – Buyuk Britaniya** bitimi imzolandi. Ular har qanday sharoitda ham bir-birini qo'llab-quvvatlashga kelishib oldilar.

AQSh Yaponiyani Rossiyaga qarshi rag'batlantira boshladi. Harbiy jihatdan urushga tayyor Yaponiya harbiy floti **1904-yili** urush e'lon qilmay **Port-Artur**dagi Rossiya harbiy dengiz kuchlariga hujum qildi va unga katta talafot yetkazdi. Rossiya quruqlikda ham mag'lubiyatga uchradi. Nihoyat, Port-Artur taslim bo'ldi. **1905-yil 15-may**da **Susima** yonida rus floti yakson qilindi. Shu tariqa deyarli butun Tinch okean floti halokatga uchradi.

Rossiyaning Yaponiya bilan tinchlik shartnomasini imzolashdan boshqa iloji qolmadi. AQSh vositachiligida **1905-yil 23-avgust**da shunday shartnoma imzolandi. Shartnomaga ko'ra, Rossiya **Koreya**ni Yaponiya ta'sir doirasi deb tan oldi. Yaponiya Port-Arturni ijaraga olish huquqiga ega bo'ldi. **Saxalin orolining janubiy qismi** Yaponiyaga berildi. Ayni paytda, Yaponiyaning Rossiya tomoni tovon to'lashi haqidagi talabi rad etildi.

Rossiyada Davlat dumasining tashkil etilishi. Mavjud hukmron tuzum chuqur ijtimoiy islohotlarning ashaddiy dushmani edi. Korxonalarda ish vaqti *o'rta hisobda* **12 – 13 soat**, *to'qimachilik sanoatida esa* **13 – 14 soat**

davom etardi. Fabrikaga yollangan ishchi xo'jayin do'konidan mahsulotni nasiyaga olishga majbur edi. Do'kon korxona egalari uchun ishchilarni qo'shimcha ekspluatatsiya qilish vositasi vazifasini bajargan. Milliy chekka o'lkalarda ishchilar, ayniqsa, og'ir va huquqsiz ahvolda edilar.

Jamiyatda mavjud tuzumni o'zgartirish haqida o'ylovchi turli guruhlar, uyushmalar yo'q emasdi. Ularning biri **G.V.Plexanov** rahbarlik qilgan **«Mehnatni ozod qilish»** guruhi edi. Bu guruh **1883-yili** tuzildi. G.V.Plexanov ishchilar sinfini inqilobiy kuch deb hisoblagan. Lekin hokimiyatni qurolli qo'zg'olon yo'li bilan bosib olishga qarshi edi. U jamiyatni islohotlar yo'li bilan yangilash tarafdori bo'lgan.

1895-yili Peterburgda **«Ishchilar sinfini ozod qilish uchun kurash ittifoqi»** tuzildi. **1898-yili** Rossiyadagi barcha sotsial-demokratik guruhlar **Rossiya sotsial-demokratik ishchi partiyasi** (RSDRP) deb atalgan partiyaga birlashdilar. **1903-yil**dan boshlab bu partiyaga rahbarlik **V.I.Lenin** qo'liga o'tdi. U RSDRPdagi **bolsheviklar** deb atalgan oqimga yetakchilik qildi.

1905-yil inqilobining boshlanishi. **1905-yil 9-yanvar**da Rossiya tarixida birinchi inqilob boshlandi. *Bu inqilob Rossiya mehnatkashlarining og'ir turmushi Rus – yapon urushi natijasida yanada yomonlashib ketishi oqibatida yuz berdi.* Podshoning «odilligi»ga hali ham ishongan Peterburg ishchilaridan **250 ming kishi 9-yanvar, yakshanba** kuni o'z iltimoslarini podshoga bildirish uchun tinch namoyishga chiqdilar. *Iltimosnomada Ta'sis Majlisi chaqirish, demokratik erkinliklar berish, 8 soatlik ish kuni joriy etish kabilar ilgari surilgandi.* Biroq podsho tinch namoyishni o'qqa tutishni buyurdi. Bu voqea Rossiya tarixiga **«qonli yakshanba»** nomi bilan kirgan. Peterburgdagi «qonli» voqealarga javoban **Moskva, Riga, Varshava, Boku** va boshqa shaharlar ishchilari ish tashladilar, namoyishlar boshlandi. Mamlakatda dehqonlar harakati ham avj oldi. Inqilobiy harakat hatto ayrim harbiy qismlarga ham ta'sir ko'rsatdi. Chunonchi, Qora dengiz flotiga qarashli **«Potyomkin»** bronenosetsi matroslari **1905-yil yoz**ida qo'zg'olon ko'tardilar.

Rossiyada parlamentning tashkil etilishi. Inqilobiy harakatning bunday tus olishi podsho **Nikolay II** ni yon berishga majbur etdi. **17-oktyabr**da podsho manifest e'lon qildi. *Unda vijdon, so'z, matbuot erkinligi, yig'ilish o'tkazish va turli ittifoqlar tuzish huquqi, shuningdek, qonun chiqaruvchi hokimiyat – Davlat dumasi (parlament)ni joriy etish va'da qilindi.* Biroq bu inqilobiy harakatni to'xtatolmadi. Chunonchi, **Kronshtadt**da matros va soldatlar qo'zg'olon ko'tardilar. Qo'zg'olon bostirilgach, **1500 matros** va **yuzlab soldatlar** harbiy dala sudiga berildi. Peterburg ishchilari ularni

himoya qilib chiqdi. Ommaviy ish tashlashlar qo'zg'olon ishtirokchilarini o'limdan qutqarib qoldi.

Hukumat **1905-yil dekabr**da Davlat dumasiga saylov to'g'risida qonun qabul qildi. **1906-yil 27-apreld**a **I Davlat dumasi** o'z ishini boshladi. Unda **448 deputat** qatnashdi. Duma faoliyatidagi asosiy masala **agrar masala** edi. Deputatlarning **1/4 qismiga yaqin**i dehqonlar vakillaridan iborat edi. Ular dumada **«Trudoviklar» («Mehnat guruhi»)** fraksiyasini tashkil etdilar. «Trudoviklar» hamma yerlarning dehqonlar o'rtasida taqsimlanishini taklif etdilar. Bu amalda pomeshik yer egaligi tugatilishini anglatardi. Podsho esa Dumadagi vaziyatdan tashvishda edi. Duma podsho o'ylagandek yuvosh bo'lib chiqmadi. Nikolay II uni tarqatib yubordi.

1907-yil yanvarda **II Davlat dumasi**ga saylov o'tkazildi. Bu Dumada ham agrar masala asosiy masala bo'ldi. Agrar masala xususida Duma hukumat loyihasini tasdiqlamadi. Tez orada hukumat Dumadagi sotsial-demokratlarga davlat to'ntarishi tayyorlamoqda deb ayb qo'ydi va ularni Duma tarkibidan chiqarishni talab etdi. Bu talabga javob berishning cho'zilib ketgani bahonasida Nikolay II **3-iyun**da yana Dumani tarqatib yubordi. Shu tariqa birinchi rus inqilobi mag'lubiyat bilan tugadi. **1905-yil**gi saylov to'g'risidagi qonun bekor qilindi.

1907-yil 3-iyunda saylov to'g'risida yangi qonun qabul qilindi. Yangi qonun o'zida hukmron tabaqa manfaatini to'la darajada aks ettirdi. Chunonchi, bir pomeshikning ovozi **4 ta yirik burjuaziya vakili, 260 nafar dehqon va 543 nafar ishchi**ning ovoziga teng edi. Shu tariqa **III Duma**ga saylangan **442 nafar** deputatning **202 nafari pomeshiklar** vakillari bo'ldi.

Ayni paytda, Rossiya parlamenti **ikki palatali parlament**ga aylandi. **Davlat Kengashi** parlamentning yuqori palatasi vazifasini bajardi. Davlat Kengashi a'zolarining **50 foiz**ini podsho tayinlardi. Hukumat podsho oldida javobgar edi. Unga **«veto»** huquqi berildi. Sirtdan qaraganda, Rossiya konstitutsiyaviy monarxiyaga aylangandek edi. Aslida, podsho hokimiyati cheklanmaganligicha qolaverdi.

Birinchi rus inqilobi izsiz ketmadi. Chunonchi, ishchilarga kasaba uyushmalariga birlashish huquqi berildi. Ish tashlaganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish, dehqonlarning esa yer uchun haq to'lashlari bekor qilindi. Podsho hokimiyati izmida bo'lsa-da, vakolatli muassasa – **parlament** joriy etildi.

19.3. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA AVSTRIYA-VENGRIYA IMPERIYASI

Siyosiy tuzum. Avstriya-Vengriya imperiyasi **1867-yili** Avstriya va Vengriyaning hukmron tabaqalari o'rtasidagi bitim asosida vujudga keldi. Imperiyaning Avstriya qirolligi tarkibiga **Chexiya, Moraviya, Galitsiya** va **Bukovina**, Vengriya tarkibiga esa **Slovakiya, Xorvatiya** va **Transilvaniya** kirgan.

Shu yilning o'zida imperiyaning yangi konstitutsiyasi qabul qilingan. Unga ko'ra, imperiyaning umumiy hukmdori **Avstriya imperatori** bo'lgan. Imperator **gabsburglar sulolasi** vakili edi. Sulola imperiyani **1867-yildan 1918-yilgacha** boshqardi. Imperiya tashkil etilgan paytda imperator **Frans Iosif** edi.

Avstriyada imperator hokimiyati rasman **Reyxstag**, Vengriyada esa **Seym** tomonidan cheklangan. Imperiya tashkil etilgach, **3 ta umumimperiya vazirligi** tashkil etilgan: **1. Tashqi ishlar. 2. Harbiy va dengiz. 3. Moliya.** Boshqa vazirliklar imperiyaning har ikki qismida mustaqil faoliyat yuritganlar. Vengriya o'z parlamentiga, ijroiya hokimiyatiga, siyosiy va ma'muriy muxtoriyatiga ega edi. Imperiyadagi **50 mln** aholining **30 mln** ni bo'ysundirilgan slavyan xalqlari tashkil etgan.

Avstriya-Vengriyaning iqtisodiy taraqqiyoti. **XIX asr so'nggi chorag**ida Avstriya-Vengriya Yevropaning rivojlangan davlatlariga nisbatan qoloq mamlakat edi. Mamlakatda feodalizm sarqitlari saqlanib qolgani ilg'or Yevropa mamlakatlariga nisbatan sanoat taraqqiyoti sur'atlarining sekinlashuviga sabab bo'ldi. **90-yillar**da shahar aholisi butun Avstriya-Vengriya aholisining faqat **1/3 qismi**ni tashkil qilardi. Hatto imperiyaning eng rivojlangan qismi bo'lgan Avstriyada ham qishloq aholisi ko'pchilikni tashkil etardi.

1867-yili tuzilgan Avstriya – Vengriya bitimi Vengriyaning iqtisodiy jihatdan rivojlanishi uchun turtki bo'ldi. Vengriya ko'miri bazasida metallurgiya tarmog'i rivojlana boshladi. Lekin Vengriyaning asosiy sanoat tarmog'i **oziq-ovqat sanoati** bo'lib qolaverdi. **1898-yili** Vengriyaning un tortish, vino tayyorlash, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha imperiyadagi hissasi **47,3 foiz**ni tashkil etdi. Imperiyaning industrial tumanlari – **Quyi Avstriya** va **Chexiya**da ishlab chiqarishning markazlashuvi va monopoliyalarning vujudga kelish jarayoni jadallik bilan bordi.

XX asr boshlariga kelib ssuda kapitali, asosan, **Vena**dagi yirik banklarda to'plandi. Mamlakat hayotida moliya oligarxiyasining ta'siri kuchayib bordi. **Fransiya, Belgiya, Germaniya** banklari qarz berish,

sanoatga mablag'lar yo'naltirish orqali Avstriyani o'z kapitallari bilan to'ldirib tashladi. Avstriya-Vengriya sanoatining metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika va shu kabi tarmoqlari Germaniya firmalari tomonidan moliyaviy jihatdan ta'minlab turildi. Nemis kapitalining to'qimachilik va mashinasozlik korxonalarida ham mavqeyi yuqori edi. Nemis kapitali qishloq xo'jaligiga ham suqilib kirdi. Avstriyaning **200 000 gektar yeri** nemis pomeshiklariga tegishli edi.

Ijtimoiy harakat. **1869-yili** imperiya poytaxti **Vena**da ishchilarning ommaviy namoyishi o'tkazildi. Namoyishchilar demokratik erkinliklar berilishini talab qildilar. Hukumat bunga javoban Avstriya ishchilar harakati rahbarlarini davlatga xiyonatda aybladi. Sud ularni uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etdi.

Avstriya hukumati ham Bismarkdan o'rnak olib **1884-yili** ishchilar harakatiga qarshi **«favqulodda qonun»** joriy etdi. Qonun ishchilar harakatiga qarshi politsiya terrorining kuchaytirilishiga ruxsat berdi. **80-yillar oxiri**ga kelib kasaba uyushmalari tarqatib yuborildi. Ishchi gazetalarini nashr etish to'xtatildi. Shunday bo'lsa-da, ishchilar kurashni davom ettirdilar. **1889-yili** esa **Avstriya sotsial-demokratik partiyasi** (ASDP) tuzildi. *Partiya dasturida siyosiy erkinliklarni joriy etish, parlamentni umumiy, teng, to'g'ri, yashirin ovoz berish yo'li bilan saylash to'g'risida qonun qabul qilish, cherkovni davlatdan, maktabni cherkovdan ajratish, ish kunini qisqartirish kabi talablar bor edi.*

Ishchilar harakati tobora kuchayib boravergach, **1907-yili** hukumat saylov tizimi islohoti haqida qonun qabul qilishga majbur bo'ldi. Unga ko'ra, **24 yoshli** erkaklar saylash va saylanish huquqiga ega bo'ldilar.

Milliy ozodlik harakati. Imperiyada har qanday sharoitda ham slavyan xalqlarining mustamlaka holatini saqlab qolishga intiluvchi shovinistik kayfiyatdagi kuchlar ham o'z siyosiy partiyalarini tuzdilar. Bu partiyalardan biri **Pangerman partiyasi**, ikkinchisi esa **Xristian sotsialistlar partiyasi** deb ataldi. Ko'proq avstriyalik katoliklardan iborat bo'lgan Xristian sotsialistlar partiyasi arboblari **«Buyuk Germaniya»** g'oyasini sinfiy tinchlikni targ'ib qilish, barcha ijtimoiy nizolarni «inoqlik va muhabbat ruhida» hal qilishga da'vat etish va antisemitizmni targ'ib qilish bilan qo'shib olib bordilar. Biroq hukmron doiralar slavyan xalqining milliy ozodlik harakatini to'xtatolmadi.

Chex muxolifati Chexiyaga ham siyosiy huquqlar berilishini talab qildi. Hukumat bunga javoban ta'qib choralarini kuchaytirdi. **1868-yili** Chexiyada qamal holati joriy qilindi. Biroq bu usul chex muxolifatini «sindira» olmadi. Kurash davom etdi, nihoyat, **1880-yili** Chexiyada sud va ma'muriy

ishlar uchun **ikki til** joriy qilindi. **1882-yil**dan Praga universitetida ham o'qitish ikki tilda (**nemis va chex**) olib boriladigan bo'ldi.

Galitsiyadagi ukrain aholisi ham milliy zulm ostida edi. Avstriya hukumati Galitsiyadagi hukmron doiralar bilan bitim tuzib, o'lkani idora qilishda ularga rahbarlik rolini berdi.

XIX asrning so'nggi o'n yillarida milliy zulm yanada kuchaydi. **Zakarpatye**dagi ukrain aholisi «vengrlashtirildi». Xorvatiya doimo harbiy yoki favqulodda holatda tutildi, xalq noroziligi qattiq ta'qiblar bilan shafqatsiz bostirildi. Xorvatiyadagi milliy ozodlik harakatiga Vengriya hukumati **1912-yili** Xorvatiya Seymini tarqatib yuborish va konstitutsiyani to'xtatib qo'yish bilan javob berdi.

Iqtisodiy inqiroz. **1912-yili** Avstriya-Vengriyada og'ir iqtisodiy inqiroz yuz berdi. Oqibatda yirik sanoat va savdo korxonalari sindi. Imperiya eksport salohiyati keskin kamaydi. Bu esa iqtisodiy inqirozni yanada chuqurlashtirib yubordi. Imperiyadagi og'ir vaziyatga qaramay, Vengriya hukmron doiralari Avstriyaning Bolqondagi bosqinchilik siyosatida faol qatnashdi. Hatto armiya qaytadan tuzildi. Bu imperiyaning urushga tayyorgarlik ko'rayotganini anglatardi.

Mamlakatni harbiylashtirishga, milliy zulmga va urushga tayyorgarlik ko'rilayotganiga qarshi Vengriya poytaxti **Budapesht**da ko'p ming kishilik namoyish o'tkazildi. Umumiy norozilik yalpi ish tashlashlarga olib keldi. Namoyishchilarga qarshi politsiya kuchlari yuborildi. Oqibatda Budapesht barrikadalarga to'lib ketdi. Kuchlar nisbati teng emasdi. Shuning uchun ishchilar namoyishni to'xtatishga majbur bo'ldilar. Shunday bir sharoitda ayrim siyosatchi arboblar **trializm** (uchlik) talabi bilan chiqdi. *Trializm g'oyasi imperiyani Avstriya, Vengriya va imperiya tarkibidagi slavyan xalqlari yerlarini o'z ichiga oluvchi, har uch tomonni teng huquq asosida birlashtiradigan federatsiyaga aylantirish degani edi.* Biroq federatsiyaning slavyan qismi kuchayib ketishidan cho'chigan hukmron doiralar trializm g'oyasini rad etdilar.

Tashqi siyosat. Avstriya-Vengriya imperiyasi tashqi siyosatining markazida, asosan, **Bolqon yarimoroli** yotgan. Shuning uchun u Bolqonda egallab olgan slavyan xalqlari yerlarida mustahkam o'rnashishga, Rossiyaning mintaqadagi ta'sirini keskin kamaytirishga jon-jahdi bilan uringan. Avstriya-Vengriyaning yakka o'zi buning uddasidan chiqolmasdi. Shuning uchun u Germaniya bilan yaqinlashdi.

Rossiya bilan munosabatlar. Slavyan xalqlari o'z milliy ozodliklari uchun doimiy kurash olib borgan. Bu kurashda ular **Rossiya**ga tayangan. Rossiya slavyan xalqlarining milliy ozodlik kurashini qo'llab-quvvatlash barobarida

o'zi ham Bolqonda mustahkam o'rnashib olishga intilgan. Binobarin, bu uch imperiyaning manfaatlari Bolqonda surunkali to'qnashib turgan.

Avstriya-Vengriyaning Bolqonga nisbatan yuritgan siyosati Rossiya bilan munosabatlari yomonlashuviga olib kelgan. Bu ikki imperiya o'rtasida qachonlardir urush chiqishi muqarrar edi. **1878-yili** bo'lib o'tgan Berlin kongressida Avstriya-Vengriya Bolqondagi **Bosniya va Gersegovina**ni bosib olish huquqini qo'lga kiritdi. Uning maqsadi bu hududni qulay imkoniyat tug'ilishi bilanoq bosib olish edi. Nihoyat, **1908-yili** Avstriya-Vengriya o'z maqsadini amalga oshirdi. Bu esa Avstriya-Vengriya va Rossiya munosabatlarini yanada keskinlashtirib yubordi. Bu hodisa slavyan xalqlari orasida Rossiya obro'siga ham putur yetkazdi. Chunki Rossiya Avstriya-Vengriya istilosining oldini ololmadi. Bunga Germaniyaning Avstriya-Vengriyani qo'llab-quvvatlashi, uning Rossiyaga qarshi urush e'lon qilishi mumkinligi haqidagi do'q-po'pisalari sabab bo'ldi.

Mamlakatning urushga tayyorgarlik ko'rishi. Turkiya va Italiya manfaatlarining Afrikada to'qnashuvi oxir-oqibatda **1911-yili** ular o'rtasida urush kelib chiqishiga olib keldi. Bu urushda Turkiyaning yengilishi uni yanada zaiflashtirdi. Qulay sharoitdan foydalangan Bolqonning mustaqil davlatlari **Bolgariya, Serbiya, Chernogoriya** va ularga qo'shilgan **Gretsiya** tez orada **Bolqon ittifoqi**ni tuzdilar. Ittifoq **1912-yili** Turkiyaga qarshi urush boshladi. Bu urush tarixga **Birinchi Bolqon urushi** nomi bilan kirgan. Urush Bolqon slavyanlari va greklarning Turkiya hukmronligidan ozod bo'lishi bilan tugadi. Biroq ittifoqchilar Turkiyadan ozod etilgan hududlarni bo'lish masalasida o'zaro kelisholmadilar. Bunga Bolgariyaning hammadan ko'p ulush olishga urinishi sabab bo'ldi. Uning da'volari Avstriya-Vengriya tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Avstriya-Vengriya shu yo'l bilan Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya madadiga tayanayotgan Bolqon ittifoqini buzib yubormoqchi edi. Chunki bu ittifoqning mavjudligi Avstriya-Vengriyaga Bolqonda mustahkam o'rnashib olishga imkon bermasdi.

Avstriya-Vengriya o'z maqsadiga erishdi ham. Oqibatda **1913-yili** *Bolgariya Serbiya va Gretsiyaga hujum* qildi. Shu tariqa **Ikkinchi Bolqon urushi** boshlandi. Urushda Chernogoriya va Ruminiya Serbiya va Gretsiyaga yordam berdi. Kechagi umumy dushman – Turkiya ham Bolgariyaga qarshi urushda qatnashdi. Ikkinchi Bolqon urushida Bolgariya yengildi, qo'lga kiritgan hududlarining bir qismini yo'qotdi. Urush natijasida **Serbiya** Bolqonning yetakchi davlatiga aylandi. Shu tariqa Avstriya-Vengriya mutlaqo xohlamagan holat yuz berdi. Endi Avstriya-Vengriya va Germaniya o'z oldilariga kuchayib borayotgan Serbiyani

yanchib tashlash va shu orqali Rossiyaning Bolqondagi ta'siriga putur yetkazish maqsadini qo'ydilar.

Avstriya-Vengriyaning maqsadlari uni tashqi siyosatda Germaniyaga mutlaq qaram qilib qo'ydi. Avstriya-Vengriya urushga tayyorgarlik ko'ra boshladi. **1913-yili** mamlakatda qisman safarbarlik o'tkazildi. **1914-yili** esa parlament tarqatib yuborildi. Ana shunday qaltis vaziyatda serb millatchilari tomonidan **1914-yil 28-iyul**da Avstriya-Vengriya taxti vorisi **Frans-Ferdinand**ning o'ldirilishi Avstriya-Vengriya hukmron tabaqalarining urushni boshlab yuborishi uchun bahona bo'ldi. Mamlakatda harbiy diktatura o'rnatildi.

19.4. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ITALIYA

Italiyaning siyosiy tuzumi. Fransiyaning Prussiya bilan urushda yengilishi Italiyani to'la birlashtirish yo'lidagi oxirgi to'siqni bartaraf etishga imkon berdi. **1870-yili** Fransiya qo'shini himoyasida bo'lgan **Rim shahri** ham mamlakat tarkibiga qo'shib olindi. Papa hokimiyati **Vatikan saroyi** bilan cheklab qo'yildi. Bungacha papa **Piy IX** Rim shahrining Italiyaning qo'shilishiga qarshilik ko'rsatayotgan va uni Fransiya armiyasi himoya qilayotgandi.

Italiya **konstitutsiyaviy monarxiya** bo'lib qoldi. Konstitutsiyaga binoan ikki palatali (**Senat va Deputatlar palatasi**) parlament tashkil etildi. Qirol **Viktor Emmanuil II** qonun chiqaruvchi hokimiyatni parlament bilan bo'lib oldi. Senatorlar qirol tomonidan umrbod muddatga tayinlanardi. Ijro etuvchi hokimiyat **bosh vazir** qo'lida to'plandi. Saylovda qatnashish uchun mulk senzi joriy etildi. Natijada **27 mln aholi**dan **600 ming kishi** saylov huquqiga ega bo'ldi.

Konstitutsiyada barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, uy-joy daxlsizligi, so'z va matbuot erkinligi, yig'ilish o'tkazish huquqi e'tirof etildi. Xristian dinining katoliklik oqimi yagona din bo'lib qoldi. **1871-yili** cherkov va davlat munosabatini tartibga soluvchi qonun qabul qilindi. Qonun Rim papasini muqaddas va daxlsiz deb e'lon qildi va uning qarorgohi joylashgan shahar davlat – **Vatikan**ga boshqa davlatlar bilan diplomatik munosabat o'rnatish huquqi berildi.

Iqtisodiy ahvol. Yerga, asosan, yirik zamindorlarning egalik qilishi saqlanib qoldi. Boz ustiga, yerdan foydalanishning qoloq shakllari hukm surardi. Pomeshiklar yerining katta qismi mayda uchastkalarga bo'linib, juda og'ir shartlar bilan (hosilning **3/4 qismi**ni to'lash sharti bilan) dehqonlarga ijaraga berilardi. Ayni paytda, mamlakat oldida katta moliyaviy

muammolar paydo bo'lgan. Bu Italiya ichki va tashqi qarzining nihoyatda ko'payib ketgani oqibati edi.

O'sib borayotgan chiqimlarni qoplash uchun hukumat davlat zayomlari chiqarishga, mamlakat ichidagi hamda tashqarisidagi kapital egalariga *yordam so'rab murojaat* qilishga *majbur* bo'ldi. Oqibatda Italiyaning davlat qarzi shiddat bilan ko'payib boraverdi. Shunga qaramay, kapitalizm tobora chuqur qaror topa bordi. Hukumat, avvalo, temir yo'l qurilishini kengaytirdi. Savdo floti qurish keng avj oldi. Tez orada Italiya savdo floti dunyoda **uchinchi o'rin**ga chiqdi. Hukumat Italiyani **Fransiya va Shveytsariya** bilan bog'laydigan **ikkita tunnel** qurdi. Yangi sanoat tarmoqlari *aksiyadorlik jamiyatlari tariqasida* vujudga keldi.

XX asrga kelib ko'pdan ko'p o'rta va mayda sanoat korxonalari saqlanib qolgani holda, ishlab chiqarish va kapitalning markazlashuv jarayoni kuchaydi. Cho'yan va po'lat eritish, qand ishlab chiqarish kartellari yuzaga keldi. **1906-yili** tashkil topgan **«Fiat»** aksiyadorlik jamiyati **kimyo, rezina, mashinasozlik, elektr, avtomobil sanoati** va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda yetakchi mavqeni egallab oldi.

Ijtimoiy harakat. Mamlakatda mehnatkashlar ahvoli nihoyatda og'ir edi. Italiya aholi jon boshiga daromad taqsimoti darajasi bo'yicha G'arbiy Yevropada **eng oxirgi o'rin**da turardi. Ish kuni **12 – 13 soat** davom etardi. Ahvol, ayniqsa, mamlakat janubida og'ir edi. Oqibatda Italiyaning ko'plab fuqarolari ish izlab chet ellarga ketdilar. **1914-yil**ga kelib xorijga ketganlar soni **7,5 mln kishi**ni tashkil etdi.

Italiya xalqi o'z ahvolini yaxshilash va haq-huquqlari uchun kurash olib borishga majbur bo'lgan. Bu kurash oqibatida **1892-yili Italiya Sotsialistik partiyasi** tuzildi.

Dehqonlarning ahvoli ham og'ir edi. Bu og'ir hayot **Sitsiliya**da dehqonlar qo'zg'oloni ko'tarilishiga olib keldi. **1898-yili Milan**da ro'y bergan umumiy ish tashlash **5 kunlik** barrikada janglariga aylanib ketdi. Hukumat ishchilar harakatini armiya kuchi bilan bostirdi.

1903 – 1914-yillari (orada ma'lum uzilishlar bilan) Italiya hukumatini o'z davrining mashhur siyosiy arbobi **J.Jolitti** boshqardi. J.Jolitti aholi xarid quvvatini oshirmay turib sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirib bo'lmasligini *yaxshi tushunardi*. *Buning uchun esa mehnatkashlarga* yaxshi ish haqi to'lash zarur edi. Bu haqda: *«Sanoat taraqqiyoti tepasida ish haqi yuqori bo'lgan mamlakatlar turadi»*, – deb ta'kidlagandi. Uning davrida kasaba uyushmalari tuzilishiga, ish tashlash o'tkazilishiga ruxsat etuvchi, tungi smenada bolalar va ayollar mehnatidan foydalanmaslik, saylovchilarning mulk va savodxonlik senzini bekor qilish haqida qonunlar

qabul qilindi. U davlatning mamlakat iqtisodidagi rolini oshirish tarafdori bo'lgan. Uning fikricha, davlat mehnat va kapital o'rtasida hakam vazifasini bajarishi lozim edi.

Tashqi siyosat. Italiya tashqi siyosatida **«irredentizm»** tarafdorlari ta'siri kuchaydi. Bu hol uning qo'shni davlatlar bilan munosabatlarini yomonlashtirdi. Italiya da'vo qilayotgan Shimoliy Afrika davlatlari hududini birin-ketin **Fransiya** egallay boshladi. Bu hol Italiyani Germaniya bilan yaqinlashtirdi. **1882-yili** Italiya Germaniya va Avstriya-Vengriya Ittifoqiga qo'shildi. Ittifoqchilarga ega bo'lgan Italiya tez orada **Somali**ni bosib oldi, **Eritreya**ni bo'ysundirdi. **1895-yili** esa **Efiopiya**ni bosib olish maqsadida unga hujum qildi. Biroq **1896-yil 1-avgust**da **Adua** yonida Italiya qo'shinlari tor-mor etildi. Oqibatda **5 ming italyan askari** halok bo'ldi. Bu voqea Italiyada milliy sharmandalik sifatida qabul qilindi.

Yangi mustamlakalar bosib olish uchun qulay sharoit yaratish zarur edi. J.Jolitti hukumati xuddi shunday sharoitni yaratoldi. Chunonchi, Jolitti Italiya bilan Fransiya o'rtasidagi keskin munosabatlarni bartaraf etishga erishdi.

1908-yili Italiya Bosniya va Gersegovinani Avstriya istilo qilishiga qat'iy norozilik bildirdi. Natijada g'oyat keskin vaziyat yuzaga keldi. Italiya **1909-yili** Rossiya bilan Bolqon yarimorolidagi o'z manfaatlarini quvvatlovchi bitim tuzdi. Ikkala davlat Avstriya-Vengriyaning Bolqon mamlakatlariga suqilib kirishiga qat'iy qarshilik ko'rsatishga kelishib oldi.

Qulay diplomatik sharoit yaratilgach, Italiya **1911-yili Liviya**ga hujum qildi. Liviya bu davrda rasman Turkiya imperiyasi tarkibida edi. Bu hol **Italiya – Turkiya urushini** keltirib chiqardi. Urush Italiya g'alabasi bilan tugadi. **1912-yil**dan Liviya Italiya mustamlakasiga aylandi. Millatchi guruhlar fikricha, J.Jolitti hukumati «tartib va osoyishtalik» o'rnatishga qodir emasdi. Ularning tazyiqi ostida J.Jolitti iste'fo berdi. Shu tariqa Italiyada **liberalizm** davri tugadi.

19.5. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BOLQON DAVLATLARI

Bolqon davlatlari va Turkiya. **XIX asrning 70-yillari**ga kelganda janubiy slavyanlarning ko'pchiligi hamon chet el zulmi ostida ezilmoqda edi. Faqat Chernogoriya va Serbiya yerlarining bir qismigina mustaqil edi. Janubiy slavyanlar – bolgarlar, makedoniyaliklar, Bosniya va Gersegovina slavyanlari, serblarning talaygina qismi hamon Turkiya hukmronligi

ostida edi. Xorvatlar, slovenlar g'arbiy slavyanlar (chex, slovak, polyak)-ning bir qismi esa gabsburglar hukmronligi ostida edi. Polyaklarning ikkinchi qismi Germaniya, uchinchi qismi esa podsho Rossiyasi zulmidan azob chekardilar. Chet el zulmi slavyan xalqlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga to'sqinlik qilardi.

Milliy ozodlik harakati. **XIX asr 60-yillar**idan slavyan xalqlarining milliy ozodlik kurashi kuchaydi. Jasur bolgar inqilobchisi **Vasiliy Levskiy** mustaqil demokratik Bolgariya Respublikasini barpo etish rejasini ilgari surdi. U Bolgariya hududida yashirin qo'zg'olonchi qo'mitalar tuzdi. **1872-yil** V.Levskiyni qatl etishgan bo'lsa-da, ozodlik harakati pasaymadi. **1876-yili** Bolgariyada qo'zg'olon boshlandi. Qo'zg'olonchilar o'z bayroqlariga *«Ozodlik yoki o'lim!»* shiorini yozgandilar. Talantli publitsist va shoir **Xristo Botev** ozodlik harakatiga yo'lboshchilik qildi. U **1876-yili** turklar bilan jangda qahramonlarcha halok bo'ldi. U halok bo'lgan kun Bolgariyada **Xotira kuni** sifatida nishonlanadi.

Bolgar xalqining kurashi juda og'ir kechdi. Kuchlar teng emasdi. Turklar **30 000 ga yaqin** bolgarni qilichdan o'tkazdilar va ko'plab qishloqlarni kultepaga aylantirdilar. Rus hukumati Bolqonda o'z ta'sirini mustahkamlash uchun qo'zg'olonlardan foydalanishga qaror berdi va Bolqon slavyanlarini yoqlab chiqdi. Rossiya hukumati **1877-yil 24-apreld**a Turkiyaga qarshi urush e'lon qildi. Urushda Turkiya mag'lubiyatga uchradi. Ikki o'rtada imzolangan San-Stefano shartnomasiga ko'ra mustaqil **Bolgariya davlati** tashkil topdi. Turkiya **Chernogoriya va Serbiya**ning mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi. Ularning hududi ancha kengaydi. **Ruminiya** mustaqil davlat deb e'tirof etildi.

Bolgariyaning qayta tiklanishi. Yangidan vujudga keltirilgan Bolgariyaning davlat tuzumini **1878-yili** e'lon qilingan Bolgariya konstitutsiyasi belgilab berdi. Bolgariya **konstitutsiyaviy monarxiya** deb e'lon qilindi. Konstitutsiya Bolgariya mustaqilligini amalda tasdiqladi. Biroq Buyuk Britaniya va Avstriya-Vengriya Bolqonda Rossiya mavqeyining mustahkamligidan hamda qudratli Bolgariya davlati tashkil topganidan tashvishda edilar. Shuning uchun ular Rossiyani San-Stefano sulh shartnomasini qayta ko'rib chiqishga rozilik berishga majbur etdilar. Kongress ko'pgina masalalar qatori Bolgariya masalasini ham ko'rib chiqdi va uning San-Stefano shartnomasiga ko'ra ega bo'lgan hududlarini qisqartirish, uning janubiy chegarasini **Egey dengizi**dan uzoqlashtirish to'g'risida qaror qabul qildi.

Mustaqillikdan keyingi ichki siyosiy ahvol. Rossiya imperatori Aleksandr II qaynisi (xotinining jiyani) hamda bir vaqtning o'zida pruss zobiti

bo'lgan **Aleksandr Battenberg**ni Bolgariya davlati boshlig'i etib saylashni taklif etdi. Bolgariya **Buyuk xalq majlisi** bu taklifni ma'qulladi. Biroq yangi hukmdor Rossiyadan mustaqil siyosat yuritishga urindi. Buning uchun unga tayanadigan davlatlar ham kerak edi. Shuning uchun A.Battenberg G'arb davlatlari bilan yaqinlashish siyosatini yurita boshladi. Uning asl niyati Bolgariya armiyasida xizmat qilayotgan rus zobitlarini nemis zobitlari bilan almashtirishda yaqqol namoyon bo'ldi. Endi Rossiya hukumati unga Rossiyaning dushmani sifatida qaray boshladi.

Mamlakatda o'z mavqeyini mustahkamlashga intilgan Aleksandr Battenberg Janubiy va Shimoliy Bolgariyaning yangidan yagona davlatga birlashganini e'lon qildi. Buni Bolqondagi boshqa slavyan davlatlari o'z manfaatlariga zid harakat deb baholadilar.

Aleksandr II hukumati norozilik belgisi sifatida Bolgariyadan o'z zobitlarini chaqirib oldi. Shunday sharoitda Rossiya tarafdorlari bo'lgan oliy zobitlarning bir guruhi **1886-yili** Aleksandr Battenbergni taxtdan voz kechishga majbur etdilar. Ammo hukumat kuchlari bu zobitlarni hibsga oldi. Oxir-oqibatda Rossiya va Bolgariya o'rtasidagi diplomatik munosabatlar uzildi. Boz ustiga, Bolgariya taxtiga Avstriya-Vengriya nomzodi **Ferdinand Kaburskiy** o'tqizildi. Rossiya – Bolgariya diplomatik munosabatlari **1896-yil**dagina tiklandi.

1908-yili Avstriya-Vengriya madadiga tayangan Bolgariya o'zini Turkiyadan to'la mustaqil davlat deb e'lon qildi. Ikkinchi Bolqon urushida Bolgariyaning mag'lubiyatga uchrashi uning keyingi tashqi siyosati yo'nalishini belgilab berdi. **1913-yili** hokimiyat tepasiga germanparast hukumat keldi. U tashqi siyosatda Bolgariyaning milliy manfaatlarini **«Uchlar ittifoqi»** (Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiya) yordamida himoya qilishini ma'lum qildi. Bu bayonot Yevropada bo'lajak katta urushda Bolgariya «Uchlar ittifoqi» tarafida turishini anglatardi.

Serbiyaning mustaqillikka erishishi. **XIX asr oxirlari**da Serbiya Turkiyaga nomigagina qaram edi, xolos. Serbiya tashqi siyosatining asosiy maqsadi Turkiya qo'l ostida qolayotgan serb yerlarini to'la qaytarib olish va ularni yagona Serbiya davlatiga birlashtirishdan iborat edi. Shuning uchun Serbiya Rossiyaning Turkiyaga qarshi urushlarida faol qatnashgan. Berlin kongressi Serbiyaning **Bosniya** va **Gersegovina, Novi-Pazar hududlari**ga bo'lgan da'vosini rad etdi. Bosniya va Gersegovina Avstriya-Vengriyaga bo'ysundirildi. Novi-Pazar esa Turkiya qo'l ostida qoldirildi. Bundan ko'zlangan maqsad Serbiya va Chernogoriyaning birlashishiga yo'l qo'ymaslik edi.

Berlin kongressi Serbiyaning Turkiyadan mustaqil ekanini tasdiqladi.

Ayni paytda, Serbiya zimmasiga chet el tovarlaridan tranzit boj olmaslik va unga Turkiyadan olib berilgan yangi hududlarga mutanosib miqdorda Turkiyaning chet el davlatlari oldidagi qarzini to'lash majburiyati yuklandi. Bu ham yetmagandek, Turkiya qo'l ostida qoldirilgan Novi-Pazarga **Avstriya-Vengriya** qo'shini joylashtirildi. Bu esa Rossiyaning manfaatlariga mutlaqo zid voqea bo'ldi.

Albaniyaning mustaqillikka erishishi. Turkiya mustamlakasi bo'lgan Albaniya ham o'z mustaqilligi uchun kurashni kuchaytirdi. Albaniyadagi barcha siyosiy kuchlar Albaniyani taqsimlab olish rejalarini tuzayotgan chet el davlatlari siyosatiga qarshi chiqdilar. Bolgariyada chiqayotgan **«Kalendari kombiar» (Milliy kalendar)** jurnali **1902-yili** shunday deb yozgan: *«Biz uyquda yotibmiz, bu vaqtda esa bizning ustimizda savdolashmoqdalar».* Birinchi Bolqon urushida Turkiyaning yengilishi natijasida **1912-yil 28-noyabr**da Albaniya mustaqillikka erishdi. Turklarning qariyb **besh asr** davom etgan hukmronligiga barham berildi.

1 – 2-Bolqon urushi. Bolqon davlatlari Turkiyaning Bolqondagi hokimiyatiga butunlay chek qo'yishga qaror qildilar. Shu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun **Bolgariya, Serbiya, Chernogoriya** va **Gretsiya** o'zaro ittifoq tuzdilar. Bu ittifoq tarixga **«Bolqon ittifoqi»** nomi bilan kirdi va **Rossiya** tomonidan qo'llab-quvvatlandi. «Bolqon ittifoqi» **1912-yil 17-oktyabr**da Turkiyaga urush e'lon qildi. Bu urushda Turkiya mag'lubiyatga uchradi. **1913-yil 30-may** kuni **London**da Bolqon ittifoqi bilan Turkiya o'rtasida tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra, *Turkiya Yevropada Konstantinopol shahri va Qora dengiz bo'g'ozi qirg'oqlaridan boshqa barcha hududlaridan ajradi.*

Tez orada **2-Bolqon** urushi yuz berdi. Bu urushga Bolqon davlatlari o'rtasida Turkiya mustamlakachiligidan ozod bo'lgan hududlarni taqsimlashda kelib chiqqan nizo sabab bo'ldi. Bolgariya Serbiyaning kuchayib ketishini aslo xohlamadi.

Germaniya va Avstriya-Vengriya madadiga tayangan **Bolgariya 1913-yil 29-iyun**da **Serbiya** va **Gretsiya**ga qarshi urush harakatlarini boshladi. **Chernogoriya** va **Ruminiya** Serbiya va Gretsiyaga yordam berdilar. **Turkiya** ham Bolgariyaga qarshi urushda ishtirok etdi. Bolgariyaning qiyin ahvolga tushib qolganidan foydalangan Turkiya **16-iyul** kuni Bolgariyaga hujum qildi.

Bolgariya mag'lubiyatga uchradi. **20-iyul**da Turkiya undan **Adrianopol**ni qaytarib oldi. **Buxarest** shahrida **1913-yil 10-avgust**da tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra, Bolgariya qo'lga kiritgan yerlarning bir qismidan ajradi. Ruminiya, Serbiya va Gretsiya hududlari

kengaydi. **24-sentyabr**da Turkiya va Bolgariya o'rtasida **Konstantinopol**da imzolangan shartnomaga ko'ra Adrianopol Turkiyaga qaytarildi. Bolqonda Rossiyaning Germaniya-Avstriya-Vengriya ittifoqi bilan munosabatlari keskinlashdi. Bolqon Yevropaning portlovchi modda solingan **«bochkasi»**ga aylandi.

20-BOB. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA OSIYO VA AFRIKA DAVLATLARI

20.1. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA YAPONIYA

Tub o'zgarishlar yo'lida. **1867 – 1868-yillari** Yaponiyada yuz bergan **Meydzi inqilobi** Yaponiyada bozor munosabatlariga asoslangan jamiyat qurilishiga keng yo'l ochdi. Endigi asosiy vazifa yapon xalqining milliy an'analarini saqlab qolgan holda jamiyatni G'arb modelida qayta qurish edi. Imperator **Mutsixito** ishlab chiqarish kuchlarining rivojiga to'sqinlik qiluvchi qonun va tartiblarni bekor qildi. **1869-yili «to'rt tabaqa» haqidagi** qonun bekor qilindi. **Feodal zamindor, samuray, dehqon, hunarmand va savdogar tabaqalari** rasman teng huquqli deb e'lon qilindi. **1871-yili huquqsiz quyi tabaqa haqidagi** qonun ham bekor qilindi.

Butun mamlakat miqyosida markazlashgan hukumat boshqaruvi yuzaga keldi. **Yalpi harbiy xizmat haqida** qonun qabul qilindi. **1871 – 1878-yillari** qishloq xo'jaligi sohasida islohotlar o'tkazilib, yerni erkin oldi-sotdi qilish, istalgan turdagi ekinlarni ekishga ruxsat berildi. Hosildan hissa ko'rinishidagi soliq pul solig'i bilan almashtirildi. Yerning mayda bo'laklarga bo'linib ketishiga qarshi qonun chiqarildi.

Sanoatni rivojlantirishda davlatning roli. Davlat sanoatni rivojlantirishga homiylik qildi. Birinchi galda Yaponiyada to'qimachilik sanoati tez rivojlandi. **1890-yili** u barcha sanoat tarmoqlarining **45 foiz**ini tashkil etdi. **Chorak asr** davomida **1300 ta** sanoat korxonasi qurildi. Ular dastlab badavlat sanoatchilarga ijaraga berildi. Keyinroq esa sanoat korxonalari o'z narxining **yarmi**ga, hatto **10 – 15 foiz**iga ham xususiy qilib sotiladigan bo'ldi. Natijada bank kapitali bilan sanoat kapitali qo'shila bordi. Yaponiyada sanoat ishlab chiqarishi Rossiyadan **o'n barobar** tezroq rivojlandi.

Yaponiya taraqqiyotining xususiyatlari. Yaponiyada monopolistik kapitalizm feodal monarxiya qoldiqlari bilan chirmashib ketdi. Bu jihatdan Yaponiya Rossiyaga o'xshab ketardi. Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSh-

dan farqli o'laroq, Yaponiyada hokimiyat burjuaziya qo'lida bo'lmay, balki **pomeshik-burjuaziya bloki** qo'lida edi.

Yaponiya, ayni paytda, armiya va flotni ham qayta qura boshladi. Yaponiya hukumati og'ir industriyani rivojlantirishga alohida e'tibor berdi. Oqibatda **1900 – 1913-yillari** sanoat ishlab chiqarishi AQShda **85 foiz**, Germaniyada **54 foiz** o'sgan bo'lsa, Yaponiyada **181 foiz** o'sdi. U ishlab chiqarish hajmi bo'yicha **Italiya**dan o'zib ketib, **Fransiya**ga yaqinlashdi. Mamlakatda sanoat, savdo-sotiq va banklar markazlashib, monopoliyalar vujudga keldi.

Ijtimoiy hayot. Yaponiyada kapitalizm taraqqiyoti dehqonlarning yerdan ajralishi bilan birgalikda kechdi. Agrar islohotga ko'ra, yer olgan dehqonlarning atigi **1/3 qismi** olgan yerlarini saqlab qoldi. Raqobatga bardosh berolmaganlar ijaraga yer olib xo'jalik yuritishga majbur bo'ldilar. Qolganlari esa *shaharga ketib, yollanma ishchilarga aylandilar.*

Sanoat korxonalarida ishlayotgan ishchilarning iqtisodiy ahvoli og'ir, chunki ish haqi juda past edi. Ish vaqti **15 – 18 soat** davom etardi. Korxonalarda texnika xavfsizligiga javobgarlik yo'q edi. Boz ustiga, yapon ishchilari va mehnatkashlari na siyosiy, na ijtimoiy huquqlardan foydalanardilar. Yaponiya ishchilar sinfi kasaba uyushmalariga birlasha boshladilar. Yaponiya jamiyatining ilg'or qatlami **parlament** tashkil etish uchun kurashdilar.

1889-yil konstitutsiyasi. **1889-yili** Prussiya konstitutsiyasi namunasi asosida tuzilgan konstitutsiya qabul qilindi. Mamlakatda ikki palatali (**yuqori (perlar) va quyi (vakillar**) parlament joriy etildi. Konstitutsiya imperatorga yanada keng huquqlar berdi. *Masalan, u parlamentni chaqirish, ochish, tarqatib yuborish, qonunlar o'rniga oliy farmonlar chiqarish, qo'shinlarning Oliy bosh qo'mondoni bo'lish, urush e'lon qilish, sulh tuzish kabi huquqlarni o'zida saqlab qoldi.* Konstitutsiyaga ko'ra, **Vazirlar Kengashi** faqat imperatorga hisob berardi. Parlament qarorlari imperator huzuridagi **Yashirin Kengash**dan o'tishi zarur edi. Saylov huquqi mol-mulk senzi bilan cheklandi. Saylov yoshi **25 yosh** etib belgilandi.

Tashqi siyosat. Aholining kambag'alligi sanoat mahsulotlari sotib olinishini qiyinlashtirdi. Bu hodisa Yaponiya hukmron doiralarini qo'shni davlatlar hududlarini bosib olishga undagan. Bu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun Yaponiya zo'r berib qurollandi. Yaponiyaning bosqinchilik maqsadlari **Koreya, Xitoy, Tinch okeani havzasi**ga qaratildi. **1879-yili,** Xitoyning noroziligiga qaramay, **Ryukyu** orolini bosib oldi. **1875-yili** Janubiy Saxalin hisobiga **Kuril orollari**ni Rossiyadan ajratib, o'ziga qo'shib oldi. **1876-yili** yaponlar uchun **Koreya** «ochiq» mamlakat

deb e'lon qilindi. Yapon tovarlari bojsiz sotiladigan bo'ldi. Shu yo'l bilan Koreya Xitoy ta'siridan ajratib olindi.

Yaponiya – Xitoy urushi. Yaponiya – Xitoy munosabatlaridagi ziddiyat **1894 – 1895-yillari** urushga olib keldi. **1894-yil iyul**da Yaponiya **Seul**da saroy to'ntarishi uyushtirib, yaponparast hukumat tuzdi va poytaxt garnizonini qurolsizlantirdi. Bu hodisa **Yapon – xitoy urushi** yuz berishiga olib keldi. Xitoy harbiy flotining transport kemalari cho'ktirildi. Yapon qo'shinlari urush e'lon qilmasdan Koreyada turgan Xitoy harbiy qismlariga hujum qildi. **1894-yili** Xitoy qo'shinlari **Pxenyan** yonida mag'lubiyatga uchradi. Bu hol Yaponiyaning Uzoq Sharqda ustunlikka ega bo'lishiga yo'l ochdi. Yaponiyaning zamonaviy qurollar bilan ta'minlangan harbiy kuchlari ham quruqlikdan, ham dengizdan hujum uyushtirib, Xitoy qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi. **1895-yili** bu ikki davlat o'rtasida **Simonoseki** sulhi tuzildi. Xitoy Koreyaning mustaqilligini tan oldi. **Lyaodun, Tayvan, Penxu (Peskador)** orollarini Yaponiyaga berdi. Shuningdek, Yaponiyaga katta miqdorda tovon to'lashga majbur bo'ldi. Shartnomaga ko'ra, Yaponiya o'z savdosi uchun Xitoy hududida sanoat korxonalarini qurish va ulardan foydalanish huquqini oldi.

1895-yili Yaponiya **10 yillik** qurollanish dasturini qabul qildi. **1902-yili** Buyuk Britaniya bilan **5 yillik** bitim tuzib, Xitoyda Buyuk Britaniya – Yaponiya manfaatlarini belgilab oldi. AQSh Yaponiyani quvvatlashini bildirdi va Germaniya, Fransiyani ham shunga chaqirdi. Shunday qilib, muqarrar bo'lib qolgan urushda Rossiya yolg'izlatib qo'yildi. **1904-yili** yuz bergan **Rossiya – Yaponiya urushi**da erishilgan g'alaba Yaponiyaning qudratini yanada orttirdi.

1910-yili Yaponiya **Koreya yarimorol**ini harbiy kuch ishlatib qonunga zid ravishda o'ziga qo'shib oldi. Koreyada **Yapon general-gubernatori** cheklanmagan hokimiyatga ega bo'ldi. Mustamlakachi hukumatni qo'llab turish maqsadida Yaponiya katta harbiy kuchlarni Koreyaga joylashtirdi. Yaponiyaning maqsadi Koreyadagi boyliklarni o'zlashtirishdan iborat edi.

Yaponiya endilikda barcha e'tiborni Xitoyga qaratdi. Yevropa davlatlari va AQShning Xitoy boyliklaridan foydalanishi Yaponiyani ham Xitoy mulklaridan foydalanishga undardi. Ishtahasining «ochilib» ketishi AQSh va Buyuk Britaniya bilan munosabatlar yomonlashuviga olib keldi. Yaponiya Uzoq Sharqda «xavfli raqib»ga aylandi. Shu tariqa Yaponiya ham yangi urush girdobiga tortilib boraverdi.

20.2. XIX ASR OXIRIDA XITOY

Xitoyning yarim mustamlakaga aylantirilishi. **XIX asr oxiri**da Xitoy qoloq, yarim feodal davlat edi. Yerning asosiy qismi zamindor boylar qo'lida edi. Ko'pchilik dehqonlar zamindorlardan yerni ijaraga olar, ijara haqini pul bilan yoki hosil hisobidan to'lardilar. Yeri bor dehqonlar juda kam edi. Dehqonlar shaharga ish qidirib kelardilar. Lekin Xitoyda sanoat juda sekin taraqqiy etayotgandi.

XIX asrning so'nggi choragidan boshlab mamlakatda kapitalistik munosabatlar ham rivojlana boshladi. Dastlabki temir yo'llar qurildi. Iqtisodiy aloqalar kengaydi. Yirik shaharlar barpo etildi. Ishchilar soni ko'paydi. Sanoat vujudga kelishi bilan milliy burjuaziya ham shakllana boshladi. Biroq milliy burjuaziyaning ko'pchiligi **kompradorlar**dan iborat edi. Ular amalda chet el firmalari agentlari edi. Ular chetdan keltirilgan tovarlarni sotish va arzon xomashyo sotib olish hisobiga boyib borardilar.

Pulga muhtoj **sin sulolasi** chet el davlatlari bilan asoratli shartnomalar tuzar va milliy manfaatlarga xilof ravishda ularga yon berardi. **70-yillar**dayoq ajnabiylar Xitoyning **26 porti** (bandargohi)ga bemalol kirardilar va xo'jayinlardek ish yuritardilar.

Xitoyning Yaponiya bilan **1894 – 1895-yillar**dagi urushda mag'lubiyatga uchrashi chet ellik monopolistlarning Xitoyni yanada ko'proq talashlari, asoratga solishlariga sabab bo'ldi. **1897-yili** Germaniya **Szyaochjouvan ko'rfazi**ni bosib oldi va **Shandun viloyati**ni o'z ta'sir doirasiga kiritdi. Fransiya Suamchjuvan ko'rfazini egalladi va **Yunan viloyati**da hukmronlik ta'sirini o'tkaza boshladi. Rossiya **Port-Arturn**i, Buyuk Britaniya **Veyxay porti**ni bosib oldi. Eng boy hudud – **Yanszi daryosi havzasi** Buyuk Britaniyaning ta'sir doirasiga tushib qoldi. **Futsziyan viloyati**da yapon bosqinchilari hukmron bo'lib oldilar.

Sanoat taraqqiyoti va chet el hukmronligi. XIX asr oxirida Xitoyda ilk sanoat korxonalari paydo bo'la boshladi. **1881-yili Shimoliy Xitoy**da birinchi temir yo'l ishga tushirildi. **1897-yili** bu yerda **600 ga yaqin** chet el firmalari mavjud edi. Lekin sanoat korxonalari o'sishi va ko'payishi sust bordi.

Yevropaning savdodagi hissasi **1890-yili 40 mln iyen**ga teng bo'ldi. Import eksportdan ancha ko'p edi. Xitoy bilan Buyuk Britaniya o'rtasida **1876-yili** tuzilgan konvensiya Xitoyni yanada asoratga soldi. Konvensiya Buyuk Britaniyaga Xitoyning **10 dan ortiq porti**ga erkin kirish, qator viloyatlarda imtiyozli savdo qilish huquqini berdi.

1880-yillarda Fransiyaning **Vyetnam**ni bosib olishi tufayli Fransiya – Xitoy munosabatlari yomonlashdi. **1884-yili** Xitoy **Markaziy Vyetnam**

ustidan rasmiy hukmronligidan voz kechdi va u yerda **Fransiya** protektoratini tan oldi. Xitoy hukumati Fransiya bilan shoshilinch bitim tuzdi va Fransiyaga qator masalalarda «yon berdi». Yaponiya ham Xitoyga nisbatan bosqinchilik rejalarini amalga oshirishga kirishdi. **1872-yili Ryukyu orolini**, **1874-yili Tayvanni** bosib olishga harakat qildi. Tayvandagi urushda AQSh harbiy kuchlari ishtirok etgani uchun bu orol amerikalik savdo-sanoatchilar uchun «ochiq» deb e'lon qilindi.

Ijtimoiy harakat. Xitoyni to'g'ri taraqqiyot yo'liga olib chiqish haqida turli g'oyalar shakllandi. Bu **islohotchilik harakati** deb ataldi. Mazkur davr ijtimoiy harakatida **Sun Yat Sen**ning o'rni alohida ahamiyatga ega bo'ldi. U Xitoyni inqilob yo'liga yetaklagan rahnamo edi. Sun Yat Senning **«Xitoy uyg'onish jamiyati»** nomli tashkiloti manjurlarning sin sulolasini ag'darib tashlash va Xitoyda demokratik milliy davlat tuzish uchun kurashdi.

Xitoyda bu davrdagi ijtimoiy harakatda **«Ixetuan»** – *«Tinchlik va adolat uchun ko'tarilgan musht»* deb atalgan yashirin tashkilot ham katta rol o'ynadi. «Ixetuan»lar *«Manjur sinlarini haydab chiqaramiz, chet elliklarni yo'qotamiz»* shiori ostida ish ko'rardilar. **1899-yili** «Ixetuan» harakati qo'zg'olon tusini oldi. Ixetuanlar Yaponiyaga tovon to'lashni to'xtatish, Tayvanni Xitoyga birlashtirish kabi talablarni qo'ydilar. Sin hukumati qo'zg'olondan cho'chib qoldi. Chunki Ixetuanlar poytaxt va viloyatlarning qariyb yarmini qo'lda tutib turgandilar. **1900-yili** hukumat qo'zg'olonchilarga qarshi yuborgan qo'shin yengildi. Qo'zg'olonchilarning yaxshi uyushgan otryadlari **Peking**a yurish boshladilar, bu yerda o'z hokimiyatini o'rnatdilar.

Xitoyga qarshi intervensiya. Bu voqea Pekinga chet elliklar intervensiyasi boshlanishiga bahona bo'ldi. Intervensiyada sakkiz davlat – **Germaniya, Yaponiya, Italiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Fransiya, Rossiya** va **Avstriya-Vengriya** qatnashdi. Ularning har biri Xitoyda kattaroq ulushga ega bo'lish maqsadini ko'zlardi. **1900-yil iyul**da chet el interventlari yalpi hujumga o'tdilar. **Avgust**da **Pekin** egallandi. Xorijliklar shaharni va imperator saroyini talon-toroj etishdi. Sakkiz davlat Xitoyni asoratli shartnomani imzolashga majbur qildi. Shartnomada qo'zg'olonda qatnashgan mansabdor shaxslarni qatl etish yoki surgun qilish talab etildi. Shuningdek, Pekin bilan dengiz sohili o'rtasidagi yo'llarni muhofaza qilish uchun ajnabiy davlatlarga Xitoyda o'z qo'shinlarini saqlashga ruxsat berildi. Qolaversa, Xitoy chet el interventlariga **33 mln dollar** tovon to'lashga majbur edi. Xitoyga qurol-aslaha kiritish taqiqlandi.

Ayni paytda, Ixetuan qo'zg'oloni mustamlakachilarni ehtiyotkorlik bilan harakat qilishga majbur etdi. **1899-yil sentyabr**da AQSh davlat kotibi Xeyning **«ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar»** siyosati e'lon qilindi va u **«Xey» doktrinasi** deb nom oldi.

20.3. XX ASR BOSHLARIDA XITOYNING IJTIMOIY-IQTISODIY VA SIYOSIY AHVOLI

Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. **XX asr boshlari**da Xitoyda ijtimoiy ziddiyatlar kuchayib ketdi. Sin sulolasi hukmronligi inqirozga yuz tutdi. Shoshilinch ko'rilgan islohot choralari jamiyat ahvolini yaxshilamadi. Omma orasida manjurlar boshqaruviga qarshi harakat kuchaydi. Xitoy sanoati rivojlanishi ancha ortda qoldi. Shunday bo'lsa-da, har yili **50 tadan ko'proq** korxona ishga tushirildi. Natijada eksport **1901-yildan 1911-yilgacha 122 mln dollardan 245 mln dollarga** o'sdi. Xorijiy davlatlar ichida **Buyuk Britaniya** tovar ayirboshlashda **1-o'rin**da (**50 foiz**) turardi. **1914-yil**ga kelib Xitoy xorijiy davlatlardan **835 mln dollar** qarz bo'lib qoldi.

Muvaqqat Respublika hukumatining tuzilishi. Sun Yat Sen tashkiloti konstitutsiyaviy monarxiya haqidagi fikrlarni qoraladi. Sin sulolasini umuman yo'qotib, respublika tuzumini o'rnatish talabi qo'yildi. Chaqiriqlar manjurlarga qarshi harakatni yanada kuchaytirdi. Bu harakat, **1911-yili** chet elliklardan temir yo'l qurilishi uchun qarz olish haqida bitim tuzilgach, qurolli qarshilik tusini oldi. Hatto armiyada ham norozilik boshlandi.

Uxan shahrda askarlar yotog'ini tintuv qilishga kirgan manjur ma'muriyati tarafdorlarini askarlar o'ldirdilar. Qurol-aslaha omborini bosib oldilar. Boshqa qo'shin qismlari ham ularga qo'shildi. Inqilobchilar **11-oktyabr**da Uxanni to'la qo'lga kiritdilar. Ular respublika hukumati tuzdilar va barcha Xitoy viloyatlarini respublika atrofida birlashishga chaqirdilar. Manjur sulolasi hukmronligi tugatilgani e'lon qilindi. Bu inqilob Xitoy tarixiga **«Sinxay inqilobi»** nomi bilan kirgan. «Sinxay inqilobi» qurolli qo'zg'olon yo'li bilan Xitoyda **XVII asr**dan hukm surgan manjurlar hokimiyatini ag'darib tashladi.

Sun Yat Senning prezident etib saylanishi. Inqilobchi demokrat **Sun Yat Sen (1866 – 1925)** Xitoydagi milliy ozodlik harakatining atoqli arbobi edi. U **Guanchjou** (Kanton) yaqinida dehqon oilasida tavallud topdi. Sun Yat Sen **90-yillar boshi**da **Gonkong** (Syangan)da ingliz tibbiyot institutini tamomladi. Keyingi hayotini siyosiy soha bilan bog'ladi. Sun Yat Sen **1905-yili «Xitoy uyushmalari ittifoqi»** (Tunminxay) degan siyosiy tashkilot tuzdi. Yirik shaharlarda bu ittifoqning yashirin bo'limlari

ochildi. Ittifoq **1905-yil noyabr**da **«Minbao»** (Xalq gazetasi)ni chiqara boshladi.

«Ittifoq» Sun Yat Sen rahbarligida dastur qabul qildi. Dasturda Sin monarxiyasini ag'darish, respublika ta'sis etish va yerga egalik huquqini tenglashtirish, mustaqillikni tiklash ko'zda tutilgandi. Sun Yat Sen ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan sust taraqqiy etgan Xitoyda yerga egalik huquqini tenglashtirish yo'li bilan ijtimoiy adolatli tuzum yaratish mumkin degan fikrda edi.

1911-yili ko'p yillik muhojirlikdan so'ng Sun Yat Sen Xitoyga qaytdi. Uni xitoy xalqi xursandchilik bilan kutib oldi. **29-dekabr**da **Nankin**da inqilobiy viloyatlar vakillaridan iborat **Millat majlisi** to'plandi. Millat Majlisi Xitoyni respublika deb e'lon qildi va Sun Yat Senni Xitoy Respublikasining vaqtincha prezidenti etib sayladi. Millat Majlisi vaqtincha qabul qilgan konstitutsiyada barcha fuqarolarning tengligi va turli demokratik erkinliklar e'lon qilinsa-da, dehqonlarning orzu-tilaklarini ifoda etuvchi *«yerga egalik qilishda teng huquqli bo'lish»* shiori konstitutsiyada ham, Millat majlisining ko'rgan chora-tadbirlarida ham o'z aksini topmadi.

Yuan Shikay diktaturasi. Inqilob natijasida Xitoyda qo'shhokimiyatchilik vujudga keldi. Ularning biri **Xitoy Respublikasi hokimiyati**, ikkinchisi – Shimolda saqlanib qolgan **imperator hokimiyati** edi. Pekindagi imperator hukumatining boshlig'i **Yuan Shikay** edi. Chet el monopolistlarini Xitoydagi mavqelari qay ahvolda qolishi tashvishga solib qo'ydi. Shu sababli ular turli bahonalar bilan Xitoyning ichki ishlariga aralasha boshladilar. Xorijlik bosqinchilar Xitoydagi inqilobni qurol kuchi bilan bostirish maqsadida o'z kuchlarini birlashtirishga erishdilar. Rivojlangan xorijiy davlatlarning Pekin hukumatini qo'llab-quvvatlashdan maqsadi Xitoyning ichki ishlariga o'z bilganicha aralashish edi. Biroq bu Xitoyda umumiy norozilik keltirib chiqardi. Aholi chet el tovarlarini boykot qila boshladilar. Shunday sharoitda reaksiya bosh vazir Yuan Shikay atrofiga birlashdi.

Pekin saroy ahli unga monarxiyaning homiysi – xaloskori deb qarardi. Biroq Yuan Shikay inqilobiy harakat tazyiqi bilan **1912-yil 12-fevral**da sin sulolasini taxtdan voz kechishga majbur etdi. Hukmron tabaqalar hokimiyatni unga topshirishga urindilar. Yuan Shikay **Nankin**da hukumat tuzdi. Bu orada xorijiy davlatlar ham Sun Yat Senning hukumat tepasidan ketishini ochiq talab qildilar va Xitoyga intervensiya uyushtirishga oshkora tayyorgarlik ko'ra boshladilar. Sun Yat Sen prezidentlik lavozimini Yuan Shikayga topshirishga majbur bo'ldi.

Hokimiyat tepasiga kelgan Yuan Shikay demokratik erkinliklarni

yo'qqa chiqardi. U ishni, avvalo, inqilob qo'shinlarini butunlay qurolsizlantirishdan boshladi. Hukumatga qarshi tuzilgan har qanday guruh a'zolarining taqdiri o'lim bilan yakunlanardi. Har bir qishloqda jazo guruhi ish ko'radigan bo'ldi. Demokratik kuchlar **1912-yili Gomindan** (Milliy partiya)ni tuzdilar. Partiya boshqaruvi raisligiga Sun Yat Sen saylandi.

Aksilinqilobning g'alabasidan ruhlangan Yuan Shikay Millat Majlisini o'zini **besh yil** muddatga prezident etib saylashga majbur qildi. Yuan Shikay buyuk davlatlar bilan yangi asoratli qarz to'g'risida shartnoma imzoladi. Shundan so'ng xorijiy davlatlar Xitoy Respublikasini tan olganliklarini ma'lum qildilar. Xitoyning iqtisodiy ahvoli og'irlashdi. Sun Yat Sen xalqni qo'zg'olon boshlashga undadi. **1913-yili** Xitoy janubida hukumatning reaksion siyosatiga qarshi **«Ikkinchi inqilob»** deb nomlangan qo'zg'olon boshlanib ketdi. Qo'zg'olonga Sun Yat Sen boshchilik qildi.

Biroq kuchlar teng bo'lmagani, qo'zg'olonchilar zamonaviy qurollar bilan ta'minlanmagani tufayli, chet el davlatlaridan harbiy madad olgan hukumat qo'shinlari tomonidan «ikkinchi inqilob» tor-mor etildi. **1914-yili** Yuan Shikay **Konstitutsiyaviy Kengash** chaqirdi. Unda «Yangi Xitoy konstitutsiyasi» qabul qilindi. Yuan Shikay prezident sifatida cheklanmagan hokimiyatga ega bo'ldi. Harbiy diktatura o'rnatildi. Respublika boshqaruv organlari tugatildi. Shu tariqa 1911-yil inqilobi mag'lubiyat bilan yakunlandi.

20.4. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA HINDISTON

Mustamlakachilik. Hindiston bu davrda Buyuk Britaniya mustamlakasi edi. Metropoliya Hindistonni **vitse-qirol** boshchiligidagi amaldorlar va politsiya yordamida boshqarardi. Ingliz mustamlakachiligi sharoitida Hindistonda sarmoyadorlikka asoslangan mahalliy ishlab chiqarish tizimi yuzaga kela boshladi. Yirik sanoat korxonalari qurishga kirishildi. **1886-yili** to'qimachilik sanoatida **95 ta fabrika** bor edi. Konlar soni ko'paydi. Temir yo'l tarmoqlari **1900-yili** salkam **40 000 km** ni tashkil etdi. Bu xomashyo tayyorlash va tashishda muhim ahamiyatga ega edi.

Buyuk Britaniya Hindistonda sanoatni o'ziga qulay qilib joylashtirishga urindi. Asosiy sanoat korxonalari dengizbo'yi port shaharlari yaqinida edi. Bundan Hindiston boyliklarini arzon va oson olib chiqib ketish maqsadi ko'zlandi. **1873-yildan 1883-yilgacha** Hindiston bilan Buyuk Britaniya savdosi **60 foiz**ga o'sdi. Hindiston ingliz burjuaziyasining kapital kiritish zonasiga aylandi.

Dehqonchilikda agrotexnika pastligicha qoldi. Mustamlakachilar

tomonidan ochilgan sug'orish inshootlari bor-yo'g'i 20 foiz yerni sug'orishga yetardi. **60 – 70 foiz** yer hosilning katta qismini to'lash sharti bilan dehqonlarga ijaraga berilardi. Qarz hisobiga ishlab berishga majbur bo'lgan odamlar soni ko'paya bordi. Qishloq xo'jaligining eng serdaromad tarmoqlariga (**choy, kanop, paxta**) sarmoya solish katta foyda keltirardi. Bu sohaga ingliz ishbilarmonlari ishchilar yollar va ular **qul** deb atalardi.

Hindiston **XIX asr oxiri**da dunyo bozoriga katta miqdorda sanoat va qishloq xo'jaligi mollari chiqara boshladi. Lekin olingan daromad ingliz mustamlakachilarini boyitdi. Qishloq xo'jaligida monokultura vujudga keldi. **Bengaliya – kanop, Assam – choy, Bombey va Markaziy Hindiston – paxta, Panjob – bug'doy** yetishtirishga ixtisoslashdi. Yer egalari, bank egalari, sudxo'rlar dehqonlarni qarzga botirib, ularni ayanchli ahvolga solib qo'ydilar. **1870 – 1890-yillar**da Hindistonda **20 martadan ko'p** ocharchilik yuz berdi. Natijada **18 mln odam** qirilib ketdi.

1878-yili ingliz ma'muriyati Hindistondagi **milliy tillarda chiqadigan matbuot haqida** qonun qabul qildi. Qonun barcha gazetalarni inglizlar nazoratiga o'tkazdi. Tez orada o'qotar qurollarni saqlamaslik haqida akt qabul qilindi. Buyuk Britaniya mahalliy burjuaziyaga «qisman yon bosish siyosati»ni ham yurita boshladi. Ularning vakillari shaharlar ma'muriyatiga saylana boshladilar. Shunday bo'lsa-da, Hindiston faqat Buyuk Britaniya orqaligina savdo qila olardi, xolos.

Iqtisodiy ahvol. **XX asr boshlari**da Hindistonda kapitalizm sekinlik bilan bo'lsa-da rivojlana boshladi. **1910-yil**ga kelib kanoptola fabrikalari soni **ikki barobar** ko'paydi. Paxta xomashyosi tayyorlash, surp mato to'qish korxonalarining **215 tasi** hind kapitalistlariga qarashli edi. Sanoat ishchilari soni salkam **1 mln kishi**ga yetdi. Mamlakatda metropoliya kapitali juda tez o'sib bordi. Biroq xalq ommasining turmushi tobora yomonlashdi. **1896 – 1906-yillari 10 mln dan ortiq odam** ochlikdan o'ldi. **1904-yili esa 1 mln odam** vabodan qirildi.

1905-yili Kerzon universitetlarga kirish pulini **ikki barobar** oshirdi. Ulardagi **huquq fakultetlari** yopib qo'yildi. Demokratik ruhdagi, xalq manfaatini ko'zlovchi talabalarning universitetlarga kirishi butunlay taqiqlandi.

Milliy ozodlik harakati. **1885-yili Bombay**da muayyan dasturiga ega siyosiy partiya – **«Hindiston milliy kongressi»** (HMK) tuzildi. Ayni paytda, **«Musulmonlar ligasi»** ham tashkil topdi. Endi inglizlar hind-musulmon raqobatini yanada kuchaytirib yubordilar. Kongress o'z safiga yirik savdo-sanoat kapitali vakillarini, liberal pomeshiklar hamda milliy ziyolilarni birlashtirdi. Dastlabki vaqtlarda Hindiston milliy kongressiga

ingliz mustamlaka ma'muriyati qarshilik qilmadi. Bunday munosabatni Hindiston vitse-qiroli lord **Dafferin** *«milliy kongress inqilobdan arzonroq»* deb izohlagandi.

Inglizlar o'ylagandek, milliy kongressning talablari dastlabki paytlarda juda mo'tadil bo'ldi. Bu talablar Britaniya hukmronligini saqlab qolgan holda, ba'zi islohotlar o'tkazishnigina ko'zda tutardi. Ya'ni chetdan keltiriladigan ip-gazlamalarga boj belgilash, mahalliy vakillik muassasalarining huquqini kengaytirish, hindlarni boshqarish ishlariga jalb etish, texnik ta'limni uyushtirish va boshqalar edi. Biroq vaqt o'tishi bilan bu partiya katta mavqega ega bo'la bordi.

1890-yili «so'l» – radikal oqim shakllandi. Unga **Bal Gangadxara Tilak (1856 – 1920)** rahbarlik qildi. U hind xalqining milliy ongini uyg'otish, milliy g'ururini ko'tarish yo'lidan bordi. Dinga, uning ommani uyushtiruvchi kuchiga katta baho berdi. Tez orada u **Puna shahri**da mustaqil o'rta maktab tashkil qildi. Maktab o'quvchilar ongiga vatanparvarlik g'oyalarini singdira boshladi. **1880-yili** Tilak **«Kesari» (Sher) gazetasi**ni tashkil etdi. Gazeta yoshlar o'rtasida vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qila boshladi. Hindiston sharoitida qurolli qo'zg'olon yo'li bilan ozodlikka chiqishning iloji yo'qligini anglagan Tilak kurashning **«kuch ishlatmaslik»** yo'lini tanladi. Bu usulda asosiy e'tibor ingliz tovarlarini boykot qilishga qaratildi. *«Xudo Hindistonni xorijiy mamlakatlarga hech qachon hadya qilgan emas»,* – derdi Tilak. Tilak tarafdorlari ommani mustamlakachilarga qarshi nafrat ruhida tarbiyalashardi. Bundan xavfsiragan inglizlar **1897-yili** Tilakni **1,5 yil**ga qamadilar. *Lekin tez orada ozod qilishga majbur bo'ldilar.*

Bengaliyaning bo'linishi. Milliy ozodlik harakatini «bo'g'ish»ga intilib ingliz mustamlakachilari **1905-yili Bengaliya**ni ikki qismga bo'lib tashlashdi. Chunki Bengaliya mustamlakachilikka qarshi kurashning eng kuchli harakat markazlaridan bo'lib, unda **100 ming kishi** qatnashdi. Norozilik chiqishlari birin-ketin mamlakatning katta qismini egalladi.

1906-yil dekabrda «so'l» radikal oqim talabi bilan Hindiston milliy kongressi qo'shimcha qaror qabul qildi. **«Svaraj»** (o'z hokimiyatimiz), **«Svadeshi»** (o'z ishlab chiqarishimiz), **«Ingliz mollariga boykot»** xalq orasida katta e'tibor qozondi. Tilak nafaqat ingliz mollaridan, balki ingliz boshqaruvidan ham voz kechishga chaqirdi. Boshqaruvni hindlashtirishga, mahalliy millatni fabrika va zavod qurishga chaqirdi. **«Paysa fond»** nomli mablag' jamg'armasi tuzdi. Hind sanoati mollari ko'rgazmalarini tashkil etdi.

«Svaraj», «Svadeshi» dasturi ommaga katta ta'sir ko'rsatdi. **1908-yili Bombay viloyati**ning **Surat shahri**da Hindiston milliy kongressining

qurultoyi chaqirildi. Biroq unda «Svaraj», «Svadeshi» dasturidagi asosiy mazmun – «o'z hokimiyatimiz» g'oyasi qabul qilinmadi. Mo'tadil oqim ingliz imperiyasi tarkibida qolish, ayni paytda, o'z-o'zini boshqarish huquqi berilishi tarafdorlarining fikri ma'qullandi. Radikal oqim (Tilak boshliq) HMK tarkibidan chiqarildi.

Urush arafasida. Hindistonning mahalliy hukmron doiralari ingliz mustamlakachi ma'muriyati bilan kelishib, **1909-yili «Hindiston kengashlari haqida qonun»** nomli hujjat qabul qildi. Bu qonunga ko'ra, aholining faqat **0,5 foizi** saylov huquqini oldi. Saylovlar diniy jamoa asosida o'tkaziladigan bo'ldi (ya'ni hindlar va musulmonlar alohida-alohida ovoz beradigan bo'ldilar). Bu «saylov o'yini»dan maqsad hindlar va musulmonlar o'rtasiga nifoq solish edi.

1910-yildan keyin Hindiston Buyuk Britaniyaning bo'lg'usi jahon urushi rejalarida muhim rol o'ynay boshladi. Shuning uchun u Hindistondagi vaziyatni yumshatishga intildi. Chunonchi, **1911-yili** mustamlaka ma'muriyati ish vaqtini **12 soat** bilan cheklash haqida qonun qabul qildi. **1911-yil** mehnatkashlarning harakatlaridan cho'chigan mustamlaka ma'murlari Bengaliyani birlashtirishga majbur bo'ldi. Poytaxt xavfsizroq hududda joylashgan **Dehli**ga ko'chirildi.

20.5. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ERON

Buyuk Britaniya va Rossiyaga qaramlikning kuchayishi. **XIX asr oxiri – XX asr boshlari**da Eron dunyo sarmoyador davlatlarining yarim mustamlakasiga aylandi. Shoh tuzumi va mustamlakachilik zulmi xalq ahvolini yanada og'irlashtirdi. Eron yirik yer egalari, savdogarlari va sudxo'rlari shoh hokimiyatini cheklab qo'yishni, o'z mulklarining daxlsiz bo'lishini, gubernatorlar va xonlar o'zboshimchaligiga barham berishni, eronlik sarmoyadorlarning huquqlarini chet ellik kapital egalari bilan teng qilib qo'yilishini talab qildilar. Eronga kapital chiqarish bo'yicha **Buyuk Britaniya** birinchi o'rinda edi. **1872-yili** Eron neft konlaridan foydalanish, tosh va temir yo'l qurish konsessiyalari olindi. **1889-yili** ingliz monopolisti **Reyter** Eronda **«Shahanshohbank»** ochishga erishdi. Shartnomaga ko'ra, bank qog'oz pullar chiqarish va mamlakat yer osti boyliklaridan erkin foydalanish huquqini oldi. Birinchi jahon urushi arafasida Eron Buyuk Britaniyadan **9,6 mln funt sterling** qarz bo'lib qoldi.

Eronni qaram qilishda Rossiya ham ishtirok etdi. Birinchi jahon urushi arafasida Eronning Rossiyadan qarzi **164 mln rubl**ni tashkil etdi. Eronning iqtisodiy qaramligi siyosiy qaramlikni ham kuchaytirdi. Ayniqsa, Rossiyaning shoh saroyiga ta'siri kuchli edi. Inglizlar boshqa yo'ldan

bordilar. **Fors viloyati, baxtiyorlar (qabilalar), Huziston xonlari**ni markazga, shoh hukmronligiga qarshi gijgijlab turdilar.

1905 – 1911-yillardagi Eron inqilobi. Ichki ijtimoiy ziddiyatlar, tashqi iqtisodiy va siyosiy siquvlar Eronda **1905-yili** inqilobiy harakat boshlanishiga sabab bo'ldi. Mamlakat aholisi butun mamlakat sanoat tarmoqlariga xo'jayinlik qiluvchi rus-ingliz sarmoyadorlarini mamlakat hududidan chiqarib yuborishni talab qildilar. Mamlakatda umumiy ish tashlash yuz berdi. Shoh hukumati ish tashlovchilardan shafqatsiz o'ch olishga kirishdi. Bunga javoban xalq harakati boshlandi. Unda kurashning **best usuli** qo'llandi. Bestda o'tirgan odamga jazo chorasi qo'llash mumkin emasdi. Namoyishchilar **«adolatxona»** tashkil etish, shafqatsiz amaldorlarni haydash talabi bilan chiqdilar.

Shoh xalq harakatiga qarshi qo'shindan foydalanmoqchi bo'ldi. Biroq qo'shin xalqqa o'q uzishdan bosh tortdi. Natijada **1906-yil 5-avgust**da shoh konstitutsiya qabul qilish haqida farmon chiqarishga majbur bo'ldi. Lekin farmon ijrosiz qolgach, xalq yana qo'zg'aldi. Buning oqibatida **Tabriz**da Eron tarixida birinchi parlament – **Majlis** tuzildi. Majlis Eron sotsial-demokratlari ta'siri ostida edi. **9-sentyabr**da shoh xalq tazyiqi bilan Majlisga saylovlar o'tkazish haqida farmon chiqardi. Qojarlar (ya'ni shoh urug'iga mansublar), ruhoniylar, savdogarlar, zamindorlar va dehqonlar, hunarmandlar – jami **6 ijtimoiy qatlam** saylov huquqiga ega bo'ldilar.

1906-yili Majlisga saylov o'tkazildi. **Shoh Muzaffariddin** konstitutsiyaning birinchi qismini tasdiqladi. *Unga binoan, shohga barcha qonunlarni tasdiqlash, byudjet qabul qilish, uning ijrosini nazorat qilish huquqi berildi.* Chet elliklar bilan tuziladigan iqtisodiy bitimlarga Majlisning roziligi olinishi belgilab qo'yildi.

1907-yili Shoh Muzaffariddin vafot etgach, taxtga mustabid tuzum tarafdori, yangilikka qarshi **Muhammad Alishoh** o'tirdi. U inqilobiy o'zgarishlarga qarshi kurashni rejalashtirdi. Yangi shoh Majlisga qat'iy qarshi edi. Lekin inqilobiy harakat ko'lami uni Eronda konstitutsiyaviy tartibni saqlab turishga majbur etdi. Shu bilan **1905 – 1907-yillar**dagi Eron inqilobining **birinchi bosqichi** tugadi.

Inqilobning ikkinchi bosqichi. **1907 – 1911-yillar** Eron inqilobining **ikkinchi davri** deyiladi. Harakat endi, asosan, mustamlakachilarga qarshi qaratildi. Shahar kambag'al qatlamlari ham o'z talablari bilan chiqishdi. Ayniqsa, mujohidlar tashkiloti katta ta'sirga ega bo'ldi. Ular yashirin saylov huquqi, jamiyatlar tuzish, shaxs erkinligi, shoh yerlarini musodara qilish, ish vaqtini **8 soat** qilib cheklash, bepul va majburiy ta'lim joriy qilish kabi talablar bilan chiqdilar.

Demokratik harakat ta'siri ostida shoh zamindor zodagonlarning nafaqasini qisqartirdi. Feodal zamonga xos unvonlarni bekor qildi. Poraxo'rlik, tamagirlikka qarshi kurash to'g'risida qonun e'lon qildi. Shoh Eron konstitutsiyasining eng muhim demokratik mazmundagi moddalarini tasdiqlab imzo chekishga rozi bo'ldi. Qonun oldida hamma teng, shaxs va mulk daxlsizligi, jamiyatlar tuzish, majlislar o'tkazish, dunyoviy sud (shariat sudi bilan bir qatorda), qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi davlat organlarini ajratish kabi moddalar muhim ahamiyatga ega edi.

Shohga katta huquqlar ham berildi. *Shoh javobgarlikdan ozod shaxs, bosh qo'mondon, urush e'lon qilish, sulh tuzish, vazirlarni tayinlash va bo'shatish kabi huquqlarga ega edi.* Shohning konstitutsiya va qonunlarga sodiqlik haqida qasamyod qilishi qoida qilib qo'yildi. Qonunlarning shariatga muvofiqligi ustidan nazorat qilish uchun **besh ulug' ulamo** tayinlanadigan bo'ldi.

Buyuk Britaniya – Rossiya bitimi. Jahon mustamlakachilik tizimi Erondagi inqilobiy o'zgarishlarga befarq qarab turmadi. Ularning barchasi Eronga nisbatan zo'ravonlik siyosati yuritdilar. **1907-yili Buyuk Britaniya – Rossiya bitimi** imzolandi. Bitimga ko'ra, Eron **uch qism**ga bo'lindi. *Shimoliy Eronning Rossiya, Janubiy Eronning Buyuk Britaniya ta'sir doirasida bo'lishi tasdiqlandi. Eronning o'rta qismi esa betaraf deb e'lon qilindi.* Bu davrda shoh inglizlar va ruslar yordamida **1908-yili** aksilinqilobiy davlat to'ntarishi o'tkazdi. Rossiya kazak qo'shinlari Majlis binosini to'pga tutdi. Majlis tarqatib yuborildi. Demokratik matbuot taqiqlandi.

Majlis halokatga uchragach, inqilobiy harakat markazi **Tabriz**ga ko'chdi. Shoh qo'shinlari Tabrizga hujum qildi va shaharni qamal qildi. Oqibatda ocharchilik boshlandi. Tashqi dunyodan uzib qo'yilgan Tabriz qo'zg'oloni yengildi.

Buyuk davlatlarning Erondagi siyosati. Tabriz qo'zg'oloni bostirilgani bilan, shohga qarshi harakatlar to'xtamadi. **1909-yili Tehron**da Muhammad Alishoh taxtdan tushirildi. O'rniga o'g'li **Ahmad** shoh deb e'lon qilindi. Konstitutsiya tiklandi. Hukumat mamlakat iqtisodini o'nglash maqsadida chet eldan, chunonchi, Buyuk Britaniyadan **1 mln 250 ming funt-sterling** qarz oldi. Ichki aksilinqilobchi kuchlar Rossiya va Buyuk Britaniya yordamida inqilobiy Majlisga qarshi hujumga tayyorgarlik ko'rdilar. Nihoyat, Rossiya qo'shini **1911-yili** aksilinqilobiy davlat to'ntarishi o'tkazilishida qatnashdi. Shu tariqa Eron inqilobi bostirildi.

Erondagi **1905 – 1911-yillar** inqilobi katta ijtimoiy hodisa – **feodal-monarxiya tuzumidan konstitutsiyaviy monarxiyaga o'tish** bosqichi bo'ldi. Birinchi jahon urushi arafasida Eronning xorijga tobeligi

yanada kuchaydi. **1912-yili** Eron 1907-yilgi Rossiya – Buyuk Britaniyaning ta'sir doiralari haqidagi bitimini tan olishga majbur etildi. Rossiyadan **14 mln rubl** qarz olindi va Eron iqtisodiy hamda siyosiy jihatdan buyuk davlatlarga qaram bo'lib qoldi.

20.6. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA AFG'ONISTON

Buyuk Britaniya va Rossiya to'qnashuvi. **70-yillar**da Afg'oniston Rossiya bilan Buyuk Britaniya o'rtasida bahsga sabab bo'lgan mamlakatga aylandi. **1873-yili** Buyuk Britaniya Hindiston – Afg'oniston chegarasida harbiy kuch to'play boshladi. Afg'oniston amiri **Sheralixon** Rossiyadan yordam so'rab elchi yubordi. Rossiya bunga javoban kichik harbiy qismini chegaraga yaqin joylashtirdi. **Kabul**ga esa **general Stoletov** boshchiligida elchilik missiyasi yuborildi. Biroq bundan ortiq harakatlarga jur'at etolmadi. Bunga O'rta Osiyoni to'la bo'ysundirish hamda yaqinlashib qolgan Rossiya – Turkiya urushi muammolari imkon bermadi.

Ikkinchi ingliz – afg'on urushi. **1878-yili** Sheralixon ingliz missiyasini afg'on urushi **Kabul**da qabul qilishdan bosh tortdi. Buyuk Britaniyaga bu Afg'onistonga qarshi bosqinchilik urushi ochishga bahona bo'ldi. **1878-yil 20-noyabr**da Afg'onistonga qarshi urush harakatlari boshlandi. 1879-yil fevralda vafot etgan Sheralixon o'rniga taxtga o'tirgan o'gli **Yoqubxon 1879-yil may oyida Gandamak bitimi**ni imzoladi. Unga ko'ra, Afg'oniston amalda mustaqilligini yo'qotdi. Kobulda ingliz rezidensiyasi ochildi. Uning vazifasi afg'on amiri xatti-harakatlari hamda Buyuk Britaniyadan yuboriladigan qarzlar qanday sarflanayotgani ustidan nazorat qilish edi.

Amir Yoqubxonning taslimchilik siyosati mamlakatda keskin qarshilikka uchradi va 1879-yil avgustda Kobulda unga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Shaharliklar ingliz rezidensiyasiga bostirib kirib, uni egalladilar. Inglizlar Gandamak bitimidan keyin qaytarib olib ketgan qo'shinini yana Afg'onistonga tashladi va Kobulni qayta egalladi. Bu orada Afg'onistonning sobiq amiri **M.Afzalxon**ning o'g'li **Abdurahmon** qo'zg'olonchi qo'shini bilan Kobulni o'rab oldi. Inglizlar tang ahvolda qolishdi. **1880-yil bosh**ida Abdurahmon **Shimoliy Afg'oniston**da o'z hokimiyatini o'rnatdi.

Inglizlar Abdurahmon bilan muzokaralar boshlashga majbur bo'ldilar. Kobul Abdurahmonga topshirildi. **Qandahor** Buyuk Britaniya ta'sir doirasida qoldi. Afg'oniston Buyuk Britaniya hamda ingliz Hindistonidan boshqa biror chet el mamlakati bilan diplomatik aloqa qilmaslik majburiyatini oldi. Abdurahmon faqat ichki siyosatdagina nisbatan mustaqillikni saqlab qolishga erishdi.

Afg'oniston taxtining qonuniy vorisi Amir **Sheralixon**ning o'g'li **Ayubxon Qandahor**ga yurish boshladi. **1880-yil 27-iyul** kuni **May-bahd** qishlog'i yonida jang bo'ldi. Ingliz harbiy brigadasi yanchib tashlandi. Inglizlar yangi harbiy qismlar chaqirishga majbur bo'ldi. Bu yangi kuchlar Ayubxonni **Hirot**ga chekinishga majbur etdi. Lekin aholining qarshiligi tufayli inglizlar Qandahorni tashlab chiqib ketishga majbur bo'lishdi. Shunday qilib, **Ikkinchi ingliz – afg'on urushi** Buyuk Britaniyaning mag'lubiyati bilan tugadi.

Ichki nizolar. Tez orada endi taxt da'vogarlari o'rtasida urush harakatlari boshlanib ketdi. **1880-yili** Abdurahmon Ayubxon qo'shinlarini qattiq talafotga uchratdi. Ayubxon chet elga qochishga majbur bo'ldi. Afg'onistonda Abdurahmonning to'liq hokimiyati o'rnatildi. **Amir Abdurahmon (1880 – 1901)** davrida Afg'oniston qiyin iqtisodiy-ijtimoiy ahvolni boshidan kechirdi. Buyuk Britaniya bilan urushlar ishlab chiqarishni izdan chiqardi. Kobul va boshqa shaharlar vayron qilingandi.

Amir mamlakatda «yopiq» siyosat olib bordi. Chet elliklar, ayniqsa, yevropaliklarning mamlakatga kirishi taqiqlandi. Ayni paytda, amir mamlakatni siyosiy jihatdan birlashtirish uchun kurash olib bordi. *Ma'muriy politsiya apparati (boshqarmasi) tuzildi. Uning harakati bilan xazinaga soliqlar tushishi birmuncha yaxshilandi. Karvon yo'llari xavfsizligi bir qadar ta'minlandi. Qaroqchilar shafqatsiz jazolanadigan bo'ldi. Ular temir qafaslarga solinib, yo'l yoqasidagi ustunlarga osib qo'yilar, ochlik hamda tashnalikda o'limga mahkum qilinardi. Diniy ulamolarni o'z tarafida tutish uchun Abdurahmon ularga maosh belgiladi. Vaqf mulkini esa qisman davlatga o'tkazdi. Yagona pul birligi, mamlakat uchun bir xil tosh-tarozi va uzunlik o'lchovlari joriy qilindi.* Bu tadbirlar tufayli Afg'onistonda savdo-sotiq, ishlab chiqarish va hunarmandchilik bir qadar rivojlandi.

Dyurand bitimi. **1887-yili** turkmanlar yashaydigan joylarda afg'on – rus chegaralari qat'iy belgilab olindi. Shundan keyin Abdurahmon janubda – Hind daryosi bo'ylarida yashaydigan, lekin **1849-yili** inglizlarga bo'ysundirilgan afg'on qabilalarini o'z davlati atrofida birlashtirish harakatini boshladi. Amir Abdurahmon o'zini ularga «diniy homiy» qilib ko'rsatdi va inglizlarga qarshi kurashishga chorladi. Bu esa Buyuk Britaniya bilan urush xavfini tug'dirdi. Bundan cho'chigan Abdurahmon inglizlar bilan **1893-yili** bitim tuzishga majbur bo'ldi. Unga ko'ra, Afg'oniston janubidagi afg'on qabilalari hududlari Buyuk Britaniya qaramog'ida qolaveradigan bo'ldi. Inglizlar kelishilgan chiziqqa – **Durand chizig'i**ga (muzokara olib borgan inglizlar vakili **Durand** nomi bilan atalgan) qo'shin yubordilar. Bunga javoban tog'lik afg'onlar qo'zg'olon ko'tardi.

Habibulloxon davri. **1901-yili** Abdurahmon vafot etdi. Amirlik taxtini o'g'li **Habibullo** egalladi. U otasi yo'lidan borib afg'on qabilalarini birlashtirish siyosatini yuritdi. Inglizlarga qarshi kurashni davom ettirdi. Rossiya bilan savdo aloqalarini o'rnatishga urindi. Bunga javoban Buyuk Britaniya Afg'onistonga qarshi iqtisodiy qamal siyosatini qo'lladi. **1904-yili** Buyuk Britaniya Afg'onistonga bitim taklif qildi. Unda tashqi savdo Buyuk Britaniya nazoratida bo'lmog'i, mamlakatda inglizlarning temir yo'l qurishiga rozilik berish, ingliz fuqarolarining Afg'onistonga erkin kirib-chiqishiga ruxsat etish talab qilingandi. **1907-yili** shu masalalar ko'zda tutilgan bitim imzolandi. Afg'oniston Buyuk Britaniya manfaatlari mintaqasi deb e'lon qilindi. Rossiya uchun esa savdo huquqlari berildi, xolos.

Ma'rifatchilik. Afg'onistonda ham respublikachilik harakati paydo bo'ldi. Bu harakat tarafdorlari **«Yosh afg'onlar»** deb ataldi. Ular maktab-maorif, madaniyat, fan-texnika tarmoqlarini rivojlantirish g'oyalarini ilgari surdilar. Ular amirlik hokimiyati bilan barobar konstitutsiya ham bo'lishini talab qildilar. Mahsulot solig'ini bekor qilish, ichki boj to'lovlarini yo'qotish, qabilalar tengligiga erishish va ko'p masalalarda ilg'or qarashlarni ifoda etdilar. «Yosh afg'onlar» harakatiga **«Siroj ul-axbori afg'oniya» (Afg'on xabarlari chirog'i) gazetasi** muharriri **Muhammad Tarziy** rahbarlik qildi. U Habibulloxonning uchinchi o'g'li **Omonulloxon**ning qaynatasi edi. Islohotchilarning butun umidi shu Omonulloxonga qaratildi. Chunki u «Yosh afg'onlar» ruhida tarbiyalangandi.

20.7. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKIYA

Turkiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Turkiya monarxiya bo'lib, uni sulton boshqarardi. Mamlakatda o'rta asr feodal tartiblari hukmron edi. Turkiya iqtisodining asosini tashkil qilgan **qishloq xo'jaligi** nihoyatda orqada qolgandi. Haydaladigan yerlarning **65%** katta yer egalari va ruhoniylarga qarashli bo'lib, u yersiz va kam yerli dehqonlarga ijaraga berilardi. Mehnat unumdorligi past bo'lgani uchun, **1873 – 1875-yillar**dagi kuchli ocharchilik oqibatida ko'plab odamlar qirilib ketdi.

Sulton hukumati o'zining moliyaviy ahvolini yaxshilash uchun chet eldan qarz ola boshladi. Chunonchi, **1870 – 1874-yillari 3 mlrd frankdan ortiq** asoratli qarz olindi. Davlatning moliyaviy ahvoli halokat yoqasiga kelib qoldi. Tashqi qarz yanada ko'payib, **5,5 mlrd frank**ka yetdi. **1876-yili** hukumat Turkiyani moliyaviy bankrot deb e'lon qilishga majbur bo'ldi.

Og'ir iqtisodiy ahvol bora-bora Turkiyani chet el davlatlarining yarim mustamlakasiga aylantirdi. Yevropa davlatlari imperiya mustamlakalarini

tortib ola boshladilar. Faqat Germaniya imperiyadan ulush olmagan davlat edi. Shuning uchun Turkiya hukumati **XIX asr oxiri – XX asr boshlari**da Germaniya bilan yaqinlashdi. Germaniya kapitali katta muvaffaqiyatni qo'lga kiritdi. **1888-yili** bo'lajak Bag'dod temir yo'li loyihasining **Izmir – Anqara** qismini qurish ularga tegdi. **1903-yili** bu loyihani (Bag'dod orqali Fors qo'ltig'igacha temir yo'l qurish) to'la qo'lga kiritdi.

Konstitutsiyaviy monarxiya uchun kurash. Turkiya **1875-yili** qarzlar uchun yiliga **570 mln frankdan ortiq** foiz to'lashi lozim edi. Davlatning daromadi esa **380 mln frank**ni tashkil etdi. Xalq ommasining turmush darajasi nihoyatda yomonlashdi. Shunday sharoitda **«Yangi usmonlilar harakati»** vujudga keldi. Bu harakat a'zolari sulton hokimiyatini tugatish g'oyasini ilgari surdilar. Harakatning **«Ibrat» gazetasi** ilg'or demokratik g'oyalar targ'ibotchisiga aylandi. Millatparvar ziyolilar, ilg'or fikrli amaldorlar va zobitlar ham harakatga qo'shildilar.

Mamlakatda sulton hokimiyatini tugatish g'oyasi shakllandi. **1876-yili** xalq qo'zg'oloni boshlandi. Xalq qo'zg'oloni hukmron tabaqalarni qo'rqitib yubordi. Oqibatda **1876-yil 22-may**da **Abdulaziz shayxulislom** fatvosi bilan taxtdan tushirildi. Taxtga Murod V. o'tqazildi. Biroq ko'p o'tmay salomatligi tufayli u taxtdan tushirildi. Taxtni **Abdulhamid II** egalladi.

1876-yil 23-dekabrda Turkiyada konstitutsiya e'lon qilindi. Unga ko'ra, mamlakatda ikki palatali parlament joriy etildi. Quyi palata **Deputatlar palatasi** deb, yuqori palata esa **Senat** deb ataldi. Konstitutsiya sultonga katta vakolatlar berdi. Fuqarolarning juda oz qismigina saylov huquqiga ega bo'ldi.

«Birlik va taraqqiyot» partiyasining hokimiyat tepasiga kelishi. Abdulhamid II davri Turkiya tarixida **«zulm davri»** nomini oldi. Sulton tez orada parlamentni tarqatib yubordi. Konstitutsiya tarafdorlarini quvg'in qildi. Ularning ko'pi o'limga hukm qilindi. Mamlakat jaholat zulmatida qoldi. **1889-yili Istanbul**da harbiy-meditsina bilim yurti kursantlari yashirin **«Birlik va taraqqiyot»** tashkilotini tuzdilar. Tashkilot sho'balari butun Turkiyaga tarqaldi va mamlakatda konstitutsiyaviy tartib o'rnatish haqida tashviqot boshlandi. Keyinchalik bu jamiyat kuchli siyosiy partiyaga aylandi. Sulton Abdulhamid II **1897-yili** tashkilot ustidan sud uyushtirdi. **13 kishi** o'limga hukm qilindi. «Birlik va taraqqiyot» partiyasi a'zolari va shunga o'xshash siyosiy to'garakka ishtirok etganlar umumiy nom bilan **«Yosh turklar»** deb ataldi. «Yosh turklar» **1902-yili Parij**da o'zlarining birinchi qurultoyini o'tkazdilar. Unda bekor qilingan konstitutsiyani tiklash haqida qaror qabul qilindi.

1907 – 1908-yillari Turkiyada inqilobiy vaziyat yuzaga keldi. **1908-yil 3-iyul**da «Yosh turklar»dan bo'lgan qo'shin zobitlari rahbarligida qo'zg'olon ko'tarildi. Unga **Niyozbiy** rahbarlik qildi. U «Birlik va taraqqiyot» partiyasi a'zosi, harbiy garnizon qo'mondoni edi. **1908-yil 20-iyul**da **Monastir shahri**da «Birlik va taraqqiyot» partiyasi konstitutsiya tiklanganini e'lon qildi va sultondan bu masalada farmon chiqarishni talab qildi. Qo'shin «Yosh turklar» tomonidaligi Abdulhamidni cho'chitib qo'ydi. U **1908-yil 24-iyul**da konstitutsiyani tiklashga majbur bo'ldi. Parlamentga saylov o'tkazishni va'da qildi. **1908-yil**gi Turkiya inqilobi g'alaba qozondi.

1909-yil 13-aprel isyoni. Biroq eski tartib tarafdorlari har qanday islohotga qarshi edilar. Ularning ichida ruhoniylarning o'rni kuchli edi. Ruhoniylarning **«Ittihodi Muhammadi»** partiyasi «Yosh turklar»ni xudosizlikda aybladi. «Ittihodi Muhammadi» partiyasi tarafdori bo'lgan harbiylar **13-aprel**da aksilinqilobiy isyon ko'tardilar. *Isyonchilar parlamentni bekor qilish, shariat va sulton hokimiyati tiklanishini talab qildilar.* Abdulhamid II ga aynan shu kerak edi. Isyonchilar talabi tezda bajarildi.

«Yosh turklar» arboblaridan bir qismi **Saloniki** va **Adrianopol**ga qochib ketdilar. Saloniki va Adrianopoldagi harbiy qismlar «Yosh turklar» tarafida edi. «Yosh turklar» o'zlariga sodiq harbiy qismlar bilan **26-aprel**da isyonchilar hukumatini ag'darishdi. Sulton Abdulhamid taxtdan ag'darildi. Taxtga uning ukasi **Mahmud V Rishod (1909 – 1918)** o'tqizildi. Parlament qayta tiklandi.

Ichki va tashqi ahvol. «Yosh turklar» inqilobi buyuk davlatlarni tashvishga solib qo'ydi. Ular Turkiyadagi ichki siyosiy beqarorlikdan foydalanib yanada ko'proq o'ljaga ega bo'lib olishga intilganlar. **1911-yili Italiya Liviya**ni bosib olgach, Buyuk Britaniyaga xayrxoh **«Hurriyat va birdamlik partiyasi»** «Yosh turklar» hukumatini noqobillikda aybladi. Ular **1912-yil 5-avgust**da mamlakatda davlat to'ntarishi o'tkazishdi.

Tez orada Turkiyaning tashqi ahvoli yanada yomonlashdi. 1- va 2-Bolqon urushlarida Turkiya Bolqondagi ta'siridan deyarli ajraldi. Bu hodisa «Hurriyat va birdamlik» hukumatini og'ir ahvolga solib qo'ydi. Shunday sharoitda «Yosh turklar» rahbarlaridan biri **Anvarbey** boshchiligida **1913-yil yanvar**da isyon ko'tarildi. «Hurriyat va birdamlik» hukumati ag'darildi. Hokimiyat yana «Yosh turklar» qo'liga o'tdi.

Hokimiyatni **3 kishi**dan iborat **«Uchlik»** deb atalgan guruh (**Anvar, Tal'at va Jamol**) qo'liga oldi. Uchlikka **Anvar posh**sho rahbarlik qildi. «Uchlik» Germaniya bilan yaqinlashish siyosatini davom ettirdi. Germaniya panturk va panislom mafkuralarini o'ziga shior qilib olgan «Uchlik»ni qo'llab-quvvatlay boshladi. Bu mafkura g'oyalari Antanta manfaatlariga

zid edi. Qolaversa, Germaniya Turkiya imperiyasining bo'linishiga qarshi chiqdi. Bunday sharoitda Germaniya «Yosh turklar» ko'z o'ngida Turkiyaning yagona «himoyachisi»ga aylandi. Endi Germaniya Turkiyani ittifoq shartnomasi tuzishga unday boshladi. Nihoyat, **1914-yil 2-avgust**da maxfiy suratda **ittifoq shartnomasi** tuzildi. Bu shartnomani imzolash bilan Turkiya hukmron doiralari imperiyani halokatga mahkum etdilar.

20.8. SHIMOLIY AFRIKA MAMLAKATLARI

Ijtimoiy va siyosiy hayot. Afrikaning shimoliy qismida, Sahroyi Kabirning janubiy chegarasiga qadar aholining ko'pchiligini arablar tashkil etardi. Bu hududlarda barbarlar, habashlar va boshqa xalqlar ham yashardi. **XIX asr 70-yillar**iga qadar Afrika shimoli va shimoli-sharqida, ya'ni arablar yashovchi hududlarda mutlaq podsholik tuzumlari hukm surardi. Ulardan rasman Usmonli turk imperiyasi tarkibiga kirgan **Misr, Tripolitaniya, Kirenaika (hozirgi Liviya) va Tunis** amalda Turkiya sultoniga itoat etmasdilar.

XIX asr oxirida Misr va Sudan – Buyuk Britaniyaning, Tunis, Jazoir va Marokash – Fransiyaning, Marokashning bir qismi – Ispaniyaning, Liviya esa Italiyaning mustamlakasiga aylandi.

Misrning asoratga solinishi. Misrning **XIX asr oxiri – XX asr boshlari**dagi tarixi Turkiya hukmronligidan ozod bo'lish va inglizlarning mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash bayrog'i ostida o'tdi. Musulmon ruhoniylaridan **Al-Azhar** madrasasida mudarris bo'lgan **Jamoliddin al-Afg'oniy** va uning shogirdlari milliy ozodlik harakatida katta obro' qozonishdi. Ular barcha musulmonlarni mustamlakachilarga, Turkiya zulmiga qarshi birlashuvga, konstitutsiyaviy tuzum o'rnatilishiga chaqirdilar. **1871-yili Jamoliddin al-Afg'oniy «Hizb ul-Vatan»** (Vatan partiyasi) partiyasini tuzdi. Bu partiya chet elliklarga qarshi *«Misr misrliklarniki»* shiori ostida kurashdi. «Vatan»chilar hukmdor (**Hadiv**)ning huquqini cheklovchi konstitutsiya uchun kurashdilar. **1882-yil 7-fevral** kuni Hadiv yangi qonunga imzo chekishga majbur bo'ldi. *Unga ko'ra, hukumat Deputatlar palatasiga bo'ysunadigan, parlament byudjet ustidan nazorat qilish huquqini oladigan, birorta qonun Deputatlar palatasi ruxsatisiz qabul qilinmaydigan bo'ldi.*

Chet elliklar Misr hukumatiga ultimatum yuborib, amaldagi hukumatni tarqatishni talab qildi. Mustamlakachilarning talabi bajarilmadi. Bunga javoban Buyuk Britaniya **1882-yil 11-iyulda Iskandariya**ni to'plardan o'qqa tutdi. Uning desanti shaharni egalladi. Bunga qarshi Misr qo'shini

rahbarlaridan biri **Ahmad Orabibey Qohira**da oliy davlat organi – **Muvaqqat kengash** tuzdi. **60 ming kishilik** qo'shin to'pladi. 1882-yil 7-avgustda inglizlar **Suvaysh**ni bosib oldilar va **Qohira**ga yurish boshladilar. **1882-yil sentyabr**da Misr qo'shini yengildi. Polkovnik Ahmad Orabibey **Seylon orol**iga umrbod surgun qilindi. Shunday qilib, Misr Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylandi.

Buyuk Britaniya Misrda Usmonli turk imperiyasi hokimiyatini rasman tugatmadi. Misr hadivlari sulolasi, Vazirlar kengashi nomiga bo'lsa ham saqlandi. Moliya ustidan nazorat to'laligicha ingliz maslahatchilariga o'tdi. **1888-yil 29-dekabrda** Istanbulda Suvaysh kanalidan foydalanish bo'yicha **Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Rossiya, Turkiya, Fransiya** davlatlari konvensiya imzolashdi. Unga ko'ra, kanaldan barcha davlatlar, xoh urush, xoh tinchlik paytida bo'lsin, erkin foydalanish huquqini olishdi.

«Vatan» partiyasi inglizlar nazarida eng xavfli bo'lib chiqdi. Uni kuchsizlantirish uchun keskin choralar ko'rildi. Natijada partiya keng siyosiy kurash yo'lidan yakka terror yo'liga o'tib ketdi. Partiyaning **«Al-Liva» (Bayroq) gazetasi** taqiqlandi. Ammo ozodlik harakati boshqa ko'rinishlarda davom etdi. Majlis vitse-prezidenti **Saad Zaglul** demokratik, milliy ozodlik ruhidagi deputatlarni o'z atrofiga to'plab, majlis nomidan ingliz hukmronligiga qarshi hujjatni o'tkazishga erishdi.

Mahdiylar qo'zg'oloni. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida **Sharqiy Sudan** Misr qaramog'ida edi. **1881-yili** sudanliklar yetakchisi **Muhammad Ahmad** xalqni Misr – Turkiya zulmiga hamda yevropaliklarga qarshi muqaddas urushga chaqirdi. Muhammad Ahmad o'zini **Mahdiy** deb e'lon qildi. Gubernator Mahdiyni qamash uchun yuborgan **200 kishilik** harbiy guruh yo'q qilib tashlandi.

1882-yili Xartumga misrlik **Abdul Qodir** general-gubernator etib tayinlandi. U mahdiylar harakatini bostirishga urindi. Lekin mag'lubiyatga uchradi. Bu orada inglizlar Misrni bosib oldilar. **1883-yili general Xiks** boshliq ingliz qo'shini Sudan ansorlari tomonidan El Obeyd yonida qirib tashlandi. **1884-yili** inglizlar Sudanga **general Gordon** boshchiligida harbiy qism yuborishdi. Biroq bu qo'shin ham ansorlar tomonidan yo'q qilindi va Sudan ozod etildi.

1885-yili Sudanda mustaqil **Mahdiylar davlati** tuzildi. Qo'zg'olon rahbari mahdiy Muhammad Ahmad vafot etib, uning birinchi xalifi (xaliflari **to'rtta** edi) **Abdulloh** hokimiyatni o'z qo'liga oldi. **Omdurman shahri** poytaxt etib belgilandi. Mamlakat viloyatlarga bo'lindi. **200 ming kishilik** qo'shin davlatning asosiy tayanchi bo'lib qoldi.

Biroq mamlakatda ichki nizo kuchaydi. Aynan shu omil mahdiylarni kuchsizlantirdi. Bundan foydalangan Buyuk Britaniya **Efiopiya**ni Sudanga qarshi gijgijladi. Natijada **1885-yili** ikki o'rtada urush harakatlari boshlandi. Bu orada Italiya Efiopiyaga hujum qildi. **1887-yili Adua** yonida Italiya qo'shini tor-mor qilindi. Efiopiya hukmdori **Yo'xonni** Abdullohga murojaat qilib, umumiy dushmanga qarshi birgalikda kurashga chaqirdi. Lekin Abdulloh buning evaziga Yo'xonnidan islomga o'tishini talab qildi. Oqibatda zarur bitim tuzilmay qoldi. Efiopiya – Sudan urushida ko'p qon to'kildi. **1889-yili** Efiopiya imperatori **Menelik** sudanliklar foydasini ko'zlovchi bitimni imzolashga majbur bo'ldi. **1889-yil avgust**da esa Buyuk Britaniya – Misr birlashgan qo'shinlari Sudan mahdiylari qo'shini ustidan g'alaba qozondi. 1898-yilga kelib Sudanning asosiy qismini bosib olishga erishdi.

Buyuk davlatlarning Shimoliy Afrikadagi siyosati. **1881-yil Tunis**da Fransiya hukmronligi o'rnatildi. Bungacha Fransiya Jazoirni ham egallagandi. Jazoirda XIX asr oxirida **300 mingdan ortiq fransuz** yashardi. Hosildor yerlar fransuzlar qo'lida edi. **1905 – 1906-yillari** Jazoirda mustamlaka zulmiga qarshi kurash boshlandi. **1912-yili «Yosh Jazoir»** partiyasi tuzildi. Bu partiya sud ishlarida jazoirliklar uchun **«mahalliy kodeks»** nomli kamsituvchi tartibni bekor qilish, soliq olishda jazoirliklar va yevropaliklarni tenglashtirish, xalq maorifini kengaytirish, arablar uchun saylanadigan lavozimlarni ko'paytirish kabi talablarni qo'ydi.

Yevropa davlatlarining mustamlaka taqsimotida Fransiya **Marokash**ga ham ega bo'ldi. **1900-yili** Italiya Fransiyaning Marokashga nisbatan «huquqlari»ni tan oldi. Buning evaziga Italiya Liviyaga daxldor «huquq»qa ega bo'ldi. Fransiya Marokashga qarshi urush ochish uchun bahona qidirardi. **1907-yil avgustda Marokash shahr**ida fransuz vrachi o'ldirildi. Shu bahonada Fransiya zudlik bilan urush harakatlarini boshladi. Qisqa vaqt ichida mamlakatning asosiy shaharlari bosib olindi. Marokashning ba'zi hududlari esa **Ispaniya**ga berildi.

Liviya uzoq vaqt Turkiya mustamlakasi bo'lib keldi. **1911-yil 28-sentyabr**da Italiya Liviyaga bosqinchilik urushi boshladi. Turkiya tayinli javob chorasi ko'rolmadi. Oqibatda **1911-yil 5-noyabr**da Liviya Italiya mulki deb e'lon qilindi.

20.9. TROPIK VA JANUBIY AFRIKA MAMLAKATLARI

Tropik va Janubiy Afrika haqida. **XIX asr oxirgi choragi**da Afrikada mustamlaka bosqini yanada kuchaydi. Janubdagi qazilma boyliklarga

boy yerlarda **70-yillarda olmos**, **80-yillarda oltin konlari** topilishi yevropaliklarning «oqib kelishlarini» yanada tezlashtirdi. Janubiy Afrikani mustamlaka qilishda Buyuk Britaniya asosiy rol o'ynadi. Ko'p o'tmay bu yerga Germaniya ham kirib kela boshladi. **Mozambik** va **Angola** kabi yerlarni birlashtirishni **portugallar** o'z rejalariga kiritdilar. Asosiy mustamlaka «o'choq»laridan biri – **Burlar Respublikasi** bo'lib qoldi. **70-yillar**dan Buyuk Britaniya o'z mustamlakalarini birlashtirib federatsiya tuzishga urindi. Burlar bu fikrga qo'shilmagach, Buyuk Britaniya **1877-yili Transvaal**ni bosib oldi, **Zululend**ni ham mustamlaka deb e'lon qildi.

G'arbiy Afrika uchun kurash. **G'arbiy Sudan, Senegal** va **Nil daryosi havzasi** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida **Fransiya, Gollandiya va Buyuk Britaniya** o'rtasida raqobat maydoniga aylandi. **1892-yili** Fransiya **G'arbiy Sudan**ni bosib oldi. G'arbiy sudanliklarning ozodlik kurashida **Samori Ture** nomi yorqin iz qoldirdi. U atoqli lashkarboshi va siyosatchi edi. Bosqinchilarga qarshi 18 yil davomida kurashdi. Fransuzlar **1898-yil**igina uni taslim etoldilar. Asir olingan Samori **Gabon**ga surgun qilindi va o'sha yerda vafot etdi. **1900-yili Chad ko'li** atrofi bo'ysundirildi. **1904-yili** esa **Gvineya ko'rfazi** bo'ylari ham Fransiyaga tobe etildi. Unga **Fransiya Gvineyasi** deb nom berildi. Buyuk Britaniya, Fransiyadan keyin Belgiya ham Afrika yerlari uchun kurashga qo'shildi. **1883-yili Kongo havzasi**dagi yerlar Belgiya mustamlakasi deb e'lon qilindi.

Sharqiy Afrikaning bo'lib olinishi. Ko'p o'tmay yevropaliklar Sharqiy Afrikaga ham kirib kela boshladilar. Nil daryosi boshlanish havzalarini ilmiy o'rganish bahonasi bilan yevropaliklar **Buganda** mamlakatini «ochishdi». **1894-yili** Buganda Buyuk Britaniya tomonidan tuzilgan **Uganda protektorati** tarkibiga kiritildi.

Zanzibar arab sultonligi ham qul savdosiga qarshi kurash bahonasi bilan nemislar, fransuzlar va inglizlar tomonidan bo'lib olindi. **XIX asr oxiri**da Buyuk Britaniya **Bunoro davlati**ni bosib oldi.

XX asr boshlarida **Gambiya, Syerra-Leone, Oltin qirg'oq, Nigeriya, Senegal, Fransiya Gvineyasi, Fil suyagi qirg'og'i, Dogoineya** Fransiya, **Togo, Kamerun** Germaniya, **Gvineyaning bir qismi** esa Portugaliya mustamlakasi edi. Yevropa mustamlakachilari turli boshqaruv tizimlari joriy qilishdi. Buyuk Britaniya mahalliy boshqaruv tizimlarini saqlab, ularni o'z manfaatlariga bo'ysundirdi. Fransiya esa o'z mustamlakalarida eski mahalliy boshqaruvni buzib tashlab, Fransiyaga mos tartiblarni joriy etdi.

G'arbiy Afrikada mustamlakalar uchun kurashda **Gollandiya, Belgiya, Portugaliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va AQSh** manfaatlari to'qnashdi. Belgiya qiroli **Leopold II Kongoni ilmiy**

o'rganish assotsiatsiyasi tuzib, uning «soyasida» ustalik bilan ish olib bordi. Bora-bora u Belgiya mustamlakasiga aylandi. Kongoning bir qismi **Fransiya**ga, yana bir qismi esa **Portugaliya**ga tegdi.

Janubiy Afrika. Janubiy Afrikada dunyoning eng yirik **olmos konlari** mavjud edi. Ingliz korchaloni **Sesil Rods «De Rods»** kompaniyasini tuzib, olmos konlarini qo'lga kiritdi. **1887-yili Transvaal** oltin va mis konlari ochildi. Sesil bu konlarni ham egalladi. Uning tashabbusi bilan **«Britaniya – Janubiy Afrika imtiyozli kompaniyasi»** tuzildi. Kompaniya *«Keyptaundan Qohiragacha Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lishi kerak»* degan ma'noda bosqinchilik harakatlariga ruxsat oldi. Tez orada **Shimoliy Rodeziya**da ingliz protektorati o'rnatildi. Buyuk Britaniya burlarga qarshi yangi urushga tayyorlandi. **1899-yili Ingliz – bur urushi boshlandi. 1902-yili** Bur Respublikasi Britaniya mulklari tarkibiga qo'shib olindi. **1910-yili** Buyuk Britaniya mustamlaka hududlari bo'lgan **Transvaal, Oranj, Natal, Kap**ni **«Janubiy Afrika Ittifoqi»** nomi ostida birlashtirdi.

Madagaskarning egallanishi. Hind okeani g'arbida, Afrikaning janubi-sharqiy qirg'og'i yaqinida joylashgan bu orol buyuk davlatlar mustamlaka siyosatida alohida o'rin tutdi. **1883-yili** Fransiya Madagaskarga urush e'lon qildi. **1885-yili** bu urush tomonlar uchun noteng bitim bilan yakunlandi. Fransiya Madagaskar ustidan protektorat o'rnatdi va uning tashqi siyosatini nazorat qiladigan bo'ldi. **1896-yili** esa Fransiya Madagaskarni o'z mustamlakasi deb e'lon qildi.

Zuluslar. Buyuk Britaniya zuluslarni bo'ysundirish uchun shafqatsiz urush olib bordi. Zuluslar hukmdori **Ketchvayo 1879-yili** uch to'qnashuv davomida inglizlarning **20 ming kishilik** qo'shinini yakson qilib tashladi. Lekin oxir-oqibatda Buyuk Britaniya to'plar yordamida ustun keldi va Zululend yerlarini egallab, uni **13 ta mayda hokimlik**ka bo'lib tashladi. Zululend hokimliklarini o'zaro urushtirib, o'z foydasiga ish ko'rish ingliz hukmdorlariga xos xususiyatga aylandi.

Somali va Efiopiya. Efiopiya va Somali **1869-yili** Suvaysh kanali ochilishi tufayli alohida savdo-iqtisodiy va harbiy-strategik ahamiyatga ega bo'lib qoldi. Bu hol mustamlakachilarni befarq qoldirmadi. Bundan sal oldin, **1867-yili** inglizlar Efiopiyaga qarshi urush qilib, podsho (**«negus»** deb atalgan) **Feodor II** ning birlashtiruvchi siyosatiga putur yetkazdi. Turli dinlar o'rtasida nizo tufayli Feodor II ga qarshi bo'lgan ruhoniylardan foydalanib inglizlar habash qo'shinlarini tor-mor qilishdi. Feodor II o'zini o'zi o'ldirdi. Taxtga Inglizlarga tobe Ioannlv o'tqizildi. **1889 – 1913-yillari** Qizil dengiz bo'yi va Somali yarimoroli Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya

o'rtasida taqsimlab olindi. Efiopiyada Italiya o'z mustamlaka rejalarini yuzaga chiqarishga urindi. Biroq bunga erisholmadi. Efiopiya o'z mustaqilligini saqlab qoldi.

Gerero va namalar. Janubiy Afrikaning shimoli-g'arbiy qismi **1883-yil**dan Germaniya tomonidan bosib olina boshlandi. Mahalliy **gottentot va gerero qabilalari** rezervatsiyalarga quvildi. Qolganlari nemis mustamlakachilariga qul bo'lib qoldi. **1904-yil** barcha gerero qabilalari **Samiul Magarero** boshchiligida bosqinchilarga qarshi qo'zg'olon boshladilar. Biroq noteng kurashda qo'zg'olonchilar tormor etildi. Gererolardan tirik qolganlari mamlakat shimoliga qochib jon saqladi.

Nama qabilalari ham qo'zg'olon ko'tardilar. Namalar qo'zg'oloniga **Xendrik Vitboy** boshchilik qildi. Vitboy nama qabilalarini birlashtirishga erishdi. Biroq u **1905-yil**gi jangda halok bo'ldi. Uning o'limidan keyin ham namalar kurashni yana **ikki yil** davom ettirdilar. Lekin zamonaviy nemis texnikasi ustunligi o'z kuchini ko'rsatdi. Germaniya bosqinchilari **200 000 dan ortiq** namalardan **140 ming**ini qirib tashladi. Germaniyaga qarshi Sharqiy Afrika janubi va markazida (**Tanganika**) **1905-yil avgustda** boshlangan qo'zg'olon **ikki yildan ortiq** davom etdi. Nemis qo'shinlari **120 ming afrikalik**ni qirib tashlab, qo'zg'olonni bostirdi. Bu hududda necha asrlardan buyon yashab kelgan katta-katta qabilalar tamomila yo'q bo'lib ketdi.

21-BOB. BIRINCHI JAHON URUSHI

21.1. BIRINCHI JAHON URUSHINING BOSHLANISHI

Urushning boshlanishi. Birinchi jahon urushining bosh sababi ikki harbiy-siyosiy guruh o'rtasida bo'lingan dunyoni qayta taqsimlash uchun boshlangan kurash edi. Dunyoning yetakchi davlatlari o'z yovuz maqsadlari yo'lida ma'naviy tubanlikka ketib, boylik orttirish uchun millionlab insonlarni qurbon qilishga bel bog'ladilar.

1914-yil 28-iyulda serbiyalik millatchi tomonidan **Sarayevo**da Avstriya-Vengriya taxti vorisi **F.Ferdinand** o'ldirildi. Avstriya-Vengriya hukumati Serbiyaga juda haqoratli talablar qo'yilgan ultimatum yubordi. Serbiya hukumati ultimatumning faqat birgina talabiga, ya'ni suiqasd yuzasidan o'tkaziladigan tergov ishlarini Avstriya-Vengriya davlat huquqiy idoralari olib borishiga rozilik bermagan. Bu esa Avstriya-Vengriyaning **28-iyul**da

Serbiyaga urush e'lon qilishiga bahona bo'ldi. Serbiya ittifoqchisi Rossiya bunga javoban **29-iyul** kuni qisman harbiy safarbarlik e'lon qildi. Bundan Germaniya hukmron doiralari **1-avgust**da **Rossiya**ga, **3-avgust**da esa uning ittifoqchisi **Fransiya**ga urush e'lon qilish uchun bahona sifatida foydalandi. Ayni paytda, Germaniya **Belgiya**ning betaraflik maqomini buzib, mazkur davlatga hujum qildi. Belgiyaning betarafligi to'g'risidagi xalqaro hujjatni bir vaqtlar Prussiya ham imzolagandi. Biroq **1914-yili** Germaniya hukumati bu hujjatni surbetlik bilan **«bir parcha qog'oz»** deb atadi. Germaniyaning Belgiyaga hujumiga javoban **Buyuk Britaniya** Belgiyani himoya qilish bahonasi bilan **4-avgust** kuni Germaniyaga urush e'lon qildi. Birinchi jahon urushi shu tarzda boshlanib ketdi. **15-avgust** kuni **Yaponiya** Germaniyadan Xitoydagi mustamlaka hududlarini Yaponiyaga berish talabi bilan chiqdi. Rad javobini olgach, **23-avgust**da Yaponiya Germaniyaga qarshi urush e'lon qildi. Germaniya **1914-yil oktyabr**da **Usmonli turklar imperiyasi**ni, keyinchalik **Bolgariya**ni o'z tarafida turib urushda qatnashtirishga erishdi. Tez orada **Kavkazorti, Suriya** va **Falastin, Bolqon yarimoroli**, shuningdek, **Germaniyaning Afrikadagi mustamlakalari**da yangi frontlar vujudga keldi.

Yashin tezligida g'alabaga erishishning barbod bo'lishi. Germaniya qo'shini generali **fon Shliffen** yashin tezligida g'alabaga erishish rejasini tuzib chiqqandi. Rejaga ko'ra, Germaniya qo'shini betaraf Belgiya hududi orqali Fransiyaga hujum qilishi, Germaniya – Fransiya chegarasida to'plangan Fransiya qo'shinini qurshab olib, uni kuzgacha tor-mor etishi va shu orqali Fransiyaning taslim bo'lishiga erishishi kerak edi. So'ngra qisqa vaqt ichida Rossiyani ham tor-mor keltirish mo'ljallangandi.

3-avgustda shiddat bilan hujumga o'tgan Germaniya qo'shini yaqin **bir oy** ichida **Parij**ga yaqinlashib qoldi. Fransiyaning taslim bo'lishi muqarrardek edi. Hatto hukumat vaqtincha Parijdan chiqib ketishga majbur bo'ldi.

Biroq Shliffen rejasi amalga oshmay qoldi. Bunga Fransiya hukumatining iltimosiga ko'ra **17-avgust**da Rossiyaning Germaniya va Avstriya-Vengriyaga qarshi boshlagan hujumi sabab bo'ldi. G'arbiy frontda Germaniya harbiy qudratining ma'lum darajada kuchsizlanishi Fransiyani saqlab qoldi. Bu hol Fransiyaga kuch to'plab qarshi hujumga o'tishga ham imkon yaratdi. Germaniya rus qo'shinini **Sharqiy Prussiya**dan siqib chiqarsa-da, rus qo'shini Avstriya-Vengriyaga qarshi hujumini davom ettirdi.

Marna daryosi bo'yida Fransiya va Buyuk Britaniyaning birlashgan qo'shini **1914-yil sentyabr**da Germaniya qo'shiniga qarshi hujumga o'tdi.

Marna jangida har ikki tomondan **2 mln ga yaqin jangchi** qatnashdi. Bu jangda Buyuk Britaniya va Fransiyaning qo'li baland keldi. Og'ir ahvolga tushib qolgan nemis qo'mondonligi **9-sentyabr**da butun g'arbiy front bo'ylab chekinishga majbur bo'ldi. Marna jangida erishilgan g'alaba tufayli Germaniyaning yashin tezligida g'alaba qozonish rejasi barbod bo'ldi.

Turkiyaning urushga kirishi. Turkiya hukmron doiralarining aksariyati Germaniya tarafida turib urushda qatnashishni maqsadga muvofiq deb hisoblardi. Chunki, ularning fikricha, Turkiyaning o'zi bosib olishni mo'ljallagan yerlar yo Rossiya qo'l ostida, yoki Buyuk Britaniya qo'l ostida edi. Ana shu bosqinchilik niyatini amalga oshirish ilinji Turkiyaning **1914-yil 2-avgust**da yashirin sharoitda Germaniya bilan ittifoq shartnomasini imzolashiga olib keldi.

11-oktyabrda Germaniya Turkiyaga katta miqdorda qarz taklif etdi. Turkiyadan shu qarzni olgan zahotiyoq urushga kirishga va'da oldi. Germanparast, harbiy vazir va bosh qo'mondon **Anvar poshsho 29-oktyabr** kuni Turkiya flotiga nemis admirali **Sushan** qo'mondonligida Qora dengizga chiqishga va Rossiyaning hududlarini o'qqa tutishga buyruq berdi.

2-noyabrda Rossiya Turkiya hujumiga javoban unga urush e'lon qildi. Urush harakatlari uzunligi **350 km** bo'lgan **Kavkaz front**ini vujudga keltirdi. **5 – 6-noyabr** kunlari Buyuk Britaniya va Fransiya ham Turkiyaga urush e'lon qildilar.

1915-yil 19-yanvarda Antanta harbiy dengiz kuchlari Turkiyaga qarshi Dardanell bo'g'ozida harbiy operatsiyalarni boshlab yubordi. Germaniya mumkin bo'lgan barcha imkoniyatlardan foydalanib Turkiyaga yordam ko'rsatdi. Natijada Buyuk Britaniya harbiy dengiz flotiga katta talafot yetkazildi. Bu operatsiya natijasida **200 ming ingliz soldati** halok bo'ldi va yaralandi.

«Buyuk chekinish». Sharqiy front **1915-yili** asosiy urush harakatlari maydoniga aylandi. Germaniya va Avstriya-Vengriya o'z qurolli kuchlarining yarmiga yaqinini Rossiyaga tashlashga qaror qildilar. Ittifoqchilar qo'shinlari **1915-yil bahor**ida hujum harakatlarini **Galitsiya** (G'arbiy Ukraina)dan boshladilar. Natijada **1915-yil bahori** va **yoz**ida rus qo'shini qonli mudofaa janglari olib borishga majbur bo'ldi. Rus qo'shini mislsiz darajada talafot ko'rdi. Chunonchi, **850 ming soldat va zobit** halok bo'ldi. **900 ming nafari** esa asirga tushib qoldi.

Rus qo'shini qarshilik ko'rsatsa-da, kuchlar noteng bo'lgan janglar natijasida **Polsha, Boltiqbo'yi, G'arbiy Belorussiya** va **G'arbiy Ukrainaning bir qism**ini tashlab chiqishga majbur bo'ldi. Bu tarixga **«buyuk chekinish»** nomi bilan kirdi.

G'arbiy frontdagi ahvol. Sharqiy frontdagi dastlabki muvaffaqiyatlardan ruhlangan Germaniya g'arbiy frontdagi ahvolini ham o'zgartirib olmoqchi bo'ldi. Bu o'rinda u mutlaqo yangi qurol – **suvosti kemalari**ga katta umid bog'ladi. Germaniya harbiy harakatlar hududlaridagi har qanday suvosti kemalarini ham cho'ktirib yuborish niyatida edi. **1915-yil 7-may**da Germaniya suvosti kemalari Buyuk Britaniyaning **«Luzitaniya»** deb ataluvchi ulkan yo'lovchi tashish kemasini cho'ktirib yubordi. Uning bortida jami **2000 ga yaqin yo'lovchi** (jumladan, **126 nafar AQSh fuqarosi**) bor edi. Ulardan **1195 nafari** halok bo'ldi. Qolaversa, Germaniya floti yuzlab yuk kemalarini ham yo'q qilib tashladi.

Germaniya faqat suvosti kemalaridangina foydalanib qolmadi. U **1915-yil 25-apreld**a **Ipr jangi**da urushlar tarixida birinchi marotaba kimyoviy qurol – **zaharli gaz** (xlor) ishlatdi. Buning natijasida **15000 kishi** zaharlandi. Ulardan **5 mingi** vafot etdi. Biroq bu qurol ham Germaniya kutgan natijani bermadi. Antanta qo'shini tez orada gazga qarshi himoya vositasi (**protivogaz**) bilan ta'minlandi.

Italiyaning urushga kirishi. Italiya rasman «Uchlar ittifoqi»ning a'zosi bo'lsa-da, uning maqsadi urushda kimning qo'li baland kelishiga amalda ishonch hosil qilish hamda qaysi tomon Italiyaga urushdan so'ng ko'p o'lja va'da qilishini kutib turish edi. Antanta Italiyaga u so'ragan hududlarning barchasini berishga rozi bo'ldi. **1915-yil 26-apreld**a Antanta bilan Italiya o'rtasida **London**da shartnoma imzolandi. Shartnomaga ko'ra, Italiya bir oy o'tgach o'zining sobiq ittifoqdoshlariga qarshi urishga kirishi zarur edi. Bu majburiyat Buyuk Britaniyaning Italiyaga **50 mln funt sterling** hajmda qarz berishi bilan mustahkamlandi.

3-mayda Italiya hukumati «Uchlar ittifoqi» to'g'risidagi shartnomadan chiqqanini bildirdi. **23-may** kuni esa Avstriya-Vengriyaga qarshi urush e'lon qildi. Italiyaning Antanta tomoniga og'dirilishi Germaniya diplomatiyasining katta mag'lubiyati bo'ldi.

Yaponiyaning Uzoq Sharq va Tinch okeanidagi harakatlari. Yaponiya 1915-yil 18-yanvarda Xitoy hukumati oldiga Shandun viloyatini Germaniya ta'sir doirasidan Yaponiya ta'sir doirasiga o'tkazish; Sharqiy Ichki Mo'g'uliston va Janubiy Manjuriyada Yaponiya mavqeyini yanada mustahkamlashga imkon berish; Port-Artur, Janubiy Manjuriya va Andun-Mukden temir yo'llarining ijara muddatini yana 99 yilga uzaytirish; Yaponiya fuqarolarining Janubiy Manjuriya va Sharqiy Ichki Mo'g'ulistonda yer maydonlariga ega bo'lishi kabi talablarni qo'ydi. Ayni paytda, Yaponiya voqeaga AQShning aralashuvi mumkinligidan tashvishga ham tushib qoldi. Shu tufayli Xitoy oldiga qo'ygan qator talablaridan

voz kechdi. **8-may**da Xitoy Yaponiyaning biroz yumshatilgan talablarini qabul qildi.

Rossiya qo'shinining **1915-yil**gi buyuk chekinishi **Bolgariya**ni kimning tarafida urushga kirishi masalasini hal etdi. **1915-yil 6-sentyabr**da Avstriya-Vengriya va Bolgariya, **15-sentyabr**da esa Bolgariya va Turkiya o'rtasida ittifoqchilik shartnomalari imzolandi. Shu tariqa **«To'rtlar ittifoqi»** vujudga keldi.

14-oktyabrda Bolgariya Serbiyaga qarshi hujum boshladi. Germaniya, Avstriya-Vengriya qo'shinlari shimoldan Serbiyaga hujum qildilar. Shu tariqa Serbiya bosib olindi.

21.2. 1916 – 1917-YILLARDAGI URUSH HARAKATLARI

Verden jangi. Germaniya hukmron doiralari Rossiyani tor-mor etolmagach yana asosiy e'tiborni g'arbiy frontga qaratdi. Bundan ko'zlangan maqsad – Fransiya taqdirini uzil-kesil hal etish edi. Shuning uchun Germaniya Fransiyaning **Verden qal'asi**ga hujum qildi. Chunki bu qal'a Parijning yo'lini to'sib turardi. Germaniya qo'shinining hujumi **1916-yil 21-fevral**da boshlandi va **21-mart**gacha davom etdi. Nemis piyoda askarlari hujumga ko'tarilganda, fransuzlar kutilmaganda ularni to'plardan qattiq o'qqa tutdilar. Nemis qo'shini atigi **7 km** oldinga siljiy oldi. Germaniya qo'shinining Verden yo'nalishidagi harbiy harakatlari shiddatini yanada kamaytirish maqsadida Fransiya bosh qo'mondonligi nemislarning **Somma daryosi** bo'ylab o'tgan mudofaa chizig'ini yorib o'tishga qaror qildi. Fransuz va ingliz qo'shini **1-iyul**da Somma daryosi bo'yida hujumga o'tdilar. Bu qonli jang **18-noyabr**gacha davom etdi. Bu jangda inglizlar urushlar tarixida birinchi bor yana bir yangi qurol – **tank**ni ishga soldi. Po'latdan yasalgan bu dahshatli qurol dushman qo'shinini qattiq sarosimaga solib qo'yardi. **1916-yil 21-dekabr**dan nemis qo'shini mudofaaga o'tishga majbur bo'ldi.

Verden va Somma janglari misli ko'rilmagan darajada qirg'inbarot janglardan bo'ldi. Ularda har ikki tomondan **2 mln 260 mingdan ortiq jangchi** halok bo'lgan. Shuning uchun Verden jangi tarixga **«Verden qirg'ini»** nomi bilan kirgan.

Sharqiy frontdagi ahvol. Germaniya qo'shini **1916-yil fevral**da g'arbiy frontda hujumga o'tgach, Fransiya yordam so'rab yana Rossiyaga murojaat qilishga majbur bo'ldi. Bunga javoban **general A.A.Brusilov** qo'mondonligidagi rus qo'shini **may oyi**da hujumga o'tdi. **4-iyul**da Avstriya-Vengriya qo'shinining Galitsiyadagi fronti yorib o'tildi va Avstriya-Vengriya qo'shi-

niga qattiq zarba berildi. Rus qo'shini hujumi oqibatida Avstriya-Vengriya qo'shinining **1 mln dan ortiq jangchisi** halok bo'ldi. **400 mingdan ortig'i** esa asir olindi. Rus qo'shini **60 – 100 km** oldinga siljishga erishdi.

Ruminiyaning urushga kirishi. **1914-yil 1-oktyabr**da Rossiya – Ruminiya shartnomasi imzolangandi. Shartnomaga ko'ra, Rossiya Ruminiyaning hududiy yaxlitligini kafolatlaydigan bo'ldi. Shuningdek, Ruminiyaning Avstriya-Vengriya imperiyasidagi ruminlar yashaydigan hududlarga bo'lgan huquqini tan oldi.

1916-yil 17-avgustda Ruminiya bilan Antanta davlatlari o'rtasida shartnoma imzolandi va Ruminiya Avstriya-Vengriyaga qarshi urushga kirish majburiyatini oldi. Buning evaziga unga **Transilvaniya, Bukovina va Banatning katta qismi** va'da qilindi. **28-avgust**da Ruminiya Avstriya-Vengriyaga urush e'lon qildi. Biroq harbiy jihatdan mustahkam tayyorgarlik ko'rmagan Ruminiya qo'shini tezda tor-mor etildi.

Tomonlarning rejalari. **1917-yili** Antanta qurolli kuchlarining son jihatdan ustunligi **40%** ni tashkil etardi. Hatto harbiy-iqtisodiy jihatdan qoloq Rossiya ham **1917-yil boshlari**da oylik o'q-dori va harbiy texnika ishlab chiqarish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga erishdi. Antanta yil boshlaridayoq hujumni boshlashni rejalashtirdi. Hal qiluvchi zarbani esa **yoz**da berishga qaror qildi.

Ayni paytda, «To'rtlar ittifoqi» ham qo'l qovushtirib o'tirgani yo'q edi. **1916-yil 29-avgust**da general-feldmarshal **fon Gindenburg** Germaniya qo'shini qo'mondoni etib tayinlandi va ko'p o'tmay Germaniya qo'shining **1917-yil**gi harakat rejasini tuzib chiqdi. Reja front chizig'i hajmini kamaytirish maqsadida armiyani oldindan mustahkam darajada tayyorlab qo'yilgan marralarga qaytarishni nazarda tutardi.

AQShning urushga kirishi. Urush boshlangan vaqtda AQSh betaraflik e'lon qilgandi. Biroq AQSh birinchi jahon urushining borishini diqqat bilan kuzatib bordi. Ayni paytda, urushuvchi guruhlarning birortasi to'la g'alaba qozonishini istamadi. U Yevropaning bir-biriga dushman davlatlar guruhiga bo'linganicha qolishini istardi. AQSh Antantaga yordam ko'rsata boshladi. Xususan, birgina **1915-yil**i AQSh Buyuk Britaniya va Fransiya bilan **500 mln dollar** miqdorida qarz berish haqidagi shartnomani imzoladi. Asta-sekin Yevropadagi **20 davlat**ning AQShdan qarzi **10 mlrd dollar**ni tashkil etdi.

1917-yil 3-fevraldan Germaniya Buyuk Britaniyaga qarshi cheklanmagan suvosti urushi e'lon qilgani va bu urushning, ayni payda, AQSh manfaatlariga ham katta zarar yetkazgani AQSh hukmron doiralarini befarq qoldirmadi. Qulay fursatdan foydalangan AQSh hukumati **6-aprel**da Germaniyaga urush

e'lon qildi. AQSh harbiy kuchlarining dastlabki qismlari **26-iyun**da Fransiya hududiga tashlandi. Bir yildan so'ng g'arbiy frontda jang qilayotgan AQSh qo'shinlari soni **2 mln kishi**ni tashkil etdi. *AQShning urushga kirishi urush taqdirini Antanta foydasiga hal etish yo'lida katta omil bo'ldi.*

21.3. BIRINCHI JAHON URUSHI YAKUNLARI VA OQIBATLARI

Urushayotgan davlatlar ahvoli. Urush uning ishtirokchilari bo'lgan davlatlar ichki hayotiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Iqtisodiyot harbiy maqsadlarga bo'ysundirildi. Chunonchi, og'ir sanoatning **70%**, yengil sanoatning esa **50%** urush ehtiyojlarini qondirish uchun ishladi. Urush qishloq xo'jaligini ham og'ir ahvolga solib qo'ydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish keskin kamaydi. Deyarli barcha davlatlarda oziq-ovqat tanqisligi vujudga keldi. Natijada hukumatlar oziq-ovqat mahsulotlariga kartochka tartibi (qat'iy belgilangan me'yor) joriy etdilar.

Urushdan charchagan aholi urushning tezroq tugatilishini talab etib hukumatga qarshi bosh ko'tara boshladi. Shu tariqa urushning dastlabki yillarida jamiyatda qaror toptirilgan fuqarolik birligi buzildi. Ba'zi frontlarda soldatlarning birodarlashuvi, dushman tomonlarning bir-biriga o'q otmasligi yuz berdi. Chunki qo'shin ham urushdan charchagandi.

Rossiyadagi ahvol. **1917-yil fevral**da Rossiyada inqilob yuz berdi. Rossiya imperatori taxtdan voz kechishga majbur bo'ldi. Hokimiyat burjuaziya qo'liga o'tdi. U muvaqqat hukumat tuzdi. Muvaqqat hukumat urushni davom ettirishga qaror qildi, shu yilning **yoz**ida u rus qo'shini hujumini ham uyushtirdi. Biroq hujum muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Mazkur muvaffaqiyatsizlik Rossiyadagi busiz ham o'ta murakkab bo'lgan siyosiy vaziyatni yanada murakkablashtirib yubordi. Natijada **1917-yil 7-noyabr**da davlat to'ntarishi yuz berdi. Muvaqqat hukumat ag'darildi. Hokimiyatni **V.I.Lenin** boshchiligidagi **bolsheviklar** (kommunistlar) partiyasi bosib oldi va u **Sovet hukumati** deb atalgan hukumat tuzdi.

1917-yil 8-noyabrda Sovet davlati **«Sulh to'g'risida»gi** dekretni qabul qildi. Sulh to'g'risidagi dekretda bosqinchilik urushi keskin qoralangan va u insoniyatga qarshi eng og'ir jinoyat deb e'lon qilingandi. Sovet hukumati separat sulh tuzishga intildi.

1917-yil 15-dekabrda Sovet Rossiyasi va Avstriya-Germaniya qo'mondonligi o'rtasida yarashish bitimi imzolandi. Bunday bitim **9-dekabr** kuni Ruminiya bilan ham imzolangandi. Shunday qilib, sharqiy front harakatsiz qotib qoldi.

Boshqa frontlardagi ahvol. **1917-yil aprel**da Antantaning g'arbiy frontdagi qurolli kuchlari hujumga o'tdi va unda **100 dan ortiq diviziya** ishtirok etdi. Biroq Germaniya mudofaa chizig'ini yorib o'tishga erishilmadi. Aksincha, bu janglar oqibatida katta qurbonlar berildi. Bu qurbonlar Fransiya qurolli kuchlari bosh qo'mondoni **Nivel** nomi bilan **«Nivel qirg'ini»** deb nom oldi.

1917-yili Italiya qo'shini muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Buyuk Britaniya va Fransiyaning shoshilinch ravishda 14 diviziyani Italiya frontiga tashlashigina Italiyani saqlab qoldi. **1917-yil noyabr**da ingliz qo'shini hujumini qaytarishda Germaniya yana bir yangi qurol – **ognemyot**ni qo'lladi.

Kavkaz frontida urush harakatlari 1917-yili deyarli tugadi. Mesopotamiya va **Falastin** frontlarida ingliz qo'shini harakatlari kuchaydi. **1917-yil mart**da inglizlar **Bag'dod**ni egalladilar. Kuzga kelib Turkiya **Arabiston yarimoroli, Falastinning bir qism**ini boy berdi.

Sovet Rossiyasining urushdan chiqishi. Sovet Rossiyasi **1918-yil 3-mart**da «To'rtlar ittifoqi» bilan ularning shartlari asosida **Brest** tinchlik shartnomasini imzoladi. Shartnoma shartlari Rossiya uchun juda og'ir edi. Shartnomaga ko'ra, Rossiya o'z qo'shinini to'la demobilizatsiya qilishi, harbiy flotini portlarga qaytarishi lozim edi. Shuningdek, Rossiya **Boltiqbo'yi, Polsha, Finlyandiya** va **Ukraina**dan voz kechardi. **Ukraina** va **Finlyandiya** mustaqil davlatlar deb tan olindi. Kavkazdagi **Kars, Ardaxan** va **Batumi** Turkiyaga berildi. Qolaversa, Rossiya Germaniyaga **6 mlrd marka** miqdorda reparatsiya to'laydigan bo'ldi.

Vudro Vilsonning tinchlik dasturi. AQSh prezidenti V.Vilson **1918-yil 8-yanvar**da Birinchi jahon urushidan so'ng imzolanadigan tinchlik shartnomasi va qayta tuzilajak dunyo siyosiy xaritasi bo'yicha AQSh hukumatining nuqtayi nazarini dunyoga ma'lum qildi. Bu nuqtayi nazar tarixga **«Vilson tinchlik dasturi»** nomi bilan kirgan. Bu dastur keyinchalik g'olib Antantaning mag'lub «To'rtlar ittifoqi» bilan imzolangan tinchlik shartnomalariga asos bo'lib xizmat qilgan.

Urushning so'nggi bosqichi. G'arbiy frontda butun diviziyalarning **80 foizi**, artilleriyaning **90 foiz**ini to'plagan Germaniya **1918-yil mart**da hujumga o'tdi. Bu uning oxirgi hujumi bo'ldi. Hujum muvaffaqiyat keltirmadi. Shunday bo'lsa-da, har ikki tomon **300 ming kish**ini qurbon berdi. Shunday sharoitda Buyuk Britaniya va Fransiya yagona qo'mondonlik tuzishga qaror qildilar. Fransiya generali **Fosh** birlashgan kuchlar qo'mondoni etib tayinlandi. **18-iyul**da Fransiya qo'shinlari qarshi hujumga o'tdi. Shu hujumdan so'ng Antanta hujumini to'xtatishning iloji bo'lmadi.

15-sentyabrda **Bolgariya**ga qAQShatqich zarba berildi. **28-sentyabr**da esa Bolgariya urush harakatlarini to'xtatdi va urushdan chiqdi. **29-oktyabr**da **Avstriya-Vengriya** yarash bitimini imzolash haqida Antantaga murojaat qildi. **3-noyabr**da shunday shartnoma imzolandi va Avstriya-Vengriya ham urushdan chiqdi. **30-oktyabr**da **Turkiya** Antanta bilan yarash bitimini imzolashga majbur bo'lgandi.

Urush Germaniyada inqilobiy vaziyatni vujudga keltirdi. **9-noyabr**da Germaniya imperiyasi quladi. Imperator **Vilgelm II** taxtdan voz kechdi va mamlakatdan qochib ketdi. **10-noyabr**da sotsial-demokrat **Ebert** boshchiligida yangi hukumat tuzildi. **11-noyabr**da **Kompen o'rmoni**da marshal Foshning shtab vagonida Germaniyaning taslim bo'lgani haqida Antanta bilan bitim imzolandi. Shu tariqa Birinchi jahon urushi Antantaning g'alabasi bilan tugadi.

1919-yil 28-iyunda **Versal**da sulh shartnomasi imzolandi. German bloki davlatlari talandi, ko'pgina hududlaridan ajraldi, **32 mlrd marka** reparatsiya to'laydigan bo'ldi.

Birinchi jahon urushida dunyoning **38 davlati** ishtirok etdi. Ularda **1,5 mlrd dan ortiq** aholi yashardi. Urushga **74 mln ga yaqin kishi** safarbar etildi. Jami **10 mln kishi** o'ldirildi, **20 mln kishi** esa yarador bo'ldi. Qolaversa, juda ko'p kishilar kasallik va ochlikdan o'lib ketdi. Birinchi jahon urushida uning asosiy ishtirokchilari bo'lgan davlatlar o'z milliy boyligining **1/3 qismi**ni yo'qotdilar. Insoniyat Birinchi jahon urushigacha bo'lgan **1000 yil** davomida yuz bergan barcha urushlarda ham bunchalik qurbon bermagandi.

22-BOB. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA FAN VA MADANIYAT

22.1. MODDIY ISHLAB CHIQARISHDA TEXNIKA VA FAN TARAQQIYOTI

Transport va temir yo'llar. **XIX asrning 70-yillari – XX asr boshlarida** texnika va tabiiyot ilmining taraqqiy etishiga monopolistik kapitalizmning yanada rivojlanishi bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy sharoit ta'sir ko'rsatdi. **XIX asrning 70-yillar**ida parovozsozlikni taraqqiy ettirishdagi boshlang'ich davr tugadi. Parovozni takomillashtirish, uning quvvatini va tortish kuchini oshirishda katta ishlar amalga oshirildi. **1875-yildan 1913-yilgacha** bo'lgan davrda butun dunyoda, asosan, eng yirik kapitalistik mamlakatlar tomonidan qurilgan temir yo'llarning uzunligi deyar-

li **4 barobar** oshdi. Shimoliy Amerika, Osiyo va Afrikani kesib o'tuvchi temir yo'llar qurildi.

XIX asrning 80-yillarida G.Daymler bilan **K.Bens** benzinda ishlaydigan motorli birinchi avtomobilni yaratishgach, avtomobil transporti tez rivojlana boshladi va u tosh yo'llar qurishni talab qildi. Elektr dvigatelidan dastlab shahar transportida foydalanildi. **1895-yil**dayoq Angliya va AQShning eng yirik shaharlarida **«konka»** (shahar temir yo'lida ot bilan tortiladigan vagoncha) o'rniga **tramvay** ishlatildi.

Elektr. Elektr sanoati texnikaning yangi muvaffaqiyatlari uchun eng xos narsadir. Bu sanoat yuksak darajada taraqqiy qilgan mamlakatlar nihoyatda tez rivojlandi. Sanoatning rivojlanishi fabrika, zavod, savdo joylari va idoralarning sun'iy yoritkichlarga bo'lgan talabini yil sayin oshirib bordi.

1876-yili rus ixtirochisi **P.N.Yablochkov (1847 – 1894)**ning **«elektr shami»** deb atalgan lampasi yorug'likning yangi manbayi sifatida vujudga keltirildi. Yablochkov «shami» **ikki soatcha** yonib turardi. **XIX asr oxirlari**da yog' lampalar o'rniga tejamli va foydalanish birmuncha qulay lampalar – **cho'g'lanish lampalari** ishlatila boshlandi. Amerikalik mashhur texnik ixtirochi **T.Edison (1847 – 1931)** bir necha yillar davomidagi izlanishlaridan keyin **1879-yili** havosi so'rib olingan, ko'mir tolali cho'g'lanish lampasining yangi turini yaratishga muvaffaq bo'ldi. U **1882-yili Nyu-York**da birinchi issiqlik elektr stansiyasini qurdi. To'rt taktli dvigatel prinsipini **1862-yil**iyoq fransuz muhandisi **A.Bode Rosh** «maydonga tashlagan» bo'lib, undan **1876-yili** nemis ixtirochisi **N.Otto (1832 – 1891)** amalda foydalanib ko'rdi. Ottoning gaz bilan ishlaydigan to'rt taktli dvigateliga **1878-yili** tashkil qilingan **Parij** jahon ko'rgazmasida yuksak baho berildi.

1891-yili Germaniyada **175 km** ga cho'zilgan elektr liniya qurilib, ishga tushirildi. Bu esa elektrotexnika tarixida yangi davrni ochib berdi. **XIX asrning 2-yarmi**da paroxodlar takomillashtirila boshlandi. Kemalar qurishda po'latni keng ko'lamda ishlatish yaxshi natijalar berdi. **1909-yili** misli ko'rilmagan darajada katta kemalar – suv sig'imi **20 000 tonna** keladigan kemalar paydo bo'ldi. Yo'lovchilar tashish kemalarining tezligi **20 uzel (qariyb 40 km)**ga yetdi. Katta sig'imli kemalarning qurilishi yirik bandargohlar shakllanishiga sabab bo'ldi. O'sha vaqtda to'g'on va dambalar qurila boshlandi, sun'iy kanallardan suv yo'li sifatida tobora keng foydalanila boshlandi.

Binokorlikda metall va oynadan foydalanish. Shaharlarda oynadan foydalanish o'sishi bilan yangi xil binolar, ya'ni fabrikalar, banklar, za-

vodlar, xizmat binolari, savdo rastalari, bozorlar, universal do'konlar, vokzallar, ijaraga qo'yiladigan uy-joylar, katta mehmonxonalar va boshqalar qurila boshlandi.

Qurilish ishida **sement** katta ahamiyatga ega edi. O'sha davrda yangi qurilish materiali **temir-beton** paydo bo'ldi, temir-betonni fransuz bog'boni **Mone** ixtiro qilgan deb hisoblanadi. **Germaniya**da **1884-yil**dan yangi qurilish materialining xossalari mukammal o'rganila boshlandi. Shundan keyin temir-betondan binokorlikda keng foydalanish kuchayib ketdi.

Ko'priklar qurishda po'lat to'sinlar ishlatiladigan bo'ldi. **Shotlandiya**da XIX asrning oxirlarida qurilgan **«Fort-Brij»** ko'prigi o'sha vaqtdagi eng katta ko'prik edi. Bu ko'prikning uzunligi **2133 metr**, balandligi esa **47,5 metr** bo'lib, kemalar harakatining to'xtovsizligini ta'minlardi.

Metallurgiya. Metallurgiya har qanday sanoatning «yuragi» hisoblanib, unga fan yutuqlarini joriy qilish yildan yilga oshib bordi. **XIX asrning 70-yillari o'rtalari**da **«bessemer usuli»** metallurgiyada mustahkam o'rin oldi. AQShda **1880-yili** eritilgan hamma po'latning **86 foizga yaqini** «bessemer usuli» bilan tayyorlandi. Ayni paytda, **marten pechlari** ham takomillashtirildi, dastlabki marten sig'imi **1,5 tonna** edi. Lekin **1880-yili**yoq sig'imi **10 – 15 tonna** bo'lgan pechlar qurila boshlandi. *XX asr boshlarida esa bir yo'la 100 tonnagacha va undan ham ortiq po'lat tayyorlaydigan martenlar paydo bo'ldi.*

Bessemer konvertorlari va marten pechlarida melallni fosforsizlantirish muammosi hal etildi. Bu vazifani ingliz muhandisi va metallurgi **Sidni Tomas (1850 – 1885)** muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirdi. Uning kashfiyoti metallurgiyaga asos solib, fosforli temir rudalaridan eritib olingan cho'yanni po'latga aylantirish masalasini to'la hal qildi va metall ishlab chiqarishda tez tarqaldi.

1886-yili P.Eru (Fransiya), **Ch. Xoller** (AQSh) elektrolit yo'li bilan alyuminiy ajratib oldilar. **1907-yili A.Vilm** (Germaniya) samolyot uchun duralyuminiyni ixtiro qildi. XX asr boshida **L.Bakelanda** (Belgiya) plastmassa olish yo'lini topdi. **1890-yili** angliyalik **L.Mond** toza nikel, **1910-yili** amerikalik **Xanter** toza titan olish usulini yaratdilar.

Mashinasozlik. XIX asrning 70-yillaridan 1914-yilgacha jahon mashinasozligi katta sur'atlar bilan rivojlandi. Metallarni kesish jarayonini ilmiy jihatdan tekshirishga **Peterburg** tog' institutining professori **I.A.Time** asos soldi, u o'z asarlarida metall kesishning asosiy qonunlarini ta'riflab berdi.

Amerikalik ishbilarmon **F.U.Teylor (1856 – 1915)** tokarlik ishlarida bo'ladigan kesish rejimlarini empirik yo'l bilan aniqladi. Elektr bilan

payvandlash usulini dastlab **1867-yili** amerikalik elektrotexnik **Tomson** qo'llagandi. Elektr bilan payvandlashning **N.N.Benardos** yaratgan usulini rivojlantirgan va takomillashtirib borgan boshqa bir rus olimi **N.G.Slavyanov 1888-yili** ko'mir elektrod bilan emas, balki metall elektrod bilan qizdirib payvandlash usulini topdi. Ingliz **Ch.Porson**, shved **K.G.Laval**, fransuz **O.Ratolar** turbinali dvigatellarga, nemis **G.Golvart** gaz turbinali, **M.Nikolskiy** samolyotlar uchun turbovintli dvigatellarga asos soldi. **1903-yili aka-uka Raytlar** samolyotda uchdilar. Raqamli hisoblash mashinalarini ingliz **Ch.Bebbij**, tikuv mashinalarida dasturlashtirishni fransuz **J.Jakkard**, metallurgiyada avtomatlashtirishni **G.Kirxgof** (Germaniya), samolyotlarni avtomatik boshqarishni **L.Sperri** (AQSh), raketoplanni **N.I.Kibalchich** (Rossiya) yaratdilar.

Neftni qayta ishlash. XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida xo'jalikning muhim tarmoqlaridan **neftni qayta ishlash** sanoati vujudga keldi va ancha yuqori darajaga ko'tarildi. Neftni haydash apparatlaridan birini **1874-yili** muhandis **A.Tavrizov** yaratdi. **1882-yili D.I.Mendeleyev** uzluksiz ishlaydigan birinchi kub loyihasini tuzdi va uni Moskva yonidagi **Kuskovo** neft haydash zavodida o'rnatdi. Bu kubning konstruksiyasi murakkab bo'lmaganligi uchun, tez orada undan boshqa zavodlarda ham foydalana boshlandi. **1885-yili Boku**dagi zavodda kublardan iborat uzluksiz ishlaydigan birinchi batareya o'rnatildi. Ichki yonuv dvigatelining taraqqiy etishi bilan XX asr boshlaridayoq neftni qayta ishlash sanoati oldida **benzin** olish muammosi paydo bo'ldi, benzin esa o'sha vaqtga qadar neftni qayta ishlash chiqindisi deb kelinardi.

Yonilg'i sifatida benzindan foydalanish boshlangach, ichki yonuv dvigateli transportda yetakchi o'rin tutdi. **XIX asrning 80-yillari**da rus flotining dengizchisi **O.S.Kostovich (1851 – 1916)** benzin bilan ishlaydigan, karbyuratorli yengil ichki yonuv dvigatelining loyihasini taqdim etdi. Kostovich loyihasi asosida **8 silindrli** dvigatel qurildi, bu dvigatel dirijablga o'rnatish uchun mo'ljallangandi.

Benzin bilan ishlaydigan yengil dvigatellar yaratish sohasida nemis olimi **Gotlib Daymler (1834 – 1900)** katta yutuqlarga erishdi. U avtomobil, motorli qayiq, mototsiklga o'rnatilgan o'z dvigateli uchun **1885-yili** patent oldi. Daymler yaratgan ikki silindrli dastlabki dvigatelning quvvati **34 ot kuchi**ga teng bo'lib, vali minutiga **800 marta** aylanardi. Og'ir yonilg'i bilan ishlaydigan dvigatel muhandisi, ixtirochi **R.Dizel (1858 – 1913)** «ratsional issiqlik dvigateli» yaratish g'oyasini ilgari surdi. **1897-yili** Dizel yonilg'i siqilganda o'z-o'zidan alangalanib ketadigan yangi dvigatel yaratdi. Birinchi **aeroplan**ni ajoyib rus ixtirochisi **A.F.Mojayskiy**

(1825 – 1890) yaratdi. **1876-yili Peterburg**da Mojayskiy modellarining uchishi xalq oldida namoyish qilindi.

1892-yili ingliz ixtirochisi **G.Filipps** jahonda birinchi bo'lib katta aeroplan yaratdi, bu aeroplan garchi odamsiz bo'lsa-da havoga ko'tarildi. Shundan keyin Angliyada **Xayrem Maksim** katta aeroplan qurdi, bu aeroplan **1898-yili** uchirib ko'rildi. Ichida **uchta** yo'lovchisi bo'lgan samolyot yugurib borib ko'tarildi, havoda barqaror ucholmaganligi tufayli yon tomonga og'ib sinib ketdi.

Dastlabki uchish apparatlarini yaratishda, ularni takomillashtirishda nemis muhandisi **Otto Liliyental** (1848 – 1896)ning xizmatlari ham katta ahamiyatga ega. **1896-yili** kuchli shamolda uchish vaqtida Liliyental planeri havoda barqarorligini yo'qotdi. Ixtirochi **25 metr** balandlikdan yiqilib halok bo'ldi. 90-yillar boshlarida Amerikada **aka-uka Uilbur** va **Orvill Raytlar** – janubiy karolinalik velosiped fabrikantlari – bu sohadagi o'z faoliyatlarini boshlashdi. **1902-yili** ular o'zlari yaratgan tajriba planeriga ichki yonuv dvigateli o'rnatdilar. Aka-uka Raytlar aeroplanda bir necha marta uchib ko'rdilar. Aeroplan ancha kuchli shamolda ham sekundiga **4 – 5 metr** tezlik bilan uchdi. **1907 – 1908-yillar**da aka-uka Raytlar ancha takomillashtirilgan bir necha aeroplan qurdilar.

Radiotelefon. Texnika sohasida qilingan eng buyuk kashfiyotlardan biri **radio**ning ixtiro qilinishi bo'ldi. **1886 – 1889-yillar**da nemis olimi **G.Gers (1857 – 1894)** elektromagnit to'lqinlari tarqatish faktini jahonda birinchi bo'lib tajriba yo'li bilan isbotladi. G.Gers yorug'lik to'lqinlari ham xuddi shu qonunlarga bo'ysunishini aniqladi.

1895-yil 7-mayda rus olimi **A.S.Popov (1859 – 1906)** Rus fizika-matematika jamiyatining Peterburgda o'tkazilgan majlisida jahonda birinchi bo'lib **radiopriyomnik** namoyish qildi. Bu kun Radio kuni deb e'lon qilindi. A.S.Popov **1896-yil 24-mart**da insoniyat tarixida birinchi marta **250 metr** masofaga radiotelegraf aloqani amalga oshirdi. Bunda uzatuvchi va qabul qiluvchi antennalardan foydalanildi. **1897-yili G.Markoni (1874 – 1937)** Angliyada simsiz telegraf uchun patent oldi. XIX asr oxirida texnikaning yangi tarmog'i – **telefon** tez rivojlandi. Shotlandiyada tug'ilib, Amerikada yashagan texnik **A.Bell (1847 – 1922) 1876-yili** telefon apparatiga birinchi bo'lib patent oldi. Barcha mamlakatlarda telefon juda tez rasm bo'ldi. Dastlabki shahar telefon stansiyasi AQShda – **Nyu-Gavana**da **1878-yili** ishga tushirildi. **1877-yili T.Edison** ovoz yozib olish va uni takror eshittirish apparati – **fonograf** yaratdi. Fonograf asosida grammafon va boshqa mexanik usulda ovoz yozib olish uchun ishlatiladigan asboblar vujudga keldi.

Fransuz **aka-ukalar L.J.Lyumer va O.M.Lyumer kinematograf** yaratdilar. **1895-yil mart**ida ana shu apparat yordamida kinoplyonkaga olingan film tajriba maqsadida ko'rsatildi, o'sha yilning **dekabr**idan esa **Parij**da birinchi kinoteatr ishlay boshladi.

Harbiy soha. **XIX asrning 70-yillar**idan e'tiboran barcha mamlakatlarda dala qo'shinlari va dala artilleriyasi soni to'xtovsiz o'sa boshladi, bu hol piyoda va artilleriya qo'shinlari uchun qurol-yarog' ishlab chiqarishning son va sifat jihatidan tez o'sishiga sabab bo'ldi. XIX asrning 70-yillarida o'qdonli tezotar miltiq ixtiro etildi. Ammo tutunli porox ishlatilishi bu miltiqning jangovar sifatini kamaytirardi. **1884-yili** fransuz olimi **Vele** piroksilinli **tutunsiz porox** tayyorlashga muvaffaq bo'ldi. Rossiyada **D.I.Mendeleyev** tutunsiz poroxning «siri»ni topdi. **1891-yili** zavod sharoitida Mendeleyev usulida tutunsiz porox tayyorlana boshlandi. **Angliya, AQSh, Germaniya**da ham XX asr boshlariga kelib tutunsiz porox ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

1893-yili Fransiyada artilleriyaning yangi turi – ancha tezotar o'ziyurar to'p paydo bo'ldi.

Yangi portlovchi modda tayyorlash sohasidagi bu ish bilan shvetsiyalik muhandis **A.Nobel (1833 – 1896)** shug'ullandi. **1888-yili** Nobel nitroglitserinli porox – **ballietit**ni taklif qildi. Nobelning **Shvetsiya, Fransiya, Germaniya** va boshqa mamlakatlardagi yangi portlovchi modda ishlab chiqaradigan fabrikalari uni juda boyitib yubordi. 1-jahon urushi arafasida o'qotar qurollar va artilleriya ancha takomillashtirildi. Stanokli pulemyot bilan bir qatorda urush davomida yengil qo'l pulemyotlari ham yaratildi. Ularning otish uzoqligi ancha oshirildi. O'ta uzoqqa (**120 km gacha**) otadigan to'plar paydo bo'ldi. Ichki yonuv dvigateli o'rnatilgan, zanjirli, zirhli, zambarak bilan qurollangan tank **Somma** daryosi jangida birinchi marta inglizlar tomonidan ishlatildi. Tank dahshatli jang quroliga aylandi. XX asr boshlarida soatiga **220 km gacha** tezlik bilan uchadigan, uchish balandligi **7000 metrgacha**, uchish uzoqligi esa **940 km gacha** bo'lgan samolyotlar qurildi.

22.2. ANIQ VA TABIIY FANLAR RIVOJI

Matematika va astronomiya. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida fan yanada ixtisoslashtirildi. Yangi kashfiyotlar olamning eski, mexanistik manzarasi asoslariga zarba berdi, tabiat ilmida evolyutsion g'oyalarning yanada taraqqiy etishiga yo'l ochib berdi.

Matematika taraqqiyotidagi yangi davrning boshlanishi **N.L.Lobachevskiy, Y.Bolyai** va **B.Riman**ning noevklidcha geometriyaga oid xulosalarni yanada chuqurroq tekshirishi bilan bog'langan. Ularning tadqiqotlarini italyan olimi **E.Beltrami (1835 – 1900)**, nemis matematigi **F.Kleyn (1849 – 1925)** rivojlantirdilar. Nemis matematigi **D.Gilbert (1862 – 1925)** jahonda birinchi bo'lib aniq ta'riflab berilgan geometrik tizim tuzish masalasini chuqur ilmiy tarzda hal qildi. Bu bilan matematik mantiqqa g'oyat katta hissa qo'shdi. Italyan matematiklari **K.Volta (1887)** va **S.Pinkerle (l895)**, **D.Gilbert (1904)** hamda vengr olimi **F.Ris (1912)** funksional fazolarni tekshirdilar.

XIX asrning 70 – 80-yillaridan yulduz kattaliklari aniq belgilandi, birmuncha mukammal fotometrik kataloglar tuzildi. **Y.Kameteyn (1904), K.Shvarshild (1907)** va boshqalar o'z tadqiqotlarida yulduzlarning xususiy harakati qonuniyatlarini isbotlab berdilar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mexanikaning umumiy bo'limlari – *«qattiq jismlar dinamikasi», «harakatning ustuvorligi» nazariyasi hamda suyuqliklar va gazlar mexanikasi* rivojlantirildi. Nemis olimi **G.Gelmgols (1821 – 1894)** suyuqlikning uyurma harakati to'g'risidagi ta'limotni, rus olimi **N.P.Petrov (1835 – 1920)** ishqalanishning gidrodinamik nazariyasini yaratdi.

Aerodinamika asoslarini yaratishda rus olimi **N.E.Jukovskiy (1847 – 1921)** g'oyat muhim rol o'ynadi. Jukovskiy **1905-yil 15-noyabr**da Moskva matematika jamiyatida qilgan ma'ruzasida (**«Qo'shilgan girdoblar haqida»**) qanotning ko'tarish kuchini aniqlash formulasini asoslab berdi, bu formula samolyotlarning barcha aerodinamik hisoblari uchun asoslidir.

Mexanikaning yangi bo'limi – **o'zgaruvchan massa dinamikasi** raketalarning uchishini tekshirishda juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'zgaruvchan massa dinamikasini **I.V.Mesherskiy (1859 – 1935)** o'zining **«O'zgaruvchan massa nuqtasining dinamikasi» (1897)** degan asarida ishlab chiqdi. Mashhur rus olimi **K.E.Siolkovskiy (1857 – 1935)** birinchi bo'lib planetalararo uchishda raketalardan foydalanish mumkinligini matematik jihatdan isbotlab berdi.

Fizika. Mashhur ingliz olimi **Maykl Faradey (1791 – 1867)** elektr haqidagi fanni yaratdi. Ingliz fizigi **Jeyms Klark Maksvell (1831 – 1879) 1855-yili** turli mamlakatlardagi fiziklarning elektromagnitizm, termodinamika va yorug'lik sohasidagi tajribalari hamda nazariy xulosalarini umumlashtiruvchi «yorug'likning elektromagnit maydoni» nazariyasini yaratdi.

Bir guruh olimlar: **A.Bekkerel (1852 – 1908), Pyer Kyuri (1852 – 1963), Mariya Skladovskaya-Kyuri (1867 – 1957), R.Soddi (1877 – 1956), E.Rezerford (1871 – 1937), Nils Bor (1885 – 1963)** radioaktivlik hodisasini o'rgandi va atomning murakkab tuzilishi haqidagi ta'limotni yaratdi. Umuman, bu davr fizika fani taraqqiyotining eng muhim yakuni **nisbiylik nazariyasi**ning yaratilishi bo'ldi. Bu nazariya asoschisi mashhur olim **A.Eynshteyn (1879 – 1955)** edi. Bu nazariyani u **1905-** (nisbiylikning maxsus nazariyasi) va **1916-yili** (nisbiylikning umumiy nazariyasi) bayon etdi. Ushbu nazariya butun XX asr fanining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Kimyo. Kimyo fanining bu davrdagi rivojlanishiga, bir tomondan, shundan oldingi bosqichda qilingan kashfiyotlar, ayniqsa, **D.I.Mendeleyev (1834 – 1907)** yaratgan kimyoviy elementlarning davriy qonuni katta ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fizika sohasida qilingan kashfiyotlar katta ta'sir etdi.

Organik sintez sohasida g'oyat katta muvaffaqiyatlarga erishildi. **V.Grinyar (1871 – 1935) 1900-yili** xilma-xil organik moddalarni sintez qilish usulini kashf etdi. **P.Grissning** diazotlash reaksiyasini kashf etishi azotli bo'yoqlar deb atalgan bo'yoqlarning katta bir sinfini hosil qilishga imkon berdi.

Bo'yoqlar sintez qilish sohasidagi ishlar dorilar ishlab chiqarishning rivojlanishiga yordam berdi. Kimyoviy jarayonlarni tekshirishga termodinamikaning tatbiq etilishi natijasida kimyoviy termodinamika paydo bo'ldi. **1887-yili S.Arrenius** elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasini yaratdi. **1881-yili M.G.Kucherov** gidratlanish reaksiyasini kashf etdi.

Tabiatshunoslik. Nemis olimi **Teador Shvan** tomonidan qilingan barcha organizmlarning hujayrali tuzilishi haqidagi kashfiyotlar tabiatshunoslikning ilmiy asosini mustahkamlashga xizmat qildi. Buyuk ingliz tabiatshunos olimi **Charlz Darvin (1809 – 1882)**ning **«Turlarning kelib chiqishi»** asari nashr qilinishi fanda to'ntarish yasadi. XIX asr so'nggi choragini darvinizmning tarqalish va qaror topish davri deyish mumkin. Darvin ta'limoti biologiya sohasidagi tadqiqotlarning yo'nalishini tubdan o'zgartirib yubordi. Dunyo bo'ylab qilingan **besh yillik** sayohat davrida to'plangan ulkan botanik va zoologik materiallarni umumlashtirish asosida Ch.Darvin butun tirik tabiat, shu jumladan,odam ham **evolyutsiya** (uzoq rivojlanish) jarayonining mahsulidir degan xulosaga keldi.

Mikrobiologiya. Mikrobiologiya fanidagi inqilobiy o'zgarish fransuz mikrobiologi va kimyogari, hozirgi zamon mikrobiologiya va immunologiya fanining asoschisi **Lui Paster (1822 – 1895)** nomi bilan

bog'liq. U bijg'ish jarayonini o'rganib, vino, pivo va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatiga ilmiy asos soldi. Mahsulotlarning achish jarayoni mikroblar keltirib chiqaradigan biologik jarayon ekanligini isbotladi. Uning kashfiyotlari vino pishiruvchilarni xonavayron bo'lishdan qutqardi. Pasterning tajribalari turli oziq-ovqat mahsulotlarini sterillash va pasterlash usullarini yaratishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Meditsina. Bu davrda meditsina fani ham katta yutuqlarga erishdi. **1880-yili** nemis olimi **K.Eber** ichterlama, **1884-yili F.Lyofler** bo'g'ma tug'diruvchi mikrobni topdilar. Nemis olimi **R.Virxov (1821 – 1902)** hozirgi zamon patologik anatomiya asoslarini yaratdi. **1875-yili** rus olimi **F.A.Lesh** amyoba dizenteriyasini tug'diruvchi mikrobni aniqladi.

Fizika sohasidagi kashfiyotlar ham meditsinaga yordam berdi. **Maksvel**ning elektromagnit to'lqinlari haqidagi nazariyasidan kelib chiqib nemis fizigi **Vilgelm Konrad Rentgen (1845 – 1932)** har xil buyum, narsalardan turlicha o'tuvchi ko'rinmas nurlarni kashf etdi. Nurlarning kelib chiqishi olimga ma'lum emasdi va ularni **«X nurlar»** deb atadi. Ana shu kashfiyotga asoslangan va olimning nomi bilan **«Rentgen»** deb atalgan apparat yaratildi. Endi shifokorlar ichki jarohatlarni, suyak sinishlarini ko'rishlari mumkin edi. *Bu kashfiyot uchun fiziklar orasida birinchi bo'lib Rentgenga Nobel mukofoti berildi.*

Yuqumli kasalliklarga qarshi kurash ishiga sil kasalligini keltirib chiqaruvchi batsillani kashf qilgan nemis olimi **Robert Kox (1843 – 1910)** ulkan hissa qo'shdi. U epidemiyalarga qarshi profilaktik choralarni ishlab chiqdi va dori-darmonlar yaratdi. Rus olimi, Nobel mukofoti laureati **I.Mechnikov** esa organizmlarni mikroblardan himoya qilish haqida yangi ta'limot yaratdi.

22.3. XALQ TA'LIMI. GUMANITAR FANLAR. SAN'AT

Xalq ta'limi. Texnika taraqqiyoti yuqori saviyali mutaxassis va ishchilarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirib yubordi. Rivojlangan mamlakatlarda **12 – 13 yoshgacha** bo'lgan bolalarni umumiy majburiy va bepul o'qitish joriy qilindi.

AQShda xalq maorifi tizimi irqchilik ruhida edi. Negrlarning bolalari uchun alohida maktablar ochilgan bo'lib, bu maktablarda oq tanlilarning bolalari uchun tashkil etilgan maktablardagiga qaraganda kam hajmda bilim berilardi. Mamlakatda hukm surayotgan irqchilikka qarshi kurash masalasi **Garriyet Bicher Stou**ning **«Tom tog'aning kulbasi»** asarida o'z ifodasini yaqqol topdi. XX asr boshlariga kelib jamiyat taraqqi-

yoti uchun zarur bo'lgan tabiiy fanlarning jadal rivojlanishi, texnikaning yanada ildam taraqqiyoti diniy xurofotlardan xoli bo'lgan ilmiy dunyoqarashning mavqeyi mustahkamlanishi uchun sharoit yaratdi. Gumanitar soha olimlari XX asr boshida ro'y berayotgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganishni kuchaytirdilar.

Falsafa va mustamlakachilik g'oyalari. Bu davrning mashhur faylasuflaridan biri **Fridrix Nitshe (1844 – 1900)** inson irodasi masalasiga katta e'tibor berdi. Inson borlig'ida maxluqlik va xoliqlik birlashib ketganini asoslashga harakat qildi. U zardushtiylik ta'siri ostida **«Zardusht tavallosi»** asarini yozdi. Bu asarda kuchli shaxslarni tarbiyalash g'oyasi ilgari surildi.

O.Shpengler (1880 – 1939) «Yevropasentrizm»ga qarshi chiqdi. Har bir madaniyatning o'ziga xosligi, bir-biridan mustasno holda rivojlanish g'oyasini mutlaqlashtirdi. Bu fikrlar uning **«Yevropa quyoshining botishi»** asarida o'z ifodasini topdi.

Z.Freyd (1856 – 1939) – psixoanaliz nazariyasining asoschisi, dunyoga tanilgan olim. Uning asarlari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yevropada adabiyot va san'atning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Freyd qilgan buyuk inqilobning mohiyati shundaki, **Dekart**ning inson to'g'risidagi tasavvurlarini inkor etib, fenomenologik (favqulodda, nodir) yondashuv yordamida ongsizlikni tahlil qilish mumkinligini asoslab berdi. Psixoanaliz an'analariga muvofiq, ongsizlik bilib bo'lmas jarayon deb tushuntirilardi. Freydning psixoanalitik falsafasi inson borlig'ini vujudga keltirgan asoslarni aniqlashga, kishi xulq-atvori, xarakterining yuzaga kelish sabablari, individ turmush tarzi tamoyillarining hosil bo'lishini tushuntirishga intiladi.

Bir qator yozuvchilar o'z asarlarida dengiz va okenlar «egasi», «quyoshi hech qachon so'nmaydigan» imperiya bo'lmish Britaniya imperiyasini ko'klarga ko'tarib maqtadi. Ular «oq tanli kishi» boshqalardan ustun bo'lib, «rangdor» xalqlar orasiga madaniyat olib kirishga tayyor turadi degan aqidani ilgari surdilar. Shunday g'oyalar ingliz yozuvchisi **R.Kiplingning «Oq tanli kishining burch anduhi»** kitobida ham uchraydi. Fransiyada **Pyer Loti** va **Moris Barres** ulug' davlatlarning mustamlakachilik tizimini oqlovchi asarlar yozdilar. Pruss baroni **Detlev fon Liliyenkron**ning she'r va hikoyalari shovinizm ruhi bilan sug'orilgandi. Ingliz yozuvchisi **Rayder Xaggard** o'zining **«Montesuma qizi», «Podsho Solomonning yoyi»** asarlarida mustamlakachilikni tashviq qildi. Italiyalik yozuvchi **Gabriyela Annunsio (1863 – 1938)** kapitalistik jamiyat «kuchli shaxsi»ni ideallashtirdi.

Teatr. XIX asr oxiriga kelib teatr sohasida zamonaviy dramaturgiya bilan hamkorlikda yangi-yangi asarlar paydo bo'ldi va tomoshabinlar qalbidan joy oldi. Teatr xalqning eng sevimli madaniy maskanlaridan biri bo'lib qoldi. Fransiyada **«Komedi Fransez»** teatri mashhur bo'lib ketdi. Bu teatrda ulug' fransuz aktrisasi **Sara Bernar (1844 – 1923)** uzoq yillar faoliyat ko'rsatdi.

Emil Zolyaning **«Tereza Raken»** romani asosida ishlangan pyesasi Yevropa teatrlarida, ayniqsa, italyan teatrlari sahnasida **Eleonora Duze (1859 – 1924)** singari buyuk aktyorlarning diqqatini o'ziga tortdi va xalqqa manzur bo'ldi, Ingliz tanqidiy realizmining yirik namoyandasi **B.Shou** dramaturgiyasi Yevropa teatrini demokratlashtirish uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. XIX asr oxirlarida u **«Yoqimsiz pyesalar»** degan g'ayrioddiy qochirimlarga boy pyesalarni yaratdi.

Norvegiyalik mashhur dramaturg **G.Ibse (1828 – 1906)**ning pyesalarida burjua nikohining soxtaligi, oilada xotin-qizlarning kamsitilishi, axloqiy qonunlar mavzulari dadil ko'tarib chiqildi.

Parijdagi taniqli rejissyor va aktyor **A.Antuan (1858 – 1943)** rahbarlik qilgan **«Erkin teatr», London**dagi **«Mustaqil teatr»** ba'zi nemis teatrlari realistik spektakllar yaratdilar. Ayniqsa, **«Qorong'ulik hokimiyati», «Orleanlik qari qiz», «Yuliy Sezar», «Qish hikoyasi»** kabi spektakllar uzoq vaqt butun Yevropada shuhrat qozondi. **G.Gauptman**ning mashhur **«To'quvchilar»** pyesasi katta ijtimoiy voqeani ko'targandi. *Uni senzura bir necha bor taqiqlab qo'ydi. Lekin, baribir, u Germaniya* va boshqa mamlakatlarning ilg'or teatrlari sahnasiga chiqdi.

Musiqa. Musiqa san'atida realizm va xalqchillik dekadentlarcha noziklikka va shaklan murakkablikka qarshi kurashda riyojlandi. Bu davrda **Myunxen**da avstriyalik oilasida tug'ilgan kompozitor **Rixard Shtraus (1864 – 1949) «Salomeya», «Elektra», «Gullar oshig'i»**, avstriyalik simfonist **Gyustav Malyer (1860 – 1911) «Qazo qilgan bolalar haqida qo'shiq», «Bolaning sehrli shoxi»** va boshqa asarlar bilan shuhrat qozondi. R.Shtraus motsartcha operani qaytadan tikladi. Uning asarlari hayotbaxshligi, insonparvarligi, go'zallikni tarannum etishi bilan ajralib turadi. Betxoven an'analarini avstriyalik kompozitor G.Malyer rivojlantirdi. Malyer musiqa asarlarining ijtimoiy ahamiyatini yuksaklikka ko'tardi, murakkab musiqaviy mavzular bilan sodda xalq kuylarining uyg'unlashib ketishiga erisha oldi. Rossiyalik kompozitor – novator **A.M.Skryabin** musiqada davrning g'oya va obrazlarini gavdalantirdi. Kompozitor, pianinochi va dirijyor **S.V.Raxmaninov** vatan mavzusini romantik pafos va lirika bilan ochib berdi.

Me'morchilik, tasviriy san'at. Bu davrda me'morchilikda temir-beton va oyna o'z ta'sirini o'tkazdi. Parijdagi jahon ko'rgazmasi munosabati bilan **1889-yili 312 metrli Eyfel minorasi**ning qurilishi yangi an'ananing boshlanishi bo'ldi. Binokorlikda yangi materiallar – keramika va qoplama materiallar ishlatiladigan bo'ldi. Bunga modern usuli deyildi. XIX asr oxirida Xitoy me'morchiligi yutuqlaridan biri – imperatorning yozgi saroyi qurildi. Rassomchilikda qator yangi oqimlar vujudga keldi. Bu yangi oqimlarning biri **impressionizm** (taassurot) edi. Mazkur oqimga kirgan rassomlar voqelikni, kuzatishdan olingan taassurotlarni sof holda aks ettirardi. **Eduard Mane (1832 – 1883), Klod Mone (1840 – 1926), Ogyust Renuar (1841 – 1919)** va **Kamil Pissaro (1831 – 1903)** impressionizmning eng iste'dodli namoyandalari edilar. Ularning nozik bo'yoqlar uyg'unligi ifodalangan asarlarida hayotga cheksiz muhabbat aks ettirilgan. Ular quyosh yog'dusini, fazo va teranlikni aks ettirishning yangi texnik vositalarini topdilar. Lekin ular insonning ichki dunyosini, uning ijtimoiy hayotdagi o'rnini ko'rsatib berishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ymagandilar. Rassomchilikda real hayotni butun borligicha aks ettirish oqimi ham mavjud edi. Bu borada **Pol Sezann (1839 – 1906), Pol Gogen (1848 – 1903) va Vinsent Van Gog (1853 – 1890)** mehnat ahlini alohida o'rinlarda tasvirlay oldilar. Chunki ular ishchilarning azob-uqubatlaridan qattiq ta'sirlangandilar.

Mashhur xitoylik rassom **Jen Bonyan (1840 – 1896)** ipak matoga rasm solishning qulay usulini yaratdi. Buyuk fransuz haykaltaroshi **O.Rodenning «Mutafakkir»** degan asariga qarab hech kim insonning, dekadentlar ishontirmoqchi bo'lganidek, «oliy» kuchlar qo'lida o'yinchoq ekanligiga ishonmaydi.

22.4. ADABIYOT. TANQIDIY REALIZM

Adabiyot. Realistik yozuvchilar atrofdagi voqelikni dadil va haqqoniy aks ettirishga intildilar. Shuning uchun bu davr realizm yoki tanqidiy realizm nomini oldi. Bu davrda rus adabiyoti namoyandalari **F.M.Dostoyevskiy, L.N.Tolstoy, A.P.Chexov** chet ellardagi zamondoshlari uchun realistik ijodning yangi imkoniyatlarini ochib berdilar.

Gi de Mopassan, Emil Zolya, Anatol Frans, Romen Rollan, Genrix Mann, Jon Golsuorsi, Bernard Shou, Mark Tven, Teodor Drayzer, Robindranat Tagor, Lu Sin va boshqalar tanqidiy realizmning eng yirik namoyandalari edilar.

Gi de Mopassan (1850 – 1893) o'zining **«Hayot» (1883), «Azizim»**

(1885), «Mont-Oriol» (1886) va boshqa asarlari bilan fransuz badiiy dunyosida qator ijtimoiy masalalarni mahorat bilan rango-rang bo'yoqlarda tasvirlagan tengsiz ijodkordir.

Belgiyalik mashhur shoir **Emil Verxarn (1855 – 1916) «Halokat», «Qora mash'ala», «Oqshom», «Alahlagan dala», «G'ala-g'ovur shaharlar»** kabi asarlarida qishloq va shaharlarda xalq hayoti, iztirobi, kechinmalarini ustalik bilan qalamga oladi. Germaniyalik **Gerxart Gauptman (1862 – 1946) «Tong», «To'quvchilar»** pyesalari, angliyalik **Gerbert Uells (1866 – 1946) «Vaqt mashinasi», «Ko'rinmas odam»** nomli fantastik asarlari bilan mashhur bo'ldi.

J.Londonning ijodi radikal intilishlar bilan ajralib turardi. Uning **«Temir tovon»** romanida insoniyat oldida turgan halokat yoki dahshatli azoblar oldindan aytib berildi. Avtobiografik tarzdagi **«Martin Iden»** romanida yozuvchi halol san'atkorlarning soxta madaniyat bilan fojiali to'qnashuvini ochib berdi. Amerikalik yozuvchi **T.Drayzerning «Moliyachi», «Titan»** va **«Jenni Gerxardt»** romanlarida amerikalik monopolist, tojsiz qirol, puldor **Kaupervudning** umumlashgan obrazi berilgan. Kaupervud boyish uchun kurashda qalloblik usullaridan, odamlarni aldash, sotib olishdan foydalanib o'z maqsadi sari intiladi.

R.Rollan o'zining ko'p tomli **«Jan Kristof»** romanida fransuz va german burjua jamiyatining buzilishini ko'rsatadi. Uning qahramoni – kompozitor Kristof razillik, munofiqlik, amalparastlikni ko'rib azoblanadi. **«Maydondagi yarmarka»** kitobi g'oyat keskin fosh qilishi bilan ajralib turadi. Bunda muallif sotqin vazirlarni, «saroy to'tilari»ni, «sotsialist» amalparastlarni, san'at korchalonlarini fosh qilishda satirik usullardan foydalanadi.

J.Golsuorsi tanqidiy realizmning yirik ustasiga aylandi. U **«Munofiqlar oroli», «Forsaytlar haqida doston»** asarlarida hukmron doiralarning jaholati, ikkiyuzlamachiligi va o'ta cheklanganligini keskin tanqid qildi.

Bu davrda satira katta ahamiyatga ega bo'ldi. Nemis yozuvchisi, yumorist **G.Manning «Sodiq fuqaro»** romani hamda **«Imperiya»** trilogiyasiga kirgan boshqa asarlari juda katta fosh etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ldi. Uning sahifalarida ko'plab qirollar va kanslerlarni, zodagonlarni va amaldorlarni, xalqqa xiyonat qilganlarni hamda viloyatlardan chiqqan zodagonlarni, hatto imperator Vilgelm II ni ko'rish mumkin.

Mavjud tuzumni hajv qilishning yirik ustasi atoqli fransuz yozuvchisi **A.Frans** edi. Uning **«Silvester Bonnarning jinoyati» (1881), «Oq toshda» (1904), «Pingvinlar oroli» (1908)** asarlarida «Uchinchi res-

publika»ning illatlari, hukmron doiralarning ma'naviy buzilishi, siyosat arboblarining sotqinligi, monarxlarning fitnalari keskin, oshkora kulgi ostiga olindi. **Bernard Shou** dramalari, atoqli amerikalik satirik yozuvchi **M.Tven**ning romanlari, hikoyalari, maqolalari achchiq va darg'azab satiraga boydir. **«Olomon qiluvchi Qo'shma Shtatlar»** maqolasining nomi yoki **«Senator turmada o'tirmagan vaqtlarida qonun chiqaruvchi kishi», «Xalq xizmatkorlari porani taqsimlash uchun o'z lavozimlariga saylangan shaxslar»** kabi o'tkir ta'riflarning o'zi juda qimmatlidir.

Bu davrda jahon demokratik madaniyatining fondi Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari yozuvchilarining ijodi bilan ham boyidi. Atoqli yapon yozuvchisi **A.Ryunoske** novellalarida parazit mulkdorlar axloqining inqirozi, xalq ommasining umumiy kuchini anglash o'z aksini topdi. Hind gumanist yozuvchisi **R.Tagor (1861 – 1941)** falsafiy teranligi va badiiy barkamolligi bilan ajralib turuvchi romanlar, pyesalar, hikoya va she'rlari bilan butun dunyoga mashhur bo'ldi. Uning butun ijodi milliy mustaqillikka otashin chaqiriqdan iborat edi. Ayniqsa, **«Halokat va tubanlik»** romani mashhur bo'ldi. Xitoylik **Lu Sin**ning ijodi kambag'allarning og'ir ahvoliga chuqur hamdardlik ruhi bilan sug'orilgandi. Lotin Amerikasida mavjud tuzumning illatlarini fosh qilish qit'aning eng yirik shoirlaridan biri bo'lgan nikaragualik **R.Dario** ijodida o'z aksini topdi. Dario **«Ruzveltga»** nomli g'azabnok she'rida o'zining vatanparvarlik tuyg'ularini ifodaladi.

Demokratik adabiyot ijodkorlari tenglik va adolat tamoyillarining g'alaba qilishiga, insonning ijodiy kuchlariga, uning dunyoni o'zgartira olishiga ishonardilar. Uning namoyandalaridan biri amerikalik adiba **G.Bicher Stou (1811 – 1896)** edi. Bicher Stouning **«Tom tog'aning kulbasi»** romani jahon adabiyotining nodir asarlaridan hisoblanadi. XIX asr Amerika qullari va quldorlari hayoti, ular o'rtasidagi ziddiyat, qulchilikka qarshi negrlar isyoni haqqoniy yoritilgan. Uning **«Dred, la'nati botqoq_lik haqida qissa», «Men va mening xotinim», «Biz va qo'shnilarimiz»** asarlarida ham Amerika hayoti haqqoniy tasvirlanadi.

Amerika yozuvchisi **Jek London (1876 – 1916)**ning yoshligi qashshoqlik va og'ir mehnatda o'tgan. Ish qidirib AQSh va Kanadani kezib chiqqan. **16 yillik** adabiy faoliyatida **19 ta** roman va boshqa ko'plab asarlar yaratdi. Jek Londonning tabiatni bo'ysundirgan qahramon haqidagi **«Hayotga muhabbat»**, ishchi ya dehqonlar hayotiga bag'ishlangan **«Sokramento sohillarida», «Bir parcha go'sht», «Dengiz bo'risi»**

va boshqa asarlari mashhurdir. Ingliz dramaturgi **Bernard Shou (1856 – 1950)** o'z asarlarida ekspluatatsiyani, meshchanlik axloqini, munofiqlik, soxtalikni qoralagan. **«Qariyalar uyida», «Uorren xonimning kasbi», «Qurol va inson», «Kandid», «Yashasak ko'rarmiz», «Shayton shogirdi», «Mayor Barbara»** kabi asarlarida jamiyatdagi qusurlarni tanqid qilish bilan birga ijtimoiy taraqqiyotga, adolatga xizmat qiluvchi kuchlarni zo'ravonlikka qarshi qo'yish g'oyalari ilgari suriladi.

Fransuz adibi **Viktor Gyugo (1802 – 1885)** o'zining **«Dahshatli yil», «Xo'rlanganlar», «To'qson uchinchi yil», «Dengiz zahmatkashlari»** kabi asarlarida zulmga, jaholat va adolatsizlikka qarshi norozilik, bosqinchilikka nafrat, kurashchan xalqqa xayrixohlik bildiradi va haqoratlangan mehnatkash insonning fojiali hayoti va kurashini tasvirlaydi.

Fransuz yozuvchisi **Jyul Vern (1828 – 1905)** ilmiy-fantastik romanchilikning yirik vakili. Yozuvchi **«Havo sharida besh hafta», «Yer markaziga sayohat», «Yerdan oygacha», «Kapitan Grant bolalari», «Oy atrofida», «O'n besh yoshli kapitan»** asarlarining qahramonlari jasoratli, dovyurak, milliy va mustamlaka zulmiga qarshi kurashuvchi kishilardir.

L.N.Tolstoy umrining so'nggi yillarida chor Rossiyasining davlat, cherkov, iqtisodiy va ijtimoiy tartibotlarini, axloqsiz negizlarini tanqid qilishni davom ettirdi. **A.P.Chexov «Uch opa-singil», «Olchazor bog'»** pyesalarida juda katta kuch bilan ijtimoiy masalalarni umumlashtirishga erishdi.

Bu davrda yaponiyalik mashhur yozuvchi **Roka Tokutomi**ning **«Kurosivo», «Yashamagan yaxshi», Naoe Kinosito**ning **«Olovli ustun»** romanlari feodal qoldiqlariga qarshi, milliy qadriyatlarni asrashga, xorijning ma'naviy ta'siriga qarshi qaratilgandi. Xitoy shoiri **Xua Szunsyan (1848 – 1905)** o'z she'rlarida xalqni xorijliklarga qarshi kurashga chaqirdi. Tanqidiy romanlar kuchaydi. **Li Baotszya (1867 – 1906) «Bizning chinovniklar», U Voyao (1866 – 1910) «Yigirma yil ichida», Lyu E. (1857 – 1909) «Lao San sayohati», Szen Pu (1871 – 1935) «Qahrli dengizdagi gullar»** romanlari bilan mashhur bo'ldi. Bu asarlarda mamlakat hayotidagi turli yovuzliklar, qarama-qarshiliklar, xorijliklarning qilmishlari badiiy ifoda qilingandi.

Hindistondagi bengal yozuvchisi **Shorotchandra Chattopadhay**, shoir **Muhammad Iqbol** asarlari shahar va qishloq hayotini yorqin tasvirladi, xalqni uyg'onishga undadi. Naturalizm adabiyotni badiiy yangilashda inqilob yasadi. O'sha davr hayotini o'tkir badiiy bo'yoqlarda

tasvirlagan bir guruh san'atkorlar o'zlarini **naturalistlar** deb atadilar. Ularning yirik namoyandalaridan biri fransuz yozuvchisi **Emil Zolya** Fransiyadagi barcha sinflar va ijtimoiy guruhlarning mavqeyini, turmush tarzini va psixologiyasini ko'rsatishni oldiga maqsad qilib qo'ydi. **20 tomlik «Rugon Makkarlar»** seriyasi Ikkinchi imperiya davridagi bir oilaning hayoti va ijtimoiy tarixiga bag'ishlanadi. **«Jerminal»** va **«Tormor»** romanlari uning ijodining cho'qqisi hisoblanadi.

Italiyada naturalizm namoyandalaridan **Luidji Kapuana (1839 – 1915)** va **Jovanni Vega (1840 – 1922)**larni ko'rsatish mumkin. Ular o'z asarlarida Janubiy Italiyadagi qashshoqlikni, unga qarshi kurashuvchilarni badiiy mahorat bilan aks ettirdilar. Amerika naturalistlaridan **Stiven Kreyn (1871 – 1930) «Meggi ko'cha qizi», «Jasoratning qonli belgisi», Frenk Norris (1870 – 1932) «Sakkizoyoq», «Girdob»** asarlarida juda katta ijtimoiy masalalarni ko'tarib chiqdilar.

Fanni din bilan va idealistik falsafa bilan qo'shishga urinish, zo'rlikka sig'ina boshlash, shovinizm va irqchilikka o'tish bu davrda madaniyatda tushkunlik kayfiyatini keltirib chiqardi. Bu hodisa XIX asr oxirlarida **«dekadentchtlik»** degan umumiy nom bilan ma'lum bo'lgan bir qancha oqimlarda yaqqol namoyon bo'ldi. Dekadentlik dastlab fransuz adabiyotida yaqqol namoyon bo'lgan. **«La'nati shoirlar»** deb nom qozongan **P.Verlen, A.Relebo, S.Mallorme** kabi shoirlar yetakchilik qilgan **simvolizm** oqimiga dekadentlik nihoyatda kuchli ta'sir etgan.

Fransuz yozuvchisi **Jak Moreas** simvolistlarni «tushkunlik kuychilari» deb atadi. **Artur Rembo** o'zining **«Do'zaxdagi yoz», «Ravshanlik»** asarlari bilan mashhur bo'lsa-da, Afrikada qashshoqlikda vafot etdi. Nemis simvolistlaridan **Rayner Mariya Rilke (1875 – 1926) «Duolar yozilgan cherkov kitobi»**, Angliyadagi **Oskar Uayld «Hikoyalar», «Dorian Grey portreti»** asarlarida xudbin va axloqiy tubanlikka ketgan kishilar obrazini yoritdi. Belgiyalik yozuvchi **Moris Meterlink (1862 – 1949)** insonni o'rab turgan dunyodan alohida ajratib olib tabiat qonunlariga yuzma-yuz qo'yadi.

V BO'LIM. DUNYO IKKI JAHON URUSHI ORALIG'IDA

23-BOB. G'ARB MAMLAKATLARI

23.1. XALQARO MUNOSABATLAR

Versal – Vashington tizimi. Birinchi jahon urushi **1918-yil 11-noyabr**da Germaniyaning Antantaga taslim bo'lishi bilan tugadi. G'olib Antanta bilan mag'lub To'rtlar ittifoqi o'rtasida imzolangan tinchlik shartnomasi matnini tuzish uchun **Parij**ga **27 davlat** delegatsiyasi to'plandi. Ular **Versal saroyi**da imzolangan tinchlik shartnomasini ishlab chiqish ustida **bir yil** ishladilar. **V.Vilson**ning **«14 moddasi»** asosida Versal saroyida **5 ta davlat (Germaniya, Avstriya, Vengriya, Bolgariya va Turkiya**) bilan imzolanadigan **5 ta shartnoma** matni tayyorlandi. Shu 5 ta shartnoma birgalikda **«Versal tizimi»** deb ataldi. Buyuk davlatlarning Osiyo va Tinch okeani havzasidagi munosabatlarini tartibga solish maqsadida **1921 – 1922-yillari Vashington** shahrida **9 ta davlat** ishtirokida konferensiya o'tkazildi. Bu konferensiyada uchta shartnoma imzolandi. Shu tariqa **Versal – Vashington tizimi** yuzaga keldi.

Parij tinchlik konferensiyasi. Parij konferensiyasi **1919-yil 18-yanvar**da o'z ishini boshladi. Konferensiya ochilishining aynan shu kunga belgilangani bejiz emasdi. **1870 – 1871-yil**gi Fransiya – Prussiya urushida g'olib Prussiya bilan yengilgan Fransiya o'rtasidagi shartnoma aynan shu saroyda **18-yanvar**da imzolangan va Germaniya imperiya deb e'lon qilingandi. G'oliblar Germaniyani tahqirlash uchun aynan shu kuni konferensiya ishini boshladilar. Konferensiyani kirish so'zi bilan ochgan Fransiya prezidenti **A.Puankare** o'z so'zida shunday degandi: *«Adolatsizlik bilan vujudga kelgan Germaniya imperiyasi o'z hayotini baxtsizlikda tugatdi»*. Tinchlik konferensiyasida **27 davlat** vakillari qatnashgan bo'lsa-da, amalda barcha asosiy masalalar «katta uchlik» (**AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya**) davlat rahbarlari tomonidan hal etildi. Ularning ichida Fransiya Bosh vaziri **Jorj Klemanso** o'zining jo'shqin nutqlari bilan ajralib turar va o'ta qiziqqonligi tufayli **«yo'lbars»** degan laqab olgandi. Konferensiyaga To'rtlar ittifoqi davlatlari va Sovet Rossiyasi taklif etilmadi.

«Katta uchlik» o'rtasidagi ziddiyatlar. Katta uchlik davlatlari urushda ittifoq bo'lgan esalar-da, ularning har biri Parij konferensiyasi qarorlari aynan o'z manfaatlariga mos kelishini istardilar. Xususan, **AQSh** o'zini

dunyoning yetakchi davlati, Yevropa davlatlariga bergan qarzi hamda Birinchi jahon urushining Antanta foydasiga hal bo'lishiga qo'shgan hissasi, shuningdek, Vilson ilgari surgan tinchlik dasturi AQShga jahonni ma'naviy idora qilish huquqini beradi deb hisoblardi. AQSh Buyuk Britaniya va Fransiya Yevropa siyosatini belgilovchi davlatlar bo'lib qolishini istamas, shuning uchun Germaniya butunlay kuchsizlantirilgan holatga tushirib qo'yilishiga qarshi edi.

Buyuk Britaniya Germaniyaning dengiz va iqtisodiy qudratini sindirganini o'zining katta yutug'i deb hisoblardi. Germaniyaning sobiq mustamlakalarini o'z imperiyasi tarkibiga qo'shib olishga intilardi. Ayni paytda, Fransiyaning Germaniya hisobiga kuchayishini ham istamasdi. Shuning uchun Fransiya Bosh vaziri **J.Klemanso**ning Buyuk Britaniya Bosh vaziri **D.Lloyd-Jorj**ga: *«G'alabadan keyin darhol Britaniya bizning dushmanimiz bo'lib qoldi»*, – deb ta'na qilgani bejizmas. Bunga javoban Lloyd-Jorj Klemansoga qarab kulib turib: *«Britaniyaning siyosati shunday emasmi?»* – deb javob qaytargan. Lloyd-Jorj Fransiya kuchayib ketishining hamda bolsheviklar solishi mumkin bo'lgan xavfning oldini olish maqsadida kuchli Germaniyaning saqlanib qolishidan manfaatdor edi. Qolaversa, Buyuk Britaniya AQShning jahon siyosatida tutgan o'rni, shuningdek, harbiy-dengiz qudrati tobora ortib borayotganidan tashvishda edi.

Fransiya katta uchlik ichida eng ko'p zarar ko'rgan davlat edi. Chunki urush harakatlari uning hududida olib borilgandi. Ayni paytda, u ham qarz beruvchi davlatdan qarzdor davlatga aylanib qoldi. Bu ham yetmagandek, Sovet hukumati podsho Rossiyasining chet davlatlardan olgan qarzini to'lashdan bosh tortgani Fransiya uchun qattiq zarba bo'ldi. Chunki chor hukumati eng ko'p qarzini Fransiyadan olgandi. Shuning uchun Fransiya barcha yo'qolgan boyliklar o'rnini Germaniya hisobidan qoplashni istardi. Qolaversa, Fransiya Germaniyaning nihoyatda kuchsizlantirilishi tarafdori edi. Fransiya nafaqat Germaniya undan tortib olgan hududlarni qaytarib olishni, ayni paytda, Germaniyaning **Saar ko'mir havzasi** va **Reyn daryosining so'l sohilidagi yerlar**ni ham qo'shib olishni istardi. Shuningdek, Fransiya Yevropaning **Ruminiya, Chexoslovakiya** va **Polsha** kabi davlatlaridan kelgusida Germaniyaga qarshi o'ziga xos ittifoq tuzish niyatida ham edi. Fransiya hukmron doiralari rejasiga ko'ra, bu davlatlar Sovet Rossiyasiga qarshi kurashda ham asqotishi lozim edi. «Katta uchlik» **Sovet Rossiyasiga qarshi kurash** masalasida yagona fikrda edi.

Versal tinchlik shartnomasining imzolanishi. **1919-yil 28-iyun**da Versal saroyida **Germaniya** bilan g'oliblar o'rtasida shartnoma imzolandi. Bu

shartnoma tarixga **Versal tinchlik shartnomasi** nomi bilan kirdi. Versal shartnomasi Germaniya va uning ittifoqchilarini urushning aybdorlari deb e'lon qildi. Shartnomaga ko'ra, Fransiya **Elzas** va **Lotaringiya**ni qaytarib oldi. Germaniyaning **Saar viloyati 15 yil** muddatga Millatlar Ittifoqi boshqaruviga berildi. 15 yildan so'ng bu viloyat taqdiri plebitsey yordamida hal etiladigan bo'ldi. Uning ko'mir havzasi shaxtalari Fransiyaning mulki bo'lib qoldi. Reyn daryosining chap sohilini **15 yil**ga Antanta okkupatsiya qildi. Reyndan Sharqqa qarab **50 km** hudud to'la demilitarizatsiyalashtirildi. Germaniya **Polsha va Chexoslovakiya** mustaqilligini tan oldi. Bir paytlar **Prussiya bosib olgan hududlar, Sharqiy Pomorye Polsha**ga berildi. Buning natijasida Polsha Boltiq dengiziga chiqish imkoniga ega bo'ldi. **Eypen, Malmedi** va **Moralle** okruglarida plebitsey o'tkazildi, natijada bu okruglar **Belgiya**ga o'tdi. **Klaypeda** esa **Litva**ga o'tkazildi. **Shlezvigning shimoliy qismi Daniya**ga, **Sileziyaning bir qismi Chexoslovakiya**ga berildi. **Gdansk shahri** esa Millatlar Ittifoqi boshqaruvidagi **«erkin shahar»** deb tan olindi. Shu tariqa Germaniya **1914-yil 1-avgust**ga qadar bo'lgan o'z hududining **1/8 qismi**ni yo'qotdi. Germaniya Avstriyaga bo'lgan da'volaridan voz kechishga majbur etildi. Avstriyaning mustaqilligi Antanta davlatlari tomonidan kafolatlanadigan bo'ldi.

Germaniya dunyodagi barcha mustamlakalaridan mahrum etildi va ular g'oliblar o'rtasida taqsimlandi. Chunonchi, Germaniyaning Afrikadagi mustamlakalari **Togo** va **Kamerun Buyuk Britaniya va Fransiya**ga o'tdi. Shuningdek, **Buyuk Britaniya**ga **Tanganika** (Germaniya Sharqiy Afrikasi); **Belgiya**ga **Ruanda** va **Urundi**; **Janubiy Afrika Ittifoqi**ga **Janubi-G'arbiy Afrika** (Namibiya); **Yaponiya**ga Tinch okeanidagi **Marshall, Marian** va **Karolin orollari**, Xitoyning **Szyaochjou viloyati, Shandun yarimoroli** berildi. Germaniyaga Antanta davlatlari foydasiga katta miqdorda reparatsiya to'lovi majburiyati yuklandi. Komissiya reparatsiya miqdorini **1921-yil 1-may**gacha belgilaydigan, Germaniya esa ungacha Antantaga **20 mlrd marka**ni oltin, mahsulotlar, kemalar va qimmatbaho qog'ozlar bilan to'lashi zarur edi. Reparatsiya muammosi **1921-yil aprel – may oylar**ida **London konferensiyasi**da hal etildi. Unga ko'ra, reparatsiya **132 mlrd oltin marka** miqdorida belgilandi. Uning **52 foizi Fransiya; 22 foizi Buyuk Britaniya; 10 foizi Italiya; 8 foizi Belgiya**ga; **Gretsiya, Ruminiya va Yugoslaviya**ga birgalikda **6,5 foiz; 0,75 foizi Yaponiya**ga to'lanishi kerak edi.

Germaniya uchun bunday katta miqdorda reparatsiya to'lash nihoyatda og'ir edi. Biroq uning rozi bo'lishdan boshqa iloji yo'q edi. *Versal shartnomasi Germaniyada umumiy harbiy majburiyatni taqiqladi. Germaniya*

suvosti flotiga, katta harbiy kemalarga, harbiy va dengiz aviatsiyasi va tank qo'shinlariga ega bo'lish huquqidan mahrum etildi. Shunday bo'lsada, Germaniyaga **100 ming kishilik** qo'shinga ega bo'lish (bu qo'shin faqat ko'ngillilar asosidagina tashkil etilishi mumkin edi) huquqi berildi. **Vudro Vilson**ning fikricha, bu qo'shin Germaniyaga ichki tartibni saqlash va bolshevizm xavfiga qarshi turish uchun zarur edi.

Millatlar Ittifoqining tuzilishi. **Millatlar Ittifoqi** (Millatlar Ligasi ham deyiladi) dunyo davlatlarining xalqaro tashkiloti edi. *Tashkilotning asosiy vazifasi tinchlikni va xalqaro xavfsizlikni ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak edi.* Bunday tashkilotni tuzish tashabbusi bilan **V.Vilson** chiqdi va bu uning 14 moddali tinchlik dasturida o'z ifodasini topgandi. Antantaning yetakchi davlatlari (Buyuk Britaniya va Fransiya) bu tashabbusni qo'llab-quvvatladi. **1919-yil 14-fevral**da dunyoning **44 davlati** tashkilotning **Nizomi**ni tasdiqladilar. Tashkilotning oliy organi **Assambleya** edi. Uning ishida barcha a'zo davlatlar qatnashardi. Assambleyalar oralig'ida Ittifoqning ishiga **Ittifoq Kengashi** rahbarlik qilardi. Unga katta vakolatlar berildi. Besh davlat (**AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Yaponiya**) Kengashning doimiy a'zolari edi.

Nizom agressor davlatga nisbatan birgalikda harbiy va iqtisodiy sanksiyalar (choralar) qo'llashni ham ko'zda tutardi. Biroq nizomda qanday davlat **agressor** davlat deyiladi degan savolga aniq javob yo'q edi. Bu esa har bir davlatga xalqaro nizomlar xarakterini o'zicha talqin etish imkonini berardi. Millatlar Ittifoqi faoliyat ko'rsatgan **1946-yil**gacha amalda biror marta ham jazo choralarini qo'llolmadi. Bunga Ittifoqning amalda **Buyuk Britaniya va Fransiya** siyosati quroliga aylanib qolgani sabab bo'ldi (AQSh Kongressi Versal shartnomasini tasdiqlamagani uchun Ittifoq a'zoligidan chiqqandi). Nizomda uning a'zolari zimmasiga *«barcha a'zolarning hududiy yaxlitligini hurmat qilish va asrash»* vazifasi ham yuklatilgandi. Biroq amaldagi Ittifoqning hech bir a'zosi bu vazifani bajarishga astoydil intilmagan. Millatlar Ittifoqi nizomida **«Mandat tizimi»** deb atalgan xalqaro huquqning yangi bir normasi belgilab qo'yildi. Unga ko'ra, Millatlar Ittifoqi mustamlaka bo'lib kelgan yoki bo'lib qolayotgan hududni boshqarish huquqini u yoki bu davlatga topshirishi mumkin edi. Bunday huquqni olgan ayyorona tizim mustamlakalarni bo'lib olish siyosatini niqoblovchi mash'um vosita vazifasini o'tadi.

Tinchlik shartnomalari. Fransiyada Germaniyadan tashqari urushda mag'lub bo'lgan davlatlar bilan alohida-alohida shartnomalar imzolandi. **Avstriya** bilan bunday shartnoma **1919-yil 10-sentyabr**da Parij yaqinidagi **Sen-Jermen** saroyida imzolandi. Shartnoma sobiq Avstriya-Vengriya

imperiyasi tugatilganini e'lon qildi. Avstriya hududi esa sezilarli o'zgartirildi. Xususan, **Janubiy Tirolning bir qismi Italiya** ixtiyoriga o'tkazildi. **Chexiya** va **Moraviya** yangi tuzilgan **Chexoslovakiya davlati**ga qo'shildi. **Bukovina** esa **Ruminiya**ga nasib etdi. Avstriya qo'shinlari soni **30 ming kish**idan oshmasligi belgilab qo'yildi. Floti Antanta ixtiyoriga o'tkaziladigan bo'ldi. Avstriyaning Germaniya bilan qo'shilishi taqiqlab qo'yildi.

1919-yil 27-oktyabrda Parijga yaqin **Neyi shahr**ida **Bolgariya** bilan shartnoma imzolandi. Shartnomaga ko'ra, Bolgariya hududining katta qismi **Yugoslaviya, Gretsiya** va **Ruminiya**ga o'tdi. Ayni paytda, unga **2,5 mlrd oltin frank** kontributsiya to'lash majburiyati yuklandi. Bolgariya qurolli kuchlari soni **20 ming**dan oshmasligi belgilandi.

1920-yil 4-iyulda Versal saroyining **Trianyon zal**ida **Vengriya** bilan shartnoma imzolandi. Shartnomaga ko'ra, Vengriya o'z hududining ancha qismidan mahrum etildi. **Xorvatiya, Bachka** va **Banatning g'arbiy qismi Yugoslaviya**ga o'tdi. **Ruminiya**ga **Transilvaniya** va **Banatning sharqiy qismi** berildi. **Chexoslavakiya**ga **Slovakiya** va **Karpatorti Ukrainasi** nasib etdi. Vengriyaga berilgan og'ir zarbalardan biri uning dengizga chiqish imkoniyatidan mahrum etilgani bo'ldi. Vengriya **30 ming kish**idan ortiq qurolli kuchga ega bo'lolmasdi.

1920-yil 10-avgustda Fransiyaning **Sevr shaharchas**ida **Turkiya** bilan shartnoma imzolandi. Shartnomaga ko'ra, Turkiyaga **1914-yil 1-avgust**gacha qaram bo'lgan hududlar **3/4 qism**ga kamaydi. *Uning hududi Kichik Osiyo va Istanbul shahrini o'z ichiga olgan Yevropadagi ozgina joy bilan cheklab qo'yildi.* **Istanbul** poytaxt sifatida qoldirildi. Biroq g'oliblar Turkiya Sevr shartnomasi talablarini bajarishdan bosh torta boshlasa, bu qarorni qayta ko'rib chiqish huquqiga ega edilar. Qora dengiz bo'g'ozlarining barcha davlatlar savdo va harbiy kemalari uchun ochiq ekani belgilab qo'yildi. Turkiyani bo'g'ozlardan o'z harbiy kuchlarini olib chiqib ketishga majbur etishdi. Aslida, bu shartlar **Buyuk Britaniya, Fransiya va Italiya** nazorati o'rnatilishiga imkon berdi. Turkiya o'z flotini Antanta ixtiyoriga topshirishi zarur edi. Boz ustiga, Turkiya armiyasi soni **50 ming kish**idan oshmasligi belgilandi. Sevr shartnomasi Turkiyada Antanta davlatlarining yarim mustamlaka tizimini o'rnatdi. Birinchi jahon urushi tugagach, Yevropada xalqaro kuchlarning yangi nisbati belgilangan Versal tizimi shu tariqa shakllandi. Bu tizim Yevropa siyosiy xaritasini qayta qurish va dunyoni qayta bo'lib olishni huquqiy jihatdan rasmiylashtirishning o'ziga xos shakli edi.

Vashington konferensiyasi. AQSh Kongressining yuqori palatasi (**Senat**) Versal shartnomasida AQShning manfaatlari hisobga olinmagan

degan vaj bilan bu shartnomani ratifikatsiya qilmadi. Jahon urushidan qudratli davlat bo'lib chiqqan AQSh **Osiyo – Tinch okeani mintaqasi**da yangi tartiblar o'rnatilishidan eng ko'p manfaatdor edi. Tabiiyki, o'rnatiladigan bu tartiblar AQShning manfaatlariga to'la mos kelishi shart edi. Chunki mintaqadagi davlatlararo munosabatlar **Buyuk Britaniya va Yaponiya** o'rtasida **1902-yili** imzolangan shartnomaga asoslanib kelmoqda edi. Birinchi jahon urushi yillarida qudratli harbiy-dengiz floti yaratolgan va flotning katta qismini Tinch okeaniga joylashtirgan AQShni bu holat mutlaqo qanoatlantirmasdi. Endi AQSh bu qudratli floti yordamida ushbu mintaqaning yetakchi davlati bo'lib olishni istardi. Buyuk Britaniya va Yaponiya mavqeyiga shu yo'l bilangina putur yetkazishi va ularning ittifoqini yo'qqa chiqarishi mumkin edi. Shu maqsadga erishish uchun AQSh yangi konferensiya chaqirilishiga erishdi.

Bu konferensiya **Vashingtonda 1921-yil 12-noyabrdan 1922-yil 6-fevralgacha** ish olib bordi. Konferensiya ishida Tinch okeani havzasida shakllantiriladigan yangi tartiblar bevosita o'z manfaatlariga daxldor bo'lgan **9 davlat** (**AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya, Portugaliya** va **Xitoy**) vakillari qatnashdi. Sovet Rossiyasi yana chaqirilmadi. Vashington konferensiyasida **3 ta muhim shartnoma** imzolandi. Ularning birinchisi **1921-yil 13-dekabr**da imzolangan **«To'rtlar shartnomasi»** (**AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya va Yaponiya**) edi. Bu shartnoma Tinch okeanidagi qaram orollar va mulklar xavfsizligining kafolati hamda bu joylarga nisbatan manfaatlarni birgalikda himoya qilish masalasiga oid edi.

1922-yil 6-fevralda **«Beshlar shartnomasi»** (**AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya va Italiya**) deb nomlangan shartnoma imzolangan. Bu shartnoma xalqaro munosabatlar tarixida **qurollanishni cheklovchi birinchi shartnoma** edi. Shartnoma bo'yicha, **AQSh va Buyuk Britaniya** harbiy-dengiz flotining umumiy suv sig'imi **525 ming**, **Yaponiya** flotiniki **315 ming**, **Fransiya va Italiya** flotlariniki (har biriniki) **175 ming tonna**dan oshmasligi kerak edi. Qolaversa, tomonlar suv sig'imi **35 ming tonna**dan ortiq kema qurmaslik yoki sotib olmaslik majburiyatini oldilar. Shu tariqa AQSh o'zining dengizdagi asosiy raqibi Buyuk Britaniyaning dunyodagi eng qudratli harbiy-dengiz flotiga ega bo'lish niyatini yo'qqa chiqardi. Ayni paytda, bu shartnoma suvosti floti xususida hech qanday cheklashni belgilamadi. *Bu shartnoma matnida Yaponiya AQSh va Buyuk Britaniyaning Yaponiya sohillariga 5 ming km dan yaqin masofada harbiy-dengiz qarorgohi qurmaslik majburiyatini qayd etoldi.*

6-fevralda uchinchi shartnoma – **«To'qqizlar shartnomasi»** imzolandi. U Xitoyga oid edi. Ma'lumki, Xitoy ham Versal shartnomasini imzolamagan. Buning sababi Germaniyaning Xitoydagi mustamlakalari Xitoyga qaytarib berilmay, Yaponiyaga berib yuborilgani edi. AQSh bu mustamlakalar Xitoyga qaytarib berilishiga erishdi. *Qolaversa, «To'qqizlar shartnomasi» Xitoy suvereniteti va hududiy yaxlitligi tan olinishini e'lon qildi hamda 9 davlat Xitoyni ta'sir doiralariga bo'lib olishga intilmaslik majburiyatini oldilar. Ayni paytda, shartnomada Xitoy bilan munosabat o'rnatishda ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar tamoyili barcha davlatlar uchun barobar ekani ta'kidlandi.*

Vashington konferensiyasi qarorlari Versal shartnomasiga qo'shimcha sifatida Osiyo – Tinch okeani mintaqasidagi kuchlarning yangi nisbati uchun asos bo'ldi va Versal – Vashington tizimini nihoyasiga yetkazdi.

Versal – Vashington tizimining mustahkam emasligi. Versal – Vashington tizimi urushdan keyingi keskinlikni ma'lum darajada yumshatishga xizmat qildi. Uning bu xizmati xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi hamda urushga nizoli masalalarni hal etish vositasi sifatida qaramaslik tamoyillarining tan olinishida ko'rinadi. Qolaversa, Millatlar Ittifoqining tuzilishi hamda qator Yevropa davlatlari mustaqilligining tan olinishi katta ahamiyatga molik tarixiy voqealar edi. Biroq Versal – Vashington tizimi mustahkam tinchlikning qaror topishiga asos bo'lolmadi.

Birinchidan, Antanta davlatlari urushdan keyingi qayta qurishlarning barcha og'irliklarini yengilgan davlatlar hisobidan hal etishga urindilar. Ular yengilgan davlatlar xalqlarining urush chiqarishda aybdor hukmron sulolalari va hukumatlarini ag'darib tashlaganlarini inobatga olmadilar. Bular, o'z navbatida, yengilgan davlatlar fuqarolari ongida milliy xo'rlanish tuyg'usini qo'zg'atdi. Bu esa shovinizm va milliy mustaqillik g'oyalarining keng ildiz otishiga yo'l ochdi. *Ikkinchidan,* milliy davlatlar tuzishda tuzatib bo'lmas suiiste'molliklarga yo'l qo'yildi. Yangi davlatlar chegaralari shunday belgilandiki, natijada **19 mln ga yaqin kishi** o'zi mansub bo'lgan millat nomi bilan atalgan davlat fuqarosi bo'lolmay qoldi. Ular boshqa davlatlarda **«milliy kam sonli xalqlar»** atamasi ostida yashay boshladilar. *Uchinchidan,* yangi tashkil etilgan davlatlar bir-biriga chegara da'vosi bilan istalgan paytda chiqishi mumkin edi. *To'rtinchidan,* Versal – Vashington tizimi shartnomalarining amalda bajarilishini ta'minlovchi kuchli mexanizm (vositalar) vujudga keltirilmagandi. Millatlar Ittifoqiga bunday vakolat berilmagandi. Antanta davlatlari ham bunga qodir emasdilar. Chunki kecha ittifoqchi bo'lgan bu davlatlar o'rtasida urushdan keyin vujudga kelgan ziddiyatlar amalda ittifoqchilik majburiyatlarini yo'qqa chiqargan-

di. *Beshinchidan*, sobiq Germaniya va Turkiya imperiyalari xalqlariga mustaqillik amalda mandat tizimining vasiylik tamoyili bilan niqoblandi, xolos. Buyuk Britaniya va Fransiya **«buyuk vasiylar»** ham bo'lib oldilar. Mustamlaka xalqlar milliy ozodlik kurashini davom ettirdilar. *Oltinchidan,* Versal – Vashington tizimiga kiruvchi birorta ham shartnomani imzolamagan **Sovet davlati** bu tizimga nisbatan muxolifat bo'lib qoldi.

20-yillarda xalqaro munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari. **20-yillar** tarixga **«patsifizm erasi»** nomi bilan kirdi. Bu hodisa xalqaro munosabatlarda ham o'z aksini topdi. Shuning uchun katta kamchilik va adolatsizliklarga qaramay, Versal – Vashington shartnomasi o'zida patsifizm ruhini aks ettirgandi va 20-yillarda xalqaro munosabatlarda vaqtinchalik bo'lsa-da barqarorlikni ta'minlay oldi. Biroq Versal – Vashington tizimi g'olib davlatlar o'rtasidagi hamda g'oliblar va yengilganlar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etmadi.

AQSh **20-yillar oxiri**ga kelib Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya va Yaponiya birgalikda ishlab chiqargan sanoat mahsulotlaridan ko'p mahsulot ishlab chiqara boshladi. Chetga sarmoya joylashtirish miqdori bo'yicha Buyuk Britaniyaga yetib oldi. AQShning maqsadi xalqaro maydonda Buyuk Britaniya gegemonligiga chek qo'yish, Germaniyaning Fransiya tomonidan asoratga solinishiga yo'l qo'ymaslik, uni Yevropada Fransiyaga bas keluvchi raqibga aylantirish edi. O'z navbatida, yengilgan davlatlar va urush natijasida kam o'lja tekkan mamlakatlar o'ch olish ishtiyoqida yonmoqda edi. Biroq **20-yillar**da ham Yevropada patsifistik kayfiyat va urushga qarshi harakat kuchli edi. Buyuk davlatlar hukmron doiralari bu omil bilan hisoblashishlari shart edi.

Reparatsiya muammosi. **Fransiya** Yevropada yagona qudratli davlat bo'lish uchun kurashardi. Shu bois u eng ko'p sonli armiya tuzdi. Biroq uning qudrati bundan keyin qanday bo'lishi Germaniya to'laydigan reparatsiyaga ham bog'liq edi. Binobarin, uning Yevropada yetakchi davlat bo'lish orzusi mustahkam iqtisodiy tayanchga ega emasdi. Germaniyadan reparatsiya olish masalasini Fransiyaning yakka o'zi hal etolmasdi. Bu muammoni hal etish tashabbusi AQSh qo'liga o'tgandi. Reparatsiya va Yevropa davlatlarining AQShga qarzini to'lashi masalasi bilan shug'ullanuvchi maxsus **Xalqaro qo'mita** bu masala borasida **1924-yili** Amerika bankiri **Daues rejasi**ni qabul qildi. Unga ko'ra, Germaniya dastlab yiliga **1 mlrd marka**dan reparatsiya to'lashi, keyinchalik esa **3 mlrd marka**ga yetkazilishi lozim edi. **1929-yili** bo'lib o'tgan **Gaaga xalqaro konferensiyasi** bu masalada Amerika vakili **Yung rejasi**ni qabul qildi. Unga ko'ra, Germaniya to'laydigan reparatsiya miqdori **2 mlrd marka** hajmida

chegaralab qo'yildi. Reparatsiyaning umumiy miqdori kamaytirildi. Jahon iqtisodiy inqirozi boshlangach esa **1931-yil**dan Fransiya raqiblari taklifi bilan Germaniyaning reparatsiya to'lash majburiyati to'xtatildi.

Davlatlararo munosabatlarning yanada keskinlashuvi. Germaniya to'laydigan reparatsiya miqdorining kamaytirilishi Fransiyani tashvishga solib qo'ydi. Boz ustiga, AQSh Germaniya qudratini tiklash yo'lida katta yordam ko'rsatmoqda edi. Shu bois **1927-yil apre**lda Fransiya tashqi ishlar vaziri **A.Brian** AQShga urushdan milliy siyosat quroli sifatida voz kechish haqida shartnoma imzolash to'g'risidagi taklif bilan murojaat etdi. Patsifistik kayfiyat hukmron bo'lgan bir sharoitda AQSh va boshqa davlatlar bu taklifni qabul qilmay ilojlari yo'q edi. Natijada **1928-yil** davlat vakillari **Brian – Kellog** (AQSh davlat kotibi) **pakti** deb atalgan paktni imzoladi. Biroq hujjat bajarilmadi.

Sovet davlati buyuk davlatlar o'rtasidagi va ular bilan boshqa davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlardan ustalik bilan foydalandi. G'arb davlatlari Sovet davlatini yakkalab qo'yishga intilsalar-da, u **1922-yil apre**lda **Genuya**ga yaqin joy – **Rappalo**da **Germaniya** bilan shartnoma imzolashga erishdi. *Shartnomaga ko'ra, tomonlar bir-biriga nisbatan barcha da'volardan, jumladan, qarz va tovonlardan ham voz kechdilar.* **1924-yil** Sovet davlatini Yevropaning barcha mamlakatlari tan oldi. Sovet davlati G'arb davlatlari bilan tinch-totuv yashash masalasiga sinfiy kurashning xalqaro maydondagi shakli sifatida qarardi. Shu bois bu munosabat doimiy emas, G'arb davlatlari harbiy intervensiya uyushtirishi mumkin deb hisoblardi. G'arb esa **Rossiya** va **Komintern** tomonidan inqilobning eksport qilinishi mumkinligidan cho'chirdi. Shuning uchun o'zaro munosabatlarda hadiksirash mavjud edi. **1925-yili Lokarno konferensiyas**ida imzolangan **«Reyn kafolat pakti»**ga Sovet davlati keskin norozilik bildirdi. Chunki bu paktga ko'ra, buyuk davlatlar **Belgiya** va **Gollandiya** chegaralari daxlsizligini *kafolatlaganlari holda, bunday kafolat* **Sharqiy Yevropa davlatlari** uchun joriy etilmadi. Sovet davlati esa o'z chegaralari xavfsizligini ta'minlash maqsadida **Germaniya, Turkiya, Litva** va **Afg'oniston** bilan betaraflik to'g'risida shartnoma imzoladi.

30-yillarda xalqaro munosabatlar. 30-yillarda xalqaro munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri Versal – Vashington tizimining barbod bo'lishi hamda G'arb va Sharqda urush o'choqlarining vujudga kelishi, dunyoning yangi urush sari qadam bosishidan iborat. **Jahon iqtisodiy inqirozi** yillarida (**1929 – 1933**) Versal – Vashington tizimining barbod bo'lishi yanada tezlashdi. Yevropada kuchlar nisbatida keskin o'zgarishlar yuz berdi, davlatlar o'rtasida raqobat yanada kuchaydi. Bu

raqobat, ayniqsa, qurollanish poygasida yaqqol namoyon bo'ldi. AQSh-ning qo'llab-quvvatlashi bilan Germaniya xavfsizlik tizimi doirasida tenglik huquqini qo'lga kiritdi. Bu tenglik huquqi amalda Germaniyaning harbiy qudratini tiklash huquqini tan olish bilan barobar edi. Versal tinchlik shartnomasining shu tarzda taftish qilinishi sobiq g'oliblar va mag'lublar ahvolini o'zgartirdi. Ayniqsa, Fransiyaning ahvoli yomonlashdi. **30-yillar boshi**dayoq Germaniya tomonidan uning xavfsizligiga tahdid solinayotgani sezila boshladi. Shunday sharoitda **1932-yili Fransiya Sovet davlati** bilan o'zaro hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma imzoladi.

Uzoq Sharqda ham vaziyat keskinlashdi. **Xitoy Buyuk Britaniya, AQSh va Yaponiya** munosabatlari keskinlashgan maydonga aylanib qoldi. Yaponiya **«Buyuk Osiyo»** imperiyasini yaratish ishtiyoqi bilan yonmoqda va shu niyatda **1931-yili** Xitoyga hujum qildi va **Manjuriya**ni bosib oldi. Shu tariqa yangi jahon urushining birinchi o'chog'i vujudga keldi. Germaniyada fashizm doiralari Birinchi jahon urushidagi mag'lubiyat uchun o'ch olish, qolaversa, jahonga hukmron bo'lish orzusida edilar. Versal shartnomasi amalda inkor etildi. **1935-yili** umumiy harbiy majburiyat joriy etildi va **Saar viloyati** qo'shib olindi. **1936-yil mart**da Germaniya qo'shinlari demilitarizatsiyalashtirilgan zonani egalladi va qurollanish poygasini avj oldirdi. Shu tariqa yangi jahon urushining ikkinchi o'chog'i paydo bo'ldi.

Bu davrda fashistik Italiya ham faollashdi. **1935-yil oktyabr**da uning qo'shinlari **Efiopiya**ga bostirib kirdi. **1936-yil bahor**ga kelib bu davlat Italiya mustamlakasiga aylandi. Bu urush Yevropa fashist davlatlarining ochiqdan ochiq agressiyaga o'tishi edi. **1936-yil iyun**da Germaniya va Italiya fashistlari Ispaniya fashizmiga qurolli yordam ko'rsatdilar. Buyuk Britaniya va Fransiya Ispaniya ishlariga aralashmaslik siyosatini e'lon qildi. Bu bilan ular amalda Ispaniya Respublikasining ag'darilishiga ko'maklashdilar. **1939-yili** Ispaniyada general **Franko**ning fashistik tartibi o'rnatildi.

Ayni paytda, yangi jahon urushi tashabbuskorlari bo'lgan davlatlar ittifoqi qaror topdi. Xususan, **1936-yil noyabr**da Germaniya va Yaponiya **«Antikomintern pakti»** deb atalgan paktni imzoladilar. **1937-yili** bu paktga Italiya ham qo'shildi. Shu tariqa **Berlin – Rim – Tokio uchburchagi** – dunyoni kuch ishlatish yo'li bilan qayta bo'lishga intilayotgan 3 davlat agressiv ittifoqi vujudga keldi. Bundan ruhlangan Yaponiya Xitoyda yanada yirik bosqinchilik harakatlarini boshladi. Germaniya esa Avstriyani bosib oldi.

30-yillarda xalqaro munosabatlarga xos yana bir xususiyat shu ediki, jahon jamoatchiligining katta qismi urushni xohlamas, urushga

faqat ba'zi davlatlargina intilmoqda edi. Shunday bo'lsa-da, urushning oldini olishning iloji bo'lmadi. *Birinchidan,* G'arb davlatlari jahon iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf etish bilan band bo'lib qoldilar. Natijada bu omil Germaniyaning urush xavfiga jamoa bo'lib kurashish qobiliyatini pasaytirib yubordi. *Ikkinchidan,* jamoaviy xavfsizlik tizimi kuch ishlatishni inkor etmasdi. Binobarin, tinchlikni saqlab qolish jasoratni, har qanday qurbonlarga tayyor turishni talab etardi. Biroq yaqindagina tugagan Birinchi jahon urushining qonli oqibatlari kishilarni dahshatga solib qo'ygandi. Shu bois jamoatchilik fikri yangi qurbonlar berishga tayyor emasdi. Bu holat yangi urushning oldini olishga qodir davlatlar (Buyuk Britaniya, Fransiya) siyosatida passivlik, ehtiyotkorlik va noizchillikni keltirib chiqardi. AQShda esa aralashmaslik kayfiyati kuchli edi. *Uchinchidan,* G'arb Gitlerning hokimiyat tepasiga kelgani qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligiga o'z vaqtida to'g'ri baho berolmadi. Buyuk Britaniya va Fransiya **«tinchlantirish»** siyosatini yuritdi. *To'rtinchidan,* bir tomondan, Buyuk Britaniya va Fransiya o'z xavfsizliklarini Germaniya agressiyasini Sharqqa, Moskvaga qarshi burib yuborish yo'li bilan saqlab qolishga intilgan bo'lsalar, Sovet davlati, o'z navbatida, xavfsizligini har qanday vositalar bilan bo'lsa-da saqlab qolishga intildi.

1934-yili Fransiya va Sovet davlati jamoaviy xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma loyihasini ishlab chiqqanlarida, Buyuk Britaniya uni qabul qilmadi. Fransiya va Sovet davlati **1935-yili** o'zaro yordam to'g'risida shartnoma imzoladilar. Bunday shartnoma ikkala davlat tomonidan **Chexoslovakiya** bilan ham imzolandi. Bu orada Gitlerning ishtahasi kun sayin o'sib bordi. **1938-yili** u Chexoslovakiyaning **Sudet** viloyatini talab qildi. Bu masala **1938-yil 29-sentyabr**da **Myunxen**da Yevropa buyuk davlatlari rahbarlari o'rtasida muhokama etilib, Sudetni Germaniyaga berishga qaror qilindi. Gitler **1939-yil 15-mart**da Chexoslovakiyani to'la bosib oldi. **1939-yil 21-mart**da Polshadan **Gdansk**ni talab qildi. **22-mart**da Litvaga qarashli **Klaypeda**ni egalladi.

Aprelda Italiya armiyasi **Albaniya**ga bostirib kirdi. Shu tariqa tinchlantirish siyosati barbod bo'ldi. Fashist davlatlarining bejazo g'olibona harakatlari jamoatchilikda bundan buyon agressiyaga yon bosish mumkinmasligi fikrini keltirib chiqardi. Sovet rahbariyati Germaniya va Yaponiya solayotgan xavfdan cho'chiy boshladi. **1939-yil mart**da Buyuk Britaniya Sovet davlatiga **Fransiya va Polsha** bilan o'zaro hamkorlik haqida deklaratsiya imzolashni taklif etdi. **I.Stalin** esa o'zaro aniq majburiyatlar qayd etilgan uch tomonlama shartnoma imzolashni va Germaniyaning bo'lajak agressiyasini qaytarish uchun **Polsha va Ruminiya** hududiga

Sovet armiyasini kiritish huquqi berilishi shartini qo'ydi. Polsha va Ruminiya hukmron doiralari bu shartni sovetlarning Sharqiy Yevropada o'z nazoratini o'rnatishga intilishi deb qabul qilmadilar. Buyuk Brtaniya va Fransiya Polsha va Ruminiyani sovetlar taklifiga ko'ndirish choralarini izlamadilar. Natijada Moskva Buyuk Britaniya va Fransiya Sovet davlati bilan muzokaralarni Gitlerga tazyiq o'tkazish uchungina olib bormoqda, aslida, ularning maqsadi sovetlarga qarshi Gitler bilan kelishish deb hisobladi. Uch buyuk davlat bir-biriga ishonmasdi. Shuning uchun **1939-yil 12-avgust**da **Moskva**da boshlangan ingliz – sovet – fransuz muzokaralari natijasiz tugadi.

Gitlerning asosiy maqsadi Sovet davlati, Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasida shartnoma tuzilishini barbod etish, Polshaga hujum qilish oldidan sovetlarning betaraf qolishiga erishish edi. Natijada **1939-yil 23-avgust**da **Sovet davlati bilan Germaniya** o'rtasida o'zaro hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma imzolandi. Shartnoma **10 yil** muddatga tuzildi. Unda tomonlarning biri boshqa davlat bilan urushga tortilganda, ikkinchi tomon betaraf qolishi yozib qo'yilgan. Shartnomaga yashirin ahdnomalar ham ilova qilingandi. *Unga ko'ra, Sharqiy Yevropani Sovet davlati va Germaniyaning ta'sir doiralariga bo'lib olish nazarda tutilgandi.* Gitler **Finlyandiya**, **Latviya**, **Estoniya va Bessarabiya**ni Moskvaning ta'sir doirasida deb, o'z navbatida, I.Stalin **Litva**ni Germaniya ta'sir doirasida deb tan oldi. Shuningdek, yashirin ahdnomada kelgusida **Posha**ni ham bo'lib olish ko'zda tutilgandi. Polshaga hujum qilish haqida uzil-kesil qarorga kelgan Germaniya esa **1939-yil 1-sentyabr**da polyak yerlariga bostirib kirdi. **3-sentyabr**da Buyuk Britaniya va Fransiya Germaniyaga urush e'lon qildi. Shu tariqa **Ikkinchi jahon urushi** boshlandi.

23.2. SOVET DAVLATI

Bolsheviklar hokimiyat tepasida. Bolsheviklar o'zlari qurmoqchi bo'lgan jamiyatni **kommunistik jamiyat** deb ataganlar. Ularning fikricha, bu jamiyat o'z taraqqiyotida ikki bosqichni bosib o'tishi kerak edi. Birinchi bosqichni **sotsializm**, ikkinchi bosqichni esa **kommunizm** deb ataganlar. *Sotsializm kommunistik jamiyatning quyi bosqichi, kommunizm esa yuqori bosqichi edi.* U sotsializmning yuksak taraqqiyoti natijasida vujudga kelardi. **1917-yil 14-noyabr**da Sovet hukumati xususiy zavod va fabrikalarda ishchi nazoratini o'rnatish to'g'risida qaror chiqardi. **Noyabr oxiri**da yirik sanoatni milliylashtirish (davlat ixtiyoriga olish) boshlandi. **14-dekabr**da esa xususiy banklarni, temir yo'l transportini milliylashtirish,

tashqi savdoga davlat monopoliyasini o'rnatish, ichki va tashqi qarzlarni bekor qilish haqida dekret qabul qilindi. Shu tariqa **1918-yil bahori**ga kelib yirik xususiy sanoatning talaygina qismi: **ko'mir, metallurgiya, neft, kimyo, mashinasozlik, to'qimachilik va qand sanoati, transport, savdo floti va tashqi savdo** milliylashtirildi. Bu tadbirlar shunday shiddatkorlik va murosasizlik, terror yo'li bilan amalga oshirildiki, bolsheviklar rahbari **V.I.Lenin** mazkur hodisani **«kapitalga qizil gvardiyachasiga hujum qilish»** deb baholadi. Mulkdorlar jon saqlash maqsadida chet elga qochdi.

Xalq xo'jaligi davlat sektorini boshqarish maqsadida **1917-yil 1-dekabr**da **Xalq xo'jaligi Oliy Kengashi** tuzildi. Kengashga juda katta vakolatlar berildi. Jumladan, u istalgan korxonani musodara qila olar, egallab olar, shuningdek, yopib qo'yardi. **1918-yil bahori**dan **«Yer to'g'risida»gi dekret**ni amalga oshirish boshlandi. *Barcha yer davlat mulki deb e'lon qilindi. Pomeshik yer egaligi tugatildi. Yerni dehqonlarga taqsimlab berish boshlandi. Yerga ishlov berishda yollanma mehnatdan foydalanish taqiqlandi. Yerni taqsimlash jarayonida Sovet hokimiyati faqat kambag'al dehqonlar manfaatini ko'zlab ish tutdi. Bu esa o'rtahol (o'ziga to'q) va boy dehqonlar (quloqlar – yerga ishlov berishda yollanma mehnatdan foydalanuvchilar)ning keskin noroziligiga sabab bo'ldi.* Bolsheviklar quloqlarni **qishloq burjuaziyasi** ham deb atashardi. Tovar g'allaning asosiy qismi quloq xo'jaliklarida yetishtirilardi. Sovet hukumati siyosatidan norozi bo'lgan quloqlar o'z g'allalarini davlat belgilagan narxda sotishdan bosh tortdilar. Natijada mamlakatda oziq-ovqat tanqisligi ro'y berdi. Barcha markaziy sanoat guberniyalarida ochlik boshlandi. **Petrograd va Moskva**da ishchilarga **50 gm** dan non beriladigan bo'ldi.

Shunday sharoitda Sovet hukumati g'alla yetishtiruvchi asosiy tabaqa – quloqlar bilan sog'lom aql nuqtayi nazaridan til topishish o'rniga zo'ravonlik siyosatini qo'llashga o'tdi. **1918-yil may**idan mamlakatda oziq-ovqat diktaturasi o'rnatildi. Oziq-ovqat komissarligiga (vazirligiga) favqulodda vakolatlar berildi. Mamlakatda don bilan erkin savdo-sotiq qilish taqiqlandi. Donga qat'iy baho belgilandi. Dehqonlar o'zlariga iste'mol va urug' uchun belgilangan normada g'alla qoldira olar, qolganini esa davlatga topshirishga majbur edilar. G'allani yashirganlar «xalq dushmani» deb e'lon qilinardi va ularni **10 yillik ozodlikdan mahrum etish** hamda **mol-mulkini musodara qilish** jazosi kutardi.

1918-yildayoq quloqlardan **13 mln pud don** va **50 mln gektar yer** tortib olindi. Davlat, ayni paytda, dehqonlarga bo'lib berilganidan ortib qolgan yerda sovet xo'jaligi (**sovxoz**), ya'ni sovet davlatining qishloq

xo'jalik korxonasini tuza boshladi. Sovxozlarda ishlovchilar qishloq xo'jaligi ishchilari hisoblanardi. **1918-yil oxiri**ga kelganda sovxozlar soni **3 mingdan ortiq** bo'lib, ularning yer maydoni **2 mln desyatina**ga yaqin edi. Sovxozlardan tashqari dastlabki jamoa xo'jaligi – yerni birgalashib ishlovchi shirkatlar ham tuzila boshlandi. Bu shirkatlarga, asosan, hech narsasi yo'q dehqonlar va batraklar birlashgandilar.

Fuqarolar urushi va chet el intervensiyasi. Umumiy ko'lamdagi fuqarolar urushi **1918-yil yozi**dan boshlandi va **1920-yil oxiri**gacha davom etdi. Ayni shu yillar davomida Antanta davlatlari bosqinchilik yurishlari ham uyushtirdi. Shuning uchun **1918-yil yozidan 1920-yil oxirigacha** bo'lgan davr Sovet davlati tarixiga fuqarolar urushi va chet el intervensiyasi davri sifatida kirdi. **1918-yil yanvar**da **Ruminiya** Sovet hukumatining og'ir ahvolidan foydalanib **Bessarabiya**ni bosib oldi. **Mart-aprel oylari**da **Buyuk Britaniya, Fransiya va AQSh Murmansk** va **Arxangelsk**ka, **Yaponiya, AQSh, Buyuk Britaniya Uzoq Sharq**qa qo'shin tashladi. **Turkiya** esa **Armaniston** va **Ozarbayjonning katta qismi**ni bosib oldi. **Buyuk Britaniya** qo'shinlari esa **Turkmanistonning bir qismi**ni egalladi. Antanta davlatlari Birinchi jahon urushi yillarida Avstriya-Vengriyaning asir olingan Rossiyadagi chex va slovak millatiga mansub askarlaridan foydalanishga ham qaror qildilar. Antanta Muvaqqat hukumat bilan kelishgan holda ulardan alohida **chexoslovak korpusi** deb atalgan korpus tuzdi va qurollantirdi. **45 ming kishilik** korpus Antanta qo'mondonligiga bo'ysunardi.

Biroq Sovet hukumati urushdan chiqqach bu harbiy korpusning urush harakatlarida qatnashishiga yo'l qo'ymadi. Korpusni mamlakat hududidan chiqarib yuborishni istadi hamda uning **Vladivostok** orqali **Fransiya**ga jo'nab ketishiga ruxsat berdi. Korpusning eshelonlari Volgadan to butun Transsibir temir yo'l magistrali bo'ylab cho'zilib ketgandi. **1918-yil may oyi oxiri**da korpus Sovet hokimiyatiga qarshi isyon ko'tardi. Aslida, bu Sovet davlatiga qarshi Antanta uyushtirgan ochiq harbiy hujum edi. Ularga Sovet hokimiyatining barcha ichki dushmanlari qo'shildi. Isyonchilar qisqa vaqt ichida **Volgabo'yi, Ural, Sibir va Uzoq Sharq**ni egalladilar va u yerlarda Sovet hokimiyatini ag'darib tashladilar. Shu tariqa fuqarolar urushi va chet el intervensiyasi davri boshlandi. Bolsheviklar armiyasi **qizil armiya** deb, ularning ichki dushmanlari armiyasi esa **oq gvardiyachilar** deb atala boshlandi.

1918-yil yozi oxiriga kelganda Sovet hokimiyati ahvoli nihoyatda og'irlashdi. Ana shunday sharoitda hukumat qator qat'iy va favqulodda choralar ko'rdi. Qizil armiyada mustahkam tartib o'rnatildi. **1918-yil**

oxiriga kelib qizil armiya soni **1 mln kishi**ga yetkazildi. Sobiq podsho Rossiyasining **75 ming** general va zobitlarini o'z tomoniga tortishga erishdi. Ularsiz zamonaviy muntazam armiya tuzib bo'lmasdi. Armiyadan qochganlar uchun eng og'ir jazo belgilandi. Qolaversa, Sovet hukumati Sovet davlatini **«yagona harbiy lager»** deb e'lon qildi.

1918-yil sentyabrda V.I.Leninga suiqasd uyushtirilgach, mamlakatda **qizil terror** tartibi joriy etildi. **80 mingdan ortiq kishi** konsentratsion lagerlarga tashlandi. Ayni paytda, Sovet hokimiyati **1919-yil**dan mamlakatda **«harbiy kommunizm»** siyosatini joriy etdi. Uning mazmunini **oziq-ovqat razvyorstkasi** deb atalgan tartib joriy etilgani tashkil etdi. *Oziq-ovqat razvyorstkasi dehqonlarning o'zlaridan ortiqcha qishloq xo'jalik mahsulotlarining hammasini davlatga majburan topshirishi edi.* Davlatga g'alla och qolayotgan shahar aholisini va qizil armiyani non bilan ta'minlash uchun zarur edi. Qolaversa, «harbiy kommunizm» xususiy savdoning batamom taqiqlanishi, pulning bekor qilinishi, oziq-ovqat mahsulotlarini tenglik tamoyili asosida taqsimlash, faqat yirik va o'rta sanoatgina emas, hatto mayda sanoatni ham milliylashtirish, boshqaruvning o'ta markazlashtirilishi ham edi. «Harbiy» so'zi bu siyosatning fuqarolar urushi va harbiy intervensiya davrida qo'llanilganini anglatadi.

Frontlardagi o'zgarishlar. To'rtlar ittifoqining yengilishi Antantaga Sovet Rossiyasi hududiga kiritilgan qo'shinlar sonini ko'paytirishga imkon berdi. Chunonchi, **1919-yil fevral**da Antantaning Rossiya **janubiy hudud**iga tashlagan qo'shini soni **130 ming**, **Uzoq Sharq va Sibir**dagi qo'shini esa **20 ming kishi**ga yetkazildi. Ayni paytda, Antanta oq gvardiyachilarni qo'llab-quvvatlay boshladi. **1918-yil 18-noyabr**da **Sibir**da hokimiyat oq gvardiyachi admiral **A.V.Kolchak** qo'liga o'tdi. U o'zini Rossiyaning Oliy hukmdori deb e'lon qildi. **1919-yil yanvar**da **shimol**da **general E.K.Miller**, **shimoli-g'arb**da **general Yudenich**, **janub**da **A.I.Denikin** diktaturasi o'rnatildi.

Biroq Antanta o'z niyatiga yetolmadi. Uning qo'shinlari mahalliy aholi, qizil armiya qismlarining qattiq qarshiligiga uchradi. Qolaversa, ularga bolsheviklarning tinimsiz tashviqotlari ham qattiq ta'sir ko'rsatdi. Natijada ular Sovet hokimiyatiga qarshi kurashdan bosh torta boshladilar. Ish hatto ularning o'z hukumatlari intervensiya siyosatiga qarshi isyon ko'tarishlarigacha borib etdi. Isyonning eng yirigi **Odessa** va **Sevastopol**da turgan **fransuz harbiy kemalari**da yuz berdi. Jangchilarning to'la bolsheviklashuvidan xavfsiragan Antanta Oliy kengashi **1919-yil aprel**idan o'z qo'shinlarini Sovet Rossiyasi hududidan olib chiqib ketdi. Endi ularning asosiy umidi oq gvardiyachilar edi. Antanta

davlatlari ularga har tomonlama yordam ko'rsatdilar. **1919-yil mart**da A.V.Kolchak qo'mondonligidagi yaxshi qurollangan **300 ming kishilik** armiya hujumga o'tdi. **S.S.Kamenev** va **M.V.Frunze** qo'mondonligidagi sovet armiyasi **1920-yil boshi**da A.V.Kolchak armiyasini tor-mor etdi. Uning o'zi asir olindi va otib tashlandi.

1919-yil yozida Janubiy frontda hal qiluvchi janglar boshlandi. **3-iyul**-da general A.I.Denikin armiyasi hujum boshladi. Biroq u ham maqsadiga yetolmadi. **A.I.Yegorov** qo'mondonligidagi Janubiy front qo'shinlari **oktyabr**da A.I.Denikin armiyasining asosiy qismini tor-mor etdi. Uning qolgan qismiga qo'mondonlik qilish **1920-yil apre**lda general **P.N.Vrangel** qo'liga o'tdi va ular **Qrim**da mustahkamlanib oldi. **1920-yil iyun**da P.N.Vrangel armiyasi hujumga o'tdi. Biroq **M.V.Frunze** qo'mondonligidagi Janubiy front qo'shinlari uning hujumini to'xtatdi. **28-oktyabr**da esa qarshi hujumga o'tib, Qrimni to'la egalladi. Oq gvardiyachilarning qolgan-qutganlari, ularga tarafdor fuqaro qochoqlar kemalarda chet elga jo'nab ketdilar. Shunday qilib, Sovet Rossiyasida oq gvardiyachilar to'la tor-mor etildi.

Sovet – Polsha urushi. Fransiya mablag'iga qurollantirilgan Polsha armiyasi **1920-yil 25-apre**lda **Sovet Ukrainasi**ga hujum qildi va **6-may**da **Kiyev**ni bosib oldi. Polsha hukmron doiralari maqsadi **Boltiq dengizidan Qora dengizgacha** cho'ziladigan **Buyuk Polsha davlati**ni vujudga keltirish edi. Biroq bu maqsad amalga oshgani yo'q. **1920-yil 14-may**da **M.N.Tuxachevskiy** qo'mondonligidagi G'arbiy front va **A.I.Yegorov** qo'mondonligidagi Janubi-G'arbiy front qo'shinlari qarshi hujumga o'tdilar. **Iyul**da Polsha armiyasi mamlakat hududidan surib chiqarildi. Sovet davlati rahbariyati urush harakatlarini to'xtatmadi. Hukumat qizil armiya oldiga hujumni davom ettirish, Polsha poytaxtini egallash va Polshada sovet hokimiyatini e'lon qilish uchun barcha zarur harbiy-siyosiy sharoit yaratish vazifasini qo'ydi. Hujum davom etayotgan bir sharoitda hatto **F.E.Dzerjinskiy** (Butunrossiya favqulodda komissiyasi raisi) boshchiligida bo'lajak **Sovet Polshasi hukumati** tuzildi. Biroq barcha zarur ta'minotdan ajralib qolgan Sovet davlatining G'arbiy front qo'shinlari **Varshava** ostonalarida mag'lubiyatga uchradi, shu tariqa Polshani sovetlashtirish siyosati barbod bo'ldi. **1920-yil oktyabr**da Polsha – Rossiya yarash bitimi, **1921-yil mart**da esa tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra, **Ukraina va Belorussiyaning g'arbiy qismlari Polsha**ga o'tdi.

Polshani «sovetlashtirish» siyosati barbod bo'lgan esa-da, Sovet hukumati bu siyosatni boshqa chekka o'lkalardagi xalqlarning milliy ozodlik harakatini qonga botirish orqali amalga oshirdi. **1920-yil apre**lda

Ozarbayjonda, **noyabr**da esa **Armanistonda**, **1920-yil fevral – mart oylari**da **Gruziya**da shunday qilindi. O'rta Osiyoni sovetlashtirish maqsadida **Turkiston ASSR** tuzildi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rnida **1920-yil fevral**ida **Xorazm**, **oktyabr**da esa **Buxoro Xalq Respublikalari** tuzilgani e'lon qilindi. A.V.Kolchak armiyasi tor-mor etilgach, qizil armiya **1920-yil bahori**da Uzoq Sharq tomon yurish boshladi. Uzoq Sharqni bu davrda **Yaponiya** egallab olgandi. **1922-yili** qizil armiya **Vladivostok**ni egalladi va Uzoq Sharq oq gvardiyachilar hamda interventlardan tozalandi. Shu tariqa fuqarolar urushi va chet el intervensiyasi bolsheviklar g'alabasi bilan tugadi.

1919-yildan Sovet hokimiyati o'rtahol dehqonlarga nisbatan siyosatni o'zgartirdi. Agar avvalgi yillarda u o'rtahol dehqonlarni betaraf qoldirish siyosatini yuritgan bo'lsa, endi uni o'z tomoniga og'dirish siyosatini yurita boshladi. Ayni paytda, Sovet davlati Antanta davlatlari o'rtasidagi ziddiyatlardan ustalik bilan foydalanoldi. Chunonchi, o'ziga qo'shni davlatlar: **Finlyandiya, Estoniya, Latviya** va **Litva** bilan tinchlik shartnomalari, **Shvetsiya** va **Daniya** bilan o'zaro manfaatli savdo shartnomalari imzolay oldi.

Yangi iqtisodiy siyosat. Fuqarolar urushi va chet el intervensiyasi natijasida Sovet Rossiyasi katta talafot ko'rdi. Chunonchi, xalq xo'jaligiga yetkazilgan zarar **50 mlrd oltin so'm**ni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishi **1920-yili 1913-yil**ga qaraganda **7 baravar**, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish esa **3 foiz**ga kamaydi. Urush maydonlarida, shuningdek, ochlik va kasallik, oq va qizil terror natijasida **8 mln kishi** halok bo'ldi. **2 mln kishi** siyosiy boshpana izlab mamlakatdan chiqib ketdi. Ularning **75 mingdan ortig'i** ilg'or va talantli ziyolilar edi. Ishchilar soni **2 baravar** kamaydi. Ularning ma'lum qismi sinfiy qiyofasini yo'qotdi. Ishsizlik kuchaydi, bu hol ularda afsuslanish, loqaydlik, tushkunlik kayfiyatini kuchaytirdi. Ishchilar orasida ham sovet hokimiyati siyosatidan norozilik kuchayib bordi. Ishchilar madadi sovetlar uchun hayot-mamot masalasi edi. **1920-yil oxiri**ga kelib dehqonlar oziq-ovqat razvyorstkasi siyosatiga ochiqdan ochiq qarshi chiqa boshladi.

Bu tahdid sovet hokimiyati uchun qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini **3,5 mln li** qizil armiyaning **77 foizi**ni dehqonlar tashkil etganidan ham bilsa bo'lardi. Ahvol shaharlarda ish tashlashga, qishloqlarda esa dehqonlarning isyoni kuchayishigacha borib yetdi. Norozilik armiyaga ham kirib bordi. **1921-yil fevral**da **Kronshtadt harbiy-dengiz qal'asi**da isyon ko'tarildi. Sovet hukumati isyonni kuch bilan bostirdi. Sovet hukumati «harbiy kommunizm» siyosatini bekor qilishga, **1921-yil bahori**da

uning o'rniga **yangi iqtisodiy siyosat** (NEP)ni joriy etishga majbur bo'ldi. Uning asosiy yo'nalishlarini mashhur iqtisodchi **M.A.Lorin** ishlab chiqqan.

Yangi iqtisodiy siyosat «harbiy kommunizm»dan quyidagi xususiyatlari bilan farq qilardi: 1. *Razvyorstka o'rniga oziq-ovqat solig'i joriy etildi.* Bu soliq, birinchidan, razvyorstkadan **2 baravar** kam edi. Ikkinchidan, u oldin e'lon qilib qo'yildi. Ayni paytda, uning miqdori qat'iy va o'zgarmas edi. Bu hol dehqonga soliq uchun to'langan miqdordan ortib qolgan donni o'ziga olishga imkon berardi. Endi dehqon uni bozor narxida erkin sotish imkoniga ega bo'ldi. Yakkahol dehqonlar qishloq xo'jalik mahsulotlarining **98,5 foizi**ni ishlab chiqaradigan bo'ldi. 2. *Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida milliylashtirilgan mayda va o'rta korxonalar egalariga qaytarib berildi.* Xususiy shaxslarga bunday korxonalarni ochishga ruxsat etildi. Qolaversa, ishlab chiqarish vositalari ijarasi joriy etildi. 3. *Chet el kapitali kirib kelishiga ruxsat etildi. Ular Sovet davlati korxonalarini ijaraga ola boshladilar*, qo'shma korxonalar qurishga ruxsat etildi. **20-yillar o'rtalari**ga kelganda kapitalistik sektor sanoat mahsulotining **27 foizi**ni ishlab chiqara boshladi. Chakana savdoning **75 foizi**, ulgurji savdoning esa **18 foizi** xususiy soha qo'lida to'plandi. 4. *Korxonalarning xo'jalik hisobi asosida ishlashi joriy etildi.* Bu korxonalarning asta-sekin o'z xarajatlarini o'zi qoplash, o'znini o'zi pul bilan ta'minlash imkonini berardi. 5. *Mehnatga qarab ish haqi to'lash qayta tiklandi.*

Yangi iqtisodiy siyosat tez orada o'z samarasini ko'rsatdi. **1922-yili** mahsulotlarni taqsimot asosida berish bekor qilindi. **1925-yil**ga kelib don yetishtirish **1909 – 1913-yillar** oralig'idagi yillik ko'rsatkich darajasidan oshdi. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish bo'yicha **1926-yili 1913-yil**gi ko'rsatkichga erishildi. Sanoat mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarishda **1913-yil** ko'rsatkichiga **1926 – 1927-yillari** erishildi. Iste'mol buyumlari ishlab chiqarish esa **1913-yil**gi ko'rsatkichning **72 foizi**ni tashkil etdi.

SSSRning tashkil etilishi. **1922-yil 30-dekabr**da to'rtta respublika yagona davlat – **SSSR**ga birlashdilar. Bular: **RSFSR, Ukraina, Belorussiya va Zakavkazye Sovet Federativ Sotsialistik Respublikalari Ozarbayjon, Armaniston va Gruziya**ni birlashtirgandi. Ularning vakolatli vakillari syezdi (**SSSR sovetlarining I syezdi**) **1922-yil 30-dekabr**da SSSR tuzilgani haqida Deklaratsiya va Shartnoma qabul qildi. **1924-yili** esa bu yangi davlatning Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Bu imperiya **1940-yil**gacha boshqa millatlar haq-huquqlarini poymol qilish hisobiga kengaya bordi. Ular Turkistonni **5 ta davlat**ga bo'lib yubordilar. Bu yerda **O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston**

va **Qozog'iston**ni tuzdilar. **1925 – 1936-yillar** oralig'ida ular birin-ketin *«ixtiyoriy ravishda»* qizil imperiya tarkibiga kiritildi. Bu imperiya **15 ta** *«mustaqil», «tenglar ichida teng»* respublikalardan iborat edi. Aslida, Rossiya tarkibidagi mustamlakalar edi.

Industrlashtirish. Sovet hukumati **20-yillar**da sotsializm qurish deb nomlangan rejani amalga oshirishga kirishdi. Sobiq Sovet davri tarix kitoblarida bu reja **«sotsializm qurishning lenincha plani»** deb ataladi va uch qismdan, *ya'ni mamlakatni industrlashtirish, qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish va madaniy inqilobni amalga oshirishdan iborat edi.* Bolsheviklar (kommunistlar) partiyasining **1925-yili** bo'lib o'tgan **XIV syezdi** industrlashtirish yo'lini e'lon qildi. Industrlashtirish yirik mashinalashgan ishlab chiqarishni yaratish jarayoni degani edi. Bu jarayon, eng avvalo, og'ir sanoatni (energetika, metallurgiya, mashinasozlik, neft kimyosi va boshqalar) rivojlantirishni ko'zda tutardi. Chunki davlat rahbarlari fikricha, bu sohalarni rivojlantirmay turib «kapitalistik qurshov»ga qarshi turib bo'lmasdi. Buning uchun yangi iqtisodiy siyosatdan voz kechildi. Xo'jalikni boshqarish o'ta markazlashtirildi.

Xalq xo'jaligi **«besh yillik planlar»** deb atalgan direktiv rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan bo'ldi. Hukumat o'z maqsadini ro'yobga chiqarishni qattiq repressiya siyosati bilan qo'shib olib bordi. Bu tadbirlar o'z samarasini berdi. **1929 – 1937-yillar** oralig'ida jami **6 mingga yaqin** yirik sanoat korxonasi (**yiliga 600 – 700**) qurildi. **1937-yil**ga kelib Sovet davlati sanoat mahsuloti ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda AQShdan so'ng **2-o'rin**ga chiqib oldi. Chetdan **100 turdan ortiq** mahsulot sotib olinmaydigan bo'ldi va texnik-iqtisodiy jihatdan boshqa davlatlarga qaramlikdan qutuldi. Biroq aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarishda buyuk davlatlardan ancha ortda qolgandi.

Qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish. Bolsheviklar partiyasining **XV syezdi 1927-yili** qishloq xo'jaligini to'la kollektivlashtirish to'g'risida qaror qabul qildi. Qishloq **30-yillar oxiri**gacha to'la kollektivlashtirildi. Ular o'zlarining bu siyosatini **qishloqni sotsialistik asosda qayta qurish** deb atadilar. Kollektivlashtirish natijasida qishloqda yakka tartibda faoliyat yurituvchi o'rtahol dehqon xo'jaliklarini tugatib, ularning o'rnida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kollektiv (jamoa) mehnat asosida yetishtiruvchi xo'jalik (**kolxoz**) vujudga keltirildi. Jamoa xo'jaliklari xo'jalik hisobi asosida faoliyat yuritdi. Davlat yeridan foydalangani uchun hamda topgan daromadlari yuzasidan davlatga soliq to'lagan. Aholi biror-bir tabaqasining xususiy mulk shaklida yeri bo'lmagan.

Dehqonlar majburan kolxozlarga birlashtirila boshladi. Bunga qar-

shi **1930-yili** dehqonlarning **1600 marta** qurolli chiqishlari bo'lib o'tdi. Kollektivlashtirish jarayonida jami **9 mln kishi** quloq qilindi. Xususan, O'zbekistonda quloq qilinganlarning katta qismi Ukrainaning **Xerson viloyati**ga surgun qilindi. U yerda ular paxta yetishtirishga majbur etildi. Qolgan dehqonlar jon saqlash maqsadida kolxozlarga kirishga majbur bo'ldilar.

Majburiy kollektivlashtirish oqibatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish keskin kamaydi. Natijada **1932 – 1933-yillari** ocharchilik bo'ldi va **5 mln dan ortiq kishi** ochlikdan qirilib ketdi. Kollektivlashtirish natijasida dehqonlar soni **1/3 qism**ga kamaydi, jami g'alla yetishtirish amalda ko'paymagan bo'lsa-da, davlatga g'alla sotish **1937-yili 1928-yil**-ga nisbatan **3 baravar** ko'paydi. Bunga qishloq xo'jaligini xonavayron qilish hisobiga erishildi.

Madaniy inqilob. Madaniy inqilobning asosiy vazifasi eski tuzumdan meros qolgan madaniy qoloqlikni tugatish, sotsialistik ziyolilarni shakllantirish, madaniyatni partiya siyosatiga bo'ysundirish va jamiyatda yagona mafkura – kommunistik mafkura hukmronligini qaror toptirishdan iborat bo'ldi. Bolsheviklar yangi sotsialistik madaniyat asosini marksistik mafkura tashkil etadi deb hisoblardilar. Binobarin, sotsialistik madaniyat proletariatning (ishchilarning) sinfiy kurashi vazifalariga xizmat qilishi zarur edi. Bolsheviklarning madaniyat sohasidagi siyosatiga ziyolilar qarshi turdilar. Ular aholining **2,2 foizi**ni tashkil etardi. **1917-yili** ziyolilarning **10 foizdan kamrog'i** bolsheviklar partiyasi, bir qismi kadetlar va liberal sotsialistlar partiyalari safida bo'lsa, asosiy qismi betaraf pozitsiyada turdi. Sovet davlati o'zining jazo organi **BFK (Butunrossiya favqulodda komissiyasi), 1922-yil**dan **DSB (Davlat siyosiy boshqarmasi), 1923-yil**dan **BDSB (Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi)** yordamida ziyolilarni ta'qib etish siyosatini yuritdi.

1922-yili alohida organ – **Glavlit** tashkil etildi. *Uning ruxsatisiz gazeta, jurnal chiqarish va kitoblar chop etish mumkin emasdi.* Bolsheviklar partiyasi hokimiyat tepasida mustahkamlanib olgach sotsialistik ziyolilarni shakllantirish siyosatini yurita boshladi. Bu ziyolilar yangi tuzumga sadoqat bilan xizmat qilishga da'vat etildi. **1927-yil**ga kelib mamlakatda **148 ta institut va universitet** ishlay boshladi (**1917-yili** ularning soni **95 ta** bo'lgan). Mafkura kadrlarini tayyorlash uchun **1918-yili kommunistik universitet, 1921-yili K.Marks va F.Engels instituti, Qizil professorlar instituti, Sharq mehnatkashlarining kommunistik universiteti, 1923-yili V.I.Lenin instituti** ochildi.

Tabiiy, aniq va texnika fanlarini ham imkoni boricha kommunistik maf-

kuraga xizmat qildirishga harakat qilindi. Sovet davlati **30-yillar oxiri**ga kelib xalq xo'jaligi uchun o'zining sof mutaxassislarini kerakli miqdorda tayyorlashga erishdi va **1930-yili** umumiy majburiy boshlang'ich ta'lim joriy etildi. **1932-yili 8 – 11 yoshli** bolalarning **98 foizi** maktablarga qatnay boshladi. **1934-yili** esa **10 yillik** ta'lim joriy etildi. **1939-yil**ga kelib SSSR aholisining **81,2 foizi** savodli edi.

Cherkov va masjidlar mol-mulkdan mahrum etildi. Dinning jamiyat hayotidagi ijobiy o'rni butunlay inkor etildi hamda din va dindorlarga qarshi kurash avj oldirildi. Ko'plab din arboblari qatag'on qilindi. Sovet jamiyatining har bir a'zosi mafkuralashtirilgan biror-bir tashkilotga jalb etilgandi. Masalan, eng ishonchli kishilar kompartiya safiga (**2 mln**), ongli yoshlar komsomolga (**9 mln**), bolalar pioner tashkilotiga, ishchi va xizmatchilar kasaba uyushmalariga (**22,5 mln**), adabiy va badiiy ijodkorlar uyushmalarga birlashtirilgandi.

20 – 30-yillarda SSSRning tashqi siyosati. **1921-yili** Sovet davlati o'zining janubiy qo'shnilari – **Turkiya, Eron va Afg'oniston** bilan diplomatik munosabatlar o'rnatdi. **1922-yili** Germaniya amalda Sovet davlatini tan oldi va ikki davlat o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar rivojlana boshladi. **1924-yili** Buyuk Britaniya Sovet davlatini tan oldi. Buyuk davlatlar orasida faqat **AQSh** uni tan olishni paysalga sola boshladi. Sovet davlati o'z tashqi siyosatining strategik yo'nalishini belgilashda o'z xavfsizligiga sobiq Antanta davlatlari tahdid solishi mumkinligini hisobga oldi va shu bois G'arb davlatlari, birinchi navbatda, Buyuk Britaniya va Fransiya siyosatini diqqat bilan kuzatib bordi. Ayni paytda, G'arb davlatlari o'rtasida imzolangan **Lokarno shartnomasi**ga qarshi chiqdi. *Lokarno shartnomasi Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Chexoslovakiya va Polsha o'rtasida imzolangan va Germaniyani Millatlar Ligasiga qabul qilishga kelishilgandi.* **1925 – 1927-yillari** Sovet hukumati **Turkiya, Litva, Eron va Afg'oniston** bilan betaraflik va bir-biriga hujum qilmaslik haqida shartnomalarni imzolashga erishdi.

1928-yili buyuk davlatlar o'rtasida *«Siyosatda urushdan voz kechish va barcha kelishmovchilik hamda nizolarni tinch vositalar yordamida hal etish to'g'risida»* shartnoma imzolandi. Sovet hukumatining qat'iy talabi bilan G'arb davlatlari shartnomani uning ham imzolashiga rozilik berishga majbur bo'ldilar. **1932-yili** Sovet davlati **Finlyandiya, Estoniya, Polsha va Fransiya** bilan o'zaro hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma imzolanishiga erishdi. **1931-yili** Uzoq Sharqda **Yaponiya** harbiy harakatlarni boshlab yubordi. **1933-yili** Germaniyada fashizmning hokimiyat tepasiga kelishi xalqaro ahvolga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Endi Sovet davlati

Germaniya va Yaponiya bilan munosabatlarni ehtiyotkorlik, ehtiroslarga berilmaslik tamoyili asosida qurish lozim deb hisoblardi. Sovet hukumati **1935-yili Italiya**ning Efiopiyaga qarshi agressiyasini qoraladi. General Frankoning Ispaniyada fashistik diktatura o'rnatishiga qarshi kurashayotgan kuchlarga harbiy va moliyaviy yordam ko'rsatdi. Ularga yordam uchun ko'ngillilarni jo'natdi.

Kollektiv xavfsizlik tizimini vujudga keltirish muammosi. Fashizm xavfi kuchayib borayotgan bir davrda Fransiya **kollektiv xavfsizlik** tizimini vujudga keltirish taklifi bilan chiqqandi. Sovet davlati **1933-yili**yoq bu g'oyaning faol tarafdorlaridan biriga aylandi. Chunki Germaniya fashizmining antikommunistik tig'i, uning nemis kommunistlariga nisbatan tutayotgan siyosati Sovet davlatini befarq qoldirmadi. Xavfsizlik tizimi uchun kurash Sovet davlati xalqaro ahvoli yaxshilanishiga xizmat qildi. **1933-yili** AQSh Sovet davlatini tan oldi va u bilan diplomatik aloqa o'rnatdi. **1934-yili** esa Qizil imperiya **Millatlar Ligasi**ga qabul qilindi.

Biroq kollektiv xavfsizlik tizimini vujudga keltirish ishiga qo'shilgan real hissa **1935-yili** Sovet davlatining **Fransiya va Chexoslovakiya** bilan o'zaro yordam to'g'risidagi shartnomani imzolashi bilan cheklanib qolgan. Vaholanki, qudratli siyosiy doiralar bu shartnomalarning amalda bajarilishiga ishonmasdilar. Fransiya Buyuk Britaniyaning Germaniyaga nisbatan qo'llayotgan «tinchlantirish» siyosatiga qo'shildi. **1938-yili Myunxen shartnomasi** imzolangach, Sovet davlati kollektiv xavfsizlik tizimini yaratib bo'lmasligiga qat'iy ishondi. Myunxen shartnomasi **1935-yili** Sovet davlatining Fransiya va Chexoslovakiya davlatlari bilan imzolangan shartnomalarini amalda quruq qog'ozga aylantirib qo'ydi. Boz ustiga, Fransiya tez orada Germaniya bilan shartnoma imzoladi. Moskvada «imperialistik davlatlar» o'zaro nizolarni Sovetlar hisobidan hal etmoqchi degan qat'iy fikr paydo bo'ldi.

1938-yili Yaponiya bilan yuz bergan harbiy to'qnashuv Sovet davlatining bu fikrini yanada mustahkamladi. Moskva endi ikki frontda – G'arbda Germaniya bilan, Sharqda esa Yaponiya bilan urushga tortilishdan xavfsirab qoldi. Bu Sovet davlati rahbariyatini o'z tashqi siyosatini qayta ko'rib chiqishga undadi. **1939-yili** Yaponiyaning **Mo'g'ulistonga** hujum qilishi Moskvaning Germaniya bilan yaqinlashishga bo'lgan moyilligini yanada kuchaytirdi. Chunki Yaponiya bilan to'qnashish muqarrar edi. Holbuki, Moskva ikki frontda urushga tortilishni aslo istamasdi. *1939-yil 23-avgustda Sovet davlati bilan Germaniya o'rtasida 10 yil muddatga o'zaro hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma imzolandi.* Bu shartnoma Buyuk Britaniya va Fransiyaning Sovetlar hisobiga Germaniya bilan

kelishishdek mash'um niyatlarini puchga chiqardi. Ayni paytda, u Germaniyaga urush harakatlarini boshlashga yo'l ochib berdi.

23.3. GERMANIYA

Birinchi jahon urushining mamlakat uchun oqibatlari. Germaniya va uning ittifoqchilari Birinchi jahon urushida mag'lubiyatga uchradi. Germaniya urushda **2 mln dan ortiq** qurbon berdi. Yarador bo'lganlar, asirlar va bedarak yo'qolganlarni qo'shganda jami yo'qotish **7,5 mln kishi**ni tashkil etdi. Hukmron doiralar, monopoliya egalari urushdan juda katta foyda ko'rdilar (*masalan, birgina Krupp konsernining daromadi 15 baravar ortdi*). Natijada yirik mulkdorlar mamlakat hayotida qudratli ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy kuchga aylandilar va hukumat siyosatiga katta ta'sir ko'rsata boshladilar. Urush mehnatkash tabaqalarga katta salbiy oqibatlar keltirdi. Umumiy mehnat majburiyati ishchilar uchun amalda katorgaga teng edi. Urush qishloq xo'jaligiga ham katta talafotlar keltirdi. **1918-yil kuzi**ga kelganda ekin maydonlari amalda **2 baravar** kamaygandi. Ochlik, epidemiyalar va cho'zilib ketgan urush azoblari aholi boshiga juda katta talafotlar keltirdi. Aholining bunday qismati mamlakatda inqilobiy vaziyatni yuzaga keltirdi.

Germaniya inqilobi **1918-yil 3-noyabr**da boshlandi. Shu kuni **Kil shahr**ida joylashgan harbiy dengizchilar urush davom etishiga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Kil ishchilari esa qo'zg'olonni qo'llab-quvvatlab, umumiy ish tashlash e'lon qildilar. Shaharda ishchilar va soldatlar sovetlari tashkil etildi. Inqilob to'lqini **9-noyabr**da **Berlin**ga yetib keldi va butun mamlakatga yoyildi. Qo'rqib ketgan **Vilgelm II** mamlakatdan qochdi. Shu tariqa Germaniyada monarxiya ag'darildi. Mamlakatda hokimiyat Xalq vakillari soveti qo'liga o'tdi. **10-noyabr**da tuzilgan yangi hukumatga Germaniya sotsial-demokratik partiyasining yirik arboblaridan biri – **F.Ebert** rahbarlik qilgan. Bu hukumat Germaniyani respublika deb e'lon qildi va u **11-noyabr**da Antanta bilan dastlabki yarash bitimi imzoladi. Bitimning imzolanishi yangi hukumatning xalqaro maydonda tan olinishi degani edi. *Unga ko'ra, mamlakatda qamal holati bekor qilindi, so'z, yig'ilish o'tkazish, uyushmalarga birlashish erkinligi e'lon qilindi. Shuningdek, siyosiy mahbuslarga amnistiya e'lon qilindi. Birinchi marta umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri, yashirin ovoz berish yo'li bilan saylov o'tkazish joriy etildi.*

Hukumat demobilizatsiya qilingan soldatlarni, ishsizlarni ish bilan ta'minlash va ijtimoiy himoya qilish tadbirlarini ko'ra boshladi. **15-noyabr**da kasaba uyushmalari bilan ish beruvchilar o'rtasida kelishuvga

erishildi. *Unga ko'ra, kasaba uyushmalari, ularning jamoaviy shartnoma tuzish va korxonalarda ishchi nazoratini olib boruvchi qo'mitalar tuzish huquqlari tan olindi.* Qolaversa, hukumat eng yirik korxonalarni davlat ixtiyoriga o'tkazish huquqiga ega bo'ldi. Hukumat Konstitutsiyani ishlab chiqish uchun **Ta'sis yig'ilishi** chaqirishga va'da berdi.

Germaniya ijtimoiy harakatidagi bo'linish. Germaniyada eng ommaviy va nufuzli partiya **Germaniya sotsial-demokratik partiyasi** (GSDP) edi. Biroq bu partiyada hech qachon yagona birlik bo'lmagan. Partiya amalda **o'nglar, markazchilar** va **so'llar** deb atalgan **3 oqim**ga bo'lingandi. O'ng oqim (yirik namoyandalari **F.Ebert, Sheydeman, Bernshteyn, Noske**)ning maqsadi burjua tartiblarini saqlab qolish, islohotlar o'tkazib, aholini ijtimoiy himoya qilish va mamlakatda parlament respublikasini to'la qaror toptirish edi. So'llar esa (yirik namoyandalari **K.Libknext, R.Lyuksemburg**) monarxiyaga inqilobiy yo'l bilan to'la barham berish, Rossiyadagidek sotsialistik jamiyat qurish uchun kurashdilar. So'llar **«spartakchilar»** degan guruhga birlashdilar. Keyinchalik shu guruh asosida **Germaniya kommunistik partiyasi** tuzildi. Markazchilar (yirik namoyandalari **K.Kautskiy, Gaaze**) **1917-yil bahor**ida Germaniya mustaqil sotsial-demokratik partiyasini tuzdilar va partiya vakillari Ebert hukumati tarkibiga kirdi.

«Spartakchilar» guruhi sotsialistik inqilobni amalga oshirish, sovet hokimiyatini o'rnatish va barcha ishlab chiqarish vositalarini umumlashtirish uchun kurash boshladilar. Biroq **1918-yil dekabr**da o'tkazilgan **Sovetlarning I Umumgerman syezdi** *«Butun hokimiyat sovetlarga!»* shiorini rad etdi. Ayni paytda, u **1919-yil 19-yanvar**da Ta'sis majlisiga saylov o'tkazishga qaror qildi. «Spartakchilar» **1918-yil 30-dekabr**da **Germaniya kommunistik partiyasi**ni tuzdilar. **5-yanvar**da **Berlin**da ishchilarning stixiyali qurolli chiqishi ro'y berdi. Ularning maqsadi Ebert hukumatini ag'darish edi. Bu chiqish **12-yanvar**da hukumat tomonidan bostirildi. **15-yanvar**da esa K.Libknext va R.Lyuksemburg o'ldirildi. Shu tariqa o'ng sotsial-demokratlar o'z hokimiyatini ochiq shaklda terrorchilik yo'li bilan yanada mustahkam qaror toptirdilar. Kommunistlar kurashni davom ettirishdi. **13-aprel**da ular Germaniyaning **Bavariya o'lkasi**da sovet hokimiyatini o'rnatdilar va **Bavariya Sovet Respublikasi** tuzilganini e'lon qildilar. Biroq bu respublika atigi **3 hafta** yashadi. Lekin Sovet Rossiyasi hukumati andazasi asosida qator tadbirlarni (*ishchi nazoratini tashkil etish, qizil armiya va BFQ tuzish, ishlab chiqarish vositalarini davlat mulki deb e'lon qilish va h.k.*) amalga oshirdi. **19-yanvar**da Ta'sis majlisiga bo'lib o'tgan saylovlarda o'nglar va markazchilar g'alaba qozondi.

Kommunistlar esa saylovda ishtirok etishmadi.

Veymar Respublikasi. Ta'sis majlisi osoyishta **Veymar shahr**ida o'z ishini boshladi. Shu bois Ta'sis majlisida qabul qilingan Konstitutsiya va uning asosida tuzilgan Respublika Germaniya tarixiga **Veymar Respublikasi** nomi bilan kirdi. Konstitutsiya Germaniyani kuchli prezidentlik hokimiyatiga ega federativ respublika deb e'lon qildi. Hukumatning prezident oldida emas, parlament (**reyxstag**) oldida javobgarligi belgilab qo'yildi. **F.Ebert** Germaniyaning **birinchi prezidenti** etib saylandi. Konstitutsiyada xususiy mulkning muqaddas va daxlsizligi qayd etildi hamda **20 yosh**dan erkak va ayollar uchun yalpi saylov huquqi berildi. *So'z, yig'ilish, matbuot erkinligi e'lon qilindi va referendum o'tkazish mumkinligi belgilab qo'yildi.*

Hukumat reyxstagda ko'p o'rin olgan partiya yoki partiyalar ittifoqi tomonidan tuziladigan bo'ldi. Bosh vazir (**kansler**) prezident tomonidan tayinlansa-da, reyxstagga hisob berardi. **Ikki palatadan** iborat qonun chiqaruvchi hokimiyat ta'sis etildi. Quyi palata (**reyxstag**) butun Germaniya bo'yicha yalpi ovoz berish yo'li bilan saylanardi. Yuqori palata (**reyxsrat**) esa belgilangan normalarda o'lka va viloyatlar vakillaridan iborat bo'lardi. Reyxsrat **veto huquqi**ga ega edi. Davlat boshlig'i – prezidentga juda katta vakolatlar berilgandi. *U bir vaqtning o'zida Respublika qurolli kuchlari oliy bosh qo'mondoni hisoblanardi. Prezident reyxstagni tarqatib yuborish va unga yalpi saylov belgilash huquqiga ega bo'ldi. Shuningdek, prezidentga lozim bo'lganda favqulodda dekretlar chiqarish yo'li bilan mamlakatni boshqarish, majburlash choralarini qo'llash huquqi berildi. Prezident Konstitutsiyaning u yoki bu moddalari amal qilishini to'xtatib ham qo'ya olardi. Prezidentning yalpi ovoz berish yo'li bilan 7 yil muddatga saylanishi belgilab qo'yildi.*

Veymar Respublikasi inqirozining boshlanishi. Germaniyada demokratik respublika tuzumining qaror topishi va yangi siyosiy tizimning barqarorlashuvi juda qiyin kechdi. **1919-yildan 1923-yil oxirigacha** mamlakatda keskin siyosiy vaziyat saqlanib turdi. Buning sababi, bir tomondan, Versal shartnomasi va Veymar Konstitutsiyasiga qarshi kuchlarning bosh ko'targani edi. Bu kuchlar Versal shartnomasi va Veymar Konstitutsiyasini tan olmadilar. Ular mamlakatda monarxiyani qayta tiklash orzusida edilar. Bu kuchlar **1920-yil 13-mart**da monarxist **V.Kapp** va **general E.Ludendorf** boshchiligida davlat to'ntarishi o'tkazish uchun isyon ko'tardilar. V.Kapp o'zini kansler deb e'lon qildi va parlament tarqatib yuborildi. Qo'rqib ketgan hukumat Berlindan qochib ketdi. Ana shunday sharoitda Germaniyada **12 mln ishchi va xizmatchi** isyonga qarshi

norozilik belgisi sifatida ish tashladi. Bu hodisa isyonchilarni chekinishga majbur etdi. **1922-yili V.Kuno** boshchiligidagi hukumat mamlakatda millatchilik g'oyalarini avj oldirdi. Shuningdek, Antanta davlatlariga tovon to'lamaslikni zo'r berib targ'ib qila boshladi. Bunga javoban **Fransiya va Belgiya** armiyasi **Rur viloyati**ni ishg'ol etdi. Bu voqea mamlakatda og'ir vaziyatni yanada og'irlashtirib yubordi. Natijada V.Kuno hukumati iste'fo berishga majbur bo'ldi.

1923-yili Germaniya kommunistik partiyasi **E.Telman** boshchiligida **Gamburg**da qo'zg'olon ko'tardi. Bu qo'zg'olonni Komintern moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlagandi. So'llarning bu avantyurasi tezda bostirildi. Shu yil **8-dekabr**da **Myunxen**da bir guruh fashistlar fashistik diktatura o'rnatish talabi bilan mitingga to'plandilar. **A.Gitler** boshchiligidagi bu isyon ham bostirildi. **1924-yil**ga kelgandagina Germaniyada vaziyat barqarorlasha boshladi. Bu barqarorlikning iqtisodiy asosi **«Daues rejasi»** edi.

«Daues rejasi». AQSh Germaniyaning butunlay zaiflashtirib qo'yilishini istamasdi. Chunki bu AQShning doimiy raqiblari – Buyuk Britaniya va Fransiyani yanada kuchaytirgan bo'lardi. Qolaversa, AQShga yangi raqib – Sovet davlatini jilovlashda qudratli Germaniya kerak edi. Shu bois AQSh Germaniyaga iqtisodiy va moliyaviy yordam ko'rsatishga qaror qildi. Bu yordam rejasi tarixga **«Daues rejasi»** nomi bilan kirgan. Bu reja Germaniya iqtisodiyotining gurkirab rivojlanishiga, uning harbiy qudrati qayta tiklanishiga asos bo'lib xizmat qildi. Rejani amerikalik bankir, **general Daues** boshchiligidagi maxsus komissiya ishlab chiqqandi. Mazkur reja **1924-yil 16-iyul**da **London**da bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada qabul qilindi. Rejada Germaniya sanoatini, birinchidan, chet el sarmoyasi yordamida, ikkinchidan, Germaniya va Rossiya o'rtasidagi savdoni yanada rivojlantirish yo'li bilan tiklash ko'zda tutildi. Rejada Germaniyaning **1925-yili** Antanta davlatlariga oltin hisobida **1 mlrd marka** tovon to'lashi ko'zda tutilgan. **1929-yili** esa bu ko'rsatkich **2,5 mlrd marka**ni tashkil etishi kerak edi. Keyinchalik bu to'lovlar miqdori kamayar va Germaniya iqtisodi imkoniyati darajasiga qarab to'lanardi.

«Daues rejasi»ning qabul qilinishiga Fransiya rozi bo'lsa, AQSh Fransiyaning qarzlarini kechib yuborish majburiyatini olgandi. Shu bois ham u «Daues rejasi»ni qabul qildi va **1925-yili** Rur viloyatidan o'z qo'shinlarini olib chiqib ketdi. Buyuk Britaniya esa Fransiyaning qit'ada yetakchi davlat bo'lib qolishini istamasdi. Kuchli Germaniyaning mavjud bo'lishi Fransiyani Buyuk Britaniya bilan hisoblashishga majbur etardi. Qolaversa, kuchli Germaniya Buyuk Britaniya uchun Sovet davlatiga qarshi turishi ham zarur edi.

1924 – 1929-yillari chet davlatlarning Germaniyaga bergan qarzlari, kiritgan sarmoyalari **21 mlrd marka**ni tashkil etdi. AQShning o'zi **10 mlrd dollarlik** sarmoya kiritdi. Bu qarz o'z samarasini berdi. Germaniya iqtisodiy taraqqiyotda juda katta muvaffaqiyatlarga erishdi va **1927 – 1928-yillar**ga kelib bu davlat sanoat ishlab chiqarishi va tashqi savdo hajmi bo'yicha urushdan oldingi darajaga chiqib oldi. **1929-yil** esa undan oshib ham ketdi. Sanoat taraqqiyotida u Buyuk Britaniya va Fransiyani ortda qoldirdi. **1929-yili** «Daues rejasi» **«Yung rejasi»** bilan almashtirildi.

Mamlakat siyosiy hayotida revanshchi kuchlarning kuchavishi. Iqtisodiyotning yuksalish yillarida (**1924 – 1929**) sanoatning deyarli barcha sohalarida monopoliyalar yanada kuchaydi. Yangi sarmoyadorlar ko'paydi. **1930-yili** ularning soni **2100 ta**ga yetdi hamda iqtisodiyot va siyosatga tobora katta ta'sir ko'rsata boshladilar, jamoatchilik fikrini belgilashda hal qiluvchi mavqega erisha bordilar. Bu mamlakatda millatchi revanshchi kuchlarning ta'siri kuchayishiga olib keldi. Bu kuchlarning yirik namoyandalaridan biri sobiq kayzer, Germaniya qurolli kuchlari bosh qo'mondoni feldmarshal **P.Gindenburg (1874 – 1934)** edi. U **1925-yili** mamlakat prezidenti lavozimiga saylandi. Uning prezidentligi davrida Germaniya armiyasi qayta qurollantirila boshlandi. Harbiy-dengiz floti ham tiklana bordi. Sanoatning harbiy maqsadlarga mo'ljallangan tarmoqlari rivojiga katta mablag'lar sarflandi.

Germaniya endi Versal shartnomasini ochiqdan ochiq inkor etish yo'liga o'tdi. Xususan, armiya soni **350 ming kishi**ga yetkazildi. Mamlakat aholisi, asosan, yoshlar ongi g'oyaviy jihatdan yangi urushga tayyorlana boshlandi. Veymar Respublikasi hukumati xalqaro maydonda G'arb davlatlari bilan yaqinlashish siyosatini yuritdi. **1925-yili Lokarno shahr**ida **Reyn pakti**ni imzolashga erishdi. Unga ko'ra, Germaniyaning Fransiya va Belgiya bilan mavjud chegarasi tan olindi. Fransiya va Germaniya bir-biriga hech qachon hujum qilmaslik majburiyatini oldilar. **Buyuk Britaniya** va **Italiya** esa bu paktning xalqaro kafillari deb belgilandi. Biroq Germaniyaning sharqiy qo'shnilari bilan mavjud chegaralar buzilmasligi masalasi ochiq qoldi. **1926-yili** Germaniya **Millatlar Ligasi**ga qabul qilindi va unga Liga Kengashining doimiy a'zosi maqomi berildi. Bu amalda Germaniyaning buyuk davlat sifatida tan olinishi edi.

Fashizmning hokimiyat tepasiga kelishi. **1929-yili** yuz bergan jahon iqtisodiy inqirozi Germaniyani ayanchli ahvolga solib qo'ydi. **Uch yil** davomida ishlab chiqarish tinimsiz pasayib bordi. Xususan, ishlab chiqarish **40 foiz**ga, real ish haqi esa **50 foiz**ga kamaydi. Mamlakatda ishsizlar soni **9 mln** dan oshdi. Ularning faqat **20 foizi** ishsizlik nafaqasini

olardi. Xizmatchilarning ahvoli nihoyatda yomonlashdi. Mayda va o'rta tadbirkorlar, sotuvchilar bankrotga uchradi. Qator banklarning bankrotga uchrashi moliya-kredit tizimini larzaga soldi. Iqtisodiyotning chet el moliyaviy yordamiga qaramligi, inqiroz davrida chet el sarmoyasining qaytarib olina boshlashi, ichki bozorning torligi, sobiq Antanta davlatlariga tovon to'lash, moddiy resurslar manbayi bo'lish, mustamlakalarning yo'qligi kabi omillar buning sababi edi.

Iqtisodiyotning keskin beqarorlashuvi siyosiy inqirozni ham muqarrar qilib qo'ydi. **1928-yili** reyxstagga o'tkazilgan saylovda hech bir partiya mutlaq ovoz ololmagandi. Shuning uchun GSDP (**153 o'rin**ga ega edi), Katolik Markaz partiyasi (**78 o'rin**ga ega edi) hamda Nemis milliy partiyasi (**73 o'rin**ga ega edi) vakillaridan iborat koalitsion hukumat tuzilgan va **katta koalitsiya** nomi bilan faoliyat yurita boshlagandi. Biroq koalitsiya **1930-yil martda** tarqalib ketdi. **G.Myuller** hukumati iste'fo berishga majbur bo'ldi. Prezident Gindenburg Katolik markazi partiyasi arbobi **G.Bruning**ni kansler etib tayinladi. Biroq GSDP oppozitsiyaga o'tgach, G.Bryuning hukumati faol harakat qilolmay qoldi. Natijada mamlakat prezidentning favqulodda dekretlari kuchi bilan boshqarila boshlandi. Bu hol reyxstagni obro'sizlantirdi. **1932-yili** u faqat **5 ta** qonun qabul qildi, xolos.

Garchand so'l kuchlar (**GKP** va **GSDP**) siyosiy hayotda o'z ta'sirini saqlab qolgan bo'lsa-da, o'zini **Nemis milliy-sotsialistik ishchi partiyasi** degan nom bilan atagan fashistlar partiyasining ta'siri tobora kuchaya boshladi. Chunki inqiroz ko'z o'ngida boshqaruvning respublika tartibini obro'sizlantirib qo'ydi. Endi aholining aksariyat qismi boshqaruvning respublika tartibiga barcha kulfatlarning manbayi deb qaray boshladi. Ayni paytda, ular ongida kuchli tartib o'rnatishga qodir totalitar rejim tomon xayrxohlik kuchaya bordi. Ularning ko'z o'ngida **A.Gitler** boshchiligidagi fashistik partiya shunday tartib o'rnatishga qodir edi. Hatto uni yirik sarmoyadorlar ham qo'llab-quvvatlay boshladi. Bunga mamlakatda Germaniya Kommunistik partiyasining ham ta'siri o'sib borayotgani sabab bo'ldi. Chunonchi, GKP **1928-yili** reyxstagga saylovda **11 foiz** ovoz olgan bo'lsa, **1932-yili 17 foiz** ovoz olishga erishdi. Bu GKPni yoqlab **6 mln saylovchi** ovoz berdi degani edi. Hukmron doiralar so'l kuchlar ta'sirini yo'qqa chiqarishning birdan bir yo'li fashizm diktaturasi o'rnatilishidir deb hisoblay boshladilar.

Gitlerning yirik sarmoyadorlar bilan birinchi uchrashuvi **1932-yil 27-yanvar**da bo'lib o'tdi. Shu kuni **«Po'lat tresti»** rahbari **Tissen** uni Germaniya sanoatchilariga tanishtirdi. Uchrashuv **4 soat** davom etdi. Gitler

nutqining asosiy mazmuni *«Oq irq (aslida, nemislar nazarda tutiladi) Yer sharida yashovchi boshqa xalqlarni o'ziga bo'ysundirishi lozim»* degan iborada mujassamlashgandi. Uchrashuvda sanoatchi sarmoyadorlardan birining: *«Buning uchun nima kerak?»* – degan savoliga A.Gitler: *«8 mln kishilik armiya»*, – deb javob bergan. Sarmoyadorlar Gitler timsolida o'z niyatlarini amalga oshiruvchi shaxsni ko'rdilar. Shundan so'ng ular A.Gitlerni **fyurer**, ya'ni dohiy deb atab, Gitlerning hokimiyat tepasiga kelishi uchun juda qattiq kurash boshladilar.

Germaniyada fashizm hokimiyat tepasiga kelishining oldini olib bo'lmadi. Bunga Germaniyadagi antifashistik kuchlaming birlasholmagani sabab bo'ldi. Bu kuchlar, asosan, **GSDP** va **GKP** edi. **1932-yili** reyxstagga o'tkazilgan saylovlarda A.Gitler partiyasi **33 foiz** ovoz olgan bo'lsa, GSDP **20 foiz**, GKP **17 foiz** – ikkalasi birgalikda **37 foiz** ovoz oldi. Bu ikki so'l partiya ittifoq tuzolganda, fashistlarning hokimiyat tepasiga kelishining oldi olingan bo'lardi. Afsuski, ular birlasholmadilar. Bunga, birinchidan, Komintern ko'rsatmasi bilan (sotsial-demokratlar bilan hamkorlik qilmaslik to'g'risidagi) ular o'rtasida paydo bo'lgan dushmanlik munosabati sabab bo'ldi. Ikkinchidan, fashizm xavfini yetarlicha baholay bilmadilar. **1932-yil 6-noyabr**dagi saylovdan so'ng yirik monopoliyalar, bankirlar va generallar uzil-kesil fashistlar tomoniga o'tishdi. Ular so'l kuchlarning ittifoqi tuzilib qolishidan cho'chib, Gindenburgga maxsus xat jo'natganlar. Xatda Gitlerni darhol **reyxkansler** etib tayinlash talab etilgandi.

1933-yil 4-yanvarda Gitler Germaniyaning yirik va yetakchi sanoatchilari, sarmoyadorlari bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda Gitler kansler bo'lishi kerak degan qarorga kelindi. **1933-yil 30-yanvar**da Gindenburg A.Gitlerni Germaniyaning reyxkansleri etib tayinladi. Aslida, **1933-yili** Germaniyada davlat boshqaruvi bir (burjua demokratik) shaklining boshqa bir shakli, ya'ni totalitar diktatura bilan almashinuvi yuz berdi.

Fashizmning mohiyati. Fashizm – bu davlat boshqaruvining terrorchi totalitar shakli, hukmron doiralarning eng reaksion va agressiv kuchlari manfaatini ifodalovchi oqim. U dastlab **Italiya**da vujudga kelgan. «Fashizm» atamasi **«fashio»** so'zidan olingan bo'lib, **«to'da»**, **«uyushma»** degan ma'nolarni anglatadi. **1919-yili** Italiyada Birinchi jahon urushining sobiq askarlari o'z manfaatlarini, haq-huquqlarini himoya qilish uchun kurashuvchi tashkilot tuzdilar. Bu tashkilot **«Fashi di kombattimento» («Kurash uyushmasi», «Quroldoshlar kurash uyushmasi»)** deb atalgan. Tashkilot a'zolari **«fashistlar»**, harakat esa **«fashizm»** nomini olgan, u turli joyda turli nom bilan, masalan, Germaniyada **«natsizm»** deb atalgan. Fashizmning birinchi belgisini **o'ta millatchilik** tashkil etadi.

Millatchilik Germaniya va Italiyada boshqa davlatlarga nisbatan kuchli bo'lgani bejizmas. Ular Birinchi jahon urushi oqibatlarini o'zlari uchun qattiq haqorat, milliy tuyg'uning mislsiz tahqirlanishi deb qabul qilgandilar. Nemis millati Versal shartnomasi shartlariga toqat qilolmayotgandi. Italyan millati esa o'zini **«g'oliblar ichidagi mag'lub»** deb hisoblardi. Chunki Antanta tarafida urushda ishtirok etgan Italiya ko'zlangan maqsadga erisholmagandi. Germaniyada millatchilik irqchilik bilan qo'shilib ketgandi.

Fashizmning yana bir belgisi uning **o'ta agressivligi**dir. O'ta millatchilik va irqchilik sharoitida shunday bo'lishi tabiiy edi. Fashizmga xos bo'lgan yana bir belgi **davlat hokimiyati oldida sig'inish**, unga sajda qilish edi. Fashizm uchun bu milliy ruhni mujassamlashtiradigan qudrat, barqarorlik va tartibning kafolati edi. Germaniya fashizmining ommaviy asosini Birinchi jahon urushida eng ko'p zarar ko'rgan tabaqalar – **hunarmandlar, dehqonlar, urush faxriylari, ishsizlar, ertangi hayoti qanday bo'lishidan cho'chib qolgan ishchilar** tashkil etdi.

Fashistlarning ichki siyosati. Fashizm hokimiyat tepasiga kelgach, A.Gitler hukumati, birinchi navbatda, siyosiy demokratiyani yo'q qilishga kirishdi. Bu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun har qanday jirkanch vositalarni ishga soldi. Xususan, siyosiy partiyalar faoliyatiga barham berish uchun **1933-yil 23-fevral**da reyxstag binosiga o't qo'yishni uyushtirdi va aybni kommunistlarga ag'darib, bolgariyalik **G.Dimitrov**ni sud qildi. Lekin uni oqlashga majbur bo'ldi. Fashistlar ochiq terror yo'liga o'tdilar. Fashistlar partiyasidan boshqa barcha siyosiy partiyalar faoliyati taqiqlandi. A.Gitler sotsial-demokratlarni Birinchi jahon urushida Germaniya taqdiri hal bo'layotgan kezlarda noyabr inqilobini keltirib chiqarganlikda, kommunistlarni esa «qizil diktatura»ni o'rnatmoqchi bo'lganlikda va sovetlarning josuslari sifatida aybladi.

Gitler prezident Gindenburgga **«Xalq va davlatni muhofaza qilishi to'g'risida»**gi dekretni imzolatishga erishdi. Bu dekret A.Gitlerga favqulodda vakolatlar berdi. Endi reyxstag boshlig'i Gitler o'z dekretlari bilan mamlakatni boshqarish huquqiga ega bo'ldi. **1934-yil 2-avgust**da Gindenburg vafot etdi. A.Gitler prezidentlik lavozimini ham egalladi. Shu tariqa butun hokimiyat uning qo'lida to'plandi. Endi u Germaniyaning federativ davlat maqomini bekor qildi, barcha darajadagi ma'muriy organlar rahbarlari tayinlanadigan bo'ldi. Reyxstagga saylov bekor qilindi, qonun chiqaruvchi hokimiyat funksiyasi hukumatga topshirildi. Shu tariqa Veymar Respublikasi amalda barham topdi.

Taqiqlangan kasaba uyushmalari o'rniga natsistlar partiyasiga to'liq bo'ysunuvchi **«Germaniya mehnat fronti»** tuzildi. Barcha matbuot nashr-

lari yopildi yoki fashistlar nazorati ostiga olindi. Fashizmning kelajagini tarbiyalash maqsadida **«Gitleryugen»** deb ataluvchi yoshlar tashkiloti tuzildi. Qurolli kuchlarning barcha sobiq zobitlari natsistlar partiyasi a'zosi bo'lishi shart qilib qo'yildi. **1933-yil oxiri**dayoq muxolif marralarda turuvchi barcha tashkilotlar amalda yo'q qilindi. Ayni paytda, A.Gitler o'z partiyasi ichidagi muxoliflarni ham qatag'on qildi. Bu mash'um reja **1934-yil 30-iyun** tunda amalga oshirildi. Bu tun tarixga **«uzun pichoqlar tuni»** nomi bilan kirgan. Shu tariqa A.Gitler Germaniyaning yagona hukmdori, partiya rahbari, fyurer, ya'ni Germaniya xalqining cheksiz huquqqa ega dohiysiga aylandi.

Natsistlarning bosh jazo idorasi – **xavfsizlik otryadlari** (qo'riqlash qo'shini) – **CC** tuzildi. Unga **G.Gimmler** rahbarlik qildi. SS otryadlarining vazifasi o'zgacha fikrlovchi odamlarni ta'qib etish, ommaviy qirg'in uyushtirish, pechlarda yoqib yuborish, gaz kameralarida zaharlab o'ldirishdan iborat edi. Shuningdek, **o'lim lagerlari** (**konslager**)ga olib kelingan asirlar ustidan turli tajribalar (muzlatish, zaharli o'q ta'siri, turli tibbiy sinovlar) o'tkazilishini tashkil etdi.

CCning tarkibiy qismini **gestapo** (maxfiy politsiya) va **CD** (razvedka va kontrrazvedka) tashkil qilgan. *Ularning asosiy vazifasi mavjud tuzumga qarshi paydo bo'lgan har qanday muxolifatni joyida yo'q qilishdan iborat edi. Ular zimmasiga yahudiylarni ommaviy qirg'in qilish vazifasi ham yuklatilgan.* O'zgacha fikrlovchilar, demokratik tashkilotlar vakillari va harbiy asirlarni ommaviy qirg'in qilish maqsadida **15 ta o'lim lageri** barpo etildi, bu lagerlarda **10 mln kishi** yo'q qilindi. *Asir ayollar sochidan kema machtalariga iplar to'qilgan, odam bolasi terisidan ayollar sumkachalari, qo'lqoplar tayyorlangan, yog'idan sovun ishlab chiqarishda foydalanilgan, yoqilgan murdalarning kullari o'g'it sifatida ekin maydonlariga sepilgan.* Asirlarning tilla tishlari sug'urib olinib, fashistlar davlati manfaatlari yo'lida ishlatilgan. Davlatda oziq-ovqat tanqisligi ro'kach qilinib, mehnatga noqobil bo'lgan barcha kishilar, qariyalar, telbalar, ruhiy bemorlar, tutqanoq kasali bilan og'rigan bemorlarni qirib yuborishga buyruq berilgan. Germaniyaning **275 ming aholisi** o'ldirilgan. Natsistlar yahudiy aholini to'liq qirib yuborish bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqqanlar. Bu insoniyat tarixidagi eng shafqatsiz irqiy ta'qib edi. Xususan, Yevropada **6 mln dan ortiq** yahudiy qirib tashlangan.

Fashistlar o'z ichki siyosatlarida maktab tarbiyasiga alohida e'tibor berganlar. Maktabga qadam qo'yilgan davrdan boshlaboq *«irqiy dunyoqarash», «irqiy ustunlik»* va german qonini sof saqlashga e'tiqod tarbiyalana boshlagan. Maktablarda faqat natsizmga xizmat qiluvchi

o'qituvchilargina ishlagan. **1933-yil may**dan boshlab **18 – 25 yoshlilar** uchun ichki mehnat majburiyati joriy etildi. **1935-yil mart**dan boshlab esa **umumiy harbiy majburiyat to'g'risida**gi qonun kuchga kirdi. Germaniya iqtisodiyotini harbiy izga ko'chirish uchun zarur chora amalga oshirildi. Shu maqsadda **1934-yil 20-yanvar**da **«Milliy mehnatni tartibga solish to'g'risida»** qonun qabul qilindi. Unga ko'ra, fuqaro uchun mehnatni erkin tanlash huquqi bekor qilindi. **1936-yil yoz**da iqtisodiyotni harbiy yo'nalishga o'tkazishning **4 yillik** rejasi rasman tasdiqlandi. Shu 4 yil ichida dunyoda eng qudratli zamonaviy armiya tashkil etilishi lozim edi. Mazkur yillar davomida harbiy xarajat **10 baravar** oshdi. **1939-yil**ga kelib Buyuk Britaniya harbiy xarajati **5 mlrd**, Fransiyaniki **2,3 mlrd marka**ni tashkil etgani holda, Germaniya harbiy xarajatlari **18 mlrd marka**ni tashkil etdi. **1939-yili** Germaniyada diviziyalar soni **1914-yil** darajasiga yetkazildi, ular eng zamonaviy qurol-aslahalar bilan qurollantirildi. Harbiy-dengiz floti modernizatsiyalandi.

23.4. FRANSIYA

Birinchi jahon urushi oqibatlari. Fransiyaga Birinchi jahon urushidagi g'alaba katta yo'qotishlar evaziga qo'lga kiritildi. Chunonchi, urush tufayli **1,4 mln nafar** fransiyalik halok bo'ldi. **750 mingi** yarador, mayib-majruh bo'lib qoldi. Urush harakatlari oqibatida sanoati taraqqiy etgan viloyatlar vayronaga aylandi. **3 mln 250 ming gektar** haydaladigan yer foydalanishga yaroqsiz bo'lib qoldi. **1920-yil**ga kelib Fransiyaning davlat qarzi **300 mlrd frank**ka yetdi (o'sha davrdagi hisob-kitoblarda AQShdan **300 mlrd dollar**, Buyuk Britaniyadan esa **650 mln funt sterling** qarz bo'ldi). Ayni paytda, urush Fransiyani G'arbiy Yevropaning birinchi davlatiga ham aylantirdi. **Elzas** va **Lotaringiya** qaytarildi, **Saar viloyati** ustidan nazorat o'rnatildi. Yangi iqtisodiy hududlar Fransiya metallurgiya sanoati qudratini **75 foiz**ga oshirdi. Qolaversa, Fransiya hukumati vayron bo'lgan xo'jalikni tiklash masalasiga ham jiddiy e'tibor berdi. Bu maqsad uchun to'langan **100 mlrd markaga yaqin** tovon sanoatni texnologiya jihatidan qayta qurish imkonini berdi.

Temir rudasi qazib chiqarish bo'yicha Fransiya Yevropada **birinchi o'rin**ga chiqdi. Qudratli banklar (**Mirabo, Rotshildlar oilasi, aka-uka Lazarlar, Malle** kabi) paydo bo'ldi. Sanoatning yetakchi tarmoqlarida **«Reno», «Sitroyen», «Pejo», «Simka»** kabi ulkan kompaniyalar tashkil topdi. Mamlakatdagi katta miqdordagi mayda korxonalar ham saqlanib qoldi. Ular barcha sanoat mahsulotining deyarli **50 foiz**ini ishlab chiqar-

dilar. Qishloq xo'jaligida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Katta yer egaligi salmog'i kuchaydi. Masalan, jami xo'jaliklarning **3,3 foizi**ni tashkil etgan **40 gektardan ortiq** yerga egalik qiluvchi xo'jaliklar qo'lida ekin maydonlarining **45,6 foizi** to'plandi. Ular urushdan oldin atigi **2,6 foiz** ekin maydoniga egalik qilardilar, xolos.

Urush tufayli Fransiya mustamlakalari kengaydi. **Suriya** va **Liva**nda Fransiya nazorati o'rnatildi (ular sobiq Turkya imperiyasi mulklari edi). Shuningdek, Fransiya Germaniyaning Afrikadagi mustamlakalari – **Togoning bir qismi** va **Kamerun**ga ega bo'ldi. Fransiya jamiyati ichki hayotida shovinizm kayfiyati nihoyatda kuchaydi. Vaqtli matbuot *«Nemislar hamma narsa uchun haq to'lashlari kerak»* shiorini keng targ'ib etdi va mamlakatdagi millatchi kuchlar Germaniyani mumkin qadar kuchsizlantirishga urindilar. Fransiya Sovet Rossiyasiga qarshi intervensiyaning eng faol tashabbuskorlaridan biri bo'ldi.

«Milliy blok» hukumati. Uning ichki va tashqi siyosati. **1919-yil noyabr**da urushdan keyin birinchi marta parlamentga saylov o'tkazildi. Saylovlargacha o'ng partiyalar **«Milliy blok»** deb ataluvchi ittifoqqa birlashdi. Blokni o'ta o'ng partiyalar – **Milliy respublikachilar partiyasi, Respublikachi-demokratik partiya** tuzgandilar. Radikallar va Respublikachilar partiyalari ularga qo'shilgan. Versal shartnomasi Fransiyaga juda katta foyda keltirgan bo'lsa-da, o'ta o'ng kuchlarni qanoatlantirmasdi. Shu bois ular Versal shartnomasini Fransiya diplomatiyasining muvaffaqiyatsizligi deb hisobladilar. Shu tufayli o'ta o'ng partiyalar saylov oldidan millatchilik g'oyalarini avj oldirdilar. Ayni paytda, ular aholining ma'lum qismini *«bolshevizm xavfi»* bilan ham cho'chitishga erishdilar. Bu omillar «Milliy blok»ning saylovda g'alaba qozonishini ta'minladi. Ular Millat majlisidagi jami o'rinlarning **2/3 qismidan ko'prog'i**ni egallashga erishdilar. Bu o'ng kuchlar g'alabasining rekord darajasi edi. «Milliy blok» hukumatini **A.Milyeran (1859 – 1943)** boshqardi.

«Milliy blok»ning ichki siyosatdagi asosiy vazifasi mamlakatda inqilob ro'y berishiga yo'l qo'ymaslik va ijtimoiy harakat to'lqinini pasaytirish edi. Shu bois u saylovchilarga ishchilarning daromadidan o'z ulushlarini olishlariga imkoniyat yaratish, ularga korxonalarni boshqarishda qatnashish huquqini berish kabi chuqur ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishga va'da berdi. Biroq tez orada boshlangan inqiroz bu va'dalarni bajarishga imkon bermadi. Aksincha, A.Milyeran hukumati yirik kapital xohishi o'laroq **8 soatlik** ish vaqti joriy etish to'g'risidagi qonunni amalda joriy etishga to'sqinlik ham qildi. Soliqlar yukini kamaytirmadi. Ish haqi oshirilishi haqidagi talablarga qarshilik ko'rsatdi. Bunday siyosat mamlakatda kuchli

ish tashlash harakati avj olishiga olib keldi. **1919-yili** bu harakatlarda **1,2 mln dan ortiq ishchi** qatnashdi.

O'ta o'ng partiyalar siyosatiga qarshi pozitsiyada turadigan yirik siyosiy kuch **Fransiya sotsialistik partiyasi** (FSP) edi. Biroq uning safida ham birlik yo'q edi. Bu partiyada **o'ng, markaz** va **so'l** qanot deb ataluvchi guruhlar o'rtasida o'zaro kurash davom etmoqda edi. **1920-yil dekabr**da FSPda bo'linish yuz berdi. Bo'linib chiqqan qism yangi siyosiy partiya – **Fransiya kommunistik partiyasi** (FKP)ni tuzdi. Ijtimoiy harakatda ana shunday bo'linishlar, shuningdek, kasaba uyushmalarida hukumat bilan kelishishga intiluvchi tomon kuchli mavqega egaligi hukumatni mamlakatda tub ijtimoiy islohotlarni o'tkazishga majbur etish imkonini bermadi.

«Milliy blok» tashqi siyosatida Fransiyaning Yevropada yetakchi davlat bo'lib qolishi uchun qo'lidan kelgan barcha choralarni ko'rdi. U Germaniyani imkon qadar kuchsizlantirishga intildi. **1920 – 1921-yillari** Fransiya ta'siri ostida **Chexoslovakiya – Ruminiya – Yugoslaviya ittifoqi** tuzildi. U **«Kichik Antanta»** degan nom oldi. Qolaversa, **1921-yili** ham Sovet Rossiyasi, ham Germaniyaga qarshi qaratilgan **Fransiya – Polsha ittifoqi** tuzildi. Bunga javoban Germaniya va Rossiya **1922-yili** Rapallo shartnomasi deb atalgan savdo-iqtisodiy shartnomani imzoladilar.

Buyuk Britaniya va AQSh Germaniya Fransiyaga to'lashi lozim bo'lgan tovon miqdorini imkon qadar kamaytirishga intilganlar. Boz ustiga, Germaniya tovonni hamisha vaqtida va belgilangan miqdorda to'lash qobiliyatiga ega bo'lmagan. Germaniya tovonning bir qismini ko'mir bilan to'lash majburiyatini ham olgandi. **1922-yili** Rur viloyatidan Fransiyaga ko'mir yuborishni to'xtatdi. Bu hodisa Fransiya metallurgiya sanoati rivojiga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Buning oldini olish maqsadida «Milliy blok» hukumati (bu vaqtda uni ashaddiy millatchi va shovinist **R.Puankare** boshqarardi) **1923-yil yanvar**da Rur viloyatiga qo'shin kiritdi va uni bosib oldi. Biroq Fransiya maqsadiga erisholmadi. Rur ko'mir konlari ishchilari (nemislar) Germaniya hukumati chaqirig'i bilan ko'mir qazib chiqarish va uni vagonlarga ortishdan bosh tortdi. Natijada Fransiyaning o'nlab metallurgiya zavodlarida ish to'xtab qoldi. Istilochi qo'shinni saqlab turish hukumatni ma'nosiz katta xarajat qilishga majbur etdi. Bu xarajat soliqlarni yanada oshirish evaziga amalga oshirildi. Mamlakatda pul qadrsizlandi. Bu esa Fransiyada ichki siyosiy vaziyatni keskinlashtirib yubordi.

Rur istilosi hukumatning kaltabin siyosati bo'lib chiqdi. U Fransiyaning ichki va tashqi ahvolini yomonlashtirdi. Oxir-oqibat «Milliy blok» **1924-yil**gi saylovda mag'lub bo'ldi. **1919 – 1924-yillari** Fransiyaning «Milliy blok»

hukumati siyosatidan norozi ichki va tashqi so'l kuchlar **«So'l blok»** tuzishga qaror qildilar. **1924-yili** bunday blokning tuzilishiga erishildi. **Radikallar partiyasi** va **Sotsialistik partiya** bu blokka birlashdilar. Ular saylovchilarga chuqur ijtimoiy islohot o'tkazish, «Milliy blok»ning xalqqa qarshi qaratilgan tadbirlarini bekor qilish, Sovet davlati bilan diplomatik munosabat o'rnatish, Germaniyadan qo'shinlarni olib chiqib ketish kabi va'dalarni berdilar. **1924-yil may**da parlamentga o'tkazilgan saylovda g'alaba qozondilar hamda «So'l blok» hukumatini tuzdilar. Hukumatni Radikallar partiyasi rahbari **E.Errio (1872 – 1957)** boshqardi va Rur viloyatidan Fransiya qo'shinlarini olib chiqib ketdi. **Oktyabr**da Sovet davlatini tan oldi va diplomatik munosabat o'rnatdi. Uy-joy muammosini hal etish maqsadida **300 mln frank** mablag' ajratdi.

1925-yili og'ir sanoatda ishlab chiqarish urushdan oldingi darajadan oshib ketdi. Biroq «So'l blok» hukumati milliy pulning qadrini ta'minlay olmadi, inflyatsiya o'sib bordi. Masalan, **1915-yili 1 dollar 5,5 frank**ka teng bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich **1926-yili 47 frank**ni tashkil etdi. Hukumat mamlakatda chuqur ijtimoiy islohotlar o'tkazilishini istamayotgan yirik kapital qarshiligini yengolmadi. Boz ustiga, hukumat Fransiya mustamlakalarida (**Marokash** va **Sudan**) boshlangan milliy ozodlik harakatlarini qonga botirdi. Germaniya masalasida AQSh va Buyuk Britaniya oldida to'la taslimchilik yo'lini tutdi. **E.Errio** hukumatini «Daues rejasi»ni qo'llab-quvvatlashga majbur etdilar. Bu ham yetmagandek, Fransiya **1925-yili** Lokarno shartnomasini imzoladi. Bu shartnomaning imzolanishi, aslida, Fransiyaning o'z ittifoqchilari bo'lgan Polsha va Chexoslovakiyaga nisbatan xiyonati edi. Fransiyada moliyaviy inqiroz kuchayib bordi. Moliya-sanoat doiralari frankni barqarorlashtirish uchun favqulodda soliqlar joriy etish rejasini ilgari surdilar. Biroq Sotsialistik partiya bu rejani qo'llab-quvvatlamadi. Natijada **1926-yil iyun**da «So'l blok» barham topdi.

Sotsialistik partiya bilan orani ochiq qilgan Radikallar partiyasi o'nglar bilan hamkorlik yo'liga o'tdi. O'ng kuchlar radikallar bilan koalitsion hukumat tuzdilar. Bu hukumat **«Milliy blok»** hukumati deb ataldi va unga yana **R.Puankare (1860 – 1934)** boshchilik qildi. Parlament unga moliyaviy islohot uchun cheklanmagan vakolatlar berdi. Hukumat soliqlarni **9 mlrd frank**ka ko'paytirdi. Davlat xarajatlarini qisqartirdi. Urush nogironlariga to'lanadigan nafaqalar kamaytirildi. **1926-yili** frankning barqarorlashuviga erishildi (*1 dollar avvalgi 47 frank o'rniga 24,8 frankka teng bo'ldi*). Inflyatsiyadan eng ko'p zarar ko'rgan mulkdorlar R.Puankarega **frank xaloskori** deb qaray boshladi. Qolaversa,

shu yilning o'zida davlat byudjeti daromadlari ilk bor urushdan keyingi xarajatlardan ortiq bo'ldi.

Moliyaviy barqarorlik, o'z navbatida, iqtisodiyotning umumiy yuksalishi boshlanganini anglatardi. Fransiya sanoati mahsuloti hajmi birinchi bor urushdan oldingi darajadan ortiq bo'ldi. **1930-yil**ga kelganda Fransiyada ikki jahon urushi oralig'idagi eng yuqori sanoat ishlab chiqarishiga va savdo aylanmasiga erishildi. U sanoat taraqqiyotning o'sish sur'ati bo'yicha Buyuk Britaniya va Germaniyani ortda qoldirdi. Iqtisodiyotda davom etgan barqaror taraqqiyot aholi turmush darajasi o'sishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. **1926-yil**dan ishsizlik, keksalik nafaqalari hamda kasallik, nogironlik va homiladorlik yordam pullari joriy etildi.

Iqtisodiy inqiroz va uning oqibatlari. **1930-yil oxiri**da Fransiya iqtisodiyotida inqiroz boshlandi va **1936-yil**gacha davom etdi. **1931 – 1935-yillari** sanoat mahsuloti ishlab chiqarish va milliy daromad hajmi **30 foizdan ortiq**qa kamaydi. Inqirozdan, ayniqsa, **yengil sanoat** katta talafot ko'rdi. **1934-yili** to'qimachilikda yalpi mahsulot ishlab chiqarish **65 foiz**ga kamaydi. **135 ta** ip-gazlama fabrikasi yopildi. Sanoatda ishsizlar soni **1,5 mln kishi**ni tashkil etdi. Ish soati **10 – 12 soat** davom etadigan bo'lib qoldi. Ish haqi **40 foiz**gacha kamaytirildi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi **40 foiz**gacha kamaydi. Oziq-ovqat mahsulotlari narxi ko'tarildi. Soliqlar miqdori oshirildi.

Inqiroz mamlakat tashqi savdosiga ham qattiq zarba berdi. Uning hajmi **60 foiz**gacha kamaydi. Inqiroz mustamlakalarga ham ta'sir ko'rsatdi. Xususan, **Hindixitoy**da mustamlakachilik zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. **Marokash va Jazoir**da milliy ozodlik kurashi kuchaydi. Xalqaro ahvol ham Fransiya uchun qulay emasdi. **1933-yili** Germaniyada fashizmning hokimiyat tepasiga kelishi Fransiyaning biqinida urush o'chog'i vujudga kelganini anglatardi.

1932-yili parfyumeriya sanoati yirik magnati **Koti «Fransuz hamkorligi»** deb ataluvchi fashistlar partiyasini tuzdi. Mamlakatda **«Jangovar xochlar»** va boshqa qator fashistik tashkilotlar faoliyat yurita boshladi. Ularning maqsadi Fransiyada ham fashistik diktatura o'rnatish edi.

Fashistlar isyoni. Fransiya fashistlari **1934-yil 6-fevral**da qurolli isyon uyushtirdilar. Bu isyonga **«Stavisskiy ishi»** bahona bo'lgan. Rossiyalik emigrant, xalqaro firibgar, tovlamachi Stavisskiy firibgarlik orqasidan juda katta boylik to'plagandi. U Fransiyada aholiga juda katta miqdorda qalbaki aksiyalar sotishga ulgurgan, ular xaridorlarni xonavayron qilgandi. **1934-yil yanvar**da Stavisskiy fosh etildi. Tekshiruvlarda qator siyosiy

arboblarning ham qalbakichilikda qo'li borligi aniqlandi. Fashistlar bu ishda mamlakat parlamentini aybdor deb e'lon qildilar va **6-fevral**da qurolli isyon ko'tardilar. Garchand isyon muvaffaqiyatsiz tugagan bo'lsada, fashistlar hukumatning iste'fo berishiga erishdilar.

Xalq fronti tuzilishi. Fashistlar isyoni Fransiya jamiyatining sog'lom kuchlarini qattiq qayg'uga soldi. Ularning chaqirig'i bilan kuchli antifashistik harakat oyoqqa turdi. **12-fevral**da ularning (sotsialistlar, kommunistlar, radikallar va partiyasizlar) chaqirig'i bilan mamlakatda umummilliy namoyish o'tkazildi. Unda **4,5 mln kishi** qatnashdi. **1934-yil 27-iyul**da Fransiya Kommunistik partiyasi va Sotsialistik partiya o'rtasida **«Harakat birligi to'g'risida pakt»** imzolandi. Bu ikki partiyaning antifashistik harakatiga tez orada Radikallar partiyasi ham qo'shildi. **1935-yil 14-iyul**da sotsialistlar, kommunistlar va radikallar birgalikda katta namoyish o'tkazdilar. Shu tariqa Fransiyada **«Xalq fronti»** vujudga keldi. **1936-yil aprel – may**da o'tkazilgan parlament saylovlarida xalq fronti g'alaba qozondi. U parlamentda umumiy o'rinning deyarli **2/3 qism**ini egalladi. Sotsialist **Leon Blum** boshchiligida yangi hukumat tuzildi. Bu hukumat ish haqini oshirish, **40 soatlik** ish haftasi, korxonalarda jamoa shartnomalari tuzish, kasaba uyushmalari huquqini himoya qilish, haq to'lanadigan ta'til berish kabi qarorlar qabul qildi. Parlament fashistik tashkilotlar faoliyatini taqiqlash haqida muhim qonun qabul qildi. Biroq bu qonun fashistlarga qonuniy faoliyat yurituvchi partiya tuzishga ruxsat bergan. Shunday qilib, Fransiyada fashizm hokimiyatni egallay olmadi.

Biroq tez orada «Xalq fronti» ichida kelishmovchilik yuzaga keldi. Buning sababi xalqaro va ichki siyosatda yagona fikrga kelolmaganlikda edi. **1936-yil iyul**da Ispaniyada boshlangan Franko isyoni Fransiya uchun fashist davlatlari qurshovida qolish xavfini vujudga keltirdi. Shunday sharoitda hukumat Buyuk Britaniya qistovi bilan Ispaniya ishlariga «aralashmaslik» siyosatini yuritdi. Kommunistlar bu siyosatga qarshi chiqdilar. Qolaversa, mamlakatda fashistlar partiyasining faoliyati man etilmagani hukumat bilan so'l kuchlar o'rtasida o'zaro kelishmovchilikni yanada kuchaytirdi. Hukumat byudjet tanqisligini bartaraf etolmagani ham munosabatlarni yanada sovutdi. Bularning bari **1938-yil aprel**da L.Blum hukumatini iste'fo berishga majbur etdi. Radikallar partiyasi rahbari **E.Daladye** yangi hukumat tuzdi. Uning **30-sentyabr**da Myunxen shartnomasini imzolashi Xalq frontida qattiq tanqidga sabab bo'ldi. Shartnoma Chexoslovakiyani to'la bosib olish uchun yo'l ochgandi. Natijada Radikallar partiyasi **noyabr**da «Xalq fronti» tarkibidan chiqdi. Shu tariqa

Xalq fronti tarqab ketdi. E.Daladye o'ng partiyalarga tayanib faoliyat yurita boshladi. **1938-yil 6-dekabr**da Fransiya Germaniya bilan o'zaro hujum qilmaslik to'g'risidagi bitimdan hech farqlanmaydigan qo'shma deklaratsiyani imzoladi, shu oyda Italiyaning Efiopiyani bosib olganini tan oldi.

1939-yil martda Germaniyaning Chexoslovakiyani bosib olishiga hech qanday to'sqinlik qilmadi. Uning niyati Germaniya agressiyasi tig'ini Sharqqa – Rossiyaga burib yuborish edi. **1939-yil mart**da Fransiya hukumati har ehtimolga qarshi Buyuk Britaniya bilan harbiy ittifoq tuzdi. Biroq tashqi siyosatdagi nayranglar Fransiyani saqlab qololmadi, **1940-yili** Germaniya hujumi natijasida tiz cho'kishga majbur bo'ldi.

23.5. BUYUK BRITANIYA

Birinchi jahon urushi oqibatlari. Birinchi jahon urushidagi g'alaba tufayli Buyuk Britaniya ko'p narsalarga erishdi. Germaniyaning Buyuk Britaniyaga xavfi barham topdi. Mamlakatning harbiy qudrati va xalqaro maydondagi ta'siri yanada o'sdi hamda u Millatlar Ligasida hukmron mavqega ega davlatga aylandi. Millatlar Ligasi joriy etgan **mandat tizim**i eng ko'p Buyuk Britaniyaga foyda keltirdi. Chunonchi, Germaniya va Turkiya mustamlakalarining eng ko'p qismi unga tegdi. Masalan, Yaqin Sharqda **Falastin, Transiordaniya** va **Iroq**ni boshqarish huquqini qo'lga kiritdi. Afrikada **Tanganika, Togo** va **Kamerunning bir qism**ida ham uning shunday huquqi qaror topdi. Shuningdek, Buyuk Britaniya dominionlari ham quruq qolmadi. Millatlar Ligasi Janubiy Afrika Ittifoqiga Germaniyaning **Janubi-G'arbiy Afrikas**ini, Avstraliyaga **Yangi Gvineya**dagi Germaniya mustamlakalarini, Yangi Zelandiyaga esa **G'arbiy Samoa orollar**ini boshqarish huquqini berdi.

Biroq urush Buyuk Britaniyaga faqat muvaffaqiyat keltiribgina qolmadi. Urush uning dunyodagi mavqeyiga katta putur yetkazib, jahon bozorida hukmronlik mavqeyini pasaytirdi. Moliyaviy yetakchiligi ham barham topdi. Natijada u qarz beruvchi davlatdan qarz oluvchi davlatga aylandi. Uning davlat qarzi **1914-yil**gi **650 mln funt sterlingdan 8 mlrd funt sterlingga** yetgan. AQShdan esa **5 mlrd dollardan ortiq** miqdorda qarz bo'lib qoldi. Sanoat ishlab chiqarishi keskin pasaydi. Ishlab chiqarilgan tovarlarning raqobatbardoshligi pasayishi oqibatida, mamlakat tashqi savdosi hajmi **2 baravardan ortiq** kamaydi.

Buyuk Britaniya **«dengiz xo'jayini»** maqomini tiklolmadi. Germaniya harbiy-dengiz floti qudrati sindirilgan bo'lsa-da, endilikda AQSh harbiy-dengiz flotining qudrati shitob bilan o'sib bordi. Natijada **1920-yil**ga

kelib Buyuk Britaniya hukumati ikki davlat harbiy-dengiz flotiga teng keladigan flot saqlash an'anasidan voz kechishga majbur bo'ldi. Bu omillar va mustamlakalardagi milliy ozodlik kurashi oqibatida Britaniya mustamlakachilik tizimining inqirozi boshlandi.

Mamlakat iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar. **1918-yil oxiri**da mamlakatda iqtisodiy o'sish boshlandi. Bu **1920-yil o'rtalari**gacha davom etdi. Bunga keng iste'mol tovarlariga aholi talabining o'sishi hamda urush vayronalarini tiklash ehtiyoji hisobiga erishildi. Bu o'sish tashqi savdo o'sishida yaqqol namoyon bo'ldi. Chunonchi, shu davr oralig'ida eksport **38,1 foiz** o'sdi. Biroq o'sish uzoqqa cho'zilmadi. **1920-yil kuzi**dayoq mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarini qamrab olgan iqtisodiy tanglik boshlandi. **1921-yili** sanoat ishlab chiqarishi **1/3** ga qisqardi va urushdan oldingi darajaning **68 foiz**ini tashkil etdi. Ko'mir qazib chiqarish **30 foiz**, tashqi savdo hajmi urushdan oldingi darajadan **2 baravar** kamaydi.

Ishlab chiqarishning keskin pasayishi ishsizlar sonining o'sishiga sabab bo'ldi. Masalan, ishsiz sifatida ro'yxatga olinganlar soni **1920-yili 375 ming, 1921-yil o'rtala**rida **2,2 mln kishi**ni tashkil etdi. **1922 – 1923-yillari** mamlakat iqtisodiyotida turg'unlik saqlanib qoldi. **1924 – 1929-yillar** davlatlar iqtisodiyotida qisman barqarorlashuvning qaror topishi davri bo'ldi. Biroq Buyuk Britaniya iqtisodiyoti amalda bir joyda depsinib turdi. Masalan, **1929-yili** sanoat ishlab chiqarishi hajmi **1913-yil** darajasiga arang yetdi. Faqat sanoatning yangi turlari (**mashinasozlik, kimyo, samolyotsozlik va avtomobilsozlik**) hisobigagina bunga erishildi. **1913-yili** rivojlangan davlatlarning mamlakat sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **14,8 foiz**ni tashkil etgan bo'lsa, **1926 – 1929-yillari 9,8 foiz**ga tushib qoldi.

Texnika jihatidan qoloqligi tufayli Buyuk Britaniya jahon bozorida birin-ketin o'z mavqeyini boy bera boshladi. Eksport tobora qisqara bordi. Tashqi savdo hajmi urushdan oldingi darajaning **87 foiz**ini tashkil etdi, xolos. Importning hissasi tobora ortib bordi. Xalq turmush darajasi ancha pasaydi va real ish haqi kamaydi.

Mamlakatning siyosiy hayoti. Bu davrda mamlakat hayotini uchta partiya: **Liberallar, Konservativ** va **Leyboristlar** o'rtasidagi kurash belgilardi. Birinchi jahon urushi yillarida hokimiyat tepasida turgan Liberal partiya yuqorida qayd etilgan omillar ostida tobora mavqeyini yo'qota bordi. Liberal partiya rahbari, mamlakat bosh vaziri **D.Lloyd-Jorj (1863 – 1945)** o'z partiyasining mavqeyini saqlab qolish niyatida **1918-yil dekabr**da parlament saylovini o'tkazdi. *Birinchi jahon urushida erishilgan g'ala-*

baga qo'shgan hissasi tufayli Liberal partiya harbiylar orasida salmoqli mavqega ega bo'ldi. Liberallar va Konservatorlar partiyasi saylovda birgalikda ishtirok etdilar. Ular saylovda mamlakatni iqtisodiy va siyosiy qayta qurish shiori bilan qatnashdilar.

Saylovda **Liberal-Konservatorlar ittifoqi** g'alaba qozondi. Ular parlamentdagi **707 o'rindan 477 tasiga** ega bo'ldilar (undan **136 tasi** Liberal partiyaga tegishli edi). Leyboristlar **62 o'rin**ga ega bo'lsalar-da, **1910-yil**dagi saylovga nisbatan **5 baravar** ko'p (**2,5 mln**) ovoz oldilar. Shu tariqa bu partiya borgan sari Liberal partiyani siyosiy kurash maydonidan siqib chiqara bordi. Lloyd-Jorj yana bosh vazir lavozimini egalladi va **1922-yil**gacha hukumatni boshqardi. Bu davr ichida koalitsion hukumat ham ichki, ham tashqi siyosatda muvaffaqiyatsizliklarga uchradi. Hukumat saylovchilarga bergan va'dasi ustidan chiqolmadi. Natijada ishchilarning kuchli zabastovka harakatlari boshlandi. **1919-yili** bu harakatda **2,5 mln dan ortiq ishchi** qatnashdi. Ishchilar **40 soatlik** ish haftasi joriy etilishini, ish haqi kamaytirilmasligini talab qildilar. Ayniqsa, konchi ishchilar harakati to'lqini kuchli bo'ldi. Ular ish haqini **30 foiz** oshirishni, **6 soatlik** ish kuni belgilanishini talab eta boshladilar.

Shunday sharoitda hukumat ishchilar harakati to'lqinini yo'qqa chiqarish yo'lini tutdi. **1920-yil oktyabr**da mamlakat parlamenti hukumatga ishchilar harakati to'lqinini bostirish uchun favqulodda vakolatlar berdi. Konchilar talabini qondirishni istamagan kon egalari **1921-yil 1-aprel**da **lokaut** e'lon qildilar. Hukumat esa favqulodda holat e'lon qildi va ko'mir konlariga armiya qismlarini jo'natdi. Temir yo'l va transport ishchilari ularga birdamlik ramzi sifatida zabastovka boshladilar. Biroq hukumat ishchilar harakatini bostirishga erishdi.

Lloyd-Jorj hukumati tashqi siyosatda ham qator muvaffaqiyatsizliklarga uchradi. Milliy ozodlik harakati Buyuk Britaniya mustamlakachilik imperiyasini larzaga sola boshladi. **1919-yili Hindiston**da mustaqillik uchun kurash kuchaydi. **1919 – 1921-yillari Misr**da mustamlakachilikka qarshi qo'zg'olon bo'lib o'tdi. **1919-yili Afg'oniston**da Buyuk Britaniyaga qarshi mustaqillik urushi boshlandi. Mamlakat hukmron doiralari mustamlakachi imperiyani halokatdan saqlab qolish uchun qator yon berishlarga majbur bo'ldi. *Xususan, 1918-yili Hindistonda mahalliy kadrlarga davlat ishlarini boshqarishda qatnashish imkonini beruvchi konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Dominionlarga Parij tinchlik konferensiyasida mustaqil subyekt sifatida qatnashish huquqi berildi. Afg'onistonning mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi. Misr esa nomiga bo'lsa-da mustaqil davlat deb tan olindi.* Hukumat **Irlandiya masalas**ida juda katta qiyinchiliklarga

uchradi. Irlandiya milliy ozodlik harakatida bo'linish yuz berdi. Uning o'ng qanoti Buyuk Britaniya bilan muzokaralarga kirishdi. **1921-yili** Buyuk Britaniya – Irlandiya shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra, Irlandiya ikkiga bo'lindi. Poytaxti **Dublin** bo'lgan **Janubiy Irlandiya**ga dominion huquqi berildi. **Shimoliy Irlandiya** esa Buyuk Britaniya tarkibida qoldi. Shu vaqtdan mamlakat rasman **«Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya qo'shma qirolligi»** deb ataladigan bo'ldi.

Buyuk Britaniyaning Sovet Rossiyasiga qarshi kurashi muvaffaqiyatsiz yakunlandi. Boz ustiga, u **1921-yil 16-mart**da Rossiya bilan savdo shartnomasini imzolashga majbur bo'ldi. Bu shartnoma amalda Sovet Rossiyasining tan olinganini ham anglatardi. Qolaversa, **Gretsiya** bilan birgalikda **Turkiya**ga qarshi uyushtirgan agressiyasi mag'lubiyatga uchradi. Vatanparvar kuchlar **Kamol Otaturk** boshchiligida Turkiya mustaqilligini saqlab qoldilar. Tashqi siyosatdagi bunday muvaffaqiyatsizliklar Konservatorlar partiyasini qattiq larzaga soldi. Endi bu partiya koalitsion hukumat tarkibidan chiqishga qaror qildi. **1922-yil 19-oktyabr**da Lloyd-Jorj ham bosh vazir lavozimidan iste'fo berishga majbur bo'ldi. Bosh vazir lavozimini oldin Konservatorlar partiyasi rahbari bo'lgan **B.Lou**, birozdan so'ng esa **S.Bolduin** egalladi. *S.Bolduin hukumatining asosiy vazifasi mamlakat iqtisodiyotini inqirozdan olib chiqish edi.* Shundagina jamiyatning asosiy ijtimoiy xastaligi – ishsizlikka barham berish va korxonalar to'la quvvat bilan ishlashini ta'minlash mumkin edi.

Shu maqsadda hukumat iqtisodda **proteksionizm** usulini qo'llashga o'tdi. Biroq bu ko'zlangan natijani bermadi. Aksincha, **1923-yil oxir**iga kelib Buyuk Britaniya iqtisodiyoti boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Natijada mamlakatda norozilik uyg'ondi. Ana shu sharoitda **1923-yili** parlamentga saylov o'tkazildi. Unda garchand Konservatorlar partiyasi g'alaba qozongan bo'lsa-da (**258 o'rin**), Leyboristlar partiyasi (**191 o'rin**) ham katta yutuqqa erishdi. Bu partiya saylovchilarga ko'mir sanoatini milliylashtirishga va'da bergandi. Leyboristlar va Liberallar partiyasi (**158 o'rin**) birgalikda S.Bolduin hukumatiga ishonchsizlik bildirdi. Natijada hukumat iste'fo berishga majbur bo'ldi. *Endi mamlakat tarixida birinchi marta Leyboristlar partiyasiga hukumat tuzish topshirildi.* **1924-yil yanvar**da bu partiya rahbari **R.Makdonald (1866 – 1937)** boshchiligida yangi hukumat tuzildi. R.Makdonald hukumati uzoq yashamadi. Bunga uning yirik kapital tazyiqi ostida saylovchilarga bergan va'dasini (ko'mir sanoatini milliylashtirish, ishsizlikni bartaraf etish, ishchilar uchun uy-joy qurish va h.k.) bajarolmagani sabab bo'ldi.

1924-yil 8-oktyabrda Konservatorlar partiyasi deputatlari parla-

mentda ko'pchilikka ega bo'lmagan leyboristlar hukumatiga ishonchsizlik bildirishga erishdilar. R.Makdonald iste'fo berishga majbur bo'ldi. **29-oktyabr**da bo'lib o'tgan yangi parlament saylovida Konservatorlar partiyasi g'alaba qozondi (**415 o'rin**). **Noyabr**da S.Bolduin yana bosh vazir lavozimini egalladi.

1926-yil voqealari. S.Bolduin bosh vazirligi davrida ham **(1924 – 1929)** iqtisodiyotda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lmadi. Garchand avtomobil, elektrotexnika va kimyo sanoati jadal rivojlangan esa-da, sanoatning an'anaviy tarmoqlari bo'lgan kemasozlik, ko'mir sanoati hamon turg'unlik holatida edi. Ingliz sarmoyadorlari o'z kapitalini mamlakat sanoatini zamon talabida rekonstruksiya qilishga sarflashdan ko'ra xorijga chiqarishni afzal bilishdi. Buning oqibatida mamlakat urushgacha bo'lgan mavqeyini qayta tiklolmadi.

Bir paytlar gullab-yashnagan **ko'mir sanoati**, ayniqsa, og'ir ahvolda edi. Urushgacha sanoatning bu tarmog'ida **1 mln 200 ming ishchi** mehnat qilgan va mamlakatda yiliga **290 mln tonna** ko'mir qazib olingan. Urushdan keyin esa ahvol keskin yomonlashib, bu sanoat eng qoloq tarmoqqa aylandi. Bunga kichik-kichik shaxtalarning ko'pligi hamda jihozlarining eskirib qolgani asosiy sabab bo'lgan. Qolaversa, yerlaridan ko'mir koni topilgan yer egalariga to'lanadigan katta to'lov ham bu soha rivojining asosiy to'siqlaridan biri edi.

1925-yil yozida kon egalari ish haqini kamaytirishga urindilar. **1925-yil 31-iyul**da konchilar ish haqi pasaytirilgan taqdirda ish tashlashni boshlashga qaror qildilar. Transportchilar va temir yo'lchilar konchilarga o'z birdamliklarini ma'lum qildilar. S.Bolduin hukumati bu umumiy ish tashlashga aylanib ketishining oldini olish maqsadida kon egalariga subsidiya to'lashga qaror qildi. Ammo hukumatning bu subsidiyasi **9 oy**ga yetdi, xolos. **1926-yil aprel**da kon egalari ishchilar oldiga ultimatum qo'ydi. Unda ishchilardan ish haqining pasaytirilishiga, ish kuni bir soatga oshirilishiga hamda shaxta egalari bilan tred-yunionlar o'rtasida mamlakat miqyosida jamoaviy shartnomalar imzolanishining bekor qilinishiga rozi bo'lish talab etilgandi. Ayni paytda, agar ishchilar bu talabni rad etsalar, lokaut e'lon qilinishi bilan dag'dag'a qildilar. Ultimatum mamlakatda keskin norozilikka sabab bo'ldi. Shunga qaramay, kon egalari **1926-yil 1-may**da ish haqi kamaytirilishini e'lon qildilar.

Bunga javoban **4-may**da mamlakatda ishchilarning umumiy ish tashlashi boshlandi. Unda jami **6 mln kishi** qatnashdi. Siyosiy nizo kelib chiqishidan cho'chigan tred-yunionlar Bosh kengashi **12-may**da umumiy ish tashlashni to'xtatish haqida qaror qabul qildi. Ayni paytda,

hukumat bilan muzokaraga kirishildi. Ishchilar o'zlari xohlamasalar-da, tred-yunionlar Bosh kengashi qaroriga bo'ysunishga majbur bo'ldilar. Konchilar kurashni **dekabr**gacha davom ettirdilar, oxir-oqibat ular ham ish tashlashni to'xtatishga majbur bo'lishdi. Shunday qilib, **1926-yil**gi umumiy ish tashlash mag'lubiyatga uchradi. Tred-yunionlar rahbariyati Buyuk Britaniyadagi mavjud tizimni saqlab qolish tarafdori ekanligi tufayli shunday bo'ldi. Hukmron doiralar o'z mavqelarini yanada mustahkamlashga qaror qildilar. Chunonchi, ish tashlashni taqiqlovchi qonun qabul qilindi. Unga ko'ra, ish tashlash ayrim olingan bir korxona yoki sanoatning ayrim olingan bir tarmog'idagina o'tkazilishi mumkin edi.

Leyboristlarning ikkinchi hukumati. **1929-yil may**da navbatdagi parlament saylovi bo'lib o'tdi. Unda leyboristlar kichik farq bilan bo'lsa-da g'alaba qozondilar (**287 o'rin**, konservatorlar **260 o'rin**). Bu g'alabaga ko'mir sanoatini, transport va banklarni milliylashtirish, ishsizlikni tugatish, **7 soatlik** ish kunini tiklash, **1927-yil**gi tred-yunionlar haqidagi bergan va'dasi tufayli erishdi. **Iyun**da R.Makdonald leyboristlarning ikkinchi hukumatini tuzdi. **1929-yil kuzi**da boshlangan jahon iqtisodiy inqirozi hukumat va'dalarining bajarilishini qiyinlashtirib qo'ydi. **1930-yil boshlari**da mamlakatda iqtisodiy inqiroz boshlandi va u **1932-yili** o'z cho'qqisiga chiqdi. Shu yili sanoat ishlab chiqarishi **1929-yil**ga nisbatan **20 foiz**ga qisqardi. Ishsizlar soni **3 – 3,5 mln kishi**ni tashkil etdi. Funt sterling qiymati **1/3** ga qadrsizlandi. Real ish haqi kamaydi. Qishloq xo'jaligida ham ishlab chiqarish qisqardi. Tashqi savdo hajmi keskin kamaydi. Buyuk Britaniyani an'anaviy bozorlardan siqib chiqarish jarayoni kuchaydi. Shunday sharoitda ham hukumat qator va'dalarni bajardi. *Ko'mir konlarida 7 soatlik ish kuni joriy etildi. Ishsizlik bo'yicha sug'urta to'g'risida yangi qonun qabul qilindi. Ishsizlik bo'yicha nafaqa olish muddati 3 oydan bir yilga uzaytirildi. Ishsizlikka qarshi kurash bo'yicha yangi vazirlik va ishsizlar uchun ish qidirish bo'yicha maxsus qo'mita tashkil etildi.* Bu tadbirlar ishsizlarning ahvolini ma'lum darajada yaxshilashga xizmat qildi. Biroq yirik kapital tazyiqi ostida kun tartibida ish haqini, ishsizlik nafaqalarini kamaytirish, bilvosita soliqlarni oshirish masalasi ko'ndalang bo'lib qoldi. Bu hol Leyboristlar partiyasining bo'linib ketishiga olib keldi. Yuqorida qayd etilgan masala tarafdori bo'lgan R.Makdonald **1931-yil 25-avgust**da **«Milliy hukumat»** deb atalgan koalitsion hukumat tuzdi (*uning tarkibiga milliy-leyboristlar, milliy-liberallar va konservatorlar kirdi*).

Shunday sharoitda **1931-yil oktyabr**da parlamentga navbatdan tashqari saylov o'tkazildi. Unda Konservatorlar partiyasi g'alaba qozondi (**740 o'rin**). Yana milliy hukumat tuzildi (**1931 – 1935**). Uni yana **R.Mak-**

donald boshqardi. Hukumat ish haqini va ijtimoiy sohalarga ajratiladigan xarajatlarni kamaytirish hisobiga inqirozdan chiqish dasturini amalga oshira boshladi. Ingliz kapitalining chetga ko'plab chiqib ketishidan qo'rqqan hukumat funt sterlingning oltinga nisbatan qiymatini bekor qildi. Binobarin, endilikda funt sterling oltinga almashtirilmaydigan bo'ld. Ayni paytda, AQSh va Fransiya banklari Buyuk Britaniyaga **80 mln funt sterling** qarz berdi.

Hukumat tashqi savdoda erkin savdodan voz kechish va proteksionizm yo'lidan bordi. Unga ko'ra, imperiya tarkibiga kiruvchi hududlarda ingliz tovarlaridan olinadigan boj chet davlatlar tovarlarinikidan **10 foiz kam** miqdorda belgilandi. Bu tadbir Buyuk Britaniyaning imperiya bozorlaridagi mavqeyini mustahkamladi. Hukumat ko'rgan chora-tadbirlar o'z samarasini berdi. **1932-yil oxiri**dan iqtisodiyotda biroz sog'lomlashish boshlandi. **1934-yil**ga kelib sanoat ishlab chiqarishi hajmi **1929-yil** darajasiga yetdi.

1935-yil oxirida parlament saylovida Konservatorlar partiyasi g'alaba qozondi (**385 o'rin**). Partiya rahbari **S.Bolduin** ikkinchi milliy hukumatni tuzdi. Funt sterlingning oltinga almashtirilmasligi sarmoyani chetga chiqarishni samarasiz qilib qo'ydi. Endi sarmoyadorlar sarmoyalarini mamlakat ichkarisida joylashtira boshladilar. Masalan, **1936-yili** Buyuk Britaniya chetga **61 mln funt sterling** sarmoya chiqargan bo'lsa, bu ko'rsatkich mamlakat ichkarisida **217 mln funt sterling**ni tashkil etdi. Bu esa sanoatning yanada taraqqiy etishiga olib keldi. Xususiy sarmoyalarning ichki bozorga joylashtirilishiga hukumat olib borgan moliyaviy siyosat ham katta yordam berdi. Xususan, hukumat banklarning tadbirkorlarga eng arzon – **2 foiz** miqdorida kredit berish tartibini joriy etdi (avval **10 – 12 foiz** edi). Biroq Buyuk Britaniya iqtisodiy inqiroz iskanjasidan to'la qutulolmadi. **1937-yil kuzi**dan ishlab chiqarish yana pasaya boshladi. **1938-yili** sanoat ishlab chiqarishi **1937-yil**ga nisbatan **12 foiz**ga kamaydi. Ishsizlar soni yuqoriligicha qolaverdi. Shu tariqa **30-yillar oxiri**ga kelib Buyuk Britaniyaning jahondagi iqtisodiy mavqeyi sezilarli darajada pasaydi. Endilikda nafaqat AQSh, balki Germaniya, Italiya va Yaponiya uning raqiblariga aylangandi.

1924 – 1939-yillarda tashqi siyosat. Makdonald hukumati **1924-yili** Sovet davlatini tan oldi va u bilan diplomatik aloqa o'rnatdi. Buyuk Britaniya **1925-yili** o'tkazilgan Lokarno konferensiyasi tashabbuskorlaridan biri edi. Bu konferensiya Germaniyani G'arb davlatlari bilan yarashtirishga xizmat qildi. G'arb davlatlari Germaniyaning Yevropa sharqidagi erkin harakatiga to'siq bo'luvchi kafolatlar tizimini yaratmadi. **1927-yil 24-mart**da Buyuk Britaniya **Xitoy**ga qarshi harbiy intervensiya uyushtirdi.

Uning maqsadi Xitoyda **Chan Kayshi** hokimiyatini to'la qaror toptirish edi. **18-aprel**da **Nankin**da Chan Kayshi hukumati qaror topdi.

30-yillarda Buyuk Britaniya tashqi siyosati ikki asosiy muammoga duch keldi. *Bir tomondan, fashistlar Germaniyasining Yevropadagi agressiv tashqi siyosati, ikkinchi tomondan, imperiya mustamlakalarida kuchaygan milliy ozodlik harakatlari edi.* Buyuk Britaniya Fransiyaning Yevropadagi ta'sirini zaiflashtirishda Germaniyadan foydalanishga intildi. Buning natijasi o'laroq **1935-yil 30-iyun**da **Buyuk Britaniya – Germaniya** dengiz bitimi imzolandi. *Bu bitimga ko'ra, Germaniya Buyuk Britanya harbiy-dengiz flotining 1/3 qismiga teng miqdorda dengiz floti tuzish imkoniyatini qo'lga kiritdi.* Bu Versal shartnomasining ochiqdan ochiq buzilishi edi. Germaniya Reyn viloyatiga qo'shin kiritganda ham, Buyuk Britaniya jim kuzatuvchiga aylandi. **1936-yili** Ispaniyada Franko fashistik diktaturasi o'rnatilganda, Buyuk Britaniya Ispaniya ichki ishlariga aralashmaslik siyosatini yuritdi. Bu siyosat Ispaniyaning qonuniy hukumatiga qurol-yarog' eksport qilishni amalda to'xtatib qo'ydi va bu bilan fashizmning hokimiyat tepasiga kelishiga ko'maklashdi.

1937-yili hukumat tepasiga kelgan konservatorlar rahbari **N.Chemberlen (1869 – 1940) 3 yillik** vazirlik faoliyati davomida Gitlerni «tinchlantirish» siyosati tashabbuskori bo'ldi. Shu bois Buyuk Britaniya Germaniyaning Avstriya, Chexoslovakiyani bosib olishiga amalda yordamlashdi. *U bunday «kichik» yon berishlar bilan butun bir avlod uchun tinchlikni saqlab qolmoqdaman deb qayta-qayta uqtirardi.* Biroq Germaniya, birinchi navbatda, Sovet davlatiga emas, G'arb davlatlariga urush boshlashi to'g'risidagi rejasi haqidagi ma'lumotlar tez orada Buyuk Britaniyaga ma'lum bo'lib qoldi. Mamlakat zo'r berib urushga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Harbiy xarajatlar **ikki baravar** oshirildi. Qolaversa, Buyuk Britaniya harbiy doktrinani faqat o'zini emas, balki Fransiyani ham himoya qilishga mo'ljallab qayta tuzdi. *1939-yil 15-aprelda Buyuk Britaniya tarixida birinchi marta tinch davrda umumiy harbiy majburiyat joriy etildi.* Agar Germaniya **Polsha**ga hujum qilsa, Buyuk Britaniya unga harbiy kuch bilan ham yordam beradigan bo'ldi. Bunday kafolatlar **Gretsiya** va **Ruminiya**ga ham berildi.

Mustamlaka va dominionlardagi ahvol. Buyuk Britaniya mustamlaka va dominionlarida juda katta qo'shin saqlashga majbur edi. **1930-yil aprel**da Hindiston Milliy Kongressi hind xalqini yana fuqaroviy bo'ysunmaslikka chaqirdi (birinchi bosqich **1919 – 1922**). Bu narsa kuchli ommaviy namoyishni keltirib chiqardi. Ingliz ma'murlari bu namoyish rahbarlarini juda og'ir jazolarga mubtalo etdi. **1931-yili** Buyuk Britaniya o'z

dominionlarining huquqlaridagi cheklashlarni bekor qilish haqidagi hujjatni joriy etishga majbur bo'ldi. Bu hujjat tarixga **«Vestminster nizomi»** nomi bilan kirdi. Hujjat dominionlarning ichki va tashqi siyosatda to'la mustaqilligini e'lon qildi. Endi dominionlar (**Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya**) qabul qilgan qarorlar Buyuk Britaniya parlamenti tomonidan tasdiqlanmaydigan bo'ldi. Buyuk Britaniya parlamentining dominionlarda qabul qilingan istalgan qonunni bekor qilish huquqi barham topdi. «Vestminster nizomi»ga ko'ra, dominionlar Buyuk Britaniya bilan birgalikda **«Britaniya Millatlar Hamdo'stligi»**ga birlashdilar (bu hamdo'stlik bugungi kunda ham mavjud. Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiya kabi sobiq dominionlarda hamon davlat boshlig'i Buyuk Britaniya qirolichasi tomonidan tayinlanadi). **30-yillar**da Irlandiya masalasi yana keskinlashdi. **1937-yili Janubiy Irlandiya** mustaqil davlat deb e'lon qilindi.

23.6. ITALIYA VA ISPANIYA

Birinchi jahon urushining Italiya uchun oqibatlari. Italiya ham urushda g'olib davlatlardan biri edi. Biroq bu g'oliblik unga juda qimmatga tushdi. Italiya urushda **650 ming kishi** yo'qotdi. **800 mingdan ortiq kishi** mayib-majruh bo'lib qoldi. Mamlakat harbiy xarajatlari **46 mlrd lira**ni tashkil etdi. Urush mamlakatni moliyaviy jihatdan holdan toydirdi. Italiya Buyuk Britaniyadan **2,5 mlrd**, AQShdan esa **1,5 mlrd dollar** qarz bo'lib qoldi. Shu tariqa Italiyaning chet el mahsulotlariga, kreditlariga qaramligi yanada kuchaydi. Urushgacha ham qishloq xo'jaligi Italiya iqtisodiyotining nihoyatda qoloq sohasi edi. Urush esa bu sohani yanada xarob qildi. Yer egaligida o'rta asrchilik qoldiqlari hamon davom etardi. *40 ming yirik yer egasi 10 mln gektar yerga egalik qilgani holda, 2,5 mln dehqon atigi 6 mln gektar yerga egalik qilardi.* Dehqon oilalarining deyarli yarmida hech qanday yer yo'q edi. Ular og'ir shartlar asosida ijaraga yer olib hayot kechirganlar. Italiya janubi (**Sitsiliya va Sardiniya**)da ahvol undan ham og'ir edi.

Davlat qarzining ko'pligi soliqlarni keskin oshirishga olib keldi. Pul qadrsizlandi, natijada narx-navo dahshatli tarzda o'sib bordi. Mamlakatda ocharchilik ro'y berdi. Boz ustiga, urush natijalari Italiyani g'oliblar ichida mag'lub davlatga aylantirib qo'ygandi. Ma'lumki, Italiya dastlab «Uchlar ittifoqi» a'zosi bo'lgandi. Jahon urushi boshlangach, Italiya kutib turish yo'lini tutdi. Bundan foydalangan Antanta katta va'dalar berib, Italiyani o'zi tomoniga og'dirib olishga erishdi. Ammo Parij sulh konferensiyasida Buyuk Britaniya va Fransiya o'z va'dalari ustidan chiqmadi. Ya'ni ular

va'da qilingan hududlarni Italiyaga bermadi. To'g'ri, Italiya ham quruq qolgani yo'q, sobiq Avstriya-Vengriya imperiyasiga qarashli **Janubiy Tirol** va Adriatika sohilidagi **Triyest porti**, **Yugoslaviyaning ba'zi hududlari**, Turkiyaga qarashli **Dodekanes oroli** Italiyaga berildi. Italiya Millatlar Ligasining doimiy a'zosi maqomiga ega bo'ldi. Shuningdek, unga Fransiya harbiy-dengiz floti qudratiga teng flotga ega bo'lish huquqi berildi. Biroq hukmron doiralar uchun bular oz bo'lib ko'rindi. Oz ulush tekkanidan arazlagan Italiya bosh vaziri **Orlando** Parij tinchlik konferensiyasidan ketib qolgandi.

Orlando hukumatining ichki va tashqi siyosati. Italiyaning yirik siyosiy arboblaridan biri **Orlando 1917-yil oktyabr**da bosh vazir lavozimini egallagan. Orlando hukumati Italiyaning jahon urushida qatnashishini davom ettirdi. Bu hukumat Antantaning Sovet Rossiyasiga qarshi kurashida Italiya ishtirokining tarafdori bo'ldi. Shu bois **1918-yili** o'z qo'shinlarini **Odessa, Murmansk** va **Vladivostok**ka yubordi. Antantaning intervensiya siyosati barbod bo'ldi. Italiyaning g'oliblar ichida mag'lub bo'lishi Orlando hukumatining obro'sini tushirib yubordi. Chunki Italiya o'zi da'vo qilgan **Dalmatsiya, Valoniya, Simerna**dan birortasini ham ololmadi. Boz ustiga, Turkiyaga qarashli Simernani bosib olish uchun **1919-yil may**da hujum boshladi va mag'lubiyatga uchradi. Qolaversa, **Albaniya**ni ham tashlab chiqishga majbur bo'ldi.

Hukumat tashqi savdo bozorlarining qo'ldan ketishi hamda tashqi kredit uzilib qolishining oldini ololmadi. Natijada urushdan biroz keyin mamlakatda iqtisodiy inqiroz boshlandi. Oqibatda ish haqi keskin pasaydi, inflyatsiya kuchaydi. Armiya safidan bo'shatilgan harbiylar ishsiz qoldilar. Ana shunday sharoitda **1919-yil iyun**da Orlando hukumati iste'fo berishga majbur bo'ldi. **1919-yil noyabr**da bo'lib o'tgan parlament saylovida **Italiya sotsialistik partiyasi** g'alaba qozongan bo'lsa-da, bu mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatni yumshatishga olib kelmadi.

Fashizmning hokimiyat tepasiga kelishi. **1919 – 1920-yillar** Italiya tarixiga ham **«qizil ikki yillik»** nomi bilan kirdi. Bu ibora shuni ko'rsatadiki, shu ikki yil ichida Italiyada ham Sovet Rossiyasidagi kabi tadbirlar amalga oshirildi. Shimoliy Italiyada ishchilar zavod va fabrikalarni egallab oldilar va ishlab chiqarish ustidan o'z nazoratlarini o'rnatdilar. Zavod va fabrikalarni qo'riqlash uchun qizil gvardiya tuzdilar. Italiya armiyasi mamlakat ichkarisidagi siyosiy voqealarga nisbatan o'z betarafligini e'lon qilgani uchun, hukumat ishchilarning bunday «o'zboshimcha»ligini bostirish uchun armiyani yuborolmadi. Natijada hukumat va korxona egalari yon berishga majbur bo'ldilar. Xususan, **8 soatlik** ish vaqti belgilandi.

Narxlar o'sishining aholiga ko'rsatadigan oqibatini pasaytirish maqsadida ish haqiga qo'shimcha to'lov (kompensatsiya) to'lanishi e'lon qilindi. Yer egalariga yollanib ishlovchilar, ijaraga yer olib ishlovchilar uchun shartlar nisbatan yengillashtirildi. Mamlakat janubida dehqonlar yer egalaridan tortib olgan yerlarining bir qismi ularga qonuniylashtirib berildi.

1920-yili Italiya mehnatkashlari hokimiyatni egallab olish imkoniga ega bo'ldilar. Biroq ularning harakatini uyushtirishga qodir, bu ishni parlament yo'li bilan amalga oshirish tomon yetaklaydigan jiddiy siyosiy partiya yo'q edi. **1892-yil**dan beri faoliyat ko'rsatayotgan Italiya sotsialistik partiyasi **uch oqim**ga bo'linib ketgandi. Partiya mehnatkashlarning hokimiyatni egallashlariga qarshi edi. **1919-yil**i tashkil topgan hamda o'z dasturiga kirgan ikki muhim va'da bilan (*1. Yer egalaridan haq to'lab bir qism yerlami olish va uni dehqonlarga bo'lib berish. 2. Mehnat uchun haq to'lash*) omma orasida obro'-e'tibor qozonib borayotgan **Xalq partiyasi** ham mustahkam emasdi. U ham noqonuniy yo'l bilan hokimiyatni egallashga qarshi edi. **1920-yili** Italiyada inqilobiy harakatning yanada kuchayishi Orlandodan keyin bosh vazir bo'lgan **Nitti hukumati**ni ham bir yil o'tmay iste'fo berishga majbur etdi (**1920-yil iyun**). Yangi tuzilgan **Jolitti hukumati** inqilobiy harakat to'lqinini pasaytirish maqsadida oziq-ovqat mahsulotlari narxini **50 foiz**ga kamaytirdi.

Oxir-oqibatda ishchilarning kasaba uyushmasi va hukumat inqilobiy harakatni chuqur islohotlar o'tkazishga va'da berish yo'li bilan pasaytirishga erishdilar. Biroq mamlakatda ro'y bergan «qizil ikki yillik» hukmron doiralarni cho'chitib qo'ydi. Ular kommunistik – qizil to'ntarish xavfidan dahshatga tushdilar va mamlakatda kuchli diktatura o'rnatishga intila boshladilar. Bu Italiyada fashizmning hokimiyat tepasiga kelishiga yo'l ochdi. **1919-yili** Italiyada frontdan qaytgan sobiq askarlar **«Quroldoshlar uyushmasi»** (Fashi di kombattimento) deb atalgan tashkilot tuzgandilar. Tashkilotni **Benito Mussolini (1883 – 1945)** boshqargan, u Italiyada fashizm g'oyalarini keng targ'ib etdi. Benito Mussolini dastlab sotsialist edi. Burjua parlamentarizmining mamlakatda tartib o'rnatishdagi ojizligi, urushdan keyin o'z turmush darajasining yaxshilanishiga umid qilgan millionlab fuqarolar orzu-umidlari puchga chiqqani, Italiya hukmron doiralarining urush natijalaridan qanoatlanmagani fashizmni yuzaga keltirgan omillar edi. Xuddi shu omillar ko'pchilik italyanlarning fashistlar mafkurasi tomon og'ishiga sabab bo'ldi.

Italiyada fashizmning tez muvaffaqiyat qozonishida Mussolinining shaxsiy sifatlari ham juda katta rol o'ynagan. U kuchli notiqlik qobiliyatiga ega edi. Mussolini fashizmni o'ziga xos dinga aylantirolgan shaxs sifatida

mashhur. U ko'p ming kishilik mitinglarda yirik mulkdorlarning mehnatsiz daromadlarini, amaldorlarning suiiste'mollarini, birorta ham muammoni hal etishga qodir bo'lmagan Italiya parlamentini ayovsiz tanqid qilardi. Ayni paytda, u Italiyaning Qadimgi Rim imperiyasi davridagi qudratini tiklashga va'da berardi. O'zini esa bo'lajak imperiyaning dohiysi deb bilar, shu bois qadimgi rimliklarning **«ducha» (dohiy)** so'zini o'ziga laqab qilib olgandi. Uning otashin, jozibador so'zlari sehrlab qo'ygan miting qatnashchilari: *«Boshla bizni, duche»*, – deb xitob qilardilar.

Mussolini fikricha, *«Italiyada yangi tartib – milliy sotsializm»* hukmron bo'lishi kerak edi. Binobarin, Italiya yagona korporatsiyaga, ya'ni butun Italiya jamiyati manfaatlarini himoya qiluvchi birlashmaga aylanadi. Bu korporatsiyada barcha: sarmoyadorlar va ishchilar, yer egalari va dehqonlar, aholining qolgan qatlamlari bir oila a'zolariga birlashadilar va mehnat qiladilar. Davlat esa bu oila barcha a'zolarining manfaatlari va maqsadlari birligini kafolatlaydi.

1920-yildan fashistlar yanada faollashdilar va o'zlarining harbiy otryadlarini tuza boshladilar. Italiya sotsialistik partiyasi va Umumiy mehnat konfederatsiyasi fashizmga qarshi kurashish o'rniga **1921-yil 3-avgust**da Mussolini bilan **«totuvlik pakti»**ni imzoladilar. Ishchilar tashkilotlarining bunday yo'l tutishi fashizmni yanada kuchaytirdi va u yetakchi siyosiy kuchga aylana bordi. **1922-yil**gi parlament saylovida ular **35 o'rin**ga ega bo'lsalar-da, mahalliy saylovlarda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. **1922-yil oktyabr**da ular bir necha vazirlik lavozimlarini talab qilib Rimga yurish uyushtirdilar. Bu konstitutsiyaviy tuzumga qarshi isyon edi. Hukumat uni bostirish chorasini ko'rmadi. Sababi yirik sarmoyadorlar asosiy ko'pchiligining hukumatga tazyiq o'tkazgani edi. Yirik sarmoyadorlar hokimiyatni Mussoliniga topshirish tarafdori edilar. Masalan, mamlakat hayotida eng katta ta'sirga ega **«Sanoat bosh konfederatsiyasi»** rahbarlari qirol **Viktor Emmanuel III** ga telegramma yuborib, undan hokimiyat Mussoliniga berilishini talab qildilar. Qirol bunga javoban Mussolinini bosh vazir etib tayinladi, **1922-yil 30-oktyabr**da Mussolini koalitsion hukumat tuzdi. Shu tariqa Italiyada fashizm qonuniy yo'l bilan hokimiyat tepasiga keldi.

Parlamentda (**420 o'rinli**) atigi **35 o'rin**ga ega bo'lgan fashistlar yetakchisi avvaliga boshqa siyosiy kuchlar bilan murosa qilishga majbur bo'ldi. Yirik sarmoyadorlarning qo'llab-quvvatlashi natijasida o'z hokimiyatini mustahkamlab bordi. **1922-yil 23-noyabr**da qirol va parlament Mussoliniga cheklanmagan huquq berdi. Endi u o'z partiyasi a'zolaridan tuzilgan **«Katta fashist kengashi»** deb atalgan kengash orqali hukumat

faoliyatini nazorat ostiga oldi. Tayyorlanayotgan qonun loyihalari shu kengash nazoratidan o'tardi. Barcha lavozimlarga Mussolini partiyasi a'zolari tayinlanadigan bo'ldi. **1924-yil oxiri**da Mussolinining tazyiqi ostida saylov to'g'risidagi qonunga o'zgartirishlar kiritildi. Unga ko'ra, saylovda eng ko'p ovoz olgan partiya parlamentdagi deputatlar o'rnining **2/3 qismi**ni egallardi. Yangi qonun bo'yicha **1924-yil**gi parlament saylovida Mussolini partiyasi g'alaba qozongan. Shu tariqa mamlakatda Mussolinining fashistik diktaturasi qaror topdi. **1926-yil**dan boshqa siyosiy partiyalar tarqatib yuborildi. **1929-yili** Mussolini **Vatikan** bilan shartnoma imzoladi. *Unga ko'ra, Rim (Vatikan) papasi diniy hukmdor deb tan olindi va katoliklik milliy din deb e'tirof etildi, cherkov mulki soliqlardan ozod etildi.*

Ichki siyosat. Ichki siyosatda iqtisodiyot masalasiga alohida e'tibor berildi. Mussolinining maqsadi iqtisodiyotda korporativ tartibni to'la qaror toptirish edi. Shu maqsadda **1927-yili «Mehnat xartiyasi»** deb nomlangan hujjat qabul qilindi. *Iqtisodda joriy etilgan korporativ tartibga ko'ra, ishlab chiqarish muammolarini birgalikda hal etish uchun ishchilar va sarmoyadorlar yagona kasaba uyushmasining teng huquqli a'zosiga aylandi.* Xalq xo'jaligi bo'yicha turli sohalarda **22 ta korporatsiya** tuzildi va ular **Korporatsiyalar milliy kengash**iga birlashtirildi. Milliy kengash tarkibi ishbilarmonlardan va fashistlar vakillaridan iborat edi. Korporatsiyalar yirik mulkdorlar mavqeyiga putur yetkazgani yo'q. *Italiya iqtisodiyotida davlat sektorining ulushi ortib bordi. Bu Italiya fashizmining o'ziga xos belgilaridan biri edi.*

Mamlakat iqtisodiyotini boshqarishni davlat qo'liga olib berishni ta'minlaydigan ikkita muassasa tuzildi. Uning biri **Sanoatni tiklash instituti** deb atalardi. U davlatning yirik trestiga aylandi. *Masalan, cho'yan eritishning 90 foizi, po'lat ishlab chiqarishning 70 foizi, mashinasozlikning 25 foizi shu trestga qarashli edi. Qolaversa, butun savdo floti, fuqaro aviatsiyasi, telefon, aloqa, avtomobil yo'llari ham shu trestga qaraydigan bo'ldi.* Ikkinchi muassasa **Suyuq yoqilg'i bo'yicha milliy boshqarma** deb atalgan. *Unga gaz qazib olishning 75 foizi, sun'iy kauchuk ishlab chiqarishning 100 foizi, neftni qayta ishlash zavodlarining 30 foizi qaragan.* Hukumat yirik monopoliyalarni qo'llab-quvvatlash yo'lidan bordi. Ularni inqiroz oqibatlaridan saqlab qolish maqsadida moliyaviy yordam ko'rsatishni tashkil etdi, kasodga uchrashi mumkin bo'lgan banklarning aksiyalarini sotib oldi.

1929-yili yuz bergan jahon iqtisodiy inqirozi kam taraqqiy etgan Italiya iqtisodiyotini nihoyatda og'ir ahvolga solib qo'ydi. Inqiroz **1932-yili** o'z cho'qqisiga ko'tarildi. Shu yili sanoat ishlab chiqarishi **1929-yil**ga nisbatan

33 foizga qisqardi. Tashqi savdo **63 baravar** kamaydi. **12 mingga yaqin** mayda va o'rta korxona bankrot bo'ldi. Ishsizlar soni **1 mln kish**idan ortdi. Oylik ish haqi **50 – 60 foiz**ga kamaydi. Inqiroz dehqon xo'jaliklarini ham xonavayron qildi. O'n ming gektarlab yer maydonlari sud hukmi bilan qarz berganlarga o'tkazildi. **1933-yil**ga kelibgina ishlab chiqarishning pasayishi to'xtatildi. **1937-yili** sanoat ishlab chiqarishi hajmi **1929-yil** darajasiga yetdi.

Davlat **avtarkiya xo'jaligi** yo'lini tanladi. *U barcha zarur mahsulot turlari bilan o'zini o'zi ta'minlaydigan xo'jalik.* Bunday xo'jalikda importga ko'z tikilmaydi. **1934 – 1935-yillari** Italiyada tashqi savdoda davlat monopoliyasi joriy etilgani ham shu bilan izohlanadi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari importiga qaram bo'lib qolmaslik maqsadida davlat qat'iy belgilangan narxlarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotib oladigan bo'ldi. Bu esa dehqonlarni mahsulot sotishning kafolatlangan bozori bilan ta'minladi. Ayni paytda, o'n minglab dehqon xo'jaliklarini inqirozdan saqlab qoldi. **1937-yili** Italiya industrial-agrar davlatga aylandi. Biroq iqtisodiy taraqqiyotning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiyadan ortda qolaverdi.

Mussolinining tashqi sivosati. Mussolini tashqi siyosatining asosiy maqsadi Buyuk Italiya davlatini barpo etish orzusiga bo'ysundirilgandi. Bu davlat butun O'rta yer dengizi bo'ylarini hamda Qadimgi Rim imperiyasi tarkibiga kirgan barcha hududlarni birlashtirishi lozim edi. **1923-yili** Italiya Gretsiyaga qarashli **Korfu orolin**i bosib oldi. Biroq Buyuk Britaniyaning talabi bilan orolni tashlab chiqishga majbur bo'ldi. **1924-yili** Yugoslaviyaga qarashli **Fiuma porti** Italiyaga o'tdi. Italiya shu yili Sovet Rossiyasini tan oldi va u bilan diplomatik aloqa o'rnatdi. **1927-yili Albaniya** ustidan amalda o'z protektoratini o'rnatdi. **1935-yil 3-oktyabr**da **600 ming kishilik** Italiya armiyasi **Efiopiya**ga bostirib kirdi. **1936-yil may**da Efiopiyani bosib olish nihoyasiga yetdi. Shu yil yozida Italiya armiyasi Ispaniyada fashistik diktatura o'rnatish uchun general Frankoga yordamga yuborildi. Chunki Gitler Frankoni qo'llab-quvvatlardi. Shu tariqa Germaniya bilan yaqinlashuv boshlandi. **1937-yili** u Germaniya va Yaponiya o'rtasida imzolangan **«Antikomintern pakti»**ga qo'shildi. B.Mussolini bu paktni *butun Yevropa uning atrofida birlashsa arziydigan ahdnoma* deb atadi. *Ushbu bitimga ko'ra, Germaniya Italiyaning Efiopiyani bosib olganini tan oldi. 1939-yil aprelda Italiya Albaniyani to'liq bosib oldi.*

Birinchi jahon urushining Ispaniyaga ta'siri. Ispaniya Birinchi jahon urushida betaraf qoldi. Bu hol unga urushayotgan har ikki harbiy-siyosiy ittifoqqa kiruvchi davlatlar bilan muvaffaqiyatli savdo-sotiq munosabatla-

rini amalga oshirishga imkon berdi. Eksport hajmi import hajmidan yuqori bo'ldi. Natijada mamlakat oltin zaxirasi **4 baravar** ko'paydi. Urush yillarida harbiy buyurtmalar salmog'ining oshishi sanoatdagi ayrim tarmoqlarning gurkirab rivojlanishini ta'minladi. Shunday bo'lsa-da, Ispaniya baribir kam taraqqiy etgan, agrar-industrial davlat bo'lib qolaverdi. Mamlakat qishloq xo'jaligida o'rta asrchilik munosabatlari qoldiqlari hamon kuchli edi. Barcha yer maydonining **2/3 qismi** yirik yer egalari va mamlakat hayotida katta ta'sirga ega katolik cherkovi ixtiyorida edi. Millionlab dehqon xo'jaliklariga esa atigi **1/3 qism** yer tegishli edi. Yersizlar ham ko'p bo'lib, ular asoratli shartlar asosida yerni ijaraga olardilar. Mehnat unumdorligi past bo'lgan. Mamlakat iqtisodiyotining ahvoli chet el kapitali kiritilishiga sezilarli darajada bog'liq edi. Sanoatga joylashtirilgan chet el kapitalining **54 foizi ingliz**, **34,5 foizi fransuz** kapitali edi. Katta yer egalari hamda ularning tayanchi bo'lgan armiya va katolik cherkovi o'zlarini mavjud tartiblar qo'riqchisi deb bilardi. Shuning uchun yangilikka har qanday intilishlarni yo'qotish uchun barcha vositalarni ishga soldilar. Mamlakatda harbiylarning o'rni ortib bormoqda edi. Vujudga kelgan **harbiy xuntalar** (harbiylar to'dasi) XX asrda mamlakat siyosiy hayotiga tez-tez aralashib turish quroliga aylangan.

Harbiy fashistik diktatura o'rnatilishi. Ispaniya urushda qatnashmagan bo'lsa-da, urush mamlakat aholisi turmush darajasini og'ir ahvolga solib qo'ydi. Oziq-ovqat mahsulotlari narxi **65 foiz**ga ortdi. Inflyatsiya kuchaydi va real ish haqi kamaydi. Oqibatda **1917-yil 13-avgust**da mamlakatda yalpi siyosiy ish tashlash ro'y berdi. Namoyishchilar monarxiyani tugatishni, Ta'sis majlisi chaqirishni va respublika hukumati tuzishni talab qildilar. Ish tashlash shiddatli ko'cha janglariga aylanib ketdi. Hukumat mamlakatda qamal e'lon qildi va armiyaning kuchi bilan tartib o'rnatdi. **1918 – 1920-yillari** Ispaniyada inqilobiy harakat to'lqini yanada kuchaydi. Bu hol hukmron doiralarni sarosimaga solib qo'ydi. Shu yillar davomida hukumat **8 marta** almashdi. Hukumat yetilgan dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishga ojizlik qildi. Vujudga kelgan bu ahvol mamlakatda harbiy diktatura o'rnatilishi xavfini tug'dirdi.

Hukumat ijtimoiy harakatni bostirish uchun qanchalik harakat qilmasin, baribir qator talablarni bajarishga majbur bo'ldi. **1920-yil apreld**an **8 soatlik** ish kuni joriy etildi. Ish haqi oshirildi, bolalar mehnati taqiqlandi. Qarilik va nogironlik sug'urtalari joriy etildi. Hukmron doiralarning qo'llab-quvvatlashi natijasida ispan fashistlari o'z qurolli tashkilotlarini tuza boshladilar. Ularning asosiy vazifasi xalq harakatini bostirish edi. Hukumatning shafqatsiz terrori tufayli **1921-yili** ijtimoiy harakatning pa-

sayishiga erishildi. Biroq bu hol ko'pga cho'zilmadi. Mustamlakalarda ham harakat kuchaydi. **1921-yil iyun**da hukumat **Marokash**da boshlangan milliy ozodlik harakatini bostirish uchun armiya yubordi. Biroq Ispaniya armiyasi tor-mor etildi hamda **20 ming jangchi** asirga tushib qoldi. Bu mag'lubiyat mamlakatda urushga qarshi harakat boshlanishiga turtki bo'ldi. Norozilik hatto armiya qismlarida ham ro'y berdi.

1922 – 1923-yillari ish tashlash harakati yana kuchaydi, hukumat terrorni to'xtatishga hamda xuntalarni tarqatib yuborish to'g'risida qonun qabul qilishga majbur bo'ldi. **1923-yil aprel**da parlamentga qayta saylov bo'lib o'tdi. Unda **Liberal partiya** g'alaba qozondi. Siyosiy voqealarning bu tarzda rivojlanishi qirol va hukmron doiralarni tashvishga solib qo'ydi. Ular o'z hokimiyatini mamlakatda diktatura o'rnatish orqali saqlab qolishga qaror qildilar. Natijada **1923-yil 13-sentyabr**da **Kataloniya** harbiy okrugi qo'mondoni **Primo de Rivera** tomonidan davlat to'ntarishi amalga oshirildi. Hokimiyat harbiy direktoriya qo'liga o'tdi. Shu tariqa Ispaniyada harbiy-fashistik diktatura o'rnatildi (**1923 – 1930**).

Primo de Rivera **1924-yili «Vatanparvarlik ittifoqi»** *deb nomlangan* fashistik partiya tuzdi. Bundan ko'zlangan maqsad diktaturaning ijtimoiy tarkibini kengaytirish edi. Bunga partiya safiga mayda va o'rta mulkdorlarni jalb etish orqali erishish ko'zda tutilgandi. Qolaversa, Primo de Rivera mehnat bilan sarmoyaning hamkorligini ta'minlash maqsadida **«Baravarlik komissiyasi»** *tuzdi va komissiyaga har ikki tomondan* teng miqdorda vakillar kiritildi. Bu komissiya mehnat sharoiti va ish haqi masalasini hal etishi kerak edi. **1926-yili** ijtimoiy sug'urta va ishsizlik masalalari bilan shug'ullanuvchi korporatsiya tuzildi. Diktatura ijtimoiy harakatni shafqatsizlik bilan bostirish yo'lini tutdi. Primo de Rivera o'z diktaturasiga qonuniy tus berishga intildi. Shu maqsadda **1925-yil dekabr**da direktoriyani Ministrlar kabineti bilan almashtirdi va mamlakatda yangi Konstitutsiya ishlab chiqishga kirishildi. Primo de Rivera Italiya fashizmi bilan yaqinlasha boshladi. **1926-yil 7-avgust**da u bilan do'stlik to'g'risida shartnoma imzoladi.

U tashqi siyosatda mustamlakalarni qanday bo'lmasin saqlab qolishga intildi. **1927-yili Fransiya** bilan birgalikda Marokash xalqining milliy ozodlik harakatini qonga botirdi. Biroq ichki va tashqi siyosatda qo'llangan usullar Primo de Rivera diktaturasini saqlab qololmadi. **1929-yili** boshlangan inqiroz Ispaniya iqtisodini izdan chiqardi. Davlat qarzi keskin ko'paydi. Keng miqyosda korrupsiya avj oldi. Mamlakatda inqilobiy portlash ro'y berishining oldini olish maqsadida harbiy generalitet **yanvar**da Primo de Riverani iste'fo berishga majbur etdi.

1931-yil inqilobi. Monarxiyaning qulashi. Iqtisodiy inqiroz Ispaniyadagi muammolarni chuqurlashtirib yubordi. Mamlakatda ish tashlash avj oldi. **1930-yili** bu tadbirda **1 mln dan ortiq ishchi** qatnashdi. Bunday sharoitda hatto yirik sarmoyadorlar ham **1879-yil**gi Konstitutsiyani qayta ko'rib chiqish tarafdori bo'ldilar. Ularning maqsadi **kortes** (parlament) ning huquqi oshirilishiga erishish edi. Sarmoyadorlar o'z mavqelarini saqlab qolishning yo'li monarxiyaga barham berish ekanini angladilar. Mamlakatda respublikachilik harakati kuchaydi. **1931-yil 12-apre**ldagi mahalliy saylovlarda respublikachilar g'alaba qozondi. Saylov yakuni haqidagi xabar siyosiy kurashning rivojlanishiga turtki berdi. Mamlakatda burjua-demokratik inqilob yuz berdi. **14-apre**lda inqilobchilar qirol hokimiyati ag'darilganini e'lon qildilar. **Alfonso XIII** shu kuni taxtdan voz kechdi va mamlakatdan qochdi.

1931-yil iyunda Ta'sis majlisiga saylovlar bo'lib o'tdi. Unda respublikachi partiyalar va sotsialistlar g'alaba qozonishdi. Mamlakatda sotsialistlar va so'l respublikachilarning **M.Asanya** boshliq koalitsion hukumati tuzildi. **9-dekabr**da mamlakatning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya Ispaniyani **«barcha mehnatkashlar respublikasi»** deb e'lon qildi. Mamlakatda chuqur islohotlar o'tkazilishi belgilandi. **Agrar islohot haqida** qonun qabul qilindi. *Unga ko'ra, yirik yer egalarining yerlari uning haqini to'lash evaziga musodara qilinishi ko'zda tutildi. Qolaversa, eng og'ir majburiyatlar bekor qilindi. Ijara haqi kamaytirildi.* Milliy masala qisman hal etildi, ya'ni faqat **Kataloniya**ga cheklangan avtonomiya berildi, xolos. Koalitsion hukumat ishchilarning ahvolini yaxshilashga qaratilgan ba'zi tadbirlarni amalga oshirdi. *8 soatlik ish kuni belgilandi. Ijtimoiy sug'urta haqida qonun qabul qilindi.* Tashqi siyosatda Ispaniya **Fransiya** bilan yaqinlasha boshladi. **Italiya** bilan tuzilgan do'stlik to'g'risidagi shartnomani bekor qildi. **1933-yil**i Sovet davlati bilan diplomatik aloqa o'rnatildi.

O'ng kuchlarning hokimiyat tepasiga kelishi. So'l kuchlar koalitsion hukumatining ichki va tashqi siyosatdagi tadbirlari o'ng kuchlarni tashvishga solib qo'ydi. Ular qanday bo'lmasin hokimiyatni egallashga bel bog'ladilar. Shu maqsadda **1932-yili «Ispaniya avtonom o'nglar konferensiyasi»** (SEDA)ga birlashdilar. *Bu tashkilotda sarmoyadorlar, cherkov va harbiy doiralar bilan hamkorlik qilayotgan katta yer egalari yetakchilik qilardilar. Tashkilotni, ayni paytda, dehqonlarning o'ziga to'q qismi ham qo'llab-quvvatlay boshladi.* Fashistlar esa **1933-yili «Ispan falangasi»** deb atalgan partiya tuzdilar. O'ng kuchlar faollashuviga xalq ommasining so'l kuchlar hukumatidan noroziligi ham sabab bo'lgan. Hukumatning islohotlarni o'tkazishdagi qat'iyatsizligi xalq ommasi ko'z

o'ngida uning obro'sini to'ka boshladi. Masalan, **2 yil** davomida atigi **7 mingdan ortiq** dehqon xo'jaligi yer ololgan, xolos.

Boz ustiga, iqtisodiy inqiroz tobora chuqurlashib bordi. Natijada ishsizlar soni **1,5 mln kishi**ni tashkil etdi. Hukumat milliy masalada ham jiddiy o'zgarishlar qilolmadi. Armiyani demokratlashtirish haqidagi va'dalar qog'ozda qoldi. Katolik cherkovi qudratli kuch bo'lib qolaverdi. **1933-yil oxiri**da o'tkazilgan parlament saylovlarida o'ng partiyalar g'alaba qozondilar. Shu tariqa Ispaniyada fashistik to'ntarish bo'lishi tobora oydinlasha bordi. O'nglar hukumati avvalgi islohotlarga qarshi tadbirlar o'tkaza boshladi. Cherkovga qarshi qonun bekor qilindi va ruhoniylarga beriladigan davlat subsidiyasi tiklandi. Bu oddiy ruhoniylarni xonavayron bo'lish va qashshoqlikdan saqlab qoldi. Minnatdorchilik ramzi sifatida ruhoniylar o'nglar hukumatining ashaddiy tarafdoriga aylandilar.

Agrar islohot to'xtatildi. Davlat to'ntarishida qatnashgan harbiylar jazodan ozod etildi. Ayni paytda, fashistlar faoliyatiga qarshi kurashmadi. Bu esa fashistik tashkilotlarning yanada o'sishiga imkon berdi. Fashistik partiyalar (**Ispan falangasi va XONS**) **1934-yil noyabr**da **«Ispaniyani inqilobiy yangilash»** deb nomlangan demagogiyadan iborat dasturni e'lon qildi. **«26 modda»** deb nomlangan bu dastur **Buyuk Ispan imperiyasi**ni tuzish orqali yangi tartib o'rnatishni targ'ib etdi.

Xalq fronti g'alabasi. Fashizm xavfi ortayotgan sharoitda so'l kuchlar birlashish lozimligini anglab yetdilar. **1936-yil 15-yanvar**da ular xalq fronti haqida bitim imzoladilar. Xalq fronti o'zining saylovoldi dasturida saylovchilarga siyosiy mahbuslarni afv etishga, ishdan bo'shatilganlarni ishga tiklashga, repressiya aybdorlarini jazolashga, armiya va davlat apparatini demokratlashtirishga, dehqonlarga soliq va ijara haqini kamaytirishga, ishsizlikni tugatish uchun jamoat ishlarini tashkil etishga, ijtimoiy sug'urta to'g'risidagi qonunni tiklashga va'da berdilar. **1936-yil 16-fevral**gi parlament saylovida **Xalq fronti** g'alaba qozondi. Xalq fronti hukumati o'z va'dalarini bajarishga kirishdi. Masalan, agrar islohot bo'yicha **1936-yil iyul**igacha dehqonlar **700 ming gektardan ortiq** yer oldilar. Xalq fronti hukumatining chuqur islohotlari yirik sarmoyadorlarni, cherkovni, katta yer egalarini, harbiy generalitetni tashvishga soldi. Ular mamlakatda harbiy to'ntarish o'tkazishga tayyorgarlik ko'rdilar. Gitler va Mussolini ularni qo'llab-quvvatlashga va'da berdi.

1936-yil 17-iyulda harbiylar **Marokash**da isyon boshladilar. **18-iyul**da isyon Ispaniya hududiga ko'chdi. Shu tariqa Ispaniyada fuqarolar urushi boshlandi. Armiyaning **80 foizi** isyonchi fashistlar qo'liga o'tdi. Isyonga general **F.Franko (1892 – 1975)** rahbarlik qildi. Ispaniya qonuniy huku-

mati respublikaning konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yuzasidan shoshilinch choralar ko'ra boshladi. **300 ming kishilik** respublikachilar armiyasi tuzildi. Fuqarolar urushi taqdirini Germaniya va Italiyaning aralashuvi hal etdi. Ular o'z harbiy kuchlarini Frankoga yordamga yubordilar (**365 ming kishi**). AQSh «betaraflik», Buyuk Britaniya va Fransiya Ispaniya ishlariga «aralashmaslik» yo'lini tutdilar. Natijada respublikachilar chetdan qurol sotib olish imkonidan mahrum bo'lishdi. Yevropa davlatlaridan ko'ngilli qismlar kelib, Ispaniyaning qonuniy hukumati tomonida turib urush harakatlarida qatnashdilar. Shunday og'ir sharoitda ham hukumat (**Largo Kabalero**) islohotlarni davom ettirdi. *Birgina 1936-yil 7-oktyabridan, dekretga ko'ra, dehqonlar va chorakorlarga 5,5 mln gektar yer berildi, basklarga milliy avtonomiya e'lon qilindi, oziq-ovqat mahsulotlariga qat'iy narx belgilandi.*

Fashistik diktatura o'rnatilishi. **1936-yil sentyabr**da isyonchi fashistlar mamlakat poytaxti **Madrid**ga hujum boshladilar. Fashistlar katta ustunlikka ega edi. Respublikachilar ularga qarshi mardonavor jang qildilar. Biroq kuchlar teng emasdi. Fashizm g'alaba qozondi. **1939-yil 28-mart**da Madrid egallandi. Buyuk Britaniya va Fransiya hali qonuniy hukumat qulamagan paytdayoq isyonchi fashist hukumatini tan olgan bo'lsalar, AQSh **1939-yil 14-apre**lda tan oldi.

23.7. AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI

Birinchi jahon urushining AQSh uchun oqibatlari. AQSh jahon urushi natijasida dunyoning qudratli davlatiga aylandi. AQSh **1917-yil apre**lda urushga kirgandi. Yevropadagi harbiy harakatlarda esa **1918-yil yozi**dan ishtirok etdi. AQSh monopoliyalari Yevropa davlatlariga ulkan miqdorda qurol-yarog' va oziq-ovqat mahsulotlari sotdi. Urush yillarida AQSh monopoliyalari **35 mlrd dollar** sof daromad ko'rdilar. Yevropa davlatlari AQShdan ulkan miqdorda qarz olishga majbur bo'ldilar. Yevropaning **20 davlati** (jumladan, Buyuk Britaniya va Fransiya ham) **10 mlrd dollar** qarz bo'lib qoldi. Bu qarz uchun yiliga to'laydigan foizning o'zi **1 mlrd dollar**ni tashkil etgan. Vaholanki, AQSh urushgacha Yevropa davlatlaridan **6 mlrd dollar** qarz edi. Urush yillarida AQShning chetga sarmoya joylashtirishi **6 baravar** ko'paydi.

AQSh tashqi savdo aylanmasi **1914-yili 2,3 mlrd dollar**ni tashkil etgan bo'lsa, **1920-yili 8 mlrd dollar**ga yetdi. Eksport importdan **4 mlrd dollar** ortiq bo'ldi. AQSh xazinasida dunyo oltin zaxirasining deyarli **50 foizi** to'plandi. **1914 – 1920-yillar** mobaynida AQSh milliy boyligi **2,5**

baravar ortdi. **1920-yil**ga kelib butun dunyoda ishlab chiqarilgan mahsulotning **47 foizi** AQSh hissasiga to'g'ri keldi. AQSh sanoatining turli tarmoqlari ham gurkirab rivojlandi. Masalan, dunyo bo'yicha avtomobilning **80 foizi**, neftning **67 foizi** AQShda ishlab chiqarildi.

Amerika jamiyatidagi muammolar. Urush AQShni g'oyatda boyitdi. Biroq bu narsa Amerika jamiyatidagi ijtimoiy muammolarni butunlay hal etgani yo'q. Aksincha, ular keskinlashib bordi. **1918-yil oxir**ida ishsizlar soni **3 mln dan ortiq**ni tashkil etdi. Urush yillarida kundalik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kamaydi. AQSh monopoliyalari to'plagan boylik oshib bordi. Biroq mehnat ahli turmush darajasi boylik bilan teng o'smadi. Natijada ishchilar o'z haq-huquqlari uchun kurasha boshladilar. Bu kurashda qatnashganlar soni **1919-yili 4 mln dan ortiq**ni tashkil etdi va ular **44 – 48 soatlik** ish haftasini talab qildilar.

AQSh hukmron doiralari ishchilar harakatiga va ularning so'l tashkilotlari faoliyatiga mavjud konstitutsiyaviy tuzumga qarshi suiqasd deb qaradilar. Shu tufayli mamlakatda o'zgacha fikrlovchilarga qarshi shafqatsiz qatag'on avj oldirildi. AQSh hukumati **1918-yili «Da'vatkorlik to'g'risidagi hujjat»**ni qabul qildi. Hujjat mamlakatdagi mavjud tuzum to'g'risida bildirilgan har qanday salbiy fikrlarni jinoyat deb e'lon qildi. *Bunday ayblovga uchraganlar yo 10 ming dollar jarima to'lardi, yoki 20 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilardi.* **2 mingdan ortiq kishi** shunday jazoga mahkum etildi. **1919-yili** sanoatda xususiy mulkdorlikni qoralovchi har qanday da'vat man etildi. **1920-yili** o'zgacha fikrlashda shubha qilinganlikda ayblanib **10 mingga yaqin** taraqqiyparvar arboblar hibsga olindi. Kasaba uyushmalari ichida **Amerika mehnat federatsiyasi** (AMF) faollari va rasmiy rahbariyatning siyosatiga qarshi chiquvchilar ham quvg'in ostiga olindi. Jumladan, **1920-yili** kasaba uyushmalari harakati faollari, italiyalik muhojirlar **Sakko** va **Vansetti** bankni talash va politsiyachini o'ldirishda ayblanib qamoqqa olindilar. Sud ularni o'lim jazosiga hukm qildi va **1927-yili** ular elektr stulda qatl etildi. Bu mudhish voqeaning atayin uyushtirilgani faqat Ikkinchi jahon urushidan keyin dunyoga ma'lum bo'ldi.

Shu tariqa AQShda **20-yillar 2-yarmi**da o'zgacha fikrlovchi va so'l tashkilotlar tugatildi. AMF **1923-yili** ishchi tashkilotlar **«Baltimor-Ogayo»** deb nomlangan rejani qabul qilishlariga erishdi. *Unga ko'ra, mulkdorlar ishchilar maoshini oshirish majburiyatini oldilar. Kasaba uyushmalari esa korxona egalari bilan kelishib, ish tashlashlarga yo'l qo'ymaslik, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ish kunini uzaytirishga rozilik berish majburiyatini oldilar.* Amerika ishchilar harakatida ish tashlash **1926-yili** barham topdi.

20-villarda AQShning iqtisodiy ahvoli. **1922-yil oxiri**da AQSh iqtisodiyotida yangi yuksalish davri boshlandi. **1928 – 1929-yillar**ga kelib AQSh sanoati Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya va Yaponiya sanoati birgalikda ishlab chiqargandan ko'p mahsulot ishlab chiqardi. Chetga sarmoya chiqarish **1929-yili 4 baravar** ko'p bo'ldi. **1919 – 1929-yillar** davomida AQShning chet davlatlarga bergan qarzi boshqa barcha rivojlangan davlatlar bergan qarzdan ko'p bo'ldi. Bu qarzlar evaziga AQSh **1922 – 1932-yillari 9,2 mlrd dollar** foyda ko'rdi.

Jamiyatda ijtimoiy muammolarni hal etishning Yevropa yo'li ijtimoiy muammolarni ijtimoiy islohotlar yo'li bilan hal etish yo'li edi. Amerika yo'li esa tadbirkorlik faoliyatini yanada o'stirish orqali mulkdorlarni yanada boyitish va bu boylikning bir qismini ijtimoiy muammolarni hal etishga sarflash yo'li edi. Bu hodisa tarixda **«yangi ijtimoiy falsafa»** degan nom olgan. AQShda yangi ijtimoiy falsafa hayotda ma'lum darajada o'z ifodasini topdi. **20-yillar oxiri**da avtomobillar soni **28 mln** ni tashkil etdi. Bu Amerika deyarli har bir oila avtomobilga egalik qilish imkoniyatini qo'lga kiritdi degani edi. Boshqa iste'mol tovarlari ham ko'plab ishlab chiqarildi. Tovarlarni kreditga sotish keng yo'lga qo'yildi. Bu esa ishlab chiqarishning yanada o'sishiga olib keldi. Mamlakat to'la telefonlashtirildi.

Biroq bu aytilganlar Amerika jamiyatida muammolar tugatildi degani emasdi. Xususan, **1928-yili** ishsizlar soni **3 mln kishi**ni tashkil etdi. Qishloq xo'jaligi og'ir ahvolda edi. **1920 – 1930-yillari** fermer xo'jaliklari soni kamaydi. Ularning qarzi **15 mlrd dollar**ga yetdi. Buning asosiy sababi mamlakatda qishloq xo'jalik mahsulotlari, asosan, chet davlatlardan keltirilardi.

30-yillarda iqtisodiy ahvol. **1929-yil kuzi**da AQShda inqiroz boshlandi, u boshqa davlatlarga ham keng yoyildi va jahon iqtisodiy inqiroziga aylandi. *Inqirozga ortiqcha ishlab chiqarish sabab bo'ldi.* Inqiroz tufayli AQShda sanoat ishlab chiqarishi deyarli **50 foiz**ga qisqardi. **10 ming** bank sindi. **130 mingga yaqin** savdo va sanoat firmalari bankrot bo'ldi. Ishlab chiqarilgan tovarlar sotilmay qoldi. Natijada ular yo'q qilina boshlandi. Ishchilarga to'lab kelinayotgan yillik ish haqining umumiy summasi **15 mlrd dollardan 6 mlrd dollarga** tushib qoldi. **1933-yil boshi**da mamlakatda ishsizlar soni **17 mln kishi**ni tashkil etdi. Bu AQSh tarixida eng yuqori ko'rsatkich edi. Mamlakatda ishsizlikni sug'urtalash haqida qonun yo'q edi. Natijada ochdan o'lish hollari ham yuz berdi. Inqiroz AQSh qishloq xo'jaligi uchun ham ayanchli bo'ldi. Xarid narxining pasayishi fermer xo'jaliklarini halokat yoqasiga olib keldi.

Prezident **Guver (1928 – 1932)** hukumat korxonalari sinishining oldini olish maqsadida **3,5 mlrd dollarlik** kapitalga ega moliyaviy qayta qurish korporat-

siyasini tashkil etdi. Hukumat Federal fermer kengashiga **500 mln dollar** mablag' ajratdi. Uning maqsadi tovarlarning bozordagi narxini tushirmasdan saqlashni ta'minlash edi. Biroq bu tadbirlar yetarli samara bermadi. «Buyuk depressiya» ommaviy stachka harakati boshlanishiga sabab bo'ldi. Ishsizlar **Vashingtonga** yurish boshladilar. Bu yurishlar **«ochlar yurishlari»** degan nom oldi. Hukumat ommaviy harakatlarni shafqatsizlik bilan bostirdi.

F.Ruzveltning «yangi yo'li». **1932-yili** AQShda bo'lib o'tgan prezidentlik saylovida Demokratlar partiyasi nomzodi **Franklin Delano Ruzvelt (1882 – 1945)** g'alaba qozondi. U AQSh tarixida eng mashhur prezident sifatida nom qoldirdi. U **to'rt marta** ketma-ket prezidentlikka saylandi. U AQShni iqtisodiy inqirozdan qutqarish va uning buyukligini saqlab qolishning har tomonlama puxta ishlangan rejasini yaratoldi va uni hayotga tatbiq qildi. Bu AQSh tarixiga F.Ruzveltning **«yangi yo'li»** nomi bilan kirdi. *Yangi yo'l Amerika iqtisodiyotida keng miqyosli islohotlar o'tkazish yo'li edi. Uning mohiyati ishlab chiqarish vositalarida xususiy mulkchilikni to'liq saqlagan holda davlat boshqaruvini iqtisodiyotga va ijtimoiy munosabatlarga keng joriy etishni tashkil etadi. F.Ruzveltning «yangi yo'li» bo'yicha davlat mamlakat iqtisodiyotini boshqarishga faol aralashadi. Mehnat huquqi jiddiy ravishda qayta ko'rib chiqiladi. Ishsizlikka qarshi kurash uchun katta miqdorda mablag' ajratiladi.* Ayni paytda, ijtimoiy sug'urta asoslari – pensiya, nafaqa, sog'liqni saqlash va xalq ta'limini takomillashtirish ko'zda tutildi.

F.Ruzvelt ishni banklarni saqlab qolishdan boshladi. Shu maqsadda **Favqulodda bank** qonuni qabul qilindi. Unga ko'ra, faqat eng yirik banklarga davlat qarzi olishga ruxsat etildi. Oqibatda **25 ming** bankdan **15 mingi** qoldi. Ular davlatdan qarz olib, omonatchilar oldida o'z obro'larini saqlab qola oldi. **1933-yili «Sanoatni qayta tiklash haqida»** qonun qabul qilingan. Bu qonun sanoatning davlat tomonidan boshqarilishi tizimini joriy etdi. Bu tizim sanoatning har bir sohasi uchun ishlab chiqilgan **«Halol raqobat kodeksi»** deb nomlangan hujjatda o'z ifodasini topgan. *Bu kodekslarda har bir korxonaning mahsulot ishlab chiqarish hajmi, mahsulot narxi, savdo bozori belgilab qo'yildi. Ayni paytda, qonun ish haqi eng kam miqdori hamda ish haftasining maksimal vaqti kodekslarda qat'iy belgilanishini talab etadi. Qolaversa, qonunda korxona ma'muriyati bilan jamoaviy shartnoma tuzilishi, ishsizlarga yordam berilishi ko'zda tutildi.*

Davlat ishsizlikka qarshi kurashish maqsadida **Ijtimoiy ishlar maxsus qo'mitasini** tuzdi. *Bu qo'mita zimmasiga yo'l qurish, maktablarni ta'mirlash, sport majmualari barpo etish kabilar yuklatildi.* Shu orqali **8 mln ishsiz** ish bilan ta'minlandi. Kambag'al oilalardagi **18 – 25 yoshli** ishsiz fuqarolar uchun maxsus lagerlar barpo etilgan. Ularda tekin ta'lim

berilib, bu ishsizlar sanoatning yangi tarmoqlari uchun zarur ixtisosliklarga o'rgatildi. Har bir shtatga ishsizlarga yordam ko'rsatish uchun dotatsiyalar ajratildi. Natijada AQSh ijtimoiy larzalardan saqlab qolindi.

«Yangi yo'l» AQSh qishloq xo'jaligini ham qamrab oldi. Chunki inqiroz AQSh qishloq xo'jaligiga katta ziyon yetkazgandi. AQSh Kongressi **1933-yil 12-may**da **«Fermerlarga yordam haqida»** qonun qabul qildi. Unga ko'ra, qishloq xo'jalik mahsulotlari xarid narxlari oshirildi. O'z navbatida, fermerlar ekin maydoni va chorva sonini qisqartirish haqida davlat bilan shartnoma tuzishlari lozim edi. Shunday qilgan fermerlarga mukofot belgilandi. Fermerlarning qarzi davlat hisobiga o'tkazildi yoki uni to'lash noma'lum muddatga to'xtatib qo'yildi. Fermerlarga kredit berildi va nihoyatda nochor fermer xo'jaliklari tugatildi. Bular jami fermer xo'jaliklarining **10 foiz**ini tashkil etgan.

Ijtimoiy himoya borasidagi tadbirlar. «Yangi yo'l» siyosati ijtimoiy himoyani ham unutmadi. **1935-yili** Kongress **«Vagner qonuni»**ni qabul qildi. Unga ko'ra, ishchilar jamoaviy shartnoma tuzish huquqiga ega bo'ldilar. Ishchilarga ish tashlash huquqi ham berildi. Ish tashlashda qatnashganlik uchun ta'qib etish taqiqlandi. *Shu yil AQSh tarixida birinchi marta ijtimoiy sug'urtalash haqida qonun qabul qilindi. Unda keksalarni ta'minlash; ishsizlik bo'yicha yordam puli to'lash; nogironlarga, yolg'iz oilalarga va yetim bolalarga nafaqa to'lash ko'zda tutildi.* Bu hodisa adolatli jamiyat qurilishi yo'lidagi katta qadam edi.

«Yangi yo'l» keng ommaning ahvolini yaxshilash uchun eng boy oilalar daromadlariga qo'shimcha soliq solishni izchillik bilan amalga oshirdi. Shu tariqa F.Ruzveltning «yangi yo'li» dunyoda eng ko'lamli inson huquqlari va konstitutsiyaviy kafolatlar tizimini vujudga keltirdi. Oqibatda AQShda dunyoda eng yuqori turmush darajasi ta'minlandi.

Tashqi siyosat. AQSh tashqi siyosatida ikki oqim, ya'ni **izolyatsionizm** va **internatsionalizm** tarafdorlari o'rtasida kurash ketdi. *Izolyatsionizm tarafdorlari AQShning faol tashqi siyosatiga qarshi edilar. Ular, asosan, ichki muammolar bilan shug'ullanishni afzal bildilar. Internatsionalizm tarafdorlari esa AQSh jahon siyosatining faol ishtirokchisi bo'lishi kerak deb hisoblardilar.* Oxir-oqibatda bu oqim g'alaba qozondi. AQShning Birinchi jahon urushida qatnashishi izolyatsionizmga uzil-kesil chek qo'ydi. AQSh kuchaya borgan sari boshqa davlatlarni jahon bozorlarida ta'qib eta boshladi. Xususan, Buyuk Britaniyaning Markaziy va Janubiy Amerika bozoridagi o'rniga zarba berildi. Masalan, **1913 – 1927-yillar** oralig'ida Buyuk Britaniyaning bu mintaqa davlatlari importida ulushi **25 foizdan 16 foizga** tushib qoldi. AQShning ulushi **24 foizdan 38 foizga**

ortdi. AQShning Janubiy Amerika davlatlariga joylashtirgan sarmoyasi esa **13 baravar** ko'paydi.

Lotin Amerikasi davlatlarining vatanparvar kuchlari AQShning bu mamlakatlarni asoratga solishiga befarq qarab turmadilar. Ular imkon qadar qarshilik ko'rsatishdi. Prezident **K.Kulij (1923 – 1929)** davrida Lotin Amerikasi xalqlarining milliy ozodlik kurashlari ayovsiz bostirildi. **1928-yili** Lotin Amerikasining **20 davlatidan 14 tasi** AQShga moliyaviy qaram bo'lib qoldi. AQSh G'arbiy Yevropani ham o'z moliyaviy ta'sirida saqlab turishga urindi. Bunda **«Daues rejasi»**ga **(1924)** katta umid bog'ladi. Bu reja Germaniya harbiy qudratini amalda qayta tikladi. **1927-yil mart**da AQSh harbiy-dengiz kuchlari **Xitoy**ga qarshi harbiy intervensiyada ishtirok etdi, shu yilning **aprel**ida Chan Kayshi amalga oshirgan davlat to'ntarishini qo'llab-quvvatladi.

Prezident **G.Guver** davrida **(1929 – 1932)** AQShning harbiy xarajatlari yildan yilga o'sib bordi. Xususan, **1929-yili** Fransiya va Yaponiyaning birgalikdagi xarajatlaridan ko'p bo'ldi. Sovet davlatini tan olmaslik siyosati davom ettirildi. AQSh Germaniya iqtisodiy qudratini yanada tiklash siyosatini davom ettirdi. **1929-yili** «Daues rejasi»ni **«Yung rejasi»** bilan almashtirishga erishdi. Uzoq Sharq va Tinch okeani havzasida AQSh – Yaponiya munosabatlari keskinlashib qoldi. AQSh Buyuk Britaniya harbiy-dengiz flotining yetakchi mavqeyini yo'qqa chiqarish uchun barcha choralarni ko'rdi. **1930-yil London**da o'tkazilgan va dengiz masalasini muhokama qilgan konferensiya ikki davlat harbiy-dengiz floti bir xil qudratga ega bo'lishi to'g'risida qaror qabul qildi.

1930-yili AQSh tashqi savdoda import tovarlar uchun katta boj to'lovi joriy etdi. Bu esa uning buyuk davlatlar bilan munosabatlarini yanada sovuqlashtirdi. **1932-yili** bo'lib o'tgan **Lozanna konferensiyasi** AQShning qo'llab-quvvatlashi bilan Germaniyani reparatsiya to'lashdan amalda ozod etdi. **F.Ruzvelt** davrida **(1932 – 1945)** AQShning xalqaro mavqeyi yanada mustahkamlandi. **1933-yil 16-noyabr**da AQSh Sovet davlatini tan oldi va u bilan diplomatik aloqalar o'rnatdi. Lotin Amerikasi xalqlari ko'z o'ngida AQSh o'zining mintaqadagi siyosati tub mohiyatini niqoblash maqsadida *«yaxshi qo'shnichilik»* shiorini e'lon qildi. **1935-yili** AQSh Kongressi **«Betaraflik to'g'risida»** qonun qabul qildi. *Qonun prezidentga urushda qatnashayotgan tomonlarga qurol sotishni taqiqlash huquqini berdi.* Biroq Germaniya va Italiya urushuvchi davlatlar ro'yxatiga kiritilmagandi. Shu bois ular AQShdan qurol sotib olishlari mumkin edi. Aksincha, Efiopiya va Ispaniya AQShdan qurol sotib olish va qarz olish huquqlaridan mahrum etilgandi.

23.8. LOTIN AMERIKASI DAVLATLARI

Birinchi jahon urushining Lotin Amerikasi davlatlariga ta'siri. Urush Lotin Amerikasi davlatlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu mamlakatlar iqtisodiyoti tez sur'atlar bilan o'sa boshladi. Bunga urushda qatnashayotgan davlatlarda mintaqa mamlakatlari xomashyosi va qishloq xo'jalik mahsulotlariga nisbatan talabning ortib ketgani sabab bo'ldi. Ikkinchidan, urush tufayli Yevropadan keltirilgan tayyor mahsulotlar keskin kamaygan. Bu hol Lotin Amerikasi davlatlarida qayta ishlash sanoatini kuchaytirdi. Uchinchidan, jahon bozorida xomashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlari narxi ham ko'tarildi. Bu omillar kapital jamg'arilishiga va milliy ishlab chiqarishning o'sishiga olib keldi. Xususan, **Braziliya**da **6 mingga yaqin** yangi sanoat korxonasi qurildi. Bu Braziliya tarixida undan avvalgi **25 yil** ichida qurilgan sanoat korxonalari sonidan ko'p edi.

Iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ahvol. **20-yillar**da jahon bozorida Lotin Amerikasi tovarlariga qulay narx-navo saqlanib turdi. Bu iqtisodiyotning taraqqiyotiga xizmat qildi. Biroq bu iqtisodiy taraqqiyot, asosan, ekstensiv omillar hisobiga ta'minlana bordi. Shuningdek, bu qit'a davlatlari iqtisodiyotiga qishloqda latifundiyachilar zo'ravonligi, ishlab chiqarishning, asosan, tashqi bozor ehtiyojlariga moslashib qolgani hamda chet el kapitaliga qaramlik xususiyatlari ham xos edi. Bular iqtisodiyotni tobora qiyin ahvolga tushirib qo'ymoqda edi. Bundan foydalangan buyuk davlatlar qit'a davlatlari iqtisodiyotiga ekspansiyasini yanada kuchaytirdilar.

Agar **20-yillar**ga qadar Lotin Amerikasiga sarmoya joylashtirishda **Buyuk Britaniya** 1-o'rinda turgan bo'lsa, **20-yillar oxiri**ga kelib **AQSh** yetakchi bo'lib oldi. **30-yillar oxiri**da esa AQShning yirik kompaniyalari o'z hukmronlik mavqeyini o'rnatdilar. Xususan, **elektr stansiyalar, temir yo'llar, pochta-telegraf, port va tog' sanoati** AQSh sarmoyasiga qaram bo'lib qoldi. Xorijiy sarmoyaning bunday tazyiqi Lotin Amerikasining jahon ijtimoiy taraqqiyotidan ortda qolishiga olib keldi.

Lotin Amerikasi davlatlarida siyosiy hayot turlicha edi. Iqtisodiy jihatdan qoloq davlatlarda rasman respublika tuzumi e'lon qilingan bo'lsa-da, amalda ularda avtoritar va diktatorlik tartiblari o'rnatilgandi. Ayrim davlatlar konstitutsiyasida hokimiyatning oliy vakillik organi huquqlari kafolatlanishi qayd etilgan bo'lsa-da, hokimiyat u yoki bu soha oligarxiyasi qo'lida to'plangandi. Masalan, **Braziliya**da butun hokimiyatni amalda **qahva oligarxiyasi** qo'lga olgandi.

Iqtisodiy jihatdan nisbatan taraqqiy etgan davlatlar (**Argentina, Chili** va **Urugvay**)da urushdan keyin konservativ-oligarxiya tartibi o'z o'rnini liberal-demokratik kuchlarga bo'shatib berishga majbur bo'ldi. Ular mam-

lakatda liberal islohotlarni amalga oshirdilar. Bu islohotlar Lotin Amerikasi tarixida yangi hodisa edi. O'z mazmuniga ko'ra, Yevropa islohotiga yaqin bo'lgan bu islohotlar natijasida qator ijtimoiy muammolar bartaraf etildi. Bu o'rinda Argentinada prezident **I.Irigoyen** davrida **1928 – 1930-yillari** amalga oshirilgan islohotlar, ayniqsa, diqqatga sazovor. *U davlat vositachiligi yo'li bilan sarmoya va mehnat o'rtasida hamkorlikni ta'minlay oldi. Bu mamlakatda 8 soatlik ish kuni, yakshanbada dam olish, ijtimoiy sug'urta kabi ijtimoiy muammolar ijobiy hal etildi.*

Jahon iqtisodiy inqirozining Lotin Amerikasiga ta'siri. Inqiroz Lotin Amerikasi davlatlariga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bunga mazkur davlatlar iqtisodiy taraqqiyoti chet el bozoriga bog'liqligi, shuningdek, kapitalga qaramligi sabab bo'ldi. Inqiroz tufayli eksport keskin pasaydi. Natijada minglab zavod va fabrikalar, plantatsiyalar to'la ishlamay qo'ydi. O'z xaridorini topolmagan millionlab tonna kofe, don va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari yo'q qilindi. Bular davlatlarning ichki siyosiy barqarorligini izdan chiqardi va keskin siyosiy o'zgarishlar yuz berishiga olib keldi. Bu o'zgarishlar, bir tomondan, ba'zi davlatlarda hokimiyat tepasida turgan liberal islohotchilarni, ikkinchi tomondan, ba'zi davlatlarda hokimiyat tepasida turgan avtoritar va diktatorlik tartiblarini qulatgani bilan ajralib turadi. Masalan, **1930-yili Argentina**da harbiy to'ntarish o'tkazilib, islohotchi I.Irigoyen hukumati ag'darilgan bo'lsa, **Braziliya**da qahva oligarxiyasi tartibi hokimiyati quladi. **Chili va Kuba**da ham diktatorlik boshqaruvi barham topdi. Kolumbiyada **1930-yili** konservator oligarxiya tartibi o'rniga liberal islohotchilar keldi.

Buyuk davlatlarning Lotin Amerikasi uchun kurashi. Urush Yevropa davlatlarining Lotin Amerikasidagi faolligini pasaytirib yubordi. Bundan foydalangan AQSh mintaqada ekspansiyasini kuchaytirdi. AQShning Lotin Amerikasi davlatlariga joylashtirgan sarmoyasi **1929-yili 1913-yil**ga nisbatan **4,5 baravar** ortdi. Mintaqada AQShning mavqeyini mustahkamlash maqsadida prezident F.Ruzvelt **1933-yili** AQSh intervensiyadan voz kechgani hamda boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmasligi haqida bayonot berdi. Ayni paytda, *«yaxshi qo'shnichilik»* siyosatini e'lon qildi. Bu siyosat AQSh ekspansiyachilik siyosatining yangicha qiyofasi edi.

30-yillardan Lotin Amerikasida fashist blokiga kiruvchi davlatlar ham o'z ta'sirini qaror toptirishga urindi. Ular strategik xomashyoga muhtojliklari bois bu qit'a davlatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirdilar va sarmoyalarini joylashtirishga urindilar. Xususan, **Germaniya** sarmoyasi **Argentina, Braziliya, Chili va Paragvay** iqtisodiyotiga joylashtirildi. Biroq Germaniya fashistlari savdo-iqtisodiy aloqalar bilan cheklanib qol-

madilar. Ular bu mintaqada ham fashistik tashkilotlar tuzishga urindilar. *Bu niyatni amalga oshirishda Lotin Amerikasida yashayotgan nemis muhojirlariga tayandilar.* Eng yirik davlatlar – **Argentina** va **Braziliya** fashizm ekspansiyasining Lotin Amerikasidagi tayanchlari bo'lishi kerak edi. Tashkil etilgan fashistik tashkilotlar hokimiyatni egallash uchun ham harakat qildilar.

Braziliya. Braziliya – Birinchi jahon urushida ishtirok etgan davlatlardan biri. Xususan, u **1917-yil 26-oktyabr**da AQShdan so'ng Germaniyaga urush e'lon qildi. Biroq Braziliyaning bu urushdagi ishtiroki keng ko'lamli bo'lmadi. Braziliya Buyuk Britaniyaning bir qator harbiy-dengiz tadbirlarida qatnashdi. Shuningdek, uning harbiy kemalari **Janubiy Atlantika**da patrul xizmatini bajargan, xolos. Shu ma'noda Braziliyaning urushdagi ishtiroki ko'proq ramziy ma'no kasb etdi. Shunday bo'lsa-da, Braziliya Versal shartnomasini g'olib davlatlar qatorida imzoladi. Urush, ayni paytda, Braziliya iqtisodiyoti rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bunga urush tufayli Yevropa eksporti kamaygani sabab bo'lgan. Biroq Braziliya agrar davlat bo'lib qolaverdi. Ishga yaroqli aholining **72 foizi** qishloq xo'jaligida band edi. Qishloq xo'jaligining asosini **kofe va qand yetishtirish** tashkil etgan va mamlakat ahvoli ayni shu kofe eksporti darajasi bilan bog'liq bo'lgan.

Braziliya iqtisodiyotining gurkirab rivojlanishi uzoqqa cho'zilmadi. **1920 – 1921-yillari** uning iqtisodiyotida inqiroz yuz berdi. Eksport mahsulotlari narxi keskin pasaydi. Masalan, **1919-yili 1 qop (60 kg)** kofe **27 sent**ga sotilgan bo'lsa, **1921-yili** bu ko'rsatkich **9,5 sent**ni tashkil etdi. Inqiroz Braziliya iqtisodiyotining chet el sarmoyasiga qaramligini yanada oshirdi. **1923 – 1928-yillari** Braziliya iqtisodiyotining qisman barqarorlashuvi, asosan, chet el sarmoyasi hisobiga amalga oshirildi. Chunonchi, AQShning bu davlat iqtisodiyotiga joylashtirgan sarmoyasi **476 mln dollar**, Buyuk Britaniya joylashtirgan sarmoya esa **1 mlrd dollar**ni tashkil etdi.

Mamlakatda siyosiy vaziyat ham keskinlashib bordi. Prezident **S.Bernardis (1922 – 1926)** davrida mamlakatda diktatorlik tartibi qaror topa boshladi. Mamlakatda siyosiy josuslik va ayg'oqchilik tizimi keng yoyildi, bu mamlakatda keskin norozilikni keltirib chiqardi. Norozilik hatto armiyaga ham ta'sir etdi. **1924-yil 5-iyul**da **San-Paulo**da harbiy qismda qo'zg'olon ko'tarildi. Hukumatga sodiq qo'shinlar qo'zg'olonchilarga qarshi **3 hafta** davomida kurash olib borishga majbur bo'ldi. **1924-yil 28-oktyabr**da esa **Santo-Anjelu shahr**ida kapitan **K.Prestes** boshchiligida harbiylar qo'zg'oloni boshlandi. Hukumat qo'shinlari qo'zg'olonchilarga

qarshi og'ir janglar olib borishga majbur bo'ldi, **1927-yil 13-fevral**da qo'zg'olonchilarning so'nggi otryadlarini **Boliviya**ga surib chiqaroldi.

Iqtisodiy inqiroz Braziliya iqtisodiyotini yanada og'ir ahvolga solib qo'ydi. Inqirozdan mamlakat qishloq xo'jaligi, ayniqsa, katta talafot ko'rdi. Xususan, mamlakat omborxonalarida **37 mln qop kofe** yig'ilib qoldi. **3 yil** ichida **40 ming qop kofe** dengizga oqizildi yoki yoqib tashlandi. Eksport kamayib ketdi. Aholining turmush darajasi yomonlashdi. Bu omillar, o'z navbatida, demokratik va ijtimoiy harakatni kuchaytirdi. Shunday bir sharoitda hukmron doiralar mavjud tartibni saqlab qolish maqsadida davlat to'ntarishi o'tkazishga qaror qildilar. Uni **1930-yil oktyabr**da hukmron doiralar bilan mustahkam aloqada bo'lgan harbiylar amalga oshirdilar. Mamlakatda **J.Vargas diktaturasi** o'rnatildi va diktatura **1891-yil**gi mamlakat konstitutsiyasini bekor qildi. Hatto qonun chiqaruvchi barcha vakolatni ham hukumatning o'zi amalga oshira boshladi.

Diktatura mamlakatdagi ichki siyosiy vaziyatni barqarorlashtirolmadi. Hukmron doiralar turli tabaqalari o'rtasida hokimiyat uchun kurash davom etdi. Natijada **1934-yil 16-iyul**da mamlakatning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Ichki iqtisodiy va siyosiy barqarorlik mamlakatda fashizm harakatini vujudga keltirdi. U siyosiy hayotga tobora xavf sola boshladi. Taraqqiyparvar kuchlar **1935-yili** fashizmga qarshi yagona xalq frontini tuzishga erishdi. Bu front – **«Xalq fronti Umumbraziliya tashkiloti milliy ozodlik alyansi»** deb ataldi. Alyans tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish dasturini ilgari surdi. Uning obro'-e'tibori tobora o'sib bordi. Bundan cho'chigan hukumat **1935-yil 11-iyul**da uning faoliyatini taqiqladi.

Mamlakatda terror va repressiya kuchaydi. Bunga javoban **1935-yil noyabr**da harbiylarning bir qismi qo'zg'olon ko'tardi. Biroq Vargasga sodiq harbiy qismlar bu qo'zg'olonni bostirdi. Endi mamlakatda reaksiya avj oldi. **1937-yil 10-noyabr**da J.Vargas kongressni tarqatib yubordi. **1934-yil**gi konstitutsiyani bekor qildi va uning shaxsiy diktaturasi o'rnatildi. Shu kuni J.Vargas butun hokimiyatning prezident qo'lida to'planishini qonunlashtirgan yangi konstitutsiyaga ham imzo chekdi. **1937-yil 2-dekabr**da barcha siyosiy partiyalar faoliyati taqiqlandi. Shunday bo'lsa-da, J.Vargas hukumati mamlakatda xalq harakatining yangidan vujudga kelishi oldini olish maqsadida qator yon berishlarga ham bordi. Jumladan, eng kam ish haqi haqida, ish kunini tartibga solish haqida dekretlar chiqardi. Davlatning iqtisodiyotga ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan qonunlar ham qabul qildi. Vargas hokimiyati **1945-yil**gacha hukm surdi.

Argentina. Birinchi jahon urushi natijasida Yevropa eksporti kamayga-

ni tufayli, Argentina milliy iqtisodiyoti gurkirab rivojlandi. Bu hodisa mamlakat eksportining oshishiga xizmat qildi. Argentina **bug'doy** eksport qilish bo'yicha **2-o'rin**ga (**Kanadad**an so'ng), **go'sht** mahsulotlari eksporti bo'yicha esa **1-o'rin**ga chiqdi. Uning asosiy savdo hamkorlari **Buyuk Britaniya va AQSh** edi. Xususan, **1920-yili** Buyuk Britaniya va Argentina o'rtasida savdo ayirboshlash **817 mln peso**ni, AQSh bilan esa **726 mln peso**ni tashkil etdi. Biroq Argentina iqtisodiyotidagi o'sish ham uzoq davom etmadi. **1920 – 1921-yillar**dagi iqtisodiy inqiroz mamlakat iqtisodiyotiga katta talafot yetkazdi. Davlat subsidiyasi asosida ishlayotgan korxonalarda ishlab chiqarish to'xtab qoldi.

Inqiroz Argentinada ish yuritayotgan chet el korxonalari faoliyatiga ta'sir ko'rsatmadi. Chunki ularning moliyaviy ahvoli yaxshi edi. Bu hodisa **1920 – 1921-yillar**dagi iqtisodiy inqirozning o'ziga xos xarakterli belgisi edi. Inqiroz ichki siyosiy vaziyatni murakkablashtirdi. Radikal-fuqaro ittifoqi partiyasi vakili **prezident I.Irigoyen** hukumati **(1916 – 1922)** islohotlar yo'li bilan siyosiy vaziyatni barqarorlashtirishga urindi. Xususan, talabalar tashabbusi qondirilib, universitetlar faoliyati demokratik asosda qayta qurila boshlandi. Qolaversa, yirik yer egalari qudratini cheklashga kirishildi.

Hukumat mehnat qonunchiligi sohasida jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirdi. **8 soatlik** ish kuni, haftada **1 kunlik** dam olish kuni, ish haqining eng kam miqdori joriy etildi. I.Irigoyen hukumati o'tkazgan islohotlarda izchillik ta'minlanmagan bo'lsa-da, islohotlar ko'lami va mazmuni hukmron tabaqalarni tashvishga solib qo'ydi. Ular mamlakat armiyasi orasida hukumatga qarshi tashviqotni kuchaytirdilar. **1922-yili** o'tkazilgan prezident saylovida radikal partiyaning boshqa vakili **M.Alveor (1922 – 1928)** g'alaba qozondi. U yangi tuzgan hukumati tarkibiga harbiylar vakillarini ham kiritdi. **1923-yili** iqtisodiyotda jonlanish yuz berdi. Biroq iqtisodiyotda ko'zlangan maqsadga erishilmadi. Sababi mamlakat qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining jahon bozoriga qaramligi edi. **1925-yil**dan jahon bozorida narx-navoning pasayishi mamlakat moliyaviy ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

1927-yili o'tkazilgan prezidentlik saylovida yana **I.Irigoyen (1928 – 1930)** g'alaba qozondi. *Hukumat amalga oshirgan eng katta tadbir neft sanoatining milliylashtirilishi bo'ldi.* Bu hodisa yirik sarmoyadorlar hamda chet el monopoliyalari manfaatiga berilgan katta zarba edi. Ular endi davlat to'ntarishi o'tkazishga qaror qildilar. **1930-yil 6-sentyabr**da **general Xose F.Uriburu** boshchiligida davlat to'ntarishi o'tkazildi. F.Uriburu o'zini vaqtincha prezident deb e'lon qildi. *Yangi hukumat mamlakat kongressini tarqatib yubordi, 8 soatlik ish kunini bekor qildi. Mamlakatda qamal*

holati joriy etdi. Matbuot uchun qattiq senzura o'rnatildi. Neft sanoatini milliylashtirish haqidagi qaror bekor qilindi.

General F.Uriburu mamlakatni noqonuniy ravishda uzoq boshqarishi mumkin emasdi. Biroq u prezident saylovida g'alaba qozonolmasdi ham. Chunki obro'si yo'q edi. Shu bois **1931-yil noyabr**da prezidentlikka boshqa general – **P.Xusto (1932 – 1938)** nomzodi qo'yildi va u g'alaba qozondi. Yangi hukumat mamlakatda ish tashlashni man etish hamda qamal holati e'lon qilish haqidagi qonunlarni joriy etdi. Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi siyosati yuritildi. Tashqi siyosatda esa **Buyuk Britaniya** bilan yanada yaqinlashish yo'li qo'llandi. AQShga qaram bo'lib qolmaslik, Lotin Amerikasida AQShning ta'siri kuchayib ketishi oldini olishga intildi. Shu maqsadda Argentina tashabbusi bilan Lotin Amerikasi davlatlari o'rtasida o'zaro hujum qilmaslik va yarashuv to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Bu shartnomaning mohiyatini to'g'ri anglab yetgan AQSh prezidenti F.Ruzvelt **1933-yili** Lotin Amerikasi davlatlari bilan munosabatda *«yaxshi qo'shnichilik»* tamoyilini e'lon qildi. AQSh ham yuqorida nomi tilga olingan shartnomani imzoladi. Bu shartnoma tarixga **«Savedro Lamas pakti»** nomi bilan kirdi. **S.Lamas** Argentina tashqi ishlar vaziri edi. Bu Argentina diplomatiyasining katta yutug'i bo'ldi.

Prezident **P.Xusto** davrida ham mamlakat ichki siyosiy hayotida barqarorlik ta'minlanmadi. Aksincha, fashizm xavfi vujudga keldi. **1938-yil**gi prezident saylovida so'l kuchlar birlikka erisholmadilar. Natijada o'ng kuchlar vakili **Roberto Ortis (1938 – 1940)** g'alaba qozondi. R.Ortis siyosatida qisman konstitutsiyaviy tartiblarni tiklashga harakat qildi. Repressiya va terror to'lqini pasaydi. Fashizm jilovlandi. Tashqi siyosatda esa AQSh bilan yaqinlashish yo'li to'sildi.

Meksika. **1917-yil 5-fevral**da Meksikada demokratik ruhdagi konstitutsiya qabul qilindi. *Xususan, konstitutsiya yerni, yerosti boyliklarini va suvni davlat mulki deb e'lon qildi.* Chet davlatlar va chet el monopoliyalari bilan tuzilgan ijara shartnomalarining qayta ko'rib chiqilishi belgilandi. Har bir shtatda egalik qilinadigan yerning miqdori belgilab qo'yilishi, ortiqcha yerlar esa dehqonlar va batraklarga bo'lib berilishi kerak edi. Konstitutsiya, ayni paytda, cherkovning o'zgarmas mulkka ega bo'lish huquqini bekor qildi. Cherkovning barcha mulkini davlat mulki deb e'lon qildi. **1926-yili** ruhoniylarning siyosatga aralashuvini taqiqlovchi qonun kuchga kirdi. *Konstitutsiya 8 soatlik ish kunini, minimal ish haqi miqdori belgilanishini, kasaba uyushmalariga birlashish va ish tashlash huquqini e'lon qildi.*

Endi hamma gap konstitutsiya e'lon qilgan tadbirlarni bajarishda

qolgandi. Biroq bunga ham ichki, ham tashqi kuchlar qarshilik ko'rsatishi muqarrar edi. Buyuk Britaniya va AQSh monopoliyalari Meksika iqtisodiyotida mustahkamlanib olgandilar. Ular o'zlari bilan imzolangan ijara shartnomalarini qayta ko'rib chiqishga aslo rozi bo'lmasdilar. Vatikan esa cherkovning mulkdan mahrum etilishiga aslo toqat qilolmasdi. Shu bois Meksika ruhoniylarining hukumat siyosatiga qattiq qarshilik ko'rsatishi muqarrar edi. Tez orada shunday bo'ldi ham. Vatikan ko'rsatmasi bilan Meksika ruhoniylari ibodatlarni to'xtatdi. Meksika hukumatning neft sohasidagi siyosatiga javoban **AQSh** Meksikaga nisbatan iqtisodiy taqiq siyosatini qo'lladi. Ichki sarmoyadorlar ham qarshilik ko'rsatdi. Hukumat yon berishga majbur bo'ldi. Faqat reaksiyaning qattiq qarshiligini yengish hisobiga qator jiddiy o'zgarishlar amalga oshirildi. **1934-yili «Agrar kodeks»** kuchga kiritildi.

L.Kardenas (1934 – 1940) hukumati davrida latifundiyachilar va chet el kompaniyalariga qarashli **18 mln ga yer** ekspropiratsiya qilindi va dehqonlarga berildi, ungacha bo'lgan **17 yillik** davrda dehqonlarga **8 mln ga yer** berilgandi, xolos. Hukumat dehqonlarga yordam ko'rsatish maqsadida **1935-yili** maxsus bank tashkil etdi. Chet el kompaniyalarining Meksika qonunlarini oyoqosti qilishlariga qarshi hukumat **1938-yil mart**da neft sanoatini milliylashtirish haqida qaror qabul qildi. **AQSh, Buyuk Britaniya va Gollandiya** sarmoyadorlariga qarashli **17 ta** neft kompaniyasi ekspropriatsiya qilindi. Bunga qarshi ular Meksika neftini boykot qilish siyosatini qo'llay boshladilar. Natijada Meksika nefti eksporti **1938-yili ikki baravar** kamaydi. AQSh hukumati Meksika kumushiga embargo joriy etdi. Buyuk Britaniya Meksika hukumatiga keskin ruhdagi notalar jo'natdi. Bunga javoban Meksika **1938-yil may**da **Buyuk Britaniya** bilan diplomatik aloqalarni uzdi. Endi ichki va tashqi reaksiya L.Kardanes hukumatini ag'darishni rejalashtira boshladi. **1938-yil may**da ichki kuchlar hukumatga qarshi isyon ko'tardilar. Ularni chet ellik reaksiya kuchlari qo'llab-quvvatladi. Biroq isyonchilar yengildi. L.Kardanes mamlakatdagi turli tabaqa vakillarini birlashtirgan yangi partiya – **Meksika inqilobi partiyasi**ni tuzishga erishdi.

Kuba. Kuba – Birinchi jahon urushida qatnashgan davlatlardan biri. U **1917-yil 17-apre**lda Germaniyaga qarshi urush e'lon qildi. Biroq uning ham jahon urushidagi ishtiroki ramziy ma'noda, xususan, Yevropaga tibbiy xizmat guruhlarini jo'natishdan iborat bo'ldi, xolos. *Urush yillarida Kuba iqtisodiyoti ham rivojlandi. Bunga urush tufayli Yevropada qand ishlab chiqarishning kamayishi sabab bo'ldi.* Agar **1913-yili 2,4 mln tonna** qand ishlab chiqarilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich **1919-yili 4 mln tonna**ni

tashkil etdi. Biroq **1920-yil**dan vaziyat keskin o'zgardi. Yevropada qand ishlab chiqarishning ko'payishi Kuba qandiga talabni keskin pasaytirdi. Masalan, **1920-yili 1 mlrd 22 mln pesolik**, **1921-yili atigi 22 mln pesolik** qand sotildi. Natijada qand sanoati halokati boshlandi. O'sha davrda mamlakat eksportining **90 foizi** qandga to'g'ri kelishi hisobga olinsa, vaziyat oydinlashadi.

Bu *hol mamlakat moliyaviy ahvolini izdan chiqardi va ichki siyosiy* vaziyatni keskinlashtirdi. Hokimiyat uchun kurashuvchi hukmron kuchlarning ikki guruhi (**liberallar va konservatorlar**) o'rtasidagi munosabat yanada keskinlashdi. Amerikaparast konservatorlar hukmronligiga qarshi liberallar qo'zg'olon ko'tardilar. AQSh hukumati o'z tarafdori prezident **Menoka**lga **(1916 – 1920)** *harbiy yordam ko'rsatdi.* **1917-yil fevral**da **Guantanamo, Santyago** va boshqa strategik obyektlarga o'z harbiy kuchlarini joylashtirdi. **1917-yil iyul**da qo'zg'olon bostirildi. Shu tariqa Kuba amalda AQSh tomonidan okkupatsiya qilindi va bu **1922-yil**gacha davom etdi. Ayni paytda, Kubaning AQShga moliyaviy qaramligi tobora ortib bordi. Xususan, **1929-yili** AQShning Kubaga joylashtirgan sarmoyasi **1,5 mlrd dollar**ni tashkil etdi. Uning **800 mln dollari** qand sanoatiga joylashtirildi.

1929-yili ro'y bergan inqiroz Kuba iqtisodiyotini xonavayron qildi. Bunga Kuba iqtisodiyotining qand yakkahokimligiga ixtisoslashgani va uning, asosan, AQSh bozoriga qaramligi sabab bo'ldi. Natijada Kubaning AQShga eksporti keskin kamaydi. Masalan, bu eksport **1929-yili 137,6 mln dollar**ni tashkil etgan bo'lsa, **1932-yili** atigi **38 mln dollar** bo'ldi. Qand ishlab chiqarish esa **5,1 mln tonnadan 1,9 tonnaga** tushib qoldi. Korxonalarning sinishi Kuba tarixida misli ko'rilmagan darajaga yetdi. Ishsizlar soni **600 ming kishi**ni tashkil etdi (4 mln aholiga nisbatan). Bir so'z bilan aytganda, aholining turmush darajasi keskin pasaydi. Mamlakatda siyosiy vaziyat keskinlashdi va **1930-yil noyabr**da harbiy tartib o'rnatildi. Siyosiy kurashning oldingi safida **talabalar** bordilar. Bunga javoban **1931-yili Gavana universiteti** yopib qo'yildi. Hatto umumta'lim maktablari ham yopildi.

1933-yili prezident **X.Machado (1924 – 1933)** o'z diktaturasini yanada mustahkamlash maqsadida Kongressdan favqulodda vakolat olishga erishdi. Konstitutsiyaning amal qilishi **30 kun**ga to'xtatildi. Biroq bu tadbirlar ko'zlangan natijani bermadi va mamlakatda umumiy ish tashlash davom etdi. *Endi hukmron doiralar oldida ikki yo'l turardi: yo xalq inqilobi, yoki diktator Machadoni almashtirish.* Ular ikkinchi yo'lni tanlashdi va Machadoga qarshi harbiylar fitna uyushtirdilar. **11-avgust**da Machado

oldiga **48 soat** ichida mamlakatdan chiqib ketish talabini qo'ydilar. Shu tariqa Machado iste'fosiga erishildi. Kubaning AQShdagi sobiq elchisi **Karlos de Sespedes** vaqtinchalik prezident deb e'lon qilindi. Machado va uning yaqinlari AQShga jo'nab ketishga majbur bo'ldilar. K.Sespedes hukumati mamlakatdagi siyosiy vaziyatni barqarorlashtirolmadi. Harbiylar ichida mamlakatda qattiq tartib o'rnatish tarafdorlari kuchayib bordi. Ularga **F.Batista** rahbarlik qilardi. **1933-yil 5-sentyabr** kechasi F.Batista davlat to'ntarishini amalga oshirdi. U mamlakat harbiy kuchlari shtabi boshlig'i etib tayinlandi. Gavana universiteti professori **San Martin** prezidentlik lavozimini egallaganiga qaramay, amalda hokimiyat F.Batista qo'lida to'plandi.

Shunday bo'lsa-da, S.Martin hukumati qator ijobiy tadbirlarni amalga oshirdi. Jumladan, *1901-yili qabul qilingan reaksion xarakterdagi konstitutsiyani bekor qildi. 8 soatlik ish kuni joriy etildi. Yashash joyi uchun to'lanadigan haq kamaytirildi. Ishchilar uchun ish haqi minimumi belgilandi. Gavana universitetining muxtor huquqi tiklandi. Tashqi siyosatda esa avvalgi hukumatning AQSh bilan tuzgan shartnomalari bajarilishi ma'lum qilindi. Dekabr oyida S.Martin hukumati elektr energiya, gaz, telefondan foydalanganlik uchun to'lanadigan haqni 45 foizga kamaytirdi. 2 ta yirik Kuba – Amerika qand kompaniyasi ustidan davlat nazoratini o'rnatdi.* S.Martin hukumatining bunday qat'iy xatti-harakatlari ichki va tashqi sarmoyadorlarni tashvishga soldi. Ular F.Batistani qo'llab-quvvatlay boshladilar.

1934-yil 14-yanvarda F.Batista S.Martindan iste'fo berishni talab etdi. **18-yanvar**da **polkovnik Mendteta** Kubaning vaqtinchalik prezidenti deb e'lon qilindi. AQSh **26-yanvar**da yangi prezident va uning hukumatini tan oldi. Yangi hukumat S.Martin amalga oshirgan tadbirlarning barini bekor qildi. Shu tariqa mamlakatda AQSh manfaatiga xizmat qiluvchi F.Batista diktaturasi to'la qaror topdi.

24-BOB. OSIYO VA AFRIKA DAVLATLARI

24.1. XITOY VA HINDISTON

Osiyo va Afrika davlatlari rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar. Birinchi jahon urushigacha Osiyo va Afrika, asosan, mustamlaka davlatlardan iborat edi. Mustamlakachi davlatlar o'z mustamlakalaridagi mavqelarini deyarli saqlab qola oldilar. *Buning sababi, birinchidan, mus-*

tamlakachilik tizimining yemirilishi uchun zarur xalqaro shart-sharoitlar hali to'la yetilmagani bo'lsa, ikkinchidan, mustamlakachilarga qarshi kurashuvchi kuchlarning qaror topish jarayoni hali davom etayotgani edi. Biroq bu milliy ozodlik kurashi ma'lum vaqtda to'xtab qoldi degani emasdi. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, Xitoy va Hindistonda milliy ozodlik kurashi shiddat bilan davom etdi. Chunonchi, **1918 – 1923-yillari Turkiya**da ozodlik kurashi g'alaba bilan yakunlandi. Dunyoviy Turkiya Respublikasi tashkil topdi. Sovet Rossiyasi **1921-yili Turkiya** bilan do'stlik to'g'risida shartnoma imzoladi hamda Turkiyaga **10 mln oltin so'm** hisobida moliyaviy yordam ko'rsatdi. Xuddi shunga o'xshash shartnoma **1921-yili Eron** bilan ham imzolandi. Eron Buyuk Britaniya qo'shinlarining mamlakatdan chiqib ketishiga erishdi.

Afg'on xalqining Buyuk Britaniya mustamlakachilariga qarshi olib borgan kurashi **1919-yili** g'alaba bilan yakunlandi. Afg'oniston mustaqil davlatga aylandi. **1921-yili** sovet – afg'on do'stlik shartnomasi imzolandi. **1918 – 1921-yillari** Sovet Rossiyasi **Mo'g'ulistonn**ing milliy ozodlik kurashiga yordam ko'rsatdi. Bu yordam Mo'g'uliston mustaqilligini saqlab qolishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mustamlakachi davlatlar ham qo'l qovushtirib o'tirmadilar. Ular Vashington konferensiyasida mustamlakalarning daxlsizligiga kelishib oldilar. Biroq tez orada bu kelishuvni Osiyoda **Yaponiya (1931)**, Afrikada esa **Italiya** buzib yubordi.

Xitoyning urushdan keyingi ahvoli. Birinchi jahon urushidan so'ng ham Xitoy qoloq, yarim mustamlaka davlat edi va unda **450 mln dan ortiq** xalq yashardi. Uni buyuk davlatlar ta'sir doiralariga bo'lib olishgandi. Mamlakat sanoati, transporti, banklari va tashqi savdosining asosiy qismi chet el kompaniyalari qo'lida edi. Bu omillar Xitoyni rivojlangan davlatlar ekspansiyasiga qarshi kurashda ojiz qilib qo'ygandi. **1911 – 1913-yillari** bo'lib o'tgan inqilob asosiy masalalardan biri – *Xitoyni yagona davlatga birlashtirish masalasini hal etolmadi.* Bu masalani hal etmay turib Xitoyni yarim mustamlaka sirtmog'idan qutqarish nihoyatda og'ir edi.

1918-yili Xitoyda inqilobiy kurashning ikki yirik kuchi mavjud edi. Ularning biri milliy ozodlik kurashining yirik vakili, tan olingan yo'lboshchi **Sun Yatsen (1925 – 1967)** boshchiligidagi **Gomindan** (Xitoy milliy partiyasi) bo'lsa, ikkinchisi **Xitoy kommunistik partiyasi** (XKP) edi. Versal shartnomasi qarorlariga qarshi mamlakatda **«4-may harakatlari»** nomli xalq noroziligi bo'lib o'tdi. **1921-yili** Sun Yatsen mamlakat prezidenti lavozimiga saylandi. Biroq buyuk davlatlar bu saylovni va Sun Yatsen hukumatini tan olmadilar. Sun Yatsen **«Xitoyni qutqarish»** dasturini ilgari surdi. Bu dasturni chet davlatlarning yordamisiz amalga oshirib bo'lmas-

di. Buyuk davlatlar esa yordam berishdan voz kechdilar. **Vashington konferensiya**da qabul qilingan **«9 davlat kelishuvi»** bo'yicha Xitoyda o'z hukmronliklarini o'rnatdilar.

Shunday sharoitda Sun Yatsen moddiy va harbiy yordam so'rab Sovet davlatiga murojaat qildi va muzokara uchun general **Chan Kayshi**ni **Moskva**ga jo'natdi. **1923-yili** Sun Yatsen Xitoy kommunistik partiyasi bilan hamkorlik yo'liga o'tdi. Shunday qilinganda Sovet Rossiyasidan yordam olish oson kechishini u yaxshi bilardi. **1924-yil yanvar**da **Gomindan va XKP** umummilliy birlashgan inqilobiy front tuzdilar. Frontning maqsadi Xitoyning **shimoli**da joylashib olib, xorijiy bosqinchi davlatlar bilan hamkorlik yo'lini tutayotgan ichki kuchlarga, Xitoyni yarim mustamlakaga aylantirgan imperiyachi davlatlar ta'siriga qarshi kurash edi. Bunda Sun Yatsenning uch tamoyili: **milliylik, demokratiya, xalq farovonligi** katta rol o'ynadi.

Buyuk milliy inqilob. **1925-yil bahor**ida **Shanxay**da talabalar namoyishga chiqdilar. Biroq ingliz politsiyasi namoyishni o'qqa tutdi. Bu hodisa Xitoyda bosqinchi davlatlarga qarshi kuchli harakat boshlanishiga turtki bo'ldi. Bu harakat Xitoy tarixiga **«30-may harakati»** nomi bilan kirgan. Shu tariqa Xitoyda chet el bosqinchilariga qarshi milliy inqilob boshlandi. *Ularning asosiy shiorlari Xitoy suverenitetini tiklash, mustamlakachi davlatlar bilan hamkorlik qilayotgan militaristik katta yer egalari hukmronligini ag'darish va Xitoyning demokratik milliy hokimiyati ostida siyosiy butunligini ta'minlash edi.*

Inqilob rahbarligi Gomindan qo'lida edi. **1925-yil**i Sun Yatsen vafot etgach, bu partiya rahbarligi **Chan Kayshi** qo'liga o'tdi. Inqilobda Xitoy jamiyatining barcha tabaqalari ishtirok etdi. **1925-yil oktyabr – dekabr**da Chan Kayshi hukumati mamlakat hukumatiga qarshi harbiy yurish boshladi. Shu tariqa Xitoyda fuqarolar urushi boshlandi. **1926-yili 7 ta provinsiya** egallab olindi. **1927-yil mart**da Angliya va AQSh Chan Kayshiga yordam berish uchun Xitoyga qurolli kuch yubordi. **18-apre**lda **Nankin**da Chan Kayshi hukumati to'la qaror topdi. Yurishning birinchi bosqichi **1928-yili** yakunlandi. Oqibatda shimoldagi militaristik kuchlarga qattiq zarba berildi. Jumladan, **Shanxay** va **Nankin** bosib olindi. Chan Kayshi hukumati qarorgohi Nankinga ko'chirildi. Barcha buyuk davlatlar bu hukumatni tan oldilar.

Markaziy hokimiyat qo'lga kiritilgach, inqilobning asosiy yetakchi kuchlari – Gomindan va XKP o'rtasida bo'linish yuz berdi. *Bunga Xitoy inqilobiy vazifalariga Gomindan va XKPning turlicha qarashlari sabab bo'ldi.* Gomindan markaziy hokimiyat egallanishi bilan inqilob o'z vazi-

fasini bajardi deb hisobladi. Endigi vazifa mo'tadil islohotni zo'ravonliksiz o'tkazishdan iboratligini e'lon qildi. XKP esa inqilobni davom ettirish, hali Xitoyda kam sonli bo'lgan proletariat gegemonligini o'rnatish, agrar inqilobni avj oldirish, mulkdorlar mulkini musodara qilish, barcha banklarni, konlarni, temir yo'llarni, yirik korxonalarni milliylashtirishni talab etdi. Bu ikki siyosiy kuch o'rtasidagi nizo **20 yil** davom etgan fuqarolar urushini (**1949-yil**gacha) keltirib chiqardi va shu tariqa umummilliy inqilobiy front barham topdi.

Chan Kayshi hukmronligining kuchayishi. Milliy buyuk inqilob natijasida Gomindanning yakkapartiyaviy hokimiyati qaror topdi. Gomindan Xitoyda iqtisodiyot bozor munosabatlariga asoslangan jamiyat qurish tarafdori edi. Shu bois Gomindan hukumati xususiy mulkni himoya qildi va bunday mulkni tugatishni targ'ib etuvchi XKPga qarshi kurashdi. Milliy bozor rivojiga g'ov bo'layotgan ichki boj to'siqlari bekor qilindi. Chet el sarmoyadorlariga ijaraga berilgan **33 ta** korxonadan **20 ta**si qaytarib olindi. Gomindan markaziy hokimiyatni kuchaytirishga urindi, iqtisodiyotga davlat aralashuvini joriy etdi. Iqtisodiyotda davlat sektorini vujudga keltirdi. Qolaversa, ichki siyosiy barqarorlikka erishish maqsadida qator ijtimoiy islohotlar o'tkazildi. Mehnat to'g'risida qabul qilingan ijobiy ruhdagi qonun kam sonli ishchilar sinfining ahvoli yaxshilanishiga xizmat qildi. Biroq agrar masala hal etilmadi. Qishloqda yirik yer egalari hukmronligi saqlanib qolaverdi. Tashqi siyosatda esa Xitoyning chet davlatlar bilan imzolangan noteng shartnomalarini bekor qilish yo'li tutildi. **1928-yili** chet el tovarlari uchun boj to'lovi tartibi tiklandi. Bu bilan ichki bozor himoya qilindi.

1927 – 1937-yillardagi fuqarolar urushi. Gomindan bilan XKP o'rtasidagi umummilliy birlashgan front barham topgach, Xitoyda fuqarolar urushining ikkinchi bosqichi boshlandi. Gomindan XKPga qarshi urushga tayyorlana boshladi va ko'p o'tmay uning qurolli kuchlariga qarshi hujum boshlandi. **1930 – 1934-yillari 5 marta** yurish qilindi. AQSh **90 mln dollar** yordam berdi. **300 ta samolyot**dan foydalandi. Xitoyga nemis generali **Fon Sekt** keldi va harbiy operatsiyalarga boshchilik qildi. Bu davrda XKP qurolli kuchlari soni **300 mingni** tashkil etardi (XKP qurolli kuchlari qizil armiya deb atalgan). XKP **1927-yildan 1936-yilgacha** Xitoyda sovetlar shaklidagi proletariat va dehqonlar inqilobiy diktaturasini o'rnatish uchun kurash olib bordi va o'zi egallagan provinsiyalarda hokimiyatning shunday shaklini o'rnatdi. **1931-yil noyabr**da **Szyansi provinsiya**sida o'tkazilgan sovet tumanlari vakillarining 1-Butunxitoy syezdi **Xitoy Sovet Respublikasi** tuzilganini e'lon qildi. Davlat boshlig'i etib **Mao Szedun** saylandi. Shunday qilib, Xitoy **uch**ga bo'linib ketdi. **1934-yili** Gomindan

hukumati XKP armiyasiga qattiq zarba berdi. Biroq uni tor-mor etolmadi. Armiyaning bir qismi qurshovni yorib chiqishga erishdi.

Yaponiya agressiyasi. **1931-yil sentyabr**da Yaponiya armiyasi Xitoyga hujum qildi. Bu hujum Chan Kayshining Xitoyni birlashtirish yo'lidagi harakatini to'xtatib qo'ydi. **Uch oy** ichida Yaponiya Xitoyning shimoli-sharqida **1 mln km² maydon**ni egalladi va u yerda **1932-yil 1-mart**da **Manchjou-Go** deb atalgan davlat tuzdi. Uni manjurlar sulolasining so'nggi imperatori **Pu I** boshchiligidagi qo'g'irchoq hukumat boshqardi (manjurlar sulolasi hukmronligi **1912-yil** Sun Yatsen boshchiligidagi inqilob natijasida ag'darilgandi). *30 mln aholi, 37 foiz temir ruda zaxirasi, 95 foiz neft, 4 foiz savdo va temir yo'l yaponlar qo'liga o'tdi.*

1936-yil Chan Kayshi **Sian**ga kelganida, armiya qo'zg'olon ko'tarib, uni asir oldi. Lekin undan fuqarolar urushini boshlamaslikka va'da olinib, qo'yib yuborildi. Chan Kayshi **1935-yili** Yaponiya agressiyasiga qarshi kurashda yordam so'rab Sovet davlatiga murojaat etdi. Sovet davlati yordam berishga tayyorligini bildirdi, biroq buning uchun fuqarolar urushini to'xtatish va Xitoy kommunistlariga qarshi jazo operatsiyalari o'tkazmaslik shartini qo'ydi. **1937-yil iyun**da Gomindan va XKP o'rtasida harbiy harakatlarni to'xtatish haqida shartnoma imzolandi. Shu tariqa Xitoyda yagona antiyapon milliy fronti vujudga keldi.

1937-yil yozidan 1945-yil kuzigacha davom etgan **Yapon – Xitoy urushi** boshlandi. *Yaponlar 1937-yil avgustda Pekin, noyabrda Shanxay, dekabrda Nankinni bosib oldi.* **1937-yil 21-avgust**da SSSR bilan Xitoy o'rtasida hujum qilmaslik haqida shartnoma imzolandi. Xitoy **1938-yil 100 mln dollar, 1939-yili 150 mln dollar** zayom oldi. **1938-yil**gi **Hasan ko'li, 1939-yil**gi **Xalxin Gol**da bo'lib o'tgan janglar yapon kuchlarini zaiflashtirdi. Yaponiya **1941-yil 9-dekabr**da Xitoyga qarshi urushni rasmiy e'lon qildi va bu yerda urush oxirigacha o'z hukmronligini saqlab qoldi.

Birinchi jahon urushidan keyin Hindistondagi ahvol. Urush yillarida Buyuk Britaniya hukumati Hindistonga urushdan keyin o'zini o'zi boshqarish huquqini berishni va'da qilgandi. Aslida, Buyuk Britaniya imperiyasining eng boy qismi bo'lgan Hindistondan ajralishni xohlamasdi. Bu hol hind xalqining milliy ozodlik kurashini yanada kuchaytirdi. Hindistonda bu davrda **320 mln aholi** bor edi. Urush yillarida qora metallurgiya **30 foiz** o'sgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi orqaga ketdi. **12 mln kishi** ochdan o'ldi. **1919-yil 13-apreld**a **Panjob shtati** poytaxti **Amritsar**da ingliz qo'shinlari aholining norozilik yig'ilishini o'qqa tutdi. Buning natijasida **1000 dan ortiq kishi** o'ldirildi, **2000 dan ortiq kishi** yaralandi. Shu tariqa hamma joyda politsiya bilan to'qnashuv boshlanib ketdi.

Buyuk Britaniya **1919-yili** Hindistonni boshqarish to'g'risida qaror qabul qildi. Bunga binoan **2 palatali** boshqarish tizimi tashkil qilindi. Deputatlarning **50 foizini vitse-qirol** tayinlardi. **1,5 foiz hind** saylov huquqi oldi. Bu qonun bilan birga *«anarxizm va inqilobiy chiqishlarga qarshi»* **Rouletta qonuni** ham qabul qilindi, u politsiyaga cheklanmagan huquqlar berdi. Hind xalqi milliy ozodlik kurashiga rahbarlik qiluvchi qudratli siyosiy tashkilot – **Hindiston Milliy Kongressi** (HMK) partiyasi kurashning kuch ishlatish usuliga qarshi chiqdi. HMKga **1915-yil**dan **Maxatma Gandi (1869 – 1948)** boshchilik qildi. Uning rahbarligi davrida HMKda kurashning kuch ishlatmaslik, faqat tinch, zo'rliksiz shakliga tayanadigan yo'li g'alaba qozondi. Bu yo'l tarixga kurashning **gandicha yo'li** nomi bilan kirgan. M.Gandining tinch kurash yo'li keng xalq ommasini kurashga jalb etish imkonini berdi. *Gandizm diniy-falsafiy tizim bo'lib, idealizm, induizm, jaynizm va xristianlik elementlarini o'zida birlashtirgan.* Uning asosida *«haqiqat, ishonch, hech kimga yomonlik qilmaslik»* yotadi. Kurashning tinch, kuch ishlatmaslik yo'li **«satyagraxi»** deyilgan. Hindiston jamiyatining asosini dehqonlar tashkil etgan bir sharoitda, M.Gandi tanlagan yo'l birdan bir to'g'ri yo'l edi. M.Gandining zo'ravonliksiz hamkorlik qilmaslik, fuqaroviy bo'ysunmaslik harakatining **birinchi bosqichi**ni **1919 – 1922-yillar** tashkil etadi.

Rouletta qonuniga javoban M.Gandi **1919-yil 6-apreli**da hind xalqini do'konlarini yopib qo'yishga va har qanday amaliy faoliyatni to'xtatishga chaqirdi. Mustamlakachi ma'muriyat bunga kuch ishlatish yo'li bilan javob berdi. **1919-yil kuzi**da HMK syezdi ingliz ma'murlari joriy etgan qonun bo'yicha saylovni boykot qilish haqida qaror qabul qildi. Natijada saylov amalda barbod bo'ldi. Bu davrda HMK saflarida **10 mln kishi** bor edi. Boykot, shuningdek, ingliz tovarlarini sotib olmaslikni, inglizlar joriy etgan faxriy unvonlar va mansablardan voz kechishni, rasmiy qabullarga bormaslikni, ingliz maktablarida o'qimaslikni, ingliz sudlarini rad etishni, davlat soliqlarini to'lamaslikni ham nazarda tutardi. **Panjobn**ing turli joylarida qo'zg'olonlar ham bo'lib o'tdi. **Lohur**da qo'zg'olonga askarlar ham qo'shildi. Bu yerda **«Armiya kaltagi»** degan tashkilot shuhrat qozondi. **Gujarat**dagi qo'zg'olon **samolyotlar** yordamida bostirildi. *Amritsarda ingliz ma'murlari haqoratli buyruq chiqardi. Mahalliy aholi ingliz missioner ayoli o'ldirilgan ko'chadan boshdan oxir qurbaqaga o'xshab emaklab o'tishga majbur qilindi. Kim bu tartibni buzsa, otib tashlandi.*

Bu davrning xarakterli xususiyatlaridan biri Musulmonlar ligasi bilan Milliy kongressning yaqinlashuvi bo'ldi. *1919 – 1922-yillardagi ozodlik*

harakatlariga Kalkutta jun korxonalari ishchilari, Bombey to'qimachilari, Madras ishchilari, Jamshedpur temir yo'lchilari qo'shildilar. Bu harakatlarning ish kuni **12 soatdan 10 soatga** tushirildi. Metallurglarning mukofot haqi **15 – 20 foiz**ga oshirildi. **1920-yil oxir**da Umumhindiston kasaba uyushmalari kongressi tashkil etildi. **1922-yil noyabr**da Umumhindiston kasaba uyushmalari kongressining **2-syezd**i bo'lib o'tdi. Syezd Buyuk Britaniya shahzodasi **Uels**ning kelishiga **80 ming kishilik** *«qo'zg'olondan ham kuchliroq»* namoyish uyushtirdi. Oradan ko'p o'tmay Milliy kongress kuch ishlatmasdan qarshilik ko'rsatishni to'xtatdi. Bunga sabab **Chauri-Chaura**dagi voqealar edi. Chunki bu yerda politsiya dehqonlarni ommaviy o'qqa tutdi, dehqonlar ham bir necha politsiyachini o'ldirdilar. **Bombey** va **Garaxpur**dagi vahshiyliklar takrorlanmasligi uchun, Gandi harakatni to'xtatishga ko'rsatma berdi.

Ozodlik harakatini vaqtincha bostirgan inglizlar **1923 – 1928-yillari** zaiflashayotgan ahvolini biroz yaxshilab oldilar. Bu davrda Hindiston iqtisodiyoti urush yillaridagidan ham tez o'sdi. Fabrikalar soni **1,5 baravar** ko'payib, **7515 ta**ga yetdi. Buyuk Britaniyaning Hindistondagi kapitali **1 mlrd funt sterling**ga yetdi. **1928-yili** u Hindistondagi faqat irrigatsiya inshootlaridan **74 mln rupiy** foyda oldi. Inqiroz Hindistonga katta ta'sir ko'rsatdi. Buyuk Britaniya inqiroz og'irligini metrapoliyaga yuklamoqchi bo'ldi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari bahosi pasaydi. Ekin maydonlari qisqardi. Mayda kapitalistlar, hunarmandlar xonavayron bo'ldi, ocharchilik avj oldi. Ishsizlar ko'paydi. Ish haqi kamaydi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan sanoat mahsulotlari o'rtasidagi *«qaychi»* monopolistlarga ko'plab foyda olishga imkon berdi. Ozodlik harakati kuchaydi. **Saymon** komissiyasi bilan birgalikda **M.Neru, J.Neru** guruhlari Hindiston konstitutsiyasi loyihasini ishlab chiqdilar. Unga to'la mustaqillik so'zlari kiritildi. Inglizlar oldiga bir qancha radikal talablar qo'yildi, lekin ular buni bajarishmadi. Natijada mustaqillik uchun kurash kuchayib, qonli to'qnashuvlar avj ola boshlagan bir sharoitda M.Gandi barcha chiqishlar oqimini fuqaroviy bo'ysunmaslik o'zaniga burishga intildi. *Bunga mustamlakachi hukumatning 1865-yili joriy etilgan tuz solig'ini bekor qilish haqidagi M.Gandi talabini inkor etishi sabab bo'ldi.*

Inglizlar tuzga davlat monopoliyasini joriy etgandi. Natijada tuz narxi aql bovar qilmas darajada oshib ketdi. Hindlar tuzsiz ovqat yeyishga mahkum etildilar. Bu esa aholini jismonan tanazzulga uchratish bilan barobar edi. Gandi ham dengizdan odamlar bilan tuz ola boshladi. Inglizlar bu harakatni to'xtatmoqchi bo'lishdi. Unga qarshi **1930-yili** Hindistonda bo'ysunmaslik harakatining **ikkinchi bosqichi** boshlandi. Bunga javoban

mustamlakachi ma'muriyat **60 mingdan ortiq kishi**ni (M.Gandi va uning tarafdorlarini ham) qamoqqa tashladi. HMKni esa qonundan tashqari deb e'lon qildi. Lekin bular natija bermagach, **1931-yil 5-mart**da ingliz mustamlakachi ma'muriyati HMK bilan bitim imzolashga majbur bo'ldi. Unga ko'ra, ingliz ma'muriyati repressiyani to'xtatish, siyosiy mahbuslarni ozod etish majburiyatini oldi. HMK fuqaroviy bo'ysunmaslik harakatini to'xtatadigan bo'ldi.

M.Gandi rasmiy London bilan «dumaloq stol» atrofida muzokara boshlashga rozilik berdi. **London**da hind muammosiga bag'ishlab o'tkazilgan konferensiyaga HMK **«Hindiston fuqarolarining asosiy huquq va burchlari haqida»** deb nomlangan hujjatni taqdim etdi. Amalda bu hujjat bo'lajak mustaqil Hindiston Respublikasi konstitutsiyasining asosi edi. *Hujjatda Hindistonda demokratik erkinliklarni joriy etish; kastalar va dinlarning tengligini tan olish; diniy omilni hisobga olgan holda Hindistonni ma'muriy qismlarga qayta bo'lish; ish haqining eng kam miqdorini joriy etish; yer uchun to'lanadigan ijara haqini cheklash; soliqlarni kamaytirish va boshqa talablar ilgari surilgandi.* Tabiiyki, ingliz mustamlakachilari bu talablarni qabul qilmadilar. Natijada konferensiya ishi barbod bo'ldi.

Inglizlar ozodlik kurashini bostirishda bir guruh vatanparvarlar ustidan **1933-yili** sud jarayonini o'tkazdi. **Muzaffar Ahmad** o'lim jazosiga hukm qilindi, lekin xalqning talabi bilan ozod etildi. **1934 – 1939-yillari** Hindiston iqtisodiy jihatdan biroz yuksalsa-da, Angliyaning olgan foydasi tez o'sib bordi. **1935-yili Boshqaruv agentligi to'g'risida** qaror qabul qilindi. Zaxira bank hind kapitalini nazorat qiladigan bo'ldi. Ish haqi **25 foiz**ga kamaydi. Hindlar buni **«Qullik konstitutsiyasi»** deb atadilar. Ozodlik harakati kuchaydi. Biroq Buyuk Britaniya Hindistonda yangi saylov qonunini joriy etishga majbur bo'ldi. *1937-yili o'tkazilgan saylovda HMK jami 11 shtatdan 8 tasida g'alaba qozondi va ularda o'z hukumatini tuzdi. Bu hodisa mustaqillik yo'lidagi yirik qadam edi.* **1939-yil sentyabr**da Ikkinchi jahon urushi boshlangach, Hindiston vitse-qiroli mamlakatni urushuvchi tomon deb e'lon qildi. Urush yillarida hind xalqining ahvoli yanada yomonlashdi. Guruch **5 baravar** qimmatlashdi. Ish kuni **12 soat**ga uzaytirildi. **2 mln hind** armiya va flotda xizmat qildi. Hindiston **0,5 mln** ingliz-amerika askarlarini boqdi.

24.2. TURKIYA. ERON. AFG'ONISTON

Birinchi jahon urushi va Turkiya. Turkiya Birinchi jahon urushida mag'lub bo'ldi. **4 yil** mobaynida **500 ming kishi** o'ldi, **800 mingdan ortiq kishi** nogiron bo'lib qoldi. Antanta armiyasi **1918-yil noyabr**dayoq poytaxt **Istanbul**ni ishg'ol etgandi. **1919-yil oxiri**da Turkiya Buyuk Millat majlisiga (TBMM) saylov o'tkazildi va unda kamolchilar g'alaba qozondilar. TBMM mamlakat hududida chet el nazoratiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida qaror qabul qildi. Bunga javoban ingliz ma'muriyati TBMMni tarqatib yubordi. TBMM o'z majlisini Mustafo Kamol (Otaturk) qo'shini egallab turgan **Anqara**da o'tkaza boshladi. TBMM **1920-yil 23-apre**lda **Mustafo Kamol Otaturk**ni davlat boshlig'i etib sayladi. Shu tariqa ikki hokimiyatchilik – Istanbul shahrida sulton hokimiyati, Anqarada esa kamolchilar hokimiyati vujudga keldi.

1920-yil 10-avgustda sulton hukumati bilan Antanta davlatlari **Sevr shartnomasi**ni imzoladilar. Shartnoma mustaqil Turkiya davlati amalda tugatilganini anglatardi. **1921-yil 20-yanvar**da kamolchilar Turkiyaning vaqtinchalik konstitutsiyasini qabul qildilar. Kamolchilar Turkiya uchun og'ir sharoitda – **1921-yil 16-mart**da **Sovet Rossiyasi** bilan do'stlik va birodarlik haqida shartnoma tuzishga erishdilar va yordam oldilar. **1921-yil bahori**da **Buyuk Britaniya va Gretsiya** Turkiyaga qarshi intervensiya uyushtirdi, u turk xalqining qattiq qarshiligiga duch keldi. Nihoyat, **1922-yil 26-avgust**da Turkiya armiyasi hujumga o'tdi. Milliy ozodlik urushi **1922-yil oktyabr**da g'alaba bilan tugadi. **1-noyabr**da sultonlik hokimiyati tugatildi. **1923-yil 29-oktyabr**da Turkiya respublika deb e'lon qilindi. Kamol Otaturk birinchi prezident etib saylandi. **1923-yil 24-iyul**da Antanta davlatlari **Lozanna konferensiyasi**da mustaqil Turkiya Respublikasini tan oldilar. **1924-yili** xalifalik tugatildi.

Turkiya Respublikasining ichki siyosati. Turkiya hukumati mamlakatdagi chet el mulklarini sotib olish yo'li bilan ularni davlat mulkiga aylantirish hamda iqtisodiyotga davlat mablag'ini joylashtirish siyosatini yuritdi. Milliy bank tashkil etildi. Iqtisodiyotga davlat mablag'ining joylashtirilishi chet el kapitalini cheklab qo'ydi, hukumat milliy sarmoyadorlarning xususiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatladi. *1923-yil oktyabrida poytaxt Istanbuldan Anqaraga ko'chirildi*. Din davlatdan ajratildi. Vaqf mulki bekor qilindi. Ta'limga sof dunyoviy tus berildi. Diniy o'quv yurtlari yopildi. Dunyoviy sud joriy etildi. Davlat hududi yangidan viloyatlarga bo'lib chiqildi. **1924-yil 20-apre**lda respublikaning birinchi konstitutsiyasi qabul qilindi. *Arab alifbosi lotin alifbosiga almashtirildi*. **1928-yili** konstitutsiyadan islom davlat

dini ekani haqidagi qoidalar olib tashlandi. Shu tariqa Turkiya dunyoviy davlatga aylandi. **1931-yili** kamolchilar yangi dastur qabul qildi – respublikachi, milliy, xalq, etatist, dunyoviy, inqilobiy davlat sifatida tasvirlandi.

Tashqi siyosat. Antanta davlatlari uzoq vaqt Turkiya Respublikasini itoatda tutishga urindilar. Fransiya va Buyuk Britaniyaning yangi hukumatga sultonlik davridagi qarzlarini yuklashga erishgani ham shu bilan izohlanadi. **1928-yili** Turkiya ularga **86,5 mln lira** qarz to'laydigan bo'ldi. Bu davrdan Turkiya tashqi siyosatida buyuk davlatlar bilan yaqinlashish an'anasi kuchaydi. Xususan, **1926-yili Italiya** bilan, **1930-yili Germaniya** bilan savdo shartnomalari imzolandi. AQSh ham tashqi savdoda Turkiyaga katta e'tibor bera boshladi. **1932-yil iyul**da Turkiya Millatlar Ligasiga qabul qilindi. Fashistlar Germaniyasi Turkiyaga katta qiziqish bilan qaray boshladi. Bu hodisa va Italiyaning Efiopiyaga hujumi Buyuk Britaniyani Turkiyaga munosabatini o'zgartirishga majbur etdi. **1935-yili** ikki tomon ingliz – italyan nizosi kelib chiqqan taqdirda Turkiyaning Buyuk Britaniya bilan hamkorlik qilishiga kelishib oldilar. Buning evaziga, qolaversa, Sovet davlatining qo'llab-quvvatlashi tufayli Turkiya Qora dengiz bo'g'ozlari (**Bosfor va Dardanell**) ustidan olib boriladigan xalqaro nazoratning bekor qilinishiga erishdi.

1936-yil iyulda, **Montryo shartnomasi**ga ko'ra, bo'g'ozlar nazorati yana Turkiya ixtiyoriga o'tdi. Buyuk Britaniya Germaniya ta'sirining kuchayishiga yo'l qo'ymaslik uchun Turkiyaga ko'p miqdorda harbiy texnika va qurol-yarog' sota boshladi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Turkiya betaraf qoldi. Biroq bu hol uning **1941-yil 18-iyun**da Germaniya bilan do'stlik to'g'risida shartnoma tuzishiga xalal bermadi. **1943-yil 2-fevral**da Germaniya armiyasining Stalingrad ostonalaridagi mag'lubiyati Turkiyaning bundan keyingi siyosatiga ta'sir ko'rsatdi. Chunonchi, **1944-yil avgust**da Turkiya Germaniya bilan diplomatik munosabatlarini uzdi. Ayni paytda, u AQSh, Buyuk Britaniya va Fransiya bilan yaqinlasha boshladi. Bu yaqinlashuv **1945-yil fevral**da Germaniyaga qarshi urush e'lon qilishga olib keldi. Biroq Turkiya urush harakatlarida qatnashmadi.

Eronning ichki va tashqi siyosati. Bu davrda Eron amalda Buyuk Britaniya va podsho Rossiyasining yarim mustamlakasi edi. Sovet davlati **1917-yil 3-dekabr**da podsho hukumatining Eronga majburan qabul qildirgan shartnomalaridan voz kechdi. Rus qo'shinlari evakuatsiya qilindi. Buyuk Britaniya esa **1918-yil boshlari**da Eronni butunlay ishg'ol etishga kirishdi. Inglizlarni, birinchi navbatda, Eron nefti va O'rta Osiyo paxtasi qiziqtirardi. Buyuk Britaniya **1919-yil 9-avgust**da Eron hukumatini tengsiz shartnoma imzolashga majbur etdi. **Vosiq ud-davla** bunga qarshilik

qilolmadi. *Unga ko'ra, armiya, moliya, tashqi savdo, yo'l qurilishi nazorati ingliz maslahatchilari qo'liga o'tdi.* **1919-yil**dan mamlakatda milliy ozodlik kurashi boshlandi. **Muhammad Xiyoboniy** boshchiligida **Tabriz**da katta qo'zg'olon bo'lib o'tdi va hokimiyatni egallab, **«Ozodiston»**ni tuzdi. **Resht shahr**ida **G'ilon Sovet Respublikasi** tuzildi.

Shunday sharoitda Buyuk Britaniya o'ziga xayrxoh guruhlarning hokimiyatga kelishiga harakat qildi. Bunga davlat to'ntarishini uyushtirish yo'li bilan erishdi. **1921-yil 21-fevral**da **Rizoxon** boshchiligidagi harbiylar **Tehron**da davlat to'ntarishi o'tkazdilar. Rizoxon harbiy ishlar vaziri bo'lib qolsa-da, amalda hokimiyatni o'z qo'liga oldi. Yangi hukumat mamlakatdagi siyosiy kayfiyat ta'sirida **1919-yil**gi ingliz – eron shartnomasini bekor qilishga majbur bo'ldi. Biroq Buyuk Britaniya mavqeyi saqlab qolindi. Yangi hukumat **1921-yil 26-fevral**da Sovet Rossiyasi bilan ham shartnoma imzoladi.

Eron xalqining **1919 – 1922-yillar**dagi milliy ozodlik harakati izsiz ketgani yo'q. Buning natijasida Buyuk Britaniya Erondan o'z armiyasini olib ketishga majbur bo'ldi. Eron armiyasi va moliya tizimida ingliz maslahatchilari ishlashi taqiqlandi. Lekin **1922-yil**dan Eron AQSh bilan yaqinlasha boshladi. **5 ta viloyat**da neft qazish ishlarini ijaraga berdi. Biroq ko'p o'tmay bekor qilindi. Chunki ingliz – eron neft kompaniyasida ularning ta'siri kuchli edi.

1920 – 1922-yillari mamlakatda markaziy hokimiyatni kuchaytirish borasida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirildi, separatchi kuchlar qarshiligi bostirildi. Turli ko'rinishdagi qurolli kuchlar yagona armiyaga birlashtirildi. Bu o'zgarishlar Rizoxon nomi bilan bog'liq edi. **1923-yil oktyabr**da u bosh vazir lavozimini egalladi. **1925-yil 31-oktyabr**da Eron parlamenti (Majlis) kojarlar sulolasi ag'darilganini va hokimiyat Rizoxonga topshirilganini e'lon qildi. **12-dekabr**da esa Rizoxon Eron shohi deb e'lon qilindi. **1939 – 1933-yil**gi jahon iqtisodiy inqirozi davrida ishlab chiqarish **30 – 40 foiz**ga tushdi, gilam narxi **75 foiz**ga arzonlashdi. *Mamlakatda qator islohotlar o'tkazildi. Xolisa yerlarni sotishga ruxsat berildi. Pul solig'i joriy etildi. Davlat yerlari ijaraga beriladigan bo'ldi. Dunyoviy maktablar ham ochildi.* **1934-yili** Tehron universiteti ochildi. **1935-yili** ayollarning paranjisiz yurishi haqida qonun chiqarildi. Yevropacha turmush tarziga ruxsat etildi. Ayni paytda, shoh hokimiyati kuchayib bordi. Parlament huquqi cheklandi.

1933-yili ingliz – eron neft kompaniyasi bilan yangi shartnoma imzolandi. Unga ko'ra, kompaniyaning davlatga to'laydigan to'lovi miqdori oshirildi. Evaziga kompaniya ijara muddatini **1993-yil**gacha uzaytirib

oldi. Rizoxon Sovet davlati bilan munosabatlarni tobora cheklab qo'yish siyosatini yuritdi. **30-yillar oxiri**da Eron va Sovet davlati o'rtasidagi savdo munosabatlari to'xtab qoldi. Ayni paytda, Germaniya bilan yaqinlashuv kengaya bordi. Eron tashqi savdosining **40 – 45 foiz**i Germaniyaga to'g'ri keldi.

Afg'onistonning ichki siyosati. Birinchi jahon urushi oxirida Afg'oniston mustaqil davlat hisoblansa-da, amalda Buyuk Britaniyaga qaram davlat edi. Mamlakat hukmdori **Amir Habibullaxon** inglizlar tayanchi edi. Mamlakatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tartiblarga qarshi kuchlar ham vujudga keldi. Bu kuch **«Yosh afg'onlar harakati»** deb atalgan. Ularning maqsadi davlat mustaqilligiga erishish, erkin tadbirkorlik munosabatlarini qaror toptirish edi. Ana shunday sharoitda **1919-yil fevral**da saroy fitnasi natijasida Amir Habibullaxon o'ldirildi. Taxtni uning o'g'li **Omonullaxon** egalladi. U Yosh afg'onlar harakati bilan mahkam bog'langandi. **1919-yil 28-fevral**da Omonullaxon Afg'onistonni mustaqil davlat deb e'lon qildi.

Afg'onistonning davlat mustaqilligini birinchi bo'lib **Sovet Rossiyasi** tan oldi. Ayni paytda, Afg'onistonga, zarur bo'lib qolsa, harbiy yordam berishni ham ma'lum qildi. **1921-yili** sovet – afg'on shartnomasi imzolandi. Buyuk Britaniya Afg'onistonning mustaqil siyosat yuritishiga aslo chiday olmadi. Afg'onistonni itoatkor davlatga aylantirish maqsadida **1919-yil 3-may**da unga hujum qildi, shu tariqa **Uchinchi ingliz – afg'on urushi** boshlandi. Inglizlar **300 ming qo'shin** bilan hujum boshladi. Afg'on armiyasi **60 ming kishi** edi. Lekin **200 mingdan ortiq** jangchisi bo'lgan afg'on qabilalari chegara bo'ylab joylashgandi. Shu sababli ingliz armiyasining hujumi muvaffaqiyatsiz yakunlandi. **8-avgust**da **Ravalpindi shahri**da ingliz – afg'on shartnomasi imzolandi. Bu voqea mustaqil Afg'on davlatining tan olinishini ham anglatardi. Lekin **3 mln aholi**ni o'z ichiga olgan afg'on qabilalari hamon Hindiston hisobida qoldi. Omonullaxon markaziy hokimiyatni mustahkamladi. Bu o'rinda **1923-yili** qabul qilingan Afg'oniston davlatining birinchi konstitutsiyasi muhim rol o'ynadi. Qabila boshliqlari hokimiyati cheklab qo'yildi va ular davlat soliqlarini yig'ish huquqidan mahrum etildi. Ruhoniylarning sud va ta'lim tizimidagi mavqeyi ma'lum darajada cheklab qo'yildi. Yosh afg'onlar hukumati milliy sanoatni rivojlantirishga alohida e'tibor berdi. Chet el mollariga boj ko'paytirildi.

1923-yili yerga xususiy mulkchilikni joriy etish to'g'risida qonun qabul qilindi. Dunyoviy o'quv yurtlari kengaytirildi. Xotin-qizlar gimnaziyasi ochildi. Nikoh haqida qonun qabul qilindi. Ko'p xotinlilik cheklandi. Yer solig'i natural emas, pul bilan olinadigan bo'ldi. Bu ijobiy o'zgarishlar,

tabiiyki, aholi kambag'al qismining turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada aholining bu qatlami orasida hukumat siyosatidan norozilik vujudga keldi.

Yosh afg'onlar hukumatiga qarshi hukmron tabaqalar bundan o'z maqsadlari yo'lida foydalandilar. **1924-yili Xost**da reaksion g'alayon ko'tarildi. Podshoh *«dindan qaytgan»* deb e'lon qilindi. Xotin-qizlar gimnaziyasi yopildi. **1927-yili** Omonullaxon chet el safarida bo'ldi. Misr parlamentiga afg'on qilichini taqdim etarkan, *«Mustaqillik jangda qo'lga kiritiladi, sadaqa qilinmaydi»* dedi. **1928-yili** safardan qaytgan Omonullaxon umumiy majburiy xizmat joriy etdi. Feodal nishonlarini bekor qildi. Qirolicha **Surayyo** ochiq yuz bilan delegatlar oldiga chiqdi. Natijada feodallar **1928-yil kuz**da Yosh afg'onlar hukumatiga qarshi qo'zg'olon uyushtirishga erishdilar. Buning oqibatida **1929-yil yanvar**da Omonullaxon hukumati ag'darildi. Amirlik taxtini reaksiya tayanchi **Bachayi Sako** egalladi. Yangi hukumat Yosh afg'onlar boshlagan islohotlarni bekor qildi. Bu hol Afg'onistonning burjuacha yo'ldan rivojlanish tarafdori bo'lgan kuchlarning noroziligiga olib keldi. Bu kuchlar **1929-yil oktyabr**da general **Muhammad Nodir** boshchiligida hokimiyatni egalladilar. Bachayi Sako taxtdan ag'darildi.

Muhammad Nodirshoh markaziy hokimiyatni mustahkamlagani holda, mahalliy xonlar va ruhoniylarning qator imtiyozlarini ham tikladi. Ruhoniylar sud ishlari va ta'lim sohasida avvalgi mavqega ega bo'ldilar. Biroq ularning faoliyati davlat nazorati ostiga olindi. **1931-yil**l mamlakatning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. U Afg'onistonning mutlaq monarxiyadan konstitutsiyaviy monarxiya davlatiga aylanishi yo'lida yangi qadam bo'ldi. **1933-yili** Nodirshoh vafot etgach, taxtga o'g'li **Muhammad Zohirshoh** o'tirdi. U otasi kabi ichki siyosatda milliy, iqtisodiyotda bozor munosabatlarini chuqurlashtirish yo'lini tutdi.

Tashqi siyosat. Afg'onistonning tashqi siyosati har doim ham bir maromda bo'lmadi. Masalan, Omonullaxon davrida shimoliy qo'shni Sovet davlati bilan do'stona munosabat o'rnatilgan bo'lsa, Bachayi Sako davrida, aksincha, bu munosabat yomonlashdi. Bunga Afg'onistonning Turkistondagi milliy ozodlik harakatini qo'llab-quvvatlagani sabab bo'ldi. Buyuk Britaniya Afg'onistonda o'z mavqeyini kuchaytirishga harakat qildi. Nodirshoh davrida afg'on – sovet munosabatlari yana o'z iziga tusha boshladi. **1931-yil 24-iyun**da Afg'oniston va Sovet davlati o'rtasida betaraflik va hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma imzolandi. Ikkinchi jahon urushi arafasida Germaniya va Italiya Afg'onistonga qiziqish bilan qaray boshladi. Chunki Afg'oniston geografik jihatdan Sovet davlati hamda Buyuk Britaniya mustamlakasi Hindistonga yaqin

edi. Ular Afg'onistonni betaraflik yo'lidan qaytarishga urindilar. Lekin bunga erisholmadilar. Ikkinchi jahon urushi boshlangach, Afg'oniston betarafligi e'lon qilindi. **1941-yili** esa Buyuk Britaniya va Sovet davlati murojaati bilan Afg'oniston hududidan elchixonalar xodimlaridan tashqari barcha Germaniya va Italiya fuqarolari chiqarib yuborildi. Urush davomida Afg'oniston betaraflikni saqlab qoldi.

24.3. YAPONIYA

Yaponiyaning ichki siyosati. Yaponiya Birinchi jahon urushida g'oliblar safida bo'ldi. Unga **Shandun yarimoroli**, Tinch okeanidagi **Marian, Karolina, Marshall orollari** mandati taqdim etildi. Bu orollar muhim strategik ahamiyatga ega edi. Ular Yaponiyaga Tinch okeani akvatoriyasi markaziga chiqish va AQShning asosiy harbiy-dengiz bazasi bo'lmish **Gavay orollari**ga yaqinlashish imkonini berdi. Ayni paytda, Yaponiya Xitoyda o'z mavqeyini mustahkamladi. Uzoq Sharq va Tinch okeani havzasi davlatlari bozorini shitob bilan egallay boshladi. Bu esa yapon monopoliyalari (**Mitsui, Mitsubisi, Yasuda, Sumitomo**)ning daromadlarini yanada ko'paytirdi. Urush yillari yapon magnatlari uchun *«oltin davr»* bo'ldi. *To'qimachilik 4,5, metallurgiya 6, mashinasozlik 5,5 baravar o'sdi.* Biroq mamlakatda mehnatkashlarning turmush darajasi pasaydi. Bu hodisa **1918-yil 3-avgust**da **Toyama prefekturasi**da yuz bergan **«sholi isyoni»**da o'z ifodasini topdi.

«Sholi isyoni». Bu isyon chayqovchilar tomonidan sholining narxini oshirib yuborish natijasida kelib chiqdi. **10-avgust**da isyon **Kioto**ga ham tarqaldi. Och qolgan isyonchilar do'konlarni bosib ola boshladilar. Qisqa muddat ichida «sholi isyoni» Yaponiyaning **2/3 qism**iga tarqaldi. Biroq hukumat isyonni qattiqqo'llik bilan bostirdi. Minglab kishilar hibsga olindi, ko'plari surgun qilindi va umrbod qamoq jazosiga hukm etildi. Yaponiya mustamlakachi imperiyasi asoslarini larzaga keltirgan bu isyon mustamlakalarda milliy ozodlik kurashining yangi to'lqini ko'tarilishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Yaponiyaning o'zida urushga qarshi kurash kayfiyati kuchaydi. Boz ustiga, Uzoq Sharqda qizil armiya yapon bosqinchilariga qaqshatqich zarba bera boshladi. Shunday bir sharoitda **1920 – 1922-yillar**dagi iqtisodiy inqiroz Yaponiya iqtisodiyotiga katta zarba berdi. Sababi iqtisodiyotning tashqi bozorlarga qaramligi edi. Inqiroz mamlakat ichkarisida mehnat va sarmoya o'rtasidagi ziddiyatni yanada keskinlashtirdi.

Iqtisodiy ahvol. **1923-yil oxiri**ga kelib Yaponiya iqtisodiyotida jon-

lanish bo'ldi. Bunga shu yilning **1-sentyabr**ida yuz bergan yer qimirlashidan so'ng boshlangan tiklash ishlari qulay sharoit yaratdi. Hukumat yirik tadbirkorlar zarar ko'rmasligi uchun barcha zarur choralarni ko'rdi. Ularning barcha to'lovlari muddatini kechiktirdi. Ko'rgan zararlari uchun kompensatsiya to'lovini amalga oshirdi. Yapon monopoliyalari katta foyda miqdorini saqlab qolish uchun eksport tovarlari narxini pasaytirdi. *Mamlakatda cho'yan ishlab chiqarish 2 baravar o'sdi va 1 mln 100 ming tonnaga, po'lat ishlab chiqarish 842 ming tonnadan 1 mln 720 ming tonnaga o'sdi. Umumiy saylov huquqi haqida qaror qabul qilindi. Saylovchilar 3 mln dan 4,3 mln ga ko'paydi.*

1929 – 1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Yaponiya iqtisodiyotiga yanada katta zarba berdi. Bu yapon va amerika bozorlarining bir-biri bilan juda mustahkam bog'lanib qolgani, Yaponiya iqtisodiyoti boshqa buyuk davlatlar iqtisodiyotiga nisbatan zaifligi, **1923-yili** yuz bergan yer qimirlashi oqibatlari chuqurligining natijasi edi. Inqiroz, ayniqsa, qishloq xo'jaligida og'ir kechdi. AQShga ipak eksport qilish hajmi **30 foiz** kamaydi. Ipak narxi keskin tushib ketdi. *1931-yilga kelib sanoat mahsulotlari 31, eksport 65, import 72 foizga qisqardi.* Inqiroz yillarida ishsizlar soni **3 mln kish**ini tashkil etdi. Inqiroz mamlakat ichkarisida ijtimoiy ahvolni keskinlashtirib yubordi. Mamlakatda **«Yosh zobitlar va yangi konsernlar ittifoqi»** vujudga keldi. Ular mayda va o'rta tadbirkorlar manfaatini ko'zlardi. *Inqiroz ularning ahvolini yanada og'irlashtirib yuborgani Yosh zobitlarni befarq qoldirmadi. Chunki ular Yaponiya jamiyatida eng ko'p zarar ko'rgan qatlam vakillari edi.*

Ikkinchidan, Yaponiyaning harbiy-dengiz qudratini cheklovchi turli xalqaro shartnomalar Yosh zobitlarda kuchli norozilik uyg'otdi. Biroq Yaponiyada vujudga kelgan yangi ittifoq demokratik kayfiyatdagi kuchlar ittifoqi emasdi. Aksincha, bu ittifoq Yaponiyada fashizm yo'liga o'ta bordi. Ayni paytda, Yosh zobitlar imperatorga sodiq edilar. Ular imperatordan eski konsernlar hukmronligini cheklashni talab eta boshladilar. Parlamentga qarshi chiqdilar. Shu tariqa Yaponiya fashistlashib bordi. *Ular «panosiyo» va dunyoga hukmronlik g'oyalarini zo'r berib targ'ib eta boshladilar.* Yosh zobitlar yangi konsernlar egalarining hokimiyatga intilishini qo'llab-quvvatladi. Biroq eski konsernlar katta moliyaviy qudratga egaligi uchun, ularning mavqeyi hali qudratli edi. *Eski va yangi konsernlar egalarini birlashtiruvchi bir omil – dunyoga hukmron bo'lishga intilish edi.*

1932-yil 15-mayda Yosh zobitlarning fashistik isyoni ko'tarildi. Natijada mamlakat bosh vaziri **Inukai** o'ldirildi. Isyon bostirilgan bo'lsa-da, mamlakatda harbiylar mavqeyi oshib ketdi. Shu davrdan **1945-yil**gacha

hukumatni boshqarish faqat harbiy byurokratiya vakillariga topshirilgani bejiz emas. Shunga qaramay, **1936-yil 26-fevral**da **1500 harbiy** qatnashgan **ikkinchi fashistik isyon** uyushtirildi. Isyon **29-fevral**da bostirilgan bo'lsa-da, u Yaponiya hukmron doiralarini qattiq tashvishga soldi. **17 isyonchi** o'ldirildi. Ular mamlakatdagi chuqur ichki siyosiy inqirozni agressiv harbiy harakatlar boshlash yo'li bilan bartaraf etishga qaror qildilar.

Yaponiyaning tashqi siyosati. Urushdan keyin Tinch okeani havzalarida Yaponiyaning AQSh bilan munosabatlari keskinlasha bordi. Sababi har ikki tomonning bu mintaqada yetakchilikka intilishi edi. Hatto Vashington konferensiyasi qarorlari ham buyuk davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni to'la bartaraf etolmadi. Yapon monopoliyalari katta foyda miqdorini saqlab qolish uchun eksport tovarlari narxini pasaytirdi. Ayni paytda, Yaponiya monopoliyalari Sovet davlati bilan munosabatlarning yaxshilanishiga intildi. Chunki Yaponiya Rossiyaning sharqiy qismiga Yaponiya iqtisodiyoti uchun katta xomashyo manbayi sifatida qarardi. Yaponiya bunday manbani **1918 – 1925-yillar** davomida harbiy yo'l bilan qo'lga kiritolmadi. Aksincha, Yaponiya uyushtirgan intervensiya mag'lubiyatga uchradi. Endi Sovet davlati bilan manfaatli iqtisodiy va savdo aloqalarini rivojlantirishdan boshqa yo'l yo'q edi. Shuning uchun **1925-yil 20-yanvar**da ikki mamlakat o'rtasida **«O'zaro munosabatlarning asosiy tamoyillari to'g'risida»** shartnoma imzolandi. Unga ko'ra, Yaponiya Sovet Rossiyasi hududidagi so'nggi harbiy qismlarini olib chiqib ketdi. Biroq bu Yaponiya hukmron doiralarining sovet Uzoq Sharqi hududlariga da'volaridan voz kechdi degani emasdi. **1927-yili** faol agressiv tashqi siyosat tarafdorlari hukumati tuzildi. Yangi hukumat o'z maqsadlarini **«Tanaka memorandumi»** deb atalgan hujjatda ifoda etdi.

1927-yil 25-iyulda imperatorga yuborilgan bu hujjatda Yaponiyaning dunyoga hukmronlik qilishiga ochiqdan ochiq da'vo qilingandi. Hujjatda quyidagilar yozilgandi: *«Xitoyni bosib olish uchun avval Manjuriya va Mo'g'ulistonni bosib olishimiz zarur. Dunyoni bosib olish uchun esa avval Xitoyni bosib olishimiz lozim. Agar biz Xitoyni bosib ololsak, Osiyoning barcha kichik davlatlari bizdan qo'rqadi va bizning oldimizda taslim bo'ladi. Bizning milliy rivojlanish dasturimizga Mongoliya dalalarida Rossiya bilan qilich urushtirish kiradi... Biz AQShni yakson qilishimiz zarur».* Yaponiya hukmron doiralari tez orada o'z orzularini amalga oshirishga kirishdilar. **1931-yil sentyabr**da Yaponiya armiyasi Xitoyning shimoli-sharqiga – Manjuriyaga hujum qildi va **1932-yil boshlari**da bosib oldi. **1932-yili** Xitoyning boshqa qismlariga bostirib kirdi. **1932-yil mart**da bosib olingan yerlarda **Manchjou-Go davlat**ini tuzdi. **1932-yil yoz**da

Jexe va **Xebey viloyatlari**ni egalladi. AQSh bu harakatlarni ma'qulladi va **147 mln dollarlik** qurol-yarog' yetkazib berdi. Xalqaro hamjamiyat nazaridan xoli bo'lish maqsadida Yaponiya **1933-yil mart**da Millatlar Ligasidan chiqdi. **1934-yili** esa Sharqiy Osiyoga hukmronlik da'vosi bilan chiqdi va harbiy kuchlarini cheklagan Vashington shartnomasidan voz kechishini ma'lum qildi. Yaponiya Germaniya bilan yaqinlashish yo'lini tutdi. Chunki G'arbni Germaniya, Sharqni Yaponiya egallashi kerak edi. **1936-yil noyabr**da ular o'rtasida **«Antikomintern ahdnomasi»** tuzildi.

Yaponiya Sovet davlati chegaralarida turli janjallarni kuchaytirdi. **1938-yil 29-iyul – 11-avgust**da Sovet davlati hududiga hujum uyushtirildi. Bu voqea **Hasan ko'li** hududida (Primoryeda) yuz berdi. Biroq Sovet armiyasi o'z hududini yapon qo'shinlaridan tozalashga erishdi. **1938-yil sentyabr**da imzolangan **Myunxen shartnomasi** Yaponiya hukmron doiralarining ishtahasini ochib yubordi. Shu yil **3-noyabr**da Yaponiya Sharqiy Osiyoda yangi tartib o'rnatish haqida deklaratsiya e'lon qildi. **1939-yil 11-may**da Yaponiya armiyasi **Mo'g'uliston**ga hujum qildi. O'zaro shartnomaga ko'ra, sovet armiyasi Mo'g'ulistonga yordam ko'rsatdi. **To'rt oy** davom etgan urushda Yaponiya armiyasi tor-mor etildi. Shunga qaramay, Yaponiya o'z niyatlaridan (ya'ni Sharqiy Osiyoda hukmronlik o'rnatishdan) voz kechmadi. **1939-yil bahor**ida fashist davlatlar Buyuk Sharqiy Osiyo kengligida yangi tartib o'rnatish borasida Yaponiya gegemonligini tan oldi. Lekin Yaponiyaning boshqa davlatlar (AQSh, Buyuk Britaniya va Fransiya) bilan munosabatlari keskinlashib bordi. Bu omil, shuningdek, Xalxin-Goldagi mag'lubiyat, Sovet – Germaniya shartnomasi Yaponiyaning Sovet davlati bilan munosabatini o'zgartirishga majbur etdi.

Urushda ishtiroki. Yevropada urush harakatlari boshlanishi bilan, **1939-yil 4 – 13-sentyabr**da Yaponiya hukumati deklaratsiya e'lon qilib, G'arbdagi urushga aralashmasligini bildirdi. **1940-yil 1-avgust**da **Kanae** bosh vazirlikni egalladi va Sharqiy Osiyoda «yangi tartib o'rnatish» rejasini davom ettirdi. **1940-yil 23-sentyabr**da Yaponiya **Hindixitoy shimoli**ga bostirib kirdi. **27-sentyabr**da **Tokio**da Germaniya va Italiya bilan uchlik siyosiy ittifoqini **10 yil** muddatga tuzdi. Bu narsa uning fashistik davlatlarga o'z maqsadi yo'lida butunlay sherik bo'lganini anglatardi. **1941-yil 13-aprel**da Sovet davlati bilan betaraflik shartnomasini tuzdi. Lekin **«Kantokuen» rejasi**ni tuzib, qulay fursatni poylab turdi. Armiya **700 ming kishi**ga yetkazildi. AQSh bilan munosabatlar keskinlashdi. Yaponiya **1941-yil 7-dekabr**da AQShning **Pirl-Xarbor bazasi**ga to'satdan hujum qildi. **Malayya, Birma, Tailand, Indoneziya, Filippin**ni egalladi.

1942-yildan ingliz-amerika qo'shinlari qarshi hujumga o'tdi va

Yaponiyaning asosiy kuchlarini tor-mor keltirdi. **1945-yil 6 – 9-avgust**da AQSh Yaponiyaga atom bombasini tashladi. **9-avgust**da SSSR hujumga o'tdi. **2-sentyabr**da Yaponiya so'zsiz taslim bo'ldi. *Urushda o'lgan, yarador bo'lganlar, izsiz yo'qolganlar bo'lib 5,5 mln kishini yo'qotdi. 340 harbiy kema, 50 ming samolyot, 8,4 mln tonnalik savdo kemalaridan ajraldi. Zarar 64,3 mlrd iyenani tashkil qildi. 1937 – 1945-yillar orasida 270 mlrd iyena harbiy xarajat qildi.*

24.4. ARAB DAVLATLARI

Urushning arab davlatlariga ta'siri. **XX asr boshlari**da barcha arab davlatlari mustamlaka yoki yarim mustamlaka bo'lganlar. Xususan, Osiyoda joylashgan arab davlatlari **Turkiya imperiyasi** tarkibiga kirgan. *Afrikadagi Misr va Sudan Buyuk Britaniya; Tunis, Jazoir va Marokash Fransiya; Marokashning bir qismi Ispaniya; Liviya esa Italiya mustamlakasi edi.* Birinchi jahon urushi natijasida Turkiya imperiyasi quladi. Biroq bu barcha arablarga ham mustaqillik keltirgani yo'q. **Saudiya Arabistoni** va **Yaman** mustaqil davlatlarga aylandi. Osiyodagi arab hududlari (Millatlar Ligasining mandat tizimiga asosan) **Buyuk Britaniya va Fransiya** nazorati ostiga berildi. Shimoliy Afrikada yashovchi arab xalqi mustamlaka zulmi ostida qolaverdi.

Suriya. Suriya **to'rt asr** davomida Turkiya mustamlakasi bo'lib kelgan. Birinchi jahon urushi oxirida esa u **Fransiya** qo'shinlari tomonidan ishg'ol etildi. **XX asr boshlari**da ham Suriyada o'rta asrlarga xos ishlab chiqarish munosabatlari hukmron edi. Aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanar, yerning ko'pchiligi katta yer egalari (feodallar) qo'lida edi. Dehqonlar (**fallohlar**)ning katta qismi bir parcha yerga ham ega emasdi. Ular ijaraga yer olib ishlashga majbur edilar. Sanoat juda sekin rivojlanar, o'z vatanida ish topolmagan ziyolilar chet elga ketishga majbur bo'lardi. Suriya xalqi Turkiyaning Antanta davlatlariga to'lashi zarur bo'lgan tovonning bir qismini to'lashga majbur etildi, aholi turmush darajasi yanada pasaydi.

Mustaqillik davridagi og'ir kurashlar. **1918-yil noyabr**da Suriya xalqining milliy ozodlik kurashi boshlandi. Fallohlar partizan guruhlarini tuza boshladilar. **1919-yil Latakiya**da ko'tarilgan qo'zg'olon **3 yil** davom etdi. *Parij tinchlik konferensiyasida Suriya mustaqil davlat deb tan olingach,* Suriya Bosh kongressi qonuniy mudofaa holati e'lon qildi. **1919-yil noyabr**da joylarda Xalq milliy kengashi tuzildi. Kengash partizanlar harakati uchun mablag' va qurol to'plash bilan shug'ullandi. Partizan guruhlariga

ko'ngillilarni jalb etdi. Milliy kengash **dekabr**da Suriya hukumatini tuzdi. Biroq mamlakat amiri **Faysal**ning Fransiya bilan kelishuvchilik siyosati milliy ozodlik kurashi kuchayishiga to'g'anoq bo'la boshladi. Faysal **1920-yil boshlar**ida davlat to'ntarishi o'tkazdi va parlament tarqatib yuborildi. **Mart**da o'zini Suriya qiroli deb e'lon qildi. **1920-yil aprel**da **San-Remo shartnomas**iga ko'ra, Suriya Fransiyaning mandati nazoratiga berildi. **Iyul**da Fransiya armiyasi **Damashq**qa kiritildi.

Harbiy vazir **Yusuf Azma** boshchiligidagi vatanparvarlar Fransiya qo'shinlariga qarshi tengsiz jang qilib, katta talafot ko'rdilar. **Qirol Faysal** esa taslimchilik yo'lini afzal bildi. U armiyani qurolsizlantirdi, Damashqni esa Fransiya qo'shinlariga jangsiz topshirdi. Fransiya harbiy ma'muriyati Faysalga ishonmasdi. Uni Buyuk Britaniya manfaatlariga xizmat qiluvchi shaxs deb hisoblardi. Shu bois Faysalni Suriyadan chiqarib yubordi.

1925 – 1927-yillar milliy ozodlik kurashining eng yuksalgan davri bo'ldi. Chunki **1925-yil iyul**da **Jabel-Druz viloyati**da dehqonlar ko'targan qo'zg'olon boshlandi. Uning ta'sirida butun mamlakat miqyosida partizanlar harakati kuchaydi. Qo'zg'olonga **Xalq partiyasi** (**1925-yil fevral**da tuzilgan) rahbarlik qildi. **18- oktyabr**da partizanlar **Damashq**ni egalladilar. Fransiya armiyasi shahardan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Biroq fransuzlar **2 kun** davomida shaharni artilleriya va havodan bombardimon qildilar. Oqibatda Damashqni tashlab chiqishga majbur bo'lindi. Vaqtdan yutish maqsadida ayyor fransuz harbiy ma'muriyati vatanparvar kuchlar vakillari bilan muzokara olib bordi. O'z ahvolini yaxshilab olgach, **1926-yil may**da hujumga o'tdi. **1927-yil bahor**ida qo'zg'olonni to'la bostirishga erishdi.

Suriyaliklarga ham biroz yon bosish siyosati yuritildi. **1928-yili** ularga Ta'sis majlisi chaqirishga ruxsat berildi. Biroq Ta'sis majlisi fransuz ma'muriyati o'ylaganchalik mo'min-qobil bo'lib chiqmadi. Aksincha, Ta'sis majlisi mamlakat konstitutsiyasiga Suriyaning Fransiya mandati nazoratiga bo'ysunishi haqidagi moddani kiritmadi. Bunga javoban Fransiyaning Suriyadagi oliy komissari Ta'sis majlisini tarqatib yubordi. Suriya parlamentini konstitutsiyaga bu moddani qo'shishga majbur etdi. Suriya parlament respublikasi deb e'lon qilindi. **1933-yil noyabr**da parlament ham tarqatib yuborildi. Konstitutsiya bekor qilindi.

Fransiyada xalq fronti hukumati hokimiyat tepasiga kelgach, tashqi siyosat masalasida ham ba'zi o'zgarishlar yuz berdi. Hukumat harbiy yo'l bilan Suriya masalasini hal etish mumkinmasligini to'g'ri baholay oldi. Suriya konstitutsiyasi tiklandi. Vatanparvar kuchlar ittifoqiga kirgan partiya vakillari hukumati tuzildi. Bu hukumat **1936-yil sentyabr**da Fransiya

hukumati bilan shartnoma imzolashga erishdi. Shartnomada Suriyaga **3 yil** ichida mustaqillik berilishi ko'zda tutilgandi. Biroq Fransiya parlamenti bu shartnomani tasdiqlamadi. Aksincha, Ikkinchi jahon urushi arafasida Suriya parlamenti yana tarqatib yuborildi. Konstitutsiya yana bekor qilindi. Biroq bu zarbalar milliy ozodlik kurashini to'xtatmadi. Fransiya **1940-yili** taslim bo'lgach, Suriyada ham Germaniya ta'siri kuchaya boshladi. Biroq bu uzoq davom etmadi. **1941-yil iyul**da ingliz – fransuz armiyasi Suriyaga kirdi. Mamlakatdan fashist agentlari quvildi. Ikkinchi jahon urushi tufayli qiyin ahvolga tushib qolgan Fransiyaning de Goll hukumati Suriyaga mustaqillik berishga majbur bo'ldi. **1941-yil 27-sentyabr**da Suriya mustaqil davlat deb e'lon qilindi.

Iroq. Birinchi jahon urushi yillarida Iroq hududi **Buyuk Britaniya** tomonidan ishg'ol qilindi. Bu hol urushdan keyin ham davom etdi. Mamlakatning barcha qismlarida ingliz mustamlaka ma'muriyati tashkil etildi. Mustamlakachilik siyosati mamlakat xo'jaligini halokat yoqasiga keltirib qo'ydi. Ishchi kuchi yetishmasligi oqibatida ekin maydonlarining deyarli yarmi tashlandiq holga kelib qoldi. Bu ishga yaroqli erkak aholining katta qismi dastlab Turkiya armiyasiga, keyinchalik esa ingliz mehnat korpuslariga safarbar etilgani oqibati edi. Mamlakatda ocharchilik yuz berdi. Turli yuqumli kasalliklar keng tarqaldi. Ingliz mustamlakachi ma'murlari katta yer egalarini o'z tomonlariga og'dirishga urindilar. Shu maqsadda dehqon jamoalariga qarashli yerlarni ham qabila shayxlari, diniy va dunyoviy rahnamolarga biriktirib qo'yishdi. Biroq bu tadbir Iroqda milliy ozodlik kurashining oldini ololmadi.

Vatanparvar kuchlar, ya'ni milliy burjuaziya, kichik va o'rta qabilalar shayxlari, inglizlarning o'z faoliyatlariga aralashuvidan norozi bo'lgan qabila yo'lboshchilari, dehqonlar, savdogarlar, ziyolilar, inglizlarga qarshi bo'lgan yirik yer egalari, ruhoniylar «Mustaqillik posbonlari» deb ataluvchi jamiyat tuzgandi. Uning rahbari savdogar **Ja'far Abu Timman** edi. Jamiyat Iroqqa to'la mustaqillik berishni talab etdi. Kelishuvchilik tarafdorlari esa **«Iroq vasiyati»** deb ataluvchi jamiyatni tuzdilar. **1920-yili** milliy ozodlik qo'zg'oloni boshlandi. **30-iyul**da **Rumeys shahr**ida yuz bergan qo'zg'olon Umumiroq ozodlik urushiga aylanib ketdi. Qo'zg'olonchilar mamlakatning katta qismini ozod qilishga erishdilar. Buyuk Britaniya ichki kuchlar madadiga har qachongidan ham kengroq tayana boshladi. Shularning yordamidagina o'z mavqeyini saqlab qolishga intildi. Shu maqsadda **oktyabr**da Iroqning muvaqqat hukumatini tuzdi, **1921-yil 23-avgust**da esa Angliyaning sodiq malayi **Faysal al-Hoshim** (Suriyaning sobiq qiroli)ning Iroq qiroli deb e'lon

qilinishiga erishdi. Amalda hokimiyat, mandat tizimi qoidasiga ko'ra, ingliz oliy komissari qo'lida edi.

1922-yili inglizlar Iroqqa yana bir og'ir shartnomani qabul qildirdilar. *Unga ko'ra, Iroq hukumati xalqaro va moliyaviy masalalarni ingliz oliy komissari maslahati bilan hal etishi zarur edi. Qolaversa, Iroqda ingliz qo'shinlari saqlanib turadigan bo'ldi. Mamlakat iqtisodiy hayoti ingliz komissiyasi nazorati ostiga olindi.*

Ozodlik kurashining yangi bosqichi. **1924-yil**ga kelib Buyuk Britaniya mandat tizimi yo'li bilan Iroqda to'la hukmronlikka erishdi. **«Terkish petrolium»** kompaniyasini tuzib, Iroq neftini qo'liga oldi. **1927-yili** u **«Iroq petrolium kompaniyasi»**ga aylantirildi. Biroq bu ozodlik kurashini to'xtatolgani yo'q. *Iroq milliy partiyasi (rahbari Abu Timman), Iroq uyg'onish partiyasi (rahbari as-Sadr) boshchiligida Iroq xalqi ozodlik kurashini davom ettirdi.* Natijada mustamlakachi hukumat xalqqa yon bosishga majbur bo'ldi, endi mandat nazoratini bekor qilish zarur degan xulosaga keldi.

1930-yil 30-iyunda ikki mamlakat o'rtasida **25 yillik** yangi shartnoma imzolandi. Iroq nomidan shartnomani bosh vazir **Nuri Said** imzoladi. *Unga ko'ra, Buyuk Britaniya Iroq Millatlar Ligasiga kirgandan so'ng uni mustaqil davlat deb tan oladigan bo'ldi. Ayni paytda, shartnoma Iroqni «do'stlik» va «ittifoqchilik» rishtalari bilan Buyuk Britaniyaga bog'lab qo'ydi. Chunonchi, tashqi siyosatda Iroq Buyuk Britaniya bilan maslahatlashib olishga majbur edi. Iroqda ingliz harbiy bazalari saqlab qolindi. Qolaversa, Iroq mudofaa masalasida Buyuk Britaniya manfaatlarini hisobga olishi zarur edi. Ayni paytda, Buyuk Britaniya Iroqqa o'z maslahatchilari va ekspertlarini yuborishga monopol huquqqa ega edi.* **1932-yil 3-oktyabr**da Iroq Millatlar Ligasiga qabul qilindi va shu tariqa u to'la bo'lmasa-da davlat mustaqilligini qo'lga kiritdi. **1933-yil**i hokimiyatga **Al-G'ayloniy** keldi. Hukumat bir necha marta o'zgardi.

Milliy tiklanish qiyinchiliklari. **1936-yil 29-oktyabr**da Iroqda harbiy to'ntarish bo'ldi, unga general **Bakr Sidqiy** rahbarlik qildi va Iroq qiroli **G'ozi I** ni hukumatni tarqatib yuborishga majbur etdi. Iroqning eng boy shaxslaridan biri, to'ntarishning faol tashkilotchisi **Hikmat Sulaymon** bosh vazir etib tayinlandi. Bakr Sidqiy esa Iroq armiyasi bosh shtabi boshlig'i lavozimini egalladi. Hikmat Sulaymon hukumati **«Milliy islohotlar hukumati»** deb ataldi. Bu hukumat hatto davlat yerlarini yersiz dehqonlarga bo'lib berishni va'da qildi. Biroq, asosan, katta yer egalari, qabila shayxlari va savdogarlardan iborat parlament agrar islohot o'tkazishga yo'l bermadi.

Hikmat Sulaymon va Bakr Sidqiy esa o'z siyosiy muxoliflarini qatag'on qilishni davom ettirdi. Ayni paytda, ular fashistlar Germaniyasi va Italiya bilan yaqinlashish yo'lini tuta boshladilar. Bunga qarshi bir qator vazirlar hukumat tarkibidan chiqdi. Shu tariqa «Milliy islohotlar» hukumati barham topdi. Bu hol oxir-oqibatda inglizlar tarafdori bo'lgan kuchlar tomonidan Bakr Sidqiyga qarshi fitnalar uyushtirilishiga olib keldi. **1937-yil avgust**da Sidqiy o'ldirildi. **1939-yil 25-dekabr**da Nuri Said boshchiligida yangi hukumat tuzildi. **1939-yil 3-apre**lda qirol G'ozi I halok bo'ldi (avtohalokatda) va uning **4 yashar o'g'li** qirol deb e'lon qilindi. Shu tariqa amalda butun hokimiyat Nuri Said qo'lida to'plandi.

Ikkinchi jahon urushi boshlangach, Iroq Germaniya bilan diplomatik aloqani uzdi va o'zining betarafligini e'lon qildi. Shunday bo'lsa-da, uning iqtisodiyoti amalda Buyuk Britaniyaga xizmat qildi. **1941-yil 1-apre**lda **«Oltin kvadrat»** deb atalgan harbiy tashkilot (Al-G'ayloniy) davlat to'ntarishi o'tkazdi. Biroq bu hol uzoq davom etmadi. **2-may**da Buyuk Britaniya armiyasi harbiy harakat boshladi va Iroqni to'la ishg'ol etdi, yana Britaniyaga xayrxoh kuchlar hokimiyati tiklandi. **1943-yil 17-yanvar**da Iroq Germaniya va Italiyaga qarshi urush e'lon qildi.

Misr. Mustaqillik uchun kurash. Misr **XIX asr 80-yillari**da Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylandi. Birinchi jahon urushi tugagach, ozodlik kurashining yangi to'lqini boshlandi. Vatanparvar kuchlar **«Misr vakillari» (Vadf Misri)** deb atalgan tashkilot tuzdilar. U Misr mustaqilligi uchun kurashni boshqaruvchi tashkilot edi. Tashkilotni **Saad Zag'lul** boshqardi. Tashkilot Misr mustaqilligini talab etdi. Bunga javoban inglizlar tashkilotning faoliyatini taqiqladi, S.Zag'lul **Malta orol**iga surgun qilindi. Bular Misrda ozodlik qo'zg'oloni boshlanishiga turtki bo'ldi.

1919-yil 9-mayda **Qohira aholisi** namoyishga chiqdi. Namoyish **uch kun** davom etdi. *«Misr – misrliklar uchun»* shiori ostida o'tkazilgan tinch namoyish o'qqa tutildi. Bu namoyishning qo'zg'olonga aylanib ketishiga olib keldi. Qo'zg'olon katta qiyinchilik bilan bostirildi. Aholi noroziligini pasaytirishi uchun Saad Zag'lul mamlakatga qaytarildi. Ayni paytda, u Parij tinchlik konferensiyasiga ham yuborildi. Biroq u Misr mustaqilligining tan olinishiga erisholmadi. Aksincha, Misr ustidan **Buyuk Britaniya** protektorati tan olindi. *Endi Buyuk Britaniya «yangi», sinalgan yo'lni – Misrga davlat mustaqilligi berish, biroq turli vositalar yordamida uning amalda Buyuk Britaniyaga qaramligini saqlab qolish yo'lini tanladi.* Shu tariqa Buyuk Britaniya **1922-yil 28-fevral**da Misr mustaqilligini tan oldi. Buyuk Britaniya o'zida Misr hududidagi imperiya yo'llarini qo'riqlash,

Misrni chet el agressiyasidan saqlash, chet el manfaatlarini va kam sonli millat vakillarini himoya qilish huquqlarini saqlab qoldi. **1923-yil**gi konstitutsiya bu huquqlarni qonuniylashtirdi. **1924-yil yanvar**da Saad Zag'lul boshchiligida hukumat tuzildi.

Mustaqillikning qiyin so'qmoqlari. Saad Zag'lul hukumati **Sudan** xalqining mustaqillik kurashini qo'llab-quvvatlay boshladi. Shu bois Buyuk Britaniya hukumati Zag'lulni hokimiyatdan chetlatishga qaror qildi. **1924-yil**i misrlik terrorchi tomonidan Sudandagi ingliz general-gubernatori o'ldirildi. Bu Misrga qarshi harbiy harakat boshlashga bahona bo'ldi. Natijada Zag'lul hukumati iste'fo berishga majbur bo'ldi. Buyuk Britaniya bilan hamkorlik qilish tarafdorlaridan iborat yangi hukumat tuzildi. **1929 – 1933-yillar**dagi inqiroz mamlakatga kulfat keltirdi. **1930-yil**i Buyuk Britaniya Misrga yanada haqoratli yangi shartnoma qabul qildirishga urindi. Lekin bosh vazir **Naxxas poshsho** uni qabul qilmadi. Shundan so'ng qirol **Fuad Ismoil Sidqiy**ni bosh vazir etib tayinladi. Bu hol milliy ozodlik kurashining yangi to'lqiniga sabab bo'ldi.

Repressiyani kuchaytirish maqsadida Misr hukumati **1930-yil oktyabr**da 1923-yilgi konstitutsiyani bekor qildi va parlamentning huquqlarini cheklovchi yangi konstitutsiyani amalga kiritdi. **1934-yili** g'alla yetishtiruvchilar manfaatini himoya qilish maqsadida import g'allaga to'lovni oshirdi. Bu esa nonning narxini oshirib yubordi, mamlakatda kuchli namoyishlar va ish tashlashlar yuz berishiga olib keldi. Buyuk Britaniya yangi siyosiy vaziyatga mos yo'l tanlashga majbur bo'ldi. Uning ko'rsatmasi bilan **1935-yil dekabr**da 1923-yilgi konstitutsiya qayta tiklandi. **1936-yil avgust**da Misrni o'ziga qulay shartnoma imzolashga majbur etdi. Unga ko'ra, Misrdagi ingliz oliy komissari endilkda **elchi** deb ataladigan bo'ldi. Nomiga bo'lsa-da ingliz okkupatsiya rejimi bekor qilindi. Biroq shartnoma inglizlarga **Suvaysh kanali** zonasi, **Qohira** va **Aleksandriya**da o'z armiyasini saqlash huquqini berdi.

Ikkinchi jahon urushi boshlangach Misr Buyuk Britaniya tomonida turishini ma'lum qildi. **2-sentyabr**da mamlakatda harbiy holat e'lon qilindi. Iqtisodiyot inglizlar manfaatiga xizmat qila boshladi. **Qirol Faruh** boshchiligidagi siyosiy kuchlar guruhi Germaniya va Italiya bilan yaqinlashish yo'lini tutdi. Urush boshlarida Italiya armiyasi Misr hududlariga ham bostirib kirdi. Ingliz armiyasi **1941-yil boshlari**da Italiya qo'shinlarini Misrdan surib chiqardi. **1942-yili** fashistlar Germaniyasi agenturasi Misrda davlat to'ntarishini tayyorlashga kirishdi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun qirol saroyini ingliz armiyasi egalladi va Buyuk Britaniya tarafdori

bo'lgan hukumat tuzildi. **1943-yil may**da shimoliy rayon nemis-italyan qo'shinidan tozalandi. **1945-yil fevral**da Misr Germaniya va Yaponiyaga qarshi urush e'lon qildi. *Bu Misrga BMT ta'sis konferensiyasida qatnashish huquqini berdi.*

Jazoir. **XX asr**da ham Jazoir Fransiya mustamlakachi zulmi ostida edi (Fransiya Jazoirni **1830-yil**i bosib olgandi). Metropoliya hukumati **1919-yili** Jazoir uchun alohida dekret chiqardi. *Unga ko'ra, soliq masalasida fransuzlar va jazoirliklar o'rtasida mavjud notenglik tugatildi. Dehqonlar, savdogarlar, ziyolilar, sobiq harbiy xizmatchilar va davlat organlari, amaldorlarga mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkaziladigan saylovda qatnashish huquqi berildi.* Biroq dekret jazoirliklarning boshqa masalalardagi huquqsizligiga daxl qilmadi. **1920-yili** Jazoir vatanparvarlari **«Yosh jazoirlik»** partiyasini tuzdilar. Partiyaga Jazoir xalqining qahramoni **Abdulqodir**ning nabirasi **Amir Holid** rahbarlik qildi. **1927-yili «Saylangan musulmonlar federatsiyasi»** tashkiloti hamda **«Jazoir ulamolari ittifoqi»** tashkil topdi va mustaqillik uchun kurashdi.

1923 – 1933-yillardagi inqiroz iqtisodiyotni izdan chiqardi. Boz ustiga, **to'rt yil** davom etgan qurg'oqchilik oqibatida chorva mollarining **80 foiz**i qirilib ketdi. **1936-yili** Fransiyada hokimiyat tepasiga kelgan **Xalq fronti** hukumati mustamlakachilik tartibini yumshatishga qaratilgan qator o'zgarishlarni joriy etdi. Tez orada Jazoir xalqining milliy ozodlik kurashiga rahbarlik qiluvchi barcha kuchlarning Umumjazoir yig'ini – **Musulmon Kongressi** chaqirildi. Kongress Xalq frontini qo'llab-quvvatlashni ma'lum qildi. Ayni paytda, Kongress **«Milliy xartiya»** deb atalgan hujjat qabul qildi. *Hujjatda mustamlakachilar joriy etgan, jazoirliklarni tahqirlovchi «yerli aholi kodeksi»ni bekor qilish talab etilgandi.*

1940-yili Fransiya taslim bo'lgach, Jazoir amalda fashistlarga qaram bo'lib qoldi. Bu hol milliy burjuaziya orasida bo'linish yuz berishiga olib keldi. Uning bir qismi Germaniya bilan, katta qismi esa Buyuk Britaniya va AQSh bilan hamkorlik qilish tarafdori edi. **1942-yil noyabr**da Shimoliy Afrikaga tashlangan ingliz-amerika qo'shinlari nemis-italyan qo'shinlariga qAQShatqich zarba berdi. Fashist qo'shinlari Jazoirdan ham quvib chiqarildi.

Marokash. Birinchi jahon urushi oxirigacha ham Marokashning katta qismi hali mustamlakachilar tomonidan amalda bosib olinmagandi. Mamlakatning xuddi shu ozod qismida bo'ysunmas qabilalarning o'z davlatlari mustaqilligini saqlab qolish yo'lidagi kurashi boshlandi. **1920-yili Ispaniya** Marokashning **Rif viloyati**ni bosib olish niyatida hujum uyushtirdi. Ispan bosqinchilariga qarshi kurashga **Muhammad Abdul Karim** boshchilik

qildi. **1921-yil iyul**da rifliklar ispan qo'shinlarini tor-mor etdilar. **Sentyabr boshlari**da **Rif Respublikasi** tuzilgani e'lon qilindi. Abdul Karim respublika prezidenti lavozimini egalladi. Bundan Marokashning bir qismini bosib olgan Fransiya mustamlakachilari tashvishga tushib qoldi. Ular qo'zg'olon fransuz mustamlaka hududlariga ham tarqalib ketishidan qo'rqdilar. Endi Fransiya Rif Respublikasini tugatish payiga tushdi. Shu maqsadda **1924-yil yoz**da unga hujum qildi. Biroq Fransiya o'zi rejalashtirgan oson g'alabaga erisholmadi. Endi u Ispaniya bilan birgalikda Rif Respublikasiga qarshi hujum boshladi. Urush harakatlari **1926-yil may**gacha davom etdi. Kuchlar teng bo'lmagan bu urushda Rif Respublikasi armiyasi yengildi. Abdul Karim asir olindi. Shundan keyin ham qurolli qarshilik ko'rsatish to'xtamadi va **1934-yil**gacha davom etdi. **1934-yili** Marokash milliy burjuaziyasi va ziyolilari **«Mag'ribchilar bloki»** deb ataluvchi siyosiy tashkilot tuzdilar. Bu tashkilot Marokash sultoni hokimiyatini kengaytirishni talab etdi. Biroq mustamlakachilar bu talabni rad qildilar. **1937-yili** esa tashkilot faoliyati taqiqlandi. Ispaniya Marokashi **Vishi hukumati** nazorati ostiga o'tdi. Shimoliy Afrikaga tashlangan ingliz-amerika qo'shinlari fashistlar qo'shinlarini tor-mor etgach, Marokashda Fransiya mustamlakachilik tartibi saqlanib qolaverdi.

Tunis. **XX asr boshlari**da Tunis ham Fransiya mustamlakasi edi. Mamlakatni nomiga bo'lsa-da **Tunis biyi** boshqargan. Vatanparvar kuchlar **1920-yili «Dastur»** (Konstitutsiya) deb atalgan partiya tuzdilar. Unda milliy burjuaziya yetakchi mavqega ega bo'ldi. «Dastur» Parij tinchlik konferensiyasi Fransiyani Tunisda keng islohotlar o'tkazishga majbur etadi deb umid qilardi. Shu maqsadda u o'z delegatsiyasini **1920-yili Parij**ga yubordi. Biroq umid puchga chiqdi. Tez orada «Dastur» mamlakatda juda katta obro' qozonoldi. Hatto Tunis biyi ham uning talablariga qarshi chiqmadi. Oxir-oqibatda Fransiya yon berishga majbur bo'ldi. **1922-yil iyul**da Fransiya hukumati Tunisda konstitutsiyaviy islohotlar o'tkazish haqida dekret chiqarishga majbur bo'ldi. *Unga ko'ra, Tunisda Katta Kengash (parlament) tuzilishiga ruxsat etildi. Biroq unda fransuzlar vakillari ko'pchilikni tashkil etishi belgilab qo'yildi.* «Dastur» a'zolarining bir qismi bunga rozi bo'lsa-da, advokat **Habib Burg'iba** boshchiligidagi guruh undan norozi bo'ldi. Bu guruh **1934-yili «Yangi dastur»** partiyasiga birlashdi. Tez orada partiya rahbarlari hibsga olindi.

1936-yili Fransiyada Xalq frontining hokimiyat tepasiga kelishi mustaqil mamlakatlardagi siyosiy partiyalarning ochiq faoliyat ko'rsatishiga imkon yaratdi. Butun mamlakatni namoyish qoplab oldi. Namoyishchilar Tunisga mustaqillik berishni talab qildilar. Ayni paytda, «Yangi dastur»

partiyasining obro'si o'sib bordi. Bu narsa Fransiya mustamlakachilarini cho'chitib yubordi. **1938-yil aprel**da namoyishchilarga qarshi tanklar tashlandi. «Yangi dastur» rahbarlari hibsga olindi va partiya faoliyati taqiqlandi. **1939-yili** Tunisda qamal holati joriy etildi.

24.5. TROPIK VA JANUBIY AFRIKA DAVLATLARI

Birinchi jahon urushidan keyin Afrika. Tropik Afrika deganda Afrikaning shimoli va janubi orasidagi ulkan hudud tushuniladi. **XVII – XIX asrlar**da bu hudud Yevropa davlatlari tomonidan bosib olingan. *Dagomeya, Kamerun, Senegal, Mali, Ruanda, Somali, Togo, Markaziy Afrika Respublikasi, Gvineya, Gabon, Chad, Kongo, Niger, Mavritaniya, Madagaskar va boshqalar Fransiya mustamlakalari edi. Buyuk Britaniya esa Gana, Malavi, Nyasalend, Uganda, Sudan, Keniya, Nigeriya, Serra-Leone, Gambiyaga egalik qilardi. Belgiya hozirgi Zair hududini (Belgiya Kongosi deb atalardi), Portugaliya esa Angola, Mozambik, Gvineya-Bisauni bosib olgandi. Italiya Eritreya hamda Somalining bir qismiga, Ispaniya Ekvatorial Gvineya hamda ispan Saxarasiga egalik qilardi. Janubiy Afrika davlatlariga bugungi JAR, Zimbabve, Zambiya, Namibiya, Botsvana, Lesoto, Svazilend kabi davlatlar kirardi. Ularning barchasiga Buyuk Britaniya egalik qilgan.* Afrikada bosib olinmagan rasmiy mustaqil ikki davlat – **Efiopiya va Liberiya** qolgandi, xolos.

1919-yil Parij sulh konferensiyasi qarorlariga muvofiq, Millatlar Ittifoqi mandati nazoratiga berilgan hududlar uch kategoriyaga bo'lindi (**A, B, D**). Uning muallifi Janubiy Afrika Ittifoqi bosh vaziri **Yan Smets** edi. *«A» kategoriyaga nisbatan rivojlangan davlatlar kiritilgan* (**Suriya, Livan, Falastin, Iordaniya** va **Iroq**). Afrikaning birorta davlati bu kategoriyaga kiritilmagan. *«B» kategoriyaga Germaniyaning Afrikadagi sobiq mustamlakalari* (Janubi-G'arbiy Afrikadan tashqari) *kiritilgan*. Bunday hududlarni boshqarish mandatiga ega bo'lgan davlatlar oldiga qator shartlar qo'yilgan: **qul, qurol, spirtli ichimlik savdosiga yo'l qo'ymaslik; vijdon va din erkinligini kafolatlash, jamiyat va axloqiy tartibni saqlash.** *«D» kategoriyaga eng qoloq hududlar kiritilgan.* Ularni mandat berilgan davlat o'z qonunlari asosida boshqarish huquqiga ega bo'lgan.

Afrika xalqlarining o'z haq-huquqlari uchun kurashi. Afrika xalqining haq-huquqlari uchun kurashi **panafrika harakati** deb atalgan harakatni vujudga keltirdi. Uning tashabbuskori advokat **G.Silvestr Uilyam** edi. Harakat negr xalqining manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuzildi. Uning kongresslarini tayyorlash va o'tkazishda doktor **Uilyam Dubua**

katta jasorat ko'rsatdi. U dunyoda o'zining negrafrika tarixiga oid asarlari bilan mashhur edi. Harakatning **1-kongressi 1919-yili Parij**da chaqirildi. Unda **15 davlat (9 tasi Afrika davlati)** vakillari qatnashdi. Uning Afrika davlatini tuzish loyihasi bor edi. Bu davrda panafrika harakatining avj olishiga **garvizm** ham sabab bo'ldi. Amerikalik negr **Markus Garvi 1920-yili** *«Orqaga, Afrikaga!»* shiori bilan chiqdi va o'zini Afrikaning birinchi imperatori deb e'lon qildi.

20-yillarda mustamlakalar rivojlangan davlatlarning xomashyo bazasiga aylanib qoldi. Har bir mamlakat asta-sekin ixtisoslasha boshladi. *Tropik va Janubiy Afrika dunyodagi olmosning 97 foizini, kobaltning 92 foizini, oltinning 40 foizini, platinaning 1/3 qismini berardi.* Bu tub joy aholisining ahvolini zig'ircha yengillashtirgani yo'q. Aparteid va segregatsiya avj oldi. Ayniqsa, **Janubiy Afrika Ittifoqi**da bu narsa yaqqol ko'rindi. Afrikaliklar uchun ajratilgan yerlar (rezervatlar) mamlakatning **12 foiz**ini tashkil qilib, bu yerlar qishloq xo'jaligi uchun juda noqulay edj. Yer kamligi ularni boshqa yerlarga borib ishlashga majbur qilardi. Qolaversa **«uy solig'i»** bo'lib, uni to'lash uchun pulni faqat «yevropacha» xo'jalikda ishlab topish mumkin edi. Afrikalik kishi oq fermerning yerida unga bir yilda **90 kun** ishlab bergandagina yashashi mumkin edi. Shuningdek, yevropalik ishchilar bilan afrikalik ishchilar o'rtasida raqobat kelib chiqdi. Chunki afrikaliklar arzon ishchi kuchi edi. Bu **1922-yili Vilvatersrande**da qurolli qo'zg'olon kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bosh vazir **Yan Smets** shaxtyorlarga qarshi artilleriya va aviatsiya qismi bo'lgan **18 ming kishilik** armiya tashladi. **5 kunlik** qattiq to'qnashuvda **500 ga yaqin kishi** halok bo'ldi va yarador qilindi. **6000 shaxtyor** qamoqqa olindi, **2 tasi** o'lim jazosiga hukm qilindi. **1933-yili** Janubiy Afrika Ittifoqida koalitsion hukumat tuzildi. General **M.Gersog** bosh vazir, **Yan Smets** esa uning o'rinbosari bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida **Efiopiya, Italiya Somalisi** va **Eritreya** hududida urush harakatlari bo'ldi. **1941-yili** bu yerlarni ingliz qo'shinlari qo'lga oldi, lekin Afrikadan juda ko'p odam, jumladan, **Senegal o'qchilari** urushga olindi. Gitler Germaniyasi Janubiy Afrikadagi fashistik tashkilotlarga, bur millatchilariga va u yerda yashovchi bir necha o'n ming nemislarga umid bog'lagandi. Mamlakatda ish ko'rayotgan **«Sariq ko'ylaklar»** fashistik tashkiloti to'g'ridan to'g'ri **Berlin**dan boshqarilardi. Mudofaa vaziri fashizm tarafdori **Pirou** armiyani shunday ahvolga keltirib qo'ygandiki, u jiddiy operatsiyalarda ishtirok etolmasdi. Janubiy afrikalik fashistlar, ayniqsa, **1941 – 1942-yillari** o'z faoliyatini kuchaytirdilar. Chunki bu davrda Afrika shimolida Germaniyaning **«Afrika korpusi»**

hujum boshlagandi. Mamlakatda keng tarmoqli josuslik yo'lga qo'yilgan bo'lib, shaxtalar, temir yo'llar, elektr stansiyalarda portlatishlar o'tkazildi.

Milliy partiya esa Germaniyaga qarshi urushda ittifoqchilar yengib chiqolmaydilar deb parlamentda urushdan chiqish masalasini qo'ydi. Bu davrda yana bosh vazirlik lavozimini egallagan Yan Smets irqiy segregatsiyadan voz kechish, ya'ni afrikalik askarlarni o't ochuvchi qurollar bilan qurollantirish haqida qaror chiqardi. Chunki unga afrikaliklardan tayanch kerak edi. Oldin afrikalik askarlarga bunday qurol berilmasdi. Ular faqat nayza va cho'qmorlar bilan qurollangandilar. Armiyada **70 ming afrikalik** va **40 ming metis askar** bo'lib, ular Shimoliy Afrikadagi va Yevropadagi harbiy harakatlarda ishtirok etdilar.

25-BOB. IKKINCHI JAHON URUSHI

25.1. IKKINCHI JAHON URUSHI VA UNING YAKUNLARI

Ikkinchi jahon urushi haqida. Ikkinchi jahon urushi **1939-yil 1-sentyabrdan 1945-yil 2-sentyabrgacha**, ya'ni **6 yil** davom etdi. Urush dunyoning **61 davlat**ini o'z domiga tortdi. Ularda dunyo aholisining **80 foizi** yashardi. **40 davlat** hududida harbiy harakatlar olib borildi. Armiya safiariga jami **110 mln kishi** safarbar etildi. Maxsus adabiyotlarda qayd etilishicha, bu urushda **65 – 67 mln kishi** halok bo'lgan. Ularning yarmi tinch aholi edi. Vayronagarchilikdan ko'rilgan zarar va urush xarajati birgalikda **4 trln dollar**ni tashkil etdi. Urush oxirida hatto **raketa quroli** hamda **atom bombasi** yaratildi va ular insoniyatga qarshi ishlatildi.

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. 1939-yil 1-sentyabrda Germaniya Polshaga hujum qildi. Bunga javoban Buyuk Britaniya va Fransiya Germaniyaga urush e'lon qildilar va shu tariqa urush boshlanib ketdi. Polsha armiyasi **ikki hafta** ichida tor-mor etildi. **17-sentyabr**da Polsha hukumati prezident **Ridz Smigli** boshchiligida mamlakatni tashlab, chet elga chiqib ketdi. Xuddi shu kuni Germaniya bilan kelishuvga binoan, sovetlarning **200 mingdan ortiq** jangchi va zobitlari Polshaga bostirib kirdi hamda **28-sentyabr**da Moskvada Sovet davlati va Germaniya o'rtasida **«Do'stlik va chegara to'g'risida»** shartnoma imzolandi. Unga ko'ra, mustaqil Polsha davlati tugatildi va bo'lib olindi. *Ayni paytda, G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiya Sovet davlatiga berildi. Polshaning Germaniya bilan chegaradosh yerlari Germaniyaga o'tdi.* U yerda **nemis general-gubernatorligi** tuzildi. **1939-yil 28-sentyabr**da imzolangan

sovet – german shartnomasiga ko'ra, sovet hukumati Boltiqbo'yi respublikalaridan sovetlar armiyasini bu respublikalarda joylashtirish va o'zaro yordam to'g'risida shartnoma imzolashni talab etdi. Boltiqbo'yi respublikalarining bu talabga bo'ysunmaslikka ilojlari yo'q edi. **30-noyabr**da sovet armiyasi **Finlyandiya**ga hujum qildi. *Bu qilmishi uchun Millatlar Ligasidan chiqarildi (1934-yili qabul qilingandi).*

G'arbiy frontdagi ahvol. Buyuk Britaniya va Fransiya Germaniyaga urush e'lon qilgan bo'lsa-da, faol harbiy harakatlar boshlamadilar. Germaniya armiyasining asosiy kuchlari Polsha bilan band bo'lib qolgan paytda bunday imkoniyat bor edi. Buyuk Britaniya va Fransiyaning bu pozitsiyasi **1940-yil bahori**gacha davom etdi. Ularning faolsizligi tarixga **«g'alati urush»** nomi bilan kirdi. Buyuk Britaniya va Fransiya qudratli harbiy-dengiz flotlari kuchi bilan Germaniyani blokada iskanjasiga olishni rejalashtirgandi. Ayni paytda, ular Fransiya – Germaniya chegarasida Fransiya bunyod etgan kuchli mudofaa inshootlari Germaniyaning g'arbga hujumga o'tishiga yo'l qo'ymaydi, o'tganda ham, uni yorib o'tolmaydi deb ishondilar.

Bu orada Sovet qo'shinlari Finlyandiya armiyasini mag'lubiyatga uchratdi. **1940-yil 12-mart**da sovet – fin tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra, **Kareliya bo'g'ozi Viborg shahri** bilan birgalikda Sovet davlatiga o'tdi. **Aprel**da Germaniya armiyasi G'arbiy frontda hujumga o'tdi. *9-aprelda Daniya va Norvegiya bosib olindi. 14-mayda Gollandiya, 28-mayda esa Belgiya taslim bo'ldi.* **Shimoliy Fransiya**da joylashgan ingliz-fransuz harbiy qismlari qurshovga tushib qoldi. Biroq ularning katta qismi ko'p talafotlar bilan Buyuk Britaniyaga o'tib ketishga erishdi. **Italiya 10-iyun**da Fransiya va Buyuk Britaniyaga qarshi urushga kirdi.

Qisqa muddat ichida Fransiya qo'shinining katta qismi tor-mor etildi. **14-iyun**da nemislar **Parij**ni egalladi. **22-iyun**da **Kompen o'rmoni**da yarash bitimi imzolandi. **25-iyun**da Italiya bilan shunday bitim imzolandi. Bu bitimlarga ko'ra, Fransiya harbiy harakatlarni to'xtatdi. Armiya va flotni qurolsizlantirdi. **Pol Reyno hukumati** iste'fo berdi. Nemislar Fransiya hududining **2/3 qism**ini okkupatsiya qildi. **Parij** bu hudud tarkibida edi. Okkupatsiya qilinmagan hududda **general Peten** boshchiligida qo'g'irchoq hukumat tuzildi va uncha katta bo'lmagan **Vishi shahri**da joylashdi. Dastlab Fransiyaning barcha yirik siyosiy arboblari va mustamlakalardagi ma'murlar Peten hukumatini tan olishdi. Faqat **general de Goll** yarash bitimini ham, Peten hukumatini ham tan olmadi. U Buyuk Britaniyaga jo'nab ketdi. U yerda **«Erkin Fransiya»** harakatini tuzdi, barcha vatanparvar kuchlarni Germaniyaga qarshi kurashga chaqirdi.

Sovet davlati hududining yanada kengayishi. Asosiy raqiblari G'arbiy frontda bandligidan foydalangan Sovet davlati o'z hududini yanada kengaytirishga kirishdi. **1940-yil 14 – 16-iyun**da Sovet davlati Boltiqbo'yi respublikalariga ultimatum topshirdi. Unda hukumat tarkibini o'zgartirishga va sovetlarning qo'shimcha harbiy kuchlarini kiritishga rozilik berish talab etilgandi. Shu tariqa Boltiqbo'yi bosib olindi. **Litva, Latviya** va **Estoniya** Sovet respublikalariga aylantirildi va **1940-yil avgust**da Sovet davlati tarkibiga «qabul qilindi».

Buyuk Britaniyaga qarshi harbiy harakatlar. Fransiya taslim bo'lgach, Germaniya va Italiyaga qarshi yolg'iz Buyuk Britaniya urush olib borardi. Bosh vazir **U.Cherchill** Germaniyaga taslim bo'lishdan bosh tortdi. Endi Germaniya harbiy-dengiz floti kuchi bilan Buyuk Britaniyani bir yoqli qilishga bel bog'ladi. Biroq buning uddasidan chiqolmadi. Buyuk Britaniya floti dunyoda eng qudratli flotligicha qolmoqda edi. Germaniya **1940-yil 15-avgust**da harbiy-havo kuchlarini Buyuk Britaniyaga qarshi tashladi (**«Dengiz sheri» operatsiyasi**). Biroq Buyuk Britaniya harbiy-havo kuchlari ham Germaniyanikidan qolishmasdi. Shunday qilib, Germaniya maqsadiga erisholmadi. AQSh Buyuk Britaniyaga yordam bera boshladi. **1941-yil bahor**da AQSh Kongressi Qo'shma Shtatlar hayotiy manfaatlari uchun mudofaasi muhim bo'lgan davlatlarga **lend-liz** asosida yordam berish haqida qonun qabul qildi.

Shimoliy Afrikada urush harakatlari. Italiya **1940-yil yoz**da **Sharqiy va Shimoliy Afrika**dagi dengiz mustamlakalariga qarshi harbiy harakatlar boshladi. Birinchi nishon **Somali** va **Misr** bo'ldi. Dastlab Italiya armiyasi muvaffaqiyatga erisha boshladi. Biroq **1940-yil oxiri**ga kelganda Buyuk Britaniya armiyasi Italiya armiyasi harakatini to'xtata oldi. **1941-yil bahor**ida Efiopiya partizanlari bilan birga Italiya armiyasini Somali va Efiopiyadan surib chiqarishga, Liviyaning bir qismini egallashga erishdi.

Bolqondagi urush harakatlari. Fashistlarning yangi tartiblari. **1940-yil 28-oktyabr**da Italiya **Gretsiya**ga hujum qildi. **1941-yil 6-aprel**da Germaniya armiyasi Italiyaga yordamga yetib keldi, natijada **17-aprel**da **Yugoslaviya, 23-aprel**da **Gretsiya** taslim bo'ldi. *Buyuk Britaniya hukumati Gretsiyadagi ingliz korpusini Misrga evakuatsiya qilishga majbur bo'ldi.* **1941-yil yoz**igacha Germaniya va Italiya Yevropaning **12 davlat**ini zabt etishga ulgurdilar. Bosib olingan davlatlarda fashistlarning okkupatsiya tartibi o'rnatildi, bu tartibni *«yangi tartib»* deya atadilar. *Unga ko'ra, demokratik erkinliklar tugatildi, siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalari faoliyati taqiqlandi. Ish tashlash va mitinglar o'tkazish man etildi. Bo'ysunmaganlar o'lim lagerlariga tashlandi.* **Polsha va Germaniya**da tashkil

etilgan **konsentratsion lagerlar**da **11 mln kishi**ning yostig'i quritildi. Bosib olingan davlatlar iqtisodiyoti bosqinchilar manfaatiga xizmat qila boshladi. Biroq «yangi tartib» ijodkorlarining jinoyatlariga befarq qarab turilmadi. Har bir bosib olingan davlatda qarshilik ko'rsatish harakati vujudga keldi.

Sovetlarga qarshi urushning boshlanishi. Buyuk Britaniyani mag'lubiyatga uchratish rejasi barbod bo'lgach, Germaniya endi Sovet davlatini bosib olishga qaror qildi. Bu ikki davlat o'rtasidagi o'zaro hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma tub manfaat oldida oddiy bir qog'oz bo'lib qoldi. Germaniya allaqachon Sovet davlatiga qarshi urush rejasiga ega edi. U tarixga **«Barbarossa rejasi»** nomi bilan kirgan (**Fridrix I Barbarossa** davlat yerlarini Sharq hisobiga kengaytirish tashkilotchilaridan biri edi). Germaniya Sovet davlatiga hujum qilishdan oldin o'z ittifoqchilari bilan aloqalarini yanada mustahkamladi. Shu maqsadda **1940-yil 27-sentyabr**da **«Uchlar ittifoqi»** (Germaniya – Yaponiya – Italiya) shartnomasi tuzildi. Tez orada bu shartnomaga **Ruminiya, Vengriya** va **Bolgariya** ham qo'shildi va ular hududiga Germaniya armiyasi joylashtirildi.

Har tomonlama puxta hozirlik ko'rgan Germaniya **1941-yil 22-iyun** erta tongda urush e'lon qilmay Sovet davlatiga hujum qildi. Shu tariqa Sovet – Germaniya urushi boshlandi. Germaniya o'z qurolli kuchlarining deyarli **80 foiz**ini sovetlarga qarshi tashladi. Bu front amalda Ikkinchi jahon urushining asosiy frontiga aylandi. Germaniya dastlab Sovet armiyasiga qaqshatqich zarba beroldi. *Bunga armiyaning 40 mingga yaqin rahbarlar tarkibi repressiya qilingani, Stalinning Germaniya ikkinchi frontda urush qilolmaydi degan ishonchi sabab bo'ldi.*

1941-yil qishiga kelib nemis armiyasi **Boltiqbo'yi, Moldova, Ukraina, Belorussiya**ni egalladi. **Leningrad**ni blokada qildi. **Moskva**ga yaqinlashib qolgandi. Biroq Germaniya o'z maqsadiga erisholmadi. U **6 – 7 hafta** ichida urushni tugallashni rejalashtirgandi. **1941-yil dekabr**da Sovet armiyasi qarshi hujumga o'tishga erishdi. Natijada dushman Moskvadan **100 – 250 km** uzoqlikka uloqtirib tashlandi. Bu mag'lubiyat Germaniyaning yashin tezligidagi urush rejasini barbod qildi. **1942-yil yoz**da Sharqiy frontda nemis armiyasi yangi hujum boshladi. Ular kuzda **Stalingrad** va **Kavkaz**ga chiqishga erishdilar. Biroq shu chegarada Sovet armiyasi nemislar hujumini to'xtatib qoldi.

Yaponiyaning urushga kirishi. **1941-yil 2-iyul**da Yaponiya hukumati urush harakatlarini boshlash haqida qaror qabul qildi. **7-dekabr**da Yaponiya harbiy-dengiz floti aviatsiyasi AQShning Gavay orollarida joylashgan **Pirl-Xarbor buxtasi**da joylashgan harbiy-dengiz kuchlariga

hujum boshladi. AQSh floti katta talafot ko'rdi. Yaponiya harbiy floti va aviatsiyasi AQSh va Buyuk Britaniyaning Filippin orollarida joylashgan kuchlariga ham hujum uyushtirdi. **Filippin, Malayziya** va **Indoneziya**ga desant tashladi. **Tailand**ni ham bosib oldi va o'zining navbatdagi hujumini Buyuk Britaniya mustamlakasi – **Birma**ga qaratdi. Shu tariqa **1942-yil yozi**ga kelib Yaponiya Osiyoning deyarli barcha yirik davlatlarini bosib olishga ulgurdi. Yaponiya qo'shinlari g'arbda **Hindiston**, janubda esa **Avstraliya** chegaralarigacha yetib keldi. Faqat **1942-yil yozi**da AQSh va Buyuk Britaniya Yaponiya armiyasining zafarli harakatini to'xtatoldi.

Fashistlarga qarshi koalitsiyaning vujudga kelishi. Germaniya ittifoqchilarining Sovet davlatiga, Yaponiyaning esa AQSh hamda Buyuk Britaniyaga qarshi urush harakatlarini boshlashi fashist agressorlariga qarshi kurashuvchi davlatlararo koalitsiyasini tuzish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Bu masala **U.Cherchill** va **F.Ruzvelt 1941-yil avgust**da imzolagan **«Atlantik nizom»**da o'z ifodasini topdi. Sovet davlati ham «Atlantik nizom»ga qo'shildi. **1942-yil 26-may**da **London**da Sovet davlati bilan Buyuk Britaniya o'rtasida **20 yil**ga mo'ljallangan va **«Gitler Germaniyasi va uning Yevropadagi sheriklariga qarshi urushda ittifoqlik va urushdan keyingi hamkorlik hamda o'zaro yordam to'g'risida»** deb atalgan shartnoma imzolandi. **10-iyun**da **Vashington**da o'zaro yordam to'g'risida sovet – amerika bitimi imzolandi. Ungacha AQSh lend-liz to'g'risidagi qonunni Sovet davlatiga nisbatan ham qo'llay boshlagandi. Shu tariqa uch buyuk davlat o'rtasida harbiy-siyosiy ittifoq vujudga keldi.

Urushdagi tub burilish. 1942-yil kuziga kelib Sovet davlati, AQSh va Buyuk Britaniya agressor davlatlar: Germaniya, Italiya va Yaponiyaga nisbatan 5 baravar ko'p artilleriya qurollari va minomyot, 3 baravar ko'p samolyot va 10 baravar ko'p tank ishlab chiqara boshladi. Bu hol **1942-yil oxiri**da agressorga qarshi hujumga o'tish imkonini berdi. **1942-yil 19-noyabr**da mashhur **Stalingrad jangi** boshlandi. U **1943-yil 2-fevral**gacha davom etdi. Bu jangda Germaniyaning saralangan armiyasi tor-mor etildi. **1943-yil yozi**da esa **Kursk jangi** bo'lib o'tdi. **«Tanklar jangi»** nomi bilan tarixga kirgan bu jangda ham Sovet qo'shinlari g'alaba qozondi. Shu jangdan so'ng Germaniya armiyasi Sharqiy frontda hujum qilish qobiliyatini yo'qotdi.

Ayni paytda, **1942-yil kuzi**da Buyuk Britaniya va AQSh qurolli kuchlari ham hujumga o'tgandi. **1942-yil 8-noyabr**da Buyuk Britaniya va AQSh Shimoliy Afrika (**Marokash** va **Jazoir**)ga yirik desant tashladi. Ittifoqchilarga u yerdagi fransuz armiyasi ham qo'shildi. Misrda ham Buyuk Britaniya armiyasi jangga shay turardi. Ularning barchasi AQSh

generali **D.Eyzenxauer** qo'mondonligida hujum boshladilar. Bu hujum natijasida Shimoliy Afrikadagi italyan-nemis armiyasi tor-mor etildi va O'rta yer dengizida ittifoqchilar nazorati o'rnatildi. Italiyaga bostirib kirish uchun yo'l ochildi. **1943-yil 10-iyul**da ingliz-amerika armiyasi Italiyaning janubiga tashlandi. Italiya hukmron doiralari Mussoliniga nisbatan fitna uyushtirdilar. **25-iyul**da unga nisbatan ishonchsizlik bildirildi va Italiya qiroli buyrug'i bilan u hibsga olindi. **8-sentyabr**da Italiya antifashist ittifoqchilar bilan yarash bitimi imzoladi va urushdan chiqdi. *Shunday qilib, Stalingrad, Kursk janglari va Italiyaning taslim bo'lishi Ikkinchi jahon urushida tub burilish yasadi.* Endi agressorlarning mag'lubiyatga uchrashi muqarrar bo'lib qoldi. Shunday bo'lsa-da, Germaniya armiyasi **Shimoliy va Markaziy Italiya**ni bosib oldi va ingliz-amerika armiyasining yo'lini to'sdi. Gitler o'ziga eng sodiq shaxslardan iborat **Otto Skorseni** boshliq desantchilarni Mussolinini qutqarib kelishga yubordi. Ular bu vazifaning uddasidan chiqdilar. Mussolini Shimoliy Italiyaga olib kelindi va bu yerda Germaniyaga bo'ysunuvchi qo'g'irchoq hukumatga boshliq etib qo'yildi.

Urushda tub burilish yasalishi bosib olingan davlatlarda ozodlik uchun kurashuvchilarni ruhlantirib yubordi. G'arbiy Yevropada qudratli qarshilik ko'rsatish harakati markazi **Fransiya va Italiya** edi. Fransiyaning barcha vatanparvar kuchlari **1943-yili Qarshilik ko'rsatish milliy kengashi**ga birlashdilar va general de Gollning rahbarligini tan oldilar. **Yugoslaviya, Gretsiya, Albaniya, Polsha, Chexoslovakiya** va boshqa davlatlarda ham qarshilik harakati kuchaydi. Bunday harakat **Janubi-Sharqiy Osiyo**da ham vujudga keldi. Mintaqa xalqlari Yaponiya bosqinchilariga qarshi milliy ozodlik kurashini kuchaytirdilar. **1943-yil oxiri**da partizan otryadlari **Shimoliy Vyetnam**ning bir qismini ozod etishga erishdi. **Xitoy**da ham yapon bosqinchilariga qarshi kurash kuchaydi.

Yevropada ikkinchi frontning ochilishi. Sovet davlati Buyuk Britaniya va AQSh oldiga bunday frontni ochish masalasini ortiq orqaga surish mumkinmas degan qarorga keldi. Chunki ularni Sovet davlatining butun Yevropani fashizmdan ozod etishi, binobarin, butun Yevropa sovetlar nazorati ostiga tushib qolishi mumkinligi istiqboli xavotirga solib qo'ydi. **1943-yil 27-noyabr – 1-dekabr** kunlari Eron poytaxti **Tehron**da 3 buyuk davlat rahbarlarining ikkinchi front masalasida konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda **F.Ruzvelt, I.Stalin** va **U.Cherchill** qatnashdi. Buyuk Britaniya va AQSh **1944-yil yozi**dan kechiktirmay Yevropada ikkinchi frontni ochishga va'da berdilar. Sovet davlati esa Yevropada urush tugagach Yaponiyaga qarshi urushga kirish majburiyatini oldi.

1944-yil 6-iyunda Buyuk Britaniya va AQShning birlashgan qurolli

kuchlari AQSh generali **Eyzenxauer** qo'mondonligida **Fransiya** hududiga tashlandi. Shu tariqa Yevropada ikkinchi front ochildi. Bu hodisa Germaniya ahvolini yanada tang qilib qo'ydi. *Germaniya armiyasi orasida Gitlerni* qurbon berib, Germaniyani halokatdan saqlab qolish tarafdorlari paydo bo'ldi. Shu maqsadda **1944-yil 20-iyun**da Gitlerga suiqasd uyushtirildi. Biroq u omon qoldi, suiqasd ishtirokchilarining barchasi qatl etildi. **1944-yil 25-avgust**da **Parij** fashistlardan ozod etildi. Vishi tartibi quladi. **Sentyabr**da Fransiya to'la ozod etildi. Hokimiyat **general de Goll** qo'liga o'tdi.

1944-yil yozi va **kuz**ida **Sharqiy** va **Janubi-Sharqiy Yevropa** davlatlari fashizmdan ozod etildi. Bunda Sovet armiyasi hal qiluvchi rol o'ynadi. Yevropani ozod etishda sovetlarning jami **3 mln dan ortiq jangchisi** halok bo'ldi, mayib-majruh bo'lib qoldi yoki bedarak yo'qoldi. Birgina **Polsha**ni ozod etishda **600 ming sovet jangchisi** qurbon bo'ldi. *Bu davlatlarda xalq demokratik inqiloblari amalga oshirildi va ular xalq* demokratiyasi davlatlari deb atala boshladi.

Qrim konferensiyasi. Germaniyani butunlay tor-mor etish va ozod Yevropada birgalikda siyosat yuritishni kelishib olish maqsadida Sovet davlati, AQSh va Buyuk Britaniya rahbarlari **1945-yil 4-fevral**da Qrim viloyatidagi **Yalta shahr**ida to'plandilar. Bu yerdagi **Livadiya saroy**ida **4 – 11-fevral** kunlari tarixga **Qrim konferensiyasi** nomi bilan kirgan xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Konferensiyada **I.Stalin, U.Cherchill, F.Ruzvelt** ishtirok etishdi. *Germaniyani so'zsiz taslim etish, uning qurolli kuchlarini yo'q qilish, harbiy jinoyatchilarni jazoga tortish, fashist tashkilotlari, qonunlari va tartiblarini yo'q qilish, Germaniyani uning agressiyasiga duchor bo'lgan davlatlarga reparatsiya to'lashga majbur etishga kelishib oldilar.* **«Ozod Yevropa to'g'risidagi deklaratsiya»** e'lon qilindi. Bu maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun Germaniyani **3 ta okkupatsion hudud**ga bo'lishga qaror qildilar.

Konferensiyada Sovet davlatining Yevropada urush tugagandan keyin **2 – 3 oydan so'ng** Yaponiyaga qarshi urushga kirishishiga kelishib olindi. Buning evaziga **Mo'g'uliston Xalq Respublikasi**ning oldingi holati saqlanib qolishi, **Janubiy Saxalin** va **Kurill orollari** sovetlarga berilishi hamda Xitoyga qarashli **Port-Artur**da sovetlarning harbiy-dengiz bazasi qurilishi lozim edi. Qolaversa, Qrim konferensiyasi qarorlariga ko'ra, xalqaro tashkilot – **BMT** tashkil etiladigan bo'ldi. *Uning maqsadi dunyoda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashdan iborat bo'lishi zarur edi.* **1945-yil 25-apre**lda AQShning **San-Fransisko shahr**ida BMTning Ta'sis konferensiyasi ochildi. Uning ishida Germaniyaga qarshi urush e'lon qilgan **42 ta davlat** delegatsiyasi qatnashdi. Shu tariqa BMT vujudga keldi.

24-oktyabr BMT tashkil etilgan kundir. Uning qarorgohi **Nyu-Yorkda** bo'lishi belgilandi.

Germaniyaning taslim bo'lishi. **1945-yil 16-aprelda** Sovet armiyasi **Berlinni** qurshab oldi va ishg'ol etishga kirishdi. Shu tariqa Berlin operatsiyasi boshlandi. Unga mashhur rus sarkardasi **G.K.Jukov** qo'mondonlik qildi. **25-aprelda** Sovet qo'shinlari hujumga o'tdi. **3000 ta projektor** hujum qiluvchilarning yo'lini yoritib turdi, dushman jangchilari ko'zini qamashtirib yubordi. Sovet qo'mondonligi niqob sifatida tutun tarqatish vositasini qo'lladi. Minglab tank va samolyotlar dahshat solib hujumga tashlandi va bular nemis qo'shinini sarosimaga soldi. Italiyada ham fashizm keskin zarbaga uchradi. Ko'p joylar fashistlardan ozod qilindi. **29-aprelda** Italiya partizanlari Mussolinini asir oldilar va otib tashladilar. **30-aprelda** Germaniya rahbarlari **A.Gitler, Gimmler, Gebbels** o'z joniga qasd qildi. Gitlerning jasadi benzin sepib yoqib yuborilgan. Bu voqea sovet jangchilari tomonidan Reyxstag binosiga qizil bayroq – g'alaba bayrog'i ilingan kunda sodir bo'ldi. **2-mayda** Berlin garnizoni taslim bo'ldi. *8-maydan 9-mayga o'tar kechasi Berlin yaqinidagi Karlxost deb ataladigan binoda Germaniyaning so'zsiz taslim bo'lgani haqida hujjat imzolandi.* Hujjatga g'oliblar: Sovet davlati nomidan marshal **G.K.Jukov**, Buyuk Britaniya nomidan marshal **A.Tedder**, AQSh nomidan marshal **K.Spaats**, Fransiya nomidan feldmarshall **Keytel** imzo chekdi. Shu tariqa Yevropada urush tugadi.

Potsdam konferensiyasi. **1945-yil 17-iyulda** Germaniyaning **Potsdam shahrida** uch buyuk davlat rahbarlari (**I.Stalin, U.Cherchill, G.Trumen**) konferensiyasi ochildi. Germaniyani qurolsizlantirish, natsistlar partiyasini yo'q qilish, Germaniyani reparatsiya to'lashga majbur etish va asosiy jinoyatchilarni xalqaro harbiy tribunalga berish haqida kelishib oldilar. Konferensiya chegara masalasini ham hal etdi. Germaniya chegarasi **1938-yil**gi holatiga nisbatan qisqartirildi. **Germaniya – Polsha** chegarasi **Oder – Neyse daryolari** bo'ylab o'tadigan bo'ldi. Sharqiy Prussiyaning sohilbo'yi **Kyonisberg shahri** bilan birga **SSSR**ga berildi. Qolgan qismi **Polsha**ga o'tkazildi. Polsha va SSSRga o'tgan hududlarda yashovchi **9 mln dan ortiq** nemislar ko'chirildi. Uch davlat ishg'ol etgan hududlarda saqlanayotgan harbiy asirlar almashiladigan bo'ldi. Germaniya to'laydigan tovon **20 mlrd dollar** miqdorida belgilandi. Uning **50 foizi SSSR**ga berilishiga kelishildi. Konferensiya qaroriga ko'ra, Germaniya yaxlit davlat bo'lib qolishi kerak edi. Ayni paytda, Germaniyada so'z, matbuot, din erkinligi tiklanadigan bo'ldi. Kasaba uyushmalari va demokratik partiyalar faoliyatiga ruxsat beri-

lishiga kelishildi. Sovetlar Yaponiyaga qarshi urushga kirishi haqidagi qaroriga amal qilishini yana bir bor tasdiqladi.

Ikkinchi jahon urushining tugashi. Yaponiya taslim bo'lmaguncha, urush tugamasdi. **1944-yil oktyabr**da eng yirik harbiy-dengiz floti jangida AQSh Yaponiya flotini tor-mor keltirdi. **1945-yil apreld**a AQSh armiyasi **Okinava orol**ini egalladi. U **Tokio**dan **500 km** uzoqlikda edi. **Yoz**da Yaponiya armiyasi Osiyoning katta qismidan quvib chiqarildi. Biroq Yaponiyani taslim etish oson emasdi. Buning uchun AQSh Yevropadagi kuchlarini Yaponiyaga tashlashi zarur edi. Urush esa **1946-yil oxiri**gacha cho'zilar, AQSh odam va aslaha jihatdan juda katta zarar ko'rardi. Shu bois Sovet davlatining Yaponiyaga qarshi urushga kirishi nihoyatda zarur edi. **26-iyul**da **AQSh, Sovet davlati va Xitoy** Yaponiyadan so'zsiz taslim bo'lishni talab etdilar. Biroq Yaponiya bu talabni rad etdi. **8-avgust**da Sovet hukumati Yaponiyaga urush e'lon qildi. **9-avgust**da esa **Shimoli-Sharqiy Xitoy, Shimoliy Koreya, Janubiy Saxalin va Kurill orollari**da joylashgan Yaponiya armiyasiga qarshi hujumga o'tdi. Shu orada **Xirosima** va **Nagasaki**ga AQSh aviatsiyasi atom bombasi tashladi. Bu ikki atom bombasidan **100 mingdan ortiq kishi** halok bo'ldi. **400 mingdan ortiq kishi** esa radiaktiv nurlandi. Atom bombasining ishlatilishi va Sovet davlatining urushga kirishi Yaponiyani mag'lubiyatni tan olishga majbur etdi va **2-sentyabr**da Yaponiya taslim bo'lgani haqidagi hujjat imzolandi. Shunday qilib, Yaponiya mustamlakachilik imperiyasi quladi va Yaponiyaning taslim bo'lishi bilan Ikkinchi jahon urushi tugadi.

VI BO'LIM. JAHON MAMLAKATLARI XX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XXI ASR BOSHLARIDA

26-BOB. XALQARO MUNOSABATLAR. G'ARB DAVLATLARI TARAQQIYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

26.1. IKKINCHI JAHON URUSHIDAN SO'NG DUNYO SIYOSATI VA HAYOTIDAGI O'ZGARISHLAR

Qurollanish poygasi va «sovuq urush». Ikkinchi jahon urushidan so'ng dunyo siyosatida jiddiy o'zgarishlar bo'ldi. BMTning roli ancha kuchaydi. Ilgari kelishilgan ba'zi qarorlar amalga oshdi, ba'zilari esa amalga oshmasdan qoldi. Fashist jinoyatchilar boshliqlari jazolandi. **1945-yil 20-noyabrdan 1946-yil 1-sentyabrgacha** *Xalqaro tribunal fashist jinoyatchilarni sud qildi. 12 kishi o'lim jazosiga hukm qilindi. 7 kishi uzoq muddatli va umrbod qamoq jazosiga hukm qilindi. Bu urush aybdorlarining tarixda birinchi marta xalqaro miqyosda jazolanishi edi.*

Urushdan so'ng qurollanish poygasi avj oldirildi. AQShda **atom bombasi** yaratilgandan keyin, SSSR ham **1949-yili** atom bombasini yaratdi va uni sinovdan o'tkazdi. AQSh **1952-yili** yanada dahshatliroq ommaviy qirg'in quroli – **vodorod bombasi**ni yaratdi. Uning qudrati **10 mln tonna trotil**ga teng edi. SSSR esa bir yildan so'ng shunday qurolga ega bo'ldi. Bu orada AQSh yadro qurollarini manziliga yetkaza oladigan **samolyotlar** yaratdi. SSSR esa **qit'alararo raketa** yaratishga erishdi. **Atom suvosti kemalari** yaratildi. Shu tariqa kishilik jamiyatini bir necha marta yo'q qilib yuborishga qodir ommaviy qirg'in qurollari zaxirasi vujudga keltirildi.

Oradan ko'p o'tmay **«sovuq urush»** boshlandi. Uning tashabbuskori **U.Cherchill** edi. U *«Sharqiy kommunizm»* bilan kurash vazifasini qo'ydi. **1947-yil 1-mart**da qabul qilingan **Gretsiya** va **Turkiya**ga yordam berishni mo'ljallagan **«Trumen doktrinasi»** buning amaldagi isboti bo'ldi. **1947-yil 5-iyun**da qabul qilingan va Yevropaning **16 davlati**ga iqtisodiy yordam berishni mo'ljallagan **«Marshall rejasi»** uni yanada mustahkamladi.

Dunyoning va Yevropaning ikkiga bo'linishi. Ikki buyuk davlat o'rtasida munosabatlarning keskinlashib borishi oqibatida ikki harbiy-siyosiy ittifoq vujudga keldi. Ularning birinchisi AQSh va uning ittifoqchilarini birlashtirgan **Shimoliy Atlantika shartnomasi – NATO** deb ataldi. Bu ittifoq **1949-yil 4-apre**lda **Vashington**da **12 davlat** ishtirokida tuzildi (**AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Belgiya, Daniya, Islandiya,**

Italiya, Lyuksemburg, Gollandiya, Norvegiya, Portugaliya). AQSh generali **D.Eyzenxauer** uning qo'mondoni etib tayinlangan. **1949-yil 1-oktyabr**da kommunistik **Xitoy Xalq Respublikasi** tashkil topdi, **1950-yili** esa SSSR bilan Xitoy o'rtasida **«Do'stlik, ittifoqlik va o'zaro yordam to'g'risida»** shartnoma imzolandi. XXRning tashkil topishi bilan **«jahon sotsializm tizimi»** shakllanishi nihoyasiga yetdi. **1955-yili GFR** NATO-ga qabul qilindi. Sharqiy Yevropa davlatlari (**SSSR, Polsha, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Chexoslovakiya, GDR**) bunga javoban **1955-yil 14-may**da harbiy-siyosiy ittifoq – **Varshava shartnomasi tashkilot**ini tuzdilar. Shunday qilib, dunyo ikkiga bo'lindi.

Koreya urushi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Koreyaning shimolini SSSR, janubini esa AQSh armiyasi ishg'ol etdi. Germaniya bo'linganidek, bu yerda ham bir davlat ikkiga bo'lindi va ikki hukumat tuzildi. **1949-yili** SSSR va AQSh Koreyadan o'z armiyalarini olib chiqib ketdilar. **1950-yil 25-iyun**da Shimoliy Koreya armiyasi chegarani buzib o'tdi va Janubiy Koreyaga hujum qildi. AQSh ushbu masalaning BMTda muhokama qilinishiga erishdi. BMT Shimoliy Koreyani agressor deb tan oldi va unga qarshi urush harakatlari boshlashga ruxsat etdi. Xalqaro kuchlar **15-sentyabr**da Koreya yarimoroliga tashlandi, ular Shimoliy Koreya armiyasi harakatini to'xtatdi hamda J.Koreyadan surib chiqardi. **Oktyabr oxiri**ga kelib AQSh harbiy kuchlari Sh.Koreya poytaxti **Pxenyan**ni egalladi. Shundan so'ng XXR o'z harbiy kuchlarini Sh.Koreyaga yordamga yubordi. SSSRning ham Koreya urushiga aralashishi aniq bo'lib qoldi. Shundan keyingina AQSh Sh.Koreyaga qarshi urush harakatlarini to'xtatishga majbur bo'ldi. **1953-yili** yarash bitimi imzolandi. Unga ko'ra, har ikki koreys davlati chegarasi urushgacha bo'lgan holatida (**38-parallel** kenglikda) tiklandi.

Yaqin Sharq mojarosi. Urushdan so'ng buyuk davlatlar **Falastin**da yahudiylarning o'z davlatiga ega bo'lishga intilishlarini qo'llab-quvvatlay boshladi. BMT ham **1947-yil 29-noyabr**da Falastinda ikkita davlat tashkil etilishi haqida qaror qabul qildi. Dunyoning turli burchaklaridan ming-minglab yahudiylarning Falastinga ko'chib kelishi arab va yahudiylar o'rtasida nizoni kuchaytirdi. **1948-yil 14-may**da **Isroil davlati** tashkil etildi-yu, Falastin davlati tashkil etilmadi. Bu esa Birinchi arab – isroil urushini keltirib chiqardi. Falastin hududi Isroil tomonidan bosib olindi. **1949-yili** BMT urush harakatlari to'xtatilishiga erishdi. Biroq muammo shu kungacha hal bo'lgani yo'q.

Hindiston va Hindixitoydagi ahvol. **1947-yili** Buyuk Britaniya Hindistonga mustaqillik berish oldidan uni diniy belgiga ko'ra ikkiga – **Hindiston** va

Pokistonga bo'lib yubordi. Shu tariqa Hindiston – Pokiston mojarosiga zamin yaratildi. Bunda SSSR Hindiston tarafini ola boshladi. Tez orada **Hindixitoy**da ham qarama-qarshilik o'chog'i vujudga keldi. Bunga SSSR va XXRning yer yuzi mintaqa xalqlari milliy ozodlik urushini qo'llab-quvvatlashi hamda ularni o'z ta'sir doiralarida saqlab turishga intilishi sabab bo'ldi. Chunonchi, **1945-yil 2-sentyabr**da **Vyetnam Demokratik Respublikasi** tuzilgani e'lon qilindi. Hokimiyat tepasiga kommunistlar kelishdi. Fransiya o'z mustamlakachilik tartiblarini tiklash maqsadida Vyetnamga qarshi urush boshladi. **Laos** va **Kambodja**da mustamlaka tartibini tikladi. Hindixitoy xalqlari fransuz mustamlakachilariga qarshi ozodlik urushi boshladilar. Bu urush **1954-yili** g'alaba bilan yakunlandi.

1954-yil aprel – iyulda **Jeneva**da Hindixitoyda tinchlik o'rnatishga bag'ishlangan konferensiya bo'lib o'tdi. Fransiya Hindixitoy davlatlarining mustaqilligini tan oldi. Ayni paytda, Vyetnam ikki davlatga bo'lindi (shimolda **Vyetnam Demokratik Respublikasi**, janubda **Vyetnam Respublikasi**).

Bu paytda AQSh turli mintaqalarda o'z ta'sir doirasini kuchaytirish uchun jon-jahdi bilan harakat qilardi. Shu maqsadda u **1951-yili ANZYS** (**Avstraliya, Yangi Zelandiya va AQSh** ishtirokida), **1954-yili SEATO** (**AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Pokiston, Tailand, Filippin** ishtirokida), **1955-yili SENTO** (**Eron, Turkiya, Pokiston va Iroq** ishtirokida) harbiy-siyosiy bloklarni tuzdi. **1964-yil avgust**da VDRning harbiy-dengiz kuchlari **Tonkin qo'ltig'**iga kirgan AQSh harbiy kemalariga hujum qildi. AQSh bu voqeani o'ziga qilingan agressiya deb baholadi. AQSh samolyotlari VDR hududini bombardimon qilishni boshladi. **1965-yil**dan AQSh qurolli kuchlari VDRga qarshi urush harakatlarini boshlab yubordi. Biroq AQSh armiyasi Vyetnam xalqining qattiq qarshiligiga duch keldi. Urush harakatlari **8 yil** davom etdi. AQSh Vyetnam xalqining irodasini bukolmadi. Nihoyat, **1973-yil yanvar**da **Parij**da Vyetnamda urushni to'xtatish va tinchlikni tiklash to'g'risidagi bitimlar imzolandi. AQSh Vyetnamdan qo'shinlarini olib chiqib ketishga majbur bo'ldi, uni qo'llab-quvvatlayotgan Janubiy Vyetnam hukumati **1975-yili** quladi. **1976-yil 2-iyul**da Vyetnam yagona davlatga birlashdi.

Yaqin Sharq inqirozi. 50-yillarda Yaqin Sharq buyuk davlatlarning qarama-qarshilik maydoniga aylandi. SSSR arab davlatlarini, AQSh esa Isroilni qo'llab-quvvatlashni davom ettirdi. **1952-yili** amalga oshirilgan inqilob natijasida **Misr**da Buyuk Britaniya tayanchi bo'lgan monarxiya ag'darildi. **1956-yili** Misr **Suvaysh kanali**ni milliylashtirdi. Bunga javoban Buyuk Britaniya Misrga agressiya uyushtirdi. Unda **Fransiya va Isroil**

ham qatnashdi. BMT va SSSRning qat'iy pozitsiyasi tufayli agressiya to'xtatib qolindi. Shu tariqa 3 davlat agressiyasi barbod bo'ldi. **1958-yili Iroq**da monarxiya ag'darildi. Shunday sharoitda **Eyzenxauer doktrinasi** ilgari surildi. Unga ko'ra, Yaqin Sharqda endi AQSh Buyuk Britaniya va Fransiya o'rnini to'ldirish kerak edi. Bu hodisa SSSRning G'arb davlatlari bilan munosabatlarini yanada keskinlashtirdi. «Sovuq urush» vasvasasi kuchaydi.

SSSR – AQSh munosabatlarining yanada keskinlashuvi. **50-yillar ikkinchi yarmi**da SSSR turli tuzumdagi davlatlarning tinch-totuv yashashi mumkinligi g'oyasini ilgari surdi. Bu g'oyaning puchmasligini isbotlash maqsadida o'z armiyasi sonini **2 mln ga** qisqartirdi va SSSR – AQSh rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuvini o'tkazish tashabbusi bilan chiqdi. Nihoyat, **1960-yil may**da SSSR rahbari **N.S.Xrushchov** va AQSh prezidenti **D.Eyzenxauer**ning uchrashuvi o'tkazilishiga kelishildi. Biroq bu uchrashuv amalga oshmay qoldi. Bunga AQSh **1-may**da SSSR hududiga josus samolyot uchirishi sabab bo'ldi. Samolyot **Sverdlovsk** osmonida urib tushirildi. Uchuvchi **G.Pauers** tiriklayin asir olindi.

1961-yili SSSR va AQSh munosabatlarini nihoyatda keskinlashtirib yuborgan voqea sodir bo'ldi. *Bu Berlin devorining qurilishi edi. Devor Sharqiy Berlinni G'arbiy Berlindan ajratib tashladi.* Tez orada dunyoni yadro urushi halokati yoqasiga olib kelib qo'ygan **«Karib inqirozi»** sodir bo'ldi. **1959-yil yanvar**da **Kuba**da amerikaparast hukumat ag'darildi. Hokimiyat tepasiga **F.Kastro** boshchiligida vatanparvar kuchlar kelishdi. F.Kastro Kubada sotsializm qurilishini e'lon qildi. SSSR rahbariyati Kubani qo'llab-quvvatladi. **1961-yil aprel**da AQSh Kubaga qarshi emigrantlar isyonini uyushtirdi. Bu Karib inqirozini keltirib chiqardi. F.Kastro yordam so'rab SSSRga murojaat qildi. SSSR rahbariyati yashirin ravishda Kuba hududiga o'rtacha olislikka uchadigan va atom bombasi bilan ta'minlangan raketalarni joylashtirdi. Bundan xabar topgan AQSh ma'muriyati Kubaga nisbatan dengiz qamalini uyushtirdi. **N.S.Xrushchov** va AQSh prezidenti **J.Kennedi 1962-yil 28-oktyabr**da oxir-oqibat o'zaro kelishuvga erishdilar. *Unga ko'ra, SSSR Kubadan o'z raketalarini olib chiqdi. AQSh esa Kubaga bostirib kirmaslikka so'z berdi hamda Turkiyadan raketalarini olib chiqib ketdi.* «Karib inqirozi» buyuk davlatlarni yadro quroli masalasida ehtiyotkorona siyosat yuritishga majbur etdi. *1963-yil 15-avgustda Moskvada SSSR, AQSh va Buyuk Britaniya o'rtasida «Atmosferada, fazoda va suv ostida yadro qurollari sinovini taqiqlash to'g'risida» shartnoma imzolandi.* Biroq bu shartnoma ular o'rtasidagi dushmanlik munosabatini zarracha kamaytirmadi. Aksariyat mintaqaviy

mojarolar munosabatlarni keskinlashtiraverdi. Bunday mintaqaviy yirik mojaro **1967-yili** ro'y bergan **Arab – isroil urushi** edi. Atigi **olti kun** davom etgan urushda Isroil armiyasi **Misr, Iordaniya va Suriya** armiyasini tor-mor etdi. Isroil bu davlatlar hududlarining bir qismini bosib oldi.

Tinchlik uchun kurash. Yangi urush xavfining kuchayishi tinchlik tarafdorlarining birlashishini taqozo etgan. Mashhur fan va adabiyot tarafdorlarining xalqaro harakati vujudga keldi. **1948 – 1949-yillari** ko'pgina mamlakatlarda tinchlik uchun kurashchilarning milliy qo'mitalari tashkil etildi. *1949-yil aprelda Parijda Tinchlik tarafdorlarining birinchi butunjahon kongressi o'tkazildi.* Kongress *«Tinchlikni kutib turmaydilar, tinchlikni kurash bilan qo'lga kiritadilar»* shiori ostida o'tdi. Tinchlik uchun kurash turli irq va millatlarga, siyosiy va diniy qarashlarga mansub millionlab kishilarni birlashtirdi. Kongress **Jahon Tinchlik Kengashi** (JTK)ni tuzdi. Kengash doimiy qo'mitasi raisligiga atoqli fransuz atomchi olimi, fashizmga qarshi kurash ishtirokchisi **F.Jolio-Kyuri** saylandi. Doimiy qo'mita **1950-yili** mashhur **Stokgolm chaqirig'i**ni qabul qildi. Bu atom qurolini taqiqlash haqidagi chaqiriq edi. Uni **500 mln dan ortiq odam** imzoladi. JTK **1951-yili** buyuk davlatlar o'rtasida **«Tinchlik pakti»**ni imzolash to'g'risida murojaat qabul qildi. Uni **600 mln dan ortiq kishi** imzoladi. **1955-yili** esa **«Atom urushini» tayyorlashga qarshi** jahon xalqlariga murojaat qabul qildi. Uni **650 mln dan ortiq kishi** imzoladi. Bu murojaat barcha mamlakatlarda atom quroli zaxiralarini yo'qotishni va uni ishlab chiqarishni darhol to'xtatishni talab qilgandi. Keyinchalik yadro quroli xavfi xususida xalqaro shartnomalarning imzolanishida, tinchlik harakatida JTK ham muhim rol o'ynadi. **1986-yil oktyabr**da **Kopengagen**da tinchliksevar kuchlarning xalqaro tinchlik yiliga bag'ishlangan jahon kongressi o'tkazildi. Kongress *«Tinchlikni va insoniyat kelajagini saqlab qolaylik»* shiori ostida o'tdi. Kongress **«Kopengagen chaqirig'i»** nomli hujjatni qabul qildi. *Unda yadro quroli poygasini to'xtatish, kosmosda yadro quroli bo'lishiga yo'l qo'ymaslik talab etilgandi.*

Qo'shilmaslik harakati. **1961-yil 1 – 6-sentyabr** kunlari **Belgrad**da Osiyo va Afrikaning **25 davlati** konferensiyasi bo'lib o'tdi. Konferensiya tufayli **«Qo'shilmaslik harakati»** deb atalgan harakat vujudga keldi. *Bu turli tizimdagi davlatlarning tinch-totuv yashashi tarafdori bo'lgan, mustamlakachilikning batamom va abadiy barham topishi uchun kurashadigan, harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaydigan, ularni qoralaydigan, yadro qurolining taqiqlanishi, dunyoda iqtisodiy tenglik uchun kurashadigan harakat edi.* Harakat vujudga kelishida **Hindiston, Yugoslaviya, Misr** tashabbuskor bo'ldi.

Xalqaro keskinliknino yumshashi (1969 – 1979). **60-yillar**dan sovet – xitoy munosabatlari keskinlasha bordi. Ular mustaqil siyosat yuritishga intildilar. Shu paytgacha dunyo ikkiga bo'lingan bo'lsa, Xitoy rahbarlari **«Uchinchi dunyo nazariyasi»**ga e'tibor bera boshladilar. *Bunda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining mustaqillikdan so'ng rivojlanayotgan davlatlari tushunilardi.* XXR rahbariyati ana shu dunyoning liderligiga da'vo qilib chiqdi. SSSR – Xitoy munosabatlaridagi keskinlik tobora chuqurlashib bordi. Oxir-oqibatda bu **1969-yili** sovet – xitoy chegarasida qurolli to'qnashuvga olib keldi. AQSh esa Vyetnamdagi urush istiqbolsizligini anglab yetdi. Bu omillar SSSR va AQShni o'zaro munosabatlardagi keskinlikni yumshatishga majbur etdi. Bu xalqaro keskinlikning yumshashida GFRning o'sha davrdagi rahbari **V.Brandt**ning xalqaro voqealarni ziyraklik bilan baholay olishi ham katta rol o'ynadi. Chunonchi, u SSSRni harbiy kuch bilan mag'lubiyatga uchratishning imkoni yo'qligini, NATOning bunga qodirmasligini to'g'ri baholadi. Qolaversa, Yevropa yadro va oddiy qurollarning ulkan omborxonasiga aylangandi. Shunday sharoitda V.Brandt hukumati SSSR va uning ittifoqchilari bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatishga qaror qildi.

1969-yili SSSR bilan AQSh o'rtasida strategik qurollarni cheklash haqida muzokaralar boshlandi. **1970-yili** yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risida shartnoma imzolandi. Unga **100 dan ortiq davlat** qo'shildi. **1970-yil 12-avgust**da **SSSR – GFR, GFR – Chexoslavakiya, Polsha – GFR** o'rtasida imzolangan shartnomalar Yevropada tinchlikni mustahkamlash ishiga beqiyos hissa qo'shdi. *Shartnomaga ko'ra, GFR Ikkinchi jahon urushi natijasida Yevropada tarkib topgan chegaralarning buzilmasligini tan oldi. Ayni paytda, GFR va GDR o'rtasida o'zaro munosabatlar asosi haqidagi shartnoma ham imzolandi.* Bu bilan ikki davlat bir-birini tan oldi. **1972 – 1974-yillari** oliy darajada o'tkazilgan sovet – amerika muzokalari natijasida SSSR va AQSh o'rtasida yadro qurolini tarqatmaslik, yadro quroli sinovlarini to'xtatish to'g'risida shartnoma va strategik qurollarni cheklash to'g'risida muvaqqat bitim (**SQCH-1**) imzolandi.

Xalqaro munosabatlardagi bunday o'zgarishlar Yevropa qit'asida xavfsizlik va davlatlararo hamkorlik uchun qulay sharoit yaratdi. **1975-yil 30-iyul – 1-avgust** kunlari **Xelsinki**da **35 davlat** rahbarlari Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha kengash o'tkazdilar. **1-avgust**da kengashning yakunlovchi akti imzolandi. **1979-yili SQCH-2** shartnomasi imzolandi. Biroq shundan keyin ham dunyo mintaqaviy mojarolardan, urushlardan xoli bo'lmagan.

Hindiston – Pokiston urushi. **1971-yili Hindiston – Pokiston urushi** boshlandi. Bunga Pokistonda boshlangan bo'linish jarayoni bahona bo'ldi. Pokiston g'arbiy va sharqiy qismlarga bo'linardi. Ularni Hindiston hududi ajratib turardi. Sharqiy Pokistonda aholi ko'p bo'lsa-da, uni G'arbiy Pokiston vakili boshqarardi. Bu voqea keskin norozilik keltirib chiqardi. Sharqiy Pokiston keng muxtoriyat talab eta boshladi. Biroq hukumat bunga rozi bo'lmadi. Natijada Sharqiy Pokistonda separatchilar harakati kuchaydi. Hindiston separatchilarga yordam uchun o'z armiyasini yubordi. Oqibatda Sharqiy Pokiston ajralib chiqdi va mustaqil **Bangladesh** davlati tashkil etildi. Bu urushda SSSR Hindistonni qo'llab-quvvatladi.

Arab – isroil urushi. **1973-yil oktyabr**da navbatdagi arab – isroil urushi yuz berdi. *Uni Isroilning Yaqin Sharq muammosini tinch yo'l bilan hal etishni istamasligi, arablarning esa 1967-yilgi mag'lubiyat uchun qasos olishga intilishlari keltirib chiqardi. Urush Misr armiyasining Isroilga to'satdan hujum qilishi bilan boshlandi.* Birinchi bor arab quroli Isroilga zarba bera boshladi. Biroq Isroil tez orada o'zini o'nglab oldi. Misr va Suriya armiyasini chekinishga majbur etib, Qohira va Damashq shaharlariga bevosita tahdid sola boshladi. BMT Xavfsizlik Kengashining qat'iy talabi bilan urush harakatlari to'xtatildi. AQShning faol aralashuvi bilan Yaqin Sharq muammosini ikki tomonlama shartnomalar imzolash orqali hal etishga kirishildi. Xususan, **1975-yili Sinay yarimorol**ida Isroil va Misr qo'shinlarini ajratish to'g'risida shartnoma, **1978-yili** esa ikki davlat o'rtasida **Kemp-Devid shartnomasi** imzolandi. Unga ko'ra, Misr va Isroil o'rtasidagi urush holati barham topdi. Isroil bosib olgan Misr yerlarini qaytarib berdi. **1979-yili** Misr – Isroil tinchlik shartnomasi imzolandi. Biroq Yaqin Sharq muammosining asosiy masalalari – Isroil bosib olgan arab davlatlari hududlarini qaytarib berish va Falastin arab davlatini tuzish hal etilmadi.

Xitoy xalqaro munosabatlarda. **70-yillar**dan Amerika – Xitoy yaqinlashuvi boshlandi. Chunonchi, **1971-yili** AQSh prezidentining milliy xavfsizlik bo'yicha yordamchisi **G.Kissinjer** maxfiy ravishda **Peking**da qabul qilindi. **1972-yili** esa prezident **R.Nikson** Xitoyga rasmiy safar bilan bordi. Bu xalqaro siyosiy hayotning eng shov-shuvli voqeasi bo'ldi. AQSh – Xitoy munosabatlarining yaxshilanish jarayoni boshlandi. **1979-yili** bu ikki davlat o'rtasida elchilar darajasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. Bu SSSRni tashvishga solib qo'ydi. Boz ustiga, Janubi-Sharqiy Osiyoda sovet – xitoy munosabatlari keskinlashdi. Bunga Vyetnam rahbariyatining SSSR tarafida turishi, uning **1979-yil yanvar**da **Kambodja**dagi xitoyparast **«Qizil kxmerlar»** hukumatini ag'darib tashlashi sabab bo'ldi.

Xitoy Vyetnamga qarshi harbiy harakat boshladi. SSSR do'stlik to'g'risidagi shartnomaga ko'ra Vyetnamni qo'llab-quvvatladi. Tez orada Xitoy urush harakatlarini to'xtatdi.

Xalqaro ahvolning qayta keskinlashuvi. **70-yillar oxiri**dan xalqaro munosabatlarda yana keskinlik davri boshlandi. **1974-yili Efiopiya**da monarxiya ag'darildi. Hokimiyat tepasiga marksizm-leninizm ta'limotiga amal qiluvchi siyosiy guruh keldi. **1975-yili Portugaliya** mustamlakachilik imperiyasi quladi. Natijada **Angola** va **Mozambik**da inqilobiy-demokratik hokimiyat o'rnatildi. Ular, birinchi navbatda, SSSRga tayana boshladilar. **1978-yil**i SSSRning aralashuvi bilan **Afg'oniston**da davlat to'ntarishi o'tkazildi. Uning tashkilotchilari bu voqeani **«inqilob»** deb atadilar va maqsadlari SSSR nusxasidagi sotsializm qurish ekanini ma'lum qildilar. **1979-yili Nikaragua**da amerikaparast hukumat ag'darildi. Xuddi shu yili **Eron**da AQShning O'rta Sharqdagi tayanchi – shoh hokimiyati ag'darildi. AQSh hukmron doiralari bu voqealarga hukumat noqobilligi va Moskva aralashuvi oqibati deb jar soldilar.

SSSR **70-yillar**da o'z tashqi siyosatini katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Ularning eng asosiysi SSSRning Sharqiy Yevropadagi mavqeyini G'arbga tan oldirish bo'ldi. Bu hol SSSRning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamladi. Endi SSSR xalqaro miqyosda o'z xohishicha, Xelsinki yakuniy akti talablari ruhiga zid ravishda harakat qila boshladi. **70-yillar 2-yarmi**da o'rtacha olislikka uchadigan yangi tipdagi (**SS-20**) raketalarini joylashtirdi (ularning har biri bir vaqtda uchtadan yadro bombasini mo'ljalga yetkazish imkoniga ega bo'lgan). **1979-yil dekabr**da NATO bu davlatlardan raketalarini olib chiqib ketishni talab qildi. Ayni paytda, bu talab bajarilmasa, **1983-yili** G'arbiy Yevropaning **5 davlati** (**Buyuk Britaniya, GFR, Belgiya, Gollandiya va Italiya**) hududiga AQShning o'rtacha olislikka uchadigan raketalari joylashtirilishini ham ma'lum qildi.

1979-yil dekabrda Afg'onistonga SSSR armiyasining kiritilishi xalqaro keskinlikni yanada kuchaytirdi. SSSR armiyasi kiritilgach, Afg'onistonda fuqarolar urushi yangi pallaga kirdi. BMT Bosh Assambleyasi SSSRdan armiyasini olib chiqib ketishni talab qildi. **1980-yil**gi Moskvadagi Olimpiada o'yinlarini ko'p davlatlar boykot qildilar. AQSh senati SQCH-2 shartnomasini tasdiqlashni rad etdi. SSSRga g'alla sotishni to'xtatdi. AQSh keskinlikni yumshatish siyosatidan voz kechdi va qayta qurollanishni boshladi. **1983-yili** prezident **R.Reygan «Strategik mudofaa tashabbusi»** rejasini ma'lum qildi. Bu reja raketaga qarshi qurolni qisman kosmosga joylashtirishni nazarda tutardi. U amalga oshsa, raketadan mudofaaning mavjud tizimi butunlay yaroqsiz holga kelardi. Qolaversa,

1983-yildan AQSh Yevropa davlatlari hududiga o'z raketalarini joylashtirishni boshladi. **1979-yil**dan Yaqin Sharqda tashabbusni AQSh o'z qo'liga oldi.

SSSR tashqi siyosatidagi o'zgarish. Sovet davlati rahbariyati **80-yillar 2-yarmi**da qurollanish poygasining yangi bosqichiga mamlakat iqtisodiyoti dosh berolmasligini anglab yetdi. Shu bois tashqi siyosat yo'nalishini o'zgartirishga majbur bo'lindi. **1985-yili M.S.Gorbachov** SSSRning kollektiv xavfsizlik tamoyillariga tarafdorligini va xalqlarning taraqqiyot yo'lini tanlashda suveren huquqlarini hurmat qilishini e'lon qildi. **1985 – 1988-yillari 4 marta** oliy darajadagi sovet – amerika uchrashuvi bo'lib o'tdi. **1987-yili** SSSR va AQSh o'rtasida o'rtacha va qisqa oilslikka uchadigan raketalarni tugatish to'g'risida shartnoma imzolandi. **1989-yili** SSSR Afg'onistondan qo'shinlarini olib chiqdi. Shu yili bo'lib o'tgan Sharqiy Yevropadagi inqiloblarni bostirishga harakat qilmadi. **1990-yil 3-oktyabr**da ikki nemis davlatining birlashuviga ham to'sqinlik qilmadi. Aksincha, Germaniya birlashgach, **1990-yil 9-noyabr**da SSSR va GFR o'rtasida yaxshi qo'shnichilik, sherikchilik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. SSSR Sharqiy Yevropadan o'z qo'shinlarini olib chiqib keta boshladi. **1991-yili** AQSh va uning **ittifoqchilari Iroq**ning o'zboshimchaligiga qarshi kuch ishlatganida, ittifoqchisi Iroqni qo'llab-quvvatlamadi. **1990-yil noyabr**da **Parij**da Yevropada oddiy qurol-yarog' va qurolli kuchlar sonini qisqartirish to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashi qatnashchilari Yevropa uchun **Parij xartiyasi**ni qabul qildilar. Unda davlatlararo munosabatlarning Xelsinki tamoyillari tasdiqlandi. **1991-yili** SSSRning qulashi bilan «sovuq urush» tugadi.

Milliy davlatlarning vujudga kelishi. **90-yillar** xalqaro hayotda ko'pmillatli davlatlarning parchalanishi va milliy davlatlarning vujudga kelishi bilan ham ajralib turadi. Chunonchi, **Chexoslavakiya 1993-yil 1-yanvar**da **Chexiya** va **Slovakiya** davlatlariga ajraldi. **Yugoslaviya** bo'linguniga qadar 6 respublikadan iborat edi. **1991-yil iyun**da **Xorvatiya, Sloveniya** va **Makedoniya** o'z mustaqilligini e'lon qildilar. **1992-yil yanvar**da **Bosniya** va **Gersegovina** ajralib chiqdi. **Serbiya** va **Chernogoriya** esa **Yugoslaviya Ittifoqi** davlatini tuzdilar. Keyinchalik **Chernogoriya** undan ajralib chiqdi. **Kosovo**da yashovchi albanlar mustaqil **Kosovo davlati** tuzilganini e'lon qildi.

Yaqin Sharqdagi vaziyat. *Yaqin Sharq muammosining asosiy masalasi – Falastin arab davlatini tashkil etish va Isroil bosib olgan arab yerlarini qonuniy egalariga qaytarib berish hamon hal etilmay kelmoqda.* Falastin arab davlatini tashkil etishga quyidagi uchta katta muammo

g'ov bo'lib turibdi: **1,5 mln dan ortiq** arab qochoqlarini avvalgi yashash joylariga qaytarish; Falastin davlati poytaxti muammosi; falastinliklar **Quddus**ni o'z davlati poytaxti bo'lishini istaydi. Isroil esa uni o'z davlati poytaxti deb e'lon qilgan. Uzoq muzokaralardan so'ng bu shaharni ikkiga bo'lishga kelishildi. Isroildagi o'ta o'ng kuchlar va Falastinning ekstremist tashkilotlari shaharning bo'linishiga aslo rozi bo'lmayotirlar va bunday bo'linishga butun choralar bilan qarshilik ko'rsatmoqdalar; Isroildagi o'ta o'ng kuchlar va Falastindagi ekstremist kuchlarning barcha muammolarini kuch yordamida hal etishga urinayotganlari; ularning ikki tomonlama har qanday kelishuvga qarshiligi. Lekin **2005-yili G'azo sektor**idan **8,5 ming** yahudiyning ko'chib ketishi vaziyatni biroz iliqlashtirdi.

26.2. IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYIN G'ARB DAVLATLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA SIYOSIY TARAQQIYOTI

G'arb davlatlari iqtisodiyoti qurkirab rivojlanishi sabablari. G'arb davlatlari **50 – 60-yillar**da iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda rivojlanishiga erishdilar. Quyidagi omillar iqtisodiyot rivojlanishini ta'minladi: *birinchidan, AQSh va G'arbning boshqa davlatlari Ikkinchi jahon urushi davridayoq va urushdan keyin Yevropada moliyaviy va pul beqarorligi vujudga kelishining oldini olish choralarini ko'rgandilar.* Xususan, **Xalqaro valyuta fondi** va **Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki** tashkil etildi; *ikkinchidan, «Marshal rejasi» beqiyos katta rol o'ynadi.* Unga ko'ra, AQSh **1948 – 1952-yillar** oralig'ida G'arb davlatlariga **13 mlrd dollar** miqdorida yordam ko'rsatdi; *uchinchidan, xalqaro savdo uchun qulay sharoit yaratildi. Bu proteksionizm va boj to'siqlarini amalda bartaraf etish edi.* Masalan, faqat AQShning o'zi olib kelinadigan tovarlar uchun to'lanadigan bojni **50 foiz**ga kamaytirdi. Bu hol xalqaro savdo gurkirab rivojlanishiga olib keldi. **1948 – 1960-yillar**da xalqaro savdoning yillik o'rtacha o'sish sur'ati **6 foiz**, **1960 – 1973-yillar**da esa **9 foiz**ni tashkil etdi. Yevropaning o'zida davlatlararo savdo hajmi **1950 – 1970-yillar**da **18 mlrd dollardan 129 mlrd dollarga** yetdi. Shu tariqa tashqi savdo iqtisodiy taraqqiyot manbayiga aylandi; *to'rtinchidan, xalqning intellektual quvvatiga alohida e'tibor berilib, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiya o'z vaqtida joriy etildi.* Qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalashtirildi. Qishloq xo'jaligida inqilob – biotexnologiya va kimyolashtirish amalga oshirildi; *beshinchidan, neftdan yoqilg'i o'rnida keng miqyosda foydalanishga o'tildi.* U iqtisodiy hayotning asosiy harakatlantiruvchi vositasiga aylandi. Boz ustiga, uning

bahosi juda arzon edi. Bir **barrel (159 litr)** neftning narxi atigi **1,5 dollar** edi; *oltinchidan, G'arb davlatlarida davlat iqtisodiyotni tartibga solish siyosati yuritildi.* Bu siyosat aralash iqtisodiyotni vujudga keltirish orqali amalga oshirildi; iqtisodiyotda xususiy mulk, xususiy tadbirkorlik faoliyati va davlat mulki uyg'unligiga erishildi; *yettinchidan, iqtisodiyotning yuksak darajada rivojlanishi masalasi hukumat siyosati darajasiga ko'tarildi.* Iqtisodiyotni sarmoyalash har tomonlama rag'batlantirildi.

Yuqoridagi omillar G'arb davlatlarining hammasida **1975-yil**ga kelib mustahkam ijtimoiy ta'minot tizimi to'la qaror topishiga olib keldi. Davlat yetimlar, nogironlar, ko'p bolali oilalar, kambag'allik chegarasidan past darajada yashayotgan fuqarolarga yordam ko'rsatilishini tashkil etishni o'z zimmasiga oldi. Mehnat qilayotganlarning **52 foizdan 67 foizigacha qismi** ishsizlikdan; **48 foizdan 94 foizgacha qismi** baxtsiz hodisalardan; **72 foizdan 100 foizgacha qismi** kasallik tufayli vaqtincha yaroqsizlikdan sug'urta qilindi. Pensiya yoshiga yetganlarning **80 – 100 foizi** pensiya oladigan bo'ldi. Davlat byudjetining **28 foizidan 60 foizigacha qismi** ijtimoiy xarajatlarga ajratildi. Ishlayotgan xodimlarga yuqori ish haqi to'lana boshlandi. Bular aholining iste'mol quvvatini oshirdi. Masalan, birgina **Fransiya**da har **1000 nafar ishchi**ga **636 dona avtomobil, 769 dona televizor, 844 dona muzlatkich** to'g'ri keldi. Davlat mehnat munosabatlari masalasini qonun bilan tartibga soldi.

Yevropada birlashish (integratsiya) jarayoni. Urushdan keyingi ahvol Yevropa davlatlarini iqtisodiy muammolarni birgalikda hal etishga undadi. **1951-yili** Yevropaning **olti davlati** (**Belgiya, Italiya, Lyuksemburg, Gollandiya, GFR va Fransiya**) ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa uyushmasini tuzdi. **1957-yili** esa u **«Yevropa iqtisodiy hamjamiyati»**ga aylantirildi (**«Umumiy bozor»** deb ham ataladi). **1993-yili Maastrixt shartnomasi** bilan Yevropa hamjamiyati (**Yevropa Ittifoqi**) deb atala boshladi. **1957-yili** imzolangan **Rim shartnomasi**ga ko'ra, bu olti davlat o'zaro savdoda boj to'siqlarini tugatish va qishloq xo'jalik mahsulotlari yagona bozorini vujudga keltirishga qaror qildilar. *1973 – 1995-yillari Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya (1973), Gretsiya (1981), Portugaliya va Ispaniya (1986), Avstriya, Finlyandiya, Shvetsiya (1995), 2004-yili Vengriya, Kipr, Latviya, Litva, Malta, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Chexiya, Estoniya, 2007-yili Bolgariya va Ruminiya ushbu hamjamiyatga a'zo bo'lib kirdilar.* YI a'zolari soni **2007-yili 27 ta**ga yetdi. Bu davlatlarda **500 mln ga yaqin kishi** yashaydi. **Norvegiya**da bu masalada **2 marta** umumxalq referendumi bo'lib o'tdi, lekin u hali YIga a'zo bo'lganicha yo'q. Nomzodlar: **Makedoniya, Xorvatiya.**

1990-yildan sarmoya, tovar va ishchi kuchlari erkin harakat qilishiga xalaqit beradigan barcha to'siqlar olib tashlandi. **1993-yili** Yevropani birlashtirish yo'lida yana bir katta qadam qo'yildi. Shu yili **dekabr**da Gollandiyaning **Maastrixt shahri**da YIHning **12 a'zosi** yagona Yevropani vujudga keltirish to'g'risida shartnomalar imzoladilar. Shartnomalar quyidagi **3 guruh**dan iborat edi: *Yevropaning yagona pulini (yevro) joriy etish; Yevropa siyosiy ittifoqini shakllantirish; Yevropa Komissiyasini tasdiqlash.* Yevropa siyosiy ittifoqi kengashi dastlabki bosqichda G'arbiy Yevropa davlatlarining tashqi va mudofaa siyosati masalalarini muvofiqlashtirishga, bu sohalarda yagona yo'nalish asoslarini ishlab chiqishga, kelgusida esa yagona tashqi siyosat yuritishga xizmat qilishi ko'zda tutildi. Hozirda raisi **N.Sarkozi**.

1999-yil dekabrda YH a'zolari qurolli kuchlarni tuzish haqida qaror qabul qildilar. *Uning vazifasi harbiy inqirozlar yuz bergan hududlarda tinchlikni saqlashdan iborat deb belgilandi.*

YI mamlakatlarida **2002-yil 1-yanvar**dan **yevro** muomalaga kiritildi. YIning asosini sobiq **Yevropa iqtisodiy uyushmasi, Yevratom, Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi** (*2002-yildan o'z faoliyatini to'xtatdi*) tashkilotlari tashkil etadi. **2007-yil Lissabon bitimi**ga ko'ra, murakkab tizim tugatiladi, xalqaro huquq subyekti bo'lgan YI yagona statusga ega bo'ldi. **2007-yili** Yevropa liderlari **Fransiya, Italiya** va **Ispaniya** yangi **O'rta yer dengizi ittifoqi** tashkiloti tuzganini e'lon qildilar.

Yevropa Kengashi. **Yevropa Kengashi** – xalqaro va davlatlararo tashkilot. U **1949-yil 5-may**da tashkil etilgan. Dastlab unga **10 ta davlat** a'zo edi. Yevropani birlashtirishda tashkilot muhim rol o'ynadi. Hozirgi kunda Yevropaning deyarli barcha davlatlari, shu jumladan, Sharqiy Yevropa davlatlari va Rossiya Federatsiyasi ham bu tashkilot a'zolaridir. Yevropa Kengashining oliy organi – **Tashqi ishlar vazirlari qo'mitasi va parlament Assambleyasi**. *Yevropa Kengashining vazifasi demokratiya va qonuniylikni, inson huquqlarini rivojlantirishga va himoya qilishga ko'maklashishdan iborat.* YK oliy organlari a'zo davlatlarning o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni amalda bajarishlarini nazorat qiladi. Bu boradagi xulosalarini tegishli hukumatlarga ma'lum qiladi. Demokratiya, qonuniylik, inson huquqlari va erkinliklari sohasida qo'pol buzilishlarga yo'l qo'ygan davlatlarni YK a'zoligidan chiqarishgacha choralar ko'radi. YK qarorgohi Fransiyaning **Strasburg shahri**da joylashgan. Bu kengashda hozir **50 ga yaqin davlat** a'zo. Kengash iqtisodiy va harbiy-siyosiy masalalar bilan shug'ullanmaydi.

Konservativlik to'lqini. XX asr 2-yarmidan keyingi G'arb taraqqiyoti o'z boshidan kechirgan yana bir xususiyat konservativlik to'lqini, farog'at davlatini tugatish tarafdorlarining hokimiyat tepasiga kelishi edi. **1974 – 1975-yillari**, shuningdek, **1980 – 1982-yillari** industrial davlatlarda iqtisodiy inqirozlar ro'y berdi. Natijada ishlab chiqarish va xalqaro savdo hajmi kamaydi. Ishsizlik ommaviy tus oldi. Inflyatsiya kuchaydi. An'anaviy, eski tartiblar tarafdorlari bunda farog'at davlatini ayblay boshladilar. Inflyatsiya ijtimoiy sohalarga davlat xarajatlarining haddan tashqari ko'payishi oqibati ekanini isbotlashga urindilar. Shu tariqa farog'at davlatini tugatish harakati vujudga keldi. U tarixga **«konservativlik to'lqini»** nomi bilan kirdi.

Axborot jamiyatining vujudga kelishi. **XX asr 70 – 90-yillari**da rivojlangan davlatlarda ishchi kuchining ishlab chiqarish sohasidan xizmat ko'rsatish sohasiga o'tish jarayoni davom etdi. Bu industrial jamiyatning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri edi. Masalan, **AQSh, Kanada va Buyuk Britaniya**da bu ko'rsatkich **90-yillar o'rtalari**da **70 – 72 foiz**ni tashkil etdi. **2 – 3 foiz** ishchi kuchi qishloq xo'jaligida band bo'ldi, xolos. Xizmat ko'rsatish sohasida ishlovchilar soni ko'payishiga ilmiy-texnika inqilobi natijasida yaratilgan o'ta zamonaviy texnika va texnologiyalarning ishlab chiqarishga joriy etilishi sabab bo'ldi. **1973-yili** dastlabki shaxsiy kompyuter ham yaratildi. **1977-yil**dan u keng ko'lamda ishlab chiqarila boshlandi. Sanoat ishlab chiqarishi to'la kompyuterlashtirila boshlandi.

G'arb davlatlari aholisi ijtimoiy tarkibidagi o'zgarishlar. Keyingi 50 yil ichida G'arb davlatlari aholisi ijtimoiy tarkibida tub o'zgarishlar yuz berdi. Bu hodisa G'arbda jamiyat taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Chunonchi, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchilar soni keskin kamaydi. Bugungi kunda bu soha bilan **2 – 7 foiz aholi** shug'ullanmoqda. Yollanma mehnat bilan shug'ullanuvchilar soni ishga yaroqli aholining **90 foiz**ini tashkil etadi. Ularning **2/3 qismi** xizmat ko'rsatish sohasida mehnat qiladi. Yollanma ishchi kuchi yuqori malakaga ega. Bu hol ularga yuqori ish haqi olish imkonini berdi. Bugungi kunda G'arb davlatlari aholisining **1/10 qismi** boy-badavlat qatlamga mansub. Aholining **20 foiz**gacha bo'lgan qismi kambag'al hisoblanadi. Ular davlat hamda xayriya jamg'armalari yordamini oladilar.

Partiyaviy-siyosiy va davlat qurilishidagi o'zgarishlar. Keyingi 50 yil ichida G'arbda kommunizm mafkurasi to'la mag'lubiyatga uchradi. Fashizm to'la barham topmagan bo'lsa-da, u endilikda ijtimoiy tayanchga egamas. *Bugungi kunda G'arb jamiyatida konservatizm, liberalizm, sotsializm va millatchilik kabi g'oyaviy yo'nalishlar mavjud.* Siyosiy

partiyalar ularning birini o'z mafkuralariga asos qilib olganlar. Urushdan keyingi yillarda G'arbiy Yevropaning qator davlatlarida konservativ partiyalarning tiklanishi dinning kuchli ta'siri natijasi bo'ldi. Urush, uning oqibatlari aholi o'rtasida dinning ta'sirini kuchaytirdi. *Masalan, Italiyada Xristian-demokratik partiya, GFRda Xristian-demokratik ittifoq va Xristian-sotsialistik ittifoq partiyalarining vujudga kelishi ana shu omil bilan izohlanadi.* **Fransiya, Belgiya, Avstriya va Gollandiya**da ham diniy partiyalar jamiyat siyosiy hayotida sezilarli kuchga aylangandi. *AQSh va Buyuk Britaniyada kuchli ikki partiyali tizim saqlanib qolaverdi.* Sotsialistik va sotsial-demokratik partiyalar ta'siri ham o'sib bordi. *XX asr 90-yillari oxiriga kelib YHga a'zo 15 davlatning 13 tasida hukumatni shu partiyalar boshqarishdi.*

27-BOB. G'ARB DAVLATLARI

27.1. AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI

Ikkinchi jahon urushi oqibatlari. Urush AQShni iqtisodiy va harbiy jihatdan dunyodagi eng qudratli davlatga aylantirdi. *Bunga, birinchidan, urushning AQSh hududiga daxl qilmagani uchun erishildi.* Urush harakatlarida **300 ming kishi** halok bo'ldi. Natijada AQSh urushdan eng kam zarar bilan chiqdi. Uning to'g'ridan to'g'ri zarari **1,2 mlrd dollar**ni tashkil etdi. Bu Ikkinchi jahon urushidagi umumiy zararning **0,4 foiz**ini tashkil etdi. *Ikkinchidan, fashistik davlatlar blokiga qarshi urushayotgan davlatlarga ko'plab miqdorda qurol-yarog' va boshqa sanoat hamda qishloq xo'jalik mahsulotlari sotish hisobiga erishildi.* **1941 – 1945-yillari** AQSh o'z ittifoqchilariga **46 mlrd dollarlik** (*Buyuk Britaniyaga 30 mlrd, SSSRga 9 mlrd*) harbiy mahsulotlar yetkazib berdi. Chet davlatlar AQShdan **41 mlrd dollar** qarz bo'lib qoldi.

Dunyo oltin zaxirasining **65 foizi** AQSh xazinalarida to'plandi. **Dollar** xalqaro savdo va iqtisodiy aloqalarda hukmron valyutaga aylandi. Harbiy buyurtmalar AQSh sarmoyasining gurkirab rivojlanishini ta'minladi. Sanoatning yillik o'rtacha o'sish sur'ati **15 foiz**ni tashkil etdi. **1947-yili** dunyo sanoat ishlab chiqarishining **54 foizi** AQSh hissasiga to'g'ri keldi. U xalqaro savdoda yetakchi o'rinni egalladi. Flotining quvvati ham **5 baravar** ortdi. AQSh dunyonining birinchi raqamli dengiz davlatiga aylandi.

AQShning ichki siyosati. Urushdan keyingi dastlabki yillarda ichki siyosatda rekonversiya, ya'ni mamlakat hayotini harbiy izdan tinch izga

solish muammosi birinchi o'ringa chiqdi. Urush yillarida AQSh qurolli kuchlarida **12 mln kishi** xizmat qildi. **1947-yil**ga kelib ularning sonini **1 – 1,5 mln kishi**ga tushirish haqida qaror qabul qilindi. Binobarin, **10,5 – 11 mln harbiy**ni ish bilan, uy-joy bilan ta'minlash zarur edi. Bu borada bir necha qonunlar qabul qilindi. Rekonversiyaning yana bir muammosi – urush yillarida davlat qurgan zavodlar taqdiri masalasi edi. Davlat ularni qurishga **17 mlrd dollar** sarflagan. Urushdan keyin davlat o'z mulkini yarim bahosiga bo'lsa ham korporatsiyalarga sotdi.

Ichki siyosatda mayda va o'rta korxonalar ko'payishiga alohida e'tibor berildi. Urushdan keyingi dastlabki yillarda mamlakatda **9 mln** shaxsiy firmalar faoliyat ko'rsatdi. Prezident **G.Trumen (1945 – 1952) 1948-yili** ijtimoiy himoya sohasida quyidagi tadbirlarni ilgari surdi: *ish o'rinlarining to'la bandligini ta'minlash; adolatli mehnat munosabatlarini ta'minlash; davlat uy-joylari qurish va xaroba kulbalarni yo'q qilish.* Bu yo'l **«adolatli yo'l»** deb nom oldi. G.Trumen davrida qonun asosida minimal ish haqi, sug'urta nafaqalari to'lovlari miqdori oshirildi. Pensiya bilan ta'minlanmagan **10 mln fuqaro**ga pensiya tayinlandi. Kam ta'minlangan oilalar uchun **800 ming turarjoy** qurildi. Kreditga tovar sotish joriy etildi. Bu tadbirlar aholi xarid quvvatini oshirdi. Mamlakatda dunyoda yo'q yangi tovar – **televizor** ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Har bir oilaga **telefon**ga ega bo'lish imkoni yaratildi.

Adolatli mehnat munosabatlari joriy etilishi juda katta to'siqlarga uchradi. Kasaba uyushmalari qudrati AQSh Kongressida ko'pchilik o'ringa ega bo'lgan respublikachilarning g'ashini keltirardi. Bu holatga barham berish uchun ular **«Taft – Xartli qonuni»** deb atalgan qonun loyihasini tayyorladilar. *Qonun tashkiliy va birdamlik stachkalari o'tkazilishini taqiqladi. Alohida murakkab mehnat mojarolarini majburiy ravishda arbitrajda hal etish belgilab qo'yildi. Davlat xizmatchilarining ish tashlash o'tkazishlari taqiqlandi.* To'g'ri, prezident Trumen bu qonunni tasdiqlamadi. Biroq AQSh Kongressi prezident vetosini bekor qilolgan va Taft – Xartli qonuni kuchga kirgan.

1952-yilgi saylovlarda **general D.Eyzenxauer** (respublikachi) g'alaba qozondi. Uning ichki siyosatida o'zgacha fikrlovchilarni ta'qib etish kampaniyasi boshlandi. Bu kampaniyani senator **J.Makkarti** boshqardi. Uning rahbarligida AQSh Senati **«Amerikaga qarshi faoliyatni tekshirish komissiyasi»**ni tuzdi. Komissiya AQShning ichki va tashqi siyosati haqida rasmiy nuqtayi nazardan o'zgacha fikr bildirganlarni qo'poruvchilikda aybladi. Komissiya AQSh konstitutsiyasi ruhiga zid ravishda aybdor deb topilgan kishilarni qamoq jazosiga hukm etar, jarima solar

yoki ishdan haydash haqida qaror chiqarardi. AQSh Senati **1954-yili** Makkarti xatti-harakatini qoralagan.

50-yillarda negrlarning o'z haq-huquqlari uchun kurashi kuchaydi. Bu kurash rahbari **Martin Lyuter King** edi. U kurashning kuch ishlatmaslik yo'lini tanlagan. **1956-yili** *AQSh Oliy sudi avtobuslarda oq tanli va qora tanlilar uchun alohida joy ajratishni, maktablarda esa oq tanli va qora tanlilarni ajratib o'qitishni qonunga zid deb topdi.*

1960-yilgi saylovda demokrat **J.Kennedi (1961 – 1963)** g'alaba qozondi. U qisqa muddatli prezidentligi davrida katta ishlarni amalga oshirishga ulgurdi. Chunonchi, kosmosda AQShning yetakchi davlat bo'lishini ta'minlash maqsadida **«Apollon»** deb ataluvchi dasturni ilgari surdi. *Dasturning maqsadi Amerika raketasini Oyga qo'ndirishga erishish edi.* Iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantirish uchun ichki bozorni kengaytirishga sarflanadigan xarajatlarni ko'paytirish, minimal ish haqini oshirish, ishsizlik bo'yicha to'lanadigan nafaqani to'lash muddatini uzaytirish, uy-joy qurilishi ko'lamini kengaytirish kabi tadbirlar rejalashtirildi. Bu tadbirlarni amalga oshirish katta mablag' sarflashni talab etardi. Hukumat bu xarajatlarni soliqlarni oshirish hisobiga qoplamoqchi edi. Bu hol hukumatning yirik korporatsiyalar bilan munosabati buzilishiga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, demokratlar partiyasida bo'linishni keltirib chiqardi. J.Kennedi islohoti atrofida kuchli siyosiy kurash boshlandi. Oxir-oqibatda J.Kennedi **1963-yil 22-noyabr**da **Dallas**da o'ldirildi.

Undan so'ng prezidentlik lavozimini vitse-prezident **L.Jonson** egalladi. U **«buyuk jamiyat»** qurish dasturini ilgari surdi va o'z oldiga kambag'allikni hamda irqiy adolatsizlikni tugatish vazifasini qo'ydi. **«Kambag'allikka qarshi kurash»** dasturini amalga oshirish maqsadida kam daromadli oilalarga yordam berish to'g'risida qonun qabul qilindi. Arzon turarjoylar qurish dasturi amalga oshirildi. Qariyalar uchun tibbiy sug'urta joriy etildi. Kam daromadli oilalarga tibbiy xizmat uchun imtiyozlar belgilandi. **1964 – 1968-yillar** davomida ijtimoiy sohalar uchun **10 mln dollar** sarflandi. To'g'ri, mamlakatda kambag'allikni tugatib bo'lmadi. Biroq kambag'allar soni **36,4 mln dan 25,4 mln kishiga** kamaytirildi. Irqiy kamsitishni tugatishga qaratilgan qator muhim qonunlar qabul qilindi.

Vyetnam urushi AQSh ichki siyosatiga ham katta talafot yetkazdi. **1968-yil**ga kelib **30 ming harbiy** halok bo'ldi, **180 mingi** esa yarador bo'ldi. Ijtimoiy sohaga xarajatlar ajratish keskin kamaydi. Fuqarolar huquqlariga qarshi hujum boshlandi. Urushga qarshi harakat kuchaydi. Irqiy kamsitishga qarshi kurash ommaviy tus oldi. Reaksiya terror yo'liga o'tdi. **1968-yil aprel**da Martin Lyuter King o'ldirildi. **Iyun**da esa J.Kenne-

dining ukasi, AQSh prezidentligiga nomzod **R.Kennedi** o'ldirildi. Shunday sharoitda **1968-yil**gi saylovda respublikachi **R.Nikson (1969 – 1974)** g'alaba qozondi. R.Nikson hokimiyat tepasiga kelgan davrda AQShni og'ir iqtisodiy va siyosiy inqiroz qamrab olgandi. **1971-yil**ga kelib ishsizlar soni **5 mln** dan ortdi. Bu ishga yaroqli aholining **6 foiz**ini tashkil etardi. Og'ir vaziyatdan chiqish uchun qator keskin choralar ko'rildi. Ish haqi va narxlar muzlatildi. Davlat xarajatlari kamaytirildi. Dollarni oltinga almashtirish vaqtincha to'xtatildi. Mamlakatga olib kelinadigan tovarlar uchun **10 foizlik** boj to'lovlari joriy etildi. R.Nikson prezidentligi davrida aholini ijtimoiy himoya qilish masalasiga ham ko'proq e'tibor berildi. Ijtimoiy to'lovlar **45 foiz**ga oshirildi. Uni oluvchilar soni **30 mln kishi**ni tashkil etdi. Kambag'allarga ayrim oziq-ovqat mahsulotlarini talon orqali tekinga berish joriy etildi. Agar **1969-yili** bunday imkoniyatdan **3 mln fuqaro** foydalangan bo'lsa, **1974-yili** ularning soni **13 mln** ga yetdi. **1974-yili** 1 **soatga** to'lanadigan minimal ish haqi **1,6 dollardan 2,2 dollarga** oshirildi.

1972-yilgi saylovda yana R.Nikson g'alaba qozondi. Biroq uning prezidentligi uzoqqa bormadi. Bunga **«Uotergeyt ishi»** sabab bo'ldi. «Uotergeyt» mehmonxonasida Demokratlar partiyasi qarorgohi joylashgandi. **1972-yil 17-iyun**da shu qarorgohga eshituvchi apparat o'rnatgan shaxslar ushlangan. Tergov natijasida uni Respublikachilar partiyasi uyushtirgani ma'lum bo'ldi. Hatto bunda R.Niksonning shaxsan ishtiroki borligi ham aniqlandi. Bu hodisa AQSh konstitutsiyasini qo'pol sur'atda buzish edi. **1974-yil 9-avgust**da R.Nikson iste'foga chiqdi va shu yo'l bilan impichmentdan qutulib qoldi. **1976-yil**gi saylovda g'alaba qilgan prezident **Karter** davrida ichki siyosatda harbiy xarajatni keskin oshirish izidan borildi. **1980-yili** harbiy xarajat **130 mlrd dollar**ni tashkil etdi. Inflyatsiyani kamaytirish maqsadida ish haqi muzlatildi, ijtimoiy to'lovlar kamaytirildi. Mamlakatda fermerlar harakati qayta tiklandi. Ular qishloq xo'jalik mahsulotlari narxi davlat tomonidan ushlab turilishini talab eta boshladilar.

1980-yilgi saylovda respublikachilar nomzodi **R.Reygan** g'alaba qozondi. Hukumatning iqtisodiy siyosati **«reyganomika»** deb nom oldi. Uning mazmuni quyidagilardan iborat edi: *yirik korxonalardan olinadigan soliqlar kamaytirildi; ijtimoiy sohalarga byudjetdan ajratiladigan xarajatlar kamaytirildi; bankdan olingan kreditlar uchun to'lanadigan foizlar miqdori oshirildi; harbiy xarajatlar keskin oshirildi (1980-yildagi 130 mlrd dollardan 1987-yili 282 mlrd dollarga yetdi); davlatning iqtisodiyotga aralashuvi kamaytirildi.* Ishsizlar soni **ikki baravar** oshdi. Ayni paytda, inflyatsiya

to'xtatildi. **1983-yil**dan iqtisodiy ko'tarilish boshlandi. Natijada ishsizlar soni **10 mln kishidan 7 mln kishiga** tushdi. R.Reygan hukumati kasaba uyushmalariga nisbatan keskin siyosat qo'lladi. Aeroportlar dispetcherlari ish tashlashi qo'pol sur'atda bostirildi. Ularning kasaba uyushmasi tarqatib yuborildi.

1988-yilgi saylovda yana bir respublikachi – **J.Bush** g'alaba qozondi. U R.Reygan siyosatini davom ettirdi. **1992** va **1996-yil**gi prezidentlik saylovlarida demokrat **B.Klinton** g'alaba qozondi. *Bunga uning jamiyatdagi illatlar: kambag'allik chegarasidan past darajada yashashni (aholining 12,5 foizi); turarjoy yo'qligini (12 mln kishi uy-joyga ega emasdi), narkomaniya, jinoyatchilik va shu kabilarni keskin kamaytirish haqidagi va'dalari va bu borada jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirgani sabab bo'ldi.* Soatiga to'lanadigan minimal ish haqi **5 dollar**dan kam bo'lmasligi belgilandi. U bergan va'dalarining barchasini bajarolmadi. **1994-yili** AQSh Kongressining har ikki palatasida ko'pchilik o'rinni egallab olgan respublikachilar B.Klinton taklif etgan qonun loyihasini rad etish yo'lidan bordilar.

2000 va **2004-yillari** AQShda o'tkazilgan prezidentlik saylovida respublikachi **J.Bush** g'alaba qozondi. *J.Bush ta'limni insonparvarlashtirish orqali kamsitish illatlariga to'la barham berishni o'z ichki siyosatining asosiy vazifasi deb e'lon qildi. Iqtisodni boshqa davlatlar hisobiga ko'tarish yo'lini tutdi.*

AQShning tashqi siyosati. Ikkinchi jahon urushidan so'ng AQSh tashqi siyosatda SSSRni tiyib turish yo'lini tanladi. Xalqaro munosabatlarda sovuq urushning vujudga kelishida SSSR bilan barobar aybdor davlatga aylandi. AQSh Germaniya masalasida SSSR bilan manfaatli to'xtamga kelolmadi. Natijada Germaniya ikkiga bo'linib ketdi. **1949-yili** Xitoyda kommunistlar hokimiyat tepasiga keldi. Oqibatda AQSh Uzoq Sharqdagi asosiy tayanchi Chan Kayshini yo'qotdi. **1950-yili** AQSh Koreya urushiga aralashdi. Urushda **142 ming nafar askar** halok bo'ldi. Bu butun Ikkinchi jahon urushi davomida berilgan qurbonning yarmiga teng edi. Prezident **D.Eyzenxauer** sovuq urushni yanada kuchaytiradigan doktrinani e'lon qildi. *Unda «yalpi qasos olish», SSSRga birinchi bo'lib yadro zarbasi berish maqsadlari o'z ifodasini topdi.* D.Eyzenxauer Koreya urushini to'xtatdi va bu masalada SSSR bilan kelishuvga bordi. Biroq ikki davlat o'rtasida qurollanish poygasi yanada avj oldi.

1960-yil 1-mayda SSSR hududida AQSh josus samolyotining uchirilishi munosabatlarni yanada keskinlashtirdi. Bu xalqaro huquq me'yorlarining qo'pol ravishda buzilishi edi. **1960-yil 16-may**da **Parij**da buyuk

davlatlar rahbarlari oldindan rejalashtirilgan oliy darajadagi uchrashuvga to'plandilar. SSSR rahbariyati D.Eyzenxauerdan 1-may voqeasi munosabati bilan kechirim so'rashni talab etdi. Biroq AQSh prezidenti kechirim so'rashdan voz kechdi. Norozilik belgisi sifatida N.Xrushov Parijdan jo'nab ketdi. Shu tariqa oliy darajadagi uchrashuv barbod bo'ldi.

Prezident **J.Kennedi** SSSR bilan munosabatda kelishuv yo'lini izladi. SSSR rahbariyati bu intilishni AQShning ojizligi sifatida qabul qildi. Ayni paytda, J.Kennedi Kubada F.Kastro hukumatini ag'darishga harakat qildi. U bu vazifani kubaliklarning qo'llari bilan amalga oshirishga intildi. Shu bois kubalik isyonchilarni qo'llab-quvvatladi. Kubani himoya qilish maqsadida SSSR Kuba hududiga o'z yadroviy raketalarini joylashtirdi. Ana shu omilgina J.Kennedini F.Kastro hukumatini ag'darish niyatidan qaytishga majbur etdi. Prezident **L.Jonson** J.Kennedining qurollanish poygasini avj oldirish siyosatini davom ettirdi. Hindixitoyda kommunistlar ta'siri kuchayib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida L.Jonson **1965-yil fevral**da **Shimoliy Vyetnam**ni bombardimon qilishni boshlash haqida buyruq berdi. AQSh Vyetnamga **550 ming askar** tashladi. Urush cho'zilib ketdi. Biroq AQSh armiyasi Vyetnam xalqining irodasini bukolmadi. Bu urush AQShning xalqaro obro'siga katta putur yetkazdi. Prezident **R.Nikson** Vyetnam urushining istiqbolsizligini anglab yetdi. Shu bois u urushni to'xtatish to'g'risida shartnoma imzoladi. R.Nikson davrida AQShning Kubaga nisbatan siyosatida ham o'zgarish yuz berdi. AQSh hukumati Lotin Amerikasi davlatlarining Kuba bilan qanday munosabatda bo'lishi masalasiga aralashmasligini ma'lum qildi.

Birinchi marta **R.Nikson** bilan SSSR rahbari **L.Brejnev** o'rtasida bir necha bor oliy darajadagi uchrashuv o'tkazildi. Strategik qurollarni cheklash to'g'risida shartnomalar imzolandi. **70-yillar oxiri**dan munosabatlar keskinlashdi. Bu xalqaro keskinlikning yumshashi davri tugashi bilan bog'liq edi. AQSh Yaqin Sharq muammosini SSSR ishtirokisiz hal etishga intildi. **J.Karter** Misr va Isroil o'rtasida **1978-yili** shartnoma imzolanishiga erishdi.

Eronda **1978-yil noyabr**da islom inqilobining g'alaba qilishi AQShni tashvishga solib qo'ydi. Chunki inqilob uni Eron shohidek tayanchidan mahrum etdi. **1979-yil dekabr**da SSSR Afg'onistonga armiya kiritgach, munosabatlar yanada keskinlashdi. Bunga javoban AQSh 1980-yilgi Moskva olimpiadasini boykot qilish tashabbusi bilan chiqdi. G'arb davlatlarini SSSRga g'alla sotmaslikka undadi. Reygan SSSRga qarshi keskin siyosat yuritdi. SSSRning Sharqiy Yevropa davlatlari hududiga raketa joylashtirishiga javoban G'avbiy Yevropaning **5 davlat**iga raketalarini

joylashtirdi. Ayni paytda, AQSh Amerika davlatlari ishlariga qo'pol ravishda aralasha boshladi. Chunonchi, mustaqil siyosat yurita boshlagan **Grenada**ga qarshi harbiy hujum uyushtirdi va uning qonuniy hukumatini ag'dardi.

1990-yili AQSh va uning ittifoqchilari **Iroq**qa Quvaytni bosib olgani uchun qattiq zarba berdilar. Quvaytning suvereniteti tiklandi. **90-yillar 2-yarmi**da AQSh **Bolqon**da tinchlikni tiklashga katta hissa qo'shdi. NATO qurolli kuchlari yordamida **Yugoslaviya** rahbariyati xalqaro huquq me'yorlarini tan olishga majbur etildi. *XXI asr boshida AQSh rahbariyati xalqaro maydonda AQShning mutlaq yetakchi davlat bo'lib qolishini o'zining maqsadi deb e'lon qildi.* Prezident J.Bush ma'muriyati R.Reygan ilgari surgan strategik mudofaa tashabbusini amalga oshirishga kirishdi. AQSh **2001-yil 11-sentyabr** voqealaridan so'ng Afg'onistondagi tolibonlar hukumatini ag'darib tashladi. Iroqda **Saddam Husayn diktaturasi**ga barham berdi. Bu bilan Yaqin Sharq neftining bir qismini qo'lga kiritdi.

27.2. LOTIN AMERIKASI DAVLATLARI

Milliy islohotchilik. Lotin Amerikasi davlatlari oldida taraqqiyotning ikki muqobil yo'li turardi. Mintaqa davlatlarining aksariyati milliy islohotchilik yo'lini tanladi. *Milliy islohotchilikning yetakchi kuchi milliy burjuaziya edi.* Bu harakat **Argentina**da keng quloch yozdi. Bu yerda u **peronizm** nomi bilan ataladi. Peronizm keyinchalik Argentina prezidentligiga saylangan **Xuan Domingo Peron** nomidan olingan. D.Peron **1943-yil 4-iyun**da o'tkazilgan davlat to'ntarishi natijasida hokimiyat tepasiga keldi. U argentinaliklarni qaramlik, qoloqlikni tugatish va turli ijtimoiy tabaqalar hamkorligiga asoslangan adolatli jamiyat qurish yo'lida jipslashishga chaqirdi. Imperializmni, oligarxiyani tanqid qildi. Qashshoqlarni himoya qilish zarurligini ta'kidladi. Mamlakatdagi kuchli kasaba uyushmasi – **«Mehnat umumiy konfederatsiyasi»** uning tayanchi bo'ldi. **1946-yili** D.Peron saylovda g'alaba qozondi. U chuqur ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirdi. Ish haqi oshirildi. Umumiy pensiya ta'minoti va haq to'lanadigan ta'til joriy etildi. Fuqarolarning ijtimoiy huquqlari **1949-yili** qabul qilingan yangi konstitutsiyada mustahkamlab qo'yildi. Iqtisodiy siyosatda chet el kompaniyalariga qarashli mulklarni sotib olish yo'lini tutdi. Temir yo'l, aloqa, markaziy bank va boshqa muhim sanoat korxonalari milliylashtirildi.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining **5 yillik rejasi** ishlab chiqildi. Milliy sarmoya rag'batlantirildi. Chetdan keltirilgan mahsulotlar-

ni Argentinaning o'zida ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan sanoat tarmog'ini yaratish siyosati yuritildi. Biroq **50-yillar o'rtalari**ga kelib vaziyat o'zgardi. Eksport tovarlari narxi pasayishi davlat daromadining pasayishiga olib keldi. Mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'ati ham pasaydi. Uni yuqori darajada saqlab turish uchun mablag' yo'q edi. Valyuta zaxirasining katta qismi chet elliklarga qarashli kompaniyalarni sotib olishga sarflab qo'yilgandi. Bu hol boshlangan keng miqyosdagi iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni chuqurlashtirish imkonini cheklab qo'ydi. Natijada chuqur norozilik kelib chiqdi. Bundan D.Peronning muxoliflari ustalik bilan foydalandi. Ular **1955-yil sentyabr**da davlat to'ntarishi uyushtirdilar. D.Peron mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo'ldi.

Milliy islohotchilik tarafdorlari **Braziliya**da ham katta o'zgarishlarni amalga oshirdilar. Bu islohotlar prezident **Vargas** nomi bilan bog'liq. **1945-yili** mamlakatda to'g'ridan to'g'ri va yashirin ovoz berishni nazarda tutuvchi saylov haqidagi qonun qabul qilindi. *Braziliyaning parlament demokratiyasiga qaytishi demokratik kuchlarning katta siyosiy yutug'i edi.* **50-yillar**da Braziliya agrar-industrial davlatga aylandi. **1953-yil 3-oktyabr**da Vargas neft sanoati masalasida muhim dekretni imzoladi. *Unga ko'ra, mamlakat neft boyligi aksiyalarining 51 foiziga davlat, 49 foiziga mamlakat xususiy kompaniyalari egalik qiladigan bo'ldi.* Shu tariqa chet el sarmoyasi neft sanoatidan siqib chiqarildi.

Vargas hukumati elektr energiya sanoatini ham milliylashtirish uchun kurash olib bordi. Hukumat og'ir moliyaviy taqchillikka duch keldi. Mamlakat qishloq xo'jaligida jiddiy inqiroz ro'y berdi. **3 yil** davom etgan qurg'oqchilik oqibatida qishloq aholisi turmush darajasi og'irlashib ketdi. Boz ustiga, barcha dehqonchilik xo'jaligining **3,4 foizi**ni tashkil etuvchi **latifundiyachilar** jami yer maydonining **62 foizidan ko'p**iga egalik qilardi. Dehqonlar yerni bo'lib berishni talab eta boshladilar, hatto qo'zg'olon boshlandi. Shunday sharoitda hukumat latifundiyachilar yerlarini sotib olish va ularni dehqonlarga bo'lib berish to'g'risida qonun loyihasini tayyorladi. Biroq bunday islohotni amalga oshirish uchun hukumatda mablag' yo'q edi. Hukumat tadbirlari ichki reaksiyani ham g'azablantirdi. Harbiy kuchlar **1954-yil 23-avgust**da davlat to'ntarishi o'tkazdilar. Chorasiz qolgan Vargas o'zini otib o'ldirishga majbur bo'ldi.

Meksikada ham milliy islohotchilar hukumati katta o'zgarishlarni amalga oshirdi. Sanoatning qator tarmoqlari milliylashtirildi. Davlat sektori kengayib bordi. Jami milliy mahsulotda sanoatning ulushi **29 foiz**ni tashkil etdi. Qishloq xo'jaligi ham rivojlandi. **1960-yili** bu soha **1940-yil**ga nisbatan **3 baravar ko'p** mahsulot ishlab chiqara boshladi. Agrar islohot

ham davom ettirildi. Oqibatda Meksikada muqim konstitutsiyaviy tuzum qaror topdi. *Meksika taraqqiyotining yana bir o'ziga xos xususiyati armiyaning ichki siyosiy ahvolga aralashmaganidir.*

Taraqqiyotning inqilobiy yo'li. Lotin Amerikasida ham mavjud muammolarni inqilobiy yo'l bilan hal etishga intiluvchi kuchlar mavjud edi. Dastlab inqilob **1959-yili** Kubada boshlandi. **1959-yil 1-yanvar**da **F.Kastro** boshchiligida milliy-vatanparvar kuchlar qo'zg'oloni g'alaba bilan yakunlandi. Shu kuni amerikaparast **F.Batista** hukumati ag'darildi. Bu hukumatni ag'darish uchun inqilobchilar **6 yil** kurashdilar. Inqilob rahbari **32 yoshli** F.Kastro bosh vazir lavozimini egalladi. AQSh F.Kastro hukumatini tan olmadi. Ayni paytda, unga qarshi iqtisodiy qamal chorasini qo'lladi. Bunga javoban Kubadagi AQSh mulki milliylashtirildi va SSSR bilan yaqinlashish yo'li tanlandi. Kuba sotsializmini saqlab qolish uchun SSSR **1962-yili** hatto yadro urushiga ham tayyor edi. **1965-yili** Kubadagi barcha kuchlar yagona tashkilot – **Kuba kompartiyasi**ga birlashdi. Shu tariqa Kuba sovet namunasidagi sotsializm qurishni boshladi. **1990-yillar**ga kelib Kubaning sobiq ittifoqchilari uni qo'llamay qo'ydi. Kuba iqtisodiy og'ir ahvolga tushib qoldi.

Inqiloblar AQShni Lotin Amerikasi davlatlariga nisbatan o'z siyosatini o'zgartirishga majbur etdi. **1961-yili** J.Kennedi tashabbusi bilan **«Taraqqiyot yo'lidagi ittifoq»** dasturi ishlab chiqildi va u **avgust**da mintaqaning **19 ta davlati** tomonidan imzolandi. *Dastur 10 yilga mo'ljallangan bo'lib, industrlashni nazarda tutardi.* Ijtimoiy-siyosiy hayot demokratlashtirilishi, agrar islohot o'tkazilishi, uy-joy qurilishi, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida ahvolni yaxshilash choralari belgilandi. Lotin Amerikasining **19 davlati**da bu dasturning bajarilishi uchun AQSh tomonidan **20 mlrd dollar** qarz va boshqa yordamlar berilishi ko'zda tutildi.

1970-yili sotsializm qurmoqchi bo'lgan kuchlarni birlashtirgan ittifoq – xalq fronti **Chili**da hokimiyat tepasiga keldi. Xalq fronti Chili kommunistik, sotsialistik va radikallar partiyasi ittifoqi edi. **1970-yil 4-sentyabr**da Chilida o'tkazilgan saylovda Xalq fronti nomzodi **S.Alende** g'alaba qozondi. Agar Kubada qurol kuchi bilan hokimiyatni egallagan kuchlar sotsializm qurgan bo'lsalar, Chilida S.Alende hukumati konstitutsiyaviy yo'l bilan sotsializm qurishga kirishdi. Xalq fronti hukumati mamlakatdagi kuchlar nisbatini hisobga olmagan holda inqilobiy islohotlarni amalga oshira boshladi. Hatto o'rta va mayda korxonalar ham milliylashtirila boshlandi. Bu esa aholi o'rta tabaqalarining Xalq frontidan yuz o'girishiga olib keldi. Qolaversa, yirik sarmoyadorlar hukumatga qattiq qarshilik ko'rsatdi. AQSh hukumatga tazyiq o'tkaza boshladi. Chili qurolli kuchlari

S.Alendeni qo'llab-quvvatlamadi. **1973-yili** Chili parlamenti S.Alende hukumatini qonundan tashqari deb e'lon qildi. **1973-yil 11-sentyabr**da qurolli kuchlar harbiy to'ntarish o'tkazdilar. Mamlakatda **A.Pinochet**ning harbiy diktaturasi o'rnatildi (**1973 – 1990**).

Shu tariqa Lotin Amerikasi davlatlarida harbiylarning hokimiyatni egallashlariga keng yo'l ochildi. Harbiy diktatorlar (**Braziliya, Chili, Boliviya, Urugvay, Paragvay** va h.k.) o'z rejalarini izchillik va qattiqqo'llik bilan amalga oshira boshladilar. Konstitutsiyaviy demokratik tartibga amal qilgan davlatlarda esa **80-yillar**gacha modernizatsiyalash avvalgi milliy islohotchilik ruhida davom etdi. Natijada **1980-yili** Lotin Amerikasi davlatlarining yalpi ichki mahsuloti **1960-yil**ga nisbatan **3 baravar** ko'paydi. Ayni paytda, tashqi qarzlar ham tez ortib bordi. Agar **1970-yili** mintaqa davlatlari qarzi **20 mlrd dollar**ni tashkil etgan bo'lsa, **80-yillar**da bu ko'rsatkich **400 mlrd dollar**ni tashkil etdi.

AQSh harbiy to'ntarishlarga qarshi chiqmadi. Faqat **J.Karter** davrida to'ntarishlarga munosabat o'zgardi. Chunki J.Karter inson huquqlari masalasini o'z siyosatining asosiy masalalaridan biri deb e'lon qilgandi. Bu oxir-oqibat harbiy to'ntarishlarning barham topishini muqarrar qilib qo'ydi. **80-yillar** davomida harbiy-diktatorlik hukumatlari birin-ketin tarix sahnasidan keta boshladi. *1980-yili Peruda, 1982-yili Boliviyada, 1983-yili Argentinada, 1985-yili Gvatemala, Gonduras, Braziliya va Urugvayda, 1989-yili Salvador va Paragvayda, 1990-yili esa Chilida harbiy diktatura barham topdi. Paragvayda general Stresner diktaturasi 35 yil, Chilida A.Pinochet diktaturasi 17 yil davom etdi.*

Faqat ikki davlat (**Gaiti va Kuba**)dan boshqa barcha davlatlarda vakillik demokratiyasi qaror topdi. *1993-yili Chilida Eduard Frey, 2000-yili Rikardo Eskobar, 1999-yili Venesuelada Ugo Chaves hukumatlari o'rnatildi.* Yangi hukumatlar davlat korxonalarini chet elga sotishga majbur bo'ldilar. Davlatning kapital mablag' sarflash hajmi kamaydi. Ijtimoiy soha xarajatlari qisqartirildi. Ish haqi muzlatildi. Oqibatda aholi turmush darajasi pasaydi. **1992-yil**ga kelib mintaqa aholisining **46 foizi** (jami aholi **442 mln**) kambag'allik darajasi chegarasidan pastda yashadi. Narkobiznes va terrorizm kuchaydi. **1993 – 1994-yillar**dan Kuba rahbariyati ham reallikka tik qaray boshladi. Mamlakatda iqtisodiy islohotni amalga oshirishga kirishildi. Chet el sarmoyasi ishtirokida qo'shma korxonalar qurilishi rag'batlantirila boshlandi. Mamlakatda chet el valyutasining muomalada bo'lishiga, mayda tadbirkorlikka va chakana savdoga ruxsat etildi.

Braziliya va **Argentina** o'rtasida **1986-yili** imzolangan ittifoq asosida

1991-yili «Janubiy Amerika umumiy bozori» tuzildi. Ayni patda, mintaqa davlatlari AQSh bilan iqtisodiy integratsiya masalasiga ham jiddiy e'tibor bilan qaradilar. **1992 – 1994-yillari AQSh, Kanada** va **Meksika** o'rtasida **«Shimoliy Amerika erkin savdo zonasi»** tashkil etilgani bu boradagi muhim qadam bo'ldi.

27.3. BUYUK BRITANIYA

Urushning Buyuk Britaniyaga ta'siri. Buyuk Britaniya jahon urushi g'oliblaridan biri bo'lsa-da, urush uni ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham harbiy jihatdan zaiflashtirdi. Uning harbiy xarajatlari **25 mlrd funt sterling**ni tashkil etdi. Milliy boyligining **1/4 qismi**ni yo'qotdi. Tashqi qarz **3,3 mlrd funt sterling**ni tashkil etdi. Faqat AQShdan emas, o'z dominionlaridan ham qarz bo'lib qoldi. Chet ellarga joylashtirgan sarmoyasining **1/4 qismi**, savdo flotining **30 foiz**idan ajraldi. Import eksportdan oshib ketdi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi urushdan oldingi darajaning **90 foiz**ini tashkil etdi. U jahon va imperiya bozorlaridan AQSh tomonidan siqib chiqarila boshladi. Urush g'olibining bunday ahvoliga U.Cherchill **«Zafar va fojia»** deb baho bergandi.

Buyuk Britaniyaning ichki siyosati. **1945-yil 5-iyul**da Buyuk Britaniyada parlament saylovlari bo'lib o'tdi. Unda U.Cherchill partiyasi (Konservatorlar partiyasi) mag'lubiyatga uchradi. Hokimiyat jilovi **Leyboristlar partiyasi** qo'liga o'tdi, u parlamentdagi o'rinlarning **2/3 qismi**ni egalladi. Leyboristlar o'z saylovoldi dasturini **«Kelajakka boqish»** deb ataganlar. *Dasturda demokratik sotsializmni qurish maqsadi ilgari surildi. Bunday sotsializm islohotlar yo'li bilan qurilishi e'lon qilindi.* Ularning sotsializmi farog'at davlatining aynan o'zi edi. **27-iyul**da **K.Ettli** boshchiligida tuzilgan leyboristlar hukumati (**1945 – 1951**) saylovoldi dasturini amalga oshirishga kirishdi. Hukumat jiddiy islohotlar o'tkazdi. *Buyuk Britaniya banki po'lat, ko'mir va gaz, elektroenergiya sanoatini, telegraf va radioaloqa, fuqaro aviatsiyasi, suv va temir yo'l transportini milliylashtirdi.* Milliylashtirish sotib olish yo'li bilan amalga oshirildi. **1945 – 1948-yillari** fuqarolarni himoya qilish va sug'urtalashning kompleks kafolatli tizimi yaratildi. **10 mln ishchi**ning ish haqi oshirildi. **1948-yil**dan tekin meditsina xizmati joriy etildi. Arzon uy-joylar qurilishi boshlandi. **1927-yili** qabul qilingan reaksion ruhdagi kasaba uyushmalari to'g'risidagi qonun bekor qilindi. **1949-yili** Buyuk Britaniya parlamentining Lordlar palatasi huquqini qisman cheklash to'g'risida qonun qabul qilindi. *Unga ko'ra, parlamentning quyi palatasi ma'qullagan qonun loyihasini Lordlar palatasi tasdiqlamay ushlab turish muddati 2 yildan 1 yilga tushirildi.*

Hukumat **«Marshal rejasi»**ga ko'ra **1948 – 1950-yillari 3 mlrd dollarlik** yordam oldi. **1948-yili** sanoat ishlab chiqarishi hajmi urushdan oldingi darajadan oshdi. Biroq moliyaviy inqirozga ham duch kelindi. Bunga AQShning **«Lend-liz»** savdosini to'xtatgani, eksportdan keladigan foyda import tovarlari qiymatini ko'zlangan darajada qoplamasligi, **1949-yili** funt sterling qiymatini AQSh dollari qiymatiga nisbatan kamaytirishga majbur bo'lingani (*1949-yilgacha 1 f.s. qiymati 4 dollarga teng edi. Endi uning qiymati 2,8 dollarga teng bo'lib qoldi*), tashqi qarz uchun foiz to'lovlari sabab bo'ldi. Boz ustiga, iqtisodiyotdagi davlat sektorini bir maromda ushlab turish ham katta daromad talab etmoqda edi. Oqibatda hukumat ijtimoiy sohada belgilangan tadbirlar uchun zarur mablag'larga ega bo'lolmadi. Bu hol **1951-yil 25-oktyabr**da o'tkazilgan navbatdagi parlament saylovida konservatorlar g'alabasini ta'minladi. U.Cherchill yana hukumat tuzdi. Hukumat **1945-yil**gi mag'lubiyat sabablarini hisobga oldi. Shu tufayli ijtimoiy himoya tizimini bekor qilmadi. Biroq **«Mamlakatni moliyaviy sog'lomlashtirish dasturi»**ga ko'ra, bu soha xarajatlari birmuncha qisqartirildi.

Po'lat ishlab chiqarish va transport davlat tasarrufidan chiqarildi. Chetdan oziq-ovqat va sanoat mahsulotlari keltirish **350 mln funt sterling**ga kamaytirildi. Natijada oziq-ovqat mahsulotlari narxi ko'tarildi. Eksport qisqardi. **1952-yili** Buyuk Britaniya yadro quroliga ega bo'ldi. Mustamlakachilik imperiyasining yemirilishi davom etdi. Ichki va tashqi siyosatdagi qiyinchiliklar U.Cherchillni **1955-yil aprel**da iste'fo berishga majbur etdi. Konservatorlar hukumatni yana **9 yil** boshqardilar. U.Cherchilldan so'ng **A.Iden (1955 – 1957)** va **G.Makmillan (1957 – 1963)** hukumatni boshqardi.

1957 – 1958-yillari mamlakat ishlab chiqarishi **2 foiz**ga kamaydi. Harbiy xarajatlar oshib bordi. Natijada asosiy sarmoyani yangilash jarayoni sekinlashdi. Oqibatda jahon bozorida GFR uni **3-o'rin**ga surib qo'ydi. G.Makmillan hukumati vaziyatni o'nglashga urindi. Xususiy sanoat moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. Milliy daromadda davlatning hissasi oshishiga erishildi. **1962-yili** Iqtisodiy rivojlanish milliy kengashi tuzildi. Kengash **1961 – 1965-yillar**ga mo'ljallangan **besh yillik reja**ni ishlab chiqdi va hukumat uni tasdiqladi. Biroq rejani hayotga tatbiq etishga erishilmadi. Ijtimoiy sohani mablag' bilan ta'minlash og'irlashdi. Natijada hukumat kvartira haqi ustidan nazoratni bekor qildi. Ish haqi muzlatildi. Ayni paytda, imperiya yemirildi. Leyboristlar hukumat siyosatini qattiq tanqid qildi va **1951 – 1964-yillar** oralig'idagi yillarni **«bekor o'tgan 13 yil»** deb atadi.

1964-yilgi saylovda Leyboristlar partiyasi g'alaba qozondi. Partiya rahbari **T.Vilson** boshchiligida yangi hukumat tuzildi. **1965-yili** parlament birinchi **«milliy besh yillik iqtisodiy dastur»**ni qabul qilishga erishdi. Mamlakat moliyaviy ahvolini muqimlashtirish maqsadida ish haqi va narxning o'sishini *«oqilona»* cheklab qo'yish siyosatini yurita boshladi. *Bu siyosat narx-navo va daromadlar siyosati deb nom oldi.* Dastlab mazkur tadbir ixtiyoriylik asosida amalga oshirilgan bo'lsa, **1966-yil**dan hukumatning ish haqini muzlatishga oid qarori bilan amalga oshirildi. G.Vilson hukumati sanoat ishlab chiqarishi yiliga **5 foiz** o'sishini rejalashtirgan bo'lsa, amalda **2,3 foiz**dan oshmadi. G.Vilsonning mamlakatni «Umumiy bozor»ga a'zolikka qabul qildirish yo'lidagi urinishlari behuda ketdi. Fransiya uni AQSh bilan haddan tashqari bog'langanlikda ayblab «Umumiy bozor»ga qabul qilinishiga qarshilik ko'rsatdi.

1970-yil 18-iyunda o'tkazilgan saylovda konservatorlar g'alaba qozondi. **E.Xit** boshchiligida hukumat tuzildi. E.Xit hukumati davlatning moliyaviy ahvolini yaxshilash maqsadida ijtimoiy xarajatlarni kamaytirdi. Fermerlarga yordam puli berish to'xtatildi. **«Narx-navo va daromadlar»** siyosati bekor qilindi. **1971-yili «Mehnat munosabatlari islohoti to'g'risida»** qonun qabul qilindi. Qonun tred-yunionlarning huquqini cheklab qo'ydi. **1973 – 1974-yillar qishi**da tog'-kon sanoatida inqiroz yuz berdi. Shunday sharoitda E.Xit yangi parlament saylovi belgilashga majbur bo'ldi.

1974-yil 28-fevraldagi saylovda leyboristlar g'alaba qozondi. **G.Vilson** yana bosh vazir lavozimini egalladi. *U «Narx-navo va daromadlar» siyosatining yangi variantini qo'lladi. U «ijtimoiy shartnoma» degan nom oldi.* Bu hukumat va tred-yunionlar o'rtasidagi shartnoma edi. *Unga ko'ra, tred-yunionlar ish haqini 5 foizgacha oshirish talabidan tiyilib turish, hukumat esa narx-navo o'sishini to'xtatib turish majburiyatini oldi.* Biroq **1976-yili** funt sterling qiymatining yana pasaytirilishi hukumat harakatlarini yo'qqa chiqardi. G.Vilson o'z ixtiyori bilan iste'fo berishga majbur bo'ldi. Uning o'rnini **J.Kallagen (1976 – 1979)** egalladi. Biroq u ham ahvolni o'nglay olmadi. *1979-yili ishsizlar soni 1935-yildan keyin birinchi marta 2 mln kishiga yetdi.*

Boz ustiga, J.Kallagen hukumati o'tkir ichki siyosiy muammo – **Shimoliy Irlandiya** muammosiga duch keldi. **1921-yili** Buyuk Britaniya bilan o'rtasida imzolangan shartnomaga ko'ra, Shimoliy Irlandiya Buyuk Britaniya tarkibida qolgandi. Uning aholisi, asosan, protestantlardan iborat bo'lib, katoliklar ozchilikni tashkil etardi. Protestantlar katoliklarni har jihatdan kamsitib keldilar. **1968-yili** katoliklar o'z haq-huquqlari

uchun kurash boshladilar. Natijada Shimoliy Irlandiyada tartibsizliklar boshlandi. Bunga javoban hukumat u yerga harbiy qism kiritdi. Katoliklarning **«Irlandiya Respublika armiyasi»** deb ataluvchi terrorchi tashkiloti ingliz soldatlariga qarshi terror o'tkaza boshladi. Bu terrorchi tashkilot **Olster shahri**ni Irlandiya Respublikasiga qo'shish uchun kurashdi. Bunga javoban protestantlarning yashirin harbiy tashkiloti ham kurashga kirishdi. Har ikki tomon tartib o'rnatish uchun yuborilgan ingliz soldatlarini nishonga ola boshladi.

Mamlakatdagi keskin vaziyat leyboristlar mavqeyiga salbiy ta'sir etdi. Oqibatda **1979-yili** o'tkazilgan saylovda mag'lubiyatga uchradi. *Konservatorlar o'z lideri* **M.Tetcher** *boshchiligida yangi hukumat tuzdi.* Konservatorlar surunkasiga **18 yil** davomida hokimiyat tepasida turdilar. *1979 – 1990-yillar oralig'idagi 11 yil tarixga «Margaret Tetcher davri» nomi bilan kirdi.* Konservatorlar saylovgacha **«To'g'ri yondashuv»** deb atalgan dastur ishlab chiqdilar. Unda mamlakat qudratini tiklash, iqtisodiy tanglik va inflyatsiyani tugatish asosiy vazifa qilib qo'yildi. M.Tetcher davlat byudjeti tanqisligiga yo'l qo'yib bo'lsa ham keng ijtimoiy tadbirlarni zarur mablag' bilan ta'minlashdan voz kechdi. Muomalada ortiqcha naqd pulning bo'lishiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rdi. Buning uchun byudjet xarajatlari qisqartirildi. Shu sababli inflyatsiya pasayishi hamda iqtisodga ko'proq sarmoya sarflash uchun sharoit yaratildi. *Mehnat unumdorligi bo'yicha Yevropada 1-o'ringa chiqdi.*

Hukumat kam samarali va zarar ko'rib ishlovchi korxonalarni saqlab turish uchun mablag' ajratishni to'xtatdi. Davlat mulkini xususiylashtirish amalga oshirildi. Bu tadbir byudjetga **28 mlrd f.s.** olib keldi. Millionlab fuqarolar firma va korxonalarning aksiyadorlariga aylandi. Katta yoshdagi aholining **25 foizi** turli aksiyalarga ega bo'ldi. Natijada **1,1 *mln* oila** *imtiyozli ravishda turarjoy sotib olishga erishdi.* **1990-yil**ga kelib **65 foiz oila** o'zining shaxsiy uy-joyiga ega bo'ldi. Mamlakat aholisining **2/3 qismi** o'rta tabaqaga aylandi. *80-yillarda 2,5 mln yangi ishchi o'rni vujudga keltirildi.* Ishsizlar soni keskin kamaydi. Bu omillar **1983, 1987** va **1991-yil**gi saylovlarda Konservatorlar partiyasi g'alabasini ta'minladi.

Biroq **90-yillar**da vaziyat o'zgardi. Kamomadsiz byudjetni uzoq vaqt saqlab turib bo'lmadi. Inflyatsiya va ishsizlik yana kuchaydi. *Hukumat daromadidan qat'i nazar 18 yoshdan yuqori barcha fuqarolarni soliqqa tortish yo'li bilan vaziyatdan chiqmoqchi bo'ldi.* Bu ommaviy norozilikni keltirib chiqardi. Shunday sharoitda M.Tetcher o'z xohishi bilan iste'foga chiqdi. Yangi bosh vazir **J.Meyjor** bunday soliqni bekor qildi. U **«Teng**

imkoniyatlar jamiyati» barpo etish dasturini ilgari surdi. Biroq ko'zlangan maqsadga erishilmadi.

1997, 2001-yilgi saylovlarda leyboristlar g'alaba qozondilar. **T.Bler** boshchiligida hukumat tuzildi. Leyboristlar qiyin siyosiy muammolarga duch keldi. **Shotlandiya, Uels** mahalliy millatchilari **1997 – 1998-yillari** o'z parlamentlarini tuzdilar va muxtoriyat e'lon qildilar. Irlandiya muammosi yana murakkablashdi. Katoliklar va protestantlar to'qnashuvi davom etdi. **1998-yili** hukumat tomonlar o'rtasidagi munosabatni kelishtirishga erishdi. Biroq **2001-yili** vaziyat yana keskinlashdi. **2005-yil**gi saylovlarda T.Bler yana g'alaba qildi. Ammo vaziyat keskinlashib, **2007-yil iyun**da o'rnini **Gordon Braun**ga bo'shatishga majbur bo'ldi.

Tashqi siyosat. Buyuk Britaniya dunyoda yetakchilikni AQShga topshirgan bo'lsa-da, yetakchi davlatlardan biri bo'lib qolaverdi. Sovuq urushda asosiy rollardan birini o'ynadi. Sobiq mustamlakalariga birin-ketin mustaqillik berishga majbur bo'ldi. **1949-yili NATO**ni tashkil etishda faol qatnashdi. Germaniya muammosi masalalarida AQSh bilan hamkorlik qildi. **1950-yil**gi Koreya urushida AQSh tarafida turib qatnashdi. Buyuk Britaniya hududida AQSh harbiy bazasi vujudga keltirildi. **1954-yili** GFRni qurollantirish va uni NATOga tortish to'g'risida imzolangan **Parij** va **London bitimlari** tashabbuskorlaridan biri bo'ldi. **1957-yili** o'z hududiga AQShning o'rta masofaga uchuvchi raketalarini joylashtirishga ruxsat berdi. Shu yilning **15-may**ida **vodorod bombasi**ni sinovdan o'tkazdi.

60-yillar boshlariga kelib mustamlakachilik imperiyasi quladi. Bu Yevropa integratsiyasida ishtirok etish masalasini qo'ydi. Buyuk Britaniya **1963-yili** yadro qurollari sinovini qisman taqiqlash to'g'risidagi shartnomani ishlab chiqishda qatnashdi. AQShning Vyetnamga qarshi urushini qo'llab-quvvatladi. **1966-yili ANZYUS** (Osiyo – Tinch okean kengashi) ni tuzish to'g'risida bitim imzoladi. **1971-yili** «Umumiy bozor»ga kirish shartlari haqida bitim imzolandi. **1973-yili** esa uning a'zoligiga qabul qilindi. AQSh va Hamdo'stlik mamlakatlari bilan yaxshi munosabatni saqlab qoldi.

1982-yil mayda **Argentina** o'z qo'shinini Janubiy Atlantikadagi **Maklend orol**iga tushirganida, keskin harakat qildi. Bu orol asli Argentinaga qarashli bo'lib, bir vaqtlar Buyuk Britaniya uni qo'shib olgandi. Buyuk Britaniya orolga o'z qurolli kuchlarini yubordi va u yerda bayrog'ini qayta tikladi. M.Tetcher Yevropada mamlakatning rahbarlik rolini tiklashga zo'r berib harakat qildi. «Umumiy bozor»da deyarli har bir masalada o'zining alohida fikriga ega bo'ldi. Chunonchi, yevroni joriy etishga qarshilik

bildirdi. J.Meyjor hukumati AQShning Iroqqa qarshi harbiy harakatlarini qo'llab-quvvatladi va unda Buyuk Britaniya ham ishtirok etdi.

1991-yili Buyuk Britaniya **Maastrixt shartnomasi**ga qo'shildi. **2002-yili** AQShning **Afg'oniston**ga urushida qatnashdi. **Iroqqa** o'z qo'shinlarini yubordi. Terrorizmga qarshi kurashdi. Bunga javoban **2005-yil iyun**da Buyuk Britaniyada qator portlashlar o'tkazildi. **60 dan ortiq kishi** halok bo'ldi. Politsiya nazorati kuchaytirildi.

27.4. FRANSIYA

Ikkinchi jahon urushining Fransiya uchun oqibatlari. Urush Fransiyaga juda katta talafot yetkazdi. Okkupatsiya natijasida **1875-yili** tuzilgan **Uchinchi Respublika** barham topdi. Moddiy talafot **1440 mlrd frank**ni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishi urushdan oldingi daromadga nisbatan **62 foiz**, qishloq xo'jaligi **50 foiz** kamaydi. Frankning qiymati **6 baravar** pasaydi. **100 mingdan ortiq** sanoat va savdo korxonalari sindi. Ishsizlar soni **600 ming**dan ortdi. Imperiya barham topa bordi.

To'rtinchi Respublikaning qaror topishi. Urushdan keyingi Fransiya tarixi **3 davr**ga bo'linadi: *1. Vaqtinchalik rejim davri (1944-yil sentyabr – 1946-yil); 2. To'rtinchi Respublika davri (1946 – 1958); 3. Beshinchi Respublika davri (1958-yildan hozirgacha).* Vaqtinchalik rejim davri Fransiya mustaqilligi tiklanganidan to mamlakat konstitutsiyasi qabul qilinguncha davom etdi. Bu davrda mamlakatni general **Sharl de Goll** boshchiligidagi muvaqqat hukumat boshqardi. De Goll **«Ozod Fransiya»** tashkiloti rahbari edi. **1945-yil oktyabr**da yangi konstitutsiyani tayyorlovchi Ta'sis majlisiga saylov o'tkazildi. Saylovda, asosan, **3 ta partiya** (*Fransiya Kommunistik partiyasi, Fransiya Sotsialistik partiyasi va Xalq Respublikachilar partiyasi*) eng ko'p ovoz oldi. Yangi tuzilgan hukumatni yana de Goll boshqardi. Har uchala partiya parlament respublikasi bo'lishi tarafdori edilar. De Goll esa AQSh namunasidagi prezidentlik respublikasi uchun kurashdi. Biroq uning maqsadi amalga oshmadi. **1946-yil 13-oktyabr**da yangi konstitutsiya qabul qilindi. Shu tariqa **To'rtinchi Respublika** vujudga keldi.

To'rtinchi Respublikaning ichki va tashqi siyosati. **1948-yil o'rtalari**da sanoat ishlab chiqarishi urushdan oldingi darajaga yetdi. Bu hol **1949-yili** iste'mol tovarlari taqsimoti tizimini bekor qilishga imkon berdi. Iqtisodiy rivojlanishning samarali choralaridan biri milliylashtirishdir deb o'ylagan hukumat yirik korxonalarni va butun-butun sohalarni sotib oldi. *Elektr stansiyalar, ko'mir konlari, aviatsiya va sug'urta kompaniyalari,*

Reno avtomobil zavodi va boshqalar shular jumlasidan edi. Biroq ishlab chiqarish o'sish sur'ati **GFR va Italiya**ga nisbatan past bo'ldi. Fransiya tashqi siyosatida **Yevropa integratsiyasi** muhim o'rin tutdi, **NATO**ga a'zo bo'ldi. Fransiya tashabbusi bilan **1951-yili «Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati»**ga ilk qadam qo'yildi. **1952-yili Parij**da **«Yevropa mudofaa hamkorligi»** haqida shartnoma imzolandi. Bu amalda GFRni qayta qurollantirish uchun yo'l ochdi. *1955-yili GFR NATOga qabul qilingach, SSSR 1944-yili imzolangan Sovet – Fransiya shartnomasini bekor qildi.*

Fransiya mustamlakalardagi ozodlik kurashlarini kuch bilan bostirishga urindi. **1946-yil dekabr**da o'z mustaqilligini e'lon qilgan **Vyetnam**ga qarshi urush **8 yil** davom etdi va **1954-yili** Fransiyaning mag'lubiyati bilan tugadi. Shu yili **Jazoir**da urush harakatlari boshlandi. Jazoir Fransiyaning okeanorti o'lkasiga aylantirilgandi, u yerda **1 mln fransuz** yashardi. Ular Jazoirga mustaqillik berilishiga qarshi edilar. Ularni **1956-yili Marokash va Tunis**ga mustaqillik berilgani tashvishga solib qo'ygandi. *1954-yil boshlangan Jazoir urushi eng qonli va shafqatsiz urush bo'ldi.* Urush mamlakat xazinasi bo'shab qolishiga olib keldi. Shunday sharoitda Jazoirdagi fransuz harbiylari va mustamlakachi fanatiklar isyon boshladi. Jazoirdagi fransuz armiyasi **250 ming kishi**ni tashkil etardi. Isyonchilar de Gollni hokimiyatga qaytarishni talab etdilar. Ularning fikricha, de Goll Jazoirning Fransiyaga qaramligini saqlab qolishga qodir yagona shaxs edi. Fransiyaning boshqa aholisi uchun esa de Goll Fransiyani harbiy diktaturadan saqlab qoluvchi yagona shaxs edi. De Goll hokimiyatga qaytish uchun o'ziga favqulodda vakolatlar berilishi hamda konstitutsiyaviy islohotlar o'tkazishga ruxsat etilishi shartlarini qo'ydi. Fransiya Milliy majlisi (parlament) rozi bo'ldi va **1958-yil 1-iyun**da de Goll hokimiyatni egalladi. Shu tariqa To'rtinchi Respublika ham barham topdi.

Beshinchi Respublika. **1958-yil 28-sentyabr**da Fransiyada yangi konstitutsiya qabul qilindi. Bu **Beshinchi Respublika** vujudga kelishi ham edi. **21-dekabr**da de Goll prezident etib saylandi. Yangi konstitutsiya parlament huquqlarini chekladi, prezident vakolatlarini kengaytirdi. Fransiya prezidentlik respublikasiga aylandi. *Butun hokimiyat deyarli prezident qo'lida to'plandi. U davlat hamda ijroiya hokimiyat boshlig'i, qurolli kuchlar oliy bosh qo'mondoni ham edi.* Shunday qilib, mamlakatda de Gollning shaxsiy hokimiyati o'rnatildi. Mamlakatda ilmiy-texnika yutuqlari keng joriy etildi. *Sanoatning yangi tarmoqlari: atom, radioelektronika va raketa qurilishi vujudga keltirildi.* Modernizatsiyalash jadal sur'atlarda o'tkazildi va **60-yillar**da nihoyasiga yetkazildi. Oqibatda Fransiya zamonaviy industrial davlatga aylandi. Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha Buyuk

Britaniyani ortda qoldirib, jahonda **5-o'rin**ni mustahkam egalladi. Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash ham nihoyasiga yetdi. Mamlakat G'arbiy Yevropada bu borada yetakchi davlatga aylandi.

Tashqi siyosatda **3 asosiy vazifa** qo'yildi: *birinchisi, Fransiyaning buyukligini tiklash; ikkinchisi, mamlakat mustaqilligini mustahkamlash; uchinchisi, AQShning Yevropadagi ta'sirini imkon qadar bo'shashtirish.* **1960-yili** Fransiya yadroviy davlatga aylandi. **1960-yili** Afrikadagi davlatlarga mustaqillik berildi. Bu qit'a xaritasida **14 ta yangi davlat** vujudga keldi. De Goll **Jazoir milliy ozodlik fronti** bilan muzokara boshladi. Uning bu yo'li o'ta mustamlakachi kuchlar qarshiligiga uchradi. Biroq armiya de Gollga sodiq qoldi. Natijada armiyada isyon boshlashga urinish barbod bo'ldi. *1962-yil 18-martda Jazoirga mustaqillik berish haqida bitim imzolandi. De Goll AQShning Vyetnamdagi agressiyasini qoraladi. 1966-yili Fransiyani NATOdan chiqardi. AQShning Fransiya hududidagi harbiy bazasini tugatishga erishdi. YIHga Buyuk Britaniyaning qabul qilinishiga qarshi chiqdi. GFR bilan yaqinlashganning dushmani bo'lib qolaverdi.*

May inqirozi. **1968-yil may**da mamlakatda siyosiy inqiroz yuz berdi. *Inqiroz Parij talabalari namoyishidan boshlandi. 7-mayda ular ta'lim tizimini tubdan qayta qurish, sohaga xarajatlarni oshirish va stipendiyalarni to'lash talabi bilan namoyishga chiqqandilar.* Kasaba uyushmalari ularni qo'llab-quvvatladi. Talabalar universitet binosini egallab oldilar. O'ta radikal va o'ta so'l kuchlar esa talabalarni Yelisey saroyini ham egallab olish uchun gijgijlay boshladi. Oqibatda hukumat namoyishchilarga qarshi kuch ishlatdi. **3 mingdan ortiq talaba** yarador qilindi va hibsga olindi. **13-may**da esa yuz minglab parijliklar de Goll tartibiga qarshi namoyish o'tkazdilar. Mamlakatda **4 hafta** davom etgan umumiy ish tashlashlar boshlandi. Ularda qariyb **10 mln kishi** ishtirok etdi. *Hukumat kasaba uyushmalarining ish haqi, nafaqalarni oshirish, ish haftasini qisqartirish kabi talablarini qondirdi.* **Iyun oyi oxiri**da ishchilar ish joylariga qaytdilar. May inqirozi oxir-oqibatda prezident de Gollni iste'fo berishga majbur etdi. **1969-yil aprel**da de Goll siyosatdan ketdi. U **1970-yili 80 yosh**da vafot etdi.

Fransiya keyingi yillarda. **1969-yil iyun**da bosh vazir lavozimida ishlayotgan **J.Pompidu** mamlakat prezidenti etib saylandi. U saylovda de Goll partiyasi – **«Respublikani himoya qilish ittifoqi»**ning nomzodi sifatida qatnashdi. J.Pompidu de Gollning eng yaqin safdoshlaridan biri edi. J.Pompidu siyosatda o'zi tanlagan yo'lni **«vorislik va muloqot»** deb atadi. *Bu iboraning birinchisi de Goll siyosatining davom ettirilishini, ikkinchisi esa muxolifatchi kuchlar bilan ham hamkorlik qilishni anglatar-*

di. Ichki siyosatda J.Pompidu davlatning iqtisodiy hayotga aralashuvini kamaytirdi. Biroq ijtimoiy himoya sohasi bo'yicha qonunchilikni kuchaytirdi. Tashqi siyosatda **«muloqot»** tamoyiliga amal qildi. Ya'ni AQSh bilan yaqinlasha boshlandi. **1973-yili** Buyuk Britaniyaning YIHga qabul qilinishiga qarshilik qilmadi. Ayni paytda, tashqi masalalarda mustaqil siyosat yuritish yo'liga sodiq qolindi.

1974-yili J.Pompidu vafot etdi. **«Fransiya demokratiyasi uchun ittifoq»** (FDUI) partiyasi nomzodi **V.Jiskar d'Esten** prezident etib saylandi. Bu davrda mamlakatda **4 ta siyosiy partiya** faoliyat ko'rsata boshladi. Sobiq degollchilar va o'ng kuchlar **«Respublikani quvvatlash birlashmasi»** (RQB) partiyasiga birlashdilar. Avvalgi partiyalardan **Sotsialistik va Kommunistik partiya** o'zlarini saqlab qoldilar. Bu partiyalarning 2 tasi (**FDUI va RQB**) o'nglar, 2 tasi esa (**FSP va FKP**) so'llar deb atala boshladi. V.Jiskar d'Esten inqiloblarsiz, islohotlar yo'li bilan **«ilg'or liberal jamiyat»** qurish g'oyasini ilgari surdi. *Uning prezidentligi davrida minimal ish haqi eng ko'p darajada oshirildi.* Saylovda qatnashish yoshi **20 dan 18 yosh**ga tushirildi.

1981-yilgi saylovda Sotsialistik partiya nomzodi **F.Mitteran (1916 – 1996)** g'alaba qozondi va mamlakatni **14 yil** boshqardi. So'l kuchlar hukumati qator islohotlarni o'tkazdi. *Ish haqi oshirildi, ishsizlik va ko'p bolali oilalarga yordam ko'paytirildi, nafaqa va pensiyalar miqdori oshirildi. Yirik sarmoyalarga solinadigan soliq miqdori ko'paytirildi. Ish haftasi 39 soatga keltirildi. Pul to'lanadigan yillik mehnat ta'tili 5 haftaga uzaytirildi. 36 bank va metallurgiya, elektronika, kimyo, samolyotsozlik, harbiy sanoat sohalarini milliylashtirishga kirishildi. Umummilliy davlat organlari va vakolatlari qisqartirildi.*

Biroq bu tadbirlarni amalga oshirishda tez orada mablag' tanqisligiga duch kelindi. Natijada hukumat islohotni to'xtatishga va qattiq iqtisod siyosatiga o'tishga majbur bo'ldi. Hukumatning noizchil siyosati jamiyatda o'ta millatchi kuchlarning ta'siri ortishiga olib keldi. Ular **«Milliy frort»** (MF)ga birlashdilar. Bu tashkilot irqiy va milliy kamsitishni avj oldirdi. **1986-yil**gi parlament saylovida MF hatto **35 ta o'rin** egalladi. Shunday sharoitda sotsialist F.Mitteran o'ng partiya – RQB lideri **J.Shirak**ni bosh vazir etib tayinladi. J.Shirak hukumati milliylashtirilgan korxonalarni egalariga qaytara boshladi. Yirik sarmoyaga solinadigan soliqni kamaytirdi. Immigratsiyani chekladi. Tashqi siyosatda yagona Yevropani vujudga keltirish siyosatini davom ettirdi.

1995-yil 7-mayda o'tkazilgan saylovda J.Shirak g'alaba qozondi. **1997-yili** o'tkazilgan parlament saylovida esa so'l partiyalar g'alaba

qozondi. Bosh vazir lavozimini Sotsialistik partiya vakili egalladi. Hukumat ichki siyosatda neokonservatizm yo'lidan qat'iy bormoqda. J.Shirak prezidentlik muddatini **7 yildan 5 yilga** tushirish haqida qonun qabul qilinishiga erishdi. **2007-yil may**dagi saylovda **N.Sarkozi** prezidentlik lavozimini egalladi va ko'p o'tmay sohalarni rivojlantirish bo'yicha **16 ta komissiya** tuzdi. Tashqi siyosatda Yevropaning tobora birlashuvi uchun intilmoqda. *Bugungi Fransiya dunyoning eng taraqqiy etgan 7 davlatidan biri.* Qishloq xo'jaligi bilan aholining **6 foizi** shug'ullanadi. Oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha dunyoda AQShdan keyin **2-o'rin**da turadi. Aholisining **85 foizi** yollanma mehnat vakillari (*ishchilar, xizmatchilar, texnik ziyolilar*)dan iborat.

27.5. GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI

Urushning Germaniya uchun ta'siri. Germaniya urushda tor-mor etildi. Uning hududi deyarli kultepaga aylantirildi. Sanoat ishlab chiqarishi urushdan avvalgi darajaning **1/3 qismi**ga tushib qoldi. *Sharqiy Prussiyaning SSSRga berilishi, Polsha chegarasining Oder va Neyse bo'ylab o'tishi oqibatida bu hududlarda yashovchi 9 mln dan ortiq nemislar Germaniya ichkarisiga ko'chirildi.* Aholi turmush darajasi nihoyatda yomonlashdi. Eng og'iri – Germaniya mustaqilligini yo'qotdi. *Uning hududi 4 g'olib davlat okkupatsiya zonalariga bo'lindi. Bu ma'muriyatni okkupatsiya qiluvchi qo'shin bosh qo'mondoni boshqardi.* Butun Germaniyaga taalluqli masalalarni to'rt bosh qo'mondondan iborat **Nazorat kengashi** hal etardi. Kengash qarorlari **konsessus** asosida qabul qilinardi.

Germaniya 1945 – 1949-yillarda. Bu yillar Germaniya tarixida okkupatsiya tartibi hukm surgan davr hisoblanadi. Dastlab fashistlar ta'qib qilgan partiyalar: **Germaniya kommunistik partiyasi va Germaniya sotsial-demokratik partiyasi** yashirin sharoitda ishlash holatidan chiqdi. Yangi partiyalar ham vujudga keldi. **1945-yili Xristian demokratik ittifoqi** (XDI) tuzildi. Unga **K.Adenauer** rahbarlik qildi. Keyinroq XDIning Bavariya bo'limi – **Xristian sotsialistlar ittifoqi** (XSI) tuzildi. G'arbiy okkupatsiya zonasida **«Erkin demokratik partiya»** (EDP) ham tuzildi. XDI – XSI va GSDP eng yirik partiyalarga aylandi. Sharqiy okkupatsiya zonasida **1946-yili** GKP va GSDP birlashdi. Bu yangi partiya **Germaniya yagona sotsialistik partiyasi** deb ataldi. Okkupatsiya tartibi davrida **Birlashgan nemis kasaba uyushmasi** (BNKU) ham tuzildi.

Germaniyaning bo'linishi. «Sovuq urush» Germaniya taqdiriga ham ta'sir qildi. Potsdam konferensiyasi qarorlari bajarilmadi. Germaniyadan

tovon evaziga sanoat korxonalarini olib chiqib ketish to'xtatildi (U atigi **5 foiz**ga bajarilgandi). Bu SSSR va uning kechagi ittifoqchilari o'rtasidagi munosabatni keskinlashtirdi. Boz ustiga, G'arb davlatlari o'z okkupatsiya zonalarini birlashtirdilar. *1948-yil 20-iyunda separat pul islohoti o'tkazildi. Reyx marka o'rniga nemis markasi joriy etildi. Aholiga 60 markani yangi 60 markaga aylantirishga ruxsat berildi. Qolgan har 100 eski markani 6,5 yangi markaga almashtirish mumkin edi.* Pul islohoti o'tkazilishiga qarshi SSSR **G'arbiy Berlin**ni qamal qildi. Shu bahonada G'arb davlatlari o'z zonalarida Germaniya davlatini tezroq tuzishga harakat qildilar. **1948-yil sentyabr**da o'lka parlamentlari saylagan parlament kengashi chaqirildi. GFR konstitutsiyasi ishlab chiqildi. U **1949-yil 8-may**da qabul qilindi, hukumat tasdiqlagach **23-may**da kuchga kirdi. Konstitutsiya Germaniyani demokratik, federativ davlat deb e'lon qildi. Davlat hududi **10 ta o'lka**ga bo'lindi.

Boshqarish shakliga ko'ra GFR parlament respublikasi bo'lib qoldi. Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat **Federal parlament** deb ataldi. U ikki palatali edi. Quyi palata – **bundestag 4 yilga** saylangan. Yuqori palata – **bundestrat** esa o'lka parlamentlari tayinlaydigan vakillardan iborat bo'ldi. **Bonn** poytaxt deb e'lon qilindi. Davlat boshlig'i prezident edi. Biroq uning huquqlari cheklandi. U davlat va millat birligi ramzi bo'lib qoldi, xolos. **1949-yil avgust**da bundestagga birinchi saylov o'tkazildi. Unda XDI – XSI va GSDP deyarli bir xil o'rin egalladilar. **7-sentyabr**da bundestag GFR konstitutsiyasini tasdiqladi. **20-sentyabr**da XDI – XSI partiyasi EDP bilan koalitsion hukumat tuzdi. XDI nomzodi **75 yoshli K.Adenauer** kansler etib saylandi. **21-sentyabr**da GFRning tashkil topgani rasman e'lon qilindi.

Germaniya Demokratik Respublikasining tashkil topishi. SSSR okkupatsiya zonasi bo'lgan Sharqiy Germaniyada yangi davlat tuzishga kirishildi. *Bu davrda Sharqiy Germaniyada Germaniya yagona sotsialistik partiyasi, XDI, Liberal-demokratik partiya hamda Dehqonlar partiyasi faoliyat ko'rsatmoqda edi.* Bu partiyalar va jamoat tashkilotlari **Nemis milliy kengashi**ni sayladilar. **1949-yil 7-oktyabr**da Sharqiy Germaniya hududida **GDR** tuzilgani e'lon qilindi. Hukmron partiya (**GYSP**) syezdi **1952-yili** GDRda sotsializm qurish haqida qaror qabul qildi.

GFRning ichki va tashqi siyosati. K.Adenauer hukumati ichki siyosatining bosh vazifasi mamlakat iqtisodiyotini tezroq tiklash edi. Bu maqsadni ro'yobga chiqarish vositasi sifatida iqtisodiyotning **«Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligi»** modeli tanlandi. Bu model markazida tadbirkorning shaxsiy tashabbusi va erkin raqobat turardi. Davlatning

vazifasi, asosan, xususiy xo'jalik subyektlarining faoliyat yuritish shakli va qoidalarini belgilab berishdan va ularga qanchalik amal qilinayotgani ustidan nazoratni ta'minlashdan iborat bo'lardi. *Bu model davlatning, birinchidan, kuchli ijtimoiy siyosat yuritishini ham nazarda tutardi. Ikkinchidan, AQSh hukumati va sarmoyadorlari GFRga katta iqtisodiy yordam ko'rsatdilar.* Birgina «Marshal rejasi» doirasida **1948 – 1949-yillari 1,4 mlrd dollar** miqdorida yordam ko'rsatildi. Bu mablag' korxonalarni ilg'or texnologiya bilan qayta ta'minlash imkonini berdi. *Uchinchidan, harbiy xarajatlarning deyarli yo'qligi iqtisodiyotga zarur mablag' sarflashga imkon berdi.* Nihoyat, *nemis xalqi yuksak vatanparvarlik va tadbirkorlik xislatlarini namoyon etdi.* Bu omillar tez orada o'z samarasini ko'rsatdi. **1950-yil oxiri**ga kelib sanoat ishlab chiqarishi **1936-yil**gi darajaga yetdi.

1960-yilga kelib esa **2,5 baravar** o'sdi. *1950 – 1970-yillari gaz ishlab chiqarish 60 mln m^3 dan 19,7 mlrd m^3 ga, po'lat 14 mln tonnadan 54 mln tonnaga, avtomobil 306 mingdan 4 mln donaga o'sdi. Qishloq xo'jaligi ham yuksak sur'atlarda rivojlandi. G'alla hosildorligi 40 sentnerdan oshdi.* **50-yillar o'rtalar**iga kelganda GFRda oziq-ovqat muammosi to'la hal etildi. **1950 – 1964-yillar** oralig'ida jami milliy mahsulot **3 baravar** ko'paydi. GFR butun Germaniyaning urushdan oldingi darajasidan ko'p mahsulot ishlab chiqardi. Eksportning importdan doimo yuqori bo'lishi katta miqdorda valyuta zaxirasi to'plashga imkon berdi. Bu borada dunyoda AQShdan keyin **2-o'rin**ga chiqdi. **Flin, Tissen, Siteks** va boshqalarning harbiy-siyosiy konsernlari o'z kapitallarini urush davridagiga nisbatan **3 – 4 baravar** ko'paytirdilar. GFR iqtisodiyotidagi bu mislsiz o'zgarishlar **«german mo'jizasi»** nomini oldi.

K.Adenauer hukumati tashqi siyosatda G'arb davlatlari, birinchi navbatda, AQSh bilan yaqinlashish yo'lidan bordi. **1951-yili** uning hududida okkupatsiya tartibi bekor qilindi. *1954-yili GFRga 12 diviziya, harbiy aviatsiya va harbiy flotning cheklangan kuchlaridan iborat armiyaga ega bo'lishga ruxsat berildi.* **1955-yili** GFR **NATO**ga a'zo bo'ldi. **1956-yili** bundesverni (GFR armiyasi) **«Qurollarning yangi turlari bilan qurollantirish»** hamda **«Umumiy majburiy harbiy xizmat haqida»** qonunlar qabul qilindi. **1958-yili Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati** (YIH)ga a'zo bo'ldi. YIHga a'zo barcha davlatlar sanoat mahsulotining **44 foiz**ini ishlab chiqardi. K.Adenauer hukumati, ayni chog'da, Sharqqa nisbatan tan olmaslik siyosatini qo'lladi. Yevropada Ikkinchi jahon urushidan keyin tarkib topgan chegara o'zgarishlarini tan olmadi. GDRni sovet okkupatsiya zonasi deb hisobladi. *1955-yili e'lon qilingan «Xalshteyn doktrinasi»ga ko'ra, GFR GDRni tan olgan har qanday davlat bilan diplomatik aloqani*

to'xtatishini ma'lum qildi. Bu qoida faqat SSSRga tatbiq etilmadi. Chunki K.Adenauer SSSR bilan munosabatning o'ta yomonlashuvi GDRni qo'shib olish imkonini bermasligini bilardi. **1961-yil avgust**da GDR hukumati **Berlinning sharqiy qism**ini g'arbiy qismidan ajratib turuvchi devor qurishga majbur bo'ldi. U tarixga **«Berlin devori»** nomi bilan kirdi.

K.Adenauer siyosatidan norozilik kuchayishi natijasida **1963-yil oktyabr**da **87 yoshli** davlat rahbari iste'foga chiqdi. Uning o'rnini **Lyudvig Erxard** egalladi. Lekin iqtisodda pasayish ro'y berdi. **Yaponiya** GFRni taraqqiyotda quvib o'tdi. Norozilik kuchayib, **1966-yil oktyabr**da Erxard ham iste'fo berdi.

XDI – XSIning hokimiyatdan ketishi. **20 yillik** hukmronlikdan so'ng, **1969-yili,** XDI – XSI partiyasi parlament saylovida mag'lubiyatga uchradi va hokimiyat jilovini topshirishga majbur bo'ldi. GSDP EDP (Erkin demokratlar partiyasi) bilan hamkorlikda yangi hukumat tuzdi. Sotsial-demokrat **V.Brandt (1913 – 1992)** kansler lavozimini egalladi va uni **1974-yil may**gacha boshqardi.

XDI – XSI saylovda mag'lubiyatga uchrashiga quyidagi omillar sabab bo'ldi. *1966 – 1967-yillardagi ortiqcha ishlab chiqarish oqibatida ro'y bergan iqtisodiy inqiroz ishsizlikni keltirib chiqardi. Chetdan arzon ishchi kuchi ko'plab jalb etilgan bir sharoitda ishsizlikning ro'y berishi vaziyatni yanada chigallashtirdi. Boshlangan inflyatsiya esa iqtisodiy rivojlanish barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Boz ustiga, XDI – XSI ayrim rahbarlarining urush yillarida fashistlar bilan hamkorlik qilgani hamda partiya yetakchi rahbarlarining korrupsiya bilan shug'ullanganining aniqlanishi partiya obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatdi.* Ayni paytda, GFRning dunyoda iqtisodiy jihatdan eng qudratli davlatlardan biriga aylana borishi bu davlat tashqi siyosatini o'zgartirishini talab etmoqda edi. O'z qo'shnilari bo'lgan Sharqiy Yevropa davlatlarini tan olmaslik reallik bilan hisoblashmaslik edi. Chunki **60-yillar**da Sharqiy Yevropada tub o'zgarishlar bo'lishi uchun hali sharoit yetilmagandi.

Qolaversa, bu davrda Sharqiy Yevropa sotsialistik davlatlarida hukmron tartibni SSSR qattiq nazorat qilib turardi. **1968-yili Chexoslovakiya**ga Varshava shartnomasiga a'zo **5 davlat** armiyasining kiritilishi buni yana bir bor isbotladi. Bunday sharoitda Sharqiy Yevropa davlatlari bilan munosabatlarni eskicha davom ettirish mavjud keskinlikni yanada chigallashtirgan bo'lardi. Binobarin, hayot GFRning tashqi siyosatida tub o'zgarishlar qilishni talab etmoqda edi. XDI – XSI rahbariyati esa bunday o'zgarish bo'lishini aslo istamadi. Yuqorida qayd etilgan omillar XDI – XSIning hokimiyatdan ketishiga olib keldi.

Kichik koalitsiya hukumatining ichki va tashqi siyosati. GSDP bilan EDP tuzgan hukumat **«Kichik koalitsiya hukumati»** deb nom oldi. Hukumat «yangi sharqiy siyosat»ni amalga oshira boshladi. Unga ko'ra, GFR Sharqiy Yevropa davlatlarini tan oldi. **1970-yili SSSR, Polsha, Chexoslovakiya** va **1972-yil dekabr**da **GDR** bilan shartnomalar imzolandi. Ularda Ikkinchi jahon urushidan keyingi chegara o'zgarishlari tan olindi.

GDRning tan olinishi har ikki nemis davlati uchun **BMT**ga yo'l ochdi. Ular BMT a'zoligiga qabul qilindilar. **«Kichik koalitsiya»** GFR uchun ichki iqtisodiy vaziyat noqulay sharoitda hokimiyatga kelgandi. Dastlab iqtisodiy beqarorlik kuchayib ketishining oldini olishga erishildi. Biroq **1974 – 1977-yillar**dagi xalqaro miqyosdagi iqtisodiy inqiroz GFRni chetlab o'tmadi. Mahsulot ishlab chiqarish sur'ati yiliga **2 foiz**ga kamaya boshladi. Ishsizlar soni **3 mln** ga yaqinlashdi. Aholi xarid quvvati pasaydi. Shunday sharoitda GSDP iqtisodiy hayotga davlatning aralashuvi lozimligi masalasini o'rtaga qo'ydi. V.Brandtning raqiblari uni iqtisodiy islohotlarni amalga oshirmaslikda, harbiy xarajatlarni ko'paytirishda, kommunistlar bilan yaqinlashishda aybladi. Natijada **1974-yil may**da u iste'fo berdi. Hokimiyatga GSDPning boshqa lideri **G.Shmidt** keldi va **1982-yil kuz**igacha kanslerlik lavozimida turdi. **1980 – 1982-yillari** yana iqtisodiy inqiroz ro'y berdi. Ayni paytda, hukumat kuchli ijtimoiy himoya choralarini qo'llashga intildi. Biroq GSDP ittifoqchisi EDP bunga qarshi chiqdi. Bu partiya inflyatsiyani kamaytirish maqsadida ijtimoiy xarajatlarni kamaytirish zarur deb hisoblardi. Ikki partiya o'rtasidagi ixtilof ularni bo'lib yubordi va **1982-yili** kichik koalitsiya hukumati tarqalib ketdi. Natijada XDI – XSI va EDP ittifoqi tuzildi. Bu ittifoq yangi hukumat tuzdi. Uni mashhur siyosatchi **Gelmut Kol (1930-yili** tug'ilgan) boshqardi.

Germaniyaning birlashishi. **80-yillar**da GDRni chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqiroz chulg'ab oldi. Davlat byudjeti taqchilligi yildan yilga o'sdi. Davlat qarzi **20 mlrd dollar**dan oshdi. Jamiyatda totalitar tartib qaror topdi. GFRga qochib o'tuvchilar tobora ko'payib bordi. **1989-yil birinchi yarmi**da **350 ming kishi** GFRga qochib o'tdi. **7-oktyabr** – GDR tashkil topgan kun hukumatning rasmiy tadbirlariga qarshi namoyish kuniga aylandi. Shu tariqa GDRda inqilob boshlandi. **18-oktyabr**da davlat rahbari **E.Xonekker** iste'fo berdi. **9-noyabr**da «Berlin devori» qulatildi.

1990-yil 18-martda GDRda parlamentga o'tkazilgan birinchi erkin saylovda XDS partiyasi g'alaba qozondi. **1990-yil 1-iyul**da GDR hududida GFR markasi amal qila boshladi. *1990-yil 3-oktyabrda GDRning GFRga qo'shilishi haqidagi shartnoma kuchga kirdi.* Shu tariqa **41 yildan so'ng** Germaniyaning birlashuvi tinch yo'l bilan amalga oshdi. Bunda SSSR

rahbariyati nemislarning yagona Germaniyaga birlashishga bo'lgan intilishiga qarshilik ko'rsatib bo'lmaydi deb hisoblashi ham katta rol o'ynadi. Germaniyaning birlashuvi XDI – XSI va EDP partiyalari hamda kansler G.Kolning obro'sini yanada oshirib yubordi. G.Kol **«birlashuv jarayoni otasi»** degan nom oldi. G.Kol **18 yil** davomida hukumatni boshqardi. Biroq **1998-yil**gi parlament saylovida XDI – XSI mag'lubiyatga uchradi. *Buning asosiy sabablari ishsizlar sonining ko'payishi (ishga yaroqli har 10 nafar kishining bittasi ishsiz edi); hukumatning 3,2 mln kishi ish haqini 2 yil muddatga muzlatib qo'yishga, shuningdek, ijtimoiy xarajatlarni kamaytirishga qaror qilgani edi.*

Ayni paytda, yuqori doiralarda korrupsiyaga aloqadorlarning fosh etilishi, hatto G.Kolning o'zi ham moliyaviy ko'zbo'yamachiliklarda ishtirok etgani saylov natijalariga ta'sir etmay qolmadi. **1998-yil**gi parlament saylovida GSDP g'olib chiqdi. Sotsial-demokrat **G.Shryoder** kansler etib saylandi. **2002-yil**gi saylovda ham u kanslerlik lavozimini qayta egalladi. Hokimiyatda barqarorlik vujudga kelib, **2005-yil noyabr** saylovlarida GFR tarixida birinchi ayol – **Angela Merkel** kanslerlik lavozimiga keldi. Hozirgi davrda GFR dunyodagi eng rivojlangan davlatlardan biridir.

27.6. ITALIYA RESPUBLIKASI

Urush oqibatlari. Urush oqibati Italiya uchun Germaniya va Yaponiyaga nisbatan o'zgacharoq bo'ldi. Buning sababi Italiyaning **1943-yil**iyoq taslim bo'lgani, Mussolini fashistik diktaturasi ag'darilgani va yangi hukumat Germaniyaga qarshi urush e'lon qilgani edi. Ingliz-amerika qo'shinlari Italiyani taslim bo'lishga majbur etgan bo'lsa-da, okkupatsiya tartibi o'rnatmadilar. Urush italyan xalqi boshiga katta kulfatlar keltirdi. Ikkinchi jahon urushi frontlarida **0,5 mln askar** halok bo'ldi hamda bedarak yo'qoldi. **3 mln kishi** uy-joyidan ajraldi. **2 mln kishi** ishsiz qoldi. Sanoat ishlab chiqarishi **70 foiz**ga, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi esa **40 foiz**ga kamaydi. Mamlakat milliy boyligining **1/3 qismi**ni yo'qotdi. *1947-yil 10-fevralda imzolangan Parij tinchlik shartnomasiga ko'ra, Italiya mustamlakalaridan mahrum bo'ldi.*

Italiyada respublika o'rnatilishi. Mamlakat demokratik kuchlari respublika uchun kurashdilar. Chunki bu davrda Italiyada konstitutsiyaviy monarxiya tuzumi hukmron edi. Qirol **V.Emmanuel III** Mussolinini qo'llab-quvvatlab, monarxiya obro'sini to'kkandi. Bu davrda **3 ta siyosiy partiya** mavjud edi: *Xristian-demokratik (XDP), Sotsialistik (ISP) va Kommunistik (IKP) partiyalar. Ular fashizmga qarshi kurashda faol ishtirok*

etganlari tufayli katta obro' qozongandilar. XDP eng ta'siri kuchli partiya edi. Shu bois u parlament saylovida eng ko'p ovoz oldi va koalitsion hukumatni boshqardi. Qirol V.Emmanuel III **1946-yili** o'g'li **Umberto II** foydasiga taxtdan voz kechgan bo'lsa-da, bu hodisa monarxiyani saqlab qololmadi. **1946-yil 2-iyun**da Italiyada konstitutsiyaviy monarxiya tuzumi saqlanib qoladimi yoki u respublika bo'ladimi degan masalada referendum o'tkazildi. Unda **12,7 mln saylovchi** respublika uchun ovoz berdi (*10,7 mln saylovchi esa monarxiya uchun ovoz bergandi*). Shu tariqa Italiya Respublikasi vujudga keldi.

2-iyunda Ta'sis majlisiga ham saylov o'tkazilgandi. *Unda XDP 35 foiz (8,1 mln), ISP 20 foiz (4,7 mln) va IKP 19 foiz (4,3 mln) ovoz oldi.* Yangi tuzilgan koalitsion hukumatni XDP lideri **Alchido de Gasperi (1881 – 1954)** boshqardi va **1953-yil yozi**gacha hokimiyatda turdi. Bu partiyalar vakillari ishtirokida davlatning yangi konstitutsiyasi ishlab chiqildi. Konstitutsiya **1948-yil 1-yanvar**dan kuchga kirdi. *Konstitutsiyaga ko'ra, mamlakat prezidenti lavozimi joriy etildi. U davlat boshlig'i hisoblanardi va parlament har ikki palatasi (deputatlar palatasi va senat) qo'shma yig'ilishida 7 yil muddatga saylanardi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni 5 yil muddatga saylanadigan ikki palatali parlament amalga oshirardi. Deputatlar palatasida eng ko'p o'rinni egallagan partiya hukumat tuzish huquqiga ega bo'lardi.* **1948-yil aprel**da o'tkazilgan parlament saylovida XDP mutlaq ko'p (**12,7 mln**) ovoz oldi. A.de Gasperi endi bir partiyali hukumat tuzdi.

Hukumatning ichki va tashqi siyosati. Hukumat ichki siyosatda mamlakat iqtisodini rivojlantirishga birinchi darajali masala sifatida qaradi. **«Marshall rejasi»** asosida **1,3 mlrd dollar** miqdorida yordam berilishiga erishdi. U, asosan, yirik korxonalarni modernizatsiya qilishga va jihozlarni butunlay yangilashga sarflandi. Ayni paytda, yuksak taraqqiy etgan davlatlardan patent va litsenziyalar sotib olindi. Qudratli davlat sektori ham vujudga keltirildi. Bu omillar natijasida **50 – 60-yillar**da mamlakat iqtisodi gurkirab rivojlandi. Iqtisodiy o'sish sur'ati (yiliga **10 foiz**) jihatidan Yevropada GFRdan so'ng **2-o'rin**ga chiqdi. Shu tariqa **«Italiya mo'jizasi»** degan ibora paydo bo'ldi. U dunyoda eng rivojlangan yetti davlatning biriga aylandi.

Eksportning o'sishi Italiyaga qarzdan qutulish hamda milliy pul (**lira**) ning barqarorligiga erishish imkonini berdi. Fuqarolarning turmush farovonligi oshdi. Farog'at davlati qaror topdi. Ish haqi, ijtimoiy sug'urta tizimi, nafaqalar hajmi bo'yicha Italiya dunyoda oldingi o'rinlardan birida turadi.

Tashqi siyosatda Italiya, birinchi navbatda, G'arb davlatlari integratsiyasini himoya qildi. **1949-yil apreld**a **NATO**ga a'zo bo'ldi. Bu bilan **1947-yili** imzolangan Parij tinchlik shartnomasi majburiyatlari o'z kuchini yo'qotdi. **1950-yil 27-yanvar**da AQSh bilan **«Mudofaa maqsadlarida o'zaro yordam to'g'risida»** bitim imzolandi. Mamlakat hududida AQSh harbiy bazasi qurildi. GFRning NATOga qabul qilinishini qo'llab-quvvatladi. **1957-yili** Fransiya va GFR bilan **«Qurol-yarog'larni standartlashtirish va yangi qurollarni yaratish yo'lida birgalikda harakat qilish to'g'risida»** shartnoma imzoladi. Italiya Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatining faol tashkilotchilaridan biri bo'ldi.

Siyosiy beqarorlik. Italiya ichki hayotiga siyosiy beqarorlik xos bo'lgan davlatligi bilan ham ajralib turadi. Urushdan keyingi davrda **50 dan ortiq hukumat** almashgani buning dalilidir. *Bu o'rta hisobda deyarli har 1 – 1,5 yilda hukumat almashinuvi sodir bo'ldi deganidir. Mutaxassislar fikricha, buning asosiy sababi Italiyada siyosiy partiyalarning haddan tashqari ko'pligidir (mamlakatda 9 ta umummilliy va ko'plab hududiy partiyalar mavjud).* Bu hol, tabiiyki, hukumatning tez-tez almashib turishiga olib keladi, o'z navbatida, siyosiy beqarorlikka ham sabab bo'ladi. Ikkinchidan, bu hodisa Italiya barcha hududining iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan bir xil darajada rivojlanmagani bilan izohlanadi. Shimolning gurkirab rivojlangani, janub (**Sitsiliya, Neapol**)ning iqtisodiy jihatdan orqada qolgani bugun ham katta ijtimoiy muammo bo'lib qolmoqda.

Bu hol o'tkir ijtimoiy muammo – ishsizlik muammosini keltirib chiqardi. Millionlab kishilar ish izlab yurishga majbur bo'lib qolishdi. Hatto iqtisodiy gurkirab rivojlangan sharoitda ham ishsizlar soni **1 mln dan ortiq** bo'ldi. Har yili **200 mingdan ortiq** kishi **GFR, Shveytsariya va Fransiya**ga ish izlab ketishga majbur bo'ldi.

Bu ijtimoiy muammo boshqa dahshatli muammolarni: korrupsiya, terrorizm, jinoyatchilik va mafiyaning siyosatga aralashuvini kuchaytirdi. **1969-yil**dan keyingi davrda **400 ga yaqin** siyosiy arbob, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari o'ng va so'l terrorchilar qurboni bo'lishdi. Ayniqsa, **1978-yili** XDP rahbari **A.Moro**ning o'ldirilishi Italiya jamoatchiligini qayg'uga soldi. U **1963 – 1968-** va **1974-yillari** Italiya bosh vaziri, **1969 – 1972-yillari** tashqi ishlar vaziri bo'lib ishlagan obro'li siyosiy arbob edi. Korrupsiya ko'lami bo'yicha Italiya G'arbiy Yevropa davlatlari ichida eng oldingi o'rinda turadi. Bu mamlakat hayotida mafiyaning chuqur ildiz otgani bilan izohlanadi.

Mafiya jinoiy guruhlarning davlat apparati bilan qo'shilib ketishidir. Ya'ni davlatning barcha organlarida, siyosiy partiyalar apparatida mafi-

yaga (maxfiy terrorchi tashkilotga) xizmat qiluvchi kishilar mavjudligidir. Italiyada mafiyaning kuchayishiga **1993-yil**gacha mavjud bo'lgan saylov tartibi ham qulay sharoit tug'dirgan. Shu yilgacha Italiyada parlamentga saylov proporsional saylov tizimi asosida o'tkazilgan. Bu saylov tizimida saylovchilar aniq bir shaxs uchun emas, u yoki bu partiya uchun ovoz berardilar. Parlamentdagi o'rin partiyalarning olgan ovoziga proporsional ravishda bo'linardi. Qaysi partiyadan kimning deputatlik o'rnini egallashi partiya rahbarlari orasida hal etilardi. Bu hol, o'z navbatida, korrupsiyaning kuchayishiga yo'l ochdi. Mafiya esa bundan ustalik bilan foydalandi va jamiyatning hamma sohalariga kirib bordi. *Ayniqsa, Sitsiliyada, Neapolda va boshqa janubiy viloyatlarda rivojlandi.* U shantaj, talonchilik, qotillik yo'li bilan jamiyatni tahlikaga soldi. *Davlat organlari xodimlarini sotib olish (korrupsiya) mafiya faoliyatining asosini tashkil etadi. O'z izmiga yurmaydiganlarni ta'qib etadi va ularning qotiliga aylanadi.* Italiya jamoatchiligi, mafiya va korrupsiyani jilovlashga tarafdor bo'lgan siyosiy arboblar jamiyatda ro'y berayotgan bunday falokatlarga qarshi chiqdilar va jamiyatda zarur tartib o'rnatilishini talab etdilar. **1986-yili** eng yirik mafiyachilar ustidan sud jarayoni o'tkazildi. U Italiya mafiyasi vatani Sitsiliya markazi **Palermo**da bo'lib o'tdi. **500 nafardan ortiq kishi** sud qilindi. Biroq mafiya yashashda davom etdi.

1992-yili Italiyada «Toza qo'llar» deb atalgan keng qamrovli tadbir o'tkazildi. Natijada davlat organlari va siyosiy partiyalar rahbarligida ishlovchi **20 mingdan ortiq kishi** tergov ro'yxatiga tushdi. **2 yil** davomida poraxo'rlikda ayblangan **2 mingdan ortiq kishi** hibsga olindi. Tergovga chaqirilganlar ichida hatto sobiq bosh vazirlar **J.Andreoti (XDP lideri)** va **B.Kraksi (Sotsialistik partiya lideri)**, parlament deputatlari hamda senatorlar ham bor edi.

1994-yil martda o'tkazilgan parlament saylovida XDP **3 siyosiy oqim**ga bo'linib ketdi. Italiya sotsialistik partiyasi esa o'zini tarqatilgan deb e'lon qildi. Italiya kommunistik partiyasi saylovgacha o'zining nomini ham, maqsad, vazifa va dasturini ham o'zgartirdi. U saylovda **«So'l kuchlar demokratik partiyasi»** nomi bilan qatnashdi. Saylovda mutlaqo yangi kuchlar g'olib chiqdi. Bular **«Olg'a, Italiya», «Shimol ligasi»** va **«Milliy alyans»** partiyalari edi. Ular **«Erkinlik qutbi»** blokiga birlashdilar. **S.Berluskoni** («Olg'a, Italiya» partiyasi rahbari) boshchiligida Italiyada **52-hukumat** tuzildi. Biroq bu hukumat **1994-yil oxiri**gacha yashadi, xolos.

53-hukumatni mustaqil siyosiy arbob **L.Dini** boshqardi. **1996-yil apre**lda parlamentga o'tkazilgan navbatdan tashqari saylovda **«So'l**

kuchlar demokratik partiyasi» g'alaba qozondi. Shunday bo'lsa-da, **1996 – 1998-yillar** oralig'ida bir necha partiyasiz hukumat tuzildi. Nihoyat, **1998-yili** Italiya prezidenti SKDP rahbari **M.Alema**ga hukumat tuzishni topshirdi. **2001-yili** esa yana S.Berluskoni boshchiligida navbatdagi hukumat tuzildi. **2006-yil**gi saylovda **Roman Prodi** bosh vazirlik lavozimiga keldi. **2008-yil boshi**da o'z o'rnini S.Berluskoniga bo'shatdi. Italiyada siyosiy beqarorlik hamon davom etmoqda. Shunga qaramay, Italiya dunyoning iqtisodiy jihatdan eng taraqqiy etgan 7 davlatidan biriligicha qolmoqda.

27.7. SOVET DAVLATI

SSSR urushdan keyingi villarda. SSSR fashistlar Germaniyasini mag'lubiyatga uchratishda asosiy rol o'ynaydi. Biroq g'alaba katta talafotlar hisobiga qo'lga kiritildi. *Chunonchi, SSSRning 27 mln fuqarosi halok bo'ldi. Halok bo'lganlarning 11,5 mln ga yaqini askarlar edi. Qolaversa, SSSR milliy boyligining 1/3 qismini yo'qotdi. Sanoatning xalq iste'moli mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi keskin kamaydi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi urushdan avvalgi darajaga nisbatan 40 foizga kamaydi.*

Endi sovet davlati oldida mamlakat xo'jaligini tiklash vazifasi turardi. Shu maqsadda SSSR Oliy Soveti xalq xo'jaligini rivojlantirishning **to'rtinchi besh yillik rejasi**ni qabul qildi. Qattiq markazlashtirilgan rahbarlik hamda SSSR tarkibidagi xalqlarning fidokorona mehnati tufayli sanoat ishlab chiqarishi hajmi **1950-yili** urushdan oldingi darajadan oshib ketdi (**73 foiz**ga). *Ayni paytda, sanoatning tez sur'atlar bilan rivojlanishida mamlakat qamoqxonalarida saqlanayotgan ko'p millionli sovet tutqunlarining hamda 1,5 mln nemis, 0,5 mln yapon harbiy asirlarining tekin mehnati, Germaniyadan undirilgan 4,3 mlrd dollar hajmidagi tovon, shuningdek, kapital mablag' asosiy qismining sanoatga yo'naltirilgani ham katta rol o'ynadi.*

Yangi qatag'onlar davri. Sovet ziyolilari urushdan keyin chuqur iqtisodiy va siyosiy islohotlar o'tkazilishiga umid qildilar. Ularning ma'lum qismi SSSRda ham G'arbdagi kabi erkin jamiyat qaror topishini istardilar. Ayni paytda, bunday chuqur o'zgarishlarga islohotlar yo'li bilan erishishni taklif ham etganlar. BMTning **1948-yil 10-dekabr**da qabul qilingan **«Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»**ni SSSR ham imzolagani ularda bunday umidni paydo qilgandi.

SSSRda **1930 – 1953-yillar** oralig'ida jami **3,8 mln ga yaqin kishi** qatag'on etildi. Ulardan **800 mingga yaqini** otib tashlandi.

1953-yili I.Stalin vafot etgach, turli yillarda qatag'on etilganlar oqlandi. Biroq mustaqil fikrlovchi shaxslarni qatag'on qilish I.Stalin davridagidek ommaviy va qonli tusda bo'lmagan esa-da, **70 – 80-yillar**da ham davom etdi. Ular yakka-yakka tartibda ta'qib etildi. Ular ustidan turli jinoiy ishlar uyushtirildi va majburan ruhiy kasalliklar kasalxonalariga yotqizildi. Dunyo jamoatchiligiga taniqli bo'lganlar uy qamog'ida yoki badarg'ada saqlandi. Ba'zilar mamlakatdan chiqarib yuborildi.

I.Stalin vafotidan so'ng rahbarlik lavozimini **N.Xrushov** egalladi. U **1956-yili** bo'lib o'tgan **KPSSning XX syezd**ida I.Stalin shaxsiga sig'inish va uning oqibatlarini qattiq qoraladi. Mamlakatning ilg'or qismi chuqur iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar amalga oshadi deb yana bir bor umid bilan qaray boshladi. Biroq ularning umidlari oqlanmadi. Mamlakatda stalinizm yangi ko'rinishda davom etaverdi.

«Kommunizm qurish» dasturining qabul qilinishi. KPSSning **1959-yili** bo'lib o'tgan navbatdan tashqari **XXI syezd**i SSSRda sotsializm *«to'la va uzil-kesil g'alaba qozondi»* degan xulosaga keldi. Bunga mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida ro'y bergan sezilarli ijobiy yutuqlar asos qilib olindi. Aslida, bu kommunistlarning navbatdagi xomxayollari edi. **1959-yil**dan boshlab bu xomxayol ulkan tarixiy g'alaba deb talqin etildi. KPSSning **XXII syezdida (1961-yil)** KPSSning yangi dasturi – **Kommunizm qurish dasturi** qabul qilindi. Kommunistlar fikricha, kommunizm: *birinchidan, ishlab chiqarish vositalari to'la umumxalq (aslida, davlat) mulki bo'lgan jamiyat edi; ikkinchidan, jamiyatning barcha a'zolari ijtimoiy jihatdan batamom teng bo'lgan sinfsiz jamiyat edi; uchinchidan, ijtimoiy boylikning barcha manbalar mo'l-ko'l bo'lgan, to'lib-toshib turadigan va natijada har kim qobiliyatiga yarasha ishlaydigan, lekin jamiyat boyligidan har kim ehtiyojiga yarasha ulush oladigan jamiyat edi; to'rtinchidan, mehnat qilish hamma uchun birinchi hayotiy ehtiyoj, anglangan zaruriyat bo'lib qoladigan jamiyat edi.*

Dasturda kommunizm qurish uchun quyidagi **3 ta ulkan vazifa**ni bajarish zarurligi ta'kidlandi: *kommunizmning moddiy-texnika bazasini yaratish; yangi ijtimoiy munosabatlarni vujudga keltirish; yangi kishini tarbiyalash.*

KPSS dasturida bundan-da xomxayol orzular ilgari surildi. Chunonchi: *a) 1960 – 1970-yillar oralig'idagi o'n yil ichida iqtisodiy taraqqiyotda AQShga yetib olish va undan o'zib ketish; b) 1970 – 1980-yillar oralig'idagi o'n yil ichida kommunizmning moddiy-texnika bazasini yaratish.* Vaqt tez orada KPSS va Sovet davlati rahbariyati ilgari surgan yuqoridagi vazifalar xomxayolligini tasdiqladi. Bu esa oliy rahbariyat

o'rtasida ziddiyatlarni kuchaytirdi. Oqibatda **1964-yili** N.Xrushov vazifasidan olib tashlandi.

Hokimiyat **L.I.Brejnev** qo'liga o'tdi. Uning davrida iqtisodiy islohot o'tkazilishiga urinildi. Biroq bu islohot mamlakat iqtisodiyotini tubdan qayta qurishni anglatmasdi. Mafkura iqtisodiyotni chulg'ab olgan bir sharoitda bu tabiiy hol edi. Chunki qotib qolgan, hayotdan orqada qolgan kommunistik mafkura har qanday tub islohotni sotsializm asoslariga zarba deb baholardi.

KPSSning kommunizm qurish rejasi barbod bo'lgach, L.I.Brejnev KPSSning **XXIV syezd**ida **(1971-yil) «rivojlangan sotsializm»** nazariyasini ilgari surdi. Bu nazariyada kommunizm uzoq kelajakda quriladigan jamiyat deb izohlandi. Ungacha jamiyat sotsializm va kommunizm oralig'ida rivojlangan sotsializm bosqichini bosib o'tishi lozimligi «asoslandi». Hayot bu nazariyaning ham soxtaligini tasdiqladi. SSSRning iqtisodiy taraqqiyoti borgan sari pasaya boshladi va unda turg'unlik holati vujudga keldi. *Buning asosiy sababi ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotning ilmiy-texnika inqilobi natijalarini qabul qilolmagani bo'ldi.* Natijada u katta xarajat talab etadigan, kam samara keltiradigan iqtisodiyotga aylandi.

Jadallashtirish rejasi. **1982-yili** L.Brejnev vafot etgach, qisqa vaqt ichida yana ikki rahbar almashdi. Bular **Y.Andropov** va **N.Chernenko** edi. Ularning har ikkisi ham og'ir kasal edilar. Nihoyat, **1985-yil mart**da **M.S.Gorbachov** KPSS Bosh kotibi lavozimini egalladi. *Shu yilning aprelida u qayta qurish va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish dasturini ilgari surdi. Unga ko'ra, 15 yil ichida (1985 – 2000) SSSRning iqtisodiy qudrati 2 baravar ortishi, ya'ni 15 yil ichida Sovet davlati yashab kelayotgan 70 yil davomida erishilgan darajaga teng iqtisodiy qudrat yaratilishi kerak edi.*

Jadallashtirish dasturining amalga oshishi **3 omil**ga tayanardi: *korxonalar mustaqilligini kengaytirib, ularni xo'jalik hisobiga va o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlashga o'tkazish; mehnatning mazmuni va xarakterida, odamlarning moddiy va ma'naviy turmush sharoitlarida chuqur o'zgarishlar qilish, samaradorlikka qarab haq to'lash; oshkoralik, ya'ni siyosat, ijtimoiy va mafkuraviy muassasalar tizimini faollashtirish.*

Aslida, jadallashtirish dasturi ham KPSS va Sovet davlati rahbariyatining yana bir xomxayol orzusi bo'lib chiqdi. Chunki iqtisodiyotda bozor munosabatlarisiz bu vazifalarni amalga oshirib bo'lmasdi. Boz ustiga, SSSR aholisi ongi yangi – bozor iqtisodiyotini qabul qilishga tayyor emasdi. **1988-yil**dan qishloq xo'jaligi, **1990-yil**dan esa sanoat ishlab

chiqarishi pasaya boshladi. Byudjet taqchilligi **100 mlrd so'm**dan ortdi. Davlatning oltin zaxirasi **6 yil**da **(1985 – 1991) 10 baravar** kamaydi va atigi **240 tonna**ga tushib qoldi. Aholining turmush darajasi shiddat bilan pasaya boshladi. Shunday sharoitda M.S.Gorbachov **«insonparvar, demokratik sotsializm»** qurilishini e'lon qildi.

SSSRda siyosiy ahvolning murakkablashuvi. M.S.Gorbachovning siyosati tarixga **«qayta qurish»** siyosati nomi bilan kirgan. Bu qayta qurish mamlakat siyosiy hayotiga ham taalluqli edi. **1988-yili** KPSSning **XIX Butunittifoq konferensiyasi** qarori asosida qonun chiqaruvchi yangi oliy hokimiyat organi – **SSSR Xalq deputatlari syezdi** tuzildi. Yangi oliy lavozim – **SSSR Oliy Soveti raisi** joriy etildi. **1989-yil mart**da chaqirilgan **SSSR xalq deputatlari I syezdi**da KPSS MQ Bosh sekretari M.S.Gorbachov, ayni paytda, SSSR Oliy Soveti raisi etib saylandi.

Mamlakatda senzura deyarli olib tashlandi. Biroq bular mavjud tuzumni saqlab qololmadi. Bu davrda qator respublikalarda mavjud davlat hokimiyati organlariga parallel ravishda yangi hokimiyat organlari ham vujudga keldi. Ko'ppartiyaviylik reallikka aylanib ulgurdi. Ularning ayrimlari KPSS bilan raqobatlasha boshladi. Aksariyati sovet modelidagi sotsializmni, KPSSning davlat hokimiyatiga bo'lgan monopol huquqini inkor etdi. KPSSning o'zida ham **3 oqim**ga bo'linish yuz berdi. Boltiqbo'yi respublikalari kommunistik partiyalari **1989 – 1990-yillar** davomida KPSS tarkibidan ajralib chiqdi. Shu tariqa SSSRda jamiyat hayotining hamma jabhalarida inqiroz kuchaya bordi. Bu hol milliy respublikalarda aholi milliy ongining uyg'onishiga qulay sharoit yaratdi. Endi ularda mustaqillikka intilish tobora kuchaydi, Boltiqbo'yi respublikalari **«Davlat suvereniteti to'g'risida deklaratsiya»** qabul qildilar. O'zbekistonda prezidentlik lavozimi joriy etildi. Shunday sharoitda Markaz milliy nizolar keltirib chiqarish yo'li bilan SSSRni saqlab qolishga urindi. *1988-yildan Armaniston va Ozarbayjon o'rtasida Tog'li Qorabog' masalasida munosabatlar keskinlashdi. 1989-yili Farg'ona, 1990-yili O'sh, 1991-yili Gruziya – Abxaziya, Gruziya – Janubiy Osetiya qonli voqealari keltirib chiqarildi.* M.S.Gorbachov va Rossiya rahbari B.Yelsin o'rtasida hokimiyat uchun kurash kuchaydi.

SSSRning parchalanishi. Qayta qurish yillarida KPSS obro'si borgan sari yo'qolib bordi. Partiyada poraxo'rlik va korrupsiya kuchaydi. Demokratik kuchlar hatto SSSR konstitutsiyasiga yozib qo'yilgan KPSSning rahbarlik roli haqidagi qoidaning chiqarib tashlanishiga erishdilar (**1990-yili**). Shunday sharoitda yangi lavozim – **SSSR prezidenti** lavozimi joriy etildi. **1990-yil mart**da **SSSR Xalq deputatlari III syezdi**

M.S.Gorbachovni SSSR prezidenti etib sayladi. M.S.Gorbachovning maqsadi SSSRni qanday bo'lmasin saqlab qolish edi. Chunki u o'zi boshlagan islohot SSSRni qulatishi mumkinligini aslo xayoliga keltirmagandi. Endi u yangi ittifoq shartnomasi imzolanishi uchun bor kuchi bilan harakat qila boshladi. *M.S.Gorbachov 1991-yil apreldan boshlab 9 respublika rahbari bilan yangi ittifoq shartnomasi xususida to'g'ridan to'g'ri muzokara o'tkaza boshladi.* Nihoyat, **1991-yil avgust**da barcha tomonlarni qoniqtiruvchi **«Mustaqil Respublikalar Ittifoqi»** haqidagi shartnoma loyihasini ishlab chiqishga erishildi. Unga ko'ra, Markaz endilikda boshqaruvchilik maqomini yo'qotar, asosan, muvofiqlashtirish vazifasi bilan shug'ullanardi. Markaz ixtiyoriga **mudofaa, moliya, ichki ishlar, qisman soliq va ijtimoiy siyosat masalalari** qoldirildi, xolos. *Ayni paytda, rus tili davlat tili maqomini yo'qotib, millatlararo muloqot tiliga aylanardi.*

Shartnomani imzolash **1991-yil 22-avgust**ga belgilandi. *Biroq real hokimiyatni qo'ldan chiqarishni istamagan kuchlar 18-avgustdan 19-avgustga o'tar kechasi davlat to'ntarishi qilishga urindilar.* Ular **GKCHP** (Favqulodda Holat Davlat Qo'mitasi) tuzdilar. **Qrim**da dam olayotgan M.S.Gorbachov hokimiyatdan chetlatildi. GKCHPga SSSR vitse-prezidenti **G.Yanayev** rahbarlik qildi. GKCHP SSSRning ba'zi hududlarida favqulodda holat joriy etdi. SSSRning **1977-yil**gi konstitutsiyasiga zid ravishda tuzilgan davlat organlari bekor qilinishi, muxolif partiyalar faoliyati to'xtatilgani, mitinglar va namoyishlar o'tkazish man etilgani, ommaviy axborot vositalari nazoratga olingani e'lon qilindi.

Moskvaga armiya qismlari kiritildi. Biroq Moskva aholisi GKCHPni qo'llab-quvvatlamadi. Aksincha, ular GKCHPga qarshi chiqqan Rossiya prezidenti **B.Yelsin** tarafida bo'ldilar. B.Yelsin moskvaliklarni GKCHPga qarshi uyushtiroldi. Armiyaning asosiy qismi ham GKCHPni qo'llab-quvvatlamadi. G'arb davlatlari ham GKCHPni tan olmadilar. Xalq madadidan mahrum bo'lgan GKCHP oxir-oqibatda mag'lubiyatga uchradi. **22-avgust**da GKCHPning barcha rahbarlari davlat to'ntarishi qilishga uringanlikda ayblanib hibsga olindilar.

Noyabrda B.Yelsin Rossiya Federatsiyasi hududida KPSS faoliyatini taqiqlash haqida farmon chiqardi. Shu tariqa KPSS yagona siyosiy tashkilot sifatida barham topdi. KPSS MQ Bosh sekretari lavozimidan voz kechgan M.S.Gorbachov SSSRni saqlab qolish uchun harakat qila boshladi. Biroq hech narsaga erisholmadi. **1922-yil 30-dekabr**da SSSRni tuzgan **3 davlat**: *Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Belorussiya rahbarlari 1991-yil 8-dekabr kuni SSSR tarqatilganini e'lon qildilar hamda Mustaqil*

Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tuzilgani haqidagi bitimni imzoladilar. Bu bitim tarixga **«Belovej bitimi»** nomi bilan kirdi. Shu tariqa SSSR parchalanib ketdi. **21-dekabr**da yana **8 respublika** (*Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va Moldova*) ham bu bitimni imzoladilar. **25-dekabr**da M.S.Gorbachov SSSR prezidenti lavozimidan iste'fo berdi.

SSSRdan Rossiyaga og'ir meros qoldi. Bozor iqtisodi qonunlarini joriy etish juda murakkab yo'ldan bordi. Rossiya sobiq sovet respublikalari o'rtasida va xalqaro maydonda o'z mavqeyini yo'qotmasligi lozim edi. Bu oson ish emasdi. **1992-yili** narxlar erkinlashtirila boshlandi. Yil oxiriga kelib davlat ixtiyorida faqat byudjetda ishlovchilarning ish haqini va ular ishlab chiqargan mahsulotlar narxini belgilash qoldi. Davlat eng asosiy korxonalardan tashqari barcha korxonalarni o'z tasarrufidan chiqara boshladi. Bu korxonalar u yerda ishlovchilarning aksionerlik mulkiga aylandi. Ular aksiyalarning katta qismini boshqa fuqarolarga xususiylashtirish chekiga (**vaucher**ga) sotish huquqiga ega edilar. Mamlakatda **24 ming korxona, 15 foiz fermer** xususiylashdi.

Davlatda yetarli mablag'ning yo'qligi natijasida bir yilda ishlab chiqarish **20 foiz**ga pasaydi. Ijtimoiy ta'minot, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash xodimlari qiyin ahvolga tushib qoldi. Aholi daromadi **2 baravar** kamaydi. B.Yelsin **1992-yil dekabr**da **Ye.Gaydar** o'miga **V.Chernomirdin**ni bosh vazir etib tayinladi.

1993-yil 23-aprelda umumxalq referendumi o'tkazildi va ko'pchilik B.Yelsinni qo'lladi. Lekin Oliy Sovet raisi **R.Xasbulatov** prezidentga qarshi faoliyatni davom ettirdi. **1993-yil 21-sentyabr**da B.Yelsin Oliy Sovetni tarqatdi. Ammo xasbulatovchilar bo'ysunmay, Oq uyda syezd chaqirib, B.Yelsin ishdan olinganini va **A.Rutskoy** vitse-prezident etib saylanganini bildirishdi va qurolli hujumga o'tishdi. B.Yelsin bunga kuch bilan javob berdi va **4-oktyabr**da Oq uy o'qqa tutildi, oppozitsiya taslim bo'ldi. Prezident sovetlarni tarqatib yubordi. **1993-yil 12-dekabr**dagi umumxalq referendumida **58 foiz** qatnashchilar yangi konstitutsiya uchun ovoz berdilar.

Iqtisodiyotda o'tkazilgan tadbirlar natijasida ishlab chiqarishning 70 foizi aksionerlar va xususiy kompaniyalar qo'liga o'tdi. Rossiyada ko'plab g'oyalar, harakatlar yuzaga keldi. **G.Yavlinskiy**, **A.Chubays**, **Y.Gaydar** va boshqalar o'z takliflari bilan chiqdilar. Lekin ahvol murakkabligicha qoldi. Buni V.Chernomirdin: *«Iloji boricha yaxshi bo'lishini istadik, ammo ahvol har doimgidek davom etaverdi»*, – deb tan oldi.

Oppozitsiya yerni erkin oldi-sotdi qilishga va garovga qo'yishga xalaqit

berardi. Ularning deyarli barchasi eski sovet davri rahbarlari bo'lib, yangi sharoitga, bozor iqtisodi sharoitiga ruhiy va amaliy jihatdan moslashishga qiynaldilar. Boz ustiga, **Chechenistond**agi harakat Rossiya uchun juda qimmatga tushdi.

1996-yilgi saylovlarda B.Yelsin qiyinchilik bilan g'alaba qildi. U bozor iqtisodiga o'tishni «yosh islohotchilar» (**Chubays**) qo'li bilan jadallashtirishga intildi. Lekin **1998-yili** byudjetni hayotga tatbiq etishning iloji bo'lmadi.

B.Yelsin Chernomirdin o'rniga bosh vazir etib **S.Kiriyenko**ni tayinladi. Lekin ahvol o'nglanmadi. **1998-yil sentyabr**da keksa siyosatchi **Y.Primakov** bosh vazir etib tayinlandi. **1999-yil** ishlab chiqarish biroz jonlansa-da, yangi bozor iqtisodi tartiblari o'rnatilmadi. **1999-yil may**da Y.Primakov ishdan olinib, dumaparast **V.Stepashin** hukumat boshlig'i etib tayinlandi. Moskva meri **Y.Lujkov** *«kapitalizmchasiga ishlash, ammo sotsializmchasiga taqsimlash»* shiori bilan chiqdi.

Shunday og'ir sharoitda B.Yelsin hokimiyatga munosib nomzod izladi va **1999-yil avgust**da **V.Putin** hukumat boshlig'i etib tayinlandi. Razvedka maktabini o'tagan, qobiliyatli, yangicha fikrlovchi, sotsializm mansablarida ishlamagan aqlli va irodali V.Putin tezda o'zini ko'rsatdi. U chechen jangarilarini jilovlashda oqilona yo'l tuldi va katta obro' qozondi. **1999-yil kuzi**da ma'muriyat **«Yedinstvo» (Birlik)** harakatini tashkil etdi va V.Putinga yordam berdi. **1999-yil dekabr**da Dumaga saylovlarda **Lujkov – Primakov** bloki va kommunistlar zaiflashib qoldi.

Hokimiyat ishonchli qo'lga o'tganini tushungan B.Yelsin **2000-yil bosh**ida muddatidan oldin iste'foga chiqdi. **Mart**dagi prezident saylovida V.Putin g'olib chiqdi. Rossiyada hukumat almashuvlaridan charchagan xalq V.Putinni qo'llab-quvvatladi. Putin islohotlarni kuchaytirdi. Noqonuniy boylik to'plagan moliya magnatlarining payini qirqdi. Ularning ko'pi chet elga qochib ketdi. Bozor iqtisodi qonunlarini mustahkamladi. Natijada **4 – 5 yil** ichida Rossiyada yillik o'sish **7 – 8 foiz**ga ko'tarildi.

27.8. MARKAZIY VA JANUBI-SHARQIY YEVROPA DAVLATLARI

Kommunistik partiyalarning hokimiyat tepasiga kelishi. Ikkinchi jahon urushi G'arbiy Yevropa davlatlari qatori Markaziy va Janubiy Yevropa davlatlari (**Polsha, Vengriya, Ruminiya, Chexoslovakiya, Yugoslaviya, Bolgariya** va **Albaniya**)ni ham o'z domiga tortgandi. Ularning ayrimlari (**Polsha, Chexoslovakiya, Yugoslaviya** va **Albaniya**)ni Germaniya va Italiya bosib oldi. Bolgariya, Vengriya va Ruminiya esa fashist

davlatlarining ittifoqchisi sifatida urushda ishtirok etdilar. Bu davlatlar siyosiy-tarixiy adabiyotlarda **«Sharqiy Yevropa davlatlari»** (sobiq GDR ham shu qatorga kirgan) deb ham atalgan.

Sharqiy Yevropa davlatlarida jamiyat hayoti o'zgacha kechdi. *Bunda, birinchidan, bu davlatlarni (Albaniyadan tashqari) SSSR armiyasi fashizmdan ozod etgani hal qiluvchi rol o'ynadi.* Mazkur omil Sharqiy Yevropa davlatlarida kommunistik partiyalarning hokimiyat tepasiga kelishiga qulay imkoniyat yaratdi. Qolaversa, urush kommunistik partiyalarning obro'sini oshirgandi. Chunonchi, **Yugoslaviya va Albaniya kommunistik partiyalari** antifashist harakatga rahbarlik qildilar, boshqa davlatlarda esa kommunistlar bu harakatda faol ishtirok etgandilar.

Ikkinchidan, «sovuq urush» tufayli keskinlashgan sovet-amerika munosabatlari SSSRning Sharqiy Yevropa davlatlari ichki ishlariga aralashuviga qulay sharoit yaratdi. Natijada **1946 – 1949-yillar** davomida Sharqiy Yevropa davlatlarida kommunistlar hokimiyatni to'la egallab oldilar. Chunonchi, bu davlatlarda SSSRda bo'lganidek ko'ppartiyaviylik tugatildi (*Vengriya, Ruminiya, Yugoslaviya va Albaniya*). **GDR, Polsha, Chexoslovakiya va Bolgariya**da nomigagina ko'ppartiyaviylik saqlab qolindi. Masalan, GDRda **5 ta siyosiy partiya** mavjud bo'lsa-da, real hokimiyat kommunistik partiya (Germaniya yagona sotsialistik partiyasi – GYSP) qo'lida edi. *Boshqa 4 siyosiy partiya GYSPning yetakchi, rahbar siyosiy kuch ekanini tan olishga majbur etilgandi.*

Bu davlatlar (Yugoslaviyadan tashqari) tashqi siyosatda SSSR manfaatiga bo'ysundirildi. Ular **O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashiga (1949)** hamda **Varshava Shartnomasiga (1955)** (*Albaniya keyinchalik bu harbiy-siyosiy tashkilotdan chiqqan, Yugoslaviya esa bu tashkilotga umuman a'zo bo'lmagan*) birlashtirildi. Qolaversa, *Sharqiy Yevropaning Yugoslaviya va Albaniyadan boshqa davlatlari hududiga SSSR qurolli kuchlari joylashtirilgandi.*

Germaniya Demokratik Respublikasi. **1949-yil 7-oktyabr**da GDR tashkil etilib, **V.Pik prezident**, **O.Grotevol bosh vazir** etib saylandi. Ular GBSP vakillari edilar. **1953-yili** mamlakatda mavjud tuzumga qarshi isyon ko'tarildi va sovet qo'shinlari yordamida bostirildi. **1960-yil sentyabr**da V.Pik vafotidan keyin, prezidentlik tugatilib, uning o'rniga **Davlat Soveti** tuzildi va unga rais qilib GBSP rahbari **V.Ulbrixt** saylandi. **Otto Grotevol 1964-yil**gacha, ya'ni vafotiga qadar bosh vazir lavozimida ishladi.

V.Ulbrixt **1971-yil**gacha partiya va davlat rahbari bo'lib turdi hamda keksayib, sog'lig'i yomonlashgach o'z lavozimini **E.Xonekker**ga topshirdi. Iqtisodda davlat sektori hukmron bo'lib qoldi. Zavodlarga ishlagan korxonalar

ishini boshqa korxonalar hisobiga ushlab turish kuchaydi. Lekin GDR iqtisodiyoti boshqa sotsialistik davlatlarga nisbatan yangi texnologiya bilan ta'minlangandi. Ishlab chiqarish kombinatlari yalpi mahsulotning **94 foizi**ni berardi. Tashqi savdoning **40 foizi** SSSR hisobiga to'g'ri kelardi.

Ammo GFR bilan solishtirganda ishlab chiqarishda mehnat unumdorligi **1/3 qism**ni tashkil qilardi. Bor-yo'g'i korxonalar **32 foiz** foyda bilan ishlardi. Aholi turmush darajasi GFRga qaraganda **3 baravar** past edi. GFRdagi ahvol GDR xalqini o'ziga rom qildi. *1989-yilning o'zida 400 ming kishi GFRga ko'chib keldi.* Ommaviy norozilik kuchaydi. **1989-yil 18-oktyabr**da E.Xonekker barcha lavozimlardan ozod etildi. **9-noyabr**da Berlin devori buzib tashlandi. **1990-yil 3-oktyabr**da ikkala Germaniya birlashdi.

Venqriya. **1946-yil 1-fevral**da **Vengriya** respublika deb e'lon qilindi. **F.Nad** bosh vazir lavozimini egalladi. Ko'p o'tmay kommunistlar bilan kelisholmay **Shveytsariya**ga ketib qoldi. **Z.Tildi** mamlakat prezidenti lavozimiga o'tirib, **1948-yil avgust**gacha ishladi. Shu davrdan uning o'rniga **A.Sakashich** keldi. **1948-yil iyun**da SDP va VKP birlashib, **Vengriya mehnatkashlar partiyasi** (VMP) tashkil topdi. Shu davrdan **M.Rakoshi 1956-yil iyul**gacha partiya rahbari bo'lib ishladi.

1956-yil 25-oktyabrda **Budapesht**da mavjud tuzumga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olonni bostirishni va'da bergan **I.Nad** bosh vazir etib tayinlandi. Lekin u va'dasini buzib, mamlakatning Varshava shartnomasidan chiqishini, sovet qo'shinlarining olib ketilishini talab qildi. **E.Gere**ning **4 oylik** boshqaruvidan so'ng VMP rahbarligiga **Y.Kadar** keldi. **1956-yil 4-noyabr**da sovet tanklari isyonni bostirdi. **I.Nad** qamoqqa olinib, **1958-yil 17-iyun**da qatl etildi.

60-yillarda iqtisodiyotda kam xomashyo talab qiladigan sohalarni rivojlantirish yo'lga qo'yildi. Aholi talabidan kelib chiqib ijtimoiy sohaga, xalqni zarur ehtiyoj mollari bilan ta'minlashga e'tibor qaratildi. Qishloqda **98 foiz** yer sotsialistik sektor qo'liga o'tdi. Sovet davlati katta yordam ko'rsatdi. Lekin islohotlar kutgan natijani bermadi. **80-yillar**da ahvol murakkablashib, mamlakatni **22 yil** idora qilgan Yanosh Kadar o'rniga **Karoy Grosu** keldi.

1990-yilgi saylovlarda koalitsion hukumat tuzilib, uni **Iojef Antall** boshqardi. Mamlakat prezidenti etib **Erkin Demokratik Ittifoq** (EDI) rahbari **Arpada Gens** saylandi. Vengriyada **1994-yil**dan ishlab chiqarish o'sdi. **1990-yili** yalpi ichki mahsulotning **90 foizi**ni nodavlat sektor bera boshladi. Vengriya **Yevropa Ittifoqi** va **1998-yili NATO**ga a'zo bo'ldi. Hozir mamlakat prezidenti **Laslo Shoyom**.

Polsha. **1945-yil 28-iyun**da Polsha emigrant hukumati va Polsha milliy ozodlik komiteti birlashtirilib, **Milliy birlik hukumati** tuzildi. Bosh vazir lavozimini **E.Osubka-Moravskiy**, uning o'rinbosari lavozimini **S.Mikolaychik (1901 – 1966)** egalladi. Bir qator islohotlar o'tkazilib, yangi jamiyat qurishga kirishildi. **1947-yil 17-yanvar**da Polsha seymiga saylovlar bo'lib o'tdi va **Boleslav Berut (1892 – 1956)** mamlakat prezidenti, **Y.Sirankevich** hukumat raisi vazifalarini qo'lga kiritishdi. B.Berut **1948-yil dekabr**dan Polsha birlashgan ishchi partiyasi (PBIP) rahbari ham bo'lib qoldi.

50-yillarda sanoatda sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. **10 mingdan ortiq** kooperativlar tuzildi. Ammo kollektivlashtirishda jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi. **1956-yil mart**da B.Berut vafotidan keyin, partiyada ham birlik bo'lmadi. Xalqning noroziligi kuchaydi. Mamlakatda siyosiy inqiroz boshlandi. **Iyun**da ishchilar ish tashladi, talabalar namoyishga chiqdi. Xalq harakati mamlakat armiyasi tomonidan qonga botirildi. To'qnashuvda **53 kishi** o'ldirildi.

1956-yil oktyabrda **V.Gomulka (1905 – 1982)** partiya rahbarligiga keldi. Xalq birligi fronti tuzilib, hukumatga barcha partiyalar vakillari kiritildi va unga **Y.Sirankevich** boshchilik qildi. V.Gomulka tutgan yo'l ham o'zini oqlamadi. **1970-yil dekabr**da oziq-ovqat tovarlari narxi oshishi e'lon qilindi. Bu ommaviy norozilikka sabab bo'ldi. Natijada **1970-yil 20-dekabr**da partiya rahbarligiga **E.Gerek (1913 – 2002)** keldi. Hukumat **«o'ta industrlashtirish»** siyosatini yuritdi. Tashqi qarz **23 mlrd dollar**ga yetdi. Yetishmovchilik kuchaydi. Olibsotarlik va jinoyat o'sdi. **1980-yili** ommaviy ish tashlashlar boshlandi.

1981-yili «Birdamlik» harakati tashkil etildi. Uning rahbari ishchi-elektrik **Lex Valensa** edi. **1981-yil fevral**da **V.Yaruzelskiy** bosh vazir, **sentyabr**da esa partiya rahbari etib saylandi. **14-dekabr**da mamlakatda harbiy holat e'lon qilindi. «Birdamlik» taqiqlandi, rahbarlari esa qamaldi. **1983-yil yoz**ida harbiy holat bekor qilindi. Korxonalarni xususiylashtirish boshlandi. **1988-yil iyuldan 1990-yil dekabrgacha** V.Yaruzelskiy mamlakat prezidenti lavozimida ishladi. Hukumatni L.Valensaning safdoshi **T.Mozaveskiy** boshqardi.

1990-yili PBIP faoliyati tugadi. **Dekabr**da Lex Valensa prezidentlikka saylandi. **1993-yili 70 foiz** korxona xususiylashtirildi. **«Shok terapiyasi»** amalga oshirildi. Demokratiyani rivojlantirish choralari ko'rildi. Qator qiyinchiliklar yuzaga keldi. **1995-yil**gi saylovlarda **A.Kvasnevskiy** prezidentlikka saylandi. **2005-yil dekabr**da esa uning o'rniga **Lex Kachinskiy** keldi. Polsha **Yevropa Ittifoqi** va **NATO**ga qabul qilindi.

Chexoslovakiya. **1945-yil mart**da Chexoslovakiyada Milliy front tuzildi. Respublika prezidenti lavozimini **E.Benesh** egalladi. **1945-yil 4-apre**lda **Z.Firlinger** boshliq hukumat tuzildi. **K.Gotvald** bosh vazir o'rinbosari bo'lib qoldi. Bu tarixda **«Koshitse hukumati»** deb nom oldi. **1945-yil 21-iyun**da fashistlar bilan hamkorlik qilganlarning mulki bepul musodara qilindi. **24-iyun**da korxonalar, banklar milliylashtirildi.

1946-yil 26-mayda K.Gotvald hukumat boshlig'i lavozimini egalladi. **1948-yil 6-iyun**da E.Benesh iste'foga chiqqach, K.Gotvald mamlakat prezidenti etib saylandi. **50-yillar**da sanoat **93 foiz**ga o'sdi, yirik korxonalar qurildi, xalqning turmush darajasi oshdi.

1953-yil martda, K. Gotvald vafotidan keyin, **A.Zapoteskiy** prezident bo'ldi. **1957-yili** uning o'rniga **A.Novotniy (1904 – 1975)** keldi. Lekin **1961 – 1963-yillari** mamlakatda og'ir inqiroz ro'y berdi va u **1966-yil**gacha davom etdi. Sanoat va qishloq xo'jaligi o'sishi, mehnat unumdorligi pasaydi. Xalqning noroziligi kuchaydi. A.Novotniyning uzoq yillik hukmronligi davrida qotib qolgan totalitar jamiyatni o'zgartirishga da'vatkorlar ko'paydi. Natijada **1968-yil yanvar**da **A.Dubchek** boshchiligida jamiyatni islohot yo'li bilan tubdan yangilash tarafdorlari bo'lgan kuchlar hokimiyat tepasiga kelishdi. A.Novotniy lavozimidan ketdi.

A.Dubchek iqtisodiyotga bozor munosabatlarini joriy etish, jamiyatni demokratlashtirish rejasini e'lon qildi. SSSR oliy siyosiy rahbariyati, shuningdek, CHKPning KPSSga sodiq qismi bu rejani **«aksilinqilobiy reja»** hisobladilar. Ayni paytda, A.Dubchek va uning tarafdorlarini o'z rejasidan voz kechishga chaqirdilar. Biroq A.Dubchek boshchiligidagi CHKPning islohotchi rahbariyati o'z fikrida qat'iy turdi.

1968-yil 21-avgustda Varshava shartnomasiga a'zo 5 davlat (**SSSR, Polsha, GDR, Vengriya** va **Bolgariya**) armiyasi Chexoslovakiya hududiga kiritildi. Shu tariqa totalitar sotsializmni yo'q qilish yo'lidagi harakat bostirildi. A.Dubchek va boshqalar hibsga olindi. Tarixga bu voqealar **«Praga bahori»** nomi bilan kirdi.

1968-yil boshida ishlab chiqilgan dasturdan faqat bittasi – mamlakatni Chexiya va Slovakiyadan iborat federatsiyaga aylantirish amalga oshdi. **1969-yil apre**lda A.Dubchek lavozimidan bo'shatilib, uning o'rniga **Gustav Gusak** saylandi.

Mamlakatda totalitar rejim o'rnatilib, siyosiy rahbarlarning bir qismi muhojirlikka ketdi, ko'pchiligi hibsga olindi va yanchib tashlandi. Gustav Gusakning harakatlariga (*ishlab chiqarishni intensivlashtirish, texnologiyani yangilash, narxlarning nazorat qilinishi, boshqaruv tizimini takomillashtirishga*) qaramasdan, iqtisodiyotning rivojlanish sifatlari pasayib

ketdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning **3 foizi**gina jahon standartlari darajasida edi. Natijada aholini zarur mahsulotlar bilan ta'minlashda uzilishlar ro'y berdi. Norozilik to'lqinlari kuchaydi. **«Xartiya-77»** muxolifat guruhi paydo bo'ldi.

1987-yili liberal islohotchilar harakat boshladi. **1989-yil 17-noyabr**da radikal islohotni talab qilgan yoshlarning ommaviy chiqishlari boshlandi. Namoyishlar politsiya yordamida bostirildi. Sovet qo'shinlari betaraflik pozitsiyasida turdi. **18-noyabr**da **«Fuqarolik forumi»** (FF) tuzildi. **1989-yil 24-noyabr**da CHKP rahbariyati iste'fo berdi (**1987-yil dekabr**da CHKP Bosh sekretari lavozimini **M.Yakesb** egallagandi). **10-dekabr**da 77 yoshli Gustav Gusak prezidentlik lavozimidan ketdi. «Fuqarolik forumi» yo'lboshchisi **Vatslav Gavel** mamlakat prezidenti, A.Dubchek esa Federal majlis raisi etib saylandi. Shunday qilib, **«baxmal inqilob»** amalga oshdi. **1990-yil iyun**da saylovlar bo'lib, FF **50 foiz**ga yaqin ovoz oldi. **V.Klaus** boshliq koalitsion hukumat tuzildi.

Endi mamlakat ikkiga bo'linish muammosiga duch keldi. **1993-yil 1-yanvar**dan dunyo xaritasida ikkita mustaqil davlat: **Chexiya va Slovakiya Respublikalari** paydo bo'ldi. **1993-yil bahor**ida **Mixail Kovach** Slovakiya prezidenti etib saylandi. **Vladimir Michya** bosh vazir lavozimini egalladi. Hozir **Ivan Gashparovich** prezident lavozimida ishlamoqda. **1994-yil**ga kelib Slovakiyada ishlab chiqarish darajasi yuqori sur'atlarda o'sdi. **2004-yili** u **Yevropa Ittifoqi** va **NATO** a'zoligiga qabul qilindi.

Chexiya davlati prezident **Vatslav Klaus** boshchiligida yuqori sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot tayyorlash bo'yicha Sharqiy Yevropa davlatlari ichida 1-o'rinda turadi. Chexiya **1999-yil NATO**ga va **2004-yili Yevropa Ittifoqi**ga qabul qilingan.

Ruminiya. **1945-yil 6-mart**da eski burjua hukumati o'rniga **Petru Groza** boshliq **Xalq demokratik fronti** hukumati tuzildi. Hukumat fashizm tarafdorlari yerlarini, mulklarini musodara qildi va yersizlarga bo'lib berdi. **1945-yil oktyabr**da **Georgi Georgiu-Dej** RKP (**1948-yil fevral**idan **RIP** – Ruminiya ishchi partiyasi) rahbari etib saylandi. Sovetlar tipidagi sotsializm qurish boshlandi. Korxonalar, banklar davlat mulkiga aylantirildi. **1947-yil 30-dekabr**da **qirol Mixay** taxtdan voz kechib, Ruminiya xalq respublikasi deb e'lon qilindi. **1952-yil sentyabr**da konstitutsiya qabul qilindi. Petru Groza iste'foga chiqdi va Georgi Georgiu-Dej Vazirlar Kengashi raisi (**1961-yildan prezidentlik**) lavozimini ham egalladi. **50-yillar**da **2 ta besh yillik** reja bajarildi. **1960-yili 11,5 mln tonna** neft ishlab chiqarildi. Bu **1938-yil**ga nisbatan **2 baravar** ko'p edi. **1958-yili** sovet qo'shinlari mamlakatdan olib chiqib ketildi.

1962-yili mamlakatda qishloq xo'jaligini jamoalashtirish tugadi. Qora va rangli metallurgiyani rivojlantirish choralari belgilandi. **1965-yil iyul**da G.Georgiu-Dej vafot etgach, partiyada uning o'rnini **N.Chaushesku** egalladi. Prezidentlik lavozimi tugatilib, **1974-yili** qayta joriy qilindi va N.Chaushesku uni ham egalladi. Natijada uning diktatorligi qaror topdi.

Ruminiya hukumati Ruminiyaning o'ziga xosligini ta'kidlab, «Brejnev doktrinasi»dan saqlanar, O'IYK integratsion tadbirlarining ba'zilarida qatnashmas, XXRni qo'llab-quvvatlar, xalqaro tashkilotlardan yordam olishga harakat qilardi. **80-yillar**da iqtisodiyotning o'sish sur'atlari pasaydi. Yuksak texnologiyaga, xususiy xo'jaliklarga e'tibor berilmadi. Aholi ta'minoti yomonlashdi.

1987-yil Brashovada *«Yo'qolsin diktator!»* shiori ostida bo'lib o'tgan namoyish bostirildi. **1989-yil 17-dekabr**da **Timishoara**da (Transilvaniya) protestant ruhoniylarni ko'chirish jarayonida g'alayonlar kelib chiqdi va ular qurol yordamida bostirildi. Hokimiyatdan norozi bo'lganlar **Millatni qutqarish fronti** (MQF) tuzdilar. Unga **I.Iliyesku** rahbarlik qildi.

1989-yil 22-dekabrda Chaushesku diktaturasi ag'darib tashlandi. **25-dekabr**da diktator va uning xotini sud qarori bilan otib tashlandi. **1990-yil may**dagi saylovda **I.Iliyesku** prezident etib saylandi. Mamlakat bozor iqtisodiyotiga o'ta boshladi. Xususiylashtirish kuchaytirildi. Lekin ahvolni yaxshilashning iloji bo'lmadi. Aholining turmush darajasi pasaydi. Olibsotarlik, jinoyat kuchaydi.

1996-yilgi saylovda liberallar rahbari **E.Konstantinesku** prezidentlik lavozimini egalladi. U xususiylashtirishni tugallash, chet el investitsiyalarini jalb qilish, ishlab chiqarish samaradorligini va aholi daromadini oshirish uchun qator tadbirlar belgiladi. Lekin ahvol yaxshilanmadi. **2000-yil**gi saylovlarda yana **I.Iliyesku** prezidentlik lavozimiga keldi.

Bolgariya. **1944-yil 9-sentyabr**da Bolgariyada Vatan fronti hukumati tuzilib, unga **K.Georgiyev** boshchilik qildi. **20 yillik** emigratsiyadan **1945-yil noyabr**da mamlakatga qaytib kelgan G.Dimitrov Xalq majlisi raisligiga saylandi. **1945-yil noyabr**da fashizmga yon bosganlar mulki milliylashtirildi. **1946-yil mart**da agrar islohot o'tkazildi. **1946-yil 15-sentyabr**da Bolgariya xalq respublikasi deb e'lon qilindi va yangi hukumatga **G.Dimitrov** boshchilik qildi. Mamlakatda sovet namunasidagi sotsializm qurish boshlandi. **1947-yili** barcha mulklar milliylashtirildi.

G.Dimitrov **1949-yil iyul**da, uning o'rniga kelgan **V.Kolarov** esa **1950-yil yanvar**da vafot etdi. Davlat va partiya boshlig'i lavozimini **G.Chervenkov** egalladi. Uning shaxsiga sig'inish iqtisodiyotga katta zarar yetkazdi. Sanoat o'sishi, aholini zarur mahsulotlar bilan ta'minlash darajasi pasaydi.

Bir qator shaxslar qatag'on qilindi. **1954-yil mart**da partiya rahbarligiga **Todor Jivkov** keldi. G.Chervenkov hukumat boshlig'i lavozimidan ozod qilindi, uning o'rniga **A.Yugov** tayinlandi. Todor Jivkov **1962-yili** A.Yugov o'rnini ham egalladi. U **1971-yil iyul**dan mamlakat prezidenti lavozimiga saylandi va diktaturasini o'rnatdi. Mamlakat hokimiyat tuzilmalarida urug'-aymoqchilik avj oldi.

T.Jivkov davrida yangilanish va zamonaviy texnika hamda texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, uning samaradorligini oshirish uchun xo'jalik va boshqaruv tizimi o'zgartirib borildi. Mehnat intizomi qattiqlashuvi oylik maosh va nafaqalarni oshirish, ijtimoiy iste'mol fondlarini kuchaytirish hamda yangi uy-joylar qurilishi bilan qo'shib olib borildi. Mamlakatda sanoat o'sdi, AESlar qurildi, qishloq xo'jaligi va shaharlar yangi qiyofaga kirdi. Mamlakat O'IYK ishida faol qatnashdi.

Ammo ishlab chiqarish samaradorligi deyarli o'zgarmadi, yuksak texnologiyalarni uning asosiy kuchiga aylantirishga erishilmadi. Investitsiyalar qisqara bordi, milliy boylikning o'sish sur'atlari, mehnatkashlar turmush darajasi pasaydi. Mamlakatda korrupsiya kuchaydi. **80-yillar 2-yarmi**da aholining keng qatlamlari tuzumdan norozi bo'la boshladi. Sovet davlatidagi qayta qurishni T.Jivkov norozilik bilan qarshi oldi. U **1987-yili** Bolgariyani SSSR tarkibiga qo'shib olishni so'radi, lekin sovet rahbariyati bunga rozi bo'lmadi. Shundan so'ng T.Jivkov mamlakatda **«sotsializmning yangilangan modeli»**ni qurishga kirishdi.

1988-yildan hech qanday tayyorgarliksiz korxonalarning o'zini o'zi boshqarishi to'g'risida, qishloq joylarda o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlashni tashkil etish haqida farmonlar chiqardi va dunyo bozori narxlarini joriy qildi. Ammo bu ahvolni yanada murakkablashtirdi.

1989-yil 10-noyabrda T.Jivkov o'z lavozimidan chetlashtirildi, sud qilinib, qamoq jazosiga hukm etildi. **1996-yil**dan uy qamog'ida saqlanadigan bo'ldi. **1990-yil yozi**dagi saylovlardan so'ng **Jelyu Jelev** prezidentlik lavozimini egalladi. Lekin ishlab chiqarishning pasayishi, inflyatsiyaning o'sishi, oziq-ovqat tanqisligi kuchaydi. **1996-yil kuzi**dagi saylovlarda mamlakat prezidentligiga **P.Stoyanov** saylandi. **2001-yil**gi saylovlarda **Georgi Parvanov** g'alaba qildi.

Bolgariyada Yevropa Ittifoqi bilan yaqinlashish, bozor iqtisodi qonunlarini joriy etish natijasida milliy valyutaning kuchayishi va inflyatsiyaning susayishi ta'minlandi. Aholi sotsialistik xomxayollardan qutula bordi. Mamlakat **2004-yili NATO**ga va **2007-yili Yevropa Ittifoqi**ga qabul qilindi.

Yugoslaviya. Bu yerda **1945-yil 7-mart**da **I.Broz Tito** boshchiligida birlashgan vaqtli hukumat tuzildi. **1945-yil 29-noyabr**da ta'sis skupshinasi monarxiyani bekor qildi, Yugoslaviya Federativ Xalq Respublikasi e'lon qilindi. **1945-yil avgust**da agrar islohot e'lon qilindi. Eng ko'p yer **25 – 35 gektar** deb belgilandi. *Traktorsozlik, avtomobilsozlik, stanoksozlik, qora va rangli metallurgiyani rivojlantirish uchun choralar ko'rildi.* Lekin qishloq xo'jaligida ahvol og'ir edi. Dehqon mehnat kooperativlari **50 foiz**gacha dehqonlarni birlashtirdi.

1953-yil yanvarda mamlakatda prezidentlik lavozimi joriy etildi va I.Broz Tito bu lavozimni ham egalladi. **1957 – 1965-yillari** sanoat **7,5 foiz**ga o'sdi. Sotsialistik sektorda **29 foiz** haydaladigan yer to'plandi.

I.Broz Tito Yugoslaviyani buyuk davlatga aylantirish, Bolqon federatsiyasini tuzish, Albaniya hududida o'z qo'shinlarini joylashtirishga harakat qildi. Bu narsa Moskvaga yoqmadi. Natijada kelishmovchilik paydo bo'ldi. **1949-yili** aloqalar uzildi. **1953-yil** Stalin vafotidan keyingina ikki o'rtada diplomatik munosabatlar tiklandi.

Ko'rilgan choralar natijasida **50-yillar oxiri**ga kelib sanoat ishlab chiqarish hajmi urushdan oldingi davrdagidan **3 baravar**, qishloq xo'jaligi **40 foiz** o'sdi. **1965-yili** yangi islohotlar boshlandi. **1971-yili 60 foiz** traktorlar xususiy xo'jaliklar qo'lida edi. Ishchilar vaqtincha chet elga ketib ishlab, mamlakat moliyasiga katta yordam berdilar. **1971-yili 1 mln dan ortiq** yugoslavlar rivojlangan davlatlarda ishladilar.

70-yillarga kelib ahvol murakkablashdi. Millatchilar bosh ko'tardi. **1974-yili** ittifoqdosh respublikalar huquqlarini cheklaydigan konstitutsiya qabul qilindi. O'sha yili **may**da I.Broz Tito cheklanmagan muddatga prezident etib saylandi. Lekin iqtisodiyot og'irlashib bordi. Chet eldan mamlakat **40 mlrd dollar** qarzdor bo'lib qoldi.

1980-yil 4-mayda I.Broz Tito **88 yoshi**da vafot etdi. *Bu davrda sanoatning 8 foizi, savdoning 59 foizi, qishloq xo'jaligining 76 foizi xususiylashtirilgandi.* **80-yillar**ga kelib yalpi ichki mahsulotning o'sishi **70-yillar**ga nisbatan **4 marta** kam bo'ldi.

Bu davrda Yugoslaviyaning parchalanishi boshlandi. *1991-yil iyunida Xorvatiya, Sloveniya va Makedoniya mustaqil respublika deb e'lon qilindi. 1992-yil yanvarida Bosniya va Gersogovina mustaqil davlat bo'lib qoldi.*

1989-yildan prezidentlik lavozimida ishlayotgan **S.Miloshevich** mamlakat yagonaligini saqlab qololmadi. **1990-yil oxiri**da u faqat **Serbiya** prezidenti bo'lib qoldi. **1991-yili** Serbiya va Chernogoriya o'z federatsiyalarini Yugoslaviya Respublikasi Ittifoqi (YRI) deb atadi (**1997-yil**dan S.Miloshevich prezident bo'ldi).

1991-yili Xorvatiyada F.Tujman (1999-yili vafot etgach, S.Misich), 1990-yildan Bosniya va Gersegovinada A.Izetbegovich, 1997-yildan Sloveniyada M.Kuchan hukumat rahbarligida ishlab keldilar. S.Miloshevich Xorvatiya, Bosniya va Gersegovinaga qo'shin kiritdi. *5 ming kishi o'ldirildi, 500 ming kishi qochoqqa aylandi. Yugoslaviyadagi bu voqealardan keyin 10 ming kishi Vengriyaga qochib o'tdi. O'n minglab kishilar G'arbiy Yevropa davlatlariga ketdi.*

YRIning keyingi rivojlanishidagi murakkab vaziyat Miloshevichning **Kosovo**dagi siyosati natijasi bo'ldi. U yerda **1990-yil**ga kelib alban millatiga mansub bo'lmagan aholi atigi **10%** ni tashkil qilardi. Ko'pchilikni tashkil etgan albanlar keng muxtoriyatni talab qildi va o'lka huquqlarini cheklashga javoban o'z parlamentini sayladi. Bu parlament esa Kosovo Respublikasi mustaqilligini e'lon qildi, konstitutsiyani qabul qildi va prezident saylandi. Serbiyaning bu respublikaga qurolli kuchlar yordamida barham berishga bo'lgan urinishi Kosovoning qurollangan otryadlariga to'qnash keldi.

Serbiya qo'shinlarining Kosovoga bostirib kirishiga albanlar partizanlik urushi bilan javob qaytarishdi. Urush qurbonlar va qochoqlar sonini oshirdi. Bu urush va S.Miloshevichning kosovoliklar bilan muzokara olib borishdan bosh tortishi BMT, YXHT, NATO kabi xalqaro tashkilotlar va yirik mamlakatlar aralashuviga sabab bo'ldi. Rossiya Federatsiyasi e'tirozlariga qaramay, NATO **1998-yili** Serbiyani bombardimon qildi.

Serbiyaning bombardimon qilinib, unga qarashli qo'shinlar Kosovodan chiqarilgach, YRI qiyin vaziyatda qoldi. Serbiyada taraqqiyot yo'lini o'zgartirish va S.Miloshevichning iste'foga chiqishini talab etuvchi chaqiriqlar faollashdi.

Faqat **2000-yil**igina Serbiyada demokratik kuchlar birlashishga muvaffaq bo'lishdi va federal prezident saylovlarida Miloshevich mag'lubiyatga uchradi. Hukumat saylovlarni bekor qilishga urindi, ammo **oktyabr**da qo'zg'olon darajasiga yetgan xalq chiqishlari Miloshevichni iste'foga ketishga majbur etdi va mamlakat prezidentligiga demokratik kuchlar yetakchisi **V.Koshtunitsa** saylandi. *S.Miloshevichning Yugoslaviyadagi xunrezliklari uchun Gaaga xalqaro tribunali 2001-yili uning ustidan sud boshladi va u qamoqda vafot etdi.* Hozir **B.Tadich** Serbiya prezidentidir.

XX asr oxiriga kelib fuqarolar urushi natijasida sobiq Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasidagi (YSFR) **6 ta** ittifoqdosh respublikadan **4 tasi (Sloveniya, Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina, Makedoniya**) mustaqil davlat bo'lib ajralib chiqdilar. Bu davrda oldin Bosniya va Gersegovinaga, so'ngra Kosovo avtonom o'lkasiga AQSh

boshchiligida BMT qo'shinlari kiritildi va etnik kelishmovchiliklarni tugatish uchun *1999-yili Kosovo BMT protektoratiga aylantirildi. 1992-yildan 2003-yilgacha Kichik Yugoslaviya (Serbiya va Chernogoriya) yoki Yugoslaviya Respublikalar Ittifoqi deb ataldi. 2003 – 2006-yillari Serbiya va Chernogoriya konfederativ davlat ittifoqi vujudga keldi.* **2006-yil 3-iyun**da Chernogoriya bu ittifoqdan chiqqach, Serbiya bir o'zi qoldi. Yugoslaviya davlati o'z faoliyatini to'xtatdi. **2008-yil 17-fevral**da Kosovo avtonom o'lkasi o'zini mustaqil deb e'lon qildi, lekin Serbiya buni tan olmadi. Tinchlik o'rnatuvchi xalqaro qo'shinlar hamon Kosovoda turibdi.

Sotsialistik davlatlarning keyingi taqdiri. **80-yillar**da birinchi bo'lib **Polsha** ishchilari bosh ko'tarishdi. **1981-yili** hukumat mamlakatda harbiy holat joriy etishga majbur bo'ldi. **1989-yil noyabr**da **Chexoslovakiya**da Kommunistik partiyaning rahbarlik roli barham topdi. Boshqa «sotsialistik» davlatlarda ham ahvol Polsha yoki Chexoslovakiyadagidan yaxshi emasdi. Shu tariqa Sharqiy Yevropa davlatlarida hukmron kommunistik partiyalar o'z ta'sirini yo'qota bordilar. Ayni paytda, Sharqiy Yevropa davlatlarida demokratik inqilobiy vaziyat yuzaga keldi. Totalitar-sotsializm ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham ijtimoiy, ham ma'naviy inqirozga yuz tutdi.

1989-yil yanvarda **Vengriya**da parlament demokratiyasiga o'tiladi. **Iyun**da **Polsha**da muxolifat kuchlar saylovda g'olib chiqdilar. Shu yil **4-noyabr**da **GDR**da kommunistlar rejimi quladi. **10-noyabr**da **Bolgariya**da kommunistlar diktaturasi barham topdi. **22-dekabr**da esa **Ruminiya**da sotsialistik rejim ag'darildi.

Shu tariqa sobiq sotsialistik davlatlarda demokratik inqiloblar g'alaba qozondi. Bu inqiloblar oqibatida totalitar sotsializm barham topdi. Bugungi kunda ularda iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qaror topmoqda.

28-BOB. OSIYO VA AFRIKA DAVLATLARI

28.1. YAPONIYA

Urush oqibatlari. Urush Yaponiyani vayronaga aylantirdi. Ishlab chiqarish urushdan oldingi darajaning **30 foiz**iga tushib qoldi. **10 mln kishi** ishsiz qoldi. Yaponiya taslim bo'lgach (**1945-yil 2-sentyabr**), ikki haftadan so'ng uning hududi AQSh armiyasi tomonidan okkupatsiya qilindi. Bu armiyaga **general D.Makartur** rahbarlik qildi. U Yaponiyada cheklanmagan hokimiyatga ega edi.

Yaponiya qurolsizlantirilishi va mamlakatda demokratik tartib o'rnatilishi kerak edi. Bu vazifaning amalga oshirilishini nazorat qilish maqsadida **Tokio**da ittifoqchi davlatlar (**AQSh, SSSR, Buyuk Britaniya va Xitoy**) vakillaridan iborat **Ittifoq kengashi** tuzildi.

Amerikaliklar **Iosuda**ni bosh vazir qilib qo'ydilar. U **1944-yil**dan qurol-yarog' vaziri bo'lib ishlagan va amerikaliklarga *«kommersiya xabarini»* yetkazishda ayblanib, **1945-yil boshi**da qamoqqa olingandi. Iosida ozgina tanaffus bilan (**1947 – 1948**) mamlakatni **1954-yil dekabri**gacha boshqardi.

Mamlakat armiyasi demobilizatsiya qilindi. Harbiy muassasalar tarqatib yuborildi. Militaristik tashkilotlar taqiqlandi. Harbiy va siyosiy jinoyatchilar sudga tortildi. Davlat apparati jinoyatchi unsurlardan tozalandi. Yashirin politsiya tugatildi. Kasaba uyushmalari faoliyati tiklandi. Demokratik siyosiy partiyalar tuzildi. Bular taraqqiyparvar, liberal va sotsialistik partiyalar edi. Mamlakat demokratik yo'ldan taraqqiy etishi uchun barcha zarur choralar ko'rildi.

Yaponiyaning yangi konstitutsiyasi. Yaponiya parlamenti **1947-yili** mamlakatning yangi konstitutsiyasini qabul qildi. *Unga ko'ra, Yaponiyada konstitutsion monarxiya tuzumi amal qiladi. Imperator hokimiyati saqlanib qolgan bo'lsa-da, Yaponiya demokratik davlat deb e'lon qilindi. Imperator amalda real hokimiyatdan mahrum etildi. U millat birligi ramzi sifatida saqlab qolindi. Garchand bosh vazirni imperator tayinlasa-da, uni parlament tasdiqlashi zarur edi.* Konstitutsiyaga Yaponiyaning kelgusi taraqqiyoti uchun juda katta ijobiy rol o'ynagan bir modda kiritildi. *Bu Yaponiyaning urushdan millatning suveren huquqi sifatida voz kechgani va mamlakatning armiyaga ega bo'lish huquqini taqiqlagani to'g'risidagi modda edi.*

Tinchlik shartnomasining imzolanishi. Yaponiya bilan tinchlik shartnomasini imzolash maqsadida **1951-yili** AQShning **San-Fransisko shahri**da xalqaro konferensiya chaqirildi. Konferensiya yakunlariga ko'ra, **1951-yil 2-sentyabr**da bir tomonlama tinchlik shartnomasi imzolandi va **1952-yil 28-aprel**dan kuchga kirdi. *Unga ko'ra, Yaponiya Koreya mustaqilligini tan oldi. Tayvan, Peskador, Kuril orollari va Saxalinning janubiga daxl qilmaydigan bo'ldi.* Ittifoqchi davlatlardan **SSSR** bu shartnomani imzolamadi. «Sovuq urush» boshlangach, AQSh Yaponiyaga nisbatan munosabatini o'zgartirdi. Chunki AQSh Uzoq Sharqda SSSR ta'sirining kuchayishini xohlamasdi. AQSh – Yaponiya harbiy ittifoqi buning kafolati bo'lishi kerak edi. Ayni paytda, Yaponiya o'zining shimoliy yerlaridan bir qismi (Yalta konferensiyasi qaroriga ko'ra) SSSRga berilganiga toqat qilolmasdi. Shunday sharoitda Yaponiya uchun ham AQShdek qudratli tayanch zarur edi. Ikki davlat manfaatlari mushtarakligi

amerika – yapon harbiy ittifoqini tuzish masalasini ko'ndalang qo'ydi. San-Fransisko konferensiyasida Yaponiya bilan tuziladigan tinchlik shartnomasi AQSh – Yaponiya harbiy ittifoqi to'g'risidagi shartnoma bilan birgalikda imzolanadigan bo'ldi.

SSSR bunga qarshi chiqdi va norozilik belgisi sifatida konferensiya ishida qatnashishni to'xtatdi. AQSh va Yaponiya o'rtasida imzolangan shartnoma **«Xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma»** deb ataldi. *Unga ko'ra, Yaponiyada AQShning harbiy bazalari saqlab qolindi. Ayni paytda, AQShning okkupatsiya tartibi bekor qilindi.*

Islohotlar va Yaponiyaning iqtisodiy taraqqiyoti. **1946-yili** Yaponiya parlamenti agrar islohot to'g'risida qonun qabul qildi. *Uning maqsadi pomeshik yer egaligini tugatish edi.* Davlat yer egalari yerini sotib oldi va ularni dehqonlarga sotdi. Shu tariqa pomeshik yer egaligi tugatildi. Endilikda mamlakat qishloq xo'jaligida katta bo'lmagan fermer xo'jaliklari asosiy rol o'ynay boshladi.

Sanoatni tiklash uchun barcha zarur choralar ko'rildi. Ayni paytda, AQSh reparatsiya olishni to'xtatdi. Yapon xalqi yuksak vatanparvarlik, mehnatsevarlik, nihoyatda intizomlilik, toqatlilik va sabr-bardoshlilik namunalarini ko'rsatib mehnat qildi. Qolaversa, ish beruvchilar bilan xodimlar o'rtasida yaponlargagina xos hamkorlik vujudga keldi. *Unga ko'ra, ish beruvchi bilan xodim o'rtasida shartnoma tuzilardi. Shartnomada korxona xodim to nafaqaga chiqquncha ish bilan ta'minlash, xodim esa shu yillar mobaynida sidqidildan mehnat qilish majburiyatini olardi.* Yaponiyaning harbiy xarajatlari nihoyatda kam bo'lib, yillik ijtimoiy mahsulot qiymatining atigi **1 foiz**ini tashkil etardi. Bu hol butun kapital mablag'ning juda katta qismini ishlab chiqarishga yo'naltirishga imkon berardi. Yaponlarga xos yana bir xususiyat o'zgalar yutug'ini erinmay o'rganish va ulardan unumli foydalana olishdir. Yuqoridagi omillar Yaponiyaning gurkirab rivojlanishini ta'minladi. Chunonchi, **1951-yil**iyoq sanoat ishlab chiqarishi urushdan oldingi darajaga yetdi. **1951 – 1970-yillari** mamlakat iqtisodiyotining yillik o'sishi o'rtacha **14,6 foiz**ni tashkil etdi.

1950-yil yozida AQShning Koreyadagi urushi munosabati bilan Yaponiyaga juda ko'plab harbiy buyurtmalar berildi. Natijada Yaponiya valyuta zaxirasi **1952-yili 1 mlrd dollar**ni tashkil etdi. **1960-yil**ga kelib Yaponiyada sanoatning yillik o'sishi **20 foiz**ni tashkil qildi. **«Yapon mo'jizasi»** dunyoni lol qoldirdi.

Olimlarning kuzatishiga qaraganda bu mo'jizaning siri quyidagi sabablarga bog'liqdir: *1. Asosiy kapitalning yangilanishi.* Sanoat korxonalarida barcha eskirgan jihozlar **50-yillar**da almashtirildi. Bu narsa **1960-yili** o'rta

va mayda korxonalarga ham joriy etildi. Chunki **30 foiz ishchilar** shunday korxonalarda ishlaydi; *2. Harbiy buyurtmalar.* Koreya va Vyetnam urushlari munosabati bilan berilgan buyurtmalar sanoatchilarga juda katta foyda keltirdi. Keyinchalik mamlakatning o'zida buyurtma ko'paydi; *3. Urushdan keyin harbiy xarajatlarning yo'qligi.* Chunki AQSh **80%** harbiy xarajatni moliyalashtirdi. Harbiy xarajatlar **1970-yil**ga kelganda byudjetning **1,2 foiz**ini tashkil etdi; *4. Konsernlarning ko'ptarmoqliligi kapitalni aylantirishda qo'l keldi.* Masalan, kemasozlik korxonalari qiyin paytlarda mashinasozlik, kimyo jihozlari, turbinalar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashgan; *5. Davlat monopolizmining xususiy korxonalar bilan yaqinligi.* Vazirlar Mahkamasida tashkil etilgan iqtisodiy rejalashtirish qo'mitasi ichki va tashqi bozor muhitini o'rganadi hamda ilmiy-texnikaviy axborotni barcha korxonalarga tarqatadi. Davlat eng muhim sanoat tarmoqlari bo'lgan atom sanoati, raketasozlik va boshqalarni hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtiradi, kapital qo'yilishini muvofiqlashtiradi. Yaponiyada rejalashtirishdan ustalik bilan foydalaniladi. Yana muhim tomoni, ma'lum bir tumanda uy-joy, kommunikatsiya, vodoprovod va boshqa infratuzilmani yuzaga keltirish bilan davlat ishlab chiqarish kuchlarini jamlaydi. Davlat hisobidan ko'plab sanoat korxonalari yangi joylarga ko'chiriladi; *6. Boshqa mamlakatlar tajribasidan texnik yordam to'g'risida bitimlar tuzish, litsenziyalar sotib olish yo'lidan juda keng foydalaniladi.* Lekin bu narsa mamlakat ichkarisida ilmiy-tadqiqot bazasiga salbiy ta'sir etishini hisobga olib ilmiy-texnik izlanishlarga har **10 yilda 6 baravardan ko'p** mablag' sarflamoqda; *7. Ilmiy-texnika inqilobini bevosita ishlab chiqarishda nihoyatda tez qo'llab samaradorlikka erishmoqda.* Bir soha chiqindilarini boshqa siklga yo'naltiriladi. Jumladan, neftni qayta ishlash sintetik materiallarga, kimyo qurilish materiallariga va h.k.; *8. Xodimlarga «psixologik yondashuv».* Yaponiya korxonalari ishchilarni ishga layoqatsiz bo'lib qolgunicha yoki umrbod ish bilan ta'minlash to'g'risida shartnoma tuzadi. Ishchi esa intizomli, har qanday qiyinchilikka chidaydigan, korxonani o'ziniki deb biladigan, unga xiyonat qilmaydigan bo'lishi zarur; *9. Yaponiya iqtisodiyoti rivojlanishida tashqi savdo muhim rol o'ynaydi. Yapon iqtisodi jahon bozoriga bog'langan va 100 foiz paxta, jun, kauchuk, nikel, boksitni, 99 foiz neftni, 90 foiz temir rudasi, ya'ni 80 foiz xomashyo va 20 foiz oziq-ovqatni chetdan sotib oladi.* **1965-yil**gacha Yaponiya importi darajasi eksportga nisbatan yuqori edi. Undan keyin balans faollashdi, eksport ko'paydi.

1968-yilga kelib Yaponiya jami milliy mahsuloti hajmi jihatidan **Fransiya, Buyuk Britaniya va GFR**ni ortda qoldirdi. Dunyoda AQShdan

keyin **2-o'rin**ga chiqib oldi. **1981-yili** yana bir mo'jiza ro'y berdi. *Shu yili Yaponiya yengil avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha AQShni ortda qoldirdi.* Mamlakatda videotexnika, rangli televizor va boshqa maishiy xizmat texnikasi misli ko'rilmagan darajada o'sdi. Raqamli axborot texnologiyasi, robotlar ishlab chiqarishda dunyoda oldingi o'rinda turibdi. **Mitsui, Mitsubisi, Sumitomo, Toyota, Kavasaki** kabi gigant korporatsiyalar milliardlab foyda ko'rmoqda. Mamlakatda temir va ko'mir konlari bo'lmasa-da, elektron sanoatning tayyor mahsulotlari, avtomobillar, kimyo sanoati mahsulotlari, optika, sintetik tola va boshqa muhim tovarlarni eksport qiladi.

Yaponiya avtomobillar, kemalar, ro'zg'or elektr texnika asboblari, sanoat robotlari ishlab chiqarish, stanoksozlik jihatidan dunyoda 1-o'rinni egallaydi. Baliq ovlash bo'yicha dunyoda **1-o'rin**da turadi. Dunyoning **15 foizdan ortiq balig'**ini ovlaydi va uni qayta ishlaydi. Dunyoning **2 foiz (127 mln)** aholisiga ega Yaponiya jahonning **13,3 foiz** mahsulotini ishlab chiqaradi.

Tashqi siyosat. Yaponiya tashqi siyosatida San-Fransisko shartnomasidan so'ng AQSh asosiy hal qiluvchi rol o'ynadi. **1954-yil** bosh vazirlik lavozimini egallagan **Xatoyama** o'z dasturining bir punktini Sovet davlati bilan munosabatlarni yaxshilashga bag'ishladi. Natijada **1956-yil oktyabr**da ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar tiklandi. Yapon fuqarolari o'z vatanlariga qaytarildi. Tinch okean shimoli-g'arbida baliq ovlash, dengizda halokatga uchraganlarga yordam berish to'g'risida bitimlar tuzildi.

1957-yil dekabrda sovet – yapon savdo shartnomasi imzolandi va tovar ayirboshlash yo'lga qo'yildi. Shuningdek, **1960-yil Kisi hukumati** AQSh bilan «xavfsizlik shartnomasi»ni imzoladi va u **1970-yili** uzaytirildi. Unga ko'ra, Yaponiya hududida AQShning **118 ta harbiy obyekti** bo'lib, ularga **50 mingga yaqin harbiy** joylashtirilgandi. Yaponiya AQShning Vyetnamdagi urishini qo'llab-quvvatladi.

Sobiq bosh vazir **Tanaka** Amerikaning **«Lokxid» aviakompaniyasi**dan katta miqdorda pora olgani fosh bo'ldi. Mamlakatda korrupsiya kuchaydi. **1974-yil dekabr**da bosh vazirlik lavozimiga kelgan **Miki** zo'rg'a **2 yil** turdi va **Fukuda**ga o'z o'rnini bo'shatib berdi. *Uning davrida Yaponiyaning «Umumiy bozor» davlatlari bilan raqobati kuchaydi.*

1972-yili Xitoy bilan diplomatik munosabatlar o'rnatildi. **1978-yili** esa tinchlik va do'stlik to'g'risida bitim tuzildi. *1990-yillarda Yaponiya o'z taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi.* Lekin Osiyoda uning **Janubiy Koreya, Tayvan, Tailand, Malayziya** kabi raqobatchilari kuchayib bormoqda.

Siyosiy hayotda **1955-yil**dan beri **Liberal-demokratik partiya** hukmronlik qilib kelmoqda. Korrupsiya, poraxo'rlik, tovlamachilik tez-tez ko'zga tashlanadi.

XXI asr boshlariga kelib Yaponiyada siyosiy kuchlar qayta guruhlandi. **2000-yili** o'tkazilgan saylovlarda Liberal-demokratik partiya rahbari **Mori** bosh vazirlik lavozimiga saylandi. Lekin u ham korrupsiya bilan bog'liq janjalga aralashib qoldi va iste'foga chiqdi. Shundan so'ng **J.Koidzumi** bosh vazir bo'lib qoldi va u tartibni ancha kuchaytirdi. Hukumatda beqarorlik davom etib, **2006-yil sentyabr**da bosh vazirlik lavozimiga **Sundzo Abe**, **2007-yil sentyabr**da **Y.Fukudo** keldi.

28.2. XITOY XALQ RESPUBLIKASI

1946 – 1949-yillardagi fuqarolar urushi. Ikkinchi jahon urushi tugashi arafasida Xitoyda amalda **3 ta hokimiyat** bor edi: *1) Xitoydagi Yaponiya ma'muriyati; 2) mamlakat shimoli va shimoli-sharqida qaror topgan Xitoy kommunistik partiyasi (XKP) boshchiligidagi hokimiyat; 3) mamlakat janubi-g'arbidagi Chan Kayshi hukumati (Gomindan hukumati).*

Yaponiya tor-mor etilgach, uning Xitoydagi ma'muriyati ham quladi. **1946-yil yozi**da Gomindan armiyasi XKP armiyasi egallab turgan hududga hujum qildi. Shu tariqa fuqarolar urushi boshlandi. Bu urush **1949-yil kuzi**gacha davom etdi. Nihoyat, urushda Gomindan armiyasi yengildi. Uning qolgan qismi Chan Kayshi boshchiligida **Tayvan orol**ida (AQSh panohida) joylashib oldi.

Xitoy Xalq Respublikasining tashkil topishi. XKP hokimiyatni to'la egallagach, **1949-yil 1-oktyabr**da Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) tashkil etildi. XKP mamlakatda sotsializm qurilishini e'lon qildi. **1950-yil 30-iyun**dagi qonun asosidagi islohot natijasida katta yer egaligi tugatildi. Dehqonlarga **47 mln ga** yer bo'lib berildi. **1950-yili Tibet** bosib olindi. Dalaylama **Hindiston**ga qochdi. **1956-yil**gacha qishloq xo'jaligi shirkatlari tuzildi. Bir vaqtning o'zida mamlakatda industrlashtirish ham boshlandi. Bu borada SSSR XXRga katta yordam ko'rsatdi. *Uning yordami bilan 250 dan ortiq yirik sanoat korxonalari qurildi.*

XXRda ham xalq xo'jaligi, SSSRda bo'lgani kabi, besh yillik rejalar asosida rivojlana boshladi. **1953 – 1957-yillari** birinchi besh yillik rejani bajarish uchun kurash bordi. Reja muvaffaqiyatli bajarildi. Bu muvaffaqiyat XKP rahbariyatini ruhlantirib yubordi. Barcha kommunistik partiyalarga xos xomxayollik XKP rahbariyatini (**Mao Szedun** boshchiligidagi) ham chetlab o'tmadi. **1958-yili** XKP **«Katta sakrash»** deb atalgan (**1958 –**

1962) yangi bosh yo'lni tasdiqladi. *Uning mazmuni iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish, katta sakrashni amalga oshirish va kommunistik jamiyat qurishdan iborat edi.*

«Insoniyatning baxtli kelajagi» deb e'lon qilingan kommunizmni qurishning asosiy vositasi haq to'lanmaydigan mehnat bo'lishi zarur edi. Bu narsa *«uch yillik qattiq mehnat – o'n ming yillik baxt-saodat»* shiori ostida o'tishi kerak edi. Qishloq xo'jaligi shirkatlari o'rniga o'rtacha **20 ming dehqonni** birlashtirgan xalq kommunalari tuzildi. Unda hamma narsa umumiylashtirildi. Mahsulotni hammaga baravar taqsimlash tamoyili joriy etildi. Sanoat **6,5 baravar**, qishloq xo'jaligi **2,5 baravar** o'sishi mo'ljallandi.

Dehqon mehnati qattiq tartibga bo'ysundirildi. Ular ishga saf tortgan holda borardilar. Biroq tez orada «Katta sakrash» barbod bo'ldi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi kamaydi. Hatto ayrim hududlarda ocharchilik ham boshlandi. Sanoat ishlab chiqarishi pasaydi. Shu tariqa iqtisodiy inqiroz yuz berdi. Oqibatda Mao Szedun siyosatiga qarshi muxolifat vujudga keldi. U Mao Szedun siyosatini qattiq tanqid qila boshladi. Bunga javoban Mao Szedun qatag'on siyosatini qo'lladi. Bu siyosat Xitoy tarixiga **«buyuk proletar madaniy inqilobi»** nomi bilan kirgan. *1966-yildan boshlangan va 1976-yilgacha davom etgan «Madaniy inqilob», aslida, jamiyatdagi Mao Szedun siyosatiga qarshi kuchlarni amalda yo'q qilishni anglatardi.* Ko'plab partiya, davlat va harbiy kadrlar qatag'on qilindi. Xitoy chuqur iqtisodiy va siyosiy inqirozni boshdan kechira boshladi. «Xunveybin»lardan **100 mln ga yaqin kishi** jabr tortdi. Mamlakat **500 mlrd yuan** zarar ko'rdi.

Yangi kuchlarning hokimiyatga kelishi. **1976-yil sentyabr**da Mao Szedun vafot etdi. Bu hodisa Xitoyda hokimiyat uchun kurashni avj oldirdi. Partiya rahbarligiga **Xua Gofen** keldi. **To'rtlar to'dasi** (bunga Maoning xotini **Szyan Sin** ham kirardi) *«Ishlab chiqarishga juda katta zarar keltirganlikda»* ayblanib qamoqqa olindi.

Oxir-oqibatda hokimiyat tepasiga **«pragmatiklar»** deb atalgan guruh keldi. Bu guruhga «madaniy inqilob» yillarida qatag'on qilingan **Den Syaopin** rahbarlik qilardi (Den Syaopin **1997-yili 92 yoshi**da vafot etdi). XKP yangi rahbariyati Mao Szedun yo'lini xato deb e'lon qildi. «Katta sakrash» va iqtisodiyotning to'la davlat nazoratiga olingani mamlakat va xalqqa ulkan kulfat keltirgani tan olindi va ular qoralandi.

1978-yildan pragmatiklar aralash iqtisodiyotni yoqlab chiqdilar. Davlat rahbarligida bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li tanlandi. Bu tarixga **«iqtisodiy va siyosiy hayotni modernizatsiya qilish»** nomi bilan kirdi. Chet el sarmoyasining mamlakat iqtisodiyotiga joylashtirilishi uchun qulay sharoit

yaratildi. Qishloqda xalq kommunalari tarqatib yuborildi. Shirkat tuzumi bekor qilindi. Ularning o'rniga oila pudrati joriy etildi.

Sanoatda ham chuqur islohotlar o'tkazildi. Chunonchi, davlat korxonalari xo'jalik hisobi asosida ishlaydigan bo'ldi. Kichik va o'rta tadbirkorlikka keng yo'l ochildi. Ayni paytda, sanoatning maishiy tovarlar ishlab chiqaruvchi sohalarini rivojlantirishga katta e'tibor berildi. Yangi siyosat o'z samarasini bermay qolmadi, *80-yillar oxiriga kelib Xitoy ko'mir, televizor, shoyi-gazlama, sement ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 1-o'ringa chiqdi.* Mamlakat oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini o'zi ta'minlaydigan bo'ldi. Bular, o'z navbatida, aholi turmush darajasi o'sishiga olib keldi.

90-yillarda mamlakatda po'lat, rangli metallar eritish, sement, mineral o'g'it ishlab chiqarish, ko'p tarmoqli mashinasozlik rivojlandi. To'qimachilik sanoati mahsulotlari jahon bozorini egalladi. An'anaviy hunarmandchilik: ipakdan, suyakdan badiiy buyumlar yasash, chinni mahsulotlar mashhur bo'ldi. Dengiz mahsulotlari, dorivor o'simliklar, yog'och mahsulotlarni ishlab chiqarish ko'paydi. Ishlab chiqarishda samaradorlik oshdi.

1992-yildan Xitoyda iqtisodiy islohotning yangi bosqichi boshlandi. *Bu bosqich islohotni jadallashtirish va chuqurlashtirish, iqtisodiy siyosatni mafkuradan xoli qilish va rejali boshqaruvdan bozor iqtisodiyotiga izchillik bilan o'tish bosqichi deb nom oldi.* Bu bosqich, ayni paytda, iqtisodiyotda davlat mulki hissasining kamayib borishini ham o'z ichiga oladi. Amalda shunday bo'lmoqda ham.

Xitoyda iqtisodiy islohotlar olib borilgan keyingi **25 yil** davomida olamshumul muvaffaqiyatlar qo'lga kiritildi. **1998-yili** ichki ishlab chiqarishning umumiy qiymati **1978-yil**dagidan **5,4 hissa ortiq** bo'ldi. Xitoyda ishlab chiqarish qoldiqlarini qayta ishlash keng yo'lga qo'yildi. Xitoy rivojlangan davlatlardan ishlab chiqarish qoldiqlarini sotib olib, qayta ishlaydi va milliardlab foyda oladi. Xitoy har yili AQShdan **14 mlrd dollar**ga chiqindi sotib oladi.

Hatto **1998-yili** Osiyoda pul masalasi inqirozi hamda tarixda kam uchraydigan kuchli suv toshqiniga duch kelinganda ham Xitoyda ishlab chiqarishning umumiy qiymati **1997-yil**dagidan **7,8 foiz**ga oshdi. *Bu davrda qator sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish miqdori, masalan, guruch, paxta, go'sht, yog'-moy, ko'mir, po'lat, sement, gazlama, televizor ishlab chiqarish bo'yicha Xitoy dunyoda 1-o'ringa chiqdi.*

Davlat tashqi pul muomalasi zaxirasi **45 mlrd dollar**ga yetdi. *Xitoy oldingi iqtisodiy qoloq holatdan AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Angliya va Italiyadan keyin dunyoda 7-o'ringa chiqdi.*

90-yillardan belgilangan «Sotsialistik bozor xo'jaligiga o'tish» qishloq xo'jaligini tartibga solish, yemi ayrim xonadonlarning yakka xo'jalik yuritishiga asoslangan oilaviy pudrat deb atalgan usulda ishlash, dehqonlarning tomorqa uchastkalarini kengaytirish, yordamchi hunarmandchilikni rivojlantirish, ortiqcha mahsulotni bozorda dehqonning o'zi sotishi imkoniyatini yaratishni ko'zda tutadi.

Shaharlarda *«direktiva asosida rejalashtiriladigan sohani qisqartirish»*, sanoat korxonalarini *«mustaqil xo'jalik tashkilotlariga»* aylantirish, tovar munosabatlarini rivojlantirish, *«narx-navo davlat yo'li bilan bir xil belgilab qo'yiladigan sohani toraytirish»*, chog'roq xususiy va jamoa korxonalari, kosibchilik ustaxonalari faoliyatini, asosan, xizmat ko'rsatish va savdo-sotiq xususiy korxona egaligini rivojlantirish, mamlakat iqtisodiga chet el sarmoyasini jalb qilish xo'jalik tizimi islohotning bosh bo'g'ini bo'ldi.

XXR rahbariyati so'zlariga qaraganda, mamlakatdagi sotsialistik asosda bozor iqtisodiga o'tkazish quyidagi bosqichda amalga oshirilmoqda: **2000-yil**gacha sanoat va qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti **4 baravar** ko'payib, xalq turmushi o'rtacha ma'murchiligiga erishildi. Navbatdagi bosqich **2021-yil**gacha (XKPning 100 yilligi) Xitoyni o'rtacha rivojlangan mamlakat darajasiga ko'tarish. **2049-yil**gacha (XXRning 100 yilligi) Xitoyni yuksak darajada rivojlangan zamonaviy davlatga aylantirish vazifasi qo'yilgan.

Xitoyda iqtisodiy munosabatlarni tartibga soladigan qonunlar ikkiga: **fuqarolik qonunlari** va **iqtisodiy qonunlar**ga bo'linadi. Ular bozor subyektlarini, ya'ni korxonalarning vujudga kelishi, ularni boshqarish ishlarini zamonaviylashtirish va faolligini ishga solishning, o'zgartirilishi, bekor qilinishi, qonunni buzuvchilarning javobgarligini o'z ichiga oladi.

2004-yil 21-sentyabrda **78 yoshli Szyan Szemin** Markaziy harbiy kengash raisi lavozimidan iste'fo berdi. XXR raisi **Xu Szintao** bu lavozimni ham egalladi.

Tashqi sivosati. Urushdan keyin Xitoy Sovet davlati bilan yaqin munosabatda bo'ldi. *1950 – 1960-yillari Sovet davlati 250 dan ortiq korxona qurishda ko'maklashdi. 11 mingdan ortiq sovet mutaxassislari ishladi.* Lekin **60-yillar**dan xitoy – sovet munosabatlari buzildi. *1962-yili Himolaydagi chegara masalasida Hindiston bilan Xitoy o'rtasida qurolli mojaro kelib chiqdi.* **60-yillar**da Xitoy Vyetnamga iqtisodiy va harbiy yordam ko'rsatdi. **70-yillar**dan Xitoy AQSh bilan munosabatlarini yaxshiladi. **1971-yili** AQSh prezidentining milliy xavfsizlik bo'yicha yordamchisi **G.Kissinjer** maxfiy ravishda Xitoyga keldi va ikki mamlakat munosabatlarini yaxshilash, Xitoyni Sovet davlatiga qarshi qo'yishda katta xizmatlar qildi.

1972-yili AQSh prezidenti **A.Nikson** Xitoyga rasmiy tashrif buyurdi. **1979-yili** Xitoy bilan AQSh o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

1979-yili Vyetnam **Kambodja**dagi xitoyparast **«qizil kxmerlar»** hukumatini ag'darib tashlagach, Xitoy Vyetnamga qarshi harbiy harakat uyushtirdi. Mao Szedun vafotidan keyin sovet – xitoy munosabatlarida iliqlik paydo bo'ldi. M.Gorbachovning **1989-yil**gi Xitoyga rasmiy safaridan keyingina sovet – xitoy munosabatlari yaxshilandi. **1997-yili** Buyuk Britaniya Xitoyga **Gonkong**ni qaytarib berdi.

28.3. HINDISTON RESPUBLIKASI

Hindiston Respublikasining tashkil topishi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Hindiston xalqining milliy ozodlik kurashi yanada kuchaydi. Bu harakatga hatto Buyuk Britaniya armiyasida xizmat qilayotgan hindistonlik soldat va matroslar ham qo'shilishdi. **1946-yil fevral**da **Bombey harbiy-dengiz bazasi** matroslarining bosh ko'tarishini deyarli butun Hindiston qo'llab-quvvatladi. Shunday sharoitda Buyuk Britaniya hukumati Hindistonga mustaqillik berilishini e'lon qilishga majbur bo'ldi.

Buyuk Britaniya bosh vaziri **K.Ettli 1947-yil 20-fevral**da Hindiston haqida yangi deklaratsiya bilan chiqdi va hokimiyatni «hindlar qo'liga» topshirishini bayon qildi. **1947-yil 15-avgust**da Hindiston mustaqilligi to'g'risida qonun qabul qilindi. Unga ko'ra, Buyuk Britaniya hukmron doiralari Hindistonni ikki dominionga (**Hindiston Ittifoqi** va **Pokiston**) bo'lib yubordi.

Hindiston Ittifoqi hududida aholining katta qismi (musulmonlar ham kam emasdi) **induizm**ga e'tiqod qilishardi. Pokiston aholisining katta qismi esa (induizm diniga e'tiqod qiluvchilar ham bor edi) **islom**ga e'tiqod qilardi. Bir davlatning ikkiga bo'linishi jarayoni katta diniy to'qnashuvlar, qirg'inlar sharoitida amalga oshirildi. Ikki tomondan qochoqlar soni **8 mln dan ortiq**ni tashkil etdi. Ayniqsa, **Kashmir viloyati**ning Hindistonda qoldirilishi (viloyat aholisi, asosan, musulmonlardan iborat) Hindiston va Pokiston o'rtasida urush harakatlarini keltirib chiqardi. **1947-yil kuzi**da Pokiston qo'shinlari Kashmirga kirdi.

M.K.Gandi bu diniy to'qnashuvga qarshi chiqdi. Hindistonda musulmonlarning hayot kechirishi uchun zarur sharoit yaratishni talab qildi. Bunga shovinist hind burjuaziyasi qarshi chiqdi. **1948-yil 30-yanvar**da **70 yoshli** M.K.Gandi o'ldirildi. **1949-yil 1-yanvar**da bu ikki dominion o'rtasida urushni to'xtatish haqida bitim imzolanishiga erishildi. **1949-yili** Hindiston Ta'sis majlisi mamlakat konstitutsiyasini qabul qildi va u

1950-yil yanvardan kuchga kirdi. **1950-yil 26-yanvar**da Hindiston respublika deb e'lon qilindi. Shunday qilib, hind xalqining Buyuk Britaniya mustamlakachiligiga qarshi **salkam 100 yil** davomida olib borgan milliy ozodlik kurashi mustaqillik bilan yakunlandi. Bu kurashga Hindiston Milliy Kongressi (HMK) rahbarlik qildi. Muslaqillikdan so'ng tuzilgan birinchi hukumatni HMK rahbari **J.Neru (1889 – 1964)** boshqardi. *Hindiston Britaniya Millatlar Hamdo'stligi tarkibida qoldi.*

Iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot. Yangi hukumat o'tkazgan dastlabki muhim islohot **agrar islohot** bo'ldi. *Unda yer bevosita unda ishlayotganlarga berilishi ko'zda tutildi.* Biroq zamindorlarning qattiq qarshilik ko'rsatishi oqibatida hamma dehqonlar ham yerli bo'lolmadi. Shunga qaramay, yerni zamindorlardan ijaraga olib ishlayotganlarning katta qismi yerli bo'lib qoldi. Mustaqillik yillarida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hajmi **ikki baravardan ortiq** ko'paydi. Hindiston **1966-yil**gacha **uchta besh yillik**ni amalga oshirdi.

Sanoat ishlab chiqarishi deyarli **to'rt baravar** ko'paydi. Hindiston agrar davlatdan agrar-industrial davlatga aylandi. *1990-yili Hindiston 170 mln kv/s elektr energiya, 12 mln tonna po'lat, 30 mln tonna neft ishlab chiqardi.* Avtomobil, avtobus, radio, televizor ishlab chiqarish yuksak sur'atlarda rivojlanmoqda. Traktor ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi davlatlardan biriga aylandi.

Hindiston iqtisodiyotida davlat sektori yildan yilga kamaymoqda. Bugungi kunda u jami milliy mahsulotning **20 foizi**ni ishlab chiqaradi, xolos. Hindiston siyosiy hayotida parlamentarizm mustahkam qaror topdi.

Taraqqiyot yo'lidagi ijtimoiy-siyosiy muammolar. Hindiston butun taraqqiyoti yillarida katta ijtimoiy-siyosiy muammolarga duch keldi va hozirgacha ular o'z yechimini topgani yo'q. Bular: *hinduiylar bilan musulmonlar o'rtasidagi diniy qirg'inlar; musulmonlaming Kashmirni Pokiston bilan birlashtirish uchun kurashi; sikxlarning siyosiy muxtoriyat uchun kurashi; Panjobning Hindiston tarkibidan ajralib chiqish uchun kurashi bilan bog'liq muammolar. Bunga yana mamlakat 20 foiz aholisining yersizligi, 30 mln ga yaqin aholining ishsizligi; 60 foiz aholining hamon savodsizligi kabi muammolar ham qo'shiladi.*

1957-yil martda bo'lib o'tgan saylovlarda J.Neru yana bosh vazirlikka saylandi. **R.Prasad** esa prezidentlik lavozimini egalladi. J.Neru vafotidan so'ng, **1964-yil 2-iyun**da **L.B.Shastri** Hindiston bosh vaziri bo'ldi. Lekin **1966-yil 11-yanvar**da Pokiston bilan urushni to'xtatish haqida **Ayubxon** bilan bitimni imzolagach **Toshkent**da vafot etdi.

L.B.Shastri vafot etgach, **Indira Gandi 1966 – 1977-yillari** bosh vazir bo'lib turdi. I.Gandi o'z mavqeyini mustahkamlash uchun **1970-yili 4-besh yillik reja**ni qayta ko'rib chiqdi va davlat sektorini mustahkamlash choralarini ko'rdi. *14 ta bank, ulgurji savdoning bir qismi milliylashtirildi, monopoliyalarning roli cheklandi.* Mayda ishlab chiqarish (kichik biznes) ni rivojlantirish choralari ko'rildi. Ba'zi shtatlarda mayda yer uchastkalariga soliq bekor qilindi, katta yer egalari yerlarining maksimal darajasini pasaytirish, sobiq knyazlarning pensiya va imtiyozlarini bekor qilish choralari ko'rildi. Bu narsa parlamentda oppozitsiyani kuchaytirdi. **1971-yili** sug'urta ustidan nazorat o'rnatildi, yengil sanoatda davlat korxonalari paydo bo'ldi, xususiy mulkni milliylashtirish haqida konstitutsiyaga tuzatish kiritildi.

Bu tadbirlar yirik burjuaziya va monopolistik unsurlarning noroziligini kuchaytirdi. HMKda ham bo'linish yuz berdi. **1975-yili** hukumat yangi dastur e'lon qildi. *Unda xalqni g'alla va boshqa tovarlar bilan ta'minlash uchun davlat ta'minot tizimini joriy qilish, yer uchastkalarining maksimal darajasini cheklash va ortiqcha yerni yersiz dehqonlarga berish haqidagi qonunni barcha shtatlarda joriy qilish, qishloq xo'jalik ishchilarining minimum ish haqini belgilash, uy qurish uchun bepul yer ajratish, qaram mehnatni bekor qilish, eng kambag'al dehqonlar qarzini bekor qilish, shaharda yer uchastkasining maksimal darajasini belgilash, olibsotarlikka yo'l qo'ymaslik aytilgandi.* Shuningdek, iqtisodiy jinoyatlar: oziq-ovqatni noqonuniy to'plab qo'yganlik, kontrabanda, soliqlarni to'lamaganlik uchun jazolash ham o'z ifodasini topdi. Lekin bular chala qoldi.

Oppozitsiyachilar **Janata parti** (Xalq partiyasi)ni tuzdilar va **1977-yil mart**da parlamentga o'tkazilgan saylovlarda **Morarji Desai** boshliq hukumat tuzdilar. Janata partidan ajralib chiqqan va **1980-yili** tashkil topgan **Bxaratiya Janata parti** (BJP) mamlakatda diniy o'ziga xoslikni shior qilib olgan partiyadir. Bu partiya Hindistonni faqat induizm diniga e'tiqod qiluvchilar davlatiga aylantirish maqsadini ilgari surdi. Ayni paytda, musulmonlarni siyosat va iqtisoddan chetlatishni targ'ib etdi. Aholisining **11 foizi** musulmonlardan iborat davlatda bunday g'oyaning ilgari surilishi mamlakat siyosiy birligini katta xavf ostiga qo'yadi.

Mamlakat birligiga sikxlar harakati ham jiddiy xavf solmoqda. Ular sikxiylik diniga e'tiqod qiladilar. Bugungi Hindistonda **17 mln sikxiy** yashaydi. Oz sonli bo'lsa-da, davlat hayotida katta mavqega ega. **1980-yil yanvar**dagi saylovlarda bosh vazirlikka qaytgan HMK vakili Indira Gandi (**1966 – 1977; 1980 – 1984-yillar**) davrida ba'zi siyosiy xatoliklarga ham

yo'l qo'yildi. Chunonchi, u hindi tilini davlat tiliga aylantirishga urindi. Buni boshqa millat vakillari milliy kamsitish sifatida qabul qildilar.

Panjob shtatida yashovchi sikxlar bunga qarshi ajralib chiqish harakatini boshladilar. Ular o'z oldilariga Panjobni Hindistondan ajratib olib, **Xoliston** deb ataluvchi davlat tuzish maqsadini qo'ydilar. Ayni paytda, terrorni kuchaytirdilar. Tabiiyki, markaziy hukumat Hindistonning bo'linib ketishiga toqat qilolmasdi. Fuqarolar urushi kelib chiqishi oldini olish maqsadida **1984-yil 5-iyun**da I.Gandi sikxlarning muqaddas joyi – **Oltin ibodatxonan**i shturm bilan olishga buyruq berdi. Sikxlar qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Natijada **300 kishi** o'ldirildi. Ayni paytda, hukumat armiyasi sikxlarning yana **37 ibodatxonasi**ni egalladi. Sikxlar harakati bostirilgan bo'lsa-da, ular I.Gandidan suiqasd yo'li bilan o'ch oldilar. **1984-yil 31-oktyabr**da I.Gandining sikxlardan bo'lgan shaxsiy soqchisi uni otib o'ldirdi. Onasining o'rnini egallagan **Rajiv Gandi (1944 – 1991)** sikx terrorchiligiga chek qo'yishga qaror qildi. **1987-yil may**da Panjob to'g'ridan to'g'ri markaziy hukumatga bo'ysundirildi. Bu esa shtatni muxtor vakolatdan mahrum etishni anglatardi. Sikxlar bunga qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Hukumat armiyasi bunga javoban **1988-yil may**da yana Oltin ibodatxonani egalladi. Oqibatda minglab kishilar halok bo'ldi. Bu esa **1989-yil**i R.Gandini bosh vazirlik lavozimidan ketishga majbur etdi. **1989-yil noyabr**dagi saylovda Milliy front rahbari **Rajendra Pratap Singx** bosh vazir qilib saylandi. **1991-yil**gi parlament saylovoldi uchrashuvlarining birida R.Gandi ham o'ldirildi (**1991-yil 21-may**). Diniy, etnik to'qnashuvlar davom etdi.

1992-yil dekabrda induist fanatiklar (mutaassiblar) **XVI asr**da qurilgan musulmonlar masjidini buzib tashladi. Bu esa **Bombey** va **Kalkutta**da hindiylar va musulmonlar o'rtasida qirg'in keltirib chiqardi. Oqibatda **300 kishi** halok bo'ldi va **1200 dan ortiq kishi** yaralandi. Kashmirda ham to'g'ridan to'g'ri boshqaruv joriy etishga urinildi. Bu esa separatchilik harakatini kuchaytirdi, Hindiston va Pokiston munosabatlarini keskinlashtirdi.

1991-yil mayda bo'lib o'tgan saylovlarda HMK g'alaba qozonib, **Narasimxa Rao** boshliq hukumat tuzildi va mamlakatni **8 yil** boshqardi. Iqtisodiyotda milliylashtirishdan chiqarish davom ettirilib, zarar ko'rib ishlayotgan fabrika va zavodlar yopildi. Investitsiya ko'paytirildi, mehnat intizomi yaxshilandi, moddiy manfaatdorlik kuchaydi. Natijada inflyatsiya pasaydi, sanoatga katta miqdorda sarmoya qo'yildi, qishloq xo'jaligida mayda dehqonlarning ulushi ko'paydi. **1994 – 1995-yillari** sanoatning yillik o'sishi **10 foiz**, yalpi milliy mahsulotning yillik o'sishi **5 foiz**ga chiqdi.

Hindiston Milliy Kongressi rahbariyatida korrupsiya, poraxo'rlik va boshqa jinoyat holatlari yuz berdi. **1996-yili 30 dan ortiq** yuqori tabaqa rahbarlari sudlanib, jazolandilar.

Bu davrga kelib jangovar induizm millatchiligi kuchaydi. **72 foiz** aholisi induistlardan iborat bo'lgan aholining shovinistik qatlamlari kayfiyatini o'zida mujassamlashtirgan BJP **1998-yil fevral**dagi parlament saylovlarida g'alaba qildi va uning yetakchisi **Atal Bexari Vajpai 19-mart**da bosh vazir etib saylandi. Navbatdagi saylovlarda ham Vajpai o'z o'rnida qoldi. **2004-yil may**da hokimiyatda o'zgarish bo'lib, bosh vazirlik lavozimini **Manmoxan Singx** egalladi.

Tashqi siyosat. Hindiston tashqi siyosatida muhim muammolardan biri Pokiston bilan munosabatlardir. **1947-yil**dan beri Kashmir masalasida ikki mamlakat janjal qilib keladi. Deyarli har **10 yil**da qurolli to'qnashuvlar bo'lib turadi. Hindiston tashqi siyosatida tinch-totuv yashashning o'zi tashabbuskor bo'lgan besh tamoyiliga (*pancha chila – 1955-yilgi Bandung konferensiyasida Osiyo xalqlari o'rtasida xalqaro munosabatlarga asos qilib olingan*) amal qiladi. J.Neru **SEATO** va **SENTO** bloklari tuzilishini qoraladi. U bir qancha mahalliy janjallarni tinchitishga hissa qo'shdi.

Sovet davlati Hindistonga **60 dan ortiq** sanoat korxonalarini qurishda yordam berdi. Harbiy texnika bilan ta'minladi. Qo'shilmaslik harakati rahbarlaridan biri va **«olti mamlakat guruhi»** a'zosi bo'lmish Hindiston qurollanish poygasini to'xtatishga, qurolsizlanishga, yadro urushi xavfini yo'q qilishga, kosmosni harbiylashtirishga yo'l qo'ymaslikka, yangi xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatishga qaratilgan muhim takliflar bilan bir necha bor xalqaro maydonga chiqdi.

Hindiston Hind okeanini tinchlik zonasiga aylantirish yo'lidagi kurashga salmoqli hissa qo'shdi. AQShning **Diyego-Garsiya** harbiy oroliga bazasini joylashtirishiga qarshi chiqdi. Yangi mustamlakachilikka, irqiy kamsitish va aparteidga qarshi faol kurashib keldi. Hindiston Janubiy Osiyo mahalliy hamkorligi uyushmasi (**SAARK**) faoliyatida ishtirok etmoqda. Shri-Lanka va Janubiy Osiyodagi ahvolni yaxshilashga muhim hissa qo'shmoqda.

28.4. POKISTON ISLOM RESPUBLIKASI

Pokiston davlatining tashkil topishi. Pokiston davlati **1947-yil 14-avgust**da tashkil etildi. Bu hodisa Hindistonning ikkiga bo'lib yuborilishi natijasi edi. Mazkur bo'linish diniy belgi asosida amalga oshirilgani uchun, Pokiston hududi amalda ikki – g'arbiy va sharqiy qismdan iborat

bo'lib qoldi. Bu qismlarni **1600 km lik** masofa ajratib turardi. *Pokiston 1947-yildan 1958-yilgacha inglizlarning Hindistonni boshqarish haqidagi 1935-yilgi qonuni, 1947-yildagi Mustaqillik deklaratsiyasi bo'yicha parlament tizimi asosida boshqarib kelindi.* Oliy qonun chiqaruvchi organga saylov o'tkazilmasdi.

Pokiston davlati dastlabki kunlardanoq katta muammolarga duch keldi. Ma'lumki, Hindistonning ikkiga bo'linishi qattiq diniy qirg'inlarni keltirib chiqargandi. Buning oqibatida faqat Hindiston hududidan dastlabki yillarda **7 mln kishi** Pokistonga qochib o'tdi. Ularni yashash joyi va ish bilan ta'minlash muammosi yosh davlatning ahvolini yanada qiyinlashtirib yubordi.

Kashmir muammosi. Kashmir aholisining asosiy qismi musulmonlardan iborat. Pokiston ana shu omilga urg'u beradi. Hindiston esa Kashmirni asrlar osha hind maxaraji boshqarib kelganiga urg'u beradi. Maxaraj **1947-yil iyul**da Hindiston tarkibida qolish istagini e'lon qildi. Bu qaror ommaviy to'qnashuvlarni keltirib chiqardi. Kashmir muammosi BMT Xavfsizlik Kengashida muhokama qilindi. Kengash urush harakatlarini to'xtatish, har ikki davlat qo'shinlarini Kashmirdan olib chiqib ketish va BMT nazorati ostida Kashmirda referendum o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilgan. Biroq Hindiston BMT Xavfsizlik Kengashi qarorini bajarmadi. **1954-yil may**da Kashmirni Hindistonga qo'shib oldi. Kashmir muammosi hamon ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning keskinligicha saqlanib qolishiga sabab bo'lib kelmoqda. Ayni paytda, bu keskinlik har ikki davlatni ittifoqchilar izlashga majbur etgan. *Hindiston qo'shilmaslik harakati a'zosi bo'lsa-da, sobiq SSSR bilan, Pokiston esa AQSh bilan yaqinlashish siyosatini yuritgan.* Har ikki tomon ham kuchli armiya tuzishga urindilar. Pokiston **1954-yili SEATO**, **1955-yili Bag'dod pakti** (keyinchalik **SENTO**)ga a'zo bo'lib kirdi.

Harbiy diktatura o'rnatilishi. Aholi turmush sharoiti og'irligi, boshqa millatlar huquqlarining kamsitilishi mamlakatdagi ichki ahvolni yanada murakkablashtirdi. Pokiston hukumati mamlakatning butun hududida **urdu tili**ni davlat tiliga aylantirishga urindi. Sharqiy Pokiston (hozirgi **Bangladesh**)da, asosan, bengallar yashardi. Biroq ular davlat xizmatchilarining atigi **10 foiz**ini tashkil etardilar. Sharqiy Pokiston iqtisodiga butun davlat byudjetining **1/3 qismi**, ta'limga esa **1/16 qismi** sarflanardi. Bu hududdan qilingan eksport natijasida davlat xazinasiga tushgan valyuta, asosan, G'arbiy Pokiston ehtiyojlari uchun sarflanardi. Bu hol, tabiiyki, Sharqiy Pokistonda milliy harakatni vujudga keltirgan. Bu harakatni **Xalq Ligasi partiyasi** boshqargan.

Mamlakatdagi bu ichki ahvolni adolatli hal etish o'rniga hukmron Musulmon Ligasi partiyasi repressiya, zo'ravonlik siyosati bilan javob qaytardi. **1954-yili** Sharqiy Pokistonda qonuniy yo'l bilan hokimiyat tepasiga kelgan Birlashgan front hukumati ag'darib tashlandi. Ayni paytda, Pokiston parlamenti tarqatildi. Butun mamlakat hududida favqulodda holat joriy etildi. **1956-yil 23-mart**da yangi konstitutsiya qabul qilindi. Unga ko'ra, Pokiston islom respublikasi deb e'lon qilindi. Konstitutsiyada mamlakat prezidenti musulmon kishi bo'lishi kerak deb belgilab qo'yildi. **1958-yil**ga kelib davlatning iqtisodiy ahvoli yanada yomonlashdi. Aholi turmush darajasi pasaydi. Natijada aholining o'z haq-huquqi uchun kurashi kuchaydi.

Ayni paytda, turli siyosiy guruhlar o'rtasida hokimiyat uchun kurash kuchaydi. Mamlakatda korrupsiya avj oldi. Bu hol hukumat beqarorligini keltirib chiqardi. Mamlakatni chuqur iqtisodiy va siyosiy tanglik qamrab oldi. Shunday sharoitda Pokiston armiyasi qo'mondonligi hokimiyatni qo'lga olishga qaror qilidi. Ular **1958-yil 27-oktyabr**da davlat to'ntarishini amalga oshirdilar. Butun hokimiyat armiya bosh qo'mondoni general (*1959-yildan feldmarshal*) **M.Ayubxon** qo'liga o'tdi. Mamlakatda harbiy holat o'rnatildi. **1960-yil fevral**da saylovlar o'tkazilib, Ayubxon g'alaba qildi.

Pokiston 60 – 70-yillarda. M.Ayubxon hukumati siyosiy partiyalar faoliyatini taqiqladi. Ommaviy axborot vositalariga qattiq senzura o'rnatdi. Ayni paytda, mamlakat iqtisodiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan qator islohotlar boshlandi. Chunonchi, **1959-yili agrar islohot** o'tkazildi. *Unga ko'ra, katta yer egaligi 500 akr (200 ga) hajmida cheklab qo'yildi. Ortiqcha yerlar sotib olindi va ular kam yerlilarga sotildi.* Qolaversa, hukumat qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirishga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirdi. Sanoat, savdo, soliqqa tortish sohasida o'tkazilgan qator tadbirlar ishlab chiqarishning o'sishi uchun qulay sharoit yaratdi. Bu omillar Pokistonning iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtirdi. Biroq islohotlarning cheklangani va izchil bo'lmagani Pokistonning iqtisodiy muslaqilligini ta'minlashga imkon bermadi.

Mamlakatda harbiy holat uzoq davom etishi mumkin emasdi. Buni tushunib yetgan M.Ayubxon **1962-yil 8-iyun**da harbiy holatni bekor qildi. Mamlakatning yangi konstitutsiyasi **1962-yili** qabul qilindi. Siyosiy partiyalar faoliyatiga ruxsat etildi. Musulmon Ligasi partiyasi yetakchi partiya bo'lib qoldi. Uni M.Ayubxonning o'zi boshqardi. **1965-yili** M.Ayubxon yangi muddatga prezident etib saylandi.

Mamlakatning tashqi siyosatida biryoqlamalikdan (ya'ni G'arb davlatlari bilan yaqinlashishdan) qaytish yuz bera boshladi. Osiyo va Afrika

davlatlari bilan munosabatlarda ijobiy tomonga o'zgarish kuzatildi. Pokiston Isroilning arab davlatlariga qarshi agressiyasini qoraladi. SEATO va SENTO harbiy-siyosiy ittifoqlaridagi ishtirokini cheklab qo'ydi. Ayni paytda, Hindiston bilan munosabatlarda o'zgarish yuz bermadi. *Bu davlatlar o'rtasida 1965-yilning o'zida ikki marta qurolli to'qnashuv yuz berdi.* SSSR bu ikki davlat munosabatlarini normallashtirish uchun barcha diplomatik choralarni ko'rdi. **1966-yil yanvar**da **Toshkent**da Hindiston bosh vaziri **L.B.Shastri** va **M.Ayubxon** o'rtasida ikki davlat munosabatlarini normallashtirish haqida kelishuvga erishildi. Biroq Pokistonda ichki vaziyat beqarorligicha qolaverdi. *Buning asosiy sababi mamlakatning iqtisodiy qoloqligi oqibatida aholi turmushi past darajada qolayotgani edi.* Mamlakatni ish tashlash, namoyish to'lqini qamrab oldi. Sharqiy Pokistonda milliy harakat kuchaydi.

Repressiya vaziyatni yanada keskinlashtirdi, xolos. Mamlakatda vujudga kelgan chuqur siyosiy tanglik **1969-yil 25-mart**da M.Ayubxonni iste'fo berishga majbur etdi. Hokimiyat armiya bosh qo'mondoni **general Yahyoxon** qo'liga o'tdi. U mamlakatda harbiy holat joriy etdi. Biroq bu siyosiy vaziyatni barqarorlashtirishga yordam bermadi. *1970-yil dekabrda Pokiston tarixida birinchi marta umumxalq saylovlari o'tkazildi.* Mamlakatni demokratik asosda qayta qurish dasturi bilan chiqqan partiyalar: *Sharqiy Pokistonda M.Rahmon boshliq «Avomi liga», G'arbiy Pokistonda Z.A.Bxutto boshliq Xalq partiyasi g'alaba qildi.* Lekin hokimiyatga birdaniga kelolmadi. Hukumat repressiya boshladi. Bunga javoban **1971-yili** Sharqiy Pokistonda milliy ozodlik kurashi boshlandi. **26-mart** kuni Sharqiy Pokiston hududida **Bangladesh Xalq Respublikasi** tuzilgani e'lon qilindi.

Bu harakatni Hindiston qo'llab-quvvatladi. Oqibatda Pokiston – Hindiston urushi yuz berdi. Urushda Pokistonning g'arbiy frontdagi armiyasi yengildi, Bangladeshdagi armiyasi esa taslim bo'ldi. Mag'lubiyat Yahyoxon harbiy diktaturasining qulashiga olib keldi. Shu tariqa fuqarolik hukumati tuzilishiga yo'l ochildi. **1971-yil 20-dekabr**da Pokiston Xalq partiyasi hokimiyatga keldi. Uning rahbari **Zulfiqor Ali Bxutto** bosh vazir lavozimini egalladi. Yangi hukumat harbiy holatni bekor qildi. Sanoatning yetakchi tarmoqlarini, bank va sug'urta kompaniyalarini milliylashtirdi. Mamlakatda agrar islohot o'tkazildi. *Unga ko'ra, katta yer egaligi hajmi 150 akr (60 ga) bilan cheklab qo'yildi. Ortiqcha yerlar kam yerli va yersiz dehqonlarga tekinga bo'lib berildi.* Bu islohot **1977-yili** yana davom ettirildi. Endi yer egaligi hajmi **100 akr (40 ga)** bilan cheklandi.

Soliq o'ziga to'q dehqonlardan va katta yer egalaridan olinadigan bo'ldi. *Mamlakat tarixida birinchi marta pensiya ta'minoti joriy etildi.*

1973-yili yangi konstitutsiya qabul qilindi. Unga ko'ra, Pokiston parlament respublikasi deb e'lon qilindi. Z.Bxutto hukumati xalqaro miqyosda real vaziyatni hisobga olgan holda siyosat yurita boshladi. Chunonchi, **1972-yili** Pokiston SEATOdan chiqdi. **1974-yili** Bangladeshni tan oldi. **1976-yili** esa Hindiston bilan diplomatik aloqasini tikladi.

Biroq fuqaro hukumati ko'p yashamadi. **1977-yil 5-iyun**da Pokiston tarixida ikkinchi marta harbiy to'ntarish amalga oshirildi. Bunga mamlakatda yuz bergan chuqur iqtisodiy va siyosiy inqiroz yo'l ochgandi. Chunonchi, **1973-yili** Yaqin Sharqdagi urush munosabati bilan yuz bergan energetika inqirozi Pokiston iqtisodiga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatda keng iste'mol tovarlari narxi ko'tarilib ketdi. Ishsizlar soni kundan kunga oshib bordi. Bu hol boshlangan islohotlarni oxiriga yetkazishga imkon bermadi. Boz ustiga, diniy mutaassiblar **1974-yili** yirik jamoaviy to'qnashuvni keltirib chiqardilar. Natijada **1975-yil fevral**da Z.Bxutto hukumati asosiy muxolifatchi partiya – Milliy Xalq partiyasi faoliyatini taqiqlashga majbur bo'ldi. Og'ir siyosiy sharoit bo'lsa-da, **1977-yili** parlament saylovi o'tkazildi. Unda Z.Bxutto partiyasi g'alaba qozongani e'lon qilindi. Biroq muxolifatchi partiyalar ittifoqi – *Pokiston Milliy Alyansi* buni tan olmadi va hukumatga qarshi keng kampaniyani avj oldirdi. Shunday sharoitda harbiylar navbatdagi davlat to'ntarishini amalga oshirdilar.

1977-yil 5-iyulda hokimiyat **general Ziyoulhaq** qo'liga o'tdi. Mamlakatda harbiy holat joriy etildi. Z.Bxutto hibsga olindi va jahon jamoatchiligi e'tiroziga qaramay, **1979-yili** qatl etildi. **1973-yil**gi konstitutsiyaning amal qilishi to'xtatib qo'yildi, parlament tarqatib yuborildi. **1979-yil**dan barcha siyosiy partiyalar faoliyati taqiqlandi. Ziyoulhaq jamiyat hayotini to'la islomlashtirish siyosatini yuritdi. **1979-yili** Pokiston SENTO blokidan chiqdi. Qo'shilmaslik harakati qatnashchisi bo'ldi. **1981 – 1987-yillari** AQShdan **3,2 mlrd** harbiy-iqtisodiy yordam oldi. Harbiylarning navbatdagi hokimiyatdan ketishiga Ziyoulhaqning **1988-yil 17-avgust**da samolyot halokati oqibatida vafot etishi sabab bo'ldi. **G'ulom Is'hoqxon** prezident bo'lib qoldi.

Shu yil **16-noyabr**da parlament saylovi o'tkazildi. Unda Z.Bxuttoning qizi – **Benazir Bxutto** boshqargan Pokiston Xalq partiyasi g'alaba qozondi va u bosh vazir lavozimini egalladi. B.Bxutto ba'zi xatolarga yo'l qo'ydi. Uni korrupsiyada ayblab **1990-yili** hokimiyatdan chetlatishdi. O'rniga **Navoz Sharif** bosh vazirlikka tayinlandi. Lekin ahvol tinchimadi. Prezident **Legari** yangi saylov o'tkazishga majbur bo'ldi.

1993-yilgi parlament saylovida ham B.Bxutto partiyasi g'alaba qozondi. Biroq ichki siyosiy vaziyat nihoyatda chigal Pokistondek davlatni

boshqarish oson emasdi. Siyosiy tajribasizlik B.Bxuttoga mamlakatda siyosiy barqarorlikni ta'minlash imkonini bermadi. U yana korrupsiyada ayblandi.

1997-yilgi saylovda esa Pokiston Musulmon Ligasi g'olib chiqdi. Uning rahbari **N.Sharif** bosh vazir lavozimini egalladi. *Bu partiya hukmronligiga oxir-oqibatda navbatdagi – uchinchi harbiy to'ntarish chek qo'ydi.* Bu davrda mamlakat tashqi qarz botqog'iga botgandi. Hindiston bilan munosabat yomonligi Pokistonni katta harbiy xarajatlar qilishga majbur etardi. Bu esa tashqi qarzning tobora ortishiga olib kelgan asosiy omil edi. **1999-yil may**da o'tkazilgan yadro bombasi sinovi juda katta xarajatlar, xalq ommasi rizqi evaziga amalga oshgani sir emas.

Biror-bir siyosiy partiya mamlakatni inqirozdan olib chiqishga erisholmadi. Ular uchun bir-birlarini korrupsiyada ayblash odatiy holga aylandi. Bu esa aholi ko'z o'ngida ularning obro'sini to'kdi. Harbiylar vujudga kelgan vaziyatdan yana foydalandilar. **1999-yil 3-oktyabr**da ular hokimiyatni qo'lga oldilar. Armiya bosh shtabi boshlig'i general **P.Musharraf** o'zini prezident deb e'lon qildi. Pokistonda harbiy diktatura hukmronligi hamon davom etmoqda.

Mustaqillik yillarida Pokiston va Hindiston taraqqiyotini taqqoslasak, ular o'rtasida qator jiddiy farqlar borligini ko'rish mumkin. Masalan, Hindiston parlament respublikasi bo'lsa, Pokiston prezidentlik respublikasidir. **Sh.Aziz** bosh vazir lavozimida ishlamoqda. Pokistonda jamiyat hayotini diniy asosda qurish davlat hududiy yaxlitligiga tahdid solmaydi. Hindistonda esa bu omil uning parchalanishiga sabab bo'lishi mumkin. *Pokistonda 3 marta harbiy to'ntarish sodir bo'lgani holda, Hindistonda biror marta ham bunday hodisa yuz bergani yo'q.* Ayni paytda, har ikki davlat mustaqillik yillarida sanoat potensialini yaratoldi. *Hindiston bu borada ancha ilgarilab ketdi. Buning misoli o'laroq, u 1980-yili o'zining sun'iy yer yo'ldoshini uchirishga erishdi.* Har ikki davlat ham yadro qurolini sinovdan o'tkazdi. Bu hodisa Osiyoda tinchlikning barqaror bo'lishiga xizmat qilmaydi.

28.5. TURKIYA RESPUBLIKASI

Demokratik partiyaning hokimiyatga kelishi. Ikkinchi jahon urushi tugagach, Turkiyada chigal vaziyat yuzaga keldi. Xalq Respublikasi partiyasi (XRP) bilan **1945-yili** tashkil etilgan Demokpatik partiya (DP) o'rtasida kurash kuchaydi. DP davlat monopolizmiga qarshi chiqib, «xususiy tashabbus»ni qo'lladi. **1946-yil**gi saylovlarda XRP terror yo'li

bilan g'olib chiqdi va darhol repressiyani boshlab yubordi. Bu narsa mamlakatda keskinlikni avj oldirdi. Mamlakatni **1938-yil**dan AQSh gumashtasi **I.Inenyu** boshqarib keldi. **1950-yil may**da Turkiya Buyuk millat majlisi (parlamenti)ga bo'lib o'tgan saylovda Demokratik partiya g'alaba qozondi. Partiya rahbari **J.Boyar** mamlakat prezidenti, partiyaning yirik arbobi **A.Menderes** bosh vazir lavozimini egalladi. *Uning dasturi iqtisodiyotda davlat sektorini tugatish va erkin tadbirkorlikni qaror toptirishni ko'zda tutardi.* DR o'z dasturini amalga oshirishga kirishdi. Sanoatda xususiy sektorning davlat sektoridan ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga ham erishildi. Hukumat mamlakat iqtisodiyotiga chet el sarmoyasini joylashtirish uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. **1950 – 1954-yillari** Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan **65 mln dollar** yordam oldi. Biroq yangi hukumat qanchalik harakat qilmasin, iqtisodiy rivojlanishda jiddiy o'zgarish yuz bermadi. Bu chet el sarmoyasining milliy sarmoyani siqib chiqarishiga sabab bo'ldi. **1956-yili** Turkiya g'allani chetdan sotib oldi. **1958-yili** mamlakat o'zini bankrot deb e'lon qilib, qarzlarini to'lolmasligini bildirdi. Boyar-Menderes hukumatidan ko'pchilik norozi bo'ldi. Mamlakatda korrupsiya, talon-toroj avj olgandi. **1960-yil may**da harbiy to'ntarish bo'ldi. Hokimiyat to'ntarish o'tkazgan yangi tashkilot – Milliy birlik qo'mitasi (MBQ) qo'liga o'tdi. Mamlakatning vaqtinchalik konstitutsiyasi qabul qilindi. *Unga ko'ra, MBQ oliy qonun chiqaruvchi organ deb e'lon qilindi.* Unga **J.Gursul** raislik qildi, u vaqtinchalik hukumatni ham boshqardi. J.Boyar, A.Menderes qamoqqa olindi. A.Menderes **1961-yili** qatl etildi.

1961-yil mayda mamlakatning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Siyosiy partiyalar faoliyatiga ruxsat etilgach, ikkita yangi partiya tuzildi. Ularning biri **Adolat partiyasi**, ikkinchisi esa **Yangi Turkiya partiyasi** deb ataldi. Ayni paytda, boshqa siyosiy partiyalar ham faoliyat ko'rsata boshladi. **Noyabr**da o'tkazilgan saylovda hech bir partiya mutlaq ko'pchilik o'rin ololmagani uchun, koalitsion hukumat tuzishga to'g'ri keldi.

1961 – 1965 yillar Turkiyaning kelgusi taraqqiyot yo'li xususida keskin siyosiy kurashlar yillari bo'ldi. Bu davrda hukumat almashdi. Nihoyat, **1965-yil**gi parlament saylovida Adolat partiyasi g'alaba qozondi. Uning rahbari **S.Demirel** bosh vazir lavozimini egalladi. Bu hukumat davrida harbiy xarajatlarning yanada o'sishi byudjet taqchilligini keskin ko'paytirib yubordi. U **1970-yili 3,5 mlrd lira**ni tashkil etdi. Davlat qarzi esa **72 mlrd lira**ga yetdi. Bunday sharoitda harbiylar yana siyosatga aralashdilar. Ular **1971-yil 12-mart**da davlat to'ntarishi o'tkazdilar. Unga general **K.Evren** rahbarlik qildi. Mamlakatda favqulodda holat joriy etildi. Biroq bu to'ntarish mamlakatda siyosiy barqarorlikni ta'minlolmadi. *1973-yili*

mamlakat prezidenti 16 turdan so'ng saylangani buning isbotidir. **1980-yili** esa hatto prezident saylashga erishilmadi ham. Oqibatda yana davlat to'ntarishi o'tkazildi.

Barcha siyosiy partiyalar tarqatilgan deb e'lon qilindi. Ularning rahbarlariga **10 yil** davomida siyosiy faoliyat bilan shug'ullanish man etildi. Ommaviy axborot vositalari uchun qattiq senzura o'rnatildi. Biroq Yevropa Ittifoqi aralashuvi bilan harbiylar yon berishga majbur bo'ldilar. Mamlakatning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Siyosiy partiyalar faoliyatiga ruxsat etildi. Qator yangi partiyalar (**«Vatan»**, **«To'g'ri yo'l»**) tuzildi.

«Vatan» partiyasini **T.O'zal**, «To'g'ri yo'l» partiyasini esa **S.Demirel** boshqardi. **1983-yili** o'tkazilgan parlament saylovida «Vatan» partiyasi g'alaba qozondi va T.O'zal bosh vazir lavozimini egalladi. **1989-yili** esa Turkiya prezidenti lavozimiga saylandi. T.O'zal davrida mamlakatda chuqur iqtisodiy islohotlar o'tkazildi. Chunonchi, **1986-yili** xususiylashtirish to'g'risida qonun qabul qilindi. **1988-yil**dan davlat mulkini sotish boshlandi. Biroq bundan ko'zlangan maqsadga erishilmadi. Chunki davlat mulki narxi qimmat bo'lgani uchun, **1991-yil oxiri**gacha uning atigi **5 foizi** xususiylashtirildi. **1991-yil**gi parlament saylovlarida «To'g'ri yo'l» partiyasi g'alaba qozondi. Uning rahbari S.Demirel hukumat tuzdi. **1993-yili** T.O'zal vafot etgach, S.Demirel mamlakat prezidentligiga saylandi.

Turkiya O'rta Sharqda iqtisodiy rivojlangan davlatlardan biri. Ayni paytda, qudratli zamonaviy armiyaga ham ega. Biroq Turkiya mamlakat hayotini G'arbiy Yevropa modeli asosida to'la qayta qurishga erishmadi. *Bunga, birinchidan, uning texnik-iqtisodiy jihatdan orqada qolgani sabab bo'ldi.* Mamlakat aholisining **50 foizi** hamon qishloq xo'jaligida band. *Ikkinchidan, davlat iqtisodiyotni qattiq markazlashtirgan va uning ustidan to'la nazorat o'rnatgan.* Chunonchi, sanoatning katta qismi hamon davlat mulki hisoblanadi. Korxonalarning **70 foizga yaqini** davlat dotatsiyasi hisobiga ishlaydi. Tashqi savdoda import eksportdan ustun turadi. Bu esa, o'z navbatida, tashqi qarzning ko'payishiga olib kelmoqda. **1995-yili** Turkiyaning tashqi qarzi **50 mlrd dollar**ni tashkil etgani, asosan, shu omil bilan izohlanadi. **2000-yili** mamlakat prezidentligiga **A.Sezer** saylandi. **Tayyip Erdog'an** bosh vazir lavozimini egalladi. **2007-yil avgust**da **A.Gul** prezident A.Sezer o'rnini egalladi.

Tashqi siyosat. Turkiya tashqi siyosatda, birinchi navbatda, AQSh bilan munosabatlarni yaxshilashga intildi. AQSh hukumati **1947-yil 12-iyul**da Turkiyaga moliyaviy va harbiy yordam ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qildi. Turkiya **«Trumen doktrinasi»** bo'yicha harbiy yordam oldi. **1948-yil iyul**da Turkiya hukumati AQSh bilan **«Marshall rejasi»**

asosida hamkorlik qilish to'g'risida bitim imzoladi. Bu ikkala bitim bo'yicha Turkiya AQShdan **800 mln dollar** oldi va mablag'lar, asosan, harbiy ishga sarflandi. Byudjetning **60 foizi** bu davrda harbiy maqsadlarga ketmoqda edi. AQShning Koreyada olib borgan urushida ishtirok etdi. **1951-yil oxiri**da Turkiya **NATO** a'zoligiga qabul qilindi. **1954-yili SEATO** harbiy-siyosiy ittifoqi a'zosi bo'ldi.

Shu yildan Turkiya tashqi siyosatida **Kipr** masalasi alohida o'rin tuta boshladi. **1955-yili** esa **Bag'dod pakti**ni imzoladi. **1959-yili** Turkiya hududida AQSh harbiy bazasi barpo etish to'g'risida ikki tomonlama shartnoma imzolandi. Shuningdek, Eron va Pokiston bilan shartnoma tuzib, **SENTO**ni tashkil etdi (*1958-yili Iroq bu blokdan chiqib ketgandi*).

60-yillardan Turkiyaning AQSh bilan bir tomonlama ittifoqchilikka asoslangan tashqi siyosatida o'zgarish yuz bera boshladi. Endi Turkiya «Umumiy bozor» a'zosi bo'lgan davlatlar, birinchi navbatda, **GFR** bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantira boshladi. **1974-yili** Kipr muammosi yanada keskinlashdi. Kiprni Gretsiyaga qo'shib olishga intiluvchi kuchlar qonuniy hukumatga qarshi bosh ko'tardilar. Bunga javoban Turkiya harbiy kuchlarini Kiprga kiritdi. *Shu tariqa Kipr amalda kiprlik turklar va kiprlik greklar jamoalariga bo'linib ketdi.*

28.6. ERON ISLOM RESPUBLIKASI

1945-yil voqealari. Ikkinchi jahon urushi oxirida Eron Shoh **Muhammad Rizo Pahlaviy (1919 – 1980)** tomonidan boshqarilar, hukumat boshlig'i **Qavam as-Sulton** edi. **1947-yil** uning o'rniga **I.Hakimiy**, undan so'ng **Razmari** tayinlandi. **1945-yili** Eronda yashovchi ozarbayjon va kurd xalqlarining milliy muxtoriyat uchun kurashi boshlandi. Eron Ozarbayjonida faoliyat ko'rsata boshlagan Ozarbayjon demokratik partiyasi quyidagi talablarni ilgari surdi: *yaxlit mamlakat doirasida Eron Ozarbayjoniga madaniy hayot va mahalliy boshqaruv sohasida muxtoriyat berish; ozarbayjon tilini muxtoriyat hududida rasmiy til deb tan olish; o'z parlamentiga ega bo'lish.* Bu talablar shoh hukumatining boshqa millat vakillariga nisbatan o'tkazayotgan shovinistik siyosati oqibati edi. **1945-yil oxiri**da Eron Ozarbayjoni parlamenti (majlis)ga saylov o'tkazildi. Parlament **9-dekabr**da Ozarbayjon Muxtor Respublikasi tuzilganini e'lon qildi. Saylovdan so'ng tuzilgan hukumat markaziy hokimiyatni tan olishini hamda uning muxtoriyat manfaatlariga zid bo'lmagan barcha ko'rsatmalarini bajarishini ma'lum qildi. Maktablarda ta'lim ozarbayjon tilida olib borila boshlandi. Ozarbayjon davlat universiteti ochildi.

1945-yil oxirida **Shimoliy Kurdiston** (Eron Kurdistoni)da ham muxtoriyat uchun kurash boshlandi. Tez orada muxtor Kurd Xalq Respublikasi tuzildi. Bu kurashga Kurdiston demokratik partiyasi rahbarlik qildi. Mazkur harakatlar, aslida, SSSR tomonidan rag'batlantirilgan va qo'llab-quvvatlangandi. Ayni paytda, SSSR **Tude** (Eron kommunistik partiyasi)ni qo'llab-quvvatladi. Eron hukumati, tabiiyki, Eron Ozarbayjoni va Shimoliy Kurdistondagi voqealarni separatchilik harakati deb baholadi.

Buyuk Britaniya hukumati esa SSSRning Eron ichki ishlariga aralashuviga qattiq qarshilik ko'rsatdi. Chunonchi, Eronga qo'shimcha harbiy kuchlar jo'natdi. SSSR manyovr qilishga majbur bo'ldi. **1946-yil 4-apre**lda Eron bilan aralash sovet – eron neft kompaniyasi tuzish haqidagi shartnoma evaziga o'z qo'shinini Shimoliy Erondan olib chiqib ketishga majbur bo'ldi. **1946-yil oxiri**ga kelib Eron hukumati bu shartnomani bekor qildi va mamlakat shimolini to'la o'z nazoratiga bo'ysundirdi. Ozarbayjon va Kurd muxtor respublikalarini tugatdi. SSSR bu voqealarga aralashmadi. Chunki bunday aralashuv Buyuk Britaniya va AQShning birgalikdagi aks aralashuviga duch kelishi mumkin edi.

Ayni paytda, Eronda ingliz – amerika ta'siri kuchayib bordi. **1947-yili** Eron armiyasida AQSh mutaxassislarining rahbarlik lavozimini egallashlari mumkinligini ham ko'zda tutuvchi Erondagi Amerika harbiy missiyasining faoliyati haqida eron – amerika shartnomasining imzolanishi Eronda AQSh mavqeyini yanada mustahkamladi. **1950-yili** bu masala yangi shartnoma bilan mustahkamlandi. Ayni paytda, ingliz – amerika qarama-qarshiligi kuchaydi.

Eron nefti uchun kurash. **Ingliz – eron neft kompaniyasi** (IENK) Buyuk Britaniya uchun katta ahamiyatga ega edi. Bu kompaniya **1933-yili** tashkil etilgan. Kompaniya daromadining asosiy qismini Buyuk Britaniya olardi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng ham u bu kompaniyani saqlab qolishga zo'r berib urindi. Shu maqsadda Buyuk Britaniya **1949-yili «Qo'shimcha shartnoma»** deb ataluvchi shartnoma ishlab chiqdi. Unda kompaniya daromadidan Eronga beriladigan ajratma miqdorini qisman oshirish ko'zda tutilgandi. Eron xalqi qarshi chiqdi.

Buyuk Britaniya shu yo'l bilan IENKda o'z xo'jayinligini saqlab qolmoqchi bo'ldi. Biroq Eron hukumati uni rad etdi. **1951-yil 15-mart**da esa mamlakat parlamenti IENKni milliylashtirish to'g'risida qaror qabul qildi. **29-apre**lda bosh vazir lavozimiga tayinlangan, Milliy front (Eronning chet davlatlarga iqtisodiy va siyosiy jihatdan qaramligiga qarshi kurashuvchi kuchlar) rahbari **M.Mossodiq** bu qarorni bevosita amalga oshirishga kirishdi.

Buyuk Britaniya Eronga nisbatan iqtisodiy qamal tashkil etdi. Eron hukumati esa Buyuk Britaniya bilan diplomatik munosabatlarini uzdi. Shoh boshchiligidagi ichki g'arbparast kuchlar Buyuk Britaniya va AQShning qo'llab-quvvatlashiga tayanib **1953-yil 19-avgust**da davlat to'ntarishi o'tkazdilar. Unga **general Zohidiy** rahbarlik qildi. Shoh uni bosh vazir etib tayinladi. Barcha siyosiy partiyalar, tashkilotlar, Mossodiq siyosatini qo'llab-quvvatlagan vaqtli matbuot nashrlari tor-mor etildi. Shu tariqa Eron shohi **Muhammad Rizo Pahlaviy** o'z mavqeyini mustahkamladi.

Yangi hukumat **1954-yili** Xalqaro neft konsorsiumi bilan shartnoma imzoladi (unda AQSh va Buyuk Britaniya neft kompaniyalari yetakchi mavqega ega edi). Shartnomaga ko'ra, Eron nefti **25 yil** muddat bilan (**1979-yil**gacha) shu konsorsium ixtiyoriga berildi. Konsorsiumning neft qazib chiqarishi yildan yilga o'sib bordi. Xususan, **1950-yili** u **32 mln tonna**ni tashkil etgan bo'lsa, **1961-yil**ga kelganda bu ko'rsatkich **57 mln tonna**ni tashkil etdi.

Ayni paytda, Eron ham neft eksportidan katta daromad topa boshladi. **70-yillar o'rtalari**ga kelganda bu daromad **20 mlrd dollar**dan oshdi. Eron **1955-yili** Bag'dod pakti (*1959-yildan SENTO*)ga a'zo bo'ldi. **«Eyzenxauer doktrinasi»**ni qo'llab-quvvatladi. **1959-yili** AQSh bilan shartnoma tuzib, unga deyarli qaram bo'lib qoldi. Byudjetning **40 foizi** harbiy maqsadlarga ketdi.

Oq inqilob. **1955-yil**gi qonun bilan Eronda **1000 dan ortiq** turli firmalar ish ko'rardi. Import eksportdan **5 baravar** ortdi. Eron mahalliy sanoati sindi. Ko'plab korxonalar yopildi. Eron AQShdan g'alla sotib oldi. Eron shohi mamlakat taraqqiyotini jadal sur'atlarda tezlatishga, og'ir iqtisodiy ahvoldan qutulishga va mamlakat hayotida g'arbcha munosabatlarni qaror toptirishga, to'xtovsiz davom etayotgan norozilik to'lqinlarini bostirishga intildi. **1963-yil 23-yanvar**da quyidagi **6 qonun loyihasi** yuzasidan referendum o'tkazildi: *1. Yer islohoti; 2. O'rmonlarni milliylashtirish; 3. Yer islohotini moliyalashtirish uchun davlat zavod va fabrikalarini sotish; 4. Ishchilarning korxona foydasidan ulush olishi; 5. Parlamentga saylov to'g'risidagi qonunga o'zgartirish kiritish; 6. Savodsizlikka qarshi kurashish uchun «maorif korpusi» tuzish.*

Shoh bu islohotlar ahamiyatini inqilobga tenglashtirdi va uni **«oq inqilob»** deb atadi. Sanoat ishlab chiqarishining yillik o'rtacha o'sish sur'ati **10 – 15 foiz**ni tashkil etdi. Islohot natijasida Eron agrar davlatdan agrar-industrial davlatga aylandi. Ayollarga erkaklar bilan teng saylov huquqi berildi. Hayotga yevropacha tus berila boshladi. Mamlakat G'arb dunyosining bir qismiga aylandi. Biroq islohot xalqning turmush daraja-

sini yaxshilamadi. Chunki Eron jamiyati agrar islohotga tayyor emasdi. Jamiyatdagi bu o'zgarishlar aholi ko'z o'ngida islom an'analaridan, asrlar osha davom etib kelayotgan turmush tarzidan voz kechishdek gavdalandi. Xalq noroziligi kuchaydi. Xalqqa qarshi maxfiy politsiya (**SAVAK**) tashkil etildi. Uning yerto'lalarida **380 mingdan ortiq kishi** yo'q qilindi. Shoh hukumati muxolifat kuchlarga qarshi repressiyani kuchaytirdi. Bu hol shohga qarshi kurash harakatini vujudga keltirdi. Harakatni islomning shia oqimi ruhoniylari boshqardi. Ularning rahnamosi Eronning oliy diniy arbobi **Oyatullo Ruhullo Musovi Xumayniy (1898 – 1989)** edi. U ham shoh repressiyasiga duchor etilgandi (**1964-yil**). Inqilob arafasida **Parij**da yashardi.

Eron inqilobi. Eron aholisining juda katta qismi shohga qarshi kurashga qo'shildi. Armiyaning katta qismi shohni qo'llab-quvvatlamay qo'ydi. Natijada **1979-yil 16-yanvar**da shoh mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo'ldi. **11-fevral**da umumiy qurolli qo'zg'olon boshlandi, armiya ham qo'zg'olonchilar tomoniga o'tdi. Shu tariqa Eronda inqilob g'alaba qildi. Bu islom inqilobi edi. **15-fevral**da Oyatullo Xumayniy **Tehron**ga qaytib keldi. U *«Islom inqilobining rahnamosi»* deb e'lon qilindi. Mamlakat ruhoniylari yangi hukumat tuzdilar.

1979-yil 1-aprelida davlatning rasmiy nomi o'zgardi. Endi u **Eron Islom Respublikasi** deb ataladigan bo'ldi. Ayni paytda, yangi konstitutsiya ham qabul qilindi. Konstitutsiya Oyatullo Xumayniyni umrbod mamlakatning oliy siyosiy va diniy rahbari deb e'lon qildi. Hatto mamlakat prezidenti ham unga bo'ysunardi. **1979-yili** Tehronda AQSh diplomatlari garovga olindi va **1981-yil yanvar**da Eron – AQSh bitimidan keyin ozod qilindi. **1980-yili** mamlakat prezidenti va parlamenti (majlis) saylandi. Diniy bo'lmagan hamda milliy partiyalar faoliyati taqiqlandi.

Ichki muxolifatni tugatish maqsadida Xumayniy **«Islom madaniy inqilobi»**ni e'lon qildi. Bu hol hukmron doiralar o'rtasida ham kelishmovchilik keltirib chiqardi. Mamlakatning birinchi prezidenti **Banisadr** Xumayniy atrofidagilarning ekstremistik harakatlariga qarshi chiqdi. Oxir-oqibatda u mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo'ldi.

Eron inqilobdan so'ng. Oyatullo Xumayniy o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun uning rejimiga qarshi chiqqanlarni qatag'on qilishni uyushtirdi. Natijada **1982 – 1984-yillar** davomida **70 mingdan ortiq kishi** o'ldirildi. Biroq jahon jamoatchiligi talabi Eron rahbariyatini o'z ichki siyosatini yumshatishga majbur etdi. **1989-yili** (Xumayniy vafotidan so'ng) mamlakat prezidentligiga saylangan **Ali Akbar Xoshimiy Rafsanjoniy** (*1934-yili tug'ilgan*) iqtisodiy islohot o'tkaza boshladi. Ayni paytda, ijtimoiy hayotni

liberallashtirish yo'lini tutdi. Biroq bu yo'l katta qiyinchiliklarga duch keldi. Bu, bir tomondan, **1980 – 1988-yillar**da davom etgan Eron – Iroq urushi oqibatida ko'rilgan katta iqtisodiy yo'qotish (*350 mlrd dollar zarar ko'rildi, 700 ming eronlik o'ldi*) bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, AQShning Eronni xalqaro terrorizm markazlaridan biri deb e'lon qilishi bilan bog'liq edi. AQSh Eron bilan savdo aloqalarini to'xtatib qo'ydi. Boshqa G'arb davlatlari esa Eronga ilg'or texnologiya kiritishni taqiqladi.

Aholining ishlab chiqarish sur'atiga nisbatan tez ko'payishi, jahon bozorida neft narxining pasayishi, ayni paytda, Eronda neft ishlab chiqarishning **2 baravar** kamayishi vaziyatni yanada murakkablashtirdi. Shunday sharoitda **1997-yil avgust**da **Muhammad Xotamiy** mamlakat prezidentligiga saylandi. U shia ruhoniylarining yangi avlodiga mansub edi. U tashqi siyosatda AQSh va G'arbning boshqa davlatlari bilan munosabatlarni yumshatishga intildi. Rossiya bilan munosabatlarni yanada rivojlantira boshladi. Rossiya Eronga kimyo sanoatini rivojlantirishda, atom elektr stansiyasi qurishda hamda armiyani zamonaviy qurollar bilan qayta qurollantirishda yordam bermoqda. Ayni paytda, O'rta Osiyo respublikalari bilan ham savdo-iqtisodiy aloqalar rivojlanmoqda. **1996-yili Mashhad** (Eron) – **Saraxs** (Turkmaniston) temir yo'li qurilishi tugallandi. *Natijada O'rta Osiyo respublikalari Fors ko'rfaziga chiqish imkoniga ega bo'ldilar.*

Eron rahbariyati Afg'onistondagi voqealarga faol aralashib keldi. Uning bu aralashuvi Afg'onistondagi muxolifatchi kuchlardan biri – **Shimoliy Alyans** (Ittifoqi)ni qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'ldi. **2001-yili** bo'lib o'tgan prezidentlik saylovida yana Muhammad Xotamiy g'alaba qozondi. Eronda jamiyat hayotini liberallashtirish siyosati davom etdi. **2005-yil**gi saylovlarda **Mahmud Ahmadiy Najot** mamlakat prezidenti lavozimiga keldi.

28.7. AFG'ONISTON

Urushdan keyingi ahvol. Afg'oniston konstitutsiyaviy-monarxiya davlati edi. Davlat boshlig'i qirol hisoblangan. Urushdan keyingi yillarda ham **M.Zokirshoh** (*1933-yili taxtga o'tirgan*) qirol edi. Uning hukmronligi davrida mamlakat ichki hayotida jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuz bermadi. Mamlakat hayotida o'rta asrchilik munosabatlari hukmronligicha qolaverdi.

Urush yillarida ichki siyosiy hayot keskinlashdi. **1946-yili** kabinet almashuvi bo'lib, hukumatga qirolning tog'asi **Shoh Mahmud** boshchilik

qila boshladi. Tashqi siyosatda dastlab AQSh bilan yaqinlashish boshlandi. Ammo AQSh janubdagi irrigatsiya inshootlarini vaqtida (**1949-yil**) tugallamay qo'shimcha mablag' talab qildi. Afg'onistonni noqulay vaziyatda **39,5 mln dollarlik** asoratli zayom olishga majbur qildi.

Shu sababli ko'p o'tmay bu siyosat o'zgara boshladi. Boz ustiga, AQSh va Buyuk Britaniya betaraf Afg'onistonni harbiy-siyosiy ittifoqlarga jalb etishga urinishlari, ikkinchi tomondan, Afg'on – Pokiston munosabatlaridagi keskinlikning vujudga kelishi ahvolning chigallashuviga sabab bo'ldi.

Ma'lumki, Pokistonning Afg'oniston bilan chegara hududlarida pushtun xalqi yashaydi. Buyuk Britaniya bu hududlarni ham Pokiston hududiga qo'shib yuborgandi. Afg'oniston **pushtunlar**ga (Afg'oniston aholisining katta qismini pushtunlar tashkil etadi) taqdirini o'zi belgilashi huquqi berilishi tarafdori edi.

1955-yili Pokiston Afg'oniston tovarlarining Pokiston hududi orqali o'tkazilishini taqiqlab qo'ydi. Bunday sharoitda SSSR o'z hududi Afg'oniston tashqi savdosida tranzit vazifasini o'tashi mumkinligini ma'lum qildi. **1955-yili** bu masala xususida sovet– afg'on bitimi imzolandi. M.Zokirshohning **40 yillik** hukmronligi davrida mamlakat o'ta sekin rivojlandi. Mamlakatda atigi **300 ta** katta-kichik sanoat korxonasi qurildi, xolos (*uning 140 tasi SSSR yordami bilan qurilgan*). Buning oqibatida mamlakat qoloqligicha, aholi turmush darajasi esa pastligicha qolaverdi.

Afg'oniston Respublikasining tashkil etilishi. Mamlakatda Afg'onistonni zamon ruhiga monand davlatga aylantirishni istovchi davlat arboblari ham yo'q emasdi. Bu arboblardan biri – qirolning qarindoshi **Muhammad Dovud (1908 – 1978)** edi. U **1953-yildan 1963-yilgacha** bosh vazir lavozimida ishladi. *Dovud iqtisodning davlat yo'li bilan boshqarilishi, mamlakat ichki hayotini erkinlashtirish tarafdori edi.* **1956-yil**i hukumat **5 yillik** reja qabul qildi. *Unda asosiy e'tibor sanoat, transport, qishloq xo'jaligiga qaratildi.* **1959-yili** ayollarning chodra yopinib yurishi bekor qilindi.

Dovud hukumati boshlagan o'zgarishlar islohotga qarshi kuchlarning qattiq qarshiligiga duch keldi. Bu kuchlar mamlakat hayotida chuqur o'zgarishlarga tayyor bo'lmagan aholi katta qismiga tayanardi. Natijada Dovud **1963-yili** iste'fo berishga majbur bo'ldi.

Dovud hukumatidan keyingi hukumatlar ham (*Muhammad Yusuf, 1963 – 1967; Nur Ahmad Etimodi, 1967 – 1971; M.Shafiq, 1972 – 1973*) mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida biror jiddiy o'zgarish qilolmadilar. Aksincha, iqtisodiy qiyinchilik kuchaydi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash qiyinlashdi. Mamlakatda kuchaygan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar hukmron doiralarda bo'linish yuz berishiga olib keldi.

Shunday sharoitda **1973-yil 17-iyul**da harbiylar davlat to'ntarishi o'tkazdilar. Hokimiyat Afg'oniston markaziy qo'mitasi qo'liga o'tdi. Uning tarkibi harbiylardan tashqari fuqaro arboblaridan ham iborat edi. Ularga sobiq bosh vazir **Dovud** rahbarlik qildi. Markaziy qo'mita Dovudni davlat boshlig'i va bosh vazir etib tayinladi. Shu tariqa monarxiya quladi. Afg'oniston respublika deb e'lon qilindi.

To'ntarish ro'y bergan vaqtda Zokirshoh chet el (**Italiya**) safarida edi. U **avgust**da o'zining taxtdan voz kechganini e'lon qildi. Dovud **5 yil** davlatni boshqardi. Biroq u mamlakat hayotida tub o'zgarishlar qilolmadi. Uning siyosati eski tartib manfaatlariga to'la javob beradigan qatlamlar: *ruhoniylar, katta yer egalari, davlat amaldorlarining qattiq qarshiligiga duch keldi.* Ikkinchidan, Dovud mamlakatda o'z rejimini o'rnatishga intildi. Chunonchi, u **1964-yil**gi konstitutsiyani bekor qildi. Parlamentni tarqatdi va yakkapartiyaviy tizimni joriy etdi. Bu rasmiy partiyaga uning o'zi rahbarlik qildi. **1976 – 1978-yillari** hukumat mavjud tartibga qarshi kuchlarni qatag'on qilishni kuchaytirdi. Terror va qatag'ondan mamlakat harbiylari orasida ham ta'sirga ega Afg'oniston xalq-demokratik partiyasi chetda qolmadi (*1965-yili tuzilgandi*).

Dovud rejimi diniy-ekstremistik kuchlar bilan yaqinlashdi. Rejim bu kuchlardan o'z raqiblariga qarshi kurashda foydalandi. Bu yo'l Dovud rejimiga qarshi ikki guruh muxolifatini vujudga keltirdi. *Ularning biri diniy muxolifat, ikkinchisi harbiy muxolifat bo'ldi.* Harbiy muxolifat AXDP bilan yaqin aloqani o'rnatishga erishdi.

Aprel to'ntarishi va uning oqibatlari. Armiya qismlari **1978-yil 27-apre**lda AXDP rahbarligida davlat to'ntarishi o'tkazdilar. To'ntarishni **polkovnik Abdulqodir** boshqardi. Hokimiyat Inqilobiy Kengash qo'liga o'tdi. Bu Kengashga AXDP rahbari **N.M.Taraqqiy** rahbarlik qildi. **B.Karmal** unga o'rinbosar bo'ldi. Dovud o'ldirildi. **1977-yil**gi konstitutsiya bekor qilinib, **1978-yil 30-apre**lda mamlakat Afg'oniston Demokratik Respublikasi deb e'lon qilindi. Taraqqiy o'z mavqeyini mustahkamlash maqsadida SSSR bilan munosabatni yaxshilay boshladi.

Yangi hukumat Afg'onistondagi real hayotni hisobga olmay islohotlar o'tkazishga kirishdi. Bu islohotlar SSSRda o'tkazilgan islohotlar andazasiga o'tish edi. Shuning uchun Afg'oniston xalqi bu islohotlarni qabul qilmadi. Ruhoniylar hukumat siyosatini islom asoslaridan qaytish deb baholadi. Ular aholini sovetparast hukumatga qarshi kurashga chaqirdi. Millionlab xalq Pokiston va Eron hududiga qochib o'tdi. Hukumatga qarshi kuchlar ittifoqi vujudga keldi. AXDPda birlik bo'lmadi. **1978-yil 17-avgust**da **B.Karmal, Abdulqodir** va boshqalar fitnada ayblanib qamoqqa

olindi. Bu omil mamlakatda fuqarolar urushi boshlanishini muqarrar qilib qo'ydi. Bu e'lon qilinmagan urushni G'arb rag'batlantirdi.

Boz ustiga, AXDP ichida hokimiyat uchun kurash boshlandi. Shunday sharoitda **1979-yil sentyabr**da Taraqqiy o'ldirildi. Hokimiyatni uning o'rinbosari, suiqasd tashkilotchisi **H.Amin** egalladi. Mamlakatda terror va zo'ravonlik avj oldi. Aprel inqilobi shu bilan barham topdi.

Bu davrga kelib qurolli muxolifat kurashni kuchaytirdi. Ular Amin hukumatini qiyin ahvolga solib qo'ydi. *Hukumat qo'shinlari nazorati ixtiyorida faqat Kobul va yana bir nechta shahar qoldi, xolos.* Shunday sharoitda Afg'onistonning o'z strategik maqsadlari doirasidan chiqib ketishini istamagan SSSR avantyuraga qo'l urdi. **1979-yil 25-dekabr**da SSSR qo'li bilan Amin hukumati ag'darildi. *SSSRga sodiq bo'lgan va Pragadagi elchilik vazifasidan Afg'onistonga kelgan B.Karmal prezidentlik lavozimiga o'tkazildi.* **28-dekabr**da SSSR o'z harbiy qismlarini Afg'onistonga kiritdi. Tez orada bu qo'shinlar soni **85 ming kish**iga yetdi. Jahon jamoatchiligi SSSRning bu harakatini qattiq qoraladi. Ayni paytda, sovet–amerika munosabatlari yanada keskinlashdi. *1982-yildan Jenevada bu masalada BMT komissiyasi ishladi.*

Asosan, Pokiston hududiga joylashgan muxolifatchi kuchlar AQShning zamonaviy qurollari bilan qurollantirildi. SSSR qo'shinlari Afg'onistonda **10 yil** turdi. Biroq SSSR Afg'onistonda harbiy muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Buni yaxshi anglab yetgan M.S.Gorbachov SSSR armiyasini Afg'onistondan olib chiqib ketishga qaror qildi. **1989-yil fevral**da mazkur vazifa amalda bajarildi. *Bu urushda 15 mingdan ortiq sovet jangchisi halok bo'ldi.*

Fuqarolar urushining davom etishi. Poytaxt **Kobul**da AXDP rahbarlaridan biri, **1986-yili** B.Karmal o'rniga kelgan **Najibullo** hokimiyatni saqlab turdi. Ayni paytda, muxolifat kuchlar ham o'z hukumatini tuzdilar. **Sibhatullo Mujadaddiy** mamlakat prezidenti etib tayinlandi.

Muxolifat kuchlar **1992-yili** Najibullo hukumatini ag'darishga erishdilar. Najibullo BMTning Afg'onistondagi vakolatxonasida boshpana topdi. Shu tariqa SSSRning Afg'onistondagi tayanchi quladi. Jahon jamoatchiligi 10 yil davom etgan va mamlakatni vayronaga aylantirgan, millionlab kishilar boshiga cheksiz kulfatlar solgan urush shu bilan tugadi deb umid qilgandi. Biroq Afg'onistonda fuqarolar urushi davom etaverdi. Buning sababi muxolifat kuchlar g'alabasidan so'ng ular o'rtasida hokimiyat uchun boshlangan kurash edi. Muxolifat kuchlar Afg'onistonda yashovchi turli etnik (pushtunlar, tojiklar, o'zbeklar va boshqalar) hamda diniy guruhlar vakillari edilar.

Najibullo ag'darilgach, Kobulni birinchi bo'lib **general Ahmad Shoh Mas'ud** boshchiligidagi tojiklarning qurolli kuchlari egalladi. Shu etnik guruh vakili **Burhoniddin Rabboniy** esa prezidentlik lavozimini egalladi. Tojiklarning hokimiyatni egallaganiga pushtunlar lideri **Hikmatyor** toqat qilolmadi. Boshqa etnik guruhlar esa o'zlari egallab kelayotgan hududda mustahkamlanib ola boshladi. Ba'zilari goh u tomon, goh bu tomon bilan kelishishga intildi. Shu tariqa fuqarolar urushi yangi bir sharoitda davom etdi. Oqibatda minglab begunoh tinch aholi halok bo'ldi. B.Rabboniy mamlakatning kelgusi taqdirini hal etishi lozim bo'lgan Ta'sis majlisini chaqirishni istamadi. Bosh vazir Hikmatyor esa norozilik belgisi sifatida iste'fo berdi. Qurolli kurash yana avj oldi. Mamlakatda siyosiy vaziyat borgan sari og'irlashdi.

Tolibonlarning hokimiyat tepasiga kelishi. Mana shunday sharoitda Afg'oniston siyosiy hayotida hech kutilmagan yangi siyosiy kuch – **tolibonlar** (Alloh o'quvchilari) paydo bo'ldi. Ular **1994-yil noyabr**da kurash maydoniga chiqdilar. *Ular Afg'onistonda jamiyat hayotini sof islom asosida qayta qurish uchun kurashga bel bog'lagan diniy-siyosiy guruh vakillari edi.* Ularning katta qismini fuqarolar urushi davrida yetim qolgan bolalar tashkil etardi. Sovet armiyasi Afg'onistonga kiritilgach, ular Pokiston hududida boshpana topgandilar. Urush davrida Pokistonga qochib o'tgan **5 mln afg'on qochoqlar** farzandlarining ham ma'lum qismi tolibon guruhiga jalb etilgan. Tolibonlar Pokiston harbiy mashq maktablarida puxta tayyorgarlikdan o'tganlar. Zamonaviy qurollarning deyarli barchasi bilan mukammal muomala qilishga o'rgatilgan. Tolibonlar rahnamosi diniy fanat (vahhobiy) **Mulla Umar** edi. U ismoiliylik va vahhobiylik vakili edi. Tolibonlar **Pokiston va Saudiya Arabistoni** tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Xalqaro terrorist **Usama ben Laden** bilan mustahkam aloqa bog'ladilar. To'xtovsiz qonli urushdan charchagan aholining katta qismi ularni qo'llab-quvvatladi. Tolibon qurolli kuchlari **1995-yil yanvar**da hujumga o'tdi. Tolibonlarga qarshi kuchlar orasidagi o'zaro kelishmovchilik ularga qo'l keldi. **1996-yilning oktyabr**da tolibonlar **Kobul**ni egalladi.

Ular jamiyatni to'la islomlashtirish siyosatini yurita boshladilar. Dunyoviy maktablar yopildi. Ayollar paranji yopinishga, erkaklar soqol qo'yishga majbur etildi, qarshilik ko'rsatganlar ayovsiz jazolandi. **1997-yil iyun**da ular muxolifat kuchlar (*asosan, tojik Ahmad Shoh Mas'ud va o'zbek Abdurashid Do'stum harbiy kuchlari*)*ni* tor-mor etish yo'lida urushni davom ettirdi.

Mamlakat hududining **90 foizi** tolibonlar nazoratiga o'tdi. Tolibonlarga qarshi kuchlar mamlakat shimoliga siqib qo'yildi. Ular endi birlashishga

majbur bo'ldilar. Shu tariqa **Shimoliy Alyans** deb atalgan ittifoq vujudga keldi.

O'zbekiston hukumati mustaqillikning dastlabki yillaridanoq jahon jamoatchiligi e'tiborini Afg'onistondagi fuqarolar urushini to'xtatish muammosiga qaratib keldi. *Prezident I.Karimov 1993-yiliyoq BMT minbaridan turib bu muammoni hal etishning dastlabki qadami sifatida ayrim davlatlarning muxolifat tomonlarga qurol-yarog' yetkazib berishini taqiqlash haqida qaror qabul qilishga, muxolifat tomonlarni esa Afg'oniston muammosini tinch yo'l bilan hal etishga chaqirdi.* Shu maqsadda Tolibon hukumati hamda Shimoliy Alyans vakillarini muzokaralar stoliga o'tqazishga harakat qildi. Nihoyat, **1998-yil Toshkent**da **«6+2»** deb shartli nom bilan ataluvchi davlatlar (**Eron, Pokiston, Turkmaniston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston**, shuningdek, **AQSh** va **Rossiya**) vakillari uchrashuvini o'tkazishga erishildi. Unda tolibon va Shimoliy Alyans vakillari ham qatnashdi. Uchrashuv so'ngida **«Toshkent Deklaratsiyasi»** deb nomlangan hujjat qabul qilindi.

AQSh hukumati **2001-yil 8-noyabr**da Afg'onistondagi terrorga tayyorlovchi markazlarni yo'qotishga qaratilgan harbiy operatsiyalarni amalga oshirishga kirishdi. Bu operatsiyalar xalqaro koalitsiya yordamida muvaffaqiyatli nihoyasiga yetkazildi. Mamlakatni **H.Karzay** boshchiligida vaqtli hukumat boshqardi va **2004-yil 9-oktyabr**da u prezident qilib saylandi. Bugungi kunda Afg'onistonda nisbatan tinch bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda.

28.8. OSIYONING YANGI INDUSTRIAL DAVLATLARI

«Yangi industrial davlatlar tavsifi. **XX asr 60 – 80-yillari** rivojlanayotgan davlatlar ichidan**Yangi industrial davlatlar** (YID)ning ajralib chiqish davri bo'ldi. Bugungi kunda bunday davlatlar Lotin Amerikasi va Osiyoda mavjud. Osiyoda ularning eng rivojlangani **Janubiy Koreya** va **Singapur** bo'lsa, Lotin Amerikasida **Argentina, Braziliya** va **Meksika**dir. Mutaxassislar YID qatoriga **Malayziya, Tailand, Hindiston, Chili, Kipr, Tunis, Turkiya, Indoneziya, Filippin**ni ham kiritadilar.

BMTning hisoblash uslubiga ko'ra, u yoki bu davlatni yangi industrial davlatlar safiga qo'shishda quyidagi ko'rsatkichlar hisobga olinadi: *1) yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga taqsimoti ko'rsatkichi; 2) yalpi ichki mahsulotning yillik o'sish sur'ati (qo'shimcha); 3) qayta ishlash sanoatining yalpi ichki mahsulotdagi solishtirma salmog'i 20 foizdan yuqori bo'lishi zarur; 4) sanoat mahsulotlarining eksportdagi salmog'i; 5) xorijga chiqarilgan investitsiya salmog'i.*

Bu ko'rsatkichlar bo'yicha YID rivojlanayotgan davlatlardan ajralib turadi. Ba'zi sohalar bo'yicha esa ular ayrim rivojlangan davlatlardan o'zib ham ketdi. **90-yillar boshlari**da bu davlatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad **4 baravar** oshdi. Yangi industrial davlatlar shakllanishida chet el sarmoyasi katta rol o'ynadi. Chunonchi, **80-yillar 1-yarmi**da YID iqtisodiga kiritilgan sarmoya chet davlatlarning rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiga kiritgan jami sarmoyasining **42 foizi**ni tashkil etdi. YID iqtisodiga eng ko'p sarmoya kiritgan davlat **AQSh** (chetga chiqarilgan barcha sarmoyasining **10 foizi**)dir.

1995-yili xalqaro tashkilot – **«Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti»** Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari orasida birinchi bo'lib **Singapur**ga industrial rivojlangan davlat maqomini berdi. **30 yil** ichida barqaror iqtisodiy taraqqiyot Singapurni kichik bir bandargohdan jahondagi eng boy davlatlardan biriga aylantirdi (*yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga taqsimoti hajmi bo'yicha dunyoda 9-o'rinda turadi*). Shu yili aholi jon boshiga o'rtacha daromad **22300 dollar**ni tashkil etdi. Keyingi o'rinda **Yaponiya** turadi.

Chet el sarmoyalari YIDning sanoatini rivojlantirishda va eksportning raqobatbardosh bo'lishida muhim rol o'ynadi. Bunga **Janubiy Koreya** iqtisodi misol bo'la oladi. *Bu davlat iqtisodiga joylashtirilgan jami sarmoyalarning yarmidan ko'pi Yaponiya sarmoyasidir. Mazkur sarmoya Janubiy Koreyada mashinasozlik, avtomobilsozlik, elektrotexnika jihozlari, kemasozlik komplekslari yaratilishiga asos bo'ldi.*

Bugungi kunda YID iqtisodiyotida xorij sarmoyasi joylashtirilmagan biror-bir soha qolmadi. Ayni paytda, Osiyo YID iqtisodiyotiga kiritilgan chet el sarmoyalarining daromad keltirish ulushi Lotin Amerikasi davlatlarinikidan yuqoridir. Qolaversa, keyingi qator o'n yilliklarda transmilliy korporatsiyalar ilm talab qiluvchi ishlab chiqarishni rivojlantirishga katta e'tibor berdi. Osiyoning YID bunday o'zgarishga tayyor bo'lib chiqdilar.

Ayni paytda, quyidagi omillar ham transmilliy korporatsiyalarning aynan Osiyo hududiga kirib kelishida katta rol o'ynadi: *Osiyo YIDning qulay geografik o'rni. Ularning deyarli hammasi dunyo iqtisodiy yo'llari kesishgan nuqtalarda hamda AQSh va Yaponiyaga yaqin joylashgan; YIDda mustahkam siyosiy barqarorlikning tiklangani hamda demokratik va siyosiy qayta qurishlarning iqtisodiy islohotlar manfaatiga xizmat qilgani; Osiyo YID aholisining o'ta mehnatkashligi, tirishqoqligi, intizomliligi.*

YID iqtisodiy taraqqiyot modeli. YID o'z iqtisodiyotini rivojlantirishda quyidagi ikki modeldan birini tanlaganlar: *milliy iqtisodiyotni tashqi bozor– eksportga yo'naltirgan holda rivojlantirish; milliy iqtisodiyotni import*

o'rnini o'zi qoplashi yo'nalishida rivojlantirish. Birinchi yo'l samarasi AQSh, G'arbiy Yevropa va Yaponiya tajribasida isbotlangandi. Osiyoning YID ham, asosan, shu modelni qo'lladilar. Lotin Amerikasining YID esa, asosan, ikkinchi modelni qo'lladilar. Tabiiyki, bu ikki modeldan birini tanlashning o'zigina muvaffaqiyatni ta'minlamaydi. U yoki bu model uni tanlagan davlat hukumatining oqilona iqtisodiy siyosati bilan to'ldirilgan. Buningsiz hech qanday muvaqqiyatga erishib bo'lmaydi.

Barcha omillarning uyg'unligini ta'minlolgan Osiyoning YID juda qisqa tarixiy muddat oralig'ida yuksak rivojlanish darajasiga erishdi (*masalan, Yaponiya 100 yilda bosib o'tgan yo'lni ular 25 yilda bosib o'tdi*).

Janubiy Koreya Respublikasi. Koreya **1910-yili** Yaponiya mustamlakasiga aylangandi. Bu hol **1943-yil**gacha davom etdi. **1943-yili** Koreya mustaqillikka erishgan bo'lsa-da, keyinchalik ikki davlatga bo'linib ketdi. *Bu 1945-yili Koreyaning shimolini SSSR armiyasi, janubini esa AQSh armiyasi egallagani oqibati bo'ldi.* Potsdam konferensiyasi **1945-yili 38-parallel kenglik**ni SSSR va AQSh armiyasi o'rtasidagi chegara chizig'i deb belgiladi.

Bu ikki buyuk davlatning siyosiy xaritani o'z xohishlariga ko'ra tuzishga urinishlari oxir-oqibatda Koreyaning ham ikkiga bo'linib ketishiga olib keldi. **1948-yil 15-avgust**da Koreyaning janubida **Li Sin Man** boshchiligida **Koreya Respublikasi** tashkil topdi. **9-sentyabr**da esa shimolda **Kim Ir Sen** boshchiligida **Koreya Xalq Demokratik Respublikasi** tuzilgani e'lon qilindi. **1950-yili** bu ikki koreys davlati o'rtasida urush harakatlari boshlandi. Unga AQSh, SSSR va XXR ham aralashdi. Ikki yillik muzokaralardan so'ng, nihoyat, **1953-yil 27-iyul**da yarash bitimi imzolandi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda bu ikki koreys davlati taraqqiyoti turlicha yo'ldan bordi. Shimoliy Koreya sovet nusxasidagi «sotsializm» qurishga kirishdi. Buning oqibatida u Osiyoning eng kam taraqqiy etgan davlatlaridan biriga aylandi. **1994-yili** Kim Ir Sen vafot etgach, uning o'g'li **Kim Chen Ir** prezidentlik lavozimini egalladi. **1994-yili** aholi jon boshiga **920 dollarlik** yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarildi. Shunday bo'lsa-da, Shimoliy Koreya zo'r berib qurollanmoqda.

Janubiy Koreyada Li Sin Man **1960-yili** o'ldirilgach, hokimiyat **Pak Chjon Xi** qo'liga o'tdi. U ham **1979-yili** o'ldirildi va **1980 – 1987-yillari** prezidentlik lavozimini **Chon Du Xvan** egalladi. **1987-yil**gi saylovlarda **general Ro De Vu** g'alaba qildi. **1993-yilgi** saylovlarda esa **Kim Yan Sam** hokimiyatni egalladi. Koreya **60 – 70-yillar**da juda tez taraqqiy qildi. Hukumat markazlashdi. **DEU, Samsung, Xyunday, Lak-Goldstar** kabi kompaniyalar juda katta foyda oldilar. Kemasozlik, avtomobilsozlik,

elektronika va boshqa sohalar o'ta tez rivojlandi. *Keyingi 20 yil ichida har yili 10 foizdan rivojlandi.* Lekin inqirozlar ham yuz berdi. **1997-yili** inqiroz tufayli yuzlab korxonalar sindi. Xalqaro valyuta fondidan **47 mlrd dollar** qarz oldi. Bu davrda koreya xalqi haqiqiy vatanparvarligini ko'rsatdi. Fuqarolar milliardlab pul yig'dilar, ayollar oxirgi taqinchoqlarigacha davlatga topshirdi.

Janubiy Koreya bugungi kunda dunyoning eng taraqqiy etgan davlatlaridan biriga aylandi. Chunonchi, **1994-yili** aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan jami ijtimoiy mahsulot **11270 dollar**ni tashkil etdi. **2003-yil fevral**da **No Mu Xyon** mamlakat prezidenti etib saylandi. **2008-yil fevral**da bu lavozimni **Li Myon Bak** egalladi.

Singapur. Singapur **1958-yil**gacha Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lib keldi (*1828-yili Buyuk Britaniyaning mustamlaka hududiga aylangandi*). **1959-yili** unga Britaniya Hamdo'stligi tarkibida muxtoriyat maqomi berildi. **1963-yili** esa Malayziya federatsiyasi tarkibiga kirdi. Biroq tez orada iqtisodiy masalalarda federatsiya subyektlari o'rtasida chuqur kelishmovchiliklar yuzaga keldi. Natijada **1965-yili** Singapur federatsiya tarkibidan chiqdi va **9-avgust**da o'zini mustaqil respublika deb e'lon qildi.

Mustaqillik yillarida Singapur Janubi-Sharqiy Osiyoning eng rivojlangan davlatiga aylandi. **1994-yili** aholi jon boshiga **19940 dollarlik** yalpi mahsulot ishlab chiqarildi va jami yalpi mahsulot **57 mlrd dollar**ni tashkil etdi. Bu yerda hozir **4 mln aholi** yashaydi. Tug'ilish kamaymoqda. Yiliga **50 ming bola** tug'iladi. Bosh vazir **Go Chak Tong** millatni ko'p farzand ko'rishga chaqirdi. **S.R.Natan** mamlakat prezidenti etib saylandi.

Indoneziya. **1942-yili** Yaponiya tomonidan bosib olingan Indoneziya **1945-yili** ozod bo'ldi va **4-sentyabr**da **Sukarno (1901 – 1970)** boshchiligida hukumat tuzildi. Lekin **1947-yil iyul**da **Gollandiya** bostirib kirdi. BMTning aralashuvi va AQShning ta'siri bilan **1949-yili** Gollandiya Indoneziya mustaqilligini tan oldi. **1950-yili** Sukarno Indoneziya unitar respublikasini e'lon qildi. Mamlakatda mustaqillikning besh tamoyili: *millatparvarlik, baynalmilallik, demokratiya, ijtimoiy adolat, xudoga e'tiqod* asosida ish olib borildi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Neft konlari, kauchuk plantatsiyalari milliylashtirildi. Oziq-ovqat, to'qimachilik mollari, tayyor kiyimlar tayyorlash kuchaytirildi. Tabiiy boyliklar xalq qo'liga o'tdi.

1965-yil 30-sentyabrda kommunistparastlar davlat to'ntarishi uyushtirmoqchi bo'ldilar. Lekin uning oldi olinib, hokimiyat saqlab qolindi. Kommunistlar qatag'on qilindi. **1968-yil**ga kelib **general Suxarto** prezident bo'ldi va mamlakatni **1998-yil iyun**gacha boshqardi. Bu davrda

mamlakatda iqtisodiy va siyosiy barqarorlik hukm surdi. **1970-yil oxir**ida Indoneziyaga Amerika, Yaponiya va boshqa davlatlar kompaniyalari **1,3 mlrd dollar** investitsiya kiritdilar. *Kapital, asosan, kon sanoati, daraxt kesish va baliq ovlash sohalariga kiritildi.* Milliylashtirilgan korxonalar egalariga qaytarildi. Indoneziya siqilgan tabiiy gaz, neft eksport qiluvchi davlatga aylandi. **90-yillar**da **4 yil** ichida **35 mlrd dollar** miqdorida xorijiy kapital kiritildi. Turli avtomobillar, zamonaviy samolyotlar yig'ildi. Lekin **1997-yili** mamlakatda iqtisodiy inqiroz yuz berdi. **70 foiz** korxona, banklar yopildi, ishsizlar soni **20 mln** ga yetdi, tashqi qarz **138 mlrd dollar**ni tashkil etdi.

1998-yil iyunda prezident Suxarto iste'foga chiqib, **noyabr**da **B.Habibiy** prezidentlik lavozimini egalladi. Ammo siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlolmadi. **1999-yil oktyabr**da umumxalq saylovlari natijasida musulmon diniy partiyasi (**Naxdatul Ulamo**) rahbari **A.Vohid** prezident etib saylandi. U ham vaziyatni barqarorlashtirolmadi. Inflyatsiya **20 foiz**ga yetdi. **1975-yili** Gollandiyadan tortib olingan **Sharqiy Timor** mustaqillikka erishdi. **Achexa** ham shunday huquqni qo'lga kiritdi. **2001-yil**dan **Megavati Sukarnopuri** mamlakat prezidenti lavozimini to'la egalladi. Indoneziya hozirgi kunda neft mahsulotlari, sanoat gazi, rezina, ko'mir, mis, qo'rg'oshin, nikel, baliq mahsulotlari, kofe va choy eksport qiladi.

Myanma (Birma) ittifoqi. Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan Myanmani **1942-yili** Yaponiya butunlay bosib oldi. **1945-yili** yaponlarni quvib chiqargan ozodlik harakati kuchaydi. **1947-yil 24-sentyabr**da Ta'sis majlisi Birma Ittifoqi konstitutsiyasini qabul qildi. **1947-yil 17-oktyabr**da Xalq ozodligi antifashistik ligasi yangi prezidenti **U Nu** Buyuk Britaniya bilan shartnoma imzoladi. Unga muvofiq, Birma Ittifoqi **1948-yil 4-yanvar**dan mustaqil deb elon qilindi. U Nu bosh vazir etib saylandi va **1952-yil**gacha mamlakatni boshqardi.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun g'alla, makkajo'xori, paxta, shakarqamish, jut va boshqa mahsulotlarni ko'paytirishga harakat qilindi. Guruch tozalash, yog', choy, tamaki, shakar ishlab chiqarish korxonalari yangi texnologiyalar bo'yicha rekonstruksiya qilindi.

1952 – 1957-yillari Ba U, 1957 – 1962-yillari U Vin Maung prezidentlik qildilar. **1962-yil mart**da harbiylar **general Ne Vin** boshchiligida davlat to'ntarishi o'tkazdilar. **1947-yil**gi konstitutsiya bekor qilindi. Endi mamlakat Birma Ittifoqi Sotsialistik Respublikasi deb atala boshladi. Yangi sotsialistik jamiyat qurish **1988-yil**gacha davom etdi. Lekin rivojlanish ko'ngildagidek bo'lmadi.

1988-yili mamlakat Myanma Ittifoqi deb ataldi va **U So Maung** prezidentlik lavozimini egalladi. Endi bozor iqtisodiga o'tish boshlandi. Ahvol yaxshilandi. Chet el investitsiyasiga keng yo'l ochildi. Yalpi mahsulotning o'sishi yiliga **8 foiz**ga ko'tarildi. **1992-yil**i hokimiyatga kelgan **U Tan Shve** mamlakat iqtisodini yanada ko'tarish, xorijiy mamlakatlar munosabatlarini yaxshilash yo'lini tutmoqda. Hozirgi vaqtda rangli metallar, neft, kumush, qimmatbaho toshlar qazib chiqarish, neftni qayta ishlash, metallurgiya kombinatlari, qo'rg'oshin-rux korxonalari rivojlangan.

Malayziya. Malayziya davlati yerlari, xususan, «Nort Barkes» kompaniyasiga qarashli Shimoliy Borjo, Malakka orolining janubiy qismi, Kalimantan oroli shimolidagi Saravak va Sabak urushgacha bo'lak-bo'lak holda Buyuk Britaniya mustamlakasi edi. **1941-yil 8-dekabr**da **Malakka orol**iga yaponlar bostirib kirdi va **1942-yil fevral**da uni butunlay egalladi.

Yaponiyaga, undan so'ng Buyuk Britaniyaga qarshi mustaqillik harakati keng avj oldi va aholining barcha qatlamlarini qamradi. **1945-yili** inglizlar kelib **Malayya ittifoq**ini tuzdilar. Lekin u ham uzoq yashamadi, **1947-yil**i Birlashgan xalq fronti yuzaga keldi, u yosh davlat mustaqilligini mustahkamlashda asosiy kuch bo'lishi kerak edi. Lekin ushbu frontda birlik bo'lmadi, ichki kurashlar avj oldi.

1948-yil 1-fevralda Malayziya Federatsiyasi tuzildi. Singapur ajratildi. Konstitutsion monarxiya tuzumi o'rnatildi. **1957-yili** hozirgi **G'arbiy Malayziya** mustaqil deb e'lon qilindi. **1963-yili Singapur, Saravak** va **Sabak** Malayziya Federatsiyasi tarkibiga kirdi va mamlakat birlashtirildi. Lekin **1965-yil**i Singapur federatsiya tarkibidan chiqib, o'zini mustaqil deb e'lon qildi. Malayziya hukumatida **1981-yil**dan musulmon malayziyaliklar katta ta'sir kuchiga egadirlar.

Mamlakat iqtisodining asosini qayta ishlash, tog'-kon sanoati va qishloq xo'jaligi tashkil etadi. *Malayziya jahonning 50 foiz kauchugini, 40 foiz qalayini ishlab chiqaradi.* Ularning qariyb yarmini ingliz kapitali nazorat qiladi. AQSh va yapon kapitali ham katta ta'sirga ega. Elektrotexnika, neftni qayta ishlash, kimyo, metallurgiya, avtomobil sanoati rivojlangan. Tabiiy gaz, neft, qalay, mis, temir ruda konlari yangi texnologiya asosida mahsulot beradi. Yerning katta qismi zamindorlarga qarashli. Tabiiy kauchuk, kakao, palma yog'i, qalampir, ananas yetishtiriladi va eksport qilinadi. Mamlakat tashqi siyosatda qo'shilmaslik yo'lini tutgan. ASEANga a'zo.

28.9. ARAB DAVLATLARI

Umumiy tavsif. Ikkinchi jahon urushidan keyin arab xalqlari milliy ozodlik kurashi yanada kuchaydi. Qator davlatlar (**Misr, Iroq, Liviya, Yaman**)da mustamlakachi davlatlar qo'g'irchog'iga aylanib qolgan hukmron doiralar hokimiyati ag'darildi. Dastlab **Jazoir, Marokash, Tunis va Sudan** kabi davlatlar mustaqillikni qo'lga kiritdilar. Chet el kapitali egallab olgan milliy boyliklar (*Misrda Suvaysh kanali kompaniyasi, Iroqda neft kompaniyasi – Iroq petroleum*) milliylashtirildi.

Mustaqil davlatlar ijtimoiy-siyosiy ittifoqlarga qo'shilmaslik siyosatini yuritdilar. Biroq arab davlatlarining o'zaro munosabatlari o'tgan tarixiy davr mobaynida jiddiy sinovlarga duch keldi. Bu munosabat ba'zan do'stona, ba'zan raqobat, hatto dushmanlik tusini ham oldi. Ayni paytda, arab davlatlarining iqtisodiy taraqqiyot darajasi ham bir xilmas. Arab davlatlarining ba'zilarida (**Iroq** va **Suriya**) uzoq vaqt yakka shaxs diktaturasi hukm surdi yoki hukm surmoqda. **Falastin** arab xalqi esa hamon o'z mustaqil davlatiga ega emas. Biroq bu xalq o'z davlatiga ega bo'lish yo'lida qat'iy kurash olib bormoqda.

Yaqin Sharq muammosi. «Yaqin Sharq muammosi» deganda isroil – arab munosabatlari, Isroilning bosib olgan arab davlatlari yerlarini qaytarib berishi hamda mustaqil Falastin arab davlatini tashkil etish bilan bog'liq muammolar, shuningdek, arab davlatlari va Isroilning yaxshi qo'shnichilik munosabatlari asosida yashash masalalari tushuniladi.

1947-yil 29-noyabrda BMT Falastinda ikki davlat – **Isroil** yahudiy va **Falastin** arab davlati tashkil etish haqida qaror qabul qildi. Versal konferensiyasidayoq (**1919-yil**) Buyuk Britaniya Falastinni boshqarish va u yerda yahudiylar davlatini tashkil etish mandatini olgandi. Bu davrda Falastinda **100 mingga yaqin yahudiy** yashardi. Dunyo bo'ylab tarqalib ketgan yahudiylarni bir joyga – Falastinga to'plashda ularning xalqaro tashkiloti katta rol o'ynadi. Bu tashkilot **Sion** deb ataladi (*bu nom Falastindagi Sion tog'i nomidan olingan, tashkilot yahudiylarni shu atrofda to'planishga da'vat etadi*). Ayni paytda, sionizm g'oyasi ham vujudga keldi.

1942-yili Falastindagi yahudiylar soni **0,5 mln** ga yetdi. Ulardan yaxshi harbiy tayyorgarlikka ega, AQSh va Buyuk Britaniya tomonidan zamonaviy qurollar bilan qurollantirilgan armiya tuzildi. Yahudiylar arablar uchun ajratilgan hududlarni ham ishg'ol qilib oldilar. *1948-yil 14-mayda yahudiy sionistlar rahnamosi Ben Gurion Isroil davlati tuzilganini e'lon qildi.* **Tel-Aviv shahri** bu davlatning poytaxti bo'lib qoldi. Falastin arab

davlati esa tuzilmadi. *Oqibatda 1948-yil birinchi isroil – arab urushi yuz berdi.* Arab davlatlari armiyasi yengildi. Chunki ular qoloq, zamonaviy armiyaga ega bo'lmagan davlatlar edi.

Yahudiylar Falastin arablarini o'z yerlaridan quvib chiqara boshladilar. Buning natijasida **0,5 mln** falastinlik arablar **Livan** hududiga qochib o'tishga majbur bo'ldi. **Misr, Suriya, Livan** va **Iordaniya** Isroil bilan tinchlik shartnomasini imzolashga majbur bo'ldi.

Dunyo sionistik tashkilotlari ko'rsatgan moliyaviy yordam, Germaniyaning Isroilga to'lagan **1 mlrd dollar** miqdordagi tovoni hamda AQSh ko'rsatgan katta yordam tufayli Isroil qisqa vaqt ichida qudratli armiyaga ega davlatga aylandi. Yaqin Sharq strategik xomashyo – neftga boy o'lkadir. U yerda jahon neft zaxirasining **50 foizi** mavjud. AQSh bu o'lkani o'z hayotiy manfaati doirasiga kiritgan. Ayni paytda, unga bu hududda ishonchli ittifoqchi ham zarur edi. Isroilni ana shu ittifoqchilikka eng mos davlat sifatida tanladi.

Arab davlatlari esa qoloqligicha qolaverdi. Boz ustiga, arab davlatlari o'rtasida mustahkam ittifoq ham yo'q edi. Buning asosiy sababi mustamlakachi davlatlarning arablarga mustaqillik berish davrida bir arab davlati hududining bir qismini ikkinchi arab davlati hududiga qo'shib yuborgani edi. Ikkinchidan, **Saudiya Arabistoni, Iroq** (*1958-yilgacha*), **Iordaniya** davlatlarida hukmron sulolalar o'zaro nizoda edilar. **Livan**da esa davlat boshqaruvi diniy jamoatchilik tamoyiliga asoslangani uchun, ularning har biri o'z manfaatini umumarab manfaatidan ustun qo'yardilar.

Arab – isroil munosabatlarining keyingi ahvoli. Yaqin Sharq muammosi Buyuk Britaniya va Fransiyani ham befarq qoldirmadi. Bu ikki davlat ham Yaqin Sharqdagi manfaatlaridan voz kechishni aslo istamasdi. Ular arab davlatlarida hokimiyat tepasida o'zlariga sodiq hukumatlar turishi uchun barcha choralarni ko'rdi. Manfaatlariga katta xavf tug'ilgan paytda ular agressiya uyushtirishdan ham tap tortmadilar. Chunonchi, **1956-yil oktyabr**da Buyuk Britaniya, Fransiya va Isroil Misrga qarshi agressiya uyushtirdilar. Faqatgina SSSRning Yaqin Sharqda tinchlikni tiklash uchun zarur bo'lsa kuch ishlatishga tayyorligi haqidagi qattiq bayonoti agressiyani to'xtatishga majbur etdi.

Falastin arab xalqi kurashni to'xtatgani yo'q. *1964-yili Livanda Falastin ozodlik tashkiloti (FOT) tuzildi. Bu tashkilot o'z oldiga mustaqil Falastin davlatini tuzish vazifasini qo'ydi.* Tez orada u **15 minglik** yaxshi tayyorgarlik ko'rgan armiyaga ega bo'ldi. **1967-yil 5-iyun**da Isroil Misrga yana hujum qildi. Bu urushda Misr armiyasiga juda katta talafot yetkazildi. Urush **6 kun** davom etdi. Shu davr ichida Isroil o'z hududidan **2 baravar** katta bo'lgan

arab davlatlari hududini bosib oldi. Bu hududlar keyinchalik anneksiya ham qilina boshlandi. *Misr Sinay yarimorolini, Suriya Jo'lan tepaligini, Iordaniya esa Iordan daryosining g'arbiy qirg'og'ini boy berdi.* SSSR **10 yil** davomida Misr va Suriyaga yetkazib bergan harbiy texnikaning deyarli barchasi Isroil qo'liga o'tdi. *G'azo sektori va Falastin davlati poytaxti bo'lishi kerak bo'lgan Quddusni ham (arablar yashaydigan qismi) Isroil egalladi.* Bu mag'lubiyat boshqa arab davlatlarini tashvishga solib qo'ydi.

1967-yil Sudanda arab davlatlari rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuvi o'tkazildi. *Uchrashuvda Isroil bilan muzokara o'tkazmaslik; Isroilni tan olmaslik va u bilan separat tinchlik shartnomasi imzolamaslik haqida qaror qabul qilindi.* Ayni paytda, agar Isroil davlati Falastin arab xalqiga o'z davlatini tuzish imkonini bersa hamda bosib olingan yerlarni qaytarsa, bu qarorni bekor qilish mumkinligini qayd etdi.

Isroil ittifoqchilari ham qo'l qovushtirib o'tirmadi. Ular Isroilga katta miqdorda yordam ko'rsatishni davom ettirdilar. **1969 – 1979-yillar**da Isroil **20 mlrd dollarlik** yordam oldi. Hukumat bosib olingan hududlarga yahudiylarni joylashtirish siyosatini yuritdi. Arab davlatlari ham o'z harbiy salohiyatlarini mustahkamlash choralarini ko'rdilar. SSSR ularga zarur harbiy texnika yetkazib berdi. **1973-yil 6-oktyabr**da yana arab – isroil urushi boshlandi. Shu kuni Misr-Suriya armiyasi Isroilga hujum qildi. Arab qurolli kuchlari birinchi bor Isroilni og'ir ahvolga solib qo'ydi. Ayni paytda, FOTning xalqaro obro'si oshib bordi. **1974-yili** arab davlatlari uni Falastin arab xalqining yagona vakili deb tan oldilar. FOTga BMTda kuzatuvchi maqomi berildi.

Kemp-Devid bitimi va uning oqibatlari. Isroilning og'ir ahvolga solib qo'yilishi uning ittifoqchilarini befarq qoldirmadi. AQSh isroil – arab munosabatlariga jiddiy aralasha boshladi. Uning maqsadi Isroilning xalqaro obro'sini saqlab qolish edi. Ikkinchidan, arab davlatlarini SSSR-dan uzoqlashtirish hamda arablar orasiga nizo solish edi. AQSh o'z maqsadiga erishdi. **1979-yil 26-mart**da AQSh Isroil va Misr o'rtasida separat **Kemp-Devid** (AQSh) **bitimi** imzolanishiga erishdi. *Unga ko'ra, Isroil o'z qo'shinlarini 1982-yil aprelgacha Sinaydan olib chiqib ketishga rozilik berdi. AQSh har ikki davlatga iqtisodiy-harbiy yordam ko'rsatish majburiyatini oldi.* AQSh Suvaysh kanalini minalardan tozalab, kemalar qatnovini yo'lga qo'yishda Misrga yordam ko'rsatdi. Arab ekstremistlari Misr prezidenti **A.Sadat**ning bu siyosatini sotqinlik deb baholadilar va **1981-yil 6-oktyabr**da uni o'ldirishga erishdilar.

1980 – 1990-yillari arab davlatlari o'rtasida Yaqin Sharq masalasida bo'linish yuz berdi. Boy arab davlatlari: **Saudiya Arabistoni, Quvayt,**

Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) va **Ummon** muammoni Isroil bilan kelishuv orqali hal etish kerakligini yoqlab chiqdilar. **Iordaniya** va **Livan** ham keyinchalik shunday qildi. **Suriya** va **Iroq** esa tinch kelishuv yo'lini inkor etdilar.

1994-yildan Yaqin Sharq muammosini hal etish yangi bosqichga kirdi. Isroil Falastin milliy avtonomiyasini tuzishga ijozat berdi. Biroq bir qancha muzokaralar o'tkazilsa-da, Falastin davlatini tuzish muammosi hamon ochiqligicha qolmoqda.

2005-yili Y.Arofat vafot etgach, uning o'rniga kelgan **Mahmud Abbos** bu ishni davom ettirmoqda. **2005-yil avgust**dan Isroil G'azo sektoridan **8,5 mingdan ortiq yahudiy**ni ko'chirib olib chiqib ketdi. Bu narsa Isroilda munosabatni ancha keskinlashtirdi, falastinliklar esa bayram qildi.

Iroq. Iroqda Ikkinchi jahon urushidan keyin ham amalda Buyuk Britaniya nazorati davom etdi. **1948-yil 15-yanvar**da Buyuk Britaniyaning **Portsmut shahr**ida imzolangan shartnoma bu holatni yanada mustahkamladi. *Shartnomaga ko'ra, urush xavfi paydo bo'lgan chog'da Buyuk Britaniya Iroqni ishg'ol etish huquqini oldi. Amalda Buyuk Britaniya irodasiga bo'ysungan qirol hukumati Iroqni harbiy-siyosiy ittifoqqa tortdi.* Shu ittifoq **1955-yil 12-oktyabr**da rasmiylashdi va Bag'dod pakti nomi bilan ataldi.

Qirol hokimiyatining amalda G'arb davlatlari irodasini bajaruvchiga aylanishi mamlakat harbiylari orasida norozilik tug'dirdi. **1956-yili** harbiy qismlar orasida **«Erkin zobitlar»** tashkiloti tuzildi. **1958-yil 14-iyul**da harbiy to'ntarish amalga oshirildi. Mamlakat qiroli **Feysal II** o'ldirildi. Iroq respublika deb e'lon qilindi. **Polkovnik Abdul Karim Qosim** boshchiligida hukumat tuzildi. Iroq Bag'dod paktidan chiqdi. Chet el harbiy bazalari tugatildi. *Sentyabrda agrar islohot to'g'risida qonun qabul qilindi.* Ayni paytda, Abdul Karim Qosim mamlakatda shaxsiy diktatura o'rnatishga intildi. Muxolifatchi kuchlarni qatag'on qilish siyosatini yuritdi. Tashqi siyosatda esa **Quvayt**ga nisbatan hududiy da'vo bilan chiqdi. Bu hol uning arab dunyosida yakkalanib qolishiga olib keldi. Mamlakatda hokimiyat uchun kurash kuchaydi. Buning natijasida **1963-yil 8-fevral**da navbatdagi harbiy to'ntarish o'tkazildi. Abdul Qosim va uning yaqin tarafdorlari o'ldirildi. Hokimiyat tepasiga **Baas partiyasi** (Arab sotsialistik uyg'onish partiyasi) va **Abd as-Salom Arafa** boshchiligidagi harbiy guruh keldi.

Arafa prezident deb e'lon qilindi. Ammo u ham mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti xususida turli siyosiy guruhlar birligini ta'minlolmadi. Mamlakatda siyosiy beqarorlik davom etdi. Kurd muammosi ichki vaziyatni yanada murakkablashtirdi. Shunday sharoitda Arafa **18-noyabr**da

yangi davlat to'ntarishi o'tkazdi va butun hokimiyatni o'z qo'liga oldi. U mamlakatda «arab sotsializmi» qurishini e'lon qildi. Yagona siyosiy partiya – **Iroq arab sotsialistik ittifoqi** tuzildi. Boshqa partiyalar faoliyati taqiqlandi. Ichki siyosatdagi chet el kapitaliga qaram kompaniyalar milliylashtirildi. Kurd separatchilari bilan harbiy harakatlarni to'xtatish haqida bitimga erishildi. Biroq muxolifat kuchlarga qarshi qatag'on kuchaytirildi.

Tashqi siyosatda qo'shni arab davlatlari bilan munosabatlar normallashtirildi. Lekin Arafa hukumati davlatning iqtisodiy ahvolini yaxshilolmadi. Buning asosiy sababi harbiy xarajatning ko'paytirilgani edi. **1967-yil**gi Isroil agressiyasi mamlakat iqtisodiy ahvolini yanada murakkablashtirdi. Bu hol armiyadagi turli xil guruhlar o'rtasida hokimiyat uchun kurashni yanada kuchaytirdi. Nihoyat, **1968-yil 17-iyul**da harbiylar navbatdagi davlat to'ntarishini amalga oshirdilar. Taqiqlangan Baas partiyasi yana hokimiyat tepasiga keldi. Bu voqea siyosiy adabiyotlarga **«Iyun inqilobi»** nomi bilan kirgan. General **Ahmad Hasan al-Bakr** prezidentlik lavozimini egalladi.

Yangi hukumat iqtisodiyotda davlat sektorini yaratish yo'lini tutdi. Radikal agrar islohot o'tkazishni, kurd muammosini tinch yo'l bilan hal etishni e'lon qildi. **1972-yili** katta yer egalaridan ortiqcha yerlarni olish vazifasi nihoyasiga yetkazildi. Shu yil **1-iyun**da **«Iroq petroleum»** neft kompaniyasi milliylashtirildi. Keyingi yillarda barcha neft sanoati milliylashtirildi.

1973-yili chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun turli siyosiy kuchlarni birlashtirgan Taraqqiyparvar milliy vatanparvarlik fronti tuzildi. **1974-yili** kurd xalqi muxtoriyatni amalga oshirish haqida qonun qabul qildi. Muxtoriyat hududida kurd tili rasmiy til deb tan olindi.

Tashqi siyosatda arablar birligiga ko'maklashish oldingi o'ringa chiqdi. Xususan, Iroq **1973-yili** Suriyaga Isroil agressiyasini qaytarishda yordam berdi. Uning armiyasi Damashqning Isroil qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratishida muhim rol o'ynadi. Ayni paytda, SSSR bilan yaqinlashish yo'lini tutdi. Bu yaqinlashuv **1972-yili** ikki davlat o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma bilan mustahkamlandi. SSSRning yordami bilan Iroqda **80 ta** iqtisodiy obyekt qurildi.

1979-yil oxirida hokimiyatni **general S.Husayn** egalladi. U mamlakatda diktatura o'rnatdi. Muxolifatchi kuchlar faoliyati taqiqlandi. Iroqni «qudratli» davlatga aylantirishga kirishdi. Harbiy xarajat har qachongidan ham oshirildi. Million kishilik armiya barpo etildi.

Iroqning qudrati qo'shni davlatlarni tashvishga solib qo'ydi. Chunki avantyurist S.Husayndan hamma narsani kutish mumkin edi. Chunonchi, **1980-yili** u **Eron**ga hududiy da'vo bilan chiqdi. Bu hol Iroq – Eron urushini

keltirib chiqardi. Urush **8 yil** davom etdi. Har ikki tomon minglab qurbon berdilar. Katta iqtisodiy talafot ko'rdilar. Iroq maqsadiga erishmadi. Eron o'z hududiy daxlsizligini himoya qiloldi.

1990-yil avgustda S.Husayn yana bir avantyuraga qo'l urdi. **Quvayt**ni bosib olish maqsadida armiyasini kiritdi. Biroq xalqaro hamjamiyat bunga befarq qarab turmadi. BMT Xavfsizlik Kengashi Iroq rahbariyatidan qo'shinini Quvaytdan olib chiqib ketishni talab qildi. Ammo talab bajarilmadi. Bu esa Iroqqa qarshi davlatlar ittifoqi tuzilishiga olib keldi. **1991-yil 17-yanvar**da bu ittifoq harbiy kuchlari (*asosan, AQSh armiyasidan iborat*) Iroq armiyasiga hujum boshladi va uni tor-mor etdi. Quvaytning davlat mustaqilligi tiklandi.

AQSh Iroqni harbiy kuch yordamidagina xalqaro huquq normalarini hurmat qildirish mumkin deb hisobladi va **2003-yil iyun**da Buyuk Britaniya ko'magida Iroqqa hujum boshlab, S.Husaynni tor-mor qildi. Koalitsiyachilar hamon o'z qo'shinlarini Iroqda saqlab turibdilar. AQSh Iroqning butun boyligiga, ayniqsa, katta miqdordagi neftiga ega bo'ldi. Iroqda vaziyat keskin bo'lib, kelgindilarga qarshilik ko'rsatish to'xtamayotir. Xalq esa urush jarohatlarini tiklamoqda. **2006-yil noyabr**da S.Husayn o'limga hukm qilindi. Bosh vazir **Ayyad Alaviy** amerikaparast siyosat yuritmoqda.

Saudiva Arabistoni. **1925-yili** Arabiston amiri **Abdul Aziz ibn Abdul Rahmon ibn Saud** qo'shini deyarli butun Arabistonni egalladi. **1932-yili** esa Ibn Saud Saudiya podsholigi tuzilganini e'lon qildi. Shu tariqa **Saudiya Arabistoni** davlati vujudga keldi. Saudiya Arabistoni mutlaq monarxiya davlatidir. Ayni paytda, dunyoning neftga boy davlatlaridan biri. Bu omil uning iqtisodiyoti gurkirab rivojlanishiga yordam berdi. **1935-yil**dan AQSh neft kompaniyalari neft qazib chiqarish bilan shug'ullana boshladi. Shu yili neft qazib chiqarish bo'yicha arab – amerika kompaniyasi tuzildi. **1939-yil**dan esa neftni sanoat asosida qayta ishlash boshlandi.

1964-yili podsholik taxtiga **Faysal ibn Saud** o'tirdi. U mamlakatni zamonaviylashtirish va liberallashtirish siyosatini yuritdi. U milliy neft sanoatini yaratishga kirishdi. Arab – amerika neft kompaniyasi (**ARAMKO**) qarorgohi Saudiya Arabistoniga ko'chirildi. **1973-yili** arab – amerika neft kompaniyasi milliylashtirildi. **1982-yil**dan kompaniya daromadida Saudiya Arabistoni hissasi **51 foiz**ni tashkil etishiga erishildi. **1999-yili** esa kompaniya to'la Saudiya mulki bo'lib qoldi.

Podsho hukumati aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirdi. Chunonchi, mehnat qilish huquqi kafolatlandi. Zamon ruhiga mos mehnat qonuni joriy etildi. Oddiy kishilar uchun arzon turarjoylar qurildi. Yuqori ish haqi to'lanishi kafolatlandi. Tekin tibbiy

xizmat joriy etildi. Chet elda davolanish zaruriyati tug'ilganda davlat uning xarajatini o'z bo'yniga oladigan tartib joriy qildi. Bepul umumiy o'rta ta'lim amalga oshirildi. O'g'il o'quvchi bola uchun uning oilasiga kompensatsiya to'lovi joriy etildi. Qirol **Faxd bin Abdulaziz as-Saud** (*1982-yili taxtga o'tirgan*) ham Faysal siyosatini davom ettirdi. Bugungi kunda davlat daromadining **92 foizi** neftdan kelmoqda. Xususan, **1995-yili 50 mlrd dollarlik** neft sotilgan bo'lsa, mamlakatga **30 mlrd dollarlik** xalq iste'mol tovarlari olib kelindi.

Saudiya Arabistoni iqtisodiyoti neftdan topgan daromadning hammasini o'zlashtirishga qodirmas. Shuning uchun topilgan daromadning bir qismi chet el banklarida saqlanadi hamda qarzga beriladi. **2005-yil 1-avgust**da qirol Faxd vafot etdi. Uning o'rnini **79 yoshli ukasi Abdulloh bin Abdulaziz as-Saud** egalladi.

Tashqi siyosat. Saudiya podsholigining asosiy ittifoqchisi, hamkori AQShdir. Arab davlatlari va boshqa musulmon davlatlari bilan ham hamkorlik qiladi. Har yili byudjetning **10 foizi** miqdorida musulmon davlatlariga yordam ko'rsatmoqda. Arab davlatlarining AQSh taklifi asosida Isroil bilan munosabatlarini qayta qurishda Saudiya Arabistoni katta rol o'ynadi. Xususan, **1979-yili** Misr – Isroil o'rtasida Kemp-Devid shartnomasi imzolanishi bevosita Saudiya podsholigining Misrga ko'rsatgan ta'siri oqibati bo'ldi deyish mumkin. Iroqni Quvaytdan quvib chiqarish bilan bog'liq xalqaro operatsiyada ham Saudiya podsholigi o'ziga xos rol o'ynadi.

Suriya. Suriya **1941-yil 27-sentyabr**da mustaqil davlat deb e'lon qilingan bo'lsa-da, ingliz – fransuz armiyasi mamlakat hududida qolavergandi. **1946-yil** Suriya Buyuk Britaniya va Fransiyaning o'z qo'shinlarini olib chiqib ketishi haqida BMTga murojaat etdi. Buning natijasida **1946-yil 17-apre**lda Buyuk Britaniya va Fransiya o'z qo'shinlarini olib chiqib ketishga majbur bo'ldilar. Shu tariqa Suriya suvereniteti to'la tiklandi va **17-aprel** milliy bayram kuni bo'lib qoldi.

Biroq Suriya hukumati mamlakatda siyosiy barqarorlikni ta'minlolmadi. Bu esa **1949-yili** ketma-ket **3 marta** davlat to'ntarishi ro'y berishiga olib keldi. **1951-yil noyabr**da esa polkovnik **Shishakli**ning harbiy diktaturasi o'rnatildi. Biroq bu diktatura uzoq yashamadi. **1954-yili** u ag'darildi. **1956-yili Shukri Quatli** prezident etib saylandi. U Misr va Saudiya davlatlari bilan yaxshi munosabat o'rnatdi. **1956-yili** Misrga qarshi agressiya davrida Misrga yordam ko'rsatdi.

SSSR bilan ham munosabatlari mustahkamlanib bordi. Murakkab xalqaro sharoit, harbiy agressiya xavfi Suriyani Misr bilan birlashishga

majbur etdi. **1956-yil fevral**da Suriya va Misr yagona davlatga birlashdilar. Bu davlat **Birlashgan Arab Respublikasi** deb ataldi. Misr prezidenti **Jamol Abdul Nosir** BAR prezidenti etib saylandi. Biroq bu birlik uzoq davom etmadi. Suriyada hamma tabaqalar ham, jumladan, harbiylarning aksariyat qismi birlashuvdan birday manfaatdor emasdi.

1961-yil 8-martda **Baas** (Arab sotsialistik uyg'onish partiyasi) a'zosi bo'lgan zobitlar guruhi davlat to'ntarishi o'tkazdilar. Hokimiyat Milliy inqilobiy qo'mondonlik kengashi qo'liga o'tdi. **1966-yil 23-fevral**da hokimiyatni **general Hafiz Asad** egalladi. U hayotining deyarli oxirigacha prezidentlik lavozimini egallab keldi (*2000-yil*). Uning vafotidan keyin o'g'li **Bashar al-Asad** prezidentlik lavozimiga keldi.

1967-yili arab – isroil munosabatlari yanada keskinlashdi. Tez orada urush harakatlari boshlanib ketdi. Bu urushda Suriya o'z hududining bir qismini yo'qotdi. **1973-yil**gi arab – isroil urushida ham bu hududlarni qaytarib olishga erishilmadi. Suriya Isroil bilan separat shartnoma tuzishga uzoq yillar qarshi bo'lib keldi. Bu qoida hamon davom etmoqda. *«Tinchlik evaziga bosib olingan yerlarni qaytarib olish»* tamoyili ostida o'tkazilgan Suriya – Isroil muzokaralari natijasiz tugadi. Suriya – Isroil munosabatlarida urush holatining davom etishi Suriyani mudofaaga katta mablag' sarflashga majbur etmoqda. Suriya o'z qo'shnisi **Livan**ga ham harbiy yordam ko'rsatib kelmoqda.

Misr. Misr **1922-yil**dan mustaqil hisoblansa-da, amalda Buyuk Britaniya mustamlakasi edi. Vatanparvar kuchlar bu holatga chek qo'yish uchun kurashga birlashdilar. Ular ichida **«Ozod zobitlar»** yashirin tashkiloti alohida rol o'ynadi. **1952-yil 23-iyul**da **J.A.Nosir** boshchiligida Qohira garnizoni qo'zg'olon ko'tardi. Podsho **Farrux** taxtdan ag'darildi. Hokimiyat Inqilobiy qo'mondonlik kengashi qo'liga o'tdi.

1953-yil iyunda **Misr Respublikasi** e'lon qilindi. **1956-yili** davlatning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. J.A.Nosir mamlakat prezidenti etib saylandi va **1970-yil**gacha mamlakatni idora qildi. Dastlabki yilning **iyun** oyidayoq Suvaysh kanali milliylashtirildi. Mamlakatda agrar islohot o'tkazildi. Bunga chidolmagan G'arb davlatlari Misrga qarshi uchlar agressiyasini uyushtirdilar (**Buyuk Britaniya, Fransiya** va **Isroil**). Bu haqda oldingi mavzuda ma'lumot berilgan.

Misr tashqi siyosatda qo'shilmaslik harakatida faol qatnashdi. Shuningdek, SSSR bilan munosabatlarini har tomonlama mustahkamladi. Yaqin Sharq muammosi tufayli Misr **14 marta** arab – isroil urushiga tortildi. Nihoyat, **1979-yili** imzolangan Kemp-Devid shartnomasi tufayli Isroil bilan tinchlikka erishdi. Isroil bosib olgan hududlarni qaytarib oldi.

1981-yili ekstremistlar tomonidan otib o'ldirilgan **A.Sadat** o'rniga kelgan Misr prezidenti **H.Muborak** (*1928-yili tug'ilgan*) Falastin arab xalqining mustaqil davlatga ega bo'lish yo'lidagi kurashini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Arab davlatlari birligini mustahkamlashga intilmoqda. **2005-yil sentyabr**dagi birinchi umumxalq saylovida H.Muborak g'olib chiqdi. Ayni paytda, Misr Afrika qit'asining, arab dunyosining eng rivojlangan, qudratli davlatlaridan biri.

Jazoir. Jazoir Ikkinchi jahon urushidan keyin ham Fransiya mustamlakasi bo'lib qolaverdi. Inqilobiy vatanparvar kuchlar **1954-yili «Birlik va harakat qo'mitasi»** tuzdilar. Keyinchalik u **«Milliy ozodlik fronti»** (MOF) deb ataldi. Uning rahbarligida **1-noyabr**da qurolli qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olon umummilliy inqilobga aylanib ketdi. **1958-yil 19-sentyabr**da Jazoir Respublikasining Muvaqqat hukumati tuzildi. Fransiya mustamlakachi ma'muriyati ozodlik kurashini qonga botirishga harakat qildi. Biroq jahon hamjamiyati Jazoir xalqining ozodlik kurashini qo'llab-quvvatladi. Mustaqillik uchun kurashda Jazoir xalqi juda katta qurbonlar berdi. Ozodlik kurashi davomida 1 **mln dan ortiq kishi** halok bo'ldi. **2 mln kishi** turli konslagerlarga tashlandi.

Nihoyat, **1962-yil 1-iyul**da Jazoir mustaqil xalq demokratik respublikasi deb e'lon qilindi. Ozodlik kurashining arbobi, MOF rahbari **Ahmad Ben Bella** yangi hukumatni boshqardi. Mustaqil taraqqiyot yo'li oson kechmadi. Xususan, **1965-yili** MOF rahbariyati tarkibida bo'linish yuz berdi. Mamlakat prezidenti **Ahmad Ben Bella** taraqqiyotning liberal yo'li tarafdori edi. Mamlakatda qattiqqo'llik bilan siyosat yuritish tarafdorlari mudofaa vaziri **X.Bumeden (1925 – 1978)** atrofida birlashdilar.

Ular **1965-yil 19-iyun**da davlat to'ntarishi o'tkazdilar. Butun hokimiyat X.Bumeden qo'lida to'plandi. **1978-yili** X.Bumeden vafot etgach, **Sh.Benjadid** prezident lavozimini egalladi. MOF hukmronligi yillarida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tub o'zgarishlar ro'y bermadi. Buning sababi o'z vaqtida zarur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar o'tkazilmagani edi. Mazkur holat MOF obro'sini tushirib yubordi. Ijtimoiy adolatni kuchaytirish talabi mamlakatda diniy harakatlar mavqeyini mustahkamladi.

1989-yili MOF hokimiyatga bo'lgan monopol huquqidan voz kechishga majbur bo'ldi. Muxolifat partiyalar faoliyatiga ruxsat etildi. **1989-yili** tuzilgan **«Milliy qutqarish islom fronti»** (MQIF)ning obro'si kundan kunga o'sib bordi. Shu yiliyoq bu diniy partiya mahalliy saylovlarda g'olib chiqdi. **1991-yil noyabr**da o'tkazilgan umumiy parlament saylovida ham bu partiya MOFni mag'lubiyatga uchratdi. Biroq armiya oliy qo'mondonligi saylov natijalarini tan olmadi.

Sh.Benjadid iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. Uning o'rniga **1991-yil noyabr**da **M.Budlar** o'tirdi. **1992-yil 2-iyun**da armiya davlat to'ntarishi o'tkazdi, M.Budlar o'ldirildi. **Ali Karini** hokimiyatni egalladi. MQIF faoliyati taqiqlandi. Diniy ekstremistlar terrorni avj oldirdilar. Buning oqibatida **100 mingdan ortiq fuqaro** halok bo'ldi. Jazoirda hamon siyosiy barqarorlik ta'minlangani yo'q. **Abdulaziz Buteflika** mamlakat prezidenti lavozimida ishlamoqda.

Marokash. Marokash Fransiya mustamlakasi edi. Marokash xalqining ozodlik kurashi uzoq davom etdi. Nihoyat, **1956-yil 2-mart**da Marokash mustaqilligi haqida deklaratsiya imzolandi. **5-apreld**a Ispaniya Marokash mustaqilligini tan oldi. **1961-yili** Fransiya qo'shinlari mamlakatdan olib chiqib ketildi. AQSh harbiy bazasi ham tugatildi. **1962-yil**dan Marokash konstitutsiyaviy monarxiya davlatiga aylandi. Qirol **Hasan II** mamlakat yangi konstitutsiyasini imzoladi.

Marokash arab xalqining Isroil agressiyasiga qarshi kurashini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Ayni paytda, uning Jazoir bilan munosabatlarida keskinlik ham mavjud. Bu keskinlik **G'arbiy Sahroyi Kabir** bilan bog'liq. **1975-yili** Marokash bu hududni bosib oldi. G'arbiy Sahroyi Kabirda bir necha o'n yillardan beri separatchilik harakati davom etmoqda. Jazoir Respublikasi esa ana shu harakatni qo'llab-quvvatlamoqda. Bu hol Marokash – Jazoir munosabatlariga sovuqlik tushirgan.

1999-yili Hasan II vafotidan so'ng, taxtni o'g'li **Muhammad VI** egalladi. *Otasidan 30 mln aholini boshqarishni, 200 ming armiyani meros qilib oldi. 50 foiz xalq savodsiz.*

Tunis. Tunis ham uzoq yillar Fransiya mustamlakasi bo'lib keldi. Faqat **1956-yil**igina **(20-mart)** Fransiya Tunis mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi. Hokimiyat Yangi Dastur partiyasi rahbarligidagi Milliy front qo'liga o'tdi. Uning rahbari **X.Burgiba** yangi hukumat tuzdi. **1957-yil 25-iyul**da Tunisda monarxiya tugatildi va respublika e'lon qilindi. X.Burgiba mamlakatning birinchi prezidenti etib saylandi.

X.Burgiba mamlakatda **«Dastur sotsializmi»** qurishini e'lon qildi. *Bu ibora amalda iqtisodiyot davlat, kooperativ va xususiy sektorni mujassamlashtirgan jamiyatni anglatardi.* Ayni paytda, bu jamiyat aholi barcha tabaqalari manfaatini aks ettirishi zarur edi. **1969-yil**dan davlat yerlari, fransuz mustamlakachilariga qarashli yerlar sotila boshlandi. Shu tariqa mayda va o'rta yer egalari tabaqasi vujudga keltirildi. Sanoat korxonalari ham milliylashtirildi. Milliy va chet el kapitaliga qulay sharoit yaratib berildi.

Biroq mamlakatda ijtimoiy adolatsizlik avj oldi. Bu siyosiy beqarorlikni vujudga keltirdi. Natijada diniy yo'nalishdagi partiyalar kuchaydi. Shunday

sharoitda harbiylar **1987-yil 7-noyabr**da to'ntarish o'tkazdilar. X.Burgiba hukumati ag'darildi. Hokimiyat **general Ben Ali** qo'liga o'tdi. Tunis tashqi siyosatda ham G'arb, ham arab davlatlari bilan munosabatlarni rivojlantirib bormoqda. **1976-yili** u Yevropa Ittifoqi bilan shartnoma imzoladi. **1989-yili** esa Arab mag'ribi ittifoqi a'zosi bo'ldi. Arab davlatlari ligasi a'zosi sifatida Falastin arab xalqining o'z davlatiga ega bo'lish huquqini qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Liviya. Liviya Birinchi jahon urushi yillaridan 1943-yilgacha Italiya mustamlakasi bo'lib keldi. **1943-yili** Italiya ittifoqchilarga taslim bo'lgach, Fransiya va Buyuk Britaniya boshqaruviga o'tdi. **1951-yili** Liviya mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Liviyada monarxiya qaror topdi. Qirol **Idris I** tashqi siyosatda, birinchi navbatda, **Buyuk Britaniya va AQSh** bilan yaqinlashish yo'lini tutdi. *Chunonchi, 1953-yili mamlakat hududida Buyuk Britaniya, 1954-yili esa AQSh harbiy bazalarini tashkil etish haqida bitimlar imzolandi.* Shu tariqa buyuk davlatlar Afrikadagi manfaatlarini himoya qilishda Liviyani tayanch nuqtaga aylantirdilar. Biroq Idris I siyosati harbiylar orasida norozilik tug'dirdi. Ular **1969-yil 1-sentyabr**da harbiy to'ntarishni amalga oshirdilar. To'ntarishga **polkovnik M.Kaddafiy** (*1942-yili tug'ilgan*) rahbarlik qildi. Hokimiyat inqilobiy qo'mondonlik kengashi qo'liga o'tdi. To'ntarish natijasida monarxiya ag'darildi. Mamlakat **Liviya Arab Respublikasi** deb e'lon qilindi. Buyuk Britaniya va AQSh **1970-yili** Liviyadan o'z harbiy qismlarini olib chiqib ketishga majbur bo'ldi.

Keyingi o'zgarishlar. Mamlakatda davlat organlarini qayta tashkil etish boshlandi. Umumiy Xalq Kongressi oliy hokimiyat organi deb e'lon qilindi. **1977-yil 3-mart**dan Liviya Arab Respublikasi Liviya Xalq Arab Jamahiriyasi nomi bilan ataladigan bo'ldi. M.Kaddafiy esa **1-sentyabr** inqilobi rahbari deb e'lon qilindi. Shu tariqa u davlatning yagona rahbariga aylandi.

Mamlakat rahbariyati aholining ijtimoiy himoyasi masalasiga alohida e'tibor beradi. Ish haqi to'lashni davlat tartibga solib turadi. Turarjoy uchun kam haq olinadi. Aholiga bepul tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Umumiy va oliy ta'lim ham bepul. Obyektiv sabablarga ko'ra, mamlakat qishloq xo'jaligi kam taraqqiy etgan. Shuning uchun oziq-ovqat mahsulotlari chetdan sotib olinadi. Shunday bo'lsa-da, bugungi Liviya – dunyoning eng boy davlatlaridan biri. Liviya yiliga **110 mln tonna neft** qazib oladi. Neft savdosi mamlakat g'aznasiga **10 mlrd dollar** daromad keltiradi.

Liviya faol tashqi siyosat yuritadi. U Arab Davlatlari Ligasi, Afrika hamkorligi tashkiloti, Qo'shilmaslik harakati, Arab mag'ribi ittifoqi kabi regional tashkilotlar a'zosidir. FOTni qo'llab-quvvatlaydi. Unga katta

miqdorda moliyaviy yordam ham ko'rsatadi. Biroq Liviya xalqaro terrorizmni qo'llab-quvvatlashda ham ayblanib kelmoqda. Bu esa uning AQSh tomonidan jazolanishiga sabab bo'lgan.

AQSh M.Kaddafiyni jismonan yo'q qilish maqsadida **1986-yil 1-aprel**da Liviya poytaxti **Tripoli**ni bombardimon qildi. Lekin M.Kaddafiy omon qoldi. Ayni paytda, **2000-yili** Liviya xalqaro terrorizmda gumon qilingan ikki fuqarosini xalqaro sud hukmiga topshirishga majbur bo'ldi. Xalqaro sud (*Gaagada*) ularning birini aybdor deb topdi va qamoq jazosiga hukm qildi. **2005-yil**ga kelib M.Kaddafiy G'arb davlatlarining barcha talablarini bajardi. Qurollanish dasturini to'xtatdi. G'arb xalqaro cheklovni bekor qildi. **2011-yili** M.Kaddafiy o'ldirildi.

28.10. TROPIK VA JANUBIY AFRIKA DAVLATLARI

Milliy ozodlik kurashi va uning oqibatlari. Ikkinchi jahon urushidan so'ng quyidagi omillar mustamlaka sirtmog'ida yashayotgan xalqlar milliy ozodlik kurashining kuchayishiga sabab bo'ldi: *urushda Germaniya, Italiya va Yaponiyaning mag'lubiyatga uchragani; asosiy mustamlakachi davlatlar: Buyuk Britaniya va Fransiyaning zaiflashgani; mustamlaka xalqlar milliy ongining o'sishi; AQSh va SSSRning o'z siyosiy maqsadlari yo'lida dunyoda mustamlakachi imperiyalar saqlanib qolishiga qarshi chiqqanligi.*

Dastlab Shimoliy Afrika davlatlari qattiq qonli kurash hisobiga mustaqillikka erishdilar. *1960-yil Afrika tarixiga «Afrika yili» nomi bilan kirdi. Shu yili bir yo'la 17 davlat mustaqillikka erishdi.* Buyuk Britaniya va Fransiya mustamlaka imperiyalari parchalanib borayotgan bir sharoitda Belgiya **Kongo** mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi.

Afrikaning ayrim mamlakatlarida mustaqillikka erishish nisbatan tinch yo'l bilan (aholining ommaviy namoyishlari, fuqarolik bo'ysunmasligi) amalga oshdi. Mustamlakachilik metropoliyadan ko'chib kelib joylashgan bir guruh oq tanlilar jamoasiga tayangan joylarda esa og'ir qurolli kurash olib borish yo'li bilan mustaqillikka erishildi. **60-yillar oxiri**ga kelib ingliz, fransuz, belgiya mustamlakachi imperiyalari parchalandi.

Faqat **Portugaliya imperiyasi** yashashda davom etdi. Portugaliyaning Afrikadagi mustamlakalari (**Mozambik, Angola, Gvineya-Bisau**) uning dengizorti hududlari deb e'lon qilingandi. Bu «dengizorti hududlar» aholisining milliy ozodlik kurashi **1974-yil**gacha davom etdi va u g'alaba bilan yakunlandi. Portugaliya o'z mustamlakalari mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi.

Kongo (Zair), Gvineya, Angola, Mozambik, Namibiya tropik Afrikada yirik davlatlar hisoblanadi. **1980-yili** yana bir mustaqil Afrika davlati – **Zimbabve** vujudga keldi. Uning vujudga kelishi juda og'ir kechdi. Gap shundaki, **Rodeziya**da (Buyuk Britaniya mustamlakasi) kam sonli, biroq uyushgan oq tanlilar ham yashardi. Ular **1965-yili** Rodeziyani mustaqil deb e'lon qildilar. Biroq uni Buyuk Britaniya ham, BMT ham tan olmadi. Mahalliy afrikaliklar esa ozodlik uchun qurolli kurash boshlashdi. Yakkalanib qolgan oq tanlilar **1979-yili** muzokara boshlashga majbur bo'ldilar. Oqibatda davlat afrikaliklar qo'liga o'tdi. **1980-yili** Rodeziya o'rnida mustaqil Zimbabve davlati tashkil etilgani e'lon qilindi.

Afrikadagi oxirgi mustamlaka **Janubi-G'arbiy Afrika** edi. Birinchi jahon urushiga qadar bu hudud Germaniya mustamlakasi bo'lgan. Urushdan so'ng Millatlar Ligasi uni boshqarish huquqini **Janubiy Afrika Respublikasi**ga (JAR) berdi. JAR dastlab bu hududni o'ziga qo'shib olishga urindi. Buning uddasidan chiqolmagach, u yerda oz sonli oq tanlilar hukumatini tuzishga harakat qildi. Bunga javoban mahalliy aholi **1966-yili** qurolli kurash boshlashga majbur bo'ldi.

BMT **1973-yili** JARni Janubi-G'arbiy Afrikani boshqarish huquqidan mahrum etdi. Mahalliy aholining milliy ozodlik kurashi **1989-yili** g'alaba bilan yakunlandi. Shu yili Janubi-G'arbiy Afrika **Namibiya** nomi bilan mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Shu tariqa mustamlaka Afrika xalqlari milliy ozodlik kurashi g'alaba bilan yakunlandi. Bir vaqtlar deyarli butunlay mustamlakaga aylantirilgan Afrikada **52 ta mustaqil davlat** vujudga keldi.

Aparteid tartibiga qarshi kurash. JARda **1948-yili** o'tkazilgan parlament saylovida Afrika yerlarining (oq tanli aholi) millatchi partiyasi g'alaba qozondi. Bu partiya rahbari **D.Malan** boshchiligida tuzilgan hukumat aparteid siyosatini amalga oshirishini e'lon qildi. *Bu davlatning tub aholisi bo'lgan negrlarga, bu yerga kelib qolgan hindlarga nisbatan qo'llangan irqiy kamsitish, ularni oq tanlilardan ajratib qo'yish; ularni asosiy fuqarolik huquqlaridan mahrum etish hamda o'zlari uchun ajratilgan alohida joylarda yashashga majbur etish siyosati edi.*

Mamlakat maydonining **87 foizi** oq tanlilar uchun, atigi **13 foizi** afrikaliklar uchun biriktirib qo'yildi. *Bundan maqsad afrikaliklarning mustahkam aparteid tartiblarini yo'qotish maqsadida birlashishiga yo'l qo'ymaslik edi.*

JAR hukmron doiralari aparteid siyosatini tobora kuchaytirdilar. **1984-yili** uch palatali parlament (*oqlar, negrlar va hindlar uchun alohida-alohida*) tuzildi. Biroq afrikaliklar irqchilar rejimi o'zlariga taqdim etgan taqdirga tan berganlari yo'q. Ular XX asrning eng jirkanch hodisalaridan biri – **aparteid** siyosatiga qarshi qurolli kurash olib bordilar. Bu kurashga

Afrika Milliy Kongressi (AMK) rahbarlik qildi. *AMK maqsadi Janubiy Afrikada irqidan qat'i nazar barcha fuqaro qonun oldida teng bo'lishini ta'minlaydigan demokratik davlat barpo etish edi.* Bu partiyaga XX asrning buyuk siyosat va davlat arboblaridan biri **N.Mandela** rahbarlik qildi.

1989-yili JAR prezidentligiga **F.Klerk** saylandi. U davr realligini hisobga olib siyosat yurituvchi arbob edi. **F.Klerk** agar aparteid siyosati bekor qilinmasa, u oxir-oqibatda oq tanlilarni to'la halokatga olib kelishi mumkinligini anglab yetdi va **1990-yili** AMK faoliyatini taqiqlashni bekor qilish to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Uning rahbari N.Mandela **1991-yili** umrbod qamoq jazosidan ozod etildi (*27 yildan beri qamoqda edi*). Mamlakatda harbiy holat bekor qilindi. Barcha fuqarolarning, irqlarning tengligi e'lon qilindi.

1993-yili barcha irq vakillari tengligi asosida umumiy parlament saylovi o'tkazilishi to'g'risida bitim imzolandi. Ayni paytda, oq tanlilar huquqi ham kafolatlanadigan bo'ldi. Saylov **1994-yil 26-aprel**da o'tkazildi va unda AMK to'la g'alaba qozondi. *N.Mandela JARning birinchi qora tanli prezidenti etib saylandi.* Shu tariqa eng jirkanch illat – aparteidning to'la barham topishiga asos yaratildi. Afrika qit'asida mustahkam tinchlik yo'lidagi asosiy to'siqlardan biri – irqchilikni bartaraf etish yo'lidagi buyuk xizmatlari uchun har ikki arbob – **N.Mandela** va **F.Klerk 1993-yili** Tinchlik uchun xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'ldilar. **1999-yil 2-iyun**dagi saylovlarda N.Mandela safdoshi **Tabo Mbeku** prezidentlik lavozimini egalladi.

Mustaqillikni mustahkamlash yo'lidagi muammolar. Afrika qit'asi davlatlari iqtisodiy taraqqiyot darajasi bir xilmas. Chunonchi, Tropik Afrika Shimoliy va Janubiy Afrikadan keskin farq qiladi. Bu yerdagi davlatlar qit'aning eng qoloq davlatlaridir. Dunyo aholisining **10 foizi**ni tashkil etuvchi Afrika qit'asida dunyo sanoat mahsulotining atigi **1 foizi** ishlab chiqariladi, xolos. *Bu yerdagi yana bir eng katta muammo aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammosidir.* Bugungi kunda qit'a aholisining deyarli **50 foizi** qashshoqlikda yashamoqda. Oziq-ovqat ishlab chiqarish aholi o'sishiga nisbatan tobora ortda qolmoqda. Yana bir jiddiy muammo etnik qirg'inlar, mojarolar muammosidir. Afrika davlatlari hayotida urug'-qabilachilik hayot tarzi kuchliligicha qolmoqda. Bir xalq turli davlatlar hududida yashamoqda. Masalan, **20 mln dan ortiq fulbe** deb ataluvchi xalq boshqa xalqlarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etmaydigan qilib turli davlatlarga bo'lib yuborilgan. Etnik nizolar davlatlar yaxlitligini katta xavf ostiga qo'ymoqda.

29-BOB. MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI

29.1. MOLDOVA, UKRAINA, BELORUSSIYA VA KAVKAZORTI RESPUBLIKALARI MUSTAQILLIGINING TIKLANISHI VA RIVOJLANISHI

MDHning tashkil topishi. 1991-yil 8-dekabrda Rossiya, Ukraina va Belorussiya rahbarlari Viskuli (Belovej pushchasi)da SSSRning tugatilgani to'g'risidagi hujjatni imzolashdi. Shu bilan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tashkil topdi. MDHga asta-sekin **12 respublika** a'zo bo'lib kirdi. **1985 – 1988-yillar**dan sovet tuzumining susayishi tufayli milliy Boltiqbo'yi respublikalarda ommaviy fuqarolik harakatlari namoyon bo'la boshladi. Avvaliga ular milliy madaniyat va tabiatni muhofaza qilish talabi bilan, keyinchalik respublikalarni xo'jalik hisobiga o'tkazish, nihoyat, haqqoniy suverenitet va mustaqillik talabi bilan chiqdilar. **1989-yil may**da uch mamlakat vatanparvarlari tomonidan saylangan **Baltika** assambleyasi bu respublikalarning SSSR tarkibida bo'lishlari hech qanday huquqiy asosga egamasligini bayon qildi.

Moldova Respublikasi. **80-yillar oxiri**da Moldovada moldovaliklar aholining **64 foizi**ni tashkil etdi, ilgarigi muxtoriyat – **Dnestr** bo'yida esa aholining ko'pchiligi – **60 foizi** ruslar va ukrainlardan iborat edi. Bu mintaqalar o'rtasidagi farqlar mamlakat taqdiriga ta'sir ko'rsatdi. Boltiqbo'yidagi xalq frontlari harakati, keyinchalik esa Ruminiyadagi inqilob haqidagi xabarlar Yagona Moldova Xalq Frontining (YMXF) tashkil etilishiga, uning tomonidan mamlakatda **1989-yili rumin tili**ga davlat tili maqomini berish va mamlakatni suveren deb e'lon qilishga bo'lgan intilishlarni rag'batlantirdi. YMXF ommaviylashdi va **Kishinyov** ko'chalariga yuz minglab tarafdorlarini chiqardi.

Bahorda SSSR Xalq deputatlari syezdiga yuborilgan delegatlarning ko'pchiligi mutaassib (konservativ) kayfiyatda edi, ammo **avgust**ga kelib respublika Oliy Soveti rumin tiliga davlat tili maqomini berish to'g'risidagi qonunni qabul qilib, har bir elatga o'z tilida gapirishga imkon berdi. Keyinchalik Xalq Fronti **1990-yil**gi Oliy Sovet saylovlarida muvaffaqiyatga erishib, respublika rahbariyatidan kompartiyani chetlashtirdi. **Avgust**da Oliy Sovet Moldova mustaqilligi to'g'risidagi deklaratsiyani e'lon qildi. Yangi hukumat fuqarolar huquq va erkinliklarini yoqladi. Mamlakatda demokratlashtirish avj olib, bir qator liberal-demokratik, milliy-demokratik hamda sotsial-demokratik yo'nalishdagi partiya va harakatlar paydo bo'ldi. Ulardan ba'zilari Moldovaning Ruminiyaga qo'shilishi tarafdorlari

edi. Ammo ular referendumda ko'pchilik ovozga ega bo'lolmadilar. **1991-yil oxir**ida Oliy Sovet respublika prezidenti etib liberal-demokratlar yetakchisi **M.Snegur**ni sayladi.

Shuningdek, 1990-yiliyoq SSSRning parchalanishiga to'sqinlik qilishga harakat qiluvchi ittifoq hukumati ishtiroki bilan Moldova janubidagi uchta mintaqada yashovchi gagauzlar va Dnestr o'ng qirg'og'i hamda Benderi shahri aholisining ko'pchiligi rumin tiliga qarshi va SSSR tarkibidan chiqishga qarshi norozilik bildirishdi. **Gagauzlar** o'z mustaqil respublikalarini e'lon qilishdi. Shimolda esa **1991-yili** sovet tuzumini saqlab qolayotgan mustaqil **Dnestrbo'yi Moldova Respublikasi** (DMR) paydo bo'ldi.

Agar gagauzlar bilan olib borilgan uzoq muddatli muzokaralardan so'ng ular Gagauziyaning Moldova tarkibida maxsus huquqiy maqomga ega bo'lishiga rozilik bildirgan bo'lsa, **Tiraspol shahr**ida joylashgan DMR hukumati Moldova hukumatining muxtoriyat to'g'risidagi taklifini rad etdi va sovet harbiylari yordamida Moldovaning tartib o'rnatuvchi kuchlariga qarshilik ko'rsatdi. **1992-yili** Moldova qurolli kuchlari bilan va DMR qurollangan otryadlari va ularga yordam berayotgan 14-sobiq Sovet armiyasi o'rtasida bo'lgan janglarda yuzlab odamlar halok bo'ldi va yarador qilindi, xalq xo'jaligiga katta moddiy zarar yetkazildi. O'n minglab muqim yashovchilar qochoqlarga aylandi. Moldovada prezident favqulodda holat e'lon qildi.

Moldova va DMR o'rtasidagi qurolli to'qnashuvlar faqat Moldova va Rossiya o'rtasidagi shartnoma imzolangandan, 14-armiya tarqatib yuborilgandan va urush mintaqasiga xalqaro tinchlik o'rnatuvchi kuchlar kiritilganidan keyingina to'xtatildi. Qarama-qarshi tomonlar o'rtasidagi muzokaralar va vositachilar urinishlariga qaramay, to'qnashuvlar **1994-yil**gacha davom etdi. **1994-yili** tomonlarning zo'ravonlikni to'xtatish to'g'risidagi o'zaro kelishuvlari to'qnashuvlarga chek qo'ydi.

Parlamentga (**1994-yil**) va mahalliy (**1995-yil**) saylovlar arafasida korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish biroz olg'a siljidi, ammo ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishilmadi. *Davlat ixtiyoridagi asosiy sohalar: vino ishlab chiqarish va tamaki sanoatida ishlab chiqarish samaradorligi pastligicha qolmoqda edi.* Moldova Rossiya kompaniyalari tomonidan keltirilayotgan energiya tashuvchilarni sotib olish uchun mablag'ga ega emasdi. Beqarorlik investitsiya oqimiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgandi. Uzoq davom etgan ishlab chiqarishning qisqarishi va inflyatsiya aholi ahvoli yomonlashishiga sabab bo'ldi. Ommaning noroziligi, eng avvalo, ijtimoiy muammolarni hal etishga chaqirayotgan

sotsial-demokratik partiyalar kuchayishiga olib keldi. **1996-yil oxiri**da prezidentlik saylovlarining ikkinchi bosqichida ular tomonidan qo'llab-quvvatlangan erkin nomzod **P.Luchinskiy** g'alaba qozondi.

1988-yilga kelib mamlakat mulkining **75 foizi** (*Dnestrbo'yidan tashqari*) hissador-investor, korxona xodimlari, menejerlar va xususiy tadbirkorlar qo'liga o'tdi. Ammo iqtisodiyotning jonlanishi va aholi ahvoli yaxshilanishiga erishilmadi.

Muzokaralar yo'li bilan P.Luchinskiy Moldova birligining Rossiya va Ukraina tomonidan e'tirof etilishiga va ular bilan hamkorlikni kuchaytirishga erishdi. Mamlakat birligini tiklash uchun Moldova YXHT va boshqa xalqaro tashkilotlarga tayanmoqda. Yoqilg'i-energiyaga ega bo'lish maqsadida **Ozarbayjon** bilan mustahkam munosabatlar o'rnatilmoqda. Islohotlar yo'li bilan olg'a borayotgan Ruminiya va YI bilan hamkorlikni rivojlantirmoqda. **2000-yil bahori**dan prezident tanlagan yo'l mamlakat aholisi ba'zi qismining manfaatlariga mos kelmasligi tufayli noroziliklar kuchayib ketdi. Bu noroziliklarga tayanib parlamentdagi turli ruhdagi muxolifat kuchlar konstitutsiyani o'zgartirishga erishdi. **2001-yil fevral**dagi parlament saylovlarida demokratlar rahbarligida mamlakat qiyinchiliklari bartaraf etilishidan umidini uzgan saylovchilar kommunistlar uchun ovoz berdilar. Yangi parlament **V.Voronin**ni prezident etib sayladi.

Moldovada YIM **2007-yil**ga kelib **4,8 mlrd dollar**ga yetdi va yillik o'sish **3 foiz**ni tashkil qildi. Sanoatning **87 foizi** qayta ishlash sanoatiga to'g'ri keladi. Qishloq xo'jaligida biroz pasayish sezildi. Import eksportga nisbatan ancha ustun. *170 dan ortiq vino zavodlari ishlab turibdi.*

Ukraina Respublikasi. Aholi soni va sanoat salohiyati bo'yicha SSSRda 2-o'rinda turgan Ukrainada milliy harakatlar Boltiqbo'yiga nisbatan kechroq boshlandi. Ammo bu harakat chuqur tarixiy ildizga ega bo'lib, hech qachon tugamagan, ayniqsa, g'arbiy hududlarda Belorussiyadagiga nisbatan ancha kuchliroq edi. Qayta qurish va oshkoralik yillarida ruslashtirishga qarshi chiqqan dissidentlar faollashdi, mamlakat mustaqilligi uchun kurashuvchi natsionalistlar, ya'ni milliy ozodlik harakati qatnashchilari ochiq faoliyat yurita boshladi. Ular tuzgan eng obro'li tashkilot **I.Droch** va **V.Chernovil** boshchilik qilgan **Ukraina Xalq harakati** (Rux) edi.

Qariyb **73 foizi** ukrainlardan iborat bo'lgan aholi konformistik ruhda emasdi. Ammo **1989-yil bahori**dagi SSSR Xalq deputatlari syezdida qatnashgan Ukraina vakillarining ko'pchiligi SSSRni so'zsiz saqlab qolish tarafdori bo'lib chiqdilar. Faqatgina **oktyabr**ga kelib Oliy rada (OR) ukrain tilini davlat tili deb e'lon qildi. **1990-yili** Oliy radaga bo'lgan saylovlarda

o'rinlarning choragini **Rux** tomonidan tuzilgan demokratik blok egalladi. Uning tashabbusi bilan OR **1990-yil yozi**da Ukraina suverenitetini e'lon qildi va Kiyevda bo'lib o'tgan son-sanoqsiz ommaviy namoyishlardan so'ng kommunistlardan bo'lgan bosh vazirni vazifasidan chetlashtirdi. OR raisi natsional-demokratlardan bo'lgan **L.Kravchuk** bo'ldi. **1991-yil avgust**da OR Ukraina mustaqil bo'lganini e'lon qildi va bunga qarshilik ko'rsatgan kompartiyani taqiqladi. **Kuz**da oz sonli millatlarga milliy-madaniy muxtoriyat huquqi berildi. **1991-yil dekabr**da bo'lib o'tgan umumxalq referendumida fuqarolarning **80 foizidan ko'prog'i**, jumladan, aholining **22 foiz**ini tashkil etgan ruslarning ko'pchiligi ham mamlakat mustaqilligi uchun ovoz berdi. Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritilishi munosabati bilan respublika prezidenti saylandi. U L.Kravchuk edi.

Qisqa muddat ichida Ukraina o'z hududida joylashgan o'nlab sovet diviziyalari va ularning quroli asosida mustaqil mamlakat uchun zarur bo'lgan qurolli kuchlar va maxsus xizmatlarni tashkil etishga ulgurdi. Ammo xalq ham, yangi partiyalar ham, eski sovet (kengash)lar ham islohotlarga tayyor emasdi. Ittifoq buyurtmalari va yoqilg'i-energiya manbalaridan mahrum bo'lgan sanoatda **1992-yil**i mahsulot ishlab chiqarish **30 foiz**ga qisqardi va kamayishda davom etdi. Energiya manbalarini sotib olish va ishlab chiqarishni yangilash uchun mablag' yo'q edi. Dastlabki fermerlar paydo bo'lgan esa-da, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi ham qisqardi. **1994-yil**i aholi jon boshiga YIM **200 dollari**gacha pasayib ketdi. Milliy valyuta – avval **karbovanes**, keyinchalik **grivna** joriy etilishiga qaramay, inflyatsiya o'sib bordi.

Avvaliga davlat tomonidan qisqartirilgan narxlarning tartibga solinishi **60 foiz**ga tiklandi. Ammo bu yashirin iqtisodiyotning o'sishi va korrupsiya (mansabdorlarni pora bilan sotib olish)ning avj olishiga ta'sir ko'rsatolmadi. **1994-yil**gi oziq-ovqat narxi **1990-yil**dagiga **nisbatan 4 – 5 baravar** yuqori edi. *YAIMning 40 foizdan ko'prog'i ijtimoiy ta'minotga yo'naltirilganiga qaramay, aholining qashshoqlikda yashashi shaxtyorlar, metallurglar va boshqa ishchilarning yirik ommaviy norozilik chiqishlariga sabab bo'ldi.*

Qrimdagi ko'pchilik ruslarning ommaviy chiqishlari **1992-yili** Ukraina hukumatini Qrimning maxsus mavqeyini tan olishga majbur etdi. Ammo keyinchalik Qrimning maxsus maqomga ega bo'lishi uchun harakatlar bozor islohotlari tarafdorlari va kommunistlar o'rtasidagi keskin kurash tufayli to'xtatildi. Natijada **1995-yili «Qrim davlatchiligi»** barham topdi va viloyat hukumatiga bo'ysundi.

Murakkab muzokaralardan so'ng, **1994-yil boshi**da Ukraina, Rossiya va AQSh o'rtasida unga SSSRdan meros qolgan raketa-yadro quroli Ukrainaga tegishli ekanligi, ularning Rossiyada zararsizlantirilishi va

AQSh tomonidan ikkilamchi xomashyoning sotib olinishi to'g'risidagi bitim tuzildi. Bu Ukrainaga o'zining yadro qurolidan voz kechganini tasdiqlash va uni tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomaga qo'shilishga imkon berdi. Qora dengiz floti va uning bazalari hamda energiya tashuvchilarni sotib olish to'g'risida Rossiya bilan **1992-yili** boshlangan muzokaralar uzoq cho'zildi va ularni nihoyasiga yetkazish boshqa prezidentga nasib etdi.

Yangi prezident umumxalq saylovlari **1994-yil yozi**da bo'lib o'tdi. Ikkinchi bosqichdagi keskin kurashdan so'ng **L.Kuchma** g'alaba qozondi. U iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, mulkchilik va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda mamlakatning dunyo hamjamiyatida faol qatnashishi tarafdori edi.

Qiyinchiliklarni chetlab o'tish maqsadida L.Kuchma hokimiyat to'g'risidagi buyrug'ida hukumat va uning faoliyatini prezidentga bo'ysundirdi. Bu **1994-yil kuzi**dan ko'p yillik bozor islohotlari dasturini amalga oshirish imkonini berdi. Ammo parlamentdagi muxolifat islohot uchun zarur qonunlarning qabul qilinishiga to'sqinlik qilardi. **1996-yili** OR qayta saylanganidan keyingina, prezident natsional-liberallar va natsional-demokratlar yordami bilan yangi konstitutsiya qabul qilinishiga erishdi. Ta'lim tuzilishi va tarkibini yangilash, sog'liqni saqlashni isloh qilish, ukrain tilini qo'llashni kengaytirish va ukrain madaniyatini rivojlantirish faollashdi. Bu rusiyzabon aholi bir qismining noroziligiga sabab bo'ldi.

Ukrainada o'tkazilgan islohotlar mulkchilik va ishlab chiqarish tuzilishini asta-sekin o'zgartirdi. **1998-yil**ga kelib davlat ixtiyorida barcha korxonalarning atigi **15,4 foizi** qoldi. Ularning katta qismi menejer va aksionerlar qo'liga o'tdi. Ammo iqtisodiyot va aholi ahvolining yaxshilanishiga erishish uchun samarali mulk egalari yetishmasdi. Aholi turmush darajasining sekin o'zgarishi, hukumat yo'l qo'ygan xatoliklar va korrupsiya ko'pchilikda prezident tanlagan yo'ldan norozilik va unga nisbatan shubha uyg'otdi. Ammo kommunistlar va boshqa raqiblarning chiqishlariga qaramay, **1999-yili** Kuchma yana prezidentlikka saylandi.

Biroq **2000-yil oxiri**da muxolifatchi kuchlar Kuchmani va maxsus xizmatni bir jurnalistning o'limiga daxldorlikda aybladi va mamlakatda prezident iste'fosini talab qiluvchi harakatlar yuzaga keldi. Mamlakatda uzoq muddatli va jiddiy siyosiy inqiroz boshlandi. **2004-yil oxiri**da prezidentlikka saylovlar nihoyatda murakkab sharoitda o'tdi. **V.Yanukovich** g'alaba qilgan birinchi saylov natijalari noqonuniy deb e'lon qilindi. **Dekabr**da ikkinchi marta ovoz berishda **V.Yushchenko** g'alaba qildi. **«Zarg'aldoq inqilob»** amalga oshdi va mamlakatda g'arbchilar pozitsiyasi mustahkamlandi. **2005-yili** u hukumat rahbarini almashtirdi.

Yalpi ichki mahsulotning yarmini tashkil etgan tashqi qarzlardan qutulish, o'sib borayotgan inflyatsiyani bartaraf qilish uchun Ukraina hukumati Xalqaro valyuta fondi va boshqa xalqaro tashkilotlardan yordam so'radi. U **Gruziya, Ozarbayjon va Moldova** davlatlari bilan munosabatlarni rivojlantirishga harakat qilmoqda. Qora Dengiz davlatlari tashkilotida ishtirok etmoqda. Ukraina rahbariyati YI mamlakatlari bilan hamkorlikni mustahkamlamoqda va xavfsizlik kafolati sifatida NATOning *«tinchlik uchun sheriklik»* shartnomasiga amal qilmoqda.

Ukraina hozirgi vaqtda xalq xo'jaligini bozor iqtisodiga moslab rivojlantirish yo'lidan bormoqda. Bu o'rinda og'ir sanoat, transport va energetikaga alohida urg'u beriladi. Rossiya gazini yetkazib berishda ishkalliklar tufayli gidroenergetika va shaxta metanidan foydalanish, shuningdek, O'rta Osiyo neftini gazoprovod orqali olib kelish rejalari tuzilmoqda. YIM **131,2 mlrd dollar**, o'rtacha aholi jon boshiga mahsulot yetishtirish **2829 dollar**ni tashkil qiladi.

Belorussiya Respublikasi. Mustaqillikka erishish va taraqqiyot yo'lini tanlash Belorussiya uchun murakkab va qiyin bo'ldi. Aholining **76 foizi** belorus millatidan iborat bo'lishiga qaramay, u SSSR ittifoqdosh respublikalari ichida eng ruslashgani edi: belorus tili, madaniyati va milliy o'zlikni anglash chetga surib qo'yilgandi. Respublika SSSR Qurolli Kuchlari uchun eng muhim plastdarm (urush maydoni) vazifasini o'tardi.

80-yillarda faollashgan belorus tili va madaniyati, milliy o'zlik va ruhiyat himoyachilari **1989-yili Z.Poznyak** boshchiligida Belorus xalq frontini tuzdi, kelasi yili esa bir necha liberal-vatanparvar va liberal-demokratik kayfiyatdagi tashkilotlar ham tuzildi. Ammo ularni aholining atigi **1/4 qismi** qo'llab-quvvatladi.

Tarkibi ko'pchilik kommunistlardan iborat bo'lgan hukumat va Oliy Sovet aholi ehtiyojini qondirish uchun iqtisodiy mustaqillik, ya'ni xo'jalikning respublika ixtiyoriga to'la o'tishini yetarli deb hisobladi. **1991-yili Minsk**da Oliy Sovet tomonidan Belorussiya mustaqilligining e'lon qilinishi va Oliy Sovet Raisi **S.Shushkevich** tomonidan SSSRning parchalangani to'g'risidagi Belovej hujjatining imzolanishi kommunistlarning Belorussiyadagi hokimiyatini Rossiya va boshqa respublikalarda g'alaba qilgan liberal-islohotchilar hujumidan himoya qildi.

Ammo SSSR parchalanishi bilan Belorussiya sanoati buyurtmalarning **86 foiz**idan hamda respublikada mavjud bo'lmagan xomashyo va energiya manbalari oqimidan mahrum bo'ldi. SSSR harbiy platsdarmining yo'qolishi Belorussiyani daromadning yana bir manbayidan mahrum qildi. *1992-yiliyoq ishlab chiqarish 21 foizga, 1994-yili esa 40 foizdan ko'proqqa*

qisqardi. Inflyatsiya halokatli tus oldi, aholi qashshoqlashdi. **V.Kebich hukumati** tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish orqali inqirozni bartaraf etish dasturi muvaffaqiyatsizlikka uchradi. **1991-yili** korxonalarni xususiylashtirish va ishlab chiqarish tuzilmasini qayta qurish boshlandi, keyinchalik **«shoksiz bozor munosabatlariga o'tish»** dasturi taklif qilindi. Ammo buni amalga oshirish uchun mablag' topilmadi.

Oliy Sovet raisi S.Shushkevich bo'hton va ayblovlar bilan vazifasidan chetlashtirilgach, **1994-yili** prezidentning umumxalq saylovlari orqali saylanishini ko'zda tutgan yangi konstitutsiya qabul qilindi. Saylovlarning ikkinchi bosqichida: *«Men o'nglar bilan ham, so'llar bilan ham emas, balki xalq bilan birgaman»,* – deb bayon qilgan **A.Lukashenko** g'alaba qozondi. U korrupsiyaning oldini olish va Rossiya bilan birlashish orqali farovonlikka erishishni va'da qildi.

May oyida **(1994)** Lukashenko yangi parlament saylovlari bilan birgalikda referendumni ham o'tkazdi. Bu referendum oldingi davlat ramzlari (belgilar)ni qaytardi, rus tilini hali o'z mavqeyiga ega bo'lishga ulgurmagan belorus tiliga tenglashtirdi, Rossiya bilan qo'shilishni ma'qulladi, eng asosiysi, prezidentning parlament ustidan hukmronligini ta'minladi.

Faqatgina **dekabr**ga kelib yakunlangan parlament saylovlari natijalari muxolifatni bostirish va islohotlarni to'xtatishga urinayotgan prezidentga ma'qul emasdi. Hukumat kolxoz va sovxozlar tizimining **2/3 qismi** kasod bo'lish holatida ekaniga qaramay, ularni saqlab qoldi. Prezident endigina boshlanayotgan xususiylashtirishni to'xtatdi, iqtisodiyot davlat tomonidan boshqarilishini va narxlar tartibga solinishini kuchaytirdi, tadbirkorlikni butunlay to'xtatdi. Rossiyadan imtiyozli narxlar bilan energiya resurslari sotib olinishi hukumatga ishlab chiqarishni o'stirish va qashshoqlikni barqaror saqlashga imkon berdi.

Lukashenko o'z hokimiyatini kuchaytirish maqsadida **1996-yili** referendum o'tkazish yo'li bilan ham parlament, ham konstitutsion sud vakolatlarini cheklashga erishdi. U parlamentdan muxolifat vakillarini chetlashtirdi va o'z vakolatlarini uzaytirishga erishdi. Bu voqealar va qatag'onlarning kuchayishi Belorussiyada avtoritar tuzum shakllanishiga olib keldi. Parchalangan milliy-demokratik muxolifat kuchlari hech qanday ta'sirga ega bo'lmay qoldi. Avtoritarizm yo'li bilan mamlakatning «bo'ysunuvchanligi»ga erishish hukumatga **2000-yili** korxonalarni xususiylashtirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, soliq tizimini isloh qilish, eksportni yanada rivojlantirishga qaratilgan **besh yillik** ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturini qabul qilish imkonini

berdi. Ammo og'ir moliyaviy-iqtisodiy ahvol uni amalga oshirishni qiyinlashtirmoqda.

Belorussiyada **2006 – 2010-yillar**ga mo'ljallangan rejada, asosan, kichik va o'rta korxonalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. **2007-yili** yillik o'sish **8 foiz**ni tashkil qildi. Import eksportga nisbatan yuqori (**2,5 mlrd dollar**) bo'ldi. Eksportning asosini neftni qayta ishlash mahsulotlari tashkil qiladi. **2007-yil**ga kelib eng kam ish haqi **81,1 dollar**ni, yosh bo'yicha o'rtacha pensiya **160 dollar**ni tashkil etdi. *40 mingdan ortiq malakali ishchilar va 3 mingdan ortiq injener-texnik xodimlar metallurgiya sanoatida ishlaydi.* Melallurgiya bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishda **2006-yili** Belorussiya MDH mamlakatlari ichida **4-o'rin**ni egallaydi. Belorussiya territoriyasidan g'arbga Rossiyaning katta neft va gaz quvurlari o'tadi va Rossiyaning **27 foiz gazi** Belorussiya orqali eksport qilinadi.

29.2. KAVKAZORTI RESPUBLIKALARI MUSTAQILLIGINING TIKLANISHI VA RIVOJLANISHI

Gruziya Respublikasi. **1985 – 1989-yillar**da gruzin madaniyati va mamlakat mustaqilligining tiklanishi uchun kurashuvchi yig'inlar va namoyishlar o'tkazgan yuzdan ortiq turli tashkilotlar va guruhlar paydo bo'ldi. **Tbilisi**da **1989-yil 9-aprel**da bo'lib o'tgan ko'p ming kishilik miting qatnashchilariga sovet qo'shinlarining hujum qilishi oqibatida ko'plab tinch aholining halok bo'lishi butun mamlakat g'azabini qo'zg'atdi va junbushga keltirdi.

1989-yil kuzida Milliy ozodlik qo'mitasi tashkil qilindi. Kommunistik rahbariyatning obro'si va ta'siri ildiziga bolta urildi. **Sentyabr**da umumxalq so'rovida fuqarolarning **89 foizi** mamlakat mustaqilligi uchun ovoz berdi.

1991-yil apreldagi referendum natijalari asosida Oliy Kengash Gruziya mustaqilligini va **1921-yil**gi konstitutsiyani qayta tikladi. **May**da umumxalq ovoz berish yo'li bilan **Gamsaxurdiya** Gruziya prezidenti etib saylandi. Mamlakatda sovetlar (kengashlar) va sobiq ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar bekor qilindi. Boshqaruv, xo'jalikni liberallashtirish va demokratlashtirish boshlandi. Ammo hukumat va xalqning diqqat-e'tiborini bu o'zgarishlar chog'ida yuzaga kelgan to'qnashuvlar chalg'itdi.

1990 – 1991-yillari M.Gorbachov tomonidan o'tkazilgan tazyiqqa javoban Gamsaxurdiya SSSR bilan diplomatik aloqalarni uzdi. Bu esa tang ahvoldagi iqtisodiy vaziyatni yanada og'irlashtirdi. Buyurtmalar, energiya manbalari va yo'qilg'i ishlab chiqarishni falajlantirdi. Ilgarigi

qishloq xo'jalik mahsulotlari bozoridan mahrum bo'lish aholi turmush darajasini pasaytirib yubordi.

Ittifoq maxsus xizmatlari ko'magi va yordamida Janubiy Osetiya va Abxaziya Avtonom Respublikalaridagi osetinlar va abxazlar **1989-yil**dan SSSR bilan aloqani uzishga qarshi kurash boshladi. *Osetiyaliklar o'z hududlarini avtonom respublika deb e'lon qilishgan bo'lsa, abxaziyaliklar Abxaziya suverenitetini e'lon qilishdi.* Bunga javoban Gruziya parlamenti Janubiy Osetiyani muxtoriyatdan mahrum qildi va u yerga ayirmachilar bilan jang qilish uchun gruzin qurolli kuchlarini jo'natdi. Ko'pchilik aholi yashash joylarini tark etdi. Keyinchalik Rossiya tinchlikparvar kuchlari yordamida urushlar to'xtatildi, ammo bu muammoning siyosiy yechimi hozirgacha topilgani yo'q.

Gamsaxurdiya tarafdorlari bo'lgan qurollangan guruhlar aholisining asosiy qismi gruzin bo'lgan Abxaziyaga ham kiritildi. Ammo **V.Ardzinba** rahbarligidagi abxaz separatistlariga sovet qo'shinlari yordam berayotgandi. Bu **1991-yil kuzi**da Gruziya hukumatini ular bilan kelishuvga majbur etdi. *Unga ko'ra, Abxaziya Oliy Kengashida aholining atigi 17 foizini tashkil etgan abxazlarga 28 o'rin, 46 foiz aholini tashkil etgan gruzinlarga atigi 26 o'rin, boshqa millat vakillariga esa jami 11 o'rin nasib etdi.* Bu fuqarolarning huquqi qaysi millatga mansubligiga ko'ra belgilanishiga sabab bo'ldi va Abxaziyada **etnokratiya** (alohida millat hukmronligi) o'rnatilishiga olib keldi.

Gamsaxurdiya xatolarining og'ir oqibatlari mamlakat aholisi katta qismining noroziligiga sabab bo'ldi. O'z qurolli guruhlariga ega muxolifatchilar hukumat harakatlarini puchga chiqarardi. *1991-yil 22-dekabrda esa ular Tbilisidagi hukumat binolariga hujum qilib, Gamsaxurdiyani Armanistonga qochishga majbur qildi.* **1992-yil 2-yanvar**dan Tbilisida hukumat Gamsaxurdiya raqiblari tomonidan tuzilgan Harbiy Sovet qo'liga o'tdi. Yangi hukumat Gamsaxurdiya konstitutsiyasini bekor qildi, parlamentni tarqatib yubordi va favqulodda holat joriy qildi.

Yangi rahbariyat mamlakatni boshqarish uchun gruzinlar orasida mashhur bo'lgan **E.Shevardnadze** nomzodini taklif qildi. Bir-biri bilan kelishmaslikka harakat qilayotgan kuchlar vaziyatdan foydalanmoqchi bo'lishdi, ammo barcha umidlari puchga chiqdi. Gamsaxurdiyaning o'zi **Chechenisto**nga qochib ketdi va u yerda halok bo'ldi. Shuningdek, Demokratik ittifoq yordami bilan Shevardnadze **1992-yil**iyoq Harbiy Sovet o'rniga Davlat Sovetini tuzdi, boshqaruv organlari, qurolli kuchlar, flot va chegara qo'shinlarini tuzish ishlarini boshladi. Gruziya o'zini zarur qurollar bilan ta'minlab turgan Rossiya bilan aloqani tikladi. Gruziya

mustaqilligi o'nlab mamlakatlar tomonidan e'tirof etildi. Mustahkamlanib olgan hukumat keng tus olgan fitnalarning va Shevardnadzedan norozi rahbarlarning isyonlarini bartaraf etdi.

Gruziya davlatchiligini mustahkamlash maqsadida Shevardnadze va uning tarafdorlari **1995-yil yozi**da yangi konstitutsiyani qabul qildi. *Noyabrda yangi parlament saylandi va unda Gruziya fuqarolar ittifoqi, Tiklanish ittifoqi va Milliy-demokratik partiya ko'pchilik o'rinlarga ega bo'lishdi.* Prezident etib Shevardnadze saylandi. Raqiblarning fitna va suiqasdlariga va qiyinchiliklarga qaramay, hokimiyat kuchaya bordi va **2000-yili** Shevardnadze yana prezident etib saylandi. Hokimiyatning mustahkamlanishi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga imkon berdi. **1998-yil**ga kelib davlat ixtiyoridagi mulkning **76 foizi**, jumladan, barcha korxonalarning **90 foizi**, asosan, menejerlar, hissador-investorlar va xususiy tadbirkorlar qo'liga o'tdi, yerlarning **2/3 qismi** xususiy mulkka aylandi. Gruziya milliy valyutasi – **lori** joriy qilindi. Ammo investitsiya va energiya manbalari tanqis edi, tashqi qarzlar ko'payib bordi.

Mamlakatda **1990-yil**ga nisbatan **to'rt baravar kam** mahsulot ishlab chiqarildi. Xo'jalikni oyoqqa turg'azish nihoyatda qiyin kechdi. Aholi turmush darajasi pastligicha qoldi. Gruziyaning turli mintaqalaridagi taraqqiyot darajasi turlichaligi joylarda, ayniqsa, muxtor **Adjariya**da mahalliychilikni keltirib chiqardi.

Abxaziyada separatistlar Gamsaxurdiya tarafdorlari mag'lubiyatidan foydalanib **1992-yili** Abxaziyani suveren davlat deb e'lon qilgan eski konstitutsiyani tikladi. Abxaziya tomonidan mustaqillik e'lon qilinishiga javoban Shevardnadze u yerga hali to'liq shakllanmagan Gruziya qo'shinlarini kiritdi. Ammo sal o'tmasdan abxaz qurolli otryadlari Chechenistan va boshqa ko'ngilli qo'shinlar yordamida yana hujumga o'tdi. Rossiya harbiylarining norasmiy aralashuvi bilan ular **1992-yil kuzi**gacha Abxaziyadan gruzin qo'shinlarini siqib chiqarib, **Suxumi**ni ishg'ol qildi. Ammo dunyodagi birorta davlat Abxaziya mustaqilligini tan olgani yo'q.

2003-yil oktyabrda Gruziyada parlament saylovlari bo'lib o'tdi. Saylovlarning soxtalashtirilganidan norozi demokratik kuchlar: *Mixail Saakashvili boshchiligidagi Milliy birlik harakati va Nino Burjanadze boshchiligidagi Demokratik blok norozilik namoyishlarini boshladi.*

2003-yil 22-noyabrda oppozitsiya kuchlari parlament binosini egalladi va E.Shevardnadzening iste'foga ketishini talab qildi. **23-noyabr**da prezident E.Shevardnadze bilan oppozitsiya liderlari o'rtasida Rossiya tashqi ishlar vaziri **I.Ivanov** vositachiligida muzokara bo'lib o'tdi. Shundan keyin E.Shevardnadze o'zining iste'foga chiqqanini ma'lum qildi. Prezidentlik

vazifasini vaqtincha **Nino Burjanadze** o'z qo'liga oldi. Shunday qilib, Gruziyada hokimiyat almashuvi (**«atirgul inqilobi»**) qon to'kishlarsiz o'tdi, **2004-yil yanvar**da prezidentlikka saylovlarda **M.Saakashvili** g'alaba qozondi.

Gruziya hozirgi paytda iqtisodi agrar-postindustrial yo'nalishdagi mamlakatdir. Sanoat mustaqillik yillarida deyarli o'z faoliyatini to'xtatdi. **90-yillar**da deyarli barcha katta korxonalar yopildi. Bunga mamlakatdagi notinchlik ham sabab bo'ldi. Hozir oziq-ovqat va energetika sanoati ishlab turibdi. Qishloq xo'jaligida **40 foiz aholi** band, lekin yetishtirilgan mahsulot YIMning **17 foizi**ni tashkil qiladi. Gruziya **2008-yil avgust**da **Janubiy Osetiya**ga hujum qildi.

Armaniston Respublikasi. **1988-yil fevral**dagi qudratli arman milliy harakatiga Ozarbayjondagi voqealar turtki bo'ldi. *Tog'li Qorabog' aholisining 70 foizidan ko'prog'ini tashkil etgan armanlarning ozarbayjonlik rahbarlar o'zboshimchaligiga qarshi noroziliklari va armanlarning Sumgaitdagi ozarbayjon millatchi ekstremistlariga qarshi ommaviy chiqishlari bunga misol bo'ladi.* Aybdorlarni jazolash talabi va noroziliklar bilan yuz minglab odamlar chiqishdi. Armaniston vatanparvarlari arman xalqini himoya qilish uchun **«Qorabog'» qo'mitasi**ni tashkil qildi. Aholi kimyoviy korxonani va seysmik halokati butun xalqni yo'q qilishi mumkin bo'lgan AESni to'xtatishga erishdi. SSSR hukumatining yer qimirlashdan zarar ko'rgan aholiga katta yordam ko'rsatishiga qaramay, xalq ommasining katta qismi Tog'li Qorabog'ning Armanistonga berilishini rad etgan sovet hukumati qaroridan g'azabga kelib respublika mustaqilligini tiklashni talab qilib chiqdilar. **1990-yil aprel**da Oliy Sovetga saylovlarda Armaniston umummilliy harakati g'alaba qozondi. Hokimiyat milliy demokratlar qo'liga o'tdi. Ularning yetakchisi **A.Ter-Petrosyan** Oliy Sovet raisi etib saylandi.

1990-yil avgustda Oliy Sovet Armaniston mustaqilligi to'g'risida siyosiy bayonot berdi. Ma'muriy-huquqiy tizimning yangilanishi va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni boshlagan konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. **1991-yil yozi**da prezidentlik lavozimi joriy etilgach, unga A.Ter-Petrosyan saylandi. **Sentyabr**da, umumxalq referendumi natijalariga ko'ra, Oliy Sovet Armaniston Respublikasining SSSR tarkibidan chiqishi haqida bayonot berdi.

1991-yilgi Tog'li Qorabog' poytaxti – **Stepanakert** uchun bo'lib o'tgan shafqatsiz urushlardan so'ng arman-qorabog' qo'shinlari dushman qo'shinlarini ancha ortga surib, Ozarbayjonning katta hududini ishg'ol qildi. Ammo Ozarbayjon aloqa tarmoqlari va energiya manbalari oqimini kesib, Armaniston va Tog'li Qorabog'ni blokada qildi.

Xomashyo, energiya manbalari va xorijiy bozorlarning yo'qligi sababli Armaniston sanoati to'xtab qoldi va qishloq xo'jaligi samaradorligi pasaydi. **1994-yil**ga kelib uning YIM **75 foiz**ga qisqardi. Bu paytda yer qimirlash asoratlari to'la bartaraf qilingani yo'q edi. Tabiiy ofatdan zarar ko'rgan va Ozarbayjondan kelgan yuz minglab qochoqlar vaqtinchalik yotoq joylarda yashamoqda edi. Boshqa mahsulotlar u yoqda tursin, oziq-ovqat va yonilg'i ham yetishmasdi. Hayot manbayini topolmagan **800 ming kishi** muhojir bo'ldi. Ulkan insonparvarlik yordami va boy mamlakatlar kreditlari hamda diasporaning saxovatli yordami bo'lmaganda, minglab kishilar halok bo'lishi turgan gap edi. YI **1991 – 1996-yillar** davomida Armanistonga **340 mln dollarlik** yordam jo'natdi. XVF bir necha yillar davomida Armaniston byudjet xarajatining **45 foiz**ini qoplab keldi. Jahon banki **260 mln dollarlik** maqsadli kredit ajratdi.

Hukumat, qiyinchiliklarga qaramay, xorijiy yordam tufayli islohotlar o'tkazdi. Oliy Sovetda respublika tizimi to'g'risida bo'lib o'tgan o'tkir munozaralardan so'ng **1995-yili** referendum orqali yangi konstitutsiya qabul qilindi. Armanistonda milliy valyuta – **dram** (diram) joriy qilindi, mamlakat tashqi qarzlari milliard dollardan oshganiga qaramay, uning barqarorligiga erishildi. Sanoat va yerni davlat tasarrufidan chiqarish natijasida **1998-yil**ga kelib korxonalarning **70 foizi** xususiylashtirildi va xususiy yerlarda **350 ming xo'jalik** yuzaga keldi. Asbob-uskunalar eskirgani, energiya manbalari, xomashyo, o'g'it va mashinalar yetishmasligi sababli ularning unumdorligi nihoyatda past edi. Elektr energiya ishlab chiqarishni oshirish maqsadida hukumat seysmik jihatdan xavfli bo'lgan AESni qayta ishga tushirishga majbur bo'ldi. **1994-yil**dan ishlab chiqarishning o'sishi boshlandi va u **90-yillar oxiri**ga kelib yiliga **10 foizdan ortiq** bo'ldi. **1996-yil**dan qishloq xo'jaligi jonlana boshladi.

1996-yili prezidentlikka qayta saylangan L.Ter-Petrosyanning Tog'li Qorabog' masalasida yon berishga moyilligidan norozi bo'lgan harbiylar va muxolifatchi kuchlar tazyiqi ostida u **1997-yili** iste'foga chiqdi. Keskin kurash natijasida ilgari Tog'li Qorabog'ni, keyinchalik Armaniston hukumatini boshqargan **R.Kocharyan** prezident etib saylandi. Prezident tuzumni barqarorlashtirish va Armanistonning xalqaro pozitsiyasini mustahkamlashga urinmoqda. Turli muxolif guruhlarning davom etayotgan chiqishlari mamlakat rivojlanishini orqaga surmoqda.

Armanistonda hozirgi paytda iqtisod ancha jonlanmoqda. Qishloq xo'jaligi iqtisodning o'rtacha **20 foizini** tashkil qiladi. Ozarbayjon va Turkiya bilan ahvol yaxshilanib ketmayapti. **2003-yili** Armaniston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'ldi. **2008-yil**ga kelib YIM **22,4 mlrd dollar**ni,

aholi jon boshiga esa **6312 dollar**ni tashkil etdi, ayni paytda Ozarbayjonda **6476**, Turkiyada **10380 dollar**dir. Mamlakat importi eksportga nisbatan **1,5 mlrd dollar**ga ko'p. Hozir mamlakat prezidenti lavozimida **S.Sarkisyan** ishlamoqda.

Ozarbayjon Respublikasi. **1989-yili** Ozarbayjon hukumati SSSR Xalq deputatlari syezdiga hali ko'pchiligi sovet tartibotini saqlash tarafdori bo'lgan deputatlarni jo'natishi mumkin edi. Ammo yil oxiriga borib Tog'li Qorabog'dagi qurolli to'qnashuvlar keskinlashdi. Mamlakatning turli mintaqalarida aholining **8 foiz**ini tashkil etgan armanlarning chiqishlari kuzatildi. **Boku**da esa millatchilar, liberallar va demokratlar kompartiyaga muxolif bo'lgan Xalq frontini tashkil qildi. U tezda katta ta'sirga ega bo'ldi.

1989-yil kuzidan Ozarbayjon suvereniteti va liberal islohotlarni talab qilgan Xalq fronti qudratli namoyishlar va mitinglar qildi. **1990-yil boshi**da u muqobil hokimiyat organlarini va o'z qurolli otryadlarini tuzdi, huquq-tartibot organlarini boshqarishga harakat qildi. Hokimiyatning Xalq fronti qo'liga o'tmasligi uchun SSSR oliy rahbariyati **20-yanvar**ga o'tar kechasi **Boku**ga sovet qo'shinlarini kiritib, Xalq fronti va norozilik ko'rsatgan aholi bilan ayovsiz kurash olib bordi. Yuzlab odamlar o'ldirildi, yarador qilindi. Ommaviy chiqishlar bekor qilindi va favqulodda holat joriy etildi. Kompartiya rahbariyati shuning evaziga hokimiyatni saqlab qoldi.

Ozarbayjon **1991-yil avgust oyi oxiri**da mustaqillik to'g'risidagi deklaratsiyani qabul qildi. **Dekabr**da Ozarbayjonning MDHda ishtirok etishiga rozilik bildirishi kommunistlar hukumatining umrini uzaytirdi.

Ishlab chiqarishning pasayishi va narx-navoning ko'tarilishi **1992-yil bahori**ga kelib aholi katta qismining va Tog'li Qorabog'dan kelayotgan qochoqlarning ahvolini og'irlashtirdi. **M.Mutalibov** rahbarlik qilayotgan kommunistlar hukumatidan norozilik ommaviy tus oldi. **Mart**da bu hukumat ag'darildi. Ammo raqiblar o'rtasidagi kelishmovchiliklar Mutalibovga **may**da yana hokimiyatga qaytish imkonini berdi. Biroq ikki kun o'tgach bu hukumat *Xalq fronti* va *«Kulrang bo'rilar»* tashkiloti kuchlari tomonidan ag'darib tashlandi.

Umumxalq saylovlarida mamlakat prezidentligiga o'zini **«Otaturk askari»** deb atagan milliy-demokrat **A.Elchibey** saylandi. Uning hukumati narxlarni liberallashtirdi va yangi valyuta – **manat**ni joriy qildi, ammo islohotlarni davom ettirishdan cho'chib turdi. Asosiy e'tibor sovet qurollari zaxirasiga ega qurolli kuchlarni shakllantirish va ularning turk murabbiylari tomonidan tarbiyalanishiga qaratildi.

Biroq 1992-yili iqtisodiy-ijtimoiy ahvolning yomonlashuvi, frontdagi mag'lubiyat va Tog'li Qorabog' o'z mustaqilligini e'lon qilganidan keyin

kuchaygan turli mahalliy urug'-aymoqlarning ig'volari, muxolif partiyalarning kuchayishi, talish va lezgin ayirmachilarining faollashuvi hamda Xalq frontidagi kelishmovchiliklar Elchibey hokimiyati susayishiga olib keldi.

Yozda **Ganja shahri**da frontdagi mag'lubiyati uchun prezident bergan tanbehlardan g'azabga kelgan **polkovnik S.Guseynov** o'z polkida isyon ko'tardi va prezidentning iste'foga chiqishini talab qilib Bokuga yurish qildi. Elchibey qarshilik ko'rsatishdan cho'chidi va sobiq kommunistlar yetakchisi **G.Aliyev**dan yordam so'rab poytaxtdan qochdi.

1990-yili sovet qo'shinlarining Bokuga kiritilishidan noroziligini namoyish qilib KPSS safini tark etgan G.Aliyev o'sha paytda o'z ona yurti **Naxichevan avtonom viloyati**da edi. U **Yangi Ozarbayjon milliy-demokratik partiyasi**ga tayanardi. G.Aliyev Bokuga kelib, Guseynov bilan kelishuvga erishdi. *Guseynov hukumat boshlig'i bo'lishga ko'ndi, Aliyev esa parlament raisi etib saylandi.* **1993-yili** G.Aliyev milliy-liberal dasturi bilan chiqdi va Tog'li Qorabog'ni Ozarbayjonga qaytarib olish va'dasini bergach umumxalq saylovlarida Ozarbayjon prezidenti etib saylandi. Fitnalarga aralashgan Guseynov o'z vazifasidan chetlashtirildi va sud javobgarligiga tortildi. G.Aliyev va uning yangi hukumati ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning tarqoqligini va qayta guruhlanishini bartaraf etdi.

1995-yil noyabrda referendum yo'li bilan yangi konstitutsiya qabul qilindi. Unda Ozarbayjon demokratik-huquqiy dunyoviy respublika deb e'lon qilindi. *Qirqqa yaqin partiyalar ishtirok etgan majlis saylovlarida o'rinlarning 45 foizini Yangi Ozarbayjon partiyasi egalladi.* Siyosiy barqarorlikni **1998-yili** Aliyevning yana prezident etib saylanishi mustahkamladi.

Hukumat o'rta va oliy ta'lim tuzilishi hamda mazmunini yangiladi, sog'liqni saqlash tizimini isloh qildi. Sud-huquq tizimi qayta qurildi va jinoyatchilikka qarshi kurash kuchaytirildi. Kaspiyning ifloslanishiga qarshi choralar ko'rildi.

Bularning amalga oshirilishiga ulkan harbiy xarajatlar (*byudjetning 50 – 70 foizi*) va iqtisodiyotning og'ir ahvolda ekani salbiy ta'sir ko'rsatdi. **1994-yili** hukumat erkinlashtirish va xo'jalikni davlat tasarrufidan chiqarishga urinib ko'rdi.

1995-yildan XVFga tayanib iqtisodiyotni barqarorlashtirish choralari amalga oshirila boshladi. Tuzilmaviy islohotlar o'tkazilishini Jahon banki moliyalashtirdi. Eng rivojlangan mamlakatlardan katta kreditlar olishga, Turkiya hamda Eron bilan hamkorlikni kengaytirishga erishildi. Ozarbayjonning MDHga qaytishi uning hamdo'stlik mamlakatlariga eksport ko'lamini oshirdi.

1996 – 1997-yillari shu paytgacha muttasil qisqarib kelgan YAIMni barqarorlashtirishga erishildi. XVFning yordami manatni kuchaytirish va xorijiy investitsiya hamda texnologiyalarni jalb qilishga imkon berdi. Dunyodagi eng yirik xalqaro korporatsiyalar bilan kimyoviy, metallurgiya, elektrotexnika va mashinasozlik sanoati rivojlanishini ta'minlaydigan **«asr shartnomasi»**ning tuzilishi **1990 – 1995-yillar**da ikki baravarga qisqarib ketgan neft qazib olishni ko'paytirish imkonini berdi. Ozarbayjon neft quvuri Gruziya va Turkiya orqali Yevropaga o'tkazilishiga umid qilmoqda. **90-yillar oxiri**da inflyatsiya cheklandi va ishlab chiqarish jonlana boshladi. **2003-yil**gi prezident saylovlarida G.Aliyevning o'g'li **Ilhom Aliyev** prezidentlikka saylandi.

Hozirgi vaqtda Ozarbayjon agrar-industrial mamlakat bo'lib, qazib olish sektori nihoyatda rivojlangan. Iqtisodning o'sishi **1996-yili** YIMning o'sishi bo'yicha jahon rekordini o'rnatdi – **36,6 foiz**. **2007-yil**ga kelib YIM **31,6 mlrd dollar**ni, aholi jon boshiga esa **6476 dollar**ni tashkil etdi. Ozarbayjon eksportining **90 foiz**ini neft tashkil etadi. *1 mlrd tonna neft zaxiralari bor.* **2008-yili** sutkasiga **1 mln barrel** qazib chiqarish mo'ljallangan. **2007-yili 10,4 mlrd m^3 gaz** qazib chiqardi. Mamlakatda yollanib ishlaydigan ishchilarning o'rtacha ish haqi **196 dollar**ni tashkil etadi.

29.3. MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI TARAQQIYOT YO'LLARINING TURLI-TUMANLIGI

Qozog'iston Respublikasi. Markaziy Osiyoning hudud jihatidan eng yirik respublikasi – Qozog'istonda uchta urug' ittifoqi – juzlarga bo'linishni yo'qotmagan qozoqlar aholining **40 foiz**ini tashkil etadi. Asosan, respublika shimolida yashovchi ruslar ham aholining **40 foiz**ini, ukrainlar, nemislar, o'zbeklar, qirg'izlar, tatarlar, uyg'urlar qolgan **20 foiz**ini tashkil etadi.

1986-yili Olma-Otada ittifoq markazi ko'rsatmasiga binoan respublika va kompartiya rahbariyatining o'zgarishiga qarshi ommaviy norozilik qozoqlarda milliy o'zlikni anglash tiklanishining cho'qqisi bo'ldi. Norozilik qatnashchilarining shafqatsiz jazolanishi ko'pchilikning g'azabini qo'zg'atdi. Shuningdek, Qozog'iston hududida yadro sinovlari o'tkazilishi va ularning oqibatlariga qarshi harakat kuchaya boshladi. Qozoq aholi ichida qozoq tilining ilgarigi mavqeyi va yozuvining tiklanishi, qozoq xalqi tarixi, madaniyati, dinining o'rganilishi va tiklanishi to'g'risidagi talablar ommaviylashdi.

1989-yil bahoridagi SSSR Xalq deputatlari syezdida qatnashgan respublika vakillari sovet tuzumini saqlab qolish tarafdorlaridan iborat edi.

Kuzda Oliy Sovet qozoq tilini davlat tili, rus tilini millatlararo so'zlashuv tili deb e'lon qildi. Kompartiya rahbari **N.Nazarboyev** respublika ko'p millatli jamiyati birligini va M.Gorbachovning SSSRni saqlab qolishga urinishlarini qo'llab-quvvatladi. Oliy Sovet **1990-yil bahori**da uni prezident etib sayladi, **oktyabr**da esa, qarshiliklarga qaramay, Qozog'iston suverenitetini e'lon qildi. Hukumat **70 foizi** ittifoq markazi ixtiyorida bo'lgan barcha zaxiralarni respublika mulkiga aylantira boshladi. Moskvadagi **avgust** *to'ntarishi (xuntasi)ni respublika rahbariyati jimlik* bilan kutib oldi, so'ngra hukumat amalda tarqalib ketgan kompartiya mulkini milliylashtirdi.

Qozoq va rus xalqlarini hamjihatlikka va Rossiya bilan yaqin aloqalarni saqlab qolishga chaqirgan N.Nazarboyev **1991-yil oxiri**dagi umumxalq saylovlarida yana prezident etib saylandi. Ammo Oliy Sovet Qozog'iston mustaqilligi to'g'risida hammadan keyin – **1991-yil 16-dekabr**da deklaratsiya qabul qildi.

Davlatchilik shakllanishi uchun bir necha yil kerak bo'ldi. **1993-yil boshlari**da Oliy Sovet qabul qilgan konstitutsiyada prezidentga keng vakolatlar berilishi va konstitutsion sud tashkil qilinishi belgilangandi. Ammo unda aholining milliy tafovutlari, islohotlar kelajagi hisobga olinmadi va sovet (kengashlar) tizimi saqlab qolindi. **1993-yil oxiri**dayoq N.Nazarboyev boshchiligidagi rahbariyat bu konstitutsion tizimning yangi *muammolarini hal etish uchun yetarlimasligini fahmlab yetdi. Sovetlarning* o'z-o'zidan tarqalib ketishiga **1993-yil kuzi**da Rossiyada ro'y bergan voqealar turtki bo'ldi. Qozog'istonda sovetlarning tarqalib ketishiga hech kim qarshi chiqmadi – *«tinchgina davlat to'ntarishi»* ro'y berdi.

1994-yil martdagi yangi qonun chiqaruvchi organ saylovlari urug'-aymoqlar va guruhlar tomonidan qonunlarning qo'pol buzilishi bilan o'tdiki, konstitutsion sud tergov o'tkazgach saylovlarni haqiqiy emas deb hisobladi. Prezident saylangan deputatlarni tarqatishga majbur bo'ldi va qonun chiqaruvchi hokimiyat vaqtincha uning qo'liga o'tdi.

Konstitutsiya va parlamentning yangilanishigacha siyosiy barqarorlikni saqlab qolish uchun Qozog'iston xalqlari assambleyasi qarorlariga ko'ra o'tkazilgan referendum prezident vakolatini **2000-yil**gacha uzaytirdi.

Konstitutsiyaga ko'ra, umumxalq saylovlarida saylanadigan keng vakolatlarga ega bo'lgan prezident ijro etuvchi hokimiyatni boshqaradi, qonun chiqaruvchi hokimiyat esa senat va majlisdan iborat ikki palatali parlamentga tegishlidir.

1995-yil oxirida hukumat tomonidan senatga ko'rsatilgan nomzodlarning bilvosita va muqobilsiz saylovlari hamda orasida muxolifat vakillari

bo'lmagan majlisga ko'rsatilgan ko'p sonli nomzodlar o'rtasida keskin kurash bilan umumxalq saylovlari bo'lib o'tdi.

Prezident va uning tarafdorlari, ommaviy axborot vositalari va har ikki yilda bir marta saylanadigan parlament deputatlarining bir qismi urug'-aymoqlar va guruhlarning ig'volariga qarshilik qilib, korrupsiyaga qarshi kurashib va radikal-milliy qozoqlar va ruslar hamda islomiy tanqidchilaming yo'lini to'sib qo'ygan holda saylovlami to'la boshqarib bordi. Ko'p millatli jamiyatni birlashtirish uchun prezident qoshida maslahat-mashvarat organi – **Qozog'iston xalqlari assambleyasi** tuzildi.

Prezident tashabbusi bilan **1997-yili** qozoq – rus birligini mustahkamlash va eng kuchli juz ta'sirini susaytirish maqsadida poytaxt mamlakatning janubi-sharqiy burchagida joylashgan Olma-Otadan ko'pchilik aholisi ruslardan iborat bo'lgan va eng muhim industrial-agrar mintaqada joylashgan **Ostona shahr**ga ko'chirildi.

2000-yili qabul qilingan qonun prezidentga, muddati tugagandan so'ng ham, sobiq prezident sifatida hukumat siyosatiga aralashishga to'la imkon berdi.

N.Nazarboyev tomonidan 15 – 20 yilga mo'ljallangan samarali ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishga qaratilgan islohotlami amalga oshirish qiyinligi oshkor bo'ldi. Tabiiy resurslarni qayta ishlovchi sohalar ularni qazib oluvchi sohalarga nisbatan orqada qoldi, chunki sanoatdagi deyarli barcha jihozlar eskirgandi. G'alla yetishtirish va chorvachilikda mashinalar va zamonaviy texnologiyalar yetishmasdi. Eng asosiysi – ittifoq buyurtmalari va investitsiyalarining to'xtab qolishi tarqoq sohalar sharoitida sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining keskin pasayishiga olib keldi, natijada **1991-yildan 1996-yilgacha** Qozog'iston yalpi ichki mahsuloti (YIM) **31 foiz**ga qisqardi.

Sanoat mahsulotlari, oziq-ovqat yetishmasdi. Mehnatkashlarning asosiy qismi ishsiz qoldi. Inflyatsiya tez o'sa boshladi. Qish paytida uylar isitilmas, korxonalar to'xtab qolardi. Yem yo'qligidan qoramol qirilib ketdi. Shunda iqtisodiy islohotlar Milliy kengashi tuzildi. Hissadorlik jamiyatlariga aylantirilayotgan korxonalar aksiyalarining **50 foizi** avvaliga davlat ixtiyorida qoldi. Korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligi oshgach, bu aksiyalar sotilardi. Yerni mulk sifatidamas, balki uzoq muddatli ijaraga berish ma'qulroq deb topildi. Jinoyatchilikka, ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurash kuchaytirildi. Monopoliyaga qarshi qonunlar qabul qilindi.

1994-yildan Qozog'iston valyutasi – **tenge** muomalaga kirdi. Ammo narx-navo o'sishi davom etdi va tengeni mustahkamlash uchun XVFdan yordam olindi. Xorijiy kompaniyalarga mamlakat tabiiy resurslarini ishlab

chiqarish uchun litsenziyalar berildi, ular ishtirokida neft va gaz qazib olish, Kaspiy orqali Yevropaga hamda Xitoyga quvurlar yotqizish uchun qudratli korporatsiyalar barpo etila boshlandi.

1996 – 1998-yillari xususiylashtirish davom etishi natijasida xususiy sektor ancha o'sdi. Davlat ixtiyorida ilgarigi mulkning atigi **16,1 foizi** qoldi, ularning ham **45 foizi** xorijiy kompaniyalar qo'liga o'tdi. Bir necha milliard dollar investitsiya jalb etildi, inflyatsiya pasaydi va **1996 – 1997-yillar**dan ishlab chiqarish o'sa boshladi. Shuningdek, iqtisodiyotda xususiy sektor mustahkamlandi, u asr oxiriga kelib Qozog'iston yalpi mahsulotining **75 foiz**ini ishlab chiqara boshladi.

Qozog'istonning xalqaro xavfsizligi va yadro qurolini tarqatmaslik shartnomasiga qo'shilishi kafolati bilan Qozog'istonga SSSRdan meros qolgan raketa-yadro qurolining Rossiya Federatsiyasida zararsizlantirilishi to'g'risida kelishib olindi. **Baykonur kosmodrom**ining Rossiya Federatsiyasi tomonidan ijaraga olinishi va undan foydalanishning xavfsizlik shartlari ishlab chiqilgan. Qozog'iston MDHni mustahkamlashni faol qo'llab-quvvatlaydi va eng muhim savdo sheriklari **Rossiya Federatsiyasi hamda Belorussiya** bilan bojxona ittifoqi, qo'shni Markaziy Osiyo respublikalari bilan iqtisodiy integratsiya to'g'risida shartnoma tuzdi.

N.Nazarboyevning «ko'p yo'nalishli tashqi siyosati» MDH doirasidan ham tashqariga chiqdi. Qozog'iston Germaniya va Yevropa Ittifoqining boshqa mamlakatlari hamda Turkiya, Eron, Yaponiya va Malayziyaga o'z xomashyosini berish, ulardan kreditlar, investitsiya va yuksak texnologiyalarni keltirish yo'li bilan hamkorlik qiladi. *U 10 ta Osiyo mamlakati iqtisodiy hamkorligi (MOH)da ishtirok etadi.* Qozog'iston **YXHT** a'zosi, **NATO** bilan hamkorlik qiladi, **Shanxay Hamkorlik Tashkiloti** (ShHT) a'zosidir. Keng va ko'p tomonlama aloqalar islohotlar va iqtisodiyotni rivojlantirish hamda xavfsizlikni ta'minlash, jumladan, islom fundamentalizmi tahdidini bartaraf etishga imkon beradi. O'zbekiston bilan abadiy do'stlik to'g'risida shartnoma imzolangan. Qo'shnichilik aloqalari kuchaymoqda.

Hozirgi vaqtda Qozog'iston agrar-industrial mamlakat bo'lib, **2006-yili** YIM **77,9 mlrd dollar**ga yetdi va aholi jon boshiga **5120 dollar**ni tashkil etadi. Neft va neft mahsulotlari, rangli va qora metall, ruda, g'allani eksport qiladi. *Temir ruda zaxiralari bo'yicha dunyoda 8-o'rinda turadi. Dunyoda mis eksporti bo'yicha yetakchi o'rinlardan birida. G'alla yetishtirishda MDH mamlakatlari ichida 3-o'rinda.*

Qirg'iziston Respublikasi. Qirg'iziston Ittifoq markaziga bo'ysundirilgan sanoatga ega bo'lib, markaz dotatsiyasi respublika byudjetining **60 foiz**ini qoplardi. Aholining **53 foizdan kamrog'i** qirg'izlar, ruslar **21 foiz**,

o'zbeklar **13 foiz**ni tashkil etar, boshqa turkiyzabon xalqlar, ukrainlar, nemislar istiqomat qilardi. Mamlakatda ko'pchilikni tashkil etgan shimoliy va janubiy qirg'izlar o'rtasida raqiblik, shuningdek, janubda qirg'izlar va o'zbeklar o'rtasida ham raqobat bor edi. Sanoatda rus mutaxassislari asosiy rol o'ynardi.

Rossiyaning markaziy shaharlarida o'qish davomida liberalizmga moyillik orttirgan qirg'iz mutaxassislarining ta'siri va saylovchilar assotsiatsiyasi harakatlari tufayli, SSSR Xalq deputatlari syezdiga yuborilgan delegatlar ichida sovet tuzumini saqlab qolish tarafdorlari qo'shni respublikalardagiga nisbatan ko'p emasdi. **1990-yili** esa Qirg'iziston janubidagi o'zbeklar va qirg'izlar o'rtasidagi to'qnashuvlarni bartaraf etolmagani va milliy-liberal va milliy-demokratik ruhdagi o'nlab partiya va guruhlarning paydo bo'lishi sababli kommunistik partiya o'z mavqeyini yo'qotdi. Yuz minglab kishilarni birlashtirgan **«Qirg'iziston» demokratik harakati** mamlakat suvereniteti va bozor islohotlariga da'vat etdi. Uning ta'sirida Oliy Kengash **1990-yil dekabr**da suverenitet deklaratsiyasini qabul qildi va SSSRni konfederatsiyaga aylantirishga ovoz berdi.

Moskvada g'alaba qozongan demokratik Rossiya bilan yakdil bo'lgan milliy-liberal va demokratlar talabiga ko'ra, Oliy Kengash Qirg'izistonning siyosiy suverenitetini e'lon qilishga, kompartiyani taqiqlashga majbur bo'ldi. **1991-yil oktyabr**dagi umumxalq saylovlarida liberal-demokrat, akademik **A.Akayev** mamlakat prezidenti etib saylandi. U *«o'tmish bilan bahslashmasdan olg'a yurish»*ga da'vat etdi.

Qirg'izistonda davlatchilikning shakllanishi liberal-demokratik partiya va guruhlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, A.Akayevning o'z «jamoa»si yo'qligi ilgarigi «nomenklatura» va yaqinda tiklangan kompartiyaning islohotlarga shafqatsiz qarshilik ko'rsatishi hamda urug'-aymoqlar o'rtasidagi raqiblik, hokimiyatning suiiste'mol qilinishi va korrupsiya sharoitida kuchaygan millatlararo mojarolar ta'sirida murakkablashgandi.

Ammo ba'zi respublikalar uchun an'anaviy bo'lgan konformistik (loqaydlik, befarqlik) ruhdagi aholining ovoz berishi oqibatida **1992-yil kuzi**dagi Oliy Kengash saylovlarida islohot dushmanlari – sobiq sovet-kommunist arboblar va turli urug'larning rahbarlari ko'pchilik ovozga ega bo'lishdi. Qayta tiklangan kompartiya qasd olishga harakat qildi. Ortga qaytish xavfi tug'ildi.

Shunga qaramay, **1993-yil may**dan oldinga qadam qo'yishga, ya'ni Oliy Kengash tomonidan yangi konstitutsiyaning qabul qilinishiga erishildi, xususiy mulk cheklab qo'yildi. Qirg'iziston umumxalq saylovida saylanadigan prezidentli va ikki palatali parlament – Jo'qorg'i Kengesiga ega

respublikaga aylandi. Prezident oldida javobgar bo'lgan hukumat parlamentga bo'ysunadi. Mamlakat poytaxti nomi **Bishkek** deb o'zgartirildi.

1994-, 1995-yillardagi referendumlarda konstitutsiyaga hokimiyat turli tarmoqlarining vazifalarini belgilash va ularning o'zaro munosabatini belgilovchi tuzatishlar kiritildi. Hukumatda o'z mansabini suiiste'mol qilish hollaridan xabar topgan raqiblarning tobora kuchayib borayotgan hujumlaridan o'zini himoya qilish maqsadida A.Akayev **1994-yil boshi**da prezidentga ishonch to'g'risida referendum o'tkazdi va ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Kelasi yili yana prezident etib saylandi.

2000-yilgi parlament saylovlarida Akayevni qo'llab-quvvatlayotganlar ko'pchilik o'ringa ega bo'lishdi va prezidentga ancha xayrxoh bo'lib qolgan kommunistlar muvaffaqiyatga erishishdi. Hukumat **«Ar-Napis»** demokratik harakatidagi Akayevni tanqid qiluvchilar faolligiga zarba berib, uning rahbarini hibsga oldi. Bu esa ommaviy noroziliklarga sabab bo'ldi va vaziyatni keskinlashtirdi. Ammo Akayev raqiblari kuchsizlashgandi. **2000-yil**gi prezident saylovlarida unga saylovchilarning **75 foizi** ovoz berdi va u **to'rtinchi marta** prezident etib saylandi.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish qiyinroq kechdi. **1990-yil**dan boshlangan ishlab chiqarishning pasayishi, ittifoq markazining buyurtma va investitsiyalari to'xtagach, yanada tezlashdi. **1995-yili** mamlakatda ishlab chiqarish hajmi **1990-yil**dagiga nisbatan **39 foiz**ni tashkil etdi. **1991 – 1993-yillari** Rossiya Federatsiyasi texnik kreditlar taqdim etgan bo'lsa-da, dotatsiyalarning to'xtashi va daromadning qisqarishi byudjetni parchaladi, yirik inflyatsiyani yanada tezlashtirdi. Hukumatning narxlar o'sishini to'xtatishga urinishlari zoye ketdi. Maorif, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot tizimi izdan chiqdi. Bu ijtimoiy va millatlararo munosabatlarning murakkablashishi, hokimiyatning suiiste'mol qilinishi va jinoyatchilikning o'sishiga olib keldi.

1991-yiliyoq hukumat XVF ishtirokida xo'jalikni davlat tasarrufidan chiqarish dasturini ishlab chiqqandi. Narxlarni liberallashtirish boshlandi, **1993-yili** esa milliy valyuta – **som** muomalaga kiritildi. Lekin XVF yordami bilan ham inflyatsiyani pasaytirish va uning barqarorlashishiga erishib bo'lmadi. **1998-yil**ga kelib davlat qo'lida uning ilgarigi mulkining atigi **5,6 foizi** qoldi.

1996-yildan ishlab chiqarish o'sa boshladi. *1997-yili esa hukumat islohotlarning ikkinchi bosqichi, ya'ni korxonalarni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish boshlanganini e'lon qildi.* Ko'pgina millatchilarga qarshi chiqib, **1991-yil**gi yer to'g'risidagi qonunda yer nafaqat qirg'izlarga, balki barcha Qirg'iziston fuqarolariga tegishliligi

haqida yozilishiga erishildi. Samarasiz foydalanilayotgan yerlar, ya'ni barcha haydalma yerlarning **50 foizi** davlat fondiga aylandi. Bu yerlardan qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilar uchastkalarni egalik huquqlarini meros qoldirish huquqi bilan **50 yil** muddatga ijaraga olishardi. Bu xususiy xo'jaliklar sonining oshishi va mustahkamlanishining boshlanishi bo'ldi.

Prezident farmoniga ko'ra, **1996-yil**dan yerni ijaraga olish, sotish va garovga berish mumkin bo'ldi. Bu yerga bozor munosabatlarining joriy etilishi edi. Ikki yildan so'ng, **1998-yili** yerga xususiy mulkchilik to'g'risidagi qonun qabul qilingach, uning hajmini qisqartirish va egalari doirasini cheklashlar ishlab chiqildi. **90-yillar 2-yarmi**da oziq-ovqat ishlab chiqarishi jonlana boshladi, ammo ko'pchilik aholining turmush darajasi deyarli yaxshilanmadi.

Mamlakatni xalqaro mojarochilardan himoya qilish maqsadida qurolli kuchlar barpo etildi. Ular tez-tez ro'y berib turgan islom aqidaparastlari to'dalari hujumlarini qaytarib turibdi. **2005-yil**ga kelib ahvol murakkablashdi. Hukumatga qarshi kuchlar **«Lola inqilobi»** o'tkazdilar. A.Akayev hokimiyatdan voz kechdi. **Q.Bakiyev** vaqtinchalik prezidentlik lavozimini egalladi va ko'p o'tmay prezidentlikka saylandi. Yechilmagan muammolar ko'p.

Qirg'iziston Rossiya Federatsiyasi va MDHning boshqa mamlakatlari bilan hamkorlik bilangina cheklanmadi. Uning rahbariyati nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari, shu jumladan, O'zbekiston bilan, balki Xitoy bilan ham munosabatni mustahkamlashga urinmoqda. Mamlakat Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy integratsiyasi va Osiyoning **10 davlati** iqtisodiy hamkorligida ishtirok etmoqda, yuqori darajada rivojlangan ko'pgina mamlakatlar: AQSh, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi va boshqalar bilan moliyaviy-iqtisodiy va texnik hamkorlik hamda savdoni rivojlantirmoqda. Mamlakat xavfsizligini ta'minlashda qo'shnilar bilan mos kelishuvlarga erishish hamda Shanxay Hamkorlik Tashkilotida ishtirok etish muhim ahamiyatga ega.

Qirg'izistonda YIM **2007-yil**ga kelib **15,5 mlrd dollar**ga yetdi va aholi jon boshiga **2764 dollar**ni tashkil etdi. **3/4 qismi** tog'likdan iborat bo'lgan bu mamlakatda YIMning **25 foizi** sanoat hissasiga to'g'ri keladi. Sanoatning esa **40 foiz**ini oltin ishlab chiqarish tashkil etadi. *2003-yili mamlakatda 22,5 tonna oltin qazib olindi va uni ishlab chiqarish bo'yicha MDH mamlakatlari ichida Rossiya va O'zbekistondan keyin 3-o'ringa chiqdi.* Rossiya bilan hamkorlikda Qirg'iziston yiliga **2000 tonna uran** ishlab chiqaradi. **2006-yili** o'rtacha ish haqi **80 dollar**ni tashkil etdi.

Turkmaniston Respublikasi. Turkmaniston aholisi eng kam bo'lgan Markaziy Osiyo respublikasi edi. O'sha vaqtlarda uning boy neft-gaz

konlari (*butun dunyoda aniqlangan gaz zaxiralarining 1/3 qismi*) qazilishi endi boshlangan, haydaladigan yerning **70 foiz**ida esa paxta yetishtirilardi. Barcha qazib olish va ishlab chiqarish federal markaz uchun xizmat qilardi, markaz esa aholining yashashi (tirik qolishi) uchungina zaxiralar berardi. Bu aholining **70 foiz**ini tashkil etuvchi turkmanlar hamda ruslar, o'zbeklar va boshqa millat vakillarining an'anaviy befarqligi (konformistligi) va passivligini yana chuqurlashtirardi. Faqatgina **1989-yili Ashxabod**da birinchi masjid qurildi, noroziliklar namoyon bo'ldi. Til va madaniyatni tiklash, iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun kurashuvchi harakatlar paydo bo'ldi. Ammo bu yerda kompartiya rahbariyati oshkoralikni boshqarib turar, «norasmiy elementlar» rivojlanishiga to'sqinlik qilar va islohotlarning yo'nalishi, muddatlari hamda ko'lamini belgilab berardi.

Respublika suvereniteti to'g'risidagi deklaratsiya Oliy Kengash tomonidan **1991-yil avgust**da qabul qilindi. Oliy Kengash kompartiya rahbari **S.Niyozov**ni rais etib sayladi. SSSR amalda parchalanib bo'lgach, **1991-yil oxir**ida referendum asosida Turkmaniston mustaqillikka erishdi va umumxalq saylovlarida Niyozov uning prezidenti etib saylandi. *«Biz o'ziga xos yangi jamiyat quramiz va unga o'z yo'limiz bilan boramiz»*, – degandi Niyozov o'z yo'li haqida.

Millatlararo mojarolar, tarqoq liberal va demokratik guruhlarning chiqishlari **90-yillar bosh**ida bostirildi, ularning rahbarlari hibsga olindi yoki muhojirlikka ketishdi. **1992-yil**i yangi konstitutsiya qabul qilinishi bilan hokimiyat yanada mustahkamlandi. Umumxalq saylovlarida saylanadigan prezident nihoyatda keng vakolatga ega bo'ldi va hokimiyatning har bir tarmog'iga boshchilik qildi. Qonun chiqarish **Majlis** – saylanuvchi parlamentga topshirildi. Ammo qarorlarni qabul qiluvchi oliy vakillik organi **Xalq maslahati** bo'ldi. U prezident tomonidan boshqarilar hamda hukumat boshlig'i va a'zolari huquqni himoya qilish organlari va viloyat rahbarlaridan iborat edi. Mamlakatda S.Niyozov boshqarayotgan yagona partiya – **Demokratik partiya** qoldi. Aholini birlashtirish uchun amnistiya (umumiy afv) e'lon qilindi, keyinchalik esa o'lim jazosi bekor qilindi.

Konstitutsiya qabul qilingach, saylovchilarning **99,5 foizi** Niyozovni prezidentlikka qayta saylash, u ko'rsatgan nomzodlarni majlisga saylash uchun ovoz berdilar. Keyinchalik bundan ham muvaffaqiyatliroq o'tgan referendumda Niyozovning vakolatini oshirish ma'qullandi va u Turkmanboshi hamda turkmanlar otasi degan unvonga ega bo'ldi, **2000-yili** esa Majlis uning hokimiyati muddatsizligi to'g'risidagi qonun qabul qildi. Turkmanboshining portret va so'zlari hamma joyda paydo bo'ldi,

ko'chalar, korxonalar va shaharlar uning nomiga qo'yildi, poytaxtda uning ulkan, doim quyosh tomonga burilib turuvchi haykali o'rnatildi. Farovonlik to'g'risidagi rejalari uchun uni hamma joyda – bolalar bog'chasidan tortib xalq maslahatigacha ulug'lardilar. Hatto uning obro'siga va xalqning unga bo'lgan muhabbatiga shubha qilish Turkmaniston uchun zarar deb baholanardi. Nihoyat, uning tomondan odamlarning hayot normalarini mustahkamlash uchun ishlab chiqilgan, hamma uchun majburiy bo'lgan **«Turkmanlarning ma'naviyat kodeksi»** qabul qilindi. **«Ruhnoma»** kitobi bo'yicha oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar imtihon topshirardi, u Qur'oni Karim bilan tenglashtirildi. Turkmanboshi tuzumi mustabid (totalitar) xarakterga ega bo'ldi va siyosiy barqarorlikni kafolatladi.

Va'da qilingan farovonlikka erishish ancha qiyin bo'lib chiqdi. Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol og'ir edi. Rossiyadan olingan kreditlar tezda qadrsizlandi. Gaz va paxtani Rossiya hamda MDHning boshqa davlatlariga sotish na dollar, na yangi texnologiyalar keltirdi. Gaz qazib olish va paxta yetishtirish, ularni yetkazib berishni ko'paytirish hamda ular evaziga dollar olish juda qiyin kechdi. Aholiga oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar yetishmasdi. Pensiya va oyliklarni to'lash kechikardi. Ayanchli statistik ma'lumotlar e'lon qilinmasdi.

1992-yildan hukumat sanoatni rivojlantirish va bozor munosabatlarining iqtisodiy poydevorini yaratishga qaratilgan **«Barqarorlikning 10 yili»** dasturini qabul qildi. **1993-yili** milliy valyuta – **manat** joriy qilindi. Uning qiymati hamda narxlar hukumat tomonidan belgilanardi. Xorijiy valyuta bilan muomala qilish taqiqlangandi.

Boy mamlakatlarning hukumatlari Turkmanboshi rejimini ma'qullamasalar-da, undagi barqarorlik, mamlakatning tabiiy boyliklari va arzon ishchi kuchi hamda hukumatning bozor iqtisodiyotiga intilishi turkman paxtasi va gazini sotib olishning kengayishiga, rejimga kreditlar berilishi va xo'jalikka investitsiyalar qo'yilishiga yordam berdi. Eksportdan kelgan mablag'lar va kreditlarni hukumat undirma va to'qimachilik sanoatiga sarflardi. Bu sohalar uchun eng yangi texnologiya hamda jihozlar sotib olindi. **90-yillar 2-yarmi**da gaz va neft qazib olish o'sa boshladi va paxtaning asosiy qismi yangi korxonalarda qayta ishlana boshladi, bozorga to'qimachilik mahsulotlari chiqarila boshlandi. Ishlab chiqarishning o'sishi to'la bandlikni ta'minladi.

Hukumat iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarishga shoshilmadi. Neft va gaz, paxtaning sotilishi hamda qayta ishlanishi, transport va uy-joy xo'jaligi, ishlab turgan hamda qurilayotgan barcha katta va o'rta korxonalar davlat ixtiyorida edi. **1996-yil**ga kelib nodavlat sektorga yalpi

ichki mahsulotning atigi **7,7 foizi** to'g'ri keldi. **2000-yili** yalpi ichki mahsulot **14 foiz**ga oshdi, uning **1/5 qismi** gaz eksportiga to'g'ri keldi.

1993-yili qabul qilingan yerga mulkchilik to'g'risidagi qonun asosida har bir fuqaro **50 ga** gacha yer olishi va yana **500 ga** yoki undan ko'proq yerni ijaraga olishi mumkin edi. **5 yil** muddat o'tgach yer egasi – **neyhan** tomonidan olingan yer uning mulkiga aylanardi, ammo u yerni sotish yoki birovga berishga haqqi yo'q edi. Bu islohot **10 yil** muddatga mo'ljallangandi.

Hukumat **«Yangi qishloq»** va **«G'alla»** dasturlarini amalga oshirdi. *Ularga ko'ra, qishloq aholisi yashash sharoitini yaxshilash va g'alla yetishtirishni oshirishga mablag' ajratilardi.* Hukumat qishloq aholisi turmush darajasi yaxshilandi deb hisobladi. G'alla yetishtirish sezilarli darajada o'sdi. Butun qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi mamlakat yalpi ichki mahsulotining **20 foizidan ko'prog'i**ni bermoqda.

Prezident va'da qilgan umumiy farovonlikka nisbatan uyg'ongan va oshib borayotgan shubhalarni tarqatish uchun hukumat **90-yillar 2-yarm**ida tuz, elektr energiya, gaz va suvni bepul deb e'lon qildi, non, o'simlik yog'i, jamoat transporti va maishiy xizmatlarga esa past, ramziy narxlarni belgiladi. Oziq-ovqatning boshqa turlari hamda boshqa mahsulotlar kartochkalar bilan tarqatila boshlandi. Ammo, odatdagidek, bepul, arzon va kartochkalar bilan tarqatiladigan mahsulot tanqis edi, ularni olish uchun navbatlar paydo bo'lardi. Boz ustiga, aholi o'sish darajasi oshdi.

2006-yil dekabrda prezident S.Niyozov vafot etdi. **2007-yil fevral**dagi saylovda **G.Berdimuhamedov** prezident etib saylandi. Turkmanistonning tashqi siyosati uning mustaqilligini mustahkamlash va dunyo bozoriga tabiiy gazning yirik zaxiralarini chiqarish yo'llarini izlashga qaratilgandi. Mustaqillikka erishilgach mamlakatning neytraliteti (betarafligi) e'lon qilindi va amalga oshirib kelinmoqda. MDH tarkibida bo'lish Rossiya Federatsiyasidan yordam olishga imkon berdi. Ayniqsa, milliy qurolli kuchlar yaratilgunga qadar, Rossiya Federatsiyasi Turkmaniston chegarasini himoya qilishi va qurol bilan yordam berishini aytish mumkin. MDH doirasida Turkmaniston hamdo'stlik a'zolari, avvalo, **Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon, Gruziya, Ukraina** bilan ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirmoqda. **2005-yil**ga kelib betaraflikka to'la amal qilish uchun Turkmaniston MDH tarkibidan chiqdi.

Turkmaniston Osiyo iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, ayniqsa, Turkiya, Eron va Afg'oniston bilan yaqin hamkorlik qiladi. Turkman gazining bir qismini Rossiya Federatsiyasi orqali Ukrainaga yetkazib berish to'g'risida kelishib olindi. Bundan qoniqmagan respublika hukumati Kaspiy orqali

Ozarbayjon, Gruziya, Turkiyaga va Afg'oniston orqali Pokiston, XXRga gazni eksport qilish uchun gaz quvurlari qurilishida qatnashmoqda.

Prezident G.Berdimuhamedov davrida vaziyat ancha yumshadi. **2007-yil fevral**da ta'lim tizimi islohoti to'g'risida farmon qabul qilindi. *9 yillik maktab o'rniga 10 yillik ta'lim joriy qilindi.* Oliy o'quv yurtlari **5 – 6 yillik** bo'ldi. **«Sodiqlik qasamyodi»** bekor qilindi. Sudlanganlarning ishlarini qayta ko'rib chiqish to'g'risida farmon e'lon qilindi. Turkmanboshi davrida qilingan o'zgarishlar qayta ko'rib chiqilmoqda. **2008-yil 1-iyul**dan Grigoryan kalendariga qaytildi. Turkmanistonda **40 foiz** aholi sanoatda, **30 foiz** aholi qishloq xo'jaligida, qolgan qismi xizmat ko'rsatish sohalarida banddir. *2007-yili 71 mlrd metr³ gaz qazib olindi va shundan 50 mlrd metr³ Rossiyaga, 8 mlrd metr³ Eronga eksport qilindi.* Eksport **4,4 mlrd dollar**ni, import **2,7 mlrd dollar**ni tashkil etadi. **2007-yili** YIM **26,2 mlrd dollar**ni tashkil etib, aholi jon boshiga **5055 mln dollar** to'g'ri keldi.

Tojikiston Respublikasi. Eng baland tog'larda joylashgan, aholi turmush darajasi eng past, lekin tabiiy resurslarga boy respublika – Tojikistonda mustaqillikka erishish fuqarolik urushi tufayli ancha murakkablashdi. *Tojiklar Tojikiston aholisining 59 foizini, o'zbeklar 23 foizni, ruslar 10 foizni tashkil etishardi.* Shimoliy va janubiy viloyatlar jamoalari, Tog'li Badaxshondagi kam sonli aholi orasida va sovet hokimiyati boshqaruv organlarini qamrab olgan urug'-aymoqchilik aloqalari voqealarga katta ta'sir ko'rsatdi.

70-yillardan qo'shni Afg'oniston va Erondagi voqealar islom targ'iboti faollashuviga olib keldi. Oshkoralik e'lon qilinishi bilan, ruslashtirishga va kompartiyaning yakkahokimligiga qarshi chiqishlar boshlandi. **1989-va 1990-yillar**da **Dushanbe** va boshqa joylarda o'zbeklar, ruslar va mamlakatga kirgan qochoqlarga nisbatan noroziliklar bo'lib turdi. Til va madaniyatning tiklanishi hamda respublikaning SSSR tarkibidagi suverenitetini talab qilgan milliy-demokratik harakat **«Rastoxez» («Uyg'onish»)** mashhur bo'ldi. **1991-yili** radikal demokratlar tub o'zgarishlarni talab qilgan **Demokratik partiya**ni tuzishdi. Shuningdek, musulmon jamoalar kuchaydi, masjidlar qurildi. **Islom tiklanish partiyasi («Partiyayi Vahdati Islom»)** sezilarli obro'ga ega bo'ldi va islom aqidaparastlari guruhlari paydo bo'ldi.

Qayta qurish kompartiya tarkibida kelishmovchiliklarga olib keldi. Kutish pozitsiyasini egallagan partiya rahbariyati Oliy Kengash tomonidan tojik tilining davlat tili deb e'lon qilinishiga rozi bo'ldi, ammo boshqa o'zgarishlarga to'sqinlik qildi. *1990-yil fevralda Dushanbedagi hukumatga qarshi ommaviy namoyishlarga qurolli kuchlar safarbar qilindi va o'nlab kishilar halok bo'ldi.*

Islomchilar va demokratlarning raqiblari mahalliy urug'lar va ularning qurollangan dastalari rahbarlarini birlashtirgan **Xalq frontini** tashkil qilishdi. Ular tashabbusni o'z qo'llariga olib, mamlakat shimoli – **Xo'jand shahrida** Oliy Kengash chaqirishga erishishdi. Oliy Kengash raisi etib mahalliy yetakchilardan biri – **I.Rahmonov** saylandi va yangi hukumat tuzildi. Bu yangi hukumat Afg'onistondagi uning dushmanlariga yaqin bo'lgan islomchilarning kuchayishidan tashvishga tushgan Rossiya Federatsiyasi tomonidan qo'llab-quvvatlandi. *Dushanbeda joylashtirilgan Rossiyaning 201-motoo'qchi diviziyasi yordami bilan xalq fronti otryadlari 1992-yil dekabrda Dushanbeni qo'lga oldi va 1993-yil bahorigacha mamlakatning katta qismini o'z nazorati ostiga o'tkazdi.*

Islom tiklanish partiyasi va demokratlar tomonidan tashkil qilingan birlashgan muxolifat Afg'oniston hamda Eronda tayanch topdi. Uning otryadlari Tojikistonda harakatda bo'ldi. Butun mamlakatni shafqatsiz fuqarolik urushi qamrab oldi. Muxolifatga yon bosgan afg'on muhojirlari ham bu urushga aralashib turdi. Jinoiy guruhlar tartibsizliklardan foydalanib giyohvand moddalarni yetishtirish va yetkazib berish bilan mashg'ul bo'ldi.

Muxolifatning qarshiligiga qaramay, **1994-yili** hukumat o'tkazgan referendumda I.Rahmonov taklif qilgan konstitutsiya ma'qullandi. U prezident etib saylandi. Parlament – Majlisi Oliy saylovlari ham o'shanda boshlanib, **1995-yil fevrali**gacha davom etdi. Saylovni hukumat nazorat qilib bordi va prezidentga yetarlicha xayrxoh bo'lgan hukumat tuzildi.

I.Rahmonov hukumati mamlakat oltin zaxirasining bir qismini garovga qo'yib, Rossiya Federatsiyasining mamlakatdagi eng yirik GESlar, eng zamonaviy qudratli alyuminiy zavodi va bir qator iqtisodiy obyektlarning bir qismiga egalik qilish huquqini e'tirof etdi. Dushanbedagi Rossiyaning **201-diviziyasi** hokimiyat barqarorligini ta'minlab turdi. Rossiya chegarachilari mamlakatning janubiy chegaralarini qo'riqlamoqda edi. Rossiyalik mutaxassislar Tojikiston qurolli kuchlari va chegarachilarini o'qitishdi.

Korrupsiya, o'ziga erk bergan harbiylarning bedodligi, eng asosiysi – xorijdagi harbiy bazalarga tayanib to'xtamasdan qarshilik ko'rsatayotgan muxolifat siyosiy barqarorlikka ham, iqtisodiy barqarorlikka ham erishishga yo'l qo'ymadi. Bu hol I.Rahmonovni **BMT, YXHT va Rossiya Federatsiyasi** ishtirokida **1994-yili** muzokaralarni boshlash va birlashgan muxolifat rahbari **S.A.Nuri** bilan urushni to'xtatish haqidagi bitimni imzolashga majbur etdi. Iqtisodiyotni tiklash dasturini amalga oshirishga imkoniyat paydo bo'ldi.

Bitim bir necha marta buzildi. Ammo muxolifatga Afg'onistondan yetkazilib turgan yordam susaydi, u yerdagi ittifoqchilarga toliblar zarba berdi. Bu urush **1997-yil**gacha davom etdi. *Unda 300 ming kishi halok bo'ldi va 100 ming kishi nom-nishonsiz yo'qoldi. Millionga yaqin aholi qo'shni mamlakatlarga ko'chib o'tdi. Ko'pgina qishloqlar, aholi istiqomat qiladigan joylar va korxonalar xarobaga aylandi. Moddiy zarar 7 mlrd dollarni tashkil etdi.* **1997-yili** Tojikistonda ishlab chiqarish hajmi urushdan oldingi ko'rsatkichning **28 foiz**ini tashkil etdi. Nihoyat, **1997-yili** muxolifat va uning qurolli kuchlari qonuniyligi tan olinib, uning vakillari koalitsion hukumat tarkibiga kiritilgach, siyosiy barqarorlikka erishildi. Siyosiy barqarorlik sari qo'yilgan bu muhim qadam Tojikistonga xalqaro tashkilotlardan **100 mln dollardan ortiq** kredit olishga va boy mamlakatlardan investitsiyalarni jalb qilishga imkon berdi. Bu tufayli iqtisodiyotning tiklanishi va yangilanishi, ish bilan ta'minlanishning kuchayishi va aholi ahvolining qisman yaxshilanishi boshlandi. **1998-yil**dan hukumat XVF va Jahon banki homiyligida qashshoqlikka qarshi kurash dasturini amalga oshirib kelmoqda. Mamlakat eng yaxshi jihozlarni olib kelish va investitsiyalarni jalb qilish maqsadida paxta, alyuminiy va boshqa qimmatbaho materiallarni eksport qiladi.

2000-yil fevralda Tojikistonda barcha partiyalar ishtirokida parlament saylovlari bo'lib o'tdi. I.Rahmonov saylangan parlament – Majlisi Oliyni **«Milliy totuvlik parlamenti»** deb atagan bo'lsa-da, YXHT kuzatuvchilari saylovga hukumat aralashgani haqida guvohlik berishdi. *Mutlaq ko'pchilik o'rin Xalq demokratik partiyasiga nasib etdi. 2-o'ringa SSSRni qayta tiklashga urinayotgan kompartiya chiqdi.*

Murosaga kelmaydigan islom muxolifati qurolli otryadlari mag'lubiyatga uchramoqda. Shunga qaramay, Tojikiston va Rossiya Federatsiyasining ko'p rahbarlari fikriga ko'ra, Rossiya qo'shinlarining olib ketilishi kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin edi.

Mamlakat hududida afg'onlardan yordam olayotgan va O'zbekiston hamda Qirg'izistonga bostirib kirayotgan islom aqidaparastlarining, giyohvand moddalar savdosi bilan shug'ullanuvchilarning baza va aloqa kommunikatsiyalari mavjud. Tojikiston hukumati Rossiya Federatsiyasi bilan yaqin ittifoq tuzishga tayanadi, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston bilan hamkorlik qiladi.

Hozirgi vaqtda Tojikiston agrar-industrial davlat bo'lib, dunyodagi eng kambag'al mamlakatlardan biridir. XVF hisobiga ko'ra, **63 foiz aholi** kambag'al yashaydi. Uzoq davom etgan urush iqtisodning tushkunligiga olib keldi. YIM **1995-yili 1991-yil**ga nisbatan **41 foiz**ni tashkil

etdi. *Qishloq xo'jaligida aholining 31, sanoatda 29, xizmat ko'rsatishda 40 foizi banddir.* **1 mln dan ortiq tojiklar** Rossiyada ishlaydilar. Ular **2005-yili** rasmiy ravishda **247 mln dollar** pulni Tojikistonga o'tkazdilar. Lekin bu pullar investitsiya qilinmay, kundalik talablarga ishlatiladi. **2005-yili** alyuminiy eksporti **550 mln dollar**ni tashkil etdi. Eksport importga nisbatan **250 mln dollar** kam. **2007-yili** YIM **3,353 mlrd dollar**ni tashkil etdi va aholi jon boshiga **522 dollar**dan to'g'ri keldi.

Tojikiston – MDH a'zosi, fuqarolik urushidan keyin ko'p mamlakatlar bilan hamkorlikni rivojlantirmoqda. Shanxay Hamkorlik Tashkilotida ishtirok etadi.

29.4. BOLTIQBO'YI RESPUBLIKALARI

Estoniya Respublikasi. Aholining **61,5 foiz**ini estonlar tashkil etgan Estoniyada vatanparvarlik harakati qo'shiqlarini guruhlarga birlashib ijro etish – **«kuylayotgan inqilob»**dan boshlandi. Atrof-muhitni, mamlakat fuqaroligini, tili va madaniyatini, shuningdek, respublika iqtisodiyotini himoya qilishga da'vat etuvchi chiqishlarning kuchayib borishi **1988-yili** Milliy frontning tashkil etilishiga olib keldi. **1988-yil noyabr**da Oliy Kengash Estoniya mustaqilligi to'g'risidagi deklaratsiyani qabul qildi va **Tallin** osmonida milliy bayroq hilpiray boshladi. Kelasi yil **yanvar**da eston tiliga davlat tili maqomini berish to'g'risida, **may**da esa iqtisodiy mustaqillik *to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi.*

1990-yil martda Oliy Kengash saylovlarida Milliy front va uning ittifoqchilari g'alabasi **Savisaar** boshchiligidagi koalitsion hukumat tuzilishiga olib keldi. Estoniyada joylashgan, SSSR hukumati tasarrufida bo'lgan korxonalarning **90 foizi** respublika boshqaruvi ostiga o'tdi. *Kuzda Estoniya Respublikasi mustaqilligini 60 dan ortiq davlatlar, jumladan, SSSR ham tan oldi.*

1996-yili L.Meri prezidentlikka qayta saylandi. Hokimiyatning mustahkamlanishi islohotlarni amalga oshirishga imkon yaratdi. Mulkni oldingi egalariga qaytarib berish to'g'risidagi qonunlar, eng asosiysi, davlat korxonalarini sotish (**64 foiz**) va unda ishlayotganlarga topshirish yo'li *bilan amalga oshirilgan xususiylashtirish yer, qurilishlar va korxonalarga* mulkchilikning kengayishida yordam berdi. Bu katta kuch va vaqtni talab qildi. Davlat o'z ixtiyoridagi mulkning **15 foiz**ini o'z ixtiyorida saqlab qoldi. Ammo iqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishi xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashdi.

1997-yildan investitsiyalar va yangi texnologiyalar oqimi ishlab chiqa-

rishning, xususan, elektronikaning o'sishini, mehnat unumdorligining ortishini jadallashtirdi. Estoniya aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi, ishlab chiqarishning yangilanish va o'sish sur'atlari, keyinchalik har bir fuqaro boshiga o'rtacha daromad ko'rsatkichlari bo'yicha XX asr oxiriga kelib mintaqadagi boshqa davlatlarni ortda qoldirdi.

Estoniya **Yevropa Ittifoqi** bilan shartnoma tuzib, iqtisodiyotni rivojlantirishning qisqa muddatli dasturini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ish olib bormoqda. U Yevropa Kengashiga qabul qilingach YXHT ishida faol ishtirok etmoqda va Rossiya Federatsiyasida imperiyachilik kayfiyati paydo bo'lishidan xavfsirab, o'z xavfsizligini **NATO**ga a'zo bo'lish orqali mustahkamlashga intilmoqda. Lekin mamlakat oldida qator muammolar turibdi. Ulardan biri milliy masaladir.

Hozirgi vaqtda Estoniya rivojlangan sanoat va qishloq xo'jaligiga ega. U xususiy xomashyo va yoqilg'i resurslaridan foydalanish hamda qulay iqtisodiy-geografik joylashuv hisobiga rivojlanmoqda. Mamlakatda iqtisod tezlik bilan liberallashtirilmoqda. Daromad solig'i yildan yilga kamaytirilmoqda va **2010-yil**ga borib **18%** bo'lishi mo'ljallanmoqda. **90-yillar**da Sharqiy Yevropada eng ko'p chet el investitsiyasini kiritgan davlat hisoblanadi. **2000 – 2007-yillari** yillik o'sish **9,9 foiz**ni tashkil etdi. YIMning **68 foizi** xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri keladi. YIM **23,93 mlrd dollar**, aholi jon boshiga **21860 dollar**ni tashkil etadi. Mamlakat Prezidenti **T.X.Ilves**.

Latviya Respublikasi. **1990-yil** arafasida mamlakat aholisining yarmidan xiyol ko'prog'ini latishlar tashkil etar va latish bo'lmaganlar (asosan, ruslar)ning atigi **19 foizi** latish tilini bilardi. *Mamlakatning SSSRga qo'shib olinishiga, ruslashtirish va aholi manfaatlariga mos kelmagan sanoatlashtirish siyosatiga qarshi chiqishlar Riga va boshqa shaharlarda 1985-yildan boshlandi.* **1988-yili** Xalq fronti Latviya suvereniteti uchun kurashayotgan turli tashkilot va harakatlarni birlashtirdi, ommaviylashdi.

1989-yili SSSR xalq deputatligiga, **1990-yili** respublika Oliy Sovetiga bo'lgan saylovlarda mamlakat mustaqilligi tarafdorlari bilan unga qarshi bo'lganlar o'rtasida keskin kurash ketdi va bunda mustaqillik tarafdorlari bo'lgan kuchlar g'alaba qildi. **May**da Oliy Sovet Latviyani mustaqil va suveren Latviya Respublikasi deb atadi va mamlakatda liberal-demokratik islohotlar boshlab yuborildi. **1991-yil mart**da bu tanlangan yo'l, sovet siyosiy arboblari va harbiylarning faol qarshiligiga qaramay, referendum qatnashchilarining **77,6 foizi** tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Prezidentlikka sovet hukumati tomonidan qatag'on qilinib, surgunda

vafot etgan Latviyaning urushdan oldingi prezidentining jiyani – **G.Ulmanis** saylandi. Ilgarigi boshqaruv tizimi va respublika qurolli kuchlari tiklandi. Hukumat latish madaniyatini rivojlantirish va latish tili monopoliyasini ta'minlash yo'lida bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. Latishlar talabi bilan sovet qo'shinlari **1994-yili** Rossiya Federatsiyasi tomonidan olib chiqib ketildi.

Uzoq muddat davomida **I.Godmanis** rahbarlik qilayotgan hukumat iqtisodiyotda bozor munosabatlarini joriy etishga intilayotgandi. Latviyada ishlab chiqarishning kamayishi sabablarini bu yerda inflyatsiyaning boshqa qo'shni mamlakatlarga nisbatan pastroq bo'lishi bilan izohlash mumkin edi. Ammo mamlakatda energiya manbalari va oziq-ovqat yetishmasdi. Rossiya Latviya bilan savdo-sotiqni cheklagandi, bu esa uni Shimoliy va G'arbiy Yevropadan sheriklar izlashga majbur etdi.

1993-yili milliy valyuta – **lat**ni joriy qilish va barqarorlashtirish uchun XVF va boshqa tashkilotlar kreditlari kerak bo'ldi. Latviya oziq-ovqatga muhtoj edi va uni xalqaro tashkilotlardan olayotgandi. Rossiya bilan savdo tranziti va investitsiyalar mamlakat uchun juda muhimligiga qaramay, ishlab chiqarish, eksport va import Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga qaratila boshlandi. XVF tavsiyalariga ko'ra, hukumat xarajat va daromadni qat'iy muvozanatga keltirdi, foyda keltirmaydigan korxonalarni yopishga harakat qilib, raqobatdosh korxonalarni qo'llab-quvvatladi.

90-yillar oxirida Rossiyadagi inqiroz sababli yuzaga kelgan qiyinchiliklarga qaramay, Latviyada ishlab chiqarish o'sishi barqaror edi va u aholi turmush darajasining ko'tarilishiga yordam berdi. Ayniqsa, kichik va o'rta korxonalarning soni tez o'sa bordi. Aholining ko'pchiligi bu bilan ham qoniqmagandi. Biroq **1999-yil**gi prezident saylovlarida muhojirlikdan qaytgan **V.Vike-Freyberg** nomzodini ko'rsatgan natsional-liberallarning g'alabasi siyosiy barqarorlikning mustahkamlanishiga yordam berdi.

Mustaqillik yillarida Latviyada chuqur iqtisodiy islohotlar o'tkazildi. Ko'p o'tmay yuqori natijalarga erishildi. **2007-yili** yillik o'sish **10,3 foiz**ni tashkil qildi. *2007-yil yakunlariga ko'ra, Latviya YIMning o'shishi jihatidan sobiq Ittifoq respublikalari bo'yicha Ozarbayjon va Armanistondan so'ng 3-o'ringa chiqdi.* U Jahon savdo tashkiloti a'zosi. YIM aholi jon boshiga **12,8 ming dollar**ni tashkil qilmoqda. **V.Zatlers** mamlakat prezidentidir.

Latviya Respublikasi o'zining Boltiqbo'yi qo'shnilari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda, **2004-yili** Yevropa Ittifoqiga kirdi, **YXHT**da ishtirok etmoqda va Rossiyaning imperiyachilik kayfiyatidan himoyalanish maqsadida **NATO**ga a'zo bo'ldi. Mamlakat parlamenti va hukumati Rossiya bilan iqtisodiy aloqalarni kengaytirish niyatida, ammo Rossiya Federat-

siyasining Latviyadagi rus millatiga mansub fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishga intilishi tufayli ikkala mamlakat o'rtasidagi munosabat murakkabligicha qolmoqda.

Litva Respublikasi. Litvada jamiyatning yangilanishi va ijtimoiy rivojlanishi uchun ommaning chiqishlari boshqa Boltiqbo'yi respublikalariga nisbatan kechroq faollashdi, ammo **1988-yil kuzi**dayoq **«Sayudis»** harakati paydo bo'ldi. Avvaliga u ijtimoiy faollikni oshirish to'g'risidagi talablar bilan cheklandi. Ammo **1989-yili** ommaviylashib, SSSR xalq deputatligiga bo'lgan saylovlarda ko'p ovoz oldi, bastakor **V.Landsbergis** rahbarligida mavjud tuzumni o'zgartirish va Litva mustaqilligini yoqlab chiqdi. Respublika Oliy Sovetida Sayudisning g'alabasi tufayli **1990-yili** mustaqil Litva davlati va uning SSSR tarkibidan chiqishi to'g'risida qonun qabul qilindi.

Sayudis qo'liga o'tgan hukumat mamlakat suverenitetini himoya qilib, **90 foizi** SSSR hukumati ixtiyorida bo'lgan sanoatni o'z qo'liga oldi va uni davlat tasarrufidan chiqarishni rejalashtirdi. Kolxoz (jamoa xo'jaligi) larni fermer xo'jaliklariga aylantirishga yo'naltirilgan yer to'g'risidagi qonun, mulk egalari huquqlarini tiklash to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Hukumatning bu yo'li mamlakatda paydo bo'lgan ko'pgina partiyalar va harakatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

1990-yil yanvarda sovet desantchilari mahalliy kommunistlar bir qismining yordami bilan qurol ishlatib va talafotlar ko'rib telemarkazni qo'lga oldi va **Vilnus**dagi asosiy nuqtalarni egallab olishga urindi. Ammo xalq chiqishlari bu mojaroni va Litva mustaqilligi dushmanlarining boshqa urinishlarini puchga chiqardi. **1990-yil 11-mart**da Litva mustaqilligi e'lon qilindi. **1991-yili** uni birinchi bo'lib **Islandiya** tan oldi. **Avgust**da Rossiya hukumati ham Litva mustaqilligini tan oldi. Moskvadagi **1991-yil**gi avgust fitnasi mag'lubiyatga uchragach, SSSR prezidenti ham shunday yo'l tutishga majbur bo'ldi.

1992-yili referendum yo'li bilan yangi hukumat tayyorlagan konstitutsiya qabul qilindi. Ijro etuvchi hokimiyat rahbari xalq tomonidan saylanadigan prezident va hukumat bo'ldi. Ilk prezident – sotsial-demokratik partiya yetakchisi **A.Brazauskas** ham, liberal-vatanparvar ruhdagi bir qator partiyalarni tashkil etgan Sayudis a'zolari ham, ko'pchilikni tashkil etgan hukumat ham asosiy e'tiborni xo'jalikni yangilash va rivojlantirish uchun ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratdi.

Litvada ilgari SSSRdan yetkazib beriladigan elektr energiyasi va xomashyo yetishmasdi. Rossiya bilan savdo va Kaliningrad tranziti to'g'risidagi bitim bu tanqislikni atigi biroz yumshatdi. **1989-yildan 1993-yilgacha**

ishlab chiqarishning **50 foiz**ga qisqarishi va yirik inflyatsiya aholi ahvolini yomonlashtirdi va xalq noroziligini keltirib chiqardi. Litva Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan savdo va moliyaviy-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga, xalqaro tashkilotlar va XVFdan kreditlar olishga majbur bo'ldi. Hozirgi paytda tashqi savdo mamlakat YIMning **2/3 qismi**ni tashkil etadi. Shuningdek, eksportning **50 foizi** Yevropa Ittifoqiga to'g'ri keladi.

1993-yili milliy valyuta – **lit** joriy qilindi. Uning barqarorlashuvi, asosan, **vaucher** (xususiylashtirish cheki) orqali korxonalarni xususiylashtirish va fermer xo'jaliklarini oyoqqa turg'izishga imkon berdi. **1994-yili** yerga xususiy mulkchilik asosida agrar munosabatlarni tartibga solish qoidalari belgilandi. **1996-yil**ga kelib davlat tasarrufida korxonalarning atigi **25 foizi**, ya'ni energetika va transport qolgandi. *Iqtisodiyotning barqarorlashuvi 80 ga yaqin mamlakatdan investitsiyani olib kirishga imkon berdi.* Bu ishlab chiqarish hajmi va samaradorligini oshirishni ta'minladi, ammo xalq ommasining turmush darajasi unchalik ko'tarilgani yo'q.

90-yillar oxiriga kelib ijtimoiy muammolarga yetarlicha e'tibor qaratmagan, ma'muriy-xo'jalik xatoliklariga yo'l qo'ygan va korrupsiyaga qarshilik ko'rsatishni eplolmagan **G.Vagnorus** hukumati aholining noroziligiga sabab bo'ldi. Umumxalq ovozi bilan saylangan yangi prezident **V.Adamkus 1999-yili** (*2004-yili qayta saylandi*) oldingi hukumat yo'l qo'ygan xatoliklarga barham beruvchi yangi hukumatni xristian-konservatorlardan iborat qilib tuzdi. Yangi hukumat ham mamlakatda narx-navoning o'sishini to'xtatolmadi, ammo korxonalarni xususiylashtirishni tezlashtirdi va kengaytirdi. Lekin iqtisodiy qiyinchiliklar bartaraf qilinmadi.

Litva Boltiqbo'yidagi qo'shnilari, Polsha va Belorussiya hamda Rossiya bilan yaqin aloqalarni rivojlantirmoqda. Ammo uning uchun Yevropaning boshqa mamlakatlari, YI bilan savdo va moliyaviy-iqtisodiy hamkorlik muhimroq ahamiyatga ega bo'ldi. Litva eksportining **50 foizi** YIga to'g'ri keladi.

2004-yil 1-mayda Litva **Yevropa Ittifoqi** va **NATO**ga a'zo bo'ldi. Litva iqtisodida sanoat korxonalarini xususiy shaxslarga sotish katta rol o'ynadi. **1996 – 1999-yillari 1000 dan ortiq** korxona sotildi. Tashqi savdoda oldin Rossiya asosiy rol o'ynagan bo'lsa, **2002-yil**dan Yevropa Ittifoqi davlatlari 1-o'ringa chiqdi. **2003-yili** YIM **40,8 mlrd dollar**ga yetdi, aholi jon boshiga **11,4 ming dollar**ni tashkil etdi. *Sanoatning to'qimachilik, asbobsozlik, neftni qayta ishlash turlari rivojlanmoqda.*

30-BOB. XX ASR – XXI ASR BOSHLARIDA FAN VA MADANIYAT TARAQQIYOTI

30.1. FAN VA MADANIYAT

Ilmiy-texnika inqilobi. Fan va texnika doimo taraqqiy etib keldi. Biroq bu taraqqiyot XX asrdan misli ko'rilmagan darajada o'sib ketdi. Shu tufayli adabiyotlarda **ilmiy-texnika inqilobi** (ITI) iborasi ishlatila boshlandi. *Ilmiy-texnika inqilobi – bu XX asrda fan va texnikada ro'y bergan olamshumul kashfiyotlar tufayli fanning bevosita jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchiga aylangani.* Bu hodisa ITI mohiyatini tashkil etadi. ITI fan bilan texnikaning, fan bilan ishlab chiqarishning chatishib ketishiga olib keldi. Bu chatishuv kashfiyotlarning ishlab chiqarishga joriy etilish muddati qisqarishini ta'minladi.

Ishlab chiqarish kompleks avtomatlashtirildi. *1946-yili amerikalik olimlar J.Mashli va J.Ekkert birinchi kompyuterni yaratdilar.* Tez orada kompyuter tizimlari bilan boshqariladigan texnologiya joriy etildi. ITI ishlab chiqarishga mutlaqo yangi texnologiyaning (chunonchi, materialga lazer, gaz plazmasi, elektron-nur, ultratovush yordamida ishlov berish) joriy etilishiga olib keldi. ITI, ayni paytda, axborot industriyasining yaratilishiga ham olib keldi. Bu esa fan-texnika taraqqiyotini yanada jadallashtirishning qudratli omiliga aylandi.

ITI kompyuterlarning mutlaqo yangi avlodlari yaratilgani bilan ham ajralib turadi. Bugungi kompyuter ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalarini qamrab oldi. ITI ilmiy bilimlar jamg'arilishining misli ko'rilmagan sur'atini ta'minladi. *Masalan, XX asr boshlarida kimyo bo'yicha millionta yangi ma'lumot 30 yildan ortiq vaqt ichida to'plangan bo'lsa, hozir shuncha ma'lumot to'plash uchun 4 yil kifoya bo'lmoqda.*

Hukumat va xususiy ishlab chiqaruvchilar korxona ishchi va xizmatchilarining yuqori malakalarini saqlab qolishdan eng ko'p darajada manfaatdordir. Shu bois AQShda bir ishchining qayta tayyorlovdan o'tishiga, o'z malakasini yanada oshirishiga bir yilda sarflanadigan xarajat **400 ming dollar**ni tashkil etishi bejiz emas. Ishchiga ta'lim berishga sarflanadigan har **35 ming dollar 965 ming dollar** foyda ham keltirmoqda.

Fan – ITI asosi. Ilmiy-texnika inqilobining asosini, birinchi navbatda, **fizika fani** tashkil etdi. XX asrda fizika fanida olamshumul kashfiyotlar amalga oshirildi. *Chunonchi, 1919-yili tarixda ilk bor atom yadrosini parchalash, ikkinchi jahon urushi arafasida esa uran atomlarining bo'linishi zanjir reaksiyasi kashf etildi.*

1942-yildan AQShda yadro energiyasi olina boshlandi. Bu kashfiyotlar oxir-oqibatda atom bombasining yaratilishiga olib keldi. Shu tariqa yaxshilik yo'lidagi barcha kashfiyotlar muallifi – inson dunyodagi barcha tirik mavjudotlarni, shu jumladan, o'zini ham qirib yuborishga qodir qurol yaratdi (***bu qurol 1945-yili ishlatildi ham***).

Elektr magnit to'lqinlar fizikasining yaratilishi 20-yillarda televideniyening, 30-yillarda radiolokatsiyaning, 40-yillarda radioastronomiyaning, 50-yillarda kvant elektronikasining tug'ilishiga olib keldi. Kvant elektronikasi esa, o'z navbatida, kosmik aloqani zarur kuchaytirgichlar bilan ta'minlovchi asbob kashf etilishini voqelikka aylantirdi. Shuningdek, lazerning kashf etilishini ta'minladi. Radioelektronika sohasida erishilgan muvaffaqiyatlar esa **40-yillar**dayoq AQShda dastlabki **elektron hisoblash mashina**lari (EHM) yaratilishiga imkon berdi.

1957-yili sobiq SSSRda Yerning birinchi sun'iy yo'ldoshi uchirildi. 1960-yili Toman Neyman birinchi lazer qurilmasini yaratdi. 1961-yili jahonda birinchi bo'lib sobiq SSSR fuqarosi Y.A.Gagarin raketada kosmosga parvoz qildi. Ayni paytda, kosmonavtikaning xalq xo'jaligiga xizmat qilishiga imkon yaratildi. 1969-yili Nil Armstrong (AQSh fuqarosi) Oyga qadam qo'yishga erishdi.

Fizika fani yutuqlari transport texnikasini ham tubdan o'zgartirdi. Chunonchi, reaktiv dvigatelning samolyotga o'rnatilishi samolyotning tovush to'sig'ini yengib o'tishi muammosini hal etdi. Endi samolyotlar har qanday yuklarni minglab kilometr masofaga tashiy boshladi. **0,5 mln tonna** neft sig'adigan okean tankerlari yaratildi.

Kimyo fani taraqqiyotisiz ham ITI yuz bermasdi. Bu fan kashfiyotlari o'ta toza va o'ta qattiq, po'latdek pishiq, ayni paytda, undan **7 – 8 baravar yengil** moddalar olishga imkon berdi, plastmassa, kauchuk, sintetik tolalar, dori-darmon yaratish mumkin bo'ldi.

Biologiyada ham mislsiz kashfiyotlar amalga oshirildi. **XX asr o'rtalari**ga kelganda **genetika** yetakchi sohaga aylandi. Nuklein kislotalarning tuzilishi kashf etildi. Uning oqsil sintezidagi roli ham aniqlandi.

90-yillarda yangi fan – **gen injeneriyasi** (irsiyat muhandisligi) vujudga keldi. U katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Natijada vitaminlar, antibiotiklar va o'g'it hosil qilishga yordam beruvchi mikroorganizmlar yaratildi. Hayvonlarning zotli naslini urchitish, kasalliklarga chidamli o'simlik navlarini yaratish mumkin bo'ldi.

Biologik va biokimyoviy kashfiyotlar tibbiyotning reanimatologiya, anesteziologiya va immunologiya kabi yangi muhim tarmoqlarini vujudga keltirdi. Jarrohlik mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Bu hodisa inson ta-

nasining dastlab buyrak, so'ng yurak, o'pka va boshqa a'zolarini ko'chirib o'tkazishda o'z ifodasini topdi. Tibbiyotda sun'iy yurak yaratishga erishildi.

Davolashning jarrohsiz usullari kashf etildi. Bugungi kunda buyrakdagi tosh ultratovush zarblari bilan maydalanmoqda. Insonning ko'rish qobiliyati lazer yordamida tiklanmoqda. Yadroviy magnit tebranishlariga asoslangan kompyuter tomograflari yordamida bemorlarga tashxis qo'yilmoqda. Lekin ITI insoniyat oldiga o'tkir muammolarni ham qo'ymoqda. Tuproq, suv va havo zararlanmoqda. Atom tufayli ekologik falokat mintaqalari ko'paymoqda.

20 – 40-yillar adabiyoti. Birinchi jahon urushi va uning dahshatli oqibatlari tushkunlik kayfiyatini ham tug'dirdi. Bu hol **20-yillar** adabiyotida o'z ifodasini topdi ham. *Dekadentlarning asarlari yoki umidsizlik ruhi bilan sug'orilgan, yo bo'lmasa, kitobxonni real voqelikdan, zamonning o'tkir masalalaridan butunlay uzoqlashib ketgan xayoliy olamga chorlaydigan asarlar paydo bo'ldi.* Bunday asarlar kishilarni davr bilan hamnafas bo'lishdan chalg'itadi. Avstriya yozuvchisi **Frans Kafka (1883 – 1924)** dekadentlikning tipik namoyandasi edi. Biroq tushkunlikka tushgan inson hayotdan butunlay voz kechgan emas. Hatto urushda majruh bo'lgan va jirkanch jamiyatdan yuz o'girgan jangchi ham o'z insoniy qadr-qimmatini qanday bo'lmasin saqlab qolishga intilgan. Chunonchi, nemis yozuvchisi **E.Remark (1898 – 1970)**ning **«Uch o'rtoq» romani** qahramonlari najot yo'lini frontdagi do'stlikka sadoqatdan izlaganlar. **Anri Barbus (1873 – 1935)**ning ajoyib asari **«O't. Bir vzvodning kundaligi»** Birinchi jahon urushi okoplarida yozilgandi. Bu roman urush dahshatlarini tasvirlabgina qolmay, odamlar urushni qanday yengganliklari haqida ham hikoya qiladi.

Ingliz yozuvchisi R.Oldingtonning «Hamma odamlar – dushman» asari qahramoni bu bema'ni dunyodan voz kechib, o'zi sevgan ayol bilan xayoliy Ea orolida yashirinib bo'lsa-da hayot kechirish orzusi bilan yashagan.

20-yillardagi tushkunlik kayfiyati **E.Xemingue**ydek **(1899 – 1961)** shijoatli yozuvchini ham chetlab o'tmagan. U ham umidsizlikka tushgan. Shu yillardagi asarlarining qahramonlarini o'sha davr adovatli dunyosidan qutulish yo'lini behuda izlayotgan kishilar obrazi tashkil etgan.

Biroq ijoddagi tushkunlik kayfiyati uzoq davom etmagan. Yevropada fashizmning chuqur ildiz otishi, uning yangi jahon urushi manbayiga aylanishi mumkinligi taraqqiyparvar yozuvchilar ijodini bu xavfning oldini olish haqida bong urishga qaratgan. Bu borada ham yuqorida nomlari qayd etilgan uch mashhur yozuvchining asarlari muhim rol o'ynagan. Ular fashizm insoniyatni yangi qirg'inbarot urush girdobiga tortishi mumkinligini oldindan sezganlar.

1929-yili R.Oldingtonning «Qahramonning o'limi», E.Remarkning «G'arbiy frontda o'zgarish yo'q», E.Xemingueyning «Alvido, qurol» romanlari chop etilgan. Bu romanlar tez orada shuhrat qozongan. Mualliflar urushning qonli va g'ayriinsoniy mohiyatini zo'r mahorat bilan tasvirlaganlar. Ayni paytda, hukmron doiralarning muttahamligi, ikkiyuzlamachiligini fosh etganlar. **Romen Rollan (1866 – 1944)**ning **«Maftun bo'lgan qalb»** romanida fashizmning haqiqiy basharasi ochib tashlangan.

1935-yili Parijda dunyo yozuvchilarining madaniyatni himoya qilishga bag'ishlangan butun jahon birinchi kongressi o'tkazildi. Ikkinchi kongress **1937-yili** fashizmga qarshi kurashayotgan Ispaniyada o'tkazildi.

30-yillar adabiyoti jamiyatning chirkin illatlarini fosh etishi bilan ham xarakterlanadi. Bu o'rinda Amerika yozuvchisi **J.Steynbek (1902 – 1968)**ning **1939-yili** nashr etilgan **«G'azab shingillari»** romani katta shuhrat qozondi. Jahon iqtisodiy inqirozi amerika jamiyatining barcha salbiy tomonlarini ochib tashladi. J.Steynbek xalqning yirik kompaniyalar tomonidan talanishini, boylar va kambag'allarni ajratgan tubsiz jarlikni, inqiroz titratgan amerika jamiyatining barcha tabaqalari vakillariga xos xarakterlarni zo'r mahorat bilan tasvirlagan. J.Steynbek romanining **1962-yili** Nobel mukofotiga sazovor bo'lgani bejizmas.

Fashizmning vahshiyligini birinchi bo'lib ispan xalqi o'z achchiq tajribasida sinab ko'rdi. XX asrning mashhur dramaturgi **Bertold Brext (1898 – 1956) «Kuraj momo va uning farzandlari»** pyesasida (**1938**) fashizm manbalarini ochib berdi va munofiqlik falsafasini fosh qildi. Fashistlar Brext kitoblarini yondirib tashladi. O'zi chet ellarga muhojirlikka ketdi.

Jahonning mashhur yozuvchilari fashizmga qarshi kurashganlar haqida asarlar bitdilar. Shulardan biri **E.Xeminguey** edi. U Ispaniya fojiasini tinchlik va demokratiya uchun kurashning boshlanishi deb bilgan. Uning ispan xalqining fashizmga qarshi mardonavor kurashiga bag'ishlangan romani **«Qo'ng'iroq kimning motamini kuylayotir»** deb ataladi. Bu roman **1940-yili** nashr etildi. Roman fashizmga qarshi jang qilish uchun Ispaniyaga ko'ngilli bo'lib jo'nab ketgan yosh amerikalik fuqarolar haqida ham hikoya qiladi. AQSh rasmiy hukumati Ispaniya voqealariga aralashmasdan chetda turgan bir paytda bu yoshlarning Ispaniyaga borishi va antifashist kuchlar safida fashizmga qarshi kurashi katta jasorat edi.

Ispaniya urushining o'ziga xos bir jihati unda taraqqiyparvar ziyolilarning ham ishtirok etganida edi. Ular Ispaniya misolida fashizmning mohiyatini anglab yetdilar.

Italiya va Germaniyada fashizmning g'alabasiga ayrim yozuvchilar bardosh berolmadilar. Chunonchi, mashhur yozuvchi **Stefan Sveyg**

(1881 – 1942) o'z joniga qasd qildi. Lekin hamma ham bu yo'lni tanlamagan. Aksincha, ular ishonchni yo'qotmasdan fashizmga qarshi kurashchilar safiga qo'shilganlar. Ular uchun fashizmga qarshi kurash Yevropa madaniyatini saqlab qolish vositasi edi. Ozodlik, insonparvarlik va demokratiyaga intilish esa ular hayoti va ijodining ma'nosiga aylandi.

Demokratiya, tinchlik va ozodlik uchun kurash. Bu borada ingliz yozuvchisi **B.Shou (1856 – 1950)** ijodi alohida o'rin tutadi. U *«Faqat hayotning o'zi va insonning yalpi farovonlikka erishishi uchun yashasa arziydi»* degan iborani hayotiy shior qilib olgandi. Yozuvchi **«Jizzaki sotsialist», «Noteng nikoh», «Qalblar parchalanadigan uy»** kabi asarlari bilan **ijtimoiy drama janri**ga asos soldi. Bu asarlar **B.Shou**ni jahon adabiyoti klassigi darajasiga ko'tardi. **1925-yili** adabiyot sohasida xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Keyinchalik yozgan **«Olma ortilgan arava», «Bayantning millionlari»** asarlari ham jahon adabiyoti durdonasiga aylandi. **1948-yili** yozilgan **«Olis kelajak haqida rivoyat»** asarida B.Shou atom urushini qoralagandi.

Yana bir mashhur ingliz yozuvchisi **J.Golsuorsi (1865 – 1933) «Bu kunning komediyasi»** asarida o'sha davr Angliyasini **«munofiqlar oroli»** deb atagan. Hukmron doiralarning ikkiyuzlamachiligini, jamiyatdagi ijtimoiy illatlarni fosh etgan. J.Golsuors **1932-yili** xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

Asarlari dunyoga mashhur adiblar orasida amerikalik yozuvchilar ham bor edi. Ular ichida **T.Drayzer (1871 – 1945)** va **U.Folkner (1897 – 1962)** ijodi alohida tahsinga loyiq. T.Drayzer o'z asarlarida (*«Baxtiqaro Kerri», «Amerika fojiasi» va boshqalar*) AQShning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini ko'tarib chiqishga jur'at etdi. **1930-yili** «Amerika fojiasi» romani ekranlashtirildi. *T.Drayzer 1944-yili AQSh san'at va adabiyot akademiyasi tomonidan faxriy oltin medal bilan taqdirlandi. Ushbu mukofot bilan taqdirlangani haqida muallifga yuborilgan xatda, jumladan, muallif haqiqiy Amerikani tasvirlashdagi jasorati va to'g'riso'zligi uchun mukofotlangani qayd etilgandi.*

U.Folkner o'z asarlarida qishloq hayotini aks ettirdi. U qishloqda inson qalbi uchun barcha zarur xislatlar mavjudligini ilg'agandi. Ayni paytda, mamlakat taraqqiyotining tabiiy omillari shaxs, oila, vatan va jamiyat ekanini teran his etdi. U.Folknerga chinakam shuhrat keltirgan asar **«Sartoris»** romani **(1929)** bo'ldi. *1932-yili nashr etilgan «Avgustdagi nur» romanida Amerika ijtimoiy hayotidagi eng jirkanch muammo – irqiy kamsitish muammosini ko'tarib chiqdi.* Uning keyinchalik yaratgan romanlarida ham **(«Avessalom! Avessalo!» «Bo'ysunmaganlar», «Tushgin, Moi-**

sey») bu mavzuni davom ettirdi. Odamlarning ichki dunyosi va hayotini mayib qilayotgan jamiyatni fosh etdi. Irqiy mutaassiblik qurbonlariga esa hamdardlik bildirdi. Adolat g'oyalari g'alaba qozonishiga ishonch bilan qaradi. Uning keyingi asarlarida (**«Qishloqcha»**, **«Shahar»**, **«Qo'rg'on»**) ham insonparvarlik va rahmdillik g'oyalari ruhi barq urib turadi. U.Folkner **1949-yili** Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.

Nemis yozuvchisi **Tomas Man (1875 – 1955)**ning **«Doktor Faustus»** (**1947**) romanida natsistlar hukmronligi ostida qolgan Germaniyaning fojiali qismati uchun nemis ziyolilari qanchalik javobgar ekani ko'rsatib beriladi.

Nemis faylasufi **O.Shpengler (1880 – 1936)** **«Yevropaning zavoli»** degan kitobida insoniyat taqdiri inson organizmi singari bolalik, yigitlik, yetuklik hamda keksalik bosqichlarini bosib o'tuvchi sivilizatsiyalarning almashinuvidan iborat degan g'oyani ilgari surgan. U keksalikdan so'ng o'lim kelishiga ishora qilib, Yevropa keksalik davriga yetib keldi, binobarin, uning o'limi yaqinlashmoqda deyishgacha borib yetdi. Fikrini davom ettirib Yevropani o'limdan «kuchli shaxs» qutqarib qolishi mumkin deb hisoblagan. U insonparvarlik va demokratiyani sivilizatsiyaning quyqalari deb atagan.

Ingliz publitsisti **T.Eliot (1888 – 1965)** dekadent ziyolilar davrasida juda mashhur bo'lib ketgandi. *U ommani olomon, bilimsiz demokratiya deb atagan.* Alohida olingan shaxsga ham ishonchsizlik bilan qaragan, jamiyatni va sivilizatsiyani esa samarasiz deb hisoblagan. U sivilizatsiyani qutqarib qoluvchi kuch sifatida goh ingliz mustamlakachiligini, goh katoliklikni olqishlaydi. O'lim va mangulik, hayot mohiyati mavzularini metafizik nuqtayi nazardan tasvirladi.

SSSRda yangi jamiyat – «sotsializm» jamiyatining asosiy himoyachilaridan biri **M.Gorkiy (1868 – 1936)** yangi **«sotsialistik realizm»** iborasini o'ylab topdi. *Bu ibora asosida «davrning vijdoni» kommunistik partiya, uning rahbariyatini ko'klarga ko'tarib maqtash, kommunistik jamiyatni mutlaqlashtirish, uni eng adolatli jamiyat deb hisoblash, kommunizm g'oyalariga sodiq bo'lgan yangi insonni shakllantirish, sovet xalqi ongida kommunizmning muqarrar qaror topishiga cheksiz ishonchni qaror toptirish yotardi.*

Rossiyada **1917-yil**gi oktyabr to'ntarishidan so'ng qaror topgan bolsheviklar hokimiyatining o'zboshimchaligi, hech qanday milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tan olmasligi ziyolilar o'rtasida keskin norozilikni keltirib chiqardi. *Davlat to'ntarishining dastlabki yillaridayoq 75 mingdan ortiq atoqli adib, san'atkor, olimlar Rossiyani tark etdilar.*

Mavjud tuzumni tanqid qilganlar, kommunistik partiya va sovet davlati rahbarlarining g'ayriinsoniy siyosatiga qarshi fikr bildirganlar qatag'on qilindi. Ularning barchasiga bir xil – *«sotsializmga tuhmat qildi»* degan ayb qo'yildi. Kommunistik partiya o'zi e'lon qilgan **«madaniy inqilob»** natijasida yangi jamiyat ziyolilarini shakllantirdi ham. Chunki adabiyot va san'atsiz kommunistik mafkurani omma ongiga singdirib bo'lmasligini kommunistik partiya arboblari ham yaxshi tushunardilar.

Shunday bo'lsa-da, Rossiyada qalbi buyurmagan asarlar yozishdan o'zini tiyolgan adiblar ham ijod qilgan. Ular orasida **M.Sholoxov (1905 – 1984)** alohida o'rin tutadi. Uning **«Tinch Don» (1928), «Ochilgan qo'riq» (1932)** romanlari dunyoda shuhrat qozondi. Bu asarlarda inqilob hamda kollektivlashtirish davri ziddiyatlari, inson fojialari haqqoniy tasvirlangandi. M.Sholoxovning «Tinch Don» romani **1965-yili** Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

40-yillar sovet adabiyotida urush mavzusi bosh mavzuga aylandi. Bu mavzuda qalam tebratgan mashhur adiblar **K.Simonov, V.Surkov, B.Polevoy** va **A.Safronov** kabilar o'z asarlari bilan xalqda fashizm ustidan g'alabaga ishonch tuyg'ularini qaror toptirishga munosib hissa qo'shdilar.

XX asr 2-yarmi adabiyoti. Ikkinchi jahon urushidan so'ng boshlangan «sovuq urush» badiiy ijodga ham ta'sir etmay qolmadi. Bu ijodning g'oyaviylik tomoni badiiylikdan ustun kela boshlashida o'z ifodasini topdi. Mazkur davr badiiy madaniyatida **neorealizm** (yangi realizm) oqimi paydo bo'ldi. U adabiyotda ham o'z ifodasini topdi. *Neorealizm o'z oldiga «bo'yab-bezalmagan», haqiqiy hayotni ko'rsatishga intiluvchi oqim edi.* Neorealistlar (adabiyotda ham, tasviriy san'atda ham) tomoshabin yoki o'quvchi ko'z o'ngida qashshoqlikda hayot kechiruvchi insonlarning butun hayotiy kechinmalarini haqqoniy tasvirlab berdilar. Asarlarida ijtimoiy adolat uchun kurashni aks ettirishni o'zlarining burchi deb bildilar. O'z asarlari qahramonlariga samimiy muhabbatlarini izhor etoldilar.

Ulardan so'ng nemis adabiyotining asosiy mavzusi Ikkinchi jahon urushi bo'ldi. Fashistlar targ'ibotiga aldangan, ma'naviy va jismoniy ezilgan avlod taqdiri taraqqiyparvar adiblar ijodini chetlab o'tmagan. Adib **X.Byoll** va haykaltarosh **F.Kremer** urush yillaridagi konslager o'rnida kompozitsiya bunyod etdilar. Kompozitsiyada mahbuslarning ruhiy holati, tug'yoni va kuchi haqqoniy aks ettirildi.

«Kichkina» insonda insonparvarlik qarashlari boshlanishining tantanasi **E.Xeminguey** ijodida bosh mavzu bo'ldi. Uning bu mavzuga bag'ishlangan **«Chol va dengiz» (1952)** qissasi XX asr 2-yarmi badiiy

adabiyotining yuksak namunasi bo'ldi. Bu asar Nobel mukofotiga loyiq ko'rildi.

Bu davr sovet adabiyotida dissidentlik ham kuchaydi. **B.Pasternak, A.Soljenitsin** mazkur adabiyotning yirik vakillari edi. Ular o'z asarlarida xalqqa sovet tuzumining haqiqiy mohiyatini yetkazishga o'zlarida jasorat topdilar. Bu o'rinda A.Soljenitsinning **«GULAG arxipelagi»** asari keng shuhrat qozondi. Bu asar **1973-yili** chet ellarda chop etilgandi. Sovet davlati rahbariyati **A.Soljenitsin**ni mavjud tuzumga bo'hton qilganlikda aybladi va uni **1974-yili** SSSRdan chiqarib yubordi.

Bu davr adabiyotiga Lotin Amerikasi adiblari ham munosib hissa qo'shdilar. Ular Lotin Amerikasi davlatlari hayotidagi illatlarni haqqoniy tasvirladilar. Chunonchi, **J.Amadu (Braziliya), M.Asuel (Meksika), G.Markes (Kolumbiya)** kabi adiblar o'z asarlarida tub yerli aholining fojiali taqdirini, monopoliyalarning zo'ravonligini, diktatorlik tartiblarining yovuzliklarini, dehqonlarning yer uchun kurashlarini badiiy bo'yoqlarda va haqqoniy ko'rsatib bergandilar.

Bir so'z bilan aytganda, taraqqiyparvar adabiyot bugungi kunda ham ezgulikka xizmat qilmoqda. **2002-yili** venger yozuvchisi **Imre Kertes (1929)**ning xalqaro Nobel mukofoti bilan taqdirlangani bu fikrning dalilidir. I.Kertesning bunday yuksak mukofotga munosib topilgan asarlari (**«Angliya bayrog'i», «Izquvar»**) Ikkinchi jahon urushida jahannam fabrikalari – konslagerlardagi tutqunlar taqdiri haqida hikoya qiladi. *Muallifning o'zi ham 1944-yili konslagerga tashlangan, u fashizmning qay darajada vahshiy ekanini ikki yil o'z ko'zi bilan ko'rgan, Osvensim va Buxenvald konslagerlarida 60 ming nafar vengriyalik yahudiylarning o'ldirilishiga guvoh bo'lgan.*

She'riyat. XX asr she'riyati unga faylasuf shoirlar kirib kelgani bilan ajralib turadi. Faylasuf shoirlar she'riyat muxlislarini inson hayotining ma'nosi hamda inson mavjudligining asosiy qadriyatlari haqida chuqur mushohada qilishga undashdi. Ular urushlar va ijtimoiy inqirozlar davrida ham insonlarni go'zallik bilan oshno etdilar. Ularda kelajakka ishonch ruhini rag'batlantirdilar.

Taraqqiyparvar shoirlar tinchlikni, ozodlikni, taraqqiyot va demokratiyani kuyladilar. Ular ichida, ayniqsa, nemis shoiri **B.Brext (1898 – 1956)** va ispan shoiri **F.Lorka (1898 – 1936)** she'rlari katta shuhrat qozondi. B.Brext ijodining asosini she'riy pyesalar tashkil etgan. *B.Brext she'riyati dunyoni yangilash uchun kurashda o'ziga xos jangovar chaqiriq vazifasini o'tadi deyish mumkin.* Uning she'rlari taraqqiyparvar kuchlarni fashizm va diktaturaga qarshi kurashga chorlagan, oddiy mehnat ahliga muhabbat

ruhi bilan sug'orilgandi. U yaratgan **«Uch kunlik opera»**, **«Galileyning hayoti»** va **«Sichuanlik muruvvatpesha»** kabi asarlar katta shuhrat qozondi. Ularda hayotning ma'nosi, oila, burch, muhabbat va inson qadr-qimmati haqida chuqur falsafiy fikrlar ilgari surildi. Ayni paytda, hukmron doiralarning axloqsizligi fosh etildi. Insonparvarlik ulug'landi. Urushga qarshi kurashga da'vat etdi. F.Lorka ispan fashizmiga qarshi kurashganlar safida bo'ldi. **1936-yili** u fashistlar tomonidan o'ldirildi.

1917-yilgi to'ntarishdan so'ng Rossiyada ijodkor ziyolilar nihoyatda qiyin ahvolga tushib qoldilar. Ularning bir qismi chet ellarga ketishga majbur bo'ldi. Vatanida qolganlar esa vijdonlariga qarshi ish tutmaganlar. Ya'ni ular g'ayriinsoniy jamiyatni – sovet jamiyatini, uning rahnamosi – bolsheviklar partiyasini tarannum etmaganlar. Ular orasida **A.Axmatova (1889 – 1966), N.Gumilyov (1886 – 1921), S.Yesenin (1895 – 1925), A.Blok (1880 – 1921), O.Mendelshtam (1891 – 1938)** va boshqalar, ayniqsa, mashhur edilar. Ularning hayoti og'ir kechdi. N.Gumilyev **1921-yili** otib tashlandi. S.Yesenin o'z joniga qasd qildi. **O.Mendelshtam 1938-yili** otib o'ldirildi. Ommaviy qatag'onlarga qaramay, rus adabiyoti totalitar tuzum sharoitida ham yashab qolishning uddasidan chiqdi. Uning shuhratini dunyoga taratishga ham erishdi.

Taniqli Chili shoiri Pablo Neruda (1904 – 1973)ning «Ispaniya mening yuragimda», I.Bexerning «Asr o'rtasidagi qadam», fransuz shoiri Jak Prever (1900 – 1977)ning satirik va lirik she'rlari, shuningdek, R.Hamzatov, Q.Quliyev, Ye.Yevtushenko, A.Oripov, E.Vohidov, V.Visotskiy, Abdurahmon al-Homisiy va boshqalarning she'rlari insoniyatni olg'a chorlab, yashashga ishtiyoq uyg'otishga, vatanni sevishga xizmat qilmoqda.

Osiyolik yozuvchilardan **Lu Sin (1896 – 1981)** xitoy realistik adabiyoti asoschilaridan biri edi. **Mao Dun (1896 – 1981), Ba Izin «So'nggi quyosh», «O'ychanlik», Li Sun Bao «Tog'lar orasida o'n to'qqiz mozor»** asarlari bilan tanildi. Hindistonlik **Yashpal (1903 – 1976)**ning **«Yolg'on haqiqat», «Divya»** romanlari, turkiyalik **Nozim Hikmat**ning ajoyib she'rlari, **Aziz Nesin**ning achchiq satiralari, afrikalik shoir va davlat arbobi **A.Neto**ning ozodlikka undovchi she'rlari, **Piter Abraxams**ning **«Tun hukmronligida»** asari, Chili shoiri **Pablo Neruda**, braziliyalik yozuvchi **Jorji Amadu** asarlari dunyo xalqlari tomonidan sevib o'qilmoqda.

Tasviriy san'at. **XX asr 2-yarmi**da G'arb tasviriy san'atida **syurrealizm oqimi** paydo bo'ldi. *Bunga hamma qatori o'z farzandlarini sevuvchi, klassik musiqani qadrlovchi, o'z vataniga, burchiga sodiq, odam qiyofasidagi odam, biroq insoniyat aqliga sig'maydigan vahshiyona jinoyatlar sodir etgan fashistlar kirdikorlari fosh etilgani sabab bo'ldi.* Syurrealistlar

tashqi ko'rinish, tashqi qiyofa, tashqi dunyo ichki dunyo bilan mutanosib emas, u ichki dunyoni boricha aks ettirolmaydi deb hisoblardilar. Shu tariqa ular realizmdan ham ustunroq, o'ta realizmni – syurrealizmni yaratdilar.

Syurrealistlar fikricha, o'ta realizm bizni o'rab turgan real dunyo bilan mos emas. Oliy reallik (o'ta reallik) insonlardan yashirinib turadi. Uni aql-idrok bilan anglab bo'lmaydi. Ularning fikricha, rassomlar instinktlarga, tushlarga erk berishlari kerak edi. Syurrealizmning kubistik yo'nalishidagi namoyandalari **Pablo Pikasso (1881 – 1873), Mark Shogal (1899 – 1995), Salvador Dali (1904 – 1989)** va boshqalar edi.

Aslida, syurrealizm real voqelikdan uzilib qolish edi. Syurrealizmning ko'rinishlaridan biri – **abstraksionizm** (mavhumlik – noma'lumlik, uzoqlashish) real voqelikdan uzilib qolishda syurrealizmdan ham o'tib ketdi. Bu oqim tarafdorlari fikricha, tasviriy san'at voqelikni emas, balki rassom ongining holatini ifodalashi, rassom his-tuyg'ularining in'ikosi bo'lishi kerak edi. Abstraksionistlar ijodida (*Ch.Novard, S.Devis, Retner, Morris va boshqalar*) his-tuyg'u, xayol borliqdan uzilgan chiziqlar, geometrik shakllarda namoyon etilgan. Ularda mazmun va shakl bir-biriga singib ketib, an'anaviy tushunchadagi mazmun va shakl o'z mohiyatini yo'qotgan.

Kino san'ati. XX asrning eng mashhur rejissyori va aktyori **Charlz Spenser Chaplin (1899 – 1977)** ijodi jahon kinosi tarixida tanqidiy realizmning porloq sahifasidir. U **«Ulkan shahar chiroqlari», «Yangi zamonlar»** filmida jamiyatdagi olchoqlikni tanqid qildi. **«Diktator»** filmida esa fashizmga qarshi pamflet bilan maydonga chiqdi. **«Nyu-Yorkdagi qirol»** filmida jamiyatdagi axloqsizlikni fosh etdi. Chaplin achchiq satirasi tufayli mamlakatni tashlab, Yevropaga muhojir bo'lib ketishga majbur bo'ldi.

Fransuz rejissyori **Rene Kler «So'nggi milliarder»** nomli antifashistik filmida telba diktator «islohotlari»dan kuladi. Neorealizm oqimi namoyandalaridan italiyalik **Roberto Rossellini, Vittorio de Sek, Juzeppe de Santis, Petro Jermi** shuhrat qozondi. **«Rim – ochiq shahar», «Zaytun tagida dunyo yo'q», «Velosiped o'g'rilari»** va boshqa filmlar xalqning yashashga qobil ekanini, ezguligini, adolat va birdamlikni aks ettirdi. **Federiko Fellini**ning **«Yo'l», «Kabiriya tunlari»** filmlarida parazitizm va axloqiy tanazzul ochib tashlanadi.

AQSh kinorejissyori **Stenli Kramer**ning **«Bo'yin egmaganlar»** filmi irqchilikni tanqid qilish ruhida bo'lib, unda odamlarning tengligi va qardoshligi ochib beriladi.

Musiqa. O'z ijodini xalq hayoti, demokratik madaniyat yutuqlari bilan bog'lagan yirik kompozitorlar ajoyib badiiy asarlar yaratishdi. **Artur Oneger, Paul Xindemit, Bela Bartoj, Jorj Gershvin, Benjamin Britten** musiqada realistik yo'nalish namoyandalari edi. Fransiyalik buyuk kompozitor **A.Oneger** Romen Rollanning **«14-iyul»** pyesasiga musiqa yozdi va **«Janna d'Ark gulxanda»** oratoriyasini yaratdi. Oratoriya urush yillarida dushmanga qarshilik ko'rsatuvchi fransuzlar harakatining musiqasi bo'lib qoldi.

Ingliz kompozitori Benjamin Brittenning «Harbiy» marsiyasi Koventrining qaytadan tiklangan ibodatxonasida 1961-yili 1-marta ijro etildi. Kompozitor o'z asari g'oyasini: «*Marsiya kelajakka qaratilgan... Biz urush kabi falokatning oldini olishimiz kerak*», – deb ta'rifladi.

Nemis shoiri va kompozitori Gans Eysler, iste'dodli xonandalardan Pit Siger, Bob Dilan, Joat Baez (AQSh), Jan Ferra (Fransiya), grek kompozitori Mikis Teodorakis qo'shiqlari butun dunyoga tarqaldi.

Dastlab **XIX asr oxiri – XX asr boshlari**da paydo bo'lgan ommaviy madaniyat **XX asr 2-yarmi**da yanada rivojlandi. Bunga ommaviy axborot vositalarining nihoyat darajada rivojlanganl sabab bo'ldi. Uning janrlari (*shou, triller, boyevik, shlager, komiks*) keng ommalashdi. Bu hol ommaviy madaniyatning maqsadi bilan izohlanardi. Chunki ommaviy madaniyatning bosh maqsadini ko'proq daromad olish tashkil etadi. Bu madaniyatning hammaga tushunarli hamda ko'ngilocharligi uning asosiy sifat mezonini tashkil etadi.

Ommaviy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uning asosini oddiy kishilar uchun mo'ljallanganidir. Ommaviy madaniyat madaniy hayotning deyarli barcha sohalarini qamrab olgan. Masalan, estrada qo'shiqchiligida inglizlarning **«Bittlz» ansambli** dunyoda shuhrat qozondi. *«Bittlz» va shu kabi boshqa ansamblar o'z qo'shiqlarida o'ta muhim muammolar: yoshlarning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topmagani, urush, militarizm, irqiy kamsitishlarga qarshi noroziliklarni namoyish etdilar.* Ularning qo'shiqlari mazmunan samimiyligi, o'ta ta'sirchanligi, o'tkirso'zliligi bilan ajralib turadi. Ayni paytda, ijrochilarning yuksak qobiliyati, yuqori jarangdor ovozlari, mukammal maqomi, tovushlarning hamohangligi muxlislarga katta ruhiy ta'sir o'tkazadi. Bu hol rok-musiqachilarni yoshlarning sevimli san'atkorlariga aylantirib qo'yadi. Shuningdek, rok-musiqa yoshlarning turli harakatlari va guruhlarini birlashtiruvchi kuchga aylandi. «Bittlz» qo'shiqlari o'zining ta'sirchanligi, ijro mahorati, chuqur ma'nosi va samimiyligi bilan hamon yagonaligicha qolmoqda. Bu ansamblning tashkilotchisi **Jon Lennon** edi. Uning tug'ilgan va halok

bo'lgan kuni barcha qit'a yoshlari va rok-musiqachilari tomonidan har yili nishonlab kelinmoqda.

60-yillar oxiridan rok-musiqa xalqaro siyosiy masalalarga ham jiddiy e'tibor berib kelmoqda. U mintaqaviy urushlarni, irqchilikni, militarizmni va narkomaniyani keskin qoralaydi. Bugungi kunda u ekologiya va xayriya masalalariga ham katta e'tibor bermoqda. Urushdan keyingi yillarda **«pop-art»** (ommabop) san'ati keng tarqaldi. «Pop-art» olg'irlari turli buyumlarning parchalaridan «rasm» va «haykallar» yaratdilar. «Pop-art» musiqa, kino, teatrga ham kirib bordi. «Pop-art» chinakam san'atning ommaga yetib borishini zaiflashtirdi.

Xulosa qilib aytganda, XX asrda fan va madaniyatning rivojlanishi insonni misli ko'rilmagan yuksaklikka ko'tardi. Fan yutuqlari ishlab chiqarishda inqilob yasashga olib keldi. Madaniyat globallashdi. Ko'pgina joylarda milliy o'zlikni anglash jarayoni tezlashdi va umumbashariy madaniyatning kishilar qalbi, ongiga chuqur singishi davom etmoqda.

ILOVALAR

Ahamoniylar

558 – 530 Kir II
530 – 522 Kambiz II
522 – 486 Doro I
486 – 424 Kserks
465 – 424 Artakserks
424 Kserks II
424 – 423 Sekudian
423 – 404 Doro II
404 – 358 Artakserks II
358 – 338 Artakserks III
338 – 336 Arses
336 – 330 Doro III
330 – 329 Artakserks IV (Bess)

Rim imperatorlari

Mil. av. 27 – mil. 14 Oktavian Avgust
14 – 37 Tiberiy
37 – 41 Kaligula
41 – 54 Klavdiy I
54 – 68 Neron
68 – 69 Galba
69 Oton
69 Vitelliy
69 – 79 Vespasian
79 – 81 Tit
81 – 96 Domitsian
96 – 98 Nerva
98 – 117 Trayan
117 – 138 Adrian
138 – 161 Antonin Piy
161 – 180 Mark Avreliy
161 – 169 Lutsiy Ver
180 – 192 Kommod
193 Pertinaks
193 Didiy Yulian
193 – 211 Septimiy Sever

193 – 197 Klodiy Albin
193 – 194 Pessenniy Niger
211 – 217 Karakalla
211 – 212 Geta
217 – 218 Makrin
218 – 222 Elagabal
222 – 235 Aleksandr Sever
235 – 238 Maksimin
238 Gordian I
238 Gordian II
238 Pupiyen
238 Balbin
238 – 244 Gordian III
244 – 249 Filipp Arab
247 – 249 Filipp (kichkina)
249 – 251 Detsiy
251 Detsiy (kichkina)
251 – 253 Trebonian Gall
251 – 253 Volusian
253 Emilian
253 – 260 Valerian
253 – 268 Galliyan
258 – 268 Postum
268 – 270 Viktorin
268 – 270 Klavdiy II Gotskiy
270 – 273 Tetrik
270 Kvintill
270 – 275 Avrelian
275 – 276 Tatsit
276 Florian
276 – 282 Prob
282 – 283 Kar
283 – 285 Karin
283 – 284 Numerian
284 – 305 Diokletian
286 – 305, 307 – 310 Maksimian
293 – 311 Galeriy
293 – 306 Konstansiy I
286 – 293 Karausiy

293 – 296 Allekt
305 – 307 Flaviy Sever
305 – 313 Maksimian Daya
307 – 312 Maksensiy
308 – 311 Aleksandr
308 – 324 Litsiniy
306 – 337 Konstantin I
337 – 340 Konstantin II
337 – 350 Konstant
337 – 361 Konstansiy II
350 – 353 Magnensiy
361 – 363 Yulian
363 – 364 Iovian
364 – 375 Valentinian I
364 – 378 Valent
367 – 383 Gratsian
375 – 392 Valentinian II kichkina
383 – 388 Magn Maksim
384 – 388 Flaviy Viktor
392 – 394 Yevgeniy
379 – 395 Feodosiy I

G'arbiy Rim imperiyasi

395 – 423 Gonoriy
407 – 411 Konstantin III
409 – 410, 414 – 415 Prisk Attal
421 Konstansiy III
423 – 425 Ioann
425 – 455 Valentinian III
455 Petroniy Maksim
455 – 456 Avit
457 – 461 Mayorian
461 – 465 Libiy Sever III
467 – 472 (Prokopiy) Antemiy
472 Olibriy
473 – 474 Glitseriy
474 – 475 Nepot
475 – 476 Romul Avgustul

Rim papalari

33 – 64/67 Pyotr
67 – 76/78 Lin
76/78 – 88/90 Klet
88/90 – 97/99 Kliment I
97/99 – 105/107 Evarist
105/110 – 115/116 Aleksandr I
115/116 – 125 Sikst I
125 – 136/138 Telesfor
136/138 – 140/142 Gigin
140/142 – 155 Piy I
155 – 166 Aniket
166 – 174/175 Soter
174/175 – 189 Elevteriy
189 – 198/199 Viktor I
199 – 217 Zefirin
217 – 222/223 Kalikst I
222/223 – 230 Urban I
230 – 235 Pontian
235 – 236 Anter
236 – 250 Fabian
251 – 253 Korneliy
253 – 254 Lutsiy I
254 – 257 Stefan I
257 – 258 Sikst II
259 – 268 Dionisiy
269 – 274 Feliks II
275 – 283 Evtixiy
283 – 296 Gay
296 – 304 Martsellin
308 – 309 Martsell I
309/310 Yevseviy
311 – 314 Miltiad
314 – 335 Silvestr I
336 Mark
337 – 352 Yuliy I
352 – 366 Liberiy
366 – 384 Damasiy I
384 – 399 Siritsiy

399 – 401 Anastasiy I
401 – 417 Innokentiy I
417 – 418 Zosima
418 – 422 Bonifatsiy I
422 – 432 Selestin I
432 – 440 Sikst III
440 – 461 Lev I
461 – 468 Gilariy
468 – 483 Simplitsiy
483 – 492 Feliks III
492 – 496 Gelasiy I
496 – 498 Anastasiy II
498 – 514 Simmax
514 – 523 Gormizd
523 – 256 Ioann I
526 – 530 Feliks IV
530 – 532 Bonifatsiy II
533 – 535 Ioann II
535 – 536 Agapit I
536 – 537 Silveriy
537 – 555 Vigiliy
556 – 561 Pelagiy I
561 – 574 Ioann III
575 – 579 Benedikt I
579 – 590 Pelagiy II
590 – 604 Grigoriy I
604 – 606 Sabinian
607 Bonifatsiy III
608 – 615 Bonifatsiy IV
615 – 618 Adeodat I
619 – 625 Bonifatsiy V
625 – 638 Gonoriy I
640 Severin
640 – 642 Ioann IV
642 – 649 Teodor I
649 – 653 Martin I
654 – 657 Yevgeniy I
657 – 672 Vitaliy
672 – 676 Adeodat II

676 – 678 Domn
678 – 681 Agafon
682 – 683 Lev II
684 – 685 Benedikt II
685 – 686 Ioann V
686 – 687 Konon
687 – 701 Sergiy I
701 – 705 Ioann V
705 – 707 Ioann VII
708 Sizinniy
708 – 715 Konstantin
715 – 731 Girgoriy II
731 – 741 Grigoriy III
741 – 752 Zaxariy
752 – 757 Stefan II
757 – 767 Pavel I
768 – 772 Stefan III
772 – 795 Adrian I
795 – 816 Lev III
816 – 817 Stefan IV
824 – 827 Yevgeniy II
827 Valentin
827 – 844 Grigoriy IV
844 – 847 Sergiy II
847 – 855 Lev IV
855 – 858 Benedikt III
858 – 867 Nikolay I
867 – 872 Adrian II
872 – 882 Ioann VIII
882 – 884 Marin I
884 – 885 Adrian III
885 – 891 Stefan V
891 – 896 Formoz
896 Bonifatsiy VI
896 – 897 Stefan VI
897 Roman
897 Teodor II
898 – 900 Ioann IX
900 – 903 Benedikt IV

903	Lev V
904 – 911	Sergiy III
911 – 913	Anastasiy III
913 – 914	London
914 – 928	Ioann X
928	Lev VI
928 – 931	Stefan VII
931 – 935	Ioann XI
936 – 939	Lev VII
939 – 942	Stefan VIII
942 – 946	Marin II
946 – 955	Agapit III
955 – 964	Ioann XII
963 – 965	Lev VIII
964	Benedikt V
965 – 972	Ioann XIII
973 – 974	Benedikt VI
974 – 983	Benedikt VII
983 – 984	Ioann XIV
985 – 996	Ioann XV
996 – 999	Grigoriy V
999 – 1003	Silvestr II
1003	Ioann XVII
1004 – 1009	Ioann XVIII
1009 – 1012	Sergiy IV
1012 – 1024	Benedikt VIII
1024 – 1032	Ioann XIX
1032 – 1044	Benedikt IX
1045	Silvestr III
1045 – 1046	Grigoriy VI
1046 – 1047	Kliment II
1047 – 1048	Benedikt X
1048	Damasiy
1049 – 1054	Lev IX
1055 – 1057	Viktor II
1057 – 1058	Stefan IX
1059 – 1061	Nikolay II
1061 – 1073	Aleksandr II
1073 – 1085	Grigoriy VII

1086 – 1087 Viktor II
1088 – 1099 Urban II
1099 – 1118 Pasxaliy II
1119 – 1124 Kalikst II
1124 – 1130 Gonoriy II
1130 – 1143 Innokentiy II
1143 – 1144 Selestin II
1144 – 1145 Lutsiy II
1145 – 1153 Yevgeniy III
1153 – 1154 Anastasiy IV
1154 – 1159 Adrian
1159 – 1181 Aleksandr III
1181 – 1185 Lutsiy III
1185 – 1187 Urban III
1187 Grigoriy VIII
1187 – 1191 Kliment III
1191 – 1198 Selestin III
1198 – 1216 Innokentiy III
1216 – 1227 Gonoriy III
1227 – 1241 Grigoriy IX
1241 Selestin IV
1243 – 1254 Innokentiy IV
1254 – 1261 Aleksandr IV
1261 – 1264 Urban IV
1265 – 1268 Kliment IV
1271 – 1276 Grigoriy X
1276 Innokentiy V
1276 Adrian V
1276 – 1277 Ioann XXI
1277 – 1280 Nikolay III
1281 – 1285 Martin V
1285 – 1287 Gonoriy IV
1288 – 1292 Nikolay IV
1294 Selestin V
1294 – 1303 Bonifatsiy VIII
1303 – 1304 Benedikt XI
1305 – 1314 Kliment V
1316 – 1334 Ioann XXII
1334 – 1342 Benedikt XII

1342 – 1352 Kliment VI
1352 – 1362 Innokentiy VI
1362 – 1370 Urban V
1370 – 1378 Grigoriy XI
1378 – 1389 Urban VI
1389 – 1404 Bonifatsiy IX
1394 – 1417 Benedikt XIII
1404 – 1406 Innokentiy VII
1406 – 1415 Grigoriy XII
1417 – 1431 Martin V
1431 – 1447 Evgeniy IV
1447 – 1455 Nikolay V
1455 – 1458 Kalikst III
1458 – 1464 Piy II
1464 – 1471 Pavel II
1471 – 1484 Sikst IV
1484 – 1492 Innokentiy VIII
1492 – 1503 Aleksandr VI
1503 Piy III
1503 – 1513 Yuliy II
1513 – 1521 Lev X
1522 – 1523 Adrian VI
1523 – 1534 Kliment VII
1534 – 1549 Pavel III
1550 – 1555 Yuliy III
1555 Martsell II
1555 – 1559 Pavel IV
1559 – 1565 Piy IV
1566 – 1572 Piy V
1572 – 1585 Grigoriy XIII
1585 – 1590 Sikst V
1590 Urban VII
1590 – 1591 Grigoriy XIV
1591 Innokentiy IX
1592 – 1605 Kliment VIII
1605 Lev XI
1605 – 1621 Pavel V
1621 – 1623 Grigoriy XV
1623 – 1644 Urban VIII

1644 – 1655 Innokentiy X
1655 – 1667 Aleksandr VII
1667 – 1669 Kliment IX
1670 – 1676 Kliment X
1676 – 1689 Innokentiy XII
1700 – 1721 Kliment XI
1721 – 1724 Innokentiy XIII
1724 – 1730 Benedikt XIII
1730 – 1740 Kliment XII
1740 – 1758 Benedikt XIV
1758 – 1769 Kliment XIII
1769 – 1774 Kliment XIV
1775 – 1799 Piy VI
1800 – 1823 Piy VII
1823 – 1829 Lev XII
1829 – 1830 Piy VIII
1831 – 1846 Grigoriy XVI
1846 – 1878 Piy IX
1878 – 1903 Lev XIII
1903 – 1914 Piy X
1914 – 1922 Benedikt XV
1922 – 1939 Piy XI
1939 – 1958 Piy XII
1958 – 1963 Ioann XXIII
1963 – 1978 Pavel VI
1978 Ioann Pavel I
1978 – 2005 Ioann Pavel II
2005-yildan Benedikt XVI

Sosoniylar

224 – 239 Artashir/Ardasher I Papakan, Papak o'g'li
239 Peroz/Feruz I, Artashir I o'g'li
239 – 274 Shopur I, Artashir I o'g'li
274 Ormizd/Hurmuz I Artashir, Shopur I o'g'li
274 – 276 Bahrom I, Shopur I o'g'li
276 – 293 Bahrom II, Bahrom I o'g'li
293 Bahrom III, Bahrom II o'g'li
293 – 302 Narse, Shopur I o'g'li
302 – 309 Ormizd II, Narse o'g'li

309 – 379 Shopur II, Xvarmizd II o'g'li
379 – 383 Artashir II, Shopur II o'g'li
383 – 388 Shopur III, Shopur II o'g'li
388 – 399 Bahrom IV, Shopur II o'g'li
399 – 421 Yazdigird I, Shopur III o'g'li
421 – 439 Bahrom V, Yazdigird I o'g'li
439 – 457 Yazdigird II, Bahrom V o'g'li
457 – 459 Ormizd III, Yazdigird II o'g'li
459 – 484 Peroz II, Yazdigird II o'g'li
484 – 488 Balash, Yazdigird II o'g'li
488 – 496 Qavad/Qubod I, Peroz II o'g'li
496 – 498 Zamasp/Jamasp, Peroz II o'g'li
498 – 531 Qavad I, Peroz II o'g'li
531 – 579 Xusrav I, Qavad I o'g'li
579 – 590 Ormizd IV, Xusrav I o'g'li
590 – 628 Xusrav II, Ormizd IV o'g'li
628 Qavad II, Xusrav II o'g'li
628 – 629 Artashir III, Qavad II o'g'li
629 – 630 Boranduxt, Xusrav II qizi
630 – 631 Azarmeduxt, Xusrav II qizi
631 – 632 Farruxzod Xusrav
632 – 651 Yazdigird III, Xusrav II nevarasi (Shahriyor o'g'li)

Sosoniylar sulolasiga mansub bo'lmagan shahanshohlar:
590 – 591 Bahrom Chubin, taxtga chiqqach Bahrom VI
629 Farruxon Shahrvarz

Vizantiya imperiyasi hukmdorlari
385 – 408 Arkadiy Flaviy
408 – 450 Feodosiy II
450 – 457 Markian
457 – 474 Lev I Makella
474 Lev II
474 – 475 Zenon
475 – 476 Vasilisk
476 – 491 Zenon
491 – 518 Anastasiy I
518 – 527 Yustin I
527 – 565 Yustinian I

565 – 578 Yustin II
578 – 582 Tiberiy II
582 – 602 Mavrikiy
602 – 610 Foka
610 – 641 Irakliy I
641 Konstantin III
641 Irakliy II
641 – 668 Konstant II
668 – 685 Konstantin IV
685 – 695 Yustinian II
695 – 698 Leontiy
698 – 705 Tiveriy III
705 – 711 Yustinian II
711 – 713 Filippik Vardan
713 – 715 Anastasiy II
715 – 717 Feodosiy III
717 – 741 Lev III Isavr
741 – 775 Konstantin V
776 – 780 Lev IV Xazar
780 – 790 Irina
790 – 797 Konstantin VI
797 – 802 Irina
802 – 811 Nikofor I
811 Stavrakiy
811 – 813 Mixail I Rangave
813 – 820 Lev V
820 Konstantin Simbat
820 – 829 Mixail II Travl
829 – 842 Feofil
842 – 867 Mixail III
867 – 868 Vasiliy I
868 – 879 Konstantin Makedonyan
879 – 886 Vasiliy I
886 – 912 Lev VI
912 – 913 Aleksandr
913 – 920 Konstantin VII
920 – 944 Roman I Lakapin
944 – 945 Stefan
945 – 959 Konstantin VII

959 – 963 Roman II
963 Vasiliy II
963 – 969 Nikifor II Foka
969 – 976 Ioann I TSimisxiy
976 – 1025 Vasiliy II
1025 – 1028 Konstantin VIII
1028 – 1034 Roman III
1034 – 1041 Mixail IV
1041 – 1042 Mixail V
1042 Zoya
1042 – 1055 Konstantin IX
1055 – 1056 Feodora
1056 – 1059 Mixail VI
1059 Isaak I Komnin
1059 – 1067 Konstantin X
1067 Konstantin Duka
1067 – 1072 Roman IV Diogen
1072 – 1078 Mixail VII
1078 – 1081 Nikifor III
1081 – 1118 Aleksey I Komnin
1118 – 1143 Ioann II Komnin
1143 – 1180 Manuil I Komnin
1180 – 1183 Aleksey II Komnin
1183 – 1185 Andronik I Komnin
1185 – 1195 Isaak II Angel
1195 – 1203 Aleksey III Angel
1203 – 1204 Isaak II Angel
1204 Aleksey V Duka

1261-yildan keyingi Vizantiya imperatorlari

1261 – 1282 Mixail VIII Paleolog
1282 – 1328 Andronik II Paleolog
1282 – 1320 Mixail IX Paleolog
1328 – 1341 Andronik III Paleolog
1341 – 1347 Ioann V Paleolog
1347 – 1354 Ioann VI Kantakuzin
1354 – 1376 Ioann V Paleolog
1376 – 1379 Andronik IV Paleolog
1379 – 1390 Ioann V Paleolog
1390 Ioann VII Paleolog

1390 – 1391 Ioann V Paleolog
1391 – 1425 Manuil II Paleolog
1425 – 1448 Ioann VIII Paleolog
1449 – 1453 Konstantin XI Dragash

Merovinglar

429 – 447 Xlodvio
447 – 457 Merovey
457 – 481 Xilperik I
481 – 511 Xlodvig
558 – 561 Xlotar I
613 – 629 Xlotar II
629 – 639 Dagober I
657 Xlodvig II
657 – 673 Xlotar III
687 – 691 Teodorix III
691 – 695 Xlodvig III
695 – 711 Xildeber III
711 – 715 Dagober III
715 – 720 Xilperik II
720 – 737 Teodorix IV
743 – 753 Xilperik III

Karolinglar

751 – 768 Pipin Pakana
768 – 771 Karloman
768 – 814 Karl Buyuk
814 – 840 Lyudovik Taqvodor
840 – 877 Karl II Tulki
877 – 879 Lyudovik II Duduq
879 – 882 Lyudovik III
879 – 884 Karloman
884 – 888 Karl III Semiz
898 – 929 Karl IV Oddiy
936 – 954 Lyudovik IV Ajnabiy
954 – 986 Lotar
986 – 987 Lyudovik V Dangasa

Kapetinglar

987 – 996	Gugo Kapet
996 – 1013	Robert II Muqaddas
1031 – 1060	Genrix I
1060 – 1108	Filipp I
1108 – 1137	Lyudovik IV Semiz
1137 – 1180	Lyudovik VII Navqiron
1180 – 1223	Filipp II Avgust
1223 – 1226	Lyidovik VIII
1226 – 1270	Lydovik IX Muqaddas
1270 – 1285	Filipp III Dovyurak
1285 – 1314	Filipp IV Chiroyli
1314 – 1316	Lyudovik X Mijg'ov
1316	Ioann I
1316 – 1322	Filipp V Novcha
1322 – 1328	Karl IV Chiroyli

Umaviy xalifalar

661 – 680	Mu'aviya I ibn Abu Sufyon
680 – 683	Yazid I
683 – 684	Mu'aviya II
684 – 685	Marvon I ibn Hakam
685 – 705	Abdulmalik
705 – 715	al-Valid I
715 – 717	Sulaymon
717 – 720	Umar ibn Abdulaziz
720 – 724	Yazid II
724 – 743	Hishom
743 – 744	al-Valid II
744	Yazid III
744	Ibrohim
744 – 750	Marvon II Himor

Abbosiy xalifalar

749 – 754	as-Saffoh
754 – 775	al-Mansur
775 – 785	al-Mahdiy
785 – 786	al-Hodiy
786 – 809	Horun ar-Rashid

809 – 813 al-Amin
813 – 833 al-Ma'mun
817 – 819 Ibrohim ibnu-l-Mahdiy (Bag'dodda)
833 – 842 al-Mu'tasim
842 – 847 al-Vasiq
847 – 861 al-Mutavakkil
861 – 862 al-Muntasir
862 – 866 al-Musta'in
866 – 869 al-Mu'tazz
869 – 870 al-Muhtadiy
870 – 892 al-Mu'tamid
892 – 902 al-Mu'tazid
902 – 908 al-Muqtafiy
908 – 932 al-Muqtadir
932 – 934 al-Qohir
934 – 940 ar-Roziy
940 – 944 al-Muttaqiy
944 – 946 al-Mustaqfiy
946 – 974 al-Muti'
974 – 991 at-Toyi'
991 – 1031 al-Qodir
1031 – 1075 al-Qoyim
1075 – 1094 al-Muqtadiy
1094 – 1118 al-Muztazhir
1118 – 1135 al-Mustarshid
1135 – 1136 ar-Rashid
1136 – 1160 al-Muqtadiy
1160 – 1170 al-Mustanjid
1170 – 1180 al-Mustaziy
1180 – 1225 an-Nosir
1225 – 1226 az-Zohir
1226 – 1242 al-Mustansir
1242 – 1258 al-Musta'sim

Xitoy hukmdorlari

Suy sulolasi
581 – 604 Ven-di
605 – 617 Yan-di

617 – 618 Gun-di

Tan sulolasi

618 – 626 Gao-szu
627 – 649 Tay-szun
650 – 683 Gao-szun
684 Chjun-szun
684 – 690 Juy-szun

Chjao sulolasi (690 – 705)

705 – 710 Chjun-szun (tan sulolasi hukmronligining tiklanishi)
710 Shao-di
710 – 712 Juy-szun
712 – 756 Syuan-szun
756 – 762 Su-szun
762 – 779 Day-szun
780 – 805 De-szun
805 Shun-szun
806 – 820 Syan-szun
821 – 824 Mu-szun
824 – 826 Szin-szun
826 – 840 Ven-szun
840 – 846 U-szun
846 – 859 Syuan-szun
859 – 873 I-szun
873 – 888 Si-szun
888 – 904 Chjao-szun
904 – 907 Ay-di

Mo'g'ulistondagi Chingiz sulolasi

1206 – 1227 Chingiz (Temuchin)
1227 – 1229 Tuluy
1229 – 1241 Ugedey/Uqtoy
1241 – 1246 Toragana xotun
1246 – 1248 Guyuk
1248 – 1251 O'g'ul Gaymish
1251 – 1259 Munke
1260 – 1271 Qubilay/Xubilay

Yuan sulolasi

1271 – 1294	Xubilay
1294 – 1307	Temur
1307 – 1311	Xaysan
1311 – 1320	Ayurbaribada
1320 – 1323	Shidebala
1323 – 1328	Esun-Temur
1328	Rajapika
1328 – 1329	Tug'-Temur
1329	Xoshila
1329 – 1332	Tug'-Temur
1332	Irinjinbal
1333 – 1368	To'g'on-Temur

Min sulolasi

1368 – 1398	Chju Yuanchjan
1392 – 1402	Chju Yunven
1402 – 1424	Chju Di
1424 – 1425	Chju Gaochi
1425 – 1435	Chju Chjantszi
1435 – 1449	Chju Sichjen
1449 – 1457	Chju Siyuy
1457 – 1464	Chju Sichjen
1464 – 1487	Chju Szyanshen
1487 – 1505	Chju Yutan
1505 – 1521	Chju Xouchjao
1521 – 1567	Chju Xoutsun
1567 – 1572	Chju Szayxou
1572 – 1620	Chju Itszyun
1620	Chju Chanlo
1620 – 1627	Chju Yutszyao
1627 – 1644	Chju Yutszyan

Yaponiya imperatorlari

Asuka davri

539 – 571	Kimmey
572 – 585	Bidatsu
585 – 587	Yomey

587 – 592 Susyun
593 – 628 Suyko
629 – 641 Dzyomey
642 – 645 Kogyoku
645 – 654 Kotoku
655 – 661 Saymey
661 – 672 Tendzi
672 Kobun
672 – 686 Temmu
686 – 697 Dzito
697 – 707 Mommu
707 – 715 Gemmey

Nara davri
715 – 724 Gensyo
724 – 749 Syomu
749 – 758 Koken
758 – 764 Dzyunnin
764 – 770 Syotoku
770 – 781 Konin

Xeyyan davri
781 – 806 Kammu
806 – 809 Xeydzey
809 – 923 Saga
823 – 833 Dzyunna
833 – 850 Nimmyo
850 – 858 Montoku
858 – 876 Seyva
876 – 884 Yodzey
884 – 887 Koko
887 – 897 Uda
897 – 930 Daygo
930 – 946 Sudzaku
946 – 967 Murakami
967 – 969 Reydzey
969 – 984 Enyu
984 – 986 Kadzan
986 – 1011 Itidzyo

1011 – 1016 Sandzyo
1016 – 1036 Go-Itidzyo
1036 – 1045 Go-Sudzaku
1045 – 1068 Go-Reydzey
1068 – 1073 Go-Sandzyo
1073 – 1087 Sirakava
1087 – 1107 Xorikava
1107 – 1123 Toba
1123 – 1142 Sutoku
1142 – 1155 Konoe
1155 – 1158 Go-Sirakava
1158 – 1165 Nidzyo
1165 – 1168 Rokudzyo
1168 – 1180 Takakura
1180 – 1185 Antoku
1183 – 1198 Go-Toba

Kamakura davri

1198 – 1210 Sutimikado
1210 – 1221 Dzyuntoku
1221 Tyukyo
1221 – 1232 Go-Xorikava
1232 – 1242 Sidzyo
1242 – 1246 Go-Saga
1246 – 1260 Go-Fukakusa
1260 – 1274 Kameyama
1274 – 1287 Go-Uda
1287 – 1298 Fusimi
1298 – 1301 Go-Fusimi
1301 – 1308 Go-Nidzyo
1308 – 1318 Xanadzono
1318 – 1339 Go-Daygo

Shimoliy Saroy hukmdorlari

1331 – 1333 Kyogon
1336 – 1348 Kyomuo
1348 – 1351 Suko
1351 – 1352 *Boshboshdoqlik davri*
1352 – 1371 Go-Kogon

1371 – 1382 Go-Enyu
1382 – 1392 Go-Komatsu

Muromati davri (Janubiy Saroy hukmdorlari)
1339 – 1368 Go-Murakami
1368 – 1383 Tyokey
1383 – 1392 Go-Kameyama
1392-yili shimol va janub birlashtirildi.
1392 – 1412 Go-Komatsu
1412 – 1428 Syoko
1428 – 1464 Go-Xanadzono
1464 – 1500 Go-Sutimikado
1500 – 1526 Go-Kasivabara
1526 – 1557 Go-Nara
1557 – 1586 Ogimati
1586 – 1611 Go-Yodzey

Edo davri
1611 – 1629 Go-Midzuno
1629 – 1643 Meysyo
1643 – 1654 Go-Komyo
1655 – 1663 Go-Say
1683 – 1687 Reygen
1687 – 1709 Xigasiyama
1709 – 1735 Nakamikado
1735 – 1747 Sakuramati
1747 – 1762 Momodzono
1762 – 1771 Go-Sakuramati
1771 – 1179 Go-Momodzono
1780 – 1817 Kokaku
1817 – 1846 Ninko
1846 – 1867 Komey

Zamonaviy Yaponiya
1867 – 1912 Meydzi
1912 – 1926 Taysyo
1926 – 1989 Syova
1989-yildan Akixito

Usmoniy hukmdorlar

1299 – 1324 Usmon ibn Tug'rul
1326 – 1362 Urxon ibn Usmon
1359 – 1389 Murod Xudovandkor ibn Urxon
1389 – 1402 Boyazid I Yildirim ibn Murod
1413 – 1421 Muhammad I Chalabiy ibn Boyazid
1421 – 1444 Murod II ibn Muhammad I
1444 Muhammad II Fotih ibn Murod
1444 – 1451 Murod II
1451 – 1481 Muhammad II Fotih
1481 – 1512 Boyazid II ibn Muhammad II
1512 – 1520 Salim I ibn Boyazid II
1520 – 1566 Sulaymon I ibn Salim I
1566 – 1574 Salim II ibn Sulaymon I
1574 – 1595 Murod III ibn Salim II
1595 – 1603 Muhammad III ibn Murod III
1603 – 1617 Ahmad I ibn Muhammad III
1617 – 1618 Mustafo I ibn Muhammad III
1618 – 1622 Usmon II ibn Ahmad I
1622 – 1623 Mustafo I ibn Muhammad III
1623 – 1640 Murod IV ibn Ahmad I
1640 – 1648 Ibrohim I ibn Ahmad I
1648 – 1687 Muhammad IV ibn Ibrohim I
1687 – 1691 Sulaymon II ibn Ibrohim I
1691 – 1695 Ahmad II ibn Ibrohim I
1695 – 1703 Mustafo II ibn Muhammad IV
1703 – 1730 Ahmad III ibn Muhammad IV
1730 – 1754 Mahmud I ibn Mustafo II
1754 – 1757 Usmon III ibn Mustafo II
1757 – 1774 Mustafo III ibn Ahmad III
1774 – 1789 Abdulhamid I ibn Ahmad III
1789 – 1807 Salim III ibn Mustafo III
1807 – 1808 Mustafo IV ibn Abdulhamid I
1808 – 1839 Mahmud II ibn Abdulhamid I
1839 – 1861 Abdulmajid I ibn Mahmud II
1861 – 1876 Abdulaziz ibn Mahmud II
1876 Murod V ibn Abdulmajid I
1876 – 1909 Abdulhamid II ibn Abdumajid I
1909 – 1918 Muhammad V ibn Abdulmajid I
1918 – 1922 Muhammad VI ibn Murod V
1922 – 1924 Abdulmajid II ibn Abdulaziz II

QISQACHA IZOHLI LUG'AT

Abolitsionizm – negrlarni qullikdan ozod qilish harakati.

Admiral – harbiy-dengiz floti qo'mondonlariga beriladigan unvon.

Agora – Qadimgi Yunoniston shaharlarida xalq yig'ilish joyi, markaziy maydon.

Aksiyadorlik jamiyati – daromad topish maqsadida hissadorlik asosida uyushgan sherikchilik jamiyati.

Akveduk – ustida shaharga suv keladigan anhori bo'lgan baland ko'prik.

Allod – yerga to'la egalik qilish: G'arbiy Yevropa feodal jamiyatida avloddan avlodga meros bo'lib o'tadigan yer-mulk.

Amfiteatr – sahna atrofida tomoshabinlar o'tirishiga mo'ljallangan qurilmalar bilan qurshalgan tomsiz katta inshoot.

Amfora – suyuq mahsulotlarni tashish va saqlash uchun mo'ljallangan bo'g'zi ingichka va qo'shaloq dastali katta ko'za.

Amin ad-davla – moliya va ichki ishlar vaziri.

Amulet – misrliklar fikricha, inson o'zi bilan birga olib yursa, yovuz ruhlar va balo-ofatlardan himoya qiluvchi kichik buyumlar; tumor.

Anneksiya – bir davlat hududini zo'ravonlik yo'li bilan butunlay yoki qisman o'z davlatiga qo'shib olish.

Ansorlar – Muhammad (s.a.v) sahobalari bir tabaqasining nomi.

Antik tarix – Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim tarixi.

Anarxizm – alohida bir shaxsning xohish-irodasinigina tan olib, har qanday hokimiyat va davlat tuzumini rad etuvchi ta'limot.

Argonavtlar – oltin mo'ynani (sehrli qo'chqor terisini) izlab «Argo» kemasida yurishga chiqqan Ellada qahramonlari.

Ariylar – qadimgi xalqlar; «sodiqlar», «erkinlar» ma'nosini anglatadi; oriylar.

Armada – katta flot.

Arxitektura – binolar va boshqa inshootlarni barpo etish san'ati.

Arxiv – davlatga oid hujjatlar saqlanadigan joy.

Arxeologiya – ashyoviy manbalarni o'rganuvchi va ular bo'yicha tarixiy o'tmishni qayta tiklovchi fan; qadimshunoslik.

Asketizm – tuyg'u va istaklarni cheklash yoki bostirish, azob tortish, hayot ne'matlaridan voz kechish.

Astorlabiya – XVII asrgacha xizmat qilgan joyning geografik koordinatalarini, vaqtni, yulduzlarning chiqish va botish paytini aniqlovchi astronomik asbob.

Avstralopitek – eng qadimgi odam turi.

Benefitsiy – senyor tomonidan o'z vassaliga harbiy xizmati evaziga in'om etilgan yer-mulk. Sharqda u iqto' deb nomlangan.

Best – masjid va qabristonlarda tinch o'tirib, sust qarshilik ko'rsatish.

Bill – qonun loyihasi, konstitutsiyaga tenglashtirilgan hujjatlarning nomi.

Birja – tovarlar va qimmatbaho qog'ozlar ulgurji savdosi bozori.

Boykot – biror-bir davlat yoki korxona tovarlarini xarid qilishdan voz kechish.

Boyarlar dumasi – Rus davlatida dastlab knyazlar, so'ng podsho huzuridagi (1547-yildan) Oliy davlat kengashi.

Budda – Siddhartha Gautamaning ikkinchi ismi, laqabi; «Ma'rifatlangan» tarzida tarjima qilinadi.

Buddaviylik – mil. av. VI asrda Hindistonda Siddhartha Gautama tomonidan asos solingan diniy ta'limot.

Burjuaziya – aholining savdo-sanoat, bank kabi sohalarida tadbirkorlik faoliyati yuritish natijasida daromad topuvchi hamda ishlab chiqarishda yollanma mehnatdan foydalanuvchi toifasi.

Danaylar – Gomer «Iliada»da yunonlarni shunday atagan.

Davlat suvereniteti – hokimiyatning mamlakat ichida oliyligi va tashqi munosabatlarda to'la mustaqilligi.

Davlat to'ntarishi – davlat hokimiyatini qonunda ko'zda tutilmagan usullar bilan egallab olish.

Deklaratsiya – hukumatning, biror tashkilotning muhim bir hujjatni, qonunni, voqeani ko'pchilik e'tiboriga yetkazuvchi bayonoti.

Dekret – oliy hokimiyat boshqaruv organi chiqargan va qonun kuchiga ega bo'lgan qaror.

Dekadentlik – Yevropa madaniyatidagi inqiroz holatini umumiy tarzda ifoda etuvchi tushuncha. Tanazzulga yuz tutishlik, umidsizlik kayfiyati, hayotdan bezishlikni aks ettiruvchi oqim.

Delta – Nil daryosi O'rta yer dengiziga quyilayotganda uchburchaksimon yalpi manzarani yuzaga keltiruvchi makon.

Demobilizatsiya – harbiy xizmatdan bo'shatish.

Demokratiya – har bir fuqaro o'z mamlakatini boshqarish masalasi bo'yicha o'z fikrini bayon etadigan ijtimoiy tuzum.

Depesha – shoshilinch xabar.

Despotik – huquqi cheklanmagan, zo'ravonlikka asoslangan hokimiyat.

Diadohlar (vorislar) – Makedoniyalik Aleksandr vafotidan keyin turli hududlar ustidan hokimiyatni egallab olgan harbiy sarkardalar.

Dialektika – hozirgi mantiqqa o'xshash fan bo'lib, unda o'quvchilar munozara olib borishga, o'z fikrini isbotlashga o'rgatilgan.

Diktatura – hech qanday qonun bilan cheklanmagan, zo'rlikka tayanuvchi hokimiyat.

Diktator – favqulodda vaziyatlar ro'y bergan taqdirda tayinlanuvchi yakkaboshchi hukmdor.

Dinastiya (sulola) – birin-ketin hukmronlik qiluvchi podsholar urug'i; sulola vakillari ko'pincha bitta nom bilan aytilgan, masalan, ahamoniylar.

Direktoriya – Fransiya Respublikasining 1795 – 1799-yillardagi hukumati.

Dividend – aksiyadorlar jamiyati foydasining aksiya egasiga har yili beriladigan va uning daromadiga aylanadigan qismi.

Doktrina – siyosiy rahbarlik tamoyili.

Dominion – o'zini o'zi boshqaradigan qaram yer.

Domen – qirol, gersog, graf va baronlarning qaram dehqonlar mehnati bilan ishlanadigan yer-mulklari.

Dvoryanlar – feodallar toifasining imtiyozli qismi. Imtiyozlar meros bo'lib avloddan avlodga o'tgan.

Edikt – qirolning alohida muhim farmoni.

Ekspluatatsiya – mulkdorlarning boshqalar mehnati mahsulini o'zlashtirib olishi.

Ekspansiya – buyuk davlatlarning o'zgalar hududini va bozorlarini, xomashyo manbalarini bosib olishga, siyosiy va iqtisodiy ta'sir doiralarini kengaytirishga qaratilgan siyosatlari.

Eksterritorial huquq – chet el fuqarolari shaxsining va uy-joyi, mol-mulki daxlsizligi hamda mahalliy davlat sudining ularni sud qilolmasligi.

Ellinlar – qadimgi yunonlar; dastlab Yunonistonning barcha aholisi shunday atalgan.

Ellada – Qadimgi Yunoniston.

Falsafa – tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari haqidagi fan.

Falanga – og'ir qurollangan askarlarning bir necha, odatda, 9 yoki 16 sherengaga saf tortishi.

Favqulodda holat – tashqi xavf, ichki qurolli mojarolar va turli tabiiy ofatlar ro'y berganida joriy etiladigan va fuqarolarning huquq hamda erkinligi maxsus qonunlar bilan cheklab qo'yiladigan holat.

Federatsiya – hududiy jihatdan muayyan siyosiy mustaqillikka ega bo'lgan bir necha davlatlardan iborat yagona ittifoq davlat.

Feod – harbiy xizmat evaziga taqdim etilgan yer-mulk. Keyinchalik merosiy mulkka aylangan.

Fir'avn – Misr hukmdori; «ulug' xonadon» ma'nosini anglatadi.

Forum – yig'ilish joyi va bozor maydoni bo'lib xizmat qilgan shahar markazi.

Fraksiya – parlament deputatlarining biror siyosiy partiyaga mansub guruhi.

Freska – nam suvoq ustiga rangdor qilib ishlangan rasm.

Freska – selgimagan suvoqqa chizilgan rasm.

Ganza – XIV – XV asrlardagi shimoliy nemis shaharlarining savdo va siyosiy ittifoqi. Uning bosh shahri Lyubek. Yevropaning shimolidagi savdoda yetakchi bo'lgan Ganza qit'aning boshqa hududlari orasidagi savdoda ham vositachilik qilgan.

General shtatlar – Fransiyadagi oliy tabaqaviy-vakillik muassasasi (1302 – 1789). Qirollar General shtatlarni qachonki yangi soliq kiritishni istaganlarida chaqirib turishgan. Qirollik hokimiyati markazlashtirish jarayonida tabaqa vakillari majlisiga tayangan.

Goplit – og'ir qurollangan jangchi.

Gotika uslubi – Yevropa mamlakatlarida o'rta asrlar san'atida hukm surgan badiiy uslub. Gotika XII asr o'rtalarida Shimoliy Fransiyada yuzaga keldi. XIII asr 1-yarmida yuksak darajada rivojlandi.

Grammatika – tilshunoslik ilmi, bolalarni o'qishga o'rgatgan.

Grek olovi – uloqtiriladigan yonuvchi modda bo'lib, uni neft, oltingugurt, selitra, turli qatronlar aralashmasidan tayyorlashgan. Vizantiya harbiy kemalarida foydalanilgan. Uni amalda ishlatishning o'ziga xos sirlari bo'lib, raqiblar bu sirni uzoq payt ocha olmaganlar.

Hakimboshi – saroy bosh tabibi.

Harbiy diktatura – harbiylarning cheklanmagan hokimiyati.

Ikona – xristian diniga mansub dindorlar sajda qiladigan, cho'qinadigan Iso, Bibi Maryam va avliyolarning rangtasvir yoki bo'rtma tasviri. Diniy ikonaning eng qadimgisi II asrga mansub bo'lib, IV asrdan bu soha, ayniqsa, taraqqiy eta boshlagan.

Ilohiyot – diniy qoidalar va ular haqidagi xudo ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan asosiy diniy ta'limot.

Immigrant – bir davlatdan boshqa davlatga doimiy yoki uzoq vaqt yashash uchun ko'chib kelgan shaxs.

Imperiya – hukmdorning cheklanmagan hokimiyati joriy etilgan davlat.

Industriya – sanoat, xususan, yirik sanoatni anglatuvchi atama.

Inqilob – jamiyat rivojlanishida ro'y beradigan tub sifat o'zgarishi, eski jamiyatning ag'darilishi.

Intervensiya – o'zga davlat hududini bosib olish, o'z hukmronligini o'rnatish maqsadida shu davlat ichki ishlariga zo'rlik bilan aralashish.

Irredentizm – Italiyaga qo'shni davlatlarda italyanlar yashaydigan hududlarni qo'shib olishni targ'ib qiluvchi millatchilik harakati.

Islohot – biror sohadagi mavjud tartiblarni tubdan o'zgartirish.

Italiklar – Apennin yarimorolida istiqomat qilgan qadimiy qabilalar.

Iyerogliflar – qadimgi yunonlar misrliklar yozuvini shunday atashgan; «muqaddas bitiklar» ma'nosini anglatadi.

Jogir – harbiy xizmat evaziga in'om etilgan yer.

Kapital – sarmoya; o'z egasiga daromad keltiruvchi, o'zini o'zi ko'paytiruvchi korxona.

Kartel – bir tarmoqdagi mustaqil kompaniyalar, firmalarning ishlab chiqarish va sotishning umumiy hajmlari, narxlari, sotish bozorlari, har bir ishtirokchilik ulushi va boshqalar to'g'risida bitim asosida tashkil etilgan tuzilma.

Katorga – juda og'ir sharoitda ishlatish va qamashdan iborat jazo chorasi hamda shunday jazoni o'tash joyi.

Koalitsiya – bir yoki bir qancha davlatlarga qarshi birlashib harakat qilish uchun ikki yoki undan ko'p davlatlarning tuzgan vaqtinchalik harbiy-siyosiy ittifoqi.

Kohinlar – ibodatxona ruhoniylari.

Koloniyalar – o'z yurtini tark etgan odamlar tomonidan yangi yerlarda asos solingan manzilgoh va shaharlar.

Kommuna – shaharlarning o'zini o'zi boshqarish organi.

Komprador – iqtisodiy qoloq va qaram davlatlar burjuaziyasining chet el kapitali bilan ichki bozor o'rtasida vositachilik qiluvchi qismi.

Konfederatsiya – o'z mustaqilligini saqlab qolgan holda biron-bir maqsadni amalga oshirish uchun birlashgan davlatlar ittifoqi.

Konkista – zabt etish, bosib olish.

Konsul – 1799-yildan Fransiyada tashkil etilgan oliy ijroiya, sud va qisman qonun chiqaruvchi hokimiyatni o'z qo'lida to'plagan oliy mansabdor shaxs; bir davlatning boshqa davlat hududida o'z mamlakati fuqarolari manfaatlarini himoya qilish, ikki davlat o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishga yordam berish uchun tayinlanadigan mansabdor shaxs.

Konsul – Respublika davrida Rimdagi oliy siyosiy lavozim. Har yili saylangan ikki nafar konsul Senat va armiyaga rahbarlik qilgan.

Konsern – manfaatlar umumiyligi asosida uyushgan korxonalarning yirik birlashmasi.

Konsessiya – davlat korxonalarini, mulkini muayyan muddatga chet el kapitaliga berish haqidagi shartnoma.

Konsessiya – davlat organlarining muayyan shartlar asosida yerosti boyliklari, yerusti obyektlarini ekspluatatsiyaga berish to'g'risidagi bitim.

Kontributsiya – urushda mag'lubiyatga uchragan davlatdan g'olib davlat foydasiga majburan undiriladigan tovon.

Kontrreformatsiya – XVI – XVII asr o'rtalarida Yevropada Rim Papasi rahnamoligida reformatsiyaga qarshi qaratilgan diniy-siyosiy harakat.

Konung – qabila boshlig'i, zodagonlarning oliy vakili. Norman qabilalarida harbiy yo'lboshchi.

Konvensiya – ko'p tomonlama xalqaro shartnoma turlaridan biri.

Korporatsiya – monopolistik aksiyadorlar birlashmasi.

Korrupsiya – mansabdor shaxslarning shaxsiy boyish maqsadida sotilishi.

Kreollar – Lotin Amerikasiga dastlab ko'chib kelgan ispan va portugallarning avlodlari.

Ku-kluks-klan – AQShda faoliyat yuritgan irqchilik terrorchi tashkilot.

Latifundiya – katta yer-mulk.

Legion – Rim armiyasida eng yirik jangovar birlik.

Levant – O'rta yer dengizi sharqidagi Suriya, Falastin, Turkiya, Yunoniston va Kiprning umumiy nomi. Ular orqali dunyo savdo yo'llaridan biri – Levant o'tgan.

Linch sudi – AQShda qora tanli kishilar va demokratik harakat qatnashchilarini sud va so'roqsiz jazolash.

Mahdiy – islomda oxirzamon bo'lganida kelib, yerda adolat o'rnatadi deb ishoniluvchi payg'ambar.

Manifest – hukumatning juda muhim voqea munosabati bilan xalqqa qilgan yozma murojaati.

Markalar – chegara harbiy viloyati.

Metis – Amerikada oq tanli aholiga mansub kishi bilan hindular o'rtasidagi nikohdan tug'ilgan avlod.

Metropoliya – o'zga mamlakatlarni bosib olib, o'z mustamlakasiga aylantirgan bosqinchi davlat.

Metek – Afinada yashovchi ajnabiy.

Migratsiya – u yoki bu davlat aholisining bir hududdan boshqa hududga yoki bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'chishi.

Milya – 1609,3 metrga teng uzunlik o'lchovi.

Miniatyura – badiiy usullari o'ta nafis bo'lgan kichik hajmli tasviriy san'at asarlari. O'rta asr qo'lyozmalarini ziynatlash uchun yaratilgan nafis, mo'jaz rasmlar.

Missiya – yuksak burch, mas'uliyatli vazifa; bir davlatning ikkinchi davlatga maxsus topshiriq bilan yuborgan vakillari.

Mixxat – shumerlar va forslarning qadimgi yozuvi.

Moliya – maqsadli pul jamg'armalarini vujudga keltiruvchi, jamlash, taqsimlash va ishlatish bilan bog'liq munosabatlar.

Monarxiya – yakkahokimlikka asoslangan davlat tuzumi.

Monarxiya – cheklanmagan huquqqa ega bo'lgan yakka shaxs boshqaradigan davlat.

Monopoliya – iqtisodiyotning bir sohasidagi tanho hukmronlik.

Mozaika – bir xil yoki turli xomashyo (koshin, tosh, yog'och, marmar va metall) bo'laklaridan ishlangan tasvir, nAQShinkor mahobatli (monumental) bezak san'atining asosiy turlaridan. Asosan, binolar, amaliy san'at asarlarini bezashda qo'llaniladi.

Mulk senzi – saylovda qatnashish uchun fuqaroning ma'lum darajadagi mulkka ega bo'lishi.

Mulat – oq tanli va qora tanli kishilar o'rtasidagi nikohdan tug'ilgan avlod.

Mustamlaka – rivojlangan davlatlar tomonidan bosib olinib, ekspluatatsiya qilinuvchi mamlakat.

Muxolifat – amaldagi hukumat siyosatiga qarshi kuchlar.

Mo'tadil burjuaziya – burjuaziyaning murosaga intiluvchi, muammolarni tinch yo'l bilan hal etishga, hukmron tabaqalar bilan kelishishga intiluvchi qismi.

Nekropol – qabriston; maqbara.

Nevosiant – ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi savdogar. Bu atama ko'pincha chet ellar bilan savdo qiladigan savdogarlarga nisbatan ishlatilgan.

Nomlar – Misrdagi ilk shahar-davlatlar.

Nota – bir davlatning boshqa davlatga yozgan rasmiy murojaatnomasi.

Oligarxiya – iqtisodiy va siyosiy hukmronlikning bir hovuch ulkan sarmoya egalari qo'lida to'planishi.

Olimpiada o'yinlari – Pelepones yarimorolidagi Olimpiya shahrida to'rt yilda bir marta Zevs sharafiga bag'ishlab o'tkaziladigan umumyunon sport musobaqalari.

Oykumena – Yer yuzining odamlar yashaydigan qismi, chegarasi.

Panteizm – xudo bilan tabiat bir narsa, ular bir butunni tashkil qiladi deb hisoblovchi ta'limot.

Papirus – poyasining mag'zi yozuv yozishga material tayyorlash uchun ishlatiladigan qamish.

Parlament – saylov asosida tuziladigan qonun chiqaruvchi davlat organi.

Partizan – dushman bosib olgan joylarda ozodlik uchun ko'ngilli ravishda qurolli kurash olib boruvchi.

Patritsiylar – senatorlarning avlodlari.

Patent – biror-bir ixtironing davlat tomonidan e'tirof etilgani va ixtirochining o'z ixtirosiga olgan huquqini tasdiqlovchi hujjat; savdo yoki ishlab chiqarish huquqi yoxud imtiyozini beruvchi hujjat.

Petitsiya – oliy davlat yoki hukumat boshlig'iga ko'pchilik tomonidan birgalikda beriladigan rasmiy ariza, iltimosnoma.

Piktografik yozuv – ma'lumotning umumiy mazmunini rasm orqali yoki rasmlar ketma-ketligi orqali eslab qolish maqsadida tasvirlash. Bu yozuv neolit davridan beri ma'lum bo'lib, biron-bir tilning yozuv vositasi hisoblanmaydi.

Piramida – mahobatli tosh inshoot, fir'avnlar maqbarasi.

Plebeylar – oddiy xalq, shaharliklar, kambag'allar.

Protektorat – mustamlaka qaramligi shakllaridan biri. Protektorlik qiluvchi davlat o'ziga qaram davlatga ayrim ishlar bo'yichagina mustaqillik beradi. Ichki ishlar bo'yicha maslahatchi yoki rahbar tayinlaydi.

Qul – o'zga bir kishining mulki bo'lgan va ishchi kuchi sifatida ishlatiladigan erksiz odam («so'zlovchi mehnat quroli»).

Ritorika – she'r, badiiy asarlar yozishni, notiqlik san'atini, huquq asoslarini o'rganuvchi soha.

Rekrut – soni oldindan belgilab qo'yilgan dehqonlar va posad xonadonlaridan bittadan kishini soldatlikka olish.

Remonstratsiya – norozilik hujjati.

Renessans – G'arbiy Yevropada Uyg'onish davrini anglatuvchi atama.

Reparatsiya – xalqaro huquqda urushda ko'rilgan zararni to'la yoki qisman qoplash maqsadida yengilgan davlat tomonidan g'olib davlatga to'lanadigan tovon.

Respublika – fuqarolarning umumiy saylovi asosida boshqariladigan davlat.

Rezidensiya – chet davlat diplomatik vakillari qarorgohi.

Rezervatsiya – biror davlatda tub joy aholisining omon qolgan qismini zo'rlab joylashtirish uchun ajratilgan hudud.

Reaksiya kuchlari – ilg'or g'oyalarni ta'qib etuvchi, eski tartiblarni saqlab qolishga yoki ularni qayta tiklashga intiluvchi kuchlar.

Roman uslubi – G'arbiy Yevropa san'atida X asrdan XII – XIII asrlargacha hukm surgan badiiy uslub. Bu davr san'atida G'arbiy Yevropa madaniyati va me'morchiligida Qadimgi Rim me'morchiligi uslub va unsurlaridan keng foydalanilgan («roman» shartli bo'lib, «rimniki» manosini anglatadi).

Sadri a'zam – bosh vazir.

Segregatsiya – ayrim davlatlarda aholini majburan irqiy guruhlarga bo'lish.

Senyor – o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada ixtiyorida qaram dehqonlari va mayda feodal-vassallari bo'lgan yer egasi.

Senz – fuqarolarning alohida huquqlarini cheklaydigan shartlar.

Senzura – mavjud hokimiyat siyosatiga zid bo'lgan g'oya va ma'lumotlarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik yoki uni cheklash maqsadida matbuot ustidan o'rnatiladigan davlat nazorati.

Senat – Qadimgi Rimda respublika davrigacha urug' oqsoqollari yig'ini.

Separatizm – ajralib chiqishga intilish. Shuningdek, xalqaro huquqda ittifoqchi davlatlarning biri tomonidan ittifoqchilar ruxsatisiz va ular bilan kelishmay turib urushayotgan dushman bilan tuzilgan bitim.

Sex – xalfaning ustalikka bag'ishlov ziyofati nomi, keyinchalik kasb uyushmasi nomiga aylanadi.

Sfinks – jasadi sherniki va kallasi insonniki bo'lgan, piramidalarni qo'riqlovchi afsonaviy mavjudot.

Sindikat – bir turdagi mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar birlashmasi.

Sipohi – Buyuk Britaniya zobitlari rahbarlik qilgan hindlardan tuzilgan yollanma qo'shin.

Sivilizatsiya – jamiyat taraqqiyotining ancha yuksak darajasi.

Siyosiy mahbus – mavjud tuzumga yoki hukmdorga qarshiligi uchun qamoqqa tashlangan shaxs.

Siyosiy reaksiya – taraqqiyotga qarshi, eskirgan ijtimoiy tartibni saqlab qolish tarafdori bo'lgan siyosiy kuch.

Strateg – Afinaning harbiy boshlig'i.

Sudebnik – qonunlar to'plami.

Sulh – urush harakatlarini to'xtatish uchun tuzilgan bitim. Xalqaro shartnomalarning bir turi.

Surgun – jazo tariqasida boshqa yerlarga jo'natish.

Ta'sis majlisi – mamlakat hayotiga oid biror-bir muhim masalani hal etish uchun oliy vakolat berilgan va shu tufayli parlament vazifasini ham bajaruvchi majlis.

Termidor – yakobinchilar joriy etgan yangi kalendardagi iyul oyining nomi.

Termlar – Qadimgi Rim shahridagi jamoat hammomlari.

Tezis – bahsda yoki biror ta'limotni bayon qilishda aytiladigan asosiy fikr.

Tiran – mutlaq hokimiyatga ega bo'lgan hukmdor.

Tiyul – amaldorlarga xizmat vazifasini bajarish muddatiga yo shoh oldidagi alohida xizmatlari evaziga vaqtincha yoki umrbod beriladigan yer-mulk. Bunday yerlarni meros qoldirish mumkin bo'lmagan.

Tovar xo'jaligi – mahsulotlarni bozorda sotish yoki ayirboshlash uchun ishlab chiqaruvchi xo'jalik.

Traktat – xalqaro shartnoma, bitim.

Trest – ishlab chiqarish va savdoni o'zlaricha emas, markaziy boshqaruv qarori asosida olib boradigan korxonalar birlashmasi.

Ultimatum – bir davlatning ikkinchi davlatga qo'yadigan qat'iy talabi.

Universitet – fanning turli yo'nalishlarida mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o'quv yurti. Dastlabki universitetlar XII – XIII asrlarda Italiyada (Neapol, Bolonya), Ispaniyada (Sevilya, Valensiya), Fransiyada (Parij, Tuluza), Angliyada (Oksford, Kembridj) tashkil etilgan.

Uniya – yagona birlik.

Urbanizatsiya – jamiyat hayotida shaharlar rolining va shahar aholisi salmog'ining ortib borishi.

Utopiya – XVI asrda yashab ijod qilgan Tomas Mor yozgan «Utopiya» kitobining nomidan olingan. T.Mor xususiy mulkchilik bo'lmagan orol haqida yozgan va uni Utopiya deb atagan.

Varvar – dastlab yunon tilida so'zlashmaydigan har qanday chet ellik kishi; keyinchalik bu so'z madaniylashmagan odamlarga nisbatan ishlatiladigan bo'ldi.

Vassallik – G'arbiy Yevropa mamlakatlarida bir feodalning boshqa feodalga bo'ysunish tartibi.

Veto – davlat boshlig'ining biror qonunni yoki qarorni kuchga kiritishdan to'xtatib qo'yish huquqi.

Vijdon erkinligi – har bir fuqaroning xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqi.

Vikinglar – VIII asr oxiri – XI asr o'rtalarida Yevropa mamlakatlariga dengiz yo'li orqali savdo-sotiq uchun borgan, qaroqchilik va bosqinchilik

yurishlari qilgan skandinavlar. Rusda ularni varyaglar, G'arbiy Yevropada normanlar deb atashgan. IX asrda vikinglar Shimoli-Sharqiy Angliyani, X asrda esa Shimoliy Fransiyani bosib olganlar.

Vikup – krepostnoylikdan ozod bo'lgan dehqonning o'ziga berilgan yerni haq to'lash evaziga sotib olishi.

Vitse – o'rinbosar; vitse-qirol deyilganda qirol hokimiyati vakili tushuniladi.

Xolisa – davlat yerlari.

Xronologiya – asrlar, davrlar, vaqt o'lchovi haqidagi fan; turli-tuman voqealar sanasi xronologiya yordamida aniqlashtiriladi.

Yagona ichki bozor – bir xil o'lchov, og'irlik va yagona pul birligining qaror topganligi.

Yarmarka – ulgurji savdo bo'ladigan, turli mamlakat savdogarlari qatnashadigan, mol sotish va ayirboshlash joyi nomi.

Zikkurat – tepasida ibodatxonasi bo'lgan zinapoyali yirik minora.

O'rta tabaqa – aholining o'ziga to'q qatlami.

Shovinizm – irqiy ayirmachilik va milliy nizoni avj oldirishga urinuvchi o'taketgan millatchilik.

Chopper – uchi faqat bir tomondan o'tkirlangan tosh qurol.

Chorizm – Rossiya podshosining, monarxiyaning cheklanmagan hokimiyatiga asoslangan davlat tuzumi.

MUNDARIJA

I BO'LIM. QADIMGI DUNYO TARIXI

1-BOB. IBTIDOIY JAMOA TUZUMI 3
1.1. Eng qadimgi odamlar 3
1.2. Urug'chilik jamiyati 4
1.3. Eneolit va bronza asri 5
1.4. Ilk sivilizatsiyalarning vujudga kelishi 6
2-BOB. QADIMGI SHARQ MAMLAKATLARI 7
2.1. Qadimgi Misr 7
2.2. Misr va qo'shni xalqlar 8
2.3. Qadimgi Misr dini 10
2.4. Piramidalar va maqbaralar 11
2.5. Qadimgi Misr madaniyati 12
2.6. Mesopotamiya 14
2.7. Bobil podsholigi 17
2.8. Ahamoniylar davlati 21
2.9. Hindiston 23
2.10. Mil. av. 1-mingyillikda Hindiston 24
2.11. Xitoy 26
2.12. Mil. av. III – II asrlarda Xitoy 27
3-BOB. QADIMGI YUNONISTON 29
3.1. Antik tarixning boshlanishi 29
3.2. Qadimgi Yunoniston ravnaqi 30
3.3. Afina demokratiyasi 33
3.4. Yunon – fors urushlari 35
3.5. Yunonistonning Makedoniya tomonidan bosib olinishi 37
3.6. Qadimgi Yunoniston madaniyati 39
3.7. Olimlar va mutafakkirlar 42
3.8. Qadimgi Yunoniston asotirlari 43

4-BOB. QADIMGI RIM 44
4.1. Italiya va uning aholisi 44
4.2. Rim respublikasi 46
4.3. Rim respublikasi hayoti 47
4.4. O'rta yer dengizida hukmronlik uchun kurash 49
4.5. Qullar va gladiatorlar 51
4.6. Rim respublikasining qulashi 53
4.7. Rim va Parfiya 55
4.8. Rim imperiyasining yemirilishi 56
4.9. Qadimgi Rim madaniyati 57

II BO'LIM. O'RTA ASRLAR TARIXI

5-BOB. YEVROPA ILK O'RTA ASRLARDA 60
5.1. Xalqlarning buyuk ko'chishi. Uning oqibatlari 60
5.2. Franklar ijtimoiy tuzumi va davlatining vujudga kelishi 62
5.3. Franklar imperiyasi 65
5.4. Muqaddas Rim imperiyasi 68
5.5. Angliya V – XI asrlarda 70
5.6. Vizantiya imperiyasi 73
5.7. Slavyan davlatlarining tashkil topishi 76
5.8. Kiyev Rusi 78
5.9. VI – XI asrlarda Yevropa madaniyati 81
6-BOB. OSIYO XALQLARI ILK O'RTA ASRLARDA 83
6.1. Yangi dinning yuzaga kelishi 83
6.2. Arab xalifaligi. Unung ichki va tashqi siyosati 85
6.3. Xalifalik mamlakatlari madaniyati 87
6.4. Hindiston ilk o'rta asrlarda 89
6.5. Xitoy V – XI asrlarda 92
7-BOB. DUNYO XALQLARI O'RTA ASRLARNING RIVOJLANGAN DAVRIDA (XI – XV ASRLAR) 94

7.1. Yevropada o'rta asr shaharlarining shakllanishi 94
7.2. O'rta asrlarda tovar ishlab chiqarishning yuksalishi.
Bozorlar va yarmarkalar 98
7.3. Osiyo mamlakatlarining o'rta asr shaharlari.
Hunarmandchilik va savdo 100
7.4. Xristian cherkovi o'rta asrlarda 102
7.5. Salib yurishlari va uning maqsadlari 104
7.6. Dastlabki salib yurishlari 106
7.7. Keyingi salib yurishlari: natijalar, oqibat va yakun 108
8-BOB. G'ARBIY YEVROPADA MARKAZLASHGAN DAVLATLARNING TASHKIL TOPISHI 110
8.1. Fransiyaning markazlashuvi 110
8.2. General shtatlar. Toifaviy monarxiyaning
vujudga kelishi 112
8.3. Yuz yillik urush 113
8.4. Urushning keyingi davrlari.
Fransiya markazlashuvi yakunlari 115
8.5. Angliyada markazlashgan davlatning tashkil topishi 117
8.6. Angliya XIV – XV asrlarda 119
8.7. Yevropa madaniyati XI – XV asrlarda 120
8.8. G'arbiy Yevropada san'at va adabiyot.
Gumanizm g'oyasining shakllanishi 123
8.9. Germaniya XII – XV asrlarda 126
8.10. Rusda feodal tarqoqlik, uning oqibatlari 129
8.11. Rus yerlarining chet el bosqinchilariga qarshi kurashi 130
8.12. Rusning mo'g'ullar zulmidan ozod bo'lishi 132
9-BOB. OSIYO, AMERIKA VA AFRIKA XALQLARI RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA 133
9.1. Saljuqiylar va Usmonli turklar davlatlari 133
9.2. Mo'g'ullar davlati va uning bosqini 136
9.3. Oltin O'rda xonligi 138

9.4. Xitoy XIII – XV asrlarda 142
9.5. O'rta asrlarda Yaponiya 145
9.6. Hindiston rivojlangan o'rta asrlarda 146
9.7. O'rta asrlarda Amerika 148
9.8. O'rta asrlarda Afrika 152

III BO'LIM. DUNYO MAMLAKATLARI XVI ASRDAN XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA BO'LGAN DAVRDA

10-BOB. YANGI DAVRNING BOSHLANISHI 156
10.1. Buyuk geografik kashfiyotlar 156
10.2. Yevropaliklarning mustamlakalar uchun kurashi 158
10.3. Yangi davr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot 160
10.4. Yevropada reformatsiya. Germaniyada dehqonlar urushi 162
10.5. Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi 164
10.6. Fransiyada mutlaq monarxiya 166
10.7. XVI – XVII asrlarda Rossiya 168
10.8. Niderlandiya inqilobi 170
10.9. Yevropada uyg'onish davri madaniyati 172
10.10. Ilm-fan taraqqiyoti 174
11-BOB. YEVROPA MAMLAKATLARI XVI – XVIII ASRLARDA 176
11.1. Angliyada burjua inqilobining boshlanishi 176
11.2. Angliyada fuqarolar urushi 178
11.3. Angliyaning dunyoda birinchi sanoat mamlakatiga aylanishi 179
11.4. Amerika Qo'shma Shtatlarining tashkil topishi 181
11.5. Buyuk fransuz burjua inqilobi va monarxiyaning tugatilishi 184
11.6. Buyuk fransuz burjua inqilobi yakunlari. Tarixiy ahamiyati 186
11.7. XVI – XVIII asrlarda Germaniya imperiyasi 188
11.8. Rossiya imperiyasining tashkil topishi 190

12-BOB. XVI – XVIII ASRLARDA OSIYO MAMLAKATLARI 193
12.1. XVI – XVIII asrlarda Hindiston 193
12.2. XVI – XVIII asrlarda Xitoy 194
12.3. XVI – XVIII asrlarda Yaponiya 196
12.4. XVI – XVIII asrlarda Usmonli turklar imperiyasi 198
12.5. XVI – XVIII asrlarda Eron 199
13-BOB. XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA YEVROPA DAVLATLARI 202
13.1. XIX asrning 70-yillarigacha Buyuk Britaniya 202
13.2. Fransiyada birinchi imperiya 204
13.3. Fransiyada ikkinchi imperiya 207
13.4. XIX asrning 70-yillarigacha Germaniya va Italiya 209
13.5. XIX asrning 70-yillarigacha Rossiya 211
14-BOB. XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA AMERIKA, OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI 215
14.1. XIX asrning 70-yillarigacha Amerika Qo'shma Shtatlari 215
14.2. Lotin Amerikasi xalqlarining milliy ozodlik kurashi 216
14.3. XIX asrning 70-yillarigacha Hindiston 219
14.4. XIX asrning 70-yillarigacha Xitoy 220
14.5. XIX asrning 70-yillarigacha Yaponiya 223
14.6. XIX asrning 70-yillarigacha Usmonli turklar imperiyasi 224
14.7. XVI – XIX asrning 70-yillarigacha Afg'oniston 226
14.8. XIX asrning 70-yillarigacha Eron 229
14.9. XIX asrning 70-yillarigacha Afrika xalqlari 230
15-BOB. IJTIMOIY HARAKATLAR, ILM-FAN VA MADANIYAT RAVNAQI 233
15.1. Yevropada XIX asrning 70-yillarigacha ijtimoiy harakatlar 233
15.2. Ilm-fan taraqqiyoti 235
15.3. Adabiyot va san'at 237

IV BO'LIM. JAHON XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA

16-BOB. DUNYONING IJTIMOIY-IQTISODIY VA SIYOSIY MANZARASI 240
16.1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida kapitalizm taraqqiyotida yuz bergan tub o'zgarishlar 240
16.2. Industrial sivilizatsiya 243
17-BOB. G'ARBIY YEVROPA DAVLATLARI XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA 245
17.1. Fransiya XIX asr oxiri – XX asr boshlarida 245
17.2. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Germaniya 253
17.3. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buyuk Britaniyaning siyosiy va iqtisodiy ahvoli 259
18-BOB. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA AMERIKA DAVLATLARI 264
18.1. Amerika Qo'shma Shtatlari 264
18.2. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Lotin Amerikasi davlatlari 270
18.3. Lotin Amerikasining boshqa davlatlari 273
19-BOB. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA VA BOSHQA YEVROPA DAVLATLARI 275
19.1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida podsho Rossiyasining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli 275
19.2. Rossiyaning tashqi va ichki siyosatidagi o'zgarishlar 277
19.3. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Avstriya-Vengriya imperiyasi 282
19.4. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Italiya 286
19.5. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Bolqon davlatlari 288
20-BOB. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA OSIYO VA AFRIKA DAVLATLARI 292
20.1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yaponiya 292

20.2. XIX asr oxirida Xitoy 295
20.3. XX asr boshlarida Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy
va siyosiy ahvoli 297
20.4. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Hindiston 299
20.5. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Eron 302
20.6. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Afg'oniston 305
20.7. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiya 307
20.8. Shimoliy Afrika mamlakatlari 310
20.9. Tropik va Janubiy Afrika mamlakatlari 312
21-BOB. BIRINCHI JAHON URUSHI 315
21.1. Birinchi jahon urushining boshlanishi 315
21.2. 1916 – 1917-yillardagi urush harakatlari 319
21.3. Birinchi jahon urushi yakunlari va oqibatlari 321
22-BOB. XIX ASR OXIRI – XX ASR
BOSHLARIDA FAN VA MADANIYAT 323
22.1. Moddiy ishlab chiqarishda texnika va fan taraqqiyoti 323
22.2. Aniq va tabiiy fanlar rivoji 328
22.3. Xalq ta'limi. Gumanitar fanlar. San'at 331
22.4. Adabiyot. Tanqidiy realizm 334

V BO'LIM. DUNYO IKKI JAHON URUSHI ORALIG'IDA

23-BOB. G'ARB MAMLAKATLARI 339
23.1. Xalqaro munosabatlar 339
23.2. Sovet davlati 350
23.3. Germaniya 361
23.4. Fransiya 370
23.5. Buyuk Britaniya 376
23.6. Italiya va Ispaniya 384
23.7. Amerika Qo'shma Shtatlari 394
23.8. Lotin Amerikasi davlatlari 400

24-BOB. OSIYO VA AFRIKA DAVLATLARI 408
24.1. Xitoy va Hindiston 408
24.2. Turkiya. Eron. Afg'oniston 416
24.3. Yaponiya 421
24.4. Arab davlatlari 425
24.5. Tropik va Janubiy Afrika davlatlari 433
25-BOB. IKKINCHI JAHON URUSHI 435
25.1. Ikkinchi jahon urushi va uning yakunlari 435

VI BO'LIM. JAHON MAMLAKATLARI XX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XXI ASR BOSHLARIDA

26-BOB. XALQARO MUNOSABATLAR. G'ARB DAVLATLARI TARAQQIYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 444
26.1. Ikkinchi jahon urushidan so'ng dunyo siyosati va hayotidagi o'zgarishlar 444
26.2. Ikkinchi jahon urushidan keyin G'arb davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti 453
27-BOB. G'ARB DAVLATLARI 457
27.1. Amerika Qo'shma Shtatlari 457
27.2. Lotin Amerikasi davlatlari 463
27.3. Buyuk Britaniya 467
27.4. Fransiya 472
27.5. Germaniya Federativ Respublikasi 476
27.6. Italiya Respublikasi 481
27.7. Sovet davlati 485
27.8. Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropa davlatlari 491
28-BOB. OSIYO VA AFRIKA DAVLATLARI 501
28.1. Yaponiya 501
28.2. Xitoy Xalq Respublikasi 506

28.3. Hindiston Respublikasi 510
28.4. Pokiston Islom Respublikasi 514
28.5. Turkiya Respublikasi 519
28.6. Eron Islom Respublikasi 522
28.7. Afg'oniston 526
28.8. Osiyoning yangi industrial davlatlari 531
28.9. Arab davlatlari 537
28.10. Tropik va Janubiy Afrika davlatlari 548
29-BOB. MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI 551
29.1. Moldova, Ukraina, Belorussiya va Kavkazorti Respublikalari mustaqilligining tiklanishi va rivojlanishi 551
29.2. Kavkazorti Respublikalari mustaqilligining tiklanishi va rivojlanishi 558
29.3. Markaziy Osiyo mamlakatlari taraqqiyot yo'llarining turli-tumanligi 565
29.4. Boltiqbo'yi Respublikalari 578
30-BOB. XX ASR – XXI ASR BOSHLARIDA FAN VA MADANIYAT TARAQQIYOTI 583
30.1. Fan va madaniyat 583

Ilovalar 595
Qisqacha izohli lug'at 617

Izoh va qaydlar uchun

Izoh va qaydlar uchun

Ilmiy-ommabop nashr

JAHON TARIXIDAN UNIVERSAL QO‘LLANMA

To‘plab nashrga tayyorlovchilar:
Dilshodbek O‘ROQOV, Abdulla SHAROPOV

Muharrir: Shahnoza TO‘RAXO‘JAYEVA
Musahhih: Marhabo JO‘RAYEVA
Badiiy muharrir: Feruza NAZAROVA
Texnik muharrirlar: Alimardon AQILOV,
Xurshid IBROHIMOV

7000 сўм.

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009
Terishga berildi: 04.04.2013-y.
Bosishga ruxsat etildi: 14.06.2013-y.
Gazeta qog'ozi. Qog'oz bichimi: 60x84 $^1/_{16}$.
Arial garniturasi. Ofset bosma.
Hisob-nashriyot t. 38,83. Shartli b.t.: 37,2.
Adadi: 3000 nusxa.
Buyurtma № 135.

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi.
100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20^A-mavze 42-uy.

Tel.: (+998 71) 217-16-77
e-mail: akademnashr@mail.ru
web-site: www.akademnashr.uz

«KO'HI NUR» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri Bunyodkor shohko'chasi 44-uy.